

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Umarov Sardor Yakubovich

QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHINING ASOSIY JIHATLARI	12-16
--	-------

Atamuratova Dilafroz Rashidovna

XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASINING ILK MATBUOTI: “INQILOB QUYOSHI”	17-20
--	-------

Mansurov Ulug‘Bek

XX ASRNING 20-50-YILLARIDA NAMANGAN SHAHRIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR	21-24
--	-------

Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandarova

XORAZMDAGI JADID MAKTABLARIGA OID TA‘LIM TASHKILOTLARI VA JAMIYATLARI	25-31
--	-------

Norov Shuhrat, Turatosheva Sadoqat

O‘ZBEKISTON YOSHLAR SIYOSATINING IJTIMOY, MADANIY VA TA‘LIMY SOHALARDAGI FALSAFIY ASOSLARI VA UNING MA‘NAVYIY YETUK YOSHLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	32-38
---	-------

Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li

QUYI AMUDARYO VA BUXORO-QORAKO‘L HUDUDI MANZILGOHLARINING MODDIY ASHYOLARDA AKS ETISHI	39-42
---	-------

Quranboyeva Sevinchoy

SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA XORAZM VILOYATI AHOLISINING UY-JOY QURILISHIDA IJTIMOYIY HAYOTNING AKS ETISHI (1945-1985-YILLAR MISOLIDA)	43-46
---	-------

Mamajanov Azizbek

SOVET HUKUMATI AGRAR SIYOSATINING O‘ZBEKISTON SSR IRRIGATSIYA TIZIMIGA TA‘SIRI (1950-1990-YILLAR).....	47-52
---	-------

Baxritdinov Jasurbek

AKADEMIK ABDULAHAD MUHAMMADJONOVNING O‘ZBEKISTONDA TARIX VA ARXELOGIYA FANLARI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI	53-57
---	-------

Aliqulov Ramazon

TOSHKENT VA FARG‘ONA VODIYSIDAGI DEHQON, CHORVADOR VA HUNARMAND AHOLINING MADANIY, IJTIMOYIY, SIYOSIY, IQTISODIY ALOQALARNING O‘ZBEK XALQINING ETNOGENEZIDAGI O‘RNI (QANG‘LI QABILASI MISOLIDA)	58-66
---	-------

Abduraxmonov Adxamjon Soxodilla o‘g‘li

1946–1990-YILLARDA QO‘QON SANOATINING TRANSFORMATSIYASI	67-74
---	-------

Tashqo‘lova Dilnoza Turaboy qizi

YANGI O‘ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKALARI IQTISODIY HAMKORLIGIDA “BIR MAKON-BIR YO‘L” TASHABBUSINING AHAMIYATI	75-78
---	-------

Jabborov Qaxramon Jaxongir o‘g‘li

JULIYA KOHENNING XVIII-XX ASRLARDA SEFARD YAHUDIYLARINING IJTIMOYIY HOLATIGA OID TADQIQOTLARI TAHLILI	79-83
--	-------

<i>Dilfuza Muxammadinova Nasretdinova</i> TA'LIMNING TARAQQIYOT YO'LI	84-89
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Ollanazarov Bekmurod</i> INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION FAOLLIKNI BOSHQARISH: NAZARIYA, AMALIYOT VA XORIJIY TAJRIBA	90-100
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i> O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI	101-107
<i>Tangirkulov Bekzod</i> TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY RESURLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	108-115
<i>Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li</i> TRANSPORT TIZIMINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI TIZIMI	116-125
<i>Ergashev Uyg'un Jabborovich</i> KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVI UCHUN ELEKTRON MANBASINING SHAKLLANISHI, SOLIQ TIZIMIDAGI QO'LLANILAYOTGAN DASTURIY MAHSULOTLARNING AHAMIYATI	126-131

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Nosirxo'jayeva Gulnora</i> AXBOROT VA "OMMAVIY MADANIYAT" XURUJINING DOLZARB MUAMMOLARI	132-136
<i>Panjiyev Suhrob</i> HAQIQATNING KOGERENTLIK XUSUSIYATLARINING YANGILANISHI	137-143
<i>Gadoeva Lobar</i> IJTIMOIY-FALSAFIY TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI .	144-148
<i>Djurayeva Nigora</i> SYSTEMIC ANALYSIS OF THE FORMATION OF COGNITIVE ASPECTS OF CONSCIOUSNESS OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA	149-158
<i>Юлдашев Фаррух Абдурахманович</i> ПОНЯТИЕ ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМА И ЕГО СТЕПЕНИ ИССЛЕДОВАНИЯ	159-167
<i>Mengliqulov Umid Mamadiyevich</i> MILLIY IDENTIFIKATSIYA MASALASINING TARIXIY-DINAMIK VA ZAMONAVIY KONTEKSTDA TAHLILI	168-173
<i>To'xtarov Ismatulla Murodovich, Ergashev Ulug'bek Adxamovich</i> MAG'RIBNI MAFTUN AYLAGAN MUTAFAKKIR	174-178
<i>Toirov Ilhom</i> IJTIMOIY-MADANIY TARAQQIYOT: SIVILIZATSION ASOSLAR VA YO'NALISHLAR	179-183
<i>Farxodjonova Nodira, Ergashev Ibodulla</i> GLOBALASHUV SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI SAQLASH VA JAMIYAT BARQARORLIGI: JADIDLAR MEROSIGA IJTIMOIY-FALSAFIY NAZAR	184-188

<i>Ergashev Ozodbek Baxodurovich</i> YUNON MANTIQ ILMINING ARAB TILIGA TARJIMA QILINISHI VA ISLOM FALSAFASIGA KIRIB KELISHI	189-194
<i>Fayziyev Xurshid</i> VOLTER VA BAG'RIKENGLIK GENEZISI	195-199
<i>Sattorova Shalola</i> MIRZO ABDULQODIR BEDILNING ASOSIY FALSAFIY G'OYALARI	200-203
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i> TADBIRKOR VAZIFALARI VA SHAXSIY SIFATLARI	204-207
<i>Sadullayev Sardor Saydiganiyevich</i> INSON VA SAN'ATNING ARTUR SHOPENGAUER TA'LIMOTIDA ESTETIK TAFAKKUR PRIZMASIDA TAHLILI	208-215
<i>Vaxobova Dilfuza Roziqovna</i> ABU ABDULLOH RUDAKIY ADABIY-FALSAFIY MEROSINI O'RGANISHGA SINERGETIK USULDA YONDASHUV	216-219
<i>Yuldashxodjaev Haydar Hashimxanovich</i> MUSOXONXOJA DAHBIDIY ASARLARIDA USTOZNING SHOGIRDNI TANLASH VA UNI TARBIYALASHDAGI FALSAFIY G'OYALARI	220-224
<i>Umurzaqov Axmadjon Maxamadovich</i> INSON E'TIQODIDAGI O'ZGARISHLARNING METODOLOGIK ASOSLARI	225-231
<i>Teshayeva Gulchehra Murodovna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXSNING RAQAMLI JAMIYATGA TRANSFORMATSIYALASHUVI	232-237
<i>Yusupova Ranaxon</i> IJTIMOIY MUHIT TEXNOGEN SIVILIZATSIYA VA AHLOQ MASALALARI	238-241
<i>Sharipov Abdukhakimjon Ziyotdinovich</i> SHARQ VA G'ARB TAFAKKURIDA FAROVON HAYOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TAHLILI	242-246
<i>Sultonova Shaxnoza</i> MUNAVVAR QORI MA'RIFIY-AXLOQIY QARASHLARINING FALSAFIY AHAMIYATI	247-251
<i>Dusmanov Sherzod Abduvaliyevich</i> JINOYATCHILIK – YOSHLAR AXLOQIY-MA'NAVIY BUZILISHLARINING MANBAI VA HOSILASI SIFATIDA	252-256
<i>Rajabboy Hasanov</i> FAROVON HAYOT MEZONI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI	257-261
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Boynazarov Zokir</i> TARIXIY YOZMA MANBALARDA SOMATIZMLAR VA INSON MANZARASI	262-274
<i>Yeshboyeva Matluba</i> MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARI TARJIMALARIDA IBORALARNING BERILISHI ("KO'HNA QUDUQ" DOSTONI MISOLIDA)	275-279

<i>Azizaxon Rasulova</i> SINTAKTIK MAYDON KONSEPSIYASI VA UNING LINGVISTIK TALQINI	280-284
<i>Mamadkulova Kamila Abdukhalikovna</i> THE IMAGE OF A LITERARY HERO OF THE "LOST GENERATION" IN THE WORK OF E.M. REMARQUE	285-290
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> ITALYAN VA O'ZBEK MULOQOT MATNI JARAYONIDA MULOQOTNING O'RNI VA AHAMIYATI. ITALYAN TILI VA O'ZBEK TILI VERBAL MULOQOT MATNIDA O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI	291-296
<i>Жабборовва Муслима Тохировна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ	297-301
<i>Xudoyberdiyeva Oyjamol, Jo'rayeva Komila</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QADRIYATLAR IFODASI VA ULARNING TARJIMA MUAMMOLARI	302-306
<i>Ostonova Ramziya</i> LEXIC-SEMANTIC FIELD OF CONSTRUCTION TERMINOLOGY	307-311
<i>Qarshiyeva Tamara, Nabiyeva Sharifa, Samadova Charos va G'aniyeva Inobat</i> AMERIKA VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA «UYG'ONISH VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH» TAMOIYILLARINING QIYOSIY TAHLILI	312-316
<i>Sumbul Muxammedova</i> XORAZM DOSTONLARIDAGI AYRIM HIKMATLI JUMLALARNING SODDA GAP TAHLILI BO'YICHA IZOHI	317-322
<i>Abduqodirova Zebo Qodirovna</i> XXI ASR TILSHUNOSLIGIDA YANGI YO'NALISH SIFATIDA EKOLINGVISTIKA	323-331
<i>Murtozayeva Zarina Muxtor qizi</i> BADIY ADABIYOTLARDA KONSEPT VA KONSEPTASFERA FAOLLASHUVINING NAZARIY ASOSLARI	332-335
<i>Abiyatova Muslima Maratovna, Abdirasulov Bahodir</i> AUDIOVISUAL TRANSLATION: SUBTITLING AND DUBBING CHALLENGES	336-343
<i>Kayimova Mohinur Salokhiddin kizi, Bakiyev Faxriddin</i> COMPLEXITY OF CULTURE-SPECIFIC UNITS AND SEMANTIC AMBIGUITIES IN TRANSLATION	344-350
<i>Rasulova Nigora Kurbonovna</i> MASHRAB IJODIDA MULAMMA' ASARLAR TADQIQI	351-356

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Djumaniyozova Dilfuza, Matnazarova Muhayyo</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARINI HAL QILISHDA YURIDIK KLINIKANING AHAMIYATI	357-362
<i>Mirzaraximov Baxtiyor, Shokirov Boburjon</i> KIBERHUJUMLAR NATIJASIDA SHAXSIY VA DAVLAT SIRLARIGA XAVF SOLISH	363-367

<i>Baymurotov G'ayrat Panjiyevich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUNCHILIK TASHABBUSI HUQUQINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	368-376
<i>Esanova Shaxnoza</i> JINOYATGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA SUIQASD QILGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKKA OID RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI	377-383
<i>Abduvaliyev Murodillo</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUN BO'YICHA MEROS HUQUQINI TARTIBGA SOLISHNING XUSUSIYATLARI	384-388
<i>Koryog'diyev Bobur Umidjon o'g'li</i> TASVIRGA BO'LGAN HUQUQ: ANGLIYA VA NYU-YORK QONUNCHILIGI QIYOSIY TAHLILI	389-395
<i>Ismaylov Raxat</i> HUQUQNI SHARHLASH JARAYONINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Nabiyev Muhridin</i> INSON HUQUQLARI BO'YICHA MILLIY INSTITUTLAR FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI	403-406
<i>Kabulov Xojabay, Dauletbaeva Aynur</i> SHAXS SHA'NI VA QADR-QIMMATINING HUQUQIY HIMOYASI VA UNI BUZGANLIK UCHUN HUQUQIY JAVOBGARLIK ASOSLARI	407-412
<i>Utebaev Salamat, Kalbaeva Eldora</i> VOYAGA YETMAGAN YOKI MEHNATGA LAYOQATSIZ SHAXSLAR MODDIY TA'MINOTINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK	413-418
<i>Begatov Jasurbek Numonjanovich</i> MEHNATGA OID MUNOSABATLARDI KAMSITISH UCHUN HUQUQIY JAVOBGARLIK MASALALARI	419-432
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	433-441
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Gayupova Saodat Xamidovna</i> INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA ZAMONAVIY TALABA SHAXSINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	442-446
<i>Akimova Jumaxan, Isakova Malika</i> FIZIKA VA ASTRONOMIYANI O'QITISHDA STEAM TA'LIM TIZIMINING AHAMIYATI ...	447-452
<i>Абдуллаева Мавжуда Эргашевна</i> СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ПРОФИЛАКТИКЕ РАСПРОСТРАНЕННЫХ ДЕТСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ: МЕТОДИКА ПРИМЕНЕНИЯ ПРОГНОСТИЧЕСКИХ КАРТ	453-460
<i>Mirkasimova Zilola Alisherovna</i> MULTIMEDIA – MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILINGVAL KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA	461-464

<i>Xidirova Durдона Muxtorovna</i> SINERGETIK TA'LIM VA O'QUVCHI-QIZLARNI IJTIMOIIY-MADANIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	465-469
<i>Yazdonov Ulug'bek, Rashidova Madina</i> YOSHLARDA KASBIY BILIM VA KO'NIKMANI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIIY KONSEPSIYALARDA ILGARI SURILAYOTGAN TA'LIMOTLAR	470-479
<i>Elmuratova Zamira</i> INTERACTIVE METHOD IN TEACHING ENGLISH	480-484
<i>Karimova Nilufar Ummatqul qizi</i> SOFT SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES: BASES OF IMPROVEMENT OF STUDENTS' INTERPERSONAL AND COGNITIVE SKILLS	485-490
<i>Adilov Shodiyor</i> MUHANDISLIK GRAFIKASI VA DIZAYN FANLARINI INTEGRATSIYALASHDA "G'OYALARNING LOYIHALA" USULI	491-496
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i> ПОНЯТИЕ «ДУХОВНЫЙ ГУМАНИЗМ» КАК ОСНОВОПОЛАГАЮЩЕЕ КАЧЕСТВО ГУМАННОГО ПЕДАГОГА	497-500
<i>Abdurazzaxov Abdurasul</i> SPORT-SOQ'LOMLASHTIRISH TURIZMI ASOSIDA TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	501-506
<i>Ergashev Tolif</i> O'QUVCHILARNING KARTOGRAFIK BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKA VA GEOGRAFIYA FANLARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH	507-515
<i>Gaziev Baxromjon</i> CHAVANDOZLARNING JISMONIY VA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	516-523
<i>Madaminova Mavjuda Erkinovna</i> TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	524-529
<i>Kamalova Dilnavoz, Sattorova Aziza</i> FIZIKAVIIY MAYATNIK ORQALI OG'IRLIK KUCHI TEZLANISHINI ANIQLASHDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	530-535
<i>Sobirova Saida Otabekovna</i> KASBGA YO'NALTIRISHNING ZAMONAVIIY MODELLARI	536-542
<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Sotiboldiyev Amiriddin, Abdumutalibov Oyatillo</i> MUHANDISLIK GRAFIKASI VA TASVIRIIY SAN'AT, ARHITEKTURA VA DIZAYN (TEXNIK VA SAN'AT) FANLARINI O'ZARO INTEGRATSIYALASH	543-546

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 16 May 2025**Accepted:** 1 June 2025**Published:** 15 June 2025*Article / Original Paper***MAIN ASPECTS OF THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF REUNIFIED GERMANY****Umarov Sardor Yakubovich**

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Doctor of Philosophy in Historical Sciences, Associate Professor

E-mail: sardor.umarov.2013@mail.ru

Abstract. The article analyzes the economic changes in the reunified German state after reunification, the country's import and export indicators, and the positive and negative consequences of reunification based on archival sources.

Keywords: Germany, economic changes, mark stabilization, import growth, global financial crisis, G. Kohl.

QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHINING ASOSIY JIHATLARI**Umarov Sardor Yakubovich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada qayta birlashgan Germaniya davlatining birlashganidan so'ng iqtisodiy o'zgarishlar, mamlakatning import va eksport ko'rsatgichlari hamda birlashuvning ijobiy oqibatlari bilan birga salbiy oqibatlari arxiv manbalari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Germaniya, iqtisodiy o'zgarishlar, marka barqarorlashuvi, import o'sishi, jahon moliyaviy inqirozi, G.Kol.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N01>

Kirish. Qayta birlashgan Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi o'zining mashhur barqarorligini yo'qota boshladi. Birlashgandan so'ng darhol mamlakatdagi va chet eldagi ko'plab mutaxassislar iqtisodiyotning keskin va uzoq muddatli tiklanishiga umid qilishdi. Biroq kutilgan iqtisodiy yuksalish o'rniga Germaniya 1992-yil oxiri va 1993-yilning birinchi yarmida chuqur iqtisodiy inqirozga uchradi. Yangi yerlarning hisobiga Germaniyada import oshib bordi, asosiy mablag'larning mamlakat sharqiy yerlarini tiklashga va u yerdagi ichki ehtiyojni qoplash uchun importni oshirishga berilgani hisobiga eksport kamayib bordi. Iqtisodiyotdagi bu holat 1993-yil oxiriga qadar davom etdi. 1994-yilga kelib jahonda va Germaniyada iqtisodiy o'sish jarayonlari sodir bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar –tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan

Muhokama va natijalar. Germaniyaning qayta birlashishi uning iqtisodiy qudratining miqdoriy o'sishiga sabab bo'lib, 1991-yilgi GATT (GATT — General Agreement on Tariffs and Trade — bu mamlakatlar o'rtasidagi savdo to'siqlarini kamaytirish maqsadida 1947-yilda tuzilgan xalqaro shartnomadir. 1995-yilda GATT o'rnini Jahon savdo tashkiloti (JST) egalladi. JST GATT funksiyalarini o'z zimmasiga oldi va savdo masalalarini kengroq qamrab olish uchun ularni kengaytirdi) ning dastlabki hisob-kitoblarida Germaniya yana eng yirik eksportchi davlat ekanligi ta'kidlandi. Shu bilan birga bu vaqtda Germaniya asosiy importyor davlatga ham aylandi. Germaniyaning eksportdagi mustahkam o'rni ko'p jihatdan 1990-yilda nemis markasining AQSh dollariga nisbatan qimmatlashgani (+16,5%) bog'liq edi [2]. GATT hisob-kitoblariga ko'ra 1990-yilda Germaniya tovarlari eksporti 421 mlrd. AQSh dollari: jahon eksportidagi foiz ulushi 12,1 %ni, Germaniya importi 356 mlrd. AQSh dollari: jahon importidagi ulushi 9,9 % ni tashkil qildi [2]. Bu esa qayta birlashgan Germaniyaga jahon savdosida AQShdan keyin ikkinchi, shuningdek, Yevropaning eng yirik bozoriga aylanishga imkon berdi. Shu bilan birga bu vaqtda sharqiy yerlardagi 1990-yilgi ko'rsatgichlarga qaraydigan bo'lsak, Sharqiy Germaniyaning eksporti 1990-yilda 7,4 % ga, importi esa 44,5 % ga qisqardi [2]. Bu birinchi navbatda konvertatsiya qilingan valyutaga o'tish va Sharqiy Yevropada O'zaro iqtisodiy Yordam Kengashi (O'YK) savdosining qulashi bilan bog'liq edi. AQSh bilan savdoda marka 16% ga sezilarli darajada oshishiga qaramay, G'arbiy Germaniyaning AQShdan importi 3,4 % ga kamaydi, eksporti esa 0,5 % ga o'sdi. Ushbu rivojlanish asosan narxga bog'liq bo'lib, dollarning qadrsizlanishi Germaniya importining arzonlashishiga va eksport narxlarining oshishiga olib keldi. G'arbiy Germaniyaning hamkor davlatlari bilan importi ham sezilarli darajada 18% ga o'sdi. Bu mamlakatlarga eksport esa 6,3 ga qisqardi. Bu asosan mavjud xorijiy valyuta taqchilligi tufayli sodir bo'ldi [2].

1991-yil yanvar va fevral oyidagi birlashgan Germaniyaning daromadlariga qaraydigan bo'lsak, 1981-yildan beri birinchi marta joriy hisobning pasayishi kuzatildi (yanvarda 2,1 mlrd DM, fevralda 1,6 mlrd. DM.) [3:2]. Bu jarayonda quyidagi alohida omillarni hisobga olish kerak. Xususan, 1991-yil fevral oyida Fors ko'rfazi urushi munosabati bilan federal hukumat tomonidan urush xarajatlarining oshirilishi, jahonda ham iqtisodiy ko'rsatgichlarning pasayishi. Jumladan Yaponiyada ham YaIM sezilarli darajada pasaydi. 1989-yilda Yaponiyaning YaIM 57,2 mlrd. AQSh dollari bo'lgan bo'lsa, 1990-yilda 35,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. AQShda ham joriy operatsiyalar taqchilligi sezilarli darajada kamaydi. 1989-yilda 110 mlrd. AQSh dollaridan 1990-yilda 99,3 mlrd. AQSh dollariga kamaydi [1:2]. Birlashuvdan keyingi, 1991-yildagi birinchi eksport va import ko'rsatkichlari ham Yaponiyadan Germaniya importining kuchli o'sishi (24,6 % ga) ni va Germaniyaning Yaponiya bilan savdosida nemis eksportining pasayishi (18% ga) ni ko'rsatdi [3:3]. Biroq bu davrda AQSh bilan savdoda, Dm sezilarli darajada oshishiga qaramay G'arbiy Germaniyaning AQShdan importi 3,4 % ga kamaydi. AQShga eksport bir oz 0,5 % ga oshdi. Ushbu o'sish qisman narx ta'siriga bog'liq bo'lishi mumkin, chunki dollarning devalvatsiyasi Germaniya importi narxining pasayishiga va eksporti narxining oshishiga olib keldi.

XX asrning 90-yillarning boshida Sharqiy Yevropa va rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida G'arbdagi yetakchi mamlakatlar ham moliyaviy muammolarga duch keldi. Germaniya iqtisodiyoti ham og'ir ahvolda edi. Moliyaviy muammolarning ortib borishi yuqori tejashni talab qildi. Shu boisdan ham Germaniya joriy YaIMning kamayishi Germaniyadan sof kapital eksportining qisqarishiga olib keldi. Umuman olganda, Germaniya Federativ Respublikasidan

sof kapital eksporti 1990-yilda sezilarli darajada kamaydi (1990-yilda 90 mlrd. DM, 1989-yilda 128 mlrd. DM) [1:4]. Sobiq GDRni qayta tiklashning yuqori xarajatlari sof kapitalni chetga chiqarishni kamayishiga sabab bo'ldi.

Germaniyaning joriy hisob profitsitning kamayishi, 1990-yil 1-iyuldan boshlab sharqiy yerlarning kuchli talabi bilan bog'liq bo'lmagan holda asosan, importning keskin o'sishi bilan bog'liq edi. Sharqiy yerlarning qo'shilishi natijasida iqtisodiy ahvol va daromadning ko'payishi bilan birga kelib chiqqan "ichki talab" ham Germaniya Federativ Respublikasiga xorijiy yetkazib berishning ko'payishiga olib keldi. Ayirboshlashda markaning barqarorlashuvi importning yuqori o'sishini yanada kuchaytirdi.

Germaniya importining kuchli sur'atda ko'payishi G'arbiy Yevropaning sanoatlashgan mamlakatlariga foyda keltirdi. G'arbiy Germaniyaning Yevropa Ittifoqi hududidan importi 1990-yilda 10,8 % ga, O'YK hududi mamlakatlaridan 9,6% ga tezlik bilan o'sdi. Ayrim mamlakatlar misolida qaraydigan bo'lsak, Ispaniya bilan 23,5 % ga, Italiya bilan 14,7 % ga, Belgiya bilan 13 % ga oshdi. Eksport esa bu vaqtda bor yo'g'i 1,5 % ga o'sdi. G'arbiy Germaniya eksporti ko'p yillar davomida birinchi marta Yevropa mamlakatlariga bir oz pasaydi: Yevropa mamlakatlariga nisbatan 0,7 % ga, O'YK mamlakatlariga nisbatan 0,1 % ga [4:2]. Import 1991-yilda o'sishda davom etdi. 1991-yilning birinchi uch oyida import qiymati 430,4 mlrd.DM va eksport qiymati 438,7 mlrd. DM ni tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan import 16% ga oshdi, eksport esa 3,6 foizga kamaydi [5:3]. Germaniyaning Yevropa ittifoqi davlatlaridan importi 1991-yilning birinchi yarmida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,7 % ga o'sdi. Bu barcha sanoatlashgan G'arb mamlakatlari importining 50 % dan ortig'ini tashkil qildi. Xuddi shu davrda import Ispaniya bilan 43,5 % (umumiy nemis importidagi ulushi 2,7 %) ga, Daniya bilan 31,3 % (ulushi 2 %) ga, Fransiya bilan 28,2 % (ulushi 12,5 %) ga, Belgiya va Lyuksemburg bilan 27,1 % (ulushi 7,9 %) ga va Niderlandiya bilan 7,9 % ga oshdi. AQSh va Yaponiyadan import ham bu davrda mos ravishda 10,8 % (ulushi 6,7 %) va 23,3 % (ulushi 6,1%) ga o'sdi [6:3].

Germaniya YaIMning kamayishining bir necha sabablari bor edi. 1990-yilda jahon iqtisodiyotining, xususan, AQSh va ayrim Yevropa davlatlarida sekinlashuvi, muhim jahon savdo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy tendensiyalarning kuchli farqlanishi hamda Germaniya va Yaponiyada davom etayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar edi.

1991-yilning birinchi yetti oyida joriy operatsiyalar hisobi mamlakatda 25,9 mlrd. DM taqchilikni ham ko'rsatdi [7:1]. Kamomad Federal hukumatning yil boshida Fors ko'rfazi urushi xarajatlariga qo'shgan hissasi, Germaniyaning YI byudjetiga qo'shgan ulushi va Sovet Ittifoqiga va qo'shinlarni olib chiqish uchun to'langan yordamni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Germaniya Federativ Respublikasi va boshqa ko'pgina G'arb sanoati rivojlangan mamlakatlar, shuningdek, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi kuchli iqtisodiy tafovutni hisobga olish kerak, bu esa eksportning sezilarli darajada zaiflashishiga olib keldi. Importga nisbatan Germaniya eksporti 1991-yilning birinchi yarmida oldingi yilga nisbatan 5,3% ga kamaydi. Bu ham joriy hisob balansining yomonlashishiga ta'sir etdi [6:4].

G'arbdagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiy inqirozining eng yuqori nuqtasi 1993-yilga to'g'ri keldi, unda YaIM o'sishi 1,1% ni tashkil etdi. Mashinasozlikning yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishning pasayishi 20-25% ni tashkil etdi. Ishsizlikning turg'un o'sishi boshlandi, u 1991-yilda 5,5% ni, 1993-yilga kelib esa 8,9% ni tashkil etdi. Bunday jiddiy iqtisodiy inqiroz sabablari qisman birlashish muammolari bilan bog'liq edi. Sharqiy Germaniya iqtisodiyotini

yangilash dasturlarini amalga oshirish G'arbiy Germaniya iqtisodiyoti barqarorligi poydevori bo'lgan moliyaviy tizimning zo'riqishiga sabab bo'ldi. Byudjet muvozanati izdan chiqqan edi. Bu holat keyinchalik ham, butun 90-yillar davomida ham saqlanib qoldi. Davlat qarzlari o'sib bordi, inflyatsiya belgilari paydo bo'la boshladi. Hukumat soliqlarni va banklardagi foiz ko'rsatkichlarini oshirishga majbur bo'ldi. Ammo bu tadbirlar moliyaviy yo'qotishlarni kam miqdorda qoplab, ishbilarmolik faoliyatini pasaytirdi va ishlab chiqarishning qisqarishini yanada chuqurlashtirdi.

1993-yilgi iqtisodiy inqiroz Germaniya ishlab chiqarish va bandlikning umumiy pasayishiga, Germaniya iqtisodiyotining ayrim tarmoqlarida chuqur tarkibiy inqirozga olib keldi. Ayniqsa, ishlab chiqarish sanoati, qurilish, kemasozlik, sarmoyaviy va tashqi savdo faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda davlat moliyaviy inqirozi yanada kuchaydi.

Natijada 1993-yilda Sharqiy Germaniya iqtisodiyoti misli ko'rilmagan tanazzulga yuz tutdi. Chuqur tarkibiy inqiroz yangi federal yerlar iqtisodiyotining butun tarmoqlarini qulashiga olib keldi. Nima uchun bu sodir bo'ldi? Bu yerda oddiy va o'ziga xos javob yo'q. Ko'pgina nemis siyosatchilari va tahlilchilarining fikricha, eng oson yo'li 1993-yildagi iqtisodiy inqirozni GDR sotsialistik iqtisodiyotini Germaniya Federativ Respublikasining bozor iqtisodiyotiga aylantirish jarayonining obyektiv qiyinchiliklari bilan bog'lashdir.

1994-yilda iqtisodiy ahvolning jonlanishi ko'zga tashlandi. YaIMning o'sishi 2,8%ni tashkil etdi. Ammo 1995-1996-yillardayoq yangi inqiroz boshlandi. Ishlab chiqarishning keskin pasayishi ro'y bermagan bo'lsa-da, barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimda jiddiy nomutanosibliklar saqlanib qolganidan darak berardi. 1997-yilga kelib ishsizlar iqtisodiyotdagi faol aholining 11,3%ini tashkil etdi. O'n yillik boshida YaIM 40%ini tashkil etgan davlat qarzlari ham muntazam o'sib bordi va 1996-yilga kelib YaIMning 60%dan oshib ketdi. YaIM o'sishi bilan birga yuz bergan 1997-yildagi inqirozni yengib o'tish asosan eksportning oshishiga bog'liq edi. Bunday sharoitda hukumat o'z siyosatiga tuzatishlar kiritishi kerak edi. Asosiy shior har tomonlama iqtisod qilish bo'lib qoldi. G.Kol hukumati umumiy ish haqining yarmidan ko'proq darajasigacha soliqlarni oshirishga, davlat xarajatlarini, jumladan sharqiy yerlarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan xarajatlarni keskin kamaytirishga majbur bo'ldi. "Mehnatga ko'maklashish to'g'risidagi qonun"ga muvofiq (1996-y) malaka oshirish, qayta tayyorlash uchun mablag'lar, va ishsizlik nafaqasi ancha qisqartirilgan edi. Sog'liqni saqlash va nafaqa uchun to'lov xarajatlari kamaytirildi. Bunday choralarning qo'llanilishi hukumat obro'sining tezda tushib ketishiga sabab bo'ldi.

Xulosa. Birlashgan Germaniya bugungi kunda Yevropa Ittifoqining asosiy iqtisodiy va siyosiy arbobi bo'lib, yalpi ichki mahsulot, eksport va import hajmi bo'yicha qo'shnilarini ortda qoldiradi, bu uning iqtisodiyotining ochiqlik darajasini va jahon iqtisodiy munosabatlariga qo'shilish darajasini aks ettiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bundesarchiv, Koblenz (Hauptdienststelle) B 102/397800, Internationale Diskussion über Globale Ersparnislucke Zinssenkung und Reduzierung von Haushaltsungleichgewichten.
2. Bundesarchiv, Koblenz (Hauptdienststelle) B 102/397800, Interview des BH Mölleman am 25. April 1991 in Pressclub mit der US-Zeitung "USA-Today".
3. Bundesarchiv, Koblenz (Hauptdienststelle) B 102/397800, Leistungsbilanzentwicklung (nur reaktiv).
4. Bundesarchiv, Koblenz (Hauptdienststelle) B 102/397800, Leistungsbilanzentwicklung in Deutschland und Perspektiven.

5. Bundesarchiv, Koblenz (Hauptdienststelle) B 102/397800, Leistungsbilanzentwicklung und Perspektiven (oktober 1991).
6. Bundesarchiv, Koblenz (Hauptdienststelle) B 102/397800, Leistungsbilanzentwicklung und Perspektiven (1991).
7. Bundesarchiv, Koblenz (Hauptdienststelle) B 102/397800, Leistungsbilanzentwicklung und Perspektiven.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE FIRST PRESS OF THE KHOREZM PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC: "THE SUN OF REVOLUTION"

Atamuratova Dilafruz Rashidovna

Doctor of Philosophy in Historical Sciences,
Associate Professor of the Department of History,
Urgench State University named after Abu Rayyhon Beruni

Abstract. The emergence of printing in Khorezm is directly related to the lithographic institute, created in 1874 on the initiative of Muhammad Rahimkhan Feruz. In its activities, the great role of the first Uzbek lithographer O. Abdalov, who contributed to the development of lithography, is emphasized. Based on this, the article reflects the creation of the newspaper "Sun of the Revolution", information about lithography, which became the basis of the periodical press, and O. Abdalov, issues that were in the center of attention of the newspaper, socio-political and spiritual-educational news, processes that covered the history of the region. The article analyzes the role of the newspaper "Sun of the Revolution" in the study of the history of Khorezm, the content of the headings, articles and news from the pages of the newspaper.

Keywords: printing house, press, lithography, newspaper, lithography, Khiva.

XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASINING ILK MATBUOTI: "INQILOB QUYOSHI"

Atamuratova Dilafruz Rashidovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Abu Rayyhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrasi dotsenti
E-mail: atamuratovadilafruz@gmail.com

Annotatsiya. Xorazmda matbuotning paydo bo'lishi bevosita Muhammad Rahimxon Feruz tashabbusi bilan tashkil etilgan 1874 yildagi – toshbosma bilan bog'liq hisoblanadi. O'z o'rnida, toshbosma rivojiga o'z hissasini qo'shgan birinchi o'zbek litografi O.Abdalovning roli katta ekanligiga ahamiyat berilgan. Shundan kelib chiqqan holda, maqolada "Inqilob quyoshi" gazetasi faoliyatining yo'lga qo'yilishi, davriy matbuot uchun asos bo'lgan toshbosma hamda O.Abdalovga oid bo'lgan ma'lumotlar, gazetalarning diqqat markazida turgan masalalar, ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy-ma'rifiy xabarlar, o'lka tarixini o'zida qamrab olgan jarayonlar o'z aksini topgan. Maqolada Xorazm tarixini o'rganishda "Inqilob quyoshi" gazetasining tutgan o'rni, gazeta sahifalaridan o'rin olgan ruknlar, maqola va xabarlarning mazmun-mohiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: matbaa, matbuot, toshbosma, gazeta, litografiya, Xiva.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N02>

1920-yilda Xorazm Xalq Respublikasi ixtiyoriga bosmaxona jihozlari, elektromotor va harflar yuboriladi [17, b.39]. 1921-yilning oktyabrida va 1922-yilning sentyabrida Xorazmga ikki juft matbaa uskunalari bilan birgalikda matbaachi mutaxassislar, 700 kg ruscha va o'zbekcha (arab alifbosida) harflar, kichik elektr yoritgich va bosma mashinasi keltirildi [1, b.109]. Ushbu uskunalar faoliyatini yo'lga tushirishda Otajon Abdalov Aleksey Salopov va Gustav Shneydel bilan birga ishlaydi [5]. Otajon Abdalov davlat hayotiga oid siyosiy jarayonlarni kuzatib borgan, jumladan, Yosh xivaliklar harakatining mahsuli bo'lgan 1917-yil

5-aprel kuni Xiva xoni Asfandiyorga taqdim etilgan manifestni toshbosmada nashr qilib xalq orasida tarqatadi [19, b.4]. Otajon Abdalov qoraqalpoq xalqining ham milliy matbuotiga asos solganlardan biri deb e'tirof etiladi. Ya'ni, 1924-yili Qoraqalpog'iston avtonom oblasti matbaachilari iltimosiga ko'ra To'rtko'lda "Erkin qoraqalpoq" gazetasi nashrini yo'lga qo'yishda qatnashadi [2, b.26]. A.Boboxonov ma'lumotiga ko'ra Turkiston hukumati yo'llanmasi bilan Xorazmga kelgan Afzal Tohirov ham sohada faol ishlagan, ayni paytda "Inqilob quyoshi" gazetasiga muharrirlik qilgan. "Inqilob quyoshi" 1920-yilning martidan nashr etila boshladi. Dastlab toshbosmada keyinchalik mix bosmada nashr etiladi, ilk sonlari katta formatda ikki bet ko'rinishida bo'lgan [22, b.73]. Gazeta o'zbek va Turkman tillarida nashr etilgan [6, b.11]. 1930-yillardan boshlab tumanlarda ham gazetalar chop etila boshlaydi. 1930 – 1940-yillarda bolalar gazetasi sifatida chiqayotgan "Bo'l tayyor" gazetasi chiqqa boshlagan [3, b.10-11].

O'lkada keyinchalik faoliyati yo'lga qo'yilgan gazeta va jurnallar ham bo'lib, ular "Qizil Xorazm", "Maorif" jurnallari va "Xorazm xabarlar", "Yordam", "Hunarmandlar cho'kichi", "Qizil yoshlar ovozi", "Ishchilar tovushi", "Qopqon" gazetalar edi. Qolaversa, 1923-1925-yillarda respublikada devoriy gazetalar faoliyati ham ancha kengayganligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, "Inqilob quyoshi" gazetasining 1927-yil 16-may sonida qizlarning "Umid yolqini", "Mazlumlar ozodligi" devoriy gazetalar chiqib, 5 mayda Xivada o'tkazilgan matbuot kunida 22 devoriy gazeta qatnashib, ko'rgazma ochilganda 4 ta gazeta qizlarniki bo'lgan [3, b.7]. "Inqilob quyoshi"ning dastlabki nashrlari toshbosma o'lchamida 30 x 42,5 hajmda bo'lib, haftada bir marotaba chop qilingan [1, b.108]. Ushbu gazetaning 1924 yildagi 5 mart sonida tiraji 300-400 nusxada chop etilgani aytiladi [13, b.54]. Toshbosmada ishlash qulay bo'lmaganligi sababidan, bir marotaba nashr etilgan. Jumladan, Og'ir qolip (tosh)ni qo'lda bosmaga tayyorlash, navbatdagi sahifa toshni o'zgartirish, litografiya o'qini ikki matbaachi mutaxassis aylantirishi, bosish uchun bo'yoq tayyorlash ishlari matbaachidan juda og'ir qo'l mehnatini talab qilar edi [1, b.108]. 1922-yildan boshlab "Inqilob quyoshi"ning haftada 2 martadan nashr etila boshlanganini ko'ramiz, 1940-yilda gazeta kundalik chop qilinganligini hisobga olsak, yoki dastlabki nashr haftada bir marotaba bo'lganligidan kelib chiqib, gazetaning yigirma yillik nashr faoliyatidagi yutuqlari haqiqatda ko'zga ko'rinarli ekanligini hisobga olsak arziydi.

Gazetaning birinchi muharriri mulla Bekjon Rahmonov bo'lgan. Bekjon Rahmonov Nozirlar Kengashida ziyolilar vakili bo'lib, "Yosh xivaliklar" harakati a'zosi, o'z davrining ma'rifatparvarlaridan biri bo'lgan [14, b.118]. "Xorazm haqiqati"ning o'tmishdoshi hisoblanuvchi "Inqilob quyoshi" gazetasi ilk sonlaridanoq o'lkaning ijtimoiy hayotiga oid materiallar yoritila boshlaydi. Jumladan, 1920-yilning 16-avgust sonida "Xorazm yoshlari" birinchi marta shanbalik o'tkazish uchun 16-avgust kuni pochta oldidagi maydonga 100 kishi kelib, tekislash ishlarini olib borgani, olti soatlik ish davomida maydonda tuproq-tekislash ishlari o'tkazilgani haqida xabar beradi. Yoki 27-avgust sonida shu oyning 15 sanasida Xivada muallimlar tayyorlovchi 3 oylik kurs ochilgani, mehnatkash hunarmandlarni, dehqonlarni, ularning bolalarini o'qitib, ilmga o'rgatish uchun muallimlar zarurligi sabab eski savodli kishilar kursga kelayotganlari aytiladi [16, b.36]. 1923 yilda XNSRda "Inqilob quyoshi", "Xorazm xabarlar", "Qizil yoshlar ovozi", "Qizil Xorazm maorifi" kabi gazetalar chop etilgan [6, b.16]. "Inqilob quyoshi" gazetasining 1924-yil 5-may sonida Xivada Xalq muzeyi ochiladi. Bu muzeyga Moskvadan 285 tarixiy eksponat keltirilgani xabar beriladi [13, b.54]. Gazetada savodsizlikni yo'qotish maktablari haqida doimiy xabarlar chop etilgan. Gazetaning 1924-yil 7-yanvardagi sonida bunday maktablarning soni 30 ga yetgani haqida xabar berilgan [21, b.64]. 1924-yilning

15-mart sonida Xiva shahar markaziy klubi yonida o'zbekcha teatr tashkil etilib, a'zolari birlik bilan ish olib borayotgani, ayni shu sonda 8-mart bayrami munosabati bilan xotin-qizlar uchun to'y yasali, turli bayramona tomoshalar o'tkazilgani yoritilgan [16, b.36]. Shunday bayramlardan "Paxta bayrami" bilan bog'liq holat bo'yicha ham xabarlarini uchratish mumkin, ya'ni kelasi yili paxta ekish ishini yanada avj olishi uchun paxta ochilgan vaqtda "Paxta bayrami" o'tkaziladi. Bundan maqsad bir tomondan paxta ekish ishlarini keng yo'lga qo'yish, ikkinchi tomondan dehqonlarni paxtachilikni rivojlantirishga rag'batlantirishda muhim ahamiyatga egaligi, kelgusi yil Xorazm dehqoni bir tanob o'rniga besh tanob paxta ekib, bir tanob paxtadan besh tanob jugarining, ikki yarim tanob bug'doyning hosilidek hosil olishi [16, b.36-37] uchun o'ziga xos "motivatsiya" berishi kerakligiga urg'u beriladi.

Davriy matbuotda ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy XX asrning 20-yillaridagi masalalar ham o'rin olgan, jumladan, 1920-yillarning boshida Xorazmda 10 ta yangi usul maktablari ochilib, 1 ta maktab internat, o'qituvchilar seminariyasi, bitta shifokor hamda ikki nafar feldsherdan iborat 50 kishiga mo'ljallangan shifoxona ish boshlagan. Xonning qarorgohlaridan Toshhovli madaniyat va ma'rifat markaziga aylantiriladi [14, b.124]. 1924-yilga kelib esa Xorazmda 24 ta maktab va bitta hammom bo'lgan. Matbuotda birinchi o'n yillikda Xorazmdagi maktablar soni 12 martaga oshganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi [18, b.3]. 1925-yilda madaniy ma'rifiy tadbirlar uchun davlat budjetining 22, 4% sarflangan, 1935 yilda bu sohaga davlat budjetining 42,2 % sarflanadi [18, b.3]. "Inqilob quyoshi" Xiva shahrida 1928 yilning iyun oyi oxirigacha chop qilinadi. 1921-yil martidan 1922-yil mayigacha "Xorazm xabarleri" nomi bilan nashr etilgan. Nashriyot 1928-yil iyulidan Urganch shahrida ish faoliyatini boshlaydi. Gazeta o'z faoliyatini boshlagan davrlarda, tahririyatda – Zokir Bekchurin, Madrahim Saydashev, Habib Samigullin, Muhammad Zokirov, Umar Qurboniylar faoliyat olib borishgan [17, b.39].

Maqolada tahlil etilgan "Inqilob quyoshi" gazetasi tarixi XXSR davridan boshlanib, keyinchalik O'zbekiston SSRning Xorazm okrugi davriy matbuoti namunasi sifatida faoliyat olib borganligini, gazetaning ilk sonlaridan asosiy yoritilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi masalalari yetakchilik qilganligini ko'ramiz. Umumiy tatarqiyotida agrar soha azaldan salmoqli o'rinni egallab, paxta va boshqa turdagi xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish, qayta ishlash kabi masalalar matbuotning markazida turgan masalalardan bo'lgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бобохонов А. Асрдан ошган зиё масканлари. Т., "Ўзбекистон". 2011. (Boboxonov A. Centuries of enlightenment. T., "Uzbekistan". 2011.)
2. Бобохонов А., Ҳасанов С. Отажон матбаачи. Гулистон. №10. 1974. (Boboxonov A., Hasanov S. Otajon litographer. Guliston. №10. 1974.)
3. Бекмуҳаммедов У. Гурлан тумани. Т., Янги аср авлоди. 2011. (Bekmuhammedov U. Gurlan district. T., New Age Generation. 2011.)
4. Эрназаров Т.Э., Акбаров А.И. История печати Узбекистана. Т., "Ўқитувчи", 1977. (Ernazarov T.E., Akbarov A.I. History of the press of Uzbekistan. T., "The teacher", 1977.)
5. Ҳаёт. Тошбосма иш бошлаганда. № 4. 28 январ – 3 феврал 2010 йил. (Life. When the stonework begins. № 4. January 28 - February 3, 2010.)
6. Инояттов Х.Ш. История Хорезмской Народной Советской республики (1920-1924 гг.). Т., "Фан". 1976. (Inoyatov Kh.Sh. History of the Khorezm People's Soviet Republic (1920-1924). T., Fan. 1976.)
7. Известия ("Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР"). О налоге. №1. 6 июля 1921 г. (Izvestia ("News of the Plenipotentiary Representative of the RSFSR in KhNSR"). About tax. No.1. July 6, 1921)

8. Известия (“Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР”). Национальная политика РСФСР. №.3. 11 июля 1921 г. (Izvestia (“News of the Plenipotentiary Representative of the RSFSR in KhNSR”). National policy of the RSFSR. No. 3. July 11, 1921)
9. Известия (“Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР”). О налоге. №.5. 15 июля 1921 г. (Izvestia (“News of the full representative of the RSFSR in KhNSR”). About taxes. No. 5. July 15, 1921)
10. Известия (“Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР”). Хива, 8 августа 1921 года. №.14. 8 августа 1921 г. (Izvestia (“Izvestia of the Plenipotentiary Representative of the RSFSR in the KhNSR”). Khiva, August 8, 1921. No.14. August 8, 1921)
11. Известия (“Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР”). Хива, 10 августа. №.15. 10 августа 1921 г. (Izvestia (“News of the Plenipotentiary Representative of the RSFSR in KhNSR”). Khiva, 10 August. No.15. August 10, 1921)
12. Известия (“Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР”). Хива, 12 августа. №.16. 12 августа 1921 г. (Izvestia (“News of the Plenipotentiary Representative of the RSFSR in KhNSR”). Khiva, 12 August. No.16. August 12, 1921)
13. Насыров Б.Ф. Из Истории политико-массовой и культурно-просветительной работы в Хорезме. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 4. Т., “Фан”, 1967. (Nasyrov B.F. From the history of political-mass and cultural-educational work in Khorezm. Humanities in Uzbekistan. No. 4. T., "Fan", 1967.)
14. Погорельский И.В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики 1917 – 1924 гг. Ленинград., Издательство Ленинградского университета. 1984. (Pogorelsky I.V. History of the Khiva Revolution and the Khorezm People's Soviet Republic 1917 - 1924. Leningrad., Leningrad University Press. 1984.)
15. “Советская Сибирь”. Приезд Хивинской делегации. № 177. 20 августа 1920 г. (“Soviet Siberia”. Arrival of the Khiva delegation. No. 177. August 20, 1920)
16. Тарих садоси. Воҳа солномаси. Урганч. “Хоразм”. 2010. (The sound of history. Oasis's Chronicle. Urgench. "Khorezm". 2010.)
16. Тошпўлатова Д. Матбаачилик тарихидан. Воҳа солномаси. Урганч., “Хоразм”. 2010. (Toshpulatova D. From the history of printing. Oasis's Chronicle. Urgench., “Khorezm”. 2010.)
17. Хорезмская правда. Под’ем народного хозяйства Хорезма за 20 лет. № 251. 24 декабря 1944 г. (Khorezm truth. The rise of the national economy of Khorezm in 20 years. No. 251. December 24, 1944)
18. Хоразм ҳақиқати. Отажон Абдоллов туғилганига 125 йил. 1982 йил 22 январь. (The truth of Khorezm. 125 years since the birth of Otajon Abdolov. January 22, 1982.)
19. Язбердиев А. Избранные статьи. V том. Ашхабад. 2014. (Yazberdiev A. Selected Articles. Volume V Ashgabat. 2014.)
20. Юлдашев Н. Начало строительства Советской культуры в ХНСР. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 2. Т., “Фан”, 1970. (Yuldashev N. The beginning of the construction of Soviet culture in KhNSR. Humanities in Uzbekistan. No. 2. T., “Fan”, 1970.)
21. Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870 – 1927). – ТошкентСамарқанд: Ўздавнашр, 1927. (Ziyo Said. Materials on the history of the Uzbek periodical press (1870 - 1927). - Tashkent-Samarkand: Uzdavnashr, 1927.)

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

PROBLEMS OF THE HEALTHCARE SYSTEM IN NAMANGAN CITY DURING THE 1920S-1950S

Mansurov Ulugbek Umarovich,
University of Business and Science,
Associate Professor of the Department of Social Sciences,
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

Abstract. This article examines the development process and challenges of the healthcare system in Namangan city during the 1920s to 1950s. The study analyzes the condition of medical institutions, shortage of medical personnel, spread of infectious diseases, and measures taken to address these issues following the establishment of Soviet power. Additionally, the difficulties faced in healthcare during the war years and the processes of medical system recovery in the post-war period are discussed. The article is based on historical sources and provides a scholarly perspective on the researched topic.

Keywords: Namangan, healthcare, medicine, Soviet period, infectious diseases, hospital, medical staff, war years, sanitation and hygiene, medical culture, epidemiology, feldsher stations, outpatient clinics, medical services, disease spread, healthy lifestyle, medical institutions, medical personnel, demography, social issues.

XX ASRNING 20-50-YILLARIDA NAMANGAN SHAHRIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR

Mansurov Ulug'bek Umarovich,
University of Business and Science,
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 20–50-yillarida Namangan shahrida sog'liqni saqlash tizimining rivojlanish jarayoni va duch kelgan muammolari o'rganilgan. Tadqiqotda sovet hokimiyati o'rnatilganidan keyingi sog'liqni saqlash muassasalari holati, tibbiyot kadrlarining yetishmasligi, yuqumli kasalliklar tarqalishi va ularni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan choralar tahlil qilingan. Shuningdek, urush yillarida sog'liqni saqlash sohasidagi qiyinchiliklar va urushdan keyingi davrda tibbiyot tizimining tiklanish jarayonlari ko'rib chiqilgan. Maqola tarixiy manbalar asosida yozilgan bo'lib, o'rganilgan mavzu bo'yicha ilmiy nuqtai nazar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Namangan, sog'liqni saqlash, tibbiyot, sovet davri, yuqumli kasalliklar, shifoxona, tibbiyot xodimlari, urush yillari, sanitariya-gigiyena, tibbiy madaniyat, epidemiologiya, feldsherlik punktlari, ambulatoriya, tibbiy xizmatlar, kasalliklar tarqalishi, sog'lom turmush tarzi, tibbiyot muassasalari, tibbiy kadrlar, demografiya, ijtimoiy muammolar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N03>

XX asrning birinchi yarmida Namangan shahrida sog'liqni saqlash sohasida ko'plab muammolar yuzaga keldi. Sovet hokimiyatining o'rnatilishi va harbiy-siyosiy sharoitlarning murakkablashuvi ijtimoiy sohada, xususan, tibbiyot xizmatlarining rivojlanishida salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda shifoxonalar, ambulatoriyalar va boshqa tibbiyot muassasalari yetishmasligi, malakali kadrlarning kamligi, sanitariya-gigiyena qoidalarining buzilishi natijasida yuqumli kasalliklar keng tarqaldi va aholi salomatligi yomonlashdi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Farg'ona vodiysi shaharlarida yuzaga kelgan harbiy-siyosiy beqarorlik va iqtisodiy tanglik natijasida ijtimoiy muammolar keskin kuchaydi. Xususan, sog'liqni saqlash tizimining inqirozga uchrashi, aholining sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilmasligi, tibbiy madaniyatning pastligi, yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi kabi holatlar keskin tus oldi. Aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash bo'yicha yetarli ishlar olib borilmagan.

Statistik ma'lumotlariga ko'ra, 1917-yilda O'zbekiston hududida atigi 128 nafar shifokor faoliyat yuritgan bo'lib, Farg'ona viloyatida har 50 ming kishiga bitta shifokor to'g'ri kelgan [1, 15]. Tibbiyot xodimlarining yetishmasligi, tibbiy muassasalar sonining kamligi avvalgi mustabid tuzumdan qolgan meros edi [2, 93].

XX asr boshlarida Namangan shahrida faqat 15 o'rinli bitta kasalxona mavjud bo'lib, har 2330 nafar aholiga bitta o'rin to'g'ri kelgan. Kasallarga 2 nafar shifokor, 4 nafar feldsher va 1 nafar dorishunos xizmat ko'rsatgan [3, 92]. Ayniqsa, qishloqlarda yashovchi aholi tibbiy xizmatdan deyarli foydalana olmagan. Bu holat tufayli vabo, chechak, bezgak kabi yuqumli kasalliklar keng tarqalib, demografik holatga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

1914-yilda shaharda mavjud shifoxonalarda o'rinlar soni 30 taga yetgan bo'lsa-da, shifokorlar soni 4 nafarga qisqargan [4, 2]. Tibbiyot muassasasining moddiy holati juda og'ir bo'lgan: sanitariya-gigiyena talablari buzilgan, zarur anjomlar yetarli emas, binolar sovuq holda qolgan. 1917-yilga kelib kasalxonada 3 nafar shifokor faoliyat yuritgan, 10 ta qo'shimcha o'rin ajratilgan, ulardan 30 tasi erkaklar, 10 tasi ayollar uchun mo'ljallangan edi. Yiliga atigi 10000 nafar fuqaro bu xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'lgan.

1918-yilda M. G'aniyev rahbarligida Namangan viloyatida sog'liqni saqlash bo'limi tashkil etilgan. Keyingi yillarda shahardagi kasalxona o'rinlari soni 120 taga yetkazilgan: 60 tasi erkaklar, 30 tasi ayollar, 30 tasi esa yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bemorlar uchun mo'ljallangan edi [5, 399]. Shuningdek, erkaklar uchun alohida ambulatoriya tashkil etilgan. Shaharning aholi gavjum hududlarida davolanish punktlari ochilgan bo'lsa-da, xavfsizlik muammolari tufayli ular barqaror faoliyat yurita olmagan.

Kasalxonadagi yuqumli kasallar bo'limi faqat 14 o'rindan iborat bo'lgan bo'lsa-da, u yerga 27 nafar bemor joylashtirilgan, bu esa haddan tashqari ortiqcha yuklama bo'lganini ko'rsatadi [6, 3]. O'rinlar va tibbiyot xodimlarining yetishmasligi sababli 12 nafar yuqumli kasallikka chalingan fuqaro o'z uyida davolanishga majbur bo'lgan. Shaharda tarqalgan o'lat kasalligi oqibatida bemorlarning 50 foizi hayotdan ko'z yumgani qayd etiladi [7, 82].

1919-yildan boshlab shaharda chechak kasalligiga qarshi emlash guruhlari tashkil etilgan [8, 5]. Biroq malakali tibbiyot xodimlarining tanqisligi tufayli emlash jarayonlari sust kechgan, aholining to'liq emlanishi ta'minlanmagan.

1923-yilga kelib, Namangan shahridagi kasalxonalar soni ikki tagacha qisqargan. Har ikkala kasalxona 50 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, ularda jami 36 nafar tibbiyot xodimi bemorlarga xizmat ko'rsatgan [9, 30]. Bu muassasalarda yil davomida o'rtacha 944 nafar bemor davolangan. Shahar ambulatoriyasi esa 18 shtatdan iborat bo'lib, ularning 9 tasini tibbiy mutaxassislar tashkil etgan. Ushbu ambulatoriya orqali 32 156 nafar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatilgan.

1923-yilning ikkinchi yarmiga kelib, Namanganda 3 ta kasalxona faoliyat yuritgan bo'lib, ular terapevtik, jarrohlik va yuqumli kasalliklar bo'limlaridan iborat edi [10, 10]. Bundan tashqari, shaharda ikki ambulatoriya mavjud bo'lib, ulardan biri umumiy, ikkinchisi esa

mahalliy ayollar uchun xizmat ko'rsatgan. Terapevtik va jarrohlik bo'limlari 50 o'ringa, yuqumli kasalliklar bo'limi esa 30 o'ringa mo'ljallangan edi. 1923-yilning may oyida shahar ambulatoriyasi 920 nafar, mahalliy ambulatoriya esa 428 nafar bemorni qabul qilgan. Qiyin sharoitlarga qaramay, mavjud tibbiyot muassasalari aholi salomatligini saqlashda imkon qadar faoliyat olib borgan.

1924-yilda Namangan uyezdi hududida 6 ta kasalxona, 9 ta ambulatoriya, 2 ta ayollar va 3 ta bolalar bo'limi, 12 ta feldsherlik punkti hamda 4 ta bezgakka qarshi stansiya faoliyat ko'rsatgan [11, 92]. Shahar hududida esa 60 o'rinli kasalxona va 2 ta ambulatoriya mavjud bo'lib, ularda 4 nafar shifokor, 1 nafar tish shifokori va 6 nafar akusherka (doya) ishlagan [12, 2]. Shuningdek, shaharda 20 o'rinli yuqumli kasalliklar kasalxonasi, umumiy shahar ambulatoriyasi va tish ambulatoriyalari faoliyat yuritgan. 1924-yilda Namangan shahar Sog'liqni saqlash bo'limi tashkil etilib, unga Parpiboy Abduqodirov rahbar etib tayinlangan [13, 5].

XX asrning birinchi choragida Farg'ona vodiysi shaharlari sog'liqni saqlash tizimi bo'yicha qiyin holatda bo'lgan. Hududda tibbiyot muassasalari yetishmasligi sababli ko'plab yangi kasalxonalar ochishga ehtiyoj paydo bo'lgan. Biroq yangi ochilgan shifoxonalar ko'pincha maxsus tibbiy binolarda emas, balki sobiq savdo muassasalari o'rnida joylashtirilgan. 1930-yillarning o'rtalariga qadar shaharlarda tibbiyot muassasalarini qurish sust sur'atlarda olib borilgan. Shifoxona qurilishining jadallashuvi 1934–1939-yillarga to'g'ri keladi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan barcha sohalar harbiy ehtiyojlarga moslashtirildi. Tibbiyot sohasi ham bundan mustasno bo'lmay, ko'plab shifokor va tibbiyot xodimlari frontga safarbar qilindi. Urush yillarida O'zbekistonga boshqa hududlardan tibbiyot muassasalari va mutaxassislar ko'chirib keltirildi. Jumladan, 1941-yilda Farg'ona viloyatida 16 ta [14, 97], Andijon viloyatida 5 ta [15, 9], Namangan viloyatida esa 19 ta harbiy gospital tashkil etilgan [16, 6].

Urush yillarida mamlakatda sanitariya va epidemiologik xizmatni yo'lga qo'yish tobora qiyinlashib bordi. Rasmiy choralar ko'rilganiga qaramay, aholining yuqumli kasalliklarga chalinish darajasi ortdi. 1942-yilda Namangan shahrida 565 nafar kishi ich terlama, 1327 nafar kishi esa tepkili terlama bilan kasallangan [17, 12]. Shuningdek, urush yillarida O'zbekistonning deyarli barcha shaharlari va tumanlarida zaxm kasalligi keng tarqaldi.

Urushdan keyingi yillarda ham sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatini yaxshilashda asosiy muammolardan biri davolash o'rinlarining yetishmasligi bo'lib qoldi. 1952-yilda Namangan shahar shifoxonasida mavjud imkoniyatlarning cheklangani sababli yuzaga kelgan og'ir holat natijasida 600 dan ortiq bemorga statsionar davolanish uchun rad javobi berilgan [18, 116].

Umuman olganda, o'sha yillarda O'zbekiston Respublikasida har 1000 nafar aholi hisobiga o'rtacha 10 ta davolash o'rni to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Namangan shahrida atigi 7,1 tani tashkil etgan. Bu tafovutning asosiy sabablari sifatida shifoxonalardagi noqulay moddiy-texnik sharoitlar, zaruriy tibbiy anjomlar va jihozlarning yetishmasligi, shuningdek, oziq-ovqat ta'minotidagi muammolarni ko'rsatish mumkin.

XX asrning dastlabki yillaridan boshlab 1950-yillargacha bo'lgan davrda Namangan shahrida sog'liqni saqlash tizimi murakkab sharoitlarda rivojlanib bordi. Dastlabki yillarda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tanglik, tibbiyot muassasalarining yetarli emasligi, malakali

kadrlar tanqisligi va sanitariya-gigiyena shart-sharoitlarining sustligi aholining sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Sovet hokimiyatining sog'liqni saqlash sohasiga nisbatan olib borgan siyosati natijasida bir qator ijobiy siljishlar kuzatilgan bo'lsa-da, mavjud muammolar, ayniqsa, urush yillarida va undan keyingi davrda yanada keskinlashdi. Shunga qaramay, 1920–1950-yillar oralig'ida kasalxonalar sonining oshishi, ambulatoriyalar, feldsherlik punktlari va yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish markazlarining tashkil etilishi sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish yo'lidagi muhim qadamlar bo'ldi.

Mazkur davr Namangan shahrida sog'liqni saqlash tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichi sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonlar hozirgi zamon sog'liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishida muhim tarixiy tajriba sifatida xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Узбекистан за 15 лет. Статистический сборник. – Ташкент, 1939. – С. 15.
2. Узбекистан за 15 лет. Статистический сборник. – Ташкент, 1939. – С. 93.
3. Ro'ziboyev T., Hojimirzayev M. Namangan viloyati: Spravochnik. – Toshkent: O'zbekiston, 1981. – B. 92.
4. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 49-ish, 2-varaq.
5. O'zR MDA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 137-ish, 399-varaq.
6. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 49-ish, 3-varaq.
7. NVDA, 13-fond, 4-ro'yxat, 8-ish, 82-varaq.
8. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 48-ish, 5-varaq.
9. NVDA, 13-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 30-varaq.
10. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 207-ish, 10-varaq.
11. Ro'ziboyev T., Hojimirzayev M. Namangan viloyati... – B. 92.
12. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 48-ish, 2-varaq.
13. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 48-ish, 5-varaq.
14. Mo'minova G.E. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917-1991 yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2015. – B. 97.
15. Ходжаков А.Х. Здравоохранение Андижанской области в годы Великой Отечественной войны // Медицинский журнал Узбекистана. 1985. №.5. – С. 9.
16. Xotira. Namangan viloyati. 1-kitob. – Toshkent: 1994. – B. 6.
17. NVDA. 111-fond, 1-ro'yhat, 64-ish, 12-varaq.
18. Mo'minova G.E. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917-1991 yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2015. – B. 116.

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

EDUCATIONAL ORGANISATIONS AND SOCIETIES ASSOCIATED WITH JADID SCHOOLS IN KHOREZM

Umid Bekmuhammad

PhD in History, Associate Professor
Associate Professor at Ma'mun University

Sayyora Samandarova

Candidate of Philological Sciences (PhD), Associate Professor

Abstract. This article examines the Jadid schools established in Khorezm and the activities of educational organisations and societies associated with them. It also analyses their philanthropic activities and generosity to improve the quality of education and provide the schools with textbooks and manuals.

Keywords: school, education, pupil, textbook, society, charity, Khiva, Gurlen, Khojeyli, Kazan, Crimea, Istanbul, university.

XORAZMDAGI JADID MAKTABLARIGA OID TA'LIM TASHKILOTLARI VA JAMIYATLARI

Umid Bekmuhammad

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Ma'mun universiteti

Sayyora Samandarova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazmda ochilgan jadid maktablari, hamda ular bilan bog'liq ta'lim tashkilotlari, jamiyatlarining faoliyati tadqiq etiladi. Shuningdek ularning ta'lim sifati, maktablarni darslik, qo'llanmalar bilan ta'minlashiga oid xayriya, saxovatlari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktab, ta'lim, o'quvchi, darslik, jamiyat, xayriya, Xiva, Gurlan, Xo'jayli, Qozon, Qrim, Istanbul, universitet.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N04>

Kirish. Ismoil Gaspralining ta'lim tizimiga kiritgan yangi usuldagi o'qitishga oid maktabi 1884-yilda Qrimda o'z faoliyatini boshlagan bo'lsa, oradan vaqt o'tib, Qozon, Ufa, Toshkent, Buxoro va 1898-yildan Xorazmda ham o'z faoliyatini boshlaydi. Xorazmda bu vaqtda Feruzxon (1844-1910) hukmdorlik qilar va uning ma'rifatli, taraqqiyparvar davlat arbobi ekanligini, ta'limga, xususan jadid maktablariga xayrixohligidan ham anglash mumkin edi. U doimiy ravishda To'rtko'ldagi pochta orqali Qrimda nashr etiladigan "Tarjimon" gazetasiga obuna bo'lgan, dunyo va turkiy xalqlarda bo'layotgan jarayonlardan xabardor bo'lib turardi. Aynan shu bois ham Feruzxon jadid maktablarining tashkilotchisi, homiysi bo'lib tarixga kirdi. U faqat maktablar ochilishiga xayrixohlik qilibgina qolmay, ta'lim sifati, bu bilan bog'liq tashkilotlarni yaratish tashabbuskori bo'lgandi. Mazkur maqolada jadid maktablaridagi ta'lim sifati, ularni

darslik, qo'llanmalar bilan ta'minlashga xizmat qilgan tashkilotlar, jamiyatlar faoliyati yoritib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritish va tahlil qilishda Ismoil Gaspralining asarlari, professor Begali Qosimov, Zaynobiddin Abdurashidov, Dilnoza Jamolova, Bahrom Irzayev, S.Samandar, U.Bekmuhammad monografiyalaridan hamda O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari, "Tarjimon" gazetasidagi maqolalar, xabarlardan foydalanildi. Ushbu manbalarni bir-biriga taqqoslagan holda, qolaversa ta'limga oid tarixiy jarayonlardan kelib chiqib haqqoniy, xolis xulosalarga kelindi.

Maktabda o'quvchining darslarni tez va yoshiga, zehniyatiga mos ravishda o'zlashtirishi o'qituvchiga, jamoadagi, sinfdagi muhitga bog'liq. Shu bilan birga esa o'z davri uchun zamonaviy bo'lgan yangi uslublarni qo'llash, ta'lim tizimini isloh qilib turish ham davr, jamiyat, ota-ona, o'quvchilar talabi bo'lishi zarur. Tarixda, xususan Xiva xonligi davrida jadid maktablari tashkil etilgan paytdan aynan shu jarayonga e'tibor berilgan hamda yangi usuldagi ta'lim dargohlari ochish bilan birga, ta'lim sifatini nazorat qiluvchi tashkilotlar, homiylik qiluvchi jamiyatlar ham tashkil qilingan. Jadid maktabi-yangi uslubda dars beriladigan o'z davrining zamonaviy ta'lim dargohi hisoblangan. Aynan 1898-yilda Feruzxon tashabbusi bilan Xiva, so'ngra Yangi Urganch shaharlarida jadid maktablari tashkil etilguncha bo'lgan davrda, Turkistonning boshqa hududlari singari Xorazmda ham an'anaviy, dunyoviy fanlar o'tilmaydigan, asosan diniy bilim beriladigan maktablar (sovet davrida eski maktab deya atalgan-S.S. U.B.) hamda rus-tuzem maktablari mavjud edi. Ya'ni, ta'lim sohasida o'ziga xos raqobatchi dargohlar faoliyat yuritardi.

Ana shunday vaziyatda o'z nomi bilan yangi-jadid maktablarining faoliyat boshlashi uchun davlat miqyosida xayrixoh kerak edi. Ma'lumki, 19 asr oxirida Turkistonning turli hududlari, goh Farg'ona, Toshkent va Buxoro amirligida tashkil etilgan jadid maktablari mutaassib dindorlar, an'anaviy (eski) maktab, madrasa mudarrislari tomonidan tazyiqqa uchragan holatlar ko'p kuzatilgani ma'lum.

Shu singari Xorazmda 1884-yilda tashkil etilgan rus-tuzem maktabi o'qituvchilari, umuman Rossiya imperiyasining ta'lim mutasaddilari ham jadid maktablariga nisbatan raqobatchi edi. Qolaversa bu tizim maskanlari, ularning pedagoglari jadid maktablariga nisbatan dushmanona nigoh bilan qarashgani Z.Abdurashidovning "Turkistonda jadidchilik" ("Akademnasr" nashriyoti, Toshkent-2023) asarining "Ta'lim uchun kurash: Turkiston ma'muriyatining inkor etish siyosati, ruslashtirish va jadidchilik" bobida batafsil tahlil etilgan.

Garchi, xonlik davridagi maktablar o'z davridagi sharqning taraqqiyot yo'liga kirgan davlatlari, Yevropa mamlakatlariga qaraganda ortda qolgan bo'lsada, ta'lim sohasi o'z davrining savodxon qatlamini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

Abdulla Boltayevning "Xiva tarixiga oid materiallar" nomli 11-esdalik daftarining 40-betida "Xiva shahrinda va atrofi tagidagi madrasalar ro'yxati" nomli jadvalda 64 ta madrasa nomlari, barpo etilgan yili, hujralar soni va vaqf yerlari qayd qilib o'tilgan bo'lib, ulardan 16 tasi hozirgi vaqtgacha saqlanmaganligi keltirilgan. Ushbu jadvalda dastlab Xivada barpo qilingan, ya'ni 1616-yildagi Arab Muhammadxon madrasasi, 1916-yildagi "Qozi Askar" madrasasi eng so'nggi madrasa bo'lganligi (afsuski Hikmatillo qozi barpo etgan madrasa hozirgacha yetib kelmagan) qayd qilingan. Undan tashqari xonlikdagi bekliklarda ham madrasalar, tabiiyki maktablar ham faoliyat ko'rsatgan.

Tarix fanlari nomzodi Abdulla Abdurasulovning aniqlashicha esa, "Xivada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida 65 madrasa bo'lgan. Ularning 54 tasi shaharda, 11 tasi shahar atrofida

bo'lgan". Madrasada diniy va dunyoviy bilimlar berilgan bo'lib, ko'ngilochar o'yinlar va ashula aytish man qilingan. Madrasada o'qish muddati chegaralanmagan".

Endi Rossiya manfaatlari, imperiya mafkurasi uchun xizmat qilgan rus-tuzem maktablariga to'xtalib o'tsak. Xiva xonligi 1873-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, dastlabki rus-tuzem maktabi Amudaryo bo'limi markazi Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l) da o'z faoliyatini boshlagandi. Xiva xonligi devonbegisi, shoir, musiqashunos Komil Xorazmiy tashabbusi bilan 1884-yilda Xivada ham rus-tuzem maktabi tashkil qilingandi. Dastlab Xivadagi ushbu maktabga Petro-Aleksandrovskdagi rus-tuzem maktabidan o'qituvchi N.S. Sazontov dars berishga taklif qilingan. 1887-yilda Xorazmga kelgan rus rassomi L.Ye.Dmitriyev-Kavkazskiy o'z sayohatnomasida ("L.Ye.Dmitriyev-Kavkazskiy." Po Sredney Azii. Zapiski xudojnika ", Spb 1894 s.57) Xivadagi maktab faoliyatiga yaxshi baho bergan bo'lsada, 20 asr boshlariga kelib ushbu maktab o'z faoliyatini to'xtatadi.

Negaki ta'limga bo'lgan ehtiyojni jadid maktablaridagi yuksak ta'lim-tarbiya, o'sha davr uchun chinakam yangilik bo'lgan pedagogika egallagandi. Qolaversa Dmitriyev-Kavkazskiy 1887-yilda Xivadagi rus-tuzem maktabida asosan yetim bolalar o'qitilayotgani, Feruzxon keyingi o'quv yilidan amaldorlarning bolalarini maktabga jalb etmoqchi ekanligini aytgandi. Rossiya ma'muriyati talabi bilan maktab ochilgan ilk davrda o'quvchilar intilishi yetarli bo'lmagan va shu bois asosan yetim bolalar bilan sinf to'ldirilgan. Ya'ni xon va amaldorlarida ham xayrixohlik bo'lmagandi. Biroq rus ma'murlari xohishi bilan tashkil etilgan maktab faoliyat ko'rsatishi uchun o'quvchilar kerak edi. Ilk o'quvchilar shu bois yetim bolalar bo'lishgandi.

Aslida esa rus-tuzem maktablari imperiya itoatidagi o'lkalarni ruslashtirish, mustamlaka holatida saqlash niyatida tashkil qilingandi.

Ana shunday vaziyatda, "1898-yili Xivada Orenburgli Muhammad Vafo va mullo Abdurahmon afandilar tomonidan usuli savtiya maktabi ochildi. Lekin bir oy davom etgan faoliyatidan keyin "taassubning ziyoda o'ldig'ini anglayib, Urganch shahrina ketdilar va u yerda usuli savtiya maktabi kushod etdilar". Ya'ni, poytaxt Xivada 1898-yildagi birinchi jadid maktabiga mahalliy aholining ko'nikishi qiyin bo'ldi va Yangi Urganch shahrida ikki pedagog o'z faoliyatini yo'lga qo'yishdi. Shu tarzda Xorazmda birinchi jadid maktabi 1898-yilda tashkil qilingan "[1.214].

Ikkinchi jadid maktabi esa xonning taraqqiyparvar amaldori Mamat mahram tomonidan Deshonqal'adagi uyida 1905-yilda tashkil etiladi. O'sha yili bosh vazir Islomxo'ja ham jadid maktabiga asos soladi. Xivada dastlab tashkil etilgan usuli savtiya ta'lim maskanlari "Maktabi Mahramiya" (Mamat Mahramning maktabi), "Maktabi jadid" (bosh vazir Islomxo'janing mablag'iga barpo etilgan) deya nomlangan.

Xivadagi ikki va Yangi Urganchdagi jadid maktablari pedagoglarining yuqori saviyadagi bilim berishlari, o'qitish uslubi, dars jarayonlari aholi tomonidan yaxshi kutib olinadi. Negaki farzandlarini usuli savtiya asosida o'qitish, boshqa maktablarga qaraganda samaradorligini ko'rsatgandi. Natijada aholida bo'lgan talab bois 1907-yilda valiahd Asfandiyorning o'zi ham Xivada uchinchi jadid maktabini tashkil qiladi.

1907-yil 30-martda "Tarjimon" gazetasi Asfandiyorning "Xiva valiahdi usuli savtiya maktabi ochdirish uchun Barudiy madrasasini tamomlagan ikki muallimni chaqirtirdi, 25-fevralda keldilar, kelishlari bilan maktabda dars boshlaganlari haqida"gi xabarini ham chop qilgan[2.65].

Shu tariqa Qozon shahridagi Olimjon Barudiy madrasasini bitirgan ikki nafar pedagog Xivada 1907-yildan o'z faoliyatini boshlaydi.

Hukmdor Feruzxon jamiyatdagi barcha sohalarga nisbatan talabchan, qolaversa o'zi xayrixohlik bilan ijozat bergan maktablardagi jarayonni kuzatib borayotgandi. Shu bois uni jadid maktablarining kelajagi, o'qituvchilarning bilim berishi, o'quvchilarning ta'lim olishi qiziqtirganidan imtihonga e'tibor qaratadi.

“1907-yilning 28-mayida Asfandiyor va Islomxo'ja, 31-may kuni qozikalon, mudarris, oxunlar ishtirokidagi imtihon hay'ati o'quvchilarni sinovdan o'tirishadi. Ya'ni Xivadagi dastlabki ikkala maktabning 113 nafar talabasi hay'atga imtihon topshiradi va hayratlanarlisi hammasi a'lo baho olishadi. Imtihon natijasidan ruhlangan valiahd Asfandiyor, bosh vazir Islomxo'ja va Qozikalon Salimoxunlar o'zaro maslahatlashib Qozon shahridan ushbu maktablar uchun yana ikkita o'qituvchi taklif qilishga qaror qilishadi. Shu bilan birga Xorazmda jadid maktablarini ko'paytirish, o'quv jihozlari, adabiyotlari bilan ta'minlash, ulardagi ta'lim sifatini nazorat qilish uchun Ramazon Muhammad Karimzodani maktablar noziri qilib tayinlashadi” [3.54].

Ya'ni, sovet davrida tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi deya nomlangan tashkilotga, 1907-yilda birinchi bo'lib Xivada asos solingandi. Jadid pedagogi Ramazon Karimzodaga Xiva, Yangi Urganch shaharlaridan boshqa hududlarda ham usuli savtiya maskanlarini tashkil etish, ularga malakali pedagoglarni jalb qilish, darslik, o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash vazifasi yuklatilgan edi.

E'tiborli jihati, bu singari ta'lim muassasalari keyinchalik Buxoro, Toshkent shaharlarida ham tashkil etilgan va ular turlicha nomlangan jamiyatlar edi. Tarix fanlari doktori Dilnoza Jamolovanning tadqiqotlariga ko'ra, “o'z oldiga Buxoroni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, amirlik hududida konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzishni maqsad qilib qo'ygan Buxoro jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari 1909-yilda “Tarbiyai atfol” jamiyatini tuzib, Termiz, karki, Yangi Buxoro va G'ijduvonda jamiyatning 28 ta shoxobchasini ochganlar. Jamiyat o'z faoliyati davrida quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

- ilmga chanqoq yoshlarga iqtisodiy va ma'naviy yordam ko'rsatib, Rossiyaning Qozon, Ufa, Boqchasaroy hamda Istanbulga o'quvchi yuborish masalasiga alohida e'tibor qaratgan;

- Buxoro amirligida gazeta va jurnallar nashr qilinmasa ham jamiyat Rossiyaning musulmon shaharlarida, Turkiya va Eronda nashr qilingan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni tanishtirib borish uchun harakat qilishgan. Rossiya siyosiy agentligining ta'qib va to'siqlariga qaramay, jamiyat a'zolari tomonidan bunday nashrlar amirlikda keng tarqatilgan;

- jamiyat a'zolari o'rinsiz sarf-xarajatlarga, to'y va ma'rakalarda yo'l qo'yiladigan isrofchiliklarga qarshi chiqib, bu mablag'larni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda o'qitish uchun sarf qilishga da'vat etganlar”(4).

Agarki, Buxorodagi “Tarbiyai atfol” jamiyatining maqsad va vazifalariga e'tibor qaratsak, ular faqatgina ta'lim bilan cheklanibgina qolmay, jamiyatning barcha sohalarini isloh qilish, monarxiyaga barham berish, zamonaviy respublika tuzishga intilganini ko'rishimiz mumkin.

Bu davrga kelib dunyo voqealari, undagi jarayonlar tezlashgani bois, Turkistonning boshqa hududlarida ham shu singari va boshqa tashkilotlar ta'sis qilingan va ularda ham ta'lim,

maktab sohasiga alohida e'tibor qaratilgandi. Dunyoni, undagi ta'lim tizimini matbuot, sayohatlar orqali anglagan taraqqiyparvar ziyolilar, ta'lim sohasida borayotgan jarayonlarni boshqarish, iqtidorli yoshlarni xorijga o'qishga yuborishni birinchi darajali maqsad deb bilishgandi. Tabiiyki, xorijga iqtidorli yoshlarni o'qishga yuborish muayyan mablag'ni talab qilardi.

Filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov tahlil qilganidek, " ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini isloh etishni maqsad qilgan jadidlar Vatan va millat taraqqiyoti yo'lidagi ushbu harakatlarining moliyaviy ta'minoti uchun xayriya jamiyatlari tuzgan. Bu jamiyatlar xalqdan yig'ilgan yordamlar, millat boylari xayriyalari hisobidan faoliyat yuritgan. Toshkentda "Turon", Buxoroda "Tarbiyai atfol", Qo'qonda "G'ayrat" xayriya jamiyatlari hamda 10 ga yaqin shirkat ana shu maqsadga xizmat qilgan. Bularning barchasi, birinchi navbatda, usuli jadid maktablari faoliyatini yaxshilashga qaratilgan edi. Xususan "Shirkati Buxoroi sharif" tashkiloti ham 1909-yilda ta'sis qilinib, jadid maktablarini darslik, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashni maqsad qilib olgandi.

Bundan tashqari, faqir va muhtojlarni moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, yetimxonalar (jadidlar ularni "Doru-l-aytom" deb atagan) qurish, keksalar va nogironlar uchun shifoxona va ambulatoriyalar barpo etish maqsadlarini qo'ygan. Millat yoshlarini maktabda o'qitish, eng iqtidorlilarini oliy ta'lim olishi uchun dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlariга yuborish bilan bog'liq masalalar ko'zda tutilgan. Jadidlar ta'sis etgan nashriyotlar xarajatlari ham xayriya jamiyatlari hisobidan qoplangan. Masalan, Abdulla Avloniy o'z tarjimaiy holida "Turon" xayriya jamiyatining "Nashriyot", "Maktab" shirkatlari haqida ma'lumot beradi. Ma'rifatparvarning "Hukumatdan ruxsat olmoq uchun bir yarim oy ovora bo'lmoqg'a to'g'ri keldi. Ikki marotaba bergan arizamiz rad qilinib, uchinchi marotabada ruxsat berdi. Men shul jamiyati xayriyaning muassis a'zolaridan bo'lib, boshlab ochiluvda bir yil raislik xizmatini ado qildim. Andin so'ng to hurriyat davrig'acha a'zosi bo'lib maktablarga, yetim va g'ariblarg'a yordam qilib kelinur", degan fikrlari buning isbotidir.

Toshkent jadidlari rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonovning ta'kidlashicha, millat oydinlari xayriya jamiyatlari mablag'lari evaziga "...hech mumkin bo'lmag'on zamonda chetg'a o'quvchilar yubordilar. Maktablarni o'rta darajalarg'a qadar olib bordilar. Jamiyatlar chetga ketuvchi o'quvchilarga, maktablarga moddiy va ma'naviy yordam berarlik darajada kuchga ega bo'ldi. Gazetalar afkori ommani qo'lga olib, uch-to'rt ming nusxa sotilaturg'on martabaga yetdi... Hukumat rus-tuzem maktablarining "usuli jadid" maktablariga raqobat qilolmasligini bilib, isloh qildi..."[5.74].

Ya'ni, ta'lim tizimidagi yangilik, xorijda yoshlarni o'qitish, islohot sari boshlangan jarayonlar qiyinchiliklar bilan davom etgan. Biroq jadidlar maslakdoshlik hissi bilan doimo millat, vatan istiqboli yo'lida kurashganlar.

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Bahrom Irzayevning tadqiqotlariga ko'ra, "taraqqiyparvarlar xuddi shu davrda xalq va mamlakat taqdiriga daxldor muhim masalalar bilan shug'ullanib, xalqning yumuq ko'zlarini ochishga, uni erk, hurfikrlilik va milliy o'zlik singari buyuk tarixiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga intildilar. Ular millatni mustamlakachilik kishanlarini parchalab tashlash uchun kurashga da'vat etdilar. Jadidlar bu yo'lda xalq maorifini taraqqiyotning eng ishonchli quroli deb bildilar. Turkistonda oliy ta'lim muassasalari yo'qligi tufayli jadid taraqqiyparvarlari yoshlarni chet ellarda o'qitish, ayniqsa, Yevropa ilm-fani yutuqlari bilan tanishtirish masalasiga alohida e'tibor qaratganlar.

Natijalar va muhokama. 1909-yil 12-may kuni Toshkentda tuzilgan Turkiston jadidlarining dastlabki “Jamiyati xayriya” tashkiloti talabalarni chet ellarda o‘qitish ishiga rahbarlik qildi. Uning ko‘magida yoshlar Rossiyaning Sankt-Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalarga, shuningdek, Istanbul, Qohira kabi xorijiy shaharlardagi universitetlarga o‘qishga yuborila boshladi.

1909-yil 18-iyulda Buxoro shahrida tuzilgan jadidlarning “Tarbiyai atfol” jamiyati shu yilning o‘zida Fitrat, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, Ato Xo‘ja, Mazhar Burhonov kabi ko‘pgina yoshlarni Istanbulga o‘qishga yo‘llagan edi. Buxorodan chet elga tahsil olish uchun yuboriladigan talabalar soni 1911-yili 15 nafarga, 1912-yili 30 nafarga yetgan. Keyinchalik shunday talabalar orasidan Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov, Xolid Said, Eson afandi Musayev kabi yozuvchi olimlar, Mustafo Cho‘qayev, Ubaydulla Xo‘jayev, Norbo‘tabekov kabi yetuk huquqshunoslar yetishib chiqdi”[6.85].

Ana shunday jarayonda, bu davrga kelib Xorazmda ham jadidlarning ta‘lim sohasi va ularning ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini qo‘llab quvvatlash uchun, turli tashkilotlar ham yuzaga kelayotgandi. Xususan 1912-yilda bosh vazir Islomxo‘ja tashabbusi bilan tashkil qilingan “Ta‘sisoti xayriya” jamiyati aynan jadid maktablarini qo‘llab quvvatlash, bitiruvchilarni xorijga o‘qishga yuborishni maqsad qilib olgandi.

“1912-yil 24-fevraldagi “Tarjimon” gazetasida yozilishicha, “Islomxo‘ja Xivada “Ta‘sisoti xayriya” vujudga keltirish uchun o‘zidan 100 ming rubl iona yetgan” [7.51].

Tabiiyki bosh vazirning tashabbusini boshqa mulkdor taraqqiyparvarlar ham qo‘llab quvvatlashadi. Shu tarzda boshqa jadid mulkdorlari ham tashkilotni qo‘llab xayriya ishlarini olib borishgan. Ushbu jamiyatning eng muvaffaqiyatli ishi Rahmonbergan mahramning o‘g‘li-Bekjon Rahmonni 1912-yil oxirida Istanbul universitetiga o‘qishga yuborishi bo‘ladi.

Bora-bora shu jarayonda boshqa jadid pedagoglari, ularning xayrixoh, homiylari tomonidan ham turli xil jamiyatlar yuzaga kela boshlaydi. Ana shunday tashkilotlardan biri Yangi Urganch savodxonligi jamiyati deb nomlanadi va 1913-yilda faoliyatini boshlaydi.

Jamiyatning maqsadi jadid maktablari sonini ko‘paytirish, ularga o‘qituvchilar taklif qilish, darslik va qo‘lanmmalarni yaratish, maktab bitiruvchilarini xorijga yuborishni maqsad qilib olishgan. Bu maqsad yo‘lida 1914-yilda Yangi Urganchdagi zamonaviy binoda Qozon shahridan kelgan o‘qituvchilar shaharda ikkinchi jadid maktabini tashkil qilishadi. Biroq 1916-yil qo‘zg‘olonlari va 1917-yildan keyingi tazyiqlar sabab pedagoglar Chorjo‘y shahriga ketib faoliyatini davom ettirishadi. Jamiyat ham afsuski, 1917-yil kuzida o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Shu tarzda 1907-yil 28-mayida Xivada ta‘sis qilingan maktablar nozirligi ham, 1912-yil bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan tashkil etilgan “Ta‘sisoti xayriya” jamiyati va 1913-yil Yangi Urganch shahrida tuzilgan “Yangi Urganch savodxonligi jamiyati” ham 1917-yil sentyabrida o‘z faoliyatini to‘xtatishgan. Ana shu tariqa ularning birisi 10-yil, ikkinchisi 5, uchinchisi esa 4-yilgina faoliyat yuritgan. Ta‘limga oid tashkilot va jamiyatlarning tugashiga ikkita sabab bor edi:

1). 1917-yil aprelida jadidlar tomonidan ta‘sis etilgan parlament-“Idorai marshrutiya” kuz faslida Asfandiyorxon va mutaassiblar tazyiqiga uchragach tugatiladi. Tabiiyki jadidlar-“Yosh xivaliklar” harakatining mag‘lubiyatidan so‘ng, jadid maktablarining ayrimlari, ta‘limga oid uchta tashkilot, jamiyatlar ham faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ladi.

2). Birinchi jahon urushining mustamlaka o'lkalarga ta'siri va iqtisodiy vaziyat og'irlashgach, ko'plab jadid pedagoglari va yuqoridagi nozirlik, jamiyatlar xodimlari ham vohani tark etib, Qozon, Ufa, Toshkent shaharlariga ketishga majbur bo'lishadi.

Garchi nozirlik, jamiyatlar qisqa muddat faoliyat ko'rsatgan bo'lishsa-da, ular o'z faoliyati davomida maktablar sonini ko'paytirish, ta'lim sifatini yaxshilash, darslik, o'quv qo'llanmalari bilan ta'lim maskanlarini ta'minlashdek o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdi.

Xulosa. Afsuski, tarixchilar, pedagog olimlar tomonidan, maktablar nozirligi, "Ta'asisoti xayriya", "Yangi Urganch savodxonligi jamiyati" singari Xorazmlik jadidlarning nozirlik va jamiyatlari, ularning Turkiston, Buxoro va Usmoniylar davlatidagi jadidlar tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari to'liq tadqiq etilmagan. Faqatgina bosh vazir Islomxo'ja, "Ta'asisoti xayriya" jamiyati tomonidan Xivalik jadid maktabi bitiruvchisi Bekjon Rahmonning 1912-yil oxirida Istanbulga o'qishga yuborilgani xonlik davridagi yagona imkoniyat bo'ldi. Vaholanki qo'shni Buxoro amirligidagi jadidlar tashkiloti 30 ga yaqin yoshlarni xorijga o'qishga yuborishgandi.

Shuningdek, Gurlandagi jadid maktabi bitiruvchisi Olimjon Qodiriy, Yangi Urganchdagi jadidlar maktabi bitiruvchisi Maryam Sultonmurodovalar esa, xonlik tugatilib, respublika davrida-1922-yilda Germaniyaga borib o'qishga muvaffaq bo'lishdi. Shu kabi Xorazmlik boshqa jadid maktabi o'quvchilari ham Toshkent, Ufa, Moskva shaharlariga o'qish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Agarda 1917-yil kuzida ta'lim tashkiloti, jamiyatlar, shuningdek "Idorai marshrutiya"-parlament faoliyati to'xtatilmasa, iqtidorli yoshlarning xorijga o'qishga yuborilishi yana davom qilgan va Xorazm vohasiga xorijda o'qigan zamonaviy kadrlar kirib kelgan bo'lishardi. Afsuski, 1917-yil kuzidagi xonlik tuzumi va mutaassiblar tazyiqi, 1920-yildan jadid maktablarining sovetlashtira boshlanishi, 1924-yilda respublikaning tugatilishi jadidlar orzusining armonga aylanishiga sabab bo'ldi.

Oradan yillar o'tib, 1991-yildagi istiqlolgina jadidlar armoni ushalishiga olib keldi va xorijda o'qiyotgan yoshlar safi tobora ortib bormoqda. Hozirda tarix fani oldida Xorazm jadidlarining ta'lim bilan bog'liq tashkilot, jamiyatlari faoliyati, ularning erishgan yutuqlari, xorijda o'qigan xorazmliklar, ularning taqdirini tadqiq etish eng dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. S.Samandar, U.Bekmuhammad "Xorazm jadid maktablari", "MILLENIUMUS PRINT" nashriyoti, Urganch-2025-yil, 55-bet.
2. "Tarjimon" gazetasi, 1907-yil 30-mart.
3. S.Samandar, U.Bekmuhammad "Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta'lim va adabiyot", "MILLENIUMUS PRINT" nashriyoti, Urganch-2024-yil, 78-bet.
4. D.Jamolova "Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati" (XIX asr oxiri -XX asrning birinchi choragi), "Muharrir" nashriyoti, Toshkent-2021-yil, 80-81 betlar.
5. N.Jabborov, "Jadidchilikni nega va qanday o'rganishimiz kerak?", "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 19-dekabr.
6. B. Irzayev, "O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim", "Akademnashr", Toshkent-2018-yil, 8-bet.
7. "Tarjimon" gazetasi, 1912-yil 24-fevral.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

HILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF UZBEKISTAN'S YOUTH POLICY IN THE SOCIAL, CULTURAL, AND EDUCATIONAL SPHERES AND ITS ROLE IN SHAPING SPIRITUALLY MATURE YOUTH

Norov Shukhrat Suvonovich,

Associate Professor of the Department of Social and Humanitarian Sciences,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

Turatosheva Sadokat Rakhmatullayevna,

Navoi State University of Mining and Technology,
Teacher of the Department of Social and Humanitarian Sciences and Physical Education

Abstract. The article provides a philosophical analysis of the normative legal acts adopted to this day by the experience of state youth policy implemented in the Republic of Uzbekistan and its importance in the education of spiritually mature youth, in the field of social, cultural and educational. Also, the content, goals and objectives, priorities of this policy are based. The current state, achievements and problems of State Youth Policy are analyzed today.

Keywords: spirituality, ethics, family, society, public policy, enlightenment, trust, duty, immunity, mature youth, spiritual-moral, strategy, public program.

O'ZBEKISTON YOSHLAR SIYOSATINING IJTIMOY, MADANIY VA TA'LIMYIY SOHALARDAGI FALSAFIY ASOSLARI VA UNING MA'NAVIY YETUK YOSHLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Norov Shuhurat Suvonovich,

Ijtimoiy-gumanitar kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna,

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: turatosheva@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati tajribasi shu kungacha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va uning ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi, ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohasidagi ahamiyati falsafiy tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur siyosatning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari asoslangan. Yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kundagi mavjud holati, erishilgan yutuqlari hamda muammolari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, axloq, oila, jamiyat, davlat siyosati, ma'rifat, ishonch, burch, qonun, daxlsizlik, ma'naviy-axloqiy, mas'uliyat, strategiya, davlat dasturi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N05>

Kirish. Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagini belgilovchi ijtimoiy-demografik qatlam sifatida davlatning strategik resursi hisoblanadi. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot

strategiyasida yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularning siyosiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy yetuklik darajasini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yangi O'zbekistoninig istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlovchi yoshlar, ularning siyosiy qiyofasi, ma'naviy yetuklik davri to'g'risidagi qarashlarni o'rganish, bu qarashlarning bugungi kundagi ahamiyatini falsafiy tahlil qilish hamda o'ziga xos jihatlarini ochib berish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar soni 20 milliondan oshdi. Bu esa mamlakatimiz aholisining 54 foizini yoshlar tashkil etadi degani. Hozirgi kunda yoshlar sonining o'sish sur'ati jahon miqyosida, jumladan, O'zbekistonda ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga muayyan ta'sir ko'rsatmoqda. Demografik o'sish fonida yoshlarga oid davlat siyosatini samarali tashkil etish, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, jamiyatdagi roli va ishtirokini mustahkamlashga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har bir davlatning barqaror rivojlanishi yosh avlodning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda globallashuv, axborot oqimlarining keskin tezlashuvi, g'oyaviy-ma'naviy kurashlarning kuchayishi sharoitida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, vatanparvarlik tuyg'usi va fuqarolik ongini shakllantirish dolzarb falsafiy-ijtimoiy muammolardan biridir. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning siyosiy qiyofasini belgilovchi omillarni – ularning huquqiy ongi, siyosiy faolligi, ijtimoiy mas'uliyat hissi, tarixiy xotira va milliy g'urur asosida qaror topgan dunyoqarashi kabi mezonlarni tahlil etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Yoshlarga oid siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat va jamiyat o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Yoshlar bilan ishlashda faqat ma'muriy vositalarga tayanish emas, balki ularning tashabbuslarini rag'batlantiruvchi, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi innovatsion yondashuvlar talab etiladi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining shiddat bilan rivojlanishi, jamiyatning barcha sohalarida, xususan, yoshlar siyosatini amalga oshirish va ular bilan ishlash tizimida yangicha yondashuvlarni, munosabatlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Yoshlar siyosatining samarali amalga oshirilishi, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni jamiyatda mas'uliyatli, huquqiy ongli fuqaro sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish, yoshlar bilan ishlashda samarali usullarni qo'llash imkonini beradi. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ulardan mamlakatimiz amaliyotida unumli foydalanish yo'llarini o'rganish, yoshlar siyosatini takomillashtirishda, ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Bu tajribalar orqali, yoshlar bilan ishlashda innovatsion metodlarni joriy etish, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga yoshlarni faol ravishda jalb etish imkoniyatlari ochiladi. Natijada, yoshlarning jamiyatdagi o'rni va roli yanada kuchayib, ularning huquqiy va ma'naviy madaniyatini shakllantirish, jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga olib keladigan samarali yoshlar siyosatini yaratish mumkin bo'ladi. Davlatdagi ijtimoiy barqarorlik ko'p jihatdan yoshlarning barcha qatlamlariga yo'naltirilgan kuchli ijtimoiy himoyaga, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda yetarli shart-sharoit yaratilganiga bog'liqdir. Yoshlar bilan ishlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash nafaqat faoliyat samaradorligini oshiradi, balki yoshlarning yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ham ta'minlaydi. Jahon tajribasida yoshlar siyosatini amalga oshirishda raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim platformalari,

mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa o'rnatish kabi zamonaviy vositalar keng qo'llanilmoqda (OECD, 2020; World Bank, 2021).

Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida "EU Youth Dialogue" platformasi orqali yoshlar bilan doimiy muloqot yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu mexanizm ularning fikrini davlat siyosatlarida hisobga olish imkonini beradi. AQShda "Youth.gov" platformasi yoshlarga mo'ljallangan resurslar, grantlar va ta'lim imkoniyatlari haqida axborot berishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar orqali yoshlar bilan ishlash amaliyoti faol rivojlanmoqda. Jumladan, "Yoshlar portali", "Yoshlar daftari"ning raqamli formati, Ziyonet ta'lim platformasi va boshqa onlayn resurslar bu boradagi muvaffaqiyatli qadamlardandir. Bunday platformalar yoshlarning ehtiyojlarini o'rganish, individual yondashuvni qo'llash, hamda faol ishtirokini ta'minlash imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar bilan ishlashda raqamli tenglikni ta'minlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish, hamda raqamli savodxonlikni oshirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli muhitga mos innovatsion yondashuvlar yoshlarning ijtimoiy faolligi, ta'limdagi ishtiroki va bandligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Prezident Sh.Mirziyoyev bugungi kunda mamlakatimizning yoshlarga oid siyosati haqida to'xtalib, "Eng muhimi, yoshlar bilan doimiy muloqot olib borish, ularning bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, jamiyatning munosib a'zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi barchamizning kundalik faoliyatimiz mezoniga aylanib bormoqda"[1], deb ta'kidlab o'tdi. Davlatimizda ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Bu tizim zamon talablariga mos ravishda muntazam ravishda takomillashtirilmoqda. Jumladan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilindi va 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Ushbu yondashuv, yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha huquqiy himoyaning ishonchli tizimini yaratishga qaratilgan. Yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosati izchil, manzilli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, viloyatlarda yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilib, mahallalarda yoshlar yetakchilari instituti joriy etildi. Ushbu instituting joriy qilinishi, yoshlarning muammolarini mahalliy darajada, bevosita yashash hududlarida aniqlash va tezkorlik bilan hal etish imkoniyatini yaratdi.

Amalga oshirilayotgan ushbu mexanizmlar natijasida yoshlar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati ilgari belgilangan 30 kundan 5 kungacha qisqartirildi. Bu esa davlat boshqaruvi tizimida yoshlar bilan ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshirdi, yoshlarning muammolariga tezkor va aniq yechimlar topishga xizmat qilmoqda. Mazkur yondashuv, yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega va yoshlar bilan ishlashning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yosh avlodning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tizimli hal etish va ularning bandligini ta'minlash maqsadida 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan 9 million nafar yigit-qizni qamrab olgan balans (ma'lumotlar bazasi) shakllantirildi. Bu esa ularning ehtiyojlari, ijtimoiy holati va kasbiy qiziqishlarini aniqlash hamda shaxsiy yondashuvni ta'minlash imkonini bermoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ma'lumki, har bir jamiyatda amal qiluvchi ijtimoiy ong shakllarida millatning ruhiy, ma'naviy qiyofasi aks etadi. Ijtimoiy ongning shakllari jamiyat a'zolarining tafakkuri, ruhiyati, ma'naviy dunyosi asta-sekinlik bilan o'zgarib borishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 2-martdagi 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi PF-5953-son Qarori hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Mazkur qonunlar yoshlar siyosatining asosiy qoidalarini o'zida mujassam etgan. Qonunlar bunday siyosatni shakllantirish va ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirdi MDH hududida ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalash muammolari, yoshlarning mehnat madaniyatini shakllantirish, ularning ijtimoiylashuvi jarayonida yuzaga keladigan konseptual muammolar, shuningdek, globallashuv jarayonida yuz berayotgan madaniy o'zgarishlarning tarbiyaviy jarayonga ta'siri masalalari, bir qator olimlar tomonidan falsafiy nuqtai nazardan chuqur o'rganib chiqilgan. Jumladan, A.V. Komarova, A.N. Zakharin, G.K. Mamurova, L.V. Udalova, L.P. Krasnorutskiy, O.N. Zhupnik, S.A. Mikhaylovskaya, T.V. Asobina, E.M. Dumnova, Ya.V. Zubashenko kabi tadqiqotchilar tomonidan ushbu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning ilmiy qarashlarida yoshlar o'rtasida ma'naviy yetuklik davri, ular ongida mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy faollikni kuchaytirish, shuningdek, ijtimoiy muhit bilan uyg'unlikda shakllanuvchi madaniy qadriyatlar tizimi asosida ma'naviy yetuk inson tarbiyasining zamonaviy modelini yaratish zarurati alohida urg'u bilan ta'kidlangan. Mazkur tadqiqotlar zamonaviy yosh avlodni tarbiyalashda mehnatga oid qadriyatlar, madaniy meros va zamonaviy global tendensiyalar o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni anglash hamda ularni uyg'unlashtirish yo'llarini ilmiy asoslashga xizmat qilmoqda. O'zbekistonlik faylasuf olimlar E. Qo'dirov [2], I. Sayfnazarov [3], F. Sayfnazarova, V. Qo'chqorov [4] va boshqalar o'z tadqiqotlarida yoshlarning ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati, ularning ijtimoiylashuvi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotdagi o'rni, shuningdek, huquqiy madaniyatni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning ilmiy ishlarida yoshlarning ijtimoiylashuvi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik va psixologik, falsafiy yondashuvlar, shuningdek, jamiyatning huquqiy tizimiga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishning muhimligi ta'kidlangan. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, mazkur mavzuni o'rganishda, tahlil qilishda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan huquqshunoslar, faylasuflar, siyosatshunoslar, psixologlar va boshqa ijtimoiy-gumanitar fan vakillari, soha olimlarining xizmatlari katta ahamiyatga ega. Jumladan, yoshlarni har tomonlama jamiyatga xizmat qiladigan barkamol inson, ma'naviy yetuk shaxs qilib tarbiyalashda jamiyat ma'naviy va madaniy tizimining o'rni ham beqiyos ahamiyatga ega. Ma'naviy va madaniy qadriyatlar o'zgarishi yoshlarning jamiyatdagi faolligi, ularning ijtimoiy

va siyosiy hayotga intilishi bilan bevosita aloqadordir. Muammoning ushbu jihatiga doir ayrim masalalarni to'liq va samarali o'rganishga X.M. Tojiboeva [5], M. Mamotov, O.M. G'aybullayev, E.M. Abzalov [6], Z. Zamonov [7] kabi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratganlar. Ularning ishlarida yoshlarning ma'naviy va huquqiy tarbiyasi, jamiyatdagi islohotlar va ularning yoshlar bilan ishlashdagi ta'siri haqida muhim natijalarga erishilgan. Masalan, X.M. Tojiboeva yoshlar tarbiyasiga oid ijtimoiy-pedagogik prinsiplar va ularning amaliy ahamiyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Shundan kelib chiqib, yoshlar tarbiyasini rivojlantirishda jamiyatning ma'naviy tizimi va milliy qadriyatlarning ahamiyatiga to'g'ri baho beriladi. Mazkur tadqiqotlar natijalari, shubhasiz, yoshlarning ijtimoiylashuvi va ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatdagi muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodning ma'naviy yetuklik darajasini aniqlashda, avvalo, ularning axloqiy dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlarga munosabati, ongli tanlov qilish qobiliyati va ijtimoiy burchga bo'lgan munosabati muhim rol o'ynaydi. Shu bois, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishga oid davlat siyosati, ijtimoiy institutlarning (oilalar, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, diniy tashkilotlar) o'rni va ta'sirini kompleks falsafiy tahlil etish, mavjud yondashuvlar va g'oyalarning zamonaviy talablarga mosligini qayta ko'rib chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb vazifadir.

Natijalar va muhokama. Mazkur ishda yoshlarga ta'lim berish va ularning huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalalari, ijtimoiy-psixologik kontekstda, pedagogik va falsafiy asoslar orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiylashuv jarayonlarida yoshlarga huquqiy bilimlarni o'rgatish, ularning huquqiy ongini shakllantirish, hamda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishda pedagogik tizimning o'rni alohida ko'rsatiladi.

Ushbu yondashuvlarning asosiy maqsadi – yoshlarni zamonaviy huquqiy va ijtimoiy madaniyatga mos ravishda tarbiyalash, ularni jamiyatda faol, huquqiy jihatdan ongli va mas'uliyatli fuqaro, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Tahlil usullari sifatida maqolada falsafiy tafakkurning qiyoslash, umumlashtirish, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi ilmiy usullariga tayanildi.

Xulosa. Xulosa tariqasida ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning zamonaviy ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi hamda har tomonlama ma'naviy yetuk va barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun ilg'or, innovatsion yondashuvlarga asoslangan shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi shaxslar sifatida shakllantirish, shuningdek, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir davlat siyosatini takomillashtirish zamonaviy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonga qaratilgan e'tibor darajasi oshgani sayin, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ham ortib boradi. Yangi O'zbekistonda yoshlar jamiyatning faol va strategik ahamiyatga ega qatlamlaridan biri sifatida qaralmoqda. Davlat siyosatida ular mavjud muammo emas, balki mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim resurs, intellektual va innovatsion salohiyat egasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Aynan shunday zamonaviy yondashuv asosida yurtimizda yuksak bilimga ega, mustaqil va zamonaviy fikrlovchi, ijtimoiy faolligi bilan ajralib turuvchi ma'naviy yetuk yoshlar safi kengayib bormoqda. Ular mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida hal qiluvchi omil sifatida tobora muhim o'rin egallamoqda. Yoshlar taraqqiyotining asosiy omillaridan biri

sifatida ta'lim, mehnat bandligi, ijtimoiy faollik, sog'lom turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy tarbiyani ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ushbu yo'nalishlarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramay, hali ham dolzarb bo'lib qolayotgan bir qator muammolar mavjud. Quyida ushbu muammolarni tizimli tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish lozimligi ta'kidlanadi.

1. **Ta'lim sifatining yetarli darajada emasligi.** Bugungi kunda maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlarida ta'lim sifati turlicha darajada bo'lib, bu jarayonda hududlararo tafovut ham mavjud. Ayrim hollarda ta'lim mazmunining zamonaviy ehtiyojlarga mos kelmasligi, o'qituvchilar malakasining yetarli emasligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmaganligi kuzatilmoqda (Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4312-son qarori).

2. **Yoshlarning ta'lim bilan qamrovi yetarli emas.** Maktabgacha ta'limda qamrov ko'rsatkichi sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, bu hali real ehtiyojni to'liq qondirmayapti. Xususan, chekka hududlarda bog'chalar sonining kamligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi bu borada jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Oliy ta'limda esa talab yuqori bo'lsa-da, qamrov nisbatan past (2022-yilga kelib oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 38% , 2023- yilda 42 % ni tashkil etgan), bu esa ko'plab yoshlarning o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini cheklaydi (Qarang: "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo'ljallangan Ta'lim strategiyasi", 2020).

3. **Kasbga yo'naltirish va mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlik yetishmasligi.** O'quvchilarni erta bosqichda kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Natijada o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash mehnat bozori talablariga to'liq mos kelmayapti, bu esa yoshlar ishsizligi muammosini yanada keskinlashtirmoqda.

4. **Yoshlarning iqtisodiy faolligi va bandligini ta'minlashdagi muammolar.** Yoshlarning barqaror daromad manbaiga ega bo'lmasligi, munosib mehnat sharoitlarining yetishmasligi va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishdagi to'siqlar ularning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Bu borada kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari, huquqiy maslahat xizmati va infratuzilmaning zaifligi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

5. **Ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligining pastligi.** Yoshlarda milliy g'oya va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ishlar ko'lami keng bo'lishiga qaramay, ularning sifati va ta'sirchanligi yetarli emas. Bu holat ayrim yoshlarning yot g'oyalarga ergashishi, huquqbuzarliklar, erta nikohlar va turmushdagi asossiz sarf-xarajatlar kabi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda (Qarang: R.H. Jo'raev, "Yoshlar va ularning ijtimoiy faolligini oshirish muammolari", 2021).

6. **Tibbiy madaniyat darajasining pastligi.** Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish borasidagi sa'y-harakatlarga qaramay, yoshlar orasida yomon odatlar (chekish, spirtli ichimlik iste'moli) va jismoniy faollik yetishmasligi holatlari kuzatilmoqda. Bu esa ularning sog'lig'i va mehnat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

7. **Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar va bolalarning moslashuv muammolari.** Mehribonlik uylari, nogironligi bor yoshlar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadagi shaxslar uchun jamiyatga integratsiyalashuv jarayonlari yetarli darajada samarali yo'lga

qo'yilmagan. Bu esa ularning mustaqil hayotga tayyorlanishini qiyinlashtiradi (Qarang: UNICEF O'zbekiston bo'yicha hisobotlari, 2023).

8. Jamoat va siyosiy hayotda yoshlarning ishtiroki sustligi. Yoshlar jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar faoliyatida yetarlicha faollik ko'rsatmayapti, bu esa fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish orqali mas'uliyat hissini oshirish zarur.

9. Hududiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi. Chekka hududlarda yoshlar uchun sport, madaniyat, axborot texnologiyalari va ijodiy rivojlanishga mo'ljallangan markazlarning yetishmasligi ularning ijtimoiy faolligini cheklamoqda. Bu boradagi infratuzilma barqaror moliyalashtirish va jamoat nazorati asosida takomillashtirilishi lozim

Yuqorida bayon etilgan muammolar O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining takomillashuvi va mazmunan boyitilishi zarurligini ko'rsatadi. Biroq shuni ham qayd etish joizki, mavjud muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda. Qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, davlat dasturlari va ijtimoiy loyihalar yoshlarning jamiyatdagi o'rni va faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlarning ilmiy asoslangan monitoringi va tahlili esa kelgusida yanada mukammal yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/1876>
2. Qo'dirov E. Yoshlar siyosiy madaniyatining shakllanishi. – T.: TDYuI, 2010. – 112 b
3. Sayfnazarov I, Sayfnazarova F. Yoshlar va oila vatan tayanchi. -T.: 2018.– 85b.
4. Qo'chqorov V. Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishning g'oyaviy-siyosiy asoslari. Akademiya. – T.: 2014. – 185 b.
5. Tojiboyeva X.M. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2018.
6. Abzalov E.M. Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish muammolari: Dis... yuridik fan. nomzodi; O'zR IIV Akademiya - T.: 2000. – 153 b.
7. Zamonov Z.T. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'naviy-axloqiy institutlarning o'rni. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T.: 2019. – 91 b.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

REFLECTION OF THE LOWER AMUDARYA AND BUKHARA-KARAKUL REGIONS IN MATERIAL ITEMS

Sultanov Samandar Mahmud ogli,
a teacher of the "History" department
of Urdu State University named
after Abu Rayhan Beruni.
E-mail: samandar194seq@gmail.com

Abstract. The article analyzes the history of archaeological research at the Bronze Age settlements of the South Aral Sea and the Lower Zarafshan Valley.

Keywords: Vinogradov A.V, Itina M.A, Kes A.S, Mamedov E.D, Baratov P, Tolstov S.P, Gulomov Ya.G, Islamov U.I, Askarov A, Turan, Asia, Central Asia, Tashkent, Fergana, Surkhondaryo, Kashkadaryo, Samarkand, Bukhara, Khorezm, Qashqadaryo, Lower Zarafshan, Angka-5, Qavat-3, Kokcha-3, Jonbos 33, 34, Zomonbobo.

QUYI AMUDARYO VA BUXORO-QORAKO'L HUDUDI MANZILGOHLARINING MODDIY ASHYOLARDA AKS ETISHI

Sultanov Samandar Mahmud o'g'li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
"Tarix" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Janubiy Orolbo'yi va Quyi Zarafshon vodiysi bronza davri manzilgohlarida arxeologik izlanishlar tarixi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Vinogradov A.V, Itina M.A, Kes A.S, Mamedov E.D, Baratov P, Tolstov S.P, Gulomov Ya.G, Islamov U.I, Asqarov A, Turon, Osiyo, O'rta Osiyo, Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Oqchadaryo, Quyi Zarafshon, Angqa-5, Qavat-3, Ko'kcha-3, Jonbos 33, 34, Zomonbobo.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N06>


Kirish. Turon pasttekisligi Osiyo materigi o'rtasida joylashgan hudud turli nomda nashrlarda O'rta Osiyo etnogeografik atamada qayd qilingan. O'rta Osiyo mintaqasi hudud yuzasi tuzilishi tog'li va tekislik bo'lib, geologik jarayonlarning mahsuli bo'lgan. Geografiya fani yutuqlari natijalariga ko'ra, O'rta Osiyo geografik o'rin 3 mln 150 ming kv km.ni tashkil etgan [2. B.7.]. Mintaqaning fizik-geografik xaritasida tabiiy geografik hududlari birnecha o'lkalardan iborat. Shunday o'lkalar Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Xorazm dehqonchilik vohalari bo'lib, ularning geografik holati, tabiiy resurslari. Suv zaxiralari, aholi joylashishi bir tarixiy davrda kechgan emas. Mazkur maqolada Turon pasttekisligi tarkibiy qismi bo'lgan Oqchadaryo havzasi, unga geologik va geografik muhiti jihatidan ulanib ketgan Quyi Zarafshon vodiysida bronza davri aholisi hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan turar-joylarini arxeologik jihatidan o'rganilish tarixi yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'rta Osiyo mintaqasida olib borilgan paleogeografik tekshirishlar natijasiga ko'ra, bundan 4-3,5 million yillar tekislik bo'lgan [1-S. 290-291]. Geografik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Janubiy Oqchadaryo havzasi va Quyi Zarafshon vodiysi bir geografik koordinatlarda joylashgan emas, lekin geografik manzaralarini Qizilqum aks ettirgan [2-B. 157-179].

Janubiy Oqchadaryo va Quyi Zarafshon hududlarida neolit davri ovchilar va termachilarni xo'jalik sohasida erishgan natijalari bronza davrida davom etgan [3.C.177. 4-C. 78-117].

Xorazm ekspeditsiyasi adabiyotlarida Tozabog'yob madaniyati masalasida Angqa, Teshikqal'a manzilgohlari to'g'risida ma'lumotlar ilmiy jamoatchilikka havola qilingan, lekin arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan. Yodgorliklar mil.avv. II ming yillik bilan belgilangan [5-S.32]. Janubiy Oqchadaryo havzasida va Quyi Zarafshon vodiysida XX asrning 50 yillaridan bronza davriga oid yodgorliklarda qazishma ishlari amalga oshirilgan. Chunonchi, M.A.Itina Angqa-5, Kavut-3 xamda Ko'kcha-3 qabristonida amalga oshirilgan qazishma ishlari tufayli bronza davriga oid manbalarni olishga erishgan [6-S.52-150,7. S.103-106, 8.-S.82-103. 9.S. 90-103].

Shu bilan birga, M.A.Itina o'tgan asrning 60-70 yillarida Kukcha 15, 16, 21, 22, Jonbos 33,34 manzilgohlarda arxeologik tekshirish ishlarini olib borib, Oqchadaryo havzasida bronza davri etnik jarayonlar tarixiga oid manbalar olingani muhim ahamiyat kasb etdi. [10-S.527]. XX asr 1971-1975-yillarda M.A.Itina Tuyamo'yin hududida Qushqala, Sulton Sanjar va Qarriqizil manzilgohlarida qazishma ishlari olib borilishi natijasida bronza davri tarixiga oid yangi materiallar bilan boyitilgan [II-S.72-79].



1-Rasm. Tozabog'yop madaniyati

XX asr 50 yilidan boshlab Quyi Zarafshon vodiysi xam Ya.G'G'ulomov rahbarligida Maxondaryo arxeologiya guruhi xamda Samarqand davlat universiteti arxeologiya guruhi bronza davriga oid manzilgohlarda qazishma ishlarini olib borishi munosabati bilan noyob ashyolar olishga erishilgan [12-S.266].

A.Askarov Quyi Zarafshon vodiysida qabristonidan Zamonbobo ilk ibtidoiy jamoa tuzumi davrida istiqomat qilgan ovchilar va termachilarni olamdan o'tgan safdoshlari dafn inshootlari yotqizilishi urf-odatlarini tarixiga oid manbalarni olishga erishgan [I3-S.59-65].




Рис. 9. Керамика, терракота и бронза Заманбоба

2-Rasm. Zamonbobo

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geologiya, geografiya, fanlari natijalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Quyi Amudaryo hududida Xorazm ekspeditsiyasi, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Qoraqalpog'iston respublikasi ilmiy markazlari arxeologiya guruhlarini xamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tarix va arxeologiya instituti, Ya.G'.G'ulomov nomidagi arxeologiya instituti xamda Samarqand Davlat Universiteti arxeologiya guruhlarining bronza davriga oid manzilgohlarda olib borgan arxeologik izlanishlar natijalari tahlil qilindi, shu ma'nodan kelib chiqib, quyidagi natijalar qayd qilindi:

-Janubiy Oqchadaryo havzasi va Quyi Zarafshon vodiysi yer osti tebranishlari natijalari mahsuli ekanligi;

-Ikki hududda neolit davri urug' jamoalari avlodlari bronza davrida xo'jalik an'alarini davom ettirdilar.

Ikki hudud yuzasini gidrologik xususiyatini Amudaryo va Zarafshon daryolari toshqini natijasida yuz bergan.

-Mazkur jarayonda Janubiy Oqchadaryoda Oqchadaryo irmog'i, Quyi Zarafshon hududi gidrologiyasi keng hududni qamrab olgan, bunga Mahondaryo Xo'jayli, Oyoqagitma, Daryosoy irmoqlari harakatlari omil bo'lgan.

-Bronza davriga kelganda turar joylar tuzilishi yog'och ustunli, yarim yerto'la shaklda bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Mavzu asosiy mazmuni, tahlil va natijalar quyidagi xulosa va takliflarni izohlash mumkin:

Xulosada esa, Janubiy Oqchadaryo va Quyi Zarafshon vodiysi yaxlit Qizilqum saxroi sharoiti, geografik muhiti jihatidan gidrologik xususiyatlari jihatidan farqlanish holati mavjud.

-Janubiy Oqchadaryo Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida cheklangan. Oqchadaryo irmog'i xam Amudaryo-Qizilqum oralig'i doirasida berk holatda bo'lgan.

Ikki hududda neolit davri yog'och ustunli yer sathiga turar-joylar qurilgan bo'lsa, bronza davrida esa, yarim yerto'la shaklda bo'lgan.

Takliflar quyidagicha izohlandi:

1. Janubiy Oqchadaryo havzasi Quyi Zarafshon vodiysi geografik holati, suv zaxirasi jihatlarini hozirgi zamon bilan taqqoslash;

2. Bronza davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlarning iqtisodiy omillarini o'rganish;

3. Amudaryo va Zarafshon daryolarining qadimgi holati va hozirgi zamon bilan nazariy-qiyosiy tahlil qilish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vinogradov A.V, Itina M.A,Kes A.S, Mamedov E.D. Paleogeograficheskaya obuslovlennost rasseleniya drevnego cheloveka v pustynyah Sredney Azii //Pervobytnyy chelovek, yego materialnaya kultura i prirodnaya Sreda v Pleystosene i Golosene-M.:Nauka, 1974.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi-Tashkent, "O'qituvchi", 1996.
3. Vinogradov A.V, Neoliticheskiye pamyatniki Xorezma-M.:Nauka, 1968. Выр 8.
4. Vinogradov A.V. Drevniye oxotniki i rybolovy Sredneaziatskogo mejdurechya //TrXAE-M.:Nauka. 1981. T.XIII.
5. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm-MGU. 1948.
6. Itina M.A. Novyye stoyanki Tazabag'yabskoy kultury (raboty 1956 //MXE,-M: Nauka, 1959. Выр.L.
7. Itina M.A. Raskopki stoyanki Kavat-3 //MXE-M:Nauka, 1963. Выр-6.
8. Itina M.A. Raskopki stoyanki Tazabag'yabskoy kultury 1957 //MXE-M.:Nauka 1960 № 4.
9. Tolstov S.P. Raboty Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii v 1954 g. /MXE-M:Nauka 1955 № 6.
10. Itina M.A. Raskopki na Akchadarye //AO 1976-M.:Nauka, 1977.
11. Itina M.A.Pamyatniki epoxi neolita i bronzy //Drevnosti Yujnogo Xorezma //TrXAE,-M: 1991. T. XVI.
12. Gulyamov Ya.G, Islamov U.I, Askarov A, Pervobytnaya kultura i vozniknoveniye oroshayemogo zemledeliya v Nizovyx Zarafshana-Tashkent, Fan.1966.
13. Askarov A. Kultura Zaman-Baba v Nizovyx Zarafshana //ONU-Tashkent,:Fan 1962. № 1.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

REFLECTION OF SOCIAL LIFE IN THE HOUSING CONSTRUCTION OF THE POPULATION OF THE KHOREZM REGION DURING THE SOVIET PERIOD (ON THE EXAMPLE OF 1945-1985)

Quranboyeva Sevinchoy Maqsud qizi,
doctoral student of Urganch State University

Abstract. This article analyzes the allocation of state funds to the construction of housing in the Khorezm region during the Soviet era, the number of houses built with these funds, the abolition of khutor-type houses and the construction of modern settlements, changes in the appearance of cities and villages, gasification, and electrification.

Keywords: city, village, settlement, residential area, farm, gasification, electrification, water supply, microdistrict, capital, cottage.

SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA XORAZM VILOYATI AHOLISINING UY-JOY QURILISHIDA IJTIMOY HAYOTNING AKS ETISHI (1945-1985-YILLAR MISOLIDA)

Quranboyeva Sevinchoy Maqsud qizi,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallifning Sovetlar davrida Xorazm viloyatidagi turar joylarning qurilishi masalasiga davlat mablag'larining yo'naltirilishi, bu mablag'lar evaziga qancha uy-joylar qurilganligi, xutor tipidagi uylarning tugatilishi va zamonaviy posyolkalarning qurilishi, shahar va qishloqlar qiyofasidagi o'zgarishlar, gazlashtirish va elektrlashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shahar, qishloq, posyolka, turar-joy, xutor, gazlashtirish, elektrlashtirish, vodoprovod, mikrorayon, kapital, kottej.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N07>

Kirish. Xorazm viloyati shahar va qishloqlarining o'ziga xos xususiyatlari ularning jug'rofiy joylashuvlariga va u yerning iqlim sharoitiga bog'liq bo'lgan. Mo'tadil iqlimni yaratish omili hisoblangan shamollar va ularning yo'nalishining takrorlanuvchanligi har bir tuman imoratsozligida takrorlanmas tartib qoidalar shakllanishiga olib kelgan. Turar joy qurilishi xalq me'morchiligining asosiy yo'nalishi sifatida shahar va qishloqlar qiyofasini belgilovchi muhim omil bo'lib kelgan. Turar joyning tashqi va ichki shakllari, turlari va ko'rinish jihatdan xilma xilligi iqlim, tabiiy geografik sharoit taqozosi, ijtimoiy munosabatlar xususiyati, iqtisodiy moddiy turmush darajasi, madaniy va milliy an'analarga bog'liq holda rivojlanib, murakkablashib borgan. Davrlar o'tgani sayin viloyat aholisining uy-joy qurilishi ishlarida ham ichki o'zgarishlar va yangiliklar kuzatila boshladi. Har yili kapital qurilishlarga davlat tomonidan ko'p mablag'lar ajratilgan. Asosan qishloq joylarida qurilishlar hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Ushbu jihatlarni tadqiq qilish, ayniqsa sovetlar davridagi uy-joy

qurilishining aholi ijtimoiy hayotiga ta'sirini keng jamoatchilikka yetkazish maqolaning asosiy masalasi hisoblanadi.

Metod. Ushbu mavzuni yoritishda ilmiy tadqiqotning bir nechta uslublari, jumladan, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarning tahlili, sintez, shuningdek, qonunlar yaratilishining xronologik tahlili, realligi, xolisligi kabi prinsiplaridan foydalanildi.

Muhokama. Sovet hokimiyati yillarida Xorazm viloyati qishloqlari u yerda yashayotgan insonlarning yashash tarzi asta-sekin o'zgara boshladi. Sovet ittifoqi iqtisodiy va sanoat sohasida rivojlanishga yo'naltirilgan to'rtinchi va beshinchi besh yilliklar (1945-1955-yillar) da ham Xorazm viloyatida uy-joy qurilishiga oid ko'pgina ishlar qilingan. Davlat tomonidan kapital qurilishlar uchun ajratilgan mablag'lar yildan yilga ko'payib bordi. Masalan: viloyatda uy-joy qurilishini amalga oshirish uchun sarflangan mablag'lar miqdori 1954-yilda 11 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'ninchi besh yillikda 243 mln rubl va o'n birinchi besh yillikda 327 mln rublni tashkil qilgan.[1] Bundan ko'rishimiz mumkinki sovet hukumati viloyatdagi uy-joy qurilishiga yillar o'tgani sayin ko'proq mablag' sarflagan va bu albatta aholining uy-joy bilan yaxshi ta'minlanishiga va ijtimoiy hayotini yanada yaxshilanishiga xizmat qilgan. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1946-yil 30-avgustda bo'lib o'tgan VIII sessiyasida aholini uy-joy bilan ta'minlash yuzasidan aniq dasturlar belgilab olindi. Xususan, uy-joy muammosini hal qilish uchun katta miqdorda mablag' ajratildi. Qolaversa uy-joy qurish uchun korxonalarda alohida jamg'armalar tashkil etildi. O'zbekiston SSRda uy-joylar asosan uch xil shaklda qurilgan. Birinchisi, davlat kooperativ korxonalari tomonidan. Ikkinchisi, ishchi mablag'i va davlat krediti hisobiga qurilgan. Uchinchisi, kolxozlar, kolxozchilar va ziyolilar tomonidan qurilgan uy-joylardir.[2] Xorazm viloyatida xutor [3] uylarning ahamiyati katta bo'lgan. Xutorlar asosan qishloq xo'jaligida ishlovchi, ammo shaharlardan uzoq joylashgan, o'z-o'zini ta'minlay oladigan va ayrim hollarda ko'chmanchi hayotni olib boradigan oilaviy yashash joylari edi. Sovet hokimiyati asta-sekin xutor ko'rinishidagi uy-joylarni tugatishga harakat qiladi va bir qancha qarorlarni qabul qiladi. Bunday turdagi uy-joylarni tugatishdan maqsad kollektivlashtirish jarayonini amalga oshirish edi. Xorazm viloyatida hukumat xususiy dehqonchilik va xutorlarni tugatib, ularning o'rniga katta kollektiv ferma (kolxoz) va davlat fermalarini tashkil qilishni maqsad qilgan. Faqat 1954-1955-yillarda viloyat kolxozlarida xutor xo'jaliklarni tugatishda yo'l qo'yilgan xatoliklarga qaramay 3800 dan ortiq zamonaviy uy-joylar qurilib foydalanishga topshirilgan. Bu davrda davlat korxonalari bilan bir qatorda kooperativ tashkilotlar ham aholiga uy-joylar qura boshladi. 1968-yil sentyabrda Markaziy Komitet SSSR Ministrlar soveti va KPSS ning "Qishloqda qurilishni tartibga solish to'g'risida" gi umumittifoq ahamiyatidagi qarori qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra respublikada yangi sovxoz va kolxoz posyolkalari tashkil etish, eski qishloqlarni qayta qurish va uning maishiy, uy-joy sharoitini shaharga bo'yicha ishlar amalga oshirish ko'zda tutilgan.[4] O'zbekiston KP Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1972-yilda "Xutor sistemasini tugatish va Respublika kolxoz va sovxozlarida kapital qurilish ishlarini tubdan yaxshilash tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. 1972-1974-yillarda oblastdagi kolxoz va sovxozlarda 524 ta xutor tugatildi.[5] Aynan shu yildan boshlab viloyat shahar va qishloqlaridagi uy-joylarning ichki va tashqi ko'rinishlarida, qurilish materiallarida ham o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Asosan uy-joy qurilishida arzonroq materiallardan foydalanishga o'ta boshlandi. Shu yildan boshlab g'ishtli va yirik blokli uylarni soni kamayib uning o'rniga karkas panelli (tayyor temir-beton) konstruksiyalaridan yig'ilgan hamda monolit uylar qurilishi ham boshlandi. Aynan shu

yillardan keyin shaharlarda ham g'ishtli uylar keskin kamayib, yirik panelli uylar ancha ko'paya boshlagan.

Natijalar. Urushdan keyin viloyatning shahar va tuman markazlarida ko'plab turar joy binolari, tosh-asfalt qilingan ko'chalar, obod posyolkalar barpo etildi, gazoprovod, suv va elektr liniyalari tortildi. Dastlabki davrlarda ko'plab ko'p qavatli uylarga va ishchi turar joylariga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, sanoatni rivojlanishi bilan birga uy-joylar ham ishlab chiqarish markazlariga yaqin yerlarda qurilgan. Masalan; Gurlan paxta tozalash zavodi va kasaba soyuz komiteti ishchilar va xizmatchilarning madaniy-maishiy ahvolini yaxshilashga alohida e'tibor berib 1955-yilda ishchilar va ularning oilalari uchun 10 ta turar-joy binolarini qurib bergan. Bu kvartiralar elektrlashtirilgan va radiolashtirilgan.[6] Tuman markazlari va jamoa xo'jaliklarida shu yillarda umumiy maydoni 84,6 ming kv metr bo'lgan 1792 ta zamonaviy turar joy binolari qurildi.[7] Urganch, Xiva shaharlarida, rayon markazlari va kolxozlarda ko'plab jamoat binolari va turar joylar qurildi. Dastlab shaharlarda 1937-yildan uy-joy boshqarmalariga qarashli 4-5 qavatli turar-joy binolari, keyinchalik 9 qavatli (1966-yildan) yig'ma temir beton turar joylar qurilishi avj oldi. Qishloq me'morchiligida R. Abdurasulov, A. Mahkamov, V. Kolomenskiy kabi me'morlar loyihasi asosida 2 qavatli kottejlar bunyod etildi. 1960-yilda viloyatda 9800 kv metr uy-joy qurib foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari kolxozlar, kolxozchilar ziyolilar kuchi bilan 10380 uy qurildi.[8] Xorazm viloyatining shahar va rayonlarida keng hajmdagi uy-joy qurilishini amalga oshirish ko'pincha 8-qurilish montaj boshqarmasiga topshirilgan. Bundan tashqari yana 167-trest tomonidan ham viloyat shahar va rayonlar markazlarida uy-joy qurilishlari amalga oshirilgan. Agar 1905-yildan 1986-yilgacha Xorazmning qishloq uy-joy fondi umumiy turar joy maydonining atigi 11,5 mln m² dan 11,8 mln m² ga kengaygan bo'lsa, 1987-yilda u 15,4 mln m² ga yetdi. Ya'ni bir yil ichida o'sish 3,6 mln m² ni tashkil qildi. Uy-joylar qurilishi bilan birga shahar va qishloqlarda ham katta obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.[9] 1985-yilda 400 ming m² zamonaviy tipdagi uy-joylar qurildi. Madaniy qurilishlarning jadallashuvi natijasida ayrim tuman markazlari Shovot, Xonqa, Gurlan shahar qiyofasini oldi. Obod posyolkalar va shaharchalar Xiva va Urganch atroflarida ham paydo bo'ldi. Xivaning "Kosmobod" zonasida esa yangi shaharcha vujudga keldi. Xorazm viloyatida 1955-yildan boshlab shahar va qishloqlarda aholi xonadonlariga vodoprovod o'tkazish ishlari boshlab yuborildi. Yangi turar joylar qurilishi natijasida viloyatdagi shaharlarda ko'p qavatli turar joy uylari bunyod etilgan butun-butun mikrorayonlar yuzaga keldi.[10]

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak Xorazm viloyatida 1945-1985-yillarda qurilgan uy-joylar aholining ijtimoiy hayotini va kundalik turmush tarzini yaxshilanishiga katta hissa qo'shdi. Aholi xutor tipidagi uylardan voz kechib yangi zamonaviy qilib qurilgan posyolkalarga ko'chib o'tishi ularning ijtimoiy hayotining yaxshilanishiga ta'lim, fan va madaniyatning rivojlanishiga shu bilan birga kundalik turmush tarzini yaxshilanishiga olib keldi. Shahar va qishloqlar qiyofasi yildan-yilga go'zallashib bordi. Aholi xonadonlari gazlashtirildi, elektrlashtirildi. Bularning hammasi aholi farovonligini oshirishga katta hissa qo'shdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 1972-yil. – №9. 3-b.
2. O'zbekiston tarixi. XI jild, -Toshkent; "O'zbekiston" 2023. 413-b.
3. Rossiyada qo'rg'oni, uylari bilan alohida ajratib, o'rab olingan, muayyan shaxsga qarashli yer maydoni.

4. Xorazm haqiqati, 1969-yil 6-iyun. – №110. (11111).
5. Xorazm haqiqati, 1975-yil 5-iyun. – №109. (12647).
6. Xorazm haqiqati, 1955-yil 3-yanvar . – №13 .
7. M. Matniyozov. “Xorazm tarixi”. 2-jild, Xorazm tahririyat-nashr bo’limi.Urganch, 1997. -B. 201.
8. Xorazm haqiqati, 1960-yil 30-yanvar. – №38 (8713).
9. Р. Джуманиязов. Хорезм краткий очерк политической и социально- экономической истории 1920-1990 гг. Ургенч, издательство “Фан “1991 г. 78-б
10. Tohirov R. Do’st haqida so’z . – Toshkent: “Muharrir”, 2013, -B. 22.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE IMPACT OF THE SOVIET GOVERNMENT'S AGRARIAN POLICY ON THE IRRIGATION SYSTEM OF THE UZBEK SSR (1950–1990)

Mamajanov Azizbek Alisher ugli

Doctoral Student at Fergana State University

Abstract. In the article it is analyzed the policy of the centre of the further strengthening mono cultural clap in Uzbekistan that in undertaken measures on building of large irrigation canals and pumping stations in republic on the bases of archival sources and a historical material in 50-80 XX century.

Keywords: irrigation, irrigation canal, pumping station, siphon, collector, drainage, Soviet government, centre, cotton monopoly.

SOVET HUKUMATI AGRAR SIYOSATINING O'ZBEKISTON SSR IRRIGATSIYA TIZIMIGA TA'SIRI (1950-1990-yillar)

Mamajanov Azizbek Alishe o'g'li

FarDU doktoranti

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 50-80-yillari arxiv manbalari va tarixiy materiallar asosida O'zbekiston SSRda paxta yakkahokimligini yanada mustahkamlash, respublikada yirik sug'orish kanallari va nasos stansiyalarini qurish choralarini ko'rgan markazning siyosati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: irrigatsiya, irrigatsiya kanali, nasos stansiyasi, sifon, kollektor, drenaj, sovet hokimiyati, markaz, paxta monopoliyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N08>

Kirish. 1950-yilda Sovet hukumati O'zbekistonda siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni belgilab olgan holda, amaliy hayotga sug'orish tizimini rivojlantirish va melioratsiya inshootlarini qurish bo'yicha siyosatni joriy etishni boshladi. Shu sababli, respublikada sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish maqsadida qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish imkoniyatlari kengaytirildi, sug'oriladigan maydonlar hajmi oshirildi, sug'orish maydonlarini tekislash choralarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi, shuningdek, sug'orish-melioratsiya sanoatini rivojlantirishga oid bir qator qarorlar qabul qilindi.

Tadqiqot usullari. Mazkur maqolani yozish jarayonida qiyosiy tahlil, muammo-xronologik, obyektivlik, tuzilmaviy-tizimli tahlil hamda og'zaki tarix kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar. Xususan, 1952-yil 13-martda SSSR Vazirlar Kengashining "Sug'orish kanallarini qayta qurish va yangi sug'orish tizimiga o'tish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [1]. Mazkur qarorga muvofiq, respublikada 1,5 million gektar maydonda 570 million m³ hajmda tuproq ishlari amalga oshirildi hamda Respublika Suv xo'jaligi vazirligi tarkibida 24 ta mashina-ekskavator stansiyasi (MES) tashkil etildi [2, 106-bet].

Shu bilan bir vaqtda, 1954-yil fevral oyida SSSR Vazirlar Kengashi va KPSS Markaziy Qo'mitasining navbatdagi qarori bilan sug'oriladigan yer maydonlarini kengaytirish masalasi ko'rib chiqildi. Mazkur hujjatga ko'ra, respublikadagi 600 ming gektar sug'oriladigan yer maydonining 300 ming gektariga paxta ekinlari joylashtirildi [3, 94-bet].

Aynan shu davrdan boshlab, respublikadagi sug'orish va melioratsiya ishlari to'liq ravishda paxta yakkahokimligiga bo'ysundirildi. Biroq, amalga oshirilgan sug'orish ishlari o'z navbatida yangi yerlarni o'zlashtirish va paxta hosildorligini oshirish imkonini yaratdi.

1955-yildan boshlab Sovet Ittifoqida "Tabiatni inson irodasiga bo'ysundirish" degan mafkuraviy shior ostida keng ko'lamli agrar va texnogen islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu siyosatning asosi "Sug'orish manbalaridan xohlagancha suv olish mumkin, ularning zaxirasi cheksiz" degan noto'g'ri g'oyaga tayanardi. Ushbu yondashuv, o'z navbatida, Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududida keng miqyosda suv resurslaridan haddan tashqari foydalanishga olib keldi.

Sovet rahbariyatining asosiy maqsadi O'zbekistonni SSSRning "paxtakor bazasiga" aylantirish edi. Shu sababli suv resurslaridan oqilona foydalanish emas, balki maksimal hosil olish siyosati ustuvorlik kasb etdi. Ayniqsa, paxta yetishtirish rejasi har yili ortib bordi va bu holat mahalliy ekologik va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olmagan holda amalga oshirildi. Masalan, 1956-yilda O'zbekistonda 2 million 900 ming tonna paxta xomashyosi yetishtirildi, bu 1955-yilga nisbatan 400 ming tonnaga ko'p bo'lib, paxtachilik sohasi uchun rekord darajadagi ko'rsatkich edi [4, b.204].

Bu yuksak ko'rsatkichlarga erishish uchun sug'orish infratuzilmasini kengaytirish zarur edi. 1954–1960-yillar oralig'ida sug'oriladigan yer maydoni 2 million 200 ming gektardan 2 million 474 ming gektargacha oshdi, ya'ni 274 ming gektar yangi yerlar sug'orishga jalb qilindi [5]. Ushbu o'sish paxtachilik uchun yangi imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, uning ekologik va ijtimoiy jihatlari e'tibordan chetda qoldi.

1959–1965-yillarda Sovet Ittifoqining yetti yillik rivojlanish rejasi doirasida O'zbekistonda keng ko'lamli sug'orish va melioratsiya ishlari amalga oshirildi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi, Zarafshon vodiysi, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston hududlarida yangi ariqlar, kanal tarmoqlari va drenaj tizimlari qurildi. 700 ming gektar yerning meliorativ holati yaxshilandi, shuningdek, 500 ming gektar yangi sug'oriladigan maydonlar barpo qilindi.

Biroq bu infratuzilmaviy yutuqlar bilan birga og'ir ekologik muammolar ham yuzaga keldi. Eng avvalo, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining paxta maydonlariga haddan ortiq yo'naltirilishi natijasida Orol dengizi sathi tez sur'atlarda kamayib bordi. Dengizning qurishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatdi — tuproq sho'rlanishi, yerlarning yaroqsiz holga kelishi va sog'liqni saqlash sohasidagi muammolar kuchaydi [6, b.214].

Sovet hukumati bu muammolarni anglagan holda, 1966-yil may oyida KPSS Markaziy Qo'mitasi tomonidan "Yerlarni keng miqyosda o'zlashtirish" to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan maxsus dastur ishlab chiqildi va bu dastur O'zbekistonning qishloq xo'jaligida joriy etildi [7, b.230]. Melioratsiya tadbirlari orqali ilgari foydalanilmagan sho'r yoki chala yaroqli yerlar o'zlashtirildi va ishlab chiqarish aylanishiga kiritildi.

Ammo bu siyosat ham qisqa muddatli iqtisodiy natijalarni ko'zlagan bo'lib, uzoq muddatda ekologik muvozanatning buzilishiga olib keldi. Orol fojiasi, tuproqning sho'rlanishi,

suv zaxiralarining kamayishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi muammolar keyinchalik xalqaro miqyosdagi ekologik inqiroz sifatida baholandi.

1981–1985-yillarni qamrab olgan o'n birinchi besh yillik reja (xalq xo'jaligi rivojining rejalashtirilgan bosqichi) doirasida O'zbekiston Respublikasida sug'orish va melioratsiya sohalarida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirildi. Bu davrda 238,6 ming gektar yangi sug'oriladigan yerlar o'zlashtirildi, 461 ming gektar yerlarning meliorativ holati yaxshilandi, 300 ming gektar maydonda yer sathlari tekislandi. Shuningdek, suv resurslarini tartibga solish va suv ta'minotini barqarorlashtirish maqsadida, umumiy sig'imi 1900 million m³ bo'lgan to'rtta yangi suv ombori, jumladan Andijon suv ombori foydalanishga topshirildi [8].

Shu bilan birga, Tuyamuyin gidrotexnika inshooti tizimida, shuningdek, Hisorak, Zomin, Oqdaryo, Qorovultepa va Oqtepa suv omborlarida qurilish ishlari yakunlandi. Bu infratuzilmaviy loyihalar respublikaning qishloq xo'jaligida, xususan paxtachilikda suv bilan ta'minlash samaradorligini oshirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'sha davrda sug'oriladigan yerlarning 75 foizi aynan paxta maydonlari sifatida ajratilgan edi [8].

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida paxtachilikning haddan tashqari ustuvorlik kasb etishi natijasida (ya'ni "paxta monopoliyasi") uzoq yillar shakllangan sug'orish an'analari va ekin almashinuvi tizimlari izdan chiqdi. Bu holat nafaqat ekologik muvozanatga, balki yer unumdorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Respublika bo'yicha suv xo'jaligi tizimining texnik holatini yaxshilash maqsadida SSSR markazidan turli ko'rsatmalar va farmoyishlar yuborildi.

Xususan, O'zbekiston SSR Suv xo'jaligi vazirligining "To'dako'l suv omborida vaqtinchalik to'g'on tizimini qurish to'g'risida"gi buyrug'ida suv omboridan 100 million m³ hajmda suvni chiqarish inshootini qurish topshirig'i suv xo'jaligi rahbarlariga yuklatilgan edi [9].

Qashqadaryo viloyatining irrigatsiya tizimini yaxshilash maqsadida ham muhim loyihalar amalga oshirildi. 1957-yilda Yakkabog'daryoda Qamashi suv omborining qurilishi, 1963-yilda esa Chimqo'rg'on suv omborining qurilishi yakunlandi. Bu inshootlar viloyatdagi sug'oriladigan yerlarga suv yetkazib berish hajmini sezilarli darajada oshirdi. Masalan, Chimqo'rg'on suv ombori foydalanishga topshirilganidan oldin, ya'ni 1962-yilda viloyatda paxta hosili 139 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1966-yilga kelib bu ko'rsatkich 218 ming tonnaga yetdi, ya'ni 57 foizga o'sdi [10, 99-bet].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekiston hududida suv omborlari qurilishi bilan bog'liq asosiy maqsad suv resurslarini tejash va ularni paxtachilik manfaatlari yo'lida samarali foydalanishdan iborat edi. Shu sababli, Sovet Ittifoqi rahbar organlari tomonidan respublika hududida suv omborlarini qurish bo'yicha olib borilgan siyosat yildan-yilga kengaytirib borildi. Xususan, 1981–1990-yillar davomida sug'orish infratuzilmasining rivojlanishi hisobiga respublikadagi suv omborlari soni 23 taga yetkazildi, 15 ta omborda qurilish ishlari davom ettirildi va yana 6 tasi loyiha bosqichida edi [11].

Sovet davrida qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi yotuvchi (gorizontal) va tik (vertikal) drenaj tarmoqlari, kanallar hamda nasos stansiyalari O'zbekiston sug'orish tizimining tarkibiy qismlariga aylantirildi. Bu inshootlardan foydalanish paxtachilik tarmog'ining jadal rivojlanishiga xizmat qildi. Shu boisdan ham kanallar va nasos stansiyalarining texnik holatini yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rildi.

Xususan, 1952-yil 12-iyulda SSSR Paxtachilik vazirligining "Buyuk Farg'ona kanalining texnik holatini yaxshilash choralariga oid" buyrug'iga muvofiq, ushbu kanalning texnik

ekspluatatsiya darajasi sezilarli darajada yaxshilandi [12]. Bu holat, o'z navbatida, Farg'ona vodiysida paxtachilik ishlab chiqarishining intensivlashuviga olib keldi.

Shuningdek, 1970-yil 17-fevralda O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi hamda O'zbekiston SSR Ministrlar Kengashining "Amu-Buxoro kanalining qurilishining ikkinchi bosqichini amalga oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [13]. Bu qaror respublikada yirik sug'orish infratuzilmasini yanada kengaytirish va paxta yetishtirish salohiyatini oshirishni maqsad qilgan edi.

XX asrning 1970–1980-yillaridan boshlab qishloq xo'jaligida asosan ekstensiv rivojlanish modeliga tayanilgan bo'lib, yangi yerlar o'zlashtirish va irrigatsiya maydonlarini kengaytirish bosh strategiyaga aylantirildi. Natijada, 1950-yilda 2 million 276 ming gektarni tashkil etgan sug'oriladigan yerlar maydoni 1986-yilga kelib 4 million 20 ming gektarga yetkazildi.

Shunga qaramay, 1986-yilga kelib, sug'oriladigan yerlarning uchdan bir qismi sho'r bosish oqibatida meliorativ holatining yomonlashuviga duch keldi. Ayniqsa, sho'rlanish darajasining ortishi va yer osti suvlari sathining ko'tarilishi oqibatida hosildorlik pasaydi. Shu davrda, 1970–1980-yillarda deyarli 5 ming gektar sug'oriladigan yerlar meliorativ jihatdan yaroqsiz holga kelib, qishloq xo'jaligi aylanasi chiqarib yuborildi [14, b.554].

Umumiy qilib aytganda, Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish va paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan sug'orish va melioratsiya siyosati qisqa muddatli iqtisodiy natijalarni ta'minlagan bo'lsa-da, uzoq muddatli ekologik muvozanatni buzish, yerlarning sho'rlanishi va Orol muammosi kabi jiddiy ekologik inqirozlarni yuzaga keltirdi. Shu tariqa, suv infratuzilmasining rivojlanishi bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sir kuchayib bordi.

1960-yildan 1980-yilgacha respublikada paxta ekilgan maydonlar hajmi 30% ga oshdi va 1980-yilda ular 2 million gektarga yetdi. Bu esa qishloq xo'jaligi sohasida paxta monopoliya ustuvorligini ta'minladi. Markaz tomonidan ma'muriy-majburlash usuliga asoslangan siyosat ostida "oq oltin" deb atalgan paxta xomashyosini yig'ish jarayoni barcha imkoniyatlar bilan kuchaytirildi [15, 6-bet].

Sovet hukumatining agrar siyosati ta'sirida suv tabiiy ko'tarilmaydigan hududlarda paxta maydonlari tashkil etildi va ularni sug'orish uchun nasos stansiyalari qurildi. 1955–1959-yillarda Farg'ona vodiysida 9 ta nasos stansiyasi ishga tushirilib, 10 ming gektar yer sug'orildi [16, 75-bet]. Respublika bo'yicha kollektor-drenaj tarmoqlarining umumiy uzunligi 37 kilometr ga yetdi. Suv yo'qotilishini kamaytirish maqsadida 1959–1965-yillarda suv yetishmasligi bo'lgan hududlarda 545 kilometr kanal betonlandi [17].

1965-yilda O'zbekiston SSR sug'orish tizimida 2090 dona nasos ishlatilgan [18]. Har yili Amudaryo kollektor-drenajidan 3 milliard kub metr suv oqizilib, suvning mineralizatsiyasi 1-4 grammgacha yetgan. 1970–1985-yillarda Amudaryo suvining sho'rlanish darajasi ikki barobarga oshdi. Chunki Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo hududlaridan Amudaryoga har soniyada 40-60 kub metr, tarkibida 18 gramm sho'rlangan suv oqizilgan. Sirdaryo suvining mineralizatsiyasi esa 1,29 gramm sho'rlikni tashkil qilgan [19]. Bu esa keyinchalik baliqchilik sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi [20, 311-bet].

Xulosa. Manba va adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, birinchidan, 1955–1966-yillar oralig'ida O'zbekistonda amalga oshirilgan sug'orish va melioratsiya siyosati qisqa muddatda agrar sohada sezilarli yutuqlarga olib kelgan bo'lsa-da, uzoq muddatda

mamlakatning ekologik xavfsizligiga jiddiy putur yetkazdi. Suv resurslaridan mas'uliyatsiz foydalanish, faqat paxta hosiliga yo'naltirilgan siyosat, mahalliy sharoitlarni hisobga olmaslik – bularning barchasi bugungi kunimizgacha davom etayotgan ekologik va ijtimoiy muammolarning ildizidir. Bu davr tajribasi hozirgi kunda barqaror suv siyosatini shakllantirish, ekologik muvozanatni saqlash va resurslardan oqilona foydalanish zaruratini yana bir bor ta'kidlaydi.

Ikkinchidan, 1981–1985-yillar oralig'ida O'zbekiston sug'orish va melioratsiya sohasida yirik infratuzilmaviy natijalarga erishdi. Biroq, paxta yetishtirishning mutlaq ustuvorligi ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Bu tajriba yerdan foydalanishda muvozanatli yondashuv va ekin almashinuvi tizimining muhimligini yana bir bor isbotladi.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borishi va uning atrofidagi hududlarda yuzaga kelgan ekologik muammolar nafaqat tabiiy muvozanatni buzdi, balki mintaqa aholisi sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Orol mintaqasida yuqumli va surunkali kasalliklarning ko'pligi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, ayniqsa, tomoq saratoni kasalligi ko'rsatkichlari eng yuqori darajaga ko'tarilgan. Bu kasalliklar ko'pincha havoda, suvda va tuproqda mavjud bo'lgan zararli kimyoviy moddalarning salbiy ta'siri bilan bog'liqdir.

To'rtinchidan, respublikaning shimoli-g'arbiy hududlarida yangi tug'ilgan chaqaloqlar o'lim darajasi yuqori bo'lib, bu esa mintaqadagi sog'liqni saqlash tizimining holati va ekologik sharoitlarning ta'siri bilan izohlanadi (Islomov, 2015). Ichki daryolar havzalari turli ifloslanish manbalaridan zarar ko'rgan, bu esa aholining salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, oshqozon-ichak kasalliklari, xolera, sil, gepatit kabi epidemiyalar tarqalishiga olib keldi.

Beshinchidan, suv va tuproq ifloslanishi natijasida organizmga zararli moddalar kirib, immun tizimining susayishi, qator yuqumli kasalliklarning ko'payishi va surunkalashuvi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Oltinchidan, ekologik ofatlar va inson salomatligidagi muammolar o'rtasidagi bog'liqlik Orol mintaqasida jiddiy muammo sifatida qaralishi lozim. Shu sababli, suv resurslarini tejash, ekologik holatni yaxshilash va aholining sog'ligini himoya qilish bo'yicha tizimli va keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi (O'z MA), R-837-fond, 38-ro'yxat, 3803-ish, 234-bet.
2. Бегматов И., Мукхамедов А. Ўзбекистонда суғориш тарихи. – Тошкент: ТИМИ, 2008.
3. Игамбердиев Р.С., Раззаков А.А. Ўзбекистонда ерларни мелиоратсия қилиш тарихи (Мирзачўл материаллари асосида). – Тошкент: Фан, 1978.
4. Совет Иттифоқи Коммунистик Партиясининг XX съезди. 1956-йил 14–25 феврал: стенографик баённома И. – Тошкент: Уздавнашр, 1957.
5. O'z MA, R-2483-fond, 1-ro'yxat, 345-ish, 46-bet.
6. Рашидова Г., Комилов Д. Шароф Рашидов: Вақт ойнасида инсон ва инсон тақдирида вақт. – Тошкент: Тасвир, 2017.
7. Ризаев Г. Ўзбекистонда сотсиалистик қишлоқ хўжалиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978.
8. Сапоев К. Ерларни мелиоратсия қилиш самарадорлигини оширайлик // Ўзбекистон Қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1986. – №2.
9. O'z MA, R-2483-fond, 1-ro'yxat, 954-ish, 38-bet.
10. Мамедов А. Ўзбекистонда суғориш ва суғорувчилар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971.

11. Акрамов З.М., Рафиков А.А. Орол денгизининг ўтганлиги, ҳозирги ва келажаги. – Тошкент: Меҳнат, 1989.
12. Andijon viloyati Davlat Arxivi, 602-fond, 1-ro'yxat, 56-ish, 39-bet.
13. O'z MA, R-2700-fond, 1-ro'yxat, 742-ish, 167-bet.
14. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Совет мустамлакачилик даврида Ўзбекистон. – Тошкент: Шарк, 2000.
15. Spoor M. Agricultural Restructuring and Trends in Rural Inequalities in Central Asia: A Socio-Statistical Survey. Programme on Civil Society and Social Movements -Geneva: UNRISD, 2004.
16. Ўзбекистон колхоз ва совхозлар тарихи (иншо). Биринчи китоб. Бош муҳаррир: М.Г. Вахобов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969.
17. Суғориш ва ерларни мелиоратсия қилиш – юқори ва барқарор ҳосилга еришиш йўли // Правда Востока, 1966-йил 22-июн.
18. O'z MA, R-2676-fond, 1-ro'yxat, 1010-ish, 80-bet.
19. Юсупов Е., Зиядуллаев С. Орол жонланиши учун! Орол ривожланиши учун! // Правда Востока, 1987-йил 7-июл.
20. Enger E., Smith B. Environmental Science. A study of Interrelationships. Fifth edition. -USA: The McGraw-Hill Companies, 1995.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

CONTRIBUTION OF ACADEMICIAN ABDULAKHAD MUKHAMEDZHANOV TO THE DEVELOPMENT OF HISTORICAL AND ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN UZBEKISTAN

Bakhritdinov Jasurbek Mirzabek ugli

1st year Master's student

Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract. This article describes the contribution of academician Abdulahad Mukhamedzhanov to the development of historical and archaeological science in Uzbekistan. In particular, the article attempts to highlight the scientist's research work in the field of archeology, toponymy, and ethnography using the example of his works and published articles.

Keywords: Archeology, irrigation, cartography, entrepreneurship, toponomics, Nizhny Zarafshan.

AKADEMIK ABDULAHAD MUHAMMADJONOVNING O'ZBEKISTONDA TARIX VA ARXELOGIYA FANLARI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Baxritdinov Jasurbek Mirzabek o'gli

Guliston davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti.

E-mail: jasurbaxritdinov019@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik olim Abdulahad Muhammadjonovning O'zbekistonda tarix va arxeologiya fanlarining rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z boradi. Xususan, maqolada olimning arxeologiya, toponimika, etnografiya sohalarida olib borgan tadqiqot ishlari, uning asarlari, chop ettirgan maqolalari misolida yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Arxeologiya, irrigatsiya, kartografik, sohibqiron, toponimika, Quyi Zarafshon.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N09>

O'zbekistonda tarix va ijtimoiy fanlarning taraqqiyotida ko'plab yetuk olimlar faoliyat olib borgan bo'lib, ular o'zlarining ilmiy izlanishlari, pedagogik faoliyati va tarixiy merosimizni tadqiq qilishdagi yondashuvlari orqali tarix fanining taraqqiyotiga katta hissa qo'shishgan. Ular asosan O'zbekiston va Markaziy Osiyo tarixining qadimgi, o'rta va yangi davrlarini o'rganishga ixtisoslashgan bo'lib, turli davrdagi mintqa mamlakatlarining siyosiy tuzilmalari, madaniy hayot va diplomatik aloqalar yuzasidan qimmatli ilmiy ishlar olib borgan. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, undan xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"[1], deb ta'kidladilar. Bu borada o'zbek milliy arxeologiyasining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, shonli tariximizni o'rganishda o'z maktabini yaratgan olim, ajdodlardan noyob xazina bo'lgan yodgorliklarni muhofaza qilishda "ma'naviy jasorat" sohibi bo'lgan Abdulahad Muhammadjonov hayoti va faoliyati bu borada namuna bo'lib xizmat qiladi.

Tariximizni ana shunday milliy ruhda chuqur o'rgangan professor Abdulahad Muhammadjonov o'zining ilmiy izlanishlari, pedagogik faoliyati va tarixiy merosni tadqiq qilishdagi yondashuvlari orqali tarix fanining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. U asosan O'zbekiston va Markaziy Osiyo tarixining o'rta asrlar davrini o'rganishga ixtisoslashgan bo'lib, ayniqsa Temuriylar davri, Movarounnahr siyosiy tuzilmalari, madaniy hayot va diplomatik aloqalar yuzasidan qimmatli ilmiy ishlar yaratgan. Uning ko'plab monografiyalari, maqolalari va o'quv qo'llanmalari bugungi kunda ham vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi.

Abdulahad Muhammadjonov 1931-yil 26-dekabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1946-1951-yillarda O'rta Osiyo universitetining Sharq fakultetida tahsil olgan. Ma'lum vaqtlarda maktablarda ishlab, 1952-1955-yillardan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Sharqshunoslik institutining aspiranturasida o'qigan. 1955-yilda "Характеристика некоторых письменных истории повозникновения Бухари с Россией (20-50 гг XIX в)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, O'zbekiston Respublikasining Tarix va arxeologiya institutida, kichik xodim, katta xodim, bo'lim mudiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. Shu vaqtlarda mazkur institutga mashhur arxeolog, O'zbekiston arxeologlarining keng ma'nodagi otasi Yahyo G'ulomov rahbarlik qilgan edilar. A.Muhammadjonov mehnat faoliyatining katta qismini Akademik Yahyo G'ulomov boshlab bergan, mamlakatimizda arxeologiya fanini chuqur va har tomonlama o'rganishga qaratdi.

Abdulahad Muhammadjonov – birinchi o'zbek arxeolog olini Yahyo G'ulomovning shogirdlari orasida eng ko'zga ko'ringanlaridan biri bo'lib, u olimning birinchi shogirdlaridan edi. Yahyo G'ulomov shogirdi A.Muhammadjonovda arxeologiyaga qiziqish uyg'ota oldi. Natijada, A.Muhammadjonov o'z ustoz bilan Moxandaryo arxeologik ekspeditsiyasida uzoq yillar ishladi. Sug'orma dehqonchilikni arxeologik tadqiqotlar asosida o'rganish u kishini hayot mazmuniga aylandi. Shu sabab akademik Yahyo G'ulomov rahbarligida 1973-yilda "Quyiy Zarafshon vodiysining sug'orish tarixi (Qadimgi zamondan to XX asr boshigacha)" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ustoz Yahyo G'ulomov bilan birga ilk marta 1956-yilda Buxoro yaqinidagi Qizilqir arxeologik ekspeditsiyasida qatnashar ekan, olim o'z ustoz ish uslubining puxtaligi, rejasining aniqligi haqida alohida to'xtalib o'tadi[2; 7].

Abdulahad Muhammadjonov O'zbekiston xalqlar tarixi, madaniyati, xususan sug'orma dehqonchilik sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, tarix va arxeologiya fanida o'ziga xos yangi maktab yaratdi. Olim arxeologik tadqiqotlari asosida bir qancha ilmiy kitob va ma'lumotlar yozib qoldirdi. Jumladan, "Poykand shahar xarobasi", "Buxoro shahri 2500 yoshda (arxeologik lavhalar va tarix)", "Qadimgi Buxoro (arxeologik tarix va lavhalar)" kabi asar va maqolalari bilan Buxoroning qadim tarixini o'rganishda o'zining munosib hissasini qo'shgan bo'lsa, o'zbek davlatchiligiga doir tadqiqotlari doirasida esa "Amir Temur" (risola), "Temur va temuriylar saltanati", "Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlariga doir manbalar" (XX asr 20– 50-yillar) kabi ilmiy tadqiqotlari bilan davlatchilik tariximizni o'rganishda ham muhim tadqiqotlar olib bordi. Bugungi kunda ham respublika umumta'lim maktablari uchun nashr qilinayotgan 7-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligi muallifi A.Muhammadjonov hisoblanadi[3. 12-bet].

Abdulahad Muhammadjonov O'zbekistonning sug'orilish tarixiga doir "Quyiy Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi" (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha) kitobi katta ahamiyatga ega. Ushbu asarda Buxoro va Samarqand viloyatlarini suv bilan ta'minlashda

ko'pgina qadimiy sug'orish usullari qo'llanilganligini arxeologik, etnografik, arxiv va tarixiy manbalar asosida ishonchli dalillar bilan ilmiy talqin qiladi. Ayniqsa, o'sha davr tilida qo'llangan sug'orishga doir ko'plab terminlar va ularning anglatgan ma'nolarini keltiradiki, bunday terminlar til tarixi va xalq tarixini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi. Birgina misol, olim "Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi" kitobida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi; Buxoroning suv xo'jaligiga oid bir tarixiy hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, daryo oqimi o'rtacha bo'lgan davrlarda Zarafshonning quyi qismidagi tumanlarni suv bilan ta'minlash uchun ikki yo'l "nimjo'y" va "partovta" shuningdek, Buxoro dehqonlarining iborasi bilan aytganda, "obparta" usullari qo'llangan. "Nimjo'y" — daryo suvining yarmisi, "partovta" – daryo suvining hammasi, bu usul bilan daryo suvining hammasi Buxoro hududiga tashlanganligi va shu kabi bir qator muhim ma'lumotlar keltirib o'tilgan. O'rta Osiyoda yagona Forishdagi o'ziga xos "Akveduk", Somoniylar davriga mansub suv ombori bo'lmish Xonbandi inshootini o'rganishda ham olim katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. XVI asrda Abdullaxon II davrida qayta qazilgan Tuyatortar kanali aynan akademik Abdulahad Muhammadjonov tomonidan maromiga yetkazib o'rganilgan edi. Bu o'rganishlari natijasida Jizzax vohasi uchun Tuyatortar kanali orqali Zarafshon suvining yettidan bir qismi olingani to'grisida va boshqa muhim ma'lumotlar keltirilgan.[4. 143-bet]. Shu o'rinda A.Muhammadjonovning yana bir katta xizmati qadimgi tarix, arxeologiya, etnografiya fanlari kashfiyotlari, ilmiy yangiliklarini keng jamoatchilikka kundalik matbuotda ilmiy ommabop usulda yoritib borganligidir. Bunda juda katta mazmun va mantiq bor. Sababi, mamlakatimizda tarix va arxeologiya fani yutuqlarini oddiy o'quvchilar, xalqqa qisqa va lo'nda etkazib berishda A.Muhammadjonovning targ'ibotchi sifatlarini ham alohida ta'kidlab o'tmoq kerak. Chunki agar 1930-1970-yillarda aholida arxeologiya obyekti va uni ilmiy qadr-qiymati haqida ma'lumot va tushunchalar juda kam bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunga qadar ham jamiyatda arxeologik obyektlarni buzib tashlanish holatlari uchrab turibdi. Shuning uchun ham A.Muhammadjonov uzoq yillar "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", "Fan va turmush", "O'zbekiston moddiy madaniyat tarixi" gazetalarida muntazam ravishda o'zining tarix, arxeologiya, madaniy meroslarimiz holati haqida maqolalarini chop etib borgan.

Shuningdek, Abdulahad Muhammadjonovning Vatanimiz tarixini ajralmas qismi bo'lgan, Buxoro amirligi davrini o'rganishda qilgan eng katta xizmati "Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – нач. XX вв.) Материали к исторической географии Средней Азии" nomli kitobining chop etilishidir. Muallifning mazkur kitobida o'zbek xalqi tarixida ilk bora O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining "Buxoro amiri qo'shbegi devonxonasi" jamlamasi hujjatlari asosida Buxoro amirligidagi geografik nomlar ro'yxati to'la ravishda berilgan. Ushbu kitobda Buxoro amirligi hududiy tuzilishi to'g'risida nihoyatda muhim va boy geografik, tarixiy – etnografik va lingvistik ma'lumotlar jamlangan bo'lib, bu ma'lumotlar Buxoro amirligi tarixini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlarini tayyorlashda muhim o'rin kasb etadi. Shunisi qimmatliki, ushbu asarda Buxoro amirligining 10 mingdan ortiq ma'muriy, hududiy tuzilmalari, ya'ni viloyat, tuman, amlak, mavze, bekcha, qishloq nomlari keltirilgan. Ayrim holatlarda hatto ularning aholi soni ham ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, ushbu kitobda "1915-yilda Buxoro amirligi 27 viloyat va 11 tumandan iborat" – bo'lganligi qayd etilgan.[5. 4 л].

Abdulahad Muhammadjonov ilmiy faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi toponimika sohasiga doir tadqiqotlar hisoblanadi. Bizga qoldirgan "Qadimgi Toshkent va toshkentliklar"

kitobi ayniqsa ahamiyatli. Mazkur kitob monografik xarakterga ega bo'lgan risola bo'lib, hajm jihatdan 5 ta bobdan ortiq bo'lsa ham qadimgi Toshkent, Qang' va toshkentliklar haqida eng muhim voqealarni qisqa lekin chuqur mazmunli qilib berganlar. Toponimist-tilshunos sifatida toponimlar, etnonimlar, antroponimlarning ma'no va motivlarini, ularning asliyatda, to'g'ri va aniq shakllarini ilmiy-ommabop tarzda tushuntirib berishga bag'ishlangan 10 dan ortiq maqolalar yozdi. Olimning bir qator ishlarida toponimlarni o'rganishning nazariy muammolari, toponimik tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan original mulohazalar bildirilgan. Fikrimizning isboti sifatida uning birgina "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida nashr etilgan "Burchmulla", "Mullabuloq", "Qoryog'di" va "Baytqo'rg'on" toponimlarining etimologik asoslari, "Sohibqiron va Zulqarnayn atamaları haqida", "Toshkent darvozalari nomlari xususida" kabi maqolalarini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu maqolalarning sarlavhalarida ilmiy-ommaboplik sezilib tursa-da, ular ichidagi tadqiq va tahlillar talab darajasidagi ilmiy uslubda yozilganligi bilan xarakterlanadi, ularda toponimlar genezisi, motivativ va lisoniy asoslari ensiklopedik-etimologik nuqtai nazardan keng tadqiq qilingan. A.Muhammadjonovni ko'proq toponimlarning tarixi, genetik asoslari, ma'no va etimologiyasi qiziqtirib keladi. Maqolalarida nomlarning etimologiyasi, lug'aviy, grammatik, so'z yasash xususiyatlariga oid fikrlar ham qayd qilingan. Masalan, olim "Sohibqiron", "Zulqarnayn" atamaları haqida fikr yuritir ekan, 15 dan ziyod turli izohli lug'atlar va yozma manbalarga murojaat qiladi, ulardagi "Sohibqiron", "Zulqarnayn" haqidagi fikrlarni bir-biriga qiyoslaydi va ularga o'z munosabatini bildiradi. Shundan so'ng "Sohibqiron", "Zulqarnayn" harbiy unvonlarning etimologiyasi xususida atroflicha fikr yuritib, keyin quyidagi xulosalarga keladi. "Sohibqiron", "Zulqarnayn", "qiron", "qarn", "qarnayn" shakllaridagi atamalar izohi borasida keltirilgan ma'lumotlarning etimologik talqinidan ma'lum bo'lishicha, "Sohibqiron" nomi Amir Temurga berilgan oliy darajali harbiy unvon bo'lib, bu "sohibzamon" va "sohib-adl", ya'ni adolat egasi ma'nolari bilan bir qatorda, umumiy tarzda aytganda, zamonning adolatli jahon podshohi ma'nosini anglatgan. Amir Temurning mana shunday daholik martabasiga erisha olgan hukmdor "Sohibqironi soniy", ya'ni, "Ikkinchi sohibqiron" nomi bilan atalgan. Temur va temuriylar davlatining asosiy qismida hukmronlik qilgan sulton Husayn Boyqaro va Eron shohi Nasriddinshoh Xajarlar o'zini "Sohibqironi soniy", ya'ni, "ikkinchi sohibqiron" deb atashganligi haqida ma'lumotlar keltirgan.[6. 34-bet].

Xulosa qilib aytish mumkinki, olimning ilmiy asarlari ilmiy jamoatchilikda yuqori baholanib kelinyapti. A.Muhammadjonov ilmiy tadqiqotlarni pedagogik faoliyat bilan qo'shib olib borgan olimlarimizdan biridir. Fan oldidagi salmoqli xizmatlari uchun 1989-yilda u O'zbekiston Fanlar Akademiyasining a'zosi qilib saylangan edi. U kishi 1997-2004-yillarda "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnalining bosh muharriri bo'lib faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek, Sharqshunoslik va Arxeologiya institutlari qoshidagi ixtisoslashgan maxsus kengash hamda Toshkent shahar Toponimika komissiyasining a'zosi edilar. A.Muhammadjonovning ilmiy-ijodiy faoliyati mustaqillik yillarida yangi mazmun bilan boyidi. Akademik olim qoldirgan ilmiy meros bugungi kunda ham tariximizni o'rganishda katta ta'sirga ega. 2020-yil 30-oktyabrda "Fan tarixi rivojiga Akademik A.Muhammadjonovning qo'shgan hissasi" mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvarda bo'lib o'tgan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining

hamkorligini kuchaytirish masalalari” bo’yicha videoselektor yig’ilishidagi maruzasidan.
<https://aniq.uz/uz>

2. O‘zbekiston tarixchilari. 1 jild (bibliografik malumotnoma). Toshkent: 2000-yil.
3. Muhammadjonov A. Tarix falsafasi – ma’naviyat ko‘zguvs. T. O‘zbekiston, 2015-yil, 12-bet.
4. Muhammadjonov A. “Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha)” – Toshkent: Fan, 1972. – B. 143.
5. Мухаммаджанов А. Население пункты Бухарского эмирата (конец XIX –нач. XX вв) Материали к исторической географии Средней Азии. Ташкент, 2001, 4 л.
6. Muhammadjonov A. Sohibqiron va Zulqarnayn atamalari haqida. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2005. 34 bet.
7. Muhammadjonov A. Yahyo G‘ulomovni xotirlab. – Toshkent, Fan. 2008. – B. 68

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF CULTURAL, SOCIAL, POLITICAL, AND ECONOMIC RELATIONS OF THE FARMING, PASTORALIST, AND ARTISAN POPULATION OF THE TASHKENT AND FERGHANA VALLEYS IN THE ETHNOGENESIS OF THE UZBEK PEOPLE (A CASE STUDY OF THE QANG'LI TRIBE)

Aliqulov Ramazon Bahrom ogli

1st-year Master's student,

Methodology of Teaching Social and Humanitarian Sciences (History),

Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract. This article explores the cultural, economic, and political interactions among farming, pastoralist, and artisan communities living in the Tashkent and Fergana Valleys and their role in the ethnogenesis of the Uzbek people. Special attention is given to the historical role of the ancient Qangli tribe. The research is based on academic sources, and new scientific conclusions are drawn by relying on the views of prominent scholars such as Asqarov, Yakubovskiy, Bernshtam, Masson, Sattorov, Sharipov, and Bartold.

Keywords: ethnogenesis, farming, pastoralism, craftsmanship, Qangli tribe, Tashkent, Fergana, cultural exchange.

TOSHKENT VA FARG'ONA VODIYSIDAGI DEHQON, CHORVADOR VA HUNARMAND AHOLINING MADANIY, IJTIMOYIY, SIYOSIY, IQTISODIY ALOQALARNING O'ZBEK XALQINING ETNOGENEZIDAGI O'RNI (QANG'LI QABILASI MISOLIDA)

Aliqulov Ramazon Bahrom o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti,

Ijtimoiy – gumanitar fanlar o'qitish metodikasi (Tarix) yo'nalishi 1-kurs magistranti

E-mail: aliqulovramazon25@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Toshkent va Farg'ona vodiysida yashagan dehqon, chorvador va hunarmand aholi qatlamlarining o'zaro madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalari, ularning o'zbek xalqining etnogenezidagi o'rni, ayniqsa qadimiy Qang'li qabilasining tarixiy roli ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Bunda quyidagi akademik va professorlar Asqarov, Yakubovskiy, Bernshtam, Masson, Sattorov, Sharipov va Bartoldning qarashlariga tayangan holda yangicha ilmiy xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: etnogenez, dehqon, chorvador, hunarmand, Qang'li qabilasi, Toshkent, Farg'ona, madaniy aloqalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N10>

Kirish. Milliy o'zlik va tarixiy xotira masalasi mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixshunosligining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Etnogenez, ya'ni xalqning kelib chiqish tarixi, uning shakllanishi va etnik tarkibiy qismlarini aniqlash nafaqat tarixiy ilm-fanning muhim vazifasidir, balki bu jarayon xalqning milliy g'ururini, o'zlikni anglashini mustahkamlashda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'zbek xalqining shakllanish jarayonini aniq tarixiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy mezonlar asosida o'rganish, bugungi taraqqiyot sari intilayotgan jamiyatimizda o'zligini anglash ehtiyojini taqozo etadi. Tarixiy

manbalar va arxeologik topilmalar asosida aniqlanishicha, O'zbekiston hududida miloddan avvalgi ming yilliklarda turli etnik guruhlar, qabila va urug'lar yashab, ular o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarda bo'lgan. Xususan, Toshkent va Farg'ona vodiylari bu jarayonda alohida o'rin egallaydi. Geografik joylashuvi, iqlim sharoiti va tabiiy resurslarga boyligi bois, bu hududlar qadimdan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi aholining o'zaro aloqasi, aralashuvi hamda muayyan madaniy birlikka erishishida muhim omil bo'lgan. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, o'zbek xalqining etnogenezi faqat yirik davlatlar va harbiy-siyosiy jarayonlar doirasida emas, balki oddiy mehnatkash aholining – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlarning ijtimoiy va madaniy faoliyati orqali ham o'rganish zarurati tug'ilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Qang'li kabi qadimiy qabilalarning Toshkent va Farg'ona vodiylaridagi faoliyati, ularning jamiyatdagi o'rni va boshqa etnik guruhlar bilan aloqalari bugungi kunda ilmiy jamoatchilik e'tiborida bo'lishi lozim. Tadqiqotchilar – V.V. Bartold, M.E. Masson, A.N. Bernshtam, V.A. Yakubovskiy, A. Asqarov, N.A. Sattorov va N. Sharipovlarning asarlarida bu hududlardagi madaniy qatlamlar, shaharlar va aholi turmushi haqida muhim ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, hozirga qadar Toshkent va Farg'ona vodiylarida yashagan aynan dehqon, chorvador va hunarmand qatlamlarning etnogenezi jarayonidagi roli to'laqonli yoritilmagan. Shu sababli bu jarayonlarni to'liq yoritib beraman. Ushbu maqolada Toshkent va Farg'ona vodiylarida yashagan dehqon, chorvador va hunarmand qatlamlarning o'zaro madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalari, ularning o'zbek xalqining etnogenezidagi o'rni, ayniqsa Qang'li qabilasining misolida tahlil qilinadi. Maqola yangiligi shundaki, u mavjud manbalarni zamonaviy tarixiy yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqib, ushbu ijtimoiy qatlamlarning real tarixiy jarayonlardagi rolini ilmiy asosda ko'rsatishga urinadi.

Toshkent va Farg'ona vodiysi qadimdan o'zining tabiiy-geografik qulayliklari, suv resurslari va ekin yerlariga boyligi tufayli dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi aholining doimiy yashash maskani bo'lib kelgan. Arxeologik va antropologik manbalar asosida ushbu hududlarda yashagan ijtimoiy qatlamlarning etnik shakllanish jarayonlaridagi o'rni keng qamrovda tahlil qilingan. Ushbu mintaqalarning qadimiy dehqonchilik madaniyatlari, jumladan Qovunchi madaniyati, dalillar asosida tasvirlab berilgan. Toshkent vohasidagi Qovunchi madaniy yodgorliklaridan topilgan arxeologik topilmalar aholi o'rtasida yerga egalik qilish shakllari, xo'jalik yuritish usullari, hunarmandchilik taraqqiyoti, savdo aloqalari va ijtimoiy differensiallashuv mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bu vohada mavjud bo'lgan dehqon xo'jaliklari asosan sun'iy sug'orishga asoslangan bo'lib, aholining harakatlanishi cheklangan, joylashuv barqaror bo'lgan. Bu esa ijtimoiy barqarorlikka, mahalliy etnik birliklarning shakllanishiga zamin yaratgan. Shuningdek, Toshkent vohasida qadimiy hunarmandchilik markazlarining mavjudligi ham hududiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirgan. Metall ishlash, kulolchilik, to'quvchilik va yog'och o'ymakorligi kabi tarmoqlarning rivojlanishi, aholining o'zaro iqtisodiy aloqalari kuchayishiga sabab bo'lgan. Bu aloqalar natijasida mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma yuzaga kelgan. Aynan shu asosda Toshkent vohasi aholisi orasida umumiy til, umumiy xo'jalik mentaliteti va o'zaro madaniy aloqa shakllangan. [1; 75-85-b.]

Farg'ona vodiysi aholisi orasida o'zaro madaniy qatlamlashuv, ijtimoiy guruhlar o'rtasida xo'jalik turmush tarzining birlashuvi orqali yuzaga kelgan uyg'unlikka e'tibor qaratilgan. Farg'ona vodiysi tog' etaklarida yashovchi chorvador guruhlar vohaning markaziy

tekisliklarida yashagan dehqonlar bilan iqtisodiy, ayniqsa savdo orqali aloqada bo'lgan. Bu ikki qatlam o'rtasidagi doimiy aloqalar turmush madaniyatining o'zaro uyg'unlashuviga olib kelgan. Xususan, chorvadorlar tomonidan yetkazib berilgan mahsulotlar dehqonlar xo'jaligi uchun zarur bo'lgan, dehqonlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari esa yaylov aholisining hayotiy ehtiyojlarini qoplagan. Hunarmandlar bu tizimda vositachilik qilgan. Ular nafaqat ishlab chiqaruvchilar, balki madaniyat tashuvchilari sifatida faoliyat yuritganlar. Hunarmandchilik buyumlari orqali turli etnik guruhlar o'rtasida nafaqat iqtisodiy, balki estetik va madaniy ta'sirlar ham o'tgan. Bu esa umumiy madaniy kodning shakllanishiga olib kelgan. Arxeologik jihatdan o'rganilgan Andijon, Marg'ilon, Rishton, Namangan atrofidagi qadimiy yodgorliklar Farg'ona vodiysidagi dehqonlar va hunarmandlar o'rtasida mavjud bo'lgan taraqqiy etgan xo'jalik tizimlarini tasdiqlaydi. Aynan shu tizimlar orqali ijtimoiy qatlamlar o'zaro bog'langan, bu esa etnik integratsiyaga olib kelgan. Bu integratsiya esa o'zbek xalqining shakllanishi uchun asos bo'lgan. Qang'li qabilasi ushbu mintaqalarda uzoq vaqt yashab kelgan ko'chmanchi guruhlar bilan dehqonlar o'rtasida bog'lovchi bo'lgan. Ular doimiy harakatda bo'lgan chorvadorlar sifatida savdo, madaniy almashinuv, siyosiy hamkorliklarda faol ishtirok etgan. Bu guruhlar asosida yangi etnik birliklar shakllangan, ularning asosiy tayanchi esa barqaror dehqonchilik va hunarmandchilik markazlari bo'lgan.[2; 120-130-b.]

Umuman olganda, Asqarov asarlarida Toshkent va Farg'ona vodiysining qadimiy aholisi — dehqon, chorvador va hunarmand qatlamlarining birgalikdagi iqtisodiy va madaniy faoliyati asosida yuzaga kelgan barqaror etnik birlik o'zbek xalqining shakllanishidagi muhim tarixiy asos sifatida talqin etiladi.

Toshkent va Farg'ona vodiysida qadim zamonlardan beri dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik asosiy xo'jalik tarmoqlari bo'lib kelgan. Yakubovskiy asarida bu hududlarda yashagan aholining iqtisodiy faoliyati va ijtimoiy tuzilmasi o'zbek xalqining etnogenezida muhim ahamiyatga ega ekani ko'rsatilgan.

Miloddan avvalgi II-I asrlardan boshlab Toshkent vohasida dehqonchilik va hunarmandchilik faoliyatining rivojlanishi vohaning madaniy taraqqiyotiga kuchli ta'sir qilgan. Ushbu hududda barqaror ijtimoiy tizimning shakllanishi ijtimoiy qatlamlarning murakkablashuvi bilan bog'langan. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik ijtimoiy madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Farg'ona vodiysida esa Ipak yo'li orqali olib borilgan savdo aloqalari, shuningdek, qishloq xo'jaligi va chorvachilik bilan shug'ullangan aholining birlashuvi etnik uyg'unlik va ijtimoiy integratsiyaga olib kelgan. Ushbu jarayonlar hududdagi turli qabilalar va etnik guruhlar o'rtasida genetik va madaniy aralashuvni rag'batlantirgan. Farg'ona vodiysining tog' etaklarida chorvachilik bilan shug'ullangan aholining voha markazidagi dehqonlar bilan iqtisodiy munosabatlari natijasida barqaror ijtimoiy tizim yuzaga kelgan. Ushbu tizim etnik birlashish va yangi etnik birliklarning shakllanishida muhim omil bo'lgan. Arxeologik manzillar, jumladan Kanka, Axsikent, Qovunchi kabi qadimiy yodgorliklarda topilgan ashyolar Toshkent va Farg'ona aholisining murakkab madaniy aloqalarini ko'rsatadi. Bu topilmalar hududdagi dehqon, chorvador va hunarmandlar o'rtasida mavjud iqtisodiy va madaniy integratsiya jarayonlarining dalilidir. Qang'li qabilasi Toshkent va Farg'ona hududlarida nafaqat harbiy-siyosiy rol o'ynabgina qolmay, balki madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantiruvchi kuch sifatida ham ko'rsatilgan. Ular dehqon va hunarmandlar bilan muntazam savdo va madaniy munosabatda bo'lgan, bu esa yangi etnik birliklar yuzaga kelishida muhim omil bo'lgan.[3; 98-110-b.]

Yakubovskiy asarida Toshkent va Farg'ona vodiysida doimiy xo'jalik faoliyati, ijtimoiy qatlamlarning o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalari, shuningdek qabilalararo integratsiya jarayonlari o'zbek etnogenezining muhim asoslari sifatida ko'rsatilgan. Bu hududlardagi qadimiy hayot shakllari bugungi o'zbek millatining shakllanishiga xizmat qilgan.

Toshkent va Farg'ona vodiysi qadimdan yuqori darajadagi madaniy taraqqiyotga erishgan mintaqa bo'lib, bu hududlarda shakllangan ijtimoiy qatlamlar — dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar — o'zaro madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalari orqali yirik etnik tizimlarning asosiy omillaridan biriga aylangan. Arxeologik va tarixiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu aloqalar O'rta Osiyodagi eng qadimiy etnoslar va ularning shakllanish jarayonida hal qiluvchi rol o'ynagan. Markaziy Osiyoda o'tkazilgan arxeologik qazilmalarda, xususan Farg'ona vodiysi va Toshkent atrofidagi manzilgohlar — Eski Marg'ilon, Dalvarzintepa, Shaxruxiya kabi joylarda o'zlashtirilgan dehqonchilik madaniyatining chuqur ildiz otgani qayd etilgan. Bu dehqonchilik xo'jaliklari sug'oriladigan yerlar asosida tashkil etilgan bo'lib, ularda ijtimoiy mehnat taqsimoti aniq ko'rinishga ega bo'lgan. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv natijasida doimiy aloqalar yuzaga kelgan, bu esa ijtimoiy qatlamlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni kuchaytirgan.

Hunarmandchilik markazlarining shakllanishi ham mazkur hududlarda etnik birlashuvlarga asos bo'lgan asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Keramika, metallurgiya, to'quvchilik va boshqa hunar turlari aynan Farg'ona va Toshkent vohalarida yuqori darajada rivojlangan. Hunarmandchilik mahsulotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ular ichki bozorlar bilan bir qatorda tashqi savdo yo'llari orqali ham tarqalgan. Savdo orqali madaniy elementlar bir hududdan boshqasiga o'tgan, bu esa umumetnik madaniy kodning shakllanishiga olib kelgan. Toshkent va Farg'ona vohalarining ijtimoiy hayotida chorvador guruhlarning roli ham alohida e'tiborga loyiq. Bu guruhlar tog' etaklari va yaylovlarda joylashgan bo'lib, ko'chmanchi hayot tarzini olib borgan. Ularning dehqon va hunarmandlar bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari qat'iy tizim asosida shakllangan bo'lib, mahsulotlar almashinuvi, qo'shma xo'jalik yuritish shakllari va nikoh aloqalari orqali amalga oshirilgan. Bu esa madaniy aralashuv va barqaror aloqa tizimini vujudga keltirgan. Ko'chmanchi aholi va dehqonlar o'rtasidagi aloqalar ayniqsa Qang'li qabilasi faoliyati orqali yaqqol ko'rinadi. Bu qabila o'zining harakatchanligi, harbiy salohiyati va savdo yo'llariga egaligi bilan dehqonchilik markazlari bilan aloqalarni o'rnatgan. Qang'lilar orqali chorvachilik mahsulotlari dehqonlarga yetkazilgan, dehqonlar esa ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini qamrab olgan madaniy unsurlar bilan ta'minlagan.[4;54-67-b.]

Arxeologik topilmalarda qayd etilishicha, Toshkent vohasidagi Qang'li yodgorliklari hunarmandchilik va chorvachilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan. Bu esa ularning dehqonlar bilan doimiy aloqada bo'lganligini va ushbu madaniy tizimga integratsiyalashganini ko'rsatadi. Farg'ona vodiysida esa Qang'li izlari hunarmandchilik va harbiylashtirilgan ijtimoiy guruhlar shaklida namoyon bo'lgan. Mazkur madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar uzoq tarixiy davrlar davomida qatlamlashib borib, umumetnik birlikning shakllanishiga zamin hozirladi. Bu jarayonda Toshkent va Farg'ona vohalari o'zbek xalqining asosiy ajdodlari shakllangan markazlardan biri bo'lgan.

Ushbu faktlar ijtimoiy qatlamlar — dehqon, chorvador va hunarmandlarning o'zaro munosabatlari nafaqat xo'jalikda, balki etnik ong va umumiy madaniyatning shakllanishida ham asosiy omil bo'lganini ko'rsatadi.[5; 45-59-b.]

Toshkent va Farg'ona vodiysi qadimiy dehqonchilik va hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib, bu hududlardagi iqtisodiy va madaniy aloqalar etnik shakllanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Arxeologik, etnografik va tarixiy izlanishlar asosida aniqlangan ushbu hududlarning rivojlanish dinamikasi Masson tomonidan chuqur tadqiq etilgan bo'lib, bu asarlar etnogenez masalasida muhim nazariy asosni tashkil etadi. Farg'ona vodiysi va Toshkent atrofi neolit davridan boshlab doimiy yashash uchun qulay bo'lgan, suv bilan ta'minlangan tekisliklar va daryo bo'ylarida joylashgani tufayli bu yerda dehqonchilik madaniyati barvaqt shakllana boshlagan. Masson tomonidan tahlil etilgan manbalarda qadimgi yer haydash an'analari, sug'orish tizimlari va urug'-qabila asosidagi jamoaviy mehnat shakllari ochib berilgan. Bu shakllar o'zbek xalqining agrar qadriyatlari va ijtimoiy hayotining ildizlari sifatida muhim ahamiyatga ega. Toshkent vohasida joylashgan qadimiy manzilgohlarda Masson kuzatgan madaniy qatlamlar ichida hunarmandchilik mahsulotlari — xususan, sopol idishlar, bronza qurollar, tangalar va to'quv anjomlari — mavjud bo'lib, ular bu hududda ixtisoslashgan hunar turlarining rivojlanganini ko'rsatadi. Ushbu ishlab chiqarish tarmoqlari shahar markazlari va qishloqlar o'rtasida bozor aloqalarini shakllantirgan. Hunarmandchilik orqali sodir bo'lgan madaniy aloqalar — naqshlar, shakllar va texnologiyalarning o'zaro almashuvi — umumetnik madaniyatning shakllanishiga turtki bergan.[6; 100-110-b.]

Farg'ona vodiysi va Toshkent oralig'ida joylashgan yaylov zonalarida ko'chmanchi chorvadorlar faoliyat yuritgan. Masson asarlarida bu guruhlarining harakati va makonlashuvi asosida savdo yo'llarining shakllanishi, resurslar almashinuvi va ijtimoiy muloqotlar haqida batafsil ma'lumotlar mavjud. Chorvadorlar va dehqonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik — ozuqa, jun, yog' mahsulotlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayirboshlanishi — hududiy barqarorlikni ta'minlagan. Bu holat, ayniqsa, Qang'li kabi yirik chorvador qabilalar misolida aniq ko'zga tashlanadi.

Qang'li qabilasining Farg'ona vodiysidagi faoliyati chorvachilik asosida bo'lishiga qaramay, ularning shahar atrofi dehqonlari bilan mustahkam aloqalar o'rnatgani aniqlangan. Masson tomonidan keltirilgan arxeologik topilmalarda Qang'li izlari dehqonchilik manzillari bilan kesishadi. Bu esa, Qang'lilar nafaqat chorvador, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar vositachisi sifatida ham etnik tizimning ajralmas qismiga aylanganini ko'rsatadi.[7; 220-235-b.]

Masson tahliliga ko'ra, Toshkent va Farg'ona vohalarida yuzaga kelgan ko'p qatlamli madaniyatlar, ayniqsa dehqon va chorvador jamoalarning doimiy aloqasi natijasida shakllangan umumiy til, urf-odat va xo'jalik shakllari orqali bir butun etnosni vujudga keltirgan. Bu jarayon uzoq davr mobaynida shakllangan bo'lib, ayni vaqtda o'zbek xalqining tarixiy ildizlarini chuqur aks ettiradi. Ushbu faktlar Toshkent va Farg'ona vodiysi ijtimoiy qatlamlarining madaniy, xo'jalik va siyosiy hayoti orqali o'zbek xalqi etnogenezida tutgan markaziy o'rnini ochib beradi.

Toshkent va Farg'ona vodiysi o'rta asrlar Sharqining muhim siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lgan. Bu hududlar nafaqat yirik shaharlar, balki etnik tarkibning shakllanishiga asos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, hunarmandchilik va dehqonchilik tizimlari bilan ajralib turgan. Bartold tomonidan olib borilgan chuqur ilmiy izlanishlar aynan shu jihatlarni ochib beradi.

Toshkent va uning atroflarining qadimiy davrlardan boshlab markaziy yo'llar kesishgan joyda joylashganini, bu esa doimiy etnik aralashuv, savdo-sotiq va madaniy almashinuvga

sabab bo'lganini alohida ta'kidlaydi. Toshkent shahri Markaziy Osiyoning shimoliy chegarasida joylashgani tufayli ko'chmanchi turkiy qabilalar va o'troq dehqon-hunarmand xalqlar o'rtasida vositachilik rolini bajargan. Bu holat, Bartold ta'riflaganidek, aynan etnik shakllanish jarayoniga xizmat qilgan.

Bu hududda qadimdan dehqonchilik madaniyati yuqori darajada bo'lganini, aholining asosan sug'oriladigan yerlar bilan shug'ullangani, hunarmandchilik va bozor aloqalari rivojlanganini ko'rsatadi. U vodiyni strategik joylashuvi tufayli turli etnik guruhlar — turkiy, eroniy va mo'g'ul unsurlarining bu yerda o'zaro aralashganini ilmiy asosda izohlaydi. Bunday aralashuv esa yangi etnik birliklarning — jumladan, o'zbek xalqining shakllanishida muhim omil bo'lgan. Toshkent va Farg'ona o'rtasidagi aloqalar, ayniqsa, Qang'li kabi chorvador qabilalarning migratsiyasi va ular bilan o'troq aholining o'zaro ta'siri orqali kuchaygan. Bartold tarixiy manbalar asosida bu qabilalarning siyosiy harakati va ijtimoiy roli haqida ma'lumot beradi. Aynan Qang'li qabilasi orqali cho'l va dasht hududlaridagi harakatchan guruhlar bilan vo'ha aholisining integratsiyasi yuz bergani ko'rsatiladi. Natijada, Bartold ta'kidlaganidek, Farg'ona va Toshkentdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar bu aralashuv orqali yanada murakkab va boy etnik tuzilmaga ega bo'lgan.[8; 140-150-b.]

Bartold Toshkent va Farg'onani turli bosqinlar davrida ham barqaror madaniy va siyosiy markaz sifatida saqlanib qolgan hudud sifatida ko'rsatadi. Shu sababli, bu ikki hududda vujudga kelgan etnomadaniy tizim, uning ichida chorvador, dehqon va hunarmand qatlamlarining tutgan o'rnini, o'zbek xalqining tarixiy shakllanish jarayonida tayanch asoslardan biri bo'lgan.

O'zbekiston xalqining etnogeneziga doir ilmiy izlanishlar orasida N.A. Sattorovning ishlari alohida o'rin tutadi. Uning asarlari asosan o'zbek xalqining shakllanishida mahalliy ijtimoiy qatlamlar – dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlarning o'zaro munosabatlari, shuningdek, qadimiy qabila tuzilmalarining integratsion jarayonlariga bag'ishlangan. Qadimgi va o'rta asrlar davrida Turkiston hududida yashagan qabilalarning tarixiy taraqqiyoti, ularning madaniy merosi, etnik tarkibdagi o'zgarishlar va o'zaro aralashish jarayonlariga ilmiy asoslangan yondashuvni taklif etadi. U o'zining tadqiqotlarida Toshkent va Farg'ona vodiysi kabi strategik hududlarni muhim etnik shakllanish maydonlari sifatida qayd etadi. Ayniqsa, bu hududlarda turli ijtimoiy qatlamlar vakillari – dehqonlar, hunarmandlar, ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar xalqning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan deb hisoblaydi. Sattorov o'z tadqiqotlarida yozadi: "Etnoijtimoiy birliklar uzoq davom etgan tarixiy harakatlar, migratsiyalar va mahalliy muhitga moslashuv asosida shakllanadi. Aynan shunday holat Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida yuz bergan." Ushbu yondashuvda u o'zbek xalqining shakllanishini oddiy qabila birlashmasi emas, balki murakkab madaniy va iqtisodiy munosabatlarning natijasi sifatida ko'radi. Ushbu yondashuv Toshkent va Farg'onadagi qabilalarning o'zaro uyg'unlashuvi, savdo-madaniy aloqalar orqali bir millatga birlashganligini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Ayniqsa, Qang'li kabi tarixiy qabilalarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini va ularga xos mehnat shakllari (masalan, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik) bu jarayonda asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib xizmat qilganini Sattorov o'z tadqiqotlarida ko'rsatadi.[9; 60-70-b.]

O'zbek xalqining shakllanishida mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'rnini juda katta bo'lib, bu jihatlar professor Sharipov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda chuqur yoritilgan. U Toshkent va Farg'ona vodiysi hududlarini qadimdan dehqonchilik va

hunarmandchilik rivojlangan joylar sifatida ko'rib, bu holatning etnik shakllanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatganini asoslab bergan.

Vohalarda yashovchi o'troq dehqonlar va hunarmandlarning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati, diniy qarashlari va urf-odatlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Ularning ko'chmanchi qabilalar bilan doimiy aloqa qilgani, ayniqsa Qang'li, Qipchoq, Nayman kabi qabilalar bilan siyosiy va madaniy integratsiyaga kirgani etnogenezning muhim komponenti sifatida ko'riladi. Bu yondashuv orqali u o'zbek xalqining ko'pqirrali, turli ijtimoiy qatlamlar aralashuvi natijasida vujudga kelganligini isbotlaydi.

Sharipov yozadi: "Toshkent vohasi qadimdan hunarmandchilik va savdo markazi sifatida nafaqat iqtisodiy, balki madaniy birliklarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynagan." Bu fikr mintaqadagi ijtimoiy qatlamlar — ya'ni dehqon, chorvador va hunarmandlarning o'zaro aloqalari orqali qanday qilib o'zbek xalqining umumiy madaniy qiyofasi shakllanganini ko'rsatadi. Farg'ona vodiysi ham xuddi shunday jarayonlarning maydoni bo'lib, u yerda qadimdan mavjud bo'lgan irrigatsion dehqonchilik tizimi va mustahkam ijtimoiy tuzilma asosida barqarorlik shakllangan. Sharipov bunday barqarorlikni aynan mahalliy aholining doimiy ishlab chiqarish faoliyati, urf-odatlar, va tashqi kuchlar bilan bo'lgan aloqalarning uyg'unligida ko'radi. Qang'li kabi qabilalar bu uyg'unlikda alohida rol o'ynagan, chunki ular o'z harakatchanligi orqali har ikki vohada ham muhim vositachilik qilgan. Sharipov Toshkent va Farg'onani tarixiy-etnik nuqtayi nazardan o'rganar ekan, bu ikki hududda vujudga kelgan ijtimoiy qatlamlarning barqarorligi va madaniy merosi o'zbek xalqining etnik yodgorligida asosiy manbalardan biri bo'lganini ilmiy dalillar bilan asoslaydi. Shuningdek, u bu hududlardagi etnik va ijtimoiy jarayonlarning Markaziy Osiyo tarixidagi umumiy etnogenez jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanini ham ko'rsatadi.[10; 33-39-b.]

O'zbek xalqining etnik shakllanishida ishtirok etgan ko'plab qabilalar orasida Qang'li qabilasi alohida e'tiborga loyiqdir. Arxeologik, tarixiy va etnografik manbalar ushbu qabilaning Markaziy Osiyo hududlaridagi, ayniqsa, Toshkent va Farg'ona vodiylaridagi ahamiyatini ko'rsatadi. Qang'lilar qadimda O'rta Osiyo, xususan, Sirdaryo bo'yi, Farg'ona va Toshkent atrofida yashab, bu hududlardagi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan.

Arxeolog A.N.Bernshtam o'z tadqiqotlarida Qang'li qabilasining Sirdaryo bo'yidagi faoliyati va ularning boshqa qabilalar bilan aloqalarini keng ko'lamda yoritadi. Uning fikricha, Qang'lilar Xitoy, Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa mintaqalar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar olib borgan. Bu esa ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimda muhim o'rin egallaganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Yu.N.Masson ham Qang'li qabilasining Toshkent va Farg'ona vodiylarida milodiy I ming yillikda yashaganligini tasdiqlaydi va ularning qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikdagi roli haqida yozadi. Masson arxeologik topilmalar asosida Qang'li aholisining sopol buyumlar yasash, metallga ishlov berish, kulolchilikda yuqori darajaga yetganini qayd etadi. Ayniqsa, Qang'li yodgorliklaridan topilgan o'choqlar, tokchalar va qozonxona izlari ularning yuqori darajadagi turmush tarzi va maishiy madaniyatidan dalolat beradi. Qang'lilar, ayniqsa, Farg'ona vodiysida yashagan boshqa qabila va xalqlar bilan o'zaro madaniy almashinuvda bo'lgan. Ularning madaniy qatlamlariga oid topilmalar mahalliy etnik guruhlar bilan aralashib ketganlikni ko'rsatadi. Bu esa Qang'li qabilasining o'zbek xalqining shakllanishida faqat genetik emas, balki madaniy va ijtimoiy omil sifatida ham muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Qang'li qabilasi ko'chmanchi va yarim-ko'chmanchi hayot tarzini olib

borgan bo'lsa-da, ular orasida dehqonchilik va hunarmandchilik faoliyati ham rivojlangan. Asosiy iqtisodiy faoliyat chorvachilik bo'lsa-da, ular sug'oriladigan yerlarda arpa, bug'doy kabi ekinlarni yetishtirganlar. Bu esa ularning madaniy taraqqiyotga katta hissa qo'shganidan dalolat beradi. Shu sababdan ham ular nafaqat etnik tarkib, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham o'zbek xalqining etnogenez jarayonida faol qatnashgan.

Xulosa. Ushbu maqolada Toshkent va Farg'ona vodiylarida yashagan dehqon, chorvador va hunarmand aholi qatlamlarining o'zaro madaniy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy aloqalari o'zbek xalqining etnogenez jarayonida naqadar muhim rol o'ynagani ilmiy manbalar asosida chuqur tahlil qilindi. Ayniqsa, Qang'li qabilasining ushbu jarayondagi o'rni alohida ko'rsatildi. Asqarov, Yakubovskiy, Bernshtam, Masson, Bartold va Sattorov kabi olimlarning asarlari orqali Qang'lilarning Farg'ona va Toshkent vodiylaridagi faolligi, mahalliy aholi bilan o'zaro aloqalari, xo'jalik madaniyatida tutgan o'rni, siyosiy va madaniy jarayonlarga ta'siri yoritib berildi. Maqolaning yangiligi shundaki, unda Qang'li qabilasi o'zbek xalqining etnik shakllanishida nafaqat biologik yoki genetik omil sifatida, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etno-madaniy markaz sifatida baholandi. Shu orqali ularning Toshkent va Farg'ona vodiylarida muhim strategik va madaniy pozitsiyada bo'lgani ilmiy jihatdan asoslab berildi. Aynan ushbu yondashuv hozirgacha ilmiy adabiyotlarda to'liq ochilmagan bo'lib, maqola bu jihatdan yangicha yondashuvni taklif qiladi. Qang'li qabilasining tarixiy manbalarda ko'rsatilgan dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik faoliyati, boshqa etnik guruhlar bilan integratsiyasi ularning o'zbek xalqining shakllanishida muhim ijtimoiy va madaniy vosita bo'lganini isbotlaydi. Bu esa bizga etnogenez jarayoniga faqat nasl-nasab nuqtayi nazaridan emas, balki tarixiy-sivilizatsion va madaniy-iqtisodiy asosda yondashish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida bu boradagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, Qang'li qabilasining arxeologik yodgorliklarini kompleks o'rganish, ularning material madaniyati va ijtimoiy tuzilmasini zamonaviy usullar bilan tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Toshkent va Farg'ona vodiylarida yashagan boshqa etnik guruhlarining Qang'lilar bilan bo'lgan aloqalarini tahlil qilish orqali o'zbek xalqining shakllanishi haqidagi ilmiy tasavvurlar yanada boyitilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Asqarov A. Tarixning ochilmagan sahifalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. [1; 75–85-betlar]
2. Asqarov A. O'zbek xalqining etnik tarixi. – Toshkent: Sharq, 2015. [2; 120–130-betlar]
3. Якубовский А. Ю. Очерки по истории Средней Азии (эпоха феодализма). – Москва-Ленинград: АН СССР, 1953. [3; 98–110-страницы]
4. Бернштам А. Н. Социально-экономические отношения в древней Фергане // Труды Института истории материальной культуры. – Ленинград, 1947. [4; 54–67-страницы]
5. Бернштам А. Н. Кангуйская проблема. – Ташкент: Фан, 1959. [5; 45–59-страницы]
6. Массон М. Е. Древности Ташкента. – Ташкент: Фан, 1958. [6; 100–110-страницы]
7. Массон В. М., Массон М. Е. История Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1968. [7; 220–235-страницы]
8. Бартольд В. В. Сочинения. Т. 2, ч. 1. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963. [8] 140–150-страницы]
9. Sattorov A. O'zbek xalqi etnogenezi va qadimgi turkiylar. – Toshkent: Fan, 2018. [9; 60–70-betlar]
10. Sharipov H. Qang'li qabilasi va uning tarixi // Tarix va Haqiqat jurnali, №3. – Toshkent, 2016. [10; 33–39-betlar]

11. Xayitmetov A., Sodiqov A. O'zbek xalqining shakllanishi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. [11; 150–160-betlar]

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

TRANSFORMATION OF INDUSTRY IN KOKAND DURING 1946–1990

Abdurakhmonov Adkhamjon Sokhodilla ogly,
PhD Candidate, Namangan State University

Abstract. This article examines the phased development of industry in the city of Kokand between 1946 and 1990. During this period, the local economy witnessed significant growth in light industry, chemical manufacturing, and mechanical engineering. The launch of new industrial facilities, technical modernization, and enhanced human resources contributed to Kokand's emergence as a major industrial hub in both Uzbekistan and the broader Central Asian region. The study explores the technological and social transformations, job creation, increased production volumes, as well as the city's export potential and its role in international markets.

Keywords: Kokand, industrial development, light industry, chemical industry, mechanical engineering, production facilities, technical modernization, export, economic transformation.

1946–1990-YILLARDA QO‘QON SANOATINING TRANSFORMATSIYASI

Abduraxmonov Adxamjon Soxodilla o‘g‘li,
Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada 1946–1990 yillar davomida Qo‘qon shahrida sanoatning bosqichma-bosqich rivojlanishi tahlil qilinadi. Bu davrda shahar iqtisodiyotining yengil sanoat, kimyo sanoati hamda mashinasozlik tarmoqlarida jadal o‘ishi kuzatildi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, texnikaviy modernizatsiya va kadrlar salohiyatining oshirilishi Qo‘qonni nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida muhim sanoat markaziga aylantirdi. Tadqiqotda texnik va ijtimoiy o‘zgarishlar, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, ishlab chiqarish hajmining ortishi, shuningdek, shahar sanoat mahsulotlarining eksport salohiyati va xalqaro bozorlardagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon, sanoat taraqqiyoti, yengil sanoat, kimyo sanoati, mashinasozlik, ishlab chiqarish quvvatlari, texnik yangilanish, eksport, iqtisodiy o‘zgarishlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N11>

Qo‘qon shahri tarixan O‘zbekistonning yirik sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. 1946–1990-yillar oralig‘ida shaharda sanoat salohiyati jadal sur‘atlar bilan rivojlanib, bu jarayon nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki hududiy infratuzilmaning yangilanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu davrda Qo‘qonda bir qator yirik sanoat korxonalari tashkil etildi va ular shahar iqtisodiy hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi.

Qo‘qon sanoati asosan yengil sanoat, kimyo sanoati va mashinasozlik tarmoqlarini qamrab oldi. Ayniqsa, 1959–1965-yillar davomida ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada oshgani, yangi korxonalarning ishga tushirilgani va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiya qilingani kuzatildi. Bu esa sanoat mahsulotlarining ichki bozor bilan birga tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qildi. Qo‘qon sanoat korxonalari shu davrda butun Markaziy Osiyo bo‘yicha yetakchi sanoat markazlari qatoridan joy oldi.

Davrning muhim xususiyatlaridan biri — ishlab chiqarishda texnik yangilanish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonining jadallashganidir. Ishchilar malakasini

oshirish, yangi texnik bilimlarni egallash maqsadida maxsus o'quv kurslari, kasb-hunar maktablari va texnikumlar faoliyati kengaytirildi. Bu esa mahalliy ehtiyojlarni ta'minlash bilan birga eksport salohiyatining ortishiga ham sabab bo'ldi.

Farg'ona vodiysi tarixiy jihatdan paxtachilik va to'qimachilik markazi sifatida shakllangani bois, Qo'qon shahrida bu tarmoqlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shahardagi sanoat tizimi davlat korxonalari va hunarmandchilik asosida tashkil etilgan artellar faoliyatidan iborat edi. Davlat sanoat korxonalari tarkibiga g'isht zavodlari, poyabzal fabrikasi, elektromexanika zavodi, yigiruv-to'quv fabrikasi, sut sanoati va charm ishlab chiqarish korxonalari kirgan. Artellar esa, asosan, kichik ishlab chiqarish subyektlari bo'lib, ular orasida "Qizil trikotaj", V.P. Chkalov nomidagi artel, "Arbakesh" va "Qizil yulduz" artellari alohida o'rin tutgan.

Sanoatni qayta qurish jarayoni o'zining murakkabligi bilan ajralib turgan. Xususan, malakali ishchi kuchining yetishmasligi, texnologik uskunalarni yangilash va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish kabi muammolar sanoat taraqqiyotiga jiddiy to'siqlar tug'dirgan. Shunga qaramay, hukumat tomonidan qabul qilingan rivojlanish dasturlari bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi.

1946-yilda Qo'qon superfosfat zavodining birinchi navbati foydalanishga topshirildi. 1950-yilda esa gidroliz zavodi qurilishi boshlandi, uning asosiy xomashyosi sifatida Qo'qon 2-sonli paxta tozalash zavodida olinadigan paxta po'stlog'i xizmat qilgan [1, 193]. 1958-yilga kelib esa mahalliy xomashyo asosida silikat g'isht ishlab chiqaruvchi yirik korxona barpo etildi. Shu bilan birga, shaharda sut zavodi va muzlatkichli go'shtni qayta ishlash zavodlari faoliyatini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan edi [2, 52–54].

1946–1990-yillar davomida Qo'qon shahrining sanoat sohasi izchil rivojlanib bordi. Yangi sanoat korxonalarining barpo etilishi bilan bir qatorda, mavjud ishlab chiqarish obyektlari ham rekonstruksiya qilinib, texnik jihatdan modernizatsiya qilindi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, ishlab chiqarish jarayonlari takomillashtirildi. Bu holat sanoat tarmoqlarining mahsuldorligini oshirib, Qo'qon shahrining iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada mustahkamladi.

1946-yilda Qo'qon superfosfat zavodining sulfat kislota sexi ishga tushirildi [3, 12]. 1948-yilda esa sut mahsulotlarini qayta ishlash zavodida O'zbekiston miqyosida ilk bor "tekis muzlatgich" uskunasi asosida faoliyat yurituvchi sut va qandolatchilik sexi tashkil etildi [4, 7]. Shu yili Qo'qon 2-sonli paxta tozalash zavodida 650 ot kuchiga ega dizel elektr stansiyasi qurildi. Ushbu quvvat yordamida xom ashyo uzoq muddat saqlanadigan omborlardan ishlab chiqarish sexlariga mexanizatsiyalashgan tarzda yetkazib berish imkoni yaratildi.

1958-yilda shahardagi kapital qo'yilmalar hajmi 1955-yilga nisbatan 53,9 million rublga, 1956-yilga nisbatan esa 2,9 million rublga ortgan. Bu moliyaviy ko'rsatkichlar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish imkonini berdi. Jumladan, "Oxunboboyev" nomidagi tikuvchilik fabrikasida yangi quritish kamerasi ishga tushirildi, "Muqimiy" artelida esa mexanizatsiyalashgan to'quv sexi tashkil qilindi. O'sha yili shahar sanoat korxonalarida 350 dona yangi mexanizm va stanoklar o'rnatilib, foydalanishga topshirildi. Yangi uskunalar mahsulot turlarining kengayishiga, sifat va hajm jihatidan o'sishiga xizmat qildi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda to'qimachilik, paypoq ishlab chiqarish, qaymoq zavodlari energetik infratuzilmasini tiklash ustuvor vazifa bo'lib qolgan. Bu boradagi asosiy ishlarni mahalliy sanoat korxonalari, xususan Qo'qon mexanika zavodi hamda

“Farg‘onazokerit” trestni amalga oshirgan. Ular tomonidan 400 ot kuchiga ega dvigatel ta‘mirlanib, zavod hamda unga yondosh ishchilar turar joylarini elektr energiyasi bilan ta‘minlash bazasi shakllantirilgan [5, 16].

Qo‘qon sanoatining yuksalishida 1950-yilda foydalanishga topshirilgan, uzunligi 90 km bo‘lgan Farg‘ona–Qo‘qon yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu elektr liniyasi orqali Quvasoy davlat elektr stansiyasidan 110 kilovolt kuchlanishdagi sanoat elektr toki Farg‘ona energetika tizimi orqali Qo‘qon shahriga yetkazildi [6, 18]. Natijada, nafaqat sanoat korxonalari, balki shahar aholisi ham elektr energiyasi bilan yanada barqaror ta‘minlana boshlandi.

Bundan tashqari, 1948-yilda Namangan–Qo‘qon temir yo‘l liniyasining qayta tiklanishi ham shahar sanoatining rivojida muhim omil bo‘ldi. Mazkur liniya foydalanishga topshirilishi bilan Farg‘ona vodiysidagi temir yo‘l halqasi to‘liq shakllandi, bu esa xom ashyo va tayyor mahsulotlarning tashilishini ancha osonlashtirdi.

Umuman olganda, 1946–1958-yillar oralig‘ida Qo‘qonda yengil va oziq-ovqat sanoatining izchil taraqqiyoti bilan bir qatorda og‘ir sanoat tarmoqlari ham barqaror o‘sdı. Natijada, umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi ortdi, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish samaradorligi yuksaldi va Qo‘qon shahri Markaziy Osiyodagi muhim sanoat markazlaridan biriga aylandi.

1955-yilda Qo‘qon shahrida mashinasozlik, aloqa va temir yo‘l transporti sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida texnikum tashkil etildi. Mazkur ta‘lim muassasasida metall tokarlar, chizmachilar, sifat nazorati inspektorlari bilan bir qatorda prorablar, brigadirlar, muhandislar va sanoat korxonalari rahbarlari uchun malaka oshirish kurslari ham faoliyat ko‘rsatgan.

Farg‘ona viloyatida sanoat salohiyatining oshishi va ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj quyidagi statistik ko‘rsatkichlarda yaqqol namoyon bo‘ladi: agar 1950-yilda viloyatdagi sanoat tarmoqlarida 33,8 ming ishchi mehnat qilgan bo‘lsa, 1956-yilga kelib bu ko‘rsatkich 39,4 ming nafarga yetdi [7, 144].

1950-yillarning o‘rtalarida, umuman respublika bo‘ylab kuzatilganidek, Qo‘qon shahrida ham sanoat korxonalarida bevosita individual o‘qitish asosida mutaxassislar tayyorlash tizimi keng joriy etildi. Bu tizim korxona boshqaruvi zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalardan biriga aylandi va mehnat jamoalari o‘rtasida tuzilgan jamoaviy shartnomalarga kiritildi. Shu bilan birga, shaharda kasbiy malakani oshirishga xizmat qiluvchi mukammallik maktablari tashkil etildi. Masalan, “Bolshevik” zavodida tashkil etilgan bunday maktablardan biriga ilg‘or ishchilardan biri K. Jirnov rahbarlik qilgan. U yosh ishchilarga yuqori tezlikda metall kesish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar bergan. Lokomotiv deposida faoliyat yuritgan yana bir maktabda esa mashinist, tokar va mexanik kasblariga yo‘naltirilgan 70 nafar tinglovchi tahsil olgan. Bu yerda ustozlar Asqarov, Fenogenov va boshqalar tomonidan og‘ir poyezdlarni boshqarish, yoqilg‘i sarfini tejash kabi mavzularda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilgan [8, 3].

Shahar xalq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan besh yillik reja doirasida sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 barobar oshirish vazifasi belgilangan edi. Bu maqsadga erishishda texnik taraqqiyot, mehnat unumdorligini oshirish hamda sotsialistik musobaqani keng tatbiq etish hal qiluvchi omillar sifatida e‘tirof etildi.

1958-yil ijtimoiy raqobat harakati tarixida yangi bosqich bo‘ldi. Aynan shu yili Qo‘qon paypoq-yigiruv fabrikasi ishchilari tomonidan mehnat brigadalarini tashkil etish tashabbusi

ilgari surildi. Ushbu korxonaning yigiruv sexida Leonov boshchiligidagi 15 kishilik brigada tashkil etildi. Har bir brigada a'zosi ishlab chiqarish topshirig'ini 12 foizga ortiq bajara olishga va'da bergan [9, 149].

1958-yil yakuniga kelib shahardagi asosiy sanoat korxonalarida jami 8 ta mehnat brigadasi faoliyat yuritgan. Ularga paypoq-yigiruv fabrikasi, Oxunboboyev nomidagi tikuvchilik fabrikasi, yog'-moy zavodi, ekskavator stansiyasi, elektromexanika zavodi kabi yirik korxonalar kirgan. Shu bilan birga, 63 ta yoshlar smenasi va 94 ta yoshlar brigadasi fidokorona mehnat faoliyati bilan ajralib turgan [10, 42].

1951–1955-yillar davomida Qo'qon shahrida 800 dan ortiq ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilgan bo'lib, natijada 1 million 400 ming so'm miqdorida iqtisodiy samara keltirilgan [11, 8]. Shahar sanoatining ilg'or novatorlari orasida S. Shakirov, K. Ya. Sakur, T. G'ofurov va boshqalar alohida e'tirofqa sazovor bo'lgan. 1955-yilning dastlabki 10 oyida ratsionalizatorlik takliflari yordamida 891 ming so'm tejalgan [12, 150]. Superfosfat zavodidan Kachelin va Maslov, paypoq-yigiruv fabrikasidan Chepelev va Dolnin, qaymoq fabrikasidan esa Xoroshev va Bichev yilning eng ilg'or novatorlari sifatida tan olinganlar.

1956-yilda Qo'qon shahri sanoati umumiy hisobda 2 million 25 ming so'm mablag'ni tejashga erishdi va rejadani tashqari 32,9 million so'mlik mahsulot ishlab chiqardi [13, 26]. Xususan, paypoq-yigiruv fabrikasida amalga oshirilgan 72 ta texnik va tashkiliy taklif natijasida 280 ming so'mlik iqtisodiy samara qo'lga kiritildi. Bu kabi takliflar mehnat jamoalarida keng muhokama qilinib, amaliyotga joriy etilgan va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

“Bolshevik” zavodida novatorlik faoliyati bilan ajralib turgan K. Jirnov va Yastrebov, shuningdek, lokomotiv deposida faoliyat ko'rsatgan Goltsov va boshqa ilg'or ishchilar sanoat sohasida ilg'or tashabbuslari bilan tanilgan edilar [14, 40]. 1945–1955-yillar oralig'ida Qo'qon shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb sakkiz barobar oshdi [15, 36], sanoat ishlab chiqarish darajasi esa 1950-yil ko'rsatkichlariga nisbatan 50 foizga ko'tarildi [16, 37].

1956-yilga kelib, shaharda to'qqizta asosiy sanoat korxonasi faoliyat yuritgan bo'lib, ular qatoriga “Bolshevik” zavodi, sut va go'sht kombinati, pivo zavodi, shahar sanoat kombinati, hamda “Muqimiy”, “Yangi kuch”, “Partizan” va “Udarnik” artellari kirgan.

O'sha yili davlat rejasi doirasida 21 ta korxona belgilangan vazifalarni muddatidan oldin bajarishga erishib, jami 32,9 million so'mlik mablag' iqtisod qilindi [17, 22]. Sanoat hajmining ortishi asosan mavjud ishlab chiqarish maydonlarining kengaytirilishi hisobiga emas, balki mehnatni samarali tashkil qilish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish hamda yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan strategik chora-tadbirlarga bog'liq edi.

1957–1958-yillar Qo'qon sanoati uchun samarali davr bo'lib, bu yillarda ishlab chiqarish rejasi ortig'i bilan bajarilib, 490 million so'mlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarildi. 27 ta sanoat korxonasi mehnat unumdorligini 6,7 foizga oshirib, tannarxni pasaytirish evaziga 17,5 million rubl mablag'ni tejashga erishdi [18, 19].

1966–1970-yillar oralig'ida Qo'qonda yangi ishlab chiqarish obyektlari — ishlab chiqarish korxonalari kombinati, elektr tarmoqlari korxonasi va konserva zavodi faoliyat boshladi. 1970-yil 21-oktyabrda esa un kombinatida respublika miqyosida eng yirik elevatorlardan biri — 43 ming tonna sig'imga ega elevator majmuasi sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazildi [20, 22].

Shaharning sanoat infratuzilmasida muhim o'rin egallagan yana bir yirik korxona — xrom teri zavodi 1974-yilda ishga tushirildi. U beshta asosiy sexdan iborat bo'lib, zamonaviy texnika bilan jihozlangan va yiliga 195 million kvadrat detsimetr xromlangan teri ishlab chiqarish quvvatiga ega edi [21, 35]. Zavod nafaqat Farg'ona va Qo'qondagi poyabzal fabrikalarining ehtiyojini to'liq ta'minladi, balki mahsulotlarini boshqa Markaziy Osiyo respublikalariga ham eksport qila boshladi.

1983-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Qo'qon shahrida 28 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritgan bo'lib, ularda 22 360 nafar ishchi-xizmatchi band edi. Ulardan 18 084 nafari ishchi, 715 nafari esa muhandis-texnik va boshqa xizmat ko'rsatuvchi xodimlar edi [22, 172].

Texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va modernizatsiya qilish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 1959–1965-yillar davomida Qo'qon paypoq-ip gazlama fabrikasining ishlab chiqarish quvvati 1,5 barobarga oshirilgan bo'lib, yillik mahsulot hajmi 15 million juftga yetkazildi. Ayniqsa, bolalar uchun mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish ikki barobarga ko'paytirilgan bo'lib, bu yirik ijtimoiy-iqtisodiy yutuq hisoblangan.

Oxunboboyev nomidagi tikuv fabrikasining tikish sexida dastgohlar zamonaviy texnika asosida qayta jihozlandi. Shuningdek, maxsus lenta mashinasining joriy etilishi erkaklar va bolalar ko'ylaklarini tayyorlashda yangi texnologiyalarni qo'llash imkonini yaratdi. Natijada, mahsulot sifati sezilarli darajada yaxshilandi [23, 21].

1965-yil Qo'qon shahrining sanoatini rivojlantirishda yangi bosqich hisoblanib, sanoat korxonalarini zamonaviy mashinalar, asbob-uskunalar va apparatlar bilan jihozlashga, takomillashtirilgan texnologik jarayonlarni joriy etishga va yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratildi. "Bolshevik" mexanik zavodida gaz ballonlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan kompleks mexanizatsiyalashgan sex ishga tushirildi. "Elektromash" zavodi yangi asbobsozlik va tajriba sexlarini ishga tushirdi. "Qo'qontekstilmash" zavodida zamonaviy gal'vanik sex faoliyati yo'lga qo'yildi. Oxunboboyev nomidagi tikuv fabrikasida esa mato kesimini hisoblashda elektron-hisoblash mashinasidan foydalanish amaliyotga joriy etildi [24, 116].

Ushbu yillarda "Qo'qontekstilmash", "Elektromash", un kombinati, "Bolshevik" zavodi, yog'-moy kombinati kabi yirik sanoat korxonalari to'liq rekonstruksiya qilindi. Umumiy hisobda 436 dona yangi texnologik uskuna o'rnatildi [24, 116].

Qo'qonlik quruvchilar 1966–1968-yillarda superfosfat zavodida markaziy laboratoriya va qozonxona barpo etdilar, lokomotiv deposini rekonstruksiya qilish bilan birga Qo'qon temir yo'l stansiyasining shimoliy parkini ishga tushirishni ta'minladilar [25, 33].

1971–1975-yillarda yangi texnikalarni joriy etish va sanoat korxonalarini rekonstruksiya qilish ishlari davom etdi. Ushbu davrda Qo'qon shahridagi un kombinatida yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilib, kuniga 500 tonna donni qayta ishlaydigan tegirmon va kuniga 200 tonna aralash yem ishlab chiqaradigan sex ishga tushirildi. Poyabzal fabrikasining yillik ishlab chiqarish quvvati 320 ming juftga oshirildi, san'at buyumlari fabrikasida esa yillik 1 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi [26, 27]. Ushbu yillarda jami 2500 dan ortiq yangi uskuna o'rnatilib, ular 2 million so'm iqtisodiy samarani ta'minladi [27, 91].

1970-yilda shahar partiya qo'mitasi huzurida ilmiy-texnik taraqqiyotga ko'maklashuvchi kengash tashkil etildi [28, 19]. Ushbu kengash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynadi.

Ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda mehnatni ilmiy tashkil etish muhim o'rin egalladi. 1971–1973-yillarda Qo'qon sanoat korxonalarida mehnatni ilmiy tashkil etishga oid 800 dan ortiq tadbir amalga oshirilib, ularning iqtisodiy samarasi 1 million 200 ming so'mni tashkil etdi. Ayniqsa, superfosfat zavodi, yog'-moy kombinati, poyabzal fabrikasi, "Qo'qontekstilmash" va "Elektromash" korxonalari jamoalari sezilarli natijalarga erishdilar [29, 32].

1959–1966-yillarda Qo'qondagi ratsionalizatorlik harakatining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda oddiy ishchilar faol ishtirok etdi. Faqatgina 1960–1961-yillarda shahardagi yangi ishchilar tomonidan ishlab chiqarishga kiritilgan 1300 ga yaqin ratsionalizatorlik taklifi deyarli 1 million so'm miqdorida iqtisodiy samaralar berdi [30, 31].

1960-yillarda ratsionalizatorlik va ixtirochilik harakati Qo'qonda keng ko'lamda rivojlandi. Bu davrda nafaqat takliflar soni, balki ishtirokchilar soni ham sezilarli darajada oshdi. Masalan, 1965-yilda shaharda ishlab chiqarishga 1072 ta ratsionalizatorlik taklifi joriy etilib, ular tomonidan taqdim etilgan iqtisodiy samaralar 500 ming so'mga yetdi [31, 175].

Qo'qondagi ilg'or ishchilar orasida katta hurmatga sazovor bo'lganlar qatorida Chorak-
ip gazlama kombinati ta'mirlovchilar brigadasi brigadiri A. Akbarov, superfosfat zavodi slesari I. Pyrov, yog'-moy kombinati katta ustasi V. Knyazev, "Bolshevik" zavodi slesarlar brigadasi boshlig'i G. Muxitdinov kabi mutaxassislar bor edi.

Misol uchun, 1967-yilda shahardagi ratsionalizatorlar tomonidan ishlab chiqarishga 400 ta taklif joriy etilib, ular yillik hisobda 350 ming so'mlik iqtisodiy foyda keltirdi [32, 175]. 1971–1973-yillarda esa ratsionalizatorlik takliflari soni 1900 dan oshib, ularning iqtisodiy samara ko'rsatkichi 2,7 million so'mga yetkazildi [33, 22]. Shahar ishchilar sinfi ko'pincha korxonalarning o'zida, shuningdek kasb-hunar ta'limi muassasalari va o'quv yurtlarida tayyorlandi. Ishchilar tayyorlash jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablarining keng rivojlanishi hamda 1961-yil 30-may va 1964-yil 10-avgustdagi hukumat qarorlarining ishlab chiqarishda to'g'ridan-to'g'ri o'qitish hamda kasb-hunar tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan tadbirlari muhim rol o'ynadi. Kasb-hunar ta'limi muassasalari minglab malakali ishchilar va o'rta maxsus ta'limga ega bo'lgan texnik kadrlarga tayyorlashda muhim hissa qo'shdi. Har yili minglab kasb-hunar maktablari bitiruvchilari ishchi sinfini to'ldirib bordi. Jumladan, Qo'qon o'quv-kurs kombinat 1956–1975-yillar oralig'ida 15 mingdan ortiq neft sohasidagi mutaxassislarni tayyorladi.

Shuningdek, Chulash-ip gazlama kombinat huzurida yengil sanoatga ixtisoslashgan Farg'ona kechki texnikumining filiali hamda 27–28-sonli kasb-hunar maktablari faoliyat yuritdi. Bu maktablar tajribali o'qituvchilar va ishlab chiqarish o'qituvchilari bilan to'liq ta'minlangan edi. Sanoat korxonalarining texnik jihozlanishi va ishlab chiqarish jarayonlarining takomillashuvi shahar sanoati tomonidan davlat rejalarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'ldi.

1959–1965-yillar davomida Qo'qon shahar korxonalari belgilangan rejalarni 1965-yil 7-noyabrga qadar muddatidan oldin bajardilar. Shu yil oxirigacha sanoat mahsulotlari mamlakatga rejadan tashqari 20 million so'mlik qo'shimcha hajmda yetkazib berildi [34, 37]. Ushbu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 70 foizga o'sdi. 1970-yilda umumiy ishlab chiqarish ko'rsatkichi 1965-yilga nisbatan 9,8 foizga oshdi [35, 29].

Qo'qon sanoat korxonalarining mahsulotlari xalqaro bozorlarda ham katta talabga ega bo'ldi. Masalan, ta'mirlash zavodida ishlab chiqarilgan ko'zlovoy kranlar Kuba, Vyetnam, Afg'oniston, Mongoliya kabi mamlakatlarga eksport qilindi. Qo'qon paxta zavodi №1 mahsulotlari Polshadagi Lodz to'qimachilik shahri bozorida yuqori baholandi va 1970-yilda 410 tonna paxta yuklandi [36, 30].

"Elektromash" zavodi mahsulotlari esa chet ellik mutaxassislar tomonidan yuqori baholangan bo'lib, 1970–1975-yillarda 26 ta xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish etildi. Zavod mahsulotlari Angliya, Fransiya, Finlyandiya, Norvegiya va Kuba kabi mamlakatlarda keng qabul qilindi. 1975-yilda Qo'qon sanoati mahsulotlari 29 ta davlatga eksport qilindi [37, 8].

Qo'qon shahridagi sanoat rivojlanishi 1946–1990-yillar oralig'ida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu davrda oziq-ovqat, yengil sanoat, kimyo va mashinasozlik kabi sanoat tarmoqlarida katta yutuqlarga erishildi. Korxonalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlandi, ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirildi. Shuningdek, malakali ishchilar tayyorlash tizimi shakllantirildi va kasb-hunar maktablari hamda texnikumlar orqali mehnat resurslari to'ldirildi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam berdi.

1960-yillarning oxirlaridan boshlab Qo'qon sanoati nafaqat respublika, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Shahar sanoatining xalqaro maydonda tan olinish, eksport hajmining oshishi va yangi eksport bozorlariga chiqishi Qo'qon iqtisodiyotining muhim omillaridan biriga aylandi. Xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish, zamonaviylashtirish va mahsulot sifati oshirilishi Qo'qon sanoatining mustahkam o'sishiga xizmat qildi.

Bundan tashqari, mehnatni ilmiy tashkil etish, ratsionalizatorlik va ixtirochilik harakatlarining faollashuvi, yangi texnologiyalar joriy etilishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar shahar sanoatining barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Umuman olganda, 1946–1990-yillar davomida Qo'qon shahridagi sanoat nafaqat iqtisodiy o'sishda, balki texnik va mehnat samaradorligini oshirishda ham muhim yutuqlarga erishdi. Bu rivojlanish mamlakat ichida ham, xalqaro bozorlarda ham o'zining ahamiyatli o'rniga ega bo'ldi.

Qo'qon shahrining 1946–1990-yillardagi sanoat rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki texnologik yangilanish va mehnat samaradorligini oshirish sohasida ham muhim bosqich bo'ldi. Zamonaviy uskunalar va ilg'or texnologiyalar joriy etilishi, mehnatni ilmiy tashkil etish, ratsionalizatorlik hamda ixtirochilik harakatlarining faollashuvi shahar sanoatini yuqori mahsuldorlikka yetakladi. Shu bilan birga, malakali ishchilar tayyorlash tizimining samarali rivojlanishi sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim omil bo'ldi. Qo'qon sanoati mahsulotlari nafaqat respublikada, balki xalqaro bozorlarda ham katta talabga ega bo'lib, shahar iqtisodiyoti va eksport salohiyatining oshishiga katta hissa qo'shdi. Ushbu jarayonlar Qo'qon shahrining sanoat salohiyatini mustahkamlash bilan birga, mamlakat sanoatining umumiy rivojlanishiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qo'qon davlat arxivi, 580-fond, 1-yig'ma jild, 189-ish, 193-varoq.
2. Farg'ona viloyat davlat arxivi. 178-fond, 30-ro'yhat, 49-ish, 52-54-varaqlar.
3. Правда Востока, 1948 г., 3 января; Правда Востока, 1948 г., 12 октября.

4. Qo'qon davlat arxivi. 580-fond,1-ro'yhat, 133-ish, 7-varaq.
5. Правда Востока, 1946 г., 11 сентября; Правда Востока, 1948 г., 16 октября.
6. Правда Востока, 1956 г., 18 ноября.
7. Народное хозяйство Узбекской ССР. Статический сборник. – Ташкент, 1957, - С. 144.
8. Правда Востока, 1955 г, 3 ноября.
9. История Коканда. – Ташкент, Фан, 1984. – С, 149.
10. FVDA, 178-fond, 30-ro'yhat, 50-ish, 42-varaq.
11. Правда Востока, 1956 г, 8 января.
12. История Коканда. – Ташкент, Фан, 1984. – С, 150.
13. FVDA, 178-fond, 30-ro'yhat, 22-ish, 26-varaq.
14. FVDA, 178-fond, 30-ro'yhat, 49-ish, 40-varaq.
15. FVDA, 178-fond, 26-ro'yhat, 1533-ish, 36-varaq.
16. FVDA. 178-fond, 26-ro'yhat, 1533-ish, 37-varaq.
17. FVDA, 178-fond, 30-ro'yhat, 21-ish, 22-varaq.
18. FVDA, 178-fond, 30-ro'yhat, 49-ish, 35-varaq.
19. FVDA, 178-fond, 30-ro'yhat, 46-ish, 34-varaq.
20. Знамя труда, 1970 год, 22 октября.
21. FVDA,178-fond, 44-ro'yhat, 1-ish, 35-varaq.
22. История Коканда (С момента присоединения Средней Азии к Росиии до настоящего времени). – Ташкент: Фан, 1984. – С. 172.
23. FVDA, 178-fond, 37-ro'yhat, 1-ish, 21-varaq.
24. FVDA, 178-fond, 45-ro'yhat, 2-ish, 116-varaq.
25. FVDA, 178-fond, 37-ro'yhat, 1-ish, 33-varaq.
26. Знамя труда. 1970 год, 27 октября.
27. FVDA, 178-fond, 45-ro'yhat, 1-ish, 91-varaq.
28. Знамя труда. 1970 год, 19 декабря.
29. FVDA, 178-fond, 39-ro'yhat, 1-ish, 32-varaq.
30. FVDA, 178-fond, 39-ro'yhat, 1-ish, 31-varaq.
31. История Коканда (С момента присоединения Средней Азии к Росиии до настоящего времени). – Ташкент: Фан, 1984. – С. 175.
32. История Коканда (С момента присоединения Средней Азии к Росиии до настоящего времени). – Ташкент: Фан, 1984. – С. 175.
33. FVDA, 178-fond, 44-ro'yhat, 1-ish, 22-varaq.
34. FVDA, 178-fond, 37-ro'yhat, 1-ish, 37-varaq.
35. FVDA, 178-fond, 41-ro'yhat, 1-ish, 29-varaq.
36. Знамя труда. 1970 год, 30 июля.
37. Знамя труда. 1967 год, 8 сентября.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE SIGNIFICANCE OF THE “ONE BELT, ONE ROAD” INITIATIVE IN THE ECONOMIC COOPERATION BETWEEN NEW UZBEKISTAN AND THE PEOPLE’S REPUBLIC OF CHINA

Tashkulova Dilnoza

Assistant of the Department of
"Social Sciences and Humanities and Languages"
Almalyk branch of the Islam Karimov
Tashkent State Technical University

Abstract. This article will talk about the “one Space-One Road” Initiative in the development of economic cooperation relations between Uzbekistan and China, priorities of cooperation between the two countries, cooperation relations and promising plans in the field of transport and logistics.

Keywords: economy, international cooperation, Central Asia, Great Silk Road, investment, foreign trade turnover, railway.

YANGI O‘ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKALARI IQTISODIY HAMKORLIGIDA “BIR MAKON-BIR YO‘L” TASHABBUSINING AHAMIYATI

Tashqolova Dilnoza Turaboy qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Olmaliq filiali “Ijtimoiy gumanitar fanlar va tillar kafedrası” assistenti
E-mail: tashqolovadilnoza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalarining rivojlanishida “Bir makon-bir yo‘l” tashabbusi, ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari, transport va logistika sohasidagi hamkorlik aloqalari va istiqbolli rejalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, xalqaro hamkorlik, Markaziy Osiyo, Buyuk ipak yo‘li, investitsiya, tashqi savdo aylanmasi, temir yo‘l.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N12>

Kirish. “Bir-makon bir-yo‘l” loyihasi Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpinning 2013-yilda Qozog‘istonga tashrifi davomida e‘lon qilingan loyiha hisoblanadi. Ulkan iqtisodiy o‘rish suratlari ega Xitoy hukumati birinchi bo‘lib, Markaziy Osiyo mamlakatlari orqali Janubiy Osiyo hamda Yaqin sharqdagi mamlakatlarga, shuningdek, bevosita Yevropa davlatlari bozorlariga jadallik bilan kirib borishni maqsad qilgan. Ushbu jihatni hisobga olgan holda Xitoy hukumati o‘z ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarini bu bozorlar bilan qulay logistika markazlari, avtomobil va temir yo‘llar tarmog‘i orqali bog‘lash ishlarini faollik bilan amalga oshirishni maqsad qilgan. Shu boisdan ham Xitoy tomonidan ilgari surilayotgan – bu yangi, zamonaviy loyiha Xitoyning tashqi dunyo uchun ochiqlik tamoyili bo‘yicha strategik zamonaviy “Ipak yo‘li” loyihasi deb ham atash mumkin. Ushbu loyihada bugungi kunda Osiyo, Yevropa hamda

Afrikaning 4,4 mlrd aholisi bo'lgan 60 dan ortiq mamlakat ishtirok etmoqda. Bu loyiha asosiy mavzulari esa yirik nufuzli xalqaro tashkilotlar hujjatlariga ham kiritilgan.

Ushbu yirik loyiha doirasida esa 3 ta xalqaro forum bugungi kunga qadar bo'lib o'tgan hisoblanadi. Birinchi forum 2017-yilda, ikkinchi forum 2019-yilda, 2020-2021-yillarda esa butun dunyoda yuz bergan pandemiya sabab, bo'lishi rejalashtirilgan 3-forum 2023-yilning 17-18-oktyabr kunlari "Bir-makon, bir-yo'l" loyihasi tashkil etilganligining 10 yilligiga bag'ishlab Pekin shahrida bo'lib o'tgan.

Tahlil va natijalar. Xitoy tomonidan ilgari surilayotgan bu yirik loyihada bugungi kunda dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlari nafaqat manfaatdor shuningdek, faol ishtirok ham etishmoqda. Ushbu strategiya dengiz hamda quruqlik savdo yo'llari orqali Janubiy Osiyo mamlakatlari so'ngra Yevropa mamlakatlari bozorlariga tovarlar va xizmatlarni yetkazish shuningdek, o'z iqtisodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun ushbu mintaqalardan xomashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida ham muhim ahamiyatga egadir. "Dastlabki bosqichda 'Kamar va yo'l' dasturi asosan Xitoyning g'arbiy hududlarini rivojlantirish mexanizmi sifatida ko'rib chiqilgan, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaraoldi hamkorligini kengaytirish orqali. Biroq, 2013-yil kuzida Si Szinpin tomonidan Quruqlikdagi Ipak yo'li iqtisodiy kamari (QIIK) va Dengiz ipak yo'li tashabbuslari ilgari surilgach, dasturda tashqi omillar birinchi o'ringa chiqdi, garchi uning ichki kun tartibi hanuz asosiy yo'nalish bo'lib qolsa-da. Aynan QIIK tashabbusini amalga oshirish orqali Xitoyning g'arbiy hududlarini o'zlashtirish va rivojlantirish dasturini ilgari surish va tezlashtirish taklif etilgan" [1].

Birinchi bor 2017-yilning may oyida Pekin shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro forumda dunyoning 68 mamlakati hamda xalqaro tashkilotlari ushbu loyiha doirasida Xitoy hukumati bilan hamkorlik to'g'risidagi bitimlarni imzolagan edi. Xitoy Xalq Respublikasi hukumat raisi Si Szinpin forumda so'zlagan nutqida uch yil muddat ichida «Bir makon, bir yo'l» loyihasiga qo'shilgan mamlakatlardagi Xitoy investitsiyasi miqdori 50 milliard dollarga yaqin mablag'ni tashkil etganini ma'lum qilgan.

2019-yilning 24-27-aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bir makon, bir yo'l" ikkinchi xalqaro forumi ishida ishtirok etish uchun Xitoy Xalq Respublikasiga amaliy tashrifi respublikamizning xalqaro maydondagi obro'sini mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi. Forum davomida ilgari surilgan tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlandi va ular milliy iqtisodiyot uchun ustuvor dasturlar va loyihalarni olg'a surishda O'zbekistonga keng istiqbollarni ochib berdi deyish mumkin [2].


"Bir makon, bir yo'l" tashabbusi O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"dagi alohida qoidalar bilan mos hamda sanoat, energetika, transport, logistika, qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa yo'nalishlardagi o'zbek-xitoy har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini izchil rivojlantirishga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

Ushbu sohalardagi qo'shma loyihalarni izchil hamda muvaffaqiyatli amalga oshirish yangi logistika markazlari hamda transport savdo yo'laklarini ochish, mahalliy mahsulotlarga bo'lgan eksport hajmini kengaytirish va respublikamiz iqtisodiy tarmoqlariga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini oshirishga yordam berishi ko'zda tutilgan. Investitsiya sohasidagi hamkorlik aloqalarimiz natijasi o'laroq, Xitoy Xalq Respublikasining mamlakatimizga kiritgan umumiy investitsiyalari hajmi 14 milliard dollardan oshdi [3].

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentyabr oylariga kelib, O'zbekistonda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 226,6 trln so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin[4].

Ushbu ko'rsatkichlardan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan barcha xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 104,4 trln so'm miqdorida qayd etilgan.

Davlat statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimizga eng ko'p sarmoya kiritgan davlatlar o'ntaligi e'lon qilindi. Ushu ma'lumotlar asosida mamlakatimizda o'zlashtirilgan barcha chet-el investitsiyalari va kreditlar hajmida eng ko'p ulushga ega bo'lgan investor – mamlakatlar quyidagicha ko'rinishda bo'ladi [5]:



1.rasm. Statistika agentligining 2023-yilning yanvar-sentYabr oylarida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi % hisobida.

Xitoy hukumati sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni esa uch barobar ko'paygan. Xitoy hukumati 80 ga yaqin davlatda raqamli infratuzilma loyihalarini amalga oshirib kelmoqda, dunyo bo'ylab "Raqamli ipak yo'li" doirasidagi loyihalarga, taxminan, 80 milliard dollar sarmoya kiritgan hisoblanadi [6].

"Bir makon, bir yo'l" loyihasi doirasida Markaziy Osiyo davlatlariga 84 ta loyiha tegishli bo'lib, ushbu loyihalardan 30 tasi Qozog'iston, 26 tasi O'zbekiston Respublikalari hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston ham Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari kabi dengiz savdo imkoniyatlari mavjud bo'lmagan davlat hisoblanadi. Shuning uchun ham "Bir makon – bir yo'l" loyihasi davlatning quruqlikdagi savdo imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiyot ushu loyihadan manfaatdor mamlakatlardan biridir. Bu loyihada ishtirok etish orqali Markaziy Osiyo davlatlariga, shu jumladan O'zbekistonga ham ko'plab xorijiy investitsiyalar kirib kelishi, yangi korxonalar tashkil etilishi hamda ko'plab bo'sh ish o'rinlari paydo bo'lmoqda.

"Bir-makon, bir-yo'l" xalqaro forumining 10 yilligi yubiley marosimida nutq so'zlagan davlat rahbarimiz asosiy e'tiborni mamlakatimiz hamda mintaqamizda tez-tez yuz berayotgan qurg'oqchilik, anomal ob-havo sharoitlari va chang bo'ronlari, yerlarning cho'llanishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi kabilarda namoyon bo'layotgan noqulay ekologik vaziyatga to'xtalib, Markaziy Osiyo mintaqasi bugungi kunning global muammolaridan biri, jahondagi iqlim o'zgarishi oqibatlaridan eng ko'p zarar ko'rayotgan mintaqalardan biri ekanligini qayd etgan edi [7].

Shuningdek, hukumat mazkur mintaqada yuqoridagi muammolarni kamaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan maxsus rezolyutsiya asosida Orolbo'yi mintaqasida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududlarini yaratish bo'yicha keng ko'lamli dasturni amalga oshirayotgani ta'kidlab o'tildi.

Mintaqada "yashil" iqtisodiy taraqqiyot sohasida manfaatli maqsadlarga erishishda fikr almashish va imkoniyatlarni kengaytirish uchun O'zbekiston rahbari 2024-yilda Samarqand xalqaro iqlim forumini o'tkazish tashabbusini ham ilgari surgan edi [8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ushbu loyihada O'zbekistonning Xitoy hukumati bilan savdo-iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy, ikki tomonlama manfaatli aloqalar va maqsadlari kengayib borayotganini inobatga olgan holda ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi lozim. Fikrimcha loyihaning mamlakatimiz uchun xatarli tomoni ham aynan shu jihati bo'lishi mumkin. Xitoy bilan qarz, kredit va investitsiya masalalarida ehtiyotkoronalik bilan harakat qilish Xitoyning "Qarz botqog'iga" tushib qolmaslik choralari ko'rish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lishi lozim deb hisoblayman. Ijobiy tomondan esa qurilishi mo'ljallangan Qirg'iziston-O'zbekiston-Xitoy temir yo'lining qurilishi va foydalanishga topshirilishi amalga oshsa, O'zbekiston Markaziy Osiyoni Xitoy hamda Yevropa bilan bog'lovchi savdo yo'lidan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xitoy O'zbekistonning yetakchi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlaridan hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkori Xitoy Xalq Respublikasi bo'ldi. Eksport, import, investitsiya hamda tashqi savdo aylanmasi sarhisoblariga ko'ra eng ko'p ulush Xitoyga tegishli bo'ldi. Ikki davlat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yakunlariga ko'ra 13 722,0 mln AQSH dollariga teng bo'lgan.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Лю Ижу, Авдокушин. Е.Ф. Проект «Один пояс, один путь» 2.0 — стратегия стимулирования глобальной экспансии Китая. Мир новой экономики. – М., 2019. Ст. 67-76
2. <https://lex.uz/mact/-4381463>
3. Shavkat Mirziyoyev: birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz natijalarini xalqlarimiz sezishi kerak <https://president.uz/uz/2533> 27.04.2019.
4. <https://xabar.uz/uz/iqtisodiyot/xitoy-ozbekistonga-investiciya-boyicha-mu>
5. <https://xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma-yangiliklar/13092-o-zbekistonda-o-zlashtirilayotgan-xorijiy-investitsiya-va-kreditlar-hajmida-qaysi-davlatning-ulushi-yuqori-2>
6. Tashqo'lova D.T., YANGI O'ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKALARI O'RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI BOSQICHI "Ilm-fan, ta'lim, innovatsiya: tarix fanlarining dolzarb masalalari va zamonaviy jihatlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 316-318 bet, 2025-yil 23-24-may.
7. Tashqo'lova D.T., YANGI O'ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKALARI O'RTASIDAGI SAVDO-IQTISODIY VA INVESTITSİYALAR SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI, Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation 678-687 bet, Vol.2 №12 (2024). December
8. Tashqo'lova D.T., YANGI O'ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKALARI O'RTASIDAGI QO'SHMA KORXONALAR FAOLIYATI "PEDAGOGS" international research journal, 217-221 bet, Volume-70, Issue-2, November -2024

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

AN ANALYSIS OF JULIA COHEN'S RESEARCH ON THE SOCIAL STATUS OF SEPHARDIC JEWS IN THE 18TH–20TH CENTURIES

Jabborov Qakhramon Jakhongir ogli

Lecturer at the Department of Social Sciences,
Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract. Analysis of the Social Status, Culture, Scientific Activity, and Migration Processes of Sephardic Jews in the 18th–20th Centuries. The study highlights the works of Sephardic scholars in the fields of history, linguistics, and sociology, as well as their scholarly contributions to jurisprudence and the conditions of communities in various geographic regions. Migrant Sephardic communities in America, Europe, Asia, and Australia have been thoroughly examined, along with issues related to documentation and integration into society. The article is based on historical sources and belongs to an established academic school.

Keywords: Sephardic Jews, immigration centers, culture, diaspora, Ladino language, Stroum Center for Jewish Studies.

JULIYA KOHENNING XVIII-XX ASRLARDA SEFARD YAHUDIYLARINING IJTIMOYIY HOLATIGA OID TADQIQOTLARI TAHLILI

Jabborov Qaxramon Jaxongir o'g'li,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi,

E-mail: jabborovqahramon98@gmail.com

Annotatsiya. XVIII–XX asrlarda Sefard yahudiylarining ijtimoiy holati, madaniyati, ilmiy faoliyat va migratsiya jarayonlariga oid tahlil asr natijalari. Tadqiqotda sefard olimlarining tarixiy, tilshunoslik va sotsiologik yo'nalishlardagi ishlari, sudyalik ilmiy tadqiqotlari va turli geografik tadqiqotlardagi jamoalar holati yoritilgan. Amerika, Yevropa, Osiyo va Avstraliyadagi muhojir sefard jamoalari, hujjatlar muammolari va jamiyatga integratsiyalashuvi chuqur o'rganilgan. Maqola tarixiy manbalar asosida yozilgan va ilmiy maktabga ega.

Kalit so'zlar: Sefard yahudiylari, immigratsiya markazlari, madaniyat, diaspora, ladino tili, Stroum Yahudiy tadqiqotlar markazi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N13>

Sefard yahudiylariga oid ilmiy tadqiqotlar XVIII asr oxirlaridan boshlab rivojlana boshlagan. Dastlabki izlanishlar asosan shaxsiy va siyosiy sabablarga borib taqalgan bo'lib, yahudiy olimlar o'z nasl-nasablarini o'rganishga qiziqqanlar. Bu tadqiqotlar keyinchalik madaniy, ijtimoiy va diniy yo'nalishlarda rivojlangan. XVIII–XX asrlarda juda ko'plab sefard tadqiqotchilar o'z jamoalarining tarixini o'rganib, ilmiy adabiyotlar yaratganlar. Ular orasida Rafael Salamon, Samuyel David Luzatto, Merkado Jozef, Jozef Nehama, Mayr Bernardete, Ibrohim Galante, Isak Emanuyel, Yetzak Bin Zvi, Abraham Yahudo va boshqalar mavjud bo'lib, ularning har biri tarix, til, jamiyat va madaniyat bo'yicha salmoqli hissa qo'shgan.

Dastlabki tadqiqotlardan birini Rafael Salamon (vafoti 1797-yilda) 1787-yilda ajdodlari tarixini o'rganish bilan boshlagan. Ispaniyadan surgun qilinganidan keyingi davr mobaynida

ularning qayerlarda bo'lganligini va ularning ijtimoiy mavqeyini aniqlash uchun turli ravvinlarning qo'lyozmalarini o'rgana boshladi va oilasini keyingi tarixini birlashtirdi. Uning bu kabi izlanishlarining sababi shaxsiy va siyosiy sabablarga borib taqalgan.

Samuyel David Luzatto (1860-1865) ibroniy tilda Shadal taxallusi bilan ham tanilgan, italiyalik yahudiy shoiri va grammatikachisi bo'lib, italyan va ibroniy tillarda Bibliyaga tanqidiy yondashgan ko'plab asarlar muallifi hisoblanadi (1851).

Merkado Jozef (1870-1940) Serres shahrida sefard yahudiy oilasida tug'ilgan. Kasbi o'qituvchi va tarixchi bo'lgan. U 1892-yilda Serres va Salonikagi yahudiy jamiyatiga oid tadqiqotlar olib borgan. 1892-yildagi izlanishlarining birida shunday yozadi: "yahudiylar o'z tarixini yozishlari kerak, chunki bu ajdodlari asrlar davomida duch kelgan ta'qiblar haqida ma'lumot berish bilan birga begonalarining noxolis yondashuvini tuzatishga yordam beradi" [1; P. 394.]. Uning tavsiyalari asosida Shimoliy Afrika va Levantdagi yahudiylar ta'lim olayotgan maktablarda Injil tarixi fanidan keyingi fan sifatida yahudiy tarixi fani kiritildi.

Nemis yahudiy ziyolilarining kichik guruhi tomonidan XIX asr boshlarida tashkil etilgan Yahudiylik ilmi harakati yahudiy ziyolilarini tanitish va yahudiylar tarixini va madaniyatini tanqidiy o'rganishni maqsad qilgan edi. Yahudiylik ilmi harakati olimlari o'rta asrlar Iberiyasidagi yahudiylarning aqliy intillecti va madaniy yutuqlariga qiziqish bildirgan. Shuningdek, islom boshqaruvi yahudiylarga jamiyatning elita qatlamiga kirish va nasroniy va musulmon qo'shnilarining madaniy aloqalarida qatnashish imkoni berganligini e'tirof etishgan. Biroq, harakat a'zolarining surgundan keyingi sefarad yahudiylariga oid izlanishlari ko'p bo'lmadi. Shuning uchun ba'zi yahudiy olimlari harakatni zamonaviy sefardlarni tarixsiz xalqqa aylantirganlikka ayblashgan.

XX asrning ko'p qismida bankir, maktab direktori va Salonikadagi yahudiy jamoa rahbari Jozef Nehama (1881-1971) ismi ko'p uchraydi. U o'zi tug'ilgan shahrining yahudiy o'tmishining sermahsul yilnomachisi hisoblanadi. U Salonika va Parij matbuotiga yahudiylarning tarixi, tijorati va salomatligiga oid ko'plab maqolalarni taqdim etgan. Yetti jildlik "Salonikaliklar va Isroilliklar tarixi" kitobini yozgan va bu ish ustida ko'p mehnat qilgan. Qirq yil davomida fransuzcha-ladina lug'ati ustida ishladi, hamda ispan-yahudiy so'zlashuvda salonikalik sefardlarning lahjasini tahlil qildi.

1930-yilda Mayr Bernardete tomonidan Ispan instituti homiyligida Kolumbiya universitetida sefard tadqiqotlari dasturi ishlab chiqilgan. O'sha paytda Kolumbiya dasturi dunyodagi sefard madaniyatini o'rganishga qaratilgan yagona rasmiy akademik bo'linma bo'lgan. Shuningdek Mayr Bernardete va Moris Xekstir tomonidan 1913-yilda Sinsinatidagi sefard muhojirlari jamoasi bo'yicha sotsiologik so'rovnoma o'tkazilgan. So'rovnomada sefard muhojirlari duch kelayotgan muammolar ko'rsatilgan. Shuningdek, XX asr boshlarida AQSHdagi sefard yahudiylarining ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida muhim ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan [2; P.260.].

Sefard va turk yahudiylari tarixining eng mashhur olimlaridan Ibrohim Galante (1873-1961) tarixchi, pedagog, professor, jurnalist, tilshunos bo'lgan. Ibrohim Galante 60 dan ortiq kitoblar va yuzdan ortiq maqolalar muallifi hisoblanadi. Shuningdek, fransuz, german va turk yahudiylariga aloqador bo'lgan hujjatlarni ibroniy va ladin tillariga tarjima qilganligi bilan mashhurdir.

Isak Emanuyel (1896-1972) Salonikada yahudiy oilasida tug'ilgan. Sefard yahudiylari tarixiga oid izlanishlar olib borgan. 1923-yilda Salonika yahudiylar kengashi tomonidan Isak

Emanuyel Breslaudagi (Polsha) yahudiy diniy seminariyasiga o'qishga yuborilgan. Aslida u o'qishni tamomlab, Salonikaga qaytib ravvin bo'lib xizmat qilishi kerak bo'lgan. Lekin u Yevropada o'n yildan ko'proq vaqt davomida qolib, 1936-yilda Lozanna universitetida fan nomzodi ilmiy darajasini olgan. Shu yilning o'zida u Salonikadagi yahudiylar hayotining dastlabki asrlariga oid tadqiqotining birinchi jildini chop ettiradi. Isak Emanuyel 1924-yildan boshlab Berlin, Parij, London va Oksforddagi tarixiy qo'lyozmalarni o'rgana boshlagan. Dastlabki izlanishlari davomida Salonikadagi yahudiy qabristonlaridagi 3000 ga yaqin epitafiyalarni o'rganib chiqqan. Shuningdek, 1500-1660 yillarga tegishli bo'lgan, yahudiylar tarixi bo'yicha qiziqarli hisoblangan 500 ta epitafiyani nashr ettirgan.

Yetzak Bin Zvi (1884-1963) Rossiyada tug'ilgan. Keyinchalik Turkiyaga ko'chib keladi va Amerika Qo'shma shtatlariga ko'chib ketishdan oldin Istanbulda huquqshunoslik darajasini oladi. Oxir-oqibat Falastinda joylashadi. Bin Zvi ashaddiy sionist bo'lgan. U Isroil mustaqillik deklaratsiyasini imzolaganlar qatorida bo'lgan. 1948-yilda u Sharqdagi yahudiy jamoalarini o'rganish institutini (keyinchalik Bin-Zvi instituti nomini olgan) tuzadi va unga o'zi rahbarlik qiladi. Uning homiyligida O'rta Yer dengizi, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika yahudiylarining tarixi va diniy amaliyotlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Keyinchalik Bin Zvi 1952-1963 yillarda Isroil prezidenti vazifasini bajaradi. Sharqdagi yahudiy jamoalarini o'rganish instituti 3 ta tashkilot tomonidan asos solingan. Bular: Isroildagi ishchilar jamiyati, Milliy qo'mita va Amerika ishchilar jamiyatidir.

Abraham Yahudo (1877-1951) Madrid universiteti professori bo'lgan. U XX asr boshlarida Madrid universitetida yahudiyshunoslikka oid tadqiqotlarni o'rganishni ilgari surgan. Ibroniylar tili bo'yicha dasturlar ishlab chiqqan. Uning dasturlari nihoyasiga yetmaydi. Sababi konservativ katolik doiralari uni o'z lavozimidan ozod qiladi.

Sefard yahudiylari boshqa yahudiy yo'nalishlaridan dunyoviy tadqiqotlarga munosabati bilan ham ahralib turgan. Sefard olimlari ilm-fan, adabiyot va falsafani o'rganib, bu sohalarga oid asarlar yozishgan. Bu kabi holatlar har bir jamoa yashaydigan madaniy muhitga bog'liq bo'lgan. O'z navbatida, sefard olimlari yahudiy bo'lmagan jamiyatlarning hurmatini qozonish uchun ham dunyoviy tadqiqotlarni muhim hisoblashgan. Bu kabi tadqiqotlar keyingi yillar davomida ham davom etib kelmoqda. Masalan, Yeshiva universiteti sefard tadqiqotlar dasturi 1968-yilda tashkil qilingan. Vashington universiteti qoshidagi Stroum yahudiy tadqiqotlar markazining sefard tadqiqotlar dasturi ladino tilida so'zlashuvchi sefard yahudiylarining tarixi, madaniyati va tilini o'rganish, o'qitish va qayta tiklash uchun dunyoga mashhur dasturdir.

XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bir qismi bosib olinishi yahudiylarning yana Turkiston va Buxoro jamoalariga bo'linib ketishiga olib keldi [3; C. 66.].

XX asrda Sefarad immigratsiya markazlari asosan Shimoliy Amerikada: Nyu-York, Chikago, San Fransisko, Los Anjels, Vashington, Montreal, Meksika, Verakrus kabi shaharlarida; Janubiy Amerikada: Lima, Rio de Jeneyiro, Buenos Ayres, Montavidiya; Yevropada: Manchester, London, Parij, Marsel, Madrid, Lisbon, Rim, Milan, Vinetsiya; Janubiy Afrikada: Lubumbashi, Salisbury, Yohannesburg, Keyptoun; shuningdek, Istanbul, Anqara, Salonika, Tel Aviv, Aleksandriya kabi shaharlarda mavjud bo'lgan.

Yigirmanchi asrning boshlarida Usmonli imperiyasidan o'n minglab yahudiylar iqtisodiy yaxshilanish izlab Nyu-York shahriga kela boshladi. Ko'pchilikning bu jarayonlarni

kuchayishiga Usmonli imperiyasining Liviya ustidan Italiya bilan 1911-yildagi urushi va 1912-1913-yillardagi ikki Bolqon urushi sababidan musulmon bo'lmaganlarning ham umumiy harbiy xizmatga chaqirishni talab qiladigan yangi qonunni qabul qilinganligidan deb bilishadi. Nyu-Yorkda ham boshqa sefarad immigratsiya markazlarida bo'lgani kabi yangi xayriya tashkilotlari yangi muhojir aholining ehtiyojlarini qondirish uchun paydo bo'lgan. 1911-yil boshida Sefarad yahudiy muhojirlari uchun Ibroniya Immigrant Yordam Jamiyati byurosi (keyinchalik Sharq byurosi) tashkil etildi. Keyingi yili taniqli levantin yahudiy faollari Sharq yahudiylari federatsiyasini tuzdilar. Istanbulda tug'ilgan Jozef Gedalesiya uning birinchi prezidenti bo'ldi. Tashkilot maqsadi "amerikalashtirish va sharq yahudiylarining ahvolini yaxshilash" ekanligi e'lon qilindi. Ushbu tashkilotning nomi Amerika Sharq Yahudiylari Federatsiyasi deb nomlanadi; shtab-kvartirasi Nyu-York shahrida joylashgan. Uning maqsadi iqtisodda, sanoatda, ta'limda, fuqarolik va diniy sharoitlarda Amerika Qo'shma Shtatlaridagi sefarad yahudiylarining holatlarini yaxshilash deb belgilangan.

Shimoliy Amerikadagi eng qadimgi yahudiylar jamoasi 1654-yilda yigirma uch sefarad qochqinlari Portugaliya inkvizitsiyasidan qochib, dastlab Braziliyaning Resif shahridan Nyu-Amsterdamba (keyinroq Nyu-York shahriga) kelishgan. Ular keyinchalik qadimgi sefardimlar deb tanilgan va ular ham o'z vaqtida o'z jamiyatlariga asos solishgan. Bu vaqtga kelib bu yerdagi qadimgi sefardlar asosan madaniyatli, ingliz tilini yaxshi bilgan va boy jamoa bo'lgan, holbuki yangi kelgan sefardlar asosan ishchilar sinfidan bo'lib, ko'pincha Qo'shma Shtatlarga ingliz tilini juda kam biladigan yoki umuman bilmaydigan yahudiylar immigrant sifatida osongina kelgan. 1912-yilda Nyu-Yorkdagi birinchi ispan-portugal sinagogasi ravvini Dr. David de Sola Pol o'z va'zida bu yerdagi qadimgi sefard jamoati Usmonli imperiyasidan kelgan yahudiylarni ochiq qo'l bilan kutib olganligini, yaqinda kelganlar uning kamayib borayotgan jamoasiga yangi hayot kiritishiga umid bog'laganligini ta'kidlab o'tgan.

Yigirmanchi asrning boshlarida Amerika qit'asiga kelayotgan yahudiylar asosan jamoaviy holatda kela boshlaganlar. Bu bir hududda istiqomat qilgan sefarad jamoalarining bu qit'adagi hududlarda ham birga bo'lishini taqozo etdi. Antaliya va Bolqondan kelgan yahudiylar asosan Kuba hududlariga joylashganlar. Lotin Amerikasining boshqa joylarida bo'lgani kabi, bu mamlakatning katolik muhitida, eng qadimgi sefard yosh avlodining ba'zilar ham yahudiylikdan uzoqlashishni boshdan kechirgan. Shuningdek boshqa joylarda bo'lgani kabi Kubada ham muhojir sefardlar migratsiya bilan bog'liq ko'plab qiyinchiliklarga duch kelgan, jumladan, o'z uylari bilan sekin va ishonchsiz aloqa o'rnatganlar. Nikoh masalalari borasida, ayniqsa, ajrim masalalari sefard muhojirlari orasida yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi tarixiy manbalarda keltiriladi. Yigirmanchi asrning boshlarida yahudiy erkaklarning aksari o'z oilalaridan oldin ko'chib kelishgan. Ommaviy migratsiya davri boshqa yahudiy ayollarida bo'lgani kabi sefarad yahudiy ayollari uchun ham bir qator qonuniy tashvishlarni keltirib chiqargan.

XIX asr o'rtalarida Kaliforniya iqtisodiyotning keskin kengayishi natijasida sefard va ashkenazi yahudiy muhojirlari ko'chib o'tishi uchun qulay hududga aylandi. Mintaqadagi barcha sefard aholi punktlari orasidan tez orada Los Anjeles eng kattasi bo'ldi. Yahudiy-ispan aholisi keyingi o'n yilliklarda ko'payishi bilan XX asrda shahar geografik va demografik jihatdan kengayib bordi. Los-Anjelesdagi sefarad yahudiy muhojirlari tezda bir qator o'zlariga tegishli bo'lgan jamiyatlarni, jumladan, asosan yahudiylardan tashkil topgan Tinchlik va Taraqqiyot jamiyatini tuzdilar. Los Anjelesdagi sefard yahudiy jamiyati a'zolarining miqdori ko'paygani

sari, sefardlarni birlashtiruvchi jamiyatlarning ham miqdori ko'payavergan. Ushbu turtki tufayli 1920-yilda "Los Anjeles sefardlar jamiyati" (La Comunidad deb ham nomlanadi) paydo bo'ldi. La Comunidad tomonidan barpo qilingan sinagoga o'z navbatida yahudiylar ibodatxonasi bo'lishi bilan bir qatorda Los Anjelesdagi Bolqon, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika yahudiy hamjamiyatlarining markazi bo'lib ham xizmat qilgan.

Sefard yahudiylarining Meksika hududlariga kirib borishiga bir necha sabablar bo'lgan. Meksika xalqining so'zlashuv tili sefard jamoalari tiliga yaqinligi ham o'z navbatida migratsiya sabablaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Chunki sefardlarning ladina tili ham aynan yahudiy-ispn tili qorishmasidan paydo bo'lgan. Shuningdek, 1924-yilga kelib yangi immigratsiya bo'yicha cheklovchi qonun ham yahudiy muhojirlarining AQShga kirishini cheklab qo'ydi. Bu esa turli hududlardan AQShga kelgan muhojirlar uchun boshqa Lotin Amerikasi mamlakatlarini qidirib topishiga sabab bo'lgan. Bunday paytda Meksika eng munosib hudud hisoblangan [4].

XX asr o'rtalarida Isroil davlati barpo etilayotgan bir paytda Misr, Iroq va boshqa qo'shni arab mamlakatlarida tartibsizliklar, qotilliklar sodir bo'ldi. Ushbu tartibsizliklar natijasida yahudiylar o'z uylarini tashlab ketishdi va ularning ba'zilari Avstraliyaga ko'chib ketishni tanladilar. Mana shu tarzda Avstraliya asrda sefard migratsiyasining muhim markazlaridan biriga aylandi [5; P.14.].

Xulosa qilib aytganda, Juliya Kohenning XVIII-XX asrlarda Sefard yahudiylarining ijtimoiy holatiga oid tadqiqotlari asosida olib borilgan mazkur maqolada sefard jamoalarining tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi va ilmiy faoliyati tahlil etildi. Tadqiqotda bir qancha yahudiy olimlarning ilmiy meroslari o'rganildi. Ularning har biri Sefard yahudiylarining tarixiy xotirasi, til boyligi (xususan, ladino tili), jamiyatdagi o'rni va huquqiy maqomiga oid qimmatli ma'lumotlar taqdim etgan. Ayniqsa, muhojir jamoalarning Yevropa, Osiyo, Amerika va Avstraliyadagi holati, ularning jamiyatga moslashuvi, integratsiyasi va o'zligiga sodiqlik masalalari tahlil qilindi. Maqola orqali sefard olimlarining ilmiy maktablar shakllantirishdagi o'rni yoritildi. Ushbu ilmiy ish Sefard yahudiylari tarixining muhim jihatlarini yoritib berish bilan birga, zamonaviy diasporalarning o'z tarixiy ildizlariga munosabati, madaniy xotiraning saqlanishi va global integratsiya jarayonidagi o'rnini anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Cohen J.P., Stein S. A. Sephardi Lives A Documentary History, 1700–1950. – Stanford: Stanford University Press, 2014. – 444 p.
2. Ginio A. M., Between Sepharad and Jerusalem, - Boston: "Brill", 2014. – 372 p.
3. Евреи в Средней Азии. Прошлое и будущее. – Санкт-петербург: 1995. – 296 с.
4. <https://www.sephardicbrotherhood.com/sephardic-academia>
5. Peter Y.M. Sephardic Jewry and Mizrahi Jews. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 289 p.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE PATH OF EDUCATIONAL DEVELOPMENT

Nasretdinova Dilfuza Mukhammadinovna

“University of Business and Science”

Associate Professor of the Department of “Social Sciences”,

Candidate of Historical Sciences

Abstract. This article discusses the education system in Turkestan during the Russian Empire and the teaching system, subjects, and textbooks in Russian-style schools and gymnasiums established by the government, as well as the new school system and the empire's attitude towards them, and the teachers who worked in Russian-style schools along with new school systems during these processes.

Keywords: Russian Empire, Turkestan, Russian-style schools, traditional girls' schools, Usuli Jadid schools, girls' schools at mosques, Russian-style schools, their education system, Jadid schools, teacher shortage, Tatar teachers, Usuli Jadid girls' schools.

TA'LIMNING TARAQQIYOT YO'LI

Nasretdinova Dilfuza Muxammadinovna

“University of Business and Science”

«Ijtimoiy fanlar» kafedrasi dotsenti,

tarix fanlari nomzodi

E-mail: nasretdinova.dilfuza@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi davrida Turkistonda maorif tizimi va hukumat tomonidan tashkil etilgan rus-tuzem maktablari va gimnaziyalarida o'qitish tizimi hamda fanlar va darsliklar, shu bilan birgalikda usuli jadid maktablari va ularga imperiyaning munosabati, mazkur jarayonlarda usuli jadid maktablari bilan birgalikda rus-tuzem maktablarida faoliyat olib borgan muallimlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston, rus –tuzem maktablari, an'anaviy qizlar maktablari, usuli jadid maktablari, masjidlar qoshidagi qizlar maktablari, rus-tuzem maktablari, ulardagi o'qitish tizimi, jadid maktablari, muallimlar yetishmasligi, tatar muallimalari, usuli jadid qizlar maktablari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N14>

Kirish. XIX asr oxirida Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgach, o'lkada o'z mustamlakachilik siyosatini o'rnatdi. Rossiya imperiyasi tomonidan ruslashtirish siyosati olib borilib, Turkistonda rus-tuzem maktablarini joriy etilishi jadidlarni xavotirga soldi. Mazkur siyosatni oqibatlarini oldindan anglagan jadidlar bu xavfdan qutilib qolishning yagona yo'li maorifni isloh etish deb hisoblaganlar. Shu maqsad yo'lida ular usuli jadid maktablarini ochib, mahalliy millat bolalarini o'qitish ishlari bilan shug'ullangan. O'lka ma'rifatparvarlari Ismoil Gasprinskiyni o'z ustozlari deb bilishgan va u bilan hamkorlikda ish olib borganlar. Uning natijasida o'lka taraqqiyparvarlar faoliyati jonlanadi va keng ko'lamli faoliyat olib boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XIX asr oxirlarida Turkistonga jadidchilik g'oyalari kirib keldi va o'lka taraqqiyparvarlari tomonidan ta'limda keng ko'lamli islohotlar olib borildi. Shu bilan birga Turkistonda Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan rus-tuzem

maktablari va gimnaziyalari ham faoliyat olib borgan. Bendrikov K.Y.[1], Graminitskiy S.[2], Yepiskov Aleksey[3] tomonidan ta'lim tizimini to'liq tahlil qilmagan holda ayrim sohalari o'rganilgan. Masalan, rus-tuzem maktablarida o'quv ishlarini yo'lga qo'yilishi unda o'qitilgan fanlar haqida ma'lumotlar berib ketilgan hamda mavjud mafkura nuqtai-nazarida tahlil etilgan. Sh.Turdiyev [4], Alimova D[5], U.dolimovlar tomonidan o'lkada ta'lim tizimini shakllanishi hamda jadid ma'rifatparvarlari tomonidan tashkil etilgan «usuli-jadid» maktablari va ularning xalq orasida ommalashishi hamda Rossiya imperiyasining mazkur jarayonlarga munosabati chuqur va mustaqillik mushohadasi bilan tahlil etilgan.

Natija va muhokama. Turkistonda jadidchilik ma'rifatparvarlik harakati shakllandi. Mazkur jarayonlarda tatar va mahalliy ma'rifatparvarlar o'rtasida hamkorlik rivojlandi. Turkiston ma'rifatparvarlaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy I.Gaspirinskiyni o'zining ma'naviy ustoz deb bilib, u bilan usuli jadid maktablari va ularning ahvoli xususida ko'p suhbatda bo'lgan. Xususan, u "Ismoilbek hazratlari ila suhbat" nomli maqolasida shunday yozadi: "7 yil avval ustoz Samarqandga kelib muallim Shakuriy va biz bilan uchrashib mehmon bo'lgan edilar. U kishining aytishlariga qaraganda, o'sha paytga nisbatan ancha taraqqiy etgan emishmiz" (maorif ishlari nazarda tutilmoqda- D.N.)[7.1914.64].

Turkistonda tatar ma'rifatparvarlari va o'lka taraqqiyparvarlari bilan hamkorlikda keng miqyosda faoliyat olib borganlar. Tatar muallimlarining faoliyatini keng tarqalishini oldini olish maqsadida, xalq maorifi vaziri P.Fon-Kaufmanning 1907-yil 1-noyabrda g'ayriruslarning boshlang'ich maktablari to'g'risidagi qoidalar to'plamini qabul qilgan. Unga ko'ra, mahalliy aholi yashayotgan hududda tashkil etilgan maktabda shu millatga mansub o'qituvchi faoliyat ko'rsatishi va bu ilm dargohida rus tili asosiy fan sifatida o'qitilishi hamda diniy bilimlardan dars beruvchi o'qituvchilarni bu lavozimga tayinlashda ularni diniy idora xodimlaridan iborat bo'lishiga e'tiborni qaratish lozimligi qayd etilgan [8.12].

Bundan ko'zlangan maqsad, Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qiladigan "sodiq fuqarolar"ni tayyorlash bo'lgan. Arxiv ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat hollarda tatar ayollarini xotin-qizlar maktablari va bilim yurtlarida diniy bilimlar va rus tili fanidan saboq berganliklari guvohi bo'lamiz. Rus ma'murlari xotin-qizlar va o'g'il bolalar maktablari hamda boshqa o'quv yurtlarida o'quv ishlarini tashkil etishda yuqoridagi qoidalar asosida ish olib borgan. Endi mazkur o'quv yurtlari va maktablarda faoliyat ko'rsatgan tatar muallimalari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz. Ularning samarali mehnati natijasida Turkistonda xotin-qizlar maorifi yuksala bordi. Chorjo'yidagi 6 sinfli qizlar gimnaziyasida Mariya Baxtina 1893-yildan faoliyat ko'rsatib kelgan va 1909-yili Aleksandr lentasi aks etgan ko'krak nishoni bilan taqdirlangan [9.165].

Toshkent shahridagi xotin-qizlar gimnaziyasida Murodova Mariya 1897-yildan beri sinf rahbari vazifasida ishlagan[10.13]. Qizil-Arvat xotin-qizlar maktabida Sofiya Ostrovskaya 1901-yildan o'qituvchilik qilgan [11.190]. Dushoq uyezdi 1 sinfli maktabda Axsanova Yekaterina 1901-yildan o'qituvchilik qilgan [12.191]. Lukyanova Iroda esa Marvdagi 2 sinfli maktabda 1903-yildan bichish-tikish bo'yicha o'quvchilarga saboq bergan[12.186]. Toshkent xotin-qizlar gimnaziyasida Nazarova Yekaterina yuqori sinf o'quvchilariga rus tili fanidan 1911-yildan dars bera boshlagan[13.202.]. 1911-yil Prejeval'sk xotin-qizlar maktabida esa diniy bilimlardan Ibragimova Nafisa dars bergan [14.45].

Rossiya imperiyasi Turkistondagi o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun tatar muallimalari mehnatidan mahalliy aholida "Vatanga muhabbat" hissini shakllantirishda

foydalangan. Rus ma'murlari tatar ma'rifatparvarlarining faoliyatini doimiy nazorat qilib borish maqsadida, Turkiston respublikasi muxofaza bo'limi (TRMB) ni tashkil etgan. Mazkur bo'limga podpolkovnik Sizix boshliq etib tayinlanib, maxfiy ayg'oqchilar unga har oyda ma'lumot berib turishgan. N.Ostroumovning 1910-yil 27-sentyabridagi Turkiston o'lkasi maktablari boshqarmasi boshlig'iga yo'llagan maxfiy xatida usuli jadid maktablari ustidan doimiy nazorat o'rnatish hamda u yerdagi ahvoldan muntazam voqif bo'lib turish lozimligi, 1911-yil 1-apreldan boshlab har olti oyda unga axborot berib borish kerakligi, g'ayrirus maktablari to'g'risida qonun qabul qilingunga qadar ular ustidan nazorat o'rnatish lozimligi ta'kidlanadi [15.70]. Bu ko'rsatmalar o'lkada jadid maktablarni keng tarqalishini oldini olish maqsadida berilgan va shu asosda ular faoliyatini ma'lum darajada cheklashga erishilgan. Lekin bu bilan usuli jadid maktablari faoliyati batamom to'xtab qolgani yo'q, balki o'lkaning ayrim yerlarida yashirin tarzda bo'lsa ham davom etib kelgan.

Ayni paytda tatar muallimlari o'lkada oilaviy tarzda faoliyat olib borib, mahalliy aholi bolalarini o'qitish ishlari bilan shug'ullanganlar. 1911-yilda TRMBning maxfiy ayg'oqchisi bergan ma'lumotga ko'ra, Semirinch uezdining Kopal shahrida "Yoqubiy maktabi" nomli usuli jadid maktabida Orenburg shahridagi "Husainov"lar madrasasini tamomlagan Raximjon Atnaboev muallimlik faoliyati bilan shug'ullangan. O'sha paytda mazkur hududda "Sinf" nomli yangi usuldagi qizlar maktabi ham faoliyat ko'rsatib, unda Vyatsk guberniyasidagi qizlar madrasasini tamomlagan tatar muallimasi Gulpisa Atnaboeva diniy bilimlardan dars berganligi aniqlanib, bu maktab hukumat ruxsatisiz faoliyat ko'rsatganligi qayd etilgan. Mazkur maktabda rus tili fanidan Usova Nataliya Vladimirovna ta'lim bergan bo'lib, unda xalq maorifi inspektorining ruxsatnomasi mavjud bo'lganligi qayd etilgan. Mazkur maktabda arab tili va diniy bilimlar, arifmetika, geografiya hamda rus tili kabi fanlar o'qitilgan [16.31]. Ushbu maktablarda o'qish va o'qitish ishlari juda oson kechib, o'quvchilar 2-3 oy davomida savod chiqarganliklari sababli, mahalliy millat o'z qizlarni bunday bilim maskanlarida o'qitish istagi kuchli bo'lgan.

Eski maktablarda esa shogirdlar 3 yil mobaynida ham mukammal bilim egallay olmaganlar. Yuqoridagi ma'lumotdan ma'lum bo'ladiki, rus ma'murlari ko'zlagan mahalliy aholi orasidan "sodiq fuqarolarni" tarbiyalash rejasiga osonlik bilan erishish mumkinligini oldindan bilgan holda, tatar muallimalari va rus o'qituvchilari hamkorlikda usuli jadid maktablarida faoliyat yuritishlari uchun xalq maorifi inspektorlari ruxsatnomalarni berganlar deyishimiz mumkin. Tatar muallimalari nafaqat usuli jadid yo'nalishidagi maktablarda, balki, turli yo'nalishdagi xotin-qizlar maktablarida ham faoliyat yuritishgan. Lekin mahalliy millat o'z qizlarini usuli jadid maktablarida o'qitishni ma'qul ko'rgan hamda rus ma'murlariga murojaat qilib, bunday maktablarni yopilishiga yo'l qo'ymaslik borasida murojaat qilishgan. Lekin bunday mazmundagi murojaatnomalar ko'pincha javobsiz qoldirilgan. Podsho hukumati yangi usul maktablarida tatar muallimlarining saboq berishi mahalliy aholi orasida turkiy xalqlarni birlashishi to'g'risidagi, ya'ni panislomizm g'oyalarni tarqalishidan xavfsiragan.

1912-yil 1-maydagi Pishpek (hozirgi Bishkek) shahrining aholisi Semirench viloyatining ikkinchi tumani xalq maktablari boshqarmasining inspektoriga yo'llagan murojaatnomalarida, ushbu hududdagi usuli jadid qizlar maktabida Ufa va Qozondan kelgan ikki nafar tatar muallimalari(ismlari ko'rsatilmagan-D.N.) mahalliy millat qizlariga ta'lim berib kelishgan. Mazkur maktabda 70 nafar o'quvchi o'qib, ularning 50 nafari tatar qizlari, qolgan 20 nafari esa qirg'izlar bo'lib, o'quv fanlaridan tashqari o'quvchilarga hunar ham o'rgatilgan. Mazkur

murojaatnomada Pishpekdagi qizlar maktabi yagona bo'lib, qirg'iz millatiga mansub qizlar uchun yangi maktab ochish imkoniyat darajasidan tashqari hamda bu qizlar ota-onalari bilan yuqoridagi hududda doimiy ravishda isitqomat qilib kelganliklari bois aholi bu yangi usul maktabini saqlab qolish va unda qirg'iz qizlarini o'qitilishiga ruxsat etilishi so'ralgan. [17.39] Rus-tuzem maktablarida esa, asosan rus tilida o'qitilganligi uchun ruslashish xavfi borligidan cho'chib, mahalliy aholi bolalarini o'qishga berishmagan. Tatar ma'rifatparvarlarining faoliyatidan xavfsiragan rus ma'murlari ularga qarshi panislomizm(islomparastlik) g'oyalari asosida kurash olib borib, 1913-yil 14-iyulda g'ayriruslarning boshlang'ich maktablari to'g'risidagi maxsus qonun-qoidalar to'plamini ishlab chiqqanlar.

Bu maktablarni joriy etilishi bir tomondan maorifni taraqqiy etishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan Rossiya imperiyasining Turkistondagi asl maqsadlarini o'zida aks ettirib, rus tilini mahalliy aholi orasida yoyish bilan birga ana shu bilim o'choqlari yordamida yosh avlodga "vatanga muhabbat" g'oyalarini singdirib borib, oxir-oqibatda ruslashtirish siyosatini o'zida jamlagan qoidalar to'plamidan iborat edi. Mazkur qonun-qoidalarni Qozon, Orenburg, Odessa, Kavkaz, G'arbiy-Sibir va Turkiston o'lkasi boshqaruviga bo'ysungan boshqa hududlarida joriy etish belgilangan. Bunday maktablarda quyidagi fanlar o'qitilishi ko'zda tutilgan.

1. Diniy bilimlar- haftasiga 4 soat
2. Rus tili- haftasiga 12 soat
3. Ona tili- haftasiga 6 soat
4. Arifmetika- haftasiga 6 soat
5. Ashula -haftasiga 2 soat
6. Rus tarixi- haftasiga 2 soat
7. Geografiya -haftasiga 3 soat
8. Chizmachilik- haftasiga 2 soat etib ko'rsatilgan edi [18.3].

Barcha o'quv yurtlarida yuqoridagi qonunda ko'rsatilgan fanlar bo'yicha darslar olib borilib, gimnaziya 8 sinfli va 7 sinfli holda bo'lib, 8-sinfni tamomlaganlarga guvohnoma, 7-sinfni tamomlaganlarga esa, yetuklik attestati berilgan. Bitiruvchilar imtihon topshirib tegishli guvohnomalar olishgan. Fikrimizni dalili sifatida ushbularni keltiramiz. 1914-yil Toshkent shahridagi L.Gorizdro nomli xususiy gimnaziyasini shu yil tamomlagan Yenikeeva Laylo yuqoridagi qonunda ko'rsatilgan fanlardan imtihon topshirib guvohnoma olgan [19.5]. Mansurova Anna shu yili Toshkentdagi 1-sonli xotin-qizlar gimnaziyasini tamomlab № 881 guvohnoma olgan [20.201]. Chitinsk shahar 8 sinfli xotin-qizlar bilim yurtini 1914-yilda To'qmoqova Mariya ham tamomlab yetuklik attestatini olgan [21.211]. 1914-yil 11-iyunda Isaeva Mariya Don daryosi bo'yidagi Rostov viloyatining Yekaterina nomli qizlar gimnaziyasini tamomlab, yetuklik attestatini olgan [22.81].

Turkistonda tatar muallimalarining faoliyatini tahlil etish jarayonida ularning bir qismi usuli jadid maktablarida dars berganliklarini kuzatsak, ayrim hollarda Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qiluvchi o'quv yurtlarida faoliyat olib borgan. Tatar muallimalarining usuli jadid maktablarida faoliyatiga ijobiy tasnif berish mumkin. 1914-yil 18-aprelda "Xabarchi" ismli maxfiy ayg'oqchining bergan ma'lumotida, ayni paytda taniqli panislomist Ahmad Og'ayevning xotini(ismi ko'rsatilmagan-D.N) Marvda Rizo Rabievning uyida yashagan. U mahalliy millat qizlarini o'qitish ishlari bilan shug'ullanib, maxfiy maktab ochganligi xabar

qilinadi [23.289]. Mahalliy millat qizlariga bilim berish istagi politsiya ta'qiblariga qaramay, tatar ayollarini hatto maxfiy maktablar ochib faoliyat yuritishlariga sabab bo'lgan.

Shuni aytib o'tish lozimki, tatar muallimalari mahalliy xotin-qizlarga ilm beribgina qolmay, ularni jamiyatda o'z o'rinlariga va haq-huquqlariga ega bo'lishlari uchun kurashga da'vat etganlar. Bunday mazmundagi maqolalar vaqtli matbuotda chop etib borilgan. Tatar muallimalaridan bo'lgan Podsho xonim Jalilova mahalliy xotin-qizlarni ilm olish vaqti kelganligi, ularga bunday imkoniyatlardan foydalanishlari zarurligi kabi ma'rifat va jamiyatdagi o'z haq-huquqlarini tiklashga da'vat ruhi bilan yo'g'rilgan maqolalaridan birida shunday yozadi: "Bizning ilm va maorifdan bexabarligimizning sababi qizlar uchun birgina maktabning yo'qligi. Bu ahvolimizda biz uchun qayg'uruvchi biror kimsaning yo'qligidadir" [24.1914.24]. Bunday chaqiriqlar mazmunidagi maqolalar «Sadoi Turkiston» gazetasida muntazam berib borilishi natijasida Turkiston ayollarining ham ilm olishga bo'lgan xohishlari kuchaygan va ularning ijtimoiy faolliklari ortgan. XX asr boshlarida Turkiy xalqlar orasidan qisqa davr ichida tatar ayollari o'rtasida shunday ijtimoiy faollik yuzaga keldiki, hatto ular ichidan muallimalar, murabbiyalar va fan doktorlari yetishib chiqdi [25.79].

Rus ma'murlarining usuli jadid asosidagi qizlar maktablarini cheklashga bo'lgan urinishlari ham tatar ma'rifatparvar ayollarining faoliyatini to'xtatib qololmagan. Aksincha, ularning faoliyati kengaya borgan. 1914-yil 3-mayda Semerench uyezdi xalq maorifi inspektorining Turkiston o'lkasi o'quv yurtlarining bosh inspektoriga bergan hisobotida 1883-yilda asos solingan Abduvaliev nomli o'g'il bolalar maktabida ham Abduraxmon Sa'diev va uning rafiqasi Muhtarama Sa'dievalar faoliyat yuritishgan. Muhtarama Sa'dieva ufalik tatarlardan bo'lib, yuqoridagi shahardagi qizlar madrasasida tahsil olgan. U tatar, arab tili va diniy bilimlar, Qur'on hamda arifmetikadan bilim bergan. Mazkur maktabda 90 nafar o'quvchi qizlar bo'lib, ulardan 69 nafari tatar, 9 nafari qirg'iz va 9 nafari o'zbek qizlari bo'lgan [26.57]. Tabiiyki, mahalliy aholi dastlab usuli jadid maktablariga o'z qizlarini berishdan cho'chigan, ular dastlab bu maktablarning muvaffaqiyatlarini ko'rib ishonch hosil qilgandan keyingina o'qishga berishgan. Bu holat Zaynabullo Jingitov maktabida ham kuzatilgan, u 1915-yil Ufa shahrida madrasai oliyani tamomlab, dastlab Turkistonda o'g'il bolalar maktabida faoliyat ko'rsatib kelgan. Dastlabki 2-3 yil davomida u mahalliy millat bolalarini tekinga o'qitgan. Ma'lum vaqtdan so'ng o'qitish ishlarining muvaffaqiyatli kechganligiga ishonch hosil qilishgach, mahalliy aholi o'z bolalarni bu maktabga berishgan. Qizlar maktabida esa uning rafiqasi (ismi ko'rsatilmagan-D.N) muallimalik qilgan. O'qitish ishlarini olib borish uchun maxsus binoning yo'qligi sababli mazkur muallima ta'lim jarayonini juda qiyin sharoitlarda bo'lsa ham o'z uyida olib borgan [27.1915.12].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida ta'lim tizimida ham o'z siyosatini olib bordi. Aholini «ruslashtirish» siyosati olib borilib shu maqsadlar yo'lida rus-tuzem maktablari va gimnaziyalari shakllantirildi. O'z maqsadlarini amalga oshirishda hukumat mahalliy millat tilini yaxshi bilgan tatarlardan foydalanib, ularning usuli jadid yo'nalishidagi maktablarda faoliyatini cheklashga urinib, rus hukumati tomonidan joriy etilgan maktablarda ish olib borishlariga keng yo'l ochib bergan. Hukumat mazkur muallimalar yordamida o'lkaning tub millati ayollarini ham rus-tuzem maktablariga qisman jalb qilishga erishgan. Aksariyat mahalliy millat xotin-qizlari esa jadid maktablarida o'qiganlar. Turkistonda faoliyat olib borgan usuli-jadid maktablari tez ommalashdi va aksariyat aholi tabaqalari

farzandlari ushbu maktablarda o'z savodini chiqardi. Tatar muallimalarining olib borgan faoliyati tufayli ko'plab mahalliy millat xotin-qizlari savodlarini chiqarishgan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Bendrikov K.E. Ocherki iz istorii narodnogo obrazovaniya v Turkestane. (1865-1924). – Moskva: Izdatel.Akad.ped.nauk.
2. Gramenitskiy S. Polojenie inorodcheskogo obrazovanie v Сыр-Darinskoy oblasti. Tashkent: Tipog. pri Kants. Turk. gen.gubernatora. 1984.
3. Episkop Aleksey. Sovremennoe dvijenie v sredi russkix musulman. Kazan: Izdan.V.P. Shipinkina tsenralnaya tipog, 1910.
4. Turdiyev Sh. Adabiy hamkorliklar samarasi (O'zbek-tatar adabiy aloqalari tarixidan). – Toshkent: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
5. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. – Tashkent: Uzbekistan T.II, 2009.
6. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet, 2006.
7. Gramenitskiy S. Polojenie inorodcheskogo obrazovanie v Sir-Darinskoy oblasti. Tashkent: Tipog. pri Kants. Turk. gen.gubernatora. 1984.
8. Behbudiy M. Ismoilbek xazratlari ila suhbat // Oina, 1914, 49-son.
9. O'zMA I-47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1239-ish, 12-varaq va orqasi
10. O'zMA I.47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 863-ish, 189-190 varaq
11. O'zMA I.47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 682-ish, 13- varaq
12. O'zMA I.47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 863-ish, 190-191-varaq
13. O'zMA I.47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 863-ish, 186-varaq
14. O'zMA I.47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 150-ish, 189-varaq va orqasi
15. O'zMA I.47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1317-ish, 202-varaq va orqasi
16. O'zMA I.47-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1317-ish, 45-varaq
17. O'zMA I-461- jamg'arma, 1- ro'yxat, 1116-ish, 70- varaq va orqasi
18. O'zMA I-461- jamg'arma, 1- ro'yxat, 1021-ish, 31 varaq va orqasi
19. O'zMA I-47- jamg'arma, 1- ro'yxat, 1149-ish, 39- varaq va orqasi
20. O'zMA I-47- jamg'arma, 1- ro'yxat, 1239-ish, 2-3 varaq
21. O'zMA I-47- jamg'arma, 1-ro'yxat, 1375-ish, 5-varaq
22. O'zMA I- I-47- jamg'arma, 1- ro'yxat, 1399-ish, 201- varaq va orqasi
23. O'zMA I I-47- jamg'arma, 1- ro'yxat, 1399-ish, 211- varaq va orqasi
24. O'zMA I. 47- jamg'arma, 1- ro'yxat, 1400-ish, 81- varaq
25. O'zMA I. 461- jamg'arma 1- ro'yxat, 1475-ish, 289 varaq va orqasi
26. Jalilova P. Idoraga maktublarr // Sadoi Turkiston, 1914, 24 dekabr
27. Vamberi X. Ma'rriyat yo'lidagi uyg'onish // Tafakkur, 2000, 2-son. Ozod Obid tajimasi
28. O'zMA I. 47- jamg'arma, 1- ro'yxat, 1149-ish, 55-57 varaq

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**Received:** 16 May 2025**Accepted:** 1 June 2025**Published:** 15 June 2025*Article / Original Paper***MANAGING INVESTMENT ACTIVITY IN THE TOURISM SERVICES SECTOR THROUGH AN INNOVATIVE APPROACH: THEORY, PRACTICE, AND INTERNATIONAL EXPERIENCE****Ollanazarov Bekmurod**Associate Professor of the Department of
“Tourism” of Urgench State University
named after Abu Rayhan Beruni, PhD

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of managing investment activity in the tourism services sector based on an innovative approach. It examines mechanisms to enhance investment activity in Uzbekistan’s tourism services under global trends such as worldwide digital transformation, green and circular tourism, contactless services, and support for smart-destination initiatives. Drawing on the advanced experiences of Russia, the European Union, and Asian countries, the effectiveness of investment management models based on value-added chains, public-private partnerships (PPP), digitalization, and clustering is substantiated. Furthermore, strategic approaches suitable to local conditions are proposed, grounded in theoretical perspectives from international experts.

Keywords: Tourist services, investment activity, innovative approach, the value chain, public-private partnership (PPP), digitalization, smart destinations, sustainable development, clusterization, nternational experience.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION FAOLLIKNI BOSHQARISH: NAZARIYA, AMALIYOT VA XORIJIY TAJRIBA**Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich**Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
“Turizm” kafedrasida dotsenti, PhD
E-mail: b.d.ollanazarov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion yondashuv asosida turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni boshqarishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Jahon miqyosidagi raqamli transformatsiya, yashil va sirkulyar turizm, kontaktsiz servislari, smart-destinatsiyalar tashabbuslarining qo'llab-quvvatlanishi kabi global tendensiyalar sharoitida O'zbekiston Respublikasida turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni oshirish mexanizmlari o'rganilgan. Rossiya, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlarining ilg'or tajribalariga tayangan holda, qo'shilgan qiymat zanjiri, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), raqamlashtirish va klasterlashtirish asosida investitsion faollikni boshqarish modellarining samaradorligi asoslangan. Shuningdek, xorijiy ekspertlarning nazariy qarashlari asosida mahalliy sharoitga mos keluvchi strategik yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Turistik xizmatlar, investitsion faollik, innovatsion yondashuv, qo'shilgan qiymat zanjiri, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), raqamlashtirish, smart destinatsiyalar, barqaror rivojlanish, klasterlashtirish, xalqaro tajriba.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N15>

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida sodir bo'layotgan turistik xizmatlar sohasining global transformatsiyalashuvi — barqarorlik, raqamlashtirish va xavfsizlikni ta'minlash, onlayn platformalardan, big data, sun'iy intellekt (AI), kontaktsiz-servis xizmatlardan foydalanish masalalariga e'tiborni kuchaytirilgan-ligi, ekoturizmga, individual marshrutlarga, mahalliy destinatsiyalarga turistik tashriflar talablarining oshib borayotganligi, yashil, sirkulyar, inklyuziv turizmga alohida e'tiborning kuchaytirilayotganligi, geosiyosiy tahdidlar va iqlim xavflarining oshib borayotganligi tufayli investitsiya va turistik oqimlar yo'nalishlarining o'zgarayotganligi, smart-destinatsiyalarga va kreativ turistik mahsulotlarga turistlar qiziqishlarining oshib borayotganligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

Turistik xizmatlar sohasini faol institutsional modernizatsiyalash bosqichini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasida ham sohani yangi bosqichga o'tkazish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, viza rejimini ochish bo'yicha davlat tashabbuslari, aeroportlarni modernizatsiyalash, transport-logistika tizimini rivojlantirish, turistik klasterlarni shakllantirish bo'yicha infratuzilmaviy loyihalarning amalga oshirilayotganligi, investitsiyalarni sohaga jalb etish yuzasidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, turistik xizmatlar sohasida davlat xususiy sherikchilik (DXSh) mexanizmlaridan foydalanish, ichki va etnoturizmni rivojlantirish maqsadida joylarda agro- va eko-tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, *"Silk road destination"* brendini targ'ib qilish orqali xalqaro turistik qiymat zanjirlariga faol integratsiyalashuv jarayonlari masalalariga alohida urg'u berilmoqda (1-jadval).

1-jadval

**O'zbekiston iqtisodiyoti turistik xizmatlar sohasidagi
o'zgarishlarning taqqoslama tahlili***

O'zgarish jihatlari	Global tendensiyalar	O'zbekiston Respublikasi turistik xizmatlar sohasidagi o'zgarishlar
Raqamlashtirish	Smart-texnologiyalar, big data, onlayn-servis xizmatlarining joriy etilishi	Milliy raqamli platformalar, elektron viza tizimlarini yo'lga qo'yish bo'yicha harakatlar
Barqaror rivojlanish	Sirkulyar turizm, EGS-yondashuvlar, iqlimiy barqarorlik	Yashil turizm bo'yicha dasturlar, ekologik sertifikatsiyalashni joriy etish bo'yicha ishlar
Turistik afzalliklarning o'zgarishi	Xavfsiz, individual, ekologik marshrutlarga bo'lgan talablarning o'sishi	Etno-gastro- va agroturlarning ommalashishi
Infratuzilmaviy transformatsiya	Transport va turistik xablar (aeroportlar, EIZ) ni modernizatsiyalash	Turistik klasterlarning shakllantirilishi va infratuzilmani modernizatsiyalash masalalari
Siyosiy institutsional chora-tadbirlar va	Boshqaruvning gibridd modellari, global turistik alyanslar	Boshqaruv bo'yicha islohotlar, DXSh mexanizmidan foydalanishning rivojlantirilishi, viza rejimining liberallashtirilishi
Yangi biznes modellarning shakllantirilishi	Raqamli platformalarni turistik xizmatlar sohasiga integratsiyalash orqali yangi biznes modellarni shakllantirish (<i>Airbnb, booking</i>)	Turistik xizmatlar sohasida KO'B ni qo'llab-quvvatlash, start-ap loyihalarni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yilishi

Ichki turizmni rivojlantirishga yo'naltirilganlik	Mahalliy destinatsiyalarga, staycation-modellariga qiziqishlarning ortishi	Ichki turizmni rag'batlantirish yuzasidan davlat tashabbuslarining rivojlantirilayotganligi
Eko- va yashil turizmning rivoji	Yashil standartlarni mahsulot va xizmatlarga integratsiyalash	Mintaqalarda sirkulyar turizm bo'yicha pilot loyihalarni yo'lga qo'yish yuzasidan xatti-harakatlar

**Izoh. <https://www.travelandtourworld.ru/news/article/uzbekistan-prepares-to-launch-groundbreaking-unified-tourism-platform-in-2025/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi*

O'zbekiston iqtisodiyotida turistik xizmatlar sohada amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning jahon miqyosidagi turistik xizmatlar sohasini innovatsion-investitsion rivojlantirish bo'yicha realizatsiya qilinayotgan global tendensiyalarga taqqoslama tahlili soha barqaror rivojini ta'minlash maqsadida investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va turizm xizmatlarini yaxshilashga qaratilgan davlat tashabbuslari bilan bog'liq ekanligini aks ettiradi. Shu munosabat bilan sohada investitsion faollikni boshqarish jarayonlarini baholash, shuningdek, ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish maqsadida xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida turistik xizmatlar ko'rsatish sohasida investitsion faollikni boshqarish to'g'risida ko'pchilik xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan qator masalalar o'rganilgan, jumladan, J.Fletcher va A.Fyall o'zlarining "Tourism: Principles and Practice" nomli asarida turizmga investitsion faollikni boshqarishga kompleks yondashuvni amalga oshirish yuzasidan fikr-mulohazalarni keltirib, turistik yo'nalishlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, tahlil va rejalashtirishning zamonaviy usullaridan foydalanish muhimligini ta'kidlaydilar.[1]

Turistik xizmatlar sohasida strategik boshqaruv va marketing bo'yicha dunyodagi yetakchi mutaxassislardan biri, professor D.Buhalis va R.Leung sohaning investitsion jozibadorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilish zarurligiga e'tibor qaratadi.[2]

Sohaning yetakchi tadqiqotchilaridan, D.Weaver turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni boshqarishga innovatsion yondashuvlarni taklif qiladi. Uning konsepsiyalari sohadagi barqaror amaliyotlarni ommaviy turizmga integratsiya qilish va mahalliy hamjamiyatlarning turistik xizmatlar sohasida faol ishtirokini ta'minlashga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.[3]

Shvetsariyalik iqtisodchi va turistik xizmatlar sohasidagi ekspert P.Kellerning ta'kidlashicha, turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni boshqarishga yondashuvlari strategik rejalashtirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va davlatning faol roliga asoslangan bo'lib, bu sohaning barqaror rivojlanishiga va investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.[4]

Turistik xizmatlar sohasini boshqarish borasidagi ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan yetakchi mutaxassislardan biri, professor S.J Page sohada investitsion faollikni boshqarishda strategik rejalashtirish, barqaror rivojlanish, raqamlashtirish hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikka asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi.[5]

Sohaning yetakchi olimlaridan Nawaz M.A. "Investment and tourism: Insights from the literature" deb nomlangan ilmiy asarida turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni

samarali boshqarish iqtisodiy, siyosiy va infratuzilmaviy jihatlarni hisobga olgan holda kompleks yondashuvni talab qilishini, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va qulay investitsiya muhitini yaratish xususiy investitsiyalarni jalb qilish va sohani barqaror rivojlantirishning asosiy omillari ekanligini ta'kidlaydi.[6]

Keltirib o'tilgan soha olimlarining fikr mulohazalari O'zbekiston Respublikasida turistik xizmatlar sohasi investitsion faolligini boshqarish yuzasidan bir qator xorijiy mamlakatlar tajribalarini tadqiq qilish dolzarbligini ifoda etadi.

Тадқиқот методологияси. Mavzuni yoritish jarayonida ilmiy mushohada, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, taqqoslama tahlil, ekspert baholash usuli, empirik tahlil, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez uslub va yondashuvlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda biz turistik xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish orqali investitsion faollikni boshqarish bo'yicha bir qator xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilib chiqamiz.

Rossiya Federatsiyasida (RF) investitsion faollik oshirilishini boshqarish bo'yicha bir qator yo'nalishlarda davlat darajasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan:

- davlat strategiyasi va tashabbuslari;
- innovatsion yondashuvlar va iqtisodiyotni raqamlashtirish;
- barqaror mintaqaviy rivojlanish.

Davlat strategiyasi va tashabbuslari. RF da turistik xizmatlar ko'rsatish sohasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarni rag'batlantirish milliy loyihalar va klaster dasturlari orqali amalga oshirilmoqda. 2021-2030-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan "Turizm va mehmondo'stlik sanoati" yangi milliy loyihasi turistik xizmatlar sohasi infratuzilmasiga 2 trillion rublgacha xususiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan bo'lib, ushbu loyiha asosan turistik klasterlarni yaratish va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.[7]

Investorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida turizm obyektlarini loyihalashtirish va moliyalashtirishda bevosita ishtirok etadigan rivojlanish instituti — **"Turizm.RF"** davlat korporatsiyasi tashkil etilgan. **"Turizm.RF"** davlat korporatsiyasi Kaliningraddan to Kamchatkagacha bo'lgan hududda turistik xizmatlar sohasi infratuzilmasini yaratishga ko'maklashib, milliy loyihani amalga oshirishning samarali mexanizmlaridan biriga aylangan. [8] Bunda belgilangan tashabbuslar doirasida investorlarga alohida shartlar asosida yer ajratish va subsidiyalar taqdim etish kabi imtiyozlar va kafolatlar taqdim etilishi nazarda tutilib, investitsion jozibadorlikning oshirilishi maqsad qilingan. Shuningdek davlat tomonidan tartibga soluvchi soddalashtirishlarning ham joriy etilishi ko'zlangan, jumladan, tadqiqotlarga ko'ra, turistik klasterlarning muvaffaqiyati klasterlarni to o'zini o'zi qo'llab-quvvatlay oladigan tizimga aylangunga qadar davlat tomonidan ularning ishtirokchilari uchun qulay institutsional muhit va maxsus sharoitlar yaratilishiga muayyan darajada bog'liq hisoblanadi. Davlat turistik klaster loyihalarini shakllantirish tashabbusini amalga oshirib, klaster loyihalariga investorlarni, ilm-fan tizimini jalb qilish va biznes uchun turli xil ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish orqali o'ziga xos muhim rol o'ynaydi.

Innovatsion yondashuvlar va iqtisodiyotni raqamlashtirish. RF strategiyasi turistik xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun innovatsiyalar va raqamli yechimlarga ko'proq e'tibor qaratmoqda. 2023-yildan boshlab xorijiy fuqarolar uchun elektron viza tizimi joriy etilgan, 55

ta davlat fuqarolari uchun turistlarga kirishga yengillik beradigan yagona *e-visa* tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu kiruvchi turistlar oqimini oshiradi va investorlarni yangi mehmonxonalar va servis tizimini rivojlantirishga rag'batlantiradi. Turmarshrutlarni targ'ib qilish va onlayn bron qilish, turmahsulotlarni sotish bozorlarini kengaytirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradigan raqamli platformalar ishga tushirilmoqda (masalan, *russpass* va b.). Mobil gidlar, navigatsiya qulayliklari, bevosita "kontaktsiz" to'lov xizmatlari kabi "smart turizm" xizmatlarining joriy etilishi xizmat ko'rsatish sifatini va investorlar uchun turistik destinasiyalar jozibadorligini oshiradi. Bundan tashqari turistik xizmatlar sohasida kichik va o'rta biznes (KO'B) innovasiyalar dvigateli sifatida qaralib, start-aplar va innovatsion loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Davlat bilim va yuqori texnologiyalar asosida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadida KO'Bni yangi texnologiyalarni (masalan, muzeylarda *AR/VR texnologiyalarni qo'llash, turistik oqimlarni boshqarishda big data ma'lumotlar tahlilidan foydalanish tizimini shakllantirish*) joriy qilishini grantlar va akseleratorlar orqali rag'batlantirish mexanizmini shakllantirgan.

Barqaror mintaqaviy rivojlanish. Mintaqaviy darajada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish uchun turistik xizmatlar sohasini boshqa sektorlar bilan integratsiyalashga qaratilgan strategiyalar realizatsiya qilinmoqda. Masalan, qishloq hududlarida agroturizm va hunarmandchilik klasterlari rivojlantirilmoqda. Bu klasterlarda mahalliy mahsulotlarni va suvenirlarni ishlab chiqaruvchilar turistik qiymat zanjiriga qo'shilgan. Bir qator mintaqalarda (Altay, Kareliya, Kavkaz) turistik rekreatsion klasterlar ekologik va madaniy turizmga e'tibor qaratilgan holda shakllantirilmoqda.[9] Ular turbazalarni, tabiiy parklarni, transport tizimi va mahalliy biznes vakillarini yagona ekotizimga birlashtirib, investorlar uchun sinergetik samarani yuzaga keltiradilar. Klaster yondashuvi tarmoqlararo aloqalarni mustahkamlashga va qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirishga (transport va joylashtirishdan to savdo va ko'ngil ochish tizimlarigacha) imkon beradi.

Shu bilan bir vaqtning o'zida barqaror rivojlanish tamoyillari joriy etilmoqda: investitsion loyihalar ekologik talablarni, energiya samaradorligini, mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlashni inobatga olishi shart qilib qo'yilgan. Bu uzoq muddatli investitsiyalar va rivojlantirish institutlaridan (masalan, BRIKS banki yoki mintaqaviy fondlar liniyalari bo'yicha) moliyalashtirish imkoniyatlarini jalb qilmoqda.

Umumiy jihatdan xulosa qiladigan bo'lsak, RF da davlat mexanizmlari (milliy loyihalar, DXSh, imtiyozlar), klasterlashtirish va innovatsiyalar kombinatsiyasi turistik xizmatlar sohasida turistik mahsulotlar qiymatini yaratishning to'liq zanjirini shakllantirish orqali investitsion faollikni oshirishga yo'naltirilgan.

2. Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda turistik xizmatlar sohasi investitsion faolligi oshirilishini boshqarish bo'yicha:

- *El siyosati va moliyalashtirish;*
- *innovatsiyalar va raqamli o'tish;*
- *klasterlashtirish va qiymat zanjirlari integratsiyasi;*
- *barqaror rivojlanish va yashil investitsiyalar kabi yo'nalishlarda samarali amalga oshirilmoqda.*

YeI siyosati va moliyalashtirish. YeI mamlakatlarida turistik xizmatlar sohasi global xarakterga ega bo'lgan va o'zaro bog'liq qo'shilgan qiymat zanjirini qamrab oladigan kompleks ekotizim sifatida qaraladi. YeI Yevropani turistik xizmatlar sohasida ilg'or global yo'nalishga

ega bo'lishini va bir vaqtning o'zida uni barqaror va raqobatbardosh turistik mintaqa sifatida saqlashga intilgan holda milliy xatti-harakatlarni to'ldirishga va muvofiqlashtirishga harakat qiladi. Turli moliyaviy fondlar (masalan, Yevropa mintaqaviy rivojlanish jamg'armasi) orqali mahalliy darajada turistik xizmatlar sohasining raqobatbardoshligi, sifati va barqarorligini oshirishga qaratilgan loyihalarga katta mablag'lar ajratilmoqda. Bu investitsiyalar infratuzilmani (transport, mehmonxona) modernizatsiyalashga, madaniy meros obyektlarini saqlashga, hamda kichik biznesni va turistik xizmatlar sohasidagi startaplarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda. COVID-19 pandemiyasidan keyin Yel ning ko'pgina mamlakatlari turistik xizmatlar sohasini milliy qayta tiklanish rejalariga kiritganlar. 60 dan ortiq Yevropa tashkilotlari qayta tiklanish fondlari doirasidagi moliyalashtirishda turistik xizmatlar sohasiga investitsiyalarni yo'naltirishga e'tibor qaratish lozimligini taklif qilganlar. Natijada, Italiya, Ispaniya, Gretsiya kabi mamlakatlarda Yel tomonidan moliyalashtiriladigan turistik xizmatlar sohasini raqamlashtirish, infratuzilmani yaxshilash va yangi turmahsulotlarni targ'ib qilish bo'yicha dasturlar realizatsiya qilindi.

Innovatsiyalar va raqamli o'tish. Yevropa komissiyasi tarmoqlar va hokimiyatlar bilan birgalikda turizmga "o'tish yo'li" (Transition Pathway) strategiyasini ishlab chiqish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu strategiyada yashil va raqamli o'tish hamda turistik xizmatlar sohasi barqarorligini oshirishga qaratilgan 27 ta chora-tadbir belgilab berilgan. Yel da ikki tomonlama (green & digital) o'tishni tezlashtirish zarurligi va 2020-yildagi pandemiya bilan bog'liq inqirozdan keyin tarmoqning "chidamliligi"ni oshirish zarurligi qayd etilgan. Ushbu yo'nalish doirasida raqamli innovatsiyalar targ'ib qilinmoqda (turistik ma'lumotlar bilan almashish maqsadida umumiy ma'lumotlar makoni yaratilmoqda, smart turizm uchun va servis xizmatlar interoperabelligini ta'minlash bo'yicha standartlar targ'ib qilinmoqda. Ko'p sonli loyihalar (Interreg, Horizon Europe) turistik xizmatlar ko'rsatuvchi kichik va o'rta korxonalar (KO'K) tomonidan taqdim qilinayotgan onlayn-bronlashtirish va raqamli gidlar tizimini shakllantirishdan to turistik oqimlarni boshqarishda katta ma'lumotlardan foydalanish va marketingni personallashtirishgacha bo'lgan raqamli qarorlarni moliyalashtirmoqdalar. Bunga Yel mamlakatlaridagi turistik xizmatlar ko'rsatuvchi KO'Kga samaradorlik va raqobatbardoshliklarini oshirgan holda raqamli akseleratordan o'tishlariga yordam beradigan *Tourbit dasturi* yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari, Yel aqlli turistik destinasiyalar rivojini qo'llab-quvvatlamoda va xizmatlarni raqamlashtirish, barqaror rivojlantirish hamda madaniy merosni asrab-avaylab saqlash bo'yicha ilg'or amaliyotlarni joriy qilayotgan shaharlarga «European Capital of Smart Tourism» unvonini bermoda. Ushbu tashabbuslar raqamli transformatsiya — servis xizmatlarining personallashtirilishi, yangi "taassurotlar" iqtisodiyotining va resurslarni samaraliroq boshqarish tizimining shakllantirilishi evaziga turistik xizmatlar taklifi qiymatining oshirilish vositasiga aylanayotganligini namoyish qilmoqda.

Klasterlashtirish va qiymat zanjirlari integratsiyasi. Yel mamlakatlarida turistik xizmatlar sohasini rivojlantirishning klaster modelidan va mintaqalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yilishidan keng foydalaniladi. **Destination Management Organizations** (Destinasiyalar menejmenti tashkiloti (DMT)) – destinatsiyalarni boshqarish organlari – mahalliy darajada, mehmonxona va restoranlardan to transport tizimidan diqqatga sazovor joylarga, turistik qiymat zanjirining barcha ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynaydi. DMT orqali klaster birlashmalari ham xizmatlarni integratsiyalashuviga,

hamkorlikda marketing xizmatlarini va innovatsiyalarni yo'lga qo'yilishiga erishiladi. Bu esa mintaqalar investitsion jozibadorligini oshirilishiga xizmat qiladi. *Masalan*, Alp tog'i tizmasi atrofidagi mamlakatlarda ekologik toza turizmni targ'ib qilish, hamkorlikda marketing strategiyasini realizatsiya qiladigan va infratuzilma almashinuvi uchun kurortlarni birlashtiruvchi klaster tarmoqlari (*Alpine Pearls kabi*) mavjud bo'lib, ular turistlar uchun yagona qiymat zanjirini yaratadi (*transfer — turar joy – hordiq chiqarish — xizmatlar*). Ispaniya va Fransiya turistlik rayonlar/aglomeratsiyalar faoliyat ko'rsatadi. Ushbu hududlarda mahalliy hokimiyat va biznes vakillari hamkorlikda ko'ngilochar, joylashtirish va xizmatlarning to'liq majmuasini rivojlantirishga investitsiya kiritadilar. Bu vino mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, mehmonxonalar va turoperatorlar tomonidan turistik mahsulotlarni yetkazib berishning yagona zanjirini shakllantiradigan vino gastronomik marshrutlar (*masalan, Ispaniyada Rioxa*) ni o'z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda Yel, turistik xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymatni oshirilishiga va unchalik mashhur bo'lmagan mintaqalarga investitsiyalarni jalb qilinishiga imkon beradigan, bir nechta mamlakatlar turmahsulotlarini yagona turmahsulotga birlashtiradigan, transchegaraviy turmahsulotlarni ham rag'batlantiradi (*masalan, Yel ning madaniy turizm marshrutlari*).[10]

Barqaror rivojlanish va yashil investitsiyalar. Yel turistik siyosati barqarorlik va sirkulyar iqtisodiyotga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda. turistik xizmatlar sohasi qiymat yaratishning butun zanjiri bo'ylab raqamli va yashil transformatsiya drayveri sifatida tan olinmoqda.

2022-yilda Yel Kengashi sohaning ekologik va ijtimoiy barqarorlik bo'yicha maqsadlarini o'z ichiga olgan turistik xizmatlar sohasida 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibini qabul qildi. Investitsiyalar energiya samarador mehmonxonalarga, transportlardan uglivodorod gazi chiqishini kamaytirish, ekoturistik marshrutlarni rivojlantirishga qaratilgan "yashil" turizm loyihalariga yo'naltirilmoqda.[10]

Yel moliyaviy institutlari (*EIB va b.*) turizmning tabiatga ta'sirini pasaytirishga qaratilgan tashabbuslarni imtiyozli moliyalashtirishni taklif qilmoqda. Shu bilan birgalikda, *sirkulyarlik ko'rsatkichlari* – chiqindilarni kamaytirish, resurslardan samaraliroq foydalanish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni jalb qilish kabilar joriy qilinmoqda. 2024-yilda turizmدا sirkulyar iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan mintaqaviy konferensiya doirasida turistik xizmatlar ko'rsatish tizimi faoliyatining barcha bo'g'inlarida chiqindilarni kamaytirish va resurs samaradorligini oshirish maqsadida sohadagi ta'minot zanjirlarini qayta ko'rib chiqish masalalari muhokama qilindi.

Umuman olganda, Yel mamlakatlari turizm sanoatini modernizatsiya qilish uchun moliyaviy rag'batlar, innovatsiyalar va barqarorlik standartlari birlashmasidan foydalanishni afzal deb qaraydilar. Bu nafaqat turistlar oqimini ko'paytirishga, balki har bir turistik tashrifning qiymatini oshirishga — sifatli xizmatlar, madaniy-tabiiy merosni asrab-avaylash va foydani butun zanjir bo'ylab (*yirik kompaniyalardan to mahalliy kichik va o'rta korxonalargacha*) taqsimlashga qaratilgan yangi investitsiyalar uchun sharoit yaratadi deb hisoblaydilar.

3. Osiyo mamlakatlari tajribasi tahlili ushu mamlakatlarda turistik xizmatlar sohasi investitsion faolligi oshirilishini boshqarish maqsadida:

- davlat dasturlari va klasterlarlashtirish;
- xususiy kapitalni jalb qilish va DXSh;

- *turdosh tarmoqlar integratsiyalashuvi va innovatsiyalar;*

- *raqamli platformalar va super ilovalarni yaratish va keng joriy qilish yo'nalishlarida faol xatti-harakatlarni amalga oshirib kelinayotganligidan dalolat bermoqda, jumladan:*

Davlat dasturlari va klasterlarlashtirish. Osiyodagi ko'plab mamlakatlar hududlarni integratsiyalashgan holda rivojlantirish orqali turistik xizmatlar sohasiga investitsiyalarni ko'paytirishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirmoqdalar. Bunga Indoneziyaning "10 ta yangi Bali" tashabbusi yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu tashabbusga ko'ra 2016-yildan boshlab mamlakat hukumati, butun mamlakat bo'yicha Bali oroli muvaffaqiyatini takrorlashga intilgan holda, turli xil 10 ta ustuvor turistik hududni rivojlantirishga investitsiya kiritadi.

Bu loyiha turistik xizmatlar sohasining yangi markazlarini shakllantirgan holda zarur infratuzilmani shakllantirish (aeroportlar, yo'llar, energetika), diqqatga sazovor joylarni rivojlantirish va mehmonxona tizimlarini jalb qilishni o'z ichiga oladi. 2022-yilga kelib xorijiy sheriklar (masalan, Katar) tomonidan qo'llab-quvvatlash evaziga "10 ta yangi Bali" loyihasiga 500 mln. AQSh dollaridan ko'proq investitsiyalar jalb qilindi. Bu mahalliy iqtisodiyotni transformasiya qilishga va turistik qiymat zanjiriga mahalliy aholini jalb qilishga imkon berdi.[11]

Xitoyning klasterlashtirish yondashuviga ko'ra 2016-yildan boshlab butun bir mintaqa resurslarini (tabiiy, madaniy, servis xizmatlari) yagona turmahsulotga birlashtirishni nazarda tutadigan *"turizm barcha uchun" konsepsiyasi (All-for-One Tourism)* joriy qilindi.[12] Xitoyda "keng qamrovli" turizmning yuzlab namoyish zonalarini tashkil etildi va ularda investitsiyalar kompleks ravishda, turistga xizmatlarning to'liq qamrovi taqdim qilinishi, daromad esa barcha mahalliy iqtisodiyotga taqsimlanishi uchun – diqqatga sazovor joylarga, muzey va parklarga, mehmonxona va transport tizimlariga yo'naltirilgan. Markaziy Osiyo mamlakatlarida CAREC (*mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik*) dasturi bo'yicha "Turizm – 2030" strategiyasi qabul qilingan. Bu dasturga ko'ra mintaqa mamlakatlari uchun xizmatlarni diversifikatsiyalash va mahalliy kichik va o'rta korxona vakillarining ko'proq ishtirokini ta'minlash hisobiga turistik xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini mustahkamlash muhimligi ta'kidlangan. Bu turistik xizmatlar sohasidan tushadigan daromadlarning mahalliy ulushini oshirish va sohaning barqaror o'sishini ta'minlash imkonini beradi.[13]

Shunday qilib, Osiyo davlatlari investitsiyalarni jamlash va turistlarni jalb qilishdan to uning joylardagi sarf-xarajatigacha — xizmatlarning yopiq siklini yaratish uchun *klasterlashtirish va hududiy loyihalarga (maxsus turistik zonalar, turizm uchun maxsus iqtisodiy zonalar, dam olish maskanlarini kompleks rivojlantirish)* e'tibor qaratmoqda.

Xususiy kapitalni jalb qilish va DXSh. Osiyo davlatlarida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari turistik infratuzilmani rivojlantirish maqsadida faol qo'llanilmoqda. Tez yurar temir yo'llarni qurishdan to tematik parklarni shakllantirishgacha bo'lgan yirik loyihalar asosan davlat ko'magida (birgalikda moliyalashtirish yoki kafolatlash orqali) xususiy investorlar ishtirokida amalga oshirilmoqda. Masalan, Malayziya va Singapurda integratsiyalashgan kurortlarni (*mehmonxonalar, kazinolar, savdo-ko'ngilochar markazlarini o'z ichiga olgan*) yaratish davlat va korporatsiyalarning hamkorligi tufayli amalga oshirilmoqda. Bu esa ko'p milliardli investitsiyalar va turistlar oqimining o'sishiga olib kelmoqda. Bir qator mamlakatlarda turistik xizmatlar sohasiga yo'naltiriladigan investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari va rag'batlar tizimi amal qiladi. Tailand, Vetnam, BAA da soliq

kanikullari, yengillashtirilgan yerni ijaraga olish rejimi, mehmonxona va attraksionlarga qurishga subsidiyalar taqdim qilinadi. Ko'pchilik mamlakatlar turistik xizmatlar sohasida investitsion loyihalarni targ'ib qilish uchun maxsus agentliklar yoki fondlarni shakllantiradilar. Masalan, Qozog'istonda "Kazakh Tourism" milliy kompaniyasi va infratuzilmani rivojlantirish jamg'armalari hamkorlikda ustuvor turistik klasterlarga (Olako'l, Mang'istau va b.) investorlarni jalb qilish, tayyor biznes-rejalar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni taklif qilmoqda. YuNVTO ma'lumotlariga ko'ra, 2018-2024-yillarda Osiyo va Tinch okeani mintaqasi turistik xizmatlar sohasida umumiy qiymati 66 mlrd. dollar bo'lgan 640 ta yangi investitsiya loyihalarini jalb qilgan. Bu sohaga global kapital qo'yilmalarning 3/1 qismidan ko'prog'ini tashkil etadi.

Osiyo mamlakatlari turistik xizmatlar bozorining tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi va hukumat darajasida qo'llab-quvvatlanishi investorlarning unga qiziqishlarining oshib borishi sabab bo'lmoqda. Shunga qaramay, xalqaro tashkilotlar ushbu mablag'larni turistik xizmatlar sohasi faoliyatini kuchaytiradigan *barqaror va innovatsion loyihalarga* yo'naltirishni tavsiya qilmoqda. [14]

Shu bois yangi dam olish maskanlari va mehmonxonalar ekologik tozalik tamoyillari asosida qurilishiga, investorlar nafaqat qurilishga, balki inson kapitaliga (*xodimlarni o'qitish, turistik xizmatlar sohasi faoliyatida mahalliy jamoalar ishtirokini oshirilishiga*) ham investitsiya kiritishiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Turdosh tarmoqlar integratsiyalashuvi va innovatsiyalar. Osiyo mamlakatlari turistik xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymatni oshirish maqsadida innovatsion yondashuvlarni faol ravishda joriy qilmoqdalar. Xitoy va Yaponiyada, madaniyat va turizm vazirliklari faoliyatlarini birlashtirib, hukumat vakillari madaniy kontentni (festivallar, muzeylar, kreativ industriya) turistik xizmatlar bilan birlashtiruvchi kombinatsiyalashgan turmahsulotlar yaratilishini rag'batlantirgan holda madaniyat va turizm sanoatining integratsiyalashuvi amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlar integratsiya turistik xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymatni sezilarli darajada oshirilishiga xizmat qilayotganligini ko'rsatmoqda, ayniqsa, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali. Masalan, madaniy diqqatga sazovor obyektlarning raqamlashtirilishi (smartfonlardagi audiogidlar, AR-ekskursiyalar va h.k.) va milliy taomlar va hunarmandchilikni turmahsulotning bir qismi sifatida targ'ib qilinishi yuqori daromadli turistlarni jalb qiladi va ularni qolish muddatlarini uzaytiradi.

Raqamli platformalar va super ilovalar (masalan, Xitoyda WeChat, Janubiy-Sharqiy Osiyoda Grab) Osiyo mamlakatlarida – bronlashtirish, transport xizmatlari, to'lovlar, fikr-mulohazalar kabi ko'pgina servis xizmatlarini yagona ekotizimga integratsiyalab, sayohatni qulay qilish imkonini beradi.[15] Bu turistlar va mahalliy korxona vakillarini qo'shimcha qiymat yaratishning global zanjiriga e'tiborlarini tortgan holda, turistlarni ko'proq mablag' sarflashlarini rag'batlantiradi, mahalliy korxonalarga (xostellardan to ko'cha kafelarigacha) mijozlarning keng auditoriyasini jalb qilishlariga imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, Osiyo mamlakatlari smart-texnologiyalar poligoni hisoblanadi, jumladan: Singapur, Seul, Tokioda big data yordamida turistlar oqimini boshqarish tizimlari, turistik hududlarda uchuvchisiz transport ta'minoti yechimlari, mehmonxonalarda ba'zi servis xizmatlarni robotlashtirish joriy etilmoqda. Bunday innovatsiyalar nafaqat xizmatlar samaradorligini va sifatini oshiradi, shu bilan birgalikda turistik xizmatlar sohasiga venchur kapitali va yirik texnokompaniyalar investitsiyalarini ham jalb qiladi.

Nihoyat, Osiyo mamlakatlarining ko'plab yo'nalishlari barqaror turistik xizmatlar sohasiga e'tibor qaratmoqda, xususan: Butan turistlar miqdorini cheklab, ekologik yig'im olishni yo'lga qo'yimoqda. Olingan mablag'lar ijtimoiy rivojlanishga yo'naltirilmoqda; Maldiv orollarida investitsiyalarni o'z dam olish maskanlari, kurortlari uchun qayta tiklanuvchi energiyaga yo'naltirilishi rag'batlantirilmoqda; Bali ommaviy oqim o'rniga «Quality tourism» konsepsiyasini targ'ib qilmoqda. Bu choralar investorlarni kelajakda investitsiyalarning barqarorligi va daromadliligiga ishontirgan holda turistik yo'nalishlarning uzoq muddatli qiymatining oshirilishiga xizmat qilishi ko'zlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni boshqarishning zamonaviy shakli kompleks yondashuvga asoslanadi. Qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, xoh mintaqaviy klaster doirasida, xoh xalqaro platforma yoki integratsiyalashgan kompaniya doirasida bo'lsin, sarflangan mablag'ning har bir birligi samaradorligini oshirilishiga va olingan nafni ishtirokchilarning keng doirasi orasida taqsimlanishiga imkon beradi. Klasterlashtirish va DXSh infratuzilma va xizmatlarga kapital oqimini rag'batlantiradi, raqamli innovatsiyalar yangi bozorlarni ochadi va yangi mahsulotlarni shakllantiradi, barqarorlik tamoyillari esa davlat va jamiyat tomonidan uzoq muddatli muvaffaqiyatni va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. RF, EI va Osiyo mamlakatlari tajribasi qo'shilgan qiymat zanjiri orqali turistik xizmatlar sohasi investitsion faolligini boshqarishga innovatsion yondashuv investitsiyalarni jalb qilish va soha rivojida drayver vazifasini o'tash imkoniyatiga ega. Yuqorida tahlil qilingan barcha mexanizmlar alohida ahamiyat kasb etmay, balki ular pirovard maqsadi raqobatbardosh, barqaror va yuqori daromadli turistik mehmondo'stlik majmuasining investitsion faolligini oshirishga qaratilgan yagona strategiyaning elementlari hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2017). *Tourism: Principles and Practice* (6-e izdanie). Pearson Education. business.walmart.com/+4_staffprofiles_bournemouth.ac.uk+4hispt.html.ch+4
2. Buhalis, D. & Leung, R. (2018). *Smart hospitality—Interconnectivity and interoperability towards an ecosystem*. International Journal of Hospitality Management, 71, 41-50. https://www.researchgate.net/publication/322209171_Smart_hospitality-Interconnectivity_and_interoperability_towards_an_ecosystem
3. Weaver, D. & Lawton, L. (2014). *Tourism Management* (5th ed.). Wiley. https://www.carousell.sg/p/tourism-management-5th-edition-2014-david-weaver-laura-lawton-137055334/?utm_source=chatgpt.com
4. Peter Keller: A Pioneer of a Sustainable Tourism Policy. <https://www.researchgate.net/publication/284762862>
5. Page, S.J. (2025). *Tourism Management* (7th ed.). Routledge. https://www.ebay.com/itm/396281307323?utm_source=chatgpt.com
6. Nawaz, M. A. Investment and tourism: Insights from the literature. <https://www.researchgate.net/publication/319292111>
7. <https://xn----dtbhaacat8bfloi8h.xn--p1ai/national-project-turizm-2030>
8. "Turizm.RF" davlat korporatsiyasi (2023). *Rossiyada turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari*. www.tourism.rf
9. Цепилова Е.С., Давыдович А.Р., Сыркова И.С. (2023). «Туристско-рекреационные кластеры в развитии туризма и индустрии гостеприимства в Российской Федерации». <https://ruservices.rgutpubl.org/index.php/1/article/view/326>

10. European Commission (2022). *Transition Pathway for Tourism*. Brussels. file:///C:/Users/user/Downloads/Transition_Pathway_For_TourismFEB2022_correctedlink.pdf.
11. Tourism doing business investing in Indonesiya. <https://www.hospitalitynet.org/file/152009259.pdf>
12. Cui Y., Zhang C., Jiang B., Qin Z., Liu Z., Yang Y. «Evaluation of all-for-one tourism development level: Evidence from Xinjiang production and construction corps, China». Опубликовано в *PLOS ONE*, 2025. https://www.researchgate.net/publication/390432850_Evaluation_of_all-for-one_tourism_development_level_Evidence_from_Xinjiang_production_and_construction_corps_China#fullTextFileContent
13. CAREC Tourism strategy 2030. <https://www.adb.org/sites/default/files/institutional-document/668406/carec-tourism-strategy-2030.pdf>
14. UNWTO (2023). *Tourism and Investment: Promoting Sustainable Development*. www.unwto.org
15. Data & Digital Platforms: Driving Tourism Growth in Asia Pacific. 2018. https://s3.amazonaws.com/tourism-economics/craft/Latest-Research-Docs/TE_APAC-Data-Digital-Platforms-2018.pdf

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

MAIN DIRECTIONS AND PROSPECTS OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Umronov Eldorbek Sodirovich

Teacher of Fergana State Technical University

Abstract. As a result of the consistent reforms and rapid economic liberalization carried out in Uzbekistan over the past five years, significant progress has been made in developing the tourism sector, which is considered a key component of the economy. In particular, the development of ecotourism, one of its priority areas, and through this, ensuring sustainable economic growth, increasing the competitiveness of the sector, achieving economic and social stability, and improving the well-being of the population are of great importance.

Keywords: tourism, competition, competitiveness, assessment, tourist activity, ecotourism development, economic indicators, internal and external factors of competitiveness.

O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Umronov Eldorbek Sodirovich

Farg'ona davlat texnika univesiteti o'qituvchisi

E-mail: eldorbekumronov@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistonda keyingi besh yillikda olib borilayotgan izchil islohotlar va iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan erkinlashuvi natijasida iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblanadigan turizm sohasini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Ayniqsa, uning ustuvor yo'nalishlari bo'lgan ekoturizmni rivojlantirish va bu orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, soha raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikka erishish hamda aholi farovonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: turizm, raqobat, raqobatbardoshlik, baholash, turistik faoliyat, ekoturizmni rivojlantirish, iqtisodiy ko'rsatkichlar, raqobatbardoshlikning ichki va tashqi omillari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N16>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ta'biri bilan aytganda, "Bizda turizm ko'pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi" bo'lib qolishi lozim [1; 5-6].

Turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ayniqsa, ichki turizm va ekoturizm bugun ko'plab mamlakatlarda asosiy daromad manbalaridan biriga aylanib ulgurgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida 2024-yil 3-iyun kuni turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha ustuvor masalalar yuzasidan videosektor yig'ilishi va sohadagi tadbirkorlar bilan muloqoti davomida tibbiyot va sog'lomlashtirish

turizmini uyg'unlikda rivojlantirish bo'yicha yaxlit yondashuv yo'qligi ko'rsatib o'tildi. Prezident turizm salohiyatini to'liq ochib beruvchi global targ'ibot kampaniyasini yo'lga qo'yish vaqti kelganini aytdi. Bunda televideniye va onlayn platformalar bilan birga ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalanish muhimligi ta'kidlandi. Mutasaddi vazirlik va idoralarga elektron viza tizimini yanada takomillashtirib, mobil ilovani ham ishga tushirish topshirildi. Umuman, tarmoq va hududlar rahbarlari joriy yilda 11 million xorijiy sayyohni olib kelish va turizm eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish uchun mas'ul va javobgar bo'lishi belgilandi.

O'zbekiston ham ekoturistik-rekreatsioon salohiyati yuqori, ekoturistik imkoniyatlarga boy bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Shu sababdan bugun ekoturizmni rivojlantirishga davlat rahbari darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Turizm xo'jalik aloqalari tizimida muhim o'rin egallab, iqtisod, ekologiya, ijtimoiy sohani rivojlantirishga ta'siri keng va kuchlidir. Iqtisodiy o'sishning ijtimoiy yo'naltirilganligini kuchaytirishda, "inson omili" ahamiyatining oshishida, tabiiy va madaniy muhitni asrashda turizm dunyo hamjamiyatining kelajagini belgilab beradigan tarmoqlar safiga kirishiga zamin hozirlab bormoqda.

Ekologik turizm (ekoturizm) turizmning yangi va yosh yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan, o'sish sur'ati boshqa turistik tarmoqlardan 2-3 barobar jadal kechmoqda. Shu bilan birga, turizm sohasida ekoturizmning ulushi 15-20% ni tashkil etib, bu ko'rsatkich yildan yilga kengayib bormoqda. Ekoturizmning maqsadi turizm orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta'minlashdir. Shu jihatdan, ekoturizm "yashil" iqtisodiyotning muhim yo'nalishi sifatida iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasida iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash bo'yicha bir qator vazifalar keltirilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 15-maqsadi "Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko'maklashish, o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo'qolib ketish jarayonini to'xtatish"dan iborat. Bu esa o'z navbatida, hududlarning turistik-rekreatsioon imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ekoturizmni rivojlantirish bilan bog'liq. Bugungi kunda ekoturizmning rivojlanish yo'nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog'liq holda shakllanmoqda. Mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoiti, rekreatsioon resurslari ekologik turizmni har bir hududga mos ravishda rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturizmni tashkil etishga e'tibor qaratilmoqda.

Madaniy landshaftlarning tuzilishi muayyan maqsad bilan ilmiy asosda va jamiyat manfaatlarini ko'zlab oqilona o'zgartirilgan bo'ladi. Bunday landshaftlarning eng asosiy xususiyatlari yuqori mahsuldorlik, iqtisodiy samaradorlik va inson hayoti uchun qulay ekologik sharoitning bo'lishi bilan belgilanadi [2; 252-b].

O'zbekistonda mavjud sanatoriy-kurort tashkilotlarining asosiy qismi Toshkent va Farg'ona mintaqalariga to'g'ri keladi, keyingi o'rinlarda Janubiy, Zarafshon va Quyi Amudaryo mintaqalari keladi. Ma'muriy-hududiy jihatdan Farg'ona mintaqasiga Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari kiradi [3; 52-54-b].

Shuni ta’kidlash lozimki, ekoturistik resurslarga juda boy bo’lgan respublikamizda ekoturizmning rivojlanishi talab darajasida emas. Fikrimizcha, bunga to’sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri – muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar hamda milliy tabiiy bog’larimizda Markaziy Osiyoda kamyob hayvonlar erkinlikda yuzlab, minglab yashashi uchun yetarli darajada moddiy-texnika bazasining yaratilmaganligidadir. Holbuki, bu ekoturistlarni juda qiziqtiradi. Qolaversa, jahon talablariga javob bera oladigan yangi milliy tabiiy bog’larni yaratish uchun birinchi navbatda ekoturizmning O’zbekistondagi salohiyat ko’rsatkichlari, maqsadi, tashkiliy-huquqiy, ekologik ta’lim-tarbiya va ijtimoiy-iqtisodiy xizmat va servis sohasini rivojlantirish masalalari bo’yicha omillar tizimi puxta ishlab chiqilishi lozim. Tabiatning xilma-xilligi qanchalik ko’p saqlangan bo’lsa, geokomplekslar shunchalik chidamli bo’ladi. Farg’ona vodiysida tabiat xilma-xilligini saqlab qolishda, bizning fikrimizcha, kichik tabiiy hududlar va ularning komponentlari (ayniqsa tirik mavjudotlar)ni muhofaza qilish zarurdir [4; 10-b, 74-b, 40-b].

Ma’lumot o’rnida ta’kidlash lozimki, yurtimizda 6 ta davlat qo’riqxonasi, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo’riqxonasi, 5 ta davlat milliy tabiat bog’i, 11 ta davlat tabiat yodgorliklari, 12 ta davlat buyurtma qo’riqxonalari, 1 ta davlat tabiiy pitomnigi, 2 ta davlat biosfera rezervati, 1 ta milliy bog’, shuningdek, 71 ta o’rmon xo’jaligi va 5 ta ov xo’jaliklari mavjud. O’zbekistonda “yashil” iqtisodiyot shakllanishi sharoitida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat:

- 1) mamlakatimizdagi har bir hududning tabiiy sharoiti va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ekoturistik master-rejalarni ishlab chiqish;
- 2) ekoturizmga “yashil” investitsiyalarni keng jalb qilish;
- 3) “Chorvoq” erkin turistik zonasi, “Zomin” turistik-rekreatsion zonalarida turizm infratuzilmasini takomillashtirish;
- 4) mamlakatimizdagi yirik ekoturistik maskanlarga xorijiy va mahalliy sayyohlar e’tiborini jalb qilish;
- 5) hududlarning tabiiy sharoiti va resurslaridan oqilona foydalangan holda aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish;
- 6) ekoturistik maskanlarda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turistik kartalar va belgilardan foydalanish;
- 7) ekoturistik maskanlarda atrof-muhit muhofazasiga jiddiy e’tibor qaratish va bu borada ekologik nazoratni kuchaytirish.

Insoniyat hayotini saqlab qolish yo’lida ko’plab usullar izlab topildi. Shulardan biri — ekoturizmni tashkil etish masalasi bo’ldi. O’tgan yillar davomida ekoturizmni rivojlantirishga oid maqsadlar, vazifalar va uning mohiyati bo’yicha uzoq muddatli bahs-munozaralardan so’ng aniq baho berildi. Ekoturizmning asosiy tamoyillari belgilandi, shuningdek, uni rivojlantirish bo’yicha turli metodlar, amaliy tajribalar hamda xalqaro darajada tan olingan modellar ishlab chiqildi.

Tabiat muhofazasida va insonlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda ekoturizmning muhim o’rnini dastavval sezgan davlatlar qayd qilingan metodlar va xalqaro modellarni hech ikkilanmasdan qabul qildilar va o’z davlatlarida ekoturizmni jadal sur’atlar bilan rivojlantirib bormoqdalar. Sayyoramizda tabiat boyliklarining tobora kuchayib borayotgan inqirozi inson jamiyatining umum halokatini tezlashtiradi degan xulosa va isbotlarning jahon nashriyotlarida e’lon qilinganiga ham ko’p yillar bo’ldi. Insoniyat faqat

tabiatni saqlab qolgandagina bu holatning oldini olishi mumkin. Insoniyat hayotiga og'ir xavflarni solishi mumkin bo'lgan eng xatarli ekologik muammolar quyidagilar:

1. Global iqlimiy o'zgarishlar.
2. Atmosferada ozon qatlamining yemirilishi.
3. O'rmonlarning qurib borishi va qir qilishi.
4. Sayyoramizda cho'llanishning kuchayib borayotganligi.
5. Dunyo okeanining ifloslanib borayotganligi.
6. Biologik turlarning yo'q qilinishi.
7. Yer unumdorligining pasayishi.
8. Ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishning pasayishi.
9. Chuchuk suv zaxiralarining kamayib borayotganligi.

Sanoat tugunlari ishlab chiqarishi hamda transportning rivojlanganligi atrof-muhitning texnogen chiqindilar bilan to'yinishiga sabab bo'ladi [5; 52-54-b.].

Sayyoramiz oldida turgan global muammolarni insoniyatning o'zi hal qilishi lozim va bunga mas'uldir. Aynan shu jihatdan qaralganda, ekoturizmni rivojlantirish tobora ko'proq mamlakatlarda davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanayotganini tushunish mumkin. BMT tomonidan o'tkazilgan konferensiyalar va sammitlarda 150 dan ortiq xalqaro tabiatni muhofaza qilishga oid bilim va ko'rsatmalar qabul qilinishi natijasida, ekologik boshqaruvning milliy tizimlari uchun zarur bo'lgan ko'plab asosiy elementlar shakllantirilmoqda.

Bu qarorlardagi eng muhim tamoyillar:

1) har qanday ishlab chiqarish sohalarida ekologik boshqaruvni amalga oshirish ta'minlansin;

2) har bir davlatlarda yashayotgan xalqlarning ekologik bilimi va madaniyatini shakllantirish ekologik muammolarni hal qilishdagi birinchi imkoniyatlar, kuchlar ekanligi alohida ta'kidlansin.

Dunyo turizmida ekoturizm paydo bo'lganidan so'ng, ko'plab mamlakatlar ushbu muhim yo'nalishni rivojlantirish uchun davlat dasturlari va strategik rejalarni ishlab chiqishga kirishdi. Bu borada iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar yetakchi bo'lishdi. Har qanday yangi soha singari, ekoturizm ham o'ziga xos rivojlanish "konsepsiyasi"ni talab etadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga yangicha kirib kelgan bu sohaga oid konsepsiyani ishlab chiqish esa katta ilmiy salohiyat va chuqur tadqiqotlarni talab qiladi.

G'arb mamlakatlarida ekoturizmga asosan ijtimoiy-iqtisodiy soha nuqtai nazaridan yondashiladi. Chunki xorijda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ekoturizm nafaqat iqtisodiy daromad keltiradi, balki tabiatni asrashga xizmat qiluvchi eng istiqbolli turizm tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Turizmning ahamiyati baholanganda yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish zarur: u ijtimoiy sohaning ajralmas qismi bo'lib, iste'molchilar uchun dam olish, faoliyatni almashtirish, sog'lomlashtirish, moddiy va nomoddiy muhit yaratish kabi xizmatlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, aholining ekologik bilim va madaniyat darajasini shakllantirishda ham turizm muhim rol o'ynaydi.

Ekoturizmning mamlakat ijtimoiy hayotidagi o'rnini belgilaganda tabiatning inson – turist hayoti uchun bo'lgan ahamiyatlari ko'rsatkichlarini keltirish lozim bo'ladi. Ekoturizmning ahamiyatini turistning ehtiyojlarini qondirish jihatlariga qarab, ma'naviy, iqtisodiy, sog'lomlashtirish, tabiatni anglash, tarbiyaviy va estetik guruhlariga bo'lishimiz mumkin. Bu guruhlarning tavsifi faqat turist uchun emas, umuminsoniyat hayotidagi tabiatning

o'rnini ham anglatadi. Ekoturizmning asl maqsadlari qayd qilingan xulosalarni tashkil qiladi. Ekoturizm o'zining ta'rifini izohlashda birinchi navbatda tabiat qo'ynida bo'lib, uning resurslariga ozor yetkazmaslikni ta'minlaydi. Tabiat va uning biologik xilma-xillik resurslaridan zavq-shavq olgan insonda albatta, bu obyektning asrash istagi paydo bo'ladi. Shuning uchun ham Butunjahon turizm tashkilotlarining: "tabiiy hududlarga mas'uliyat bilan sayohat qilish natijasida ekoturistlar faoliyati tabiatni muhofaza etishni ta'minlaydi va mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilaydi" – degan ta'rifi birinchi navbatda xalqning ijtimoiy holatining yaxshilanishiga qaratilgan.

Ekoturizmning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o'rnini esa ekoturizmning buyuk tamoyillaridan kelib chiqib, ya'ni ekoturizmdan keladigan mablag' tabiatni muhofaza qilish, noyob biologik resurslar, biologik xilma-xillikni saqlab qolishga qaratilganligi bilan juda muhimdir. Yana ham muhimrog'i, ekoturizm resursi atrofidagi aholining ish bilan bandligini oshirishi, ta'minlashi hisoblanadi. Ekoturistik xizmatlar ko'rsatish esa mehnat qilishning eng yengil turlariga kirishi ham juda muhimdir. Shuning uchun ham ekoturizmning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o'rnini quyidagicha belgilash mumkin. Bu tamoyillar ekoturizmning ijtimoiy tamoyillariga qo'shiladi va ekoturizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida istiqbolli yo'nalish bo'lishini isbotlaydi [6; 3-b.].

Ekoturizm mahalliy mehnat resurslarini qo'shimcha, yangi ish o'rinlari bilan ta'minlashda yordam beradi;

Ekoturizm tabiat va tabiiy resurslardan foydalanishning yangi texnologiyalarini jalb qiladi;

Ekoturizm ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishni rag'batlantiradi;

Ekoturizm tabiat muhofazasidagi investitsiyalar kirishini axborotlaydi va ekoturistik xizmatlar servisini takomillashtiradi;

Ekoturizm obyektlarida mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy darajalarini o'stiradi;

Ekoturizm va tabiat muhofazasi ta'limini olishda mutaxassislarda ekoturistik bilim va ekoturistik madaniyat bilimlarining nazariy va amaliy asoslarini yaratadi;

Ekoturizm mahalliy ekoturistik mahsulotlar hunarmandchiligiga yo'l ochadi;

Ekoturizm xalqlar o'rtasida do'stona hamdo'stlik aloqalarini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, iqtisodiy rivojlanishning dunyodagi barcha davlatlar uchun umumiy qonuniyatlari mavjud bo'lish bilan birga, u yoki bu mamlakatning jo'g'rofiy joylashuvi, tabiiy sharoiti, iqlimi, aholisi, tabiiy resurslari va boshqa ko'plab omillar ta'sirida iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari turlicha bo'ladi.

Jahon Turistik Tashkilotining turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra: "Turizmning barqaror rivojlanishi kelajak uchun imkoniyatlarni saqlab turish va yaxshilab borish davri mobaynida hozirgi paytda turistlar va ularni qabul qiluvchi hududlar ehtiyojlariga javob beradi. Bu barcha resurslarni boshqarishning shunday yo'nalishiki, uning natijasida iqtisodiy, ijtimoiy va estetik ehtiyojlar madaniy qadriyatlarining, ekologik jarayonlarning, biologik xilma-xillikning hayot faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini saqlab qolinishi bilan birga qondirilib boradi".

Demak, turizmning barqaror rivojlanishi tabiat, madaniyat va inson omilini birlashtirib atrof-muhit muvozanatini saqlaydi. Barqaror turizm tamoyilini anglash va rivojlantirishga mahalliy aholining tabiiy resurslarni tejashi va muhofaza qilishi xizmat qiladi. Bu esa ekologik turizmni turizm sohasida muhim o'rin egallashidan dalolatdir. Ekologik turizm tushunchasini

ko'rib chiqsak, ekologiya – tirik organizmlar va ular jamoasining o'zaro hamda atrof muhit bilan munosabatini o'rganadi. Turizm esa jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan farqli joyga dam olish, sog'liqni tiklash, o'rganish va boshqa maqsadda, haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmaslik sharti bilan 1 sutkadan 1 yilgacha bo'lgan muddatda sayohat qilishidir.

Ekoturizm tabiiy muhitga, tabiatga ziyon yetkazmagan holda sayohat qilib uning betakror joylaridan zavq olish uchun atrof-muhitga “yumshoq” ta'sir etish, mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtirishdir.

Respublikamiz faunasi 97 turdagi o'txo'r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar, 83 ta baliq turlariga ega. O'zbekiston flora dunyosida 4100 dan ortiq o'simlik turlari mavjud. Ularning 9 %i endemik, ya'ni aynan shu hududda o'sadigan o'simliklardir. Demak, O'zbekistonda noyob hayvonot va o'simlik dunyosi bilan tanishtiradigan maxsus turlar ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Agro-turizmga to'xtaladigan bo'lsak, qishloq joylarida o'ziga xosliklar: tandirda non yopish jarayoni, “xo'roz jangi”, qovun sayli, hosil bayrami, sumalak sayli va hokazo urf-odatlarini o'z ichiga olgan ekoturlar sayyohlar tomonidan katta talabga ega bo'lishi mumkin.

Ilmiy-ekologik ekskursiyalar, ya'ni bilishga qaratilgan ekoturlar tarixiy yodgorliklar hamda dunyoda kam uchraydigan arxeologik topilmalar, paleontologik qoldiqlarni o'rganish uchun qilinadigan sayohatlardir. Buxoro viloyati Shofirkon tumanida joylashgan ham tabiiy, ham tarixiy yodgorlik hisoblangan Vardonze potensial ekoturistik obyekt sanaladi. Ushbu obyektga zarur infratuzilma tashkil etilsa, turist nazaridan chetda qolmaydi.

Sog'liqni tiklashga yo'naltirilgan ekoturlar ham mavjud bo'lib, masalan, Jizzax viloyatidagi Zomin salomatlik markazi o'zining shifobaxsh iqlimi bilan, Buxoro tumanidagi issiq suv salomatlik markazi esa yer ostidan chiqayotgan 60°C haroratdagi termal manbasi bilan aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, Buxoro viloyatining Olot tumanida joylashgan tuz bilan davolash maskanini ham istiqbolda ekoturizm uchun muhim obyektga aylantirish imkoniyati mavjud.

Tabiiy quyosh energiyasidan foydalangan holda ekologik sof mahsulotlarni yetishtirish, tabiiy, vitaminlarga boy juvoz yog'i tayyorlanish jarayoni, undan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari taklifi shakllantirilsa, potensial talabga ega bo'ladi.

Umuman olganda, O'zbekiston ekoturizmni rivojlantirish uchun barcha resurslarga boy va bu jihatdan dunyoda 15-o'rinda turadi. Respublikamizda tashkil etiladigan ekoturlar quyidagi tamoyillarga amal qilishi darkor:

tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarining ustuvorligi va uni ekotur yo'nalishlarida aks ettirish;

ekoturizm zahirida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlik yotishi;

ekoturizmning tarixiy, madaniy va boshqa turizm turlari bilan bog'liq rivojlantirilishi;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, aholining ekoturizmdan manfaatdorligi;

Vatanni asrab, rivojlantirishda milliy iftixorni shakllantirish zaruriyati.

Ekoturizmni rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

O'zbekistonning ekoturizm sohasidagi salohiyati, tabiiy resurslari va imkoniyatlarini jahon turizm bozorida namoyon etish;

hududlar, xususan, tabiat va geotizimlarning ekoturistik resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

turizm sohasida ekoturizmning ahamiyati va ulushini oshirish;

mamlakatda mavjud turistik faoliyat doirasida ekoturistik xizmatlarning sifatini sezilarli darajada yaxshilash hamda ularning hajmini keskin ko'paytirish;

kelgusida ekoturizmni rivojlantirish uchun ilmiy, innovatsion va metodik ishlanmalarni ishlab chiqish.

Dunyo davlatlari o'zlarining milliy bog'lari va ekoturistik hududlaridan turlicha usullarda foydalanadilar. Shu sababli, dunyodagi milliy bog'lar hamda ekoturistik maskanlarning tashkiliy, iqtisodiy va geografik xususiyatlarini chuqur o'rganish maqsadida ekologik axborot tizimi — ya'ni maxsus ma'lumotlar bazasi yaratilgan. Ushbu ma'lumotlar bazasi ko'p hollarda foydalanish va ulardan tegishli ilmiy xulosalar olish, ekologik prognozlashtirish, monitoring ishlarini bajarishda, istiqbol rivojlanishida ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda nodir manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-sentyabrdagi "Tog'li hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 559-son qarori.
2. Бабкин А.В. Особый вид туризма. Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. С. 252.
3. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi. Ekologiya xabarnomasi, № 6, Toshkent, 2007. 6–7-b]
4. Umronov E.S. Turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusida yozilgan iqtisodiyot fanlari bo'yicha (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi // Andijon 2023.
5. Умронов Э.С. Туристический комплекс в развитии туризма // Бизнес-эксперт. Бизнес-Daily медиа. – 2022, №4. 69–73-б. (08.00.00 №3).
6. Умронов Э.С. Туристический комплекс в развитии туризма // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2022, № 3(87). 171–176-б. (08.00.00 №21).

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

IMPROVING THE MANAGEMENT OF FINANCIAL RESOURCES OF COMMERCIAL BANKS

Tangirkulov Bekzod Boxadirovich,

Independent researcher,
Deputy Head of the Remote-Control
Department of the State Financial Control Inspectorate
of the Department for Combating Economic Crimes
under the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article deeply studies the formation and effective management of financial resources in commercial banks and analyzes the main indicators of the banking system of our country. Also, the theoretical aspects of managing the financial resources of commercial banks, the need for management and the specific aspects of management, as well as a number of other aspects, were studied and researched. A comparative study of the state of resource mobilization in the banking practice of developed countries is important for developing measures and relevant policies for the effective management of the resources of commercial banks of Uzbekistan.

Keywords: commercial banks, financial resources, management, lending, deposit resources, improvement, Uzbekistan.

TIJORAT BANKLARI MOLİYAVIY RESURLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Tangirkulov Bekzod Boxadirovich,

Mustaqil tadqiqotchi,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentning
Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining
Masofaviy nazorat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida moliyaviy resurslarni shakllantirish va uni samarali boshqarish chuqur o'rganilgan va mamlakatimiz bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari tahlili atroflicha ko'rib chiqilgan. Shuningdek, tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishning nazariy jihatlarini, boshqarishning zarurligi va boshqaruvning o'ziga xos jihatlarini hamda boshqa qator jihatlarini o'rganildi va tadqiq etilgan. Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida resurslarni jalb etish holatini taqqoslama tarzda o'rganish respublikamiz tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish yuzasidan chora-tadbirlar va tegishli siyosatni ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy resurs, boshqaruv, kreditlash, depozit resurslar, takomillashtirish, O'zbekiston.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N17>

Kirish. Zamonaviy sharoitda tijorat banklari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, xususan moliyaviy resurslarini boshqarishni takomillashtirishning nazariy asosida banklarning barqarorligini oshirish va likvidlikni ta'minlash, tijorat banklarini uzoq muddatli va barqaror resurslar bilan ta'minlash, risk va foyda o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni samarali

tashkil etish hamda bank aksiyalari qiymatini oshirish, vujudga kelishi mumkin bo'lgan risklar darajasini pasaytirish kabi dolzarb masalalar yotadi [1].

Respublika iqtisodiyoti rivojlanishida boshlangan yangi davr tijorat banklari oldida dolzarb vazifalarni qo'yimoqdaki, ularni yechimi tijorat banklarining kreditlash salohiyatini yanada kengaytirib, ular faoliyatining ishonchliligi va samaradorligini oshirish orqali amalga oshiriladi. Belgilangan vazifalarni bajarish uchun banklarda barqaror resurs bazasini kengaytirish, depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, aholidan jamg'arma va muddatli depozitlarni qabul qilish hamda kredit qo'yilmalarini manbalarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida tijorat banklari kreditlash hajmining o'sishiga erishish mumkin [2].

Shularni e'tiborga olib, keyingi yillarda O'zbekistonda tijorat banklarining moliyaviy resurslari hajmini oshirish va banklar barqarorligini ta'minlash masalalariga Markaziy bank va hukumat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, kreditlashni faqat bozor tamoyillari asosida amalga oshirish, tijorat banklari xizmat ko'rsatish faoliyatini modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish" kabi dolzarb vazifalar aniq belgilab qo'yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar. Tijorat banklarining barqarorligi va ular faoliyatining rentabelligi – moliyaviy resurslarning shakllanishi va tuzilishiga chambarchas bog'liq hisoblanadi. Tijorat banklari barqarorligi turlarini tahlil qilib chizganimizda, ular ichida eng asosiysi, barqarorlik bazasi bu – "moliyaviy barqarorlik" ekanligini ko'rishimiz mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida "moliyaviy barqarorlik" tijorat banklari faoliyatining birlamchi va asosiy turi ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Birinchidan, "moliyaviy barqarorlik" tijorat banklari faoliyatida boshqa barqarorlik bloklarni ishlashiga asos bo'lib xizmat qiladi va bazasi hisoblanadi [4; p. 36-37].

Quyida keltirilgan jadvalda tijorat banklarining barqarorlik turlari va uning mazmun-mohiyatini ko'rib chiqamiz.

1-jadval


Tijorat banklari faoliyatida barqarorlik turlari va uning iqtisodiy mazmuni¹

Barqarorlik turlari	Mohiyati va mazmuni
Moliyaviy barqarorlik	Tijorat banklari faoliyatining integral ko'rsatkichlari bo'lib, bank moliyaviy-iqtisodiy holatini aks ettiradi, bular: o'z mablag'lari hajmi, kapital strukturasi, daromad va foyda miqdori, kapitalga nisbatan foyda miqdori, likvidlilik va boshqalar
Tijoriy (tijorat) barqarorlik	Tijorat banklarining bozor infratuzilmasiga moslashganligi, bular jumlasiga: bankning davlat bilan aloqasi, banklararo munosabatlardagi ishtiroki, kreditorlar, mijozlar va omonatchilar bilan munosabatlar sifati, bankning ijtimoiy ahamiyati va boshqalar
Funksional barqarorlik	1. Bank ixtisoslashuvi bo'yicha 2. Bank universallashtuvi bo'yicha
Tashkiliy-strukturaviy barqarorlik	Bank alohida faoliyatlarini funksional-texnologik hujjatlar asosida tashkil etilishi
Umumiy barqarorlik	Tijorat banklari aksionerlik kapitali hajmi bilan aniqlanadi

Hozirgi kunga kelib tijorat banklari faoliyatida moliyaviy resurslar manbalarining tuzilishi, resurslar bahosi va uning holati nafaqat bankning kreditlash faoliyati natijalariga, balki kelgusida kreditlash faoliyatdan olinadigan daromadlarni ham prognoz qilish imkonini yaratadi [3; p. 45-46]. Tijorat banklarining kreditlash faoliyati uchun zarur hisoblangan moliyaviy resurslarni banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali shakllantiradi. Shundan kelib chiqqan holda, tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh: tijorat banklarining o'z mablag'lari yordamida kredit operatsiyalarini tashkil etish hisoblansa, ikkinchi guruh: jalb qilingan mablag'lar hisobidan kredit qo'yilmalari shakllanadi va ular bank faoliyatining asosiy foizli daromadlarini olib keladi [1; p. 82-84].


Tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi [2; p. 23-25]. Quyidagi rasmda tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosiy jihatlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

¹ Boshqa olib borilgan izlanishlar asosida mustaqil tayyorlandi.



1-rasm. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosiy jihatlar¹

Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o'z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi. Tijorat banklarining resurs bazasini resurslarning turlari bo'yicha guruhlariga ajratish va ularni optimallashtirish tijorat banklari oldidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi [3; p. 51-52]. Banklarning kredit portfelini samarali tashkil etish va portfelning daromadlilikini oshirish tijorat banklari tomonidan moliyaviy resurslarni samarali shakllantirish, ular manbalarining bahosini va hajmini tizimli boshqarishni taqozo etadi [1; p. 63-65]. Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini shakllantirish, boshqarish, va uni takomillashtirishning asosiy masalalarini quyida keltirilgan rasm yordamida ko'rishimiz mumkin.



2-rasm Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishning dolzarb vazifalari²

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish va tizimli tahlili jarayonida bank tomonidan jalb qilingan resurslarning holati, ular bo'yicha kelishilgan muddati, iqtisodiy sohalar bo'yicha tasniflanishi, kreditlash uchun yo'naltirilgan mablag'larning bahosi va ularning daromadlilikigi, shuningdek boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha monitoring ishlarining

¹ Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

² Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

doimiy tarzda olib borilishi, moliyaviy manbalarning rentabelligiga va bankning kredit portfelini shakllanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi [3; p. 31-32].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishida tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilib, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish va uning kredit portfelini sifatini yaxshilashga ta'siri alohida tadqiq qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishni takomillashtirishga oid mavjud adabiyotlarni va shunga o'xshash kontekstlarni har tomonlama ko'rib chiqishni, tijorat banklari moliyaviy resurslar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni, statistik ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi asosan ikkilamchi ma'lumotlar bazasi asosida olib borilgan. Tahlil ma'lumotlarining asosiy qismi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari va Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari tashkil etadi. Shu bilan birga, boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan tijorat banklari kreditlarini takomillashtirishga doir olib borilgan izlanishlari natijalaridan ham keng foydalanilgan.

Ma'lumotlar tahlili va natijalar. Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida kredit qo'yilmalari manbalari o'sishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarining boshlanishi, dollarlashuv darajasining kengayishi va boshqa bir necha asosiy omillar ta'siri doirasida kredit qo'yilmalarining keskin o'sishi kuzatildi [6; p. 45-48]. tijorat banklarining jami kredit qo'yilmalari 2025-yil 1-yanvar holatiga 533,1 trln. so'mni tashkil etib, ularning 66,5 foizi korporativ kreditlar va qolgan 33,5 foizi chakana kreditlar hissasiga to'g'ri keladi [5]. Quyida keltirilgan jadvalda tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarkibiy tuzilishi va uning tahlilini ko'rib chiqishimiz mumkin. Keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida uch asosiy yo'nalishdagi: 1) tijorat banklarining jami kredit qo'yilmalari hajmi, 2) tijorat banklari tomonidan yuridik shaxslarga berilgan kreditlari va 3) jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlari ko'rsatkichlarining olti yillik ma'lumotlari yillar kesimida keltirilgan.

2-jadval


**Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarkibiy tuzulishi [6],
(trln. so'm va ulushi foizda)**

Ko'rsatkichlar/ Yillar	Kredit qo'yilmalari, jami		Yuridik shaxslar kreditlari		Jismoniy shaxslar kreditlari	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%
2019	211,6	100	171,6	81,1	39,9	18,9
2020	276,9	100	222,1	80,2	54,8	19,8
2021	326,4	100	256,9	78,7	69,5	21,3
2022	390,1	100	289,1	74,1	100,9	25,9
2023	471,4	100	322,8	67,9	148,6	32,1
2024	533,1	100	355,6	66,5	177,5	33,5

Banklar uchun yuqori rentabellikka erishishda hozirgi iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holatda kredit qo'yilmalarini manbalarini to'g'ri shakllantirish va optimallashtirish masalasi muhim bo'lib hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va banklarda

barqaror daromad uzluksizligi birinchi navbatda tijorat banklarining “moliyaviy resurslar” bilan qanchalik ta’minlanganligiga bog’liq.


Tijorat banklarining kredit qo’yilmalari manbalari ikki yo’nalishda shakllanadi: 1) depozit mablag’lari hisobidan, 2) nodepozit mablag’lar hisobiga. Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari jami resurslari tarkibida asosiy manbalar: depozit mablag’lari va nodepozit mablag’larining nisbati va dinamikasini ko’rishimiz mumkin.



3-rasm. Tijorat banklari jami resurslari tarkibida asosiy manbalar nisbati va dinamikasi [7] (trln. so'm)

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, tahlil davrining boshidan, 2018-yildan 2021-yilgacha jami resurslari tarkibida nodepozit mablag'larining ulushi ko'proq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tahlil davrining oxiriga kelib, 2023-yilda jami resurslari tarkibida depozit mablag'larini nodepozit manbalardan 7,2 foiz banda oshib 241,7 trln. so'mga yetgan. Shuningdek, nodepozit mablag'lar ham yillar davomida o'sish dinamikasini tashkil etgan holda, 2023-yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 foiz bandga o'sib, 225,5 trln. so'mga yetganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyida keltirilgan rasm ma'lumotlari asosida tijorat banklarining muddatli mablag'lar va xatarli aktivlari dinamikasini keltiramiz.



4-rasm. Tijorat banklarining muddatli mablag'lari va xatarli aktivlari dinamikasi¹, (trln. so'm)

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida ta'kidlash lozim, tijorat banklari faoliyatida muddatli mablag'lar ajratilgan kredit mablag'lari hajmiga nisbatan kam ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tahlil davrining boshidan, 2019-yildan tahlil davrining oxirigacha, 2023-yilgacha bu ko'rsatkich mos ravishda ijobiy holat qayd etmagan. Ya'ni, banklarning muddatli mablag'lari xatarli aktivlari hajmidan oshmaganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Fikrimizcha, bank tizimida depozitlar bazasini oshirishga va hukumatning bank tizimini moliyalashtirishdagi rolini pasaytirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shuningdek, banklar optimal kredit portfelini shakllantirishda jalb qilingan mablag'larining safarbar etilishi (mobilizatsiya) darajasi, tijorat banklari kredit potensialining tuzilishi va banklar amaliyotida tashkil etilayotgan rezerv va fondlar e'tiborga olgan holda amalga oshirishlari muhim.

Xulosa va takliflar. Tijorat banklari passiv operatsiyalari natijasida shakllantirgan moliyaviy mablag'lar ularga aktiv operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beradi, banklarning moliyaviy resurslari qanchalik uzoq muddatga va arzon baholarda jalb qilinishi ularning likvidligini ta'minlashda va foydasini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Xalqaro bank amaliyotida uzoq muddatli moliyaviy resurslarning ulushi sezilarli darajada yuqori ekanligi ularning likvidligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, xalqaro bank amaliyotida banklarning passiv mablag'lari tarkibida depozitlarning ulushi 65-70 foizni tashkil etadi, bu ko'rsatkich mahalliy banklarda sezilarli darajada past bo'lib o'rtacha 43-45 foizni tashkil etmoqda.

Tijorat banklari resurslarini sifatli monitoring qilish va kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishni moliyaviy rejalashtirish, taktik va strategik kabi usullarini inobatga olgan holda ularni zamon talablariga mos samarali boshqarishni tashkil etish zarur.

Tijorat banklarining depozitlari manbalarini optimallashtirish sohasidagi yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, likvidlik va kapitalni samarali boshqarish, shuningdek, davlat bilan faol hamkorlik muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi.

Tijorat banklari mavjud barcha moliyaviy mablag'lardan aktiv operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida foydalana olmaydi. Bu holat tijorat banklari kredit potensialini to'g'ri baholashni taqozo etadi. Tijorat banklari kredit potentsiali qanchalik barqaror va mustahkam

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi.

bo'lmasin, boshqa bir tomondan jamiyatda mazkur kreditlarning barchasiga ham talab mavjudligi yoki yo'qligi ham muhim o'rin egallaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Adilov M.M. "Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish", PhD. dissertatsiya avtoreferat ma'lumotlari, Toshkent-2024.
2. Otamurodov H.H. "Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish", Toshkent, 2019-y.
3. Ortiqov U.D. (2023), "Tijorat banklari moliyaviy resurslari boshqarishni takomillashtirish", DSc. dissertatsiya avtoreferat ma'lumotlari, Toshkent-2023.
4. Omonov A.A. "Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari". Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, Toshkent, 2008.
5. Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018-y.
6. O'zbekiston Respublikasi, Markaziy Banki, "Moliyaviy barqarorlik sharhi", ma'lumotlari, 2023-yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018-2024-yillardagi tijorat banklari faoliyati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari.

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

INDICATOR SYSTEM FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF THE TRANSPORT SYSTEM

Aymatov Sirojiddin Turaqul ugli

Independent Researcher at Termez State University

Abstract. The article discusses a system of indicators for assessing the competitiveness of the transport system and their practical application. The study evaluates the competitiveness of regional transport systems based on indicators such as the number of transport enterprises, workforce size, efficiency, freight and passenger transport volumes. Using the example of Surkhondaryo region and its districts, the calculation and comparison of indicators are researched. The article also proposes a methodology for determining the efficiency and competitiveness of the transport system using relative indicators compared to a benchmark region and expert evaluation methods. The research results are aimed at developing transport infrastructure and improving socio-economic efficiency.

Keywords: transport system, competitiveness, efficiency, indicator system, freight transport, passenger transport, expert evaluation, infrastructure, Surkhondaryo region.

TRANSPORT TIZIMINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI TIZIMI

Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: aymatovsirojiddin349@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada transport tizimining raqobatbardoshligini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi va ularning amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda transport korxonalari soni, ishchilar soni, samaradorlik, yuk va yo'lovchi tashish hajmi kabi ko'rsatkichlar asosida hududlar transport tizimining raqobatbardoshligi baholanadi. Surxondaryo viloyati va uning tumanlari misolida ko'rsatkichlarning hisoblanishi va taqqoslanishi tadqiq etilgan. Maqolada, shuningdek, etalon hududga nisbatan nisbiy ko'rsatkichlar va ekspert baholash usullari orqali transport tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligini aniqlash uslubiyoti taklif etilgan. Tadqiqot natijalari transport infratuzilmasini rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: transport tizimi, raqobatbardoshlik, samaradorlik, ko'rsatkichlar tizimi, yuk tashish, yo'lovchi tashish, ekspert baholash, infratuzilma, Surxondaryo viloyati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N18>

Kirish. Transport tizimining raqobatbardoshligi zamonaviy iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Raqobatbardosh transport tizimi hududlararo aloqalarni yaxshilash, iqtisodiy faollikni oshirish va aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bunday tizimlarni baholash va ularning samaradorligini oshirish uchun tizimli yondashuv zarur bo'lib, bu esa ko'plab omillarni hisobga olgan holda aniq ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Maqolada transport tizimining raqobatbardoshligini baholash uchun ishlatiladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning amaliy qo'llanilishi tadqiq etilgan. Surxondaryo viloyati va uning tumanlari misolida transport korxonalari soni, ishchilar soni, samaradorlik, yuk va

yo'lovchi tashish hajmi kabi ko'rsatkichlar asosida tahlillar olib borilgan. Shuningdek, etalon hududga nisbatan nisbiy ko'rsatkichlar va ekspert baholash usullari orqali transport tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligini aniqlash usullari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalari transport infratuzilmasini rivojlantirish, resurslarni samarali taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada keltirilgan metodologiya va ko'rsatkichlar boshqa hududlar uchun ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan uslubiy yechimlarni taklif etadi.

Transport tizimining raqobatbardoshligini baholashda ko'rsatkichlarning tizimli yondashuvi infratuzilma samaradorligini oshirish, bozor dinamikasini tahlil qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish uchun muhim vosita hisoblanadi. Maqolaning asosiy maqsadi transport tizimining raqobatbardoshligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amaliy misollar orqali ularning samaradorligini ko'rsatishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Transport tizimida raqobatbardoshlik masalalari ko'pgina xorijlik olimlar tadqiqotlarida o'rganilgan. Jumladan, David Boyce va Joseph B. Lemaire kabi olimlar transport tizimlaridagi raqobatni baholashda transport korxonalari sonini o'rganishgan, bozorni qanday taqsimlash va raqobatni qanday oshirish mumkinligi haqida izlanishlar olib borgan. Ular transport korxonalari sonini bozor raqobatini o'lchashning asosiy vositasi sifatida ko'rib chiqqan. [1]

Peter Nijkamp va Kenneth Button kabi olimlar transport tizimlarining ishchi resurslari va korxonalar samaradorligini o'rganishgan. Bu olimlar transport korxonalarining ishchi kuchini korxonalarining raqobatbardoshligini o'lchashda qo'llaydilar. Ularning tadqiqotlarida ishchilar soni va samaradorligi tizimning ishlashi va raqobatbardoshligi jihatidan o'rganilgan. [2]

Dimitriy T. Gavrilov va Yuriy P. Vasiliev kabi olimlar transport tizimlarining masofaviy kengayishi va yo'l infratuzilmasini tahlil qilganlar. Ular transport tizimining bosib o'tilgan yo'llarini va tizimning raqobatbardoshligini o'rganish orqali infratuzilmaning ta'sirini ko'rib chiqishgan. Bu ko'rsatkich transport tarmoqlarining samaradorligini va raqobatbardoshligini ko'rsatadi. [3]

Christopher A. Sims va John F. Kain kabi olimlar yuk tashishning raqobatbardoshligiga ta'sirini tahlil qilishgan. Ushbu ko'rsatkich yuk tashish hajmi va tizimning iqtisodiy samaradorligi bilan bog'liq. Ular transport tizimlaridagi yuk tashish hajmini raqobatbardoshlik va samaradorlik ko'rsatkichi sifatida ko'rib chiqqan. [4]

John R. P. McNally va David A. Hensher kabi olimlar transport xizmatlarining hajmini va ularning ta'sirini o'rganishgan. Bu ko'rsatkich transport xizmatlarining samaradorligi va sifatini ko'rsatadi. Xizmat hajmi ortishi raqobatbardosh tizimlar yaratish va bozorda yaxshi holatda qolish uchun zarur. [5]

Joseph L. Hellerstein va Gerald S. Bobinskiy kabi olimlar yo'lovchi tashish hajmini va uning transport tizimidagi ta'sirini o'rganishgan. [6] Yo'lovchi tashish hajmi va uning tizimdagi o'rni transport tizimining rivojlanishi va raqobatbardoshligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich transportning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini oshirishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, transport tizimi raqobatbardoshligini quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholash maqsadga muvofiq degan fikrdamiz:

- Transport korxonalari soni;

- Ishchilar soni;
- Samaradorlik ko'rsatkichlari;
- Bosib o'tilgan masofa;
- Yuk tashish hajmi;
- Transport xizmatlari hajmi;
- Yo'lovchi tashish hajmi;

Ushbu ko'rsatkichlarni tizimlashtirib, 1-jadvalda aks ettirildi. Unda hudud transport tizimining raqobatbardoshligini baholashda asosiy ko'rsatkichlar, ularning hisoblash formulalari, nomi hamda ma'nolari aks ettirilgan.

1-jadval

Transport tizimi korxonalari raqobatbardoshligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi⁵

Ko'rsatkich nomi	Formula	Ma'nosi
Transport korxonalari zichligi	$Z_k = \frac{N_k}{A}$	Hududdagi 1 km ² maydonga to'g'ri keladigan transport korxonalari soni. Bu yerda: N_k – transport korxonalari soni, A – hudud maydoni (km ²).
Mehnat unumdorligi	$E_h = \frac{H}{N_i}$	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ko'rsatilgan xizmat hajmi. Bu yerda: H – ko'rsatilgan xizmat hajmi (mlrd so'mda). N_i – transport sohasidagi ishchilar soni.
Yuk tashish samaradorligi	$E_y = \frac{V_y}{L}$	1 birlik bosib o'tilgan yo'lga to'g'ri keladigan tashilgan yuk hajmi. Bu yerda: V_y – tashilgan yukning umumiy hajmi (tonna), L – bosib o'tilgan umumiy yo'l
Yo'lovchi tashish samaradorligi	$E_p = \frac{P}{L}$	1 birlik bosib o'tilgan yo'lga to'g'ri keladigan tashilgan yo'lovchilar soni. Bu yerda: P – tashilgan yo'lovchilar soni, L – bosib o'tilgan umumiy yo'l.
Transport korxonalari samaradorligi	$E_k = \frac{H}{N_k}$	Har bir transport korxonasiga to'g'ri keladigan o'rtacha ko'rsatilgan xizmat hajmi. Bu yerda: H – ko'rsatilgan xizmat hajmi (mlrd so'mda), N_k – transport korxonalari soni.
Aholi jon boshiga transport korxonalarining transportlari soni	$K = \frac{N_{avto}}{N_{aholi}}$	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan transport korxonalarining transportlari soni. Bu yerda: N_{avto} – transport korxonalarining transportlari soni.
Bitta avtomobilga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi	$S = \frac{H}{N_{avto}}$	Har bir transportga to'g'ri keladigan o'rtacha ko'rsatilgan xizmat hajmi. Bu yerda: H – ko'rsatilgan xizmat hajmi (mlrd so'mda), N_{avto} – transportlar soni

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar orqali hududdagi transport tizimi samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini kompleks baholash mumkin. Bu kabi ko'rsatkichlarning ko'pligi hudud transport tizimining raqobatbardoshligini yagona qiymatda aniqlash zaruratini tug'diradi. Bu masalani esa uslubiy yechim orqali hal etish mumkin.

⁵ Turli manbalar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Ma'lumki, etalon hudud — bu yuqori samaradorlikka ega hudud hisoblanadi. Hududlar kesimida transport tizimi raqobatbardoshligini qiyoslashda ushbu ko'rsatkichlarning etalon hudud qiymatiga nisbatlash uning maksimaldan ortda qolish darajasini beradi.

Shuningdek, raqobatbardoshlikka uslubiy yondashishda ekspert baholash orqali nisbiy ko'rsatkichning ahamiyatlilik darajasi belgilab, transport tizimining aniqroq raqobatbardoshlik koeffitsiyentlarini olish mumkin. Transport korxonalarining samaradorligini baholash uchun ekspert baholash usuli orqali aniqlangan og'irlik koeffitsiyentlaridan foydalanib, balli baholash usuli quyidagicha amalga oshirish mumkin:

$$S = \sum_{i=1}^n w_i \cdot \frac{I_i}{I_{max}}, \quad (1)$$

bu yerda: S — transport korxonasining umumiy balli bahosi; I_i — ko'rsatkichning qiymati; I_{max} — hududdagi eng yuqori ko'rsatkichning qiymati; w_i — og'irlik koeffitsiyenti;

Ko'rsatkichning mazmuni: Har bir ko'rsatkichni eng yuqori qiymatga nisbatan me'yorlashtirilib, uning ahamiyatlilik darajasidan kelib chiqqan holda umumiy bahosini chiqaradi.

Qo'llanilishi: Hududdagi transport korxonalarining eng yaxshi ko'rsatkichga nisbatan holatini baholash imkonini beradi.

(1) foydalanib aniqlangan nisbiy ko'rsatkichlar orqali hududning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ular bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

2-jadval

Hudud bo'yicha raqobatbardoshlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar⁶

Aholi soni	Avtomobil transporti xizmatlari hajmi(mlrd so'm)	Transport korxonalari soni	Ishchilar soni	Transportlar soni	Hududi (ming km ²)	Transport korxonalari sonining zichligi	Ishchiga nisbatan xizmat hajmi (mlrd so'm)	Yuk tashish samaradorligi(mln. tonna-km)	Odam tashish samaradorligi(mln. yo'lovchi-km)	Transport korxonalari samaradorligi	Bitta transportga keladigan aholi soni	Bitta avtomobilga keladigan xizmatlar hajmi(mlrd)
Surxondar yo viloyati	2038,8	13464	15306	15089	20,10	0,67	0,13	1 227,7	6 737,6	0,15	183,36	0,14
Termiz sh.	393,6	2754	2910	2839	0,04	68,85	0,14	111,6	1 013,6	0,14	67,25	0,14
Oltinsoy	97,3	510	522	518	0,57	0,89	0,19	47,1	222,1	0,19	359,96	0,19
Angor	115,9	631	847	847	0,39	1,62	0,14	58,9	560,1	0,18	165,76	0,14
Bandixon	69,5	159	159	159	3,21	0,05	0,44	34,3	115,1	0,44	508,18	0,44
Boysun	89,4	193	211	201	0,68	0,28	0,42	45,4	132,4	0,46	578,20	0,44
Muzrabot	106,2	555	722	713	0,74	0,75	0,15	44,9	507,7	0,19	208,31	0,15
Denov	241,9	1577	1876	1809	1,14	1,38	0,13	287,2	936,0	0,15	218,28	0,13
Jarqo'rg'on	135,5	1065	1188	1170	1,16	0,92	0,11	103,1	512,5	0,13	195,37	0,12
Qumqo'rg'on	136	773	802	791	1,83	0,42	0,17	73,7	304,8	0,18	310,72	0,17
Qiziriq	103,2	264	264	264	0,38	0,69	0,39	39,5	341,8	0,39	459,47	0,39
Sariosiy o	141,6	944	1131	1130	3,83	0,25	0,13	58,9	403,0	0,15	196,73	0,13
Termiz	93,3	1196	1435	1418	0,83	1,44	0,07	97,2	548,5	0,08	57,35	0,07
Uzun	107,2	817	644	944	1,84	0,44	0,17	40,5	383,3	0,13	284,63	0,11
Sherobod	134,7	897	994	986	2,73	0,33	0,14	79,8	458,0	0,15	207,34	0,14
Sho'rchi	120,5	1188	1301	1300	0,72	1,65	0,09	105,6	298,6	0,10	171,41	0,09

Yuqoridagi ko'rsatkichlarga qo'shimcha ravishda hudud transport tizimi ko'rsatkichlari uchun ham ba'zi nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash mumkin. Ular hududni boshqa hududlar bilan taqqoslash va samaradorlikni baholashda etalon darajalarga nisbatan baholashni ko'zda tutadi (3-jadval).

⁶ Muallif ishlanmasi.

3-jadval

Hududni boshqa hududlar bilan taqqoslash va samaradorlikni baholash⁷

Ko'rsatkich nomi	Formula	Ma'nosi
Transport korxonalarining nisbiy zichligi	$Z_n = \frac{Z_k}{Z_{k_o}}$	Hududning transport korxonalari zichligini etalon hudud Z_{k_o} bilan taqqoslash.
Ishchi samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi	$E_{h_n} = \frac{E_h}{E_{h_o}}$	Hudud ishchi samaradorligini etalon hudud E_{h_o} bilan solishtirish.
Yuk tashish samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi	$E_{y_n} = \frac{E_y}{E_{y_o}}$	Yuk tashish samaradorligini etalon hudud E_{y_o} bilan taqqoslash.
Odam tashish samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi	$E_{p_n} = \frac{E_p}{E_{p_o}}$	Odam tashish samaradorligini etalon hudud E_{p_o} bilan taqqoslash.
Transport korxonalari nisbiy samaradorligi	$E_{k_n} = \frac{E_k}{E_{k_o}}$	Har bir korxona samaradorligini etalon hudud E_{k_o} bilan solishtirish.
Aholi jon boshiga transport korxonalarining avtomobillari sonining nisbiy ko'rsatkichi	$K_{k_n} = \frac{K_k}{K_{k_o}}$	Aholi jon boshiga transport korxonalarining avtomobillari sonini etalon hudud K_{k_o} bilan solishtirish
Bitta transportga to'g'ri keladigan nisbiy xizmatlar hajmining nisbiy ko'rsatkichi	$S_{k_n} = \frac{S_k}{S_{k_o}}$	Bitta transportga to'g'ri keladigan nisbiy xizmatlar hajmini etalon hudud S_{k_o} bilan solishtirish

3-jadvaldagi Z_{k_o} E_{h_o} E_{y_o} E_{p_o} E_{k_o} I_{t_o} K_{k_o} S_{k_o} – etalon hudud yoki umumiy darajadagi eng yuqori ko'rsatkichlardir.

Hududlar transport tizimiga oid ko'rsatkichlarini tizimlarning samarali boshqarilishi tahlillari asosida quydagicha baholash mumkin. Kvalimetriya qoidalari ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va ilmiy tizimlarda sifatni boshqarish, yaxshilash va optimallashtirish jarayonlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi va bu qoidaga ko'ra guruhdagi ekspert-mutaxassislar soni 7 tadan 14 nafargacha bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. [8] Qoidaga asoslanib, 10 kishidan iborat sohada ko'p yillik kasbiy va amaliy tajribaga ega bo'lgan ekspert-mutaxassislar guruhi shakllantirildi.

Har bir ko'rsatkichga mutaxassis-ekspertlar tomonidan berilgan baholar va ularning o'rtachasi hisoblandi (4-jadval).

⁷ Muallif ishlanmasi.

4-jadval

Ekspertlar xulosalari va o'rtacha qiymatlar

Ekspertlar	Transport korxonalari nisbiy zichligi	Ishchi samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi	Yuk tashish samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi	Odam tashish samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi	Transport korxonalari nisbiy samaradorligi	Bitta odamga to'g'ri keladigan nisbiy transport soni	Bitta avtomobillarga to'g'ri keladigan nisbiy xizmatlar hajmi
1	6	8	7	8	7	8	7
2	8	9	9	10	9	10	8
3	7	10	8	9	8	9	8
4	6	9	8	8	8	9	8
5	8	9	7	9	8	9	9
6	7	8	8	10	8	8	7
7	6	10	9	8	8	9	8
8	7	9	8	9	8	9	8
9	8	8	8	9	8	9	8
10	8	9	8	9	8	9	8
O'rtacha	7	9	8	9	8	9	8

Hudud bo'yicha raqobatbardoshlikni ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlar¹

Tuman va shaharlar	Transport korxonalarining nisbiy zichligi	Ishchi samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi	Yuk tashish samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi	Odam tashish samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi	Transport korxonalari nisbiy samaradorligi	Bitta odamga to'g'ri keladigan nisbiy transport soni	Bitta avtomobil larga to'g'ri keladigan nisbiy xizmatlar hajmi	Samaradorlik ko'rsatkichi
Termiz sh.	1,000	0,309	0,389	1,000	0,309	1,000	0,312	35,856
Oltinsoy	0,013	0,426	0,164	0,220	0,412	0,187	0,422	15,576
Angor	0,023	0,313	0,205	0,550	0,397	0,406	0,308	18,857
Bandixon	0,001	1,000	0,119	0,110	0,944	0,132	0,983	27,553
Boysun	0,004	0,969	0,158	0,130	1,000	0,116	1,000	28,234
Muzrabot	0,011	0,337	0,156	0,500	0,413	0,323	0,335	17,745
Denov	0,020	0,295	1,000	0,920	0,331	0,308	0,301	26,903
Jarqo'rg'on	0,013	0,261	0,359	0,510	0,275	0,344	0,260	17,282
Qumqo'rg'on	0,006	0,388	0,257	0,300	0,380	0,216	0,387	16,366
Qiziriq	0,010	0,894	0,138	0,340	0,844	0,146	0,879	27,379
Sariosiyo	0,004	0,286	0,205	0,400	0,324	0,342	0,282	15,765
Termiz	0,021	0,149	0,338	0,540	0,168	1,173	0,148	22,137
Uzun	0,006	0,381	0,141	0,380	0,283	0,236	0,255	14,456
Sherobod	0,005	0,310	0,278	0,450	0,324	0,324	0,307	17,066
Sho'rchi	0,024	0,212	0,368	0,290	0,219	0,392	0,208	14,576
Bu ko'rsatkichlarning har biriga 10 ballik tizimdan qo'yilgan ballar	7	9	8	9	8	9	8	

5-jadvaldagi hudud bo'yicha raqobatbardoshlikni ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlar mutaxassis-ekspertlar tomonidan 10 ballik tizimda baholandi. Bunga ko'ra, ishchi samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi, odam tashish samaradorligining nisbiy ko'rsatkichi va bitta odamga to'g'ri keladigan nisbiy transport soni kabi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ko'rsatkichlar yuqori baholangan. Bu ularning jamoat transportining qulayligi va korxonalarning rentabelligiga ta'sirini aks ettiradi.

¹ Muallif ishlanmasi.

Baholangan raqobatbardoshlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar uchun me'yorlashtirilgan samaradorlik ko'effitsiyenti shkalasini tuzib olish uchun Sterjess qoidasidan foydalanish mumkin. Bu usul guruhlar sonini hisoblash uchun ishlatiladi.

Ushbu usulda guruhlar soni k va interval kengligi h quyidagicha aniqlanadi:

$$k = 1 + \log_2 n \quad (2)$$

$$h = \frac{\text{maksimal qiymat} - \text{minimal qiymat}}{k} \quad (3)$$

Ushbu formulalardan foydalanib hisoblaganda,

$$k = 1 + \log_2 15 \approx 1 + 4 = 5$$

$$h = \frac{35,8555695 - 14,4558291}{5} = 4.28$$

ekanligi kelib chiqadi.

6-jadval

Hududlarning samaradorlik va raqobatbardoshlik ko'effitsiyenti shkalasi¹

Tavsifiy daraja	Chegaraviy ko'effitsiyent
Juda yuqori	$31,57 < S < 35,86$
Yuqori	$27,29 < S < 31,57$
O'rtacha	$23,01 < S < 27,29$
O'rtacha past	$18,73 < S < 23,01$
Past	$14,45 < S < 18,73$

Hududlarning raqobatbardoshlik ko'effitsiyenti tahlil qilinganda, Termiz shahri 35,86 ko'rsatkich bilan juda yuqori samaradorlikka, Bandixon tumani 27.56, Boysun tumani 28.23 va Qiziriq tumani 27.38 ko'rsatkich bilan yuqori samaradorlikka, Denov tumani 26.9 ko'rsatkich bilan o'rtacha samaradorlikka, Angor va Termiz tumanlari mos ravishda 18.86 va 22.14 ko'rsatkich bilan o'rtacha past samaradorlikka, Oltinsoy tumani 15.56, Muzrabot tumani 17.74, Jarqo'rgon tumani 17.28, Qumqo'rgon tumani 16.37, Sariosiyo tumani 17.76, Uzun tumani 14.46, Sherobod tumani 17.07, Sho'rchi tumani 14.58 ko'rsatkichlar bilan past samaradorlik ko'rsatkichiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hudud transport tizimining raqobatbardoshligini baholashda ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va ularni amaliy jihatdan qo'llash zamonaviy transport infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, transport tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligini baholash uchun ko'p qirrali yondashuv talab etiladi. Bunda xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari asosida tuzilgan ko'rsatkichlar tizimi transport korxonalari soni, ishchi kuchi samaradorligi, yuk va yo'lovchi tashish hajmi, infratuzilma kengayishi kabi omillarni qamrab oladi.

Asosiy ko'rsatkichlar orasida transport korxonalarining zichligi, ishchiga nisbatan xizmat hajmi, yuk va odam tashish samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Jadval ma'lumotlari Surxondaryo viloyati va uning tumanlari misolida ko'rsatkichlarning amaliy jihatdan qanday hisoblanishi va taqqoslanishini namoyish etadi. Masalan, Termiz shahrida transport korxonalarining zichligi yuqori (68,85) bo'lsa, Bandixon tumanida bu ko'rsatkich 0,049 gacha tushib ketadi. Bu tumanlar o'rtasidagi infratuzilma taraqqiyoti va resurs taqsimotidagi keskin farqlarni anglatadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Tadqiqotda taqdim etilgan nisbiy ko'rsatkichlar (masalan, etalon hududga nisbatan transport zichligi yoki samaradorlik) hududlarni obyektiv baholashga imkon beradi. Ballar tizimi (7-9 ball oralig'ida) ko'rsatkichlarning ahamiyatini hisobga olgan holda ularni umumlashtirishga yordam beradi.

Transport tizimi raqobatbardoshligini baholashda ko'rsatkichlarning tizimli yondashuvi infratuzilma samaradorligini oshirish, bozor dinamikasini tahlil qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish uchun muhim vosita hisoblanadi. Kelajakda ushbu ko'rsatkichlarni sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) bilan integratsiyalash orqali aniqroq prognozlar va strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Tadqiqot natijalari nafaqat akademik doirada, balki amaliy siyosatni shakllantirishda ham qo'llanilishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Boyce, D., & Lemaire, J. B. *Competition and Regulation in Transport Markets*.–London: Elsevier,1999.–215p.(45-52,78-85).
2. Nijkamp, P., & Button, K. *Transport Network Economics*. – Cheltenham: Edward Elgar, 2000. – 320 p. (112-120, 156-163).
3. Gavrilov, D. T., & Vasiliev, Y. P. *Transport Systems and Infrastructure Expansion*. – Moscow: Transport Publishing, 2005. – 180 p. (33-40, 92-98).
4. Sims, C. A., & Kain, J. F. *Housing Segregation, Negro Employment, and Metropolitan Decentralization*. Harvard University Press, 1973. – 275 p. (67-74, 105-112)
5. McNally, J. R. P., & Hensher, D. A. *Handbook of Transport Economics*. – Bingley: Emerald Group, 2007. – 420 p. (201-210, 255-263).
6. Hellerstein, J. L., & Bobinskiy, G. S. *Transportation Systems Analysis*.–New York: Springer, 2010. – 310 p.(88-95, 134-142).
7. Saaty, T. L. *A scaling method for priorities in hierarchical structures*. J. Math. Psychol., 15 (3) (1977), pp. 260-281.
8. Азгальдов, Г. Г., & Райхман, Э. П. *Экспертные методы в оценке качества товаров*. М.: Издательство Экономика, 1974 г. - 151 стр.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

FORMATION OF AN ELECTRONIC SOURCE FOR DESK TAX AUDIT, THE IMPORTANCE OF SOFTWARE PRODUCTS USED IN THE TAX SYSTEM

Ergashev Uyghun Jabborovich

Independent Researcher

Kimyo International University in Tashkent

E-mail: u.ergashev@gmail.com

Abstract. In this study, the scientific proposals and practical recommendations developed during the study by further automating the activities of the state tax service bodies of the Republic, improving the procedure for using smart technologies in camera tax audits and risk analysis, strengthening electronic cooperation with other ministries and agencies in the effective implementation of this process, analyzing data abroad directions for localizing the used opportunities and as a result preventing tax offenses and ensuring their independent elimination by the taxpayer are revealed, and serve to reduce the secret economy.

Keywords: camera control, risk analysis, information and communication technologies, database, integration, automation, taxpayers, state tax service.

KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVI UCHUN ELEKTRON MANBASINING SHAKLLANISHI, SOLIQ TIZIMIDAGI QO'LLANILAYOTGAN DASTURIY MAHSULOTLARNING AHAMIYATI

Ergashev Uyg'un Jabborovich

mustaqil tadqiqotchi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Respublika davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada avtomatlashtirish orqali tadqiqot davomida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar kameral soliq tekshiruvi va risk analizlarda smart texnologiyalardan foydalanish tartibini takomillashtirish, ushbu jarayonni samarali amalga oshirishda boshqa vazirlik va idoralar bilan elektron hamkorlikni kuchaytirish, ma'lumotlarni tahlil qilishda xorijda foydalanilayotgan imkoniyatlarini mahalliyashtirish va natijada soliqqa oid huquqbuzarliklarni oldini olishda va soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda bartaraf etilishini ta'minlash yo'nalishlari ochib berilgan, hamda xufiyona iqtisodiyotni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kameral nazorat, risk analiz, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi, integratsiya, avtomatlashtirish, soliq to'lovchilar, davlat soliq xizmati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N19>

Kirish. Mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda samarali soliqqa tortish tizimi va davlat soliq xizmati organlarining uyg'unlashgan faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat soliqlar yordamida o'z byudjetini to'ldirishdan tashqari, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, YAIMni qayta taqsimlash, talab va taklifni rag'batlantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Jamiyatda soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etilishi – davlat tomonidan yuqorida sanab o'tilgan funksiyalarni to'liq va sifatli bajarilmasligiga olib keladi.

Bugungi kunda soliqlar yig'iluvchanligini oshirish uchun kameral nazoratni amalga oshirish va risk analizlar ma'lumotlarini to'playdigan bazaning takomillashmaganligi, davlat soliq organlariga mutasaddi idora va tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida va sifatli ma'lumotlar taqdim etilmayotganligi, korxonalarining soliq majburiyatlari samarali usul orqali nazorat qilinmayotganligi, kameral soliq tekshiruvini oddiy arifmetik amallar orqali amalga oshirilishi oqibatida soliq nazorati ko'proq inson omiliga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatda xufiyona iqtisodiyotni yuzaga keltiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Soliq bazasini yashirib, soliqdan qochish, qing'ir yo'l bilan daromadini ko'paytirgan tadbirkor bozorda sog'lom raqobat muhitini buzadi va insofli soliq to'lovchilarga ham iqtisodiy ham axloqiy zarar yetkazadi. Boshqa tomondan olib qaralganda, soliq organlari tomonidan huquqbuzarlikka qarshi ko'rilgan jazo-choralari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini yomonlashishiga, o'z biznesini rejalashtirishda izchillik yo'qolishiga ham olib kelishi mumkin.

Bizning fikrimizcha bunga asosiy sabab, soliq risklarini aniqlash, baholash va oldini olish chora-tadbirlari tizimlashtirilmaganligi, ushbu yo'nalishga ma'lumotlar bazasidagi axborotlarni inson omilisiz samarali tahlil qilish vositalari mavjud emasligi, ushbu yo'nalishga uzviy bog'liq bo'lgan qonun hujjatlarida bo'shliqlar mavjudligi va boshqa vazirlik va idoralar bilan o'z vaqtida elektron axborot almashish amalga oshirilmayotganligidadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Raqamli texnologiyalardan foydalanish dunyo bo'ylab tez va keng tarqalmoqda. 2015-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 10 yillikda dunyo bo'yicha internet foydalanuvchilari 3 barobarga ko'payib 3.2 mlrd.ni tashkil etgan. Aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi fuqarolar mobil texnologiyalardan, ular orqali o'quv yurti, elektr-energiya, ichimlik suvi kabi tizimlarning elektron xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

Bu shuni anglatadiki, hozirgi kunda fuqarolar, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatlar o'rtasida o'zaro elektron bog'lanish imkoniyatiga ega tarmoq mavjud va bu ma'lumotlarni umumiyalashtirish va o'zaro foydalanish imkoniyatini yaratadi. So'nggi 20 yillikda elektron ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, kuzatish va tarqatish bo'yicha sezilarli rivojlanish kuzatildi. Hukumatlar yildan-yilga elektronlashib bormoqda.[1]

Kameral soliq tekshiruvi tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (2020) 138-moddasida qayd etilgan bo'lib, soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o'tkaziladigan soliq tekshiruvi hisoblanadi.[2]

Kameral soliq tekshiruvi soliq Kodeksning 88-moddasida belgilangan da'vo muddati o'tmagan soliq davrlariga nisbatan o'tkazilishi mumkin. Kameral soliq tekshiruvi jarayonida soliq organi soliq to'lovchidan (soliq agentidan, uchinchi shaxsdan) hisobga olish hujjatlarini, taqdim etilgan soliq hisobotiga va hisobga olish hujjatlariga doir tushuntirishlarni, shuningdek soliq hamda yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lash bilan bog'liq boshqa axborotni soliq Kodeksda nazarda tutilgan tartibda so'rab olishi mumkin.[3]

Agar soliq to'lovchi kameral soliq tekshiruvi tugaguniga qadar ushbu Kodeksning 83-moddasida[4] nazarda tutilgan tartibda hisoblab chiqarilgan soliq summasi o'zgartirilgan

aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etsa, kameral soliq tekshiruvi taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini hisobga olgan xolda o'tkaziladi.

Agar o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvi yakuni bilan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlangan bo'lsa, soliq organi soliq to'lovchiga soliq Kodeksda belgilangan tartibda soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish talabnomasini yuboradi.

Soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish haqida talabnoma yuborilgan sana kameral soliq tekshiruvi tugatilgan sana hisoblanadi. Agar o'rganish va tahlil qilish yakunlariga ko'ra tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanmagan bo'lsa ham kameral soliq tekshiruvi yakunlangan hisoblanadi.

Soliq to'lovchi tuzatishlar kiritish to'g'risidagi talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda tegishli soliqlar va yig'imlar bo'yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan xolda aniqlangan tafovutlarning asosnomasini soliq Kodeksda belgilangan tartibda taqdim etadi.[5]

Kameral soliq tekshiruvi quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- «Tahlika-tahlil» dasturiy ta'minoti orqali olingan natijalarga ko'ra, soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori yoki o'rtacha darajada bo'lsa;
- soliq organlariga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan soliq qonunchiligi buzilishi haqida murojaatlar kelib tushganda;
- soliq hisobotlarida xatoliklar yoki tafovutlar aniqlanganda.

Shuningdek, agar soliq to'lovchi ilgari topshirgan hisobotida soliq summasi asossiz kamaytirilgan yoki zarar miqdori orttirilgan bo'lsa, aniqlashtirilgan soliq hisobotini topshirgan taqdirda ham kameral tekshiruv o'tkaziladi. Bunday hollarda tekshiruv aniqlashtirilgan hisobot taqdim etilgan kundan boshlab uch kun ichida boshlanadi.

Natijalar va muhokama. Soliq to'lovchilar soliq xavfi darajasiga qarab past, o'rta va yuqori xavfli toifalarga ajratiladi.

Soliq xavfi darajasi mezonlari maxfiy axborot hisoblanadi, quyidagilar bundan mustasno:

- soliq yuki;
- ilgari taqdim etilgan soliq hisobotlariga bir necha bor (bir hisobot davri uchun uch va undan ortiq marta) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi;
- soliq hisobotida bir necha soliq davridagi (ikki va undan ortiq) zararlar aks ettirilishi;
- soliq davri davomida soliq to'lovchining joylashgan joyi bir necha bor (ikki va undan ortiq marta) o'zgartirilishi va keyinchalik qayta ro'yxatdan o'tkazilishi;
- qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha guvohnomasi bekor qilingan (ro'yxatdan chiqarilib tashlangan), shuningdek, tugatilgan, faoliyatini amalga oshirmayotgan, bankrot deb topilgan shaxslar bilan amalga oshirilgan bitimlar (operatsiyalar);
- sof foydaning xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadigan rentabellik ko'rsatkichi past darajada bo'lishi;
- soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq hisobotidagi operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning, ushbu operatsiyalar bo'yicha boshqa soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotidagi ma'lumotlarga mos kelmasligi va boshqalar.

Soliq kodeksiga asosan maxsus soliq rejimlarini qo'llash huquqini beradigan oborotlarini bir necha yil davomida bir milliard so'mdan past miqdorda soliq hisobotlarini taqdim etishi;

o'tkazilgan soliq tekshiruvlari natijalari.

Soliq yuki, quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$B = T \times 100\% / In$$

Bunda:

B - soliq yuki;

T - soliq davri davomida to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar summasi;

In - soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan tushgan daromad.

Soliq yuki ko'rsatkichi iqtisodiy faoliyat turlari kesimida aniqlanadi. Har yili ushbu faoliyat turlariga mos o'rtacha soliq yuki ko'rsatkichlari Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinib borilishi lozim.

Qurilish sohasida faoliyat yuritadigan soliq to'lovchilarning xavf darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

qurilish ishlarini amalga oshirish uchun lozim darajada xodimlar, ombor, transport va uskunalar bilan ta'minlanmaganligi;

ishlarni bajarish uchun soliq hisobotlarida zarur xarajatlarning aks etmasligi;

bitta obyektida, qurilish ishlarini olib boruvchi shaxslarning o'zaro bog'liqligi;

qurilish ishlarini amalga oshiruvchi yangi tashkil etilgan soliq to'lovchining bankdagi hisobvarag'iga yirik miqdordagi mablag' kelib tushishi;

xom ashyo va materiallarni sotib olish uchun ajratilgan mablag'larning qurilish hajmiga nisbatan nomutanosibli;

tugallangan qurilish obyektlarining tannarxiga yaqin narxlarda sotilishi;

markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish obyektlarida xarajatlarning to'laqonli aks ettirilmaganligi.

Soliq xavfi darajasi soliq xavfi mezonlari asosida aniqlanadi, ularga 1 dan 100 gacha bo'lgan ballar beriladi. Bunda har bir mezon bo'yicha ball berish Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha segmentlanishi va soliq davri uchun olingan daromad miqdoriga qarab belgilanadi.

Soliq xavfi darajasiga qarab soliq to'lovchilar Dastur orqali soliq xavfi darajasini aniqlash mezoniga belgilangan ballar va potensial soliq xavfi asosida baholanadi hamda toifalarga ajratiladi.

Soliq xavfi darajasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$R = Sr / Sp \times 100\%$$

Bunda:

R - xavf darajasi (foizda);

Sr - soliq to'lovchiga berilgan xavf ballari yig'indisi;

Sp - xavf darajasini aniqlashda qo'llangan potensial soliq xavfi ballari yig'indisi.

Bunda soliq xavfi darajalarini baholash natijalari yuqoridan kamayish tartibida, baholash natijalari teng bo'lganda esa - to'lanmagan soliq summasi ehtimoli asosida quyidagicha toifalanadi:

81 foizdan 100 foizgacha - yuqori xavf;

30 foizdan 80 foizgacha - o'rta xavf;

1 foizdan 29 foizgacha - past xavf.

Soliq xavfi darajasi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq auditi tayinlanadi. Soliq xavfi darajasi o'rta va past bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq organlari tomonidan Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa soliq ma'murchiligi tadbirlari qo'llaniladi.

Soliq xavfi darajasini aniqlash davriyligi

Soliq to'lovchining soliq xavfi darajasi soliq xavfini boshqarish tizimi asosida olti oyda bir marta aniqlanadi.

Soliq xavf darajasi yuqori bo'lmagan soliq to'lovchilar tomonidan o'ttiz kalendar kundan ortiq soliq qarzdorligi to'lanmagan taqdirda soliq xavfi darajasi har chorakda bir marta aniqlanishi shart.

Soliq to'lovchini aniqlangan soliq xavfi darajasi mezonlari haqida xabardor qilish tartibi va muddatlari

Soliq xavfini boshqarish tizimida maxfiy bo'lmagan mezonlar orqali aniqlangan soliq xavfi darajasi mezonlari haqidagi ma'lumotlar Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

Soliq to'lovchilar zarur hollarda soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq organlariga soliq xavfi darajasi mezonlari bo'yicha tushuntirishlar yuborishga haqli.

Ushbu Nizomning 18-bandida nazarda tutilgan soliq organlari tomonidan olingan soliq to'lovchilarning tushuntirishlari, soliq xavfini boshqarish tizimini qo'llashda va soliq xavfini tuzatishda hisobga olinishi mumkin.

Kameral soliq tekshiruvida smart texnologiyalar qanday va qaysi asos hujjatlarga asosan soliq organlarining ma'lumotlar bazasida shakllanadi?

2019-yil yakuniga qadar amalda bo'lgan soliq Kodeksining 84-moddasida "Soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar hamda ularning majburiyatlari" belgilangan edi.[6]

2020-yilga kelib esa soliq Kodeksining yangi tahriri tasdiqlanib soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar hamda ularning majburiyatlari 133- va 134-moddalarda belgilab qo'yildi.[7]

Xulosa va takliflar. Smart texnologiyalar ma'lumotlar bazasini to'liq, mukammal va o'z vaqtida shakllantirilishini ta'minlab borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 215/3-moddasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilgani holda ma'lumotlarni taqdim etadigan korxona va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini soliq agentlari mas'uliyatiga tenglashtirish hamda javobgarligini oshirish, xato taqdim qilgan, ma'lumotlarni to'liq yoki umuman taqdim etmagan tashkilotlarga nisbatan keskin choralar ko'radigan mexanizmni nazorat qilishni kuchaytirish va chora ko'rish vakolatini yuqori turuvchi davlat organlariga o'tkazish lozim.

AV-1321-sonli nizomiga o'zgartirish kiritgan xolda, xo'jalik yurituvchi subyektlarni yirik miqdordagi bank aylanmalarni aylanma amalga oshirilgan bir vaqtning o'zida, aynan shu subyekt tomonidan yirik miqdordagi aylanma amalga oshirilgandan so'ng ma'lum muddat uchun barcha aylanmalarini va kontragent tashkilotning ham o'tkazib berilgan pulni nima maqsadlarga sarflanishi bo'yicha aylanmalarni, miqdoridan qat'iy nazar, inson omilisiz onlayn ravishda Tijorat banklarning bosh idoralari orqali emas, Markaziy bank tomonidan Davlat soliq qo'mitasining tashqi manba ma'lumotlar bazasiga taqdim etish lozim.

Soliq Kodeksining 134-moddasi nazarda tutilgan ma'lumotlarni tijorat banklari tomonidan Soliq organining bank mijoziga nisbatan axborot taqdim etish to'g'risidagi so'roviga binoan bank yozma so'rov olingan kundan e'tiboran uch kun ichida taqdim etish tartibiga o'zgartirish kiritgan xolda, Mazkur ma'lumotlar bevosita soliq solish bilan bog'liq, shuning uchun ushbu ma'lumotlarni inson omilisiz onlayn taqdim etilishi lozim deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xalqaro valyuta fondi, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2019
7. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2020
8. Artemenko D.A., Aguzarova L.A., Aguzarova F.S., Porollo E.V. (2017) "Causes of Tax Risks and Ways to Reduce Them". Pages 454-458.
9. OECD (2020), "Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration". Pages 10-24.
10. Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6098-son. / www.lex.uz
11. Qaror (2010) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1257-son. / www.lex.uz
12. Qaror (2012) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ1843-son. / www.lex.uz

09.00.00 – FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

CURRENT PROBLEMS OF INFORMATION AND "POPULARY CULTURE" ATTACK

Nosirxodjaeva Gulnora Abdukakhhorovna,
Tashkent State Law University
Head of Department, PhD in Philosophy, Professor
E-mail: g.nosirxodjayeveva@gmail.com

Abstract. In this article, the author analyzes one of the current problems of our time – information impact and “mass culture”. In particular, the definition, formation, characteristics of “mass culture”, as well as its main directions and manifestations in the modern era are studied. At the same time, special attention is paid to the information impact and influence of “mass culture”, especially on the consciousness and morality of young people.

Keywords: information impact, “mass culture”, morality, youth, Internet, spirituality, Uzbekistan, character.

AXBOROT VA “OMMAVIY MADANIYAT” XURUJINING DOLZARB MUAMMOLARI

Nosirxo‘jayeva Gulnora Abduqaxxorovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
kafedra mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri axborot xuruji va “ommaviy madaniyat” muammosini tahlil qiladi. Xususan, “ommaviy madaniyat”ning ta’rifi, shakllanishi, xususiyatlari, shuningdek, zamonaviy davrda asosiy yo’nalishlari va ko’rinishlari tadqiq etiladi. Bundan tashqari, axborot xuruji va “ommaviy madaniyat”ning ta’siri, ayniqsa, yoshlarning ong-u shuuri va axloqi masalasiga alohida urg’u beriladi.

Kalit so’zlar: axborot xuruji, “ommaviy madaniyat”, axloq, yoshlar, Internet, ma’naviyat, O‘zbekiston, fe’l-atvor.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N20>

“Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o’tgan, yuksak ma’naviyat xazinasini bo’lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz”.

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi axborot-kommunikatsiyalar sohasida erishilgan yutuqlar, uning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga o’tgan “ommaviy madaniyat”ning yoyilish tezligi dinamik xarakterda bo’lib, zamonaviy axborot texnologiyalari, Internet tarmog’ida erkin harakatlanish ko’proq yoshlar qatlamiga xos xususiyatdir. Binobarin, ushbu tizimlarning

faoliyatiga bo'lgan qiziqish, bu maydonga o'zini boricha bag'ishlash ham yoshlarga xos jihatdir. O'zbekcha qilib aytganda, bugungi bo'y yetgan yoshlarni bog' va gulzorlar, qir-adirlar bag'ridan ko'ra, ana shu virtual maydon kengliklari (to'g'rirog'i, shubhali labirintlari) o'ziga ko'proq jalb etmoqda.

Bu anarxiyaga moyil jarayonda, afsuslar bo'lsinki, bir qism yoshlarimiz g'arbona madaniy oqimlar ta'siriga ko'proq ishtiyoqmand bo'lib, milliy ma'naviyatimizning hayotbaxsh, yuksak axloqiy tamoyillariga ixlosining susayishi kuzatilyapti. Inson qadr-qimmati, ibo-hayosi, axloqiga bepisandlik ruhi ba'zi yoshlarning kiyinishi, fe'l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanayotgani ham achchiq haqiqatdir.

“Ommaviy madaniyat”ning shakllanishi va keng ko'lamli xususiyatga ega bo'lishi, birinchi navbatda, san'at va adabiyotning tijoratlashishi bilan bog'liqdir. Rossiyalik olim P.A.Sorokin bunday tendensiya XX asr o'rtalaridayoq yaqqol ko'zga tashlangani to'g'risida fikr bildirgandi: “San'at ko'ngilocharlik uchun tijorat tovari sifatida savdo korchalonlari, tijorat manfaatlari va uning urf va talablari ostiga olinmoqda... Bunday vaziyat tijorat korchalonlarini nafosatning oliy hakamlariga aylantirmoqda, ijodkorlarni ularning talablariga bo'ysundirmoqda, bunga qo'shimcha tarzda yana reklama va ommaviy axborot vositalari yordamida zo'rlab tiqishtirilmoqda”.[1]

Faylasuf olimlar o'tgan asrdayoq “ommaviy madaniyat” o'z mohiyati jihatidan g'ayriinsoniy xususiyatga ega bo'la boshlagani haqida bong urgan edilar. Xususan, mashhur nemis faylasufi Karl Teodor Yaspers “ommaviy madaniyat”ni *“san'at mohiyatining tanazzuli”* [2] deb baholagan bo'lsa, ispan faylasufi va sotsiologi Xose Ortega-i-Gasset uning g'ayriinsoniy tus olayotganligini uqtirgan. [3] Ular “ommaviy madaniyat” faqat ayrim tashqi ko'rinishlari jihatidagina san'at va nafis adabiyot asariga o'xshashi, tub mohiyati bilan esa sun'iy, soxta va yasama ekanini ta'kidlaydilar.

“Ommaviy madaniyat”ning tez va ommaviy tarqala boshlashi XX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. [4] Zero, shu paytdan e'tiboran ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari keng ommani yalpi qamrab olish qudratiga ega bo'lib, o'z ta'sirini jahondagi barcha davlatlarga o'tkaza boshladi. Keyinroq esa kompyuter va Internetning paydo bo'lishi axborotni tarqatish imkoniyatlarini cheksiz darajaga kengaytirdi. Boshqacha aytganda, ommaviy axborot vositalari “ommaviy madaniyat”ni tarqatishning asosiy vositasiga aylandi.

O'z navbatida, “ommaviy madaniyat”ning tijoriy mahsulotlarini tayyorlash ham uzluksiz – konveyer usuliga o'tkazildi. Bu mahsulotlarning o'zi ham ommaviy, ham kundalik iste'mol qilishga mo'ljallangan. Binobarin, “ommaviy madaniyat”ni yuqori va chuqur bilim, noyob iste'dod, mahorat, oliy qadriyatlar emas, balki texnologik, moliyaviy, eng avvalo, tijorat omillari shakllantiradi. Eng xavfli jihat – “ommaviy madaniyat”ning maqsadi insoniy fazilatlarni, his va tuyg'ularni yuksaltirish va poklash, shaxsning olam va odam haqidagi bilimlarini ko'paytirish va kengaytirish, ma'naviy va ma'rifiy dunyosini boyitishga emas, balki faqat va faqat moddiy foyda olishga qaratilgan. Ya'ni uning, albatta, xarid qilinishi talab etiladi. Buning uchun esa shaxs va jamiyat e'tiboriga ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalaridagi reklama orqali hammabop va juda urf bo'lgan, deb hisoblanadigan “ommaviy madaniyat” tovarlari muttasil tarzda targ'ib etiladi.

Aksariyat mutaxassislar “ommaviy madaniyat”ning quyidagi asosiy yo'nalishlari va ko'rinishlarini qayd etishadi:

• **Bekor (ish bilan band bo'lmagan) vaqtni o'tkazish industriyasi.** U past didli, estetik saviyasi sayoz ommaviy iste'molchiga mo'ljallangan yengil-yelpi, sarguzasht adabiyot, komikslar, ko'ngilochar filmlar, shou industriyasining ko'plab yana boshqa turlarini o'zida qamraydi. Shou-biznesida asosiy e'tibor tomoshalarining tashqi effektlariga, demakki, olomonning yuzaki ko'z qarashiga yo'naltiriladi. Buning uchun mazmun-matarsiz "asarlar"ni usti yaltiroq, "jozibali" holatda taqdim etishga zo'r beriladi.

• **Soxta zamonaviy imijni shakllantirish industriyasi.** Bunga eng yangi urf – moda bo'lgan deb tanishtiriladigan, kishining tashqi ko'rinishi bilan bog'liq kiyim-kechak, soch turmagi, atir-upalar, zargarlik buyumlari, xonadon dizayni va bezaklari, avtomobillar, mototsikllar va boshqa son-sanoqsiz maishiy tovarlar kiradi. Bunday imij nufuzlilik, obro'lilik, zamonaviylik bilan aynanlashtiriladi, o'sha buyumlar qurshovida kechadigan hayot esa yoqimli, orom baxsh etayotgan xomtamalar bilan almashtiriladi. Buyumparastlik, o'zni hech kimnikiga o'xshamaydigan shakl-u shamoyilda namoyish qilish hayotning bosh maqsadiga aylantiriladi. Ana shunday yuzakilik, "originallik" "ommaviy madaniyat"ning tijorat maqsadlari yo'lida jamoatchilik fikrini chalg'itish va aldashiga imkoniyat yaratadi.

• **Ommaviy iste'molchilik talabini shakllantirish va rag'batlantirish tizimi.** Ushbu tizim reklama, moda hamda turli buyumlar, xizmatlar va hokazolar, hatto g'oyalar, dunyoqarashlar atrofida shov-shuv ko'tarish, ularga aksariyat ko'pchilikning diqqatini tortish, uzluksiz xarid va iste'mol qilishni rag'batlantiradigan, buni yashashning asosiy maqsadi darajasiga ko'taradigan boshqa vositalarni o'zida mujassamlashtiradi. Odamning kun tartibi uy – ishxona (yoki o'qish) – do'kon (bozor) orasida g'oyat tig'iz kechadiki, uning aql va tafakkuri ezgu kashfiyotlar izlash, topish hamda shundan zavqlanishiga o'rin qoldirmaydigan darajada band qilinadi.

• **Ommaviy axborot vositalari va Internet.** Ular – gazeta va jurnallar, televideniye va radio, Internetning tobora kengayib borayotgan bepoyon tizimidir. Mazkur tizim buyurtmachi – "ommaviy madaniyat" manfaatini ko'zlagan holda uning turli tovarlari va xizmatlari yuzasidan jamoatchilik fikrini shakllantirishga xizmat qiladi, bundan o'zi ham manfaatdor bo'ladi.

Ta'kidlanganidek, "ommaviy madaniyat"ning maqsadi insonning bo'sh vaqtini shunchaki to'ldirish, uning hordig'ini chiqarish bo'lmasdan, balki unda tuganmas va to'ymas iste'molchilik kayfiyatini rag'batlantirishdir. Bu esa o'z fikri va hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lmagan, o'zgalar tomonidan boshqarish oson bo'lgan shaxs, aniqroq aytganda, olomonning bir zarrasining dunyoqarashini shakllantirish maqsadini ko'zlash deganidir. Ana shunday shaxslarda endi san'at va adabiyot asarlariga tanqidiy yondashish, ularni ong va did elagidan o'tkazish layoqati kuzatilmaydi. Zero, ular mustaqil fikrlashga qodir emaslar, shunga ko'ra, o'rtamiyona, yengil hazm bo'ladigan, hamma uchun urf hisoblangan narsalar qarshisida tiz cho'kaveradilar.

"Ommaviy madaniyat" iste'molchisi, agar u yosh bo'lsa, shaxs sifatida shakllana olmaydi, agar katta yoshda bo'lsa, o'zi payqamagan holda shaxsiy qiyofasini yo'qota boshlaydi: unda individual mas'ullik hissi susayib ketadi, o'tkinchi hissiyot ong-tafakkurdan ustun kelishga boshlaydi, inson o'zini, xatti-harakatini nazorat eta olmay qoladi. Bunday kimsa mish-mishlarga ishonuvchan, reklamaga jon-dili bilan beriladigan, mashhurlarga ko'r-ko'rona taqlid qilishga intiladigan qiyofa kasb etadi. Shuning uchun bugungi vayronkor mafkuraviy xurujlar yuziga ko'pincha "ommaviy madaniyat" niqobini taqmoqda. "Ommaviy madaniyat" bu masalada shaxs

va jamiyatga o'ziga xos ta'sirli usullar bilan kuchli ma'naviy-mafkuraviy ta'sir o'tkazish tizimi vazifasini o'taydi.

Ma'naviy ta'sir ko'rsatilayotgan subyekt, yuzaki qaraganda, go'yo shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari, hatto manfaatlarini ko'zlab o'zi mustaqil harakat qilayotgandek tuyuladi. Aslida esa u o'ziga ta'sir o'tkazayotgan "ommaviy madaniyat" egalari maqsadlariga o'zi anglamagan holda xizmat qiladi. Chunki u o'ziga taqdim etilayotgan axborotning asl manbalaridan bevosita xabardor bo'lish imkoniyatidan mahrum va shu sababli ularni obyektiv baholashga qodir bo'lmaydi.

"Ommaviy madaniyat" tizimi orqali ommaviy iste'molchi ko'rinmas qo'llar, eshitilmas da'vatlar, ko'z ilg'amas yalovlar yordamida to'la-to'kis boshqariladi. Bunda boshqarish to'g'ridan-to'g'ri buyruq berilishi orqali emas, balki ommaviy kommunikatsiya texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Mazkur texnologiyalar ermak tamoyili asosiga qurilganligi tufayli ommaviy iste'molchiga hayotiy tajriba o'rniga "ommaviy madaniyat" vositalari taqdim etadigan soxta, sun'iy tajribani tutqazadi. [5]

Mafkuraviy xurujlarda ommaviy axborot vositalaridan faqat keng foydalanibgina qolinmasdan, ularning o'zlari ham bunday tahdidlar manbai bo'ladilar. Ana shu ma'noda ham axborot tahdidi keng ko'lamliligi bilan nihoyatda xavflidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvidagi ma'ruzasida yuqorida biz bir qism ta'rif-u tavsifini keltirganimiz xavfli tendensiyalarga javoban quyidagi qat'iy mulohazalarni bayon etdi: **"O'zbekistonda adabiyot va san'at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat va ma'rifat biznesga aylanmasligi shart va biz bunga hech qachon yo'l qo'ymaymiz"**. [6]

Modomiki shunday ekan, mamlakat aholisi, ayniqsa, yosh avlod ong-u shuuri, didi va axloqiga ta'sir ko'rsatuvchi sohalariga bo'lgan e'tibor va talab shunga yarasha qat'iy, qonuniy va samarali bo'lishiga erishish bo'lajak falokatlarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, yuqorida maqsad-mohiyati, yoyilish usul va uslublari tahlil etilgan "ommaviy madaniyat" tegirmoniga suv quyayotgan milliy tele va radiokanallar, sariq matbuot namunalari, qo'li bo'shki kimsalar tomonidan uyushtirilayotgan turli doiradagi shou-tomoshalar, avvalo, mutasaddi idora va tashkilotlar, qolaversa, keng xalq ommasi – jamoatchilik tomonidan jiddiy nazoratga olinishi, har qanday qonunbuzishlar, xalq ma'naviyatiga zid harakatlar tegishli bahosini olishi lozim. Chunki bu – bir guruh "san'at shaydolari"ning shaxsiy, "ijodiy" ishi bo'lmay, mamlakat va millatning madaniy, ma'rifiy, axloqiy xavfsizligiga daxl qiladigan, kelajak taqdirini o'zgartirib yuborishi mumkin bo'lgan xurujlar hisoblanadi. [7] Bu masalalarni o'zibo'larchilikka tashlab qo'yish, "menga nima" qabilida ish tutish vaqt o'tishi bilan tuzatib bo'lmaydigan muammolarni keltirib chiqarishi, bizning millat sifatida o'z qiyofamizni saqlab qolamizmi-yo'qmi, degan og'riqli savolning paydo bo'lishiga olib kelishi tayin...

Ko'rinadiki, yuqorida keltirilgan mulohazalar tanlangan mavzuning qanchalik dolzarbligi, ayni sohadagi muammolar amaliy yechimini kutayotganidan yana bir bor darak beradi. Qolaversa, axborotlashgan jamiyat fuqarolari sifatida istiqboli yorqin yo'li va insoniy e'tiqodini yo'qotmay yashashi talab etiladigan yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasini zamon talablariga mos tarzda tashkil etish, farzandlarimizda o'zlarining ong-u tafakkuri, dunyoqarashi va axloqiga ta'sir etadigan axborotlarni saralash ko'nikma-malakalarini shakllantirish mustaqil hayotimiz ravnaqining muhim shartidir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Сорокин П. А. Человек. Цивилизация. Общество. — М.: Политиздат, 1992. — С.31.
2. Ясперс К. Власть массы // Призрак толпы. — М.: Алгоритм, 2007.— С.63.
3. Ортега-и-Гассет. Запах культуры. — М.: Алгоритм, Эксмо, 2006. — С.24.
4. internetworldstats.com.
5. Назарко М. М. Массовая коммуникация в современном мире. Методология анализа и практика исследований / Ин-т социол. образования рос. центра гуманит. образования, Ин-т социологии РАН. – 3-е изд., стер. – М.: УРСС, 2003. – С. 239.
6. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust soni.
7. B. Umarov. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari. «Tafakkur» jurnali, 2/2007.
8. 7th International Conference «Central Asia – 2013: Internet, Information and Library Resources in Science, Education, Culture and Business» / 7-я Международная конференция.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE RENEWAL OF THE COHERENT CHARACTERISTICS OF TRUTH

Panjiyev Sukhrob

Termez University of Economics and Service,
Acting Associate Professor
of the Department of "Social Sciences" (PhD)
E-mail: suhrob.panjiyev@mail.ru

Abstract. This article examines the coherence theory of truth from the perspective of contemporary philosophical approaches. It focuses on the renewal of coherence characteristics, exploring how the criteria of consistency and logical harmony in determining truth have evolved. The study also considers various interpretations of truth across different historical and scientific contexts. The article highlights the relevance of the coherence approach in defining truth based on logical consistency and conceptual integration.

Keywords: truth, coherence theory, philosophy, logical system, consistency, contemporary approaches.

HAQIQATNING KOGERENTLIK XUSUSIYATLARINING YANGILANISHI

Panjiyev Suhrob

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b. dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada haqiqatning kogerentlik (moslik) nazariyasi zamonaviy falsafiy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Kogerentlik xususiyatlarining yangilanishi, ya'ni haqiqatni aniqlashda g'oyaviy va mantiqiy tizimlarning muvofiqligi qanday o'zgarayotganiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, haqiqatning turli zamon va ilmiy kontekstlarda qanday talqin qilinishi ko'rib chiqiladi. Maqola, mantiqiy yaxlitlik va izchillik asosida haqiqatni aniqlashda kogerentlik yondashuvining dolzarbligini yoritadi.

Kalit so'zlar: haqiqat, kogerentlik nazariyasi, falsafa, mantiqiy tizim, izchillik, zamonaviy yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N21>

Kirish. Haqiqatning klassik konsepsiyasining yo'nalishlaridan biri uni kogerent nazariya nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishdan iborat bo'lib, haqiqat haqidagi masalalarni kogerentlik muammolariga, ya'ni o'zaro kelishuvga, bilimlarni ziddiyatsizligiga borib taqaydi. Klassik nazariya to'qnash kelgan bilimlarni haqiqatga mos kelishini va bu moslik kriteriyalarini o'rnatishdagi qiyinchiliklar bu nazariyaning manbasi bo'lib xizmat qildi. Haqiqatning kogerent nazariyasining ikkita asosiy varianti mavjud. Ulardan biri, bilimlarning kogerentligi sifatida haqiqat tushunchasini kiritadi, u haqiqatning avvalgi tushunchasi o'rniga taklif etiladi. Boshqa variant, haqiqatning klassik talqinini saqlab qolsa-da, shu bilan birga haqiqatga bilimlarni mos kelishi faqat kogerentlik orqali o'rnatilgan bo'lishi lozim, u haqiqat kriteriysi sifatida ifodalanadi. Kogerent nazariyaning birinchi variantining asoschilaridan biri Kant hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kantning haqiqat muammolariga munosabatlari bir ma'nolilik va ketma-ketligi bilan farq qilmaydi. Bir tomondan, Kant o'zini haqiqatning

klassik konsepsiyasi tarafdori ekanligini tan oladi. Boshqa tomondan – tajriba natijalariga bilimlarni bir tomonlama mos kelishi mavjud emasligini, chunki tajribaning o'zi insonning mulohazalash faoliyati shakllariga bog'liq ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi. Shunday qilib, Kantga ko'ra, haqiqatning mazmuni va mohiyatini belgilab beradigan, hissiy va mantiqiylikning birligi, o'zaro kelishuv mavjud. Bu moment Kant falsafasida ustuvorlik qiladi, natijada Kantning kogerent nazariyaning asoschisi sifatida tan olinishini umuman olganda to'g'ri deb hisoblash mumkin [2].

XX asrda haqiqatning kogerent nazariyasi neopozitivizmning ba'zi bir vakillari tomonidan, masalan, O.Neyrat tomonidan qayta tiklandi. Nazariyaning kogerent neopozitivistik versiyasi, faqat metafizika gaplarni real olam bilan taqqoslay oladi degan fikrdan kelib chiqadi; pozitiv ilm–fan bir taxminni boshqalari bilan taqqoslay olishi lozim. O.Neyrat nomi bilan bog'liq bo'lgan haqiqatning kogerent nazariyasi versiyasi boshlang'ich neopozitivizm inqilobi oqibatidir.

Ilmiy bilimlar protokollari gaplarga – kuzatuvlar haqidagi gaplarga olib keladi. Bu talqin, R.Karnapga tegishli bo'lib, O.Neyrat tomonidan tanqid qilingan edi. U toza protokollari gaplar mavjud emas, deb ko'rsatadi. Bu gaplar haqiqiy va yolg'on bo'lishi mumkin. Agar biror–bir protokollari gap qonunni ifodalaydigan nazariy gap bilan to'g'ri kelmasa, Karnap fikricha, bu ziddiyatni yengib o'tishning yagona usuli qonunni o'zgartirishdan iboratdir.

Neyrat fikricha, bunday vaziyatda nafaqat qonundan voz kechish imkoni mavjud, balki protokollari gapdan ham voz kechish mumkin. Ilmiy bilimlarni haqiqiyliqi, Neyrat fikricha, bu bilimlar haqiqatga mos kelishida yoki bilimlarning boshqa bir qismiga mos kelishida emas, balki bu barcha bilimlar o'zaro kelishilgan sistemani tashkil qilishidadir. Aynan mana shu o'zaro kelishilganlik, yoki kogerentlik xususiyati referent hisoblanadi va haqiqat tushunchasi unga tegishlidir. Haqiqatning kogerentlik nazariyasining ikkinchi variantini manbasi sifatida eleatlar falsafasini hisoblash mumkin. Parmenid va Zenon haqiqat tushunchalarini bilimlarni haqiqatga mos kelishi sifatida qabul qilishgan. Lekin ular, bu moslikni kuzatuvlar yo'li bilan emas, bilimlarni ziddiyatsizligini aniqlash orqali isbotlash mumkin, deb hisoblashadi. Ziddiyatli g'oya real olamda referentga ega emas. Shu bilan birga, g'oyaning ziddiyatsizligi voqelikni real holatini to'g'ri yozilishini kafolatlaydi [3].

Shu ratsionalistik ko'rsatmalarga muvofiq, Parmenid tabiatda bo'shliqning mavjudligi haqidagi fikr yolg'on, ya'ni haqiqatga to'g'ri kelmaydi deb hisoblar edi. Agar biz fanoni real deb qabul qilsak, u holda u fano bo'lmay qoladi. "Fano" g'oyasini tasavvurlarda ifodalab bo'lmaydi, shuning uchun unga real olamda hech narsa mos kelmaydi. O'xshash sxemaga muvofiq, Parmenid shogirdi Zenon harakatlanish g'oyasining chinligini inkor etgan, chunki bu g'oya yechimi topilmaydigan ziddiyatlarga olib keladi. Bu haqiqatning kogerentlik nazariyasining varianti ba'zi zamonaviy faylasuflar va mantiqchilar tomonidan bir qancha modifikatsiyalangan ko'rinishda qabul qilingan. Ularga masalan, N.Resher kiradi.

Resher haqiqatning korrespondentlik nazariyasini inkor etmaydi, uni haqiqat ta'rifi haqidagi masalalarga javob tariqasida eng yaxshi tuzilgan, deb hisoblaydi. Shuning uchun haqiqat tushunchasi shu nazariya doirasida qanday belgilansa, shundayligicha qabul qilinishi mumkin. Lekin, bu nazariya haqiqat kriteriysi masalalarida qiyinchiliklarga duch kelganligi tufayli, u kogerent konsepsiyaga o'z o'rnini bo'shatib berishi lozim. Kogerent nazariyani ishlashini Resher quyidagicha tasavvur qilgan. Misol uchun, bizda M ta empirik mulohazalar mavjud. Mulohazalar o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin. Bunda ulardan birortasi haqiqiy bo'lishi

mumkin emas. U faqat haqiqiy mulohazalar uchun nomzod bo'ladi va o'zaro kogerentlik munosabatlari mavjud bo'lgan M to'plamdagi mulohazalarning N ta to'plamchasi uchungina haqiqiy mulohaza bo'la oladi. Kogerent nazariyaning maqsadi, haqiqiy mulohazalarni yolg'onlaridan farqlay olishdan iborat. Bu muammoning yechimi M to'plamdagi N ta to'plamcha kogerent mulohazalarni topishdan iborat. "Haqiqatga nomzodlar, – aniqlaydi Resher, – boshqa ko'p sonli empirik mulohazalar bilan mos kelishi tufayli haqiqat sifatida belgilanadi" [4].

Muhokama va natijalar. Empirik fanlarda qo'llaniladigan haqiqatning kogerent nazariyasini klassik nazariyaning raqobatchisi sifatida hisoblash mumkin emas. U klassik nazariyaning qiyinchiliklarini yengib o'tmasdan, uni yechimi yo'q muammolar bilan to'qnashtirib, battar qiyinlashtiradi. Biz ulardan ikkitasini belgilab o'tamiz: a) bu nazariya kogerentlik muammolarini mantiqan hal qilmoqchi. Lekin kogerentlik muammosi mantiqiy muammo sifatida juda murakkab. Uni faqat oddiy holatlarda hal qilish mumkin. Lekin u murakkab mantiqiy hisoblarda hal etib bo'lmaydi, ayniqsa fizika kabi fanda. B) kogerentlik mulohazalar sistemasini ichki xossasi sifatida ko'rib chiqiladi. Resher shunday yozadi: kogerent nazariyada ko'rib chiqilayotgan "Kogerentlik", bir mulohazalarni boshqalariga munosabatlari masalalariga tegishli, lekin reallik bilan yoki haqiqiylik faktlari bilan kogerentlik masalalariga tegishli emas. Lekin kogerentlikning bunday talqini doirasida bilimlarni ziddiyatsizligi qanday qilib ularni real olamga mos kelishini kafolatlaydi. Balki, ziddiyatsizlik sharti haqiqiylikning yetarlicha sharti bo'la olmas, chunki real olam haqidagi tasdiqlarning ziddiyatsiz sistemasining hammasi ham real olamga mos kelavermaydi. Undan tashqari, bu shartlar tabiiy fanlarga taalluqli bo'lib, masalan, fizikaga, har doim ham kerakli bo'lavermaydi. Biror nazariyaning ziddiyatliliigi uning yolg'onligidan darak bermaydi. U haqiqiy nazariya boshidan kechirayotgan vaqtinchalik qiyinchiliklarning ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, haqiqatning kogerent nazariyasi tarafdorlari haqiqatning klassik konsepsiyasi to'qnash kelgan qiyinchiliklardan qutulish uchun kogerentlikka murojaat qildilar. Lekin ular tanlagan yo'l yanada kattaroq qiyinchiliklarga ega edi.

Haqiqat yoki yolg'onni aniqlash cheklangandir. Masalan, gapning ma'nosi va fikri orasidagi farqni aniqlab olish shunday gaplar ham bo'lishi mumkin ekanki, ularda fikr mavjud, lekin referent bo'lmaydi, deb tasdiqlashga imkon beradi. Bunday gaplarni biror tashqi reallikka taqqoslab (solishtirib) bo'lmaydi, binobarin korrespondentlik nazariyasiga ko'ra ularning haqiqiylikni ham, yolg'onligi ham aniqlab bo'lmaydi. Bunday gaplarga yozuvda qo'shtirnoq ichiga olinadigan bilvosita nutqni misol qilib ko'rsatish mumkin, ularda predmetlar to'g'risida emas, so'zlar, boshqa gaplar ifodalangan bo'ladi. Bunga o'xshash gaplarda biz «belgilarning belgilari» bilan ish ko'ramiz, ularda faqat fikr saqlanadi-yu, ma'no bo'lmaydi. Biz bunday gaplarni ularda mavjud bo'lgan fikrga ko'ra tushunishimiz mumkin, biroq referenti bo'lmagani uchun ularning haqiqiy yoki yolg'onligini tasdiqlay olmaymiz.

Referensiya tushunchasi tobora qat'iylashib borgani sari haqiqiymi yoki yolg'onni deb qaralishi mumkin bo'lgan gaplar doirasi ham torayib boradi. B.Rassel bu doiradan barcha fikrsiz gaplarni, yoki fikr bor, lekin aniq ifodalangan referenti bo'lmagan gaplarni chiqarib tashlashni tavsiya qiladi [8]. Albatta, shubhasiz qolgan gaplar bazis «atomar gaplar» to'plamini tashkil qiladi. Bunday gaplar doirasiga aniq ifodalangan referentlari bor gaplarga kiradi, shuning uchun ularning haqiqiylik yoki yolg'onligi klassik yo'l bilan, ya'ni ularni qandaydir elementar referentlarga – «atomlar faktlar»ga nisbat berib (muvofiqlash yo'li bilan) aniqlanishi mumkin.

Eng sodda gaplardan murakkab, «molekulyar gaplar» tuzilishi mumkin, bularning haqiqiyliги «atomlar» gaplarga sintaksis munosabatlariga qarab aniqlanadi. «Molekulyar gaplarning haqiqiyliğini aniqlash (verifikatsiya qilish) uchun ularni har biri o'zi anglatadigan faktlarga taqqoslanishi mumkin bo'lgan «atomlar gaplar»ga ajratiladi.

«Atomlar gaplar» va «atomlar fakt»larni o'zaro muvofiqligini aniqlash haqiqatni yakuniy (nihoyaviy) verifikatsiya (tasdiqlash) qilish bo'ladi. Bunda Rassel haqiqiylik munosabatini sababiylik munosabatiga yaqinlashtiradi. U shunday mulohaza qiladi: «Bu A dir» degan tipdagi gap «A ni bildirgani tufayli shunday», ya'ni fakt bo'lgani uchun shundayligini bildiradi haqiqiy sanaladi [8]. Bu yerda «fakt» deb mantiqdan tashqari, biz uni shunday deb qabul qilamizmi, yo'qmi qat'iy nazar mavjud bo'lgan bir narsa tushuniladi. Rassel bu tushunchaga juda keng ma'no berib, uni biror ahvol (sharoit) yoki voqea tushunchasiga tenglaydi.

Rasselning «atomlar faktlar» nazariyasini o'zining «mantiqiy – falsafiy traktat» asarida Vitgenshteyn rivojlantiradi. Olamni u «faktlar to'plami, majmui» deb tushunadi, bu elementar faktlarga to'g'ri keladigan haqiqiy gaplarni to'la majmui olam to'g'risidagi haqiqiy bilimning mutlaqo to'liq manzarasidir. To'g'ri, verifikatsiya qilinadigan (haqiqiy yoki yolg'on deb ajratiladigan) gaplar ro'yxatiga ma'nosiz iboralar, bilvosita gap iborolari va umuman referentlari bo'lmagan (shu qatorda falsafaning mazmunini tashkil qiluvchi barcha gaplar) gaplar kirmaydi. Lekin bu ro'yxatga kiradigan elementlar gaplarning haqiqiyliги yoki yolg'onliги nihoyatda qat'iy va bir qiymatli aniqlanishi mumkin.

«Mantiqiy atomizm» strategiyasining mohiyati quyidagicha. Faraz qilaylik, olamning obrazini oppoq tekislikka noto'g'ri shakldagi qora dog'lar bir tekis bo'lmagan holda sachratilgan ko'z oldimizga keltiraylik. Bunday tekislikni yoki uning bir bo'lagini aniq va to'liq tasnifini berish ancha qiyin. Biroq tekislikni ko'plab kichik yacheykalarga bo'lib tashlasak, ularning har biri to'g'risida u qora yoki oq ekanligini mutlaqo aniq aytish mumkin. Natijada «agar barcha elementar gaplar berilgan hamda ulardan qaysi biri haqiqiy, qaysi biri yolg'on ekani ko'rsatilgan bo'lsa, olam to'liq holda tasnif qilinishi mumkin» [5].

Korrespondentlik nazariyaning biz yuqorida bayon qilgan modifikatsiyalari u yoki bu darajada haqiqiy mulohazalar referensiyasi muammosi atrofida guruhlariga ajraladi. Rasselning ko'rsatishicha, bizning gaplarimizni haqiqiy qiladigan voqealarni identifikatsiya qilish – bu sof grammatika masalasi emas. «Venera mavjuddir» degan gapni «tonggi yulduz – kechki yulduzning o'zi» degan haqiqiy ayniy gap bilan verifikatsiya qilinishi mumkin. Agar Veneraning mavjudlik faktini tongi va kechki yulduzning ayniligi verifikatsiya qilsa u holda gap voqealar haqida balki boshqa turdagi faktual mohiyat haqida boradi. Bu yerda narsalar, faktlar qandaydir mantiqdan tashqari komplekslardir deb faraz qilishga to'g'ri keladi va Rassel o'zining keyingi ishlarida faktlar – o'ziga xos metafizik mohiyatlardir, deb tan olishga majbur bo'lgan edi.

Frege haqiqiy fikrni fakt deb atagan edi. Fikr bu o'ylash natijasida paydo bo'ladi. Agar biz R deb o'ylasak, bu degani R- fikr va shu bilan birga, faktdir. Biroq haqiqat bu fikrlanayotgan va qandaydir boshqa, «R ni» tasdiqlovchi orasidagi munosabatdir. U holda fikr qilinayotgan narsa faktdan nimasi bilan farq qiladi va nimalari bilan ular muvofiq kelishini aniqlashga to'g'ri keladi. Biroq, elementar gaplarni obyektiv dunyosining biror fazo – vaqtli faktlari bilan taqqoslashda biz yuqorida ko'rsatib o'tgan fikr qilinayotgan va moddiy narsaning turli – tuman ekanligidan iborat muammo yuzaga keladi.

Falsafada haqiqatning kogerentlik nazariyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bilim va uning predmeti prinsip jihatidan turli – turli narsalar ekanini O.Neyrat yechishga urindi. U bilish munosabati – bu korrespondensiya (tashqi narsaga nisbatlash) emas, kogerensiya (ichki muvofiqlik) deb faraz qildi. U Arastuning haqiqatni klassik talqin qiluvchi muvofiqlikdan voz kechishni taklif qiladi va Leybnisning haqiqiy bilimning ichki ziddiyatsizligi to'g'risidagi g'oyalariga tutashadigan g'oyani ilgari suradi [10].

Haqiqatlikka da'vo qilinadigan mulohaza uning o'zining tabiatidan boshqacha tabiatli qandaydir bo'lmasin mohiyatlar bilan taqqoslanmasligi (solishtirilmaligi kerak. Mulohaza faqat mulohaza bilan «taqqoslanishi mumkin, kechinmalar» bilan ham, «dunyo» bilan ham va yana nimalar bilan ham taqqoslanmasligi kerak. Har qanday yangi ibora tasdiqlanib bo'lgan da'volarning butun kompleksi bilan butun mavjud bo'lgan bilim sistemasi bilan solishtirilishi kerak. Sistemaning ichki bog'langanligi, ziddiyatsizligi (kogerentligi) kriteriysi bu sistemani tashkil qilgan har bir sistemaga tegishli fikrga ham, bir butun sistemaning o'ziga ham yagona kriteriydir.

Umuman olganda o'z ichida muvofiqlashgan «kogerent» bilim sistemasi haqiqat tushunchasi nisbat qilinadigan sistemadir. Bu yerda kogerensiya nazariyasi klassik korrespondentlik nazariyasiga o'xshaydi. Biroq bu yerda ziddiyatlarni bartaraf qilish «sistemaga yangidan kiritilayotgan da'voni o'zgartirish yoki rad etish hisobigagina bajarilmaydi. Avval qaror topgan sistemaning o'zini ham o'zgartirish mumkin.

Kogerentlik – korrespondensiyaning xususiy holdir. Masalan, haqiqatning kogerent nazariyasini taklif qilar ekan, uning yordamida Neyrat klassik nazariyaning referent munosabatlar mohiyatini aniqlash bilan bog'langan paradokslarni bartaraf etishni ko'zda tutgan edi. Biroq bu yerda ham o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi, kogerensiyaning o'zi esa yaqindan o'rganilganda odatdagi Arastu korrespondensiyasiga yaqin ekan.

Kogerensiya nazariyasiga muvofiq «fakt» — bu biluvchi subyektning haqiqiy deb tan olgan narsalaridir. Bunda subyektning mavjud bo'lgan ishonchlari sistemasi (birgalikdagi) ichki kelishilgan sistema deb qaraladi. Biroq ishonchlar sistemasi turli odamlarda turlicha bo'lib, muvofiqlanmagan bo'lishi ham mumkin. Bunda shunday savol kelib chiqadi, haqiqatlikka da'vo qilinayotgan sistemalardan qaysi biriga nisbatlanadi? Agar bu qiyinchilikni ilmiy bilim sistemasining intersub'yektivligiga tayanib bartaraf etish mumkin bo'lsa, «da'vo – holda qanday bo'ladi? Muvofiqlik bo'lmaganda nimani o'zgartirish kerak bo'ladi, va eng asosiysi, uni bartaraf qilishda nima «hal qiluvchi» o'rin egallaydi.

R.Karnap bunday hal qiluvchi o'rinni imtiyozli «hisobot» yoki «protokol» (bayoniy) gaplar guruhiga berishni taklif qiladi, qolgan boshqa gaplar ana shu gaplarga muvofiqlashishi kerak. Biroq Karnapning fikriga ko'ra, kuzatishlarni bayon qiluvchi bunday gaplar nazariy qurilmalarni haqiqatligini aniqlovchi ishonchli kriteriy bo'la olmaydi, chunki kuzatish natijalarining o'zi nazariyaga bog'liq bo'ladi [6].

Bu muammoni yechishning boshqa yo'li eleatlar falsafasiga borib taqaladi, ular nimaniki mulohaza qilishda ziddiyat bo'lmasa, u borliq bo'la olmaydi, deb tasdiqlar edilar. Masalan, borliqmaslik g'oyasining o'z – o'ziga zidligidan Parmenid shunday xulosa qiladi: borliqmaslik haqidagi fikrning referenti yo'q, shuning uchun u noto'g'ri (yolg'on) fikrdir. XX asrda amerikalik faylasuf N.Resher Parmenid fikrining bir muncha modifikatsiyalangan variantini beradi: u da'voning (gapning) haqiqiy bo'lishini tekshirish kriteriysi sifatida o'zaro kogerentlik munosabatlarining kengligini, ya'ni haqiqiylikni da'vo qilayotgan iloji boricha ko'p sondagi

empirik mulohazalarga muvofiq kelishini ilgari suradi. Biroq bunda Resher o'z konsepsiyasiga ko'ra, kogerentlik faqat bir gapning boshqasiga munosabati bilan aniqlanadi desa-da, bu konsepsiya asosida Parmenidning o'z – o'ziga zid fikr haqiqiy bo'la olmaydi, chunki uning referenti yo'q degan g'oyasiga tayanadi [7].

Falsafada haqiqatning semantik nazariyasi ham muhim o'rinni egallaydi. Jumladan, A.Tarskiy tomonidan ishlab chiqilgan, u asosan «yolg'onchi paradoks»ni bartaraf qilishga qaratilgan. Shuni aytish kerakki, Tarskiy nazariyasi umumfalsafiy bo'lishdan ham ko'ra maxsus mantiqiy nazariyadir, unda haqiqat sohibi gapda ifodalangan mulohaza bo'ladi [9]. Gapga ikki xil yo'nalishda qarash mumkin: muayyan ma'noni tashuvchi va “o'z o'zining nomini ifodalovchi”. Mantiqda bu narsa atamani esga tushirish yoki undan foydalanish orasidagi farqqa mos keladi. Esga tushirish – atamani o'zining o'z nomi sifatida ishlatishdir; foydalanish – bu atamani real dunyoga biron voqeani belgilash uchun ishlatish. Masalan, «qor — oq» («qor — oq») qorning oqligini tasdiqlovchi gapga tegishli, ikkinchisi (qor-oq) qorning o'ziga tegishli va uning aynan oqligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, mazkur konkret holga qo'llaydigan bo'lsak, haqiqatni aniqlash shunday yozilishi mumkin: «qor — oq» haqiqiy mulohaza, agar va faqat «qor — oq» bo'lsa, yoki umumlashgan shaklda «R» — haqiqiy, agar va faqat R bo'lsa».

Bu ta'rif haqiqatning muvofiqlik klassik konsepsiyasini intuitiv tasavvurining mantiqiy eksplikatsiyasi, aniqlanishidir. Keyingi qadam «yolg'onchi paradoks» singari semantik paradokslarning yuzaga kelishi imkoniyatini bartaraf qilishdir. Tabiiy tilda mazmunli ifodalar, bu ifodalarning nomlari va ularning semantik xarakteristikalarini («haqiqiymi» yoki «yo'qmi») teng asoslarda qo'llaniladi, va bu narsa o'zi referent bo'lgan gaplarning paydo bo'lishiga, ularning semantik paradokslarni yuzaga keltirishiga olib keladi.

O'z – o'zidan referentlik hodisasini yo'qotish uchun Tarskiy obyektlar haqidagi mulohazalarni bu mulohazalarning haqiqiylik shartlari haqidagi mulohazalardan (gaplardan) farq qilishni tavsiya qildi. Obyektlar haqidagi mulohazalarni alohida formallashtirilgan «obyektga xos til»da olib borish kerak, bu tilning lug'atiga o'z – o'zidan referent mulohazalarning paydo bo'lmasligi uchun semantik munosabatlarni xarakterlovchi gaplar ham, atamalar ham kirmasligi kerak. Obyektga xos til iboralarining haqiqiylik shartlarini alohida «metatil»da muhokama qilish kerak, bu til endi butun obyektga xos tilni, undagi gaplarning nomlari, va atamalarini o'z ichiga olishi kerak, chunki ular «faktlarga muvofiq», «haqiqiy», «yolg'on» va shu kabi semantik munosabatlarni bildiradi.

Bir tilda belgilangan (metatilda) shakllangan haqiqiylik shartlarini aniqlash boshqa til (obyektivlik tili) dagi iboralarining haqiqiylikni aniqlash uchun qo'llaniladi. Ana shu yo'l bilan aniqlangan haqiqiylik boshqa biror tilda emas, aynan obyektivlik tilidagi haqiqat bo'ladi. Obyektivlik tilining metatildan ajratilishini hisobga olib, haqiqatni semantik aniqlash shakli biz yuqorida ko'rgan: «Obyektga xos tilda» «R» haqiqiy, agar va faqat R bo'lsa» ko'rinishiga keladi.

Bugungi texnologiyaning rivojlanishi tufayli his-tuyg'ularni qanday qilib “tashqi dunyo» yoki «materiya»siz juda real tarzda boshdan kechirish mumkinligi haqida turli xil misollar mavjud. Xususan, so'nggi yillarda shakllangan “virtual voqelik” tushunchasi bu borada ancha ishonchli dalillarni keltirmoqda.

Virtual haqiqat, eng oddiy ko'rinishida, kompyuterda “haqiqiy dunyo” sifatida jonlantirilgan uch o'lchamli tasvirlarni ayrim qurilmalar yordamida odamlarga ko'rsatishdir. Bugungi kunda ko'plab sohalarda turli maqsadlarda qo'llaniladigan ushbu texnologiya «sun'iy haqiqat», «virtual olamlar», «virtual joylar» deb ham ataladi. Virtual haqiqatning eng muhim

xususiyati shundaki, odam maxsus vositalardan foydalangan holda ko'rgan narsasini haqiqat deb o'ylaydi. Shu sababdan so'nggi yillarda virtual reallik iborasining inglizcha ekvivalenti boshida "immersive" so'zi ham qo'llanilmoqda va bu so'zning ma'nosi "immersion"dir.

Virtual dunyoni yaratish uchun zarur bo'lgan vositalarda ishlatiladigan tizim beshta sezgimiz uchun ishlatiladigan tizimdir. Misol uchun, foydalanuvchi qo'lga kiygan qo'lqop ichidagi mexanizmning ta'siri tufayli barmoq uchiga ba'zi signallar beriladi va bu signallar miyaga uzatiladi. Miya bu signallarni ajratganda, bu odam atrofida bo'lmaganida, ko'tarilgan naqshli, yuzasida ko'plab chuqurchalar va o'simtalar bo'lgan shoyi yoki guldonga tegayotganini his qiladi.

Virtual haqiqatdan foydalanishni boshlagan muhim sohalardan biri bu tibbiyot sohasidir. Michigan universitetida ishlab chiqilgan texnika bilan tibbiy nomzodlar va ayniqsa tez yordam xodimlari sun'iy operatsiya xonasida o'qitiladi. Ushbu ilovada xonaning pol va devorlarida operatsiya xonasi tasvirlari, operatsiya xonasining markazida esa operatsiya stoli va "bemor" tasvirlangan. Shifokor nomzodlari uch o'lchamli ko'zoynak taqib, ushbu virtual bemorni operatsiya qilishni boshlaydilar. Keyingi sahifadagi rasmlardan ma'lum bo'lishicha, bu rasmni ko'rgan odam qaysi biri haqiqiy, qaysi biri virtual ekanligini ajrata olmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, haqiqatni semantik aniqlashning asosiy natijasi uning korrespondentlik nazariyasidagi «yolg'onchi paradoks»ni yo'qotishga xizmat qildi va bunda biror tildagi iboralarning haqiqiyliги muammosini aynan shu til doirasida yechish mutlaqo mumkin emasligini mantiqiy isbotlash bo'ldi. Biroq haqiqat nazariyasidagi boshqa muhim muammoni – cheksizlikka regress muammosini semantik nazariya bartaraf qilmaydi, biroq uni birmuncha boshqa shaklga keltiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov. I.A. O'zbekiston XXI bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T: "O'zbekiston" nashr, 1997. – 113 b.
2. Karimov.I. O'zbekiston XXI bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: "O'zbekiston" nashr., 1997. – B. 112-113.
3. Panjiyev, S. (2022). The relevance of the philosophical comprehension of truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(12), 195-197.
4. Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. – М., 1989. – С.136.
5. Витгенштейн Л. Логико – философский трактат. // Витгенштейн Л. Философские работы. Ч.1.М., 1994. – С. 30.
6. Карнап Р. Значение и необходимость. Исследование по семантике и модальной логике. М. ЛКИ 2007г. 384 с.
7. Поппер К. и др. Эволюционная эпистемология и логика социальных наук: Карл Поппер и его критики. / Пер. с англ. - М.: УРСС, 2000. – С. 464.
8. Рассел Б. Человеческое познание, его сфера и границы. - М.: Институт общегуманитарных исследований, 2001. – С.56.
9. Тарский А. Понятие истины в языках дедуктивных наук // Философия и логика Львовско-Варшавской школы. М.: РОСПЭН, 1999.
10. Хайдеггер М. Учение Платона об истине // Историко-философский ежегодник. 1986. М.: Наука, 1986. С. 255—275.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

HEALTHY LIFESTYLE AS AN OBJECT OF SOCIAL-PHILOSOPHICAL RESEARCH

Gadoeva Lobar Ergashevna

Bukhara State Medical Institute

PhD Associate Professor, Department of Social Sciences

Abstract. We know that in modern life, the formation and observance of a healthy lifestyle is one of the most important factors in maintaining human health. Factors such as technological development, accelerated urbanization, changes in food culture, and decreased physical activity have a negative impact on the human body. This article reveals the essence of the concept of "Lifestyle", its internal and external signs, sociodynamic and functional characteristics, and its dialectical relationship with other social events.

Keywords: multifunctional, substantial characteristics, lifestyle, hypothetical assumption, sign of maturity, standard of living.

IJTIMOIIY-FALSAFIY TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI

Gadoeva Lobar Ergashevna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi PhD dotsenti

Annotatsiya. Yaxshi bilamizki, hozirgi zamon hayotida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va unga rioya qilish inson salomatligini saqlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Texnologik rivojlanish, shaharsozlikning jadallashuvi, ovqatlanish madaniyatidagi o'zgarishlar hamda jismoniy faollikning kamayishi kabi omillar inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada "Turmush tarzi" tushunchasining mohiyati, ichki va tashqi belgilari, sotsiodinamik va funksional xususiyatlari, boshqa ijtimoiy voqealar bilan dialektik aloqalari haqidagi ma'lumotlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: polifunksional, substansional xususiyatlar, turmush tarzi, gipotetik taxmin, yetuklik belgisi, turmush darajasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N22>

Ijtimoiy voqea va hodisalar keng qamrovli, polifunksional hamda dinamik xarakterga ega bo'lgani uchun ularni ilmiy tadqiqot maqsadiga muvofiq substansional xususiyatlari, ichki va tashqi aloqalari, o'tmishda va kelajakda namoyon bo'lishi, boshqa voqea va hodisalarni ergashtirib kelishiga ta'siri kabi jihatlarini hech bo'lmaganda xayoliy tasavvur va gipotetik taxmin tarzida oldindan ko'ra bilish talab etiladi. Bu murakkab vazifa esa eng avvalo tadqiqot obyektni aniqlash va unga ilk ta'rif berishni taqozo etadi. "Turmush tarzi" tushunchasining mohiyati, ichki va tashqi belgilari, sotsiodinamik va funksional xususiyatlari, boshqa ijtimoiy voqealar bilan dialektik aloqalarini tadqiq qilinadi. Zamonaviy dunyoda deyarli hech kim o'z hayotini jismoniy faoliyatsiz tasavvur qila olmaydi. Bu juda yoshlikdan boshlanadi va ko'p odamlar, agar ular sport bilan shug'ullanmasa ham, sportni tomosha qilishni yaxshi ko'radilar. Afsuski, ko'p odamlar ertalab oddiy kundalik mashqlar muhimligini tushunmaydilar. Yuqori

texnologiyalar dunyosida odam aqliy mehnat bilan shug'ullanadi, umuman harakat qilmaydi va jismoniy faoliyatni unutadi. Juda oz sonli odamlar jismoniy faollik insonning psixologik holatiga ta'sir qilishini, shu bilan stress darajasini pasayishini, samaradorligini oshirishini va muhim masalalarga diqqatini jamlashga yordam berishini tushunishadi. Aksariyat odamlarning harakatsiz turmush tarzi insonning psixologik va jismoniy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Jismoniy madaniyat odamlarning hayotida muhim o'rin tutishini odamlarga yetkazish kerak. Bugungi kunda bu dolzarb muammo. Inson salomatligi bu – eng avvalo, uning ruhiy va fiziologik sifatlarini rivojlantirish, umrining maksimal davomiyligida maqbul darajadagi ishchanlik qobiliyati va ijtimoiy faolligini saqlab qolishdan iboratdir. Ko'pgina olimlarning fikricha, inson organizmining funksional imkoniyatlari va uning tashqi muhitdan bo'ladigan noxush omillarga barqarorligi butun umri davomida o'zgarib turadi, negaki, salomatlikni saqlash, jo'shqin jarayon bo'lib, u yosh, jins, kasbiy faoliyat, yashash muhitiga bog'liq holda yaxshilanib boradi. Odam hayoti, sog'lig'i — eng katta ijtimoiy boylikdir. Bu oila, maktab va inson tarbiyasi, kamoloti bilan shug'ullanuvchi boshqa maskanlar oldiga sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Millat sog'lig'i ham tabiiy ravishda, sog'lom turmush tarzi orqali hal etiladi. Salomatlik — inson organizmining biologik, ruhiy, jismoniy holatlari va mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligidir. Sog'lom turmush tarzi — bu haqiqiy muhitda (tabiiy, texnogen, ijtimoiy) va faol uzoq umr ko'rishda jismoniy, aqliy, shuningdek ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydigan inson xatti-harakatlarining individual tizimidir. Sog'lom turmush tarzi fiziologik va ruhiy jarayonlarning normal rivojlanishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi, bu esa turli xil kasalliklarning paydo bo'lish ehtimolini kamaytiradi, insonning umr ko'rish davomiyligini oshiradi. Sog'lom turmush tarzi bizning maqsad va vazifalarimizni bajarishda, rejalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshirishda, qiyinchiliklarga dosh berishda yordam beradi. Insonning o'zi tomonidan saqlanib turiladigan va mustahkamlanadigan sog'liq unga uzoq hamda quvonchli hayot kechirishga imkon beradi. Sog'liqni saqlash har bir insonning va umuman butun jamiyatning bebaho boyligidir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish bola tug'ilishidan boshlanishi kerak. Sog'lom turmush tarzi — bu sog'lom bo'lish, shuningdek turli kasalliklarga chalinish, baxtsiz hodisalarning oldini olishga yordam beradigan omildir va bunga o'smirlik davridan qattiq amal qilish joizdir. "Sog'liqni yoshlikdan asra!" — bu maqol chuqur ma'noga ega. Inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar: kun tartibiga qat'iy rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish, chiniqish, sport, kattalar, ota-onalar va do'stlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishdir. Salomatlikka xavf soluvchi omillarga: kam harakatlik, tartibsiz ovqatlanish, chekish, alkogolli ichimliklar, giyohvand va boshqa toksik moddalar qabul qilish, uyda, maktabda, do'stlari bilan bo'lgan hissiy va ruhiy stress, shuningdek ekologik xavf omillari kiradi. Oddiy qoidalarga rioya qilish, sog'lom turmush tarzini olib borish, sog'liqqa oid maqolalarni o'qish va ularning tavsiyalariga amal qilish orqali biz qator sog'liq bilan bog'liq jiddiy muammolaridan, hattoki saraton kabi kasalliklardan saqlanishimiz shuningdek shunchaki hayotimizni bir necha yilga uzaytirishimiz mumkin. Sog'lom bo'lishni istamaydigan insonning o'zi yo'qdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Nizomida salomatlik bu nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki jismoniy, ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy farovonlik holati hamdir deb ta'kidlangan. Afsuski zamonaviy hayot ritmida insonlar sog'ligiga e'tibor berishga vaqt ajrata olmaydilar. Shuning uchun hammamiz jamiyatda qanday yashash va o'zini tutish haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lishimiz kerak.

Turmush tarzi inson hayoti va insoniyat mavjudligining, borlig'ining asosiy ko'rsatkichidir. Hatto aytish mumkinki, turmush tarzi orqaligina inson boshqa mavjudotlardan farq qiladi. Shu nuqtai nazardan turmush tarzi qadimdan kishilik jamiyati bilan birga mavjuddir. Biroq turmush tarzini ijtimoiy hodisa va ilmiy kategoriya sifatida o'rganish o'tgan asrning 60-70 yillarida boshlandi. Turmush tarzini shaxs va ijtimoiy munosabatlarni, jamiyat o'rtasidagi aloqalarni, dialektik bog'liqlikni ifoda etuvchi hodisa sifatida qarash zarurati vujudga keldi. Turmush tarzi eng avvalo shaxs hamda ijtimoiy shaxs hayotini ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy tushunchadir. Turmush tarzini ijtimoiy-falsafiy kategoriya va hodisa sifatida qarash doimo tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etib kelgan. Natijada, turmush tarziga oid turli ilmiy-nazariy konsepsiyalar va fanning turli sohalari nuqtai nazaridan yondashuvlar shakllandi. Jismoniy faollik har qanday yoshda mutlaqo zarurdir. Bolalarni tarbiyalashda asosiy qism jismoniy madaniyatga beriladi. Bolalarda vosita yukining yetarli emasligi noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, immunitetning pasayishi, sog'liq muammolari, past jismoniy va aqliy faoliyat kabi. Bu juda muhimdir, chunki zamonaviy dunyoda turli xil kasalliklarga chalingan bolalar soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Qarilik davrida jismoniy tarbiya gipokineziya tufayli vujudga keladigan turli xil buzilishlarni bartaraf etishga yordam beradi. Ya'ni, sog'lom turmush tarziga rioya qilmaydigan odamlar, ya'ni chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilish, ovqatlanish qoidalariga rioya qilmaslik, ularda erta qarish belgilari mavjud. Aynan jismoniy tarbiya inson umrini uzaytirishi mumkin. Sport kiyimlari aholining o'lim darajasi bilan bevosita bog'liqligi ilmiy jihatdan isbotlangan. O'rtacha jismoniy faollik — bu turli xil kasalliklardan va erta o'limdan himoya qilishdir. Mutlaqo har bir inson, keksalik boshlanganda, jismoniy shaklini ko'proq yo'qotishini tushunadi. Bu, asosan, organizmning umumiy resurslarining tugashi va uning yoshga bog'liq ravishda qayta tuzilishi tufayli vosita harakati darajasining pasayishi bilan bog'liq. Sog'lom turmush tarzi bugungi kunda ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar muhokamasining markazida turadi. Ushbu mavzu, inson salomatligi va yaxshi hayot kechirish uchun zarur bo'lgan asosiy komponentlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Sog'lom turmush tarzi nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ma'naviy salomatlikni ham o'z ichiga oladi.

Sog'lom turmush tarzi insonning umumiy sog'lig'i va hayoti davomida sog'lom qarorlar qabul qilishini ta'minlaydi. Bu tarzlar, organizmning ichki jarayonlarini me'yorda saqlashga, stressni kamaytirishga va hayot sifatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, sog'lom ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish va yetarli dam olish kabi faktlar bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Sog'lom ovqatlanish sog'lom turmush tarzining ajralmas qismidir. Ozuqa moddalari va vitaminlarning yetarli darajada olish, tananing normal ishlashi uchun zarur. Ushbu jihat, nafaqat jismoniy faoliyatni, balki ruhiy salomatlikni ham qo'llab-quvvatlaydi. Sog'lom oziqlanish odatlari yaratish, avvalambor, oilada va jamoada tarbiyalanishi kerak. Jismoniy faoliyat, sog'lom turmush tarzining asosiy komponentlaridan biridir. Kun davomida faol bo'lish, tananing qoniqlanishini va salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Sport bilan shug'ullanish, nafaqat jismoniy sog'likni, balki ijtimoiy hayotni ham rivojlantiradi. Bu insonning o'zini ishonch hissini mustahkamlaydi va stressni kamaytiradi. Sog'lom turmush tarzi psixologik salomatlik bilan ham chambarchas bog'liqdir. Stressni boshqarish, o'zini anglash va hissiy muvozanatni saqlash bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Psixologik salomatlik yaxshi munosabatlarga, shuningdek, umumiy ruhiy holatga ta'sir qiladi. Bunga ongli yondashuv, meditatsiya va psixologik yordam ko'rsatish orqali erishish mumkin.

Sogʻlom turmush tarzi — bu nafaqat jismoniy sogʻlik, balki maʼnaviy farovonlikning ham asosidir. Ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar buni tasdiqlamoqda. Aholida sogʻlom turmush tarzini ragʻbatlantirish, kelajak avlodlarining salomatligi va hayot sifatiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Har bir inson, sogʻlom hayot kechirish uchun oʻzini tarbiyalab borishi va shaxsiy masʼuliyatni his qilishi muhimdir.

Turmush tarzini ijtimoiy-siyosiy hayot, shaxs faoliyati va hayotining “yetuklik belgisi” koʻrsatkichi sifatida qarash mavjud yondashuvlarni boshlab berdi. Keyinchalik ushbu yondashuv mehnat jamoalaridagi ijtimoiy-siyosiy faollikni ham turmush tarzi sifatida qarashga olib keldi. Bunday yondashuvga asoslanib, B. A. Babin “mehnat jamoalari aʼzolarining ijtimoiy-siyosiy faolligida kommunistik oʻzini oʻzi boshqarish kurtaklari mavjud. Agar raqamlar orqali ifodalansa, ular sotsialistik turmush tarzini modellashtirish uchun zarur koʻrsatkichlar boʻlishi mumkin” — degan xulosaga keladi [1, 84-bet]. Bu oʻrinda turmush tarzini ijtimoiy-siyosiy tuzum maqsadlariga muvofiq talqin etish koʻzga tashlanadi. Agar xorijda turmush tarzini “turmush darajasi”, “turmush sifati”, “hayot sifati” kabi ijtimoiy-falsafiy va ekzistensial kategoriyalar orqali tadqiq etishga intilsa, oʻsha sobiq sovet ittifoqida turmush tarzi “sotsialistik turmush tarzi” sifatida talqin etildi va unga ijtimoiy-siyosiy urgʻu berildi. Jumladan I. V. Bestujev-Lada turmush tarziga sotsiologik yondashuvni keng miqyosda amalga oshirdi va bu borada koʻp asarlar chop ettirdi. U oʻzining mavzuga oid maqolasidayoq turmush tarzini oʻziga xos boʻlgan inson hayoti, shaxsi, yashash muhiti, oilasi, madaniy qiziqishlari bilan bogʻliq ijtimoiy-falsafiy hodisa, kategoriya sifatida qarash zarurligini taʼkidlaydi [2, 15-bet]. Toʻgʻri, muallif turmush tarzida ijtimoiy-siyosiy tuzum taʼsiri borligini inkor etmaydi, shu boisdan sotsialistik turmush tarzi kapitalistik turmush tarzidan eng avvalo gʻoyaviy, maʼnaviy, madaniy yoʻnaltirilgani bilan farq qilishini koʻrsatadi. Biroq, keyinchalik mavzuga oid muammolarni va ularning chet ellarda tadqiq etilishini kuzatib, bu borada hali “yetuk va nihoyasiga yetgan konsepsiya yoki modellar yaratishga erta” — degan xulosaga keladi [3, 4-bet]. Turmush tarziga sotsiologik muammo sifatida yondashuv, cheklangandir. Masalan, sotsiologik yondashuv turmush tarziga taʼsir qiluvchi ijtimoiy omillarni aniqlash, ilmiy asoslangan turmush tarzi modelini yaratish, jamiyatni ilmiy boshqarish uchun zarur boʻlgan turmush tarzini toʻgʻri bashorat qilish imkonini beradi deyiladi [4, 115-bet]. Bunday yondashuvda turmush tarzining ijtimoiy omillarigina oʻrganilishi, uning mohiyati chekkada qolishi, shuning uchun turmush tarzi nima uchun sotsiologik kategoriya sifatida oʻrganilishi zarur degan savolga hech kim qoniqarli javob bergan emas, turmush tarzining murakkab, keng qamrovli hodisa ekanligi bois unga tor yoki faqat oʻrganilayotgan mavzu doirasidan kelib chiqib yondashish ham toʻgʻri emas. Misol tariqasida turmush tarziga urf-odatlar, anʼanalalar, boʻsh vaqtni oʻtkazish yoki ehtiyojlar, ularni qondirish tizimi sifatida yondashishni cheklanganligini qayd etishimiz mumkin.

Turmush tarzi maʼlum bir madaniy-maishiy muhitda, yashash uchun zarur boʻlgan anjomlar, narsalar, vajlar doirasida kechishi uni ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida qarash zaruratini koʻrsatadi. Shuning uchun “Turmush tarzining atributi ijtimoiy-iqtisodiy qiymatga ega boʻlgan uy-joy, asbob-uskunalar, yashash shart-sharoitlaridir va shuning uchun turmush tarzi eng avvalo ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir”, — degan fikrga keladi.

Turmush tarziga ijtimoiy-iqtisodiy yondashish oʻzining obyektiv asosiga ega. Buni mutlaq inkor etish mumkin emas, aks holda inson hayotini moddiy asosga qurilganini, iqtisodiy munosabatlarning turmush tarzi shakllanishiga taʼsirini rad qilgan boʻlamiz. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy omillar turmush tarzining yagona asosi emas. Inson turmush kechirish jarayonida

shaxsiy, oilaviy, fuqaroviy-huquqiy, ma'naviy-ruhiy, madaniy, hatto xalqaro aloqalarga ham duch keladiki, ushbu omillar real ijtimoiy borliq, hayotiy muammolar va boshqa rang-barang subyektiv ta'sirlarni ham hisobga olishni taqozo etadi [5, 10-bet].

“Sog'lom turmush tarzi” tushunchasi XX asrda ilm-fanga kiritilgan bo'lsa-da, uning genezisi juda qadimga, ongli mavjudot ya'ni, odamning paydo bo'lishiga borib taqaladi. Antropogenez va salomatlik uyg'un keladigan, ammo kosubstansional voqeliklardir. Shuning uchun “sog'lom turmush tarzi” kategoriyasi salomatlik va salomatlikni tiklashga qaratilgan tibbiy madaniyat, jismoniy mashqlar, ovqatlanish tartibi kabilar bilan uyg'un qaralishi kerak. Zamonaviy ilmiy talqinlarga ko'ra, “sog'lom turmush tarzi” tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, u jismoniy faollik, zararli odatlar, ya'ni giyohvandlik, tamaki (nosvoy) chekish, spirtli ichimliklarning iste'moliga qarshi kurash va ratsional ovqatlanish kabi tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Babin B.A. Общественно-политическая активность в трудовых коллективах как показатель социального образа жизни // Проблемы измерения и моделирования образа жизни. - Москва: 1978, -S.84.
2. Bestujev –Lada I.V. образ жизни как философская - социологическая категория // Слово лектора, 1975. №3, -S. 14-19.
3. Bestujev – Lada I.V. Методологические проблемы измерения и моделирования образа жизни // Проблемы измерения и моделирования образа жизни. - Москва: 1978.-С.4.
4. Ibadullaeva X.T. Валеология asoslari. -Toshkent, 2010. –B. 115
5. Karimov Sh.I. Sog'lom ovqatlanish salomatlik mezonlari. - Toshkent: O'zbekiston, 2015. –B. 10.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

SYSTEMIC ANALYSIS OF THE FORMATION OF COGNITIVE ASPECTS OF CONSCIOUSNESS OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

Djurayeva Nigora Avazovna

PhD, Senior Lecturer

Doctoral Candidate (DSc) of the Department of Philosophy, NUUz

E-mail: nigoradjurayeva@mail.ru

Abstract. This article explores the characteristics of the consciousness of Central Asian peoples (based on the example of Uzbekistan and Kazakhstan) through the lens of an epistemological approach, focusing on modes of cognition, mental strategies, and culturally conditioned forms of perceiving reality. The study aims to identify the specificity of cognitive models shaped within traditional worldview systems, including mythological, religious, and ethnophilosophical thinking. The analysis is based on an interdisciplinary methodology that integrates philosophical epistemology, cognitive anthropology, and elements of ethnopsychology. Special attention is given to the influence of historical and cultural conditions on the formation of unique cognitive patterns that shape perception, thinking, and self-identification within society. The findings contribute to a deeper understanding of the mental landscapes of the region's peoples and expand the scope of contemporary epistemological research.

Keywords: epistemology, consciousness, cognitive aspects, Central Asian peoples, ethnopsychology, mental models, traditional thinking, cognition, culture, cognitive anthropology.

MARKAZIY OSIYO XALQLARI ONGI KOGNITIV ASPEKTLARINI SHAKLLANISHINI TIZIMLI TAHLILI

Djurayeva Nigora Avazovna

Ф.ф.д. (PhD), katta o'qituvchi

NUUz "Falsafa" kafedrasi doktoranti (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining ong xususiyatlari (O'zbekiston va Qozog'iston misolida) gnoseologik yondashuv prizmasi orqali ko'rib chiqilgan. Muallif diqqatini bilish jarayonlari, tafakkur strategiyalari hamda madaniy omillar ta'sirida shakllanadigan reallikni qabul qilish uslublariga qaratgan. Tadqiqot an'anaviy dunyoqarash tizimlari — mifologik, diniy va etnofalsafiy tafakkur doirasida shakllangan kognitiv modellarning o'ziga xosligini aniqlashga qaratilgan. Tahlil falsafiy gnoseologiya, kognitiv antropologiya va etnopsixologiya elementlarini birlashtiruvchi tarmoqlararo metodologiyaga asoslangan. Tarixiy va madaniy omillar jamiyatda idrok, tafakkur va o'zini identifikatsiyalash kabi noyob kognitiv andozalarning shakllanishiga qanday ta'sir qilgani alohida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari mintaqa xalqlarining mental manzaralarini chuqurroq tushinishga yordam beradi hamda zamonaviy gnoseologik tadqiqotlar doirasini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: gnoseologiya, ong, kognitiv jihatlar, Markaziy Osiyo xalqlari, etnopsixologiya, mental modellar, an'anaviy tafakkur, bilish, madaniyat, kognitiv antropologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N23>

Introduction. Epistemology, as a philosophical discipline, studies the nature of knowledge, its mechanisms, and structures. In the context of the modern globalized world—where traditional forms of knowledge encounter new technologies and global trends—analyzing the cognitive aspects of consciousness among different ethnic groups becomes

especially relevant. Central Asia, situated at the crossroads of various civilizational paradigms, represents a unique subject for the study of the cognitive aspects of the consciousness of its peoples.

Through centuries of interaction among diverse cultures and religions, unique methods of understanding and perceiving reality have emerged in the region. These are reflected in its myths, religious teachings, and philosophical systems. It is particularly important to note that the peoples of Central Asia—such as Uzbeks, Kazakhs, Tajiks, and Kyrgyz—possess distinctive cognitive structures shaped by geographical, cultural, religious, and historical factors.

Understanding how these communities perceive the world, construct knowledge, and the role that collective memory and oral traditions play in this process is crucial not only for preserving cultural heritage but also for effectively integrating these groups into modern educational and sociocultural environments. An epistemological approach to the study of the cognitive aspects of Central Asian peoples' consciousness allows for an exploration of how knowledge is transmitted and perceived within these cultures, which forms of cognition predominate, and how these processes are evolving under the influence of globalization and digitalization.

This opens up new possibilities for understanding the interaction between traditional and modern models of knowledge and helps preserve the uniqueness of the cognitive processes characteristic of the peoples of the region.

Literature analysis and methodology. The study of cognitive aspects of consciousness in a cultural and ethnic context is a complex interdisciplinary area in which philosophy, anthropology, psychology and cultural studies intersect. In the philosophical tradition, special attention is paid to epistemology as a doctrine of cognition, where consciousness is considered not only as a reflective mechanism, but also as an active subject of constructing reality. The works of such philosophers as E.Husserl[1], M.Mamardashvili[2] and J.Piaget[3] lay the theoretical foundation for understanding consciousness as a phenomenon that is formed in dialogue with the cultural environment.

Within the framework of ethnopsychology and cognitive anthropology, significant contributions were made by K.Geertz[4], J.Bruner[5] and A.Luria[6], who studied the influence of culture on cognitive processes, including perception, memory and categorization. Domestic and regional researchers such as Makhmudova G.T. [7], Urmanbetova J.K.[8], Orynbekov M.S. [9], Masanov N.E. [10] emphasize the importance of the historical and cultural context in the formation of the mental structures of the peoples of Central Asia.

The methodological basis of this study is based on the epistemological approach, which involves the analysis of ways of knowing as the key to understanding consciousness. The tools used are the comparative analytical method, the cultural-historical approach, and elements of narrative analysis, which allow us to identify stable cognitive models enshrined in language, myths, rituals, and everyday practices. The work uses ethnographic materials, folklore sources, and the results of modern socio-cultural research in Uzbekistan and Kazakhstan. This allows us to trace how cultural memory, collective identity, and spiritual traditions influence the structure of consciousness and form unique cognitive patterns within a specific ethnocultural space.

Results. We will consider and identify unique cognitive patterns characteristic of a specific ethnocultural space and try to understand the mechanisms of their transmission from

generation to generation. The epistemological approach to the study of cognitive aspects of consciousness of Central Asian peoples in the context of the construction or transformation of a civilizational paradigm is a methodological tool aimed at identifying and analyzing the structures of cognition characteristic of the ethnic groups of the region. It allows us to consider how the processes of cognition form a worldview, social norms and cultural codes, which are then transformed or used in rethinking civilizational bases. A very important aspect in this context is cognitive structures and their cultural conditioning. In particular, this is related to the processes of perception, comprehension and conceptualization of the world, which among the Central Asian peoples developed under the influence of a nomadic and sedentary way of life, an Islamic worldview, as well as interactions with neighboring civilizations: China, India, Russia, etc. How did the transformation of cognitive models occur in the context of modernization? The impact of globalization, urbanization and social change requires rethinking traditional cognitive structures such as collectivism, the role of elders, religious values and others. Another undeniably important aspect is the relationship between the traditional and the modern. For example, studying ideas about power, justice and the role of the individual in society can reveal key elements of the transition from archaic to modern consciousness. The methods of studying this issue are ethnographic analysis, which allows us to understand what forms of cognition and interpretation of reality are present in the everyday life of the peoples of the region, cognitive anthropology, which studies how cognitive processes (memory, perception, categorization) are associated with cultural specificity, a comparative approach associated with comparing Central Asian cognitive models with similar structures in other regions in order to identify universal and unique features, as well as historical and cultural analysis aimed at understanding changes in cognitive aspects in different eras (from the dominance of Islamic thinking to the socialist era and post-Soviet transformation).

For example, when analyzed through the lens of cognitive anthropology, we see that in nomadic cultures such as the Kazakh, the perception of space is associated with the vast steppes, which is reflected in the language (for example, the wealth of terms to describe pastures or types of relief). Analyzing traditional Turkic epics through the lens of cognitive anthropology and a systems approach, we can identify a deep connection between the image of the world and culturally conditioned cognitive structures. This is reflected not only in the epic texts, but also in the language - the wealth of terms to describe pastures, types of relief and natural conditions. Such a cognitive base forms a unique model of the world in which human interaction with the natural environment and a mobile lifestyle play a key role. This example illustrates how, using a systems analysis of cognitive aspects, we can understand the formation of ethnic self-awareness and cultural identity of the peoples of Central Asia. This differs from the perception of space in sedentary cultures of the region, such as Bukhara or Samarkand. In contrast, the sedentary cultures of Central Asia, such as Bukharan or Samarkand, have a different cognitive perception of space, associated with an urbanized environment, fixed boundaries, and stable social institutions. Here, the language and epic tradition shift the emphasis to the description of architecture, economic centers, and historical events, reflecting the stability and centralization of the way of life. A systematic analysis of these cognitive aspects shows that cultural models of space and time are integrated into the general complex of ethnic self-awareness, forming civilizational codes that determine the specifics of thinking, communication, and social organization of the peoples of Central Asia.

Comparison of cognitive models allows us to identify universal elements inherent in all cultures and unique features formed by historical and geographical conditions. This makes it possible to understand how a region interacts with other civilizations. Thus, a comparison of the concept of time among Tajiks with Persian roots and Kazakhs with a nomadic lifestyle shows differences between the linear (traditionally Persian) and cyclical (nomadic) perceptions of time. This affects the organization of labor, calendar rituals and economic models. Historical and cultural analysis allows us to trace how cognitive aspects changed under the influence of key epochal events: Islamization, the influence of the Russian Empire, Soviet modernization and post-Soviet transformations, which makes it possible to identify adaptation mechanisms and stable elements of culture. Thus, the influence of Islamization in Central Asia led to the spread of theocentric cognitive models, where the key concepts were faith in predestination and religious morality. However, during the Soviet period, these models were partially transformed: instead of theocentrism, atheistic materialism was introduced into the mass consciousness, which caused conflicts in the system of values and cognition.

We believe that a combination of methods allows for a deeper understanding of cognitive aspects and their transformations. For example, a study of the traditional perception of justice among Uzbeks using ethnographic analysis (in rituals, such as mahalla legal proceedings), cognitive anthropology (decision-making models) and historical and cultural analysis (the influence of the Soviet judicial system) can help to identify how these concepts have adapted to modern realities. It is the use of these methods that provides a holistic view of the cognitive features of the consciousness of the peoples of Central Asia, their historical development and role in the formation of the modern civilizational paradigm.

Central Asian consciousness is formed under the influence of a number of factors:

- religious and philosophical traditions; (for example, Islam plays a key role in the worldview, offering norms of morality, thinking and behavior)
- nomadic and sedentary cultural identities; the interaction of nomadic (dynamism, adaptability) and sedentary (stability, continuity) life patterns formed a unique cognitive experience, which directly influenced the perception of time, space, social relations and adaptation to change. In particular, the organization of time of nomads was closely linked to the movement of herds and weather conditions, which formed a pragmatic approach to planning. Sedentary peoples perceive time more linearly, linking it with the consistent development of agricultural cycles and long-term accumulation of resources. The combination of cyclical and linear perceptions of time allows for a balance between flexibility and strategic planning. This is evident in the economic systems of the region, where long-term projects (for example, irrigation) were combined with seasonal activity.

In nomadic identity, space is perceived as open, dynamic and virtually limitless, which forms high adaptability, the ability to navigate the terrain and the desire for autonomy. Thus, for the Kazakhs and Kyrgyz, the steppe was not only a territory of life, but also a symbol of freedom, which is reflected in the mobility of their economy and social structure. And the space of sedentary peoples is perceived as ordered, strictly structured and assigned to certain families, communities or cities, which enhances the feeling of stability and contributes to the formation of complex social systems. Thus, the Uzbeks and Tajiks created large trade and craft centers, such as Bukhara, Samarkand, where space had a symbolic meaning: the city center is the place of power and religion. Here, the combination of openness and structured space

created flexibility in the organization of the territory, allowing regions to be simultaneously dynamic (trade routes, nomad camps) and stable (cities, oases).

Social ties in nomadic societies were based on flexible but strong horizontal relationships, often based on a tribal structure, which facilitated the rapid formation of coalitions and the distribution of resources in changing conditions. Nomads had developed mutual assistance between clans, which helped them survive in the steppe. And in sedentary communities, social ties were more vertical, built on a clear hierarchy, enshrined in laws or religious norms. This ensured stability and continuity in governance and culture. The combination of horizontal and vertical social ties formed models that could adapt to change while maintaining stability. This is evident in the synthesis of nomadic and sedentary elites (for example, the Timurid rulers used hierarchical models of governance in combination with the mobility and military strategy of the nomads). One of the most striking examples is the Timurids, a dynasty that combined elements of nomadic and sedentary lifestyles and governance in the 14th–15th centuries. It is known that Amir Timur came from a nomadic environment and understood its values: troop mobility, tactical flexibility, personal connections, and tribal coalitions. At the same time, he effectively introduced the principles of sedentary societies into governance: strict hierarchy, centralized governance, bureaucracy, and religious institutions. Timurid rulers used vertical power structures to ensure order and stability in a vast empire, while relying on traditional nomadic mechanisms of military organization and social interaction. This model allowed them to maintain adaptability and military effectiveness, while maintaining control over diverse ethnic and social groups.

Thus, the Timurids became an example of civilizational synthesis, where the combination of horizontal and vertical social ties created a stable but flexible system of governance capable of withstanding internal and external challenges. This vividly illustrates how the historical processes of Central Asia reflect the interaction of nomadic and sedentary paradigms, forming unique models of cultural and political development of the region. It is undeniable that nomads were able to quickly adapt to external threats and changes, which allowed them to survive in extreme conditions. The Mongols and nomadic Turks skillfully adapted to different climatic zones, quickly developing new territories. In turn, sedentary communities ensured continuity by preserving knowledge, religious traditions and cultural heritage. Knowledge centers such as Samarkand or Merv preserved and transmitted scientific and philosophical achievements. It is important here that the combination of adaptability and continuity allowed the peoples of Central Asia to be both dynamic and resilient in the face of political and other challenges.

The unique cognitive experience of the Central Asian peoples is a synthesis of nomadic dynamism and sedentary stability. This combination has created a flexible and stable civilizational paradigm capable of responding to external changes, while maintaining a deep connection with cultural traditions and identity. Mythology and folklore play a special role; mental models, axiological guidelines and norms are transmitted through oral tradition, maintaining the connection between generations.

Table 1. Comparative characteristics of plot and structural parameters of epics

Parameter	“Alpamysh”	“Koblandy Batyr”	“Manas”
Central conflict	Captivity, return	Inter-clan struggle, political intrigues	Uniting the people
Hero	Family-oriented warrior	Warrior-strategist, leader in battle	Mythologized leader, cultural mediator
Main motives	Loyalty, protection of the family, trials	Valor, honor, personal and public duty	Unity, Continuity, Destiny
Time structure	Cyclicity (exile - return)	Linear development, alternating battles	Trinity succession: grandfather-father-son
Space	Binary: friend - foe	Hostile field, nomadic space	Multi-level: earthly, spiritual, symbolic
Female image	Devoted wife, guardian of the family	Mother, bride - bearer of morality	Mother as a symbol of family and spiritual strength
Mythology	Moderate	Almost absent	Active, full of spiritual signs
Volume and shape	Middle dastan (poem)	Epic poem	The largest oral epic

This table reflects a comparative analysis of three Turkic epics – “Alpamysh”, “Koblandy Batyr” and “Manas” - through the prism of civilizational paradigms; it shows how each epic embodies unique models of world perception and civilizational codes, forming ethnic self-awareness and cultural identity in the context of the development of Turkic civilizations.

Table 2. Cognitive-cultural patterns and values

Parameter	“Alpamysh”	“Koblandy Batyr”	“Manas”
Collective identity	Through lineage, honor, continuity	Through clan loyalty and military glory	Through the unification of disparate ethnic groups
Cognitive patterns	Friend or foe, family as a basis, hero's trials	Freedom, courage, strategic thinking	Unity, destiny, sacredness of leadership
Values	Honor, loyalty, duty to the family	Glory, freedom, protection of the interests of the family	Unity, spirituality, continuity
Memory and historicity	Ancestral memory is more important than personal biography	Memory of the family through exploits and devotion	Historical and mythological memory of an entire nation
Social roles	The hero as a defender of the family and justice	The hero as a military leader and defender of interests	The hero as a cultural code and national symbol
The role of the epic in the paradigm	Strengthening tribal morality	Education of valor and courage	Formation of national identity

Each of the epics is an open nonlinear system capable of self-organization in the context of historical, socio-cultural and ethnic changes. The system reacts to social fluctuations such as wars, migrations, political changes, strengthening certain patterns of behavior - heroism, family loyalty, spirituality. Attractors also arise - stable value and behavioral guidelines, for example, honor and duty in "Alpamysh", freedom in "Koblandy Batyr", unity in "Manas", around which cultural consciousness is structured.

It should be noted that the epics function as autonomous cultural systems that reproduce themselves through narratives and images transmitted by oral tradition, social roles and norms enshrined in texts, memory cycles (for example, family or national continuity) that support identity. Autopoietic aspects are manifested in the fact that the epic not only reflects culture, but also generates it - educating new generations, setting the framework for behavior and thinking. It regenerates itself in each act of retelling, adapting to new historical conditions, while maintaining its structural integrity.

Along with this, it is necessary to note the important aspect concerning language as a socio-cultural code of any paradigm of civilizational development. "Historically, the civilizational activity of society contributes to the formation of national languages in the course of a number of convergent-divergent processes: the growth of social integration leads to the strengthening of the speech unity of society, and the increasing differentiation of public life determines the internal differentiation and enrichment of the language system, the expansion of its communicative functions" [11]. The development of consciousness in a multi-ethnic environment, where different languages and cultures coexist, forms flexible cognitive strategies. Multilingualism in the multi-ethnic environment of Uzbekistan and Kazakhstan is a key factor forming flexible cognitive strategies that reflect the ability to adapt to complex social and cultural contexts. It is known that both states historically developed at the crossroads of civilizational paradigms, where the coexistence of different ethnic groups and languages became an integral part of social life, determining the development of flexibility in thinking. Moreover, constantly switching between different languages requires the individual to be able to quickly adapt, which develops cognitive flexibility, improves memory, and enhances problem-solving skills. "Language acts as a certain spiritual stage in the process of integration of civilization, reflecting the history, temperament, mental characteristics of peoples" [12, 104]. In Uzbekistan, the Uzbek language dominates, but Russian, Tajik, Karakalpak are also widely spoken, English and others are developing. For example, in Tashkent, where the degree of linguistic diversity is high, many residents use Russian as a means of interethnic communication, while maintaining knowledge of their native language, which develops people's skills in switching contexts and perceiving different points of view. In Kazakhstan, the official languages are Kazakh (the state language) and Russian (the language of interethnic communication). The policy of the trinity of languages (Kazakh, Russian, English) stimulates multilingual education, forming in young people the ability to effectively act in various linguistic and cultural environments. It should be noted that life in a multi-ethnic environment requires not only an understanding of languages, but also knowledge of cultural codes, which develops empathy, social intelligence and the ability to find a common language with representatives of different ethnic groups. It is no secret that Uzbekistan is famous for its cultural and ethnic diversity: Uzbeks, Tajiks, Russians, Koreans, Kazakhs and other peoples have coexisted in the same space for centuries. This has contributed to the formation of intercultural dialogue skills.

For example, in Bukhara, Uzbeks and Tajiks are often bilingual, which helps maintain ethnocultural balance and prevent conflicts. As for Kazakhstan, with its many ethnic groups, the idea of "unity in diversity" is actively promoted here. In particular, the work of the Assembly of the People of Kazakhstan demonstrates how multilingualism contributes to peaceful coexistence and mutual enrichment of cultures.

State support for multilingualism stimulates the creation of a flexible cognitive base at the societal level, strengthening its competitiveness. Uzbekistan supports multilingualism through the media, education and culture, while strengthening the role of Uzbek as a symbol of national identity. In turn, Kazakhstan actively develops multiculturalism through programs such as "Rukhani Jangyru" (Spiritual Renewal), which promote the study of native languages of ethnic minorities[13]. Multilingualism in Uzbekistan and Kazakhstan forms flexible cognitive strategies that help adapt to modern challenges, strengthens social integration, promotes intercultural dialogue and increases the competitiveness of society, making both states unique examples of a successful combination of linguistic and cultural diversity.

The epistemological bases of the civilizational paradigm (ideal-spiritual components of being), reflected in the traditions of knowledge, religious and ethical norms, education and mentoring constitute a fundamental support in the formation and transformation of the human cognitive apparatus, reconstructing the civilizational background. After all, knowledge is perceived as a path not only to intellectual, but also to spiritual perfection. It is important that the consciousness of a person of Central Asian origin is oriented towards collective interests, which is manifested in the values of community and mutual assistance, and the historical need to adapt to climatic, economic and social challenges has formed pragmatic cognitive strategies in him. Successful development of the region requires a synthesis of traditional and modern knowledge, preservation of a unique cultural identity and adaptation to the challenges of globalization. As a result, a new civilizational paradigm arises, which is based on continuity, dialogue of cultures and innovative thinking.

Discussion. In the course of the study of the cognitive aspects of consciousness of the peoples of Central Asia, several key areas for further discussion were identified. First of all, it should be noted that traditional cognitive models, such as collectivism, the role of elders and religious values, have deep roots in the social and cultural organization of society. These structures of consciousness, despite their universality and long-term nature, are influenced by modern changes such as globalization, urbanization and technological progress. Moreover, one of the central questions that arises during the analysis is the ability of traditional cognitive models to adapt to new conditions. The question of how deep the changes in mental structures are and what traditional elements remain in the culture in the context of rapid technological and social progress requires further research. For example, the influence of mass communications and the Internet on the perception and interpretation of reality is an aspect that changes the ways of perception and cognitive strategies of the youth of Central Asia, in contrast to the older generation, which retains more traditional approaches to understanding the world. It is also worth noting the importance of revising the role of elders in society. In traditional Central Asian societies, elders played an important role in preserving and transmitting knowledge, as well as in making key decisions. In the modern world, with the development of democracy, education and mobile technologies, this role is changing, and the

question arises: does their influence on young people remain in the new conditions or is it weakening.

On the other hand, the positive impact of these changes on cognitive models cannot be ignored. The process of globalization allows the peoples of Central Asia to integrate new ideas, approaches and technologies, which contributes to the development of flexibility of thinking, improvement of critical perception and growth of intellectual mobility. The question arises of how to balance the preservation of cultural traditions and the perception of new global trends in order to preserve the uniqueness of mental structures without losing the opportunity for cultural and intellectual progress.

It is also worth paying attention to the influence of religious values, which play an important role in the cognitive structures of many peoples of Central Asia. Traditional religious beliefs and practices, on the one hand, serve as the basis for moral and ethical guidelines, and on the other hand, can be a source of resistance to change. The study of the transformation of cognitive models of the peoples of Central Asia in the context of modernization requires a comprehensive and multi-layered approach. It is important to consider not only the influence of external factors, but also the internal mechanisms of cultural adaptation that ensure the preservation and transformation of traditional cognitive structures. This study opens the way for further discussions on how traditional and modern cognitive models can be effectively integrated, ensuring the harmonious development of cultures and society in the context of globalization.

Conclusion. It can be argued that the study of the cognitive aspects of consciousness among the peoples of Central Asia from the perspective of the gnoseological approach reveals an important connection between cognitive processes and cultural context. Traditional cognitive models, such as collectivism, the role of elders, and religious values, play a key role in shaping unique ways of perceiving and understanding the world. However, under the conditions of globalization, urbanization, and social change, these models are undergoing transformation, which necessitates a rethinking of existing cognitive structures. The influence of modern trends, such as technological and informational changes, highlights the need for adaptation and integration of traditional mental patterns with new approaches to cognition and social organization.

Thus, further research in this area will not only provide a deeper understanding of the mentality of the peoples of Central Asia but also serve as a basis for developing more effective intercultural and educational strategies. Understanding the cognitive aspects of consciousness in the context of history and culture allows for the development of more precise methods for analyzing cultural differences and maintaining harmonious interaction in a globalized world.

In this context, it is especially important to emphasize that “science and education are of paramount importance for enhancing the intellectual and spiritual potential not only of young people but of our society as a whole. Where science does not develop, regression, backwardness in all spheres of society, and ignorance are observed”[3]. Consequently, the continuous advancement of scientific knowledge and the expansion of educational practices constitute strategic determinants of the sustainable trajectory of civilizational development. They facilitate the integration of sociocultural systems, enhance the adaptive capacity of societies, and lay the groundwork for constructive intercivilizational dialogue amid the complex dynamics of global transformations.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Гуссерь Э. Кризис европейских наук и трансцендентальная феноменология. –СПб.: Владимир Даль, 2004.
2. Мамардашвили М. Сознание и цивилизация. –М.: Азбука-Аттикус, 2011. -288с.
3. Пиаже Ж. Избранные психологические труды // В.А. Лекторский, В.Н. Садовский, Э.Г. Юдин. – М., 1995.
4. Geertz C. The interpretation of cultures. –N.Y.: Basic Books, Inc., Publishers, 1973. -470p.
5. Bruner J. Actual Minds, Possible Worlds. - London : Harvard University Press, 1986. -70p.
6. Luria A. Cognitive Development: Its Cultural and Social Foundations. - London : Harvard University Press, 1976. -175p.
7. Махмудова Г.Т. Предназначения гуманистических идей до исламского периода Центральной Азии// Инновации в технологиях и образовании. Сборник статей участников XII Международной научно-практической конференции. -Том1. -Часть 4. –Кемерово, 2019. –С. 77-82.
8. Урманбетова Ж.К. Культура кыргызов в контексте развития цивилизации. – Диссертация на соискание степени доктора философских наук. -1997.
9. Орынбеков М. С. История философской и общественной мысли Казахстана. — Алматы, 1997; Орынбеков М. С. Основные универсалии тюркского менталитета. // Казахская философия в канун XXI века. (Материалы Республиканской научно-теоретической конференции, посвященной 40-летию Института философии. — Алматы, 1998. — С. 13-15.
10. Масанов Н.Э. Кочевая цивилизация казахов: основы жизнедеятельности кочевнического общества. Алматы: Социнвест, 1995. — 320 с.
11. Хайрова С.Р. Язык и цивилизация: социально-философский аспект взаимодействия. Автореферат кандидата философских наук 09.00.01. – М., 2003. (<https://www.dissercat.com/content/yazyk-i-tsivilizatsiya-sotsialno-filosofskii-aspekt-vzaimodeistviya>)
12. Джураева Н.А. Онтолого-гносеологические аспекты развития парадигмы цивилизаций. –Диссертация на соискание степени доктора философских наук (PhD) по философии. –Ташкент, 2022. –С.104.
13. «Рухани жаңғыру»: просто и понятно о главной программе страны. –Электронный ресурс: <https://www.nur.kz/kaleidoscope/1904791-ruhani-zhangyru-prosto-i-ponyatno-o-glavnoy-programme-strany/?ysclid=m65e4rov5k478525854>. Дата обращения: 20.01.2025.
14. Мирзиёев Ш.М. Шавкат Мирзиёев: Наш народ велик и мудр. –Электронный ресурс: <https://president.uz/ru/lists/view/3314> –Дата обращения: 19.05.2025.

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF EXISTENTIALISM AND ITS DEGREE OF RESEARCH

Yuldashev Farrukh Abdurakhmanovich,

Doctor of Philosophy, (PhD), Senior Lecturer,

Fergana State University

Abstract. This article examines the stages of the conceptual formation of existentialism as an integral original philosophy since the late 20s of the twentieth century and the prospects for further evolution in the 21st century. The main objective of the article is to analyze and concretize existentialism as a holistic and original philosophical teaching. The genesis of human existence and its specific forms are revealed in philosophical research. The thesis is also expressed about the fruitfulness of the search and development of potential philosophical problems of existence contained in the works of the founders of existentialism. The research uses methods of conceptual analysis and a systematic approach.

Keywords: being, existence as presence, communication, loneliness, existence in objectivity, existentialism as humanism, freedom, absurdity.

ПОНЯТИЕ ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМА И ЕГО СТЕПЕНИ ИССЛЕДОВАНИЯ

Юлдашев Фаррух Абдурахманович,

PhD, старший преподаватель,

Ферганский государственный университет

E-mail: f.yuldashev@mail.ru

Аннотация. В данной статье исследуются этапы концептуального формирования экзистенциализма как целостной оригинальной философии с конца 20-х годов XX века и перспективы дальнейшей эволюции в XXI века. Основная задача статьи – проанализировать и конкретизировать экзистенциализм как целостного и оригинального философского учения. Генезиса экзистенции человека и конкретные ее формы раскрываются в философских исследованиях. А также высказывается тезис о плодотворности поиска и разработки потенциальных философских проблем экзистенции, заключенных в трудах основоположников экзистенциализма. В исследовании применяются методы концептуального анализа и системный подход.

Ключевые слова: бытие, экзистенция как присутствие, коммуникация, одиночество, экзистенция в объективности, экзистенциализм как гуманизм, свобода, абсурд.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N24>

ВВЕДЕНИЕ

Глобализационные процессы, происходящие в современном мире, формируют информационное общество, основанное на информации и знаниях. Это, в свою очередь, приводит к появлению поколения, которое в стремлении удовлетворить свои материальные интересы и потребности в рамках человеческой деятельности утрачивает национальную идентичность и готово прибегать к любым идеям для достижения своих целей. В таких условиях особую значимость приобретает изучение политических, социальных, моральных и духовных форм интересов, отражающих стремление к удовлетворению определённых потребностей. Обострение социально-

политических проблем и трансформация идеологической картины мира в XXI веке обуславливают необходимость философского осмысления потребностей и интересов в социальной практике с учётом особенностей, характерных для глобального развития. Экзистенциализм — это философское направление, сосредоточенное на изучении человека, его жизненных проблем, трудностей и бытия в окружающем мире. Сегодня экзистенциализм является одним из важнейших и наиболее актуальных философских учений современности. Работы, посвященные различным аспектам экзистенциализма, критическому анализу тех или иных трудов М. Хайдеггера, К.Ясперса А.Камю, Ж.П.Сартра и других, появляются на всех континентах глобального мира.

Актуальность представленного исследования определяется необходимостью выявления *конкретного вклада* каждого из вышеперечисленных мыслителей-основоположников экзистенциализма в каркас здания этого учения, чтобы получить полную картину об экзистенциализме как о целостной системе понятий и принципов. Для этой цели требуется так же более углубленное исследование *различий их взглядов* на экзистенцию человека. Более глубокий анализ узловых категорий экзистенциализма, разработанных Хайдеггером, Ясперсом, Сартром и Камю, связан еще с необходимостью выявления потенциальных исследовательских проблем экзистенциализма, заключенных в их трудах.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Такие основоположники экзистенциализма, как *М.Хайдеггер, К.Ясперс и Ж.-П. Сартр* первоначально были учениками-последователями *Э.Гуссерля*. Но вскоре они один за другим отходят от философии феноменологии, которая, все-таки, остаётся одним из оснований экзистенциализма. В своей сущности, на наш взгляд, феноменология и экзистенциализм являются ядром философии человеческого бытия, исследующей *непокойную душу индивида, ищущего себя и смысла своей жизни через призму душевных коллизий и проблем, философии, призывающей индивида борьбой с собой, за себя, за свою жизнь формировать свою сущность, подобно Сизифу А.Камю*. В этом заключается, как подчеркивал Сартр, гуманистичность экзистенциализма.

Экзистенциализм является диалектическим синтезом понятий и принципов экзистенций человека, превращенной основоположниками-строителями системы экзистенциализма М.Хайдеггером, К.Ясперсом, Ж.П. Сартром, А.Камю и другими экзистенциалистами в центральный объект и предмет философских исследований. Следует отметить, что учение ни одного из них в отдельности не может претендовать на исчерпывающую целостную систему экзистенциальной философии[1]. В условиях глобализации в XXI веке вопросы человеческой жизни, образа жизни и духовного благополучия приобрели первостепенное значение.

В каждый период развития человечества особое внимание уделялось вопросу духовного совершенства. Духовная жизнь направлена на регулирование взаимоотношений между людьми, согласование собственных интересов человека с интересами общества, выражение непосредственного поведения и общения личности. На протяжении всего развития человеческого общества духовность совершенствовалась посредством человеческого поведения, общения и взаимоотношений.

Как известно, философия во все времена пыталась найти пути решения насущных проблем своего времени. К XX веку человечество достигло больших успехов в области научно-технического развития. Но в то же время этот век был временем социальных потрясений, двух мировых войн, экологического кризиса и тяжелых потерь. Это нашло отражение в развитии философской мысли, четко определив круг и цели проблем, которыми занимались ее различные направления и течения. В результате в современной философии существует большое разнообразие течений и направлений. В свою очередь, это определяет основные черты развития науки и практики, а также философии со второй половины XIX века по настоящее время. Основными принципами современной философии являются примат общечеловеческой природы, ее совместимость с национальностью, демократические свободы, человеческое достоинство, не абсолютизация какой либо доктрины. Щедрость и толерантность обеспечивают многообразие современных философских учений.

Расходясь с традицией рационалистической философии и науки, трактующей опосредование как основной принцип мышления, экзистенциализм стремится постигнуть бытие как некую непосредственную нерасчленённую целостность субъекта и объекта. Выделив в качестве изначального и подлинного бытия само переживание, экзистенциализм понимает его как переживание субъектом своего «бытия-в-мире». Бытие толкуется как данное непосредственно, как человеческое существование, или экзистенция (которая, согласно экзистенциализму, непознаваема ни научными, ни даже философскими средствами). Для описания её структуры многие представители экзистенциализма. (Хайдеггер, Сартр, Мерло-Понти) прибегают к феноменологическому методу Гуссерля, выделяя в качестве структуры сознания его направленность на другое — интенциональность.

Экзистенция «открыта», она направлена на другое, становящееся её центром притяжения. По Хайдеггеру и Сартру, экзистенция есть бытие, направленное к ничто и сознающее свою конечность. Поэтому у Хайдеггера описание структуры экзистенции сводится к описанию ряда модусов человеческого существования: заботы, страха, решимости, совести и др., которые определяются через смерть и суть различные способы соприкосновения с ничто, движения к нему, убегания от него и т.д. Поэтому именно в «пограничной ситуации» (Ясперс), в моменты глубочайших потрясений, человек прозревает экзистенцию как корень своего существа.

Традиционная философия, несмотря на свое разделение на различные мировоззренческие системы, имела определенную общность в решении важных проблем. В современной философии, напротив, ярко проявились многообразие, специфика и разнородность философских проблем, на основе которых сформировались философские течения как самостоятельные направления. Если в традиционной философии разум трактовался как детерминанта человеческой природы, то теперь, в противовес рационализму, стали выдвигаться проблемы человеческого существования (экзистенциализм) и его иррациональной природы. То есть, если раньше доминировала идея просвещения, то теперь больше внимания уделяется правам человека. Философия, по-видимому, перешла от абстрактности к конкретности и начала рассматривать конкретные, а не общие вопросы. Существование буквально означает существование.

Экзистенциализм объединил учения самых разных направлений, основанные на идеях духовного мира человека, человеческой судьбы и свободы. После классиков экзистенциализма, основные идеи которых были проанализированы выше, экзистенциализм не перестал эволюционировать. В его эволюцию основной вклад вносили зарубежные писатели Ф.Кафка, К.Гамсун, Г.Гессе, С.Беккет, советские писатели А.Платонов, В.Распутин, В.Быков, Б.Васильев, Ч. Айтматов и другие. Их всех объединяют следующие слова С. Кьеркегора, и ныне сохраняющие свое значение: «... тот кто боролся с миром, стал велик оттого, что победил мир, а тот, кто боролся самим собой, стал еще более велик...»[2]. Обсуждение этих проблем стало широко распространенным, особенно среди творческой интеллигенции. Поэтому наиболее распространенным течением в этот период стала экзистенциальная философия. К 1930-м годам сложилась «экзистенциальная философия». Существование буквально означает существование.

Экзистенциализм объединил учения самых разных направлений, основанные на идеях духовного мира человека, человеческой судьбы и свободы. В этот период ряд европейских философов проводили исследования в области экзистенциальной философии. Среди них в качестве примеров можно привести Гуссерля, М.Хайдеггера, К.Ясперс, Ж. П.Сартра и А.Камю. Анализ учений и трудов этих великих философов показывает, что они сосредоточились прежде всего на изучении вопросов человеческого существования, бытия и жизни, сознания и мышления, человеческих эмоций. Обсуждение этих проблем получило широкое распространение, особенно среди творческой интеллигенции. Поэтому наиболее распространенным течением в этот период стала экзистенциальная философия.

Представители экзистенциализма в основном делятся на два направления. Это разделение относительно: одно из них светское (Хайдеггер, Сартр, Камю), а другое религиозное (Ясперс, Марсель). Согласно учению Хайдеггера, Сартра и Камю, человек свободно осуществляет свой творческий процесс. Перед человечеством открываются огромные возможности, и оно свободно выбирать, какую из них реализовать. Поэтому человек свободно определяет свою сущность, и то, кем он станет, зависит только от него самого. В этом смысле человек уподобляется незавершенному проекту, который постоянно развивается. Свобода трактуется как внутреннее состояние души, создаваемое самим человеком. Выбор возможностей, данных человеку, чрезвычайно ответственен, поскольку, делая это, человек воссоздает себя, других и окружающий мир.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Экзистенциалисты верят, что мир бессмыслен и непознаваем, а человеческая жизнь вечна и потому ужасна, поскольку она преходяща. К XX веку в результате обобщения учений об историческом развитии общества сформировалась плюралистическая модель общественного развития, концепции «локальных культур» и «разнообразия цивилизаций». По их мнению, история общества — это не единство уникальных культур, а скорее их многообразие. В этом смысле оно сопоставимо с разнообразием форм жизни в органической природе. Итак, как природа представляет собой единство многообразия, так и общество представляет собой гармонию многообразия. В обществе у всех и вся есть свое место. Экзистенциализм или философия существования, направление современной философии, возникшее в начале XX в. в

России, после 1-й мировой войны в Германии, в период 2-й мировой войны во Франции, а после войны в других странах.

Идейные истоки учение Кьеркегора, философия жизни, феноменология. Экзистенциализм центральное понятие — экзистенция (человеческое существование) основные модусы (проявления) человеческого существования забота, страх, решимость, совесть, человек прозревает экзистенцию как корень своего существа в пограничных ситуациях (борьба, страдание, смерть). Постигая себя как экзистенцию, человек обретает свободу, которая есть выбор самого себя, своей сущности, накладывающий на него ответственность за все происходящее в мире.

Оказал значительное влияние на литературу и искусство Запада. Экзистенциализм М.Хайдеггер, К.Ясперс, Г.Марсель, Ж.П.Сартр, А.Камю, Н.Аббаньяно[3]. В центре его философии — человек, которого он считает активным и деятельным.

Вступая в новый исторический период в нашем обществе начался изучения философские исследования. Политический суверенитет и экономическая независимость, открытость внешнему миру, уважение к национальной идентичности, высокая духовность и уважение к своей истории, религиозная и культурная толерантность являются главными идеологическими критериями философии национального развития Узбекистана. С первых лет независимости в Республике Узбекистан был принят курс на сохранение древней философской традиции и возрождения. В первую очередь такая задача стояла перед Институтом философии Академии наук Республики Узбекистан – возрождение истинного значения философских трудов крупнейших узбекских ученых мыслителей. Имея такую богатую историю философии прошлого, проявившуюся в трудах величайших центральноазиатских мыслителей, таких как Ар-Рази, Аль-Бируни, Аль-Фергани, Аль-Фараби, Ибн Сино, Амир Темур, Алишер Навои, Мирзо Улугбек, Бабур и многих других, важно было сохранить и передать потомкам ее основную идею и бесценное значение. Как отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «Благодаря независимости, являясь равноправными членами мирового сообщества, мы своими руками строим свое светлое будущее. Опираясь на успехи, достигнутые за годы независимости, мы делаем смелый шаг от национального возрождения к национальному подъёму. Мы приняли Стратегию действий, чтобы вывести развитие нашей страны на более высокий уровень.

Наша решимость на пути к выполнению главных задач, изложенных в этом уникальном документе, открывает для нас новые горизонты и возможности». Определены приоритетные направления реформ, направленных на формирование социально-экономических, политико-правовых и научно-просветительских основ дальнейшего повышения благосостояния народа, безусловного обеспечения прав и интересов человека, стабильного гражданского общества на основе принципа «Во имя чести и достоинства человека»[4]. Необходимо отметить, что исследования в области духовности и просветительства, их преподавание и пропаганда имеют особое теоретическое и прикладное значение для развития независимого Узбекистана, а также для интеграции в мировое сообщество. В период независимости значительный импульс к своему развитию получила история и теория культуры, освобожденная от зашеренности и субъективизма.

Все силы философов Узбекистана направлены на исследования в области истории философии, истории общественно-философской мысли, философии и методологии науки, гносеологии, онтологии, аксиологии, философских проблем становления и развития рыночной экономики, истории и теории культуры, философии человека, философии политики, философии права, философии культуры, философии языкознания, философии экологической культуры, философии религии и свободомыслия, философии согласия[5]. Таким образом, исходя из вышеизложенного, можно заключить, что почти 33 года независимого развития Узбекистана позволили переосмыслить суть и значение философии, открыли новые возможности для развития тех философских направлений, которые ранее либо почти не изучались, либо рассматривались исключительно через призму господствующей идеологии. Теоретические основы обновлённой философской мысли уже сформированы, и сейчас перед философами Узбекистана стоит задача укреплять существующий потенциал и способствовать практическому внедрению всех новаций в области философии. Это время можно рассматривать как важный этап и контрольную точку на пути дальнейшего формирования философского мировоззрения. Жизнь человека напрямую связана с различными потребностями и соприкасается с обществом. В этом человек стремится удовлетворить свои духовно-нравственные и социально-экономические потребности, занимающие важное место среди потребностей. «Потребность и интерес проявляются и реализуются деятельностью человека»[6]. На самом деле человеческая активность проявляется в миропонимании, связи человека с миром, совести, ответственности за человеческие действия и поступки.

Вторая половина XIX века – направление в философии, отрицавшее объективные законы бытия и истории, диалектику, воспринимавшее окружающий мир и историю как хаос, цепь случайностей. Основоположником иррационализма считается Артур Шопенгауэр (1788–1860). В целом философия Шопенгауэра наполнена пессимистическим духом, неверием в возможности человека влиять на окружающий мир и собственную жизнь. Близкой к иррационализму является «философия жизни», которая ставит в центр внимания не отвлеченные понятия – бытие, идея, материя. А бытие человека в мире, то есть жизнь, единственную реальность для человека. Одним из основоположников «философии жизни» является Фридрих Ницше (1844–1900). В частности, им были выдвинуты идеи о возможности человека полностью влиять на свою судьбу, движущих силах человеческого поведения («воля к жизни», «воля к власти» – экспансия своего «Я»), иллюзорности, неактуальности Бога («Бог умер») легла в основу Современные направления философии – прагматизм и экзистенциализм. «Философия жизни» Фридриха Ницше (1844–1900) явилась предшественницей ряда современных западных философских концепций, в основе которых лежат проблемы человека и его жизни, – прагматизма, феноменологии, экзистенциализма и др.

Цель философии, по Ницше, – помочь человеку максимально реализовать себя в жизни, приспособиться к окружающему миру. Жизнь (стержневое понятие данной философии) – мир в аспекте его данности по знающему субъекту, единственная реальность, существующая для конкретного человека[7]. Воля (лежит в основе как жизни, так и окружающего мира) воля к жизни, воля внутри самого человека («внутренний стержень»), неуправляемая, бессознательная воля – страсти, влечения,

аффекты, «воля к власти». В большей или меньшей степени присуща каждому человеку. По своей природе «воля к власти» близка к инстинкту самосохранения, является внешним выражением спрятанного внутри человека стремления к безопасности и движущей силой многих поступков чело века. Также, согласно Ницше, каждый человек, как и государство, осознанно или неосознанно стремится к расширению своего «Я» во внешнем мире, экспансии «Я». Общие понятия, основные проблемы, рассматриваемые экзистенциализмом.

Экзистенциализм как направление философии начал зарождаться еще в середине XX в., а в 20-е – 70-е годы XX в. приобрел актуальность и стал одним из популярных философских направлений в Западной Европе. Причины, способствовавшие в 20-е – 70-е гг. XX в. Актуализации и расцвету экзистенциализма:

- нравственные, экономические и политические кризисы, охватывавшие человечество до и во время первой и второй мировых войн и между ними;
- бурный рост науки и техники и использование технических достиже ний во вред человеку (совершенствование военной техники, автоматы, пулеметы, мины, бомбы, применение отравляющих веществ в ходе бое вых действий и т. д.);
- опасность гибели человечества (изобретение и применение ядерного оружия, приближающаяся экологическая катастрофа);
- усиление жестокости, бесчеловечное отношение к человеку (70 млн. погибших в двух мировых войнах, концлагеря, трудовые лагеря);
- бессилие человека перед природой и перед техногенным обществом.

Проблемы, рассматриваемые экзистенциализмом:

- уникальность человеческой личности, глубина чувств, переживаний, тревог, надежд, жизни в целом человека;
- разительное противоречие между человеческим внутренним миром и окружающей жизнью;
- проблема отчуждения человека (общество, государство стали для чело века абсолютно чужими, реальностью, которая полностью пренебрегает человеком, подавляет его «Я»);
- проблема одиночества, заброшенности человека (человек одинок в окружающем мире, у него нет «системы координат», где он чувствовал бы себя нужным);
- проблема бессмысленности жизни;
- проблема внутреннего выбора;
- проблема поиска человеком своего как внутреннего «Я», так и внешнего – места в жизни. Образ эпохи схватывается совокупной мыслью (которой и выступает философия) в форме основополагающих принципов и идей.

Философия XX века характеризуется большим разнообразием направлений, течений, школ и концепций. В ней сосуществуют как продолжатели классической философской традиции — неогегельянство, неокантианство, неотомизм — так и совершенно новые философские течения. Борьба и взаимодействие различных учений составляют богатство духовной мысли этого периода. Одной из ключевых проблем философии XX века стало отношение к классическим философским традициям. Этот век также отмечен значительным ростом влияния науки и её роли во всех сферах жизни

человека. Главными направлениями западной философии современности считаются позитивизм, экзистенциализм и религиозная философия. Если такие философы, как Ясперс и Сартр, рассматривали человеческое существование прежде всего через призму сознания и ставили субъективность на первое место, то Хайдеггер понимал субъективность как нечто, возникающее из самого бытия человека в мире. В течение жизни человек открывает для себя истину и познает тайны вещей, при этом процесс познания происходит через язык, который становится для него своего рода домом и средой обитания. Философию Хайдеггера часто называют фундаментальной онтологией — учением о человеческом существовании в мире. В его понимании экзистенциализм представляет собой учение о сознательном существовании личности. Это направление затрагивает столь тонкие стороны человеческого бытия, что многие из них трудно выразить научным языком. Экзистенциализм также выступает с предупреждениями против слепой веры в науку и технику, а также против бездумного приспособления сознания к внешним обстоятельствам, то есть конформизма, что имело большое значение для философской мысли XX века.

Экзистенциализм по-новому поставил проблему человеческой свободы, вопрос выбора жизненного пути и решил ее весьма эффективно. Экзистенциалисты разработали новый метод философского мышления, и этот метод был принят большинством современных философов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Первоначальный девиз экзистенциализма гласил: существование предшествует сущности. Другими словами, «человек сначала существует, встречается, рождается, и только потом формируется»[8] В заключение можно отметить, что существование — это философское понятие, которое традиционно используется для обозначения наличия вещи в реальности. В отличие от сущности, существование познается не умозрительно, а через опыт. Понятие существования (экзистенции) занимает важное место в европейской философии, особенно в экзистенциализме — одном из наиболее влиятельных направлений философии XX века. В этом учении существование рассматривается как связь с трансцендентностью, преодоление человеком собственных ограничений, и характеризуется как уникальное, личностное и конечное явление. Философски внутренний разум, побуждающий субъекта к жизнедеятельности на основе потребности в удовлетворении потребности, есть первичная форма избирательной и активной реакции всего живого на важные внешние условия.

Человек — это существо, предназначенное для мышления. Именно мышление отличает человека от простого биологического организма. Однако одной из неприятных сторон глобализации является дефицит идей и легкомыслие, из-за которых люди ведут поверхностный образ жизни, игнорируют моральные ценности, стремятся к удовольствиям, ищут богатство без усердного труда и проявляют такие отрицательные черты, как равнодушие. В таких условиях особенно важной становится задача защиты молодежи от чуждых идей, которые могут негативно повлиять на них. Также необходимо регулярно анализировать информацию, циркулирующую в медиасреде, и формировать обоснованные мнения о знаниях и данных.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Makhamatov T.– Ganiev B. – Pulatova D.A. – Makhamatov T.T. (2024). Dialectics of existential space in educational societies.
2. Кьеркегор С. Страх и трепет /пер. с дат. – Москва: ТЕРРА-Книжный клуб; Республика, 1998. с.23.
3. Н.Аббаньяно Введение а экзистенциализм С.Петербург. 1998. Стр. 46.
4. О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы. – <https://lex.uz/docs/5841077>.
5. Юлдашев Ф. А. Гармония потребности и интересов в информативном обществе (на примере молодежной деятельности) Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам 2023.
6. Сильвестрова Т.Я. Генезис и сущность общественных потребностей: Авт. дисс. докт. фил. наук. –Россия: Чебоксары, 2006. –С.13.
7. А. А. Шестаков, Т. Г. Стоцкая, А. Б. Макаров, М. В. Клецкин, О. В. Государева Философия в таблицах и схемах: учебное пособие. Самара: Изд-во «Самарский университет», 2014. – 32 с.
8. Пардаев, Султонмурод. Экзистенциализм фалсафасида инсон омилининг ўрни / Султонмурод Пардаев. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 30 (268). — С. 151-153. — URL

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

ANALYSIS OF THE ISSUE OF NATIONAL IDENTITY IN HISTORICAL-DYNAMIC AND CONTEMPORARY CONTEXTS

Menglikulov Umid Mamadiyevich,

Associate Professor at the Academy of Law Enforcement of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD)

Abstract. This article analyzes the issue of national identity within historical-evolutionary processes and in the context of modern globalization. National identity is interpreted as a multilayered phenomenon shaped by the complex interplay of socio-political, cultural, and economic factors. The article highlights the philosophical, political, and cultural significance of national identity in contemporary social development and discusses its role in ensuring geopolitical stability and preserving cultural heritage.

Keywords: national identity, globalization, cultural identity, social integration, political stability, identity crisis, national sovereignty, geopolitical factors.

MILLIY IDENTIFIKATSIYA MASALASINING TARIXIY-DINAMIK VA ZAMONAVIY KONTEKSTDA TAHLILI

Mengliqulov Umid Mamadiyevich,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti,
falsafa doktori (PhD).

E-mail: u.m.mengliqulov@proacademy.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy identifikatsiya masalasi tarixiy-evolyutsion jarayonlar hamda zamonaviy globallashuv sharoitidagi holati tahlil etiladi. Milliy identifikatsiya ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy omillarning o'zaro murakkab ta'siri natijasida shakllanuvchi ko'p qatlamli fenomen sifatida talqin qilinadi. Maqolada milliy identifikatsiya tushunchasining zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotdagi falsafiy, siyosiy va madaniy ahamiyati yoritilib, uning geosiyosiy barqarorlikni ta'minlash hamda madaniy merosni asrab-avaylashdagi roli muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy identifikatsiya, globallashuv, madaniy o'zlik, ijtimoiy integratsiya, siyosiy barqarorlik, identifikatsiya inqirozi, milliy suverenitet, geosiyosiy omillar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N25>

Kirish. Turli tarixiy bosqichlarda millat va milliy identifikatsiya masalasi jamiyat taraqqiyotining eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan. Milliy identifikatsiya — bu shunchaki shaxsning yoki guruhlarining o'zini muayyan millatga mansub deb anglash jarayoni emas, balki u tarixiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy omillarning murakkab o'zaro ta'sirida shakllanadigan ko'p qatlamli ijtimoiy konstruksiyadir. Har bir tarixiy davr o'zining siyosiy va sivilizatsion talablari asosida bu tushunchaga turlicha yondashgan, va bu holat jamiyatlar taraqqiyotida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirgan.

Shu nuqtai nazardan qargalganda, milliy identifikatsiyaning shakllanishi va inqirozi masalasi o'z-o'zidan faqatgina nazariy konsept sifatida emas, balki amaliy geosiyosiy va

ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kontekstida ham tahlil etilishi lozim. Haqiqatdan ham, millat va identifikatsiya fenomeni o'zida nafaqat shaxsiy, balki kollektiv "Men" va "Biz" obrazlarini aks ettiradi. U xalqlarning o'z-o'zini anglash darajasini, tarixiy xotirasini, madaniy o'ziga xosliklarini va ijtimoiy birdamligini belgilovchi asosiy ijtimoiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda milliy identifikatsiya masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Milliylik paradigmasi hanuzgacha geosiyosiy dunyo tartibining asosiy konstruktiv elementi sifatida saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida shaxslar, ijtimoiy guruhlar va butun jamiyatlar o'zlarining milliy o'zligini qayta aniqlashga majbur bo'lmoqda. Ayniqsa, global integratsiya va madaniy transmilliylik kuchayib borayotgan bir davrda, turli xil fuqarolik shakllari, gibridd o'zliklar va ko'p qatlamli identifikatsiyalar vujudga kelmoqda. Bu esa "Biz kimmiz?" yoki "Bizning milliy identikligimiz qanday?" kabi fundamental savollarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Dastlabki qarashda o'z milliy mansubligini aniqlash oddiy va intuitiv jarayondek tuyuladi. Biroq zamonaviy jamiyat amaliyoti, ayniqsa ko'p millatli, ko'p konfessiyali va transmadaniy davlatlar misolida bu masalaning qanchalik murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatmoqda. Shu sababli, zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va siyosiy adabiyotda milliy identifikatsiyaning inqirozga yuz tutishi to'g'risida tobora ko'proq ilmiy qarashlar ilgari surilmoqda.

Mazkur muammo bugungi kunda nafaqat Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi yoki Yaqin Sharq kabi siyosiy jihatdan beqaror mintaqalarga, balki AQSh, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi nisbatan barqaror demokratik tizimlarga ega davlatlarga ham taalluqlidir. Bu esa milliy identifikatsiyaning global miqyosdagi transformatsiyasi va muqobil identifikatsiyaviy ko'rinishlarning shakllanishi bilan izohlanadi.

Xususan, globallashuv sharoitida ko'plab davlatlar, jumladan mamlakatimiz ham, o'z milliy identifikatsiyasini saqlab qolgan holda, global iqtisodiy va madaniy makonga moslashish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bu holat "milliy o'zlikni saqlagan holda zamonaviylikni qamrab olish" muammosini keltirib chiqarmoqda. Bunday vaziyatda milliy identifikatsiyani saqlab qolish nafaqat siyosiy barqarorlik, balki ijtimoiy birdamlik va tarixiy uzviylikni ta'minlashning ham asosiy omili sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy jahon tartiboti va xalqaro ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimining shakllanishi jarayonida milliy identifikatsiya masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, global integratsiya jarayonlarining jadallashuvi — jumladan, yirik xalqaro tashkilotlar (Yevropa Ittifoqi, BMT, NATO) faoliyatining kuchayishi, xalqaro hayot tarzining standartlashuvi, transmilliy korporatsiyalarning kengayishi, xalqaro migratsiya oqimlarining ortib borishi, global mehnat bozori infratuzilmasining shakllanishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi — milliy identifikatsiyani qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda [5].

Bu omillar fonida, milliy identifikatsiya tushunchasining hayotiyliigi va barqarorligi tobora ko'proq savol ostiga olinmoqda. Ya'ni, avvalgi tarixiy bosqichlarda nisbatan aniqlik kasb etgan milliy o'zlik tushunchasi zamonaviy global kontekstda ko'p qatlamli, murakkab va o'zgaruvchan hodisaga aylangan. Bu esa nafaqat millatlar, balki alohida individlar darajasida ham identifikatsiya inqirozining chuqurlashuviga olib kelmoqda.

Globalizatsiya va milliy identifikatsiya o'rtasidagi munosabat ziddiyatli va murakkab tus olgan. Bir tomondan, globalizatsiya jamiyatlar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va iqtisodiy taraqqiyot uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Boshqa tomondan esa, u ko'plab davlatlar va millatlarda o'ziga xoslik, suverenlik va milliy qadriyatlarning yemirilishiga oid xavotirlarni kuchaytirmoqda. Shu sababli, ko'plab jamiyatlar global bosimlarga qarshi o'z milliy-madaniy identifikatsiyasini tiklash, himoya qilish va qayta aniqlash zaruratini his qilmoqda.

Ushbu vaziyatda milliy identifikatsiya hozirgi davrda nafaqat shaxsiy o'zlikni anglash vositasi, balki ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash, siyosiy barqarorlikni mustahkamlash va madaniy meros uzviyligini saqlab qolishning muhim strategik omili sifatida e'tirof etilmoqda. Milliy madaniyatlar va ularning institutsional vakillari bo'lmish davlatlar o'z milliy identifikatsiyasini global axborot oqimlari va iqtisodiy raqobat sharoitida saqlab qolish, ifoda etish va mustahkamlashga intilmoqda. Bu esa davlatlarni global kontekstdagi mavjudligini nafaqat texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali, balki o'z milliy o'ziga xosligini saqlagan holda ifoda etishga undaydi.

Natijada, globalizatsiya ikkiyoqlama jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda: bir tomondan — yaqinlashuv, madaniyatlararo muloqot va xalqaro birlashuvlarni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan — identifikatsiyaviy xavotirlar, differensiallikka intilish va milliy chegaralarni mustahkamlash harakatlariga sabab bo'lmoqda. Bu holat, ayniqsa, transmilliy madaniy kodlarning jadal kirib kelishi fonida, turli millat va davlatlarni o'z tarixiy-madaniy ildizlariga qaytishga va ularni qayta talqin qilishga undaydi.

Shunday qilib, zamonaviy global muhitda milliy identifikatsiya masalasi o'z mohiyatiga ko'ra faqat ijtimoiy-madaniy fenomen emas, balki siyosiy, iqtisodiy va gumanitar xavfsizlik nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan murakkab tizimli masalaga aylangan.

Zamonaviy davrda «jamiyat rivojlanishi» tushunchasi bilan milliy-madaniy xilma-xillik o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy-siyosiy jihatdan ham alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki har qanday ijtimoiy taraqqiyot jarayoni muqarrar ravishda identifikatsiya, ya'ni jamiyat a'zolarining o'zini tanish, madaniy, etnik va tarixiy mansublikni anglash jarayonlariga tayanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, milliy-madaniy xilma-xillik faqatgina madaniyatlararo muloqot shakli emas, balki ijtimoiy integratsiyaning barqarorligi, siyosiy mustahkamlik va ijtimoiy birdamlikning muhim tayanchi sifatida qaralmoqda.

Globalizatsiya sharoitida milliy identifikatsiya inqirozini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganish nafaqat nazariy ahamiyatga, balki muayyan ijtimoiy-siyosiy natijalarni anglashga xizmat qiluvchi tamoyil xarakteriga egadir. Bunday tahlil global ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mahalliy madaniy kontekst bilan qanday o'zaro ta'sirlashayotganini, shuningdek, jamiyatlarning o'z milliy-madaniy asoslarini qanday saqlab qolayotganini tushunishga imkon beradi. Milliy identifikatsiyaning inqirozli holatlari aslida zamonaviy sivilizatsiyaning rivojlanishida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan, milliy identifikatsiya zamonaviy jamiyatning sotsial-madaniy dinamikasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralishi kerak. U jamiyatning o'z-o'zini anglash, o'zini rivojlantirish, ichki barqarorlikni ta'minlash va madaniy merosni uzluksiz davom ettirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, global madaniy bosimlar, axborot oqimlarining notekis tarqalishi, transmilliy qadriyatlarning keng tarqalishi sharoitida milliy

identifikatsiyani saqlab qolish va mustahkamlash davlat siyosati va ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda.

Shu bois, milliy identifikatsiya masalasi bugungi kunda nafaqat madaniyatshunoslik yoki sotsiologiya, balki falsafa, siyosatshunoslik, huquqshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning kesishgan nuqtasida tahlil qilinayotgan ko'p qirrali, tizimli fenomen sifatida baholanmoqda. Bu masalaga kompleks yondashuv zamonaviy davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi: u milliy suverenitetning yaxlitligini ta'minlash, madaniy merosni saqlab qolish, fuqarolik birdamligini mustahkamlash va jamiyat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda axloqiy barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda identifikatsiya fenomenini anglash muammosi o'zining murakkab va ko'p qatlamli tabiati bilan ajralib turadi. Olimlarimiz ta'kidlaganidek, bu murakkablik faqatgina bugungi global jarayonlar va ularning o'zgaruvchan rivojlanish tendensiyalari bilan emas, balki bevosita "identifikatsiya" tushunchasining o'ziga xos konseptual noaniqligi bilan ham bog'liqdir. Identifikatsiya muammosi hozirgi paytda ko'plab ilmiy sohalar — sotsiologiya, psixologiya, falsafa, antropologiya va siyosatshunoslikda muhim tadqiqot obyekti aylangan bo'lsa-da, uning mohiyatini izohlashga doir yondashuvlar xilma-xil va ko'p jihatlidir.

Adabiyotlar sharhi. "Identifikatsiya" tushunchasining genezisini o'rganar ekanmiz, uning eng dastlabki izlari qadimgi davr falsafiy merosida, ochiq yoki bilvosita shaklda, kuzatiladi. Jumladan, Platon, Aristotel kabi faylasuflarning qarashlarida insonning o'zini anglash, o'zini boshqalar bilan taqqoslash va jamoaga nisbatan o'z o'rnini aniqlash masalalari bevosita identifikatsiyaning falsafiy ildizlariga borib taqaladi. Ularning asarlarida shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, axloqiy o'zlik, mavjudlik va tafakkur orqali o'zini anglash g'oyalari ilgari surilgan.

Yangi davrga kelib, bu masala yanada chuqurroq gnoseologik mazmunga ega bo'lib, individual ong, shaxsiy refleksiya va bilim orqali o'zlikni anglash muammosi asosiy tadqiqot obyekti aylangan. Dekartning "Cogito, ergo sum" (Men o'ylayman, demak, mavjudman) tamoyili identifikatsiyaning gnoseologik o'lchamiga tamal toshi qo'ygan bo'lsa, Kant, Spinoza, Yum, Şelling va Hegel singari mutafakkirlar shaxs va jamiyatning o'zaro nisbatini hamda identifikatsiya jarayonining falsafiy mezonlarini chuqur tahlil qilganlar [1].

XX asr psixologiyasi va sotsiologiyasida ushbu tushunchaning evolyutsiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Sigmund Freydning psixanalitik nazariyasi orqali identifikatsiya shaxsiy rivojlanishning psixodinamik omili sifatida talqin qilinsa, Erik Fromm va Erik Erikson ushbu jarayonni insonning ijtimoiy kontekstdagi o'zlikni anglash mexanizmi sifatida yoritgan [2]. Jorj Mid va Erving Goffman esa ijtimoiy identifikatsiyani ijtimoiy rollar, intersub'yektiv muloqot va jamiyatdagi o'zaro kutilmalar orqali shakllanadigan dinamik hodisa sifatida tahlil qilgan. Zamonaviy ijtimoiy nazariyachilar, xususan Yurgen Habermas, Entoni Giddens hamda Semuel Xantington kabi mualliflar esa identifikatsiyani sivilizatsiyalararo muloqot, modernlik va globallik kontekstida qayta talqin qilganlar [3].

Milliy va xorijiy tadqiqotlar identifikatsiya jarayonining ikki asosiy darajada — individual va ijtimoiy qatlamlarda sodir bo'lishini ta'kidlaydi. Shaxsiy (individual) identifikatsiya — bu insonning o'ziga xoslik sifatini belgilovchi ichki psixologik va madaniy mezonlarning shakllanishi bo'lsa, ijtimoiy identifikatsiya — bu shaxsning o'z jamiyatining ijtimoiy me'yor va qadriyatlariga moslashuvi, o'zini ular bilan uyg'unlashtirishi natijasida

vujudga keladi. Ushbu ikki daraja o'zaro bog'liq holda ishlaydi va shaxsning ijtimoiy tizimdagi holati, o'zini jamiyatda qanday tutishi va o'zini qanday anglashini belgilab beradi.

Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy fan doirasida identifikatsiya fenomenining yagonaligi mavjud emas. Turli nazariy maktablar va ilmiy yondashuvlar ushbu tushunchani o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Masalan, sotsiologik yondashuvlar ko'proq jamiyatdagi ijtimoiy rollar va strukturaviy pozitsiyalarga urg'u bersa, psixologik konsepsiyalar shaxsiy identitetning ichki motivlari va kechinmalarini ilgari suradi. Shu bois, identifikatsiya ko'p o'lchamli, ko'p bosqichli va madaniy jihatdan shartlangan ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida baholanishi lozim.

Umuman olganda, identifikatsiya shaxs yoki guruhning ma'lum bir ijtimoiy hamjamiyat, qadriyatlar tizimi, madaniy kontekst va turmush tarziga nisbatan o'z-o'zini tenglashtirishi, ushbu tizimlar bilan o'zini uyg'unlashtirish jarayonidir. Bu jarayon individual o'zlikni anglashdan tortib, ijtimoiy strukturalarda o'z o'rnini belgilashgacha bo'lgan keng ko'lamli ijtimoiy-madaniy harakatni qamrab oladi.

Identifikatsiya fenomenining ko'p qirrali va dinamik xarakteriga tayanib, uning turli shakllarini tahlil qilgan holda quyidagicha xulosaga kelish mumkin.

Avvalo, identifikatsiyaning shakllanishi va rivojlanish jarayoni shaxsning o'zini boshqalar bilan o'zaro munosabatlar kontekstida anglashga, ular bilan taqqoslashga va ijtimoiy muhit tomonidan tan olinishi zaruratiga asoslangan antropologik ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi. Bu ehtiyoj shaxsning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini aniqlash, o'ziga nisbatan barqaror munosabatni shakllantirish va ma'naviy butunlikni ta'minlash zarurati bilan bog'liq. Shu ma'noda, identifikatsiya – bu butun hayot davomida davom etadigan, izchil bo'lmagan, regressiv yoki progressiv yo'nalishlarda kechadigan murakkab psixosijtimoiy jarayondir. U shaxsiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi.

Identifikatsiya mohiyatan ijtimoiy hodisa bo'lib, u faqat shaxsning jamiyatdagi boshqa subyektlar bilan o'zaro munosabatlari orqali, tajriba almashinuvi va kommunikativ interaksiya orqali yuzaga keladi. Mazkur jarayon doirasida shaxs o'zining ijtimoiy holati, mavqeyi va tegishlilik tuyg'usini anglaydi, uni o'zlashtiradi va kerak bo'lsa, yangidan talqin qiladi. Demak, identifikatsiya – bu doimiy ravishda qayta qurilib boradigan, o'zgaruvchan ijtimoiy-kognitiv konstruktsiya bo'lib, shaxs ijtimoiy tizimlar bilan integratsiyalashuvining asosiy shakli hisoblanadi.

Identifikatsiyaning asosiy funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: shaxs va boshqalar o'rtasidagi "Men" va "Men emas" chegaralarini aniqlash [2]; shaxsiy taraqqiyotni rag'batlantirish; psixologik va ijtimoiy uyg'unlikni shakllantirish; xulq-atvor va faoliyatni tartibga solish hamda ijtimoiy tajribani anglash va izohlash imkonini berish. Ushbu funksiyalar shaxsning nafaqat individual identikligini, balki uning ijtimoiy tizimlarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Bugungi texnologik taraqqiyot va globallashtirish sharoitida yuzaga kelgan madaniy-sivilizatsion inqiroz ilgari identifikatsiyaning mustahkam poydevorini tashkil etgan insoniy qadriyatlarning qayta baholanishiga olib kelmoqda. Jamiyatning tarkibiy tuzilmasida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar shaxsning mavjudligini anglash jarayonida noaniqliklar yuzaga kelishiga, natijada esa identifikatsiya inqirozining chuqurlashishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi kunda identifikatsiya tizimidagi ichki o'zaro bog'liqlikka alohida e'tibor qaratish lozim. Unga ko'ra, bir ijtimoiy sohadagi identifikatsion transformatsiya boshqa sohalarda ham muayyan o'zgarish yoki inqirozni yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy

identifikatsiyaning zaiflashuvi yoki yo'qolishi milliy identifikatsiya tizimiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli identifikatsiya tizimiga yondashuvda uni faqat alohida qatlam emas, balki kompleks, o'zaro ta'sirchan elementlar tizimi sifatida o'rganish zarurati paydo bo'lmoqda.

Tahlil va natijalar: Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki:

- Milliy identifikatsiya ijtimoiy munosabatlar va shaxsning o'zini tanish ehtiyojiga asoslangan dinamik psixosotsial jarayon.
- Identifikatsiya shaxsiy (individual) va ijtimoiy qatlamlarda mavjud bo'lib, ularning o'zaro ta'siri shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi.
- Globallashtirish jarayonlari milliy identifikatsiyani murakkablashtirib, uning inqiroziga olib kelmoqda.
- Identifikatsiya tizimlaridagi o'zaro bog'liqlik sababli, ijtimoiy identifikatsiyaning zaiflashuvi milliy identifikatsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- Milliy identifikatsiya davlat suvereniteti, madaniy meros va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega.

Xulosa. Milliy identifikatsiya faqatgina madaniy fenomen emas, balki zamonaviy siyosiy, iqtisodiy va gumanitar xavfsizlik kontekstida ham muhim mavzu hisoblanadi. Globallashtirish jarayonlari ijtimoiy integratsiya va madaniy muloqot imkoniyatlarini oshirsa-da, u milliy o'zlik va suverenitetga tahdid soluvchi jarayon sifatida ham ko'rilmogda. Shu sababli davlatlar va jamiyatlar o'z milliy identifikatsiyasini himoya qilish, saqlash va yangilash zaruratini his qilmoqda. Bu jarayon siyosiy barqarorlik, ijtimoiy birdamlik va madaniy merosni uzluksiz rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. Stanford University Press. 1991.
2. Эрикссон Э. Идентичность: юность и кризис. М., 1996; Бернс Р. Развитие Я-концепции и воспитание. М., 1986.
3. Альтерматт У. Этнонационализм в Европе // Пер. с нем. С.В.Безарновой. М.: РГГУ, 2000.
4. Huntington S. P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster. 1996.
5. Smith R. C. Transnationalism and National Identity. Routledge. 2002.
6. Smith A. D. National Identity. University of Nevada Press. 1991.
7. Hall S. Questions of Cultural Identity. SAGE Publications. 1996.
8. Habermas J. The Inclusion of the Other: Studies in Political Theory. MIT Press. 1998.

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE THINKER THAT FASCINATED THE WEST

Tukhtarov Ismatulla Murodovich,

Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor,

Ergashev Ulugbek Adhamovich, teacher,

Ferghana State Technical University

Abstract. This article analyzes the scientific and creative activities of the great thinker Ahmad Ferghani, the recognitions of national and foreign scientists, and the scientific and philosophical significance of his incomparable scientific heritage, and presents a number of scientific foundations for the great contribution of the scientific research work conducted by Ahmad Ferghani to modern science.

Keywords: Al-Farghani, "Bayt ul-Hikma", "History of Clocks", encyclopedia, astronomy, geography, mathematics, celestial movements, astrolabe.

MAG'RIBNI MAFTUN AYLAGAN MUTAFAKKIR

To'xtarov Ismatulla Murodovich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent,

E-mail: tukhtarov.ismatulla@mail.ru

Ergashev Ulug'bek Adxamovich,

o'qituvchi,

Farg'ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Ahmad Farg'oniy ilmiy-ijodiy faoliyatiga doir ma'lumotlar, milliy va xorijiy olimlarning e'tiroflari hamda beqiyos ilmiy merosining ilmiy-falsafiy ahamiyati tahlil etilgan bo'lib, Ahmad Farg'oniy tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining hozirgi zamon ilm-faniga qo'shgan ulkan hissasi to'g'risidagi bir qator ilmiy asoslar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Al-Farg'oniy, «Bayt ul-Hikma», «Ssoatlar tarixi», entsiklopediya, astronomiya, geografiya, matematika, samoviy harakatlar, asturlab.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N26>

Kirish. O'zbek xalqi o'z tarixida butun dunyoga mashhur bo'lgan olimu-ulamolarning katta sulolasini yetkazib berganligi bilan haqli ravishda faxrlanadi. ular qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosni avaylab asrash va uni chuqur o'rganish bugungi avlod oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ana shunday noyob ilmiy meros qoldirgan vatandoshlarimizdan biri Ahmad Farg'oniy (taxm.797-861yy.) dir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Biroq ilk o'rta asrlarda juda mashhur bo'lgan Ma'mun Akademiyasi — «Bayt ul-Hikma»ga rahbarlik qilish darajasigacha erishgan Ahmad Farg'oniy astronomiya, geografiya, matematika va boshqa fanlarga oid ko'pgina asarlar yaratgan bo'lishiga qaramasdan ulardan ba'zilarining qo'lyozma nusxalarigina bizgacha etib kelgan, xolos. Olimning zamondoshlari muhammad Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniy, o'zining

“Arab adabiyoti tarixi” nomli asari bilan mashhur boʻlgan nemis bibliograf olimi, tarixchi K.Brokelman kabilarning asarlari hamda davrimizning bir qancha fargʻoniyshunoslik yoʻnalishida yaratilgan manbalarida qayd etilishicha, Fargʻoniy ijodiga oid boʻlgan va dunyoning Aqsh, Misr, Iroq, Tunis, Marokash, Turkiya, Hindiston, Eron, Angliya, Germaniya, Frantsiya, Rossiya, Niderlandiya, Irlandiya singari davlatlarining kutubxonalarda koʻz qarichigʻidek avaylab asrab kelinayotgan quyidagi asarlar allomaning ilmiy merosi salohiyati yuksak boʻlganligi toʻgʻrisida guvohlik beradi:

Fanda koʻp hollarda ana shu nom bilan ataladigan mazkur asar «Javomi’ ilm an-nujum val harakat as-samoviya» nomi bilan ham yuritiladi. Ahmad Fargʻoniyning bu asari lotin tiliga tarjima qilingan va 1669-yilda nashr etilgan. ushbu asar Prinston (Aqsh), Berlin, London, Mashhad, Tehron, Marokash, Oksford, Parij, Sankt-Peterburg, Qohira shaharlaridagi kutubxonalarda saqlanib kelinmoqda. 1175-yilda Xerard Kremon tomonidan lotin tiliga oʻgirilgan. mutafakkirning mazkur asari Yevropaning turli mamlakatlarida 1193-, 1533-, 1537-, 1590-, 1910-yillarda chop etilgan. Kichik bir parchasi 1960-yilda rus tilida eʼlon kilingan. Ruscha toʻla tarjimasini B.A.Rozenfeld, I.G.Dobrovolskiy va N.D.Sergeyevlar tomonidan amalga oshirilgan boʻlsa-da, biroq hamon nashr etilmagan.

Asar, shuningdek, “Kitob al-komil al-Fargʻoniy” (“Al-Fargʻoniyning mukammal kitobi”) nomi bilan ham maʼlum boʻlib, uchta qoʻlyozma nusxasi hozirda berlin kutubxonasida saqlanmoqda. V.Alvordning 1893-yili berlinda nashr etgan, berlindagi qirollik kutubxonasida saqlanayotgan arabcha qoʻlyozmalar katalogida bular haqida toʻliq maʼlumotlar berilgan. ushbu asarning bir nusxasi parijda 1546,5 raqam bilan saqlanmokda.

«Oyning Yer ustida yoki uning ostida boʻlish paytdagi vaqtlarini oʻrganish haqida risola» asarning bir nusxasi bugungi kunda qohira shahri kutubxonasida saqlanmoqda.

«Yetti iqlim hisobi» asari ona diyorumiz jugʻrofiyasini oʻrganishga bagʻishlangan koʻllanma boʻlib, germaniyaning gota shahrida saqlanmoqda. Ahmad Fargʻoniy bu asarida sharq xalqlarida keng tarqalgan etti iqlim asoslarini atroflicha oʻrganib chiqib, ularning ilmiy oʻlchovlarini batafsil bayon etib bergan.

Ahmad fargʻoniyning ikki nom bilan ataladigan «Yaxshilikka boshlaydigan qoʻllanma” yoki «Astronomiya asboblarida marmarning xizmati haqida kitob»i qoʻlyozmalari hozirda halab (Suriya) va Qohira (Misr) shaharlaridagi kutubxonalarda saqlanmoqda. Bu kitob haqida Ibn al-Kiftiyning arab tilidagi «Tarix al-Hukamo» (Misr, 1908, 188-bet) asarida eslatilgan. Asar qoʻlyozmasi Hindistonning Patna shahri kutubxonasida saqlanmoqda.

Mazkur asarning nomi beruniyning “doiradagi xordalarni undagi siniq chiziqlar yordamida aniqlash kitobi”da eslatib oʻtilgan.

Koʻrinib turibdiki, Ahmad Fargʻoniyning bizgacha yetib kelgan ilmiy merosini hajman juda katta deyish qiyin. biroq bir tarixiy haqiqat ravshanki, har qanday ilmiy merosning qadri va qimmatini hamisha uning hajmi bilan emas, balki taraqqiyotga daxldor muammolarning yechimi uchun xizmat qilishga qaratilgan mazmun va mohiyati bilan oʻlchangan. Ana shu maʼnoda Ahmad Fargʻoniyning kichik ilmiy merosi beqiyos ahamiyatga molikdir.

Biroq shu oʻrinda alohida qayd etish lozimki, sobiq ittifoq davrida Ahmad Fargʻoniyning fan tarixidagi xizmatlari adolatsiz ravishda etarlicha yoritilmay kelindi, hatto ataylab tilga olinmaslik uchun harakat qilindi va pirovardida allomaning kamsitilishi hollariga yoʻl qoʻyildi. Hattoki, u dunyoning eng buyuk astronomlaridan biri boʻlganligiga qaramasdan oʻsha davrdagi astronomiya darsliklarida ham nomi deyarli tilga olinmagan. Bularning barchasi kamlik

qilganidek, bugungi kunda internet sahifalariga joylashtirilgan vikipediya elektron lug'atida esa buyuk vatandoshimizni "O'rta asrlardagi ulkan fors mutafakkirlaridan biri" (один из крупнейших средневековых персидских ученых) deb ta'riflanganligi, juda ajablanarlidir [6]. Vaholanki, Ahmad Farg'oniyni shajarasi hech qachon eronlik forslar bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan va zardushtiylarga borib taqalganligi tarixdan ma'lum. Otasi muhammad esa ilk bor zardushtiylikdan voz kechib, islomni qabul qilganligi haqidagi taxminlar mavjud.

Taassufki, bu xildagi adolatsizlik hatto astronomiya tarixiga bag'ishlangan Yu.G.Perelning «Koinot haqida tasavvur taraqqiyoti» (Moskva, 1958), V.P. Pipunirovning «Soatlar tarixi» (Moskva, 1982), sobiq ittifoq tuzumi davrida nashr etilgan "O'zbek sovet entsiklopediyasi" (1-tom. Toshkent, 1971. "Astronomiya" maqolasi) kitoblarida ham uchraydi.

Holbuki, fransuz ma'rifatparvar mutafakkirlari D.Didro va J.D.Alamberlar tomonidan yaratilgan mashhur "qomus, yoki fanlar, san'at va hunarlarning to'liq lug'ati" nomi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan qomusda Ahmad Farg'oni to'g'risida kattagina maqola berilgan edi[2].

Aslida esa Ahmad Farg'oni asarlari hozirga qadar dunyo olimlari tomonidan yuqori baholanib kelingan va katta qiziqish bilan mutolaa qilinganligi to'g'risida juda ma'lumotlar ko'p. Jumladan, X asrda yashab ijod etgan eronlik geograf Abu Ali Ahmad ibn Umar ibn Rusta, marokashda tug'ilib Eronda ta'lim olgan va Misrda vafot etgan Abdulvohid al-Marokashiy (1185—1250) kabi olimlar o'z ilmiy izlanishlarida farg'oni asarlaridan keng foydalanganliklarini e'tirof etadilar.

Ahmad Farg'oni asarlari jahon fani va amaliyoti taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu mubolag'a emas. Xususan, Ahmad Farg'oniyni kitoblari XII asrdan Ispaniya, Italiyada bir necha marta lotin tiliga tarjima qilingan va ko'plab nusxalarda ko'chirilib universitetlarda darslik sifatida foydalanilgan. jumladan, uning "Samoviy harakat va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob"i XII asrda ikki marta lotin tiliga, XIII asrda esa boshqa Yevropa tillariga tarjima qilingan. o'sha davrda ushbu kitob Yevropa universitetlarida asosiy qo'llanmalardan biri sifatida keng foydalanilgan. Astronomiyaga oid bilimlarning o'ziga xos qomusi bo'lgan bu asarda kuzatuv asboblari va quyosh soatlari ham tasvirlangan bo'lib, uning 1493-yili Ferrari(Italiya)da nashr qilingan lotincha tarjimasi eng dastlabki bosma kitoblardan hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. Ushbu asarda osmon va yulduzlar, yulduzlarning harakati va yulduzlar turkumlari to'g'risida umumiy ma'lumotlar berilgan. Golland arabshunosi va matematigi Yakob Golius 1669-yilda Amsterdamda mazkur kitobni arab va lotin tilidagi matnlari bilan nashr ettirib, Alfraganus nomini butun dunyoga yoyish uchun katta hissa ko'shdi.

Vaholanki, dunyo astronomlarining bir necha avlodi, hech bir mubolag'asiz, Ahmad Farg'oni asarlarini o'qib yetuk olim bo'lishdi. Tarixdan ma'lumki, Yevropaning yirik olimlari Ahmad Farg'oniyni asarlari asosida ma'ruzalar o'qiganlar. Xususan, mashhur astronom va matematik Regiomontan (1436-1476 yillar) 1464-yili Paduyada (Italiya) Ahmad Farg'oniyni hayoti va astronomik tadqiqotlari haqida leksiyalar o'qigan.

Ayniqsa, mashhur italyan adibi, uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri va shoiri Dante Aligeri (1265-1321) ijodida Ahmad Farg'oni asarlarining ta'siri katta bo'lganligini keng jamoatchilik yaxshi biladi. Italian uyg'onish davrining bu mashhur shoiri o'zining "Ilohiy komediya"sida Ahmad Farg'oniyni ilmiy-falsafiy qarashlarini katta ehtiros bilan tarannum etgan va uni jahonning buyuk daholari qatoriga qo'ygan edi. Shoir o'zining "Bazm" asarida Ahmad Farg'oniyni "samoviy harakat va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob"

kitobidagi ilmiy tadqiqot natijalaridan iqtiboslar keltirgan. bundan ham muhimrog'i, Dante Ahmad Farg'oniy ma'lumotlarini boshqa astronomlarnikiga qaraganda to'g'riroq ekanligini alohida ta'kidlagan. Chunonchi, "Bazm" asarida Dante tomonidan keltirilgan Yer bilan zuhro o'rtasidagi eng qisqa masofa Yer radiusining 167 barobariga tengligi to'g'risidagi raqamlar Ahmad Farg'oniy hisoblaridagi raqam bilan bir xil.

Farg'oniy bobomiz nomini, hattoki, Shiller(1759-1805)ning "Vallenshteyn" asarida ham uchratamiz. bularning barchasi, ma'lum ma'noda, Ahmad Farg'oniy sharq mamlakatlaridan ko'ra g'arbda — Yevropada ko'proq shuhrat qozongan, deyishimiz uchun etarlicha asos bo'la oladi.

Ahmad Farg'oniy o'z asarlarida birinchi bo'lib aniq geografik xaritalar tuzishga yo'l ochib berdi. Xristofor Kolumb 1442-yilda "santa mariya" nomli kema etakchiligida uchta kemada dunyo okeanlari osha sayohatga otlangan chog'ida arab dengizchilarining xaritalaridan foydalanganligini alohida e'tirof etgan. Bu borada Sankt-Peterburglik olim I.Yu.Krachkovskiyning "Ilk geografik asarlardan oldingi arablar geografiyasi" («Geografiya u arabov do pervix geograficheskix proizvedeniy»), "Grachyov maktabi geograflari" («Geografiy grachevskoy shkoli») deb nomlangan va boshqa yirik maqolalarida Ahmad Farg'oniy ijodini ilmiy asosda tahlil qilishga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. shuningdek, uning shogirdlari T.Shumovskiy, Yu.Yushkevich, B.A.Rozenfeld, M.Salye, I.Dobrovolskiy, N.Sergeyevlar ham bu sohada bir qator ilmiy maqolalar yozishgan[3]. ulardagi ma'lumotlarga ko'ra, bir portugal dengizchisi qo'lida arab olimlari tuzgan xaritalar saqlanib qolgan, keyinchalik uning qiziga genuyalik Xristofor Kolumb uylanib, o'sha xaritalarni meros tariqasida mulk etib qabul qilgan. Kolumb aynan shu xaritalarga asosan ekspeditsiya uyushtirish uchun harakat qilgan va boshqalardan buni sir tutgan. undagi hisoblardan unumli foydalangan Xristofor Kolumb: "Yer meridianlarining bir darajasi miqdori haqidagi Ahmad Farg'oniy hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim", — degan dastxat yozib qoldirgan [1;190].

Bundan tashqari Ispaniyaning Kolumbiya kutubxonasida mashhur sayyohning noyob bir dastxati mavjud bo'lib, unda kolumb o'z sayohatlari va tadqiqotlarida Ahmad Farg'oniyni ilmiy merosiga tayanib ish ko'rganligini ham ko'rsatib o'tgan. Xristofor Kolumb o'zining Amerika qit'asiga sayohati chog'ida Ahmad Farg'oniyni Yerning aylana va shar shaklda ekanligi to'g'risidagi fikrlarini asos qilib olgan holda yo'lga otlangan. Biroq shunga qaramasdan u Osiyogacha bo'lgan masofani qisqartirish maqsadida 7091 futdan iborat arab milyasi o'rniga 4856 futdan iborat rim milyasidan iborat masofa o'lchovi birligidan foydalanganligi bois Yer aylanasiga baho berishda xatolikka yo'l qo'ygan.

Mamlakatimiz olimlaridan esa Ahmad Farg'oniy hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini o'rganishda T.Qori-Niyoziy, H.Hasanov, A.Ahmedov, M.M.Xayrullayev va boshqalarning ilmiy ishlarida alloma asarlari tilga olinib, uning dunyo ilm-faniga buyuk hissa qo'shganligi qayta-qayta ta'kidlab o'tilganligini ta'kidlashimiz mumkin. A.Nosirov va X.Hikmatullayevlarning «Ahmad Farg'oniy» (Toshkent, «Fan», 1966), O.Bo'riyevning "Al-Farg'oniy va uning ilmiy merosi" (T.; "O'zbekiston". 1998), A.Qayumovning «Ahmad al-Farg'oniy» (Toshkent, «Cho'lpon» nashriyoti,1998) risolalari olim haqidagi yurtimizda chop qilingan ilk asarlar bo'lgan edi[4]. Bu boradagi kemptikni to'ldirish maqsadida keyingi yillarda biz ham muayyan darajadagi urinishni amalga oshirdik[5].

Xulosa. Ammo kezi kelganda shuni ham alohida ta'kidlash joizki, bu borada haligacha na xorijda, na bizda o'rta asrchilik sharoitida o'zining buyuk ilmiy ishlari bilan butun dunyoga

mashhur bo'lgan va o'ziga xos uyg'onish davrini boshlab bergan Ahmad Farg'oniy to'g'risida yirik tadqiqot ishlari amalga oshirilib, olimning ilmiy salohiyati batafsil yoritilgan asarlar yozilgani yo'q. Olim asarlari qo'lyozmalarining o'zimizda yo'qligi, balki barchasi dunyoning turli davlatlaridagi kitob javonlarida saqlanib kelinayotganligi sababli birortasi na rus, na o'zbek tiliga to'liq tarjima qilinib, chop etilmagan. boshqacha qilib aytganda, bizningcha, "bugun mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi oldida Ahmad Farg'oniy timsolida antik dunyo madaniyati va ilmu-fanining chuqur bilimdoni, sharqu g'arbda katta ijobiy fikr va tasavvur uyg'ota olgan, O'rta asrlar o'rta Osiyosi uyg'onish davriga asos solgan va Yevropa renessansi uchun zamin yaratgan donishmand qiyofasini yaratish vazifasi turibdi"[5;58]. Bu esa, o'ylaymizki, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mustaqil O'zbekiston taraqqiyotini yanada tezlashtirish, uning dunyoga yuz tutishi va jahon hamjamiyatidan o'zining munosib o'rnini egallashi, yurtimizning boy ilmi va ma'naviy merosidan butun jahon ahlini voqif qilish maqsadida amalga oshirayotgan davlat va jamiyat boshqaruvi borasidagi bunyodkorlik sa'y-harakatlari bilan to'liq hamohangdir.

YUNESKO Xalqaro tashkilotining tashabbusi va O'zbekiston Respublikasi xukumati qarori bilan 1998-yilning oktyabr oyida buyuk vatandoshimiz Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200 yillik yubileyining mamlakatimizda va butun jahonda keng nishonlanishi esa ulug' olimning ilmiy merosi barhayotligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Каримов И. Аҳмад ал-Фарғоний ҳайкалининг очилишига бағишланган маросимда сўзланган нутқ. – Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.: "Ўзбекистон", 1999.
2. Дидро Д., Аламбер Ж.Д. Энциклопедия, или Толковый словарь наук, искусств и ремёсел. 1751.
3. Розенфельд Б.А., Добровольский И.Г., Сергеева Н.Д. Об астрономических трактатах аль-Фаргани. – Историко-астрономические исследования. М., 1972; Розенфельд Б.А., Сергеева Н.Д. Стереографическая проекция. М.: Наука, 1973; Сергеева Н.Д., Карпова Л.М. Стереографическая проекция ҳақида асосий теореманинг ал-Фарғоний исботи. - Вопросы истории естествознания и техники, 1972, №40.
4. Носиров А., Ҳикматуллаев Х. Аҳмад Фарғоний. Тошкент, «Фан», 1966; Бўриев О. Ал-Фарғоний ва унинг илмий мероси.Т.; "Ўзбекистон". 1998; Қайумов А. Аҳмад ал-Фарғоний.Тошкент, «Чўлпон» нашриёти,1998.
5. Аъзамов А.А., Тожиев Р.Ж., Тўхтаров И.М. Аҳмад Фарғоний: ҳаёти ва ижоди. Тошкент, "Доно" нашриёти, 2020.
6. <https://wikipedia.org/>

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

SOCIO-CULTURAL PROGRESS: CIVILIZATIONAL FOUNDATIONS AND TRENDS

Ilkhom Toirov,
PhD, Senior Lecturer,
Fergana State University

Abstract. This article analyzes the processes of socio-cultural development from the standpoint of a civilizational approach. The article examines the role of such factors as social institutions, value system, Religion, Science, Education and art in the development of society. The current issues of intercivilizational dialogue and cultural integration in the context of modern globalization are also highlighted, the research results are aimed at substantiating the importance of a civilizational approach to a deeper understanding and management of socio-cultural progress.

Keywords: culture, social development, globalization, informatization, spiritual values, cultural activity.

IJTIMOYIY-MADANIY TARAQQIYOT: SIVILIZATSION ASOSLAR VA YO'NALISHLAR

Ilhom Toirov,
Phd, katta o'qituvchi,
Farg'ona davlat universiteti
E-mail: i.toirov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jarayonlari sivilizatsion yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy institutlar, qadriyatlar tizimi, din, fan, ta'lim va san'at kabi omillarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tadqiq etilgan. Shuningdek, zamonaviy globalizatsiya sharoitida sivilizatsiyalararo muloqot va madaniy integratsiyaning dolzarb masalalari yoritilgan bo'lib, tadqiqot natijalari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni chuqurroq anglash va uni boshqarishda sivilizatsion yondashuvning ahamiyatini asoslashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, ijtimoiy taraqqiyot, globalizatsiya, axborotlashuv, ma'naviy qadriyatlar, madaniy faoliyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N27>

KIRISH

Insoniyat tarixi davomida jamiyatning ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti murakkab, ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'lib kelgan. Har bir davrda inson faoliyati, qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlar muayyan o'zgarishlarga uchrab, o'ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Ana shu o'zgarish va yangilanishlar sivilizatsiyalar shakllanishi, rivojlanishi va o'zaro ta'sirida aks etgan bo'lib, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning chuqur mohiyatini anglashda sivilizatsion yondashuv muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Global va mintaqaviy miqyosdagi sivilizatsiyalar taraqqiyotini tahlil qilish, ularning ijtimoiy va madaniy omillar bilan qanday uyg'unlashganini o'rganish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Ayniqsa, zamonaviy dunyoda globallashuv,

madaniy integratsiya va sivilizatsiyalararo muloqot sharoitida bu masala yanada dolzarb tus olmoqda.

Milliy mustaqillik tufayligina milliy madaniyatimizning boy va ko'hna sarchashmalari qaytadan kashf etildi. Xalqimizni boy madaniy merosimizdan keng bahramand etish, madaniy obida va qadriyatlarimizni qaytadan tiklash va rivojlantirish imkoniyati vujudga keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, uzoq yillar davomida kishilar ongiga zo'r berib targ'ib etilgan kommunistik g'oya va mafkura ta'lim-tarbiya, fan va madaniyatning ijtimoiy taraqqiyot va shaxs hayotidagi ahamiyatiga yetarlicha e'tibor bermaslikdan tashqari sivilizatsiya deganda moddiy madaniyatni, fan deganda esa ishlab chiqaruvchi kuchni tushunishga zo'r berdi. Madaniy faoliyatga bo'lgan e'tiborsizlik esa oxir-oqibatda butun ijtimoiy-siyosiy sistema inqirozining, ma'naviy qashshoqlik va tanazzulning kuchayishiga, oxir-oqibatda esa insonning jamiyatdan, o'z «men»ligidan begonalashuviga olib keldi. Bir so'z bilan aytganda, madaniy faoliyatga bo'lgan munosabatning qandayligi jamiyatning gullab yashnashi yoki inqirozini, sivilizatsiya taqdirini belgilaydigan o'ta muhim falsafiy masaladir.

Sivilizatsiyaning mohiyatini belgilashda madaniyatning o'rni va roli beqiyosdir. Zero, ishlab chiqarish sivilizatsiyaning moddiy asosini tashkil etsa, madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, uning qiyofasini, o'ziga xos rangini belgilab beradi. Hatto ishlab chiqarish kuchlariga ham o'ziga xos xarakterlilik, ahamiyatlilik beradi. Bu bilan madaniyat ijtimoiy hayotning tashkillashuvini, ya'ni sivilizatsiyaning shakllanishi, mavjud bo'lishi va rivojlanishini belgilab beruvchi o'ziga xos negiz, o'q vazifasini o'taydi. Demak, sivilizatsiya madaniyatning konkret namoyon bo'lishini, uning real mavjud hayotini aks ettiradi[1].

Madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro aloqadorligini tahlil etishga sovet davrida ideologik ma'no berilar edi. Ba'zi adabiyotlarda madaniyat va sivilizatsiyaning taraqqiyoti hamda madaniyatning inqirozi to'g'risida ko'p gapirilar edi[2].

Inson ijtimoiy munosabatlarni bilib borgani, tabiiy muhitga chuqurroq kirib borgani va o'z-o'zini yo'q qilish uchun haddan tashqari qudratli vositalarni yaratgani sayin madaniyat va sivilizatsiyani rivojlantirish vazifalari tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlagan.

Madaniyat va sivilizatsiyaning asl mohiyatini chuqurroq bilish uchun uning uzoq tarixda qanday izohlanganligini bilish maqsadga muvofiqdir. Qadimgi rimliklar madaniyat va sivilizatsiyani boshqacha ta'riflaganlar. Rimliklar sivilizatsiya va tabiatning, axloq va siyosatning, tarixiy jarayon siklliligining va hokazolar nisbatining eng muhim muammolarini ijtimoiy hayot va kurashning muhim masalalari bilan bog'liq holda hal etganlar.

Madaniyat deganda ko'pincha badiiy faoliyatning ilmiy, badiiy va maishiy namoyon bo'lishiga qaraganda ijtimoiy ongning tarixan rivojlanuvchi normasi tushunildi.

Yangi zamonda buyuk ingliz mutafakkiri F.Bekon madaniyat mohiyatini sxolastik tushunishga qarshi chiqdi. U diniy qarashlarga zid ravishda madaniyatni inson aqliy faoliyatining mahsuli deb hisobladi. Uning fikricha, madaniyat tabiat va insonning o'zaro munosabatidan kelib chiqadi: madaniyat tabiatga munosabatda bo'layotgan insondan boshqa narsa emasdir. Bekon fan va san'atni madaniyatning asosiy elementlari deb hisobladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Madaniyat va sivilizatsiyani haqiqatan ham chuqur tadqiq etish XVIII asr o'rtalaridan boshlandi, xuddi shu davrga kelib bu tushunchalar fanga kiritildi. I.Kant ijtimoiy fikr tarixida birinchi bo'lib madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biridan farqladi. Uning fikricha,

madaniyat shubhasiz axloqiylik sohasidir, Ayni vaqtda sivilizatsiya-madaniyatning tashqi, «texnik» tipidir. Kant o'zining 1784 yili yozgan «Umumjahon – fuqarolik planida eng umumiy tarix g'oyasi» asarida madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro munosabatini shunday tavsiflaydi: «San'at va fan tufayli biz madaniyatning eng yuqori darajasiga erishdik. Har qanday barqarorlik, bir-birimiz bilan muloyim muloqotda bo'lish ma'nosida biz haddan tashqari sivilizatsiyalimiz. Biz o'zimizni ma'naviy barkamol deb hisoblashimiz uchun hali bizga ko'p narsa yetishmaydi. Aslida axloqiylik g'oyasi madaniyatga tegishlidir, biroq bu g'oyani tatbiq etish faqat sivilizatsiyani tashkil etadi. U shon-sharafga bo'lgan axloqiy muhabbatga va tashqi ko'rkamlikka o'xshaydi»[3].

Hozirgi zamonda ko'pincha texnika, texnologiya muvaffaqiyatlari majmuasi va u bilan bog'liq holda yuzaga kelgan qulaylik (komfort) sivilizatsiya deb tushuniladi. Madaniyat – ijtimoiy hayotni uning barcha ko'rinishlarida qayta yaratish va o'zgartirishning zarur sharti sifatida namoyon bo'ladigan inson faoliyatining tarixan rivojlanuvchi yuqori biologik dasturi, xulq va muloqot sistemasidir[4]. Agar sivilizatsiya va madaniyat o'zaro munosabatining tarixi va logikasiga nazar tashlasak, uning quyidagi asosiy bosqichlarini ko'rsatish mumkin:

- qadimgi dunyoda va o'rta asrlarda «madaniyat», «sivilizatsiya» tushunchalari bir-biridan ajratilmagan;
- uyg'onish davrida «madaniyat» va «sivilizatsiya» tushunchalarining o'zaro nisbati ko'rsatila boshlandi;
- ma'rifatparvarlik davri (XVIII)da “sivilizatsiya” va “madaniyat” tushunchalari to'la shakllandi;
- sivilizatsiyaga jamiyatning rivojlanish bosqichi sifatida qarala boshlandi;
- «madaniyat» va «sivilizatsiya» tushunchalari bir-biriga qarshi qo'yila boshlandi.

Tarixda madaniyatning o'rni va rolga yetarlicha e'tibor berilmagan davrlarda madaniyat va sivilizatsiya ayniylashtirildi. Biroq yangi zamonda madaniyatga insonning o'zligini anglashi sifatida, tarix subyekti sifatida qarala boshlandi. Madaniyat insonning haqiqiy borlig'i sifatida anglana boshladi. Asta-sekin madaniyatga sivilizatsiyaning ma'naviy asosi deb, sivilizatsiyaning ruhi, joni deb qarash boshlandi. Madaniyat jamiyatni modernizatsiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi, u chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni tezlashtiradi. Madaniyat faoliyat usuli yetukligining darajasi, ya'ni texnologiya sifatida ko'p jihatdan sivilizatsiyali rivojlanishning mazkur bosqichida insoniyatning olamni o'zlashtirish darajasini belgilaydi, shuningdek, insoniyatning progressiv o'zgarishlarga adaptatsiyalashish imkoniyatlarini belgilaydi.

Madaniyat va sivilizatsiyaning nomutanosibliigi sivilizatsiyali rivojlanishning burilish nuqtalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Buning boisi shundaki, madaniyatning yadrosi mutlaqo barqaror bo'lmasa-da, biroq sivilizatsiya o'zgarishlariga nisbatan ancha sekin o'zgaradi. Bir sivilizatsiyadan boshqasiga o'tish davrida madaniy qadriyatlar sistemasining barqarorligi sotsiumning yangi hayot sharoitlariga moslashuviga xalaqit beruvchi negativ (salbiy) hodisaga aylanishi mumkin.

Hozirgi paytda madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro munosabatidagi muhim xususiyat ma'naviy qadriyatlarning sivilizatsiya taraqqiyotini belgilayotganligidir. Madaniyatlarning bir-birini boyitishi tarix ritmini tezlashtiruvchi, sotsial vaqtni qisqartiruvchi omil bo'lishi mumkin. Sotsiomadaniy harakat yo'lining umumiyligi tufayli insoniyat o'zining porloq kelajakka bo'lgan yo'lini qisqartiradi. Madaniyat va sivilizatsiya o'zaro munosabatining istiqbollari qanday

bo'ladi, degan masala turli bahs-munozaralarga sabab bo'lyapti. Biroq shubhasizki, global sivilizatsiya istiqbolida madaniyatning roli tobora ortib boradi.

Hozirgi paytda olimlar o'rtasida keng yoyilgan nuqtai nazarga ko'ra, jamiyat bugun ham, kelajakda ham umumiy trayektoriyadan mahrum bo'lgan qator mustaqil rivojlanayotgan sivilizatsiya va madaniyatlar majmuasidan iborat bo'ladi. Bunday tushunishga ko'ra, sivilizatsiya-madaniy yopiq, individual xarakterga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos tarixidir.

Texnogen sivilizatsiyaning madaniy yadrosini anglash va uni an'anaviy sivilizatsiyaning qadriyatlar sistemasi bilan qiyoslash texnogen sivilizatsiyaning yutuqlarini ko'rishga imkon beribgina qolmay, balki g'arbiy Yevropa madaniy qadriyatlari dunyoga keltirgan global inqirozlarni ham yaqqol ko'rsatadi.

G'arb va Sharq madaniyatlarining o'zaro ta'siri yangi hayotiy ma'nolarni yarataveradi, sivilizatsiyali rivojlanishning yangi sikli uchun madaniy fundamentni shakllantiraveradi.

Bugungi jahon sivilizatsiyasi – G'arb iqtisodiy sistemasi negizida shakllangan qiyofasiz odamlar yig'indisi emas, balki o'ziga xosligini, noyobligini saqlab qolgan xilma xil xalqlarning birligidir. Madaniyatlararo sivilizatsiya, global madaniy makon uning fundamental tavsifidir.

Madaniyat subyekt mohiyatli kuchlarining ro'yobga chiqish darajasini tavsiflaydigan subyekt-obyekt munosabatlarining holatini aks ettiradi, ular subyekt faoliyati jarayonida va faoliyat natijalarida namoyon bo'ladi[5]. Sivilizatsiyaning mohiyati subyektning ro'yobga chiqqan (amalga oshgan) mohiyatli kuchlarini o'zlashtirish xarakterida, ya'ni madaniy qadriyatlarda o'z ifodasini topadi.

XULOSA

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin:

- 1) hozirgi paytda madaniyat va sivilizatsiyaning tutash nuqtalari mavjud ekanligini e'tirof etuvchi oqim shakllandi;
- 2) milliy mustaqillik yillaridagina madaniyat va sivilizatsiya mohiyatini xolisona tadqiq etish imkoniyati vujudga keldi;
- 3) har bir xalq o'z milliy madaniyatiga egadir, biroq bundan har bir madaniyatli xalq sivilizatsiya yaratadi, degan xulosa kelib chiqmaydi;
- 4) ijodkor ozchilik tanqidiy fikrlovchi shaxslar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlansagina madaniyatli xalq turg'unlik va tanazzulni bartaraf etishi va sivilizatsiya yaratishi mumkin;
- 5) madaniyat sivilizatsiyasiz, sivilizatsiya esa madaniyatsiz shakllana va rivojlana olmaydi: sivilizatsiya madaniyat yo'nalishi va taqdirini belgilaydi;
- 6) sivilizatsiyalar hech qachon o'lmaydi, xuddi shaxslar o'lmagani singari;
- 7) madaniyatlar va sivilizatsiyalar bir-biri bilan to'qnashmaydilar, balki bir-birini boyitadilar;
- 8) boshqa xalqlar va mamlakatlarning milliy manfaatlarini hurmat qilish, o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish- sivilizatsiya va madaniyatlar hamkorligining zarur shartidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Маданият фалсафаси. – Тошкент, 2009. – Б. 32. (- 111 б.)
2. Креленко Н.С. История культуры от Возрождения до модерна. М., Инфра-М., 2015..
3. Кант И. Соч. т. В 6-ти. Т. 6. – М.: 1966. – С.18.
4. Новейший философский словарь. Минск. 1999. – С. 344.

-
5. Степин В. С. Цивилизаци и культура. — СПб. : СПбГУП, 2011.— 408 с.
 6. Тоиров, И. (2021). ШАХС МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ УЙЎУНЛИГИ. *Интернаука*, (24-3), 88-89.

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

NATIONAL SELF-PRESERVATION AND COMMUNITY SUSTAINABILITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION: A SOCIO-PHILOSOPHICAL LOOK AT THE JADID HERITAGE

Farxodjonova Nodira Farxodjon kizi,
independent researcher(DSc)
Fergana State University

Ergashev Ibodulla,
professor (scientific leader)
National University of Uzbekistan

Abstract. The Jadid ideas of renewal in the fields of Education, Culture and spirituality serve as an important scientific and practical basis for the preservation and development of the national self in modern processes. This article analyzes the issues of maintaining a national identity and ensuring the stability of society in the context of globalization on the basis of the socio-philosophical approach of the Jadid heritage. It has also been revealed that the impact of globalization processes on national values and ways to preserve them from a socio-philosophical point of view, and that the importance of the national self is important for the stability of society.

Keywords: globalization, national identity, community sustainability, jadids, socio-philosophical analysis, culture, education, spirituality.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI SAQLASH VA JAMIYAT BARQARORLIGI: JADIDLAR MEROSIGA IJTIMOY-FALSAFIY NAZAR

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi,
mustaqil tadqiqotchi(DSc)
Farg'ona davlat universiteti

Ergashev Ibodulla,
professor (ilmiy rahbar)
O'zbekiston Milliy Universiteti
E-mail: n.scienceofworld@gmail.com

Annotatsiya. Jadidlarning ta'lim, madaniyat va ma'naviyat sohalaridagi yangilanish g'oyalari milliy o'zlikni zamonaviy jarayonlarda saqlash va rivojlantirish uchun muhim ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash va jamiyat barqarorligini ta'minlash masalalari jadidlar merosining ijtimoiy-falsafiy yondashuvi asosida tahlil qilingan. Shuningdek, globallashuv jarayonlarining milliy qadriyatlarga ta'siri va ularni asrash yo'llarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yoritadi hamda jamiyat barqarorligi uchun milliy o'zlikning ahamiyati muhim ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, milliy o'zlik, jamiyat barqarorligi, jadidlar, ijtimoiy-falsafiy tahlil, madaniyat, ta'lim, ma'naviyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N28>

KIRISH

Globallashuv jarayonlari jahon sivilizatsiyasining barcha jabhalariga shiddat bilan kirib borayotgan hozirgi davrda milliy o'zlikni saqlash va jamiyat barqarorligi masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda madaniyatlarning o'zaro ta'siri kuchayib, axborot oqimining tezligi ortib borayotgan bir sharoitda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, o'zlikni anglash va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash muhim vazifalardan biriga aylandi.

Ushbu tadqiqot globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash va jamiyat barqarorligi muammosini jadidlar merosiga ijtimoiy-falsafiy nazar orqali o'rganishga qaratilgan. Jadidlar – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida ma'rifatparvarlik, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy taraqqiyot g'oyalarini ilgari surgan ziyolilardir. Ularning merosi milliy o'zlikni saqlash, ma'rifatni targ'ib qilish va jamiyatni isloh etish borasidagi qarashlari bilan alohida ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" [1].

Tadqiqotning maqsadi jadidlarning milliy o'zlik, ma'rifat, ijtimoiy taraqqiyot va jamiyat barqarorligi haqidagi qarashlarini o'rganish, ularning globallashuv sharoitidagi dolzarbligini aniqlash va jamiyatning barqaror rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Globallashuv millatlarning iqtisodiy, madaniy va siyosiy chegaralarini yumshatib, dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu jarayon milliy madaniyat va tilning yo'qolish xavfini ham yuzaga keltiradi. Milliy o'zlikni saqlash uchun jamiyatlarda madaniy qadriyatlarni asrash va yangilash zarurati paydo bo'ladi. Bu esa milliy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Jadidlar o'z davrida milliy o'zlikni yangilash va mustahkamlash uchun ta'lim, madaniyat va ma'naviyat sohalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirgan. Ularning asosiy falsafiy yondashuvi – millat taraqqiyoti uchun bilim va ma'rifatning zarurligi, madaniy uyg'unlik va ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan. Jadidlar milliy o'zlikni faqat an'analarni saqlash emas, balki uni zamonaviy bilim va taraqqiyot bilan boyitish orqali mustahkamlashni taklif qilgan.

Yurtimizda ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilishga qaratilgan kurashlar, xususan, milliy madaniyat takomili va uning yanada rivojlanishida jadidchilik harakatining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik — XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volga bo'yi hududlarida shakllanib, yangi zamonaviy maktab, matbuot, teatr, san'at va adabiyot, umuman olganda taraqqiyotning ilg'or usullarini ilgari surishdi. Bu harakat O'rta Osiyo xalqlarining madaniy, milliy-siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Ma'rifatparvarlik bilan bir qatorda, jadidlar ijtimoiy, siyosiy-huquqiy holatlar eski jamiyat tizimini taraqqiyotning eng ilg'or usullari bilan yanada boyitmoqchi bo'lishdi. Bu usul dunyo ahamiyatiga molik insonparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslangan jamiyat ehtiyojlari va manfaatlariga xizmat qilgan.

Jadidchilikning mohiyati millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan olib chiqibgina qolmasdan, mustaqillikka erishish, ya'ni milliy davlatni barpo etish mumkinligini asoslashdan

iborat bo'lgan. Bunda ularga «Haq olinur, berilmas» va «Najot ilmi urfonda» shiorlari dasturilamal bo'lgan.

Jadidchilik ma'rifatparvarlik davri olimlari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Ahmad Donish, M.Behbudiy, A.Avloniy, Cho'lpon, Fitrat va boshqalar o'zlarining ma'rifatparvarlik ishlari bilan milliy madaniyat rivojiga katta ta'sir o'tkazishdi. Ular yangi dunyoviy bilimlar bilan yo'g'rilgan turli gazeta va jurnallar nashr etishdi, nashriyot va bosmaxona, kutubxona, dunyoviy bilimlar o'qitiladigan yangi maktablar ochishdi, o'tmish madaniyatimizni, tariximizni yoritib beruvchi teatrlar tashkil etishdi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy jamiyatdagi modernizatsiya negizida jamiyat taraqqiyotini ko'radi: «...maktabimiz, do'konimiz, korxonamiz, madrasamiz va shu kabi boshqalar zamonaviy islohotga muhtojdir. Aks holda, har narsa qo'ldan ketadi, bizda mardikorlikdan boshqa ish qolmas. Bir uskuna, do'kon va saroyini ishlatishga ham zamonaviy ilm va zamon yangiligini bilish lozim»[2]. Yetuk alloma insonni zamonaviylik va jahon madaniyatidan xabardor bo'lishi uchun matbuot va teatr zarurligini yoqlab chiqadi. Behbudiyning o'zi ham bu sohada o'zbek dramaturgiyasining birinchi «Padarkush» dramasini yaratib, uning misolida jaholat va nodonlik bir oilaning parokanda bo'lib ketishiga sabab bo'lganligini ochib beradi.

Jadid maktablari faoliyatiga eski maktab tarafdorlari muntazam ravishda qarshilik qilishgan. Ammo shunday bo'lsa-da, jadidlar o'zlarining “usuli jadid” yangi usul maktablarini eski maktab “usuli qadim”ga zid qo'yishmagan. Bu borada Ismoil Gaspirali shunday deb yozadi: “Eski usul maktab muallimlari, hurmat-u qarindoshlarimiz bu yozdiklarimiz og'ir kelmasun. Xosho biz kandimiz (o'zimiz) eski usul ila o'quduk... Ota-bobo kunlaridin qolmish milliy maktablari isloh etmak usuli jadid demakdir, boshqa bir o'quv, boshqa bir maktab demak emasdir”[3].

Mazkur davrda Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy ongi, madaniyati, san'ati va millatning ma'naviy yuksalishidagi barcha ijobiy o'zgarishlarni jadid taraqqiyparvarlarining ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jadidlar Turkistonning o'rta asrchilik jaholatlarini ochib tashladi va tarixan qisqa davrda milliy matbuot, maorif, teatr sohalarini dunyoga keltirdi. Jadidchilik harakatining nufuzli mutafakkirlaridan biri Ishoqxon To'ra Turkistonda yangi davrni shakllantirgan ma'naviy — ma'rifiy islohotlarga katta hissa qo'shgan. Uning islohotchi, pedagog va yozuvchi sifatidagi faoliyati, jadidlar matbuotidagi o'rni, turkiy madaniyat va tilni asrab-avaylash va yangilash yo'lidagi fidoyiligi uning intellektual merosining asosiy jihatlari edi. Shuningdek, Ishoqxon To'ra islom ilmining an'anaviy tillaridan (arab, fors) foydalanish, shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida turkiy tillarning ahamiyati kuchayib borishini ta'kidlaydi, uning asarlari ko'pincha diniy va zamonaviy, ilmiy ta'limni muvozanatlashga qaratilgan.

Biroq o'sha davrda ham Yevropa madaniyatining milliy madaniyatimizga ta'siri mavjud edi. O'z davrida ulug' ma'rifatparvar Abdulhamid Cho'lpon Yevropaning axloqsiz illatlari insonni xonavayron, bewatan, qul qilishini ta'kidlab, bu borada shunday kuyingan edi: «Ey qarindoshlar. Shaharlik bo'ldik. Bo'ldik. Ammo qishloqlilardan katta iltimosimiz shuldirki, Ovro'pa mudasidan shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bularga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm-fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlardan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmog'imiz lozimdur. Bundan saqlaningiz... Ovro'paning maktab, madrasa, ilm, fan, san'at, hunarga o'xshash madaniyati sizlarni ozod, ma'mur, olim qilib, johillikdan, asorat-qullikdan qutiltiradur. Birodarlar ko'zlaringni ochib, yaxshi o'ylanglar...»[4]. Ushbu davr

ma'rifatparvarlik harakati asnosida xalqning umummilliy madaniyati ham rivojlanib, taraqqiy etdi.

Jadidchilik harakati, asosan, ta'lim sohasida yangilanishlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, o'quv dasturlarida yangiliklar kiritish, an'anaviy diniy maktablardan farqli o'laroq, zamonaviy va ilmiy yondashuvlarni qo'llashni maqsad qilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Milliy o'zlik jamiyatning birligi va ijtimoiy barqarorligining poydevori sifatida xizmat qiladi. O'zlikni yo'qotish ijtimoiy mojarolar, madaniy inqiroz va siyosiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish orqali jamiyat barqarorligini ta'minlash zarur. Jadidlar merosi bu jarayonda milliy ma'naviyat va madaniyatni yangilash, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash uchun muhim nazariy va amaliy asoslarni beradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida milliy ong tuyg'usini shakllantirish jarayonida jadidlar asosiy va yetakchi rolni o'ynaganlar. Ular o'z davrining eng ilg'or ziyolilari bo'lib, ta'lim, madaniyat va jamiyatni yangilash orqali milliy o'zligini tiklash va mustahkamlashga katta hissa qo'shdilar. Jadidlar mahalliy tillar va madaniy an'analarning ahamiyatini chuqur anglab, ularni mustamlakachilar hukmronligiga qarshi kurash vositasi sifatida ko'rdilar. Ular o'z xalqining tarixiy merosi, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarini saqlashni va rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladilar.

Jadidlarning faoliyati mahalliy tillarda ta'lim-tarbiya tizimini yaratish, yangi uslubda yozilgan adabiyotlarni targ'ib qilish, madaniy-ma'rifiy jamiyatlarni tashkil etish va xalq orasida milliy g'oyalarni yoyish bilan bog'liq edi. Ular eski konservativ qarashlarga qarshi chiqib, ilg'or g'oyalarni jamiyatga singdirishga intildilar, shu orqali milliy o'zlikni uyg'otish va qo'llab-quvvatlashga xizmat qildilar. Jadidlar mahalliy urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish orqali xalqning madaniy mustaqilligini ta'minlashga intildilar, bu esa o'z navbatida mustamlaka hukmronligining madaniy bosimini kamaytirishga yordam berdi.

Din insoniyat tarixida nafaqat ma'naviy qadriyatlarning, balki madaniyatning ham asosiy tamoyillaridan biri bo'lib kelgan. U odamlarning hayot tarzini, axloqiy me'yorlarini, ijtimoiy munosabatlarini shakllantirib, jamiyatning ruhiy va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Dinsiz jamiyatni tasavvur qilish, ko'pchilik uchun madaniy va ma'naviy bo'shliqni anglatadi. Chunki din inson qalbida chuqur ildiz otgan axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar manbai bo'lib, ularning yo'qligida madaniyatning to'liq va mazmunli shakllanishi qiyin bo'ladi. Din, madaniyat va o'zlikni anglash mavzusi O'rta Osiyo aql-zakovati tarixining yetakchi arbobi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyni hamisha qiziqtirgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning fikricha, "dinsiz dunyoda yashash insoniyat va madaniyatdan mahrum. Imonsiz madaniy bo'lish qiyin"[5]. Uning fikriga ko'ra, dinsiz dunyoda yashash insoniyat va madaniyatdan mahrum bo'lish bilan barobar hisoblanadi. Imonsiz madaniy bo'lish esa juda murakkab jarayon. Madaniyat nafaqat tashqi ko'rinishlar, san'at va adabiyotdan iborat, balki unda insonning ma'naviyati, e'tiqodi va axloqiy tamoyillari ham mujassam. Imon insonning ichki dunyosini boyitadi, unga ruhiy kuch va ijobiy fazilatlarni beradi. Bu esa madaniyatning chuqur va mazmunli bo'lishi uchun zarur. Imonsiz inson yoki jamiyat, ko'pincha, ma'naviy yo'nalish va ruhiy qadriyatlardan mahrum bo'lib, madaniyatning faqat tashqi shakllari bilan cheklanib qoladi.

Shuning uchun, din va imon insoniyat madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular insonning o'zligini anglashida, axloqiy tamoyillarni mustahkamlashda, jamiyatda tinchlik va birdamlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Dinsiz dunyo va imonsiz madaniyat insonning to'liq va mazmunli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ruhiy va ma'naviy asoslardan mahrum bo'lishi mumkin.

Jadidlar fan va texnika sohasidagi yutuqlarni qadrlab, ayniqsa qishloq xo'jaligi, sanoat va infratuzilmani rivojlantirishda zamonaviy innovatsiyalarni joriy etishni faol qo'llab-quvvatlaganlar. Ular fan va texnikaning nafaqat iqtisodiy o'sish, balki jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini anglab yetishgan. Shu sababli, jadidlar yangi bilim va texnologiyalarni o'zlashtirish orqali mamlakatni modernizatsiya qilish va xalq farovonligini oshirishga intilganlar. Ularning asosiy maqsadlaridan biri ham ta'lim sohasidagi innovatsiyalar, madaniy renessanslar, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish orqali islom dunyosini modernizatsiya va isloh qilish bo'lgan. Ularning ta'lim, madaniy uyg'onish va ijtimoiy adolatga bo'lgan e'tibori mintaqada zamonaviy, inklyuziv va ilg'or jamiyatlarni barpo etish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlarda aks-sado berishda davom etmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston va boshqa ko'plab mamlakatlarda milliy o'zlikni saqlash masalalari o'ziga xos dolzarb masalalarga aylangan. Jadidlar ta'lim va madaniyat sohasidagi yondashuvlari, shuningdek, ijtimoiy adolat va taraqqiyotga oid g'oyalari zamonaviy siyosat va madaniy strategiyalarda o'z aksini topishi mumkin. Bu esa globallashuv sharoitida milliy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Globallashuv jarayonlari milliy o'zlik va madaniyatni saqlashni murakkablashtirayotgan bir paytda, jadidlar merosi milliy o'zlikni yangilash va barqaror jamiyat qurish uchun muhim ijtimoiy-falsafiy asoslarni taqdim etadi. Jadidlarning ta'lim, madaniyat va ma'naviyat sohasidagi yondashuvlari zamonaviy davrda milliy qadriyatlarni yo'qotmasdan, ularni rivojlantirish va jamiyat barqarorligini mustahkamlash uchun samarali vosita hisoblanadi. Munavvarqori Abdurashidxonovning fikricha, "Har bir millatni, uning vakillarini jaholatdan qutqarguvchi yagona vosita – ilm va maorifdir. Kimki ilm va maorifga munosib darajada e'tibor bersa, shubhasiz, saodatga erishadi"[6] Shu bois, jadidlar merosini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash va jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. - Тошкент: "Ўзбекистон", 2020. – Б.37.
2. Behbudiy M. Ehtiyoji millat // Samarqand. – Samarqand, 1913, 12 iyul.
3. Hasanboyev O., Hasanboyev J., Hamidov J. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997.
4. Abdulhamid Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar // Vatan. –Toshkent, 1994. - №36. –Б.4.
5. Маҳмудхўжа Бехбудий. Тарих ва жуғрофия. // Ойина. 1914. 27-сон. – Б. 502-505.
6. Абдулҳаким Нурбой. Биз қандай миллатмиз? // Тафаккур. – Тошкент, 2005, 2-сон. – Б.10-17.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE TRANSLATION OF GREEK LOGIC INTO ARABIC AND ITS INTEGRATION INTO ISLAMIC PHILOSOPHY

Ergashev Ozodbek Bakhodurovich

PhD student

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the process of translating Greek logic into Arabic and its integration into Islamic philosophy. It first explores the historical and cultural context in which the works of ancient Greek logicians, particularly Aristotle, were translated into Arabic. The article also examines the contributions of scholars who played a significant role in the translation movement, as well as the activities of the Bayt al-Hikma (House of Wisdom) in Baghdad. Furthermore, it analytically discusses the impact of these translations on the thought of Muslim philosophers such as al-Kindi, al-Farabi, and Ibn Sina, and the role of logic within the framework of Islamic philosophy.

Keywords: Logic, Greek philosophy, Islamic philosophy, Aristotle, Bayt al-Hikma, Al-Kindi, Al-Farabi, Ibn Sina, History of philosophy.

YUNON MANTIQ ILMINING ARAB TILIGA TARJIMA QILINISHI VA ISLOM FALSAFASIGA KIRIB KELISHI

Ergashev Ozodbek Baxodurovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tayanch doktoranti

E-mail: obek2155@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yunon mantiq ilmining arab tiliga tarjima qilinish jarayoni va uning islom falsafasiga kirib kelishi tahlil etiladi. Avvalo, antik davr yunon mantiqchilarining, xususan Aristotelning asarlari qanday tarixiy va madaniy muhitda arab tiliga tarjima qilingani yoritiladi. Shuningdek, tarjima faoliyatida muhim rol o'ynagan olimlarning hissasi, Bag'doddagi Baytul Hikma markazi faoliyati ko'rib chiqiladi. Maqolada ushbu tarjimalarning al-Kindiy, al-Forobiy, Ibn Sino kabi musulmon faylasuflar tafakkuriga ta'siri hamda mantiq ilmining islom falsafasi tizimida qanday o'rin egallaganini tahliliy tarzda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mantiq, Yunon falsafasi, Islom falsafasi, Aristotel, Baytul Hikma, Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Falsafa tarixi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N29>

Kirish. Musulmon Sharqida VIII asrdan boshlab boshlangan ilmiy uyg'onish davri, nafaqat diniy bilimlarning chuqurlashuvi, balki falsafa, tibbiyot, matematika va ayniqsa mantiq fanining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri — tarjimachilik faoliyati hisoblanib, yunon, hind va fors ilmlarining arab tiliga tarjima qilinishi orqali musulmon tafakkurida yangi ilmiy paradigma shakllangan.

Abbosiylar davridagi Baytul-Hikma kabi ilmiy markazlar, ayniqsa, falsafiy va mantiqiy merosni o'zlashtirishda muhim rol o'ynagan. Ibn Muqaffa', Yahyo ibn Al Bitriq, Hunayn ibn Ishoq, Abu Bishr Matto ibn Yunus kabi olimlar yunon va suryoniy tillardan turli asarlarni

tarjima qilish orqali musulmon olimlariga yangi bilimlar eshigini ochib berdilar. Bu jarayon natijasida Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd singari mutafakkirlar o'zlarining beqiyos falsafiy qarashlarini shakllantira oldilar.

Ushbu maqola musulmon Sharqida yunon mantiq'ining kirib kelishi, shakllanishi va rivojlanishi, bunda tarjimonlarning tutgan o'rni, hamda bir qancha musulmon faylasuflarining mantiq ilmiga qo'shgan hissalarini tahlil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asoslarini tarixiylik, mantiqiylik, obyektivlik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, qiyosiy tahlil tashkil etadi.

Natija va tahlillar. Musulmon sharqida falsafa ilmlarining rivojlanishi tarjimachilik ishlarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Arab xalifaligining borgan sari rivojlanib borishi natijasida ilm-fanga ham katta e'tibor berildi. Natijada shu paytgacha yozilgan boshqa madaniyatga tegishli bo'lgan ilmiy kitoblarning arab tiliga tarjima qilinishi rag'batlantirildi. Yunon ilm-fanida erishilgan yutuqlarning arab tiliga tarjima qilinishi, ayniqsa, Aristotel asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi natijasida musulmon o'lkalarda ham falsafa ilmlariga qiziqish kuchaydi. Bu davrda ko'plab mashhur tarjimonlar yetishib chiqdi. Ular orasida ba'zilar tarjima qilingan asarlarga sharhlar ham yoza boshlashdi.

"Kimyo, tibbiyot, matematika fanlarining rivojlanishi mantiqning muammolarini keltirib chiqardi. IX asrdayoq Yaqin Sharqda Arastu mantiq'i mashhur edi. Bu davrda Yevropa sxolastikasi Arastu mantiq'i bilan tanish emas edi.

Bu davlatlarda mantiq avval:

- har xil fikrlash (ilm al-xilof).
- ritorika.
- munozara va bahsga kirishish ilmlari sifatida paydo bo'lgan.

Mantiq keyin tor doirada rivojlanib, Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiyning "Mantiq fanlarining boshi", Ibn Sinoning "Mantiq hamma fanlarga xizmat qiluvchi", G'azzoliyning "Kimki mantiq bilan shug'ullanmas ekan, uning ilmiy bilimlari ishonchli emas", degan xulosalariga olib kelgan.

Qadimgi Gretsiyada shakllangan mantiq ilmi O'rta asrlarda yangi mazmun bilan boyitildi. Bu, ayniqsa, mantiqning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, xususan, O'rta Osiyoda va rivojlanishida yaqqol ko'rinadi. [1, 198-b.]

Uyg'onish davrida ilm-fan bilan shug'ullangan olimlarning deyarli barchasini oz bo'lsada mantiq ilmi bilan shug'ullanganligini ko'rishimiz mumkin. G'azzoliyning mantiq bilan shug'ullanmagan olimning bilimi ishonchli emas degan gapi o'sha davrda bu ilm bilan shug'ullanishning zarur deb hisoblanganini yaqqol ko'rsatib beradi.

Musulmon sharqida mantiq ilmining rivojlanishi qadimgi yunon tilida yozilgan falsafiy kitoblarning, ayniqsa, Aristotel asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi bilan boshlandi deyish mumkin. Xalifalar tomonidan qo'llab-quvvatlanilgach, tarjimachilik ishlari yanada rivojlandi. Yunon mantiq'ining tarjima qilinishining eng yuqori nuqtasi IX-X asrlarda sodir bo'lgan. Bu Abbosiy xalifa Ma'mun tomonidan hijriy 217-yilda (milodiy 832) asos solingan "Donishmandlar uyi"da amalga oshirildi. Bu tarjimalarning katta qismi to'g'ridan-to'g'ri yunon tilidan emas, balki Suriy tilidan tarjima qilingan. Hatto islom paydo bo'lishidan bir necha asrlar ilgari G'arbda nasroniylar va Sharqda yahudiylar Yunon ilmiy va falsafiy asarlarini Suriy tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanganlar. Suriy tilidan tarjima qilish harakati Yaqub (708), arab yepiskopi Jorj (724) kabi suriy tilida so'zlashuvchi va yunon madaniyati gurkirab yashnagan Aleksandriyada

tahsil olgan tarjimonlarning ishlaridan keyin yanada rivojlandi. Ushbu suriy tarjimonlari Fors, Iroq, Suriya, Misr kabi arablar birinchi bo'lib zabt etgan mamlakatlarda ishlarini amalga oshirishgan. Eng taniqli tarjimonlar Al-Muqaffa (vaf. 139/757), Yahyo ibn Al Bitriq (vaf.215/830), Hunayn ibn Ishoq (vaf. 877), uning jiyani Hubaysh al A'sam (vaf.890), Abu Bishr Matto ibn Yunus (vaf. 940), Abu Zakariyo Yahyo ibn Adiy (vaf. 973), Ibrohim ibn Abdulloh (vaf. 297/940) va Abu Usmon Sa'd ibn Ya'qub al Damashqiy (vaf. 308/920) lardir. Yunon mantiqini arab tiliga tarjima qilish harakatining dastlabki bosqichlarida Parfiriyning (vaf. 304) "Isagoga" asarini va Aristotelning Kategoriyalarini tarjima qilishga e'tibor qaratildi. [2,1410-b.]

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki yunon falsafasi uyg'onish davrigacha ham sharqda ma'lum edi. Faqatgina xalifalar tomonidan qadimgi boy ilmiy meroslarni arab tiliga tarjima qilinishining rag'batlantirilishi biz tadqiq etayotgan davrda ko'pgina musulmon mutafakkirlari tomonidan yunon falsafasiga bo'lgan katta qiziqishni yuzaga chiqardi.

"Avval Rim hukmdorligi ostida bo'lib, endi arab sulolalari hukmi ostiga olingan Misr bilan Suriya, Iroq bilan Erondagi intelligent hayotda qo'qqisdan tanaffus bo'lmagan edi. Suriya, Eron va boshqa joylarda ellinistik falsafiy va ilmiy an'analar saqlanib qolgandi. Bu yerda Aristotel va boshqa grek faylasuflarining asarlari Suriya tiliga juda erta tarjima qilingan edi. Ammo grek madaniyatini o'zlashtirishdagi chinakam yuksalish Bag'dod taxtini Abbosiylar sulolasi egallaganidan keyin boshlandi. Horun ar-Rashid (763/766—809)ning taxtga o'tirishi bilan arab dunyosidagi dastlabki har tomonlama ellinistik renessans boshlandi. U juda ko'p asarlarning Suriya tiliga tarjima qilinishi bilan boshlandi. Tarjimalarning aksar qismi dastlabki bosqichda xristianlar tomonidan amalga oshirildi. Horun ar-Rashid grek tilini o'rgangan, grek falsafiy va ilmiy asarlarini tarjima qilgan olimlarni faol qo'llab-quvvatlab turdi. U shuningdek, o'z odamlarini G'arbga grek manuskriptlarini sotib olish uchun jo'natdi. Tarjima ishlarining muhim qismi arab tili lug'atini boyitish va grek tushunchalariga mos keluvchi falsafiy va ilmiy terminlarni ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Bu jarayonda Hunayn ibn Ishoq (Hunayn ibn Ishaq, 808-873) muhim o'rin tutdi. Natijada tilni bunday boyitish yordamida, arablarda qiziqish uyg'otmagan ritorika, poeziya, drama va tarixdan tashqari, grek madaniyatining katta qismini assimilyatsiya qilishga muvaffaq bo'lindi. Ularning qiziqishlari asosan falsafa (Aristotel, Platon va neoplatonizm), tibbiyot, optika, matematika, astronomiya, shuningdek, alximiya va magiya singari okkultizmga oid fanlar bilan bog'liq bo'ldi. IX asrning oxiridayoq Bag'dod arab dunyosining bilim markaziga aylandi. Arablar faqat ellinistik madaniyatni o'zlashtirish bilan kifoyalanmadilar. Ular Eron, Hindiston va Xitoy bilan muhim aloqalar o'rnatdilar". [6, 236-b.]

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, IX-XI asrlar Yaqin va O'rta Sharqda mantiqiy ta'limotlarning rivojlanishidagi eng samarali davr hisoblanadi. Bu davrda mantiq ilmini o'rnatishga bo'lgan talabning oshishi:

birinchidan, tabiatshunoslik fanlarining rivojlanishi va tabiiy-ilmiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan;

ikkinchidan, ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni to'g'ri, adolatli hal qilishga intilishning ortishi bilan;

uchinchidan, eng muhimi, to'g'ri fikr yuritishga bo'lgan talabning, chin fikrlarni xato fikrlardan ajratish zaruriyati bilan izohlanadi.

Tarjimonlarning faoliyati natijasida IX asrga kelib yunon mantiq'i butun musulmon epistemologiyasi (bilish nazariyasi) ning asosi bo'lib qoldi. Mantiqni ular ba'zan "hunar" yoki "san'at" va ko'proq "ilm", deb atashgan. Mantiq ilm sifatida ma'lum bilimlarni yaratish, ularni

asoslash va tasniflash sistemasini bergan. U “haqiqat”ni bilish yo’llari haqidagi tarixchilarning va muhaddislarning bahslariga, musulmon huquqshunosligiga ham katta ta’sir ko’rsatgan. [1,199-b.]

Iskandariya VII asrda yunon falsafasi va ilohiyotini tadqiq qiladigan muhim markazga aylangan edi. Yunon tilini o’rganish Suriya va Iroqda VI asrda, Antokiya, Harron, Edissiya (arabchasi Urfa yoki Arroha) shaharlarida, Suriya shimolidagi Kinnasarin, yuqori Iroqdagi Nisaybin va Rassilaynda sal keyinroq boshlangan edi. Yunon tilini o’rganish Iskandariyadan o’tgan yunon ilohiyotini o’rganishdan boshlangan edi. Kvint Sentimiy Florens Tertullian (160-230) aytganlarining moniylikka qarshi qaratilgan joylari suriyoniy tiliga tarjima qilingan edi. Yaqub Rahoviyning (vaf. 708) ilohiyot va falsafaga doir asarlarning yoyilishi erkin fikr mavjudligidan guvohlik beradi.

VII asrda Harron va Jandishopurda (Eron janubi) yunon ilmlarini o’rgangan ikki markaz mavjud edi. Jandishopur o’quv yurti 555-yilda Husrav I Anisheravon tomonidan ta’sis etilgan edi. [1, 45-b.]

Mantiq ilmining arab musulmon falsafasiga kirib kelishi Arastu asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi bilan bog’liqligiga shubha yo’q. Arastuning “Kategoriyalar”, “Birinchi analitika”, Porfiriyning “Isog’uchi” (“Mantiqqa kirish”) asarlarini Abbosiy xalifa Mansur (754-770) uchun arab tiliga ibn Muqaffa tarjima qilgan. Xalifa Mansur tarjima ishlariga jalb qilgan olimlar orasida Navbaxtiy xonadonining a’zolari, hamda eng mashhur olim Albitriq ham bor edi.

Tarjimachilik faoliyatining cho’qqisi Mansurning nevarasi Ma’mun (813-833) daavriga to’g’ri keladi. Ma’mun otasi Horun ar-Rashid saroyining tabibi Yuhanno ibn Mosulni 830 yili “Bay-tul hikma” raisligiga saylagan. U Aflotunning “Timey” asarini arab tiliga tarjima qilgan. Hajjo ibn Matar, Yah’yo ibn Al-Bitriq, Hunayn ibn Is’hoq (899-873) larning tarjimachilik faoliyati ham katta samara keltirgan.

Yunon falsafasining islom tafakkuriga to’la ta’siri tarjimalar natijasida IX asrda namoyon bo’lgan edi.

Tarjimachilik natijasida bir qancha ilmlar qatorida yunon mantig’i islom falsafasiga kirib kelgach bir qancha musulmon faylasuflar mantiq bilan jiddiy shug’ullana boshlashgan. Bular ichida eng mashhurlari shubhasiz Al-Kindiy, Forobiy va ibn Sinolar alohida ajralib turishadi.

Sharqda birinchilardan bo’lib mantiq ilmi bilan shug’ullangan, arab-musulmon dunyosida peripatetizmga yo’l ochib bergan mutafakkir Al-Kindiydir.

Al-Kindiy arablar orasida chinakam qomusiy olim hisoblangan. Ehtimol, u o’zining ko’p sonli risolalarida u yoki bu tarzda to’xtalib o’tmagan o’sha davr bilim sohasi yo’qdir (ularning soni, o’rta asrlar arab manbalariga ko’ra, 238 taga yetgan, ammo bu asarlarning aksariyati, afsuski, bizgacha yetib kelmagan). Al-Kindiyning ilmiy qiziqishlari metafizika, mantiq, etika, matematika, astronomiya, tibbiyot, meteorologiya, musiqa nazariyasi va optikadan iborat edi. “Arab faylasufi” o’z vatandoshlarini antik davr mutafakkirlari asarlari bilan tanishtirishga katta hissa qo’shgan (ayrim tadqiqotchilar al-Kindiyning o’zi yunon tilini yaxshi bilganligini ta’kidlaydilar)”. [3,185-b]

Al-Kindiy haqida turli tarixiy manbalarda ma’lumotlar keltirilgan. “Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq Al-Kindiy (taxm. 800 y., Basra — 870 y.y., Bag’dod) — arab faylasufi va olimi. U qadimgi yunon, hind va forslarning falsafiy-mantiqiy merosini yaxshi bilgan, arab tilida falsafiy atamalarni ishlab chiqishda faol qatnashgan va o’z davrida birinchi bo’lib fanlarni tasniflashga uringan. Al-Kindiyning dunyoqarashida mantiq ilmiga oid masalalar alohida o’rin egallaydi. U

qadimgi yunon mutafakkirlari asarlarini tarjima qilib, ularga sharhlar yozgan. O'rta asrlarda yozilgan "Al-Fixrist" nomli bibliografik asarda (muallifi Ibn an-Nadim, 995 y. vafot etgan) Al-Kindiyning "Aristotelning o'nta kategoriyalari haqida", "Kategoriyalar"dagi Aristotelning maqsadi haqida" nomli asarlari to'g'risida ma'lumot beriladi. An-Nadimning ta'kidlashicha, Al-Kindiy "Ikkinchi analitika"ga oid ikki risola yozgan: "Mantiqiy isbotlashga doir qisqacha risola" va "Isbotlash haqida risola". Shuningdek, Al-Kindiy "Sofistlarning adashtirishlariga qarshi ogohlantirish" nomli risolasida Aristotelning "Sofistika"siga bo'lgan munosabatini bayon qiladi. Al-Kindiyning "She'r san'ati haqida" nomli asari Aristotelning "Poetika"siga kommentariya sifatida yozilgan. U Aristotelning "Ikkinchi analitika"sini Yevklid geometriyasi bilan solishtirish g'oyasini ilgari suradi. Mantiqiy isbotlashni tushunish va undan foydalanish uchun geometriyani o'rganish zarur, deb hisoblaydi. Uningcha, faqat shundagina Aristotelning yaratgan qoidalarini tushunish mumkin. Al Kindiy birorta buyumni isbotlashni uning mavjudligiga, borligiga ishonmasdan turib boshlash mumkin emas, deydi. Uning fikricha, isbotlashning maqsadi buyumni tashkil etuvchi shaklni o'rganishdan iboratdir. Al-Kindiyning falsafiy va mantiqiy asarlari, uning ratsionalistik yo'nalishdagi fikrlari Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Beruniy va boshqa progressiv mutafakkirlar dunyoqarashining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari O'rta asrlardayoq G'arbiy Yevropada keng shuhrat qozondi". [4,22-b]

IX-X asrlarga kelib nafaqat Yunon mantig'iga oid kitoblarning tarjima qilinishi, balki o'sha kitoblarga turli shaklda sharhlar yozish ham ko'zga tashlandi. Bunday sharhlar asosan uch shaklda bo'lgan: katta, o'rtacha va kichik. Katta sharhda asl matndan iqtibos keltirilgan va o'sha matn batafsil sharhlangan. O'rtacha sharhda asl matndagi kichikroq biror matn osonroq shaklda tushuntirilgan. Kichik sharhda esa asosan matnning asosiy g'oyalari sharhidan iborat bo'lgan.

Al Kiydiydan keyin mantiq ilmi bilan shug'ullangan yirik mutafakkirlardan biri Forobiydir. Forobiyda mantiqiy bilimlar sistemasi "Isog'uji" (Kirish), "Maqulot" (Kategoriya), "Ibora" (Hukm), "Qiyos" (Sillogizm, Birinchi analitika), "Burxon" (Isbotlash, "Ikkinchi analitika"), "Jadal" (Dialektika), "Safsata" (Sofistik raddiya), "Xitoba" (Ritorika), "She'r" (Poetika) asarlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga Forobiy "Mantiq ilmiga kirish", "Aql haqida", "Shartli hukmlar", "Sillogizm" kabi asarlarida mantiq masalalarini ishlab chiqdi. "Ilmlar tasnifi" asarida ham mutafakkir mantiq ilmining predmeti, tuzilishi, ilmlar sistemasida tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritadi. Forobiyning ta'kidlashicha, mantiq san'ati intellektning mukammallashuviga olib keluvchi va insonni haqiqat tomon yo'naltiruvchi qonunlarning majmuasini o'rganadi. Bu qonunlar insonlarni bilish jarayonidagi turli xato va adashishlardan saqlaydi. Inson bu qonunlar yordamida bilimlarni tekshirib, ularning chin yoki xatoligini aniqlash imkoniga ega bo'ladi.

Yunon mantiqiga oid arab tilidagi sharhlar yozilishi va eng muhimi, arab mantig'idagi ijodkorlik X asrdan XIV asrgacha gullab-yashnagan, avvalo Sharqda, keyin esa G'arbda bu jarayon kuzatilgan. Eng asosiy sharhlovchilar Abu Bakr ar-Roziy (vaf. 313/925), Forobiy (vaf. 339/950), Ibn Sino (vaf. 429/1037) va Ibn Rushd kabi yirik mutafakkirlardan iborat edi. Deyarli o'ninchi asrning oxirigacha yetakchi mantiqchilar, al-Forobiydan tashqari, nasroniylar edi. Shundan so'ng mantiq islomiy ko'rinish oldi va musulmon mutafakkirlarining bir birlariga, g'ayri musulmonlar va Nasroniy hamda Yahudiylarga qarshi Islomiy maqsadlarni himoya qilish uchun ishlatadigan qurollariga aylandi. Aslida, Islomning dastlabki yillarida musulmonlarning

Yunon mantiq'iga qiziqishlarining asosiy sababi ularning erkinlik va determinizm kabi masalalar haqida bir-birlari bilan va boshqalar, masalan, Nasroniylar bilan "Uchlik" kabi masalalarda bahslashish uchun kerak edi.

Taxminan XIV asrning oxirlaridan boshlab arab mantiq'ida ijodkorlikning yetishmasligi ko'zga tashlana boshladi, asosan oldingi yozilgan qarashlarning takrorlanishi, sharhlar ustiga sharhlar yoki madrasalar uchun darsliklargina ko'zga tashlandi. Demak, shunday deyish mumkinki, arab mantiq'ining rivojlanishi o'n to'rtinchi asrda tugaydi, chunki o'sha davrdan boshlab arab mantiq'i rivojida turg'unlik davom etadi. [2,1413-b.] Shunisi ahamiyatliki mantiq ilmi chuqur o'rganilgan va u bilan yuqori darajada shug'illanilgan davrlarda musulmon sharqida ilm-fan eng yuqori darajada bo'lgan. Mantiq bilan shug'ullanishdagi pasayish boshlanishi bilan boshqa aniq fanlarda ham oldingi davrlardagidek katta yutuqlar ko'zga tashlanmasligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Yunon mantiq ilmining arab tiliga tarjima qilinishi islom falsafasining shakllanishida va rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Ayniqsa, Aristotel mantiqining Al-Kindiy, Al-Farobiy, Ibn Sino kabi mutafakkirlar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi nafaqat mantiqiy tafakkurning rivojiga, balki ilohiyot, fiqh, va tabiiy fanlar kabi sohalarda ham metodologik asos yaratdi. Bu tarjima jarayoni orqali musulmon dunyosi nafaqat antik merosni saqlab qoldi, balki uni yanada takomillashtirib, Yevropa Uyg'onish davriga zamin hozirladi. Shunday qilib, yunon mantiq'i islom tafakkuriga nafaqat ilmiy, balki madaniy va sivilizatsion darajada ta'sir ko'rsatdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. D.Fayzixo'jayeva.Sh.Negmatova Mantiq tarixi va nazariyasi. – S.–2021, 252 bet
2. Sayyed Hossain Nasr, Oliver Leaman. History of Islamic philosophy.-Great Britain.: TJI Digital, Padston; Cornwall,2001.–2187 pages
3. Мусульманская религиозная философия. Р.Р. Шангараев. – Казань: ИД «МеДДоК», 2020. – 252 с.
4. M. Sharipov, D. Fayzixo'jayeva. Mantiq –T.:2004. -216 bet
5. Po'latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimov A. Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013. – 327 bet
6. Gunnar Skirbekk, Nill Gile. Falsafa tarixi-T.:Sharq,2002. –720 bet

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

VOLTAIRE AND THE GENESIS OF TOLERANCE

Fayziyev Khurshid Jumayevich,
Bukhara State University,
PhD student

Abstract. This article briefly describes the genesis of the concept of tolerance and the views of the French philosopher Voltaire on tolerance.

Keywords: tolerance, "Treatise on Tolerance", philosopher, John Locke, Voltaire.

VOLTER VA BAG'RIKENGLIK GENEZISI

Fayziyev Xurshid Jumayevich,
Buxoro davlat universiteti,
Tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bag'rikenglik tushunchasining genezisi va unda fransuz faylasufi Volterning bag'rikenglik haqidagi qarashlari qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, "Bag'rikenglik haqida" asari, faylasuf, Jon Lokk, Volter.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N30>

Bag'rikenglik va tolerantlik tushunchalari birga qo'llaniladigan sinonimlardir. Tolerantlik (lotincha tolerantia — sabrlik, toqatlilik ma'nolarini anglatuvchi so'zdan kelib chiqqan) — ijtimoiy termin bo'lib, boshqacha hayot tarzi, urf-odatlar va fikrlashga toqatlilik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. Oddiy qilib aytganda, bag'rikenglik vaziyatga o'zganing "nazari" bilan qarash desak ham bo'ladi. Fanga bu tushuncha XVIII asrda kirib keldi.

Bag'rikenglik tushunchasini odatda hamma o'zicha tushunadi. Ko'pincha ushbu tushunchani yanglish tarzda boshqa tushunchalar bilan qo'shib yuborilishi tabiiy holdir. Darhaqiqat, yashovchan va oqilona bag'rikenglik analitik ravishda chegara zarurligini o'z ichiga oladi[1]. Biz ko'pincha bag'rikenglikni ba'zi jihatlari bilan yaqin bo'lsa-da, aslida tubdan farq qiladigan tushunchalar bilan tenglashtirishga moyilmiz.

Befarqlik — bu idrok qilgan narsadan zavq yoki og'riq hissi yo'qligi. Hech qanday his-tuyg'ularga ega bo'lmagan narsalarga toqat qilishning hojati yo'q. Masalan, diniy masalalarda qayg'urmaydigan odamni diniy masalalarda bag'rikeng yoki murosasizlik bilan tavsiflab bo'lmaydi.

Bo'ysunish - majburlash ostida qabul qilishdir. Bag'rikenglik qilish uchun ongli tanlov bo'lishi kerak. Biz faqat oldini olishimiz mumkin bo'lgan narsaga sabr-toqatli bo'lishimiz mumkin.

Iltifotlilik - bag'rikenglikdan ham uzoqroqdir, chunki u mehribonlik, rahm-shafqat, kechirishga tayyorlikni ifodalaydi, bag'rikenglik esa iltifotli bo'lishi mumkin.

Taqiq va cheklovlarning yo'qligi - iltifotlilik kabi, bag'rikenglik chegarasidan tashqariga chiqadi. Uni iltifotlilikdan ajratib turadigan narsa — bu his-tuyg'ularning yo'qligidir. Bu so'zsiz hamma narsa mumkinligi sifatida belgilanadi.

Qabul qilish - biz duch keladigan vaziyatlarni qabul qilishni anglatadi. Shunday qilib, bag'rikenglik, hokimiyati yoki qiymati bizga ta'sir qiladigan shaxs yoki g'oyaning qadriyatlarini ular bilan rozi bo'lmasdan tushunishimizni anglatadi. Bag'rikenglik, aksincha, hurmatning bir shakli bo'lib, unda biz biror narsaga yoki kimgadir qanday hukm qilishimizdan qat'i nazar, toqat qilishga harakat qilamiz: biz toqat qiladigan narsadan nafratlanishimiz yoki uni beixtiyor hurmat qilishimiz mumkin[2].

M.Uoltser fikricha, etnik guruhlar va diniy jamoalarning ko'pligi jamiyatning mavjudligi va farovonligi uchun hech qanday muhim shart emas, hatto liberal jamiyatda ham[3]. Uning fikriga asos qilib aholisining mutlaq ko'pchiligi yaponlardan iborat yapon jamiyatini keltirish mumkin. Lekin AQShning aholisi asosan boshqa mamlakatdan kelgan immigrantrlardan tashkil topganligini va ular davlatning taraqqiyoti uchun ulkan hissa qo'shishganini bu yerda isbotlab o'tirishga hojat yoq. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va 16 ta diniy konfessiyalar mavjud. Ushbu millatlarning haq-huquqlari milliy qonunchiligimiz bilan kafolatlab qo'yilgan. Ammo bu yerda yana bir fikr e'tibor qaratishni lozim topdik. "Guruhlarga nisbatan bag'rikenglik, — deb yozadi S.G.Illinskaya, — faqat ularni bostirish uchun resurslar tugagach amaliyotga qo'llaniladi"[4]. Aksincha, hozirgi kunda yuqoridagi fikrlar faqatgina fashistik rejim o'rnatilgan mamlakatlarda to'g'ri kelishi mumkin. Nafaqat boshqa xalqlarning, balki mamlakat ichidagi boshqa millatlarning urf-odatlarini hurmat qilish va ksenofobiya yo'l qo'ymaslik ijtimoiy taraqqiyotning kafolati hisoblanadi. E.L. Dubkning fikricha esa, bag'rikenglik siyosiy motivatsiya va siyosiy birdamlikni birlashtirishdan ko'ra, uni yo'q qiladi[5]. Siyosiy motivatsiya zo'ravonlikka emas, bag'rikenglik va erkin tanlovga asoslanishi kerak. Chunki zo'ravonlikka asoslangan metodlar fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi to'siqdir.

Bag'rikenglikka sivilizatsiyaviy nuqtai-nazardan yondashish ushbu tushuncha qanchalik global ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Har bir sivilizatsiya o'ziga xosligiga qaramay, ularning bag'rikenglikka bo'lgan munosabatida umumiy mushtaraklikni tushunib yetish qiyin emas. A.A. Mishuchkov tomonidan sivilizatsiyaviy bag'rikenglik modellari va sivilizatsiyalar muloqoti tamoyillari bo'yicha jadval ishlab chiqildi[6]. Ushbu jadval bag'rikenglik haqida ancha kengroq tushunchaga ega bo'lishga xizmat qiladi.

Jadval. Sivilizatsiyaviy bag'rikenglik modellari va sivilizatsiyalar muloqoti tamoyillari

Eksklyuziv noliberal model	Ikki modelning umumiy xususiyatlari, sivilizatsiyaviy murosa imkoniyati	Bag'rikenglikning inklyuziv liberal modeli
1	2	3
Bag'rikenglikning noliberal nazariyalari: "yalpi birlik" (V.S.Solovyev, Gorin A.Yu.); imperiya (I.A.Ilin); ontologik gneseologiya (N.Loskiy, S.Frank, S.Trupetskoy); zo'rlik ishlatmaslik (L.N.Tolstoy, M.Gandi); islom (M.Hotamiy, Xolid Abu-l-Fadl); provaslav (Damaskin(Papandreu), Xomyakov M.B., Panarin A.S.);	Falsafiy-metodologik plyuralizmni tan olish	Bag'rikenglikning liberal nazariyalari: (P.Nikolson, G.Markuze); ideal-tipik (D.Rolz); ontologik-tarixiy (M.Uoltser, S.Mendus, D.Xorton); konflikt (J.Laklau, Sh.Muff).

buddaviylik (Dalay-lama XIV, Nesterkina S.P., Ulanov M.S., Badmayev V.N.)		
G'oyaviy ilhomlantiruvchilar: Platon, Iustin Faylasuf, G.Palama, F.Gegel, V.Solovyev, M.Hotamiy.		G'oyaviy ilhomlantiruvchilar: Aristotel, U. Okkam, I.Kant, F.Bekon, J.Lokk, J.Mill, D.Roulz, K.Popper.
Xolistik monizm (T.V. Volkovaga binoan), axloqiy universalialarning mutlaqligi, umumiy farovonlikka erishish	Turli sivilizatsiyaviy etikalarni fenomenalligini tan olishda axloqiy konsensus	Nominalistik plyuralizm, axloqiy universalialarning nisbiyligi, individual farovonlikka erishish
Metafizik diskursda diniy-axloqiy monizm. Yopiq jamiyatdagi bag'rikenglikning imperiya modelida ekzogen, eksternal plyuralizm (N.B. Kruglovaga binoan).	Diskursiv konsensus va axloqiy monizm aspektida cheklangan madaniy plyuralim.	Pozitivistik diskursda diniy-axloqiy plyuralizm. Ochiq jamiyatdagi bag'rikenglikning yangiyevropa modelida endogen, internal plyuralizm.
Ma'nolar iyerarxiyasi (muqaddaslikdan nopoklikkacha), diniy (metafizik) diskursning dominantligi	Shaxsiy va jamoa huquqlarini cheklab qo'ymasdan turli diskurslarni raqobatbardoshligini tan olish	Ma'nolar dekonstruksiya, dunyoviy diskursning dominantligi
Noliberal internatsionalizm, an'anaviy globalitet	Globalitetlarning legitimligi	Liberal internatsionalizm, postan'anaviy globalitet
Jamoa huquqlarini himoya qilish va sivilizatsiyalarni o'ziga xosligi	Bir-biriga nisbatan bo'lgan huquq dialogida tenglik	Individual huquqlarni himoya qilish va shaxslarni o'ziga xosligi
Sivilizatsiyaviy o'xshashlik, dekolonializatsiya, an'anaviylik, konservatizm, jamoat aksetizmi siyosati	Ko'p qutblilik dunyo tartibotining faktori sifatida. Xususiyl mantiqiy rivojlanishda xalqlar va shaxslar huquqlarini tan olish	Multikulturalizm, neokolonializm, postmodernizm, kosmopolitizm, konsyumerizm siyosati
Haqqoniylik kategoriyasining mutlaqligi, o'zgarmaslik va "zamonaviylashtirmaslik" kategoriyalari diskursiv amaliyotda	Dunyoqarashli pozitsiyalarni hurmat qilish	Relyativlik, haqiqatning "nisbiyligi", uning dialektik xarakteri, stsientizm — inkor etish va tekshirish
Bag'rikenglik hamdardlik va diniy ijtimoiy burch sifatida	Zo'ravonliksiz metodlar amaliyoti	Boshqa qarashlar, e'tiqodlar, an'analar, usullar va hayotiy amaliyotlarni, garchi ko'ngilda ular maqbul bo'lmasa-da individual huquq sifatida tan olish va hurmat qilish
Muqaddas ideal tomon harakatda axloqiy xotirjamlik va ijtimoiy farovonlik	Sivilizatsiyaviy etikalar asosida dialoglarni chuqurlashtirish va sivilizatsiyaviy ideallar rivojini tan olish	"To'kin-sochinlik" jamiyat ideali doirasida farqlarga befarqlik, ruhiy iroda, individuumning psixologik xotirjamligi
An'anaviylik, o'z pozitsiyasini o'zgartirmaslik	Dialogning turli kommunikativ strategiyalarini hurmat qilish	O'z pozitsiyasini o'zgartirishga harakat qilish, muloqot, harakatlarning mobilligi
Ko'p qutbli sivilizatsiyalar dialogida madaniyatlar prezumpsiyasi		Liberal etosning bir qutbli globalizatsiyasi
Inklyuziofobiya, klerikalizm va fundamentalizm	Institutsional funksionalizm	Eksklyuziofobia, antiklerikalizm
Sivilizatsiyaviy etikaga asoslangan kommunikatsiyalar etikasi	Qo'sh standartlar, baholarning ommaviyligi, manipulyatsiyadan voz kechish	Universal qadriyatlarining (simulyakrlar) madaniy simvolizatsiyalar global etosda
Xizmat qilish amaliyoti va "boshqasi umumiy farovonlik maqsadi sifatida" missiyasi	Shaxs va jamiyatning ichki va tashqi erkinliklari dialektikasining muhimligini tan olish	Manipulyatsiya amaliyoti — "boshqasi individual farovonlikka erishish vositasi sifatida"

Sivilizatsiyalarni an'anaviy siyosiy modellarini qo'llab-quvvatlash	Sivilizatsiyaviy tizimlar va turli xalqlarning siyosiy madaniyatlarni tan olish	Demokratiya va huquq tartibotni qo'llab-quvvatlash insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotining asoslari sifatida
Dogmatik metafizik tafakkur	Insonlar va hodisalarni baholashda oldindan bir fikrga kelmaganlik	Krititsizm, adogmatik tafakkur

Bag'rikenglik o'rta asrlarda majburiy chora sifatida qabul qilingan bo'lib, hatto shuni aytish mumkinki, u amaliy xarakterga ega edi[7]. Ya'ni feodal tarqoqlik va diniy fanatizm davrida xalq doimiy urushlardan ozod chekar, natijada esa qishloq xo'jalik va savdo bundan zarar ko'rardi. Natijada markazlashgan davlat va bag'rikenglik tinchlikka olib borishi va buning natijasi o'laroq qishloq xo'jalik va savdo rivojlanishi uchun bular asos bo'lishini faylasuflar bilan hukmron doiralar tushunib yetishdi.

Bag'rikenglik tushunchasining evolyutsion taraqqiyoti turli davrlarda turlicha namoyon bo'ldi. XVI-XVII asrlardagi diniy urushlar davrida dinlararo murosasizlikka jamoatchilikning salbiy munosabati ta'siri ostida bag'rikenglik g'oyasi juda o'ziga xos ma'noga ega bo'ldi — bag'rikenglik deganda insonini e'tiqodga jalb qilish masalasida zo'ravonlikni rad etish, boshqa odamlarning e'tiqodiga murosali bo'lish hamda diniy va dunyoviy hokimiyatlarning bir-birlarining ishlariga aralashmaslik tamoyili tushuniladi[8]. Nemis gumanisti va ilohiyotchisi Nikolay Kuzanskiy (1401—1464) diniy qarama-qarshiliklarni urushlarsiz hal qilish imkoniyati haqida fikr yuritdi. U taklif qilgan bag'rikenglik modeli dinlardagi marosimlar farqlarini saqlab qolgan holda, yagona Xudoga e'tiqodni qaror toptirish orqali dinlarni mo'tadillashtirishni nazarda tutadi. Jon Lokk (1632-1704) fikricha, bag'rikenglik "o'zgartira olmaydigan narsaga qarshi kurashishni to'xtatish" degan ma'noni anglatadi. Garchi Jon Lokk "bag'rikenglikning otasi" hisoblansa-da, lekin fransuz faylasufi Volter (1694-1778) tomonidan olib borilgan bag'rikenglik yo'lidagi kurash uning bu borada hissasi ancha salmoqli ekanligini ko'rsatadi. Bu kurashni u ham faylasuf sifatida ham mediator sifatida amalga oshirdi. Fransuz tarixchisi Benua Garnoning fikricha, "Volter mediatsiya faoliyatiga katta hissa qo'shdi, lekin u shubhasiz adolatsiz (Kalas, Sirven, Lally-Tollendal va boshqalar) yoki juda shafqatsiz (La Barr) hukm qilingan ayblanuvchilarni reabilitatsiya qilish uchun ko'pincha g'alaba qozondi"[9]. "Bag'rikenglik nima? Bu insoniyatning imtiyozidir. Biz hammamiz zaif va xatolarga to'lamiz. Keling, bir-birimizni ahmoqligimiz uchun kechiraylik, bu tabiatning birinchi qonunidir ", deb yozgandi Volter.

XVIII asrda Fransiyada Volter o'z davrida avj olgan diniy aqidaparastlik va jaholatga qarshi kurash olib bordi. O'zining bir qator asarlarini diniy fanatizmga qarshi kurashga bag'ishlab, ularda bag'rikenglikni targ'ib qilib chiqdi. Ulardan eng mashhuri 1763-yilda nashr etilgan "Bag'rikenglik haqida" asardir. Ushbu asarda Volter dinlar o'rtasida bag'rikenglikni targ'ib qilib, dinlar bilan bog'liq xurofotlar va diniy aqidaparastlikni tanqid qiladi. Hozirgi kunda ham Volterning bag'rikenglik haqidagi g'oyalari o'zining aktual ahamiyatini yo'qotmagan.

Asar mundarijasini tahlil qilsak, Volterning bag'rikenglik konsepsiyasini ilgari surishda falsafiy yondashuv mavjudligini ko'rish mumkin. Volter dastlab turli faktlarni eslatadi, so'ngra bag'rikenglik insoniyat uchun tabiiy xususiyat bo'lishi kerakligini bayon qiladi. U antik davrdagi greklar va rimliklarni bag'rikenglikka bo'lgan munosabatlarini ochib beradi. Shundan so'ng diniy murosasozlik uchun shahid bo'lganlarning noroziliklarini asossizligini isbotlab beradi. U iudaizm dinini tahlil qila turib, bag'rikenglikning ancha keng tarqalganligini tilga olib o'tadi. Xristianlikka kelganda esa, Iso Masihni bag'rikeng bo'lganligi, uni keyinchalik xristian dinida

yuzaga kelgan inkvizitsiya va autodafega aloqasi yo'qligini ta'kidlaydi. Bag'rikenglikni umumbashariy fazilat ekanligiga alohida urg'u berib, asarni xudoga murojaat qilish bilan yakunlaydi.

1995-yil 16-noyabrda YuNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida “Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” qabul qilindi. Har yili 16-noyabr kuni jahonda “Xalqaro bag'rikenglik kuni” sifatida nishonlanadi. Ushbu deklaratsiya 6 moddadan iborat bo'lib, unda bag'rikenglik tushunchasining mohiyati ochib berilgan. “Bag'rikenglik dunyo madaniyatlarining boy xilma-xilligini, o'zimizni ifodalash shakllarimizni va inson sifatida o'zimizni ifodalash usullarini hurmat qilish, qabul qilish va qadrlashni anglatadi. Bunga bilim, ochiqlik, muloqot va fikr, vijdon va e'tiqod erkinligi yordam beradi. Bag'rikenglik xilma-xillikdagi uyg'unlikdir. Bu nafaqat ma'naviy burch, balki siyosiy va huquqiy zaruratsidir. Bag'rikenglik tinchlikni ta'minlovchi va urush madaniyatini tinchlik madaniyatiga almashtirishga yordam beradigan fazilatdir”, deb yozilgan ushbu deklaratsiyada[10].

BMT Bosh Assambleyasining 2018-yil 12-dekabrda yalpi sessiyasida “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini 2017-yil sentyabrda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklif etgan rezolyutsiyada, “bag'rikenglik va o'zaro hurmatni o'rnatish, diniy erkinlikni ta'minlash, dindorlar huquqlarini himoya qilish va ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik”ga alohida e'tibor qaratilgan. 2021-yilning 5-iyulida mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonunni imzoladi. 2025-yil 26-fevralda esa “O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qonun qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, bag'rikenglik tushunchasi hozirgi globallashuv davrida muhim ahamiyatni kasb etadi. Ushbu tushuncha genezisida Volterning roli juda salmoqli sanaladi, uning bag'rikenglik haqidagi g'oyalari nafaqat jahonda, balki yurtimizda millatlararo totuvlikni ta'minlashda muhim manba sifatida namoyon bo'laveradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Waterlot, Ghislain. La tolérance et ses limites : un problème pour l'éducateur. In: Spirale. Revue de recherches en éducation, n°21, 1998.p.162
2. fr.wikipedia.org/wiki/Tolérance
3. Уолцер М. О терпимости. — М.: Идея-Пресс, Дом интеллектуальной книги, 2000.с.24
4. Ильинская С.Г. Толерантность как принцип политического действия: история, теория, практика. — М.: Праксис, 2007.с.10
5. Дубко Е.Л. Политическая этика. — М.: Академический проект; Трикста, 2005.с.661
6. Мишучков А.А., Формы толерантности в диалоге цивилизаций, Вестник Оренбургского государственного университета №1 (176)/январь`2015.с.15-16
7. Гулина Н.А.; Понятие толерантности: история и современность; Sciences of Europe.№ 26, (2018); с.55
8. Пороховская Т.И.; Толерантность как доктрина, принцип поведения и как моральная дилемма; Вестник РУДН, серия Философия, 2013, № 3.с.88
9. Garnot, Benoît; Voltaire et la justice d'Ancien Régime: la médiatisation d'une imposture intellectuelle; Le temps des médias 2010/2 n° 15.p.26
10. www.unesco.org/fr/legal-affairs/declaration-principles-tolerance

Received: 16 May 2025**Accepted:** 1 June 2025**Published:** 15 June 2025*Article / Original Paper***MAIN PHILOSOPHICAL IDEAS OF MIRZA ABDUL QADIR BEDIL****Sattorova Shalola Bobir qizi**

Bukhara State Pedagogical Institute, PhD

Abstract. This article explores the central ideas of the philosophy of Mirza Abdulqadir Bedil (1644–1720), a prominent Persian-language poet, thinker, and representative of the Sufi tradition. Special attention is given to the concepts of wahdat al-wujud (unity of being), mazhar (the world as a reflection), the illusory nature of the material world, and the path to truth through self-awareness. Metaphysical poetry is interpreted as a means of attaining truth and spiritual self-realization. Bedil is presented as a mystical philosopher striving to synthesize rational knowledge and inner experience. The article also examines the idea of the human being as a microcosm, reflecting the structure of the entire universe. Furthermore, the study highlights Bedil's influence on later Islamic philosophical thought and his connections to the traditions of Ibn Arabi, Rumi, Navoi, and Indian metaphysics.

Keywords: Mirza Abdulqadir Bedil, Sufism, Wahdat al-Wujud, Metaphysical Poetry, Mazhar, Illusion of the World, Self-Consciousness, Truth, Microcosm, Islamic Philosophy, Ibn Arabi, Spiritual Knowledge, Irfan, Human, and the Absolute.

MIRZO ABDULQODIR BEDILNING ASOSIY FALSAFIY G'OYALARI**Sattorova Shalola Bobir qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada forsiy zabon mutafakkir, shoir va so'fiylik an'alarining yirik vakili bo'lgan Mirzo Abdulqodir Bedil (1644–1720) falsafasining asosiy g'oyalari tahlil qilinadi. Asarda vahdat ul-vujud (borliqning birligi), mazhar (dunyo — aks), moddiy olamning xayoliyligi g'oyalari hamda haqiqatga o'zlikni anglash orqali yetish yo'li kabi masalalar muhokama qilinadi. Metafizik she'riyat — haqiqatni anglash va ruhiy o'zlikni kashf qilish vositasi sifatida ko'riladi. Bedil — aql va ma'naviy tajribani uyg'unlashtirishga intilgan falsafiy mutasavvif sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, insonning mikrokosm sifatidagi o'rni, unda butun borliqning aks etishi masalasi ochib beriladi. Maqolada Bedil falsafasining Ibn Arabiy, Rumiy, Navoiy va hind metafizikasi bilan aloqalari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mirzo Abdulqodir Bedil, tasavvuf, vahdat ul-vujud, metafizik she'riyat, mazhar, dunyoning xayoliyligi, o'zlikni anglash, haqiqat, mikrokosmos, islom falsafasi, Ibn Arabiy, ruhiy bilim, irfon, inson va mutlaqlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N31>**KIRISH**

Bedilning falsafiy ijodining bugungi kundagi ahamiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Unda borliqni ratsional va irratsional anglash, inson falsafasi, hind va musulmon madaniyatlarining o'zaro ta'sirini aniqlash, katta ahamiyatga ega. Bedil ijodida dunyoni botinay anglash, inson ruhiyatini kamol toptirish, o'zlikni anglash orqali borliqqa munosabatda bo'lish g'oyalari ilgari surilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mirzo Abdulqodir Bedil ijodini o'rganish uning zamondoshlari tomonidan informativ ravishda o'rganildi. Bedil haqida birinchi ma'lumot «Mir'ot ul xayol», Sherxon Ludining

«Safinan Bexabar» (Mir Azamat Bexabar) va boshqa tazkirotlarda Bedil haqida ma'lumot beriladi, jumladan G'ulomali Balgiramining «Sarvi Ozod» tazkirotida [2].

Bedil zamondoshlarining ba'zi tazkiralari, shuningdek, Bedilning asarlari yoki qarashlari tilga olingan keyingi xronologiyalarda ayniqsa batafsil yoritilgan bo'lib, ular Bedilning hayotligida ham davrshunoslar e'tiborini tortganligidan dalolat beradi. atoqli mutafakkir va shoir bo'lib, u haqida «keng qalb» va «farishtalik fe'l-atvorli», «she'riy tafakkurning ravshanligi va go'zalligiga» intiluvchi inson sifatida so'zlagan. Ularning fikricha, mutafakkir Haqiqatni izlashdan zavq oladi

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sharq falsafasi talqinidagi axloqiy qadriyatlar jahon ma'naviy-axloqiy tafakkuri taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, hozirgi ijtimoiy-ma'naviy hayot rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Insoniyat kelajagi va taraqqiyoti uchun qonuniy zarurat sifatida vujudga kelgan yaxshilik, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, mehr-muruvvat, karam, saxovat kabi axloqiy qadriyatlar falsafa tarixi tizimida tadqiqotning alohida o'rganish obyekti bo'la oladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Sharqning buyuk mutafakkiri va shoiri Mirzo Abdulqodir Bedil asarlaridagi ilmiy-irfoni, diniy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy fikrlarning mohiyatida ham axloqiy qadriyatlar o'z ifodasini topgan va ular bugungi kunda ham katga tarbiyaviy ahamiyatga ega. Fan olamida yangidan-yangi qarashlar, ulkan o'zgarishlar yuz berar ekan, ular orasida falsafa faniga, falsafa tarixi va milliy falsafaga munosabat masalasi ham jiddiy tadqiqotlarni taqozo etadi. Mirzo Abdulqodir Bedil ijodida dunyoni botinan anglash, inson ruhiyatini kamol toptirish, o'zlikni anglash orqali borliqqa munosabatda bo'lish g'oyalari ilgari surilgan. Ularni falsafiy nuqtai nazardan teran tadqiq etib, ilm-fan sohasida keng qo'llash zarurati ham ishning dolzarbligini belgilaydi. XX asrga kelib, ma'naviy-axloqiy muammolar ham global tus ola boshladi. Ushbu muammoni har tomonlama hal etishda Sharq mamlakatlarida mintaqaxloqiga xos bo'lgan yo'llar, usullar va vositalarga murojaat etish o'ta e'tiborlidir. Shundan kelib chiqqan holda, Mirzo Bedil axloqiy qarashlarini tadqiq qilishga alohida urg'u berish nazariy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Sho'rolar davriga qadar yurtimizda bedilxonlik kechalari adabiy bir an'ana sifatida keng ko'lamda o'tkazilib kelinar edi. Bunday kechalar yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga doimo o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelgan. Lekin sho'rolar mafkurasi tazyiqi ushbu an'ananing rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. O'zbekistonning mustaqillikka erishganligi, xalqimizning boy ma'naviy an'alaridan bo'lgan bedilxonlik kechalarining ham tiklanishiga imkon yaratmoqda. Mirzo Bedil falsafasi asosida bedilxonlik kechalarini qayta tiklash yoshlarimizni ushbu an'ana vositasida ma'naviy-axloqiy kamol toptirish, ularda tarixiy xotirani shakllantirish va mustahkamlash muhim ahamiyatga egadir. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti tarixida o'zining boy ilmiy-adabiy merosi bilan o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedilning o'rni alohida ahamiyatga ega. Uning ijodini tadqiq etishda Hindiston, Eron, Afg'oniston va Markaziy Osiyo olimlari o'ziga xos tarzda yondashganlar. Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1720) falsafasi Sharq falsafasi tarixida, ayniqsa, Hindiston va Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatida yorqin hodisadir. U nafaqat faylasuf, balki yirik shoir, tasavvuf yo'nalishining vakili bo'lib, uning tafakkurida islom falsafasi, eronistik metafizika va hind g'oyalarining sintezi aks etgan.

Bedil falsafasining asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat:

1. Vahdat ul-vujud (Borliqning yagonaligi).

Vahdat ul-vujud (arab. الوجود وَحْدَةً — “Borliqning yagonaligi”) tasavvuf ta'limotidagi markaziy falsafiy-irfoniy qarashlardan biri bo'lib, Mirzo Abdulqodir Bedil ta'limotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Vahdat ul-vujud — bu faqat bitta haqiqiy borliq — Xudo mavjudligi, qolgan barcha narsalar esa faqat uning mohiyatining namoyon bo'lishi yoki aks etishi haqidagi ta'limotdir. Moddiy olam mustaqil ontologik maqomga ega emas — u haqiqiy emas, balki xayoliy (zohiriy).

Bedil Ibn Arabiy va boshqa mutasavviflarning butun borliq Yagona Mutlaq Zotning tajallisi, degan g'oyalarini rivojlantirdi. Uning tizimida:

- Butun olam ilohiy haqiqatning in'ikosidir.
- Inson Xudoning ko'zgusi, o'zlikni anglash Xudoga yetaklaydi.

Haqiqiy borliq yolg'iz Ollohda, qolgan hamma narsa xayoliy (maxl'qot — yaratilgan — soya).

2. Dunyoning xayoliyligi g'oyasi (mazhar)

U moddiy dunyoni muvaqqat va shartli, ya'ni abadiy borliqning bir ko'rinishi (mazhar) deb hisoblagan. Bu Hindiston (mayya) falsafasi va islom gnostitsizmi bilan hamohangdir.

Dunyoning xayoliyligi g'oyasi yoki mazhar (arab. مظهر — “namoyon bo'lish, aks etish”) g'oyasi Mirzo Abdulqodir Bedil va boshqa vahdat ul-vujud namoyandalari falsafasida asosiy o'rin tutadi. Bu g'oya tasavvuf metafizikasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Sharq tizimlari, ayniqsa, hind falsafasi bilan hamohangdir [3].

Mazhar yashirin voqelikning in'ikosi yoki ko'rinishidir.

Biz yashayotgan dunyo — asl mohiyatga ega emas, u faqat Yagona Mutlaq Borliq — Haqning tashqi ifodasi (mazhari) sifatida mavjud.

3. Metafizik poeziya.

Metafizik she'riyat — bu she'riyatda g'oyaning markazida inson mavjudotining mohiyati, borliq va yo'qlik, Xudo va koinot o'rtasidagi munosabatlar, ong va haqiqat singari chuqur falsafiy savollar turadi. Bu yo'nalish hissiy lirikani emas, balki ontologik va gnoseologik izlanishni ifodalaydi.

Islom madaniyatida, ayniqsa fors-tojik adabiyotida bu yo'nalish o'ziga xos falsafiy-mistik tizimga aylangan. Mirzo Abdulqodir Bedil (1644–1720) esa bu yo'nalishning eng yirik namoyandasi bo'lib, uning ijodi tasavvuf, falsafa va she'riyatni uyg'unlashtirgan holda, Allohni anglash yo'li sifatida she'riyatni ko'rgan [4].

Metafizik she'riyat — she'riyatdagi o'ziga xos yo'nalish bo'lib, unda chuqur falsafiy, ma'naviy va irfoniy g'oyalar murakkab obrazlar, paradokslar, ramzlar va ishoralar orqali ifodalanadi. Islom madaniyatida, xususan, Mirzo Abdulqodir Bedil ijodida metafizik she'riyat shunchaki badiiy san'at emas, balki borliq va Allohni anglash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Metafizik poeziya — borliq va yo'qlik tabiati, inson va Mutlaqlik munosabati, Haqiqatni izlash va o'zlikni anglash, dunyo va abadiyatning xayoliyligi, vaqt, ong, “men,” o'lim, Xudo kabi mavzular ochib berilgan she'riyatdir. Bu tuyg'ular va turmushning emas, balki ontologik masalalarning she'riyatidir.

Mirzo Abdulqodir Bedil fors metafizik she'riyatining eng buyuk namoyandalaridan biridir. Uning she'rlari shunchaki hissiyotli emas, balki falsafiy jihatdan boy. U she'riyatni Ibn Arabiy, Abu Ali ibn Sino, Rumi va hatto hind metafizikasi g'oyalari bilan bog'laydi. Bedil

she'riyatga haqiqatni bilish yo'li deb qaragan. Uning she'rlari murakkab, falsafiy tasvirlar, ishoralar va metaforalarga boy [5]:

Oyna, yorug'lik, soya, sayohat obrazlari doimo yaratilish va Yaratuvchi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish uchun ishlatiladi.

Bedilning tili falsafiy jihatdan boy, mulohaza va talqinni talab qiladi.

4. O'zlikni anglash orqali haqiqatga erishish yo'li

Bu g'oya Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasida va kengroq olganda — irfoniy (sufiy) tafakkurda muhim o'rin tutadi. Bedilning qarashlarida insonning o'z “men”ini anglash — bu shunchaki psixologik introspeksiya emas, borliqdagi yagona Haqiqat (Haq) sari bo'lgan ichki sayohatdir [6].

Xudoni anglash — o'zlikni anglash demakdir:

“Ko'zdan yashiringan Zot o'zingda zohirdir.”

O'zlikni anglash — bu ruhiy ko'z ochishdir.

Bedilga ko'ra, bu jarayon orqali inson yolg'on “men”dan xalos bo'ladi va haqiqiy mavjudlik — ilohiy nur bilan tanishadi. Shu bois Bedil she'riyatida o'zlik — bu Haqning nurlanishidagi ko'zgu.

5. Inson mikrokosmos sifatida

Bu tushuncha qadimdan boshlab yunon falsafasidan tortib, islomiy irfon (sufizm), G'arb va Sharq metafizikasigacha bo'lgan ko'plab falsafiy tizimlarda muhim o'rin tutadi. **Mirzo Abdulqodir Bedil**ning falsafiy-poetik qarashlarida esa bu g'oya **markaziy** o'rin egallaydi. Inson butun borliqning in'ikosi, uning yordamida borliq sirlarini anglash mumkin [7]. Uning fikrlari neoplatonizm va islom falsafasiga borib taqaladi (Forobiy, Abu Ali ibn Sino), ammo mistik ruhda qayta ishlangan. **Inson — olamning aksidir, mazmunidir va kalitidir.** U o'zida tashqi dunyo unsurlarini emas, balki **Allohning ma'naviy nurlarini** ham mujassam etgan. Shu bois, insonni o'rganish — bu **borliqni va Haqni anglashning yo'lidir.**

XULOSA

Bedil falsafasining ahamiyati juda katta. Hindiston, Afg'oniston, Eron va O'rta Osiyo ma'naviy madaniyatining shakllanishiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Uning g'oyalari chig'atoy va o'zbek tasavvuf she'riyatiga, xususan, Alisher Navoiyga asos bo'ldi. Uning izdoshi buyuk shoir va faylasuf Ahmad Shoh Abdurahmon Jomiy, shuningdek, Xoja Ahror va boshqa turkistonlik mutafakkirlar edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sattorova S. B. Unique study of the problem of justice and equality in the doctrine of human and society of MIRZA ABDUL QADIR BEDIL //Oriental Journal of Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 06. – С. 1-10.
2. Мо'минов И. Мирза Бедилнинг фалсафий қарашлари. -Тошкент, О'збекистон, 1957-йил.
3. Мо'минов И. Танланган асарлар1 жилд. - Т.: Фан. 1969.
4. Муминов И.М. Философское взгляды Мирзы Бедилуа. - Ташкент: Изд-во Акад. наук УзР, 1957
5. Мирзо Абдулқодир Бедил. Комде ва Мудан Назармат таржимаси.- Т.: О'збекистон давлат нашриёти, 1960.
6. Мирзо Абдулқодир Бедил Рубойилар. Шоислом Шомухамедов таржимаси. – Тошкент, 1986.
7. Мирзо Абдулқодир Бедил. Рубойилар. Ж.Камол таржимаси. Т., 1991

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

RESPONSIBILITIES AND PERSONAL ATTRIBUTES OF AN ENTREPRENEUR

Taylyakova Feruzakhon Sultanovna

Senior lecturer,
Department of Languages and Humanities,
Andijan State Technical Institute

Abstract. This article elucidates that entrepreneurship serves not only financial interests but also contributes to social progress. Therefore, a deep understanding of an entrepreneur's responsibilities and personal qualities is of crucial importance for conducting effective business and contributing to the country's economy.

Keywords: globalization, entrepreneur, risk-taker, prosperous, inactive, ethics, proactive individual, moral and ethical, employee, initiative, courage, zeal, vigor.

TADBIRKOR VAZIFALARI VA SHAXSIY SIFATLARI

Taylyakova Feruzaxon Sultanovna

Andijon davlat texnika instituti
“Tillar va Gumanitar fanlar”
kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik faqat moliyaviy manfaat emas, balki ijtimoiy taraqqiyotga ham xizmat qilishi, shu bois, tadbirkorning vazifalari va shaxsiy sifatlarini chuqur anglash – samarali biznes yuritish va mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo‘shishda muhim ahamiyatga ega ekanligi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, tadbirkor, ravakkalchi, farovon, faoliyatsiz, odob-axloqi, faol inson, ma’naviy-axloqiy, xizmatchi, tashabbus, jasorat, g‘ayrat, shijoat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N32>

KIRISH

Globallashuv jarayonlarda oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy natijadorligini oshirish dunyo miqyosida ustuvor masalaga aylangan. Falsafa nuqtai nazaridan, oilaviy tadbirkorlik jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlari – oila va iqtisodiyotning uzviy integratsiyasiga asoslanadi. Bu o‘z navbatida, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik muvozanatini saqlash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik biznesni rivojlantirish, bandlikni ta’minlash va ijtimoiy tengsizlikni oldini olishda dolzarb masalalardan biriga aylangan. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ma’lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir” [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixan tadbirkorning bir necha vazifalari bo‘lganini ko‘rib o‘tish mumkin. Masalan, siyosiy iqtisod fanining mumtoz vakili A.Smit “Tadbirkor sarmoya egasi bo‘lib, iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish va foyda olish maqsadida ishlab chiqarishni tashkil qiladi”, degan edi. Yana bir mumtoz iqtisod vakili J.B.Sey, — “Tadbirkor ishlab chiqarishni

tashkil etuvchi bo'lib, uning mulk egasi bo'lishi shart emas. U ishlab chiqarishni tashkil qilish va mahsulotlarni sotish uchungina emas, xodimlarni ish bilan ta'minlash uchun ham mas'ul. Ana shu vazifalarni bajargani uchun foyda oladi", degan edi.

R.Kantilon va boshqa ba'zi iqtisodchilar tadbirkorlikning xatarli kasb ekani, ya'ni tadbirkor foyda olish o'rniga bor mol-mulkidan ham ajrab qolishi mumkinligiga e'tibor qaratishadi. Shuning uchun ular tadbirkorning xususiyatlaridan biri noaniq vaziyatda faoliyat yuritish va tavakkalchilik qilish, deb hisoblashadi.

Avestoda oila muqaddas institut sifatida talqin etilib, kishi "o'z hunariga ega bo'lishi va mehnat qilishi insonni axloqiy jihatdan poklaydi"[2] deb hisoblangan. Konfutsiyning "Ota – oila rahbari va iqtisodiy farovonligi uchun mas'ul shaxs" [3], Aristotelning "oilaviy ehtiyojlarni qondirish vositasi"[4] ekanligi, Sitseronning "Oila — davlatning kichik shakli" kabi oilaviy mulk va mehnat munosabatlari oliy qadriyatlar hisoblangan.

Forobiy fikricha "inson faoliyatsiz turolmaydi, ammo har qanday faoliyat va harakat insonni inson qilib ko'rsata olmaydi. Chunki, o'z tabiatiga ko'ra hayvonlar ham harakat qiladilar. Hayvon ovqatni ko'radi va unga intiladi va bunda ongsiz harakatni amalga oshiradi. Natijada u o'z maqsadiga yetish uchun ongli faoliyat olib boradi. Inson juda ko'p narsani orziqib yashaydi, biroq ularning hammasiga ham ega bo'lmaydi"[5].

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik, savdogarlik, ishbilarmonlik odob-axloqi, odati va ma'naviy mezonlariga oid juda ko'p ma'lumot mavjud. O'tmishda, barcha zamonlarda jamiyat barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, xalq farovonligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti masalalari doimo dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan.

Kaykovus, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mutafakkirlar tomonidan qoldirilgan kasb-hunarga oid boy meros, axloqiy pand-nasihatlar bugun xususiy tadbirkorlar uchun suv bilan havodek zarur. Faqat ko'pchilik, ya'ni jamoatchilik qo'llab-quvvatlashi bilan olib-sotarlikni, tadbirkorlik, ishbilarmonlikni niqob qilib, hatto odam savdosigacha boradigan shaxslarni "tiyib" qo'yish mumkin.

"Ey farzand, — deydi Kaykovus, — xiyonatdan qochgilki, kimki bir marta xiyonat qilsa, unga hech kimning e'tiqodi qolmaydi. To'g'rilikni o'zingga kasb qilib olginki, to'g'rilik eng yaxshi ishdir. Oldi-sotdida muloyim bo'l va kishiga va'da qilmagil, va'da qilsang, unga xilof qilmagil. Xaridorga yolg'on so'z demagil, rostini aytgil"[6].

Amir Temur o'zining "Temur tuzik"larida "azmi qat'iy tadbirkor va hushyor bir kishi, mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir"[7] -degan.

Oilaviy tadbirkorlikning o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, unda to'plangan tajriba bosqichma-bosqich ishbilarmonlik doirasini kengaytirish, shu asosda raqobatbardosh ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.[8]

Abdulla Avloniy "Ilm bizni jaholat qorong'isidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, mehnatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur"[9].

Ma'rifatparvar ayol Anbar Otin "Qarolar falsafasi" asarida asosan qora mehnat tufayli dunyoni yashnatayotgan insonlar qalbining oqligi, oq tana-yu oq bilak kimsalar qilayotgan ishlarning qoraligi ta'kidlanadi va ular shu orqali axloqiy mazmun kasb etadi. Anbar otin shunday deb yozadi: "Ul qaro xalq oftob so'zanida mehnat qilib, o'zlari har qancha kuyganlari holda, hosillarini hamtovoqlariga tuhfa qilurlar. Misol andoqdurki, qazon bovujud qoradur, o'zi

o'tda kuyib qaro bo'lg'oni holda ovqat pishurib odamlarni to'ydirur. Qarolar bordurlarki, alar o'zlari qaro bo'lg'oni holda, ma'rifat nuri siyratlarida to'ladur va ul nurlarni fasohat va til durdonalari vositasi ila olamg'a oq shu'la socharlar. Misol uldurki, qaro charog' o'zi qaro yog', kuyundig'a giriftor bo'lg'oni holda, nuri ilan kulbani ravshan qilur" [10].

O'zbek faylasuf olimi Q.Nazarov "inson faoliyati ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirish, insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zini qurshagan dunyo bilan aloqaga kirishish usuli sifatida qaraladi. Faoliyat muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish qobiliyati uning amaldagi moddiy ifodasiga o'zaro o'tishini nazarda tutadi. Bu faol inson tashqi dunyoni o'zgartirishi va o'zi ham o'zgarishini anglatadi"[11], deb ta'kidlaydi.

Faylasuf olima Sh.Madayeva mehnat insonni dunyoqarashi orqali olamda "Dunyoqarash – insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek uning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir"[12].

Axloqshunos olim Abdulla Sher "Ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilar ilm-fanni o'rganishga ham, halol mehnat qilishga ham, odamlarga foydasi tegadigan kasb-hunarni egallashga ham rag'bat qilmaydilar" [13] deb hisoblaydi.

TADQIQOT METODLARI

XX asrga kelib, umuman, tadbirkor va xususan, oilaviy tadbirkorda yangicha xususiyat va vazifalar paydo bo'ldi. Amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeter ana shularga e'tibor qaratdi. Uning fikriga ko'ra, tadbirkorlikda, xususan, oilaviy tadbirkorlikda eng muhimi tashkiliy-xo'jalik innovatsiyalarini amalga oshirishdir. Haqiqatan ham, hozirgi sharoitda innovatsion fikr yuritmay va innovatsiyalarni amalga oshirmay turib, muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Tadbirkorlikni o'rganish tarixiga nazar tashlasak, unda uch to'lqin mavjudligi ko'zga tashlanadi. 1-to'lqin XVIII asrda vujudga keldi va e'tiborni tadbirkorlik faoliyatida vujudga keladigan xatarlarga qaratdi. 2-to'lqin tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarning zarurligini anglash bilan bog'liq edi. 3-to'lqin esa, tadbirkorlarning shaxsiy sifatlariga e'tibor qaratadi. Bunda, tadbirkorning iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatda yuz bergan o'zgarishlarga sezgirligi va hozirjavobligi, qaror qabul qilishda mustaqilligi, boshqaruv qobiliyatlarining mavjudligi, shuningdek, tadbirkorlikning iqtisodiy tizimini muvozanatga keltiruvchi hodisa ekaniga e'tibor qaratadi. Hozirgi kunda vujudga kelgan vaziyatni 4-to'lqin deb baholash mumkin. Bu bosqich tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy e'tiborni boshqaruv mahorati va samaradorligiga qaratadi.

Har qanday tadbirkor xizmatchi hisoblanadi, lekin har qanday xizmatchi tadbirkor bo'la olmaydi. Aslini olganda, har qanday tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan odam ham tadbirkor bo'la olmaydi. Tom ma'nodagi tadbirkor bo'lish uchun u tadbirkorlikni kasb sifatida tanlashdan tashqari muayyan sifatlariga ega bo'lish kerak. Bunday sifatlar jumlasiga bozordagi talabni aniqlay bilish, unga mos ravishda vazifani belgilash, vazifani bajarishda qat'iyatli va g'ayratli bo'lish, xom ashyo va resurslardan foydalanishda oqillik bilan ish yuritish kabilar kiradi. Tadbirkorning asosiy sifatleri deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- oqilona tavakkalchilik;
- bozordagi har qanday o'zgarishlarga tayyor turish;
- innovatsiyalarga moyillik.

Tadbirkorning eng muhim vazifasi — strategiyani belgilash, o'z xatti-harakatlarining ssenariysini tuzish va belgilangan ssenariy-reja asosida faoliyat yuritish.

Tadbirkor tafakkurining asosida tadbirkorlik g'oyasi yotadi. Tadbirkorlik g'oyasi har qanday tadbirkor faoliyatining asosini tashkil qiladi. Lekin maqsadga yetish uchun g'oyani topish bilan cheklanmasdan, uni hayotga tatbiq qilishga kirishish muhim. Haqiqiy tadbirkor g'oyani topgan shaxs emas, g'oyani hayotga tatbiq qilgan shaxsdir. Shuning uchun ham, tadbirkorning eng muhim sifatlaridan biri – g'oyadan amaliy faoliyatga o'ta olish hisoblanadi. Tadbirkor amaliy harakat boshlashdan avval, o'sha harakatning rejasini tuzishi, oqibatlarini hisoblab ko'rishi va taktika ishlab chiqishi lozim. Har qanday odam ham, boshlagan ishini oxiriga yetkazishi uchun yetarli kuch-g'ayrat, irodaga ega bo'lavermaydi. Ba'zan rejani amalga oshirish uchun ko'p yillar kerak bo'ladi. Bu davrda yuzlab to'siqlarni bartaraf etishga to'g'ri keladi.

Shundan xulosa qilib, tadbirkorning muhim sifatlaridan yana biri tirishqoqlik, deb aytish mumkin. Sanab o'tilgan sifatning barchasi bir odamda jamlanishi qiyin. Shuning uchun ham, har qanday odam tom ma'nodagi tadbirkor bo'la olmaydi, deb aytish mumkin.

Tadbirkorlik iste'doddur va ayni paytda, u faoliyatga ma'naviy, ruhiy tayyorlikni bildiradi. Bunday iste'dod va tayyorlikni nasldan-naslga o'tkazib bo'lmaydi. Shuning uchun tadbirkor uchun zarur bo'lgan sifatlar jumlasiga "tashabbus", "jasorat", "g'ayrat-shijoat" kabilarni kiritish mumkin.

XULOSA

Tadbirkorlik mahsulot ishlab chiqarishdami, faoliyat turini o'zgartirishdami yoki yangi faoliyat turini yaratishdami – barcha sohalarda innovatsiya-yangilik bo'lishini taqozo qiladi. Ishlab chiqarishni, sifatni, boshqarishning yangi tizimi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullari yoki yangi texnologiyalarini joriy etish – bularning bari innovatsiyalar hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir" nomli ma'ruzasi. 2023 yil 18 avgust
2. Авесто: Яшт китоби.М. Исҳоқов таржимаси. — Т.: «Шарк», 2001 й.
3. Конфуций ҳикматлар. Русчадан Комилжон ва Ойбек Жўраевлар таржимаси. Т., "Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти". 2010 йил. – Б.73.
4. Аристотель. Сочинения в 4-х томах. Т. 1. –М., 1975-1984. –С. 101.
5. Muhammadjanova L., Abdulla sher, Shadimetova G. Axloq falsafasi. Т.,
6. Кайковус. Қобуснома. Т., 1968. – 83-б.
7. Темур тузиклари. Тошкент "Ўзбекистон", 2019 йил. 14-бет
8. Жданов А. Рифы семейного бизнеса. - <http://www.wmnspp.ru/rub/carier/391-rif.html>
9. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" Toshkent, "O'qituvchi", 1993. 14b.
10. Anbar Otin. Tanlangan asarlar. Т., "G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1970, 84-b.
11. Nazarov Q. Falsafa qomusiy lug'at.. – Т.: "Sharq", 2004. –Б. 186
12. Madayeva Sh.O. va boshqalar. Falsafa. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2019.-515 bet.
13. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Т., "O'zbekistom faylasuflari milliy janiyati nashriyoti". 2010 yil. –Б.128

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

HUMAN AND ART IN ARTHUR SCHOPENHAUER'S TEACHINGS THROUGH THE PRISM OF AESTHETIC THINKING

Sadullayev Sardor Saydiganiyevich
Independent researcher of UzNU

Abstract. The transition to the aesthetic realm is always associated with themes of pure pleasure. This is because the ideas of all things become the subject of aesthetic evaluation. The values embodied in works of art perfectly correspond to this, as they require aesthetic contemplation. Works of art are created by geniuses endowed with full intellectual potential. Therefore, they can easily move from the world of things to the world of ideas. They are capable of presenting the results of contemplation in forms that others can perceive. Since works of art express certain ideas, the world of ideas has a hierarchical, tiered structure. According to Arthur Schopenhauer's reasoning, different works of art can be compared with one another.

Keywords: "The World as Will and Representation," aesthetic perception, art, will, purification, suffering.

INSON VA SAN'ATNING ARTUR SHOPENGHAUER TA'LIMOTIDA ESTETIK TAFAKKUR PRIZMASIDA TAHLILI

Sadullayev Sardor Saydiganiyevich
O'zMU mustaqil izlanuvchisi
E-mail: manaviy@rambler.ru

Annotatsiya. Estetik sohaga o'tish doimo sof lazzat mavzulari bilan bog'lanadi. Chunki barcha narsalarning g'oyalari estetik baholash predmetiga aylanadi. Bunga aynan mos keladigan qadriyatlar san'at asarlari hisoblanadi, u estetik mushohadani taqozo qiladi. San'at asarlari daholar tomonidan yaratiladi, ularda aqliy salohiyat to'la. Shuning uchun ham ular narsalar dunyosidan, g'oyalar dunyosiga bimalol o'ta oladilar. Mushohada natijalarini boshqalar qabul qila oladigan shaklga sola oladilar. San'at asarlari u yoki bu g'oyalarni ifodalagani uchun, g'oyalar dunyosi iyerarxik-pog'onaviy tuzilmaga ega bo'ladi. Artur Shopengauerning mulohazasiga ko'ra, turli san'at asallarini o'zaro solishtirish mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: «Dunyo iroda va tasavvur sifatida», estetik idrok, san'at, iroda, poklanish, iztiroblanish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N33>

Kirish. Artur Shopengauerning estetik qarashlari asosan «Dunyo iroda va tasavvur sifatida» deb nomlangan yirik asarida bayon etilgan. Faylasuf san'at bilan fanni bir-biriga solishtirar ekan, san'atni narsalarni asoslanish qonunidan mustaqil tarzda «mushohada qilish turi» deb ataydi. Estetik mushohada obyekti alohida narsa emas, balki asoslanish qonuni harakati ostidan olingan g'oya, afltuncha ma'nodagi g'oya. Uni aql bilan emas, fahm zavqi tabiiy (intuitsiya) yordamida payqash mumkin. San'atning fandan ustunligi ham ana shunda. Shu ma'noda Shopengauer «g'oya»ni «tushuncha»ga qarshi qo'yadi. Tushuncha fanga zarur, san'at uchun esa befoyda. San'atning maqsadi – g'oyani in'ikos ettirish. San'at turlarining farqi esa ulardagi ifoda material bilan belgilanadi. San'atning mohiyati shundaki, unda bir hodisa minglab hodisa uchun javobgar, u muhim voqea-hodisani olib, nomuhimini tashlab yuboradi. Qiyofa – mushohadali g'oya, u tushunchadan farqli tarzda, son-sanoqsiz alohida narsalarning

o'rnini mantiqiylik hamda mavhumiy umumiylik vositasida emas, balki fahmiy (intuitiv) idrok va tasavvur yo'li bilan egallaydi [1, 312-316].

Metodologiya. Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, retrospektiv tahlil, tizimli yondashuv, dialektik, germeneytik kabi usullardan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi. Artur Shopengauer falsafasi asosan uning iroda nazariyasi, pessimizm va estetik qarashlari nuqtai nazaridan tadqiq qilingan. Bu borada V.F.Asmus [2], A.A.Guseynov [3], Mattias Kossler [4], A.A.Chanishev [5], A.I.Trotsak [6], A.S.Sattar [7], N.V.Motroshilova [8], T.G.Shedrina [9] va B.E.Bixovskiy [10] kabi olimlarning ishlarini keltirish mumkin. Ular Artur Shopengauerning irratsionalizm va ekzistensial falsafaga ta'sirini, shuningdek, uning Nitsshe va keyingi falsafiy an'analarga ta'sirini tahlil qilgan. Keyinchalik, A.V.Guliga [11], K.Fisher [12], I.Folkelt [13], A.S.Chuprov [14] kabi tadqiqotchilar Shopengauerning falsafasini tarixiy va madaniy kontekstda chuqurroq o'rgandilar. Masalan, Guliga Shopengauerning etika va estetikaga oid qarashlarini XIX asr falsafasidagi o'rni nuqtai nazaridan tahlil qilgan.

Natija va tahlillar. Artur Shopengauer falsafani fandan ajratadi va san'atga yaqinlashtiradi. Fan tushunchalar bilan ish ko'radi, falsafa esa, san'at kabi g'oyalar doirasiga kirib boradi. Falsafa ko'zga ko'rinib turgan hissiy qiyofalardan yuksakka ko'tarilgan holda, g'oyani ularda gavdalantirmasdan, aksincha ular mohiyatini sug'urib olish bilan san'atga nisbatan ustunlikka ega. Falsafaning san'atga munosabati, vinoning uzumga bo'lgan munosabatidek gap [15, 140].

Buyuk olmon faylasufining fikriga ko'ra, daho ijod mahsuli aslo manfaat obyekt bo'lmaydi, foydasizlik uning eng muhim belgisi. Estetik idrok etishning vazifasi – foyda emas, lazzat. Bu fikrni Shopengauer istisnosiz barcha san'at turlariga tatbiq etadi. Masalan, me'morlik – arxitekturada bino nechog'li qulay, foydali, obodonchilik namunasi bo'lgani uchun emas, balki unda sof estetik maqsadga – go'zallikdan lazzatlanishiga me'mor qanchalik erishganiga qarab, san'at asari hisoblanadi. «Har qanday san'atning asl maqsadi – go'zallik to bizga taalluqli emas ekan, hamma narsa go'zal. Hayot hech qachon go'zal bo'lmaydi, faqat san'at ko'zgisida tozalangan hayot manzaralarigina go'zal. Barcha san'at turlarini Shopengauer ana shu nuqtai nazardan tahlil etadi. Qaysi san'at turi «hayot haqiqatini», ya'ni irodaning mohiyatini ochib bersa, o'shaning darajasi yuksak. Tasviriy san'at, she'riyat, dramaturgiya g'oyani in'ikos ettiradi. G'oya esa irodaning obyektivlashgan holati xolos, aslo ixtiyorning o'zi emas. Chunonchi me'morlik – iroda olomonning ongsiz intilish g'oyasi tarzida aks etgan bosqichni anglatadi, fojia esa ixtiyorning o'z-o'zi bilan nizoga kirishganini ochib berishga qodir. Hamma san'at turidan musiqa yuksak turadi, chunki barcha san'at turlari g'oyani –irodaning obyektivlashgan holatini aks ettirsa, musiqa irodaning o'zini ifodalaydi. Olamni musiqada irodada gavdalangan tarzda olib qarash mumkin. Musiqa g'oyalardan mustasno, hodisalar dunyosidan butkul inkor etgan holda, hatto, dunyo umuman mavjud bo'lmasa ham, qay darajadadir yashashi mumkin. Boshqa san'at turlari bunga qodir emas. Musiqaning ta'siri yana shuning uchun ham kuchliki, u, iroda singari tinglovchida quvonch, qayg'u va boshqalarning g'oyasini emas, balki ularning o'zini uyg'otadi.

Shopengauer estetikaning yangi mezoniy tushunchasini taklif etadi. U – qiziqarlilik. Garchand «qiziqish» iborasini biz Didroning sahna asrlariga tatbiq etsakda, qiziqarlilik o'zining miqyosiylik, mezoniylik xususiyatlari bilan estetikada yangi tushuncha maqomini olishga haqli deb o'ylaymiz. Shopengauerning fikriga ko'ra, «...go'zallik g'oyani bilish bilan belgilanadi...

qiziqarlilik bizga ixtiyorimizni qo'zg'otish orqali ta'sir ko'rsatadi» [16, 397]. Qiziqarlilik san'atda me'yorida bo'lishi kerak. Me'yoridan kami – zerikarlilikka, me'yoridan ortig'i idrok etuvchini go'zallikni his qilmasdan «sirg'anib o'tib» ketishiga olib keladi [15, 140-141].

Shopengauer ta'limotida go'zallik va ulkanlik san'at orqali tabiatning metafizik mohiyatiga oyna tutadi. Tabiatdagi har bir mavjudot o'z o'rnini uchun kurashadi, chunki materiya ularning barchasini bir vaqtda sig'dira olmaydi. Bu yerda vaqt, fazo va sababchilik materiyani shakllantirib, individuumlarning o'zaro to'qnashuvini keltirib chiqaradi. Aqlli mavjudotlar bu to'qnashuvni azob sifatida idrok etadi. Shunday ekan, hayot azoblarining asl chuqur “manbai” – bu “vaqt, fazo va sababchilik”dir [17, 123], chunki ular g'oyalar olamidagi kurashsiz birlikni parchalaydi. «...Unda bunday kurash yo'q. Shopengauerning ishonchiga ko'ra, “lazzatlar salbiydir” [18, 302], ya'ni ular faqat azob-uqubatlar yo'q qilinganda paydo bo'ladi. Shuning uchun, insoniy barcha azoblarning ildizini vaqtincha yo'qotadigan, individuallashtirilmagan dunyo idroki o'ziga xos lazzat manbai bo'lishi kerak. Bu lazzat, istaklarning qondirilishi natijasida paydo bo'ladigan oddiy zavqdan sifat jihatidan farq qiladi. Bu lazzat, individual iroda manfaatlariga bevosita bog'liq bo'lmagan holda, Shopengauer tomonidan “estetik” deb ataladi. Ammo bu lazzatning nafaqat subyektiv, balki obyektiv tomoni ham bor, bu esa irodaning muayyan obyektivlashuvda to'liq namoyon bo'lishi bilan bog'liq».

«Go'zallik» estetik lazzatning aynan obyektiv tomoniga taalluqlidir. Estetik kuzatish ana shu go'zallikka yo'naltirilgan. Individuallashtirmaganlik uni g'oyalar olami bilan bog'laydi. Ammo dunyodagi har bir narsa o'zida muayyan g'oyalarning izini ko'taradi va shu sababli bunday kuzatishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, “har bir narsa go'zaldir”, chunki u “sof obyektiv” nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi mumkin [19, 185]. Lekin agar bu narsa “umuman inson irodasiga dushman” munosabatda bo'lsa va shunga qaramay, inson uni “idroki etib, anglab yetsa-da, ongli ravishda undan yuz o'g'irsa”, unda uni “ulkanlik tuyg'usi” to'ldiradi [19, 178].

Shopengauerning estetik kuzatish to'g'risidagi ta'limotida Kantning “Mulohaza qobiliyati tanqidi”dagi tezislar rivojlantiriladi, unda estetik tuyg'uning o'ziga xos, manfaatsiz tabiati ishonchli tarzda ko'rsatib berilgan edi. Shu bilan birga, Shopengauer Immanuel Kant konsepsiyalarini jiddiy ravishda o'zgartiradi. Kant ham estetik tuyg'uni yuzaga keltiruvchi estetik g'oyalar haqida so'zlagan, lekin ularni hech bir tushuncha bilan to'liq ifodalanmaydigan obrazlar deb tushungan. Shopengauer esa o'xshash g'oyalarga mustaqil mavjudlikni nisbat bergan.

Shopengauer falsafasida g'oyalar nazariyasi muhim o'rin tutadi, ammo aynan shu nazariya unda eng kam ravshan bayon qilingan bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, Shopengauer g'oyalarni iroda – o'z-o'zidagi narsa sifatidagi – munosib obyektivatsiyalari deb ta'riflaydi, bu obyektivatsiyalar asos qonuni, ya'ni fazo, vaqt va sababchilik itoatiga tushmaydi. G'oyalar faqat “umuman tasavvur shaklini, subyekt uchun obyekt bo'lish shaklini” saqlab qoladi [19, 157]. Lekin, masalan, biror hayvon turining g'oyasida nima tasavvur qilinishi mumkin, agar uni barcha fazoviy va vaqtiy jihatlaridan mahrum qilsak? Axir, turning o'ziga xos xususiyatlari fazo va vaqtda namoyon bo'ladi. Bu yerda yagona oqilona javob shunday bo'lishi mumkinki, bunday g'oya ushbu turning tabiatiga mos keladigan muayyan iroda aktining tasavvuridir. Inson individuumlari misolida Shopengauer aynan shunday fikrlaydi. U insonning “aql bilan idrok qilinadigan xususiyati”ni, ya'ni iroda akti deb hisoblaydi [19, 144]. Ammo umumiy holatda u g'oyani iroda akti bilan to'g'ridan-to'g'ri tenglashtirishga ikkilanadi. Buning sabablaridan biri

shundaki, u avval irodani tasavvur sohasidan tashqarida joylashgan o'z-o'zidagi narsa bilan qat'iy bog'lagan. Keyinchalik Shopengauer irodaning o'zi ham o'z-o'zidagi narsa emas, balki uning eng ochiq individuallashtirgan tasavvuri ekanini tan oldi. Shunday ekan, individuallashtirmagan iroda aktlari g'oyalar roliga eng yaxshi mos keladi. Biroq bu nazariyani qabul qilish Shopengauer uchun narsalarning ichki mohiyatiga bevosita kirib borish imkonini tan olishni anglatadi (chunki u g'oyalarni to'g'ridan-to'g'ri kuzatish obyekti bo'lishi mumkin deb hisoblaydi), bu esa uning faqat o'z tanamizga nisbatan bunday kirib borish mumkin degan tezisiga zid keladi. Shu sababli Shopengauer g'oyalarni boshqacha izohlaydi: avval biz narsalarning fazo va vaqtda o'z irodamizga nisbatan munosabatlarini bilamiz, so'ng narsalarning bir-biriga nisbatan munosabatlarini (bu bosqichda ilmiy bilim yuzaga kelishi mumkin), keyin esa biron narsaning munosabatlarini bir nuqtada jamlaymiz. Ushbu "munosabatlarning markaziy nuqtasi"ni kuzatish g'oyaning tasavvuridir [20, 305].

Bu yechim oddiy metaforadan nariga o'tadimi, degan bahs bo'lishi mumkin. Ammo Shopengauerning deyarli har bir inson g'oyalarni kuzatishga qodir degan ishonchi shubhasizdir. Albatta, bu qobiliyat har kimda turlicha rivojlangan bo'lib, faqat oz sonli odamlar bunday kuzatishlar natijalarini mustahkamlab, boshqalarga yetkaza oladi. Buning sababi shundaki, aql-idrokning boshlang'ich vazifasi individual iroda manfaatlariga xizmat qilishdir, na individuallashtirmagan holda dunyoni g'oyalar yig'indisi sifatida kuzatish emas. Shopengauerning fikricha, hayvonlarda aql-idrok ularning irodaviy intilishlariga mos ravishda ishlaydi. Insonda esa tabiatan aql-idrokning muayyan ortiqchaligi mavjud bo'lib, aynan shu g'oyalar olamini kuzatish imkonini beradi. Lekin aql-idrok irodaga nisbatan sezilarli ustunlikka ega bo'lgan odamlar juda kam. Bular daholardir. Yuqoridagi holatni hisobga olsak, daho "ikki xil aql-idrok" bilan siylangan, deb aytish mumkin: biri o'zi uchun, o'z irodasiga xizmat qilish uchun, ikkinchisi esa dunyo uchun, uni sof obyektivlik bilan idrok etib, uning oynasiga aylanadigan aql-idrok [21, 59].

Dahoning vazifasi boshqa odamlarga g'oyalarni kuzatishni yengillashtirishdan iborat. U buni o'z kuzatishlari natijalarini shunday ifoda qilish orqali amalga oshiradiki, tanlangan obyekt o'zining odatiy muhitidan uzilib chiqib, asos qonuni bilan bevosita bog'liqlikdan xoli holda namoyon bo'ladi. Bu boshqalarga uning ideal jihatini bilishni osonlashtiradi. Bunday kuzatuvchan-reproduktiv faoliyat sohasi san'at deb ataladi: San'at "sof kuzatish orqali idrok qilingan abadiy g'oyalarni qayta yaratadi. Uning yagona manbai – g'oyalarni bilish, yagona maqsadi – bu bilimni uzatishdir" [19, 164]. Shu tariqa, san'at daholari "oddiy inson ongining zulmati va uyoq-buyog'iga foydali nur sochadi" [21, 69].

Shunday qilib, san'at g'oyalarni aks ettirishga xizmat qiladi. G'oyalar zinasiga muvofiq san'atlar iyerarxiyasi mavjud. Eng asosiy san'at – bu me'morlik. Umuman olganda, unga faqat bitta intilish xos: "irodaning obyektivizatsiyasining eng quyi pog'onalarini tashkil etuvchi ba'zi g'oyalarni, ya'ni og'irlik, bir-biriga yopishish, inersiya, mustahkamlik kabi toshning umumiy xususiyatlarini, tabiatning bu... general-baslarini, shuningdek, ular bilan birga yorug'likni to'liq namoyon qilish" [19, 188]. Buni amalga oshirish uchun tabiiy kuchlarni alohida-alohida emas, balki o'zaro kurash va to'qnashuvda ko'rsatish zarur.

Me'morlikning tabiiy to'ldiruvchisi sifatida gidravlika san'ati keladi, u materiyaning oquvchanligini o'ynaydi. Irodaning obyektivizatsiyasining yanada yuqori pog'onasi – o'simlik hayotiga bog' san'ati va manzaraviy jivopis mos keladi. "Yana yuqoriroq pog'onani hayvonlarning tasviriy va haykaltaroshlikdagi tasviri ochib beradi" [19, 192]. Lekin san'atning

asosiy mavzusi, shubhasiz, insondir. Insonni tasvirlashda rassom uning umumiy tur xususiyatlari va individual xususiyatini ifodalashda muvofiqlikni saqlashi kerak. Inson tabiatini eng yaxshi ifoda qiluvchi san'at esa she'riyatdir.

She'riyat ko'p qirrali san'at, lekin inson tabiatining eng dinamik va munosib tasvirini, albatta, tragediya beradi. "Tragediya, she'riy ijodning cho'qqisi,- deb yozgan Shopengauer, — hayotning dahshatli tomonini tasvirlashni maqsad qiladi. Bu yerda, irodaning obyektivizatsiyasining eng yuqori pog'onasida, uning o'ziga qarshi kurashi to'liq rivojlanib, dahshatli ko'rinishda namoyon bo'ladi" [19, 220]. Shopengauerga ko'ra, eng mukammal tragediya – bu inson azob-uqubatlari tasodif yoki alohida individuumlarning o'ta yovuzligi natijasi sifatida emas, balki muqarrar qonunlar oqibati sifatida ko'rinadigan tragediyadir, bunda "hech bir tomon faqat nohaq" bo'lib ko'rinmaydi [19, 221]. Bunday tragediyalar odamlarni befarq qoldira olmaydi, chunki ular o'zlari ham istalgan vaqtda bunday kuchlarning yemiruvchi ta'siriga duch kelishi mumkinligini his qiladilar. Bu yuqori darajadagi tragediyalarning kamsonli misollari orasida Shopengauer "Gamlet"ni — "faqat qahramonning Laert va Ofeliya bilan munosabatlarini" nazarda tutgan holda — va "Faust"ni — "asosiy voqeani Gretxen va uning akasi bilan bog'liq hodisada" ko'rgan holda — tilga oladi [19, 222].

San'atlar orasida musiqa, Shopengauer fikricha, o'ziga xos muhim o'rin egallaydi. Agar boshqa san'at turlari asosan alohida g'oyalarni aks ettirsa, musiqa esa «butun irodaning bevosita obyektivatsiyasi va muhridir, xuddi olamning o'zi kabi, g'oyalar kabi, ularning ko'plab zohir bo'lishi alohida narsalar olamini tashkil qiladi» [19, 224]. Shunday qilib, musiqa jahon irodasini obyektivatsiya qiladi, lekin bu g'oyalardan boshqacha yo'l bilan amalga oshiriladi. Shunga qaramay, bu holat musiqa bilan g'oyalar olami o'rtasida muayyan parallelizm yaratadi, bu esa garmoniya tabiatida yaqqol namoyon bo'ladi. Shopengauer shunday yozadi: «Garmoniyaning eng past tonlarida, uning bas ovozi men irodaning eng quyi pog'onalarini – organik bo'lmagan tabiatni, sayyora massasini ko'raman... keyin, bas bilan kuyni ijro etuvchi yetakchi ovoz o'rtasidagi garmoniyaning tashkil etuvchi barcha ovozlar birligida men irodaning obyektivatsiyasi bo'lgan g'oyalarning butun zinapoyasini taniyman. Nihoyat, kuyda, ya'ni barchani yetaklovchi asosiy yuqori ovozda men irodaning eng yuksak pog'onasini – insonning ma'noli hayoti va intilishlarini ko'raman» [19, 224-225]. Muayyan ma'noda musiqa falsafaga paralleldir, chunki falsafa ham olamni umumiy ravishda aks ettiradi. Shu sababli, musiqani tushunchalar bilan to'liq tushuntirish olamning aniq tushunchaviy aks ettirilishi, ya'ni haqiqiy falsafa bo'lar edi.

Shopengauerning musiqa haqidagi ta'limoti Rixard Vagner va boshqa falsafiy ruhdagi bastakorlarni ilhomlantirdi. Uning musiqa jahon irodasining bevosita ifodasi sifatidagi gipotezasi (u buni isbotlangan haqiqat deb da'vo qilmagan) shuni yaxshi tushuntiradiki, musiqa boshqa san'at turlari, masalan, tasviriy san'at yoki haykaltaroshlik kabi, bizni irodasiz, tinch va osoyishta kuzatish holatiga boshlamaydi, balki yuragimizni chuqur tebratadi. Biroq, bu xususiyat musiqa bilan she'riyatda umumiydir, chunki she'riyatda ham faqat go'zallik emas, balki qiziqarlilik ham mavjud. Shopengauer ushbu kategoriyalar o'rtasidagi munosabatni maxsus tadqiq qilgan. Bir qarashda, qiziqarlilik san'atning mohiyatiga zid keladi, chunki san'at g'oyalarni sof, ya'ni manfaatsiz subyekt tomonidan kuzatishni yengillashtirishi kerak. Shu bilan birga, o'quvchida jonli qiziqishni faqat olamning ba'zi xususiyatlarining ishonchli tasviri uyg'ota oladi, ishonchlilik esa olamning mohiyatini tushunmasdan amalga oshirilmaydi. Bu mohiyatning aksi esa biz go'zal deb ataymiz: «Ishonchlilik orqali qiziqarlilik go'zallik bilan

bog'lanadi» [21, 288]. Garchi bu bog'liqlik zaruriy xarakterga ega bo'lmasa-da (masalan, Shopengauer fikricha, Shekspirning «Gamlet» kabi ba'zi ulug' asarlarni qiziqarli deb atab bo'lmaydi, aksincha, ko'plab qiziqarli romanlar estetik qadriyatdan umuman mahrum), idealda qiziqarlilik go'zallikni to'ldirishi, uni marvaridlarini bir-biriga bog'lovchi ip kabi birlashtirishi, e'tiborni ushlab, asarning bir qismidan ikkinchisiga o'tishni yengillashtirishi kerak. Boshqacha aytganda, «qiziqarlilik – she'riy asarning tanasi, go'zallik esa uning ruhidir» [21, 292]. Badiiy asarlardagi qiziqarlilik insonning asar qahramonlariga hamdardlik qilish, ularning kechinmalarini o'zinikidek his qilish qobiliyatini taqozo etadi.

Shunday qilib, Shopengauer san'atlar iyerarxiyasining ilk eskizini chizib, bu borada Kant qarashlarini o'ziga xos talqin qilishni ko'rsatadi: «Har qanday obyektning (johil yoki yomon ko'rinadigan narsalardan tashqari) sof obyektiv kuzatishi (Betrachtung) yuksak ongning uyg'onishiga (Regung) olib keladi. Ayniqsa, o'simlik yoki organik bo'lmagan tabiatni (manzara), go'zal inson qiyofasini va me'morlikni kuzatish bunga xizmat qiladi». Biroq, ushbu parchaning boshqa bir joyida u Kantga deyarli so'zma-so'z ergashadi: u «bizning e'tiborimizni o'ziga jalb qilib, subyektiv holatdan obyektiv holatga o'tkazadigan» obyektlarni sanab o'tganda, faqat «o'simlik tabiati, uni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi organik bo'lmagan tabiat va inson qiyofasi» mana shunday xususiyatlarga ega ekanini ta'kidlaydi. Shunga qaramay, Vakenroderga sadoqat ko'rsatib, Shopengauer ushbu tasnifning cho'qqisiga musiqani qo'yadi. Bu bilan u «yuksak ongning ta'sirlarini (Wirkungen) tasvirlash» va «o'sha ta'sirning o'zi» o'rtasidagi farqni ajratadi, bu esa musiqaning iroda obyektivatsiyasi sifatidagi o'ziga xos maqomini oldindan ko'rsatib beradi: «Musika – bu butunlay alohida go'zallik turi. U faqat vaqtni biladi (chunki vaqt uning bevosita shartidir), lekin unda yuz beradigan hech narsani bilmaydi. U boshqa san'atlar kabi yuksak ongning hissiy olamdagi ta'sirlarining tasviri emas, balki o'zi mana shunday ta'sirlardan biridir... Agar bizning ongimizni umuman sharga qiyoslasak, musika, ehtimol, markazga eng yaqin, eng qisqa radiuslardagi o'yin bo'lardi... Aniq aytish mumkinki, u yuksak ongni eng bevosita ravishda uyg'otadi (regt an) va shu bilan birga empirik ongdan eng uzoq masofada joylashgan».

Shopengauer ta'limotida inson va san'at munosabatlari estetik tafakkur nuqtai nazaridan chuqur falsafiy ahamiyatga ega. Uning san'at, ayniqsa musika va boshqa san'at turlarini jahon irodasining obyektivatsiyasi sifatida talqin qilishi, insonning ongi va estetik tajribasi o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun muhim asos yaratadi. Shopengauer falsafasida san'at insonning jahon irodasi bilan munosabatini anglash va bu irodadan vaqtincha ozod bo'lish yo'li sifatida muhim o'rin tutadi. Uning ta'limotiga ko'ra, hayotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi – bu iroda, ya'ni maqsadsiz, tugamas intilish, u insonni doimiy azob va xohish-istaklar ichida ushlab turadi. San'at esa bu irodaning zulmidan vaqtincha chiqish imkonini beradi, chunki u insonni sof kuzatish (Betrachtung) holatiga olib kiradi, bunda subyekt o'zining shaxsiy xohishlaridan uzilib, obyektiv g'oyalarni idrok etadi. Shopengauer buni quyidagicha ifodalaydi: «San'atning mohiyati shundaki, u bizni irodaning qulligidan ozod qiladi va bizni sof, manfaatsiz kuzatish holatiga olib kiradi, bunda biz faqat g'oyalarni, ya'ni olamning asl mohiyatini ko'ramiz» [21, 185].

Shu nuqtai nazardan, san'at inson uchun nafaqat estetik lazzat, balki ekzistensial ozodlik manbaidir. Shopengauer uchun san'at, ayniqsa musika, boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq, irodaning bevosita ifodasi sifatida ko'rinadi. U musika haqida shunday yozadi: «Musika g'oyalarning ko'chmasi emas, balki irodaning o'zining ko'chmasidir; u boshqa san'atlar kabi

olamning tashqi ko'rinishlarini emas, uning ichki mohiyatini ifodalaydi» [21, 224]. Bu yerda musiqa inson ongining eng chuqur qatlamlariga ta'sir qilib, uni empirik voqelikdan yuqoriga ko'taradi. Masalan, tasviriy san'at yoki me'morlik g'oyalarni vizual shaklda taqdim etsa, musiqa vaqt oqimida mavjud bo'lib, insonning ekzistensial tajribasini bevosita aks ettiradi. Bu esa musiqaning inson qalbiga chuqur ta'sir qilish qobiliyatini tushuntiradi: u nafaqat go'zallikni, balki insonning ichki intilishlari va azoblarini ham ifodalaydi. Shopengauerning san'at iyerarxiyasida musiqa eng yuqori pog'onada turadi, chunki u irodani bevosita ifodalaydi, lekin boshqa san'at turlari ham insonning estetik tajribasida muhim rol o'ynaydi. Masalan, she'riyat va adabiyot qiziqarlilik va go'zallikning sintezi orqali insonning hamdardlik (Mitgefühl) qobiliyatini uyg'otadi. U bu haqda shunday deydi: «Qiziqarlilik – bu she'riy asarning tanasi, go'zallik esa uning ruhidir. Ishonchlilik orqali qiziqarlilik go'zallik bilan bog'lanadi» [22, 292]. Bu iqtibosda Shopengauer san'atning ikki muhim jihati – estetik go'zallik va insonning emotsional-ma'naviy tajribasini uyg'otish qobiliyati o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi. She'riyat va adabiyot, uning fikricha, insonni qahramonlar bilan birlashtiradi, ularning azob-uqubatlari va umidlarini o'zinikidek his qilishga undaydi. Bu esa insonning o'ziga xos individualligidan voz kechib, umuminsoniy tajribaga qo'shilish imkonini beradi.

Xulosa. Shopengauerning san'at tushunchasi Kantning estetik ta'limotidan kelib chiqadi, lekin undan sezilarli darajada farq qiladi. Kant uchun estetik tajriba «manfaatsiz rozilik» (interesseloses Wohlgefallen) bilan bog'liq bo'lsa, Shopengauer san'atni irodadan ozod bo'lish yo'li sifatida ko'radi. Kant san'atni asosan go'zallikning subyekt bilan munosabati nuqtai nazaridan tahlil qilsa, Shopengauer san'atni metafizik voqelik – jahon irodasi bilan bog'laydi. Bu farq Shopengauerning musiqa haqidagi qarashlarida yanada yaqqol namoyon bo'ladi, chunki u musiqani nafaqat estetik, balki ontologik fenomen sifatida talqin qiladi. Boshqa tomondan, Shopengauerning san'atga munosabati romantizm an'analari, xususan Vakenroder va Shelling kabi faylasuflar bilan uzviy bog'liq. Romantiklar san'atni ilohiy ilhom va inson ruhining ifodasi deb bilgan bo'lsa, Shopengauer san'atni irodaning obektivatsiyasi sifatida ratsionallashtiradi. Bu uning falsafasini romantizm va idealizm o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik qiladi. Shunday qilib, Shopengauer uchun san'at – bu insonning jahon irodasining zulmidan vaqtincha ozod bo'lish imkoni, uning ongini sof kuzatish holatiga olib chiqadigan estetik tajriba. Musiqa bu jarayonda eng yuqori pog'onada turadi, chunki u irodani bevosita ifodalaydi, lekin she'riyat, adabiyot va boshqa san'at turlari ham insonning ma'naviy va emotsional dunyosini boyitadi. Uning ta'limotida san'at nafaqat go'zallik manbai, balki insonning ekzistensial muammolariga javob topish yo'lidir. Shopengauerning bu qarashlari uning falsafasini zamonaviy estetika va san'atshunoslik uchun doimo dolzarb qilib turadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Шопенгауэр А. Мир как воля и представление. - Т.1. – Минск: Попурри, 1998.
2. Асмус В.Ф. История философии. – М.: АН СССР, 1957–1961.
3. Гусейнов А. А., Скрипник А. Пессимистический гуманизм Артура Шопенгауэра // Шопенгауэр А. Свобода воли и нравственность. - М., 1992.
4. Косслер М. Эмпирический и интеллигибельный характер: от Канта через Фриза и Шеллинга к Шопенгауэру. // Кантовский сборник 2009, №2 (30).
5. Чанышев А.А. Этика Шопенгауэра. Критический анализ. - М., 1986.
6. Троцак А.И. Историко-философское исследование оснований этики в системах И. Канта и А. Шопенгауэра: диссертация на соискание степени кандидата философских наук: 09.00.03. - Калининград, 2009.

7. Саттар, А.С. Ранняя рецепция философии Артура Шопенгауэра (1 часть) // Вестник РУДН. Серия «Философия». 2015. № 3.
8. Мотрошилова Н.В. Рождение и развитие философских идей. – М.: Политиздат, 1991.
9. Щедрина Т.Г. Иррационализм в философии XIX века. – М.: МГУ, 2003.
10. Быховский Б. Э. Шопенгауэр. - М.: Мысль, 1975.
11. Гулыга А.В. Немецкая классическая философия. - М., 2001.
12. Фишер К. Артур Шопенгауэр. - СПб., 1999.
13. Фолькельт И. Артур Шопенгауэр, его личность и учение. - СПб., 1902.
14. Чупров А.С. Родовая сущность человека в философии Шопенгауэра и Фейербаха. - Екатеринбург, 1995.
15. Абдулла Шер. Эстетика. Ўқув қўлланма. Тошкент: Шарқ, 2007.
16. Шопенгауэр А. Введение в философию. Новые паралипомены. Об интересном. - Минск: Попурри, 2000.
17. Schopenhauer A. Gespräche. Hrsg. v. A. Hybscher. - Stuttgart, 1971.
18. Schopenhauer A. Der handschriftliche Nachlass. Hrsg. v. A. Hybscher. Bd. 1–5. - Frankfurt a. M., 1966–1975.
19. Шопенгауэр А. Сочинения в 6 тт. М., 1999–2001. Пер. Ю.И.Айхенвальда, Н.В.Самсонова, С.И.Ершова, М.М.Рубинштейна и др. Под. ред. А.А.Чанышева.
20. Schopenhauer A. Samtliche Werke. Hrsg. v. P. Deussen u. a. Bd. 1-16. -Mynchen, 1911-1942.
21. Schopenhauer A. Gesammelte Briefe. Hrsg. v. A. Hybscher. 2 Aufl. - Bonn, 1987.
22. Шопенгауэр А. Парерга и Паралипомена // Поли. собр. соч. - М., 1903-1910.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

A SYNERGETIC APPROACH TO THE STUDY OF ABU ABDULLAH RUDAKI'S LITERARY AND PHILOSOPHICAL HERITAGE

Vakhobova Dilfuza Rozikovna

Teacher of the Department of "History of Islam and Source Studies, Philosophy" of Bukhara State University,
basic doctoral candidate of Bukhara State University

Abstract. This article is devoted to the study of the literary and spiritual work of the great poet and thinker Abu Abdullah Rudakiy, who laid the foundation stone of Persian-Tajik poetry, using the synergetic method. The synergetic method allows us to consider the works of Abu Abdullah Rudakiy as a holistic dynamic system, in which the interaction of various elements of Eastern poetry and philosophy creates a holistic picture of Abu Abdullah Rudakiy's worldview. The article examines the essence of Rudakiy's work, his philosophical ideas, as well as the interaction of literary and philosophical elements, and shows his role in the formation of Eastern culture and literature.

Keywords: Rudakiy, synergetic method, Eastern philosophy, Persian literature, poetry, dynamic system, dialectical approach.

ABU ABDULLOH RUDAKIY ADABIY-FALSAFIY MEROSINI O'RGANISHGA SINERGETIK USULDA YONDASHUV

Vaxobova Dilfuza Roziqovna

Buxoro davlat universiteti
"Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası o'qituvchisi,
BuxDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Bu maqola fors-tojik she'riyati tamal toshini qo'ygan buyuk shoir va mutafakkir Abu Abdulloh Rudakiy adabiy-ma'naviy ijodini sinergetik usul yondashuvi yordamida o'rganishga bag'ishlangan. Sinergetik usul, Abu Abdulloh Rudakiy asarlarini yaxlit dinamik tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi, bu tizimda Sharq she'riyati va falsafasining turli elementlarining o'zaro ta'sirini, Abu Abdulloh Rudakiy dunyoqarashining yaxlit manzarasini yaratadi. Maqolada Rudakiy ijodining mohiyati, falsafiy g'oyalari, shuningdek, adabiy-falsafiy elementlarining o'zaro ta'siri ko'rib chiqilib, uning Sharq madaniyati va adabiyotining shakllanishidagi o'rni ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Rudakiy, sinergetik usul, Sharq falsafasi, fors adabiyoti, she'riyat, dinamik tizim, dialektik yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N34>

Kirish

Abu Abdulloh Jafar ibn Muhammad Rudakiy (858-941) fors-tojik adabiyotining eng ko'zga ko'ringan shoirlaridan biri bo'lib, "fors she'riyatining otasi" nomi bilan mashhur. Uning adabiy-ma'naviy ijodi Sharq adabiy-falsafiy an'alarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Rudakiy adabiy-ma'naviy merosi hayot, borliq, zamon, qolaversa, inson ijtimoiy borlig'i haqidagi falsafiy mulohazalarga juda boy. Biroq, aksariyat tadqiqotchilar Rudakiy ijodining badiiy jihatlariga katta e'tibor qaratadilar, ammo ijod namunalaridagi falsafiy teranlik

esa ko'pincha nazardan chetda qoladi. Rudakiyning adabiy-ma'naviy merosini sinergetik usul yordamida tahlil qilinishi yordamida, uning takrorlanmas she'riyati va falsafiy fikr-mulohazalarining turli jihatlarini o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatib, yagona, izchil yaxlit tizim yaratilishiga yordam beradi. Sinergetik usul yordamida Abu Abdulloh Rudakiyning she'riyatida falsafiy g'oyalardan qanday foydalanganini, uning ijodida falsafa va adabiyot sintezi qanday aks etganini ko'rishimiz mumkin.

Muhokama va natijalar

1. Adabiy tahlil kontekstidagi sinergetik usul. Sinergetik usul — o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlar nazariyasiga asoslangan yondashuv. Adabiy tahlil kontekstida sinergetik usul asarlarni turli vositalar (syujet, stilistik vositalar, falsafiy g'oyalar) o'zaro bog'lanib, yaxlit bir butun birlikni tashkil etuvchi dinamik tizim sifatida qarashga imkon beradi.

Abu Abdulloh Rudakiy ijodini o'rganishda sinergetik yondashuvdan foydalanish, adibning chuqur ma'noli she'riy matn yaratish uchun, falsafiy va adabiy tushunchalarni mohirona sintez qilishini aniqlash imkonini beradi.

Chahon hamesha chu chashmest girdu gardon ast,

Hamesha, to buvad oyin-sh, girdg'ardon bud. [7;43 b]

mazmuni:

Ko'zingni soqqasidek aylanib turuvchi jahon

Hamisha aylanadi, hamma vaqt gardon edi. [10;12 b]

2. Rudakiyning falsafiy g'oyalari. Abu Abdulloh Rudakiyning asosiy falsafiy qarashlarini uch jihatdan aniqlash mumkin: borliq va tabiatga munosabat, inson va jamiyatga munosabat, din va axloqqa munosabat. Abu Abdulloh Rudakiy uchun borliqqa dialektik yondashuv quyidagilardan iborat: borliqni doimiy o'zgarish, harakat va yangilanishda ko'rgan, ya'ni harakat, o'zgarish, tabiatning asosiy qonunlaridan biri sifatida bayon etgan. Shu bilan birga mutafakkir dialektik miqdoriy va sifat o'zgarishlarining o'rtasidagi munosabat, barcha tabiat hodisalarida qarama-qarshiliklar mavjudligi va ularning o'zaro ta'siri haqidagi fikrlar bilan birga bayon etgan. Qarama-qarshiliklarning abadiy kurashi natijasi, yomondan yaxshiga, pastdan yuqori harakatga xizmat qiladi degan falsafiy fikrni ilgari surgan.

Borliqdagi jarayonlarning muayyan tomonlarini, atrofdagi olamning boshqa hodisalariga munosabati orqali ochib berilgan, ya'ni predmet va hodisalarning umumiy o'zaro bog'liqligi falsafiy idrok etilgan.

Rudakiy falsafasining markaziy mavzularidan biri: borliqning o'zgaruvchanligi va inson hayotining o'tkinchi tabiati mavzusidir. Abu Abdulloh Rudakiyning asarlarida ko'pincha zamonning o'tkinchiligi motivi mavjud bo'lib, uni tasavvuf falsafasi va o'rta asr falsafiy ta'limoti bilan bog'lash mumkin, bu yerda borliq, o'lim va tiriklik, mavjudlik masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Bu dunyo omonat, hammamiz mehmon,

Xasislarcha ko'ngil bog'lamoq xato. [10;10b]

Rudakiy o'zining "Qarilikdan shikoyat" (Shikoyat az piri) qasidasida, borliqda hamma narsa o'zgarib turishi, inson buni muqarrar deb qabul qilishi kerakligi haqida fikr yuritadi.

Jahon shunday edi, avval boshidan,

Azaldan to oxir shunday qoladi. [10;7 b]

Gnoseologik ratsionalizmning asosiy g'oyasi bo'lgan: har qanday bilimning asosida aql mavjud, bilish — bu borliq haqida ishonchli bilim, bilish insonni rivojlantiruvchi, uning axloqiy

va aqliy jihatdan rivojlanishining muhim omilidir, borliqni bilish masalasida, inson aqli va tafakkurining qudratli kuch ekanligi, inson uchun borliqni bilish jarayoni, o'z-o'zini va haqiqatni anglashida, eng asosiy vosita sifatida esa, tajriba (amaliyot) ning ahamiyati ta'kidlab o'tgan.

Pokiza tush kabi erur bu jahon,

Uni tanir dili uyg'ongan inson. [10; 10 b]

Abu Abdulloh Rudakiyning falsafiy qarashlari bilim insonning hayotdagi azob-uqubatlarni, xatolarini kamaytiradi va insonning borliqdagi mavjudligi sifatini oshirishga yordam beradi deb ta'riflanadi. Bilim tushuncha sifatida, shaxs va borliqning o'zaro ta'siriga, ularning yaqinlashishiga yordam beradi, bilim mazmunning idrok etilishi sifatida borliqni o'z qiymati bilan to'ldiradi, bilim insonning kamol topishi mezoni, bilimga ega bo'lgan shaxs yuksak ma'naviy kamolotga erishgan shaxs sifatida baholanadi.

Insonlar qalbining chirog'i bilim,

Balodan saqlanish yarog'i bilim. [10; 61 b]

Rudakiy bilimni amaliyot, tajriba sifatida qadrlaydi, hayot tajribasi orqali, ichki kechinmalar va ruhiy ko'rsatmalar bilan olinishi haqida aytib o'tadi.

Har ki n-omo'xt az guzashti ro'zgor,

Hech n-omo'zad zi hech omo'zgor! [7;64]

mazmuni:

Har kishi olmasa hayotdan ta'lim,

Unga o'rgatolmas hech bir muallim. [10; 60 b]

Insonni boshqa tirik organizmlar bilan solishtirganda, yuksak mavjudod sifatida unga munosibroq baho bergan, insonni fikr va tafakkur erkinligi, o'z yo'li va taqdirini tanlash huquqini himoya qilgan, inson o'z-o'zini rivojlantira oladigan "aqli" va "ijodkor" mavjudod ekanligini ta'kidlagan, insonni borliqdagi tirik mavjudodlar ichida, yolg'iz o'zi borligini obyektlashtirishga va o'zining mavjudligining chegaralanganligini anglab yetishga qodirligini uqtirgan, barkamol va axloqiy jihatdan mukammal (ideal) shaxs g'oyasini ilgari surgan.

Qattiq balolarga bardosh aylagan,

Bo'lg'usi fozilu, hushyor ulug'vor [10.36 b]

3. Adabiy motivlar va falsafa. Sinergetik usul tahlili orqali Rudakiyning falsafiy g'oyalari adabiy motivlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin. Uning she'rlarida mavjud bo'lgan zamon motivi, ham shakl (ritm, takrorlash), ham mazmunan (o'lim va mavjudlik mavzulari) ifodalangan. Sinergetik usuldan foydalanib, uning ijodidagi adabiy-falsafiy elementlar har bir tafsilot, bir butun yaxlit tizimga xizmat qiladigan murakkab o'zaro bog'langan tuzilmani tashkil etishini ko'rish mumkin.

Jahon daryo erur, yaxshi ishingdan,

Kema yasab o'tgil nari tomonga. [10; 36 b]

4. Abu Abdulloh Rudakiy ijodining Sharq adabiyoti va falsafiy tafakkuriga ta'siri.

Abu Abdulloh Rudakiy nafaqat fors mumtoz she'riyatining poydevorini qo'ydi, balki azaliy falsafiy g'oyalarni, adabiy asarlarga mohirona singdira olish qobiliyatini ham namoyon etdi. Uning she'riyati Sharq adabiyotining keyingi rivojiga ta'sir ko'rsatdi, Rudakiy Sharq she'riyati va adabiyotiga kiritgan falsafiy mavzular va inson hayoti haqidagi mulohazalar, keyingi davr adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazdi. Shunday qilib,

Rudakiyning asarlarini Sharq madaniyatida adabiyot va falsafaning o'zaro ta'siriga yorqin namuna sifatida ko'rish mumkin.

Xulosa

Sinergetik usul Rudakiy ijodiy merosini yaxshiroq tushunishga, uning adabiy va falsafiy g'oyalari o'rtasidagi munosabatni ochib berishga imkon beradi. Uning asarlarini dinamik tizim sifatida qaraydigan bo'lsak, falsafa va adabiyot bir butunlikda birlashib, o'ziga xos asarlar yaratilganini ko'rish mumkin. Abu Abdulloh Rudakiy ijodi badiiy matnning nafaqat she'riy asar ko'rinishida, balki hayot va zamon mohiyatini falsafiy aks ettirish vazifasini ham bajara olishiga misoldir. Bu maqolada adib she'riyatining adabiyot va falsafa chorrahasida turgan hodisa sifatidagi ahamiyati ko'rsatilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bertalanffy, L von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. New York: George Braziller, 1968.
2. Barthes, R. Mythologies. Hill and Wang, 1972.
3. The Encyclopaedia of Islam, New Edition. Leiden: Brill Publishers, 2019 <https://en.wikipedia.org/wiki/Iran> VIII. Persian literature (2) Classical статья из Encyclopædia Iranica
4. Nasr, S. H. Islamic Philosophy from Its Origin to the Present: Philosophy in the Land of Prophecy. SUNY Press, 2006.
5. Керимова, Л. М. Синергетический подход в литературоведении: теория и практика. Москва: Прогресс, 2003
6. Prigogine, I., Stengers, I. Order Out of Chaos: Man's New Dialogue with Nature. Bantam Books, 1984.
7. Рудакий. Ашъор. Душанбе: «Адиб», 2007 й.
8. Рудаки, А. Избранные стихи. Таджикский академический издательский дом, 1970.
9. Schimmel, A. Mystical Dimensions of Islam. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.
10. Шомухамедов.Ш. Рудакий ва Бобо Тоҳир сайланма асарлари. "Шарқ". Тошкент. 1994

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE TEACHER'S PHILOSOPHICAL IDEAS ON CHOOSING AND EDUCATING A DISCIPLE IN THE WORKS OF MUSOKHANKHODJA DAHBIDI

Yuldashkhodjaev Haydar Hashimkhanovich

Head of Department, Associate Professor,
Candidate of Historical Sciences,
New Age University

Abstract. The article examines the unique approaches to interpreting the concept of mentor and student Musakhan Dahbidi, a prominent representative of the Naqshbandi-Mujaddidiya order. In his works, Dahbidi widely covered the issues of the "perfect man", "perfect society", "imperfection", "maturity", "creation of man" in the teachings of Naqshbandiya. The status of pir-sheikh is also one of the aspects that the scholar pays special attention to, and he calls this level "the most perfect status".

Keywords: mentor, disciple, pir, murid, perfect man, inspiration, perfection, miracle, pious, education, spiritual upbringing.

MUSOXONXOJA DAHBIDIY ASARLARIDA USTOZNING SHOGIRDNI TANLASH VA UNI TARBIYALASHDAGI FALSAFIY G'OYALARI

Yuldashxodjaev Haydar Hashimxanovich

Yangi asr universiteti kafedra mudiri,
dotsent, tarix fanlari nomzodi
E-mail: haydarxon69@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Dahbidiyning o'z asarlarida Naqshbandiya ta'limotidagi "komil inson", "komil jamiyat", "noqislik", "kamolot", "odamning yaratilishi" masalalari keng yoritilgan. Naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining yirik vakili Musoxon Dahbidiy tomonidan ustoz va shogird tushunchasining talqin etilishidagi o'ziga xos yondashuvlar haqida so'z boradi. Shuningdek pirlilik-shayxlik maqomi mutasavvif alohida e'tibor qaratgan jihatlardan bo'lib, u bu darajani "eng mukammal maqom" deydi.

Kalit so'zlar: Pir, murid, komil inson, ilhom, kamolot, ustoz, shogird, mo'jiza, ma'naviy tarbiya, taqvodor, tarbiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N35>

Musoxon Dahbidiy murid tarbiyasida suhbatning ahamiyati haqida to'xtalib, uning nafs bo'lmasligi va qazosini bajarish qoidalarini ochib bergan. "Suhbatda nimaiki favt bo'lgan bo'lsa, unga qazo bo'lmaydi (yo'q), ya'ni nafs suhbatda qatnasha olmadi, deylik, unga suhbatni qazosi (o'rnini to'ldirish) shart emas" [1,-b. 114].

Birinchi qoida tadbir. Ya'ni, avom nazaridan tashqarida bo'lish, Haq tomonga qaytish, xosdan berun bo'lmoq, Allohdan boshqa barcha asmo qaydidan (kishanidan) xalos bo'lmoq.

Ikkinchi qoida zuhddir. Ya'ni, dunyoviy narsalar va unga taalluq bo'lgan orzulardan, molu izzatu johdan va nomusdan tashqarida bo'lmoq (voz kechmoq) dir.

Uchinchi qoida tavakkuldir. Ya'ni, tiriklik uchun zarur bo'lgan barcha asbob vositalaridan xoli bo'lmoq.

To'rtinchi qoida qanoatdir. Ya'ni, nafsoniy orzulardan va hayot ne'matlaridan voz kechishdir-kechmoqdir (yuz o'girmoq).

Beshinchi qoida sabrdir. Ya'ni, nafsoniy rohat va farog'atdan chetlanish, nafsni ibodat muhabbati bilan jilovlash va mujohada bisotida (gilamida) sobit qadam bo'lmoqdir.

Oltinchi qoida uzlatdir. Ya'ni, xalq bilan birga bo'lishdan voz kechish (shayxi komili mukammal suhbatidan bundan mustasnodir).

Yettinchi qoida zikrdir. Ya'ni, mosivallohnining yodga olishdan xalos bo'lmoqdir.

Sakkizinchi qoida muroqabadir. Ya'ni, matlub huzuriga ko'z tutishdir.

Necha ko'z tutdim yo'lingga, qilmading bir iltifot,

Oh kim, valingda yurganlarda armon bormikin [2, -b. 37].

To'qqizinchi qoida rizodir. Ya'ni, mahbub rizosi uchun o'z rizosidan voz kechishdir. "Taxalliqu bi axloqilloh" shundan iboratdir.

O'ninchi qoida tavhiddir. Ya'ni, "Lo iloha illalloh" (kalimasi bilan) Haq taolo vahdoniyatiga e'tiqod qilmoqdir [2, -b. 39].

Chi xush guft on xiradmandi suxandon,

Ki ro'y az so'xbati nodon bigardon,

Daraxti nafsi nodon bar naylorad,

Huzurash juz ba dardisar naylorad [3, -b. 41].

Mazmuni: Aqlli so'z egasi nodon kishi suhbatidan yuz o'girishi kerak deb juda to'g'ri aytilgan. Nodon odam nafsining daraxti chegarani bilmaydi, shuning uchun ham u bilan bo'lish bosh og'rig'idan tashqari hech nimani keltirmaydi. Bahouddin Naqshbandning "Bizning tariqatimiz suhbatdir" hikmatli so'zidagi xos kishilar suhbatini ixtiyor etish zarurligi g'oyasini shakllanishi negizida Amir Kulolning hamsuhbatga e'tiborli bo'lish o'gitlaridir.

Musoxon Dahbidiy muridning odobi haqida keltirib, ko'proq yaxshi amallar bajarish kerakligi bag'rikeng bo'lishlikni ta'kidlaydi. "Agar muriddan biror gap yoki biror fe'l sodir bo'lsa-yu, unda savob ehtimoli bo'lmasa, faqatgina shu noto'g'ri ehtimol bilan muridga xitob va mulohaza qilmoq joiz emas. Agar begonadan biror ish sodir bo'lsa-yu unda xato ehtimoli bo'lsa, biror savob ehtimoli bilan uni savobga aylantirmoq lozim bo'ladi. Binobarin, mo'min birodarga nisbatan husni aqida tutmoq o'sha mo'minning tahzibi va takmish uchun muhimdir. Va ajnabiyyai (begonalik) man qilingandir. Aks holda ranjish va adovatga sabab bo'ladi. Bema'nilik bilan shug'ullanishdir" [2, -b. 62].

Mutasavvif ta'limotidagi bag'rikenglik botiniy, ichki bo'lib, rasmiy, soxta, tashqi bag'rikenglikdan ustun va afzaldir. Bu ta'limotda o'zga qarash va rang-baranglik tabiiy deb qabul etiladi, tan olinadi, ularga befarq munosabatda bo'lmasdan undagi Go'zalliklardan bahra olinadi, e'tiborli bo'ladi. Shu bilan birga Ilohiy mohiyatni ko'rib, o'zligini saqlash, o'z urf-odat va e'tiqodida qolish ham tavsiya etiladi. Chunki unda har bir mavjudotning o'z o'rni va o'z vazifasi borligi ta'kidlanadi.

Xo'ja Ahror Valiy fikricha, agar yosh bolani bir donishmand bilan podshoh majlisiga hozir qilsalar, podshohning hashamati va azamati (ulug'ligi) tufayli. Va takabburlari oshib ketganligidan o'sha bola bilan gaplashish va mashg'ul bo'lishiga moyl qiladilar. Parvardigorning xos bandalariga ham hidoyat yo'li yaqindir. Va qurb musaxxardir. Chunki parvardigor qariybul. hudodir jalla va alo [2, -b. 63].

Musoxon Dahbidiy murid odobi haqida quyidagi fikrni keltiradi: "Agar murid adab qoidalarining ba'zisiga rioya qilishga o'zini mukassir deb hisoblasa, kerakli darajani ado

etishdan o'zini o'jiz deb bilsa, taqdir (nuqson) balosidan qutulishi uchun sa'y-harakat qilgan va "mo yamag'iy" darvozasiga yetgay. Agar sa'y bilan ham uning uddasidan chiqqa olmasa, ma'zurdir. Ammo taqsiri (kamchiligini) e'tirof etmay (tan bermay) iloji yo'q. Agar Xudo saqlasin, odobga rioya qilmasa va o'zini muqassir(nuqsonli) deb bilmasa, bu buzrukvorlarning barokatidan ham mahrumdir. Bayt:

Onki u ro'e ba bedhudi nadosht,
Didanbi ro'yi nabiy sudi nadosht.[2, -b. 64].

Mazmuni:

Qalb ilmlarining nozik jihatlarini o'rganish bilan hikmat buloqlari qaynab chiqadi. Ammo (quruq) ta'lim bilan bunga erishib bo'lmaydi. Balki, mujohada va muroqaba bilan, zohiriy va botiniy amallarni qo'shish bilan, uyg'oq qalb va musaffo fikr bilan, xilvatda Alloh taologa yuzlanish bilan cheksiz va son-sanoqsiz hikmat yuzaga chiqadi. Bu esa, ilhomning kaliti va kashfning manbaidir. Qanchadan-qancha ta'lim oluvchilar borki, ta'lim olish muddati uzun bo'lgani holda, eshitgan ilmiga bir kalima bilan ham qo'shimcha qilishga qodir emasdir. Ta'lim olishda muhim narsalar bilangina cheklanuvchi hamda amal va qalb muroqabasiga jiddiy kirishuvchi qanchadan-qancha kishilar borki, Alloh taolo unga oqillarning aqlarini hayratda qoldiruvchi hikmat sirlarini ochib beradi. Shuning uchun ham Rasululloh (s.a.v.): "Kim bilgan ilmiga amal qilsa, Alloh taolo uni bilmagan narsalarining ilmiga voris qiladi" deganlar.

Mutasavvif tomonidan ilgari surilgan halollik va oliy himmatlilik haqidagi fikrlar hozirgi yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etishda, yoshlarni ilmi, ma'rifatli qilib tarbiyalash hamda halol rizq topishga muhim ahamiyatga ega.

Dahbidiy fikricha, murid pir tavajjuhi barokatidan fano va baqo martabasiga yetadi. Ilhom yo'li va farosat tariqa unga zohir bo'ladi. Pir uni Musallam tutadi va uning kamoliga guvohlik beradi. Ul muridda shunday hodisa ro'y berishi mumkinki, ba'zi ilhomiy ishlarda pirga xilof yo'l tutadi va o'z ilhomi taqozosiga ko'ra amal qiladi. Garchi pir nazdida o'sha xilofga murid o'zi mutahaqqih bo'lsa-da (chunki bu payt murid pirga taqlid doirasidan chiqqan bo'ladi) uning haqida taqlid qilmoq xatardir. Payg'ambar 'alayhi va 'alayhimus-salot cat-taslimot ijti hod ishlarida va boshqa ahkomlarda ul sarvarga xilof qilganlar va ba'zi vaqtlarda azhoblar tomonidan savob ishlar ham zohir bo'lgandir. "Kamo lo yaxfiy 'alo arbobil-ilm" [4, -b. 21].

Musoxon Dahbidiy shogird ustoz bergan ilmiga amal qilmasa kamolot darajasiga erishmasligini keltiradi: "Bas, ma'lum bo'ldiki, purning fikrlariga teskari ish qilish, yoki purning fikrlariga to'liq qo'shilmaslik komillik martabasiga yetishgan muridga mumkindir. Buni adabsizlik deyilmaydi, balki bu yerda ham adab bor. Payg'ambar as'hoblari kamoli adab bilan muaddab bo'lgan edilar. Taqliddan boshqa ish qilmagan edilar. Ijti hod martabasiga erishgandan so'ng Abu Yusuf kabi olim Abu Hanifaga taqlid qilmog'i xatodir. Chunki u o'z fikriga ega olim bo'ldi, faqih bo'ldi, shuning uchun ustoz) Abu Hanifa ra'yiga emas, o'z ra'yiga qarab ish ko'rishi odobsizlik bo'lmaydi. Imom Abu Yusufdan bir mashhur so'z keltirilgan: "Men Abu Hanifa ya'ni ustozim bilan Qur'onning maxluq yoki maxluq emasligi borasida olti oy bahs-munozara qildim". Eshitgan bo'lsang kerakki, ilmning rivoji fikrlar xilma-xilligi bilandir. Agar bitta fikrda qolsang, rivoj paydo qilmasang qachon yuksalish va kamolotga erishasan. Ammo ustozlar, avvalgilarning fazilati, ustunligi saqlanib qoladi. Bu bora Payg'ambar s.a.v.ning: "Ummatimning avvalida yaxshilik bormi yoki oxiridami bilmayman" – degan hadislaridir [5, -b. 14].

Demak, ilmni egallashdan maqsad, yodlash, xotirada saqlash, boshqalarga bilimligini namoyon etib riyo ahli bo'lib qolish emas, balki ilmga amal qilib, uni vujudga singdirib, uch yuz oltmish hujayra va tomirlarga aylantirib, holatni o'zgartirish lozim ekan.

Bu yerda yana shuni anglash lozimki, bilim asta – sekin holatga aylanadi. Bunga uzoq muddat, riyoat, mehnat kerak. Siz nimani qabul qilishga tayyor bo'lsangiz, holatingizga munosib ilm beriladi. Maxdumi A'zam Muso Allohdan jamolingni ko'rsat deb aytganida, Alloh Tur tog'iga nazar qilgani va u pora – pora bo'lgani va hali Muso bunday yukni ko'tarishga qodir emasligini aytganini misol keltirish bilan, ilmni asta – sekin berilishini aytadi.

Sayyodi azal, ki dona bar dom nihod,
Sayde bigiriftu odamash nom nihod.
Har nekiyu badie, ki meravad dar olam,
Xud mekunadu, bahona bar on nihod [5, -b. 15].

Mazmuni:

Azal ovchisi (Haq) domga donni qo'ydi,
Ovni oldi-yu, unga odam deb ism qo'ydi.
Olamga keladigan har yaxshilik va yomonlikni,
O'zi qiladi-yu, bahona deb uni aytadi.

Musoxon Dahbidiy fikricha, haqiqiy ustoz shogirdini kamolga yetkazishda ruhini turli holatlarga solishini keltiradi. “Bilginki, debdurlar Pir tiriltiradi ham o'ldiradi ham. Bu ikkisi shayxning zaruriy xislatlaridandir. Tiriltirishdan murod ruhni tiriltirishdir, hissiy emas. Shuningdek o'ldirmoqdan ham maqsad hissiy emas, balki ruhiy o'limdir. Hayot va o'limdan murod fano va baqodirki, (shayx) valoyat va kamol maqomiga yetkazadi va muqtado shayx Alloh subhonahu izni bilan bu ikki amrga kafil bo'ladi. Bas, shayxga mazkur tiriltirish va o'ldirishdan boshqa iloj yo'q. Hissiy hayot va o'limga shayxlik mansabining aloqasi yo'q. Muqtado shayx kahrabo-magnit hukmidir. Kim u bilan munosabatda bo'lsa, xas-xashak singari unga tomon intiladi va o'z nasibasini undan topadi.

Musoxon Dahbiydiy fikricha, tolibi ilm haqiqatga hamda kamolotga yetishida halol va harom chegarasini bilishi kerak. “Ey iymon keltirganlar, Alloh taolo sizlarga halol qilib bergan narsalarni haromga chiqarmang, va haddan oshmang” oyatidagi “haddan oshmoq”ni ikki ma'no bilan tafsir qilgandirlar. Birinchisi shuki, halol narsalarda haddan oshib ketib, chegaradan chiqib va tajovuz qilmasinlar va harom narsalarga o'tib ketuvchilardan bo'lmasinlar. Boshqa bir ma'nisi shuki, halol narsalardan ham o'zlarini tiyadigan bo'lsalar, batamom, nafslari uzgan holda qilsinlar. Halo narsalardan uzoqlashish, voz kechishda xuddi muharramotlardan ehtiyot bo'lishdek bilsinlar. So'fiylar yozibdurlar: “Halol taomni oz bo'lsada ko'p va shubhali taomdan afzal biladilar” [6, -b. 53].

Mutasavvif ta'kidlashicha, muridning malakasini oshirishda shariat, tariqat, ma'rifat hamda haqiqat ilmlarini o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. “Shariat, tariqat va haqiqat bir ma'nidir. Shundan tamsil qilibdilarki, yolg'on gapirishi nomashru ishlardan biridir. Tilga ehtiyot bo'lish shariatdir, yolg'onning dag'-dag'asini (taammul bilan) dildan yiroq qilish tariqatdur, dilga biror xil yolg'on kelmasligiga erishish haqiqatdir. Shariat, tariqat va haqiqatning maqsadi ushbu malaka husulidir” [7, -b. 19].

Mutasavvif fikricha, murshidni chalg'ituvchi narsalardan xalos qilishning yagona yo'li mukammal pirdir.

Chorai daf'i xavotir suhbatu pirastu bas,

Raxna dar yajuj bastan xosai Iskabdar ast [8, -b. 11].

Mazmuni:

Musoxon Daxbidiy xojagon tariqati pirlarida barcha mukammallikka xos belgilar mavjudligi tufayli “silsilatuz-zahab” oltin silsila (zanjir) ga kirganligini keltiradi.

Mutasavvif fikricha, xojagon tariqati pirlari ilohiy hoziq tabiblardir. Ziddiyatlarni muolaja qilib, har kishining iste’dodiga yarasha dil oynasiga sayqal beradilar, toki dil ko’zgusi g’ayr zangi bilan xira tortmagay, mujalla va musaffo bo’lgayki, unda ilohiy jalol va jamol zohir bo’lsin. Go’yo oldiga bir to’da bemorlar keltirilgan hoziq tabibdek ularning kasaliga yarasha parhez va dori-darmon buyuradilar. Agar hamma bemorga bir xil parhez va dori buyuradigan bo’lsa, u o’sha jamoatning halokatini ko’zlab ish tutgan bo’ladi. Chunki mazoj va kasallik turlichadir. Har bir maraz (kasallik) va majoz (mijoz)ga munosib davo belgilamoq zarurdir. Shuningdek toliblarning iste’dodi ham turlichadir. Bu toifai ‘alayh ham go’yoki ilohiy hoziq tabiblardir. Har kimga iste’dodiga yarasha parhez buyuradilar”.

Inson dunyoda faqat mavjud bo’lib qolmasdan, balki u o’z – o’zini anglaydi, o’zi yashayotgan dunyoni biladi va unga ta’sir qiladi; dunyoni va o’zini o’zlashtirib, o’zgartirib boradi; ma’naviy ijodiyotda ishtirok etadi. Inson bunda, avvalo o’z borlig’ini bilish uchun, o’z borlig’i uchun qayg’uradi. U bir butun borliq tizimida o’zining ziddiyatli rolini anglab olishi, o’z borlig’i va dunyo borlig’i oldida o’z mas’uliyati, javobgarligini sezishi, his qilishi muhimdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мусохон Дахбидий. Зубдат ал-ҳаққ’иқ. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 114 Б.
2. Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Тошкент: “Фан”, 2021. – Б. 64.
3. Дахбидий Мусохон. Навадир ал-Маориф. – Тошкент: ЎЗР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1. – В.48А-48Б.
4. Рисола - йэ вужудия. – 28 в.
5. Абдул - Холиқ ал - Ғиждувоний. Васиятнома. -Т.: Ғафур Ғулом. 1993. – 15 б.
6. Алиқулов Ҳ. Абу Наср Форобийнинг ижтимоий-маънавий мероси. – Т.: NOSHIR, 2013. – Б. 76.
7. Тафсири Яъқуби Чархий. – Б. 68.
8. Ўзбекча таржимаси. Тафсири Ҳилол. 2006. дан олинган.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

METHODOLOGICAL BASIS OF CHANGES IN HUMAN BELIEF

Umurzakov Akhmadjon Makhamadovich,
basic doctoral student,
Fergana State University
E-mail: a.umurzakov@gmail.com

Abstract. Although in the history of views on the social essence and nature of humanity, it has been constantly emphasized that its consciousness and beliefs are formed and developed under the influence of social life events, a look at the development of the category of belief throughout the history of knowledge and thought shows that this process was not so smooth, but rather occurred through encountering some contradictions. This article scientifically analyzes the philosophical and methodological foundations of changes in human beliefs based on the scientific views of Western philosophers.

Keywords: belief, Plato, Aristotle, Renaissance, Modern philosophy, I. Kant, faith, knowledge, Aurelius Augustine, imperatives.

INSON E'TIQODIDAGI O'ZGARISHLARNING METODOLOGIK ASOSLARI

Umurzaqov Axmadjon Maxamadovich,
doktorant,
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Insoniyatning ijtimoiy mohiyati va tabiati haqidagi qarashlar tarixida uning ongi va e'tiqodi ijtimoiy hayot hodisalari ta'sirida shakllanishi va rivojlanishi doimiy ravishda ta'kidlanib kelsa-da, ammo butun bilish va tafakkur tarixida e'tiqod kategoriyasining rivojlanishiga nazar tashlash ushbu jarayonning unchalik silliq kechmaganligidan, balki ayrim ziddiyatlarga duch kelish orqali sodir bo'lganligidan darak beradi. Ushbu maqolada inson e'tiqodidagi o'zgarishlarning falsafiy-metodologik asoslari G'arb faylasuflarining ilmiy qarashlari asosida ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: e'tiqod, Platon, Aristotel, Uyg'onish davri, Yangi davr falsafasi, I.Kant, ishonch, bilim, Avreliy Avgustin, imperativlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N36>

KIRISH

Bilish tarixiga nazar tashlansa, ushbu tushuncha dastlab antik davr faylasuflari tomonidan bilish jarayonini o'rganishda yordamchi kategoriya sifatida paydo bo'lganligi va qo'llanilganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, Platon o'z qarashlarida e'tiqod deganda inson ruhiyatining bilish bilan bog'liq bo'lgan tarkibiy qismi deb tushuntirgan bo'lsa, Aristotel esa inson tafakkuridagi ishonchning subyektiv, psixologik asosi sifatida tushuntirishga uringan. Uning ta'kidlashicha, "har qanday fikrga e'tiqod, e'tiqodga esa ishonch, ishonch uchun esa ratsional asos"[1] zamin bo'lib hisoblanadi. Umuman olganda gnoseologiya tarixining ibtidosi bo'lgan bu davrda bilishning asosiy metodi kuzatish bo'lganligi va undan keng foydalanilganligi e'tiqod kategoriyasini tushunishda ham o'z aksini topgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'rta asrlarga kelib esa diniy qadriyatlarning ustuvor mavqega ko'tarilishi oqibatida e'tiqodni falsafiy kategoriya sifatida o'rganishda unga bilimni qarshi qo'yishga urinish hollari o'ta kuchayganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu hol diniy ta'limot va konsepsiyalar jamiyat hayotida hukmron mavqega ko'tarilgan o'rta asrchilik sharoitida bilim va haqiqatning yagona manbai diniy e'tiqod ekanligi butun bilish jarayoni tayanadigan asosiy tamoyil sifatida ustuvor mohiyat kasb etganligining oqibati bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, e'tiqod masalasida ratsionallik va irratsionallik muammolari munosabatiga nisbatan asta-sekin faylasuflarning qiziqishi ortib borishiga sabab bo'lgan edi.

Yevropada Uyg'onish davri tufayli jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ilmiy hayot sohalarida ro'y bergan tub o'zgarishlar inson ongi va e'tiqodida ham ulkan o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Jumladan, amaliy fanlarning rivojlana boshlashi bilan ishlab chiqarishda, qo'l mehnati bilan bevosita bog'liq bo'lgan manufaktura ko'rinishida bo'lsa ham, sanoatning avj olib rivojlanishi kuzatila boshladi. Jumladan, bu davrga kelib mexanik energiyani bir joydan ikkinchi joyga uzatish, bug' energiyasini mexanik energiyaga aylantirish prinsiplarining ixtiro qilinishi odamlarning ongi va dunyoqarashini diniy e'tiqoddan dunyoviy e'tiqod tomon tubdan o'zgartira boshladi. Mexanik soatlarning kashf etilishi shaharlardagi baland binolarning peshtoqlariga yirik va chiroyli soatlarni o'rnatish imkonini berdi. Oddiy qo'l mehnatiga tayanadigan ip yigiruv mexanizmlari vujudga keldiki, bu sanoatda jundan ip yigirish, undan esa mato to'qish singari inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. Bug' energiyasini mexanik energiyaga aylantirish tufayli esa temir yo'llar orqali harakatlanadigan transport vositalarining asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, turmushga kirib kela boshlashini ta'minladi. Ana shu tarzda, ijtimoiy taraqqiyotda shu davrgacha hukm surgan diniy e'tiqodga qarama-qarshi o'laroq, aql-idrokning roli va ahamiyati keskin ko'tarildi. Bu esa o'z navbatida e'tiqod tarixida Ma'rifatparvarlik va Romantizm davrini boshlab berdi. Bu davrning asosiy mohiyati har qanday e'tiqod bilim va aqlga tayanishi lozimligi tamoyili ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaganligidan iboratdir. Natijada fizika, mexanika kabi fundamental amaliy fanlar gurkirab rivojlana boshladi va ular olamning umumiy manzarasi ilmiy bilimlarga tayangan holdagina yaratilishi mumkinligini har tomonlama isbotlash uchun harakatga tushdi.

Bizningcha, bilish tarixida inson ongi va e'tiqodiga oid qarashlar rivojiga ta'siri nuqtai nazaridan Yangi Davr falsafasiga asos solgan buyuk nemis faylasufi I. Kantning e'tiqod, ishonch va bilish tushunchalari to'g'risidagi falsafiy qarashlari alohida o'rin tutishi hamda o'z davrida ham, tarixning keyingi pallalarida ham keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otganligi xususida batafsilroq to'xtalib o'tish umumiy maqsadga erishishimizda juda qo'l keladi va bunday yondashuv, o'ylaymizki, tadqiq etilayotgan mavzuning falsafiy jihatlarini teranroq tahlil etish uchun ko'p jihatdan yordam beradi.

Kant falsafasida e'tiqod mantiqiy isbotlash mumkin bo'lmagan, balki axloqiy imperativni asoslash uchun zarur bo'lgan aqlning pozitsiyasi, deb tushuntiriladi. Bunda shuni ta'kidlash lozimki, diniy dunyoqarash bilan murosqa qila olmaslikdan iborat markscha falsafa hukmronligi davrida Kantning bu boradagi qarashlari ancha tanqidlarga duchor etilgan edi. Xususan, "Sof aqlni tanqid" asaridagi "Men e'tiqodga joy berish uchun bilimni cheklashga majbur bo'lgan edim"[2] iborasi uchun uning fikrlari agnostitsizmga ayblangandi. Tabiiyki, bunga marksizm falsafasining ushbu nemis faylasufi qarashlariga nisbatan adolatsiz munosabati sabab bo'lgan edi. Gap shundaki, bu iboraning nemischa variantidagi aufheben fe'li aslida faqat cheklash

ma'nosidan ko'ra boshqa ko'plab ma'nolarga ham egaligi nemis faylasufini qoralab tasvirlash uchun e'tibordan chetda qoldirilgan. Holbuki, iboradagi ushbu terminni Kant bilimni e'tiqoddan ustun qo'ymoq, ko'tarmoq ma'nosida ishlatgan.

Xudoning borligi va narigi dunyoning mavjudligi Kantning inson e'tiqodiga oid falsafiy qarashlari orasida alohida e'tiborga loyiq fikr hisoblanadi. O'z ta'limotida u ushbu qarashlarni e'tiqodga aylantirish maqsadida Xudoning borligini isbot talab qilinmaydigan "biz uchun narsa" sifatida tushuntirishga urindi. Buning uchun Kant Xudoning borligi hech qanday shubha uyg'otmaydigan va isbot talab qilmaydigan bilim, deb e'lon qildi va shuning uchun u o'z mohiyatiga ko'ra e'tiqoddan ustun turishini ta'kidladi. Shuning uchun gnoseologiyaning asosiy maqsadi bilimlarning ishonchliligini asoslashdan iborat deb bilmagan Kant e'tiqod tushunchasini o'rta asrchilik sharoitidagi Avreliy Avgustin singari ayrim xristian dogmatiklaridek *credo ut intelligam*, ya'ni "anglash uchun e'tiqod qilaman", qabilida biron bir diniy qarashlar tizimiga ishonishdan iborat, deb tushungan emas. Ayni paytda, Kant tasavvuridagi e'tiqod tushunchasi ko'pchilik dindorlar hisoblaganidek, martaba uchun kibrlanish predmeti ham emas. Aksincha, e'tiqodga nisbatan bunday yondashuvlarni Kant o'zining "Din faqat birgina aql doirasida" asarida qattiq tanqid qilgan edi.

Tarixdan ma'lumki, e'tiqod tushunchasining yigirmadan ortiq ma'nosi tahlil qilingan ushbu asar, o'z davridagi hukmron doiralarning qattiq noroziligiga uchragani sabab, Kantning hayotida anchagina muammolarni keltirib chiqargan edi. Jumladan, 1755 yilda metafizik bilim tamoyillari to'g'risidagi dissertatsiyasini himoya qilib, universitetda dars berish huquqini qo'lga kiritgan bo'lsa-da, biroq ana shu asar tufayli bu huquqdan foydalanish I.Kantga oson kechmadi. Gap shundaki, yuqorida qayd etilgan asar sabab I. Kantning kafedrada professorlik lavozimini egallash uchun bergan arizasi javobsiz qoldirilgan va bunga erishish uchun, oz emas-ko'p emas, o'n besh yil kutishiga to'g'ri kelgan. Natijada yosh olim ana shu muddat davomida tirikchilik uchun privat-dotsent sifatida faoliyat ko'rsatishga majbur bo'lgan. Fikrimizcha, ushbu fakt ham hayotdagi o'zgarishlarning e'tiqodga nisbatan ta'siriga bir misol bo'la oladi.

Kant fikricha, "e'tiqod" so'zi, avvalo, fikr va bilim qatori subyektning u yoki bu mulohazalarining haqiqiyligiga ishonish darajasini baholash kategoriyasi bo'lib, barcha hollarda ham uni dinga aloqador tushuncha deb bo'lmaydi. Bunda ma'lumki, Kant matematika va nazariy tabiiyotshunoslikka oid bilim (*die Wissen*)larni ishonarlilik darajasi eng yuqori bo'lgan bilimlar deb hisoblagan va shuning uchun ana shu ikkala fanni e'tiqodda hech qanday shubha uyg'ota olmaydigan nazariy bilish fanlari qatoriga qo'ygan[3].

Shu o'rinda u fikr (*die Meinung*) tushunchasini ham tavsiflab, uning inson ishonchining quyi darajasida turishini ta'kidlaydi. Kant fikricha, fikr subyekt tomonidan u yoki bu mulohazaning haqiqiyligining e'tirof etilishi, tan olinishidir. U ta'kidlaydiki, fikr subyekt tomonidan nazariy bilish talablariga to'liq rioya etilgan holdagina bilimga aylanishi mumkin. Shuning uchun Kant e'tiqodni qat'iy ishonch deya baholagan edi. Biroq ayni paytda, uning fikricha, e'tiqod fikrdan farqli ravishda bilim bo'la olmasligi mumkin, chunki ularning predmetlari bir biridan tubdan farq qiladi va turlicha maqsadlarga xizmat qiladi. Bilish faoliyatining oxir oqibatda bilim va e'tiqodga eltuvchi usullari ham bir biridan qat'iyon farq qiladi. Bilim, Kant fikriga ko'ra, faqat nazariy bilish jarayonining mahsuli bo'lishi mumkin bo'lsa, e'tiqod esa quruq muhokamaga asoslangan (spekulyativ) va amaliy bilish jarayonining mahsulidir.

Ta'kidlash o'rinli, Kant tomonidan o'ylab topilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan "nazariy bilish" va "amaliy bilish" terminlari uning zamondoshlari uchun ham notanish edi, chunki shu paytgacha falsafada ratsional va empirik bilish turlariga ma'lum bo'lib, ulardan nazariy va amaliy fanlar doirasida an'anaviy ravishda foydalanib kelishar edi. Vaholanki, ratsional bilish qat'iy talablar doirasida chegaralangan jarayon bo'lsa, empirik bilish esa inson faoliyatidan tashqarida amalga oshirib bo'lmaydigan, ularning istak-irodasi tomon yo'naltirilgan jarayon ekanligi hamma uchun tushunarli edi.

Shu ma'noda Kant talqinidagi nazariy va amaliy bilish an'anaviy qarashlardan farq qiladi. Ko'pchilik faylasuflardan farqli ravishda, Kant tushuntirishicha, nazariy bilish empirik bilishning ziddi emas va, binobarin, ratsional hisoblanmaydi. Bilishning ikki turini taqqoslar ekan, Kant aytadiki, aql "o'z predmetiga ikki yoqlama munosabatda bo'lishi, xususan: yoki ushbu predmet va uning tushunchasiga oddiygina ta'rif (die Bestimmung) berishi, yoxud uni amalga oshirishi (wirklich zu mfchen) mumkin. Birinchisi aqlni nazariy, ikkinchisi esa amaliy bilishni (Erkenntnis der Vernunft) anglatadi"[4].

Voqealar rivojining istiqbolini ko'ra olish orqali bashorat qilish yoki noma'lum bo'lgan voqealar yoki qonunlarni kashf etish, Kant fikricha, nazariy bilishning maqsadiga kirmaydi. Ilmiy kashfiyotlar qila olish alohida toifadagi noyob talant egalarining kamyob qobiliyatidir. Bunday kishilar o'zlaridagi tabiatning ushbu ulug' in'omi to'g'risida hech kim bilan bo'lishmaydi. Nazariy izlanishlarning asosiy maqsadi, sog'lom fikrlay oladigan kishilar tomonidan haqiqatan mavjud bo'lgan (das ist) narsalarni bilishdan iborat[4, 812]. Bor bo'lgan narsalarning mavjudligi (das Dasein) ga, Kantning ta'kidlashicha, faqat birgina benuqson mantiqiy mulohazalar yordamida, shuningdek, intellektual intuitsiya (intellektuelle Anschauung)ni ishga solgan holda ishonch hosil qilish mumkin emas[4, 437]. Biron narsaning haqiqatan mavjudligiga mushohada qilinayotgan predmetning tafakkurdagi u yoki bu tushunchaga muvofiqligini aniqlash yo'li bilan ishonch hosil qilamiz, deydi Kant.

Bunda mazkur predmetning makoniy va zamoniy hamda hissiy mushohadaviy tavsiflari (masalan, metallga xos bo'lgan yarqirash va b.) bo'lishi shartligini ham eslatib o'tadi. Kant tasavvuridagi nazariy bilish yon-atrofimizdagi predmetlar, o'simliklar, hayvonot olami jonivorlarini aniqlash, tanish va tasavvur qilishdan iborat. Ratsional bilish predmetlari esa teologiya, psixologiya va kosmologiyaga oid bo'lib (masalan, xudo, o'lmas jon va ruh, olam va b.), amaliy jihatdan hissiyot, mushohada etish mumkin bo'lmagan mohiyatdir va shuning uchun ular nazariy bilish emas, balki spekulativ, ya'ni quruq muhokamaga asoslangan bilish obyektlari hisoblanadi[4, 812]. Ushbu predmetlar haqidagi bilimlarning haqiqatligini nazariy isbotlash faqat tajribaga oid bo'lgan predmetlarni bilish bilan bog'liq bo'lgan matematika va nazariy tabiiyotshunoslik usullari yordamida mumkin bo'lib, bunday usul, Kant fikricha, faqat mantiqiy ziddiyatlardan iborat bo'lgan antinomiyalarni hosil qiladi. Mantiqiy ziddiyatlarga ega bo'lmagan bilimlar esa ratsional bo'lib, ularning haqiqatligi hech qachon shubha uyg'otmaydi va shuning uchun ularga ishonish mumkin. Masalan, xudoning borligi, uning mavjudligi bizning ruhimizda va olamdaliq mantiqan ziddiyatsiz bilimlardir. Bunday ishonchni Kant doktrinal e'tiqod deb atagan. Uning fikricha, o'zga sayyoraliklarning borligi ham ana shunday ishonchli e'tiqodga kiradi[4, 1015].

Ma'lumki, Kantning hayoti va faoliyati ikkita, ya'ni "tanqidgacha" va "tanqidiy" davrlarga bo'linadi. Tanqidgacha davrida u xudoning borligi to'g'risidagi e'tiqodda axloqiy amallarni yo'naltirish vositasini tasavvur etgan bo'lsa, tanqidiy davrga kelib esa e'tiqodda inson hayotiy

faoliyatining ajralmas tarkibiy qismini ko'ra boshladi. Uning xulosasiga ko'ra, insonlar u yoki bu xatti-harakatlarini amalga oshirish yoki ulardan tiyilish haqida bir to'xtamga kelish haqidagi qarorga bundan biron bir muvaffaqiyatga erishishi yoki hech narsaga erisha olmasliklari uchun emas, balki ular yordamida o'z maqsadlarini amalga oshirishlariga ishonishlari yoki ishonmasliklari uchun kelishadi. Bunda Kant o'z maqsadlariga erisha olishga nisbatan ishonchni mo'ljaldagi rejani amalga oshirish umididan iboratligi uchun amaliy ishonch deb ataydi.

Faoliyat usullarini Kant xatti-harakatning amaliy qoidalari yoki axloqiy talablar (imperativlar) deb ataydi. Axloqiy talablar (imperativlar) rost yoki yolg'on bo'lishi mumkin emas, chunki ular umuman mavjud bo'lmagan va yo'q narsalar haqida, ya'ni agar bunga bizda istak bo'lmasa uni amalga oshirish buyurilgan-u, lekin hech qachon amalga oshmaydigan harakatlarni anglatadi. Shunday ekan, Kant imperativlar deb nomlagan axloqiy talablar faqat foydali yoki zararli, bajarilishi zarur yoki majburiy bo'lmaganlardan iborat bo'lishi mumkin.

Bundan ma'lum bo'ladiki, Kant falsafasida e'tiqod mantiqiy isbotlash mumkin bo'lmagan, balki axloqiy imperativni asoslash uchun zarur bo'lgan aqlning pozitsiyasi, deb tushuntiriladi. Garchi, Kant qarashlarida muayyan ziddiyatlar mavjud bo'lsa-da, ular faylasuflarni e'tiqod kategoriyasi xususida chuqurroq va kengroq mushohada yuritishga undaganligi bilan ahamiyatlidir.

Nemis milliy mumtoz falsafasining buyuk vakili bo'lgan I.Kant ta'limotida ishlab chiqilgan e'tiqod kategoriyasining o'ziga xos mohiyati falsafiy tafakkur taraqqiyoti uchun muayyan darajada ahamiyat kasb etdi. Jumladan, bu boradagi uning yangicha yondashuvlari va qarashlari ensiklopedizmga da'vo qilgan holda yo'naltirilgan bo'lib, tadqiq etilayotgan mavzu doirasidagi muammolar maydonini sezilarli darajada kengaytirdi. Bu, avvalo, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida nemis klassik falsafasining shakllanishi va yanada rivojlanishida aqlni tabiatdan tarixga ko'chirish jarayonida ratsionalizm tamoyillarini qayta tiklash uchun yaqindan yordam berdi va bu bilan Fixte, Shelling, Gegel, Fayerbax kabi faylasuflar ta'limotini o'zida aks ettirgan Yangi Davr falsafasi uchun alohida zamin rolini bajardi.

Gnoseologik zaruriyat esa bugungi kunda ham butun Kant falsafasi singari uning e'tiqod kategoriyasi xususidagi qarashlariga ham qayta-qayta murojaat qilishga undamoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kezi kelganda shuni ham alohida ta'kidlash joizki, keyingi yillarda e'tiqod kategoriyasiga nisbatan katta e'tibor qaratayotganlar orasida huquqshunoslik yo'nalishi vakillarining yondashuvi ham mavzuning mohiyatini tushuntirishda muayyan darajada ilmiy qimmatga ega. Bunda ba'zi mutaxassislarning e'tiqod tushunchasi tarkibida "ichki ishonch" mavjudligini ham ajratib ko'rsatishayotganliklari, ayniqsa, e'tiborga molik. Ushbu kategoriya huquqshunoslik kurslarida ko'p ishlatiladigan tushuncha hisoblanadi. Masalan, I. Ya. Foyniskiy huquqshunoslik kursida sudya va tergovchilarning ko'rib chiqilayotgan jinoyat ishlarida mutaxassisning ma'lumotlar bilan tanishish natijasida ularga baho berish uchun tahliliy fikrlash natijasi ko'rinishi sifatida "ichki ishonch" hosil bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Shu o'rinda jinoyatchilikka qarshi kurash jarayonida "ichki ishonch" mavjudligini e'tirof etish ba'zan subyektiv yondashuvlarni obyektivlashtirish uchun urinishlar bilan bevosita bog'liqligini ham ta'kidlash zarur. Afsuski, jinoyat protsessual ishlarni ko'rib chiqish amaliyotida ana shunday holatlar ham uchrab turadiki, bu jamiyat taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Gap shundaki, bunday ishlarning ortida hamisha alohida insonlarning taqdiri

turadi. Agar misollarga murojaat qiladigan bo'lsak, "ichki ishonch" mavjudligi muammosi to'g'risida fikr yuritish yoki uni amaliyotga qo'llash to'g'risida gap ketganda, nihoyatda hushyor holda, ma'lumotlarni tahlil etish chog'ida muammoning barcha jihatlarini tarozi pallasida qayta-qayta o'lchab ko'rgandan so'nggina xulosa chiqarishga e'tibor qaratish lozim. Qolaversa, bunday yondashuv jamiyat hayotining barcha sohalar uchun ham birdek taalluqli ekanligini ham hech qachon esdan chiqarmaslik zarur. Chunki yaqin o'tmishimizdagi adolatsizlik qurbonlariga aylanganlar taqdiri "ichki ishonch" mavjudligiga ishonish masalasiga yuzaki yondashish mumkin emasligidan guvohlik beradi.

Shunday qilib, misolga o'tadigan bo'lsak, o'tgan asrning 30-yillarida "ichki ishonch" mavjudligi masalasi subyektiv idealistik mazmunda talqin etilishi oqibatida o'sha davr jamiyatida ommaviy inqiroz ro'y berganligi, minglab begunoh insonlarning "ichki ishonch" mavjudligiga zo'rlab ishontirishga majbur etilganligi natijasida tariximizning ayrim sahifalarini o'chirib yuborishga urinish hollariga yo'l qo'yildi. Bunda o'sha paytda sobiq sovetlar mamlakati prokurori vazifasida ishlagan A.Ya Vishinskiy yozishicha: "Sudyaning ichki ruhiyatidan kelayotgan – bu to'g'ri, sen to'g'ri hal qilding, degan ichki "xitob" — bu oxir oqibatda barcha dalillarning qimmatini va ahamiyatini hamda umuman butun jarayonni aniqlab beradigan ichki ishonch ovozidir"[5]. Holbuki, uning o'zi "yashirin soha" deb atagan "ichki ishonch"ni nazorat qilib bo'lmaganligini ko'p bor ta'kidlagan. Bu uning nazariya sohasida ham yetuk mutaxassis bo'lmaganligidan, afsuski, o'sha davr rahbariyati tomonidan jamiyat taraqqiyotining o'ta muhim sohalaridan biri bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlash, jamiyat taraqqiyotida adolat tamoyillariga to'liq rioya qilish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, inson qadri va qimmatini ustuvorligini joyiga qo'yish va buning uchun kurashishdan iborat mas'uliyatli va muqaddas ishga ana shunday noma'qul "ichki ishonch"ga ega bo'lgan kishiga topshirib qo'yilganligidan dalolat beradi. Hammasidan yomoni uning "ichki ishonch"i o'sha mash'um davrlarda ko'plab davlat va partiya xodimlari, rahbarlar, qonun himoyachilariga yaqin o'tmishimiz xotirasiga aylanayotgan kovid kasalligi misol "tez yuqdi" va bu bir necha o'n yilliklar davomida jamiyat rivoji va ravnaqini jar yoqasiga keltirib qo'ydi.

XULOSA

Aslida esa, bizningcha, ichki ishonch e'tiqod darajasiga yetishi uchun aniqlangan dalillarning baholash mezoniga tayanishi lozim. Yuqorida keltirilgan holatlar shundan dalolat beradiki, dalillarning to'g'riligini baholash subyektning o'zi tomonidan shaxsiy ishonish-ishonmasligiga qarab tekshirilgan. Biroq bilish nazariyasining asosiy qoidasiga ko'ra bilim haqqoniyligining asosi subyektda emas, balki bilish obyektida, ya'ni bilinayotgan obyektidan tashqarida bo'lishi lozim. Har qanday bilim o'zida aks ettirilayotgan bilish obyektining mohiyatiga mos kelgan holdagina haqiqat bilimlikka da'vo qila oladi. Qizig'i shundaki, hozirgacha ham ayrim mualliflar tomonidan ichki ishonchni dalillarni tasdiqlay oladigan mezon sifatida talqin qilish uchramoqda. Masalan, Yu.K.Orlov ichki ishonchni amaliyotning bilvosita namoyon bo'lishining mezoni deya ta'riflaydi[6]. Yondashuvlar orasida ichki ishonchni jinoyat ishlarini o'rganish jarayonining zamini, mezoni, jarayoni, usuli, natijasi deb qaraydiganlar ham yo'q emas.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Аристотель. Соч.: в 4 т. М., 1975. Т.1. Стр. 66.
2. Кант И. Критика чистого разума. М.: Наука. 2006. Т. 2. Ч.1. Стр.1081

3. Кант И. Пролегомены. М.: 1994, Т.4.
4. Кант И. Критика чистого разума. М.: Наука. 2006. Т. 2. Ч.1. Стр.10
5. Вышинский А.Я. Проблемы оценки доказательств в советском уголовном процессе// Советская юстиция. 1936. №3. стр.23
6. Орлов Ю.К. Заключение эксперта как источник вводного знания в судебном доказывании. Автореф. дисс. д.ю.н. М., 1985. Корневский Ю.В. Актуальные проблемы доказывания в уголовном процессе// Государство и право. 1999. № 2.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

TRANSFORMATION OF THE INDIVIDUAL IN THE DIGITAL SOCIETY OF NEW UZBEKISTAN

Teshayeva Gulchehra Murodovna

Assistant, Bukhara State Medical Institute

Abstract. This article explores the role and transformation of the individual in the context of the development of a digital society in New Uzbekistan. The rapid advancement of digital technologies, artificial intelligence, and online services is having a profound impact on personal life, employment, education, social relations, and civic engagement. The author analyzes issues of digital literacy, information security, socialization in virtual environments, and digital inequality. Special attention is given to Uzbekistan's digital transformation policies and their influence on individual development. The article also examines digital identity, the use of e-government services, and the acquisition of digital competencies. Based on the research findings, the author provides recommendations for enhancing the education system, legal framework, and information culture to ensure the individual's conscious participation in the digital space.

Keywords: New Uzbekistan, digital society, individual, transformation, digital literacy, digital identity, information security.

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXSNING RAQAMLI JAMIYATGA TRANSFORMATSIYALASHUVI

Teshayeva Gulchehra Murodovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti

Email: gulchehrateshayeva05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida raqamli jamiyat shakllanishi jarayonida shaxsning o'rnini, roli va transformatsiyasi tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va internet xizmatlarining jadal rivojlanishi shaxsiy hayot, mehnat faoliyati, ta'lim, ijtimoiy munosabatlar va fuqarolik faolligiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Muallif raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi, virtual muhitda ijtimoiylashtirish jarayonlari hamda raqamli tenglik masalalarini tahlil qilib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya siyosatining shaxsiy rivojlanishdagi o'rnini ochib beradi. Maqolada shuningdek, shaxsning raqamli identifikatsiyasi, elektron hukumat xizmatlaridan foydalanishi va raqamli kompetensiyalarni egallashi borasidagi muammolar va istiqbollari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, shaxsning raqamli muhitda ongli ishtirokini ta'minlash uchun ta'lim tizimi, huquqiy baza va axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, raqamli jamiyat, shaxs, transformatsiya, raqamli savodxonlik, raqamli identifikatsiya, axborot xavfsizligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N37>

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda dunyo jadal raqamli transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli hisoblash va internetning keng tarqalishi inson hayotining deyarli barcha jabhalariga — ta'limdan tortib mehnat bozorigacha, ijtimoiy va madaniy munosabatlargacha — chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida ham raqamli texnologiyalarni

keng joriy etish, shaxsning axborot-kommunikatsiya sohasida faolligini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Raqamli jamiyat — bu texnologiyalar orqali insonlarning axborot almashinuvi, o'zaro munosabatlar va faoliyat yuritishi yangi shaklda amalga oshadigan jamiyat modeli. Ushbu jarayonda shaxsning transformatsiyasi, ya'ni uning raqamli ko'nikmalari, ongi, axborot xavfsizligi va raqamli identifikatsiyaga munosabati yangi bosqichga ko'tariladi. Shu bois, Yangi O'zbekistonda shaxsning raqamli jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi, uning raqamli savodxonligini oshirish, axborot resurslaridan samarali foydalanishini ta'minlash dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Maqolada shaxsning raqamli jamiyatga transformatsiyasining asosiy jihatlari, raqamli savodxonlik darajasi, elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari va raqamli inklyuzivlik muammolari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi, bu esa mamlakatda raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Avvalo raqamli jamiyat tushunchasi va uning ahamiyati nimadan iborat ekanligini tushunib olish lozim.

Raqamli jamiyat — bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllangan yangi ijtimoiy tuzilma bo'lib, unda shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti raqamli vositalar yordamida faol amalga oshiriladi. Manuel Castells (2010) raqamli jamiyatni "tarmoqlar jamiyati" sifatida tasvirlab, uning global axborot oqimlarini boshqarishda asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydi. Raqamli jamiyat shaxslarning o'zaro aloqalari, bilim almashinuvi va iqtisodiy faolligini yangi bosqichga olib chiqadi. [1]

Yangi O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning joriy etilishi yuzasidan yurtimizda quyidagicha islohotlar olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli strategiyalarni amalga oshirmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019 yildagi murojaatlari raqamli transformatsiyani mamlakatning asosiy ustuvorligi sifatida belgilab, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishini jadallashtirish, ta'lim tizimini raqamlashtirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslarni taqdim etdi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan "Raqamli O'zbekiston-2030" konsepsiyasi ham bu jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydi. [2]

Shaxsning raqamli jamiyatga transformatsiyasi bu raqamli transformatsiyaning asosiy omilidir. Shaxsning raqamli jamiyatga transformatsiyalashuvi — bu individual darajada raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish, ular yordamida jamiyatda faol ishtirok etish va yangi ijtimoiy rollarni egallash jarayonidir. Bu jarayon shaxsning bilimlari, ko'nikmalari, axborotga kirish imkoniyati va raqamli madaniyat darajasiga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar va shaharliklar raqamli vositalardan keng foydalanadi, biroq qishloq hududlarida bu imkoniyatlar cheklangan.

Raqamli savodxonlik va uning xalqaro hamjamiyatda tutgan o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, quyidagilarni ta'kidlash lozim.

Raqamli savodxonlik shaxsning raqamli asboblarni samarali va xavfsiz ishlatish qobiliyatidir. UNESCO (2018) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli savodxonlik zamonaviy jamiyatda ijtimoiy inklyuziya va iqtisodiy rivojlanishning muhim omilidir. Yangi O'zbekistonda raqamli

savodxonlikni oshirish uchun ta'lim muassasalarida maxsus kurslar joriy etilmoqda, biroq ularning sifati va qamrovi hali yetarli emas. [3]

Raqamli infratuzilma va xizmatlarning mavjudligi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mamlakatda internet tarmoqlari va elektron xizmatlarning rivojlanishi shaxsning raqamli jamiyatga kirishining texnik asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistik Qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, internetga ulanish ko'rsatkichi ortib bormoqda, biroq qishloq joylarda tarmoqlar sifati va tezligi pastligi shaxslarning raqamli xizmatlardan to'liq foydalanishiga to'siq bo'lmoqda. Elektron hukumat xizmatlari orqali davlat xizmatlari yanada qulay va tezkor taqdim etilmoqda, bu esa shaxsning davlat bilan munosabatlarida raqamli transformatsiyani mustahkamlaydi.

Raqamli xavfsizlik va axborot madaniyati tushunchasi anglamay turib, raqamli jamiyat haqida qayg'urish samarasizdir.

Shaxsning raqamli jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha bilimlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, raqamli xavfsizlik sohasida odamlarning ong darajasi past, bu esa kiberhujumlarga va ma'lumotlar o'g'irlanishiga olib keladi. Shu bois, raqamli madaniyatni shakllantirish va xavfsizlik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish zarur.

Yangi O'zbekistonda shaxsning raqamli jamiyatga transformatsiyalashuvi jarayoni bir necha muhim jihatlarni o'z ichiga oladi va u mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida katta o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi shaxsning kundalik hayoti, ta'lim olish, mehnat faoliyati va fuqarolik faolligida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, ushbu jarayonda hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar ham mavjud.

Birinchidan, raqamli savodxonlik darajasining hududlar va yosh guruhlari bo'yicha farqlari sezilarli bo'lib, bu raqamli inklyuzivlik masalasini dolzarb qiladi. Yangi O'zbekiston hukumati tomonidan ilgari surilayotgan raqamli transformatsiya dasturlari doirasida, ayniqsa, qishloq joylarda va yoshlar orasida raqamli ko'nikmalarni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo amaliyotda ko'pchilik aholi hali ham raqamli texnologiyalarni to'liq qamrab olmagan, bu esa ijtimoiy tengsizlik va axborot bo'shlig'ining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchidan, shaxsning raqamli xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalariga nisbatan ongining pastligi raqamli jamiyatning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonida axborot xavfsizligi bo'yicha ta'lim va targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur.

Uchinchidan, elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish shaxsning davlat bilan o'zaro munosabatini sezilarli darajada osonlashtirsa-da, ularning sifati va qulayligi, shuningdek, raqamli identifikatsiya tizimlarining barqarorligi hamda ishonchliligi masalalari hali to'liq hal qilinmagan. Bu shaxslarning raqamli jamiyatga ishonchini oshirish uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Yangi O'zbekistonda raqamli transformatsiyani yanada samarali amalga oshirish uchun ta'lim tizimini yangilash, raqamli madaniyatni shakllantirish va fuqarolarni doimiy ravishda raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlash zaruratini ko'rsatmoqda. Bunday yondashuv yoshlarni raqamli jamiyatning faol ishtirokchisiga aylantirishda muhim rol o'ynaydi.

Natijada, Yangi O'zbekistonda shaxsning raqamli jamiyatga integratsiyasi – bu faqat texnologik jarayon emas, balki ijtimoiy, madaniy va huquqiy omillarni ham qamrab olgan kompleks jarayon ekanligi aniqlandi. Shunday ekan, mamlakatda raqamli transformatsiya siyosatini yanada chuqurlashtirish va amaliyotni takomillashtirish uchun keng ko'lamli tadqiqotlar va ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish lozim. [4]

O'zbekistonning raqamlashtirish yo'lidagi rivoji so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga yuz tutdi. Quйда mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning yillar kesimidagi asosiy bosqichlari va natijalari keltirilgan:

 2013–2017: Dastlabki qadamlardan tizimli yondashuvga

Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish dasturi (2013–2020) doirasida raqamli infratuzilma mustahkamlandi.

2014 yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 24,1%ga, kompyuter dasturlash 21,6%ga o'sdi.

2017 yilda “Raqamli iqtisodiyot” konsepsiyasi ishlab chiqildi, bu davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

 2018–2020: Raqamli iqtisodiyotga o'tish davri

2018 yilda “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari” farmoni qabul qilindi.

2020 yilda “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yili deb e'lon qilindi.

Elektron hujjat aylanishi, elektron to'lovlar va elektron tijorat tizimlari rivojlantirildi.

 2021–2022: Strategik yondashuv va infratuzilma kengayishi

“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasi ishlab chiqildi.

Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida IT-parklar tashkil etildi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish prognozlari belgilandi.

 2023–2024: Raqamli transformatsiyaning chuqurlashuvi

Elektron hukumat tizimi kengaytirildi, davlat xizmatlari raqamlashtirildi.

“Bir million dasturchi” loyihasi amalga oshirildi, bu orqali IT mutaxassislari tayyorlandi.

2024 yilda “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash” yili deb e'lon qilindi, bu raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga yangi turtki berdi. [5]

 Prognozlار va istiqbollar

2027 yilga kelib, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini 2,5 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Raqamli iqtisodiyotning hududiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu orqali mintaqaviy farqlar kamaytirilmoqda.

O'zbekiston raqamlashtirish yo'lida muhim bosqichlarni bosib o'tdi. Davlat tomonidan ko'rsatilgan siyosiy iroda, xalqaro hamkorlik va ichki resurslar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu soha mamlakatning iqtisodiy o'sishiga va xalq farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari Yangi O'zbekistonda shaxsning raqamli jamiyatga transformatsiyasining asosiy yo'nalishlari va muammolarini aniq ko'rsatdi.

Birinchidan, so'rovnomalar va intervyular natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatda raqamli savodxonlik darajasi ijobiy o'sish sur'atida bo'lsa-da, yoshlar va shaharlik aholining

raqamli ko'nikmalari qishloq joylarnikidan ancha yuqori. Bu esa raqamli inklyuzivlik va tengsizlik masalalarini dolzarb muammo sifatida ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish faolligi ortib bormoqda, biroq ayrim hududlarda internet tarmoqlarining sifati va tezligi xizmatlardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, raqamli infrastruktura rivojlanishini yanada jadallashtirish zarur.

Uchinchidan, respondentlarning aksariyati raqamli xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha bilimlari cheklanganligini ta'kidlagan. Bu esa raqamli jamiyatda ishonch muhitini yaratishda muhim to'siqdir.

To'rtinchidan, ta'lim muassasalari tomonidan raqamli savodxonlik bo'yicha dasturlar kengaytirilmoqda, ammo ularning sifati va qamrovi hali yetarli emasligi aniqlangan. Shu bois, ta'lim sohasida raqamli kompetensiyalarni mustahkamlashga doir strategiyalar ishlab chiqish lozim.

Natijada, Yangi O'zbekistonda shaxsning raqamli jamiyatga integratsiyasi jarayoni samarali davom etmoqda, biroq raqamli tengsizlik, axborot xavfsizligi va raqamli madaniyatning past darajasi kabi muammolar hali ham mavjud. Ushbu natijalar mamlakatda raqamli transformatsiya siyosatini yanada chuqurlashtirish va ta'lim hamda infratuzilma sohalarida kompleks chora-tadbirlar ko'rish zaruratini ko'rsatadi. [6]

Xulosa. Yangi O'zbekistonda shaxsning raqamli jamiyatga transformatsiyalashuvi jarayoni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim yo'nalishi sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish va raqamli savodxonlikni oshirish orqali shaxslarning axborot maydonida samarali ishtirokini ta'minlash mumkin. Biroq, raqamli inklyuzivlik, axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat darajasidagi mavjud farqlar mamlakatda kompleks chora-tadbirlar ko'rishni talab qiladi.

Yangi O'zbekistonning davlat siyosatida raqamli iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani, shuningdek, ta'lim tizimini raqamlashtirish va elektron xizmatlarni kengaytirish orqali raqamli transformatsiyani jadallashtirishga qaratilgan strategiyalar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, shaxsning raqamli jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha keng qamrovli ishlarni davom ettirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni shaxsning ijtimoiy hayotdagi o'rnini kuchaytirish, yangi imkoniyatlar yaratish va mamlakatni global raqamli maydonda raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi. Shu bois, raqamli jamiyatga o'tishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish uchun ilmiy tadqiqotlar, amaliy ishlar va davlat siyosati integratsiyasini yanada kuchaytirish muhimdir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society*. Wiley-Blackwell.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni
3. UNESCO. (2018). *Global Framework for Digital Literacy*. Paris: UNESCO Publishing. URL: <https://unesco.org/digitalliteracy>
4. Mirziyoyev, Sh. (2019). *Yangi O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti va jamiyati haqida Prezident murojaati*. Tashkent.

5. O'zbekistonda tizim transformatsiyasi: asosiy bosqichlar va barqaror yo'nalishlar // Review.uz – Iqtisodiy sharh. – 2024. – 24 may. – [Elektron resurslar]. [URL:https://review.uz/oz/post/tsifrovaya-transformaciya-v-uzbekistane-osnovnye-etapy-i](https://review.uz/oz/post/tsifrovaya-transformaciya-v-uzbekistane-osnovnye-etapy-i)
6. Qodirov, A. (2021). *Raqamli savodxonlik va jamiyat*. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

SOCIAL ENVIRONMENT, TECHNOGENIC CIVILIZATION, AND MORAL ISSUES

Yusupova Ranokhon Tolibjonovna

Andijan State Technical Institute

Assistant, Department of "Languages and Humanities"

Abstract. This article analyzes the impact on the social environment in the process of the formation and development of modern technogenic civilization. The ethical problems arising as a result of technological progress, the complexity of the relationship between man and society, as well as the weakening of social morality due to the imbalances in the ecological and cultural environment are discussed. The article reveals the contradictions between technogenic progress and moral values and makes suggestions on ways to balance them.

Keywords: technogenic civilization, social environment, morality, crisis of values, technology, social consciousness, spirituality.

IJTIMOY MUHIT TEXNOGEN SIVILIZATSIYA VA AXLOQ MASALALARI

Yusupova Ranoxon Tolibjonovna

Andijon davlat texnika instituti

"Tillar va Gumanitar fanlar" kafedrası assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy texnogen sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ijtimoiy muhitga ko'rsatilayotgan ta'sirlar tahlil qilinadi. Texnologik taraqqiyot natijasida yuzaga kelayotgan axloqiy muammolar, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkablashuvi, shuningdek, ekologik va madaniy muhitda yuzaga kelgan nomutanosibliklar asosida ijtimoiy axloqning zaiflashuvi muhokama qilinadi. Maqola texnogen taraqqiyot va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib beradi hamda ularni muvozanatga keltirish yo'llari haqida takliflar beradi.

Kalit so'zlar: texnogen sivilizatsiya, ijtimoiy muhit, axloq, qadriyatlar inqirozi, texnologiya, ijtimoiy ong, ma'naviyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N38>

KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish davrida texnologik taraqqiyot ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Texnogen sivilizatsiya nafaqat ishlab chiqarish, transport, kommunikatsiya sohalarini, balki insonlarning axloqiy qarashlarini ham o'zgartirmoqda. Bu o'zgarishlar jamiyatda yangi axloqiy mezonlar, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ong shakllanishiga sabab bo'lyapti. Shu bilan birga, texnologik qulayliklar bilan bir qatorda, insoniyat ilgari duch kelmagan axloqiy muammolar bilan ham to'qnash kelmoqda. Ushbu maqola shu muammolarni tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Toffler A. "Third Wave" asarida texnogen jamiyat va uning axloqiy muhitga ta'siri haqida fikr yuritgan.

Jacques Ellul texnologik determinizm nazariyasini ilgari surgan va texnologiya ijtimoiy nazoratni kuchaytirishini ko'rsatgan.

Zygmunt Bauman esa zamonaviylikdan keyingi davrda axloqiy inqirozlarni likvid modernlik tushunchasi orqali izohlaydi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham texnologiyaning ijtimoiy hayotga ta'siri masalasida qator tadqiqotlar o'tkazilgan, ammo ularning aksariyati texnologiya va iqtisodiy taraqqiyot kontekstida olib borilgan bo'lib, axloqiy jihatlar yetarlicha o'rganilmagan [13].

TADQIQOT METODLARI

Maqola quyidagi ilmiy yondashuvlar asosida yozildi:

Tahliliy yondashuv – texnogen taraqqiyot va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar tahlil qilindi.

Solishtirma metod – texnogen sivilizatsiya va an'anaviy jamiyatlarning axloqiy tuzilmalari solishtirildi.

Tadqiqot ma'lumotlariga tayanilgan – sotsiologik so'rovlar, statistik ma'lumotlar va ilmiy maqolalar asosida faktlar berildi.

NATIJALAR BO'LIMI

Ijtimoiy muhit, texnogen sivilizatsiya va axloq masalalari zamonaviy dunyoning murakkab va ko'p qirrali muammolarini tashkil etadi. Ushbu mavzu insoniyatning texnologik rivojlanishi, ijtimoiy tuzilmalardagi o'zgarishlar va axloqiy qadriyatlarning yangi sharoitlarga moslashuvi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'z ichiga oladi. Quyida ushbu masalalarni har bir jihatdan batafsil ko'rib chiqamiz.

Texnogen sivilizatsiya va uning ijtimoiy muhitga ta'siri.

Texnogen sivilizatsiya – bu insoniyatning ilmiy-texnikaviy yutuqlari asosida shakllangan jamiyat turi bo'lib, unda texnologiya ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy muhitga quyidagi yo'llar bilan ta'sir ko'rsatmoqda:

- Ijtimoiy aloqalarning transformatsiyasi: Internet va ijtimoiy tarmoqlar (masalan, X, Instagram, Telegram) insonlar o'rtasidagi aloqalarni global va tezkor qildi. Masofalar qisqardi, lekin muloqot sifati o'zgardi. Virtual muloqot yuzaki munosabatlarni kuchaytirib, real hayotdagi chuqur aloqalarni kamaytirishi mumkin. Masalan, "do'stlik" tushunchasi ijtimoiy tarmoqlarda "follouer" yoki "layk"lar soniga qisqardi.

— Ma'lumotlar jamiyati: Axborot texnologiyalari tufayli ma'lumotlar oqimi misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Bu bilim va xabardorlikni oshirsa-da, axborot manipulyatsiyasi, "fake news" va dezinformatsiya kabi muammolarni keltirib chiqardi. Ijtimoiy muhitda odamlar qaysi ma'lumotga ishonishni bilmay, chalkashlikka tushmoqda.

- Iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik: Texnologik rivojlanishdan foyda ko'rish imkoniyati teng taqsimlanmagan. Masalan, rivojlangan mamlakatlar va boy tabaqalar yangi texnologiyalardan to'liq foydalansa, rivojlanayotgan mamlakatlar yoki kam ta'minlangan guruhlar "raqamli tafovut" (digital divide) muammosiga duch kelmoqda. Bu ijtimoiy adolatsizlikni yanada chuqurlashtiradi.

- Mehnat bozori va avtomatlashtirish: Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt ko'plab kasblarni yo'q qilib, yangi kasblarni yaratmoqda. Bu jarayon ijtimoiy muhitda ishsizlik, iqtisodiy beqarorlik va yangi ko'nikmalar talab qilinishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, odamlarning ish va hayot muvozanati o'zgarib, stress va ruhiy sog'liq muammolari ko'paymoqda.

- Ekologik o'zgarishlar: Texnogen sivilizatsiya tabiatga katta zarar yetkazmoqda. Resurslarning haddan tashqari ishlatilishi, iqlim o'zgarishi va ifloslanish ijtimoiy muhitda yangi muammolar (masalan, ekologik muhojirlik, resurslar uchun raqobat) keltirib chiqarmoqda. Bu esa jamiyatlar o'rtasida ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin.

Axloq masalalari va texnogen sivilizatsiya

Texnologik rivojlanish yangi axloqiy dilemmalarni keltirib chiqarmoqda. Quyida asosiy axloqiy muammolarni ko'rib chiqamiz:

- Sun'iy intellekt va mas'uliyat: Sun'iy intellekt (SI) qaror qabul qilishda insonlardan mustaqil ravishda ishlay boshladi. Masalan, avtonom avtomobillar yoki tibbiy SI tizimlari hayot va o'lim bilan bog'liq qarorlar qabul qilishi mumkin. Agar SI xato qilsa, kim javobgar bo'ladi? Dasturchi, ishlab chiqaruvchi yoki foydalanuvchi? Bu axloqiy mas'uliyatni aniqlashda murakkab savollar tug'diradi.

- Shaxsiy maxfiylik: Texnologik kompaniyalar (Google, Meta va boshqalar) foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini yig'ib, reklama va boshqa maqsadlarda foydalanmoqda. Bu jarayon ko'pincha foydalanuvchilarning ruxsatisiz yoki ularga to'liq ma'lumotsiz amalga oshiriladi. Shaxsiy hayotning buzilishi axloqiy jihatdan qabul qilinadimi? Bu masalada shaffoflik va adolat qanday ta'minlanadi?

- Texnologiya va ijtimoiy adolat: Texnologiyadan foydalanish imkoniyati teng taqsimlanmaganligi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Masalan, faqat boy mamlakatlar yoki elita guruhlari ilg'or texnologiyalardan (masalan, gen muhandisligi yoki yuqori sifatli ta'lim platformalari) foydalansa, bu axloqiy jihatdan adolatlimi? Texnologiya insoniyatning umumiy manfaatlariga xizmat qilishi kerakmi yoki bozor qonunlariga bo'ysunishi kerakmi?

- Ekologik axloq: Texnologik rivojlanish tabiiy resurslarni haddan tashqari ishlatib, kelajak avlodlar uchun muammolar yaratmoqda. Masalan, smartfonlar va boshqa qurilmalarni ishlab chiqarish uchun nodir minerallar qazib olinmoqda, bu esa ekologik muvozanatni buzmoqda. Bu jarayonda hozirgi avlodning qulayliklari kelajak avlodlar huquqlaridan ustun turadimi? Bu axloqiy dilemmaning markaziy savolidir. [8].

- Ijtimoiy tarmoqlar va axloqiy qadriyatlar: Ijtimoiy tarmoqlarda "tezkor shuhrat" va "layk" madaniyati yuzaki qadriyatlar, narcissizm va boshqalarga qarshi nafratni targ'ib qilishi mumkin. Masalan, "influencer" madaniyati yoshlarga moddiy boylik va tashqi ko'rinishni muhim deb ko'rsatadi, bu esa axloqiy qadriyatlarning (masalan, halollik, mehnatkashlik) o'rnini egallashi mumkin.

MUNOZARA BO'LIMI

Texnologiyaning ijobiy jihatlari – qulaylik, samaradorlik, global aloqa – hech kimda shubha uyg'otmaydi. Ammo shu jarayonda insoniylik, axloq, ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalarning ortga surilayotgani tashvishlidir. Masalan, sun'iy intellekt va robototexnika sohalaridagi yutuqlar mehnat etikasi, shaxsiy hayot daxlsizligi, javobgarlik masalalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Axloqiy jihatdan qaralganda, bu – insoniyat oldidagi muhim chaqiriqdir.

XULOSA

Texnogen sivilizatsiya ijtimoiy muhitni tubdan o'zgartirib, insoniyat oldiga yangi imkoniyatlar va muammolarni qo'ymoqda. Texnologiya aloqa, iqtisodiyot va bilim sohasida

ulkan yutuqlarni keltirdi, lekin shu bilan birga axloqiy dilemmalar, ijtimoiy tengsizlik va ekologik muammolarni ham kuchaytirdi. Ijtimoiy muhit esa o'z navbatida texnologiya va axloqiy qadriyatlarining shakllanishiga ta'sir qilmoqda. Ushbu murakkab muammolarni hal qilish uchun global hamkorlik, axloqiy me'yorlar va mas'uliyatli yondashuv zarur.

Texnogen sivilizatsiyaning taraqqiyoti bilan birga, ijtimoiy muhitda axloqiy muammolar chuqurlashmoqda. Bu muammolarni faqat texnologiya emas, balki ma'naviy tarbiya, qadriyatlar tizimini yangilash orqali hal etish mumkin [5].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abduhalimov, A. va boshqalar. Falsafa. – Toshkent: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, 2020.
2. Nazarov, Q. Muhandislik psixologiyasi va tafakkuri. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
3. Fayzullayev, A. Zamonaviy muhandislik tafakkuri asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
4. Saidov, S.S. Texnika falsafasi va axborot jamiyati. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Hasanov, B.H. Yoshlar falsafasi va ijtimoiy ong shakllanishi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
6. To'xtayev, B. Ta'lim falsafasi: yangi paradigmalari. – Toshkent: Sharq, 2021.
7. UNESCO. Engineering: Issues, Challenges and Opportunities for Development. – UNESCO Report, 2010.
8. Dastur: Muhandislik yo'nalishlarida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha davlat dasturi (2023–2025 yillar). – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori.
9. Al-Farobiy. Fozil shahar ahli haqida (Falsafiy asarlar to'plami). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018.
10. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. - М.: Академия, 2004
11. Шпенглер О. Закат Европе. Гештальт и действительность. Очерки морфологии мировой истории. -М.: Эксмо, 2006
12. Данилевский Н. Россия и Европа: взгляд на культурные и политические отношения славянского мира к германо-романскому. -М.: Эксмо, 2003
13. Tillayeva G.H. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. -Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2009. -B. 22

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF “PROSPEROUS LIFE” IN EASTERN AND WESTERN THOUGHT

Sharipov Abdukhakimjon Ziyoiddinovich

Professor of Bukhara State Pedagogical Institute,
Doctor of Science on Philosophy (DSc)

Abstract. This article examines the content of one of the key concepts in human history “prosperous life” based on historical-philosophical, sociological, and comparative approaches. It provides an in-depth analysis of interpretations of prosperity in Indian, Chinese, Greek, Iranian, and Islamic cultural-philosophical traditions. Special attention is given to the connection between the concept of prosperity in modern society and such factors as economic stability, psychological well-being, quality education, healthcare, environmental safety, and social justice.

Keywords: prosperous life, globalization, development, spirituality, thought, education, stability, civilization, technology.

SHARQ VA G'ARB TAFAKKURIDA FAROVON HAYOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TAHLILI

Sharipov Abdukhakimjon Ziyoiddinovich

Buxoro davlat Pedagogika instituti,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyat tarixidagi eng muhim tushunchalaridan biri bo'lgan “farovon hayot” mazmuni tarixiy-falsafiy, sotsiologik va taqqoslovii yondashuvlar asosida tadqiq etiladi. Maqolada hind, xitoy, yunon, eron va islom madaniy-falsafiy ta'limotlarida farovonlikka berilgan talqinlar chuqur tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda farovonlik tushunchasi iqtisodiy barqarorlik, ruhiy sog'lomlik, sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat kabi omillar bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: farovon hayot, globallashuv, taraqqiyot, ma'naviyat, tafakkur, ta'lim, barqarorlik, sivilizatsiya, texnologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N39>

KIRISH

Farovon hayot insoniyatning azaliy va eng ezgu orzularidan biri bo'lib kelgan. Ilk tarixiy davrlardanoq u nafaqat tirik qolish, balki yaxshi va mazmunli yashash, tinch-osuda hayot kechirish, baxt va saodat bilan yo'g'rilgan turmush qurishga oshiqib kelgan. Sirasini aytganda, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi ham aynan farovon hayot sari intilishlar mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligining paydo bo'lishi, shaharlar qurilishi, davlat va huquq tizimlarining shakllanishi, ta'lim va ilm-fanning taraqqiy etishi – bularning barchasi insonning farovon hayot sari intilishlari ifodasidir. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, insoniyat tarixi ana shu ezgu orzuni ro'yobga chiqarishga qaratilgan sa'y-harakatlar tarixidan o'zga narsa emas.

Izohli lug'atlarda "farovonlik" so'zi goho to'kin-sochinlik, mo'l-ko'lchilik, serfayz holat [1], goho tinch, osuda, rivojlangan, barkamol hayotni ifodalovchi tushuncha [2] sifatida ta'riflanadi. Biroq bu ta'rif "farovon hayot" tushunchasining asosiy mazmunini ifodalashda qo'l keladi, xolos. Tarixiy taraqqiyot davomida farovon hayot to'g'risidagi tasavvurlar muttasil takomil topa borgan. Qadimgi jamiyatlarda kishilar turmushi sifati ko'p jihatdan tabiiy shart-sharoitlardan kelib chiqqani bois farovon hayotning asosiy belgilari obod yerlar, serhosil dalalar, suv manbalari va xavfsiz joylar bilan bog'lanardi. Masalan, Misrda Nil daryosining har yili to'lib-toshishi hosildorlikni ta'minlab, xalqning farovon yashashiga zamin yaratardi [3]. Shumer, Xitoy va Hind sivilizatsiyalarida ham tabiiy shart-sharoitlar farovonlikning asosiy manbai biri sanalardi. O'rta asrlarda farovon hayot ko'proq dunyoviy farovonlik – to'kin-sochinlik bilan emas, balki axloqiy poklik, oxiratda najot topish umidi bilan bog'landi. Xususan, farovonlikka yetaklovchi asosiy vositalar islom dini yoyilgan hududlarda ma'naviy komillik, odob-axloq, ibodat va ilm [4], xristian dini yoyilgan diyorlarda esa kamtarlik va taqvdorlik bilan [5] bog'landi.

METODOLOGIYA

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda tarixiy-falsafiy, sotsiologik va taqqosloviy tahlil metodlariga asoslanildi. "Farovon hayot" tushunchasining mazmun-mohiyatini to'liq yoritish, u haqidagi tarixiy tasavvurlar evolyutsiyasini ochib berish maqsadida qadimiy manbalar, falsafiy ta'limotlar va zamonaviy ijtimoiy-nazariy qarashlar o'rganildi.

Birinchidan, tarixiy yondashuv asosida turli sivilizatsiyalarda farovonlik tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Bunda qadimgi Misr, Shumer, Xitoy, Hindiston, Eron va Yunoniston madaniyatlari misolida farovon hayotga berilgan tarixiy-madaniy talqinlar o'rganildi.

Ikkinchidan, falsafiy tahlil usulidan foydalangan holda turli zamon va makonlarda faoliyat yuritgan mutafakkirlarning farovonlik haqidagi fikrlari tahlil qilindi. Xususan, Hind falsafasidagi dxarma, Xitoydagi Konfutsiylik, Eron va Turonda keng tarqalgan zardushtiylik, qadimgi Yunonistondagi gedonizm va evdemonizm kabi yo'nalishlar asosida farovonlikning ma'naviy va axloqiy mezonlari yoritildi.

Uchinchidan, sotsiologik yondashuv orqali zamonaviy jamiyatlarda farovon hayotga oid ijtimoiy tasavvurlar va qadriyatlar tahlil qilindi. XXI asrdagi globallashuv, axborot texnologiyalari rivoji va ijtimoiy ongning o'sishi jarayonida farovonlik mezonlarining kengayib borayotganligi ko'rsatildi. Ruhiy salomatlik, ekologik barqarorlik, ta'lim va tibbiyotga erishish imkoniyati, ma'naviy kamolotga intilish kabi zamonaviy omillar farovon hayot tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqildi.

To'rtinchidan, taqqosloviy metod yordamida Sharq va G'arb tafakkurida farovonlik tushunchasining o'zaro o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Bu esa mazkur tushunchaning madaniy va falsafiy kontekstlarda qanday shakllanganini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, diniy-falsafiy manbalar, zamonaviy sotsiologik tahlillar hamda tarixiy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur tushuncha turli davr va makonlarda qanday tushunilganini aks ettiruvchi ilmiy-nazariy qarashlarga ham alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar maqolada farovon hayot haqidagi tasavvurlarning tarixiy-falsafiy ildizlari, ularning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy talqinlarini bir butun holda ilmiy tahlil qilish imkonini berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XVIII–XIX asrlardagi industrial taraqqiyot “farovon hayot” tushunchasining moddiy asoslarini takomil toptirdi. Farovon hayot endilikda uy-joy, moliyaviy salohiyat, mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan oʻlchana boshlandi. XXI asrdagi globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalari taraqqiyoti, ijtimoiy ong yuksalishi farovon hayot haqidagi tasavvurlarni yanada yuksaltirdi. Hozirgi kunda kishilar nafaqat insonning daromadlari darajasi, balki uning ruhiy sogʻlomligi, taʼlim olish va oʻz salomatligini saqlash imkoniyatlari, turmushining ekologik shart-sharoitlari, maʼnaviy kamolotga erishish imkoniyatlari va shu kabilarni farovonlik belgisi sifatida tavsiflamoqdalar [6].

Farovon hayot toʻgʻrisidagi tasavvurlar evolyutsiyasi turli falsafiy va sotsiologik nazariyalarda ham iz qoldirdi, albatta. Tasavvurlar takomil topgani sayin koʻplab nazariyalar va taʼlimotlardagi farovon hayot taʼrifi va tavsifi ham mazmunan toʻlishib bordi. Farovon hayot va uning belgilari toʻgʻrisidagi ilk fikrlarni qadimgi Hindiston va Xitoy, Eron va Turondagi taʼlimotlardayoq uchratish mumkin. Xususan, Hind falsafasida farovon hayot deganda insonning dxarmaga (axloqiy majburiyatlar va hayotiy vazifalarga) amal qilgan holda hayot kechirishi shakli tushuniladi. Dxarmaga amal qila olgan kishilar pirovardida mokshaga (ruhiy ozodlik) erishadi, deb qaraladi [7]. Qadimgi Xitoyda qaror topgan konfutsiychilik taʼlimotida farovon hayot jen (insoniylik), li (marosim) va i (adolat) yigʻindisi sifatida eʼtirof etiladi [8]. Eron va Turonda keng tarqalgan zardushtiylikda esa ezgulik, rostgoʻylik va poklik bilan yoʻgʻrilgan turmush farovon hayot sifatida tan olinadi [9].

Qadimgi Yunonistonning qator taʼlimotlarida ham “farovon hayot” tushunchasi tavsiflanadi. Masalan, gedonizm taʼlimoti vakillari inson hayotining oliy maqsadini huzur-halovatga erishish bilan bogʻlaydilar. Ularning taʼkidiga koʻra, aynan huzur-halovat inson hayotining oliy maqsadi va soʻnmas qadriyatidir [10]. Gedonistlar fikricha, farovon hayot – halovat va azob oʻrtasidagi oqilona muvozanatga erishilgan hayotdir. Ular inson ayni lahzalarini bahramand qilish va azob-uqubatdan xalos boʻlish orqaligina saodatga, farovon hayotga erishishi mumkin, deb hisoblaydilar. Bunda Kirena falsafa maktabi asoschisi Aristipp jismoniy halovatni birinchi oʻringa qoʻysa [11], Afinada istiqomat qilib, oʻz taʼlimotini shakllantirishga muvaffaq boʻlgan Epikur osoyishtalik hamda ruhiy xotirjamlikka ustuvorlik beradi [12]. Koʻrinadiki, gedonizm vakillari farovon hayotni insonning nafaqat moddiy, balki maʼnaviy qoniqishi bilan ham bogʻlaydilar.

Insonning farovon hayoti haqidagi oʻylarni evdemonizm taʼlimoti vakillari qarashlarida ham koʻrish mumkin. Bu taʼlimot namoyondalari inson hayotining asosiy maqsadini farovon hayotga erishish bilan bogʻlaydilar [13]. Jumladan, Aristotel farovon hayotning asosiy belgisini baxt-saodatdan izlaydi. Boshqacha aytganda, mutafakkir baxtni oqillik, fozillik bilan tashkil etilgan, shu sababdan farovon koʻrinish olgan hayotning tashqi ifodasi sifatida taʼriflaydi. Baxt, uning fikriga koʻra, bu vaqtinchalik halovat emas, balki mazmundor, shaxsiy salohiyatlarni roʻyobga chiqarish imkonini beradigan hayotdir [14].

Oʻrta asrlarda ham Sharq, ham Gʻarb falsafasida farovon hayot tushunchasi muhim falsafiy va diniy tushuncha sifatida taʼriflandi. Masalan, Abu Nasr Forobiy farovon hayotni “aql va fazilat orqali komil jamiyatda yashab, ruhiy barkamollikka erishish” jarayoni sifatida tavsifladi [15]. Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlar farovonlik omilini qalb pokligidan izladilar [16]. Mashhur xristian teologi Foma Akvinskiy esa farovonlik ifodasi boʻlmish haqiqiy baxtni Xudo bilan birlashish sifatida talqin etadi [17].

Farovon hayot insoniyatning barcha davrlardagi eng ezgu orzusi, ijtimoiy taraqqiyotning pirovard maqsadidir. Ko'plab falsafiy va sotsiologik nazariyalar hamda ta'limotlar tahlili ko'rsatadiki, farovon hayot deganda insonning moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlari qondirilgan, barqaror shaxsiy rivojlanishi ta'minlangan holdagi turmush tarzi va sifati nazarda tutiladi. Uning moddiy va ma'naviy-ruhiy jihatlari maqbul ekologik vaziyat, iqtisodiy barqarorlik, oqilona ijtimoiy siyosat, zamonaviy ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvorligi, sog'lom ma'naviy muhit hamda shaxsiy intilishlar kabi omillar sharofati bilan qaror topadi.

XULOSA

Farovon hayot – insoniyat tafakkuri va faoliyatining eng muhim, doimiy harakatga chorlovchi tamoyillaridan biri bo'lib, u tarixiy, madaniy, ijtimoiy va falsafiy jarayonlar orqali uzluksiz shakllanib kelgan. Ushbu maqolada olib borilgan tarixiy-falsafiy, sotsiologik va taqqosloviiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, farovon hayot tushunchasi har bir davr, sivilizatsiya va ijtimoiy tafakkur doirasida o'ziga xos talqin va mezonlarga ega bo'lgan. Qadim sivilizatsiyalarda farovonlik tabiiy boyliklar, obod yurt va xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, o'rta asrlarda u ko'proq ma'naviy kamolot, axloqiy poklik va ilohiy najot bilan o'lchangan. Falsafiy ta'limotlar – hind dxarmasi, xitoy konfutsiychiligi, zardushtiylik, yunon gedonizmi va evdemonizmi, islom va xristian diniy-falsafiy qarashlari farovon hayotning ichki (ruhiy-ma'naviy) va tashqi (moddiy-iqtisodiy) mezonlarini chuqur yoritib bergan.

Zamonaviy jamiyatda esa farovon hayot nafaqat iqtisodiy barqarorlik va moddiy ta'minot bilan, balki ruhiy sog'lomlik, ma'naviy rivojlanish, sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash tizimi, ekologik muhit, teng imkoniyatlar va adolatli ijtimoiy tuzum bilan bog'liq ekani aniq ko'zga tashlanadi. Boshqacha aytganda, XXI asr insoni uchun farovonlik bu – shaxsiy salohiyatni to'la ro'yobga chiqarish, jamiyatda o'z o'rnini topish, o'z hayotidan mamnunlik va ma'naviy qoniqish hissini his qilish imkonidir. Maqolada bayon etilgan ilmiy yondashuvlar shuni isbotlaydiki, farovon hayotga oid tasavvurlar nafaqat tarixiy taraqqiyot natijasi, balki madaniy, diniy, falsafiy va sotsiologik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq murakkab ijtimoiy hodisadir. Bugungi global sharoitda farovon hayotga erishish uchun davlat siyosatining ijtimoiy adolat, inson huquqlari, ekologik barqarorlik, sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlash kabi yo'nalishlarda izchil olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois farovonlik nafaqat individual sa'y-harakatlar, balki butun jamiyatning barqaror taraqqiyoti, o'zaro hamjihatlik va madaniy uyg'unlik natijasida ro'yobga chiqadigan umumiy ijtimoiy holat sifatida qaralishi lozim. Shunday qilib, farovon hayot – bu har bir inson orzu qilgan baxtli, mazmunli, tinch, adolatli va barqaror turmush tarzidir. Bu orzuning ro'yobga chiqishi esa ilm, ma'rifat, axloq, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy birdamlik kabi omillarga bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Фаровонлик // Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. Жилд 4. - Т.: Ўзб. миллий энцикл., 2008. - Б.331.
2. Благосостояние // Большая Российская энциклопедия // bigenc.ru.
3. Саинов М.П., Саинова Н.П. Об истории древнего Египта и его гидротехнике // Вестник МГСУ, 2008, №3. - 14-21-с.
4. Юсупов М. Яхши хулқ – бахту-фаровонлик калити // hidoyat.uz, 2019, 28 февраль.
5. Ордина О.Н. Смирение как основная христианская добродетель // Национальная ассоциация ученых, 2015, №9-4. - 46-48-с.

6. Смагин И.И. Составляющие и критерии оценки уровня благосостояния: методологический аспект // Социально-экономические явления и процессы, 2013, №7. - 142-146-с.
7. Бхагавад Гита // Пер. с санскрита Д.Бурбы. - М.: Рипол классик, 2009; Радхакамал Мукерджи. The Social Philosophy of the Bhagavad Gita. - London: Routledge, 1955.
8. Конфуций. Лунь Юй (Суждения и беседы) // Пер. и комм. А. И. Кобзева. - М.: Восточная литература, 2001.
9. Авесто // Асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: Шарқ, 2001.
10. История этических учений. Учебник для вузов. - М.: Гардарики, 2003. - С. 401-410.
11. Аристипп // Большая Российская энциклопедия // bigenc.ru.
12. Эпикур. Письмо к Менекею // Античная философия. - М.: Мысль, 1994. - С.221-223.
13. История этических учений. Учебник для вузов. - М.: Гардарики, 2003. - С. 377-401.
14. Аристотель. Никомахова этика // Соч в 4-томах. Том 4. - М.: Мысль, 1984. - С. 172-190.
15. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. - Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1993.
16. Жалолиддин Румий Маснавийи маънавий. - Т.: Asian Book House, 2023; Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. - Т.: Ғ. Ғулом номидаги адаб. ва санъат нашр, 1991.
17. Аквинский Ф. Сумма теологии. - Киев: Эльга Ника-центр, 2005.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF MUNAVVAR QORI'S ENLIGHTENMENT AND MORAL VIEWS

Sultonova Shakhnoza

Bukhara State University,

Lecturer of the Department of Philosophy, Islamic History and Source Studies

Abstract. This article examines the Jadid movement that emerged in Turkestan at the end of the 19th and the beginning of the 20th century, focusing in particular on the activities of one of its leaders Munavvar Qori Abdurashidkhanov. The work explores the Jadids' ideas of enlightenment, their contribution to the formation of a three-tiered education system, and their significant role in laying the foundation for the national revival the Third Renaissance. The article also highlights the political and historical assessments of the Jadid movement based on the statements of the President of our country. Special emphasis is placed on Munavvar Qori's role in restoring knowledge, education, and national identity.

Keywords: jadidism, spirituality, culture, enlightenment, renaissance, society, progress, freedom, equality, justice, secularism.

MUNAVVAR QORI MA'RIFIY-AXLOQIY QARASHLARINING FALSAFIY AHAMIYATI

Sultonova Shaxnoza

Buxoro davlat universiteti,

Falsafa, islom tarixi va manbashunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati, xususan uning yetakchilaridan biri – Munavvar qori Abdurashidxonov faoliyati tahlil qilinadi. Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari, uch bosqichli ta'lim tizimini shakllantirishdagi hissi, milliy uyg'onish – Uchinchi Renessans poydevoriga qo'shgan ulkan hissi ochib beriladi. Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan fikrlar asosida jadidchilik harakatiga berilgan siyosiy va tarixiy baholar yoritiladi. Munavvar qorining ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni tiklashdagi o'rni alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, renessans, jamiyat, taraqqiyot, ozodlik, tenglik, adolat, dunyoviylik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N40>

Kirish. Mustaqillik munosabati bilan xalqimiz tarixi va ma'naviy jarayonlar rivojini o'rganishga imkoniyat yaratildi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda keng quloch yoygan, milliy ozodlik harakatlari rivojida, milliy va ma'naviy madaniyat taraqqiyotida juda katta rol o'ynagan jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy mazmunni yangitdan ko'rib chiqish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Tarixdan ma'lumki asrimiz boshlarida keng quloch yoygan jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-falsafiy g'oyalarini reaksiya va millatchilikda ayblash odat tusiga kirgan edi. Mustaqillik qaror topishi bilan Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Abdulla Avloniy kabi jadidlarga munosabat tubdan o'zgardi. Qator ilmiy maqolalar va yirik tadqiqotlar

amalga oshirildi. Ular orasida E.Karimov, B.Qosimov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, Sh.Rizayev kabi olimlarning tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi [1].

Shu o'rinda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan mazkur nutqini keltirib o'tishimiz zarur: "Taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojida o'rni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega.

Barchamizga ayonki, "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar [2].

Metodologiya. Ushbu maqolani tayyorlashda tarixiy-falsafiy tahlil, taqqoslash, manbashunoslik va sistematik yondashuv kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy mazmunini tahlil qilishda birinchi navbatda tarixiy voqealarning ketma-ketligi va ularning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, mazkur harakat yetakchilaridan biri bo'lgan Munavvar qori Abdurashidxonovning hayoti va faoliyati markaziy tahlil obyekti sifatida tanlandi.

Avvalo, jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy mazmunini tahlil qilishda tarixiy voqealarning ketma-ketligi va ularning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri o'rganildi. Tarixiy-huquqiy tahlil yondashuvi asosida jadidlar tomonidan ilgari surilgan siyosiy va ma'rifiy g'oyalarning, jumladan, milliy davlatchilik va ta'lim tizimi bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslarning zamonaviy huquqiy qadriyatlar bilan qanday bog'liqligi ochib berildi. Bu jihatdan, ular faqat o'z davrining islohotchilari bo'lib qolmay, balki bugungi O'zbekiston taraqqiyotining g'oyaviy ildizlariga aylanganliklari aniqlandi.

Tadqiqotda manbashunoslik yondashuvi muhim o'rin tutdi. Xususan, Munavvar qori Abdurashidxonov va boshqa jadidlar tomonidan yozilgan asarlar, da'vatnomalar, nutq va maktublar sinchiklab o'rganildi. Ushbu manbalar orqali jadidchilik tafakkuri va ularning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari rekonstruksiya qilinib, tarixiy kontekstda tahlil qilindi. Ayniqsa, Munavvar qori Abdurashidxonovning hayoti va faoliyati markaziy tahlil obyekti sifatida tanlanib, u orqali jadidchilik harakatining asosiy tamoyillari va g'oyalari yoritildi.

Falsafiy tahlil esa jadidlar tomonidan ilgari surilgan "Ozodlik, Tenglik va Adolat" g'oyalarining ijtimoiy ongda qanday aks etgani va bu g'oyalar milliy uyg'onish jarayonidagi o'rnini aniqlashga xizmat qildi. Ushbu g'oyalarning mazmuni faqat o'z davrida emas, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaganligi qayd etildi. Aynan shu yondashuv orqali jadidlarning ma'naviy merosi zamonaviy o'zbek jamiyatining asosiy g'oyaviy tayanchlaridan biri sifatida ko'rsatildi.

Tizimli yondashuv yordamida jadidchilik harakatining asosiy bosqichlari, ularning o'zaro bog'liqligi va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi kompleks tarzda ko'rib chiqildi. Bu yondashuv orqali harakat ichidagi uzviylik va muvofiqlik aniqlanib, jadidchilik faqat epizodik tarixiy hodisa emas, balki uzluksiz va tizimli ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo'ldi.

Umuman olganda, ushbu maqola metodologik jihatdan tarixiy-hayotiy voqealarning tanqidiy tahliliga tayanadi. U orqali o'zbek jadidlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini chuqurroq anglashga harakat qilindi hamda ularning zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi ahamiyati ochib berildi. Jadidchilik harakatining bugungi kunda ham dolzarbligini ko'rsatish esa bu tadqiqotning eng muhim maqsadlaridan biridir.

Muhokama va natijalar. Haqiqatan buyuk Ona tariximizda bizlar ham, bizlardan keyingi avlodlarimiz ham, hatto chet ellarda ham hamisha qadrlaydigan buyuk ajdodlarimiz juda ko'p. Shulardan biri mamlakatimizdagi jadidchilik harakatining yetakchi rahnamosi Munavvar qori Abdurashidxonovdir. U 1878-yil Toshkent shahrining Shayx Xovandi Tahur dahasi, Darxon mahallasidagi elga taniqli oilada dunyoga keldi. Unga yaxshi niyatlar bilan padari buzrukvori madrasa mudarrisi Abdurashidxon Sotiboldixon Olimxon o'g'li va volidayi mehriboni, otinoyi Xosiyatxon (1845 -1931) Xonxo'ja Shorahimxo'jayev (1841-1941)ning qizi Munavvar, ya'ni nurli va nur bilan yo'g'rilgan degan ma'noni anglatuvchi ism qo'ydilar.

Munavvarning otasi Abdurashidxon o'z hovlisida maktab ochib, 40 nafar o'quvchiga dars bergan. Onasi Xosiyatxon ham shu hovlida xotin-qizlarni o'qitib, ularga bilim bergan. 1885-yilda Munavvar 7 yoshga kirganda otasi vafot etadi. Abdurashidxon va Xosiyatxon 3 o'g'il ko'rishgan edi. Kattasi A'zamxon (1872-1919), o'rtanchisi Muslimxon (1875-1954), kichigi Munavvar edi [3].

Tarixiy voqealarga asoslanib shuni aytish lozimki, Munavvar Qori Abdurashidxonov milliy uyg'onish – jadidchilik harakatining asosiy yetakchilaridan biri bo'lib, qadim islom tamadduni mamlakatimizda qayta tiklanishiga katta hissa qo'shdi. Shaxsan uning o'zi yangi tamaddunning eng muhim poydevori — hozirgi uch bosqichli milliy ta'lim tizimiga bevosita asos soldi.

Darhaqiqat, bu uch bosqichning birinchisi, to'rt yillik boshlang'ich va, ikkinchisi, o'rta maxsus "Rushdiya" maktablarini tashkil etish bilan birga ularning bitiruv imtihonlarini-da, tantanavor amalga oshirdi. Bu imtihonlarga o'quvchilarning ota-onalarini, din peshvolarini, ma'rifatparvar saxiy boylarni, shuningdek, taniqli jadid ziyoli va shoirlarini rasman taklif etdi. Masalan, Namanganga – Is'hoqxon to'ra Ibratga yo'llangan "Da'vatnoma"da shunday deyilgan:

"Hurmatli Is'hoqxon hoji janoblarina! 1907-yil may oyidan e'tiboran Toshkentda Tarnovboshi mahallasida "Xoniya" maktabinda talabalarni(ng) yillik imtihoni boshlanur. Siz hurmatludan rijo qilurmizki, tavobeingizda bo'lg'on usuli jadidiya maktablari mudirlari ila imtihon majlislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar Sizdan mamnun bo'lur edilar.

Muhibingiz Munavvar qori,

15-mart 1907-yil" [4].

Jadidlar millat va Vatanni ozod etib, taraqqiyotga yetaklash uchun siyosiy, madaniy-ma'rifiy kuch sifatida kurashdi. Buyuk millatparvar va millatning ma'naviy otasi darajasigacha ko'tarilgan Munavvar qori Abdurashidxonov o'zining xotiralarida yozishicha, jadidlarning bosh shiori va maqsadi o'ta teran mazmunli ushbu uch so'zdan iborat bo'lgan: "Ozodlik, Tenglik va Adolat" [5].

Shuni alohida aytish lozimki, jadidlar, ayniqsa, Munavvar qori tariximizni juda teran anglab, undan saboq va ma'naviy kuch-quvvat olgan. O'zlaridan oldin yuz bergan ikki buyuk Uyg'onish — Renessans davrini juda chuqur bilgan va ularga suyangan.

Fidoyi jadidlar mustabid mustamlakachilar bilan mahalliy mutaassiblarning ikki tomonlama qarshiliklarini matonat bilan yengib, qisqa davr (30-40 yil)da Uchinchi milliy

uygʻonish — Renessansning quyidagi asoslari (poydevori)ni yaratdi. Bularda Munavvar qori Abdurashidxonovning hissasi behad katta boʻldi:

- jadidchilik harakatining tub asosini din bilan dunyoviylik oʻrtasidagi oʻzaro moʻtadil munosabat qonuniyati tashkil etdi;
- toʻrt yillik boshlangʻich, ikki yillik “Rushdiya” oʻrta maxsus va oliy taʼlimlardan iborat uch bosqichli yangi milliy taʼlim tizimi yuzaga keldi;
- diniy va dunyoviy dunyoqarashni yaxshi oʻzlashtirgan yangi milliy ziyolilar paydo boʻldi;
- yangi milliy adabiyot, matbuot, teatr va bosma kitoblar dunyoga keldi;
- kommunistik mustamlakaga qarshi uyushgan milliy-ozodlik harakati rivojlandi;
- har xil ijtimoiy-siyosiy va madaniy-maʼrifiy tashkilot hamda jamiyatlar shakllanib, samarali faoliyat yuritdilar;
- millat yoshlarini rivojlangan mamlakatlarga yuborish tartibi paydo boʻldi [4].

Munavvar qori Abdurashidxonovning yetakchiligida jadidchilik harakati oʻzlaridan oldin yuz bergan ikki buyuk olamshumul Uygʻonish — uchinchi Renessans poydevorining eng muhim asoslarini yaratgan desak mubolagʻa boʻlmaydi [6]. Oʻrni kelganda yurtboshimizning 2020-yil 30-sentyabrdagi “Oʻqituvchi va murabbiylar — Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” deb nomlangan maʼruzasida jadidlar hamda Munavvar qoriga bergan yuksak darajali baholari shu yerda toʻla-toʻkis keltirish joizdir:

“Koʻpchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan oʻylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda maʼrifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uygʻonish gʻoyasiga bagʻishlab, oʻlkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni gʻaflat botqogʻidan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yoʻlda ular oʻzlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yoʻq va boʻlishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy eʼtiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, maʼrifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xoʻjayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Choʻlpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulugʻ insonlar milliy uygʻonish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini oʻzgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimiz oʻz oldiga qoʻygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yoʻl bermadi. Maʼrifat fidoyilari oʻsha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor boʻldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvgʻin va qatagʻon qildi. Shu tariqa milliy uygʻonish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon boʻlib qoldi” [7].

Bular jadidchilik harakati va uning oldingi saflarida boʻlgan ilgʻor fidoyi jadidlarga yuksak minbardan davlat miqyosida berilgan oʻta adolatli va haqqoniy, tarixiy baho boʻldi. Ayniqsa, shu kuni Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiyler Prezidentimizning farmoni bilan yuksak darajada qadrlanib, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlanishi nur ustiga aʼlo nur boʻldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik tufayli tarixiy haqiqatlar va milliy o'zlikka yangicha yondashuv shakllandi. Bu jarayonda, ayniqsa, XX asr boshlarida Turkiston zaminida shakllangan jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-falsafiy mazmunini chuqur o'rganish bugungi kunda nihoyatda dolzarbdir. Jadid bobolarimiz – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa fidoyilar xalqni jaholatdan chiqarish, milliy uyg'onish va taraqqiyot sari yetaklash yo'lida mislsiz xizmatlar qilganlar. Ayniqsa, Munavvar qori Abdurashidxonovning milliy ta'lim tizimini shakllantirish, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish, yangi ziyolilar avlodini tarbiyalashdagi faoliyati – zamonaviy O'zbekiston ta'lim va ma'naviyat tizimining asoslaridan biri sifatida qadrlanmoqda. U yaratgan uch bosqichli ta'lim tizimi, yangi usul maktablari va milliy matbuot taraqqiyotiga qo'shgan hissassi yurtimizda uchinchi Renessans poydevorining barpo etilishida alohida o'rin tutadi.

Shu boisdan ham davlatimiz rahbarining jadid bobolarimiz merosiga bergan e'tibori, ularning tarixiy shaxs sifatida e'tirof etilishi, jamiyatimizda ma'naviy yuksalish va yangi taraqqiyot sari harakatlarda ulkan turtki bo'lmoqda. Bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyotida jadidlar merosidan ilhomlanish, ularning ibratli hayoti va fidokorona faoliyatini chuqur o'rganish har bir fuqaroning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy kamoloti uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bahodir, Q. B. (2025, February). Jadid-millat tafakkuri xazinas. In international scientific research conference (Vol. 3, No. 31, pp. 62-65).
2. Mirziyoyev Sh.M. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga // <https://president.uz/oz/lists/view/6919>
3. Saloxiddinovna, R. A., & Ixtiyorovna, K. D. (2025). Ma'rifatparvar jadidimiz Munavvar Qori Abdurashidxonovning hayoti va ijodi yoshlarimizga ibratli ahamiyati. tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar, 1(1), 3-6.
4. Xolboyev S. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 152 b.
5. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Nashrga tayyorlovchi: S.Xolboyev. Toshkent: Sharq, 2001. 51-bet.
6. Muhammadqodir Shokirali O'G'Li Umarov (2023). Munavvarqori Abdurashidxonovning axloqiy-estetik qarashlari. Academic research in educational sciences, 5 (NUU Conference 2), 755-759.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
8. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
9. Sobirovich, T. B. (2025). Jadidism and Political Reform: Shaping the Future of Uzbekistan. Asian Journal of Basic Science & Research, 7(1), 22-28.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

CRIME - AS A SOURCE AND OUTCOME OF MORAL AND SPIRITUAL VIOLATIONS OF YOUTH

Dusmanov Sherzod Abduvalievich,

Independent researcher of SamSU named after Sh.Rashidov

Abstract. This article provides information on the special measures used to prevent moral, professional and spiritual violations of young people, and subsequently their commission of crimes. It also provides a broad overview of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, which deals with moral, professional and spiritual violations under the influence of objective and subjective factors, such as punishment and prohibited socially dangerous acts.

Keywords: moral, professional and spiritual violations, globalization, mass culture, criminal code, crime and punishment, legal education, religious education, physical education, aesthetic education, moral education, punishment, concepts of action or inaction.

JINOYATCHILIK – YOSHLAR AXLOQIY-MA'NAVIY BUZILISHLARINING MANBAI VA HOSILASI SIFATIDA

Dusmanov Sherzod Abduvaliyevich,

Sh.Rashidov nomidagi SamDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning axloqiy-kasbiy-ma'naviy buzilishlari, keyinchalik esa jinoyat sodir etishlarini bartaraf qilishda qo'llaniladigan maxsus chora-tadbirlar xususida ma'lumot berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining jazo qo'llash va ta'qiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmishlar kabi obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida axloqiy-kasbiy-ma'naviy buzilishlari haqida ham keng mushohada yuritilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy-kasbiy-ma'naviy buzilish, globallashuv, ommaviy madaniyat, jinoyat kodeksi, jinoyat va jazo, huquqiy tarbiya, diniy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, jazo qo'llash, harakat yoki harakatsizlik tushunchalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N41>

Yoshlarning muntazam ravishda axloqiy-kasbiy-ma'naviy jihatdan buzilishlari, keyinchalik ularning jinoyat sodir etib jinoyatchilar dunyosiga kirib qolishiga olib kelishi, hayot haqiqatlaridan biri hisoblanadi.

Xo'sh, jinoyat deb nimaga aytiladi? Bu savolga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida: «Ushbu Kodeks bilan ta'qiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi» [1] – deb javob berilgan. Shundan kelib chiqqan holda professor N.E.Muhammadiyev jinoyatchilar dunyosiga quyidagicha ta'rif berish mumkin deb hisoblaydi.

«Jinoyatchilar dunyosi deb davlatning ijtimoiy tuzumi, siyosiy va iqtisodiy tizimlari, oʻrnatilgan huquqiy-tartibda, shuningdek mulkka, shaxsga, fuqarolarning siyosiy, mehnatga oid mulkiy va boshqa huquq va erkinliklariga qarshi aybli ijtimoiy xavfli harakat va harakatsizliklarni muntazam ravishda sodir etib yashovchi kishilarning turmush tarziga aytiladi».

Xalqaro kriminalistlar ittifoqining 1897-yilda Geydelbergda boʻlib oʻtgan qurultoyida jinoyatchilar olamini quyidagicha tasniflash toʻgʻrisida kelishib olingan edi:

- 1) vaqti-vaqti bilan, tasodifan jinoyat qilib turuvchi jinoyatchilar;
- 2) bir necha marotaba jinoyatlar sodir etib, jinoyatchilik sari ogʻib ketayotgan jinoyatchilar;
- 3) jinoyat qilishni oʻziga kasb qilib olgan professional jinoyatchilar.

Hozirgi zamon jinoyatchilar dunyosining tarkibiy tuzilishini tahlil qiladigan boʻlsak, ularning bir necha toifaga boʻlinganligini va har bir toifadagi jinoyatchilarning oʻziga xos ichki va tashqi turmush tarzi, unda amal qiluvchi qandaydir qonunlar va axloq, xulq-atvor normalari borligini, ularning barchasi aslida jinoyatchilar dunyosini takomillashtirishga qaratilganligini koʻramiz.

«Jinoyatchilar dunyosining axloqi va estetik madaniyati deganda, eng avvalo, ularning umuminsoniy axloqqa zid boʻlgan illatlar jumlasiga kiruvchi yozilmagan xulq normalari, koʻrsatmalar, til (jargon), sulukat, qoʻshiq, musiqa, tatuirovkalari kiradi» [2,3]. Bularni bilmay turib jinoyatchilar dunyosida boʻlayotgan oʻzgarishlarni bilish va ularga qarshi samarali kurashish mumkin emas.

Hozirgi kunda jinoyatchilar dunyosi quyidagi toifalardan tashkil topgan:»

- 1) «qonundagi oʻgʻrilar»;
- 2) «avtoritet – obroʻlilar»;
- 3) «ishbilarmonlar», «sexoviklar»;
- 4) «qimorbozlar»;
- 5) «shestyorkalar» («tilyogʻlamachilar»);
- 6) «mujiklar» («erkaklar»);
- 7) «patsanlar» («bolalar», «yigitchalar»);
- 8) «shoʻrpeshonalar» yoki «pastkashlar»
- 9) kissavurlar» [3].

Yoshlarning axloqiy-kasbiy-maʼnaviy buzilishi jinoyat hosilasi sifatida amaliyotda bilib yoki bilmay oʻgʻirlik qilishdan boshlanadi.

Xoʻsh, oʻgʻirlik nima? Bu savolga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Oʻzgalar mulkini oʻgʻirlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida»gi 1999-yil 30 apreldagi 6-sonli qarorida oʻgʻirlikka quyidagicha taʼrif berilgan: «Jabrlanuvchining yoki boshqalarning yoʻqligida yoki ular bor boʻlsada, ularga bildirmasdan oʻzganing mol-mulkini yashirin talon-toroj qilish oʻgʻirlik hisoblanadi. Bordiyu jabrlanuvchi yoki boshqalar mol-mulkining olinayotganligini koʻrgan boʻlsada, lekin aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb oʻylagan boʻlsa, bunday qilmishni ham oʻgʻirlik deb tavsiflash lozim». Oʻgʻirlik jinoyatining obyekti oʻzganing mulkidir. Obyektiv tomondan oʻgʻirlik oʻzganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilishda ifodalanadi. Talon-toroj qilishning yashirinligi deganda esa jinoyat mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan yohud ixtiyorida turgan shaxsga sezdirmasdan yoki mulkdor yohud mol-mulkning

talon-toraj qilinishida manfaatdor bo'lmagan boshqa shaxslar yo'q vaqtida sodir etilishi tushuniladi.

Jinoyatchilar dunyosi jinoyatchilardan kishilar orasida va ijtimoiy hayotning illatlari bo'lgan boshqa qatlamlar bilan muloqot qilishda muomala qilish elementlarini: a) maxsus til, ya'ni jargonlarni; b) jinoyatchilarning belgilari – tatuirovkalarni; v) jinoyatchilarning laqablarini yaxshi bilishlarini talab qiladi.

inojatchilar dunyosining maxsus til – jargonlari ham mavjuddir. Jinoyatchilar dunyosi «g'ayriestetik madaniyati»ning asosiy elementlaridan birini ularning nutq madaniyatiga kiruvchi tili – jargonlari tashkil etadi.

Jinoyatchilar dunyosida amal qiluvchi jargonlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1) oddiy huquqbuzarlardan tortib, professional jinoyatchilargacha hamma foydalanadigan eng umumiy jargonlar;

2) ozodlikdan mahrum etilganlar qamoqxonalarda ishlatadigan jargonlar;

3) professional jinoyatchilar ishlatadigan maxsus jargonlar.

Jinoyatchilar dunyosining jargonlari ikki xil vazifani: birinchidan, jinoyatchilarning so'zlarini oddiy fuqarolar tushunmasligi uchun maxfiylashtirish; ikkinchidan, jargoniga qarab jinoyatchining qaysi toifaga kirishi va jinoyatchilar dunyosida qanday o'rin tutishini aniqlash, bilish vazifasini bajaradi.

Jinoyatchilar o'zlarining tilini san'at bilan qiyoslab, ularga estetik tus beradilar, ya'ni «musiqad sadolari ostida qadam tashlaydi» («po muzyke xodit») deb o'zlarining til hunarlarini maqtaydilar. Hozirgi kunda jinoyatchilarning lug'aviy boyligi 10 ming so'zdan ortiq bo'lgan har xil jargonlari mavjud. Shulardan ba'zilarini keltiramiz: masalan, polyak tilidan kirib kelgan jargonlarga kapat – yetkazib borish, chaqish; ment – militsioner, turma nazoratchisi; ukrain tilidan kirib kelgan jargonlarga xavat – yemoq, xomka – pichoq; lo'lilar tilidan kirib kelgan jargonlarga chuvixa – suyuq oyoq; turk tilidan kirib kelgan jargonlarga yamaniy – yomon, kicha – turma; nemis tilidan kirib kelgan jargonlarga guten morgen – ertalabki o'g'rilik; fransuz tilidan kirib kelgan shpana – mayda o'g'rilar kabi so'zlar kiradi.

Shuningdek, hozirgi kunda muomalada bo'lgan ba'zi jargonlarni ham keltiramiz. Masalan, ayva – qoch, alkash – aroqxo'r, amba – tamom, ampula – shisha idish, balda – nasha, ban – bozor, baruxa – xotin, bugor – brigadir, vremya – pul, zajigalka – to'poncha va boshqalar.[5].

XXI asrning boshlarga kelib axborotlash olamida yuzaga kelgan inqilob tufayli yoshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarining manbai sifatida o'zini gavalantiradigan kiberjinoyatchilik paydo bo'ldi.

Xo'sh, shunday ekan kiberjinoyatchilik nima, degan savol tug'iladi. Bu tushunchaga doktrinal va rasmiy jihatdan bir qator quyidagicha, ya'ni:» Kiberjinoyat kibermuhitda sodir etiladigan har qanday jinoyatdir»[6].

«Kiberjinoyat – bu kompyuter tizimi, tarmog'i, ularga ulanadigan boshqa vositalar orqali yoki ularning yordamida kompyuter tizimi, tarmog'i yoki kompyuter axborotiga qarshi kibermuhitda sodir etiladigan jinoyatlar majmui» [7].

«Kiberjinoyat – bu axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi, bevosita kompyuter vositalari orqali yoki axborot texnologiyalari vositasida sodir etiladigan qonunga xilof ijtimoiy xavfli qilmish bo'lmish axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlardir», «Kiberjinoyatchilik axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ko'plab turdagi jinoyatlarni o'zida

birlashtirgan jinoyatlar majmuidir», «Kiberjinoyatchilik kompyuterdan tashqari, boshqa axborot texnologiyalari va internet tarmoqlari orqali ham sodir etiladigan, aniqrog'i, faqatgina elektron qurilmalar va ularda saqlanayotgan ma'lumotlarga qarshi qaratilgan jinoyalarga aytiladi», «Kompyuterlar tomonidan modellashtirilgan, insonlar, obyektlar, hodisalar, holatlar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, matematik, ramziy yoki boshqa har qanday ma'noda ifodalangan, mahalliy va global kompyuter tarmoqlarida harakat qiladigan yoki har qanday jismoniy yohud virtual qurilma xotirasida saqlanadigan ma'lumotlar, shuningdek, ularni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturlar orqali sodir etiladigan jinoyatlar kiberjinoyat deb aytiladi».

Yuqorida keltirilgan ma'lumlardan ham ko'rinib turibdiki, eng ko'p jinoyatlarni sodir etayotganlarning aksariyatini yoshlar tashkil qilmoqda. Bular bir tomondan jinoyatchilik yoshlar axloqiy-ma'naviy buzilishlarining manbai, ikkinchi tomondan jinoyatchilik esa ayni vaqtda yoshlar axloqiy-ma'naviy buzilishlarining hosilasi ekanligini ko'rsatmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2024-yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida maktablardagi tarbiya va ma'naviyat masalasiga alohida to'xtalar ekan: «O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda «huquqbuzarlikka qarshi immunitet» hosil qilish zarur bo'ladi. Buning uchun darslardagi davomatga, tarbiyasi og'ir o'quvchilarga alohida e'tibor qaratiladi. Ota-onalar va mahalla raislarining bu boradagi mas'uliyati oshiriladi. «Maktab – ota-ona – mahalla» zanjiri asosida elektron muloqot platformasini ishga tushiriladi.

Yoshlar o'rtasida ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar tahlil qilinib, ularning zararli ta'siridan himoyalash va ijobiy tomonidan foydalanish choralari ko'riladi. Shuningdek, ota-onalar uchun farzand ta'lim-tarbiyasi bo'yicha xalqchil tilda qo'llanmalar tayyorlanadi maktab ta'limi bo'yicha ota-onada mas'uliyat, o'qituvchida majburiyat, o'quvchida ishonch, ta'lim va tarbiyada sifat, mahallada esa nazorat bo'ladi, – degan edi.

Jinoyatchilikning yangi jamiyat barpo etish jarayonida tug'diradigan xavfi haqida mamlakatimizning birinchi rahbari, davlat va jamoat arbobi Islom Karimov shunday ta'kidlaydi: «Jinoyatchi elementlarning yangi iqtisodiy munosabatlar tizimini shakllantirish jarayonida faol va yashirin tarzda qatnashishi jamiyatda axloqiy buzilishlarni yuzaga keltiradi. Bu esa nafaqat mamlakatimiz, balki butun jahon hamjamiyati uchun nomaqbul bo'lgan jinoiy bozor iqtisodiyotining yangi shaklining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi».

Jamiyatda jinoiy «xufiyona iqtisodiyot» mavjudligi uyushgan jinoyatchilikning paydo bo'lishiga olib keladi. Davlat hokimiyati tizimidagi turli darajadagi va bo'g'indagi vakillar ham uning ta'siri ostida qolishi mumkin. Natijada korrupsiya shakllanib, u ayniqsa uyushgan jinoyatchilik guruhlariga yordam berish yoki bevosita ko'maklashish maqsadida davlat xizmatlarining imkoniyatlaridan foydalanadi. Buning oqibatida jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatga zarar yetkazib, xavfsizlik va barqarorlik uchun bevosita tahdid hisoblanadi.

Mamlakatimizning kelajagi va obro'sini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni doimo yodda tutishi kerak. Halol mehnat qilish, o'z bilim va kuchini samarali ishlatish uchun barqaror sharoitlarning mavjud bo'lishini xohlovchi, farzandlari va yaqinlari kelajakda demokratik, fuqarolik jamiyati asosida shakllangan sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlaridan to'la foydalanishni orzu qiluvchi har bir inson jinoyatchilik va korrupsiya yo'liga barvaqt zarur choralar ko'rilmasa, ularning qanday og'ir oqibatlarga olib kelishini yaxshi tushunishi zarur. Shu sababli jinoyatchilar guruhlariga qarshi kurashish va ularni ildizdan yo'q

qilish har bir vijdonli fuqaroning muqaddas vazifalaridan biridir. Chunki davlat va siyosat arbobi I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «Jinoyatchilar dunyosi chegarasizdir. Jinoyatchilik va korrupsiya nafaqat milliy xavfsizlikka, balki xalqaro xavfsizlikka ham jiddiy tahdid hisoblanadi».

Xulosa:

1. Yoshlarning axloqiy-ma’naviy buzilishlari jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning xarakteriga bog’liq bo’lib, ularning tuzilishi haqida ilgari ilgari surilgan fikrlarni tanqidiy tahlil qilish, umumiy va o’ziga xos jihatlarni aniqlash orqali bu muammoni oldini olish va bartaraf etish uchun yagona ta’rif va tushunchalarni yaratish mumkin.

2. Axloqiy-ma’naviy buzilish tushunchasi g’ayriinsoniy ijtimoiy fenomen sifatida tarixiy rivojlanishga ega bo’lib, uning turlari, tasnifi va mezonlarini falsafiy jihatdan asoslash zarur. Shu bilan birga, bu buzilishlar insoniyatning zamonaviy taraqqiyotiga to’sqinlik qiluvchi salbiy illatlar sifatida namoyon bo’ladi.

3. Yoshlarning axloqiy-ma’naviy buzilishlarini o’rganishning obyektiv zarurati o’z navbatida, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashga, har bir yosh ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar talablariga oqilona yondashishga, moddiy va ma’naviy boyliklaridan oqilona foydalanishga, shuningdek, kishilarning turmush tarzini rivojlantirgan holda kelajak avlodlar uchun sog’lom axloqiy-ma’naviy muhit yaratish mas’uliyatini oshirishga yordam beradi.

4. Globallashuv sharoitida «ommaviy madaniyat» ning odamlar turmush tarziga qiladigan ta’siri yoshlarning axloqiy-ma’naviy buzilishlariga olib keluvchi dahshatli manbalardan biri sanaladi. Shu sababli hozirgi kunda mamlakatimiz yoshlarining «kibrjinoyatchilik» kasaliga chalinishini tashhishlash va undan qutilishning yo’llarini ishlab chiqish o’z yechimini kutayotgan muammolar qatoriga kiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Унинг ўзи. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.Т.6. – Т.: Ўзбекистон,1998. – Б.89– 90.
2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. Расмий нашр .– Т. : Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, 2022 – Б.6.
3. Мухаммадиев Н.Э. Соғлиқни сақлаш ходимларининг касб этикаси ва эстетик маданияти. Монография. – Тошкент: «EFFECT-D», 2022.- Б. 224
4. Империя Страха . – М.: Зеленый парус,2013. – С.146-148.
5. M.Gurcke. Understanding Cybercrime: A Guide for Developing Countries. ITU. 2009.
6. Н.С.Салаев, Р.Н.Рўзиев. Кибержиноятчиликка қарши курашишга оид миллий ва халқаро стандартлар. Монография., – Т.: ТДЮУ, 2018, 139-б.
7. Л.Бўранов. Кибержиноятчиликка қарши курашишда интернет-маданиятнинг аҳамияти. 2018 й., <https://ictnews.uz/uz/15/05/2018/cybercrime/>.
8. Третий пермский конгресс ученых-юристов : материалы междунар. науч.-практ. конф. Пермь, 12 окт. 2012 г. / отв. ред. О.А. Кузнецова. – Пермь : Перм. гос. нац. иссл. ун-т, 2012. – 289 с.
9. А.В.Федоров. Информационная безопасность в мировом политическом процессе. – М.: МГИМО Университет, 2006. – 11 с.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

DEFINING THE CRITERIA FOR A PROSPEROUS LIFE THROUGH THE HARMONY OF PERSONAL FREEDOM, SOCIAL JUSTICE, AND ECONOMIC OPPORTUNITIES

Rajabboy Hasanov

PhD Student at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines the concept of a prosperous life and its significance in the development of society. The economic, social, spiritual, and environmental criteria of well-being are thoroughly analyzed. Special attention is given to key indicators such as ownership of private property, employment, income level, and real purchasing power. A comparative analysis with international experience is conducted, and empirically grounded approaches are applied. As a result, the interrelation between the criteria for evaluating the level of a prosperous life and their socio-philosophical significance is substantiated.

Keywords: prosperous life, society, social justice, spirituality, stability, development, inflation, economy.

FAROVON HAYOT MEZONI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIRINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI

Rajabboy Hasanov

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada farovon hayot tushunchasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tadqiq etilgan. Farovonlikning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va ekologik mezonlari chuqur o'rganilib, xususiy mulkka egalik, ish bilan bandlik, daromad miqdori va real xarid qobiliyati asosiy ko'rsatkichlar sifatida ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlillar olib borilib, empirik ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar qo'llangan. Natijada, farovon hayot darajasini aniqlashda mezonlarning o'zaro bog'liqligi va ularning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati asosli ravishda yoritilgan.

Kalit so'zlar: farovon hayot, jamiyat, ijtimoiy adolat, ma'naviyat, barqarorlik, taraqqiyot, inflyatsiya, iqtisod.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N42>

Kirish. Kishilar farovon hayotining ta'minlanishi, uning moddiy va ma'naviy-ruhiy jihatlarining mustahkamlanishi, turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladigan omillardan oqilona foydalanilishi nihoyatda katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Farovon hayot odatda jamiyatning barcha sohalarida tub sifatli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, mutlaqo pozitiv xarakterga ega bo'lgan yangi taraqqiyot tendensiyalarini vujudga keltiradi. Xuddi shuning uchun ham davlat rahbari o'zining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: "Biz xalqimizning farovon hayotini, farzandlarimizning yorug' kelajagini ta'minlash uchun bundan buyon ham bir tan-u bir jon bo'lib, bor salohiyat, bilim va tajribamizni safarbar etishimiz lozim" [1], – deb ta'kidlagan edi.

Farovon hayot insonning moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlari qondirilgan, barqaror shaxsiy rivojlanishi ta'minlangan holdagi turmush tarzi va sifatini ifodalaydi. Jamiyatda ana

shunday darajada turmush kechirish imkoniga ega bo'lgan kishilar ko'p bo'lsa, undagi farovon hayot darajasi ham yuqori hisoblanadi. Aks holda, ya'ni jamiyatda munosib turmush kechirayotgan kishilar soni kam bo'lsa, jamiyatdagi farovon hayot darajasi ham past, deya e'tirof etiladi.

Metodologiya. Farovon hayot – bu insonlar orzu qiladigan, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy mustahkamlik va ruhiy qoniqish bilan uyg'unlashgan yashash tarzidir. Ushbu tadqiqotda farovon hayot tushunchasining mazmun-mohiyatini chuqur anglash, uning jamiyat taraqqiyotidagi tutgan o'rnini aniqlash va asosiy mezonlarini belgilash asosiy maqsad qilib olindi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar mazkur mavzuni har tomonlama yoritish va ilmiy asoslangan xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, kompleks yondashuv asosida farovon hayot fenomeni iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va ekologik mezonlar doirasida tahlil qilindi. Bunday keng qamrovli yondashuv farovonlikni faqat moddiy boyliklar bilan emas, balki shaxsiy erkinlik, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanat bilan ham bog'liq holda ko'rib chiqishga imkon berdi.

Tadqiqot metodologiyasida bir necha muhim yondashuvlar asosiy o'rinni egalladi. Jumladan, tahliliy yondashuv orqali farovonlikka ta'sir etuvchi omillar – xususiy mulkka egalik, ish bilan bandlik, daromad miqdori va real xarid qobiliyati – chuqur tahlil qilindi. Bu tahlil davomida Avstraliya va Yevropa mamlakatlari kabi rivojlangan davlatlarning tajribasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilib, ularning farovonlik darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgani aniqlashtirildi.

Solishtirma metod yordamida esa O'zbekiston aholisining farovonlik darajasi xalqaro tajriba bilan solishtirildi. Bu yondashuv milliy xususiyatlarni aniqlash va iqtisodiy mezonlar nuqtai nazaridan mavjud ustunliklar hamda muammolarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mezonlar asosidagi baholash metodi orqali esa farovon hayot darajasini aniqlovchi mezonlar – xususiy mulkka egalik, ish bilan bandlik darajasi, daromad manbalari va xarid qobiliyati – alohida tahlil qilindi. Har bir mezonning o'zaro bog'liqligi ochib berilib, bu ko'rsatkichlarning jamiyat farovonligiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilindi.

Empirik dalillarga asoslangan yondashuv esa ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar va xalqaro tashkilotlar (UNDP, OECD va boshqalar) hisobotlari orqali dalillarga asoslangan tahlillarni amalga oshirishga xizmat qildi. Bu yondashuv ilmiy xulosalarning real hayot bilan bog'liq holda chiqarilishini ta'minladi.

Tadqiqot davomida Adnan A., Acemoglu D., Robinson J.A. kabi xalqaro iqtisodchilar, shuningdek, Mashrabov A.Z., Rajabov N., Zufarova G.A. kabi mahalliy olimlarning ishlari asosiy manba sifatida xizmat qildi. Ularning qarashlari va tahlillari orqali farovonlik mezonlarining mantiqiy tizimi shakllantirildi.

Mazkur metodologik asoslar asosida olib borilgan tadqiqot farovon hayot tushunchasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini har tomonlama ochib berdi. Ilmiy tahlillarning chuqurligi va dalillarga tayanganligi esa tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minladi. Bu esa maqolada ilgari surilgan xulosalarning amaliy va nazariy ahamiyatini yanada oshiradi.

Muhokama va natijalar. Mamlakatlar ahli farovon hayotining ta'minlanganligi shakli va darajasi ko'plab mezonlar yordamida konstatatsiya qilinadi. Ilmiy manbalarda jamiyatdagi farovon hayot darajasini ko'rsatuvchi quyidagi mezonlar tilga olinadi (ushbu ilmiy manbalar mezonlarga doir mulohazalar davomida keltiriladi):

- iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar;
- ma'naviy-ruhiy mezonlar;
- ekologik mezonlar.

Jamiyatda farovon hayotning ta'minlanganligi darajasini ko'rsatuvchi dastlabki mezonlar iqtisodiy xarakterga ega. Iqtisodiy mezonlar yordamida jamiyat a'zolarining farovon hayot kechirishi uchun yaratilgan moddiy-iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlar aniqlanadi. Ilmiy manbalarda iqtisodiy mezonlar turlicha tizimlashtiriladi hamda bayon etiladi [2]. Biroq ularning asosiy sifatlari quyidagilar qayd qilinadi:

1. Xususiy mulk. Mulk shaxs egalik qilayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlardan tarkib topadi. Unga bo'lgan huquq shaxsning bu narsalardan o'z xohishiga ko'ra foydalanish yoki boshqalarga taqdim qilish imkoniyatini ta'minlaydi [3]. Xususiy mulk deganda odatda uning moddiy mulki (uy-joyi, avtomobili, yer uchastkalari, maishiy texnika vositalari, kiyim-kechaklari va h.k) hamda nomoddiy mulki (intellektual mulki, bankdagi omonatlari, egalik qilayotgan aksiyalari va aktivlari) nazarda tutiladi. Inson egalik qilayotgan mulkning hayot farovonligini ta'minlash uchun yetarli yoki yetarli emasligi uning shaxs asosiy ehtiyojlariga monandligi bilan aniqlanadi. Agar mulk asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo'lsa, shaxs turmushi munosib darajada deb hisoblanadi. Mabodo, bu mulk ehtiyojlarni to'laqonli qoplashga yetmasa, turmush darajasi ham salbiy baholanadi. Jamiyatda o'z ehtiyojlarini tugal qondirishga yetadigan mulkka egalik qilayotgan kishilar soni ko'p bo'lsa, bunday jamiyatda farovon hayotning ta'minlanganligi darajasi baland bo'ladi. Aksincha, mol-mulki ehtiyojlarni tugal qondirish yetmaydigan kishilar ko'p bo'lgan jamiyat farovonlikdan yiroq jamiyatdir.

2. Ish bilan bandlik. Ish bilan bandlik deganda mehnatga layoqatli aholining muayyan mehnat faoliyati bilan qonuniy ravishda shug'ullanishi, ya'ni muayyan ish joyida yoki mustaqil tarzda mehnat qilib, daromad topishi tushuniladi [4]. Mutaxassislar ta'rificha, ish bilan band shaxs mehnat bozorida faol ishtirok etib, haftasiga kamida belgilangan soat ishlashi, ishdan muayyan daromad olishi hamda mehnat faoliyatini o'z ixtiyori bilan amalga oshirishi lozim. Ish bilan bandlik har bir shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. U nafaqat shaxsning moddiy ta'minoti, balki uning jamiyatdagi mavqeyi va farovonligi bilan ham uzviy bog'liq. Shaxsning ish bilan bandlik darajasini aniqlashda bir nechta mezonlar mavjud. Birinchi navbatda, shaxsning haftalik ish soatlari, doimiy yoki vaqtinchalik daromad manbalari, shuningdek faoliyatining shakli, ya'ni rasmiy ish joyi, shaxsiy tadbirkorlik yoki vaqtinchalik mehnat shartnomalari inobatga olinadi [5]. Biroq ish bilan bandlikning o'zi har doim ham farovon hayot kafolati emas. Chunki ish bilan bandlikning sifatiy aspektlari – ish haqi miqdori, mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoya vositalarining mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega. Agar shaxsning mehnat faoliyati uning ehtiyojlarini tugal qondirish imkonini bermasa, bunday ish bilan bandlik yetarli deb baholanmaydi [6]. Xuddi shuning uchun ham BMTning Inson taraqqiyotiga bag'ishlangan hisobotlarida ish bilan bandlik darajasi aholining umumiy farovonligi, ijtimoiy barqarorlik va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi [7].

3. Daromad miqdori. Daromad shaxsning muayyan vaqt davomida mehnat, mulk, kapital yoki boshqa resurslardan foydalanish natijasida oladigan pul yoki moddiy qiymatlaridan tarkib topadi. U insonning iqtisodiy mustaqilligini, ehtiyojlarini qondirish miqyosini, o'z hayotini farovonlashtirish imkoniyatlarini belgilab beradi [8]. Iqtisodiy adabiyotlarda daromad nafaqat shaxsning, balki iqtisodiyot taraqqiyotining ham

taraqqiyotning asosiy indikatorlaridan biri sifatida qaraladi [9]. Shaxsning daromadlari bir necha manbalardan – ish joyidan olinadigan maosh va mukofotlar, mulkdan keladigan daromadlar, shaxsiy tadbirkorlikdan olinadigan foyda, davlat tomonidan taqdim etilgan pensiya yoki nafaqalardan olinadi. Tabiiyki, shaxsning har qanday daromadi uning farovon hayoti kafolati bo'la olmaydi. Buning uchun mazkur daromad avvalo minimal iste'mol savati talablarini qoplamog'i, ya'ni turar joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, tibbiy xizmatlardan foydalanish, ta'lim olish kabi bazaviy ehtiyojlar bilan bog'liq xarajatlarni qamrab olmog'i lozim. Bundan tashqari, u shaxsiy rivojlanish uchun ham imkoniyat yaratmog'i darkor.

4. Real xarid qobiliyati. Ma'lumki, real xarid qobiliyati inson yoki aholining o'z daromadiga ko'ra qancha va qanday tovar va xizmatlarni sotib ola olishini anglatadi [10]. Real xarid qobiliyati inflyatsiya darajasi, narxlarning o'sish sur'ati, oylik maoshlar dinamikasi, soliq va boshqa to'lovlar miqdoriga mutanosib ravishda o'zgara boradi. Uni aniqlashning qator uslublari mavjud. Masalan, aholi real daromadi hajmi uning nominal daromadi miqdorini (oylik ish haqini) mamlakatdagi inflyatsiya ko'rsatkichiga bo'lish orqali aniqlanishi mumkin. Biroq aksariyat mamlakatlarda aholi real daromadlari miqdori odatda shu yurtda standart sifatida qabul qilingan iste'mol savatchasiga asoslanib aniqlanadi. Agar shaxs daromadi shu savatchada mujassam qilingan barcha mahsulot va xizmatlarni qoplasa, uning real xarid qobiliyati talab darajasida deb hisoblanadi. Jamiyatda real xarid qobiliyati yuqori bo'lgan kishilar bisyor bo'lsa, uning a'zolari farovon hayoti nisbatan kengroq ta'minlangan sanaladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi aholi turmushini ushbu iqtisodiy mezonlar asosida tahlil qilsak, bu yurtlarda hayotning farovonlik darajasi ancha balandligiga guvoh bo'lamiz. Ularda farovon hayotning iqtisodiy mezonlari jahonning boshqa mintaqalariga nisbatan ancha yuqori bo'lib, bu holat bir qator ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi. Masalan, Avstraliyada 9,9 millionga yaqin oila o'z xususiy uy-joyiga ega [11]. Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida ham shunga o'xshash vaziyat hukm suradi. Taraqqiy topgan yurtlarda shaxsiy avtomobiliga, moliyaviy aktivlarga (aksiyalar, obligatsiyalar) ega fuqarolar ham ancha bisyor. Bunday mulkiy barqarorlik aholining moliyaviy mustaqilligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xulosa .Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, farovon hayot shunchaki iqtisodiy farovonlik emas, balki insonning moddiy, ma'naviy, ijtimoiy va ekologik ehtiyojlari uyg'un holda qondirilgan barqaror yashash tarzidir. Farovonlik darajasi xususiy mulkka egalik, ish bilan bandlik darajasi, daromad miqdori va real xarid qobiliyati kabi asosiy iqtisodiy mezonlar orqali aniqlanadi. Mazkur mezonlarning har biri jamiyatdagi umumiy turmush darajasini belgilashda muhim o'rin tutadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nafaqat daromadning mavjudligi, balki uning hayotiy ehtiyojlarni to'laqonli ta'minlashi, ish bilan bandlikning samaradorligi, shaxsning mulk orqali iqtisodiy mustaqilligini ta'minlay olishi va xarid qobiliyatining real iqtisodiy muhitga mos bo'lishi farovon hayotning asosi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili O'zbekiston jamiyatida farovonlikni oshirish uchun mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, yechilishi lozim bo'lgan muammolar borligini ham ko'rsatdi. Shu boisdan, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, sifatli bandlik va barqaror daromad manbalarini kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlar uzluksiz davom ettirilishi lozim.

Umuman olganda, farovon hayotga erishish – bu faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki inson salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, barqaror va adolatli jamiyatni shakllantirish yo'lidagi murakkab, ammo zaruriy jarayondir. Shu jihatdan, ushbu maqolada ilgari surilgan xulosalar farovonlik siyosatini shakllantirishda nazariy va amaliy jihatdan muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa – taraqqiyotning kafolatidir // Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. J. 3. - T.: O'zbekiston, 2019. - B.85.
2. Adnan A., Acemoglu D., Robinson J.A. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. - New York: Crown Business. 2012; Mashrabov A.Z. Aholining turmush darajasi hamda dunyoning ayrim davlatlarida aholining hayot darajasi haqida // European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 2023, №15. - 50-54 b.; Rajabov N., Uralov B., Saidmurodov S. O'zbekistonda aholi turmush darajasi va daromadlarining o'ziga xos xususiyatlari // Yangi iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024, №3; Sultonov Sh.O. Aholi turmush darajasini yanada rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va strategiyalar // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2024, №4.
3. Mulk.// qomus.info.
4. Zufarova G.A. Ish bilan bandlikning nazariy-uslubiy asoslari // Iqtisod va moliya, 2022, №2. - 56-57 b.
5. Qurbonov S.P. Mehnat bozorida unumli va mahsuldor bandlik taqchilligini aniqlash va monitoringini olib borish imkoniyatlari // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar, 2021, №4. - 94-107 b.
6. Сен А. Развитие как свобода. - М.: Новое издательство, 2004.
7. Human development report 2023-24 // hdr.undp.org/content/human-development-report-2023-24.
8. Mankiw N. G. Essentials of Economics. - Boston: Cengage Learning, 2020.
9. Mamedov X., Muminov N., Umarov A., Ismailov A. Iqtisodiyot nazariyasi // Каталог учебников, 2023, №1. - В.3-398.
10. Такмакова Е.В. Покупательная способность доходов населения как фактор экономического роста // Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, 2010, №3-1. - 45-52 с.
11. 2016 Census QuickStats: Australia // www.abs.gov.au/census/find-census-data/quickstats/2016/0.
12. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
13. Sobirovich, T. B. (2021). The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 197-202.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

SOMATISMS IN HISTORICAL WRITTEN SOURCES AND THE HUMAN PICTURE

Boynazarov Zokir,
PhD, Associate Professor
Samarkand State University

Abstract. This article is dedicated to studying the role of somatic units found in ancient Turkic inscriptions, “Kutadgu Bilig”, “Devonu Lugatit-t-Turk” (DLT), and “Tarjumon” in linguistics, culture, and conceptual thinking. The research employs comparative-historical, linguostatistical, and linguocultural methods to compare body part terms recorded in historical sources with their forms in modern Uzbek. The phonetic and semantic stability, cultural significance, and cognitive profile of somatic units are analyzed. The results demonstrate the continuous linguistic and cultural continuity of somatic units.

Keywords: somatic units, inscribed stones, ancient Turkic texts, Kutadgu Bilig, Devonu Lugatit-t-Turk, Tarjumon, human perspective, linguoculture, conceptual thinking, somatic code, somatic concept, phonetic and semantic stability, anthropocentrism, linguistic worldview (OLM), anthropomorphism, linguistic universality, external appearance and social semantics.

TARIXIY YOZMA MANBALARDA SOMATIZMLAR VA INSON MANZARASI

Boynazarov Zokir,
PhD, dotsent
Samarqand davlat universiteti
E-mail: zmboynazarov81@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola qadimgi turkiy bitiktoshlar, “Qutadg’u bilig”, “Devonu lug’atit-t-turk” (DLT) va “Tarjumon”da uchraydigan somatik birliklarning tilshunoslikda, shuningdek, madaniyat va konseptual tafakkurdagi o’rnini o’rganishga bag’ishlangan. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, lingvostatistik va lingvomadaniy metodlardan foydalanilib, tarixiy manbalarda qayd etilgan tana a’zosi atamallari zamonaviy o’zbek tilidagi shakllar bilan solishtiriladi. Somatik birliklarning fonetik va semantik barqarorligi, madaniy ahamiyati va kognitiv qiyofasi tahlil qilinadi. Natijalar somatik birliklarning uzluksiz lisoniy va madaniy davomiyligini namoyish etadi.

Kalit so’zlar: somatik birliklar, bitiktosh, qadimgi turkiy matnlar, Qutadg’u bilig, Devonu lug’atit-t-turk, Tarjumon, inson manzarasi, lingvomadaniyat, konseptual tafakkur, somatik kod, somatik konsept, fonetik va semantik barqarorlik, antropotsentrizm, olamning lisoniy manzarasi (OLM), antropomorfizm, lisoniy universallik, tashqi qiyofa va ijtimoiy semantika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N43>

Kirish. OLMni tadqiq qilish millatning tarixiy madaniyatini, yashash tarzi va ijtimoiy o’tmishini o’rganishga yo’l ochadi. Antroposentrik, ya’ni “inson markazli” tadqiqotlarda olam markazi sifatida inson o’rganiladi. OLMda esa somatik birliklar markaziy o’rinni egallaydi. Somatizmlar (*soma* – tana (*yunoncha*)) inson tana a’zolarining nomlari bo’lib, tilshunoslikning tadqiq obyektlaridan biridir. Bu termin biz kuzatgan o’zbek ilmiy lingvistik lug’atlarida

izohlanmagan. Boshqa manbalarda, jumladan, meditsina va biologiyada, shuningdek, falsafa va psixologiyada ham qo'llaniladi. "Insonga oid", "tana va uning a'zolari" "somatik kasalliklar", "somatik hujayralar" kabi mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. "Tilshunoslik tushuncha va terminlar lug'ati"da "somatik texnika" iborasi quyidagicha izohlangan: *instrumental-fonetik usulning usullaridan biri bo'lib, u tanani (gaplashishning fiziologik jarayonlarining somatik ifodalarini) o'rganish orqali fonetik hodisa haqida xulosa chiqarishga asoslangan* [Jerebilo, 2016; 436]. Bu o'rinda qo'llanilgan "somatik..." birligi nutq organlarining nomlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, somatik birliklar inson tana a'zolari – uzvlarining nomlari hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida somatik birliklar, asosan, frazeologik tadqiqotlarda tahlil qilingan bo'lib, ularning tarixiy-tadrijiy jarayonlari alohida monografik planda o'rganilmagan.

Tillarning mustaqil til ekanligini bildiruvchi asosiy faktorlardan biri somatik birliklar sanaladi. Bu xususiyat har bir rivojlangan tilga xos belgidir. O'zbek lingvistik tadqiqotlari, ayniqsa, frazeologik birliklarni o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlardan kelib chiqib aytish kerakki, somatizmlarga nafaqat inson, balki hayvonlar tana a'zolarining nomlari kiradi. Busiz mumkin ham emas. Chunki tilning tadrijiy rivojlanishida ko'chim va o'xshatishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Inson nutq jarayonida atrofidagi yoki o'z qo'li bilan bunyod etgan predmetlarning (predmetning ma'lum bir qismining) nomini "*asl nom*" (o'z yoki o'zlashma qatlamga oid bo'lishi mumkin) yoki "*ikkilamchi nom*" shaklida qo'llaydi. Asl nomni berayotganda ham, ikkilamchi nomni qo'llayotganda ham inson predmetni o'ziga eng yaqin birliklar harakati, shakli, rangi, vazifasini qiyoslab, solishtirib, o'xshatib nomlaydi. Buning natijasida tilshunoslikda metoforik birliklarni o'rganuvchi alohida soha vujudga kelgan.

Til insoniyat madaniyati va tarixining ko'zgusi bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanish jarayonida turli qatlamlar paydo bo'lgan. Til tizimida antroposentrik yondashuv, ya'ni inson markazida qurilgan konseptual tizim muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, inson tanasi bilan bog'liq somatik birliklar qadimiy til qatlamining asosiy unsurlaridan hisoblanadi. Ular til tarixining dastlabki bosqichlaridan beri nafaqat oddiy leksik birlik sifatida, balki konseptual va madaniy tasavvurlarni aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qilib kelmoqda. Somatik birliklar (*bosh, ko'z, yurak, qo'l* kabilar) orqali inson o'z dunyoqarashini, hissiyot va kechinmalarini ifodalagan. Qadimgi turkiy bitiktoshlar, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-t-turk" va "Tarjumon" asarlarida bu birliklarning faol qo'llangani til tarixining uzluksizligi va madaniy tafakkurning barqarorligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada qadimgi turkiy manbalardagi somatik birliklarning tildagi o'rni, ularning fonetik va semantik barqarorligi, madaniy va konseptual tafakkurdagi ifodasi tadqiq qilinadi.

Maqolaning maqsadi qadimgi turkiy matnlarda somatik birliklarning til tarixidagi ahamiyatini aniqlash va zamonaviy o'zbek tilidagi davomiyligini ko'rsatish. Shuningdek, bu turkumga kiruvchi atamalarni frazeologizmlar ichida emas, balki leksik birlik sifatida o'rganish. *Maqolaning vazifalari* qadimgi turkiy bitiktoshlar, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-t-turk" va "Tarjumon" asarlarida uchraydigan somatik birliklarni aniqlash va tahlil qilish; ularning zamonaviy o'zbek tilidagi shakllari bilan qiyosiy o'rganish; somatik birliklarning madaniy va konseptual yuki haqida xulosa chiqarish. *Tadqiqot obyekti* sifatida qadimgi turkiy manbalardagi somatik birliklari tanlab olingan bo'lsa, *tadqiqot predmeti* sifatida somatik birliklarning fonetik, semantik va lingvomadaniy

xususiyatlari belgilandi va ular hozirgi o'zbek adabiy tili va shevalaridagi somatik birliklar bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

Asosiy tadqiq usullari: qiyosiy-tarixiy metod –diaxron va sinxron shakllarning o'zaro munosabati va o'zgarishini aniqlash; lingvostatistik tahlil – birliklarning takrorlanish chastotasini hisoblash va ularning faoliyat doirasini aniqlash; lingvomadaniy tahlil – til birliklarining madaniy va konseptual yuki, ularning xalq tafakkuridagi o'rni. Tadqiqot davomida somatik birliklarning nafaqat leksik shakllari, balki ularning semantik va madaniy funksiyalari ham qamrab olindi.

Asosiy qism. Dastlab, somatik birliklar, ularning inson tafakkurining shakllanishidagi ahamiyati va lingvomadaniy xususiyatlari haqida to'xtalib o'tmoq joiz, bizningcha. Atrof-muhitni tushunish, "madaniylashtirish" insonning o'zini anglashidan boshlangan. Ya'ni, tana inson idroki va tahlilining birinchi obyektiga aylangan. Keyinchalik, o'zi va tuzilishi haqidagi bilimlar atrofda voqelikka ekstrapolyatsiya (*narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish*) qilingan [Krasnix 2002:233]. Inson tashqi dunyoning barcha narsalari va hodisalariga o'z shaxsiga xos bo'lgan xususiyatlar va intilishlarni ko'chiradi. Buning sababi shundaki, bilish jarayonida insonning diqqat markazida uning tevarak-atrofdagi olam bilan qanday *munosabatda bo'lishi turadi. Insonning tashqi dunyoni bilishi birlamchi sezgilar asosida sodir bo'ladi. Bundan tashqari, inson tanasi go'daklik davridan boshlab insonning haqiqiy jismoniy makondagi asosiy mo'ljali hisoblanadi. Tana qismlari doimo "ko'zga yaqin" bo'lgan atrof-muhitni o'lchash vositalari bo'lib, universal – hamma uchun tushunarli o'lchov tizimini belgilaydi* [Gudkov, Kovshova, 2007; 80]._Bu ko'p jihatdan insonning voqelikni o'ziga tushunarli birliklar orqali, o'ziga o'xshatib tasvirlashga intilishini belgilab bergan. V.G.Gakning yozishicha, "inson egosentrik, u o'zini olamning markazi deb biladi va dunyoni o'ziga o'xshatib aks ettiradi" [Gak, 1998; 702]. Bu hodisa antropomorfizm nomini olgan. Antropomorfizm inson borlig'ining barcha asosiy sohalariga: til, ong va madaniyatga singib ketgan, chunki somatik kod yordamida tasvirlangan tashqi dunyo oddiy, qo'rqinchli emas, insonga yaqin bo'ladi. Tilda tanaga xos somatik leksika va frazeologizmlarning mavjudligi va ular yordamida OLMni tasvirlashda namoyon bo'ladi. Somatik leksika har qanday til leksikasining eng qadimgi qatlami sanaladi va lug'at tarkibining o'zagi hisoblanadi. Somatizmlar lisoniy universal hodisa bo'lib, dunyo tillarining barchasiga xosdir. Shu o'rinda tadqiqotimizda inson tana a'zolarining nomlari somatik kod va somatik birlik sifatida til va madaniyat dixotomiyasida, shuningdek, OLMda tutgan o'rni, somatik konsept tushunchasi haqida fikrlarimizni bayon qilish o'rinlidir. Chunki, zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik tahlilning ahamiyati kundan kunga dolzarblik kasb etib bormoqda.

Lingvomadaniy kod – semiotika va lingvokulturologiyada muhim tushuncha bo'lib, har bir madaniyat o'ziga xos kommunikativ "kodlar" orqali belgilar va ma'nolar tizimini yaratadi. V.V.Krasnix ta'kidlaganidek, *madaniy kod madaniyatning atrof-muhitga nisbatan "to'r" yaratadigan, uni toifalarga ajratadigan va baholaydigan tizimdir. Ular "inson" (antropik kod), "tabiat" (tabiiy kod), "tana" (somatic kod) kabi tematik kodlarga ajratiladi. Kodlar milliy madaniyat makonida milliy o'ziga xoslikni aks ettiradi va har bir til va madaniyatda turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Somatik kod esa madaniyatda tana a'zolari nomlari va ularga bog'liq obrazlarning semantik tizimini tashkil qiladi* [Krasnix, 2002; 284]. Bu kod madaniy ahamiyatga ega bo'lgan tana qismlari, ularning fazoviy, sifat va miqdoriy belgilarini,

shuningdek, madaniyat uchun funksional ahamiyat kasb etgan ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, "ko'krak", "qorin", "yuz", "tish" va hokazo. Somatik kod tilning leksik, frazeologik va paremiologik fondida mustahkamlanadi hamda OLMni modellash tiradi. Somatik kodning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish ko'rsatish mumkin: madaniyat uchun qo'shimcha semantik yuk (ramziy, estetik, axloqiy, ijtimoiy ma'nolar) yuklaydi; somatik kod orqali inson tanasi va uning qismlarining konseptualizatsiyasi amalga oshadi; tashqi va ichki (moddiy va ma'naviy) olam tasavvurlarini bog'laydi; tilda ramzlar, metaforalar, metonimiyalar, milliy etalon va stereotiplar sifatida namoyon bo'ladi.

Somatik konsept – til va madaniyatda inson tanasining (yoki uning qismlarining) nomi bilan bog'liq konseptual birlik bo'lib, ramziy va stereotipik tasavvurlarni mujassamlashtiradi. Bu birlik konseptual tahlil metodlari yordamida aniqlanadi: so'zning ichki shakli (etimologiyasi), ramziy belgilar, metaforalar, semalar, lug'aviy ma'no va ssenariylarni o'rganish orqali yuzaga chiqadi. Somatik konseptlar nafaqat til, balki madaniyat va tafakkur mahsuli sifatida ham mavjud bo'lib, milliy madaniyatda turli xil obrazlar va ramzlar yaratishda muhim rol o'ynaydi (masalan, *bag'ir* – mehr, issiqlik, himoya, *tish* – yoshlik, kuch, rizq, tajovuz ramzi va h.k.). Har bir til va madaniyatda somatik konseptlar alohida lakuna va semantik to'siqlarga ega bo'lishi, bir tilda mavjud, boshqasida yo'q bo'lishi mumkin. Shuningdek, konseptning tuzilishi va qiymati milliy va etnik tafakkur, axloqiy-estetik qadriyatlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

OLM til orqali inson va jamiyat dunyoni qanday tasavvur qilishi, klassifikatsiya qilishi va nomlashi, ya'ni konseptual modeli hisoblanadi. Somatik birliklar bu manzarada markaziy rol o'ynaydi. Har bir madaniyat va til uchun tana qismlari nomlari asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, lingvistik universal birlik sanaladi. Metaforik va ramziy semantikaga ega, uning estetik va axloqiy baholari, ya'ni *tana tuzilishi, hajmi, rangi, mutanosibligi, sog'lomlik, axloqiylik, obro'-e'tibor, vijdon* kabilar konseptual belgilar sifatida qo'llaniladi. Bu birliklarning lingvistik universalligi va milliy o'ziga xosligi shundaki, somatizmlar ham umumiy, ham milliy (etnospetsifik) xususiyatlarni mujassamlashtiradi. Qarishdosh bo'lmagan tillardagi somatik kodlar, ularning stereotiplari, ramzlari, arxetiplari lisoniy va madaniy tafovutlarni ko'rsatadi. Bir tilda mavjud bo'lgan ba'zi idiomatik birliklar boshqa tilda yoki bir tilning tarixiy va zamonaviy shakllarida yo'qligi yoki kamligi (assimetriya), shuningdek, somatik birliklarning turli madaniy dolzarblik darajasi (miqdoriy asimmetriya) ham lisoniy manzaraning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy kod – har bir xalq va madaniyatga xos bo'lgan belgilar va ma'nolar tizimi hisoblanadi. Somatik kod esa shu kod ichidagi inson tana qismlariga oid birliklar, ularning semantik, ramziy, estetik, axloqiy ma'nolaridir. Somatik konsept – bu koddagi asosiy birlik, uning o'ziga xosligi esa konseptual, ramziy, etalon va stereotipik mazmunda, milliy tafakkur va til manzarasini aks ettiradi. Shuningdek, somatik birliklar OLMda nafaqat fiziologik, balki madaniy, axloqiy, estetik, psixologik, sotsiokulturning asosiy mezonlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbek tilshunosligida somatik birliklarni alohida tadqiq etilgan ishlar yetarlicha emasligini yuqorida qayd etib o'tgandik. Ammo frazeologiyada bunday mazmundagi ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Frazemalarni tadqiq qilish somatik birliklardan boshlangan, ulardan ayri tadqiqot olib borish go'yoki mumkin emasdek. Sababi inson dunyoni o'z tanasi orqali ko'radi, his etadi. Uning tafakkuri o'z tanasi orqali shakllanadi va "tilga kiradi". Shuning uchun dunyo linsvistikasida ham, uning uzviy davomi bo'lgan o'zbek tilshunosligida ham

frazologik tadqiqotlarda somatik birliklar asosiy o'inni tashkil qiladi. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan tadqiqotlar mundarijasiga razm solsak, bevosita va bilvosita somatizmlar bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Y.Pinxasov [Pinxasov, 1953], Sh.Rahmatullayev [Rahmatullayev, 1966], E.Umarov [Umarov, 1968], O.Sh.Nazirova [Nazirova, 2004], A.Mamatov [Mamatov, 1991], B.Yo'ldoshev [Yo'ldoshev, 1993], X.Z.Alimova [Alimova, 2005] A.Isayev [Isayeva, 1976], Sh.Usmonova [Usmonova, 1998], U.Rashidova [Rashidova, 2023] kabi olimlarning ilmiy ishlari qaysidir ma'nodan daxldor sanaladi. *Ko'z, qo'l, bosh, yurak/ko'ngil, oyoq, yuz, til* kabi somatizmlar ko'chim va o'xshatish asosida somatik iboralarni yuzaga keltirishdagi ishtiroki tadqiq qilingan. Tadqiq obyekti ancha keng bo'lib, qadimgi turkiy til leksikasidan boshlab, zamonaviy milliy va badiiy til materiallarini qamrab olgan.

Tadqiqot. Biz tadqiqot uchun tanlab olgan tarixiy matnlarda somatik birliklarni ajratib oldik va ularni, dastlab, lingvostatik, qiyosiy va mazmuniy tahlil qilishga harakat harakat qildik.

1. Qadimgi bitiktosh matnlarida somatizmlar.

Tilimizning dastlabki yozma yodgorligi sanaladigan bitiktosh matnlarida ham somatizmlar qo'llanilgan. Ular bizga dastlabki OLM ko'rinishi qanday shaklda ekanligini dalillaydi. Manbalarning ma'lumot berishicha, ko'k turk bitiklarida 27 ta inson uzvlarining atamaları qo'llanilgan bo'lib, butun bitiktoshlarda 57 marta takrorlangan [Širin, 2020; 577-578]. Oradan 13-14 asr vaqt o'tgani bilan ularning fonetik shakli va semantik mazmunida deyarli o'zgarish kuzatilmagan. Ijtimoiy-siyosiy tizim, iqtisodiy ko'rsatgich, geografik o'rinlar va madaniy qiyofaning o'zgarishlariga, tashqi lisoniy va ijtimoiy-madaniy ta'sirlarga qaramasdan ayni shakl va mazmunni saqlab qolishi tilning tarixiy-tadrijiy taraqqiyotida milliy barqarorlik mavjudligidan dalolat beradi. Bular quyidagilar: *adaq – oyoq, arka – orqa, bag'ir – bag'ir, baš – bosh, bel – bel, bāñiz, boguz – bo'g'iz, but – but, ālig – qo'l, iç – ich, kaš – qosh, kol – qo'l, koy – qo'y(in), köz – ko'z, kulkak – quloq, öd – o't, saç – soch, sünük – suyak, taš – sirt, orqa, tü, uđlik, yañak – yanoq, yüräk – yurak, yüz – yuz, kan – qon, tär – ter, yaš – (ko'z) yosh*. Qiyosiy tahlildan ko'rinib turibdiki, toshbitiklarda qo'llanilgan somatik birliklar hozirgi o'zbek tilida, deyarli, o'zgarishsiz iste'mol qilinadi. Ayrim *koy, taš, tü, uđlik* kabi somatizmlar shaklan o'zgarishlar bilan qo'llaniladi. Jumladan, "*koy*" so'zi "*qo'yin*" shaklida; *uđlik-uđlik-uylik* kabi fonetik o'zgarishlar natijasida "*uyluk*" – "*boldir suyagi*" ma'nosida hozirgi turk tilida saqlanib qolgan, hozirgi o'zbek tilida qo'llanilmaydi. M.Koshg'ariyning "Devon"ida "*uđluq*" – "*bilak suyagining yo'g'on joyi*" ma'nosida; "*taš*" esa "*sirt*", "*orqa*" shaklida, ya'ni "*tash(qi)*" so'zining fonetik o'zgarishidan kelib chiqqan. Ammo "*tü*" somatizmining hozirgi fonetik shakli haqida manbalarda asosli fikrlar uchratmadik. Bitiktoshlar matnida berilgan somatik birliklarning asosiy qismi inson yuqori, bosh-bo'yin sohasi va tashqi qiyofasidan olingan. *Ich, o't, qon, yurak* kabi birliklar esa ichki organ nomlarini ifodalaydi, xolos. Hajmi kichik bo'lgan runik matnlarning aksariyati urush-yurishlar, g'alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar, xos shaxslar tavsifi bilan bog'liq faktologik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shunday bo'lsa-da, mavzumiz uchun yetarlicha misollar bor. Shuningdek, toshbitik matnlaridagi har bir so'z kabi somatik birliklar tilimizning eng qadimiy manbasi bo'lganligi bilan ham qimmatlidir. Qadimgi turkiy bitiktoshlarda inson tana a'zolarini ifodalovchi 27 ta asosiy birlik aniqlangan va ular jami 58 marotaba ishlatilgani qayd etilgan. Ushbu birliklar ko'pincha urush, jasorat va ijtimoiy maqom tasviri kontekstida qo'llangan. Matnlarda bu birliklarning nutqiy funksional yuklamasi, majoziy kengayishlari va ijtimoiy semantikasiga alohida e'tibor qaratilgan.

2. “Devonu lug’ati-t-turk”dagi somatik birliklar.

Turkiy xalqlarning umumiy lingvoensiklopedik madaniy yodgorligi hisoblangan “Devonu lug’ati-t-turk” (DTL) asarida ham somatizmlar yetarlicha ifodalangan va izohlangan. Boshqa tilni o’rgatishga ixtisoslashgan har qanday qo’llanma va leksikografik manba singari DLTda ham, avvalo, inson qiyofasini lisoniy aks ettiradigan so’zlar, jumladan, somatik birliklar ifodalanadi. Mahmud Koshg’ariy yuksak saviyadagi tilshunos sifatida tilimizda qo’llangan inson uzv nomlarini arabcha izohlashga harakat qilgan. Asarda 90 dan ortiq tana a’zosi nomlari keltirilgan bo’lib, ular aniq leksik va etnografik sharhlar bilan ta’minlangan [Koshg’ariy, 2017]. Bu birliklarning ko’plab shevalar va dialektlar bo’yicha variantlari ham ko’rsatib o’tilgan. M.Koshg’ariy nafaqat so’z ma’nolarini bergan, balki ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi rolini, majoziy o’zgarishlarini ham ochib bergan. Koshg’ariy qayd etgan uzv nomlari quyidagilar: *Yüz* – yuz; *yinj* – burun suvi; *yanhaq* – yanoq/milk; *tuluñ* – ko’z bilan quloq orasi; *tolas* yüz – yoqimsiz yuz; *art sač* – sochning orqasi; *til* – til; *qulaq* – quloq; *alın* – peshona, manglay; *ayız* – og’iz; *kepäk* – bosh kepagi; *ömgük* – bolalar boshidagi yumshoq joy; *közik* – gajak/kokil; *irin* – lab; *meñ* – yuzdagi xol; *burun* – burun; *qonrağū* – quloq ostidan chiqqan suyak; *bīdīq* – mo’vlov/miyiq; *tamğaq* – tamoq; *saqaq* – iyak; *bogus* – bo’g’iz, *ömgän* – gardan tomiri; *owruğ* – umurtqa suyagining bo’yinga tushgan joyi; *yun* – jigar yaqinidagi bezli go’sht; *yaqrī* – ichki yog’; *toş/töş* – to’sh; *böksäk* – bo’ksa; *bīqin* – biqin; *köküz* – ko’krak/ko’kay; *öz* – qorin qismidagi ichki a’zolar; *qoltīq* – qo’ltiq; *bel* – bel; *ičägū* – ko’krak suyagining ichki qismi; *emig* – ko’krak bezi; *eriñäk* – barmoq; *qudučaq* – quyruq/tos suyagi; *yuδruq* – kaft, shapaloq; *elig* – qo’l (o’ng qo’l); *biläk* – bilak; *boğim* – bo’g’im; *bağış* – bo’g’im, barmoq bo’g’imlari; *ernäk/erñäk* – barmoq; *yemdü* – son tuki; *aya* – hovuch/kaft; *ayaq/ađaq* – oyoq; *ađaq* – kaft; *avut/ađut* – hovuch; *yan* – sonning boshi; *uδluq* – bilak suyagining yo’g’on joyi; *tiz* – tizza; *tirñaq* – tirnoq; *söñük* – suyak; *sinir* – pay, tomir; *sīn* – gavda. qomat; *jijamuq* – jimjiloq yonidagi barmoq; *jijalaq* – jimjiloq; *mañiğ* – qadam; *egin* – elka, kift; *yīğaç* – erkak olati, *yaya* – dumba, *yamiz* – chov/but; *sökrük* va *tīlaq* – xotirlarning avrati; *teşük* – dabba; *taşaq* – tashoq; *sirt* – quyruq; *a:ğ* – chov/chot; *qabaq* – qabaq; *tamur* – ter. DLTdagi tasniflar va izohlar somatik birliklarning qadimgi turkiy xalqlar hayoti, madaniy qadriyatlar va axloqiy tushunchalarida o’rganilgan muhim komponentlar bo’lganini ko’rsatadi.

3. “Qutadg’u bilig” asaridagi organ nomlari lingvostatistikasi va konseptual xususiyatlari.

XI asr turkiy xalq tarixida o’chmas iz qoldirgan davrlardan biri sanaladi. Islomiy qadriyatlar jamiyat hayotiga chuqur kirib borayotgan davr sifatida qayd etiladigan qoraxoniylar davrida yozma adabiyot yetarlga taraqquy topib bordi. Ilk badiiy, didaktik asar sifatida baholanadigan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari masnaviy usulida yozilgan, davlat boshqaruvi uchun qo’llanma bo’lgan, majoziy obrazlar ishtirok etgan yozma yodgorlik hisoblanadi. She’riy usulda yozilgan ushbu manbada 60 yaqin somatik birliklar qo’llanilgan bo’lib, o’z ma’nosidan tashqari, ko’chma, majoziy ma’noda ham ifodalangan o’rinlari mavjud [Sodiqov, 2020]. Ular quyidagilar: *adaq* – oyoq; *ayız* – og’iz; *aya* – kaft; *alın* – manglay, peshona; *awuč* – hovuch; *bayir* – bag’ir; *baş* – (1) bosh, (2) tepa; *boδ* – bo’y, qomat; *boyuz* – bo’g’iz, tomoq; *boyun* – bo’yin; *burun* – burun; *bükri* – bukri; *elig* – qo’l; barmoqlar; *elig-köz* – qo’l-ko’z; (ko’chma ma’noda: yo’l va amal); *eñ* – yuz, yanoq; *ič* – ich; *yarın* – yag’rin, yelka; *yaş* – yosh, ko’z yoshi; *yüräk* – yurak; *qalb*; *yüz* – yuz; *köküz* – ko’krak; *könül* – ko’ngil; *köz* – ko’z; *köz-qulaq* – ko’z-quloq; *meñä* – miya, (ko’chma ma’noda aql-nasihat); *meñiz* – yuz; chehra; *ög* – aql; *öñ* – rang, tus; *qan* – qon; *qanat* – qanot; *qaraq* – qaroq, ko’z; *qarın* – qorin; *qaş* – qosh; *qil* – qil; tuk. *qulač*

– quloq; *qulaq* – quloq; *qulaq-köz* – quloq-ko‘z (juft); *sač* – soch; *sač-saqal* – soch-soqol (juft); *saqal* – soqol; *söñük* – so‘ngak, suyak; *süt* – sut; *tarmaq* – panja, tirnoq.

4. “*Tarjumon*” leksikografik manbasidagi samatik birliklar.

“*Tarjumon* turkiy va ajamiy va mo‘g‘ali” – XIV asrda arab tilida yozilgan filologik lug‘at bo‘lib, turkiy, fors (ajamiy) va mo‘g‘ul tillarini o‘rgatishga mo‘ljallangan muhim manba hisoblanadi. Asarning to‘liq nomi “Kitob majmua tarjuman turkiy va ajamiy va mo‘g‘uliy (va forsiy)” bo‘lib, u arab tilida so‘zlashuvchilar uchun turkiy tillarni, ayniqsa, mamluk-qipchoq tilini o‘rganish uchun yaratilgan. Uzoq yillar davomida bu kitobning muallifi va yozilgan sanasi aniq bo‘lmagan. “*Tarjuman*”ning yozilgan sanasi 1894-yilda Martin Xautsma tomonidan milodiy 1245-yil deb belgilangan edi. Ammo oradan yetmish yil o‘tib, nemis tilshunosi Barbara Flemming uzoq izlanishlardan so‘ng kitob 1343-yil 25-yanvarda yozib tugallanganligini aniq hisoblab chiqib, e‘lon qildi [Flemming, 1968]. Lug‘at to‘rt asosiy qismdan iborat: “Faqat ismlar haqida”, “Fe‘l masdari va buyruq mayli haqida”, “So‘zlarning turlanishi va fe‘llarning tuslanishi haqida”, “So‘zlarning ishlatilishi va boshqa muhim narsalar haqida” [Bo‘ronov, 2023].

Ushbu qimmatli manbaning “Faqat ismlar haqida”gi bobi 26 fasldan iborat bo‘lib, uning 16-faslida biz tahlil qilayotgan inson uzv nomlari o‘rin olgan. To‘g‘ri, fasl “Inson qiyofasi, uning tashqi va ichki a‘zolari haqida” deb nomlanganga ko‘ra, unda boshqa atamalar ham mavjud. Ammo somatik birliklar ham yetarlicha ifoda etilgan. Asar Saljuqiylar hukmronligi davrida Misr yoki Suriyada yozilgan deb qaraladi. Bilamizki, lug‘at yaratilgan davrda bu hududlarda barcha turkiy qavmlar istiqomat qilgan va ular o‘z tilini arablarga o‘rgatish uchun yozilgan. Asarda turkiy tillarning, ayniqsa, qipchoq, o‘g‘uz va turkman lahjalarining leksik va grammatik xususiyatlari aks ettirilgan. Bu lug‘at arab tilida yozilgan bo‘lib, turkiy tillarni o‘rgatish va ularning leksik boyligini o‘rganish hamda targ‘ib qilish uchun muhim manba hisoblanadi. Kitobda 92 ta inson organi atamalari keltirilgan bo‘lib, nafaqat, organ nomlari, balki, ularning qismlari, ichki va tashqi qiyofalarining ham nomlari sanab o‘tilgan va izohlangan [Tarjumon, 1980]. Ular quyidagilar: *us* – aql; *boyi* – bo‘y, qad, qomat; *meniz-yuz* qiyofasi; *baš* – bosh; *täbä* – boshning old qismi; *äñsä* – engsa, boshning orqa qismi; *sač* – soch; *telij* – chakka; *qulay* – quloq; *alın* – manglay; *qaš* – qosh; *köz* – ko‘z; *kirfik* – qovoq; *kärpik* – kiprik; *qiriγ* – qorachiq; *burun* – burun; *ökin* – og‘iz; *ärän/irin* – lab, dudaq; *tamaq* – tamoq; *tış* – tish; *aziγ* – ozig‘ tish; *yañaq* – yanoq; *sayaq* – baqbaqa; *saqal* – soqol; *büyik* – mo‘ylov; *yüz* – yuz; *boyaz* – bo‘g‘iz; *boyun* – bo‘yin; *iyin* – yelka; *omuz* – o‘muz; *yayran* – kurak; *qoltuq* – qo‘ltiq, *qol* – qo‘l; *čiqanaq* – tirsak; *biläk* – bilak; *aya* – oya/kaft; *yurmaq* – musht; *barmaq* – barmoq; *ulu barmaq* – bosh barmoq; *soq barmaq* – ko‘rsatish barmog‘i; *orta barmaq* – o‘rta barmoq; *adsiz barmaq* – nomsiz barmoq; *čičalaq* – jimjiloq; *tirnaq* – tirnoq; *boyun* – bo‘g‘in; *il* – qo‘l; *qulač* – quloq; *qariš* – qarich; *dös* – to‘sh/ko‘krak; *qarın* – qorin; *arqa* – orqa; *yan* – yon; *äyäk* – qovurg‘a; *kündük* – kindik; *tılaq* – tilliq; *kit* – ket/orqa; *qušaq* – quchoq; *but* – son; *tiz* – tizza; *baltar* – boldir; *yünčük* – boldir boshi; *ašyaq* – tizza paylari; *tabuq* – to‘piq; *ökča* – tovon va barmoqlar yuqori qismi; *taban* – tavon; *ayaq* – oyoq; *adim* – odim; *bayin* – miya qatig‘i; *yaš* – ko‘z yoshi; *sämük* – mishiq; *yar* – so‘lak; *bayir* – jigar; *üygä/üygän* – o‘pka; *yüräk* – yurak; *könül* – ko‘ngil; *bayirsaq* – ichak; *bügräk* – buyrak; *talaq* – taloq; *öt* – o‘t safrosi; *tamar* – tomir; *sinir* – pay/asab; *sünür* – suyak; *sidik* – siydik; *tär* – ter; *gävdä* – jussa; *kökräk* – hok/murda. Ko‘rinib turibdiki, “*Tarjumon*” lug‘atida tanlab tahlilga tortganimiz boshqa manbalardan farqli ravishda somatizmlar ko‘proq ifodalangan.

Shu o‘rin ta’kidlab o‘tish lozimki, biz tadqiqot uchun tanlagan to‘rt manba ham qadimgi va eski deb tasniflanadigan tilimiz tarixidagi muhim tarixiy lisoniy yozma obidalar sanadi. O‘zbek tili tarixiy tadrijiy takomilida “chig‘atoy davri” deb yuritiladigan Alisher Navoiy davri alohida o‘rin tutadi. Mavzu yuzasidan “chig‘atoy davri somatizmlari” haqida ham ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tishni joiz topdik. Zero bu inson uzv nomlarining tarixiy matnlardagi tematik va statistik o‘rni, uning vazifalari va lisoniy ko‘lamini belgilashda, mavzu bo‘yicha o‘quvchining tasavvurini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida A. Navoiyning “Navodur ush-shabob” devonida organ nomlari bilan shakllangan frazemalar soni 234 ta ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, *bosh* so‘zi bilan shakllangan 47 ta, *ko‘ngil* so‘zi bilan shakllangan 55 ta, *ko‘z* so‘zi bilan shakllangan 44 ta, *yuz* so‘zi bilan shakllangan 19 ta frazemalar son ortiqchaligi va ular qamrab olgan tushunchalarning xilma-xilligi bilan e’tiborni tortadi [Akman, 2024]. Ko‘rinib turibdiki, Navoiy asarlari tilida ham somatizmlar yetarlicha qo‘llanilgan. Ularni alohida tadqiqot sifatida o‘rganish tilshunoslik fani uchun samarali natijalarga olib keladi.

Muhokama. Bitiktosh matnlarida 27 dona somatik birliklar qo‘llanilganini yuqorida qayd qilib o‘tdik. Ulardan: *arka* – orqa, *bag‘ir* – bag‘ir, *baš* – bosh, *bel* – bel, *boguz* – bo‘g‘iz, *but* – but, *ič* – ich, *kaš* – qosh, *kol* – qo‘l, *sač* – soch, *köz* – ko‘z, *yüräk* – yurak, *yüz* – yuz, *kan* – qon, *yaš* – (ko‘z) yosh kabi birliklar 7-8 asrlarda ham, 11-12-asrlarda ham, hozir ham birin bir o‘zgarishsiz qo‘llanib kelinmoqda.

Quloq atamasining lisoniy tarixi boshqacharoq. Ya’ni bitiktoshlarda biroz fonetik o‘zgarish bilan ifodalangan: *kulkak/qulay/qulqaq*. Ammo bu somatik birliklarning tarixiy-lisoniy tadriji hozirgi shaklidan farq qilmaydi. “Devon” va “Qutadg‘u bilig” da ham, “Tarjumon”da ham *qulaq/kulak* shaklida qo‘llaniladi.

Burun somatik birligi bitiktosh matnlarida ifodalanmagan. Ammo u davr qo‘llanilmagan degani emas. Qanday shaklda ifodalanganligi haqida bitiktoshlardan ma’lumot topilmaydi, xolos. Koshg‘ariy lug‘atida hozirgi shakldagi *burun* va boshqa manbalarda qo‘llanilmagan *yin*, ya’ni *burun suvi* ma’nosi shu atama ishlatilgan.

Turkiy tillarning tarixiy rivojlanishida fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘lib, ayrim tovushlar o‘zgarishiga qarab olimlar davrlarni belgilaydi. *D-δ-Z-Y* kabi tovush o‘zgarishlari somatik birliklarning ham rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib beradi: *adaq-ađaq(γ)-azaq(γ)-ayaq(γ)-oyoq*. Bitigtosh matnlari va DLTda *adaq*, “Qutadg‘u bilig”da *ayaq*, *ađaq*, “Tarjumonda” *ayaq* ko‘rinishida keltirilgan.

Tamoq organining nomi tadqiq qilayotgan manbalarimizda *tamaq* – *tamyaq* shaklida ifodalangan. DLTda *tamyaq* ko‘rinishda berilgan bo‘lib, bizningcha, lug‘at yaratilgan davrda fonetik sinonim shaklida birga ishlatilgan. Shuningdek, *bo‘g‘iz* ma’nosida ham qo‘llanilgan.

Yurak uzv nomi sifatida, biz ko‘rib chiqayotgan 3 ta manba keltirilgan bo‘lib, negadir, “Devonu lug‘ati-t-turk” da ifodalanmagan. Somatik frazeologizmlarni hosil qiluvchi bu birlik *ko‘ngil* so‘zi bilan parallel ravishda qo‘llaniladi. *Yurak* atamasi bilan bir qatorda *ko‘ngil* somatik birligi ham DLTda, shuningdek, bitigtosh matnlarida uchramaydi. Ammo “Devon” bilan bir davrda yaratilgan “Qutadg‘u bilig” asarida, shuningdek, XII asrda yozilgan deb qaraladigan “Tarjumon”da bu birlik qayd etilgan. *Yurak* nafaqat fiziologik, balki ruhiy markaz sanaladi. Bu madaniy kodlash orqali somatizm konseptlari o‘zlashtirilganligi va ularning inson ongida qanday talqin etilishini ko‘rsatadi. *Yurak* – sevgi, qo‘rquv, rahm-shafqat kabi hissiy holatlar

bilan bog'liq, *bosh* esa tafakkur, fikr, aql bilan. Bu hodisalar qadimgi turkiy matnlardagi konseptual yondashuvlar bilan uzviy bog'lanadi.

Koshg'ariy "Devon"ida bitigtoshlardan farqli ravishda 55 donadan ziyod somatizmlar qayd etilgan: *tuluḡ* – ko'z bilan quloq orasi; *tolas* yüz – yoqimsiz yuz; *art sač* – sochning orqasi; *alın* – peshona, manglay; *ayız* – og'iz; *kepäk* – bosh kepagi; *ömgük* – bolalar boshidagi yumshoq joy; *köžik* – gajak/kokil; *irin* – lab; *meḡ* – yuzdagi xol; *qoḡraḡu* – quloq ostidan chiqqan suyak; *bīdīq* – mo'vlov/miyiq; *tamḡaq* – tamoq; *saqaq* – iyak; *bogus* – bo'g'iz, *ömgän* – gardan tomiri; *owruḡ* – umurtqa suyagining bo'yinga tushgan joyi; *yun* – jigar yaqinidagi bezli go'sht; *yaqrī* – ichki yog'; *toš/töš* – to'sh; *böksäk* – bo'ksa; *biqin* – biqin; *köküz* – ko'krak/ko'kay; *öz* – qorin qismidagi ichki a'zolar va boshqalar.

DLTning biz o'rganayotgan boshqa manbalardan bir necha farqli tomonlari mavjud. **Birinchidan**, somatik birliklarning ifodalanishida bir necha variantlar keltirilgan: *yuḡruq* – kaft, shapaloq; *aḡaq* – kaft; *aya* – hovuch/kaft, *boḡim* – bo'g'im; *baḡış* – bo'g'im, barmoq bo'g'implari va hokozolar. **Ikkinchidan**, inson ichki organ nomlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Jumladan, *yaqrī* – ichki yog'; *öz* – qorin qismidagi ichki a'zolar; *ičägü* – ko'krak suyagining ichki qismi kabi. **Uchinchidan**, lug'atda uzvlarning qismlariga ham e'tibordan chetda qolmagan. Misol uchun *eriḡäk/ernäk/erḡäk* – barmoq; *yuḡruq* – kaft, shapaloq; *elig* – qo'l (*oḡ elig* – o'ng qo'l); *biläk* – bilak; *boḡim* – bo'g'im; *baḡış* – bo'g'im, barmoq bo'g'implari; *ernäk/erḡäk* – barmoq; *aya* – hovuch/kaft; *avut/aḡut* – hovuch, *uḡluq* – bilak suyagining yo'g'on joyi; *tiz* – tizza; *tirḡaq* – tirnoq; *söḡük* – suyak, *siḡir* – pay, tomir; *jījumuq* – jimjiloq yonidagi barmoq; *jījalaq* – jimjiloq kabilar shular jumlasidandir. Bunday holatni "Tarjumon" asarida ham uchratish mumkin. Masalan, qo'l va uning qismlari nomlar to'liq keltirilgan: *yayran* – kurak; *qoltuq* – qo'ltiq, *qol* – qo'l; *čīqanaq* – tirsak; *biläk* – bilak; *aya* – oya/kift; *yurmaq* – musht; *barmaq* – barmoq; *ulu barmaq* – bosh barmoq; *soq barmaq* – ko'rsatish barmog'i; *orta barmaq* – o'rta barmoq; *adsiz barmaq* – nomsiz barmoq; *čičalaq* – jimjiloq; *tirḡaq* – tirnoq; *boyun* – bo'g'in; *il* – qo'l; *qulač* – quloq; *qarış* – qarich. Buni har ikkala asar ham maxsus lug'at ekanligi bilan izohlash mumkin. Mualliflar o'z davri til jamiyatida mavjud bo'lgan barcha somatizmlarni qayd etishga harakat qilgan.

Koshg'ariy "Devon"ining yana bir – **to'rtinchi** farqli tarafi shundaki, olim, "shariatda sharm yo'q" iborasiga tayanib, tabulashgan, sleng somatik birliklarni ham o'z lug'atida batafsil sharhlagan. Ilmiy jamiyat esa bu masalaga boshqacharoq yondashadi. Aslida, inson jinsiyati nomlari somatizmlar tarkibida kichik guruhni tashkil qiladi. Bu guruh nomlari ikkilamchi somatik birliklarning birlamchi ko'rinishi bo'lib, "pardalash" orqali sleng birliklarga aylantiriladi. Birlamchi birliklarning metaforalashgan ikkinchi nom bilan atalishi jamiyatning diniy, madaniy-tarbiyaviy statusiga bog'liq. DLTda bunday 10 dan ortiq "pardalanmagan" somatizmlar qo'llanilgan. Buni Koshg'ariyning "o'z davri tilida mavjud bo'lgan barcha birliklarni boshqa (asosan, arab) tilli jamoalarga o'rgatish va kelajak avlodga yetkazish" maqsadini to'g'ri "tushunamiz".

Ilk badiiy asar sifatida baholanadigan "Qutadg'u bilig"da qo'llaniladigan somatizmlarning xarakterli xususiyatlari quyidagicha: 1. Asardagi inson uzvi nomlari o'z ma'nosi bilan birgalikda ko'chma ma'noda, frazeologizm va boshqa turg'un birliklar tarkibida ham qo'llanilgan bo'lib, o'ziga xos badiiyatni ifodalash uchun xizmat qilgan. Masalan: **Elig qaršu tut sen, adaqin tüzä//Bu oḡ elḡini ur sol elḡin üzä** (*Sen qo'lni qovushtirib tut, oyoqlaringni to'g'irla//O'ng qo'lingni so'l qo'ling ustiga qo'y*) baytida *elig* – qo'l, *adaq* – oyoq, *oḡ elig* – o'ng

qo'l, *sol elig* – chap qo'l somatizmlari metaforik mazmunda qo'llanilib, ma'lum bir badiiy yukni olgan. Asarda, biz tekshirayotgan boshqa manbalarda uchramaydigan holat, ya'ni somatik birliklar juft holatda ifodalangan. Jumladan, *elig-köz* – qo'l-ko'z, ko'chma ma'noda yo'l va amal; *köz-qulaq* – ko'z-quloq; *sač* – soch; *sač-saqal* – soch-soqol; *qulaq* – quloq; *qulaq-köz* – quloq-ko'z va boshqalar. Muallif asarni yaratish tilimizning barcha badiiy-tasviriyo vositalaridan mahorat bilan foydalangan. XI asr materiali bo'lgan ayrim iboralar, jumladan, somatizmlar ishtirok etgan iboralar hozirgi tilimizda ham o'zgarishsiz qo'llanib kelinmoqda. Misol uchun, *ko'z-quloq bo'lmoq* iborasi.

Somatik birliklar konseptual mazmunga ega bo'lgan lisoniy birliklar sifatida nafaqat fikrni, balki milliy dunyoqarashni ham aks ettiradi. Inson tana a'zolari orqali ifodalangan iboralar, maqollar, frazeologik birliklar zmirida butun bir etnosning qadriyatlarini, axloqiy mezonlarini, hissiy holatlarini mujassam.

Soma-tizm	Lingvokulturologik sharh	Kognitiv/metaforik tafsir	Misol/ibora
<i>Yuz</i> (yüz)	O'zbek xalqida yuz – or, nomus, sha'n, obro', insoniylik ramzi. "Yuzini yo'qotdi", "yuz ko'rsatdi". Madaniyatda ochiq yuzli – halol, sadoqatli kishi.	Yuz – ijtimoiy identifikator, inson ruhiyatining ko'zgusi.	<i>Yuzim yorug'; yuziga tik qarash</i>
<i>Ko'z</i> (köz)	Diqqat, ziyraklik, ko'ruv ramzi. "Ko'zi ochiq", "ko'zi quvonmoq", "ko'z tekkizish" iboralarini madaniyatda xavf, xayrixohlik, diqqat ramzi.	Idrok va tafakkur markazi; emotsionallik.	<i>Ko'zi ochiq bola; ko'z tegdi</i>
<i>Til</i>	Nutq, so'z, do'stlik, iliqlik, hamjihatlik ramzi. "Til topishmoq", "tili achchiq". Til – xalqaro muloqot, axborot uzatish, madaniyat shakllantirish vositasi.	Kommunikatsiya, tafakkur va madaniy xotira vositasi.	<i>Tili shirin; til topishdi</i>
<i>Quloq</i>	Diqqat, e'tibor, bilim va ogohlik ramzi. "Quloq tutmoq", "qulog'i ostidan gapirmoq", "quloq solmoq" madaniy ahamiyatga ega.	Eshitish, axborot qabul qilish, ogohlik.	<i>Quloq tutdi; quloqqa chalingan</i>
<i>Burun</i>	Fidokorlik (burni yerga tekkuncha), o'zini baland tutish (burni baland), jamiyatda munosabat.	O'zlik, or, ijtimoiy pozitsiya.	<i>Burni baland; burni yerga tekkuncha</i>
<i>Lab</i> (irin)	Shirinso'zlik, samimiyat, iliqlik va go'zallik ramzi. "Labi shirin", "labidan gul to'kildi".	So'z va tabassum, insoniylik belgisi.	<i>Labidan gul to'kildi</i>
<i>Qo'l</i> (elig)	Mehnat, yordam, baraka, saxiylik. "Qo'li ochiq", "qo'li uzun", "qo'l uzatmoq". Madaniyatda faoliyat va kuch ramzi.	Harakat, faoliyat, yordam, saxiylik markazi.	<i>Qo'li ochiq; qo'li uzun</i>
<i>Oyoq</i> (ayaq, ađaq)	Baraka, harakat, himoya, muqaddaslik (oyoq osti). "Oyoq osti qilmoq", "oyog'i yengil".	Harakat va mustahkamlik ramzi.	<i>Oyoq osti qilmoq; oyog'i yengil</i>
<i>Yurak</i>	Jasorat, sadoqat, insoniylik, muhabbat. "Yuragi orasta", "yuragi katta".	Emotsiya, hissiyot va jasorat markazi.	<i>Yuragi orasta; yuragi katta</i>

<i>Bosh</i>	Rahbarlik, ustuvorlik, asosiylik. “Bosh ko’tarmoq”, “bosh egmoq”. Bosh milliy an’anada peshqadamlik, yetakchilik belgisi.	Yetakchilik, qaror, tafakkur.	<i>Bosh ko’tardi; bosh egdi</i>
<i>Soch</i> (saç)	Go’zallik, baxt, o’sish va umr belgisi. “Soch oqaribdi”, “sochini yulmoq”.	Hayotiy kuch, o’sish ramzi.	<i>Sochi oqaribdi</i>
<i>Tirnoq</i> (tırnıaq)	Noziklik, holsizlik (tirnog’i ham battar), yomonlik (tirnog’ini ko’rsatdi).	Nozik detal, himoya va agressiya.	<i>Tirnog’ini ko’rsatdi</i>
<i>Jigar</i> (yuň)	Samimiyat, do’sstlik, yaqinlik ramzi. “Jigarband”, “jigarim”.	Muhabbat, yaqinlik, ruhiy markaz.	<i>Jigarim deydi; jigarband</i>
<i>Kaft</i> , hovuch (aya)	Baxt, baraka, mehnat. “Kaft ochmoq” (duo qilish), “hovuch-hovuch” (ko’p, serob).	Mo’jiza, baraka.	<i>Kaft ochdi; hovuch-hovuch berdi</i>
<i>Barmoq</i> (ernäk)	Xatolik (barmog’ini tishlamoq), ko’rsatish (barmoq bilan ko’rsatmoq), hissiy ifoda.	Tanlash, ko’rsatkich, afsus.	<i>Barmog’ini tishladi</i>
<i>Elka</i> (egin)	Og’irlik, yordam, bardavomlik ramzi. “Elkasiga og’irlik tushdi”.	Tashuvchi kuch, mas’uliyat.	<i>Elkasiga yuk tushdi</i>
<i>Bel</i>	Baquvvatlik, kuch, irodalilik. “Belini mahkam bog’lamoq” (ishga kirishish, harakat).	Irodaviy kuch, harakat manbai.	<i>Bel bog’lamoq</i>
<i>Suyak</i> (söňük)	Asl nasl, kuch, baquvvatlik, muqaddaslik (suyagi bor – naslli, ildizli).	Nasl-nasab, kuch manbai.	<i>Suyagi bor bola</i>

Yuqorida keltirilgan manbalarda, u qanday xarakterdagi manba bo’lishidan qat’iy nazar, eng ko’p ishlatilgan birliklar orasida *bosh*, *ko’z*, *qo’l*, *oyoq*, *yurak*, *qon*, *ich*, *bel* kabi nomlar mavjud bo’lib, ular tashqi idrok va ichki kechinmalarni aks ettirishda xizmat qilgan. Somatik birliklar qadimgi jamiyat tafakkurining asosiy qismini tashkil etib, til va madaniyat orasidagi ko’prik vazifasini bajargan. Nutqiy tezlik va kollokatsion holatlar, ayniqsa, *bosh*, *ko’z*, *qo’l* kabi birliklarning metaforik ma’nolar hosil qilish qobiliyati yuqori bo’lgan. Fonetik va semantik barqarorlik: bitiktoshlardagi somatik birliklar zamonaviy o’zbek tilidagi shakllar bilan fonetik jihatdan deyarli o’zgarishsiz saqlangan. Bunda faqat ayrim fonetik yangilanishlar, masalan, fonemik almashtirishlar, bo’g’in qisqarishi kabi hodisalar kuzatilgan. Semantik jihatdan esa, asosiy asos – inson tajribasi va tana idrokining lisoniy ifodasi – barqaror qolgan. Tilning tarixiy qatlamlarida ushbu birliklarning asosiy g’oyaviy va madaniy semantikasining deyarli o’zgarishsiz saqlanishi aniqlangan. Fonetik o’zgarishlar ko’proq tabiiy rivojlanish natijasi sifatida ko’riladi, bu esa qadimgi va zamonaviy til o’rtasidagi bog’liqlikni mustahkamlab turadi.

Hozirgi o’zbek adabiy tili va shevalarida qadimgi somatik birliklar faol ravishda qo’llanmoqda, ularning semantik diapazoni esa kengayib, yangi frazeologik, stilistik va konseptual ma’nolar hosil qilmoqda. Misol uchun, *qo’l* so’zi o’z ma’nosi bilan bir qatorda “*yordam*”, “*qudrat*”, “*ta’sir*” kabi, “*uning qo’li bor*” ko’chma ma’nolarda ham ishlatiladi. Bu holat tilning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida somatik birliklarning barqaror semantik yadrosi va keng metaforik salohiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Natijalar. Quyidagilarni alohida ta’kidlash lozim:

1. Somatik birliklar xalq tafakkurida va til tizimida qadimdan muhim o’rin tutib kelgan. Ular orqali inson dunyoni o’z tana tuzilishi va tajribasi asosida qabul qiladi va ifodalaydi.

Bu birliklar nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya va sotsiologiya nuqtai nazaridan ham qimmatli tadqiqot obyektlaridir [Usmanova, 2019]. Qadimiy manbalardagi somatik birliklarning ko'pligi va barqarorligi o'z davrining madaniy va ijtimoiy strukturasini aks ettirgan. Har bir somatik atama ma'lum bir konseptual tizimda ishlatilgan, bu esa til-madaniyat-ong birligini yaqqol namoyon etadi.

2. Somatik birliklarning semantik barqarorligi ularning asosiy konseptual tabiatidan kelib chiqadi. Fonetik o'zgarishlarga qaramay, asosiy semantik yuklama va madaniy ahamiyat saqlanib qolgan. Zamonaviy tilda ayrim somatik birliklar majoziy va ekspressiv ma'nolar bilan boyigan, bu esa tilning rivojlanish mexanizmlaridan biri sifatida ko'riladi. Bu jarayon tilning dinamik tabiatini, shu bilan birga, qadimiy asoslarning tiriklik darajasini ham aks ettiradi.
3. Somatizmlar kognitiv va lingvokulturologik yondashuvda, ya'ni inson tanasi tasvirlari dunyoni tasavvur qilishda va qadriyatlar tizimini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. *Bosh* – yuqorilik, *oyoq* – pastlik, *yurak* – markaziy qadriyat va hissiyot manbai sifatida qadrlangan [Maslova, 2001]. Somatik birliklar xalq ongining asosiy semantik maydonlarini belgilab beradi. Til va madaniyat uyg'unligi ushbu birliklarning tasviriy va emotsional kuchini oshirib, ularni universal lisoniy konseptlar darajasiga olib chiqadi.
4. Tadqiqotning cheklovlari va istiqbollari: qadimgi turkiy obidalaridagi somatik birliklar faqat tashqi a'zolar doirasida cheklangan bo'lsa-da, ichki a'zolar, tana funksiyalari va hissiy qiyosiy modellarni tadqiq qilish kelajakda lingvokulturologik va kognitiv tadqiqotlar uchun yangi ufqlar ochadi. Somatik birliklarning shevalarda va boshqa turkiy tillardagi evolyutsiyasi qiyosiy tahlil qilishni talab qiladi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi, afsonalar va diniy matnlardagi somatik birliklar bo'yicha alohida tadqiqotlar zarur.

Xulosalar.

1. Bitiktosh matnlarida, ilk badiiy asar sanaladigan "Qutadg'u bilig"da hamda tarixiy lug'atlar hisoblanadigan "Devonu lug'atit-t-turk" va "Tarjumon"da qayd etilgan somatik birliklar o'zbek tilining qadimgi va barqaror tarixiy qatlamlarini ishonchli aks ettiradi.
2. Somatik birliklar tilning faqat leksik jihatini emas, balki xalq tafakkuri, madaniy qadriyatlari va konseptual tasavvurlarini ham yoritadi. Zamonaviy o'zbek tili va shevalarida somatik birliklarning faol saqlanishi va rivojlanishi tilning tarixiy barqarorligi va madaniy davomiyligini tasdiqlaydi. Xalq tafakkurida barqaror saqlanib kelayotgan bunday birliklar milliy madaniy kodni shakllantirib, turg'un, frazeologik birliklar hosil qilishda ahamiyati beqiyos.
3. Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, ayniqsa, somatik birliklarning semantik va frazeologik tizimidagi barqaror ifodasida o'z aksini topadi. Somatik birliklarni lingvokulturologik va kognitiv nuqtai nazardan o'rganish til tarixini, xalq tafakkurini va madaniy o'ziga xoslikni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, xalq ongida uzliksiz yashab kelayotgan somatizmlar inson tafakkuri va dunyoqarashini beqiyos ahamiyatidan tashqari, lingvomadaniy va lingvokognitiv tadqiqotlarga katta ilmiy-lisoniy material bo'la oladi.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Jerebilo T.V. Slovar lingvisticheskix terminov i ponyatiy. Izd. 6-e, ispr. i dop. – Nazran: Pilgrim, 2016. – 610 s.

2. Krasnix V. V. Etnopsixolingvistika i lingvokulturologiya: Lektsionno'y kurs. -Moskva: Gnozis, 2002. 284 s.
3. Pinxasov Y.D. Frazeologicheskie vo'rajeniya v yazo'ke proizvedeniy Xamida Alimdjana: AKD, -Toshkent, 1953. – S.19.
4. Rahmatullaev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. –Toshkent: Fan, 1966. -B.145.
5. Umarov E.A. Leksiko-grammaticheskaya xarakteristika frazeologizmov divana «Xazoyin-ul-maoniy» A.Navoi: AKD. –Leningrad, 1968. – S.19.
6. Nazirova Sh.O. Semanticheskaya struktura i sochetaemost somatizmov v angliyskom, uzbekskom i russkom yazo'kax. Dis...kand. filol.nauk. –Tashkent, 2004. –S.145.
7. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. –Toshkent, 1991.–B.207-272.
8. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan.dok. diss... Toshkent, 1993.
9. Alimova X.Z. Dariy tilida somatizmlarning struktur va semantik tasnifi. Filol. fan.nom. diss.... Toshkent, 2005. –B. 139.
10. Isaev A. Somaticheskie frazeologizmo' uzbekskogo yazo'ka. Dis...kand. filol. nauk. Tashkent, 1976. – S.196.
11. Usmonova Sh.R. O'zbek va turk tillarida somatik iboralar. Filol. fan.nom. diss... Toshkent, 1998.–B.162.
12. Rashidova U. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (*ko'z, qo'l* va *yurak* komponentli iboralar misolida). Monografiya. -Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. – 144 bet.
13. Şirin H. Eski Türk Yazıtları Söz Varlığı İncelemesi. TDK yayınları. Ankara, 2020. -750 S. (B.577-578).
14. Koshg'aiy M. Devonu lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni, nashrga tayyorlovchi Q.Sodiqov), -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2017. -488 b.
15. Sodiqov Q. "Qutadg'u bilig" so'zligi. -Toshkent: Akademnashr, 2020. -304 b.
16. Flemming B. Ein alter Irrtum bei der chronologischen Einordnung des Tarğumān turkīwa 'ağamī wa muğalī // Der Islam, № 44, 1968: 226–229.
17. Bo'ronov A. "O'zbek adabiy tiliga ba'zi so'zlar noto'g'ri qabul qilingan" – XIV asrda uch qit'a so'zlashgan turkiy tilning yozma manbasi "Tarjuman" tahlili. https://oyina.uz/uz/article/1851?utm_source=chatgpt.com
18. "Tarjumon" XIV asr yozma obidasi. -Toshkent: Fan, 1980. 128 b.
19. Akman H. Alî Şîr Nevâyî'nin Nevâdirü'sh-Şebâb'ında Organ İsimleriyle Kurulan Deyimler Üzerine Bir İnceleme. <http://dergipark.gov.tr/aicusbed> 10/1 Nisan/April 2024.
20. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent, 2019.
21. Маслова В.В. Лингвокультурология: учебное пособие. -Moskva: Akademiya, 2001.
22. Гудков Д.Б., Ковшова М.Л. Телесный код русской культуры. -Moskva: Гнозис, 2007.
23. Гак В.Г. Языковые преобразования. -Moskva: Школа Языки русской культуры, 1998. –С.702.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE RENDERING OF PHRASES IN TRANSLATIONS OF MUHAMMAD YUSUF'S POEMS (ON THE EXAMPLE OF THE EPIC POEM "THE OLD WELL")

Eshboeva Matluba

PhD student at NukusSPI

Abstract. This article analyzes how the phrases in Muhammad Yusuf's epic poem "The Old Well" were translated into the Karakalpak language, the translator's achievements and shortcomings, and the correct or incorrect use of the phrases.

Keywords: translation, translator, phrase, explanation, analysis.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARI TARJIMALARIDA IBORALARNING BERILISHI ("KO'HNA QUDUQ" DOSTONI MISOLIDA)

Yeshboyeva Matluba

NukusDPI doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Yusufning "Ko'hna quduq" dostonida keltirilgan iboralar qoraqalpoq tiliga qay tarzda tarjima qilinganligi, tarjimonning yutuq va kamchiliklari, iboralarning to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarjima, tarjimon, ibora, izoh, tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N44>

Jahon miqyosida xalqlar orasidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar rivojlanishida adabiyotning ham o'rnini alohida ta'kidlash zarur. Adabiyotni esa badiiy tarjimasiz rivojlanishini tasavvur etish qiyin. Har bir xalqning rivojlanishida badiiy tarjima katta rol o'ynaydi. Xalqlar orasidagi katta do'stlik bo'lmish tarjima ishlarining boshlanishi uzoq muddatlarga borib taqaladi. Tarjima ishlari chet tillardan, shu bilan birga, qardosh tillardan ham ancha vaqtlardan buyon bajarilib kelinmoqda. Xususan, ikki xalq qoraqalpoq va o'zbek xalqining sevimli shoiriga aylangan Muhammad Yusufning she'rlari o'zi hayotlik chog'idayoq qoraqalpoq tiliga o'girila boshlangan. Bunga asosiy sabab esa uning asarlarining xalq tili va diliga juda yaqinligi edi. Muhammad Yusufning she'rlarida xalq jonli tilidan mohirona foydalanilgan. Misol qilib aytadigan bo'lsak, she'r-u dostoniga o'zgacha jilo beradigan iboralardan o'rinli foydalanilgan. Iboralar bir tildan ikkinchi tilga xuddi o'zidek o'girilmasligi ma'lum, sababi bir tildagi ibora boshqa tilda o'zgacha ifodalanishi mumkin. Shu sababli bu kabi tarjimalarni tahlil qilmoq lozim. "Ko'hna quduq" dostonida ishlatilgan iboralarni tahlilga tortamiz.

Asliyatda: “Fayzulloxon inqilobga **boshini tikdi**” [2; B.110.]. Tarjimada: “Fayzullaxan revolyutsiya dep **basin tikti**” [1; B.37.]. “Boshini tikmoq” iborasi “Jonini tikmoq” iborasi bilan ma’nodosh bo’lib, O’zbek tilining frazeologik lug’ati (keyingi o’rinlarda O’TFL)da “Butun kuch va imkoniyatini, hatto hayotini bag’ishlamoq” deya izohlangan [5; B.231.]. Tarjimada ibora to’g’ri qo’llanilgan, chunki Qaraqalpaq tilidagi frazeologizmler lug’atida aynan shu ibora mavjud. [3; B.19.]. Shu dostonning keying o’rinlarida qo’llanilgan iboralarni ham kuzatamiz. Asliyatda:

Poyezd yelib borar Shimolga

Yetmoqqa **yo’l bo’lsin** shamolga. [2; B.111.]

Tarjimada: Poyezd juytkir arqa tamanga

Ilespek **jol bolsin** samalga. [1; B.38.]

“Yo’l bo’lsin” iborasi “Qayoqda! Biror ishni qila olarmidi?! (ta’kid)” ma’nosini anglatadi [5; B.583.]. Qoraqalpoq tilida ham xuddi shunday.

Asliyatda: Poyezd kirib keldi Toshkentga

Holi qurib keldi Toshkentga [2; B.111.].

Tarjimada: Poyezd kirip keldi Tashkentke

Hali qurip keldi Tashkentke [1; B.38.].

Ushbu ibora O’TFLda “Holdan toymoq” tarzida berilgan hamda “tinkasi qurimoq, sillasi qurimoq” kabi sinonimlari keltirilgan, “toliqmoq, darmonsizlanmoq” deya izohlangan [5; B.189.]. Qoraqalpoq tilida ham shunday ibora keltirilgan [3; B.38.]. Keyingi iborani tahlil qilamiz, asliyatda:

Inqilob deb, **chekdingiz zahmat**

Fayzullo, otangizga rahmat [2; B.111.].

Tarjimada: Inqilab dep, **shektiñiz miynet**

Fayzulla, atañizga raxmet. [1; B.38.]

Zahmat chekmoq iborasi “Qiynalmoq” ma’nosini anglatadi [5; B.590.] Qoraqalpoq tilida esa “Miyet shegiw” iborasi keltirilmagan, ammo “Miyet” so’zi QTTSda “Azap, mashaqat, aqret” ma’nolarini izohlagan [4; B.175.] Zahmat so’zi ham O’TILda “Og’ir, mashaqqatli mehnat; kulfat, azob-uqubat, qiyinchilik” ma’nolarini anglatishi ko’rsatilgan [7; B.143.] Demak, “Miyet shegiw” tarzida qo’llangan ibora “Azap shegiw” iborasiga to’g’ri keladi. Tarjimon qofiyaga monand bo’lishi uchun “miynet-raxmet” so’zlaridan foydalangan. Ma’no jihatdan olib qarasak, bu ham to’g’ri qo’llanilgan. Tarjimon, shaklga ham, mazmunga ham mos holda o’girishga harakat qilgan.

Asliyatda: “Bas shunday ekan, odamlar istagan qabr tuprog’ini **ko’zlariga surtsin**” [2; B.111.].

Tarjimada: “Solay ekan, adamlar har bir qabirdiñ topırağın **kózlerine súrtsin**” [1; B.38.].

“Ko’zga surtmoq” iborasi O’TFLda “noyob, topilishi qiyin bo’lgani sababli ortiq darajada qadrlamoq” ma’nosini izohlashi keltirilgan [5; B.273.]. Qoraqalpoq tilida ham “Kózone súrtti” iborasi keltirilgan [3; B.63.].

Asliyatda: Qa’riga qaradim – **ko’zlarim tindi**

Yo’q, **ko’zim ochildi** – **qo’ydim-u qadam** [2; B.113.].

Tarjimada: Túbine qaradim – **ko’zlerim tındı**

Yaq, **kózim ashıldı** – **qoyğannan qádem** [1; B.40.].

O'TFLda "ko'zi tinmoq" iborasi "holsizlanish natijasida ko'z oldi xiralashmoq" [5; B.262.]; "ko'zi ochilmoq" iborasi "hushyor qilmoq, hushyorlanmoq" [5; B.260]; "qadam qo'ymoq" iborasi "yura turib oyog'ini biror sathga tegizmoq" tarzida izohlangan [5; B.396.]. QTFda ham "kózi tındı" [3; B.63.], "kózi ashıldı" [3; B.60.], "qádem qoydı" [3; B.70.] iboralari keltirilgan.

Asliyatda: Odamlar bu qo'shiqqa mahliyo bo'lib, **tildan qolishgan**. [2; B.114.]

Tarjimada: Adamlar bul qosıqqa huwshın aldırıp, **tilden qalğan** [1; B.41.].

O'TFLda "tildan qolmoq" iborasi "gapirish qobiliyatini yo'qotmoq" ma'nosida ishlatilishi keltirilgan [5; B.491.]. QTFda ham "tilden qaldı" iborasi berilgan [3; B.41.].

Asliyatda: Muharrirlar

Borsam **qoshi**

Uyuladi [2; B.116.].

Tarjimada: Redaktorlar

Barsam **qabağı**

Úyiledi [1; B.43.].

O'TFLda "qovog'(i)ni uymoq" iborasi "kuchli darajada ranjiganini, xafa bo'lganini qovoqlarini quyiyoqqa tushirib va bir-biriga yaqinlashtirib bildirmoq" ma'nosini izohlagan [5; B.418.]. Shu ma'noni beradigan "qosh-qovog'i osilmoq" iborasi ham berilgan. Qoshini uymoq, qovog'ini uymoq iboralari bir xil ma'noda ishlatiladi. QTFda "qabağın úydi" iborasi keltirilgan [3; B.66.].

Asliyatda: Onam shoshib

Qo'li quruq

Borgan ekan

Armon bo'ldi [2; B.118.].

Tarjimada: Anam asıǵıp

Qurı qol

Bargan eken

Arman boldı [1; B.44.].

O'TFLda "quruq qo'l bilan" iborasi "hech narsa olmagan holda" ma'nosini anglatishi keltirilgan [5; B.427.]. She'riyatda shoir qofiya uchun inversiya hodisasidan foydalaniladi, ammo bu ma'nosiga ta'sir qilmaydi. QTFda "qurı qol qaldı" iborasi keltirilgan [3; B.74.]. Ma'nosi va shakli asliyatniki bilan bir xil.

Asliyatda: Dilni yoqib

Tilga chiqmay

Qolganlarin [2; B.118.].

Tarjimada: Jandı jaǵıp

Tilge shıqpay

Qalğanların [1; B.44.].

O'TFLda "tilga chiqdi" iborasi "Nutqqa ega bo'lmoq" ma'nosini anglatishi aytilgan [5; B.491.]. QTFda bunday ibora keltirilmagan.

Asliyatda: Shukur Burhonni ham kuzatib qo'ydik,

Ketdi **qon yuragi** ustida qo'li.

Ortidan ergashib borib biz qo'ydek,

Yerga berib keldik **o'pkamiz to'lib** [2; B.119.].

Tarjimada: Shukir Burxandı da uzatıp saldıq

Ketti **júregi qan** ústinde qoli

Qoyday erip izinen telmirep qaldıq

Jerge berip keldik **ókpemiz tolıp** [1; B.45.].

O'TFLda "yuragi qon bo'ldi" iborasi "1.diltang bo'lmoq, ziq bo'lmoq; 2.ruhan azoblanmoq" ma'nolarini anglatgan [5; B.565.]. She'rda ikkinchi ma'no, ya'ni ruhan azoblanmoq ma'nosida ishlatilgan. Ruhan azoblangan yuragi ustida qo'li turibdi ma'nosida kelgan. QTFda ham "júregi qan boldı" iborasi keltirilgan [3; B.48.]. O'TFL da "O'pkasi to'lmoq" iborasi "Iztirob chekib, yig'lab yuborish holatiga yetmoq" ma'nosini bildirishi ko'rsatilgan [5; B.598.]. QTF da ham "ókpesi toldı" iborasi keltirilgan [3; B.85.].

Asliyatda: O'krab yig'lagandi,

Ho'ngrab yig'lagandi

Ko'ziga tor bo'lib yorug' jahoni [2; B.119-120.].

Tarjimada: Ókirip jilağan edi,

Enirep jilağan edi

Kózine tar kórip jaqtı jáhándı [1; B.45.]. O'TFLda "dunyo ko'ziga tor" iborasi "chidab bo'lmaydigan darajada diltang" ma'nosini izohlashi aytilgan. Variant: ko'ziga dunyo tor, ko'ziga olam tor [5; B.142.]. Shoir qo'llagan "jahon" so'ziga kelsak, "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati (I qism)"da "dunyo, jahon, olam, borliq, koinot, ochun" so'zlari keltirilgan [6; B.171.]. Bunga ko'ra shoir sinonimlardan qofiyaga moslash uchun bittasini tanlab olgan. QTFda "dunya kózine qarangı bolıp kórindi" iborasi keltirilgan [3; B.34.]. Bu ibora ham asliyat bilan bir xil ma'noni anglatadi. Tarjimon shaklga ham, ma'noga ham putur yetkazmasdan tarjima qilgan.

Asliyatda: **Baxti qora, maglayi qora** dengiz

Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon [2; B.120.].

Tarjimada: **Baxıtı qara, mańlayı qara** teńiz

Kóz aldımda, kóz aldımda berer jan [1; B.46.].

O'TFLda "baxti qora" iborasi "hayoti xorlik-zorlik bilan, azobda o'tadigan" deya keltirilgan [5; B.64.]. Manglayi qora iborasi O'TFLda keltirilmagan, ammo "hayoti xorlik-zorlikda, azobda o'tishi avvaldanoq ma'lum" ma'nosini anglatuvchi "peshanasi sho'r" iborasiga ma'nodosh tarzda ishlatiladi [5; B.388.]. QTFda "baxıtı qara" [3; B.22.], "mańlayı qara" [3; B.76.] iboralari keltirilgan. O'TFLda "ko'z o'ng(i)da" iborasi "bevosita ko'ringan, kuzatilgan holda" ma'nosini bildirishi keltirilgan [5; B.258.]. QTFda "kóz aldında" iborasi berilgan [3; B.59.]. O'TFLda "jon bermoq II" iborasi "o'lmoq, so'nggi marta nafas chiqarmoq" ma'nosini bildirgan [5; B.222.]. QTFda "jan berdi" iborasi mavjud [3; B.40.]. Tarjimon juda ham mahorat bilan tarjima qilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima xalqlar do'stligi va qardoshlik manfaatlariga xizmat qiluvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu aloqalar jarayoni mustahkamlanishi uchun ham yuqoridagi kabi mukammal tarjimalar lozimdir. Tarjima jarayoni juda ham murakkab bo'lib, bir tildagi asar boshqa tilda xuddi shu shaklni, ma'noni, ifodaviylik va ta'sirchanlikni bera olishi lozim. Bu kabi nuqsonsiz tarjima asarlar boyib borgani sari xalqlar do'stligi, shubhasiz, yana ham mustahkamlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Muhammad Yusuf. Biz baxitli bolamiz (Seytayev B. tarjimasi). – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2004. – 47 b.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 2019. – 285 b.

3. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tilindegi frazeologizmler. – Nokis: Bilim, 2012. – 107 b.
4. Qaraqalpaq tilinin tusindirme so'zligi. Jeti tomliq. Besinshi tom. – Nokis: Qaraqalpaqstan, 2023. – 400 b.
5. Rahmatullayev Sh. va boshqalar. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 648 b.
6. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati I qism. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 505 b.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi tom. Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 671 b.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

SYNTACTIC FIELD CONCEPT AND ITS LINGUISTIC INTERPRETATION

Rasulova Azizakhon,
PhD, associate professor,
Fergana State University

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the concept of the syntactic field, its stages of formation and its place in the framework of linguistic thinking. The development of field theory in linguistics, its application at the syntactic level and the scientific views advanced by various scientists are considered in a comparative way. Also, on the basis of paradigmatic and syntagmatic relations between syntactic units, the structure and functional properties of fields are illuminated. The paper explored the systematic and complex nature of language units through the study of the syntactic field, as well as the importance of this approach in applied syntactic studies.

Keywords: field, functional-semantic field, grammatical line, syntactic field, dominant, peripheral relation, simple sentence.

SINTAKTIK MAYDON KONSEPSIYASI VA UNING LINGVISTIK TALQINI

Rasulova Azizaxon,
PhD, dotsent,
Farg'ona davlat universiteti
E-mail: a.rasulova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada sintaktik maydon konsepsiyasining nazariy asoslari, uning shakllanish bosqichlari va lingvistik tafakkur doirasidagi o'rni tahlil etiladi. Tilshunoslikdagi maydon nazariyasining rivojlanishi, sintaksis darajasida qo'llanilishi va turli olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar qiyosiy tarzda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sintaktik birliklar o'rtasidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlar asosida maydonlarning tuzilishi va funksional xususiyatlari yoritiladi. Maqolada sintaktik maydonni o'rganish orqali til birliklarining tizimli va murakkab tabiati ochib berilishi, hamda bu yondashuvning amaliy sintaksis tadqiqotlaridagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: maydon, funksional-semantik maydon, grammatik sath, sintaktik maydon, dominant, periferiya munosabati, sodda gap.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N45>

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligida til birliklarini tizimli o'rganish, ularning ichki tuzilishi va o'zaro munosabatlarini aniqlash muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sintaksis darajasida til birliklarining murakkabligi, ularning o'zaro bog'lanishi va funksional xususiyatlarini aniqlash jarayonida turli nazariy yondashuvlardan foydalanilmoqda. Shunday nazariyalardan biri bu — **maydon nazariyasi** bo'lib, u til birliklarini semantik, funksional va strukturaviy belgilar asosida guruhlash imkonini beradi.

Maydon nazariyasi dastlab leksikologiya va morfologiyada qo'llanilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda uning sintaksisga tatbiq qilinishi tilshunoslikda yangi ilmiy yondashuvlarni yuzaga keltirdi. **Sintaktik maydon** tushunchasi aynan shu jarayonning mahsuli bo'lib, u

sintaktik birliklar o'rtasidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan tilda ham o'zgarishlar, yangicha qarashlar vujudga keladi. Zamonaviy tilshunoslik tadqiqotchilar oldiga til semantikasini sistemaviy-struktur tahlil qilishning turli-tuman metod va usullarini qo'yadi. Bu metod va usullar orasida bugungi kunda tilshunoslar ishida "maydon" tushunchasi va termini ham paydo bo'la boshladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Lingvistik adabiyotda "maydon" atamasi barqarorligiga qaramay, uning ko'plab talqinlari mavjud. Demak, sohani metalingvistik hodisa sifatida ko'rib chiqish dolzarbdir.

"Maydon" tushunchasi bilan bog'liq inson omili muloqot ishtirokchilari shaxsiyatining turli tomonlari tilda qanday aks ettirilganligi haqida fikr uyg'otadi. Ushbu jihatlar orasida eng yetakchisi pragmatika bo'lib, uning doirasida kommunikativ faoliyat ishtirokchilariga ta'sir qilish uchun tildan foydalanish masalasi ko'rib chiqiladi. Bitta semantik toifa bilan birlashtirilgan "funktional-semantik maydonlar" turli tillarda tuzilishi jihatidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

O'zbek tilshunosligida ham keyingi vaqtdagi tadqiqot ishlarida grammatikaga xos masalalarni yoritish muhim o'rin ola boshladi. Grammatikadagi maydon tushunchasi ko'proq morfologik sathdagi grammatik kategoriyalarni ularga funktsional-semantik jihatdan yaqin bo'lgan tilning boshqa sathlari vositasidagi aloqaning tekshirilishi davomida qo'llaniladi. Ayniqsa, sintaktik maydonlarni ajratish uchun, birinchi navbatda, ifoda jihatidan har xil bo'lgan, ammo mazmun jihatidan qisman yoki to'la mos keluvchi, ya'ni, umumiy invariant mazmuniy xususiyatlari mavjud bo'lgan til vositalari yig'indisi bo'lishi zarur. Shu bilan birgalikda, mazmuniy invariantlilik, vazifaviy yaqinlik, muayyan sintaktik sohada funktsional jihatdan birgalikdagi munosabatga olib keladi. Maydon planida yaqinlashuvchi sintaktik modellar maydon hosil qilib, tilning umumiy sohasiga xizmat qiladi.

Sintaktik maydonning asosiy xususiyatlari:

- Sintaktik birliklar o'zaro paradigmatic va sintagmatic munosabatda bo'ladi.
- Maydonning yadrosi va atrofi bo'ladi:
- Yadro (markaz) – sintaktik kategoriya yoki asosiy birlik.
- Periferiya (atrof) – unga yaqin bo'lgan, ammo nisbatan kam darajadagi birliklar.
- Sintaktik maydon ko'pincha kommunikativ, grammatik, semantik va funktsional jihatdan birlashtirilgan birliklardan tashkil topadi.

Lingvistik jihatdan sintaktik maydon **strukturaviy**, **funktional**, va **semantik** asosda o'rganiladi. Asosiy yondashuvlar:

a) Strukturaviy yondashuv:

- Gap tuzilmasidagi birliklarning joylashuvi va sintaktik rolini tahlil qiladi.
- Sintaktik pozitsiyalar, bog'lanish tiplari o'rganiladi.

b) Funktsional yondashuv:

- Gapdagi birliklarning kommunikativ maqsadga xizmat qilishini ko'rsatadi.
- Jumladagi sintaktik elementlar qanday ma'lumot yetkazadi – shu tahlil qilinadi.

c) Semantik yondashuv:

- Sintaktik birliklarning ma'no jihatidan qanday bog'langanini o'rganadi.
- Masalan, modal maydon qanday semantik ranglar hosil qiladi.

Sintaktik maydon konsepsiyasini o'rganish tilshunoslikda bir nechta nazariy va amaliy maqsadlarga xizmat qiladi:

1. Til birliklarini tizimli ravishda tahlil qilish uchun

Sintaktik maydon – bu birliklarning o'zaro munosabatini (gap tarkibidagi so'zlar, birikmalar, vazifalar) **tizimli** tarzda o'rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, murakkab gaplar va matn tahlilida juda foydali.

2. Gap tuzilishini chuqur anglash uchun

Gapning qanday sintaktik birliklar orqali tashkil topgani, ularning funksional roli, yadrosi va periferiya elementlari qanday bog'lanishi – bularni tushunish uchun sintaktik maydon konsepsiyasi muhim.

3. Til tizimining ichki qonuniyatlarini aniqlash uchun

Til strukturasi tasodifiy emas. Sintaktik maydon orqali til ichidagi ichki qonuniyatlar, masalan, qanday birliklar bir-birini talab qiladi yoki istisnalar qanday paydo bo'ladi – bularni o'rganish mumkin.

4. Nutqning mazmun va shaklini aniqlash uchun

Gap faqat grammatik birliklardan iborat emas – u ma'no, funksiya va intensiya (niyat)ni ham bildiradi. Sintaktik maydon bu jihatlarni tahlil qilish imkonini beradi (masalan, modal, negatsion, emotsional maydonlar).

5. O'qitish va tarjima jarayonida yordam beradi

Sintaktik maydonlar tili o'rganayotgan kishilar uchun grammatik va semantik tahlilni osonlashtiradi. Tarjima jarayonida esa mos keluvchi sintaktik konstruksiyalarni aniqlashda qo'l keladi.

6. Sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi uchun asos bo'ladi

Mashina tarjimasi, nutqni aniqlash (speech recognition), matnni avtomatik tahlil qilish, chatbotlar – bularning barchasida sintaktik maydonlar haqidagi bilimlar zarur.

Natijalar va muhokama. Tilshunoslikda maydonga oid birqancha tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Sh.Iskandarova o'zbek tilidagi til birliklari misolida shaxs, zamon, makon, shart va to'siqsizlik mikromaydonlari haqidagi fikrlarni beradi [2;100-134].

Sintaktik maydonga oid qarashlarni V.Porsig, L.Vaysgerber, N.Filichevaning ishlarida ko'rish mumkin. N.I.Filicheva sintaktik maydonni obyektiv borliqning umumlashgan tasvirini ifodalashga xizmat qiladigan sintaktik mazmunni yuzaga chiqaruvchi sintaktik modellar guruhlanishi sifatida ifoda etadi [5;15].

Tilshunoslikda tilning sintaktik sathi boshqa sathlarga nisbatan keyinroq o'rganila boshlagan. Xususan, o'zbek tilshunosligida sintaktik tadqiqotlar yaratila boshlaganiga bir asrga yaqinlashgan bo'lsa-da, fanimizda dunyo tilshunosligida bo'lgani singari turli sintaktik yo'nalishlar shakllanib ulgurdi [6;15]. A.Nurmonov sintaktik sath haqida: "uning birliklari quyi sath birliklaridan: so'z shakllaridan tashkil topadi [4;283]", – deb ta'kidlagan.

Sintaktik maydon deganda obyektiv reallikdagi munosabatlarning umumiy tarzda ifodalanishi hamda sintaktik ma'nolari yaqinligiga asoslanib tuzilgan sintaktik modellar guruhi tushuniladi [5;15]. N.I.Filichevaning bu fikridan kelib chiqib, aytish mumkinki, sintaktik shart maydoni deganda, obyektiv reallikdagi shart mazmuniga asoslangan munosabatlarning turli xil vositalar bilan ifodlangan grammatik birliklar yig'indisi tushuniladi.

Ma'lumki, sintaktik maydondagi birliklarning bir-biriga munosabatlariga ko'ra, ya'ni dominant sifatida kelgan birliklarga nisbatan periferiya munosabati ko'zga tashlanadi. Shunga

ko'ra, maydon yadro va periferiya kabi qismlarga ajratiladi. Maydon yadrosi har doim ham maydon markazida qolavermaydi. Chunki periferik elementlar miqdorining o'sib borishi maydonning periferiya hisobiga doimiy kengayishini ta'minlaydi. Shart maydonining ham yadro qismida asosiy birliklar joylashib, chekka qismini maydonga kiruvchi boshqa birliklar egallaydi, buning natijasida maydon periferiya hisobiga kengayib boradi.

Sodda gaplar doirasida shart ma'nosi asosan hol orqali ifodalanadi. Ko'pincha hol pozitsiyasidagi birliklar markaziy semada shart mazmunini, chegara semada esa payt mazmunini ifodalaydi.

Urushni o'z ko'zi bilan ko'rmay turib ham his qilish mumkinmi? (T.Malik. "Yozuvchining baxti va baxtsizligi")

Yuqoridagi gapdan "urushni o'z ko'zi bilan ko'rmasa, uni his qilish mumkin emas" degan mazmun kelib chiqadi. Bu o'rinda *ko'rmay turib ham* vositasi shart mazmuniga ishora qilyapti. *-mi* yuklamasi esa shartni kuchaytirishga xizmat qilyapti.

Sintaktik sathning shart bilan bog'liq yana bir maydoni to'siqsizlik maydonidir. M.Abduvaliyev ishlarida to'siqsizlik maydoni va uning tashkil etuvchilari haqidagi fikrlar mavjud. Tadqiqotchi to'siqsizlikni bir sintaktik maydon deb qaragan holda, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Sintaktik to'siqsizlik maydoni deb, umumiy to'siqsizlik mazmuniga asoslanib, obyektiv borliqdagi to'siqsizlik munosabatini ifoda etgan, lekin ifoda planida turli xil bo'lgan tildagi mavjud vositalar yoki sintaktik birliklar yig'indisiga aytiladi" [1;62]. M.Abduvaliyev sintaktik sathda to'siqsizlik ma'nosining turli xil sintaktik birliklar orqali ifodalanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uningcha, "o'zbek tilida to'siqsizlik munosabatini ifoda etuvchi sintaktik birliklar turli xil bo'lib, bular jumlasiga to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar, to'siqsiz bo'lakli sodda gaplar, zidlovchi bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar, ikki semantik jihatdan bog'langan sodda gaplar, aralash tipdagi qo'shma gaplar va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar kiradi. Bu sintaktik konstruksiyalar birgalikda to'siqsizlik maydonini hosil qiladilar va ularning ayrimlari o'zaro sinonimik munosabatida bo'ladilar [1;62-66]".

Til birliklarining nutq jarayonida yuzaga chiquvchi yashirin imkoniyatlari ular ishtirokida tuzilgan gaplarning mazmuniy tuzilishini shakllantirish bilan birga, turli munosabatlarni ham hosil qiladi [3;46]. Sodda gaplar doirasida to'siqsizlik ma'nosi asosan hollar orqali yuzaga chiqadi. Sintaktik sathda bu o'rinda keluvchi vositalar ma'lum harakat yoki holatga bog'lanib, to'siqsizlik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi:

Bu to'g'rida biron daqiqa bo'lsin, o'ylab ko'rmadik. (S.Ahmad. "Yo'qotganlarim va topganlarim")

Berilgan gapdagi biron daqiqa bo'lsin birikmasi to'siqsizlik munosabatini ko'rsatuvchi hol hisoblanadi. Gap mazmunidan harakatning ro'yobga chiqishi uchun to'siq bo'la olmagan vaqtga nisbat berilyapti. Demak, mazkur gapda to'siqsizlik va paytning mazmuniy uyg'unligi bor.

Mana oyimning dod-voyiga qaramay o'qishga keldim. (E.Vohidov "To'la asarlar to'plami")

Berilgan gapda *dod-voyiga qaramay* holi yordamida to'siqsizlik ma'nosi ko'ringan. Hol jo'nalish kelishigi (*-ga*) va *qaramay* ko'makchisi orqali ifodalanagan. Bundan gap kesimidagi harakatning yuzaga chiqishiga to'siq bo'la olmagan holatni ko'rish mumkin.

Ichi achishiga qaramay menga o'sha gapni aytib yubordi. (O'.Hoshimov. "Tushda kechgan umrlar")

Gap mazmunidan ibora bilan ifodalangan holatni ko'rsatuvchi propositiv qurilma (*ichi achishiga qaramay*) yordamida to'siqsizlikning ifodalanayotgani ko'rinadi. Ma'lum bir harakatning bajarilishiga (o'sha gapni aytib yuborish) uchinchi shaxsning holati (*ichi achiyotgani*) to'siq bo'lolmayapti.

“Shunday qilib, hali o'zbek tilshunosligida til birliklarini maydon asosida o'rganish keng yo'lga qo'yilgani yo'q. Bu usul, bizning nazarimizda, ayniqsa, leksikani o'rganishda katta ahamiyatga ega. O'zbek tili leksikasini makromaydon sifatida qaralgani holda, uni mikromaydonlarga ajratish ideografik, lug'atlar tuzishda katta samara beradi. Shuning uchun ham lisoniy maydon va til lug'at tarkibini bunday maydonlarga ajratishning nazariy asoslarini o'rganish hozirgi o'zbek tilshunosligi oldidagi eng dolzarb muammolardan sanaladi” (<https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/24897/16303/23872>)

Xulosa. Sintaktik maydon konsepsiyasi zamonaviy tilshunoslikda sintaktik birliklarning tizimli va funksional jihatdan o'rganilishiga keng yo'l ochadi. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, sintaktik maydon bir-biri bilan paradigmatic va sintagmatic munosabatga kirishuvchi sintaktik birliklar majmuasini tashkil etib, ular orasidagi iyerarxik aloqalar, markaz va periferiyaning mavjudligi orqali o'ziga xos tuzilishga ega bo'ladi.

Maydon nazariyasining sintaksisga tatbiq qilinishi nafaqat nazariy tahlillarni chuqurlashtiradi, balki til birliklarining mantiqiy bog'liqligi va funksional xususiyatlarini aniqlashga ham yordam beradi. Turli olimlar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, sintaktik maydonlar til tuzilmasining ichki qonuniyatlarini anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sintaktik maydon konsepsiyasi — bu sintaktik birliklarning tizimli tashkil topishi, ularning o'zaro munosabatlari va tilning grammatik qurilishi haqidagi ilmiy qarashlarni yanada kengaytiradigan samarali nazariy asosdir. Ushbu yondashuv kelgusidagi sintaksis tadqiqotlarida keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan istiqbolli metodologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар //Ўзбек тили ва адабиёти// 1988, №4.
2. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.100-134.
3. Лутфуллаева Д. Ўзбек тилидаги содда гапларда зидланувчи узвлар пресуппозицияси. //Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. №2. – Б. 46.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр. 2012. – Б.283
5. Филичева Н. И. Синтаксические поля. –М: Высшая школа. 1977.
6. Қурбонова М. Ўзбек синтактик таълимотининг тараққиёт босқичлари. //Ўзбек тили ва адабиёти. 2017 й. №3.
7. Rasulova, A. M., & Xusanova, M. R. A. (2022). Poetik Nutqda Sinonimlardan Foydalanish Mahorati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 807-811.
8. Rasulova, A. (2023). To 'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o 'rganilishi. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 297-299.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE IMAGE OF A LITERARY HERO OF THE “LOST GENERATION” IN THE WORK OF E.M. REMARQUE

Mamadkulova Kamila Abdukhaliqovna

Teacher of Samarkand State University of Kattakurgan branch

Abstract. This article analyzes the concept of the “lost generation” and its representation through the image of the literary hero in the works of E.M. Remarque. The author explores the psychological trauma of the “lost generation” after the war, their loss of faith in life, and their alienation from society. Through Remarque’s characters, the spiritual decline of humanity as a consequence of war is revealed.

Keywords: “lost generation”, lies, selfishness, self-interest, heartlessness, powerlessness, despair, indifference, requiem novel.

E.M.REMARK ASARIDAGI “YO’QOTILGAN AVLOD” ADABIY QAHRAMON OBRAZI

Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna

Samarqand davlat universiteti

Kattaqo’rg’on filiali o’qituvchisi

E-mail: kamilamamadulova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada “yo’qotilgan avlod” tushunchasining mazmuni va uning E.M. Remark asarlarida badiiy qahramon obrazi orqali ifodalanishi tahlil qilinadi. Muallif “yo’qotilgan avlod” vakillarining urushdan keyingi ruhiy iztiroblari, hayotga bo’lgan ishonchini yo’qotgani, jamiyatdagi begonalashuvi kabi jihatlarni badiiy tahlil qiladi. Remarkning qahramonlari orqali insoniyatning urush oqibatidagi ruhiy tanazzuli yoritiladi.

Kalit so’zlar: «Yo’qotilgan avlod», yolg’on, xudbinlik, shaxsiy manfaat, yuraksizlik, kuchsizlik, umidsizlik, befarqlik, “Rekviyem” romani.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N46>

Introduction.

What is the «lost generation»? The term "lost generation" emerged during the interwar period, referring to young soldiers who fought on the front lines between 1914 and 1918, no matter which country they served. In the West, this label was given to those who returned home mentally or physically damaged. They are often described as the "unrecognized victims of the war." After their return, these individuals struggled to resume normal lives, as the traumatic experiences of war made everything else appear insignificant and meaningless.

Literature review and methodology.

The meaning of the concept of the «lost generation» in the novels of E.M. Remarque The term «lost generation» arises in the interval between the two world wars. It became the leitmotif of the work of many writers of that time, but it is most strongly manifested in the work of the famous German anti-fascist writer Erich Maria Remarque. The term, by the way, is

attributed to the American writer Gertrude Stein, whom Remarque described in several of his novels.

That's who you are! And all of you are like that! - Miss Stein said. - All the young people who have been to the war. You are a lost generation.

Ernest Hemingway. «The holiday that is always with you».

“We wanted to fight against everything, everything that defined our past-against lies and selfishness, greed and heartlessness; we hardened and trusted no one except our closest comrade, did not believe in anything except such forces that never deceived us as the sky, tobacco, trees, bread and earth; but what came of it? Everything was crumbling, falsified and forgotten. And for those who could not forget, there was only impotence, despair, indifference and vodka. The time of great human and courageous dreams has passed. The businessmen were triumphant. Venality. Poverty” [1].

With these words of one of his heroes, E.M. Remarque expressed the essence of the worldview of his peers - people of the “lost generation” - those who went straight from school to the trenches of the First World War. Then they childishly clearly and unconditionally believed everything they were taught, what they had heard, what they had read about progress, civilization, humanism; they believed the ringing phrases of conservative or liberal, nationalist or social democratic slogans and programs, everything that was explained to them in their parents' house, from the pulpits, from the pages of newspapers...

In Remarque's novels, behind the simple, even voice of an impartial descriptor, there is such an intensity of despair and pain for these people that some defined his style as a mournful mourning for the fallen in the war, even if the characters in his books did not die from bullets. Each of his works is a requiem novel for an entire generation that was not formed because of the war, which scattered their ideals and failed values like houses of cards, which they seemed to have been taught in childhood, but were not given the opportunity to use [2].

Discussion.

The war with extreme frankness exposed the cynical lies of imaginary authorities and state pillars, turned the generally accepted morality inside out and plunged prematurely aged youngsters into the depths of disbelief and loneliness, from which there is no chance of returning. But it is these youngsters who are the main characters of the writer, tragically young and in many ways have not yet become men. The war and the difficult post-war years destroyed not only agriculture and industry, but also people's moral ideas. The concepts of «good» and «bad» are mixed up, moral principles are devalued.

Some young Germans supported the revolutionary struggle, but most were simply at a loss. They were compassionate, sympathetic, afraid and hated, and almost all of them did not know what to do next. It was especially difficult for former soldiers who fought honestly, risking their lives every day, to keep neutrality. They lost confidence in everything around them, they no longer knew what to fight for next [3].

Now they went through life with a devastated soul and a hardened heart. The only values they remained true to were soldiers' solidarity and men's friendship.

«There is no change on the western front».

Having published the novel «On the Western Front without Change» in 1929, Remarque laid the foundation for all his subsequent work. Here he described with complete authenticity the wrong side of the war, with all its filth, cruelty and complete lack of romantic gloss, and the

daily life of young front-line soldiers surrounded by horror, blood and fear of death. They haven't become a «lost generation» yet, but they will very soon, and Remarque, with all his penetrating objectivity and imaginary detachment, tells us exactly how this will happen.

In the preface, the author says: «This book is neither an accusation nor a confession. This is just an attempt to tell about the generation that was destroyed by the First World War, about those who became its victims, even if they escaped from the shells». The novel «On the Western Front without change» is about the First World War. It claimed millions of lives, crippled the destinies and bodies of even more people, and ended the existence of such mighty powers as the Russian, Ottoman, German and Austro-Hungarian Empires. The entire experience of Europe, created over many hundreds of years, was destroyed. Life had to be rebuilt. People's consciousness was infected by the horror of war [4].

In the work «On the Western Front without Change», Remarque describes everything that he experienced himself. The writer served as a sapper during the First World War. During the battle, his comrade Christian Kranzbehler was wounded by a shell. Remarque saves his life. In the novel, Christian gets the name Franz Kemerich. In the pages of the book, he dies in the hospital. There is no more romance and solemnity of parades. The war has flooded everything with blood-red color. Remarque is injured. The hospital. The end of the war. But the scar on the heart, on the mind and soul remains for life.

The senselessness of trench existence ends with the equally senseless death of Paul Boimer. The result of the novel is its title. When the hero of the novel dies, a standard summary is broadcast on the radio: «No changes on the Western Front». The anti-militarist pathos of the novel as a whole was so obvious and convincing that the fascists burned Remarque's book in 1930 [5].

In the early 1930s, Remarque released his next novel, *The Return*, which focused on the first months after the war. The book vividly portrayed the deep despair and desperate yearning of people who felt trapped, unable to find a way out of the brutal and senseless reality. At the same time, Remarque's strong rejection of all political movements, including revolutionary ones, was clearly expressed in the novel.

Results.

In the novel «*The Return*», Remarque talks about the fate of the «lost generation» after the end of the war. The main character of the novel, Ernst Brickholz, continues the line of Paul Boimer, the main character of the novel «*On the Western Front without change*». How former front-line soldiers «take root» is told by the novel «*The Return*». And in many ways, the narrator Erns Birkholz, who is similar to the author, and his front-line friends who returned home after the war, are under-educated schoolchildren who became soldiers. But although gunfire has already been fired, in the souls of many of them the war continues its devastating work, and they rush to seek shelter after hearing the screech of a tram, or walking through an open area. «We no longer see nature, for us there is only an area suitable for attack or defense, the old mill on the hill is not a mill, but a strong point, the forest is not a forest, but an artillery cover. Everywhere, everywhere it is an obsession...». But that's not the worst part. It's scary that they can't get settled in life, find a means of existence. Some still need to finish their studies at school, and those who worked before the war have full places, but others cannot be found [4].

The reader is greatly impressed by the demonstration of war invalids, who ask on their posters: «Where is the gratitude of the fatherland?» and «The invalids of the war are starving!»

There are one-armed, blind, one-eyed, wounded in the head, crippled with amputated legs, trembling shell-shocked; people with disabilities are being wheeled in wheelchairs, who from now on can only live in an armchair, on wheels. Nobody cares about them. Ernest Birkholz and his friends participate in a workers' demonstration, which was opposed by the troops of the Reichswehr; they witness how the former commander of their company kills his former soldier, their friend. The novel «The Return» reveals the story of the collapse of the front-line partnership.

For the characters of the Remark, friendship has a certain extra-social, philosophical meaning. This is the only anchor for saving the heroes, and they continue to keep it after the war. The collapse of the «frontline friendship» in the novel is shown as a tragedy. «The Return», like «On the Western Front without Change», is an anti-war work, both of them are warning novels [3].

Less than two years after the release of The Return, an event occurred in Germany that became not only a national but also a global catastrophe: Hitler came to power. Both of Remarque's anti-war novels were blacklisted as books banned in Nazi Germany and thrown on May 10, 1933, along with many other outstanding works of German and world literature objectionable to the Nazis, into a huge bonfire lit in the heart of Berlin.

In «Three Comrades», the last of the novels written before the Second World War, he tells about the fate of his friends of the same age during the global economic crisis of 1929-1933. In the novel «Three Comrades», Remarque again, with even greater conviction, predicts complete hopelessness and the absence of any future for the lost generation. They suffered from one war, and the next one will just swallow them up. Here he also gives a complete characterization of the members of the «lost generation». Remark shows them to be tough and determined people, who do not take anyone's word for anything, who recognize only the specific help of their own comrades, ironic and cautious in their relationships with women. Sensuality is ahead of their real feelings [5].

In this novel, he still retains his originally chosen position. He still wants to be just a chronicler artist. Don't judge anyone. Not to participate in the struggle of social forces, to look from the outside and honestly and impartially capture images of people and events. This is especially felt in the «Three Comrades». Describing Berlin during the years of intense political battles, on the eve of Hitler's coup, the author diligently avoids the manifestation of any political sympathies or antipathies. He does not even name the parties that his heroes attend, although he gives vivid sketches of some episodes; he does not indicate who exactly those «guys in high boots» who killed Lenz were.

It is quite obvious that these were Hitler's stormtroopers, but the writer seems to deliberately emphasize his self-exclusion from the political malice of the day. And for him, the revenge of friends for Lenz is not a massacre of political enemies, but simply personal retribution, catching up with a specific, direct killer.

The characters of the Remark find a short-lived ghostly solace in friendship and love, without giving up alcohol, which, by the way, has also become one of the indispensable heroes of the writer's novels. They certainly know how to drink in his novels. Drinking, which gives temporary calm, has replaced the cultural leisure of heroes who are not interested in art, music and literature. Love, friendship and booze have become for them a kind of form of protection from the outside world, which has accepted war as a way to solve political problems and

subordinated all official culture and ideology to the cult of propaganda of militarism and violence [1].

Three frontline friends are trying to cope with the hardships of life during the economic crisis together. Although ten years have passed since the last shots were fired, life is still saturated with the memory of the war, the consequences of which affected every step. It's not for nothing that they, these memories, and the author himself led to the creation of this famous anti-war novel. The memory of front-line life is firmly embedded in the current existence of the three main characters of the novel, Robert Lockamp, Otto Koester and Gottfried Lenz, as if it continues in it. This is felt at every step - not only in the big, but also in the small, in the countless details of their everyday life, their behavior, their conversations. The steaming asphalt boilers remind them of field kitchens, the headlights of a car are a searchlight clinging to an airplane during its night flight, and the rooms of one of the patients of a tuberculosis sanatorium are a front-line dugout. On the contrary, this novel by Remarque about peaceful life is the same anti-war work as the previous two. «Too much blood has been spilled on this earth! «Says Lockamp [3].

But thoughts of war relate not only to the past: they also generate fear of the future, and Robert, looking at the baby from the orphanage, bitterly ironically: «I wish I knew what kind of war it would be that he would be in time for». Remarque put these words into the mouth of the hero-narrator a year before the outbreak of World War II. «Three Comrades» is a novel with a broad social background, it is densely «populated» by episodic and semi-episodic characters representing various circles and strata of the German people.

The novel ends very sadly. Pat dies, Robert is left alone, his only support is the selfless friendship he found in the trenches with Otto Koester. The future of the heroes seems completely hopeless. The main novels of Remarque are internally interconnected [2].

This work can be seen as a continuous chronicle of one individual's fate during a tragic period, much of which is autobiographical. Like his characters, Remarque endured the brutal hardships of World War I, an experience that shaped their lifelong hatred of militarism, ruthless violence, and disdain for the government systems that create and endorse deadly massacres.

Conclusion.

E.M. Remarque's portrayal of the "lost generation" offers a deep and authentic insight into a generation devastated by the brutal realities of World War I. Through his characters, particularly in **All Quiet on the Western Front**, Remarque exposes the emotional struggles, numbness, and profound disillusionment faced by young soldiers. Rather than idealizing them as heroes, he presents them as damaged individuals whose innocence and dreams were destroyed on the front lines. The author does not merely describe war; he conveys its lasting psychological impact, turning personal trauma into a universal message about the fragility of human life and the devastating cost of conflict. Ultimately, Remarque's work immortalizes the silent suffering of a generation and challenges readers to reflect on the moral and human consequences of war.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. «The Lost Generation». Features and themes of the literature of the «lost generation». licey.net. Archived from the original on March 6, 2019.

2. Bass I. Lost generation. The Life and Times of Gertrude Stein. "Lost Generation" // Literary encyclopedia of terms and concepts / Ed. A. N. Nikolyukina. - Institute of Scientific Information for Social Sciences of the Russian Academy of Sciences: Intelvac, 2001. – Stb. 772-773. – 1596 p.
3. Bass I. The Life and Times of Gertrude Stein. – M.: Agraf, 2013. – 272 p.
4. Hynes Samuel. A War Imagined: The First World War and English Culture. – London: [The Bodley Head](#), 1990. – P. 386.
5. Remarque Erich Maria. Three Comrades [Text]: novel: trans. with him. / Erich Maria Remarque; lane with him. Yu. Arkhipov . – M: Fiction, 1989 . – 368 p.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMMUNICATION IN THE CONTEXT OF ITALIAN-UZBEK DIALOGUE. SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN THE ITALIAN AND UZBEK LANGUAGES IN THE FRAMEWORK OF VERBAL INTERACTION

Naimova Parvina Rustamovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages
teacher of Italian language

Abstract. This article explores the presence, usage, and significance of verbal communication in contemporary conversational texts, focusing on both the Italian and Uzbek languages. It delves into how verbal interaction manifests itself in these two linguistic spheres, highlighting their commonalities and differences, and shedding light on the crucial role verbal communication plays in each culture.

Keywords: communication, verbal, paraverbal, nonverbal, facial expression, gesture, ethics, aesthetics, the power communication impact.

ITALYAN VA O'ZBEK MULOQOT MATNI JARAYONIDA MULOQOTNING O'RNI VA AHAMIYATI. ITALYAN TILI VA O'ZBEK TILI VERBAL MULOQOT MATNIDA O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Naimova Parvina Rustamovna

Samarqand davlat chet tillar instituti,
o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi zamon muloqot matnida ko'p uchraydigan verbal muloqotning namoyon bo'lishi, ishlatilishi va uning nechog'lik muhimligi ikki til nazdida italyan va o'zbek tillarida ko'rib chiqildi. Verbal muloqotning bu ikki tildagi o'rni, o'xshash va farqli jihatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: muloqot, verbal, paraverbal, noverbal, mimika, jest, etika estetika, muloqotning ta'sir kuchi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N47>

Ushbu yorug' dunyoga tashrif buyurgan har bir inson avvalo yig'lab ovoz chiqarib, o'zining mavjudligini ko'rsatadi. Yillar mobaydina o'sha tovushlardan eng avvalo noverbal muloqot keyinchalik esa verbal muloqot paydo bo'la boshlaydi. Yorug' dunyoda insoniyat muloqot orqali o'z o'rnini topadi, nimagadir erishadi va nimalarnidir yuqotadi. Muloqot bu shaxslar orasida fikr almashinish va yangi ma'lumotlarga ega bo'lish jarayoni sanaladi. Har bir shaxs yashash jarayonida muloqotga doimiy ravishda ehtiyoj sezadi. "Inson muloqotsiz mavjud bo'lmaydi. Bu fikr hozirda olimlar tomonidan o'rganilgan holda kelib chiqdi. Ya'ni inson hech qanday holatda o'zini muloqotsiz tuta omaydi. Yolg'iz bo'lsa ham, odam o'zini shunga yarasha tutadi. Masalan odamlardan uzoqda o'zini olib yashaydigan zohid xudo, tabiat, hayvonlar, kitoblar va boshqa shu kabi narsalar bilan muloqot o'rnatadi" [1].

Muloqot insonlarni yangi ma'lumot va bilimlarga ega bo'lishiga, fikrlar almashinishiga va aqliy faoliyatni rivojlantirishga, dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi. Avvalda eramizdan oldingi ajdodlarimiz davrida odamlar og'zaki muloqot qilish o'rniga noverbal muloqotdan ko'proq foydalanishgan. Bizga ma'lumki, muloqot 3 xil tarzda amalga oshiriladi. Bu verbal, paraverbal va noverbal muloqot shakli sanaladi. Jamiyatdagi barcha shaxslar ushbu muloqot usulidan keng tarzda foydalanadilar va shu bilan birgalikda bu turdagi muloqot holatiga ehtiyoj sezadilar. Kundalik hayotimizda yashash jarayonida ularning nechog'lik chambarchash bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Professor Albert Mehrabian fikricha, muloqot jarayonida insonlarning yuzma –yuz muloqot paytida xabarning 7% verbal, 38 % paraverbal va 55% noverbal muloqotni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki hara bir muloqot turi muloqot jarayonida ma'lum bir vazifani bajarib gapga ma'no berib, muloqot mazmunini tushunarli va aniqroq bo'lishiga xizmat qiladi [2].

Verbal muloqot jarayonida biz barcha aytilajak fikrlarimizni, his tuyg'ularimizni so'zlarimiz orqali ifodalaymiz. Unda barcha o'y fikrlarimiz, hissiyotlarimiz so'zlar orqali gavdalantiriladi. Butun bir diqqat til orqali ifodalanayotgan so'zlarga, gaplarga taqalgan bo'ladi. Bunda insonlarning so'z boyligi, so'zlarni antonim, sinonimlarni o'z o'rnida qo'llay olish jarayonlari muloqot jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Paraverbal muloqot bu ovozning sifati va ohangi, tovushlarning baland va pastligi va urg'uni to'g'ri qo'llay olishdir. Paraverbal muloqotda ishoralar og'zaki xabarni bezatadi. U ko'pincha tinglovchiga oddiy so'zlardan ko'ra chuqurroq tasir qiladi. Muloqot jarayonida tinglovchi so'zlarni tushunmasa ham ammo paraverbal signallarning kuchi uni tushunishga majburlaydi. "Psixoterapiyada ushbu muloqot usulida juda keng tarzda qo'llaniladi. Uni ahvoli, ichki dardlari, holati shular orqali aniqlanib, bemorga kerakli fikr va xulosalar beriladi" [3].

Noverbal muloqot tarzida esa aytmoqchi bo'lgan so'zlarimiz, gaplarimiz, tuyg'ularimiz mimikalar, jestlar, turli xil tana harakatlari va imo ishoralar orqali namoyon bo'ladi. Bizga ma'lumki muloqotning tushunarli va aniqliligini katta qismini noverbal muloqot ko'rsatib beradi [4].

Biz insonlar kundalik hayot tarzimiz jarayonida doimo muloqotga ehtiyoj sezamiz. Bunday holatda verbal, paraverbal hamda noverbal muloqot insonlar hayotining muhim bir qismini egallab olganini ko'rishimiz mumkindir. Noverbal muloqot verbal hamda paraverbal muloqotga nisbatan kuchli, ta'sir kuchi ko'proq sanaladi.

Noverbal muloqot asosan quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi [5].

- Insonlarning ichki his tuyg'ularini yaqqol va ravon ko'rsata oladi.
- Haqiqatni doimo ifodalaydi, chunki ko'zlar, nigohlar hech qachon aldolmaydi.
- Berilgan ma'lumotni yanada kuchaydiradi. Masalan kimnidir imtihondan o'tganini aytadigan bo'lsak, yuzimizda kulgu, muloqotda hayajon va harakatlarda quvonch hissi namoyon bo'ladi.
- Muloqotda aniqlilik va tasirchanlikni namoyon bo'lishiga yordam beradi.
- Suhbat jarayonida zerikish hissini yuqotadi.
- Suhbatdoshning diqqatini jalb qilishishga va gapni to'laqonli anglashga yordam beradi.

Demak, umumiyashtirib aytadigan bo'lsak, verbal muloqot bu so'zlarni to'g'ri tanlash, paraverbal muloqot ushbu tanlangan so'zlarni qay tarzda aytish va noverbal muloqot esa tana

harakatlari orqali tanlangan aytilgan fikrni to'liq aniq tana harakatlari orqali yetkazib berishlikdir [6].

Italiyaning barcha viloyatlardagi aholisi verbal, paraverbal muloqot bilan bir qatorda noverbal muloqotni ko'p ishlatadilar. Ya'ni ular qo'llarisiz muloqotni oson va aniq yetkaza olmaydilar. Bu ushbu xalqqa xos odat sanaladi. Ya'ni *"gli italiani parlano con le mani"*. Xushmuomulalik, ochiqko'ngillilik, haqiqatgo'ylik va soddalik italyan xalqiga xos xislatlar sarasiga kiradi. Bu hislatlari bilan ularni yaxshi suhbatdosh va shu bilan birgalikda yaxshi tinglovchi ham desak adashmagan bo'lamiz. Ushbu xalq suhbatni xush kuradi va suhbat jarayonida soatga hech qachon qaramaydilar. Chunki muloqot shu darajada chuqurlashib ketgan bo'ladi. Ammo ushbu xalq rostgo'ylikni xush ko'radi va haqiqatni aytish yoki eshitish suhbatdosh yoki tinglovchi tomonidan yaxshi qabul qilinadi [7]. Ammo bizni xalqimizda haqiqatdan ko'ra xushmuomulalik ko'proq e'zozlanadi. Bu narsa tarixdan bizgacha yetib kelgan. Italyan til sohiblari orasida shunday maqol bor *"Parole dolci non costano nulla, e rendono molto"* ya'ni yaxshi gap yoki so'z hech qanchaga tushmasligi mumkin, ammo u oltinga tengdir. Ya'ni iloji boricha inson chiroyli muomulada bo'lmog'i lozim degan fikrni olg'a suradilar. Bizning millatimizda ham bu kabi fikrlar begona emas. *"Yaxshi so'z jon ozig'i"* degan naql halqimiz orasida juda mashhurdir [8]. O'zbek xalqi vakillari ham muloqotni sevuvchi va muloqotsiz, do'st-u yorlarsiz hayot kechirishlari dargumondir. Italyan xalqi vakillari va o'zbek millatiga mansub shaxslar orasida muloqotda o'xshashlik jihatlari juda ham ko'p. Masalan, Italiyada bo'lgani kabi O'zbekistonda ham odamlar qo'l harakati, imo ishoralar va mimikalarni keng tarzda qo'llaydilar. Shu bilan bir qatorda xalq vakillari muloqot jarayonida soddaligi, samimiyligi va xushmuomulaligi bilan bir biriga o'xshaydi [9]. Ya'ni Italiyada *"buongiorno, grazie, prego, signore, signora, mi scusa"* muloqotda kirish va kalit so'zlar sanalsa, O'zbekistonda *"Assalomu aleykum, raxmat, marhamat, kechirasiz"* kabi so'zlar keng qo'llaniladi. O'zbek xalqi ham paraverbal, hamda noverbal muloqotni keng tarzda muloqot jarayonida qo'llashadi. Gestlar, qo'l harakatlari va imo ishora va intonatsiyadan har bir kishi kun bo'yi foydalanadi. Italiyaliklar muloqot jarayonida haqiqatgo'ylikni afzal ko'rishadi. Bu so'zlovchi tomonidan behijolat aytilib, tinglovchi tomonidan ginasiz qabul qilinadi. Ammo bu holat bizda unchalik ko'p sezilmaydi va bizning xalq vakillarimiz achchiq haqiqatni aytishga ko'pincha andishadi qilishadi, o'zgani ko'nglini sindirmay deb haqiqatni aytishni doimo keyinga qoldirishadi [10].

Italiya va O'zbekistonda muloqot jarayonida verbal muloqot qo'llanilishida jestlarning o'rni katta. Bu ikki xalqning muloqot jarayonida qo'llaniladigan jestlari orasida o'xshash va farqli holatlari mavjuddir. Avvalo farqli jihatlarni ko'rib o'tsak.

1. Qo'limizning panjalarini tepaga qarab birlashtirgan holda namoyon bo'ladigan jestimiz italyan tili muloqot matnida ko'p qo'llanilib, *"che vuoi?"* ya'ni *"nima xoxlaysan"* yoki *"nima demoqchisan?"* degan ma'noni hayronlilik va norozilikni ifodalash uchun ishlatiladi. Shu kabi jest o'zimizda ham mavjud bo'lib, bu bizlarda salbiy ma'noda qo'llanilib, *"jim o'tir"* degan ma'noni anglatadi. Italiyada ham salbiy ma'noda, O'zbekistonda ham salbiy ma'no beradi, ammo mazmuni turlicha, bir biridan farq qiladi.

2. Ikkinchi jestimiz bu qo'lni ikki barmog'i ko'rsatkich va o'rtanchani tik holda tutib, qolgan uch barmoqni pastda birlashgan holda namoyon bo'lishi, bu *"vittoria"* ya'ni *"g'alaba"* degan ma'noni anglatadi. Italyan xalqi orasida bu keng tarqalgan bo'lib, doimo musobaqalardan so'ng natijalarni bildirish uchun ushbu jest qo'llaniladi. Ammo bizlarda bu jest to'liq ma'noni

izohlamaydi, balki yoshlar orasida rasmga tushish jarayonida qo'lni shu tarzda qilib rasmga tushish urfga aylangan. Ammo to'liq va aniq ma'lum bir mazmunni ifodalamaydi.

3. keying jestimizda ko'rsatkich barmoq og'izga qaratilib, qolgan barmoqlar jipslashib, birgalikda "bere" ya'ni "ichmoq" degan ma'noni anglatadi. Bizda esa bu kabi holat hech qanday ma'no anglatmaydi. Ichish ma'nosini biz xuddi stakanni ushlaganday qilib qo'lni og'izga olib borib quyish orqali anglaymiz. Ya'ni bir xil mazmun ikki millatda ikki xil jest orqali ko'rsatiladi, ya'ni ushbu italyan tilidagi jestimiz, bizda hech qanday ma'no mazmun ifodalamaydi.

Italyan va o'zbek tilidagi jestlar farqlanishi bilan bir qatorda o'xshash jihatlari ham mavjud. Ikki tilda, ikki millatda bir xil jestlar bir xil ma'noni ifodalab keladi [11].

1. Birinchi jestimiz eng ko'p dunyo bo'ylab tarqalgan desak adashmagan bo'lamiz. Bu jestimiz bosh barmoqni tepada tik holda ushlab, qolgan barmoqlarni uning ostida qisilib turishi natijasida ifodalanadi. Bu kabi harakat Italiyada "perfetto", "bellissimo", ya'ni "zo'r", "ajoyib" degan ma'nolarni ifodalaydi. Bunday harakatda bizda ham shundayin ta'rif beriladi. Ya'ni ikkovi ko'rinish va mazmun jihatdan ikki millatda bir xil.
2. Ikkinchi jestimiz bu qo'lni yurakcha shaklida qilish bo'lib, Italiyada "ti amo" ya'ni "seni sevaman" degan ma'noni anglatadi. Bu kabi qo'l harakatlari bizda ham keng qo'llaniladi va ushbu ma'noni ya'ni "seni yaxshi ko'raman" degan ma'noni anglatadi. Bu ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalgan bo'lib, bu kabi jestlar hozir urfda desak adashmagan bo'lamiz.
3. Uchinchi jestimiz esa, "bellissimo", "mi piace" so'ziga antonim ma'noni bildirib, qo'lni bosh barmoqni tik tutib, qolgan barmoqlarni pastida qisib, qo'lni chappaga ya'ni pastga qilib ko'rsatish "non mi piace" ya'ni menga yoqmaydi degan ma'noni anglatadi. O'zbeklar orasida ham ushbu jest yoqmadi, yaxshi emas degan ma'noni anglatadi.
4. Qo'lning panjalarini ochib tepaga tutgan holda ushlash "ciao" ya'ni "salom" va "xayr" degan mazmunni italiyaliklar orasida izohlab keladi. Ushbu jest kun davomida bir necha marta qo'llanilishi mumkin. Eng ko'p qo'llaniladigan noverbal aloqa vositasi sanaladi. O'zbekistonda ham ushbu qo'l harakati "salom" va "xayr" degan tushunchalarni ifodalaydi va bu doimo informal so'zlashuv muloqotida ko'proq qo'llaniladi. Formal holatda bu kabi vazifani o'ng qo'lni ko'ksiga qo'yish orqali amalga oshiriladi va hurmat ma'nosini to'liq ifodalaydi. Bu kabi hurmat ma'nosidagi jest faqatgina bizlarda mavjud bo'lib, Italiyada ikki xil formal hamda informal holatlarida bir xil jest qo'llaniladi.
5. Oxirgi ko'rib chiqadigan jestimiz bu ikki qo'lni birlashtirgan holda tik tutish bo'lib, bu "per favore", "iltimos" degan ma'noni anglatadi. Ushbu iltimosni bildiruvchi jestimiz ham o'zimizda "iltimos" degan ma'nosida keladi. Bu kabi jestlar ham yoshlar orasida informal holatda ko'proq qo'llaniladi. Bu nafaqat ikki xalq yoki millat orasida balki boshqa davlatlar orasida ham keng tarqalgan va ko'pchilikka tushunarli holatdir. Bu kabi jestlar, qo'l va tana harakatlari Italiyada ko'p uchraydi va bu soha bo'yicha yozilgan ko'plab kitoblar ham mavjud. Bu soha qiziqarli va yangiliklarga boyligi bois bu boyicha ko'p ishlar, tadqiqotlar olib borilib, italyan tili sohib va sohibalarining muloqotdagi noverbal aloqa tizimi o'rganiladi. Eng mashhur asarlaridan biri "Senza parole. 100 gestidegli italiani" kitobi bo'lib, unda

italiyanlarning eng ko'p qo'llaniladigan jestlari ma'nosi bilan keltirilib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda jestlarning aloqadagi o'rni, verbal va nonverbal aloqaning o'zaro uyg'unligiga to'xtalib o'tilgan [12].

Nafaqat jestlar verbal aloqa vositasi balki, mimikalar, yuz harakatlari ham muloqot jarayonida aloqani jonlantiradi. O'zbek millatiga xos mimikalarning eng ko'p tarqalgan ko'rinishi bu yuzda muloqot jarayonida kichik kulguni namoyon bo'lishidir. Italiyalarda ham yuz harakatlari juda ham faol. Muloqotda qoshlar, lablar, ko'zlar, nigohlar va og'iz harakatlari muloqotni jonlanitirib, ma'noni aniqlashtiradi, tinglovchiga yetib borish jarayoni tezlashadi [13]. Italiyada yuz harakatlari ochiq holda, ammo bizda bu harakatlar nazorat ostida. Bunga misol qilib oddiy xursandchilikdan kulishni olib qaraydigan bo'lsak, Italiyada ochiqdan ochiq, qo'llarini keng ochgan holda ovoz chiqargan holda kulishi mumkin, bu ular uchun oddiy hol, ammo bizda bu jarayonda qo'llar yordamga kelib, kulish jarayonida labimizni yopadi va bu hurmat, estetikani namoyon etadi. Italiyada o'zbekistonliklarga nisbattan jestlar va yuz ifodalari keng qo'llanilib, chuqur ma'no ifodalaydi. Ammo O'zbekistonda harakatlardan ko'p foydalansakda ammo so'z qudrati kuchli. Italiyada jestlar alohida mavzu sifatida keng tatbiq etiladi, ammo bizlarda bu unchalik chuqur etirof etilmaydi, ammo muloqotda qo'llaniladi. Verbal muloqotda ham xalqlarning madaniyati muhim rol o'ynaydi. Madaniyatdan kelib chiqqan holda jestlar qo'llaniladi. Masalan italiyanlar qo'lsiz muloqotga kirisholmaydilar va formal va informal holatlarda bu jarayon to'g'ri qabul qilinadi, ammo bizlarda qo'l harakatlari formal holatlarda to'g'ri qabul qilinadi, lekin formal holatlarda o'zidan kattalar oldida qo'l harakatlarini ko'p ishlatilishi bu hurmatsizlikkka kiradi. Verbal muloqot jarayonlari madaniyatlar bilan chambarchas bog'liqligini ushbu misol nazdida yaqqol namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin [14].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muloqot bu insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, verbal, nonverbal hamda paraverbal tarzda namoyon bo'lib, muloqotni aniqlashtiradi, ta'sir kuchini oshiradi, ma'lumotlarni anglashni osonlashtiradi. Bu uch shakl o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. O'zbekiston va Italiya muloqotidagi o'xshash va farqli jihatlar ham namoyon bo'lib, verbal muloqot ikkisida ham faol tarzda qo'llaniladi. Ammo bu qo'llanilish jarayonlari xalqlar madaniyati bilan ham bevosita bog'liqdir. Ikki millat orasidagi o'xshash va farqli jestlar ham mavjud bo'lib, muloqot jarayonida keng qo'llaniladi. Ammo Italiyada O'zbekistonga nisbattan verbal muloqot ta'sir kuchi kuchli va takrorlanmas. Bizda ham mimikalar, qo'l harakatlari rivojlangan bo'lsada, bu muloqot shakliga qarab ishlatiladi va shu bilan birga so'z ishlatilish sehri ham kuchli. So'zlar sinonimlari o'z o'rnida aniq va ravon tanlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдурахмонова М. Р. "Психология общения". – Т.: Fan, 2018.
2. Юсупова Н. "Мулоқот психологияси ва унинг ўрганилиши". – Тошкент, 2019.
3. Norqulov A. "Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi". – T.: Iqtisod-Moliya, 2021.
4. Hall E. "The Silent Language". – New York: Anchor Books, 1973.
5. Mehrabian A. "Nonverbal Communication". – Chicago: Aldine-Atherton, 1972.
6. Karimov S. "Til va tafakkur". – T.: O'zbekiston, 2020.
7. Shirinova M. "Psixologik muloqot madaniyati". – T.: Iste'dod, 2017.
8. Birdwhistell R. "Kinesics and Context". – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.
9. Kendon A. "Gesture: Visible Action as Utterance". – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.

10. G'afforova D. "Muloqot turlari va kommunikativ kompetensiya". // Til va Adabiyot, 2020, №3.
11. Lolli M. "Comunicazione e cultura italiana". – Milano: Mondadori, 2015.
12. Proverbio italiano. // www.proverbiitaliani.it
13. Bekmurodov A. "Milliy mentalitet va muloqot". // O'zbek tili va adabiyoti, 2021, №2.
14. Turaev B. "Xalqaro muloqot madaniyati". – T.: Iqtisodiyot, 2022.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

APPLICATION OF TECHNOLOGIES FOR IMPROVING COMMUNICATIVE UNIVERSAL LEARNING ACTIVITIES IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY SCHOOL

Zhabborova Muslima Tokhirovna,
Lecturer of the department
of language and literary education
University of Business and Science,
Namangan city, Republic of Uzbekistan

Abstract. The article examines modern pedagogical technologies that contribute to the development and improvement of communicative universal learning activities among primary school students in Russian language lessons. It analyzes methods aimed at developing interaction skills, dialogue, argumentation, and active listening.

Keywords: communicative ULAs, primary school, Russian language, dialogue, interactive methods, group work, speech activity, cooperation.

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Жабборова Муслима Тохировна,
преподаватель кафедры языкового и
литературного образования,
University of Business and Science,
Узбекистан, г. Наманган

Аннотация. В статье рассматриваются современные педагогические технологии, способствующие формированию и совершенствованию коммуникативных универсальных учебных действий у младших школьников на уроках русского языка. Анализируются методы, направленные на развитие навыков взаимодействия, ведения диалога, аргументации и активного слушания.

Ключевые слова: коммуникативные УУД, начальная школа, русский язык, диалог, интерактивные методы, групповая работа, речевая активность, сотрудничество.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N48>

Введение. Формирование коммуникативных универсальных учебных действий является одной из приоритетных задач начального общего образования. Эти действия лежат в основе успешного взаимодействия учащегося со сверстниками, учителем и окружающим социумом. Уроки русского языка предоставляют широкие возможности для развития речевой активности, диалогической и монологической речи, умения выражать и аргументировать собственную точку зрения.

Современные технологии, применяемые в образовательной практике, позволяют разнообразить учебный процесс и стимулировать у детей интерес к обучению.

Использование таких технологий как диалоговое обучение, технология сотрудничества, игровые и цифровые методы способствует формированию устойчивых коммуникативных навыков у младших школьников.

Актуальность выбранной темы определяется совокупностью значимых факторов, отражающих современные образовательные запросы и особенности развития младших школьников. В первую очередь, это обусловлено необходимостью формирования у учащихся коммуникативной компетентности – одного из ключевых навыков, востребованных в условиях быстро меняющейся социальной среды. Умение ясно выражать свои мысли, слушать собеседника, вести диалог и взаимодействовать с другими людьми становится важным условием успешной социализации ребенка.

Кроме того, важную роль играют возрастные особенности младших школьников. В этом возрасте дети особенно чувствительны к способам подачи учебного материала, предпочитают наглядные, игровые и эмоционально окрашенные формы работы, что требует от педагога гибкости и вариативности в выборе методов обучения.

Современные образовательные стандарты ориентированы на деятельностный подход, при котором ученик становится активным участником образовательного процесса. Это требует создания условий, способствующих самостоятельному поиску знаний, взаимодействию, обсуждению и совместному решению задач, что напрямую связано с развитием коммуникативных универсальных учебных действий.

Методы исследования. Для достижения поставленных целей и получения объективных данных в процессе исследования были применены различные методы, соответствующие задачам и этапам работы.

Прежде всего, использовался анализ психолого-педагогической и методической литературы, посвящённой проблемам формирования коммуникативных универсальных учебных действий у младших школьников. Это позволило обобщить теоретические подходы, выработанные в современной науке, и определить научно-методическую основу исследования.

Кроме того, в ходе работы проводилось систематическое наблюдение за учебной деятельностью учащихся в рамках уроков русского языка. Это дало возможность зафиксировать проявления коммуникативных умений в реальных образовательных ситуациях, оценить уровень речевой активности, умение вступать в диалог, слушать собеседника и аргументировать собственную точку зрения.

Для получения более достоверных результатов данные методы сочетались и дополнялись друг другом, что обеспечило всесторонний подход к изучению поставленной проблемы.

Теоретические основы. Формирование коммуникативных универсальных учебных действий у младших школьников основывается на прочном теоретико-методологическом фундаменте, который выработан отечественной педагогикой и психологией. Одним из ключевых положений является идея Л.С. Выготского [1], о том, что развитие речи и мышления происходит в контексте совместной деятельности. Именно в процессе общения и сотрудничества с окружающими ребёнок овладевает не только языком, но и культурой мышления, что непосредственно связано с развитием его коммуникативных способностей.

Развивая эти идеи, Д.Б. Эльконин [2] подчёркивал значимость учебной кооперации как средства активизации речевой деятельности учащихся. По его мнению, обучение должно строиться на взаимодействии между учениками, в рамках которого у детей формируется потребность выражать свои мысли, слушать других и находить общий язык. Это взаимодействие становится основой для формирования эффективных коммуникативных навыков.

Е.И. Пассов [3] акцентировал внимание на необходимости создания таких учебных ситуаций, в которых ребёнок будет побуждён к высказыванию – будь то ответ на вопрос, участие в обсуждении или выражение собственного мнения. Он утверждал, что именно речевые ситуации делают процесс обучения живым, мотивированным и эффективным.

Кроме того, значительную роль в организации учебного процесса играет методика, предложенная О.А. Громовой и А.П. Ершовой [4], которая акцентирует внимание на формировании у школьников навыков общения через учебные и коммуникативные практики, способствующие развитию всех сторон речевой деятельности.

Согласно Государственному образовательному стандарту общего среднего образования Республики Узбекистан [5], разработка учебных планов и программ направлена на всестороннее развитие личности учащихся, формирование знаний, умений, навыков и развитие способностей обучающихся. В процессе внедрения учебных планов и программ применяются современные педагогические технологии, инновационные формы и методы обучения, включая использование информационно-коммуникационных технологий, что способствует более эффективному развитию коммуникативных способностей школьников.

Практическое применение технологий. Современные технологии открывают ученикам новые способы усвоения материала и развивают их коммуникативные навыки. На уроках русского языка в начальных классах можно использовать различные ИКТ-инструменты для активного вовлечения учащихся в процесс обучения.

Например, на уроке темы «Сложные предложения» учитель может продемонстрировать видеоролики, где представлены реальные ситуации, в которых используются сложные предложения. Это поможет ученикам визуализировать грамматические правила, а также обогатить словарный запас. Мультимедийные презентации, которые включают анимации или слайд-шоу, могут быть использованы для закрепления материала, а ученики в ходе урока могут комментировать, обсуждать и делиться своими мыслями.

Программы, такие как Quizlet [6] или Kahoot! [7], помогают превращать учебный процесс в увлекательную игру. Например, учитель может провести викторину по орфографии с помощью Kahoot!, где ученики по очереди отвечают на вопросы, выбирая правильный вариант ответа. Это способствует не только развитию языковых навыков, но и стимулирует интерес к изучаемому предмету. Важно отметить, что такие платформы также позволяют учащимся работать в командах, обсуждать ответы и учиться договариваться.

Например, на уроке, посвященном написанию сочинений, можно использовать интерактивные доски для коллективного редактирования текста. Учитель может

предложить ученикам исправить ошибки в написанном тексте, а они, в свою очередь, могут предложить свои варианты исправлений. Это развивает навыки анализа, аргументации и обсуждения. Планшеты можно использовать для работы с приложениями, которые помогают ученикам тренировать грамотность и речевые навыки через специальные упражнения.

Проектная методика позволяет ученикам работать над заданиями, которые актуальны для их жизни, что стимулирует их к более глубокому осмыслению материала. Такая методика активно развивает коммуникативные навыки, включая способность слушать, аргументировать и высказывать мнение. Например, при выполнении проекта на тему «Мой родной город» ученики могут работать в группах и делиться своими мыслями о достопримечательностях, культурных особенностях своего города. Каждый учащийся должен представить свою точку зрения, выслушать мнение других, задать вопросы, обсуждая материал.

В рамках того же проекта группа может представить свои исследования в виде презентации и защищать свою работу перед классом. Это позволяет детям научиться аргументировать свою точку зрения, объяснять причины своего выбора и давать ответы на вопросы. Проектная работа может включать такие формы, как создание газет, журналов или театральных постановок. Например, ученики могут поставить небольшую сценку на тему «Как я изучаю русский язык», что развивает их речевые и актерские навыки.

Технологии совместного обучения создают возможности для учеников работать в группах, учат их договариваться и принимать коллективные решения. На уроках русского языка можно организовать ролевую игру, например, «В магазине», где учащиеся будут использовать в речи различные формы предложений, задавать вопросы и отвечать на них. Ролевая игра помогает развивать навыки коммуникации и учит взаимодействовать с другими. При изучении литературных произведений ученики могут работать в группах, анализировать текст и представлять свои выводы. Например, в группе ученики могут обсудить, как лучше всего охарактеризовать героя произведения, а затем представить свою точку зрения остальным.

Технология «перевернутого класса» предполагает, что ученики заранее знакомятся с теоретическим материалом (например, смотрят видеолекции или читают учебники), а на уроках выполняют практические задания и обсуждают их. Это развивает навыки аргументации и публичных выступлений. Например, при изучении темы «Части речи» учащиеся могут заранее просмотреть видеоматериалы, а затем на уроке решать задачи на классификацию частей речи, обсуждая их в группе. Учащиеся задают вопросы, объясняют друг другу, как решать задачи, и делятся своими мыслями.

Мобильные игры – это еще один способ сделать уроки интересными и вовлечь учащихся в процесс обучения. Например, с помощью приложений, таких как Duolingo [8] или Lingvist [9], ученики могут тренировать грамматические правила и пополнять свой словарный запас в игровой форме. Для младших школьников можно использовать специальные игры для улучшения орфографии или упражнений на запоминание слов.

Применение видеоконференций помогает учащимся расширить их кругозор, делая уроки более интерактивными и увлекательными. Например, учитель может организовать видеоконференцию с носителем языка, чтобы учащиеся могли задать

вопросы, послушать, как звучит живой русский язык, и обсудить тему. Это помогает улучшить навыки восприятия речи на слух и расширяет знания о культуре и языке.

Таким образом, использование современных технологий на уроках русского языка способствует не только развитию языковых навыков, но и формированию важных коммуникативных умений, таких как способность работать в группе, аргументировать свою точку зрения, договариваться и эффективно взаимодействовать. Современные технологии делают уроки более интересными и помогают ученикам учиться с удовольствием.

Результаты экспериментального исследования. В рамках педагогического эксперимента в двух 2-х классах школы № г. (всего 46 учащихся) была внедрена система заданий, направленных на развитие коммуникативных УУД.

Эксперимент показал, что использование современных технологий значительно повысило уровень коммуникативных навыков у младших школьников. Основные результаты:

- Уровень участия в диалогах повысился на 35%, что свидетельствует о росте речевой активности учащихся.
- Объём активного словаря учащихся увеличился на 20%, что подтверждает эффективное использование мультимедийных средств и игровых платформ.
- 87% учеников стали активнее участвовать в групповой работе, улучшив навыки сотрудничества и обсуждения.

Снизилось количество речевых затруднений при выступлениях на уроке, что отражает повышение уверенности и улучшение навыков публичных выступлений.

Таким образом, современные образовательные технологии способствуют улучшению коммуникативных умений, развитию аргументации, публичных выступлений и активного участия в групповом взаимодействии.

Выводы. Применение современных технологий на уроках русского языка способствует активному формированию коммуникативных универсальных учебных действий младших школьников. Учебный процесс становится более живым, ребёнок учится не только правильно говорить, но и слышать, понимать, взаимодействовать. Совершенствование данных УУД является залогом успешного овладения языком и подготовки учащихся к обучению в среднем звене школы.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – М.: Просвещение, 1983.
2. Эльконин Д.Б. Психология обучения младших школьников. – М.: Педагогика, 1985.
3. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения. – М.: Русский язык, 1991.
4. Громова О.А., Ершова А.П. Методика обучения русскому языку в начальной школе. – М.: Академия, 2016.
5. Государственный образовательный стандарт общего среднего образования Республики Узбекистан. – Ташкент: Министерство народного образования Республики Узбекистан, 2017.
6. Kahoot! <https://kahoot.com/>
7. Quizlet <https://quizlet.com/ru>
8. Duolingo <https://www.duolingo.com/>
9. Lingvist <https://lingvist.com/>

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE EXPRESSION OF VALUES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THE CHALLENGES OF THEIR TRANSLATION

Khudoyberdiyeva Oyjamol Muzaffarovna

Lecturer at Termez State Pedagogical Institute

Jo'rayeva Komila Bahodirovna

Student of the Foreign Language and Literature: English Language program,
Termiz State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes, from a linguocultural perspective, the linguistic units that express values in English and Uzbek, as well as the problems encountered in translating them. The main focus is on issues such as the lack of equivalence, connotative differences, and cultural non-equivalence. Using examples from real texts, the study examines value translation strategies — explanatory translation, cultural adaptation, and calquing. Based on the findings, the article offers recommendations for developing intercultural competence in translation.

Keywords: values, linguoculturology, translation, equivalence, connotation, cultural difference, translation strategies.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QADRIYATLAR IFODASI VA ULARNING TARJIMA MUAMMOLARI

Xudoyberdiyeva Oyjamol Muzaffarovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: teacheroyjamol@gmail.com

Jo'rayeva Komila Bahodirovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi talabasi

E-mail: komila.jurayeva@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillarida qadriyatlarni ifodalovchi lingvistik birliklar va ularning tarjima jarayonidagi muammolarini lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Asosiy e'tibor ekvivalent yetishmovchiligi, konnotativ tafovutlar va madaniy noekvivalentlik muammolariga qaratiladi. Tadqiqot davomida real matnlardan misollar asosida qadriyatlar tarjimasiga oid strategiyalar — izohlovchi tarjima, madaniy adaptatsiya va kalkalash tahlil qilinadi. Maqola natijalariga tayangan holda tarjimada madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga oid takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: qadriyatlar, lingvokulturologiya, tarjima, ekvivalentlik, konnotatsiya, madaniy tafovut, tarjima strategiyalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N49>

Kirish. Har bir til o'z xalqining madaniy dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi vositadir. Shuning uchun tarjima jarayonida lingvistik tafovutlarga emas, balki qadriyatlar tizimining milliy xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Bu holat ayniqsa ingliz va o'zbek tillari kabi turli sivilizatsiyalar ta'sirida shakllangan tillarda yaqqol

namoyon bo'ladi. Qadriyatlar tarjimasi — bu nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va kommunikatsiya sohalarining hamohang faoliyatidir [14].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadriyatlar ifodasi va ularning tarjimasi tilshunoslik, tarjima nazariyasi hamda lingvokulturologiya kesishgan nuqtada tahlil qilinadi. Shu sababli, ushbu masalani yoritishda bir nechta yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi: semantik ekvivalentlik, konnotatsion tafovut, madaniy tafsir va tarjimon kompetensiyasi. Mona Baker o'zining «In Other Words» asarida [2] tarjimaning asosiy komponentlari — leksik ekvivalentlik, frazeologik birliklar tarjimasi, pragmatik tafovutlar va madaniy tafsir masalalarini chuqur tahlil qiladi. Muallif qadriyatlarni ifodalovchi birliklar tarjimasida tarjimon madaniyatlararo sezuvchanlikni rivojlantirishi kerakligini ta'kidlaydi. Peter Newmark esa o'zining «semantic» va «communicative» tarjima modellarida qadriyatlar tarjimasida matn funksiyasi va maqsadli auditoriya talablarini hisobga olishni taklif etadi [9]. Ayniqsa, metaforik yoki konnotativ ma'noga ega qadriyat so'zlari uchun contextual approximation zarur ekanini uqtiradi. Anna Wierzbicka "Understanding Cultures Through Their Key Words" asarida har bir til va madaniyat o'ziga xos qadriyatlarni "kalit so'zlar" orqali ifodalashini ta'kidlaydi. Masalan, ingliz tilidagi *privacy, freedom, ambition* so'zlari g'arb sivilizatsiyasining ustuvor qadriyatlarini bildiradi. O'zbek tilida esa *or, hayo, muruvvat* kabi tushunchalar ustunlik qiladi. Wierzbickaning «natural semantic metalanguage» nazariyasi ushbu farqlarni tahlil qilishda asosiy metodologik platformani taqdim etadi. V.I. Karasik esa qadriyatlarni konseptlar tizimida ko'rib chiqib, ularni tilning madaniy semiotikasi sifatida tavsiflaydi. U qadriyatlarni "madaniy kod" sifatida ko'rib, har bir konseptga tilda o'ziga xos semantik shakl va emotsional fon biriktirilishini ta'kidlaydi. Bu esa tarjima jarayonida *konnotativ yondashuvni* zarur qiladi.

A.Abduazimov o'zining "Lingvistik madaniyatshunoslik asoslari" asarida o'zbek tilida qadriyatlar ifodasini frazeologizmlar, maqollar va barqaror so'z birikmalari orqali ochib beradi. U til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni e'tirof etadi va tarjimon uchun milliy tafakkurni anglashi zarurligini uqtiradi. Juliane House qadriyatlar tarjimasi jarayonida tarjimon tomonidan amalga oshiriladigan madaniy filtr konsepsiyasini kiritadi. U tarjima sifatini baholashda madaniyatlararo kompetensiyani muhim mezon sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa, madaniy jihatdan sezgir so'zlar tarjimasida izohli yondashuvlar, kontekstual tahlil va stilistik moslashuv muhim sanaladi. Hatim va Mason esa tarjimonni "madaniy vositachi" sifatida talqin etadi. Ularning fikricha, qadriyatlar kabi murakkab semantik birliklarni tarjima qilishda kommunikativ intension va pragmatik motivatsiya kabi omillar hisobga olinishi zarur [1].

Muhokama. Qadriyatlar jamiyatning axloqiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik tayanchlarini tashkil etadi. Ular til tizimida leksik, frazeologik va metaforik birliklar orqali ifodalanadi. Har bir tilda qadriyatlar o'ziga xos semantik tizimni hosil qiladi va bu tizim o'sha til egalari uchun dunyoqarash, axloqiy me'yor va ijtimoiy qadriyatlar mezonini belgilaydi. Qadriyatlarni semantik tasniflash orqali ularning tarjima jarayonidagi nozik jihatlari chuqurroq tahlil qilinadi.

Ingliz va o'zbek tillarida qadriyatlarni bildiruvchi asosiy leksik birliklar semantik maydon asosida quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Qadriyat guruhi	Inglizcha leksik birliklar	O'zbekcha leksik birliklar
Shaxsiy erkinlik	<i>freedom, independence, autonomy, liberty</i>	<i>erkinlik, mustaqillik, o'z yo'lini tanlash</i>
Ijtimoiy adolat va tenglik	<i>justice, fairness, equality, equity</i>	<i>adolat, haqiqat, tenglik, haqli bo'lish</i>
Shaxsiy yutuq va o'sish	<i>achievement, success, ambition, self-realization</i>	<i>yutuq, omad, izzat, mehnat bilan erishish</i>
Axloqiy va diniy qadriyatlar	<i>honesty, loyalty, humility, piety</i>	<i>vijdon, or, hayo, sadoqat, tavoze, e'tiqod</i>
Ijtimoiy tartib va iyerarxiya	<i>respect, responsibility, obedience</i>	<i>kattalarga hurmat, mas'uliyat, itoat, ehtirom</i>
Oilaviy va milliy qadriyatlar	<i>family, patriotism, tradition</i>	<i>ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, urf-odat</i>

O'zbek tilida qadriyatlar ko'proq jamoa, axloq va ruhiyatga asoslangan bo'lsa, ingliz tilida esa shaxs, huquq va imkoniyatlar markazda turadi. Bu farq tarjima jarayonida ekvivalentlik emas, funksional moslikni talab qiladi. Masalan, ingliz tilidagi *autonomy* so'zi o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri muqobilga ega bo'lmasligi mumkin va madaniy tafsir orqali anglatilishi kerak [3].

Qadriyatlarni faqat neytral so'zlar orqali emas, balki emotsional va baholovchi konnotatsiyali birliklar orqali ham anglash mumkin. Til egalari uchun qabul qilinadigan yoki rad etiladigan qadriyatlar ko'pincha ijobiy yoki salbiy baho bildiruvchi birliklar orqali beriladi.

Qadriyat turi	Inglizcha	O'zbekcha	Konnotatsiya turi
O'zini anglash	<i>self-esteem, pride</i>	<i>mag'rurlik, iftixor</i>	Ijobiy/Salbiy (kontekstga bog'liq)
Mas'uliyat	<i>accountability, duty</i>	<i>mas'uliyat, burch</i>	Ijobiy
Mansabga intilish	<i>ambition, competitiveness</i>	<i>mansabparastlik, kuchga intilish</i>	Inglizchada ijobiy, o'zbekchada salbiy
Hurmat	<i>respect, reverence</i>	<i>ehtirom, izzat, hurmat</i>	Ijobiy
Qoniqish	<i>satisfaction, gratitude</i>	<i>shukr, minnatdorchilik</i>	Ijobiy
Xuruj/ustunlik qadriyati	<i>dominance, assertiveness</i>	<i>zo'ravonlik, ustunlik, buyruq</i>	Salbiy (o'zbekchada)

Masalan, *ambitious* ingliz tilida kasbiy o'sishga bo'lgan intilish bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha ijobiy baholanadi. O'zbek tilida esa *mansabparast* so'zi salbiy konnotatsiyaga ega. Shu sababli tarjimada konnotatsion yuklamani ham hisobga olish zarur.

Qadriyatlarning semantik tasnifi shuni ko'rsatadiki: Ingliz tilida qadriyatlar shaxs, yutuq, erkinlik va huquq atrofida shakllangan bo'lsa, o'zbek tilida qadriyatlar urug'-aymoq, jamoa, axloqiy tozalik va diniy qadriyatlar asosida rivojlangan.

Bu tasnif asosida tarjimada faqat lug'aviy ekvivalentlarni emas, balki semantik maydon, konnotatsion tafovut va madaniy realiyalarni ham hisobga olish lozim bo'ladi [4].

Natija. Qadriyatlar semantik va konnotativ jihatdan har bir madaniyatda turlicha talqin qilinadi. Tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniy kontekstni anglash qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Bu ayniqsa *privacy, freedom, honor, ambition* kabi qadriyatlar bilan bog'liq atamalarni tarjima qilishda muhim bo'ladi.

Qadriyatlar tarjimasi turli madaniy, ijtimoiy va semantik kontekstlarga ega bo'lgan til birliklarini mos va tushunarli tarzda qabul qiluvchi tilga o'tkazishni talab qiladi. Bu jarayonda tarjimon nafaqat ekvivalent so'z tanlaydi, balki uning orqasidagi madaniy kod, konnotativ yuklama va ijtimoiy-funksional ma'noni ham inobatga olishi lozim. Shu bois, qadriyatlarni tarjima qilishda quyidagi strategiyalar eng samarali hisoblanadi:

Tarjima strategiyasi	Misol	Izoh
Izohlovchi tarjima	<i>Thanksgiving</i> → “Amerikada har yili minnatdorchilik kuni”	Madaniy realiyani tushunish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar qo'shiladi.
Madaniy adaptatsiya	<i>Dating</i> → “Norasmiy uchrashuv”	Manba madaniyatidagi hodisa o'zbek madaniyatiga mos tushunchaga aylantiriladi.
Kalkalash	<i>Brain drain</i> → “Miyalar oqimi”	Iboraning tuzilmasi saqlanadi, lekin ma'nosi terminologik izoh talab qiladi.
Funksional ekvivalent	<i>Freedom of speech</i> → “So'z erkinligi”	Asl ma'no va vazifa saqlanib, maqsad tilida umumiy qadriyat bilan almashtiriladi.
Ko'p komponentli tarjima	<i>Accountability</i> → “Jamoatchilik oldidagi ochiq va adolatli javobgarlik”	Yagona so'z bilan ifoda etib bo'lmaydigan murakkab qadriyatlar uchun qo'llaniladi.

Ushbu strategiyalar turli qadriyatlarni tarjima qilishda mos kontekstda tanlanishi lozim. Masalan, *privacy* so'zini oddiy “shaxsiy hayot” deb tarjima qilish yetarli bo'lmasligi mumkin; ba'zida bu tushunchani kengroq madaniy tahlil bilan izohlashga ehtiyoj tug'iladi.

Qadriyatlarni ifodalashda tilning grammatik qurilishi ham muhim rol o'ynaydi. Ingliz va o'zbek tillari orasida bu borada quyidagi farqlar kuzatiladi:

Ingliz tilida qadriyatlar odatda abstrakt otlar orqali ifodalanadi: *freedom* (erkinlik), *justice* (adolat), *integrity* (halollik), *honesty* (rostgo'ylik).

O'zbek tilida esa qadriyatlar ko'pincha fe'lli shakllar yoki sintaktik konstruksiyalar orqali beriladi: *hurmat qilmoq, ehtirom ko'rsatmoq, fidoyilik ko'rsatmoq, sabr qilmoq*.

Misollar: *Respect is earned, not demanded.* → “Hurmat so'ralmaydi, munosib bo'linadi.” *Honesty builds trust.* → “Rostgo'ylik ishonch uyg'otadi.”

Bu farq tarjimada grammatika darajasidagi moslikni ham e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi. Aks holda, qadriyatni ifodalovchi birlik o'z kuchini yo'qotadi yoki noto'g'ri anglash xavfi tug'iladi [5].

Xulosa. Qadriyatlar tarjimasi nafaqat lingvistik, balki chuqur madaniy va konseptual tafakkurni anglashni talab qiluvchi murakkab jarayon ekanligi maqola davomida isbotlandi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi qadriyat ifodasidagi semantik va konnotativ tafovutlar ushbu tillarning madaniy asoslari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida qadriyatlar shaxsiy erkinlik, yutuq va huquq atrofida shakllangan bo'lsa, o'zbek tilida ular jamoaviylik, axloqiy poklik va diniy qadriyatlar bilan bog'liq. Shu bois, tarjimada nafaqat leksik ekvivalent, balki madaniy moslik, funksional kontekst, konnotatsion yuklama va grammatik struktura ham inobatga olinishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abduazimov A. Lingvistik madaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 180 b.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011. – 341 p.
3. Bozorov M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 240 b.
4. Hatim B., Mason I. The Translator as Communicator. – London: Routledge, 1997. – 251 p.
5. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. – London: Routledge, 2015. – 210 p.
6. Karasik V.I. Yazykovoy krug: lichnost', kontsepty, diskurs. – Moscow: Gnozis, 2004. – 389 s.
7. Khudoyberdieva, O. (2024). Demonstrative Semantics of Dance Terms in English and Uzbek. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 127-129.
8. Muzaffarovna, K. O. (2023). The Role of Dance Terminology in Linguistics. Genius Repository, 26, 83–85.
9. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
10. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 2003. – 206 p.
11. QODIROVA, M. (2024). THE ROLE OF PRAGMATIC CONVENTIONALITY IN THE REGULATION OF ENGLISH BUSINESS DISCOURSE. ACTA NUUZ, 1(1.9.1), 306–308.
12. Sattarov Z. Til va madaniyat: lingvokulturologik yondashuvlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 164 b.
13. SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF BUSINESS DISCOURSE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. (2024). Western European Journal of Linguistics and Education, 2(10), 92-96.
14. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 328 p.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

LEXIC-SEMANTIC FIELD OF CONSTRUCTION TERMINOLOGY

Ostonova Ramziya

Phd student

Uzbek state World Languages University

E-mail: astonovaramziya@gmail.com

Abstract. This article sheds light on the lexic-semantic field and applying this field into construction terminology. Lexic-semantic field is considered helpful way to analyze and compare the languages and find out the similarities and differences between languages. Lexic-semantic field plays a great role to form the relationship between the language and culture.

Keywords: lexic-semantic field, lexic-semantic group, construction terminology, synonym, antonym, semantic relationship.

QURILISH TERMINOLOGIYASINING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI

Ostonova Ramziya

tayanch doktoranti

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola leksik-semantik maydon va bu konsepsiyani qurilish terminologiyasida qo'llashga doir qaratilgan. Leksik-semantik maydon tillarni tahlil qilish va solishtirish, tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashning foydali usuli hisoblanadi. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni shakllantirishda leksik-semantik soha katta rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: leksik-semantik soha, leksik-semantik guruh, yasash terminologiyasi, sinonim, antonim, semantik munosabat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N50>

INTRODUCTION

Language is a complex, changing system that provides communication between people. One important aspect of language learning is- lexical semantic group or lexical semantic field concept and is an important integral part of modern linguistic knowledge. The concept acts as a mediator in analyzing the relationship between words in a language and their meaning. In the world of language, words form a set of concepts and expressions. The lexical-semantic field, on the other hand, is a type of Atlas (map book) and provides us with support in uncovering the secret of semantic form. This concept, introduced in modern linguistics, is that of a concept, reveals the main factors, keys to the structure of the linguistic world, which reveal the internal laws of oral communication. Lexis refers to individual words or sets of words-that is, dictionary units with a certain meaning. The idea of this field was developed by the German scientist I.Trien (Aybeniz Gadashova,2023). It emphasizes as a branch of semantic field, where the dictionary depends on each other. Including, it is defined as the elements that cover the entire field of meaning and divide it into subsections. This theory became the starting point for the

construction of lexical content and the formation of new approaches to the study of language content. The study of the lexical-semantic field is an urgent and important task in modern linguistics for a number of reasons. The lexical-semantic field functions as an intermediary for in-depth analysis of language structure. So, lexic-semantic field attributes understanding the internal relationships and semantic relationships between the two languages and scientific researchers understand the secrets of language and its evolution allows for more complete disclosure.

LITERATURE REVIEW

T. Kurenkova describes a lexical-semantic field is a complex lexical micro-system with a specific field layout that unites words according to the semantic principle (Kurenkova,2006). Lexical-semantic field micro-fields, which are formed. As T.Kurenkova mentioned the most important components of the lexical-semantic field is:

- the interdependence of elements;
- order of the elements;
- their hierarchy and the degree;

According to A.V Nabirukhina, the lexical semantic field should be included in its composition on the basis of the similarity of the content of the words of different parts of speech. Y.N.Karaulov defines a lexical-semantic field as: "a lexical semantic field is- is a group of words with which the linguistic unit is meaningfully interconnected with each other". The lexical-semantic field is a group of words that are structured together with general semantic meaning and lexical connections. This concept or concept originated in linguistics as an intermediary for the analysis of semantic relations between words in context. In the lexical-semantic field, the central element is the keyword, which acts as the core in the field, clarifying the main topic. G.Aliyeva studies the concept of a lexical-semantic field in linguistics, noting that languages differ from each other in that they belong to different structural categories of the field(Aliyeva G,2023)

G.Guseyonova, in her study, considers the lexical-semantic field as a whole and highlights the main features of the semantic field as follows:

- 1) the semantic field is an intuitive, psychological process for native speakers;
- 2)the lexical-semantic field is an autonomous linguistic phenomenon that stands out as a subsystem of the language;
- 3) the units of the lexical-semantic field together have a systematic semantic relationship;
- 4) each semantic field of a language creates a language system with other semantic fields;

The lexical-semantic field is of great importance in the formation of relations between language and culture. A.Gadoshova notes that the lexical-semantic field is the main component for understanding how language is reflected and interrelated with culture. This area is especially evident in the context of comparison, acquisition of linguistics. At the same time compare languages and reveal their similarities and differences. So A.Gadashova notes that the lexical-semantic field acts as an instrument ,a tool for analyzing the meanings of the differences and similarities between languages, as well as identifying their relationship with language and culture.

DISCUSSION

Gadashova emphasizes that important structural features of the lexical-semantic field should be taken into account the dynamics of hierarchy, relationships, relations between words, and emphasizes several key components that determine the structure of the lexical-semantic field. According to his study, the main components are as follows:

Core word: the lexical-semantic field center represents a keyword that reflects the basic semantic meaning of the entire field. The word usually describes the broadest semantic field within the lexical-semantic field and serves as a guide to the meaning of the general subject. T.Matrseva identifies the central word of the lexical-semantic field and calls it the "inner core". He writes that the inner core is the center of meaning of the lexical-semantic field (T.Martseva, 2017:63) Hence, the lexical semantic field is a central basic concept, which covers the semantic connection between all words included in the field. So, it plays the role of a common character that connects various elements of the lexical-semantic field and defines the general meaning of this field. The Core word in the lexical-semantic field plays the role of focus, defining the main topic. This word usually refers to the most general and broad semantic meaning within the field ega. For example, building names, lexical-semantic field word can be either core building names or types. The core word serves as the starting point for identifying semantic connections within the lexical semantic field(A.Gadashova:2023:106)

Periphery: contains words arranged at the edges of the lexical semantic field. These words are related to the central word i.e. the core word, but their semantic meaning can be more specific or abstract. Peripheral elements provide additional information and text, expand the scope of understanding the topic. I. According to Shein in his paper " the lexical-semantic field as a universal way to organize this-linguistic experience", the peripheral elements of the lexical-semantic field are located at the edges of the field, they argue that the central word is that which is related to the nuclear word, but which can be more precise or abstract. The elements in each domain are observed to be divided into a central-nuclear word and a periphery (Shein.I, 2020: 69-72). Given this theory, we can say that peripheral elements can be characterized as elements far and near the center. These elements form a thematic image. For instance, lexical-semantic field- vegetables, periphery-field, crop, seedling, seed.

Semantic links: semantic relations between lexical-semantic field words are formed in Assos. Synonyms for these relationships are(words with similar meaning),antonyms(words with opposite meaning), hyperonyms (representing general concepts), and hyponyms(representing a more specific concept (A.Gadashova 2023: 1005).These connections provide a logical sequence of words within the field. T.M.As Alexeyeva noted, " within the boundaries of the semantic field, one can find a wide variety of semantic relations between lexical units. For example, a synonym, prosimian, conversion. Semantic-units introduced in the field have syntagmatic and paradigmatic properties. Within each field, lexical groups are distinguished., they are opposed to each other in terms of meaning and stylistic features (T.Alekseeva, 2009: 132-137).

RESULTS

According to Lashkevich V.V, the semantic field of construction terminology is divided into the following groups:

- 1) **term:**
 girder-temir yoki beton to'sin
 beam-to'sin, xalq tilida balka
 plate-oddiy metal
- 2) **Term-word combination:**
 residential building-aholi turar joy binosi
 industrial building: sanoat binosi
 Building structures: qurilish inshootlari
- 3) **Term-abbreviation:**
 CMU-Concrete Masonry Unit-betonli g'ishtlar, xalq tilida shlakablok;

According to Lashkevich V.V, the lexic-semantic field of construction terminology is divided into the following groups:

1. group associated with the building and its parts;
2. raw materials, materials related group;
3. construction process and condition related group;
4. related group by the name of mechanisms and machines;
5. construction related professions group;
- 6.term groups associated with tools;
- 7.term group representing properties of raw materials and products;
- 8.placename group that occurs during construction practises;

CONCLUSION

By studying the above scientific considerations, it can be concluded that the lexical-semantic field is a kind of Atlas (map book), which provides us with support in uncovering the secret synoats of semantic form and lexical dependencies. Understanding the connections between semantic edges and words helps to get ahead of linguistic misunderstandings, more perception of meanings, languages help to interact and transmit. The lexical-semantic field helps linguists and researchers to better understand how words are related and how semantic classes are formed in a language. The lexical-semantic field is a group of words in the same system with close semantic contact with each other (Karaulov,1972).At the same time the lexical semantic field consists of the central word i.e. nucleus, pripheria and semantic relations (synonym, antonym, hyperonym, and hyponym (Gadashova A.2023). Lashkevich V.V suggests that the semantic field of construction terminology consists of a term-word, a term-word compound, a term-abbreviation and also there are 8 groups of construction terminology based on their lexic-semantic field.

References/Adabiyotlar/Literatura:

1. Alyjeva, G.B. (2023). Dilchilikda semantik saha anlajyshy [Concept of semantic field in linguistics]. *Filologiya masalalari*, 12, 189–195 (in Azerbaijani).

2. Alekseeva, T. (2009). Leksiko-semanticheskoe pole illokucii: opredelenie i struktura [Lexico-semantic field of illocution: definition and structure]. *Aktual'nye voprosy sovremennoj nauki*, 10, 132–137 (in Russian).
3. Aybeniz Gadashova The Lexico-Semantic Field in Modern Linguistics: Foundations and Applications *Path of Science. 2023. Vol. 9. No 11 ISSN 2413-9009 Azerbaijan Medicine University* Samad Vurghun, Baku, Nasimi, AZ1022, Azerbaijan
4. Guseynova, G. (2013). *Tat dilinin leksikasy (Azarbadzhan tatlarynyn dilinin materiallary asasynda)* [Lexicon of the Tat language (based on the materials of the language of the Azerbaijani Tats)]. Baku: Elm va tahsil (in Azerbaijani).
5. Karaulov, Ju. (1972). Struktura leksiko-semanticheskogo polja [The structure of the lexical-semantic field]. *Filologicheskie nauki*, 1, 57–68 (in Russian).
6. Kurenkova, T.(2006). Leksiko-semanticheskoe pole i drugie polja v sovremennoj lingvistike [Lexicosemantic field and other fields in modern linguistics]. *Vestnik Sibirskogo gosudarstvennogo ajerokosmicheskogo universiteta im. akademika M. F. Reshetneva*, 4(11), 173–178 (in Russian).
7. Лашкевич В. В. ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СТРОИТЕЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ УДК 808.26-3(043.3)
8. Nabiruhina, A. (1990). Struktura leksiko-semanticheskogo polja pleasure v sovremennom anglijskom jazyke [The structure of the lexical-semantic field of pleasure in modern English]. *Vestnik Leningradskogo gosudarstvennogo universiteta*, 1(2), 69–73 (in Russian).

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PRINCIPLES OF «REVIVAL AND NATIONAL IDENTITY AWARENESS» IN AMERICAN AND UZBEK LITERATURE

¹Karshiyeva Tamara, ¹Nabiyeva Sharifa,

²Samadova Charos, ²Ganiyeva Inobat

¹senior teacher and ²students of the Department of "Foreign Languages" of Karshi State Technical University

Abstract. This article presents a comparative analysis of the Uzbek Jadid movement and the American Transcendentalist movement based on the principles of revival and national identity awareness. It examines the historical foundations, core ideas, and literary representatives of both movements, analyzing their role in society and their influence on the formation of national consciousness. The findings of the research indicate that both Jadidism and Transcendentalism played a significant role in promoting enlightenment and personal freedom in their respective eras. Additionally, the article highlights the literary and cultural legacy of these movements and their echoes in contemporary literature.

Keywords: jadidism, Transcendentalism, national consciousness, revival, literary movements, cultural heritage, education and enlightenment, national identity, American literature, Uzbek literature.

AMERIKA VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA «UYG'ONISH VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH» TAMOYILLARINING QIYOSIY TAHLILI

¹Qarshiyeva Tamara Ibroximovna, ¹Nabiyeva Sharifa Ismailovna,

²Samadova Charos, ²G'aniyeva Inobat Xolboy qizi

Qarshi davlat Texnika Universiteti "Xorijiy tillar" kafedrası ¹katta o'qituvchilari va ²talabalari

E-mail: karshieva0989@gmail.com, sharifa.nabieva@mail.ru,

charos11@bk.ru, inobatganiyeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek jadidchilik harakati va Amerika transsendentalizmi oqimi uyg'onish va milliy o'zlikni anglash tamoyillari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikkala harakatning tarixiy asoslari, asosiy g'oyalari va adabiy namoyandalari ko'rib chiqilib, ularning jamiyatdagi roli va milliy ong shakllanishiga ta'siri tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidchilik va transsendentalizm harakatlari o'z davrida ma'rifiy yuksalish va shaxsiy erkinlikni targ'ib qilishda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, maqolada ushbu harakatlarning adabiy-madaniy merosga ta'siri va ularning zamonaviy adabiyotdagi aks-sadosi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, transsendentalizm, milliy ong, uyg'onish, adabiy oqimlar, madaniy meros, ta'lim va ma'rifat, milliy o'zlik, Amerika adabiyoti, O'zbek adabiyoti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N51>

Kirish. Jadidchilik va transsendentalizm – ikki xil tarixiy va madaniy muhitda shakllangan adabiy-ma'rifiy harakatlar bo'lib, ularning umumiy jihati milliy ong va o'zlikni anglashni uyg'otishdir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekistonda shakllangan jadidchilik harakati milliy uyg'onish, ilm-ma'rifat va mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilgan bo'lsa, XIX asr Amerika adabiyotida shakllangan transsendentalizm oqimi individualizm, tabiiy uyg'unlik va

ichki erkinlik tamoyillariga asoslangan. Ushbu maqolada har ikki oqimning paydo bo'lish sabablari, ularning asosiy g'oyalari va adabiy namoyandalari orqali uyg'onish jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, jadidchilik va transsendentalizmning jamiyat va madaniyat rivojiga ta'siri, adabiyotdagi ifodasi va ularning keyingi davr adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri qiyosiy tahlil qilinadi. Mazkur maqola ushbu ikki harakatning o'ziga xos xususiyatlari va ularning umumiy jihatlarini ochib berishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jadidchilik harakati va transsendentalizm oqimi ikki xil tarixiy-madaniy muhitda rivojlangan bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi jamiyatni uyg'otish va milliy o'zlikni anglash jarayoniga hissa qo'shishdan iborat edi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbekistonda shakllangan jadidchilik harakati turkiy xalqlar orasida milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surdi. Ushbu harakatning yetakchilari Fitrat, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon kabi ziyolilar bo'lib, ular milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga harakat qildilar. Jadidlar eski maktablarni isloh qilib, yangi usul maktablarini tashkil etdilar. Ular jamiyatni savodli va madaniyatli qilish orqali milliy ongni shakllantirishni maqsad qilgan. Jadid adabiyoti milliy mustaqillik, erkinlik va ma'rifatni targ'ib qiluvchi asarlar yaratdi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani o'zbek xalqining milliy uyg'onish yo'lidagi kurashini aks ettiradi. Jadidlar matbuot va nashriyot orqali milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va jamiyatni isloh qilish g'oyalarini ilgari surdilar.

XIX asrda AQShda paydo bo'lgan transsendentalizm oqimi milliy ongni shakllantirish va shaxsiy erkinlikni ilgari surishda muhim rol o'ynadi. Ushbu oqimning asoschilari Ralf Uoldo Emerson, Genri Devid Toro va Margaret Fuller bo'lib, ular milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surdilar. Transsendentalistlar insonning ichki dunyosiga, mustaqil fikrlashiga va tabiat bilan uyg'un yashashiga urg'u berishdi. Emersonning "O'zlikka ishonch" (Self-Reliance) asari bu g'oyalarni aks ettiradi. Toro o'zining "Uoldenga" (Walden) asarida inson tabiat bilan bog'lanishi orqali o'zining ichki mohiyatini anglashini ta'kidlaydi. Bu fikrlar milliy ong va ruhiy uyg'onish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatgan. Transsendentalistlar qullik, ayollar huquqlari va diniy erkinlik masalalarida faol bo'lib, jamiyatni yangilash va milliy o'zlikni shakllantirishga intildilar [1].

Shunday qilib, har ikkala harakat ham milliy o'zlikni anglashga xizmat qilgan bo'lsa-da, jadidchilik harakati milliy mustaqillik va ta'lim orqali milliy uyg'onishga intilgan, transsendentalizm harakati esa shaxsiy erkinlik va tabiatga bog'liq holda o'zlikni anglashni targ'ib qilgan.

Muhokama. Jadidchilik va transsendentalizm harakatlari adabiy va falsafiy jihatdan o'ziga xos asoslarga ega bo'lib, ularning ta'sir doirasi keng bo'lgan.

Jadidchilik harakati adabiy jihatdan yangi usul maktablari va matbuot rivojlanishi bilan bog'liq holda shakllandi. She'riyat va dramatik asarlarda milliy ong, vatanparvarlik va erkinlik mavzulari ilgari surildi. Xususan, Abdurauf Fitratning "Hind ixtilochisi" dramasida milliy uyg'onish g'oyasi aks ettirilgan. Falsafiy jihatdan esa jadidchilik harakati islomiy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish g'oyasiga asoslangan. Ushbu harakatda ilm-fan va ta'lim orqali milliy o'zlikni shakllantirish asosiy tamoyil edi. Yevropa ma'rifatchilik harakati va panturkizm mafkurasi jadid falsafasiga ta'sir ko'rsatgan.

Transsendentalizm harakati esa adabiy jihatdan esse, poeziya va badiiy asarlar orqali inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ifodalagan. Xususan, Emersonning "Tabiat" (Nature) asari transsendentalizmning manifesti sifatida talqin qilinadi. Toro va Uolt Uitmen kabi adiblar

o'z asarlarida insonning ichki erkinligi va tabiat bilan uyg'un yashashini ulug'lashgan. Falsafiy jihatdan transsendentalizm Immanuel Kant, Fichte va Shelling kabi nemis faylasuflarining ta'limotlaridan ta'sirlangan bo'lib, oqimning asosiy tamoyili insonning ichki tajribasi va tabiat orqali haqiqatni anglashidir. Diniy jihatdan transsendentalistlar institutlashgan dinni emas, balki shaxsiy ilhom va tajribani ustuvor qo'yishgan. Ushbu harakatlarning adabiy va falsafiy asoslari ularning jamiyat va madaniyatga ko'rsatgan ta'sirini yanada kengaytirgan [2].

Adabiyot har doim jamiyatdagi o'zgarishlarning aks-sadosi bo'lib kelgan. Jadidchilik va transsendentalizm harakatlari o'z davrida adabiyot orqali uyg'onish tamoyillarini ifodalagan. Jadid yozuvchilari o'z asarlarida jamiyatdagi tanazzul, savodsizlik va zulmni qoralashgan. Fitratning "Qiyomat" dramasi bunga misol bo'la oladi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani esa millat taqdiri va erkinlik uchun kurashni tasvirlaydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, jadid adabiyotida ta'lim va yangi usul maktablarini targ'ib qilish muhim mavzu bo'lgan.

Transsendentalist adabiyotida ilgari surilgan islohotchilik g'oyalarini tadqiq qilish ham harakatning mohiyatini to'liqroq tushunishga imkon beradi. Xususan ushbu harakat namoyandalaridan biri hisoblangan Emersonning "O'zlikka ishonch" essesi insonning mustaqil fikrlashi va o'z yo'lini tanlashi lozimligini ta'kidlaydi. Toro esa o'zining "Uolden" asarida inson tabiat bilan uyg'un yashash orqali ma'naviy yuksalishiga erishishini ta'riflaydi. Transsendentalistlar qullik, din va ijtimoiy me'yorlarni tanqid qilib, shaxsiy tajribaga asoslangan dunyoqarashni targ'ib qilganlar. Bir so'z bilan aytganda, jadidchilik va transsendentalizm harakatlari uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilishda adabiyotning muhim vosita ekanligini namoyon etdi [3].

Natija. Jadidchilik harakati va transsendentalizm oqimi turli tarixiy-madaniy sharoitlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning asosiy g'oyalari o'rtasida muayyan o'xshashliklar va farqlar mavjud.

	Jadidchilik	Transsendentalizm
Vaqt va hududi	XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekistonda vujudga kelgan	XIX asrda AQShda shakllangan
Asosiy g'oyasi	Milliy uyg'onish, ta'lim islohoti, mustaqillik va taraqqiyot	Individualizm, ichki erkinlik, tabiat bilan uyg'unlik
Ilm-ma'rifatga munosabat	Zamonaviy bilimlarni o'rganish, ta'lim orqali taraqqiyotga erishish	Intuitsiya va shaxsiy tajribaga tayanish, tabiatdan ilhom olish
Diniy qarashlar	Islomiy qadriyatlarni saqlab qolgan holda yangilanish tarafdori	Institutlashgan dinni tanqid qilib, ilohiylikni shaxsiy tajribada ko'rish
Jamiyatga munosabat	Jamoaviy rivojlanish va milliy uyg'onish g'oyasini ilgari suradi	Jamiyatdan mustaqil fikrlash va o'z yo'lini topish muhim
Asosiy vakillari	Munavvarqori, Fitrat, Behbudiy, Cho'lpon, Avloniy	Emerson, Toro, Uitmen, Margaret Fuller
Adabiy uslub	Realistik, tanqidiy, milliy ruhda yozilgan asarlar	Poeziya, esse, falsafiy mushohadalar

Ushbu taqqoslashdan ko'rinib turibdiki, har ikkala oqim ham inson ongini uyg'otish va taraqqiyotga hissa qo'shishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan. Biroq jadidchilik ijtimoiy

islohotlarga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lsa, transsendentalizm shaxsiy erkinlik va tabiiy uyg'unlikni targ'ib qilgan. Jadidchilik va transsendentalizm harakatlari jamiyat va madaniyat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, jadidchilikning sa'y-harakatlari natijasida yangi usul maktablari tashkil etilib, milliy til va adabiyotga e'tibor kuchaydi. Jadidlar mustaqillik g'oyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan, bu keyinchalik siyosiy harakatlarga sabab bo'ldi. Jadid gazeta va jurnallari orqali ma'rifiy g'oyalarni tarqatib, jamiyatni uyg'otishga harakat qildi. Shuningdek, jadid adabiyoti va dramaturgiyasi milliy teatrning rivojlanishiga xizmat qildi [4].

Transsendentalizm harakati esa individualizm, inson huquqlari va shaxsiy rivojlanish tamoyillariga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu harakat vakillari hisoblangan Toro va Emersonning g'oyalari ekologik harakatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Qullikka qarshi harakatlar va ayollar huquqlari targ'iboti transsendentalistlarning g'oyalari bilan uyg'un bo'lgan. Transsendentalizm falsafasi amerikalik yozuvchi va shoirlarning ijodida muhim rol o'ynadi. Umuman olganda, har ikkala harakat ham jamiyat va madaniyatni rivojlantirishga katta ta'sir o'tkazgan. Jadidchilikning ta'siri O'zbekiston mustaqillik harakati va ta'lim tizimining rivojlanishida sezilgan bo'lsa, transsendentalizm AQShda erkin tafakkur, ekologik harakat va demokratik qadriyatlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan [5].

Jadidchilik va transsendentalizm harakatlari o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ularning adabiyotdagi ta'siri XX asrda ham davom etgan. Xususan, Sovet rejimi jadidlarni qatag'on qilgan bo'lsa-da, ularning g'oyalari yashirin ravishda adabiyotda saqlanib qoldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jadid adabiyoti va merosi qayta tiklandi, jadid adiblarining asarlari nashr qilindi. Hozirgi o'zbek yozuvchilari esa milliy uyg'onish, ma'rifat va mustaqillik g'oyalarini jadidchilik an'analariga asoslanib yoritishda davom etmoqda [6].

Transsendentalizm harakatining XX asrdagi holatiga to'xtaladigan bo'lsak, Ernest Xeminguey, Folkner kabi yozuvchilar transsendentalistlarning mustaqil tafakkur va individuallik g'oyalaridan ilhomlangan. XX asr oxirida ekologik harakatlar kuchayishi bilan transsendentalistlarning tabiat va inson uyg'unligi haqidagi qarashlari qayta ommalashdi. Transsendentalizm bugungi kunda ham G'arb falsafiy, adabiy jarayonlariga katta ta'sir etib kelmoqda [7].

Xulosa. Amerika va o'zbek adabiyotida "uyg'onish" va "milliy o'zlikni anglash" tamoyillari har ikkala xalqning tarixiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Amerika adabiyotida uyg'onish g'oyasi ko'proq individual erkinlik, fuqarolik huquqlari va shaxsiy o'zlikni shakllantirish bilan bog'liq tarzda ifodalanadi. O'zbek adabiyotida esa uyg'onish g'oyasi asosan mustamlakachilikka qarshi kurash, tarixiy xotirani tiklash va madaniy qadriyatlarni saqlab qolish orqali ifodalanadi. Jadidchilik harakati, istiqlool davri adabiyoti hamda zamonaviy yozuvchilarning asarlarida milliy o'zlik — til, din, urf-odat va tarixiy ong asosida shakllanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikkala adabiyotda uyg'onish va o'zlikni anglash g'oyalari milliy o'zgarishlar jarayonining adabiy ifodasi sifatida xizmat qiladi. Mazkur tamoyillar orqali ijodkorlar jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy yuksalishiga hissa qo'shganlar. Shu bois, bu mavzu bugungi globalashuv sharoitida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, madaniyatlararo tafakkur va o'zlikni anglashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullayev H. Jadidchilik va milliy mustaqillik g'oyasi. – Toshkent: Fan, 1999.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1997.
3. Emerson R. W. Nature and Selected Essays. – New York: Penguin Classics, 2003.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Fuller M. Woman in the Nineteenth Century. – New York: Norton, 1998.
6. Muhammad Solih. Jadidchilik va milliy o'zlik. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2001.
7. Myerson J. Transcendentalism: A Reader. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
8. Perry R. The Roots of American Transcendentalism. – University of Georgia Press, 1985.
9. Thoreau H. D. Walden, or Life in the Woods. – Boston: Ticknor and Fields, 1854.
10. Versluis A. American Transcendentalism and Asian Religions. – Oxford University Press, 1993.
11. O'rmonova M. Jadid adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2014.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

EXPLANATION OF SIMPLE SENTENCE ANALYSIS OF SELECTED WISE SAYINGS IN KHOREZM EPICS

Mukhammedova Sumbul

Nukus State Pedagogical Institute
2nd year basic doctoral student

Abstract. This article summarizes the scientific and theoretical views on the simple sentence included in the section on syntax. Some wise sayings in the syntactic form of the simple sentence used in Khorezm epics are analyzed.

Keywords: wise words, simple sentence, compound sentence, declarative sentence, interrogative sentence, imperative sentence, simple extended sentence, simple unextended sentence, personal sentence, impersonal sentence.

XORAZM DOSTONLARIDAGI AYRIM HIKMATLI JUMLALARNING SODDA GAP TAHLILI BO'YICHA IZOHI

Muxammedova Sumbul

Nukus davlat pedagogika instituti
2-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: Muxammedovasumbula@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sintaksis bo'limiga kiruvchi sodda gap bo'yicha olib borilgan ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan. Xorazm dostonlarida qo'llanilgan sodda gap sintaktik qolipidagi ayrim hikmatli jumlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hikmatli so'z, sodda gap, qo'shma gap, darak gap, so'roq gap, buyruq gap, sodda yoyiq gap, sodda yig'iq gap, shaxsli gap, shaxssiz gap.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N52>

Kirish. XX asr boshqa fanlar taraqqiyotida bo'lgani kabi tilshunoslik tarixida ham asosiy e'tibor obyektga substansional nuqtai nazardan yondashuvdan struktur-funksional yondashuvga o'tishi bilan ahamiyatlidir [8; 23.b.] Ferdinand de Sossyurning "til substansiya emas, balki shakldir" g'oyasi struktural tilshunoslik maydonga kelishiga sabab bo'ldi [4; 7.b.]. Jahon tilshunosligida XX asrda sintaksis bo'yicha Ch.F.Fillmore, N.Xomskiy, K.Sugayama, R.Gudson, A.Goldberg, E.V.Raxilina, L.L.Iomdin, B.L.Iomdin, V.V.Vinogradov, A.M.Peshkovskiy, Y.D.Apresyan, E.Kurilovich, Ye.S.Kubryakovalar tomonidan ko'plab tadqiqotlar yaratildi [6; 8.b.]. O'zbek tilshunosligida o'zbek tilidagi sintaksisni tashkil etuvchi komponentlar o'rtasidagi munosabatlar tabiati bo'yicha A.G'ulomov, A.Hojiyev, I.Qo'chqortoyev, Sh.S.Rahmatullayev, A.Berdialiyev, M.Mirtojiyev, N.Turniyozov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, B.Yo'ldoshev, M.K.Sharipov, S.Shodiyev, H.Ne'matov, R.Rasulov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari mavjud [6; 8.b.].

Muayyan til qonuniyatiga ko'ra grammatik va ohang jihatidan shakllangan nutq birligi – gap hisoblanib, fikr shakllanishi va ifodalanishining asosiy vositasidir. Grammatik jihatdan shakllangan, intonatsion tugallikka ega bo'lgan bir so'z yoki so'zlar bog'lanmasidan iborat fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik – gap deyiladi [7; 281.b.]. Kesimlik belgisiga ega bo'lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik – gap hisoblanadi. Grammatik asoslar miqdoriga ko'ra gaplar sodda (bir shakllangan kesimi mavjud) va qo'shma (ikki va undan ortiq shakllangan kesimi mavjud) gaplarga bo'linadi.

Sodda gap – grammatik asos ega – kesim munosabati yoki kesim sostavi (yoki kesimning o'zi) bilan ifodalanagan bo'ladi [7; 281-bet]. Qo'shma gap – sodda gap bilan mustahkam bog'langan, biroq undan ham struktur, ham uzatilayotgan axborot miqdori va sifati nuqtai nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilma hisoblanadi [5; 391-bet]. Sodda gapning qurilish materiali so'z yoki so'z birikmasi bo'lsa, qo'shma gapning qurilish materiali sodda gaplardir [9; 195-bet].

Shakllangan bitta kesimlik belgisiga ega bo'lib, boshqa gap bo'laklari shu shu kesim atrofida birlashuvchi gaplar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Ifoda maqsadiga ko'ra: darak, so'roq, buyruq, istak gaplar.
2. Emotsionalligiga ko'ra: his-hayajonli gaplar va his-hayajonsiz gaplar.
3. Nutq vaziyati uchun zarur bo'laklar ishtirokiga ko'ra: to'liq va to'liqsiz gaplar.
4. Ikkinchi darajali bo'laklar ishtirokiga ko'ra: yig'iq va yoyiq gaplar.
5. Eganing ishtirokiga ko'ra: egali (shaxsli) va egasiz (shaxssiz) gaplar.

Metodologiya. Mazkur maqolada Xorazm dostonlaridagi sodda ko'rinishidagi hikmatli jumlar shakl va mazmun jihatdan tasnifi olib borilib, deskriptiv (tavsifiy) hamda struktur metodlardan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida tanlab olingan hikmatli jumlar semantik jihatdan tahlil qilindi. "Tavsifiy metod – ma'lumotlari boshqa barcha metodlar uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Xususan, struktur metod tavsifiy metod xulosalariga tayangan holda ish ko'radi" [4; 55-bet]. **Struktur metod** – bu tilshunoslikda tilning tuzilishini, ya'ni uning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'lanishini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvdir.

Muhokama va natijalar. "Oshiqnoma" turkum dostonlaridagi hikmatli jumalarni kommunikativ maqsadiga ko'ra tahlil qilganda shu ma'lum bo'ldiki, dostonlarda darak gap va buyruq gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar salmoqli, biroq so'roq va istak gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar mavjud emas.

Ma'lumki, darak gap – kesimi aniqlik maylidagi fe'l bilan ifodalanuvchi, xabar mazmunini bildirgan gaplardir. [Madvaliyev A. D-harfi, 765-bet]. "Oshiqnoma" dostonlarida darak gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar quyidagilar:

"Badanga kirmaydi tikan beizn" ("Oshiqnoma" 6-kitob, YuZ. 33-b.) darak gap ko'rinishidagi hikmatli jumlada *"inson boshiga tushadigan har qanday qiyinchilik, dard, g'am-u g'ussa sababsiz emas, hammasi Allohning irodasi, xohishi bilan bo'ladi"*, degan mazmun ifodalangan.

"Bandag'a har qismat Ollodan bo'lur" ("Oshiqnoma" 1-kitob, SH. 90-b.) darak gap ko'rinishidagi hikmatli jumla *"inson bilan yuz beradigan har qanday hodisa Alloh tomonidan belgilanadi, taqdiriga nima yozilgan bo'lsa, baribir sodir bo'ladi"*, degan mazmun ifodalangan.

Buyruq gap – ish-harakatni bajarish-bajarmaslik haqida buyurish, undash, istak kabi ma'nolarni ifodalovchi gap shakli [Madvaliyev A. B-harfi, 765-bet]. "Oshiqnoma" turkum dostonlarida qo'llanilgan buyruq gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar quyidagilar:

"Bemahal sanguvchi bo'lma!" ("Oshiqnoma" 4-kitob, Erh. 209-bet) buyruq gap ko'rinishidagi hikmatli jumla qo'llanilgan bo'lib, "sanguvchi" – so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati" hech bir sonida ma'nosi izohlanmagan. Ushbu leksema ko'proq o'g'uz lahjasiga mansub bo'lib, *kechasi maqsadsiz yuradigan, bemahal tentiraydigan odamlarga nisbatan ishlatiladi*.

"Bir nokasning turgan otin, So'ramay minuvchi bo'lma!" (4-kitob, Erh. 210-b.) buyruq gap ko'rinishidagi hikmatli jumlada *"birovga tegishli bo'lgan narsani, roziligisiz yoki iznsiz ishlatish, undan foyda olish to'g'ri emas"*, degan ma'no ifodalangan.

Sodda gaplar his-tuyg'u ishtirokiga ko'ra his-hayajonli gaplar va his-hayajonsiz gaplarga bo'linadi. Kuchli his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gaplar his-hayajonli gap deyiladi. His-hayajonli gapning oxiriga undov belgisi qo'yiladi. His-hayajonsiz gap – bu shaxsiy his-tuyg'ularsiz, betaraf ohangda aytilgan oddiy axborot beruvchi gapdir. His hayajonsiz gap — bu hissiyotlardan xoli, betaraf, odatiy yoki rasmiy uslubda aytilgan gap bo'lib, unda aytuvchining hissiy munosabati sezilmaydi. "Oshiqnoma" dostonlarida his-hayajonli gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar quyidagilar:

"Haq suygan bandasi aslo xor o'lmas!" ("Oshiqnoma" 8-kitob, SH.(y.v.) 126-b.) his-hayajonli gap ko'rinishidagi hikmatli jumla *"Alloh yaxshi ko'rgan, unga itoat qiluvchi banda bu dunyoda imtihonlarga duch kelsa-da, Alloh uni himoya qiladi, sabr beradi, va oxirtda yuksak darajalarga erishtiradi. Chunki Allohning roziligi eng yuksak e'tibordir"*, degan mazmun ifodalangan.

"Oshiq ma'shuqig'a yetmaguncha tinchimas!" ("Oshiqnoma" 7-kitob, GB. 160-b.) his-hayajonli gap ko'rinishidagi hikmatli jumlada *"muhabbatga chalingan kishi yurakni rom etgan (bu dunyoda inson yoki ilohiy sevgida – Alloh) sevgan kishisiga erishmaguncha ichki halovat topmaydi, sog'inchda, iztirobda bo'ladi"*, degan mazmun ifodalangan.

"Oshiqnoma" dostonlarida his-hayajonsiz gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar quyidagilar:

"Har kimning niyati yo'ldoshi bo'ladi" ("Oshiqnoma" 7-kitob, Dav. 82-b.) his-hayajonsiz gap ko'rinishidagi ushbu hikmatli jumlada *"inson qanday niyat qilsa, hayotida unga shunga yarasha yo'l ochiladi, qilgan ishi, erishgan natijasi, oxirati ham niyatiga qarab shakllanadi"*, degan ma'no ifodalangan.

"Hech kim qazodin qololmaydi" ("Oshiqnoma" 5-kitob, OQ. 195-b.) his-hayajonsiz gap ko'rinishidagi hikmatli jumla *"har bir inson hayotida yuz beradigan barcha voqealar — xoh baxt, xoh balo-qazo bo'lsin, Alloh tomonidan belgilangan va uni hech kim o'zgartira olmaydi, undan qochib qutula olmaydi"* degan mazmun ifodalangan.

"Oshiq Qumri" dostonida **"Chora yo'qdir haqdin kelgan balog'a"** ("Oshiqnoma" 5-kitob, OQ. 189-b.) his-hayajonsiz gap ko'rinishidagi hikmatli jumlada *"Allohdan keladigan balo-qazo, dard-u g'am, ofat-u tabiiy hodisalarga chora yo'q"*, degan ma'no ifodalangan.

Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra, gaplar sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarga bo'linadi. Sodda yig'iq gap – bu faqat bitta bosh va bitta ikkinchi darajali bo'lakdan tashkil topgan, murakkablashmagan va oddiy tuzilishga ega bo'lgan gapdir. Sodda yoyiq gap –

bu bitta fikrni ifodalovchi, lekin bir nechta ikkinchi darajali bo'laklarga ega bo'lgan sodda gapdir. U yig'iq gapga qaraganda kengroq va batafsilroq tuziladi.

"Oshiqnoma" dostonlaridagi sodda yig'iq gap ko'rinishidagi sodda gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar quyidagilar:

"Baxting ochilsin!" ("Oshiqnoma" 1-kitob, ED. 234-b.) "Edigo" dostonida sodda yig'iq gap ko'rinishidagi hikmatli jumla *"Qayda bo'lsang bolam baxting ochilsin"* shaklida ifodalanilgan bo'lib, ko'proq yoshi ulug' keksalarimiz tomonidan yaxshi tilak bildirishda, baxt-saodat tilashda, duolarida ko'proq qo'llaniladi.

"Dardli bo'lg'on axtarar tabib" ("Oshiqnoma" 4-kitob, HG'. 28-bet) \ \ *"Dardli qul istar tabibin"* (4-kitob, OSH. 3-bet) "sodda yig'iq gap ko'rinishidagi hikmatli jumlada *"boshiga kulfat yoki g'am tashvish tushgan odam o'ziga hamdard, dardini tinglovchi insonni qidiradi"* degan mazmun ifodalangan.

"Oshiqnoma" dostonlaridagi sodda yoyiq gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar quyidagilar:

"Bejal chiqmasdur maxluqning joni" ("Oshiqnoma" 5-kitob, OQ. 181-b.) sodda yoyiq gap ko'rinishidagi hikmatli jumlada *"Alloh tomonidan berilgan joni ajal vaqti kelmaguncha chiqmaydi, har bir narsaning vaqti-soati bor"* degan mazmun ifodalangan.

"Befarzand odamning kuni qorong'u bo'lur" ("Oshiqnoma" 2-kitob, Xir. 227-b.) sodda yoyiq gap ko'rinishidagi hikmatli jumlada, *agar kimning farzandi bo'lmasa, farzandsizlikdan kuyunsa, u odamning har bir kuni zulmatda, qorong'ulikda kechganday o'tishi* tasvirlanadi

Gaplar nutq ifodasi uchun zarur bo'laklar to'liq qatnashishi yoki qatnashmasligiga ko'ra 2 ga bo'linadi: 1) to'liq gap – bunday gaplarda fikr ifodasi uchun zarur bo'laklar tushirib qoldirilmaydi. 2) to'liqsiz gap – fikr ifodasi uchun zarur bo'laklarning ayrimlari tushirilgan gaplardir. To'liqsiz gaplarda xohlagan bo'lak tushirilishi mumkin, lekin tushirilgan bo'lak nutq sharoitidan, matndan bilinib turadi va xohlagan paytda o'rniga tiklash mumkin bo'ladi. "To'liqsiz gap – Grammatik tuzilishi yoki tarkibi nuqtai nazaridan to'liq bo'lmagan (tarkibida bir yoki bir necha bo'laklari ishtirok etmagan), lekin bu noto'liqlik nutqiy matn yoki vaziyat (sharoit) dan aniq sezilib turadigan gap" [1; 93-bet].

"Oshiqnoma" dostonlaridagi to'liq gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar quyidagilar:

"Manmanlikdan shayton dinidin ozdi" ("Oshiqnoma" 2-kitob, OA. 155-b.) to'liq gap ko'rinishidagi hikmatli jumla *insonni halok qiladigan kibr, manmanlikdan yiroq bo'lishga* undaydi.

"Ot aylanib qozig'ini topadi" ("Oshiqnoma" 3-kitob, HH. 228-b.) to'liq gap ko'rinishidagi hikmatli jumla inson hayotda odam har xil yo'llarga kirib chiqadi, har xil sinovlar va tajribalardan o'tadi, ammo oxir-oqibat o'z taqdiriga, nasibasiga, unga atalgan joy yoki odamga qaytadi degan ma'no ifodalanib, odamni sabrli, sinovlarga chidamli bo'lishga va hayotiy ishonchni yo'qotmaslikka undaydi.

Sodda gaplar ega ishtirokiga ko'ra 2 ga bo'linadi: I Shaxsli gap – tarkibida shaklan egasi mavjud bo'lgan gaplardir. II Shaxssiz gap – tarkibida shaklan egasi mavjud bo'lmagan gaplardir.

"Oshiqnoma" dostonlaridagi shaxsli gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar quyidagilar:

"Bu dunyo hech kimga vafo qilmas" ("Oshiqnoma" 1-kitob, HH. 97-b.) shaxsli gap ko'rinishidagi hikmatli jumla insonni dunyo lazratlariga haddan ortiq berilmaslikka,

o'zini boylik va mansab bilan aldamaslikka undaydi. Asl baxt va baraka — yaxshi amallar, halol mehnat, mehr-oqibat va vafodorlikka undaydi.

“Boylik bir mehmondur” (7-kitob, Dav. 22-b.) shaxsli gap ko'rinishidagi hikmatli jumla *insonlarni boylikka haddan tashqari bog'lanmaslikka, uni abadiy deb hisoblamaslikka* undaydi.

“Har dardning davosi bor” (“Oshiqnoma” 5-kitob, YuZ. 139-b.) shaxsli gap ko'rinishidagi hikmatli jumla hayotda duch kelinadigan har qanday dard, muammo yoki sinovga qarshi biror yechim, chora yoki davo mavjudligini bildiradi.

Shaxssiz gaplar o'z ichida 2 ga bo'linadi: 1) egasi yashiringan gaplar, 2) egasiz gaplar. Egasi yashiringan gaplar a) egasi ma'lum gaplar va b) egasi umumlashgan gaplarga bo'linadi.

Egasi ma'lum gaplar – gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimdagi shaxs-son qo'shimchalari va bog'lamalardan bilinib turadigan gaplardir. Egasi ma'lum gaplarning kesimi, odatda, I va II shaxs shaklida bo'ladi, ba'zan III shaxs shaklida ham bo'lishi mumkin.

Xorazm dostonlarida egasi ma'lum gap ko'rinishidagi hikmatli jumalarga namunalar keltiramiz:

“Bug'i chiqib turgan oshni tashlab ketma” (“Oshiqnoma” 5-kitob, YuZ. 143-b.) egasi ma'lum gap ko'rinishidagi hikmatli jumla *insonni har qanday vaziyatda ham o'ylab ish tutishga, mehnatining samarasini ko'rish uchun sabr qilishga chaqiradi*.

“Har nomardga so'zingni sarf etma” (“Oshiqnoma” 4-kitob, Erh. 244-b.) egasi ma'lum gap ko'rinishidagi hikmatli jumla hayotda so'zlashda ehtiyotkorlik, donolik va insonlar bilan muloqotda tanlovchanlikni targ'ib qilib, so'zning qadriga yetishga, uni faqat munosib kishilar bilan baham ko'rishga undaydi.

“Oshiqnoma” turkum dostonlarida egasi umumlashgan gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar ham keltirilgan. Egasi umumlashgan gap – bunday gaplarning mazmuni umumga qaratiladi va har uchala shaxsga aloqador bo'ladi. Egasi umumlashgan gaplarning kesimi II va III shaxs ko'rinishida bo'ladi, ba'zan I shaxs shaklida ham bo'lishi mumkin.

“Bugungi martabali kuningda kechagi kuningni unutma” (“Oshiqnoma” 5-kitob, YuZ. 162-b.) egasi umumlashgan gap ko'rinishidagi hikmatli jumla “Yusuf va Ahmad” dostonida qo'llanilgan bo'lib, hikmatda *“kim bo'lishingdan qat'iy nazar, qayerdan chiqqaningni, qanday yo'l bosib o'tganingni unutma”, degan mazmun ifodalangan*.

“Kishining omonatin minuvchi bo'lma” egasi umumlashgan gap ko'rinishidagi hikmatli jumla “Erhasan” dostonida, *“Minma kishi omonatin”* (“Oshiqnoma” 4-kitob, Erh. 210-b.) shaklida keltirilgan bo'lib, *insonni birovning moli, imkoniyati yoki ishonchidan foydalanib, uni egasiga qaytarmaslik yoki suiiste'mol qilishdan qaytaradi*.

Shaxssiz gap — bu ish-harakat yoki holatning bajarayotgan shaxsi noma'lum yoki muhim bo'lmagan gap bo'lib, unda kesim odatda shaxsga bog'lanmaydi. Shaxssiz gaplar o'z ichida uchga bo'linadi: a) shaxsi noma'lum gap; b) atov gap; d) so'z gap. Xorazm dostonlari tarkibida shaxssiz gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar ichida atov gap va so'z gap ko'rinishidagi hikmatli jumlar uchramaydi, biroq shaxsi noma'lum gap ko'rinishidagi hikmatlar jumlar miqdori salmoqli. Shaxsi noma'lum gap – kesimi fe'l bilan ifodalanuvchi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak na'nolarini bildiruvchi egasiz gaplardir. Shaxsi noma'lum gapning eng muhim belgisi kesim tarkibida egalik va shaxs-son qo'shimchalari bo'lmasligidir.

“Davlatyorbek” dostonida **“Har ishda sabrli bo’lmoq darkor”** (“Oshiqnoma” 7-kitob, Dav. 1-b.) shaxsi noma’lum gap ko’rinishidagi hikmatli jumlada *“har qanday ish, faoliyat, harakat, reja yoki maqsadni bajarishda bu toqatli, bardam, shoshilmasdan, o’ylab ish tutmoq lozim”*, degan ma’no ifodalangan.

“O’zingdin pastlarni ma’mur qilmoq zarur” (3-kitob, YuA. 138-b.) shaxsi noma’lum gap ko’rinishidagi hikmatli jumla “Yusuf va Ahmad” dostonida qo’llanilgan bo’lib, ijtimoiy mavqeyi, bilim darajasi, tajribasi yoki imkoniyati jihatidan sening darajangdan quyi bo’lgan insonlarni *boshqarish, himoya qilish, g’amxo’rlik qilish, adolat bilan yo’l ko’rsatish zarur* degan ma’nolarini anglatadi.

Xulosa. Hikmatli jumlarlar o’zbek tilining sintaktik imkoniyatlarini to’liq namoyon etuvchi, qisqa va mazmunli ifodalar bo’lib, ular sodda va murakkab tuzilishga ega. Ular orqali chuqur falsafiy fikrlar, axloqiy qadriyatlar va hayotiy tajribalar ifodalanadi. Xorazm dostonlarida qo’llanilgan hikmatli jumlarlar sintaktik jihatdan tadqiq qilinar ekan, sodda gap ko’rinishidagi hikmatli jumlarlar miqdori salmoqli ekanligi va mavzu xilma-xilligi diqqatimizni tortadi. “Oshiqnoma” dostonlarida sodda gaplarning ifoda maqsadiga ko’ra, emotsionalligiga ko’ra, ikkinchi darajali bo’laklar va ega ishtirokiga ko’ra guruhlariga bo’lib tadqiq qilish jarayonida, har bir tasnif bo’yicha Xorazm dostonlarida namunalar yetarli ekanligi aniqlandi. Bu tahlillar orqali o’zbek tilining boy sintaktik tuzilmalari va ularning ifoda imkoniyatlari mavjudligi yanada aniqroq namoyon bo’ldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ibragimova E., O’rinboyeva E. Abdulla Qahhor asarlarida qo’llanilgan maqollar lingvopoetikasi /Monografiya/ – Farg’ona: “Classic” nashriyoti, 2022. – B.116.
2. Madvaliyev A., Xudoyberganova D. – O’zbek tilining izohli lug’ati – VI tomlik. Toshkent: “G’afur G’ulom”, 2022.
3. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Toshkent: “Akademnashr”, 2010. – B.55.
4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo’nalishlari. O’quv qo’llanma. – Toshkent: “Ta’lim”, 2009. – B. 160
5. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili / O’quv qo’llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B.391.
6. Turobov A. Kichik sintaksis. Monografiya. – Samarqand, SamDCHTI nashriyoti, 2023. – B.66.
7. Yuldasheva Sh., Kurbonova D., Yusupova G. O’zbek tili. Darslik. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – B.281.
8. Бенфенист Э. Общая лингвистика. М.. 1974. – С.23.
9. Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1965. – Б.195.
10. Рўзимбоев С., Эшчонова Г., Рўзимбоев С.С. Ошиқнома. VIII том – Урганч. «Хоразм» нашриёти, – 2005.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

ECOLINGUISTICS AS A NEW DIRECTION IN 21ST-CENTURY LINGUISTICS

Abduqodirova Zebo Qodirovna

1st-year PhD student at Tashkent Transport University,
Lecturer at the “Languages” Department of Profi University

Abstract. This article examines one of the new and relevant directions of 21st-century linguistics — ecolinguistics. It analyzes the essence of ecolinguistics, the complex relationships between language, humans, and nature, ecological awareness and the anthropocentric approach, harmonious translation, cultural adaptation, the use of metaphors and linguistic means for shaping ecological thinking.

Keywords: ecolinguistics, language, anthropocentrism, ecology of translation, harmonious translation.

XXI ASR TILSHUNOSLIGIDA YANGI YO'NALISH SIFATIDA EKOLINGVISTIKA

Abduqodirova Zebo Qodirovna

Toshkent Transport Universiteti
1-kurs tayanch doktoranti (Phd)
Profi University “Tillar” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XXI asr tilshunosligining yangi va dolzarb yo'nalishlaridan biri — ekolingvistika ekolingvistika fanining mazmuni, til, inson va tabiat o'rtasidagi murakkab aloqalar, ekologik ong va antropotsentrik yondashuv, tarjimada garmonik yondashuv, madaniy moslik, metafora va til vositalari orqali ekologik tafakkurni shakllantirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekolingvistika, til, antropotsentrizm, tarjima ekologiyasi, uyg'un tarjima.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N53>

Kirish. Bugungi kunda inson va tabiat o'rtasidagi muammolar nafaqat ekologik, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu tufayli zamonaviy fan sohalarida tabiatga ehtiyotkorona munosabat, jumladan til va atrof-muhit o'rtasidagi bog'liqlik masalasi alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Mazkur jarayon tilshunoslikda ekolingvistika deb ataluvchi yangi yo'nalish paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Ekolingvistikaning ahamiyati. XXI asrda globallashuv, urbanizatsiya, ommaviy axborot vositalari va internet ta'siri natijasida insonning tabiatga bo'lgan munosabati sezilarli o'zgardi. Bu o'zgarishlar tilda ham o'z aksini topdi. Jahon tillarida tabiatga nisbatan shafqatsizlikni aks ettiruvchi so'zlar, tushunchalar va ifoda vositalari ortib bormoqda. Ekolingvistika ana shu holatni tahlil qiladi va unga qarshi ma'naviy-axloqiy immunitet yaratishga intiladi.

Hozirgi zamonaviy fanning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, bugungi kunda bir vaqtning o'zida bir nechta turli yo'nalishlarni qamrab oluvchi yangi fan sohalari paydo bo'lmoqda. Bu sohalar mavjud ilmiy paradigmalarga tutashgan nuqtada vujudga kelmoqda. Bu holatni shunday izohlash mumkinki, inson jamiyati doimiy rivojlanmoqda va

murakkablashmoqda, shu bois yangi kashfiyotlarga erishish uchun turli sohalar kesishmasidagi tadqiqotlarni rivojlantirish zarur.

XX asrda ekologiya fanining paydo bo'lishi esa diqqatga sazovor o'zgarishlarga sabab bo'ldi — diqqat markazi o'zgardi va endi biologiya sohasida ilgari surilgan g'oyalar tilga nisbatan ham qo'llanila boshlandi.

XX asr tilshunosligida tilning tizimli tashkil etilishiga oid g'oyalar ishlab chiqildi va lingvistikaning ichki va tashqi yo'nalishlarini ajratish urinishlari amalga oshirildi. Ekologiyada bo'lgani kabi, bu yerda ham "tizim" tushunchasi markaziy o'rin tutadi, chunki ekologiyada "ekotizimlar" haqidagi ta'limot yaratilgan.

Ushbu qarashlar, bugungi kunda ko'pgina fan sohalarida murakkab, ko'p tomonlama va integrativ tadqiqot obyektlari sababli bir nechta ilmiy yo'nalishlar asosida rivojlanayotganini yana bir bor tasdiqlaydi. Tabiat va tilning hamohang mavjudligi g'oyalarini bog'lashga urinayotgan yangi ilmiy yo'nalishlardan biri — ekolingvistika hisoblanadi.

Ekolingvistika – bu "ekologiya" va "lingvistika" (tilshunoslik) so'zlarining birlashmasidan hosil bo'lgan atamadir. U til va uning muhiti o'rtasidagi munosabatni o'rganadi, ya'ni tilni faqat grammatik tizim emas, balki jamiyat, madaniyat va tabiat bilan o'zaro aloqadagi ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida tahlil etadi.

Ekolingvistika tilning inson faoliyatidagi ekologik, ma'naviy va ijtimoiy ta'sirini o'rganishga qaratilgan. U til orqali insonning tabiatga munosabati qanday aks etganini, qanday til birliklari orqali tabiat tushunchasi ifoda etilishini, va til qanday yo'l bilan tabiatga ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi.

Til ekologiyasi tushunchasining asoschisi sifatida amerikalik tilshunos Einar Xaugen tan olinadi. U 1970-yildagi ma'ruzasida shunday ta'rif beradi:

"Til ekologiyasini til va uning muhiti o'rtasidagi munosabatlar haqidagi fan deb ta'riflash mumkin. Bu yerda muhit deb jamiyat nazarda tutiladi, ya'ni tilni o'zining kodlaridan biri sifatida foydalanadigan jamiyat. Til faqatgina so'zlashuvchilar ongida mavjud bo'ladi va faqatgina boshqa so'zlashuvchilar, ularning ijtimoiy va tabiiy (ya'ni, tabiat bilan bog'liq) muhiti bilan o'zaro munosabatda faoliyat ko'rsata oladi."

Til ekologiyasi qisman fiziologik tabiatga ega (ya'ni, so'zlovchining ongida boshqa tillar bilan o'zaro ta'sirga kirishi), qisman ijtimoiy tabiatga (jamiyat bilan o'zaro ta'siri, ya'ni tilning kommunikatsiya vositasi sifatida foydalanilishi) ega. Til ekologiyasi uni o'rganadigan, ishlatadigan va boshqalarga o'rgatadigan odamlarga bog'liqdir. [1; 66-b.]

Bizga ko'ra, ushbu fanga eng aniq ta'rifni N.N. Kislicina bergan. Uning ta'rificha, **ekolingvistika** — bu tilshunoslik sohasidagi zamonaviy ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, u quyidagi sohalar tutashgan nuqtada shakllangan:

- ijtimoiy (etnogenezning turli bosqichlarida tafakkur rivojlanishida ijtimoiy va til tuzilmalarining o'zaro munosabati),
- psixologik (nutqiy ta'sir muammolari),
- falsafiy (jamiyat va bilish rivojlanishining umumiy xususiyatlari va qonuniyatlarining til orqali namoyon bo'lishi) lingvistik yo'nalishlar. [2; 1-b.]

Keling, qanday tadqiqot "ekologik" deb hisoblanishi mumkinligini aniqlab olaylik, shundan so'ng kelgusi tadqiqot materialining asosiy xususiyatlarini belgilaymiz.

Shaxsni uning yashash muhitidan ajratib bo'lmaydi. N.V. Drozhashixning maqolasida shunday deyiladi:

“Ekolingvistika — bu turli fanlar tutashgan nuqtada shakllangan yo‘nalish bo‘lib, inson va jamiyatning til orqali vositalangan yashash muhitini o‘rganadi va ekologiya hamda til tizimi uchun umumiy bo‘lgan qonuniyatlarni aniqlashga qaratilgan.” [3; 29-b.]

Tadqiqot ekologik deb hisoblanishi mumkin, agar u tabiiy muhitda amalga oshirilsa va kundalik hayotdagi narsalar va harakatlar bilan ish yuritsa. Ekolingvistikada asosiy tezisni ekotizim qonuni sifatida shakllantirish mumkin: **tilning mavjudligi jamiyatga bog‘liq, va aksincha**. Va tildagi eng samarali o‘zgarishlar — bu muhit bosimiga qarshi tura oladigan va til muhiti barcha talablariga mos keladigan o‘zgarishlardir.

Ushbu fanni rivojlantirishning bir nechta ehtimoliy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Tilning atrof-muhitni ifodalashdagi roli — tabiatga oid atamalar, metaforalar va iboralar orqali jamiyatning tabiat haqidagi tasavvurini o‘rganish. Lingvistik xilma-xillik (sabablar, funksiyalar, oqibatlar);
2. Yo‘qolib borayotgan va kichik tillarni saqlab qolish;
3. Madaniy va biologik xilma-xillik o‘rtasidagi munosabat;
4. Tillarning grammatikasidan ekologik va noekologik elementlarni izlash;
5. Atrof-muhit muammolariga bag‘ishlangan matnlarni tahlil qilish;
6. Til orqali ekologik tafakkurni shakllantirish (dunyodagi umumiy o‘zaro bog‘liqlik haqidagi bilimlar).

Lingvistikada **diskurs** tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Fransuz madaniyatshunosi Mishel Fuko bu atamani «aytilgan va ifoda etilgan barcha narsalar majmuasi» deb ta’riflaydi [4; 66-b.]. Ekologik diskurs tushunchasi ostida turli funksional uslub va janrlardagi matnlar majmuasi — ilmiy monografiyalardan tortib ommabop va badiiy adabiyot asarlarigacha — nazarda tutiladi. Ular til vositasida ekologik mavzular va muammolarni ifodalaydi. Bu shunday matnki, u muayyan muloqot vaziyatiga bog‘liq holda og‘zaki yoki yozma shaklda ekologik mavzularda bog‘langan tarzda ifoda etiladi [5; 126-b.].

Ekologik diskursning asosiy konsepti va mavzusi — bu tabiat va atrof-muhitning holati.

Inson va jamiyatning tilga doir yashash muhitini o‘rganishdagi yangi ilmiy yo‘nalish sifatida ekolingvistika ekologiya va til rivoji uchun umumiy bo‘lgan qonunlar, prinsiplar va qoidalarni aniqlash asosida shakllanadi va tilning atrof-muhit muammolarini hal etishdagi rolini o‘rganadi [5; 128-b.].

Ekologik diskursda tadqiqot uchun material tanlash masalasiga ikki nuqtai nazardan yondashish mumkin. Birinchi qarashga ko‘ra, faqatgina ekologlar tomonidan yaratilgan matnlar tadqiqot manbai sifatida xizmat qiladi. Ammo biz uchun ikkinchi, erkinroq yondashuv qiziqarliroqdir. Unga ko‘ra, ekologik kommunikatsiyani o‘rganish manbalari sifatida turli ekologik muammolarga bag‘ishlangan matnlar olinadi va ular faqat ekologlarniki bo‘lish shart emas.

Funksional-uslubiy klassifikatsiya nuqtai nazaridan ekologik diskursning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1. Ilmiy diskurs — ekologlar tomonidan yaratilgan ilmiy maqolalar, tadqiqotlar;
2. Ommaviy axborot vositalaridagi yoki publitsistik diskurs — jurnalistlar tomonidan yaratilgan va matbuot, televideniye, radio hamda internet orqali tarqatiladigan matnlar;
3. Diniy-ma’roziy diskurs — din asosidagi muloqotni ta’minlovchi matnlar;
4. Badiiy diskurs — badiiy adabiyot asarlari kiruvchi yo‘nalish.

Shuni qayd etish lozimki, har qanday yangi fan yo'nalishi avval mavjud bo'lgan prinsiplariga tayanadi. Falsafiy nuqtai nazardan ilmiy bilimlar evolyutsiyasi nazariyasiga ko'ra, har qanday ilmiy nazariya o'z rivojlanishining muayyan bosqichida avval aytilgan g'oya va qarashlarga qayta murojaat qiladi, biroq bu qaytish yangi bosqichda, ya'ni yuqori pog'onada amalga oshadi. Ilm-fan rivoji spiralsimon harakatda sodir bo'ladi, bu esa uning dinamikasini aks ettiradi.

N.N. Lykovaning fikriga ko'ra, so'nggi vaqtlarda lingvistik tadqiqotlarda uchraydigan «ekologik lingvistika», «ekolingvistika», «til ekologiyasi» kabi atamalar fanning yangi bosqichida lingvistika XIX asrda mashhur bo'lgan tilni tirik organizm sifatida ko'rish g'oyasiga qayta murojaat qilayotganidan dalolat beradi (F. Bopp, A. Shleyxerga kura tilning naturalistik konsepsiyalari) [6; 145-b.].

Biz uchun juda qiziqarli yo'nalish – bu til ekologiyasi doirasida matnni tahlil qilish bo'lib, u tilshunoslik va uning metodlariga tayanadigan holda ekologik mavzularning tilda qanday ifodalanishini o'rganadi. Tillar va matnlar “ekologik jihatdan toza” yoki “ekologik” nuqtai nazardan tahlil qilinadi, ya'ni tilning atrof-muhit bilan bog'liq dolzarb muammolarni tavsiflashda tutgan o'rni o'rganiladi. Bu yo'nalish til va ekologiya muammolari o'rtasidagi bog'lanishni, insonning tabiat va uni o'rab turgan olam bilan o'zaro munosabatlari tilda qanday aks etganini tahlil qilishni o'z ichiga oladi (M. Dering, P. Myulhoysler, M. Xallidey kabi olimlar ishlari).

Bunday g'oyalar istiqbolli tuyuladi, chunki XXI asrda jamiyatda ekologik tafakkur deb nomlangan yangi fikrlash turi shakllanmoqda.

YANGI EKOLOGIK TAFAKKUR (YAET) – bu insoniyatning xavfsiz hayoti va rivojlanishi faqat uning yashash muhitining ekologik sofligini tiklash va u bilan uyg'un hamkorlik shartlarida mumkinligini anglashdan kelib chiqqan umumiy ong [7; 248-b.]. Shu bois tilshunoslik sohasida ekologiya va lingvistikani birlashtiruvchi fan – ekolingvistika shakllandi. U inson, uning til shaxsiyati sifatidagi o'rni va uni o'rab turgan muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganadi. Til bu yerda inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi bog'lanish zanjirining ajralmas qismi sifatida ko'riladi [8; 2-b.].

Ekolingvistikaning asosiy tadqiqot obyekti – elementlarning holati yoki rivojlanishi emas, balki ularning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan jarayonlarning o'zi va bu jarayonlar qanday o'zgarishlarga olib kelishidir [8; 3-b.]. Bugungi kunda ko'pgina fanlar antropotsentrizm nuqtai nazaridan kelib chiqadi, ya'ni insonni markazga qo'yib o'rganadi va til insonning asosiy xususiyati, eng muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. A.R. Luriyaning fikricha, «hayvonlarning xulqidan insonning ongli faoliyatiga o'tishini belgilab beruvchi hal qiluvchi omillardan biri – tilning paydo bo'lishidir» [9; 22-b.].

Falsafada antropotsentrizm deb insonga doir muammolarga qaratilgan falsafiy tadqiqotlar markazlashuvi tushuniladi. Antropotsentrizm (yun. *ánthropos* – inson va lat. *centrum* – markaz) – insonni olam markazi va dunyoda sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalarining maqsadi deb bilishga asoslangan noilmiy idealistik qarash. Hozirgi kunda insonning «prinsipial jihatdan cheksiz o'zgartirish qobiliyati» haqidagi g'oya tobora mustahkamlanib bormoqda [10; 79-b.]. Ammo agar inson faoliyati haqiqatdan ham shunchalik cheksiz bo'lsa va u hech qanday nazoratsiz amalga oshirilsa, bu qaysi oqibatlarga olib kelishi mumkin? Bizning tilimiz, ya'ni biz gaplashadigan til qanchalik darajada o'zgarishi mumkin? Axir ma'lum o'zgarishlar allaqachon mavjud va bu jarayon hali tugagani yo'q.

Ehtimol, antropotsentrizm g'oyalarining tarqalishi haqida jiddiy o'ylashga to'g'ri kelar. Chunki V. Kemerov yozganidek, ekologik inqirozning kuchayishi va insonga yaqin darajada mukammal bo'lgan obyektlarning aniqlanishi munosabati bilan mazkur pozitsiyaga qarshi jiddiy dalillar yetarlicha topilishi mumkin. Insonning murakkab o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlar (masalan, tabiiy komplekslar) bilan o'zaro aloqalari muammosi insonning pozitsiyasi doimo qayta ko'rib chiqilishini talab etadi. Inson o'z faoliyati orqali o'zini shunday tizimlarga «qo'shishi» natijasida vujudga keladigan munosabatlar mantiqini hisobga olish zarur. Insonning evolyutsion jarayonda faol qatnashish imkoniyati, ehtimol, uning o'z pozitsiyasini o'zgartirish qobiliyatiga, ya'ni atrof tizimlar bilan aloqa usullarini ijodiy qayta ishlash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Ilmiy tadqiqotni o'tkazishda esa eng muhim masalalardan biri – tegishli tadqiqot usulini tanlashdir. Analiz uchun qo'llaniladigan usullar orasida dekonstruktiv tahlil usuli va kalit so'zlar orqali tahlil usulini keltirish mumkin.

Dekonstruksiya (lat. de – «orqa», constructio – «qurish»; «qayta tushunish») – zamonaviy falsafa va san'atdagi tushuncha bo'lib, stereotipni yiqish yoki yangi kontekstda qayta sharhlash orqali ma'noni tushunishni anglatadi. Dekonstruktivizm o'z nomini Jak Derrida tomonidan amalga oshirilgan tahlil uslubi – «dekonstruksiya»dan olgan, uning umumiy mohiyati shundaki, matndagi ichki ziddiyatlar fosh etiladi, muallif tomonidan ham anglab yetilishdan chetda qolgan “qoldiq ma'nolar” ochib beriladi. Bu ma'nolar o'tmishdagi diskursiv amaliyotlardan meros sifatida tilda saqlanib qolgan tafakkur stereotiplari shaklida namoyon bo'ladi va muallif ham anglamay o'z zamonidagi til klishe'lari ta'sirida qayta shakllanadi. J. Derrida adabiy matnning yagona to'g'ri talqini mavjudligini rad etadi va har qanday talqinning xato bo'lishi muqarrarligini ta'kidlaydi. Bu holat bir necha uyg'un va bir-birini to'ldiruvchi badiiy tarjimalar mavjud bo'lishining mumkinligini tasdiqlash uchun juda muhimdir.

Yana bir tahlil usuli sifatida L.V. Saxarniy va A.S. Shtern tomonidan ishlab chiqilgan nazariyani keltirish mumkin. Ularning metodikasiga ko'ra, matnni anglash NKS (ya'ni, kalit so'zlar yig'indisi) yordamida amalga oshirilishi mumkin. Mualliflar shunday fikrga asoslanadilarki, matnni tushunishda ma'noviy belgilar (opora nuqtalari), shuningdek, nutq ichidagi ayrim birliklar matndagi so'zlar bilan bog'lanishi mumkin. Matndagi asosiy g'oyani anglash va uni idrok etishni osonlashtiradigan so'zlar “kalit so'zlar” deb nomlanadi.

Ekolingvistika sohasining jadal rivojlanishi va tarjima muammolariga qiziqishning ortishi ushbu sohadagi yangi yo'nalish — tarjimaning ekologiyasi shakllanishiga olib keldi. Bu yo'nalishning vujudga kelishiga turtki bo'lgan muhim voqea — «Til ekologiyasi fanlar kesishmasida» nomli konferensiya (Tyumen shahri, TyumDU) bo'lib, unda ushbu mavzudagi bir qator ma'ruzalar taqdim etildi. Ma'ruzachilar (xususan, N.N. Belozërova va L.V. Kushnina) tarjimaning ekologiyasi rivoji uchun muhim yo'nalishlarni belgilab berishdi.

Hozirgi kunda ekologiya g'oyalari lingvistika sohasiga ham faol tatbiq etilmoqda. Shuning uchun tarjima ekologiyasi mavjud deb taxmin qilish, va uni tarjimaning muhim belgisi — uyg'unlik (garmoniya) bilan bog'lash mumkin. Bu fikr L.V. Kushnina tomonidan ishlab chiqilgan garmoniyalash nazariyasida o'z ifodasini topgan. Zamonaviy tarjima nazariyasida antropotsentrizm g'oyasi asosiy o'rin tutadi. Bu esa matn va uning tarjimasi tarjimon ishtirokisiz mavjud bo'lishi mumkin emasligini anglatadi. Tarjimon manba matnni to'g'ri anglab, uni boshqa til va madaniyatga ko'chirishga harakat qiladi.

«...Tarjima fazosi modeli o'z mohiyatiga ko'ra antroposentrichadir, chunki u har bir individni, har bir tarjima subyektni tarjima jarayoni va natijasiga o'z ma'nosini kirituvchi omil

sifatida ko'radi. Bu esa har bir til va madaniyatda o'ziga xos, o'xshash tarjima matni yaratilishiga olib keladi» [11; 39-b.]. Bizning fikrimizcha, tarjima matnida tabiat tasvirining original uchun muhim bo'lgan xususiyatlari qanday aks ettirilishini tahlil qilish juda qiziqarli bo'lar edi. Albatta, bunda birinchi navbatda tahlil uchun material tanlash va uning "ekologikligi" hamda uyg'unlik darajasini aniqlash masalasi kun tartibiga chiqadi. N.N. Belozyorova fikriga ko'ra, bu maqsad uchun «insonning tabiiy muhit bilan o'zaro aloqasini ma'lum darajada aks ettiruvchi til birligi, nutqiy akt yoki matn»ni ishonch bilan tanlash mumkin [12; 16-b.].

Bugungi kunda atrof-muhitni asrash va muhofaza qilish dolzarb muammolardan biri bo'lgani uchun, ko'plab badiiy matnlar inson va tabiatning ajralmasligi, ularning uyg'un hamjihatligi g'oyasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu matnlarda inson — katta dunyoda yashovchi va uning ajralmas qismi bo'lgan tirik mavjudot sifatida namoyon bo'ladi.

Biz Permanlik yozuvchi A. Ivanov asarlari, xususan, uning «Geograf globus propil» romani kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun ajoyib material bo'la oladi, deb hisoblaymiz. Bu romaning muhim jihatlaridan biri shundaki, tabiat manzaralari personajlar kayfiyati va ruhiy holati bilan uzviy bog'liq holda berilgan. Tabiat tasvirlari orqali muallif o'z qahramonlarining ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va kechinmalarini namoyon etishga erishadi — bu esa o'ziga xos psixologik tahlil vazifasini o'taydi. Tabiat va kayfiyat uyg'unligi quyidagi misolda keltirilgan:

«Осень стояла в разгаре. Город был наполнен прозрачным светом, и воздух звенел от холода. Листья уже облетели, остались только голые ветки, точно застывшие в раздумье.» Bu yerda kuz faslining so'nggi pallasi tasvirlangan. Muallif «shaffof yorug'lik», «sovuqqan jaranglagan havo», «belgi bermas sukunatdagi yalang'och shoxlar» orqali tushkun kayfiyat, ichki bo'shliq, xayol surish holatini ifoda etadi. Ekologik tahlil qilinsa, tabiat haqiqiy, tabiiy holatida namoyon bo'lgan, inson unga passiv kuzatuvchi sifatida emas, balki his-tuyg'u bilan yondashuvchi subyekt sifatida qaralgan. O'zbekchaga tarjima qilinganda (ekologik va psixologik uyg'unlikni saqlab): «Kuz avjida edi. Shahar havosi shaffof nurga to'lib, sovuqdan go'yo jingirardi. Barglar parranda kabi uchib ketgan, faqat xayolga cho'nganday to'xtab qolgan yalang'och shoxlar qolgan edi.» Yana bir misol – tabiat orqali ichki iztirob ifodasi:

«Небо было свинцовым, давящим, как боль в висках. Он стоял на берегу и смотрел, как течёт река – чёрная, тяжёлая, без звука.» Bu holatda osmon — "olovdek og'ir", daryo — "qora va og'ir" tasvirlangan. Bular qahramonning ruhiy og'rig'i, ichki bosim holati bilan bog'langan. Tabiat obyektlari inson psixikasining turli holatlarini ifoda etish vositasiga aylangan. Tarjimasi: «Osmon og'ir, samarasiz og'riqdek boshni bosardi. U sohilida turib, sokin, qora va og'ir daryoni kuzatardi.»

Qisqa xulosa: Ekologiya tarjimada nafaqat tabiatni asl holicha yetkazish, balki inson – tabiat – nutq munosabatini uyg'un va tahlil asosida qayta yaratishni nazarda tutadi. Bu jumladan:

- Tabiatning o'ziga xos obrazlarini madaniy va leksik me'yorda saqlash;
- Qahramonning his-tuyg'usini tabiat tasviri bilan uyg'unlashtirish;
- Tilning ekspressiv vositalarini haddan tashqari «tozalab» yubormaslik.

Bir shunday tasvirlardan birini keltiramiz:

“Они спустились с крыльца и зашагали по мокрому асфальту. Недавно выпавший снег не удержался, растаял, а грязь замерзла. Газоны, по которым разворачивались легковушки в тесном дворе, превратились в барельефы, в черную фигурную лепнину.

Студеная поздняя осень старчески слепа. Туманная морось покачивалась между высокими многоэтажками. С их крыш медузой обвисало рыхлое и дряблое небо”.

“Ular ayvondan tushib, ho'l asfalt ustida yurib ketishdi. Yaqinda yog'gan qor tura olmadi — erib ketdi, ammo loy muzlab qolgan edi. Tor hovlida yengil mashinalar aylangan maysazorlar endi go'yoki qora relyefga, shaklli haykaltaroshlik asariga aylangan. Sovuq, kech kuz kariyalardek ko'r bo'lib qolgan. Tumanli mayda yomg'ir baland ko'p qavatli uylar orasida hilpirab turardi. Tomlar ustida esa, xuddi meduza kabi, bo'shashgan, sust osmon osilib turardi.

Tarjima matnining ekologikligiga oid savollardan yana biri — bu original matnni qanday tahlil qilish mumkinligi masalasidir. Albatta, bu kabi holatlarda lug'atdan so'zma-so'z tarjima izlash befoyda. “Toza”, ya'ni uyg'un tarjima “madaniy, ijtimoiy, tabiatga oid va shaxsiy sharoitlar talablariga javob berishi kerak” [11. s. 40].

Izoh va ekologik tahlil:

Bu parchada tabiat tasvirlari inson ruhiy holati bilan uyg'unlashgan. Quyidagi elementlar ekologik diskursga xos:

“Мокрый асфальт”, “растаял снег”, “замёрзшая грязь” – Tabiiy sikllar va ob-havoning bevosita ta'siri tasvirlanmoqda. Bu inson va tabiat o'rtasidagi bevosita munosabatni ko'rsatadi.

“Газоны превратились в барельефы” – Inson faoliyati (avtomobillar harakati) tufayli o'zgargan tabiiy makon.

“Студеная поздняя осень старчески слепа” – Bu yerda kuzgi ob-havo insonlik xususiyatlari bilan antropomorf holda berilgan, bu esa ekologik-badiiy yondashuvga asoslangan.

“Туманная морось”, “обвислое небо” – Bu tabiat manzaralari inson holatining ichki aksidir, u depressiv kayfiyatni mustahkamlovchi metaforalardir.

Bu matnni tarjima qilganda, faqat so'zlar emas, balki umumiy obraz, kayfiyat, madaniy kontekst va tabiatga bo'lgan sezgirlikni ham saqlash muhim. Aks holda, tarjima quruq, “noekologik” bo'lib qoladi — ya'ni u asliydagi ma'naviy va ekologik uyg'unlikni yo'qotadi. Eng avvalo, uyg'un (garmoniyali) tarjima qabul qiluvchi madaniyat va uning xususiyatlariga mos bo'lishi, shuningdek, original matndagi fikrlarni imkon qadar to'liq aks ettirishi kerak, bu esa uni asl matn bilan uyg'un qilishning ifodasidir. Buning uchun tarjima matnini o'quvchilar qanday talqin qilishini hisobga olish zarur. Chunki ular boshqa madaniyat, boshqa makon va zamon doirasining vakillari bo'lganliklari sababli, tabiiyki, germeneytik tahlil metodlaridan foydalanish lozim bo'ladi.

Tarjimaning uyg'unligi (garmoniyasi) va madaniyatlararo muvofiqlik

Tarjimada uyg'unlik deganda quyidagi jihatlar nazarda tutiladi:

1. **Madaniy moslik** – tarjima matni qabul qiluvchi (maqsadli) til va madaniyatdagi urf-odatlar, ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlarga zid bo'lmasligi kerak.
2. **Original matnning mazmunini to'liq aks ettirish** – tarjimon o'z shaxsiy talqinini emas, aynan muallifning niyatini, ruhiyatini, mazmunini to'g'ri va to'liq yetkazishi kerak.
3. **O'quvchining talqinini hisobga olish** – har bir madaniyatda so'zlar, ramzlar, iboralar turlicha tushunilishi mumkin. Shu sababli tarjima nafaqat lug'aviy, balki kontekstual ham bo'lishi lozim.
4. **Germeneytika** – bu soha matnlarni chuqur tushunish va talqin qilish usulidir. Tarjimada germeneytik yondashuv quyidagilarga asoslanadi:

- Tarjima — bu muloqotdir: muallif ↔ tarjimon ↔ o'quvchi.
- Har bir o'quvchi o'z dunyoqarashi, madaniyati va hayotiy tajribasi asosida matnni talqin qiladi.
- Tarjimon bu jarayonda vositachi, u ikki madaniyat o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Quyidagi matn parchasini eslaylik:

“Газоны, по которым разворачивались легковушки в тесном дворе, превратились в барельефы, в черную фигурную лепнину.” Bu jumla oddiy ifoda emas – u tasviriy, badiiy va majoziy (metaforik). Uni uyg'un tarjima qilish uchun:

- Har bir obrazning asl vazifasi va ta'siri saqlanishi kerak.
 - Matn tabiat bilan insonning ichki kechinmalari o'rtasidagi uyg'unlikni aks ettiradi.
- Shunday qilib, uyg'un tarjima:
- Lug'aviy moslikdan ko'ra chuqurroq – u madaniy, emotsional, mantiqiy, semantik moslikni o'z ichiga oladi.
 - Har bir tarjima yagona va muallif bilan teng muhim ijodiy ish hisoblanadi.
 - Bunda germeneytik tahlil – tarjimonning asosiy quroli bo'la oladi.

Xulosa. Ekologiyistika – XXI asr tilshunosligidagi yangi va muhim yo'nalish bo'lib, u nafaqat tilni, balki jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ham o'rganadi. Bu fan yo'nalishi orqali biz til orqali ekologik ongni shakllantiramiz, ma'naviy barqarorlikka erishamiz va tabiatga bo'lgan munosabatimizni yanada ma'rifiy va mas'uliyatli qilib o'zgartiramiz.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Shapochkin D.R. Kategoriya ekzistentsional'nosti kak vajhnaya sostavlyayushchaya ekologicheskoy sistemy yazyka // Mater. mejdunar. nauch.-prakt. konf. (Tyumen', 11–13 noyabrya, 2010 g.). – Tyumen': Izd-vo TyumGU, 2010. – S. 65–71.
2. Kislicyna N.N. Ekologiyistika – novoe napravlenie v yazykoznanii [Elektronnyy resurs]. – URL: <http://www.crimea.edu/tnu/magazine/culture/culture37/part1/zip/kislitsina.zip> (data obrashcheniya: 09.05.2010).
3. Drozhashchikh N.V. Ekologiya yazyka i kultury: rekurentnost' smysla // Priroda: mater. mejdunar. nauch.-prakt. konf. (Tyumen', 11–13 noyabrya, 2010 g.). – Tyumen': Izd-vo TyumGU, 2010. – S. 29–34.
4. Revzina O.G. Diskurs i diskursivnye formatsii // Kritika i semiotika. – Vyp. 8. – Novosibirsk, 2005. – S. 66–78.
5. Kurilova N.V. K probleme issledovaniya ekologicheskogo diskursa // Priroda: mater. mejdunar. nauch.-prakt. konf. (Tyumen', 11–13 noyabrya, 2010 g.). – Tyumen': Izd-vo TyumGU, 2010. – S. 125–130.
6. Lykova N.N. Ekologicheskaya lingvistika i istoriya frantsuzskogo yazyka // Priroda: mater. mejdunar. nauch.-prakt. konf. (Tyumen', 11–13 noyabrya, 2010 g.). – Tyumen': Izd-vo TyumGU, 2010. – S. 45–52.
7. Tolkovyy slovar' obshchestvovedcheskikh terminov / gl. red. N.E. Yatsenko. – SPb.: Lan', 1999.
8. Ivanova E.V. Tseli, zadachi i problemy ekologiyistiki. Pragmaticheskiy aspekt kommunikativnoy lingvistiki i stilistiki [Elektronnyy resurs]. – URL: <http://ecolinguistics.ru/index.php?sel=mat&id=12> (data obrashcheniya: 07.05.2010).
9. Luriya A.R. Yazyk i soznanie. – Rostov n/D: Feniks, 1998.
10. Filosofskaya entsiklopediya / pod red. V. Kemerova. – M.: Panprint, 1998.
11. Kushnina L.V., Yuzmanov P.R. Ekologiya perevoda: kultura VS priroda // Priroda: mater. mejdunar. nauch.-prakt. konf. (Tyumen', 11–13 noyabrya, 2010 g.). – Tyumen': Izd-vo TyumGU, 2010. – S. 39–43.

12. Belozerova N.N. Kontseptual'naya model' dlya provedeniya nauchno-issledovatel'skikh rabot v oblasti ekologii yazyka i smezhnykh nauk // Priroda: mater. mejdunar. nauch.-prakt. konf. (Tyumen', 11–13 noyabrya, 2010 g.). – Tyumen': Izd-vo TyumGU, 2010. – S. 14–29.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL BASIS OF CONCEPT AND CONCEPTASPHERE ACTIVATION IN FICTION

Murtozayeva Zarina,
Kattakurgan Branch of Samarkand State University
Assistant Lecturer, Department of Foreign Languages
E-mail: zarina.murtazayeva.93@mail.ru

Abstract. The article reflects the fact that the study and activation of concepts and conceptual spheres in fiction have received special recognition from linguists in world linguistics, and also reflects views on mythological heroes in order to shed light on these issues.

Keywords: concept, conceptual sphere, concept- frame, concept-diagram, concept-insight, mythological hero.

BADIIY ADABIYOTLARDA KONSEPT VA KONSEPTASFERA FAOLLASHUVINING NAZARIY ASOSLARI

Murtozayeva Zarina Muxtor qizi
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali
Xorijiy tillar kafedrasi assistent-o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada konsept va konseptasferaning badiiy adabiyotda tadqiq etilishi va shu bilan birga faollashuvi jahon tilshunosligida tilshunoslarning tomonidan alohida e'tirof etilgani, bu masalalarni ochib berish uchun mifologik qahramonlarga oid qarashlar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: konsept, konseptasfera, konseptual-freym, konseptual ramka, konseptual insayt, mifologik qahramon.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N54>

Kirish. Badiiy adabiyot tili – bu oddiy muloqot tilidan farqli, murakkab semantik qatlamlarga ega bo'lgan ifoda vositasi bo'lib, unda estetik, madaniy, ijtimoiy va psixologik ma'nolar mujassam bo'ladi. Adabiy matnlarning chuqurroq tahlili, ayniqsa, kognitiv lingvistika, madaniy konseptologiya va semantik pragmatika asosida olib borilganida, matnda yashiringan konseptlar va ularning kengaytirilgan shakli sifatida konseptasfera tushunchalari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Taniqli tilshunos D.S. Lixachev til konseptosferasi borasida V.I.Vernadskiyning "ionosfera" va "biosfera" tushunchalariga asoslangan holda "konseptosfera" atamasini taklif etdi. D.S. Lixachev konsepsiyani tilning maxsus o'ziga xos maydon sifatida taqdim etadi. U konsepsiyani voqelik tarkibiga kiruvchi bilim va ko'nikmalar zaxirasi, shuningdek har bir xalqning madaniy tajribasi bilan bog'liq bo'lgan lisoniy majmua deb ataydi [3].

Muallifning qayd etishicha konseptasfera har bir xalqning madaniyati, adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, ilm-fan, tasviriy san'ati qanchalik boy bo'lsa, milliy tilning konseptual tarkibi ham shunchalik boy bo'ladi degan g'oyani ilgari suradi. Albatta har bir millat, xalq, ijtimoiy

guruhning tarixiy tajribasi, olam haqidagi bilimi va ushbu bilimni tilda aks ettiruvchi lisoniy vositalarining tarkibini boyligi ma'lum konseptasferani belgilaydi. Konseptasfera til va madaniyat kesishmasi nuqtai nazaridan kognitiv borliqqa aloqador o'ziga xos tizim sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xaritonchik qayd etganidek, lisoniy semantika lisoniy nazariya va kognitiv imkoniyatlar sirasiga tegishli ko'rish, eshitish sezgilari va boshqalariga aloqador nazariyalari o'rtasida bo'g'in vazifasini bajaradi. Til semantikasini o'rganayotganda, tafakkur tarkibini ham o'rganamiz. Kubryakov esa semantika tuzilishi kognitiv hodisa sifatida qayd etadi. Muallif bu hodisa haqidagi har qanday ma'lumotlar ong tuzilmasiga hamda ichki tuzilishiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Qayd etish joizki, konsept olam va mental jarayonlar bog'liqligini ta'minlovchi vositalar va kategoriyalarga bo'linishini belgilaydigan aqliy tasvir sanaladi. Tafakkur konseptlarni kategoriyalarga bo'linishini e'tiborga oladi. U lisoniy jihatdan ma'lum o'xshashliklarga ega bo'lgan obyektlarni tegishli sinflarga guruhlash imkonini beradi. Bizga muhim bo'lmagan tafsilotlardan muhim bo'lgan xususiyatlarni ajrata olish imkonini beradi [2].

Kognitiv tilshunoslik tarkibida o'ziga xos kategorizatsiyasi prototiplar doirasida amalga oshiriladi. Tilshunoslikda prototiplar nazariyasi Eleanor Rosch tomonidan ilgari surilgan bo'lib, keyinchalik K. Stumpf, E. Gusserl, M. Merlo-Pontilar tomonidan rivojlantirildi. Prototiplar dastavval psixologiyada, keyin esa nazariy tilshunoslikda ishlab chiqilgan.

Konseptlar tahlili tilshunoslikda turli sathlarda amalga oshirildi. Shular orasida leksik konseptlar tadqiqi ham ma'lum parametrlarga javob berishi talab etiladi. Umuman konseptlar aniq so'zlar yordamida verballashadi. Konseptlarning verballashuvi borasida turli o'xshash bo'lgan ta'rif va tavsiflarga duch kelamiz. Rossiyada chop etilgan "Lingvistik entsiklopedik lug'at"da konsept borasida so'z ma'nosi bilan bir xil tartibdagi, biroq birmuncha boshqacha bog'lanishlar tizimida ko'rib chiqiladigan hodisa tarzida ta'rif berildi. Stepanov konsept mantiqiy munosabatlar va shakllar tizimidir degan munosabatni bildirdi. So'zning semantik tuzilishiga murojaat qiladigan bo'lsak, dastlab uning leksik ma'nosi va mazmun birligidan tashkil topgan moddiy va ideal ega sanaladi [1].

Muhokama. Konsept real yoki ideal olamni aks ettiradigan hamda har qanday til sohiblari ongida saqlanadigan jamoaviy ongning har qanday diskret mazmunli birligi sifatida qayd etiladi. Kognitiv masalalarni hal qilish lingvistik nuqtai nazardan yondashish konseptlarini o'ziga xos xususiyatlariga qaratiladi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, konsept badiiy matnlarda foydalanilganda ular ba'zan faqat bitta til sohiblari uchungina emas, balki boshqa til foydalanuvchilarda ham umumiylik ko'zga tashlanishi mumkin. Xususan, mifalogik asarlarga nazar soladigan bo'lsak, bunday asarlarda mifalogik qahramonlarning ya'ni mavjudotlarning tasviri boshqa tilda so'zlashuvchilar ongida shakllangan ko'rinmas obrazlar: chizmalar, karikaturalar, illyustralar, qo'g'irchoqlar, haykallar, niqoblar, aktyorlarning liboslarida umumiylikni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ularda ishlatilgan har qanday fantaziya "tanib oladigan" obrazlarni yaratadilar. Misol uchun, bizga ma'lum bo'lgan slavyanlar mifologiyasida Baba Yaga odatda ko'zi ko'r (yoki og'riydi) oyog'i yasama bo'ladigan obraz sifatida tasvirlanadi [4].

Shu o'rinda aytishimiz joizki, hech kim o'z ko'zi bilan ko'rmagan lekin inson tasavvur ongida mustahkam joy olgan ba'zi atamalarni ham keltirishimiz mumkin. Xususan, "jannat" va "do'zax" kabi leksemalarni aytishimiz mumkin.

“Mifologik lug‘at” da “do‘zax” ilohiy adolatning zindoni sifatida aks ettirilib, jinlar (yoki shayton) jazoni ijro etuvchi qatlchilar u yerda istiqomat qiladi. V.I. Dalning “Толковый словарь живого велико русского языка” nomli lug‘atida esa do‘zaxni yer osti dunyosi, zulmat, alangali pech bo‘lib, uning ajralmas belgisi abadiy qaynab turgan qatron solingan qozon tarzida tasvirlangan.

“Do‘zax”ning aksi bo‘lgan “jannat” esa mashhur rus tilshunosi va leksokografi S.I. Ojegovning “Толковый словарь русского языка” nomli lug‘atida diniy tasavvurga ko‘ra, bu o‘limdan solih insonlar rohat-farog‘at topadigan joy deb tasvirlangan. Bu tasvirlarning barchasi konseptual freym hisoblanadi.

Demak, bizda konseptual freym haqida umumiy bilim, tasavvur hosil qilganimizdan so‘ng, “cho‘l” leksemasining ham xuddi shunday kognitiv tuzilma shaklida ya‘ni “konseptual fyeym” ko‘rinishida ongimizda mavjudligini tasdiqlashimiz mumkin. Bu leksemaga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ga ko‘ra “O‘simlik juda kam o‘sadigan, doimiy quruq va issiq iqlimli, suvsiz bepayon dasht; sahro, biyobon”ni anglatadi. Konseptual freym cho‘lning alohida ajralib turuvchi belgilarini (quruq yer, issiq havo, qum, saksovol) yagona yaxlitlikka birlashtiradi [2].

Shu o‘rinda “konseptual ramka” haqida ham so‘z yuritish joizdir. Konseptual ramka — ma‘lum sharoitlar to‘plami uchun xos va muhim bo‘lgan barcha narsalarni o‘z ichiga oladigan murakkab vaziyatdir, va buni “ramka” ga qiyoslash mumkin.

Ramkaga misol tarzida “maktab” so‘zini keltirish mumkin-bu bolalarga ta‘lim beradigan muassasa va “maktab” deb ataluvchi joy “hajmli” tasavvur bilan ongimizni to‘ldiradi. Shu narsa ma‘lumki, maktab “internat” dan farq qiladi. Biz maktabda o‘quvchilarga kun davomida ta‘lim beradigan, to‘garaklar tashkil etilgan, shuningdek ustozlar va murabbiylarni mavjudligini kutamiz. Ushbu ma‘lumotlarning barchasi “maktab” leksemasining mazmun rejasiga kiritilgan.

Nazariy jihatdan “Ramka” ga qaraydigan bo‘lsak, inson ma‘lum bir vaziyatga holatga duch kelganida xotirasida mavjud bo‘lgan “tayyor” freymni chaqiradi. Misol uchun mashhur bo‘lgan “Vatan ostonadan boshlanadi” degan maqolni oladigan bo‘lsak, “Vatan” ramkasining bir fragmentini ochib beradi. Bu fragment faqat vatan bir kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri, yoki qishlog‘i, tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud ekanliginigina emas, balki oiladagi hamjihatlik, bir-biriga hurmat stereotipini ham nazarda tutadi. Freymning yaxshi namunasi sifatida mavsumlarning «mental freym-lari» xizmat qilishi mumkin: «qish», «bahor», «yoz», «kuz», ular har bir rus tilida so‘zlashuvchi odamning ongida mavjud[1].

Yana bir nazarda tutishimiz kerak bo‘lgan nazariy tushunchalardan biri bu konseptual anglash (insight) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “mohiyatga kirib borish”, “tushunish” degan ma‘nolarni anglatadi.

Adabiyotlarda aytilishicha, intuitiv bilish nazariyasiga ko‘ra, insight-bu bevosita idrok etish, ya‘ni “yorqin anglash” va ongli tushunish akti (harakati) hisoblanadi. Xulq-atvor nazariyasidagi bosqichma-bosqich va “ko‘r-ko‘rona” o‘rganish konseptsiyasiga zid ravishda, insight Gestalt Psixologiyasining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, vaziyatni butunlay idrok etish, uning muayyan aloqalari va tuzilmasini birdaniga “anglash”ni nazarda tutadi [1].

Natijalar. Telia «konsept» atamasi haqida shunday yozadi: «Tushuncha atamasining “muhim xususiyatlar to‘plami” sifatida o‘zgartirilishi “konsept” atamasi bilan terminologik almashtirishdan iborat emas: konsept har doim bilimdir, bu esa uning obyektning faqat asosiy xususiyatlarini emas, balki ma‘lum bir til jamoasida uning mohiyati haqida bilish bilan to‘ldirilgan barcha xususiyatlarini aks ettirishi deganidir» [5].

Asosiy falsafiy va lingvistik yo'nalishlarni ko'rib chiqish quyidagi xulosani shakllantirishga imkon berdi: konsept bu tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi bo'lgan Kognitologiyaning muhim qismidir; Konsepsiya voqelik tarkibiga kiruvchi bilim va ko'nikmalar zaxirasi; Konseptasfera esa har bir xalqning madaniyati, xalq og'zaki ijodi boy bo'lishi til konseptasferasi boyishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Badiiy adabiyotda konsept va konseptasfera tushunchalari matnning chuqur semantik qatlamlarini ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Konseptlar – muayyan madaniy, psixologik va axloqiy mazmunlarga ega bo'lgan tushinchaviy birliklar bo'lib, ular obrazlar, simvollar, metaforalar va til vositalari orqali ifodalanadi. Konseptasfera esa o'zaro bog'langan konseptlarning majmuasi sifatida har bir adabiy asarda muallif dunyoqarashi, madaniy muhit va ijtimoiy kontekstni ifodalovchi kompleks tizimni tashkil etadi.

Ushbu maqolada konsept va konseptasferaning nazariy asoslari kognitiv lingvistika, madaniy konseptologiya va diskurs tahlili doirasida tahlil qilindi. Shuningdek, badiiy matn doirasida konseptlarning qanday shakllarda faollashuvi – ya'ni obrazlar, intertekstual ishoralar, assotsiativ maydonlar va o'quvchi bilim zaxirasi orqali jonlanishi ko'rsatib o'tildi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, badiiy adabiyotda konseptual tahlil – matnni chuqurroq anglash, madaniy qatlamlarini ochish va muallif niyatini talqin etishda samarali metod bo'lib xizmat qiladi. Bu esa adabiy tanqid, tarjima nazariyasi va lingvistik poetika sohalarida amaliy qo'llaniladigan dolzarb nazariy yo'nalishlardan biridir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Falsafiy ensiklopedik lug'at. – Toshkent. 1988. – B. 209.
2. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. — М.: Русский язык, 1991. — Т. 1. — С. 42.
3. Лихачёв Д. С. Концептосфера русского языка // Известия РАН. Серия литературы и языка. – 1993. – Т. 52, №1. – С. 3–9.
4. Ожегов С. И. Толковый словарь русского языка. — М.: Русский язык, 1983. — С. 392.
5. Телия Т. В. Русская концептосфера: Культурно-языковой анализ. — М.: Языки русской культуры, 1996. — С. 96.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

AUDIOVISUAL TRANSLATION: SUBTITLING AND DUBBING CHALLENGES

Supervisor: Bahodir Abdirasulov
Senior Lecturer,
Translation Theory and Practice, SamSIFL

Muslima Maratovna Abiyatova
2nd year student, Group 2302,
Translation Theory and Practice (English),
Faculty of English Philology and Translation Studies,
Samarkand State Institute of Foreign Languages
E-mail: muslimaabiyatova6@gmail.com

Abstract. This article examines the field of Audiovisual Translation (AVT), focusing on its two primary modes: subtitling and dubbing as essential tools for cross-cultural communication in the age of global media. AVT tackles the problem of translating content intended to be both seen and heard, in contrast to traditional translation, which focuses mostly on written texts. Dubbing and subtitling are the two main AVT modalities, and each provides a unique method for overcoming language obstacles in visual media. The goal of dubbing is to substitute translated speech for the original dialogue while making sure the performers' tone and lip movements are reflected in the new discourse. On the other hand, subtitling, which appears at the bottom of the screen and provides a condensed textual translation of the spoken words, frequently necessitates extensive compression because of time and space constraints. The article examines the particular difficulties, technological limitations, and cultural factors associated with each approach, emphasizing how each contributes to the accessibility of audiovisual content for a range of international audiences. By looking at several translation methods, the study highlights how AVT is changing in reaction to new technology and how important it is becoming for cross-cultural communication in an increasingly globalized media environment.

Keywords: interpretation, technological progress, sign language translation, audiovisual translation, translator, polysemantic unity, subtitles, dubbing, adaption.

AUDIOVIZUAL TARJIMA: SUBTITRLASH VA DUBLYAJ QIYINCHILIKLARI

Nazoratchi: Abdirasulov Bahodir
Katta o'qituvchi,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti, SamSIFL

Abiyatova Muslima Maratovna
2-kurs talabasi, 2302-guruh,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili),
Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola audiovizual tarjima (AVT) sohasini o'rganadi va uning asosiy ikki turi subtitrlash va dublyajni global media davrida madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi muhim vositalar sifatida tahlil qiladi. AVT bir vaqtning o'zida ko'rish va eshitish uchun mo'ljallangan kontentni tarjima qilish muammosini hal qiladi; bu jihati bilan u an'anaviy, asosan yozma matnlarni qamrab oluvchi tarjimadan farq qiladi. Dublyaj va subtitrlash AVTning asosiy shakllari bo'lib, har biri vizual mediada til to'siqlarini yengib o'tishning o'ziga xos usullarini taqdim etadi. Dublyaj bu asl ovozni tarjima qilingan nutq bilan almashtirish bo'lib, bunda aktyorlarning lab harakatlari va

ohangiga moslikka alohida e'tibor qaratiladi. Subtitrlash esa, ekran pastki qismida paydo bo'ladigan va so'zlangan matnning qisqartirilgan yozma tarjimasini ifodalaydi; bu tur, vaqt va makon cheklovlari tufayli ko'pincha kuchli qisqartirishlarni talab qiladi. Maqolada har ikki uslub bilan bog'liq texnik, madaniy va tarjimaviy qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi hamda ularning xalqaro auditoriyalar uchun audiovizual kontentni ommalashtirishdagi o'rni ta'kidlanadi. Shuningdek, maqola zamonaviy texnologiyalarning ta'sirida AVT qanday rivojlanib borayotgani va u global axborot makonida madaniyatlararo aloqaning ajralmas qismiga aylanganini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: tarjima, texnologik taraqqiyot, imo-ishora tili tarjimasini, audiovizual tarjima, tarjimon, ko'p ma'nolilik, subtitrlar, dublyaj, moslashtirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N55>

Introduction. Audiovisual translation as a popular direction of modern translation practice. In the conditions of modern scientific and technological progress, almost every area of life is constantly being transformed, and translation activity is also in constant dynamics. One of the most well-liked and rapidly expanding areas of translation activity today is audiovisual translation, which has been made feasible by the advancement of information technology.

It is necessary for the interpreter to be capable of both simultaneous and consecutive interpretation. In the first of these, the interpreter listens to the entire speaker's remarks, or at least a key portion of them, and then uses the notes they took while listening to reconstruct the speech; in this way, the interpreter is speaking to the original speaker in succession. Some speakers would rather speak for a few lines and then ask someone to translate. The interpreter may be able to recreate the entire speech using their recollection alone and without the need of notes [11]. The translation of different kinds of movies (documentaries, animated series, TV shows, etc.), television newscasts with sign language interpretation, theatrical productions, and online videos is known as audiovisual translation. Audiovisual translation focuses on the practices, processes and products that are involved in or result from the transfer of multimodal and multi-medial content across languages and cultures. Audiovisual texts are multimodal inasmuch as their production and interpretation relies on the combined deployment of a wide range of semiotic resources or modes [2; 118 p], including language, image, music, colour and perspective

Literature review and methodology. Audiovisual translation is frequently equated with standard film translation, which is incorrect because film translation primarily entails translating feature and animated films and television shows. A greater proportion of translations of works from the creative television and cinema industries are included in audiovisual translation [7; 289 p].

Since audiovisual translation was regarded as a form of literary, oral, or simultaneous translation, it was occasionally only taken into consideration as a component of written speech. The idea that audiovisual translation is only a form of adapted translation rather than a distinct translation style may also be found in certain publications.

Audiovisual translation also implies adherence to the principle of dynamic equivalence. This principle's main idea is that dynamic factors must be considered while translating audiovisual content, and the translation itself must match the different components of the original language. The notion of skopos, which emphasizes not just text translation but also the accomplishment of a certain objective that the translator faces from the outset of his labor, must also be considered when performing the audiovisual translation process. For instance, the translator must not only translate the content but also synchronize it while interpreting TV shows and movies. Given that words in a foreign language and the target language might have

entirely different structures, this can occasionally seem like a very challenging undertaking [14; 92 p].

Additionally, audiovisual translation entails utilizing four distinct information streams: nonverbal audio, nonverbal images, spoken audio (e.g., character conversation); spoken video sequence (e.g., captions, subtitles). For instance, the translator must not only translate the content but also synchronize it while interpreting TV shows and movies. Given that words in a foreign language and the target language can have entirely different structures, this can occasionally seem like a very challenging undertaking. Moreover, audiovisual translation entails utilizing four distinct information streams: nonverbal audio, nonverbal images, spoken audio (e.g., character dialogue); spoken video sequence (e.g., captions, subtitles).

As a result, when translating the text, the translator must consider all information flows and, if required, modify them to fit the circumstances of each series. Because each row's translation has specific operational circumstances, the task proves to be rather complicated. The person who receives the audiovisual piece simultaneously functions as a reader, listener, and viewer. This is how information is received from multiple sources and processed at different levels to get the end result.

It is also possible to render sight translation with varying degrees of care. Giving pupils 10 minutes or so to go over a chapter and get the vocabulary ready would be an example of an unstressful sight translation. Eliminating the preparatory time and asking the learner to start translating right away without even reading the material would be a more taxing exercise. When documents are sent to the court interpreter for instant translation in front of the judge, this is frequently done [12]. Thus, audiovisual translation can be defined as the process of creating polysemantic unity in the target language, based on polysemantic unity in the original language, but in such a way that these unities are equivalent.

Audiovisual translation (AVT) is the adaptation of multimedia and audiovisual content from one language to another. It covers a range of media types including films, television programs, video games, and digital content. The six primary features of audiovisual translation are as follows:

- a) **Speech:** The foundation of audiovisual material is speech. The content, however, is more than just the words. An immersive experience is produced by the dialogue's tone, emotion, and details. For example, while translating from Korean to English, complicated honorifics may be lost.
- b) **Changing source materials:** AVT entails translating a variety of genres, each with its own language, style, and conventions, such as horror films, children's programs, or commercials. Translators must accurately interpret cultural references, maintain the proper tone and mood, accommodate a variety of audiences, and follow rules and regulations related to the subject.
- c) **Multimedial nature:** Because audiovisual texts incorporate a variety of semiotic modes, such as voice, writing, sound effects, music, and images, they are multimodal. As a result, the translator must take into account each of these modes when translating.
- d) **Multilingual elements:** AVT entails translating conversation, songs, on-screen text, and occasionally even ambient or background noise in the source language.

- e) **Synchronization:** The translated text needs to adhere to the original video's timing and space restrictions. In subtitling, for instance, the text must appear and fade in time with the audio.
- f) **Variety of AVT modes:** AVT comes in a number of forms, each with unique traits and difficulties. Subtitling, dubbing, voice-over, and audio description are some of the more popular kinds.
- g) **Adaption:** Compared to other translation methods, AVT frequently necessitates greater adaption. To make the content interesting and comprehensible for a different cultural audience, the translator might need to make some adjustments. This may entail modifying humor, cultural references, and other context-specific elements [1; 11 p].

As you can see, an audiovisual translator's responsibilities extend beyond simply knowing a language's fundamental vocabulary and syntax. They must also be familiar with the specialist terminology and colloquial idioms of the language. This is particularly critical when translating media such as TV shows or movies, when the audiovisual translator must expertly convey humor, sarcasm, and even potentially unpleasant language.

Results and discussions: AVT has several subfields each with its own methods and considerations. Here are some of the most common AVT types:

Subtitling is the most common and well-studied type of audiovisual translation. Subtitles are text accompaniment of a video sequence that duplicates or complements the audio track. When working with this type of translation, the translator's main problem is external limitations. External limitation lies in the allocation of a certain number of lines and characters for translation. Subtitling began in 1903 when Uncle Tom's Cabin, the first motion picture to use subtitles, introduced the idea of written translations showing on screen. Subtitles were referred to as intertitles back then. However, The Jazz Singer (1929), which had French subtitles, was the first movie to use sound in motion pictures. Since then, developments in technology have fundamentally altered the production and presentation of subtitles, improving efficiency and adaptability to contemporary viewing platforms. A professional linguist known as a **subtiter** is in charge of translating spoken dialogue into a target language while maintaining the original speech's context, meaning, and tone. "The eye reads slower than the ear hears" as Montreal translator Robert Grey effectively puts it. This implies that the spoken words must be condensed by the subtitler without losing their significance. Their task is to strike a balance between accuracy and brevity, making sure that the subtitle matches the spoken dialogue's speed while appearing on screen at the appropriate moment and remaining visible long enough for viewers to read. The text at the bottom of the screen that has been translated into the target language is called a **subtitles**. Subtitles are supposed to appear and disappear in time with the conversation; if they don't, or stay on screen after the shot has changed, that is bad practice.

According to **Pavesi**, the definition of subtitles remains a subject of academic debate, primarily because subtitling embodies a target-oriented approach its core function being to ensure that the target audience fully comprehends the audiovisual content, even if that comes at the expense of source-text fidelity or cultural nuance.

One of the reasons behind the difficulty in clearly defining subtitles from a translational standpoint is their high technical specificity. As noted by **Paolinelli** and **Di Fortunato** [13; 123 p], subtitling involves strict conventions related to timing, line length, and screen space. Each

subtitle must typically consist of no more than two lines, with a maximum of 35–40 characters per line, including spaces and punctuation. Moreover, a subtitle should not remain visible on screen for more than four seconds, depending on the scene's duration. These constraints are designed to maintain readability, yet they often force the subtitler to drastically condense dialogue, which may result in the loss of dramatic nuance particularly in scenes with fast-paced or overlapping speech. According to Paolinelli and Di Fortunato [13], reading subtitles inevitably means that viewers may miss part of the on-screen action, which can reduce the immersive quality of the viewing experience. Despite these limitations, subtitling has clear practical advantages. It is more cost-effective and time-efficient compared to dubbing. According to industry observations, subtitling requires less equipment, fewer professionals, and significantly less post-production time. Unlike dubbing which involves script adaptation, voice actor performance, lip-syncing, and studio recording subtitling bypasses several stages, thus accelerating the delivery of translated media content. Furthermore, subtitles serve an important role in preserving elements of spoken language.

As **Perego** [17] explains, subtitling attempts to reproduce the colloquial or dialectal features of oral language in written form, while still adhering to formal conventions. This balance between orality and textual discipline is a defining feature of subtitles. Beyond its communicative function, subtitling is increasingly recognized as a pedagogical tool. It can support second language acquisition by providing simultaneous access to both the source and target languages. Learners are able to observe language use in context, verify meanings immediately, and expand their lexical knowledge more efficiently. This makes subtitling not only a mode of translation but also a valuable linguistic and educational resource.

According to **Nikolic** [12], subtitling has contributed significantly to fostering linguistic openness and improving foreign language proficiency in regions where this translation mode is traditionally practiced. This is largely due to the fact that viewers are exposed simultaneously to both the original audio and the written translation, which not only aids comprehension but also facilitates incidental language learning. Subtitling enables audiences to listen to the authentic dialogue while reading its equivalent in the target language, typically positioned at the bottom of the screen. Furthermore, it serves a broader function by also translating written elements within the visual frame such as signs, letters, or written dialogue which is particularly useful in dubbing-dominant countries like Spain, where such translations do not interfere with dubbed speech.

Henrik Gottlieb [8], a prominent subtitling scholar from the University of Copenhagen, has defined subtitling as a form of “diagonal translation”, as it navigates between spoken and written modes, maintaining both temporal synchronization and textual economy. In one of the earliest scholarly treatments of the subject, Gottlieb described subtitling as an “amphibian practice” that both flows with the speech and intermittently “jumps” onto the screen, giving viewers a “bird’s-eye view” of the action. From his perspective, subtitling is a more transparent and honest method of translation than dubbing, though also more visually intrusive, as the text coexists with the imagery.

Building on Juliane House’s translation typology, **Gottlieb** [8] classifies subtitling as an overt translation, wherein the translation process is visible and acknowledged by the audience. In contrast to dubbing, which often seeks to mask the fact that the dialogue has been translated, subtitling preserves the authenticity of the original voice and context. However, as **Chaume** [3]

observes, despite its widespread practical application, subtitling has historically received less scholarly attention than dubbing within the field of audiovisual translation (AVT). Nonetheless, growing interest in this area is evident in recent academic contributions that examine subtitling from diverse perspectives, across different regions, and for varied purposes. For example, **Nazaret Fresno** and **Kataryna Sepielak** have investigated the influence of subtitle speed on audience comprehension. Their research compares industry guidelines with academic recommendations, revealing that the latter often propose at least three differing approaches to subtitle timing and pacing. Their findings emphasize the need to reconcile practical constraints with viewer cognition and comfort. Based in the United States – a country where both translation studies and AVT have traditionally held a marginal academic position **Fresno** and **Sepielak** highlight that, in addition to internal standards used by media giants like Netflix and BBC, many countries have established national subtitling regulations. For instance, Spain, France, the UK, Australia, Canada, and the US all maintain their own standards, although they vary in terms of technical parameters, accessibility requirements, and cultural sensitivity. These insights, supported by multiple researchers, underscore the complexity and evolving nature of subtitling not only as a technical task, but also as a socio-cultural and pedagogical tool in today's globalized media landscape. According to **Díaz-Cintas** and **Remael**, subtitling often requires textual reduction to meet space and time constraints. The subtitler may apply partial or total omission, removing content that is not essential to understanding the message or reformulating it in a shorter form [4].

Dubbing is also a fairly popular type of audiovisual translation, during which foreign speech is completely replaced with the target language. The audio track is translated right at the start of the dubbing process. Actors are chosen and the actual dubbing begins after the audio has been translated. The process of casting is also very complicated because it involves choosing not just an actor but also his voice, conduct, and age. After then, the translation is adjusted to match the actors' articulations and facial emotions, and the translator must once again revise the original translation to improve its sound quality. Thus, duplication is the most expensive type of audiovisual translation. Voice-over is the simplest and least expensive type of translation. In the process of voice-over, the voice of the translation actor is simply superimposed over the original audio track. As a result, when voice-over is used, the audience may hear people's original voices in the movie or video. Additionally, voice-over translation falls within the category of simultaneous translation [3; 320 p].

As **Forbes & Street** and **Mere Keating** remind us, dubbing historically was an instrument of nationalist governments, at times used as a secret means of censorship [10; 150 p]. **Sisto** subscribes to this perspective, and claims that in dubbing, the verbal content can be modified or deleted in a way that subtitling cannot, turning it into a perfect weapon for controlling the message [18].

Yet, **Gambier & Jin** also insist that we must consider that the reason for the dubbings vs. subtitles split in Europe can't be just political, political, but. They argue that dubbing in big countries with international languages like Germany, Italy, and France is more popular, due to larger audiences and funding. Rather, smaller countries with low budgets cannot afford the cost of dubbing and so they use subtitling [7]. For instance, **Pedersen** points out that Portugal, as a subtitling country even though under Salazar's authoritarian regime, contradicts the purely nationalist explanation [15].

A clear example of dubbing used as ideological manipulation is situated in Iran. **Pakar** and **Khoshsaligheh** studied Persian dubbing of the American television series House of Cards and discovered that state-sanctioned translators omitted and substituted sensitive references such as terrorism, freedom, and vulgarities. Moreover, positive appraisals of the United States were expunged alongside derogatory references to allied nations such as Russia, which were also removed. Consequently, the political ideals of the intended audience culture are incorporated into the version that is juxtaposed with the original [19].

Conclusion. In conclusion, both subtitling and dubbing encounter specific challenges and necessitate particular technical, cultural and audience factors to be taken into account. Captioning is restricted in space and time and the translator must heavily compress dialogue whilst also timing it to coincide with the action on screen. This maintains readability and brevity of the translation, but loses the finer nuances in emotion. Moreover, the text is rendered quickly and there are issues regarding perceived completeness of the content due to the eye developing a trail of the white markers; the speed that a reader reads versus the speed of the text being placed and perceived may cause the viewer to be unable to take in and comprehend an entire statement. On the other hand, dubbing has its own challenges, especially in voice alignment, lip-syncing, and cultural transposition. Dubbing is a highly detailed process to guarantee that the transposed dialogue not only synchronizes with the actors' lips but also with the target audience's culture. While this method offers greater accessibility, it can introduce profound alterations of the initial material, sometimes at the cost of ideological purity or integrity. Moreover, dubbing is a more time-consuming method that demands greater time, cost, and planning.

Lastly, both processes attempt cross-cultural communication but in different ways. Whether one subtitles or dubs depends on several factors, varying from the intended audience to the content itself and the goals of the translation process. Both processes have both pros and cons, and it is necessary to know about these challenges for successful communication of audiovisual content across cultures and languages.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Audiovisual translation. Samarqand: SamDCHTI, 2024. - 280 bet.
2. Baldry, A. and P. J. Thibault (2006). Multimodal Transcription and Text Analysis. London/Oakville: Equinox.
3. Chaume, F. (2019). Audiovisual translation. In R. A. Valdeón, & A. Vidal (Eds.), The Routledge handbook of Spanish translation studies (pp. 311–351). Routledge.
4. Díaz-Cintas, Jorge and Aline Remael. Audiovisual Translation: Subtitling. London: Routledge, 2007.
5. Fois, Eleonora. (2012). Between, Audiovisual Translation: Practice. Between - open journals.
6. Forbes, J., & Street, S. (2000). European cinema: An overview. In J. Forbes, & S. Street (Eds.), European cinema: An introduction (pp. 1–51). Palgrave.
7. Gambier, Y., & Jin, H. (2022). A connected history of audiovisual translation. In E. Bielsa (Ed.), The Routledge handbook of translation and media (pp. 283–301). Routledge.
8. Gottlieb, H. (1994). Subtitling: Diagonal translation. Perspectives, 2(1), 101–121.
9. Gottlieb, Henrik. Subtitling. Routledge Encyclopedia of Translation Studies. Ed. Mona Baker. London: Routledge, 1998. 241–249. Print.
10. Mereu Keating, C. (2016). The politics of dubbing. Film censorship and state intervention in the translation of foreign cinema in fascist Italy. Peter Lang.

11. Muminov, Omon, (2005). A guide to simultaneous translation. Toshkent.
12. Nikolic, K. (2018). Reception studies in audiovisual translation – interlingual subtitling. In E. Di Giovanni, & Y. Gambier (Eds.), Reception studies in audiovisual translation (pp. 179–198). John Benjamins.
13. Paolinelli, Mario – Di Fortunato, Eleonora. Tradurre per il doppiaggio. La trasposizione linguistica dell’audiovisivo: teoria e pratica di un’arte imperfetta. Milano: Hoepli, 2005.
14. Pavesi, Maria. “Pronouns in Film Dubbing and the Dynamics of Audiovisual Communication.” VIAL (Vigo International Journal of Applied Linguistics), 6 (2009): 89–107.
15. Pedersen, J. (2011). Subtitling norms for television. John Benjamins.
16. Perez-Gonzalez, Luis. (2020). Audiovisual Translation.
17. Perego, Elisa. La traduzione audiovisiva. Roma: Carocci, 2005.
18. Sisto, A. (2013). Dubbing for fun, dubbing for real. In G. Parati (Ed.), New perspectives in Italian cultural studies. Volume 2 (pp. 95–105). Fairleigh Dickinson University Press.
19. Valdeón, R. A. (2022). Latest trends in audiovisual translation. Perspectives, 30(3), 369–381. <https://doi.org/10.1080/0907676X.2022.2069226>

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

COMPLEXITY OF CULTURE-SPECIFIC UNITS AND SEMANTIC AMBIGUITIES IN TRANSLATION

Supervisor: Bakiyev Faxriddin

Head of the Department of Translation Theory and Practice, SamSIFL

Kayimova Mohinur Salokhiddin kizi,

2nd year student of

Samarkand State Institute of Foreign Languages

E-mail: mohinurqayimova7@gmail.com

Abstract. Translation is a multifaceted process that goes beyond a simple exchange of words between languages. Among its most intricate challenges are the semantic disparities that arise from culture-specific items (CSIs), whose meanings are deeply rooted in the source culture. These items present a significant barrier for translators, who must bridge the cultural and linguistic gaps between the source and target languages. This study explores the complexities of translating CSIs, focusing on the strategies employed to overcome the challenges posed by cultural differences, connotative meanings, and the lack of direct equivalents. Furthermore, the paper addresses the issue of lexical ambiguity, examining how polysemy and homonymy impact translation decisions. By analyzing theoretical models and practical approaches, this research aims to provide insight into the cognitive and cultural factors that influence semantic interpretation in translation. Through an exploration of translation theories such as dynamic equivalence and Skopos theory, this paper underscores the importance of understanding both the linguistic and cultural dimensions of meaning to ensure an accurate and contextually appropriate translation. Ultimately, the study seeks to contribute to a deeper understanding of how translators navigate the complexities of language and culture, ensuring that meaning is preserved while adapting to the communicative needs of the target audience.

Keywords: semantic challenges, interlingual, intralingual ambiguity, culture-specific item (CSI), transference, naturalization, functional equivalent.

MADANIYATGA XOS ELEMENTAR VA SEMANTIK NOANIQLIKLARNING TARJIMA JARAYONIDAGI MURAKKABLIGI

Nazoratchi: Bakiyev Faxriddin

SamSIFL Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası mudiri

Qayimova Mohinur Saloxiddin qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Tarjima bu faqat soʻzlarni bir tildan boshqasiga oʻgʻirish bilan cheklanmaydigan koʻp qirrali jarayondir. Ushbu jarayondagi eng murakkab muammolardan biri – bu madaniyatga xos boʻlgan tushunchalar (CSI – Culture-Specific Items) tufayli yuzaga keladigan semantik tafovutlardir. Bunday tushunchalar manba madaniyatiga chuqur ildiz otgan boʻlib, ularni tarjima qilishda til va madaniyat oʻrtasidagi farqlarni yengib oʻtish katta qiyinchilik tugʻdiradi. Ushbu tadqiqot CSInı tarjima qilishdagi murakkabliklarni tahlil qiladi hamda madaniy farqlar, konnotativ maʼnolar va toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalentlarning yoʻqligi kabi muammolarni yengib oʻtishda qoʻllaniladigan strategiyalarni koʻrib chiqadi. Bundan tashqari, ushbu maqola leksik noaniqlik masalasiga ham toʻxtalib, soʻz koʻpmaʼnoliligi (polisemiy) va homonimiyaning tarjima qarorlariga qanday taʼsir qilishini oʻrganadi. Nazariy modellar va amaliy yondashuvlar tahlili orqali tadqiqot semantik talqinning kognitiv va madaniy omillariga eʼtibor qaratadi. Dinamik ekvivalentlik va Skopos nazariyasi kabi tarjima nazariyalari asosida maqola til va madaniyatning maʼnodagi rolini tushunish muhimligini taʼkidlaydi. Oxir-oqibat, ushbu tadqiqot

tarjimonlarning til va madaniyat murakkabliklarida qanday yo'l tutishini, ma'noni asrash bilan birga uni maqsadli auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish usullarini chuqurroq anglashga hissa qo'shishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: semantik muammolar, interlingval, intralingval noaniqlik, madaniyatga xos element (CSI), ko'chirish (transference), tabiiylashtirish (naturalizatsiya), funksional ekvivalent.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N56>

Introduction. The act of translation extends far beyond the mechanical substitution of lexical items between languages; it is a cognitively and culturally embedded process that demands a nuanced understanding of meaning, context, and communicative intent. Among the many dimensions of translation, semantics—concerned with the meaning of words, phrases, and texts—poses some of the most persistent and intricate challenges. Unlike syntactic or morphological differences, semantic disparities often arise from culturally specific associations, idiomatic expressions, and pragmatic functions that are not easily transferable across linguistic boundaries [2; 45 p]. Effective translation requires not only linguistic competence but also a deep sensitivity to the semantic structures underpinning both the source and target languages. A term in one language may lack a direct equivalent in another, or it may carry connotations that are difficult to preserve without additional explanation or restructuring [5; 94 p]. Furthermore, meaning is frequently context-dependent; the same expression can convey divergent meanings in different social or textual environments, complicating the translator's task.

As global communication continues to expand across disciplines such as literature, law, science, and diplomacy, the need for accurate and semantically aware translation becomes increasingly critical. Nevertheless, many translation errors stem from misinterpretations at the semantic level, underscoring the importance of this aspect within translation studies. This paper aims to investigate the core semantic challenges encountered in translation practice, analyze their linguistic and cultural underpinnings, and explore theoretical and practical approaches for their resolution [2; 55 p]. Through this inquiry, the study contributes to a broader understanding of how meaning is negotiated and transformed across languages.

Methodology and literal review. A background in both linguistic theory and translation studies is necessary to comprehend the semantic complexity involved in translation. The interpretation and transmission of meaning are the main concerns of semantics, a field of linguistics. Since meaning is the essential component that needs to be maintained, modified, or reinterpreted across languages and cultures, it has a fundamental intersection with translation. The difference between two types of meaning—denotative, which refers to a word's literal or dictionary meaning, and connotative, which encompasses the emotional, cultural, or associative nuances—is at the core of semantic theory. When a term's denotative meaning is transferable but its connotations are tied to the cultural or socioeconomic context of the source language, translators frequently run into problems [7; 94 p]. Additionally, pragmatic meaning—which takes into account the speaker's intention, context, and social conventions—adds additional factor that needs to be taken into account while translating, particularly when irony, politeness tactics, or indirect speech acts are involved [14; 22 p]. A number of linguistic models help us comprehend these difficulties. For instance, componential analysis provides a means of comparing lexical items across languages by decomposing meanings into fundamental semantic properties. But when it comes to idiomatic or metaphorical language, where meaning is derived from usage rather than structure, these

models frequently fail. Contrarily, cognitive semantics highlights how mental conceptions and frames shape meaning, arguing that translation encompasses not just words but also the cultural cognition that underlies them.

From the perspective of translation studies, theories such as dynamic equivalence (*Nida, 1964*) and *Skopos theory* (*Vermeer, 1989*) provide important insights. While dynamic equivalence focuses on conveying the same effect or function in the target language, Skopos theory stresses the importance of the translation's purpose, granting the translator greater flexibility in adjusting meaning to fit the communicative goal. These approaches highlight the tension between fidelity to the source text and adaptability to the target audience, especially when semantic elements do not align neatly between languages. Moreover, recent scholarship in intercultural pragmatics has further emphasized the role of cultural knowledge in semantic interpretation. Expressions that appear semantically simple may carry cultural or historical meanings that are opaque to those outside the source culture, necessitating compensatory strategies such as adaptation, paraphrasing, or explanatory additions. This theoretical framework thus positions semantics not as a static system of equivalences, but as a dynamic interface between language, culture, and context. It establishes the foundation for the subsequent analysis of semantic challenges and the strategies employed to address them in real-world translation scenarios.

1. Culture-specific units. The translation of cultural units has been the subject of numerous discussions, resulting in a variety of suggestions and approaches. Scholars often use different terms to describe this concept, with each term offering slightly varying definitions. Despite extensive efforts by linguists to pinpoint words or phrases that are culturally specific, there remains a lack of clarity even in the terminology itself. Some researchers prefer the term “culture-specific item” (CSI) [3; 21 p], while others use terms like “cultural words [9]” or “culture-bound phenomena [3].” Other frequently cited terms include “realia” and “non-equivalent lexis [7; 94 p]”. For consistency, this study will primarily use the term “culture-specific item” and its abbreviation CSI, though other terms will be utilized when necessary to avoid repetition. Returning to the meanings of these closely related terms, it is important to explore their differences and similarities, which vary depending on the scholar. For instance, Mona Baker (1992) defines culture-specific concepts as “source-language words that express concepts completely unknown in the target culture [3; 21 p]. These concepts may refer to aspects such as religion, social customs, or certain types of food. In contrast, Gudavičius (2009) describes non-equivalent lexis as “concepts tied to specific cultural realia that have no counterparts in other languages, because those concepts or things are absent from other cultures [7; 94 p].” Gudavičius further emphasizes that such items are crucial for understanding both the material and spiritual culture of a society, suggesting that non-equivalent lexis can be divided into two categories: material and spiritual.

2. Lexical ambiguity. To initiate a discussion on the concept of ambiguity—an inherently unclear term itself — let me consider a passage from Umberto Eco's *Confessions of a Young Novelist* (2011). Eco recounts a common experience among translators:

"At times, one of my translators might ask me: 'I'm unsure how to translate this section because it seems ambiguous. It could be interpreted in two distinct ways [6; 33 p]."

This observation underscores a critical issue that translators encounter frequently: ambiguity. Though often regarded as a linguistic challenge, ambiguity is a natural part of

communication. It occurs when a word, phrase, or sentence has multiple meanings or interpretations, which can lead to confusion. Despite being commonly described as a "flaw" in language (Graham, 2001), for translators, ambiguity is an unavoidable aspect of their work.

While many speakers of a language may not be fully aware of the ambiguities they encounter in daily communication, translators must confront them directly. They are required to navigate through the presence of multiple possible meanings within the source text and determine how best to render these meanings in the target language. This task becomes even more complicated when ambiguity arises both within the same language (intralingual translation) and across different languages (interlingual translation).

- a) **Intralingual ambiguity** occurs when a word or phrase has multiple meanings within a single language. For instance, the word "bat" could refer to a flying mammal or a piece of sports equipment. The translator must select the appropriate meaning based on context.
- b) **Interlingual ambiguity** refers to the challenge of finding the correct equivalent of an ambiguous term in the target language. A single word in the source language may have several possible translations, and the translator must decide which translation best conveys the intended meaning in the new context.

Therefore, translators are more than linguistic experts—they are also decision-makers, tasked with resolving the ambiguity inherent in both the source and target languages. In doing so, they shape the interpretation and reception of the text for the audience. Across many languages, it's common for individual words to carry multiple meanings—a phenomenon known as semantic ambiguity. In such cases, a single word form may refer to more than one concept or sense, making it a complex element in both language understanding and translation. Because of its prevalence, researchers have long been interested in how the brain processes these ambiguous words and how meaning is selected in context. Early investigations into this topic largely centered around one central question: when we encounter an ambiguous word, are all of its possible meanings activated, or just the one most relevant to the context? Studies also explored how different factors—such as how often each meaning is used (meaning frequency), the presence of context, and the strength of that context—affect how meaning is accessed and resolved. Subsequent research continued to expand our understanding, showing that these factors do not act in isolation. For instance, work by Duffy, Morris, and Rayner (1988), as well as Vu et al. (1998), demonstrated that contextual cues, frequency of meaning, and the strength of the surrounding context interact in important ways when we interpret ambiguous words.

More recent approaches have gone even deeper, taking into account the type of ambiguity involved and how closely the different meanings of a word are related. Scholars such as Armstrong and Plaut (2008), Klepousniotou (2002), and Rodd et al. (2002) have distinguished between homonyms—words with unrelated meanings—and polysemous words, whose multiple senses are more semantically connected. Findings suggest that polysemous words are often processed more efficiently than either homonyms or words with only one meaning. In lexical decision tasks, for example, participants typically respond more quickly to polysemous words, while homonyms may actually slow down responses slightly. Among polysemous words, researchers have also identified different sources of ambiguity. One such type is metonymous polysemy, where both meanings are literal but linked through conceptual or

functional relationships. A simple example is the word "*chicken*", which can refer to the living animal or to its meat. Though both senses are literal, their relationship—moving from animal to food—is what ties them together semantically.

Results and discussion. In natural language, it's not uncommon for words with entirely different origins and meanings to appear deceptively similar to polysemous terms when encountered in text. However, a closer analysis of a word's history, structure, and semantics can help separate true polysemy from homonymy, restoring the word's rightful status within the lexicon. To clarify the difference between these two types of semantic phenomena, Dash (2005) outlines a set of distinguishing features, which are summarized below using insights from several linguists.

a) According to *Leech (1974)*, polysemy occurs when a single lexical item carries more than one meaning or semantic nuance. Homonymy, on the other hand, involves different lexical items that simply share the same spelling or pronunciation, even though they differ in morphological identity.

b) Etymology also plays a key role in distinguishing the two. As *Yule (1985)* notes, polysemous words typically stem from a single origin, with meanings that have evolved over time. In contrast, homonyms are etymologically unrelated, despite their phonological or orthographic similarity.

c) *Todd (1987)* offers a practical approach to resolving this semantic puzzle: seek out a shared core meaning. If multiple senses of a word are connected through a central concept, they should be treated as polysemous. When no such conceptual overlap exists, the forms are more likely to be homonymous.

d) Another useful strategy involves examining synonymy and antonymy. A polysemous word will usually have different synonyms for each of its senses and may also present clear antonyms. As *Palmer (1995)* suggests, if different meanings of a word share the same antonym, this indicates polysemy; differing antonyms, by contrast, may point to homonymy.

e) Discourse-level clarity can also help distinguish the two. *Kreidler (1998)* argues that homonymous meanings often become disambiguated when used in extended discourse, making their distinct identities clearer. In contrast, polysemous words may retain some level of ambiguity even in broader textual contexts, due to their interconnected meanings.

Together, these linguistic parameters offer a systematic way to separate homonyms from polysemous terms, helping linguists and translators better understand and interpret word meanings in varied textual environments. Additionally, if it comes to the discussion of culture-specific references, every cultural phenomenon holds a particular position within a complex system of values, which implies that it is subject to evaluation. Similarly, every individual exists within a set of space-time coordinates, making them part of a broader societal context. If this concept is accepted, then transcultural communication — or communication across cultural boundaries — must account for cultural differences in behavior, values, and communication contexts. Languages contain a significant number of culture-specific items (CSIs), but determining what qualifies as a CSI within a text can be a challenging task. Aixela (1996) defines CSIs as "elements of the text that are connected to certain concepts in the foreign culture (such as history, art, or literature), which may be unfamiliar to the target text (TT) readers [2; 14 p]." From this, we can infer that CSIs create an intercultural gap between the source language (SL)

and the target language (TL). This gap arises when a cultural item in the source text (ST) has no equivalent in the TL culture or when the TL lacks a corresponding word for that concept.

In order to bridge these cultural divides and produce a translation that is both accurate and easily understood by the target audience, translation scholars have developed various strategies and procedures. Among the first to propose such strategies, *Newmark (1988)* classified foreign cultural words into five domains:

1. **Ecology** (e.g., flora, fauna, natural features like winds, plains, and hills)
2. **Material culture** (e.g., food, clothing, housing, transportation)
3. **Social culture** (e.g., work and leisure activities)
4. **Organizations, customs, activities, procedures, and concepts** (e.g., political, religious, and artistic structures)
5. **Gestures and habits**

Newmark also introduced a set of strategies for translating CSIs, which include:

- a) **Transference:** This involves transferring an SL word directly into the TL text. It may include transliteration, where words from languages with different alphabets (e.g., Russian Cyrillic, Greek, Arabic) are converted into English. The term becomes a loanword in the TL. This strategy is akin to what is often referred to as transcription.
- b) **Naturalization:** In this strategy, the SL word is adapted first to the normal pronunciation and then to the morphological rules of the TL.
- c) **Cultural Equivalent:** This approach seeks to replace a culturally specific SL term with a corresponding TL word, which may not be a perfect match but conveys a similar cultural concept.
- d) **Functional Equivalent:** Here, a culture-neutral term is used, or sometimes a new specific term is coined. This generalizes the original SL term to fit the TL's cultural context [9; 33 p].

Conclusion. In summary, this study examined the complex semantic issues that arise when translating culture-specific items (CSIs), highlighting how linguistic and cultural subtleties influence the translation process. The study brought to light the inherent challenges of translating concepts that are strongly ingrained in the cultural settings of the source language by looking at a variety of academic techniques and strategies. As shown, the disparity between the source and target languages frequently necessitates the use of creative translation strategies that let translators modify text without losing its original meaning, like transference, naturalization, cultural counterparts, and functional equivalents. Furthermore, it also looked at lexical ambiguity, which clarified how homonymy and polysemy might make translation more difficult. It was determined that the translator's responsibilities go beyond language skills and necessitate knowledge of the social, cultural, and contextual elements that affect meaning. Theoretical frameworks like dynamic equivalency and Skopos theory demonstrated that translation requires more than just maintaining linguistic accuracy; it also involves effectively conveying meaning that is adapted to the expectations and cultural background of the target audience.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Abdelaal, N., & Abdelaal, N. (2020). Lexical and Semantic Problems in Translation. *Translation between English and Arabic: A Textbook for Translation Students and Educators*, 95-120.

2. Aixela, J. F. (1996). Culture-specific items in translation. In R. Alvarez & M. Carmen-Africa Vidal (Eds.), *Translation, power, subversion* (pp. 52–78). Multilingual Matters.
3. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. Routledge.
4. Blažytė, D., & Liubinienė, V. (2016). Culture-specific items (CSI) and their translation strategies in Martin Lindstrom's Brand Sense. *Studies about languages*, (29), 42-57.
5. Daghougi, S., & Hashemian, M. (2016). Analysis of Culture-Specific Items and Translation Strategies Applied in "Translating Jalal Al-Ahmad's" By the Pen". *English language teaching*, 9(4), 171-185.
6. Eco, U. (2011). *Confessions of a young novelist*. Harvard University Press.
7. Gudavičius, A. (2009). Translation of culture-bound terms: Some theoretical and practical aspects. *Kalbotyra*, 61(3), 93–100.
8. Leech, G. (1974). *Semantics*. Penguin Books.
9. Newmark P. A textbook of translation. – 2003.
10. Ochilov Ergash. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma).-T.,2012.4b
11. Radzievska, O. V. (2020). The Lexical and Semantic Problems of Translation and the Ways of Their Solving. НАУКОВИЙ ВІСНИК МІЖНАРОДНОГО ГУМАНІТАРНОГО УНІВЕРСИТЕТУ, 119.
12. Resmiyati, R. (2020, November 5). The distinction between polysemy and homonymy on lexical ambiguity.
13. Translation Theory and Practice. Compiled by Dr. Farida Repelita Waty Kembaren, M.Hum
14. Yule, G. (1985). *The study of language*. Cambridge University Press.
15. Zoya Proshina. Theory of translation (English and Russian). Vladivostok Far Eastern University Press 2008.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

A STUDY OF MULAMMA' WORKS IN MASHRAB'S LITERARY HERITAGE

Rasulova Nigora Kurbonovna

Doctoral Researcher,
Faculty of Philology,
Samarkand State University

Abstract. This scholarly article is dedicated to identifying the unique features of mulamma' poems in the works of Boborahim Mashrab, a prominent figure in classical Uzbek literature. It explores Mashrab's mastery in harmoniously combining linguistic units from two languages within a single poetic line.

Keywords: Classical poetry, bilingualism (zullisonayn), Persian-Tajik language, metrical requirements, the art of mulamma', shir-u shakar mulamma'.

MASHRAB IJODIDA MULAMMA' ASARLAR TADQIQI

Rasulova Nigora Kurbonovna

Samarqand davlat universiteti filologiya
fakulteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola o'zbek mumtoz adabiyotining yetuk vakil bo'lmish Boborahim Mashrab ijodidagi mulamma' she'rlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlanadi. Unda Mashrabning ikki tildagi til birliklarini bir misraga uyg'un holda jamlash mahorati tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Mumtoz she'riyat, zullisonaynlik, fors-tojik tili, vazn talabi, mulamma' san'ati, shir-u shakar mulamma'.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N57>

Ajdodlarimizning yuksak tafakkuri, olamni anglash mahorati, badiiy ijodiyoti asnosida yuzaga kelgan qimmatbaho asarlar xalqimizning boy ma'naviy boyligidir. Buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li va betakror asarlari bugungi kunda ham butun jahon ahlini hayratga solib kelmoqda. Mana shunday boy, ma'naviy merosni o'qib-o'rganib, yosh avlodni ushbu ma'naviyatdan bahramand qilish oliy burchdir. XVII-XVIII asrlar Qo'qon adabiy muhitida yorqin va o'chmas ijodkorlar yetishib chiqdi. Shunday namoyandalardan biri Boborahim Mashrabdir. Boborahim Mashrab XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida yashab ijod etgan mutasavvuf ijodkordir. Mashrab ijodining bosh g'oyasi qalbni poklash, ma'rifat sohibi bo'lish, behuda kechgan har bir umr daqiqalari uchun afsus chekish, odamlarga faqat va faqat yaxshilik tilab, mehr-u vafo ko'rsatishdir. Mashrab qoldirgan boy ma'naviy meros bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmay, kitobxonlar tomonidan o'qib, o'rganilib kelinmoqda. Tadqiqotchilarimizdan I.M.Mo'minov, M.Xayrullayev, H.Aliqulov, A.Abdug'afurov, I.Abdullayev, N.Komilov, I.Haqqulov, A.Sharipov, M.Nuritdinov kabilar Mashrabning ijodi, ijtimoiy qarashlari o'z davrida va o'zidan keyin ham muhim rol o'ynaganini ta'kidlashgan. Mashrab ijodi yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirildi.

Mashrab ijodini o'rganar ekanmiz, ijodiyotida fors-tojik tilining ta'siri sezilarli darajada ekaniga guvoh bo'lamiz, buning asosiy sababi Mashrab yashagan davrda, ya'ni XVII-XVIII asrlarda turkiy va fors-tojik xalqlar ittifoqi turmushda ham, adabiyotda ham uyg'un bo'lgan. Aholi o'zaro muloqotda ikki tildan bemalol foydalangan. Bu hol badiiy ijodida ham mulamma' she'rlarning keng yaralishiga sabab bo'ldi. Mashrab ijodida ikki til imkoniyatlaridan oqilona foydalanilgan holda yaralgan g'azallarni uchratish mumkin. "Dilbari xush adoiman muncha chuchuk bo'lurmusan?" misrasi bilab boshlanuvchi g'azalidagi misralarning birinchi yarmi fors-tojik tilida, ikkinchi yarmi o'zbek tilidadir:

Dilbari xush adoiman muncha chuchuk bo'lurmusan?

Omada dar kanori man bir dame o'ltururmusan?

Peshi kamon abro'yat xasta ko'ngul nishonadur,
Siynai xud kushodaam, g'amza o'qin oturmusan?

Fasli bahor gul chog'i lutf etibon chog'ir ichib,
Oshiqi zori xeshro lahza quchub yoturmusan?

Az sari tu du kokilat pech uradurki hamchu mor,
Zorii arz agar kunam holi dilim so'rurmusan?

Bo'sai lab talab kunam, qahr etibon tovlama,
Nozu karashma kardai bu tilakim berurmusan?

Qushtai man murodi tu, qosh qilichin tortibon,
Omada boshi bar saram, qahr bilan ururmusan?

Otashi zulm makun maro, qil menga rahm ey sanam,
Bandayi zar xaridro bir yo'li kuydururmusan?

Az dari tu kujo ravam, har necha quvlasang meni,
Man aki ostoni tu, hajr ila o'ldururmusan?

Ishqi nigor tark kun, Mashrab ani vafosi yo'q,
Nim nazar namekunad munchaki termulursan? [2; 134-b]

Ushbu g'azal Sharq g'azalchiligi an'anasi asosida yozilgan bo'lib, ishqiy mavzudadir. G'azal 9 baytdan iborat. G'azal radifsiz bo'lib, unda qo'llangan qofiyadosh so'zlarning barchasi turkiycha, ya'ni o'zbek tilidadir: bo'lurmusan, o'ltururmusan, oturmusan, yoturmusan, so'rurmusan, berurmusan, ururmusan, kuydururmusan, o'dururmusan, termulursan. Ushbu g'azal ramal bahrida yozilgan." Ramal bahri she'riyatimizda juda keng qo'llanilgan o'lchov turi bo'lib, uning asosini foilotun aslining aynan takrori tashkil etadi. Adabiyotimizda ramal bahrining musamman va musaddas vaznlaridan foydalanib kelingan" [6; 110-b]. Mashrabning "Dilbari xush adoiman" deya boshlanuvchi mazkur g'azali ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Mazkur vazn xalq kuylariga juda mos bo'lib, yoqimli va jozibador ohang yaratadi. Mashrab ushbu g'azalida turli badiiy san'atlarga qo'llashga harakat qilgan bo'lsa-da, g'azalning

keng omma uchun tushunarli bo'lishiga katta e'tibor qaratgan. Ga'zal misrasining birinchi yarmi fors-tojikcha, ikkinchi yarmi o'zbekcha, so'zlari bir biriga uyg'un, sodda va ravon. G'azalda muhabbat, beqarorlik, istak va iztirob motivi ustuvordir.

Dilbari xush adoiman muncha chuchuk bo'lurmusan?

Omada dar kanori man bir dame o'ltururmusan?

Bundan ko'rinadiki, Mashrab birinchi va ikkinchi ruknlarni fors-tojik tilida, uchunchi va to'rtinchi ruknlarni o'zbek tilda yozgan. Fors-tojik hamda o'zbek tili birliklari tarkibida esa arab tilidan o'zlashgan kalimalar ham uchraydi. Birinchi misradan quyidagi mazmun anglashilmoqda:

Ya'ni, yoqimli ma'shuqaning adosiman, bunchalik shirin bo'lasanmi, men tarafga kelibsan, biror lahza yonimda o'tirasanmi?

Peshi kamon abro'yat xasta ko'ngul nishonadur,

Siynai xud kushodaam, g'amza o'qin oturmusan?

"Peshi kamon abro"- "kamonsimon qoshlar"iga xasta ko'nglim nishonadir, ko'ksimni ochdim, g'amza, ya'ni noz-karashma o'qlaringni otasanmi?

Fasli bahor gul chog'i lutf etibon chog'ir ichib,

Oshiqi zori xeshro lahza quchub yoturmusan?

Bahor faslining gulli chog'larida may ichib, oshiqi zor yaqiningni bir lahza quchib yotasanmi?

Az sari tu du kokilat pech uradurki hamchu mor,

Zorii arz agar kunam holi dilim so'rurmusan?

Boshingdagi ikki koliling ilon kabi to'lg'onadi, zorli arzimni aytsam, dil holimni so'raysanmi?

Bo'sai lab talab kunam, qahr etibon tovlama,

Nozu karashma kardai bu tilakim berurmusan?

Labingdan bo'sa talab qilsam, qahr qilmasdan, nozu karashma bilan tilaganimni berasanmi? Tasavvuf ta'limotiga ko'ra bo'sa- qalbdagi fayz va joziba, noz-karashma esa ma'shuqaning dardli va mahzun oshiq ko'ngliga kuch bag'ishlashidir.

Qushtai man murodi tu, qosh qilichin tortibon,

Omada boshi bar saram, qahr bilan ururmusan?

"Qushtai man murodi tu" – murodim sendan, qosh qilichingni menga mo'ljal qilib, boshimga kelib, qahr bilan urasanmi?

Otashi zulm makun maro, qil menga rahm ey sanam,

Bandayi zar xaridro bir yo'li kuydururmusan?

Ushbu baytda qo'llangan "makun" so'zi "nakun" holda bo'lishi kerak. Shunda misra "Zulm otashini bas qil, ey, sanam, menga rahm qil" deya nasriy bayon qilinadi. "Bandayi zar xaridro bir yo'li kuydururmusan?" — bu yerda dunyoviy muhabbat, mol-dunyoga havas qo'yish nazarda tutilmoqda.

Az dari tu kujo ravam, har necha quvlasang meni,

Man aki ostoni tu, hajr ila o'ldururmusan?

Meni har qancha quvlasang ham, eshigingdan qayerga ham boraman, men ostonangdaman, hajr bilan o'ldirasanmi?

Ishqi nigor tark kun, Mashrab ani vafosi yo'q,

Nim nazar namekunad munchaki termulursan?

Yor ishqini tark qilki, Mashrab, uning vafosi yo'q, senga yarim nazar ham solmaydi, bunchaki termulasanmi?

G'azalning barcha baytlarida savol ohangi ustinlik qiladi. Ushbu g'azal baytlari "Shoh Mashrab qissasi" dan ham o'rin olgan. Mashrabning Namangondan chiqib Xo'jand hokimi Oqbutabiy dargohiga kelganida iltifotiga ushbu baytlarni o'qiydi.

Dilbari xush adoiman muncha chuchuk bo'lurmusan?

Omada dar kanori man bir dame o'ltururmusan? [3;30-b]

Shuning bilan birga Mashrabning fors-tojik hamda o'zbek tilida aralash yozilgan yana bir g'azali diqqatga sazavordir.

Mendin salome ba so'yi jonon,

Ey bod, yetkur arzi g'aribon.

Ham dardmandam, bexonumonam,

Jono, tu budi, dardimga darmon.

Harchand mohi haj qurbon keladur,

Har dam qilurman jonimni qurbon.

Ey do'st, tu rafti, to diyda ro'yat,

Yolg'uz qolubman dar shahri hijron.

Az duri tu namonda sabram,

Emdi ketarman taxti Sulaymon.

Bechora Mashrab kuydi g'amingdin,

Monandi zulfat holim parishon [1; 133-b].

G'azal 6 baytdan iborat bo'lib, jonon, g'aribon, darmon, qurbon, hijron, Sulaymon, parishon so'zlari o'zaro qofiyalanib kelgan. Ushbu g'azal ham ishqiy mavzuda bitilgan. G'azal mutaqoribi musammani aslam bahrida yozilgan. Yuqoridagi mulamma'dan biroz farqli jihati bu g'azalda ikki til birliklari bir xil ketma-ketlikda kelmagan.

Mendin salome **ba so'yi jonon,**

Ey bod, yetkur **arzi g'aribon.**

G'azalning birinchi baytini quyidagicha nasriy bayon qilish mumkin: Ma'shuqaga mendan salomlar bo'lsin, ey shamol, g'aribning arzini yorga yetkaz.

Ham dardmandam, bexonumonam,

Jono, tu budi, dardimga darmon.

Dardga chalingan, bexunimon ahvoldaman, sevgili yor dardimga darmon bo'l.

Harchand mohi haj qurbon keladur,

Har dam qilurman jonimni qurbon.

Garchi haj oyida qurbonlik qilinsa-da, men har dam jonimni senga qurbon qilaman.

Ey do'st, tu rafti, to diyda ro'yat,

Yolg'uz qolubman **dar shahri hijron.**

Ey do'st, sen ketding, men hijron shahrining eshigida yolg'iz qoldim.

Az duri tu namonda sabram,

Emdi ketarman taxti Sulaymon.

Sensizlikdan sabrim tugadi, endi Sulaymon taxtiga ketarman.

Bechora Mashrab kuydi g'amingdin,

Monandi zulfat holim parishon.

Sening g'amingda bechora Mashrab kuydi, go'yo sochlaringdek holim parishon. Mumtoz adabiyotda sochning yoyiq holati parishon holatda deb tashbeh etiladi.

Mashrab yuqorida keltirilgan har ikki g'azalida fors-tojik til birliklarini o'z o'rniga bir-biriga bog'lay olgan. Imkon qadar sodda, tushunarli so'zlarni qo'llagan. Shuningdek, "Shoh Mashrab qissasi" asarida Mashrabning Hazrati Ofoq Xo'ja jamolini ko'rib o'qigan bir munojoti ham keltirilgan:

Bo hazrati tu guyam har dam ba sad tavallo,

Inni zalamtu nafsi faffirlanal xatoyo...

Gar mu sadif kardam dar ohi fisqu isyon,

O'z fazling ila , yo rab, qilma bu qulni rasvo[3;11-b].

Ushbu munojotda arab, fors-tojik va o'zbek tili aralash holda qo'llangan. Bundan kelib chiqib, Mashrab ijodida shir-u shakar mulamma'lar bilan birga shahd-u shir-u shakar mulamma' ham uchraydi deya olamiz. Mashrab she'rlarini sharhlash asnosida shoirning arab va fors tillarini ham mukammal bilganligiga amin bo'ldik.

Mashrab devonidan o'rin olgan aksariyat she'rlarda arab, fors hamda o'zbek leksemalari aralash holda qo'llangan.

Ey sanami pariliqo, jilvagari jahonmusan?

Obi hayot- lablaring, dilbari xush zabonmusan? [2;131-b]

Shirin suxanu mohi bashar, xuri loqoye,

Husn ahliga sardor,

Jonimni halok etmak uchun turfa baloye,

Ul zolimi xunxor.

Yana

Bir junune manda bor yuz mahsharistonim buzar,

Chun hadis oyat so'zin munkari qur'onni buzar [2;168-b].

Mashrab ijodida uchraydigan bu holatlarni mulamma' deya olmaymiz. Mulamma' she'r tarkibida bir nechta til birlarini qo'llash orqali yuzaga kelsa-da, o'zining bir qator talablariga ega. Masalan, mulamma'larda bir misraning bir tilda, ikkinchi misraning boshqa bir tilda yoki birinchi baytning bir tilda, ikkinchi baytning boshqa bir tilda yoki she'rning bir bandi bir tilda, boshqa bir bandi boshqa tilda kelishi talab etiladi. Mashrab ijodida esa misra ichida ikki tilni o'zaro bog'lash holati mavjud.

O'zbek adabiyotida yaratilgan mulamma' asarlar ijodkorning til bilish va so'z tanlash mahoratidan darak beradi. Tillarning ma'no qirralariga qadar o'zlashtirgan ijodkorlargina mulamma' asarlari yozishga muvofiq bo'lganlar. Mashrab ham shunday ijodkorlardan biridir. Mashrabning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish, o'ziga xos jihatlarini aniqlash va yosh avlodni Mashrabning ma'naviy dunyosi bilan tanishtirish adabiyotshunos tadqiqotchilarning muhim vazifasidir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Машраб. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи А.Абдуғофуров) Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
2. Машраб. Меҳрибоним, қайдасан: Ғазаллар, мухаммаслар.../(Нашрга тайёрловчи Ж.Юсупов) Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
3. Маҳмуд Хасаний. Шоҳ Машраб қиссаси.– Тошкент: Шарқ,1991.
4. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: Ta'lim-media, 2019.
5. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998.
6. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998.

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF A LEGAL CLINIC IN SOLVING THE PROBLEMS OF YOUTH IN SOCIALLY DANGEROUS SITUATIONS

Dzhumaniyazova Dilfuza Kamolovna

Doctor of Philosophy, (PhD) Associate Professor

Department of General Sciences and Culture, TSUL

Mukhayyo Matnazarova

Doctor of Philosophy, (PhD) Associate Professor

Department of Languages and Social and Humanitarian Sciences, TMCI

Abstract. This article comprehensively analyzes the main problems of young people at social risk, their level of legal literacy and their isolation from society. It scientifically reveals the role of legal clinics in solving these problems, their pedagogical, sociological and legal functions, as well as their importance as a preventive measure.

Keywords: legal clinic, young people at social risk, legal culture, legal assistance, legal literacy, psychological adaptation, citizenship, reintegration into society, prevention, volunteer approach, social and legal protection.

IJTIMOY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARINI HAL QILISHDA YURIDIK KLINIKANING AHAMIYATI

Djumaniyozova Dilfuza Kamolovna

f.f.b.f doktori, (PhD) dotsent

TDYU "Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrası dotsenti

E-mail: dilfuza@gmail.com

Matnazarova Muhayyo Axmetjanovna

Toshkent Menejment Kommunikatsiyalar instituti

s.f.b.f doktori, (Phd) v.b dotsent

"Tillar va ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası" v.b dotesenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlarning asosiy muammolari, ularning huquqiy savodxonlik darajasi va jamiyatdan ajralganligi holatlari keng tahlil qilinadi. Ushbu muammolarning yechimida yuridik klinikalarning roli, ularning pedagogik, sotsiologik va huquqiy funksiyalari, shuningdek, profilaktik chora sifatidagi ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yuridik klinika, ijtimoiy xavf guruhidagi yoshlar, huquqiy madaniyat, huquqiy yordam, huquqiy savodxonlik, psixologik moslashuv, fuqarolik ong, jamiyatga reintegratsiya, profilaktika, volontyorlik asosida yondashuv, sotsial-huquqiy himoya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N58>

Kirish

Bugun jahondagi murakkab va tez o'zgaruvchan globallashuv sharoitida yoshlar muammolarini hal qilish sohasidagi samarali davlat siyosatini amalga oshirish hamda unda

qo'llaniladigan mexanizm va texnologiyalarni takomillashtirib borish nafaqat ijtimoiy barqarorlik balki, umuman, davlat xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030 yilgacha mo'ljallangan "Yoshlar strategiyasi", Yoshlar manfaatlari bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023 yil 11 aprel kuni "Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar bajarilishi nuqtai nazaridan ushbu masalani tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar bilan bog'liq dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan bir qatorda, sohada yechimini kutayotgan muammoli masalalar ham saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy jamiyatning asosiy muammolaridan biri – yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikning ortib borishi, ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar sonining ko'payishi va ularning ijtimoiy-huquqiy himoyasining sustligidir. Bu holat, bir tomondan, yoshlarning o'z huquq va majburiyatlarini bilmasligi, boshqa tomondan esa, davlat va nodavlat institutlarining ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liqdir.[1] Ayniqsa, ijtimoiy zaif qatlamga mansub, jinoyat sodir etgan yoki jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan, oilaviy sharoiti og'ir, huquqiy bilimga ega bo'lmagan yoshlar bilan ishlashda yangi, tizimli yondashuv zarurati tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, yuridik klinikalarning faoliyati ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar muammolarini hal etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlash masalasi so'nggi yillarda nafaqat psixologik va pedagogik, balki huquqiy nuqtai nazardan ham alohida o'rganila boshladi. Mazkur yo'nalishda bir qancha mahalliy va xorijiy mualliflarning tadqiqotlari mavjud. Bu borada G. Abdullaeva tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olishda huquqiy madaniyatning ahamiyati keng yoritilgan. Muallif huquqiy madaniyatning shakllanishini nafaqat maktab ta'limi, balki fuqarolik jamiyati institutlari bilan ham bog'laydi[2]. Normurodov I. esa ijtimoiy xavf guruhidagi yoshlarning psixologik portretini yaratish asosida ularni reintegratsiya qilishning pedagogik strategiyalarini ishlab chiqqan[3]. Azizov A. yuridik klinikalarni ijtimoiy institut sifatida o'rganadi, ammo uning tadqiqoti ko'proq talabalar uchun amaliy tajriba maydoni sifatidagi rolini yoritib bergan[4,5]. Xorijiy adabiyotlarda esa, LCGA (Law Clinics Global Alliance) tomonidan tayyorlangan hisobotda yuridik klinikalar fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishda asosiy vosita sifatida talqin qilinadi, ayniqsa ijtimoiy xavfli qatlamlar bilan ishlashda klinik yondashuv asosida individual yordam ko'rsatishning samarali mexanizmlari yoritilgan [6,7]. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yuridik klinikalar haqida bir qancha metodik va amaliy qo'llanmalar mavjud bo'lsa-da, ular ko'proq talabalarni o'qitish kontekstida yaratilgan. Ijtimoiy xavf guruhidagi yoshlar bilan ishlashda ularning maxsus o'rni alohida o'rganilmagan yoki nazariy jihatdan to'liq yoritilmagan. Shuning uchun ushbu maqola aynan yuridik klinikalar faoliyatini ijtimoiy xavf

guruhidagi yoshlar kontekstida tadqiq qilish, ularning huquqiy, psixologik va sotsiologik muammolarini kompleks hal etishdagi rolini aniqlashga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodologik yondashuvlar va usullar qo'llanildi: ilmiy-nazariy tahlil, sotsiologik so'rov metodi, taqqoslash usuli, empirik yondashuv, analitik yondashuv.

Yuqoridagi barcha usullardan kelib chiqqan holda, yuridik klinikalar faoliyatining tizimli tahlili amalga oshirildi va ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda qanday o'zgarishlar kiritilishi mumkinligi bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi.

Muhokama

Olib borilgan ilmiy tahlillar va amaliy kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, yuridik klinikalar ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda muhim ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda. Ular nafaqat bepul huquqiy maslahatlar orqali yordam ko'rsatadi, balki yoshlarda huquqiy ong va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yoshlar o'rtasidagi huquqiy savodsizlik, psixologik ajralganlik va jamiyatga ishonchsizlik yuridik klinikalar orqali bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkinligi kuzatildi. Ayniqsa, klinikalar faoliyati davomida interaktiv yondashuvlar- treninglar, suhbatlar, seminarlar orqali yoshlarning ijtimoiy-huquqiy moslashuv jarayoni jadallashmoqda. Empirik kuzatuvlar natijasida yuridik klinikalarga murojaat qilgan yoshlarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

Birinchidan; o'z huquq va majburiyatlarini anglash ko'nikmalari shakllandi;

Ikkichidan; muammolarni qonuniy yo'l bilan hal qilishga bo'lgan qiziqish oshdi;

Uchinchidan; jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan yoshlar aniqlandi;


Bu holat yuridik klinikalar tarmog'ini yanada kengaytirish, ularning faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlash bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalari, mahalla tizimi, psixologik xizmatlar va huquqiy klinikalar o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, yuridik klinikalar ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlarni jamiyatga reintegratsiya qilishda ko'p funksiyali platforma bo'lib, ularga nafaqat huquqiy, balki ma'naviy va psixologik tayanch vazifasini ham bajarmoqda. Bu esa, ularning ijtimoiy xavf guruhlardan chiqishga va ijobiy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar

Olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda yuridik klinikalarning o'rne va samaradorligi quyidagi asosiy jihatlar asosida aniqlashtirildi: Ayniqsa olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududlarida ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi o'quvchi-yoshlar orasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari asosida yosh taqsimoti, psixologik holat, oilaviy muhit va qo'llab-quvvatlovchanlik darajalari tahlil qilingan. Olingan ma'lumotlar asosida ijtimoiy xavfni kamaytirish, profilaktik va huquqiy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish uchun yuridik klinikalarni faol yo'lga qo'yish zarurati asoslab berilgan. Yoshlar bilan ishlashda ularning ijtimoiy-psixologik holatini chuqur o'rganish, muammolarini erta aniqlash va og'ir holatlarga tushib qolmasligi uchun huquqiy va psixologik ko'mak ko'rsatish dolzarb vazifadir. Ayni paytda Toshkent shahri va Toshkent viloyatida olib borilgan sotsiologik so'rovlar ushbu hududlarda 16–17 yoshli o'quvchi-yoshlar orasida qator ijtimoiy xavf omillari mavjudligini ko'rsatmoqda. So'rovnoma shaklida olib borilgan tadqiqot Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi umumta'lim


maktablari va kollej va universitetlarda tahsil olayotgan 94 nafar yoshlar orasida o'tkazildi. Respondentlar 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasidan tanlab olindi. So'rov savollari psixologik holat, oilaviy muhit, ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchanlik, stress va tajovuzkorlikka moyillik kabi indikatorlarni o'z ichiga oldi.

Tahlil natijalariga ko'ra, respondentlarning asosiy qismini 16–17 yoshdagi o'quvchilar tashkil etdi:



1-rasm. Respondentlarning yosh ko'rsatkichi

Yoshlar orasida ijtimoiy xavf omillari quyidagicha aniqlangan:



2-rasm. Yoshlar orasida ijtimoiy xavf omillari ko'rsatkichlari

Yoshlar orasida ijtimoiy xavf omillari quyidagicha aniqlangan, 29% respondent o'ziga zarar yetkazish haqida o'ylaganini bildirgan, 14% respondent stressni yengish uchun zararli moddalarni iste'mol qilganini tan olgan, 33% respondentda tajovuzkorlik holatlari mavjud, 38% respondent o'zini odamlar orasida yolg'iz his qilganini bildirgan. Shuningdek, 44 nafar respondent psixologik yordamga ehtiyoj sezganini bildirgan. Bu esa yuridik klinikalar orqali nafaqat huquqiy, balki psixologik xizmatlarni ham yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari Toshkent shahri va viloyatidagi o'quvchi-yoshlar orasida psixologik

zo'riqish, stress, ijtimoiy izolyatsiya, yolg'izlik, tajovuz va o'z-o'ziga zarar yetkazish holatlarining mavjudligini ko'rsatmoqda. Aynan 16–17 yoshdagi o'quvchilar ijtimoiy xavf guruhining asosiy qatlami hisoblanadi. Bu yoshdagi yoshlar bilan huquqiy-ma'rifiy, psixologik va ijtimoiy-profilaktik ishlarni tizimli ravishda olib borish talab etiladi. Yuridik klinikalar bu borada markaziy vosita bo'la oladi. Klinikalarda mutaxassis yuristlar, psixologlar, ijtimoiy ishchilar hamkorligida individual va guruh bo'lib ish olib borilishi zarur. Ayniqsa, maktablar va kollejlarda yuridik klinikalar filiali tashkil etilishi, mobil guruhlar tuzish orqali o'quvchi-yoshlarga joyida yordam ko'rsatish samarali bo'ladi.

Birinchidan, yuridik klinikalar yoshlar bilan ishlashda huquqiy yordam ko'rsatishning samarali modeli ekanligi tasdiqlandi. Ushbu klinikalar orqali huquqiy bilimga ega bo'lmagan, huquqiy muammolar bilan duch kelayotgan yoshlar bepul maslahatlar, huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirishda ko'mak, hamda huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan trening va mashg'ulotlarga jalb etilmoqda. Bu esa yoshlarning huquqiy savodxonligi va ijtimoiy faolligi oshmoqda.

Ikkinchidan, ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlarning asosiy muammolari aniqlab olindi. Ular orasida huquqiy ongning sustligi, jamiyatdan ajralganlik, psixologik bosim, ijtimoiy hayotga moslasha olmaslik va qonuniy vositalar orqali o'z manfaatlarini himoya qilish ko'nikmasining yo'qligi alohida o'rin egallaydi. Bu omillar yoshlarni jinoyatga moyillik, ijtimoiy passivlik va huquqiy zaiflikka olib kelmoqda.

Uchinchidan, yuridik klinikalarga murojaat qilgan yoshlar orasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yuridik yordam olgan yoshlar o'z huquqlarini anglay boshlagan, huquqiy vositalardan foydalanishga qiziqish bildirgan va jamiyatga nisbatan ishonchi ortgan. Bu holat huquqiy klinikalarning yoshlar uchun nafaqat maslahat, balki psixologik tayanch manbai bo'layotganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, yuridik klinikalarning huquqiy ta'lim va fuqarolik ongini shakllantirishdagi o'rni aniqlandi. Bunday klinikalar yoshlarni nafaqat o'z muammolarini hal qilishga, balki ijtimoiy-huquqiy tarbiyada faol ishtirok etishga undaydi. Shu orqali yoshlar jamiyatga moslashadi, o'zini ijtimoiy foydali shaxs sifatida his etadi.

Beshinchidan, klinikalar faoliyatida mavjud muammolar ham aniqlanib, ularni bartaraf etish zarurligi asoslab berildi. Jumladan, ayrim klinikalarda moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, malakali mutaxassislar — ayniqsa, psixolog va yuristlar yetishmasligi, faoliyatning asosan yirik shaharlarda to'planganligi va tarmoqning hududiy nomutanosibligi aniqlangan. Bu holatlar yuridik klinikalar tarmog'ini kengaytirish va takomillashtirish ehtiyojini ko'rsatadi.

Oltinchidan, xalqaro tajriba tahlili yuridik klinikalarning ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashdagi ilg'or mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi. Ayniqsa, "community-based legal clinics" modeli, huquqiy maslahat bilan birgalikda psixologik va ijtimoiy xizmatlarni integratsiyalash tajribalari O'zbekiston sharoitida ham qo'llashga arzigulik yondashuv ekani isbotlandi.

Yettinchidan, tadqiqot natijalari asosida huquqiy klinikalar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, klinikalarning davlat dasturlari asosida qo'llab-quvvatlanishi, maktab va kollejlarda bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi, hududiy tarmoqlarini kengaytirish va volontyorlik asosida yosh yuridik kadrlar zaxirasini yaratish kabi chora-tadbirlar belgilandi.

Umuman olganda, yuridik klinikalar ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy- huquqiy va ma'naviy jihatdan muhim institut bo'lib, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasida samarali vosita ekani isbotlandi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda yuridik klinikalarning ahamiyati va zarurligi chuqur tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuridik klinikalar nafaqat bepul huquqiy yordam ko'rsatuvchi institut, balki yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish, fuqarolik faolligini rivojlantirish va jamiyatga integratsiya qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Yoshlar o'rtasida uchrayotgan huquqiy savodsizlik, psixologik ajralganlik, o'z huquq va majburiyatlarini anglamaslik kabi muammolar yuridik klinikalar faoliyati orqali bartaraf etilishi mumkinligi amaliy jihatdan isbotlandi. Klinikalar faoliyatiga jalb etilgan yoshlar o'z huquqlarini anglash, qonuniy vositalardan foydalanish, ijtimoiy faol bo'lish kabi ko'nikmalarga ega bo'layotgani kuzatildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun yuridik klinikalarni rivojlantirish bo'yicha institutsional va davlat darajasida qo'llab-quvvatlash zarur. Umuman olganda, yuridik klinikalar ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda huquqiy va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida qaralishi lozim. Ularning faoliyatini tizimli rivojlantirish orqali jamiyatda qonuniylik, huquqiy madaniyat va fuqarolik faolligini kuchaytirish imkoniyati yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullaeva, G. O'zbekiston yoshlari orasida huquqbuzarlikning oldini olishda huquqiy madaniyatni shakllantirish. *Yoshlar siyosati va huquq*, 2020. №2, 15–20 b
2. Abdullaeva, G. O'zbekiston yoshlari orasida huquqbuzarlikning oldini olishda huquqiy madaniyatni shakllantirish. *Yoshlar siyosati va huquq*, 2020. №2, 15–20 b
3. Normurodov, I. Ijtimoiy xavf guruhidagi yoshlar bilan ishlashning psixologik asoslari. *Psixologiya va ijtimoiy hayot*, 2021 №3, 33–39
4. Azizov, A. Yuridik klinikalar: tushuncha va mohiyat. *Huquqshunos*, 2019 №5, 22–26.
5. Tashkent State University of Law . *Legal Clinic Annual Report 2023*
6. Kadirova, Z. Yuridik klinikalar va huquqbuzarlikni oldini olish. *Ijtimoiy va huquqiy tadqiqotlar sharhi*, 2022. №4, 11–18.
7. Law Clinics Global Alliance. *Legal Clinics and Access to Justice*. Geneva: LCGA Publications.2021

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THREAT TO PERSONAL AND STATE SECRETS AS A RESULT OF CYBERATTACKS

Baxtiyor Khoshimovich Mirzarakhimov

Associate Professor of the Department of Philosophy and National Idea,
Fergana State University

Shokirov Boburjon

Student of the Faculty of Law,
Fergana State University

Abstract. In today's globalized world, along with the rapid development of digital technologies, cybersecurity issues have become an urgent problem. Cyber threats threaten not only information systems, but also state sovereignty and the rights of citizens. This article analyzes the impact of cyber threats on personal and state secrets, their negative impact on national security, economic stability, and international relations. Measures taken to ensure cybersecurity in the Republic of Uzbekistan, changes in legislation, and the role of international cooperation are studied.

Keywords: cybersecurity, cyber threats, state secrets, personal data, information security.

KIBERHUJUMLAR NATIJASIDA SHAXSIY VA DAVLAT SIRLARIGA XAVF SOLISH

Mirzaraximov Baxtiyor Xoshimovich

Farg'ona davlat universiteti Falsafa va milliy g'oya kafedrası dotsenti

Shokirov Boburjon Tohirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

E-mail: Shokirov1603@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi globallashtirilgan dunyo sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan birga, kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb muammoga aylangan. Kiber tahdidlar nafaqat axborot tizimlariga, balki davlat suvereniteti va fuqarolarning huquqlariga ham tahdid solmoqda. Ushbu maqolada kiber tahdidlarning shaxsiy va davlat sirlariga ta'siri, ularning milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik hamda xalqaro munosabatlarga salbiy ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qonunchilikdagi o'zgarishlar va xalqaro hamkorlikning roli o'rganiladi.

Kalit so'zlar: kiberxavfsizlik, kiber tahdidlar, davlat siri, shaxsiy ma'lumotlar, axborot xavfsizligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N59>

KIRISH

"Axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, ulardan noto'g'ri foydalanish oqibatida yuzaga keladigan kiber tahdidlar davlat va jamiyat xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi. Shaxsiy va davlat sirlarining himoyasizligi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin" [12:112].

Kiberxavfsizlik masalalari bugungi kunda nafaqat axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari, balki siyosatshunoslar, iqtisodchilar va huquqshunoslar e'tiborida ham markaziy o'rinni egallamoqda. Chunki kiber tahdidlar – bu global miqyosda sodir bo'layotgan xavfli hodisalardan biridir. Bu tahdidlar natijasida shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishi, moliyaviy yo'qotishlar, hatto davlat boshqaruvi tizimining izdan chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida kiber tahdidlar milliy xavfsizlik uchun dolzarb muammo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda davlat muassasalariga qarshi kiberhujumlar sezilarli darajada oshgan. Ushbu muammolarga qarshi kurashish uchun qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda va kiberxavfsizlik bo'yicha milliy strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

MATERIALLAR VA METODLAR

Kiberxavfsizlik sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda axborot texnologiyalarining himoyasi, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish va davlat sirlarini saqlash muammolari keng yoritilgan. Mazkur maqolada kiber tahdidlarning tabiati, ularning oqibatlari va himoya strategiyalari bo'yicha mavjud adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Jumladan, William Stallings o'z asarida kompyuter tarmoqlari va axborot tizimlariga qarshi uyushtirilgan hujumlarning xavfliligini, bu hujumlar orqali axborotlar o'g'irlanishi va butun tizimlar ishdan chiqishi mumkinligini ko'rsatgan [12]. Raef Meeuwisse esa kiberxavfsizlikka oid fundamental tushunchalarni, texnologik zaifliklar va ularning real tahdidlarga aylanish mexanizmlarini yoritib bergan [7].

Shuningdek, tadqiqotda Bohme va Schmitt tomonidan olib borilgan iqtisodiy xavfsizlikka oid tahlillar, ya'ni kompaniyalar va davlatlarga yetkazilayotgan moliyaviy zararlar, kiberjinoyatlarning global iqtisodiyotga ta'siri keng ko'rib chiqilgan [2]. John Arquilla esa kibermakondagi harbiy strategiyalar va ularning siyosiy muvozanatga ko'rsatadigan bosimlarini o'rganadi [1]. Lewis va Libicki esa oddiy fuqarolardan tortib, siyosiy rahbarlarga barcha qatlamlar uchun kiberxavfsizlik haqida umumiy ma'lumotlar beradi [6].

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqotda qator uslublar qo'llanildi: huquqiy hujjatlar tahlili, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, voqelikni modellash va xalqaro tajribalarni qiyosiy o'rganish. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida" va "Kiberxavfsizlik to'g'risida" qonunlari asosida milliy qonunchilik bazasi chuqur tahlil qilindi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan tavsiyalar va standartlar o'rganilib, ularning O'zbekiston tajribasiga qanday tatbiq etilishi mumkinligi yuzasidan tahliliy yondashuv qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida kiber tahdidlar milliy xavfsizlik uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Davlat va xususiy sektorda to'plangan maxfiy ma'lumotlarning oshkor qilinishi yoki o'g'irlanishi oqibatida iqtisodiy zararlar va siyosiy barqarorlikka tahdid yuzaga kelishi mumkin. O'zbekiston axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda davlat muassasalariga qarshi uyushtirilgan kiberhujumlar soni sezilarli darajada oshgan.

Kiber tahdidlarning salbiy oqibatlari haqida gap ketganda, William Stallingsning fikriga ko'ra: "Axborot tizimlariga uyushtirilgan hujumlar nafaqat ma'lumotlarning yo'qolishiga, balki

milliy xavfsizlikka ham sezilarli xavf tug'diradi" [12:105]. Masalan, davlat muassasalarining kompyuter tarmoqlariga kiberhujumlar uyushtirilishi oqibatida muhim ma'lumotlar yirik miqyosda yo'qotilishi yoki yomon niyatli tomonlarga topshirilishi mumkin. Bu esa nafaqat davlat boshqaruviga, balki xalqaro hamkorlik va investitsiya jarayonlariga ham salbiy ta'sir qiladi. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirgan bo'lsa-da, xatarlar hali hamon yuqori darajada qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish davlat siyosatining muhim qismi hisoblanadi. 2019-yilda qabul qilingan "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun (2020-yil 1-oktyabrdan kuchga kirgan) shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va saqlash qoidalarini belgilaydi [11]. Ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Shaxsiy ma'lumotlarning himoyasizligi muammosi haqida Raef Meeuwisse o'z asarida ta'kidlaganidek: "Zamonaviy texnologik infratuzilma zaif bo'lgan holatda, shaxsiy ma'lumotlarning yo'qolishi yoki o'g'irlanishi milliy xavfsizlikka putur yetkazishi mumkin" [7:88]. Misol uchun, davlat xizmatlari portallariga uyushtirilgan hujumlar natijasida shaxsiy ma'lumotlarning tarqalib ketishi xavfi mavjud. Bu esa fuqarolarning davlat tizimlariga bo'lgan ishonchini kamaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta'minlash davlat va jamiyat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Maxfiy ma'lumotlarni shifrlash:** O'zbekiston hukumati axborot xavfsizligini ta'minlash uchun shifrlash texnologiyalarini keng qo'llashni targ'ib qilmoqda. Shifrlash texnologiyalarining afzalliklari haqida William Stallings o'z kitobida ma'lumot bergan bo'lib, shifrlash orqali ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash mumkin [12:90]. Bu yondashuv davlat va tijorat sektorlari uchun ma'lumotlarni himoya qilishni yaxshilaydi.
2. **Kiberxavfsizlik bo'yicha qonunlar qabul qilish:** O'zbekistonda 2022-yil 15-aprelda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligiga oid masalalarini tartibga solishda asosiy huquqiy baza hisoblanadi [5]. Ushbu qonun davlat va xususiy sektorda kiber tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha muhim qoidalarni o'z ichiga oladi.
3. **Kiberhujumlarga qarshi profilaktik choralar:** Davlat muassasalari va korxonalar kiberxavfsizlik bo'yicha doimiy monitoring va sinovlarni o'tkazishlari kerak. Axborot xavfsizligi markazlari tomonidan amalga oshiriladigan profilaktik choralar tahdidlarni oldindan aniqlashda yordam beradi. Kevin Mitnickning fikricha: "Hujumlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishning muhim qismidir" [8:65].
4. **Jamoatchilikni xabardor qilish:** Fuqarolarni kiber tahdidlar va ulardan himoyalaniish usullari haqida muntazam ravishda xabardor qilish zarur. O'zbekiston axborot texnologiyalari sohasida o'quv dasturlarini tashkil etish orqali fuqarolarni xabardor qilish va ularning savodxonligini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Davlat suvereniteti haqidagi an'anaviy qarashlar kiberxavfsizlik xavflari tomonidan jiddiy sinovga olinmoqda. Ushbu xavflar chegaralarni noaniq qilib qo'yadi, yangi zaifliklarni yuzaga keltiradi va xalqaro munosabatlarni murakkablashtiradi. Kibermakondagi murakkab sharoitlarda harakat qilish va elektron davrda xavfsizlikni ta'minlash uchun bu ta'sirlarni tushunish juda muhimdir. Kibermakonning chegarasiz xususiyati davlat suvereniteti tushunchasini tubdan shubha ostiga qo'yadi, chunki suverenitet odatda davlatning o'z

hududidagi mutlaq vakolati sifatida talqin qilinadi. Bu bir qator muhim masalalarni keltirib chiqaradi:

- **Hududiy yaxlitlikning buzilishi:** “Kiberhujumlar dunyoning istalgan nuqtasidan amalga oshirilishi mumkinligi sababli hujumchining kimligini aniqlash va hujumning aniq manzilini topish qiyin bo‘lishi mumkin. Bu javobgarlik masalasini murakkablashtiradi va hududiy yaxlitlikka oid an’anaviy qarashlarni shubha ostiga qo‘yadi [4:51].
- **Ma’lumot ustidan nazoratning cheklanishi:** Arquilla fikriga ko‘ra: “Internetning yuqori darajadagi bog‘liqligi sababli davlatlar o‘z hududlari ichidagi axborot oqimini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu noto‘g‘ri ma’lumotlar, propaganda va xavfli kontentning tarqalishiga olib kelishi, natijada hukumatlarni zaiflashtirishi va jamoatchilik ishonchini pasaytirishi mumkin” [1:1-39].
- **Zo‘ravonlik ustidan davlat monopoliyasining yemirilishi:** Bohme va Schmitt fikriga ko‘ra: “Kiberhujumlar jismoniy shaxslarning jiddiy jarohatlanishiga yoki muhim infratuzilmaning ishlashiga putur yetkazishga qodir bo‘lib, kiber urush va an’anaviy urush o‘rtasidagi farqni aniqlashni qiyinlashtiradi. Bu kiber zo‘ravonlikning qonuniyligini savol ostiga qo‘yishi va zo‘ravonlik ustidan davlat monopoliyasini xavf ostida qoldirishi mumkin” [2:399-423].

Ushbu muammolar raqamli davrda suverenitet haqidagi an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Kiber muhitdan kelib chiqadigan o‘ziga xos tahdidlarga qarshi turish uchun davlatlar o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini va xavfsizlik tizimlarini moslashtirishi lozim.

XULOSA

Kiber tahdidlar zamonaviy davlat va jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ular nafaqat axborot tizimlariga tahdid soladi, balki davlat suvereniteti, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolarning huquqlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday tahdidlar global miqyosda xavf tug‘dirib, mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham ta’sir qilishi mumkin. Shuningdek, bunday tahdidlarning ko‘lami kengayib, faqat texnologik emas, balki ijtimoiy va madaniy sohalarga ham kirib bormoqda. Kiberjinoyatchilikning yangi shakllari, xususan sun’iy intellektdan foydalanish orqali amalga oshirilayotgan hiylalar, davlat va jamiyatni doimiy hushyorlikka undaydi.

Ushbu tadbirlar mamlakatning kiberxavfsizligini ta’minlash va milliy manfaatlarni himoya qilish uchun muhim hisoblanadi. Kiberxavfsizlik sohasidagi islohotlar va tashabbuslarning izchil amalga oshirilishi orqali O‘zbekiston o‘zining raqamli suverenitetini mustahkamlash, fuqarolarni himoya qilish va global tahdidlarga qarshi bardoshli tizim yaratishga erishadi. Shuningdek, yosh avlodni raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi bo‘yicha tarbiyalash, ularni zamonaviy xavflarga nisbatan tayyorlash ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Arquilla J. Cyberwarfare and its implications for international security. *International Security*, 36(2), 1-39. 2011<https://www.rand.org/pubs/articles/2021/cyberwar-is-coming.html>
2. Böhme P., & Schmitt M. N. Global cybersecurity governance: Normative frameworks and emerging challenges. *European Journal of International Security*, 3(2). 399-423. 2018.

- <https://global.oup.com/academic/product/cybersecurity-and-cyberwar-9780198719486>
3. Grossman M. T. The state of cyber election interference: A survey of the evidence. *Journal of Democracy*, 32(1), 14-28. 2021.
 4. Jensen M. B., & Poulsen J. E. W. Cyber sovereignty and international law: Challenges and opportunities. *European Journal of International Law*, 30(1), 21-51. 2019.
 5. Kiberxavfsizlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 15.04.2022 yildagi O'RQ-764-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-5960604>
 6. Lewis J. M., & Libicki M. C. Cyber war and national security. CATO Institute. 2017. <https://global.oup.com/academic/product/cybersecurity-and-cyberwar-9780198719486>
 7. Meeuwisse R. Cybersecurity for Beginners. Cyber Simplicity Ltd. 2017. <https://cybersecurity-explained.com/books/cybersecurity-for-beginners/>
 8. Mitnick K., & Simon W. L. The Art of Intrusion: The Real Stories Behind the Exploits of Hackers, Intruders and Deceivers. Wiley. 2005
 9. O'zbekiston Respublikasi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni, 2022. <https://lex.uz/docs/5846980>
 10. Organization for Economic Co-operation and Development. 2016.
 11. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-4396419>
 12. Stallings W. Cryptography and Network Security: Principles and Practice. Pearson. 2017. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/network-security-essentials-applications-and-standards/P200000003916>

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE LEGAL BASIS FOR THE EXERCISE OF LEGISLATIVE INITIATIVE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Baymurotov G'ayrat Panjievich,
Lecturer of Karshi State University

Abstract. This article analyzes the legal framework for the implementation of the right of legislative initiative in the Republic of Uzbekistan. The right of legislative initiative, as an important institution of a democratic society, ensures the participation of citizens and state bodies in the legislative process. The article examines how the Constitution of the Republic of Uzbekistan, laws, and other regulatory legal acts define the subjects, forms, procedure, and limits of the right of legislative initiative. It also analyzes the theoretical and practical aspects of exercising the right of legislative initiative, the problems encountered, and possible solutions. The author develops proposals and recommendations for further improving the right of legislative initiative.

Keywords: legislative initiative, legal framework, law-making, democracy, Constitution, laws, regulatory legal acts.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUNCHILIK TASHABBUSI HUQUQINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Baymurotov G'ayrat Panjiyevich,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: GgayratBoymurodovv@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishning huquqiy asoslarini tahlil qiladi. Qonunchilik tashabbusi huquqi demokratik jamiyatning muhim instituti sifatida qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolar va davlat organlarining ishtirokini ta'minlaydi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida qonunchilik tashabbusi huquqining subyektlari, shakllari, tartibi va chegaralari belgilab berilganligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlari, muammolari va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Maqola muallifi qonunchilik tashabbusi huquqini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Kalit so'zlar: qonunchilik tashabbusi, huquqiy asoslar, qonun ijodkorligi, demokratiya, Konstitutsiya, qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N60>

Qonunchilik tashabbusi haqidagi normalar asosida yuzaga keladigan qonunchilik tashabbusi munosabati qonun yaratish jarayonining bir qismi sifatida hisoblanadi. Shuning uchun, bu huquqiy munosabat konstitutsiyaviy huquq predmetiga kiradi va qonunchilik tashabbusiga oid normalar ham konstitutsiyaviy xususiyatga ega bo'ladi.

Qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish yoki ba'zi holatlarda qonunchilik tashabbusi majburiyatini bajarish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy huquq normalari to'plami, ya'ni qonunchilik tashabbusi predmeti alohida o'rinni egallab, qonunchilik tashabbusining konstitutsiyaviy-huquqiy institutini tashkil etadi.

Qonunchilik tashabbusi bosqichidan o'tishni tartibga soluvchi normalar qonunchilik tashabbusi subyektlarini belgilashni, subyektlarning qonun chiqaruvchi organlariga kiritiladigan qonun loyihalarining turlarini ko'rsatishni, qonun loyihalariga majburiy tartibda ilova qilinishi kerak bo'lgan qo'shimcha hujjatlar ro'yxatini o'z ichiga oladi[1].

O'zbekiston Respublikasida qonunchilik tashabbusi to'g'risidagi normalarni o'z ichiga olgan huquq manbalari doirasi juda xilma-xil va qonunchilik jarayoni darajasiga qarab o'zgaradi. Qonunchilik tashabbusi huquqining qonun ijodkorligi jarayonida muhim ahamiyati, uning butun parlament bilan hamkorlikda amalga oshirilishi ushbu huquqning konstitutsiyaviy ahamiyatini va shunga mos ravishda uni bevosita konstitutsiyaviy darajada amalga oshirishning normativ asoslarini mustahkamlashni oldindan belgilab beradi.

Qonunchilik tashabbusi huquqining huquqiy asoslari haqida gap ketganda, shubhasiz, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi keladi. Jumladan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasi mazkur institutning konstitutsiyaviy-huquqiy asosi sifatida maydonga keldi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qonunchilik tashabbusi huquqining asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Ushbu norma Konstitutsiyaga muvofiq ravishda qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlarning ro'yxatini aniqlaydi.

Mazkur konstitutsiyaviy norma, avvalo, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar doirasini belgilab beradi. Xususan, Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ega. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga ega ekanligi belgilandi[2].

Bir tomondan, subyektlar doirasining kengligi turli xil manfaatlar va nuqtai nazarlarning qonun loyihalarida aks etishini ta'minlaydi. Boshqa tomondan, haddan tashqari ko'p subyektlar qonun ijodkorligi jarayonini murakkablashtirishi, vaqtni cho'zishi va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, subyektlar doirasining optimal hajmi masalasi ilmiy munozaralarga sabab bo'ladi. Sud va nazorat organlarining qonunchilik tashabbusi huquqi hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga qanchalik mos kelishi munozarali masala. Ba'zi olimlar bu holat sud va nazorat organlarining betarafligi va mustaqilligiga putur yetkazishi mumkin deb hisoblaydi. Ularning fikricha, sudlar va prokuratura qonunlarni qo'llash bilan shug'ullanishi kerak, ularni yaratish bilan emas. Boshqa olimlar esa, sud va nazorat organlarining qonunchilik tashabbusi huquqi qonunlarni amalda qo'llashda aniqlangan muammolarni bartaraf etishga va qonunchilikni takomillashtirishga yordam beradi deb ta'kidlaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi jarayonini demokratlashtirish va takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

98-moddaning 2-qismida quyidagicha norma o'rnatilgan: "Qonunchilik tashabbusi huquqi qonun loyihasini qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi"[3]. Ushbu norma qonunchilik tashabbusi huquqining qanday amalga oshirilishini aniq belgilab beradi: qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish orqali. Bu qonun ijodkorligi jarayonining aniq bosqichini belgilab, jarayonning tartibli va samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini ko'rib chiqish va qabul qilish uchun asosiy organ ekanligi ushbu normada yana bir bor tasdiqlanadi. Bu Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi jarayonidagi markaziy rolini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli. 98-moddaning mazkur 3-qismi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan o'rin olgan katta yangiliklardan biri hisoblanadi. Xususan, normaning eng muhim jihati – yuz ming nafardan kam bo'lmagan saylov huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga qonunchilik tashabbusi huquqini berilishi. Bu fuqarolarning qonun ijodkorligida bevosita ishtirok etishining muhim vositasi bo'lib, demokratiya tamoyillarining amalda ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

Aytish joizki, ko'pgina tahliliy materiallarda mamlakatimizda fuqarolarda qonunchilik tashabbusi huquqi to'g'ridan to'g'ri mavjud emasligi qayd etilar edi[4]. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasi mazkur masalalarni qamrab oldi.

Senatga qonunchilik takliflarini kiritish huquqining berilishi uning Qonunchilik palatasi bilan hamkorlikda qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etishini ta'minlaydi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasidir[5]. Senat mintaqalar manfaatlarini ifoda etuvchi organ sifatida qonun loyihalariga hududiy jihatlarni hisobga olgan holda takliflar kiritishi mumkin.

Ombudsmanning qonunchilik takliflarini kiritish huquqi inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan. Bu ombudsmanning o'z faoliyatida aniqlangan qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo'lib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) hamda mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi[6].

Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining referendumini tashkil etadi va o'tkazadi[7]. Markaziy saylov komissiyasining qonunchilik takliflarini kiritish huquqi saylov tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Bu saylov jarayonining adolatli, shaffof va demokratik tamoyillarga mos bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

100 ming imzo to'plash talabi bir tomondan qonunchilik tashabbusining jiddiy ekanligini kafolatlasa, ikkinchi tomondan fuqarolarning ushbu huquqdan foydalanishini qiyinlashtirishi mumkin. Bu talabning optimal ekanligi, uni kamaytirish yoki o'zgartirish zarurligi munozarali masaladir.

Fuqarolar, Senat, ombudsman va Markaziy saylov komissiyasi tomonidan kiritilgan qonunchilik takliflarining Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqilishi va qabul qilinishi amalda qanday amalga oshirilishi munozarali bo'lishi mumkin. Ularning takliflari majburiy

kuchga ega emasligi sababli, bu takliflarning taqdiri ko'p jihatdan Qonunchilik palatasining siyosiy irodasiga bog'liq bo'ladi.

Fuqarolar tomonidan qonun loyihasini tayyorlash va taqdim yetish talablari (shakli, mazmuni, asoslanishi) Qonunchilik palatasi reglamenti bilan tartibga solinadi. Bu talablarning murakkabligi fuqarolarning ushbu huquqdan foydalanishini qiyinlashtirishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan normalarni hayotga samarali tatbiq etishda birinchi navbatda quyidagilarga rioya qilinishi maqsadga muvofiq:

qonun loyihalarini muhokama qilish, ekspertizadan o'tkazish va qabul qilish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash (Bu fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayonini kuzatib borishi va unda ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratadi);

fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari)ni fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishdagi rolini e'tirof etish (Ularning yordami bilan fuqarolar o'z tashabbuslarini ilgari surish, imzo to'plash va qonun loyihalarini tayyorlashda ko'mak olishlari mumkin);

fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi haqida xabardorligini oshirish, ularga ushbu huquqdan foydalanish tartibi va imkoniyatlari haqida ma'lumot berish (Bu maqsadga erishish uchun ta'lim dasturlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa vositalardan foydalanish mumkin).

Qonunchilik tashabbusi huquqi qonun ijodkorligi jarayonining muhim bosqichi sifatida muhim rol o'ynaydi. Shu sababdan, ushbu jarayon bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish qonun darajasida amalga oshirilishi tabiiy. "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida qabul qilingan [8].

Ushbu qonunning o'ziga xos xususiyati shundaki, mazkur qonunda qonunchilik tashabbusini amalga oshirish borasidagi nafaqat moddiy huquqlar, balki protsessual huquqlar ham kiradi. Xususan, qonunlar loyihalarini tayyorlash bosqichlarining tartibi aniq belgilab berilgan.

"Qonun loyihasini tayyorlash: qonun loyihasini tayyorlash to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqish va uni tayyorlash to'g'risida qaror qabul qilishni; qonun loyihasini tayyorlashni tashkiliy-texnikaviy va moliyaviy jihatdan ta'minlashni; zarur materiallar va axborot to'plashni; qonun loyihasining konsepsiyasini ishlab chiqishni; qonun loyihasini tuzishni; huquqiy va boshqa zarur ekspertiza o'tkazishni o'z ichiga oladi" mazmunidagi norma muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu norma qonun loyihasini tayyorlash jarayonini tartibga soladi, aniq bosqichlarni belgilab beradi va qonun ijodkorligi faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Qonun loyihasini tayyorlashning har bir bosqichiga e'tibor qaratish, zarur materiallar va axborot to'plash, konsepsiyani ishlab chiqish, ekspertiza o'tkazish orqali qonun loyihasining sifatini ta'minlashga qaratilgan. Qonun loyihasini tayyorlash jarayonining aniq bosqichlarga bo'linishi, jarayonning shaffofligini ta'minlashga va manfaatdor tomonlarning ishtirokini rag'batlantirishga yordam beradi.

Qonun loyihasini tayyorlash to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqish va uni tayyorlash to'g'risida qaror qabul qilish – bu qonun ijodkorligi jarayonining boshlang'ich nuqtasi

hisoblanadi. Bu bosqichda taklifning dolzarbligi, maqsadga muvofiqligi va resurslar bilan ta'minlanganligi baholanadi.

Qonun loyihasini tayyorlashni tashkiliy-texnikaviy va moliyaviy jihatdan ta'minlash – bu jarayonning uzluksizligi va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslarni ajratishni nazarda tutadi.

Zarur materiallar va axborot to'plash – bu qonun loyihasining asosini tashkil etuvchi faktlar, statistika, ilmiy tadqiqotlar va boshqa ma'lumotlarni yig'ishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda ishonchli va dolzarb ma'lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Qonun loyihasining konsepsiyasini ishlab chiqish – bu qonun loyihasining asosiy g'oyasi, maqsadlari, vazifalari, tartibga solish predmeti va usullarini aniqlashni nazarda tutadi. Konsepsiya qonun loyihasining “yo'l xaritasi” bo'lib xizmat qiladi va uning keyingi rivojlanishini yo'naltiradi.

Qonun loyihasini tuzish – bu qonun normalarini aniq va izchil shaklda ifodalashni nazarda tutadi. Ushbu bosqichda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilish, huquqiy atamalardan to'g'ri foydalanish va qonun loyihasining tuzilishini ta'minlash muhimdir.

Albatta, Qonunning ushbu moddasi bir qancha savollardan ham xoli emas. Normada qonun loyihasini tayyorlash bosqichlarining aniq ketma-ketligi belgilanganmi? Ba'zi hollarda bosqichlar parallel ravishda amalga oshirilishi mumkinmi? Har bir bosqichning mazmuni yetarlicha aniq belgilanganmi? Masalan, “zarur materiallar va axborot to'plash” deganda nima tushuniladi? Normada ekspertiza turlari aniq belgilanganmi? Qanday hollarda qanday ekspertiza o'tkazilishi kerak? Qonun loyihasini tayyorlashning har bir bosqichi uchun kim javobgar? Albatta, ko'pgina olimlar qonun ijodkorligi jarayonida axborot ta'minotining o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashadi[9].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, mazkur moddani yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

qonun loyihasini tayyorlashning har bir bosqichining mazmunini aniqlashtirish, ularning maqsadini va vazifalarini aniq belgilash;

qonun loyihasining xususiyatlariga qarab, qanday ekspertiza turlari o'tkazilishi kerakligini aniq belgilash;

qonun loyihasini tayyorlashning har bir bosqichi uchun javobgarlikni aniq belgilash;

qonun loyihasini tayyorlash jarayoniga qo'shimcha bosqichlarni kiritish, masalan, manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish.

Shuningdek, qonunda qonunchilik tashabbusi huquqining tushunchasi juda qisqa va tor doirada berib ketilganligini qayd etish o'rinli. Olimlarning umumiy fikriga ko'ra “Qonunchilik tashabbusi – mamlakat parlamentiga qonun loyihalarini yoki yangi qonunlarni qabul qilish takliflarini kiritish huquqidir”. “Qonunchilik tashabbusi – qonun loyihalarini qonun chiqaruvchi organga kiritish huquqi bo'lib, bu organ ushbu qonun loyihalarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha qaror qabul qilishga majburdir”[10].

Qonunga asosan, qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti qonun loyihasini birgalikda tayyorlash to'g'risidagi taklif bilan boshqa qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga murojaat qilishi mumkinligi belgilanadi. Ushbu norma qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari o'rtasida hamkorlikni rag'batlantiradi va qonun loyihalarini tayyorlashda resurslarni birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Qonun loyihalarini birgalikda tayyorlash turli qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarining nuqtai nazarlarini inobatga olish imkoniyatini beradi va

qonun loyihasining muvozanatli bo'lishiga yordam beradi. Qonun loyihalarini birgalikda tayyorlash turli sohalaridagi ekspertlarni jalb qilish, resurslarni birlashtirish va turli nuqtai nazarlarni inobatga olish orqali qonun loyihasining sifatini oshirishga yordam beradi.

Ushbu norma qonun loyihasini birgalikda tayyorlash bo'yicha taklifning shakli, mazmuni va taqdim etilish tartibini aniq belgilamaydi. Bu esa qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlariga o'zaro kelishuv orqali taklifni shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur norma qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlariga qonun loyihalarini birgalikda tayyorlash bo'yicha taklifni qabul qilish yoki rad etish majburiyatini yuklamaydi.

Ushbu moddada ham ayrim munozarali o'rinlar mavjud. Xususan, Qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarining qonun loyihalarini birgalikda tayyorlash to'g'risidagi taklifni qabul qilish majburiyatini belgilash zarurmi? Qonun loyihalarini birgalikda tayyorlash tartibini belgilash zarurmi? (Masalan, ishchi guruhlar tuzish, maslahatlashuvlar o'tkazish va qarorlar qabul qilish tartibi) Qonun loyihasini birgalikda tayyorlashda har bir qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining javobgarligi qanday bo'ladi? Qonun loyihasini birgalikda tayyorlashda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda nima qilish kerak?

Ushbu mulohazalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarining qonun loyihalarini birgalikda tayyorlash to'g'risidagi taklifni qabul qilish majburiyatini belgilash, ayniqsa, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qonun loyihalari uchun;

qonun loyihalarini birgalikda tayyorlash tartibini belgilash, ishchi guruhlar tuzish, maslahatlashuvlar o'tkazish va qarorlar qabul qilish tartibi;

qonun loyihasini birgalikda tayyorlashda har bir qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining javobgarligini aniq belgilash;

qonun loyihasini birgalikda tayyorlashda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda hal qilish mexanizmlarini yaratish.

Qonun loyihasini tayyorlashni tashkil etish tartibiga asosan, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyekt qonun loyihasini tayyorlash uchun ishchi guruh tuzishi mumkin.

Ishchi guruhi tarkibiga qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti tegishli bo'linmalarining vakillari, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining tegishli tarmoqlarning holati va rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan vakillari, boshqa manfaatdor davlat organlarining, ilmiy va boshqa tashkilotlarning vakillari, shuningdek fuqarolar kiritilishi mumkin. Bunda nodavlat tashkilotlar vakillari, shuningdek fuqarolar ishchi guruhi (komissiyasi) tarkibiga o'z roziligiga ko'ra kiritiladi.

Ishchi guruhi a'zolari qonun loyihasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan tegishli bilim va tajribaga ega bo'lishlari kerak.

Ishchi guruh tarkibiga qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining tegishli bo'linmalari vakillari, respublika ijroiya hokimiyati organlarining tegishli sohalar holati va rivojlanishi uchun mas'ul shaxslar, boshqa manfaatdor davlat organlari, ilmiy va boshqa tashkilotlar vakillari hamda fuqarolar kirishi mumkin. Shu bilan birga, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar ishchi guruhga faqat o'z roziligi bilan qo'shiladi. Ushbu tarkib qonun loyihasining xususiyatlariga qarab o'zgarishi mumkin.

Shu bilan birga, bu borada bir qancha savollar tug'ilishi tabiiy. Ishchi guruhi tarkibini belgilash mezonlari yetarlicha aniq belgilanganmi? Qanday hollarda qanday vakillar kiritilishi kerak? Ishchi guruhi a'zolari qonunchilik tashabbusi huquqi subyektidan mustaqilmi? Ularning

fikri qonun loyihasiga ta'sir qilishi mumkinmi? Qonun loyihasini tayyorlashni topshirish tartibi yetarlicha aniq belgilanganmi? Qanday hollarda qanday tashkilotlarga topshirish mumkin? Muqobil loyihalarni tayyorlash tartibi yetarlicha aniq belgilanganmi? Qanday hollarda muqobil loyihalar tayyorlash mumkin?

Yuqoridagi munozaralar yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

ishchi guruhi tarkibini belgilash mezonlarini aniqlashtirish, qanday hollarda qanday vakillar kiritilishi kerakligini aniq belgilash;

ishchi guruhi a'zolarining mustaqilligini ta'minlash, ularning fikri qonun loyihasiga ta'sir qilishi uchun sharoit yaratish;

qonun loyihasini tayyorlashni topshirish tartibini aniqlashtirish, qanday hollarda qanday tashkilotlarga topshirish mumkinligini aniq belgilash;

muqobil loyihalarni tayyorlash tartibini aniqlashtirish, qanday hollarda muqobil loyihalar tayyorlash mumkinligini aniq belgilash.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritilayotganda qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etilishi kerak:

1) qonun loyihasining konsepsiyasi bayon qilingan tushuntirish xati;

2) o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi, shuningdek qonun loyihasi kiritilishi bilan bog'liq qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun loyihasi;

3) o'zgartirilishi, qo'shimchalar kiritilishi, o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi yoki qabul qilinishi kerak bo'lgan qonunosti hujjatlarining ro'yxati;

3¹) xalqaro hujjatlarning va chet yel mamlakatlari qonunchiligining, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining tegishli qoidalari, O'zbekiston Respublikasi sharoitida tegishli xalqaro tajriba qo'llanilishining maqbulligi to'g'risidagi asosli takliflar ketma-ket tartibda ko'rsatilgan tahliliy qiyosiy jadval.

4) moddiy xarajatlar talab qilinadigan qonunlar loyihalari uchun moliyaviy-iqtisodiy asoslar;

5) davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini ko'paytirishni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti moddalari bo'yicha o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosasi.

Ushbu norma Qonunchilik palatasi deputatlariga qonun loyihasini to'liq va asosli ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etishni ta'minlaydi. Ushbu norma qonun loyihasining sifatini oshirishga yordam beradi, chunki u qonun loyihasining asoslanganligini, dolzarbligini va samaradorligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim yetishni talab qiladi hamda qonun ijodkorligi jarayonining shaffofligini ta'minlashga yordam beradi, chunki u qonun loyihasi bilan bog'liq barcha muhim ma'lumotlarni ochiq qilishni talab qiladi.

Taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlarning ro'yxati to'liqmi? Qanday hollarda qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin? Taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlarning shakli va mazmuni yetarlicha aniq belgilanganmi? Vazirlar Mahkamasining xulosasini olish tartibi qanchalik samarali? Xulosa qancha vaqt ichida taqdim etilishi kerak? Elektron shaklda taqdim etish talabi barcha qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari uchun qulaymi? Albatta, bu kabi masalalarning qonunchilikdan o'rin olishi maqsadga muvofiq.

Qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti Qonunchilik palatasiga o'zi kiritgan qonun loyihasi matnini qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilinguniga qadar o'zgartirishga haqli.

Ushbu norma qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga qonun loyihasini birinchi o'qishda qabul qilinguniga qadar o'zgartirish imkoniyatini beradi, bu esa qonun loyihasini muhokama qilish jarayonida yuzaga kelgan yangi ma'lumotlar va takliflarni hisobga olish imkonini beradi.

Qonun loyihasini o'zgartirish imkoniyati qonun loyihasining sifatini oshirishga yordam beradi, chunki u qonun loyihasidagi kamchiliklarni bartaraf yetish va uni takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu norma qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining huquqlarini himoya qiladi, chunki u qonun loyihasining taqdirini nazorat qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga ayrim e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan masalalar mavjud. Jumladan, Ushbu norma qonun loyihasini o'zgartirishning cheksizligini nazarda tutadi. Qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga qonun loyihasini birinchi o'qishda qabul qilinguniga qadar istalgancha o'zgartirishi mumkin. Bu esa qonun loyihasini ko'rib chiqish jarayonini cho'zib yuborishi va Qonunchilik palatasi deputatlarining vaqtini behuda sarflashga olib kelishi mumkin.

Ushbu norma qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga qonun loyihasining mazmunini o'zgartirish huquqini beradi, bu esa qonun loyihasining dastlabki maqsadlaridan chetga chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga qonun loyihasini o'zgartirish huquqiga ega bo'lishi, Qonunchilik palatasi deputatlari huquqlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin, chunki ular endi o'zgartirilgan loyiha ustida ish olib borishga majbur bo'ladilar.

Ushbu masalalarning yechimi sifatida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

qonun loyihasini o'zgartirish sonini cheklash, masalan, birinchi o'qishda qabul qilinguniga qadar faqat bir marta o'zgartirishga ruxsat berish;

qonun loyihasining mohiyatini o'zgartirishni cheklash, masalan, faqat texnik tuzatishlar kiritishga ruxsat berish;

qonun loyihasiga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida Qonunchilik palatasi deputatlarini xabardor qilish.

qonun loyihasiga o'zgartirishlar kiritishda Qonunchilik palatasi deputatlarining fikrini inobatga olish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kravsova Ye.A. Osobennosti regulirovaniya stadii zakonodatelnoy initsiativы v subyektax Rossiyskoy Federatsii // Nauka.Teoriya. Praktika. 2017. №2. C. 31
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
4. Preliminary assessment of the legislative process in the republic of Uzbekistan // 2019. <http://www.legislationline.org>
5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 12-son, 213-modda, 2003-y., 5-son, 67-modda; 2011-y., 16-son, 160-modda; 2014-y., 16-son, 177-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda; 2016-y., 39-son, 457-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda, 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-y., 2-son, 47-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2019-y., 03/19/527/2706-son, 11.05.2019-y., 03/19/536/3114-son, 28.08.2019-y.,

- 03/19/557/3657-son, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son; 10.08.2020-y., 03/20/631/1153-son; 15.01.2021-y., 03/21/666/0032-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 19.02.2024-y., 03/24/909/0133-son
6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.11.2024-y., 03/24/1002/0936-son
 7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori // <https://lex.uz/docs/6995026>
 8. O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 41-son, 406-modda; 2014-y., 20-son, 222-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son, , 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son; 11.05.2019-y., 03/19/536/3114-son; 10.08.2020-y., 03/20/631/1153-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 27.10.2022-y., 03/22/796/0966-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 19.02.2024-y., 03/24/909/0133-son
 9. Sodikov A. Norma ijodkorligi jarayonini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari // Yurist axborotnomasi. 2023. №3. B. 14
 10. Khudoyberdiyev A.Q. On the issue of the right to legislative initiative in modernisation process of state power: from Uzbekistan's perspective // Next scientists. 2022. Vol. 5. P. 137.

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES AROUND THE WORLD REGARDING CRIMINAL RESPONSIBILITY FOR PREPARATION FOR A CRIME AND ATTEMPTED CRIME

Esanova Shakhnoza Hashimovna,
Higher School of Judges under the Supreme Judicial
Council of the Republic of Uzbekistan,
3rd group listener, Criminal Law specialization

Abstract. The goal of the ongoing reforms in our country is to establish a rule of law, strengthen legality and justice, ensure the constitutional rights and freedoms of citizens, prevent socially dangerous offenses, and ensure the fight against them. As an element of the rule of law, criminal law plays a key role in ensuring legality and justice. This article comprehensively explores the theoretical, legal, and practical aspects of criminal responsibility for preparation for a crime and attempted crime. It aims to clarify the essence of preparation for a crime and attempted crime as incomplete forms of crime, analyze their characteristics, types, bases of responsibility, and examine their place in both national and foreign legislations.

The article analyzes the norms of criminal legislation of the Republic of Uzbekistan concerning criminal responsibility for preparation and attempt, identifies problematic aspects of their practical implementation and judicial practice. Additionally, it studies the legal model of this institution through the example of the legislation of developed countries such as the USA, Germany, Spain, and Italy, and proposes recommendations for improving national legislation. Specific scientific and practical proposals are provided to clarify the concepts of preparation for a crime and attempted crime, establish criteria for distinguishing them, and improve the current norms.

Keywords: guilt, crime, punishment, responsibility, stages, incomplete, complete, attempted crime, preparation.

JINOYATGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA SUIQASD QILGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKKA OID RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI

Esanova Shaxnoza Xashimovna,
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi
huzuridagi Sudyalar oliy maktabining
Jinoyat huquqi ixtisosligi 3-guruh tinglovchisi

Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi huquqiy davlatni shakllantirish, qonuniylik va adolatni mustahkamlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlanishiga erishish, ijtimoiy xavfli tajovuzlarni oldini olish va unga nisbatan qarshi kurashni ta'minlovchi huquqiy davlatning bir elementi sifatida jinoyat qonuni ham qonuniylik va adolatni ta'minlashda asosiy vazifani bajaradi. Shuningdek, ushbu maqolada jinoyatga tayyorgarlik va suiqasd qilganlik uchun javobgarlikning nazariy, huquqiy va amaliy jihatlar har tomonlama o'rganilib, jinoyatning tugallanmagan shakllaridan biri sifatida jinoyatga tayyorgarlik va suiqasd qilishning mohiyatini ochib berish, ularning belgilari, turlari, javobgarlik asoslari hamda milliy va xorijiy qonunchilikdagi o'rnini tahlil qilishdan iboratdir.

Maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida jinoyatga tayyorgarlik va suiqasd uchun javobgarlik masalalariga oid normalar tahlil qilinib, ularning amaliy tatbiqi va sud amaliyotidagi muammoli jihatlar aniqlangan. Shuningdek, AQSh, Germaniya, Ispaniya va Italiya kabi rivojlangan davlatlar qonunchiligi misolida mazkur institutning huquqiy modeli o'rganilib, milliy huquqni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jinoyatga tayyorgarlik va suiqasd tushunchalariga aniqlik kiritish, ularni ajratish mezonlarini belgilash hamda amaldagi normalarni takomillashtirish bo'yicha aniq ilmiy va amaliy takliflar berilgan.

Kalit soʻzlar: ayb, jinoyat, jazo, javobgarlik, bosqichlar, tamom boʻlmagan, tamom boʻlgan, suiqasd, tayyorgarlik koʻrish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N61>

Jinoyat sodir etish bosqichlari uchun jinoiy javobgarlik va jazo tayinlash yuzasidan yagona tajriba mavjud boʻlmasa-da milliy xususiyatlarning turfa xilligi, koʻpgina mamlakatlar uchun umumiy boʻlgan asosiy belgilarni aniqlab olishga imkon beradi. Xorijiy davlatlarning jinoyat huquqi nazariyasidagi mazkur jinoyat uchun javobgarlikning oʻziga xosligi shundaki, jinoyatga tayyorgarlik koʻrish uchun jinoiy javobgarlik belgilanmaganligini koʻrish mumkin. Unga koʻra, jinoyatga suiqasd qilishning qamrovi jinoyatga tayyorgarlik koʻrish harakatlarini ham qamrab olib keng tarzda talqin etilgan. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligining tahlilini jinoyat-huquqiy normalar manbalari va huquq tizimlarining alohida turlaridan kelib chiqib oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

Chet davlatlari tarkibiga kiruvchi, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Fransiya va GFR)ning jinoyat qonunchiligini oʻrganish asosida tamom boʻlmagan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan qonunlarining oʻziga xos xususiyati shundaki jinoyatga tayyorgarlik koʻrish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmaganligi, jinoyatga tayyorgarlik koʻrishning ayrim shakllari jinoyat sodir etishga suiqasd deb topilishi va shunga muvofiq javobgarlik kelib chiqqanligini taʼkidlash mumkin [1, 310].

Shuningdek, MDH davlatlari – Armaniston, Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, Qirgʻiziston, Qozogʻiston, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina hamda Gruziya davlatlari jinoyat qonunchiligini oʻrganish natijasida jinoyatga tayyorgarlik koʻrganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun tayinlanadigan jazo muddati va miqdori oʻzaro farqlanadi. [2, 466, 474]

Oʻzbekiston jinoyat qonunchiligida ham ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori boʻlmagan muayyan turdagi jinoyatlarga tayyorgarlik koʻrganlik dekriminalizatsiya qilinishi, tamom boʻlgan jinoyat tamom boʻlmagan jinoyatdan jinoyat tarkibining elementlari, jinoiy oqibat yuz bermaganligi va ijtimoiy xavflilik xususiyatiga koʻra farqlanishi natijasida ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etilib, ulardan biri jinoyatga tayyorgarlik koʻrish, boshqasi esa tamom boʻlgan jinoyat boʻlgan hollarda takroran jinoyat sifatida baholanmasligi lozim degan xulosaga kelish mumkin.

Bir necha jinoyatlar sodir etish va ular uchun jazo tayinlash masalasi yuzasidan ayrim xorijiy davlatlar, xususan AQSh, Italiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi davlatlarda bu masala jinoyat qonunchiligida jazoga bagʻishlangan boʻlim doirasida, Rossiya, Qozogʻiston, Belarus kabi davlatlarda esa, jazo bilan birgalikda jinoyatga bagʻishlangan boʻlim doirasida tartibga solinganligini koʻrishimiz mumkin.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligini tahlil qilish maqsadida rivojlangan davlatlarning jinoyat qonunchiligi oʻrganib chiqildi.

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksiga koʻra, jinoyat sodir etish bosqichlari beshta bosqichga: xususan jinoiy niyat, jinoyatga tayyorgarlik koʻrish, jinoyatga suiqasd qilish, jinoyatni amalga oshirish, tamom boʻlgan jinoyatga boʻlib oʻrganilgan.

Germaniya qonunchiligining ikkinchi bobiga koʻra, suiqasd — qasddan jinoyat yoki nojoʻya xatti-harakat sodir etish bevosita boshlangan, biroq oxiriga yetkazilmagan boʻlsa, jinoyatga suiqasd deb topilgan. Shunga koʻra, suiqasd uchta elementga boʻlib: jumladan, jinoyat

sodir etish boshlanganligi, subyektiv tomon mavjudligi, jinoyatning tamom bo'lmaganligi bilan tavsiflanadi[3, 320, 340].

Ushbu JKning 23 paragrafiga ko'ra, jinoyatga suiqasd qilish har qanday holatda, huquqbuzarlikka suiqasd qilish esa faqatgina qonunda ko'rsatilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo'ladi. Suiqasd uchun tamom bo'lgan jinoyatga nisbatan yengilroq jazo tayinlanishadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilishi yoki muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosining maksimal muddatining to'rtidan uch qismidan oshmasligi kerak. Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum qilishning 10 yili yoki 5 yilning minimal muddati 2 yilga; 3 yoki 2 yilning minimal muddati 6 oyga; 1 yilning minimal muddati 3 oyga; boshqa hollarda esa qonunda belgilangan minimal muddatgacha kamaytirilishi nazarda tutilgan.

Germaniyada jinoyatga suiqasd qilish uchun jinoiy javobgarlik masalasi differensiatsiya qilinganligi mazkur davlat qonunchiligining ijobiy xususiyati hisoblanadi. Ushbu JKning 23 paragrafiga ko'ra, jinoyatga suiqasd qilish har qanday holatda, huquqbuzarlikka suiqasd qilish esa faqatgina qonunda ko'rsatilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo'lishi ko'rsatilib, suiqasd uchun tamom bo'lgan jinoyatga nisbatan yengilroq jazo tayinlanishini e'tirof etadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilishi yoki muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosining maksimal muddatining to'rtidan uch qismidan oshmasligi kerak. Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum qilishning 10 yili yoki 5 yilning minimal muddati 2 yilga; 3 yoki 2 yilning minimal muddati 6 oyga; boshqa hollarda esa qonunda belgilangan minimal muddatgacha kamaytirilishi nazarda tutilgan.

Germaniya jinoyat qonunchiligida ahamiyat berilishi mumkin bo'lgan jihatlaridan yana biri shundaki, "suqasd qaratilgan obyekt yoki jinoyat sodir etilgan vosita yaroqsizligi tufayli jinoyat oxirigacha yetkazilmagan va shaxs jinoyat obyekti yoki vositasining yaroqsizligini anglamagan bo'lsa, sudning ixtiyoriga ko'ra yengilroq jazo tayinlanishi yoki umuman jazo tayinlanmasligi mumkin" Germaniyada jinoyatga suiqasd qilish uchun jinoiy javobgarlik masalasi differensiatsiya qilinganligi mazkur davlat qonunchiligining ijobiy xususiyati hisoblanadi.

Ispaniya Jinoyat kodeksiga ko'ra jazo tayinlash haqidagi bobda jinoyatlar jami xususida so'z borib, unga ko'ra ushbu kodeksning 73-moddasida aybdor tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyatlarni yoki tamom bo'lmagan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etish jinoyatlar jami tushuniladi.

Ispaniya Jinoyat kodeksi shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyatlar sodir etilganida, uzil-kesil yagona jazo tayinlash qoidalarini nazarda tutmaydi. Ushbu hollarda Jinoyat kodeksining 73-moddasiga ko'ra, jazolar birgalikda ijro etish uchun tayinlanadi. Agar u yoki bu jazoni birgalikda ijro etish mumkin bo'lmasa, ular ketma-ketlik bilan og'iridan yengiliga navbatida mustaqil ijro etiladi.

Ispaniya Jinoyat kodeksining 76-moddasi jinoyatlar jami bo'yicha jazo tayinlashning maksimal chegarasi belgilanib, unga ko'ra jinoyatlar jami bo'yicha tayinlangan jazo eng og'ir jazoning uch karrasidan oshib ketmasligi nazarda tutilgan. Agar shaxs ikki yoki undan ortiq jinoyat uchun sudlanayotgan bo'lsa va ulardan biri uchun 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan bo'lsa, maksimal chegara sifatida 25 yilni; agar shaxs ikki yoki undan

ortiq jinoyat uchun sudlanayotgan bo'lsa va ulardan biri uchun 20 yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo'lsa, maksimal chegara sifatida 30 yilni tashkil etadi.

Ispaniya Jinoyat kodeksining 77-moddasida jinoyatlarning ideal jami uchun jazo tayinlash nazarda tutilgan bo'lib, "bir harakat bilan ikki yoki undan ortiq huquqbuzarlikni sodir etish" nazarda tutadi. Bunda tayinlanadigan uzil-kesil jazo sodir etilgan jinoyatlarning og'irrog'i uchun tayinlanadigan jazodan kelib chiqadi va bu holatda jazo jinoyatlar uchun alohida-alohida jazo tayinlashga nisbatan yengilroq bo'lishi lozim.

Xulosa shuki, Ispaniya jinoyat qonunchiligi bo'yicha jinoyatlar ideal jami bo'yicha tayinlanadigan jazo jinoyatlar real majmui bo'yicha tayinlanadigan jazoga nisbatan yengildir.

Ispaniya jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoyatlar ideal jamiga kodeksda ta'rif berilganligi va jinoyatlar ideal jami va jinoyatlar real jami uchun jazo tayinlashning alohida tartiblari belgilanganligi; jazolarni birgalikda ijro etishning imkoni bo'lmasa ularni og'iridan yengiliga navbatida ijro etish to'g'risida qoida belgilanganligi ijobiy jihat deb qaralishi mumkin.

Italiya Jinoyat kodeksining 56-moddasiga muvofiq, jinoyat sodir etish va zarar yetkazishga qaratilgan harakatlarni bajargan shaxs qilmishni oxirigacha yetkazmagan yoki oqibat yuz bermagan bo'lsa, jinoyatga suiqasd uchun javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ayrim qilmishlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligiga ko'ra jinoyatga suiqasd qilish bosqichining o'zida tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi (masalan, kontrabanda jinoyatiga suiqasd, prezident va boshqa davlat rahbarlarining hayotiga suiqasd va h.k.). Jinoyatga suiqasd uchun javobgarlik choralari sifatida tamom bo'lgan jinoyat uchun nazarda tutilgan jazo muddatining 3/1 qismdan 3/2 qismgacha kamaytirilishi, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jazo muddati 12 yildan kam bo'lmagan miqdorda tayinlanishi belgilangan.

Italiya jinoyat kodeksida jinoiy oqibatga olib kelmaydigan harakatning sodir etilishi yoki jinoyat obyektining mavjud emasligi imkonsiz jinoyat tushunilib, qilmish jinoyat hisoblanmagan holda, sud tomonidan majburlov chorasi qo'llanilishi nazarda tutilgan. Mazkur tajriba ham qonunimizda alohida norma sifatida belgilab qo'yilishi, unga muvofiq, yaroqsiz obyektga suiqasd qilganlik uchun jinoiy javobgarlik istisno etilishi lozim deb hisoblayman.

Buyuk Britaniya jinoyat qonunchiligi tamom bo'lmagan jinoyatlarni uchta guruhga 1) jinoyatga suiqasd qilish, 2) jinoiy kelishuv; 3) jinoyatga dalolatchilik qilishga ajratadi.

"Jinoyatga suiqasd — jinoyat sodir etish bilan bevosita bog'liq va qilmish to'xtatilmasa yoki aybdor qilmishni sodir etishdan voz kechmasa tamom bo'lgan jinoyatni yuzaga keltiruvchi qator harakatlarning tarkibiy qismidan tashkil topgan oldindan o'ylangan aniq qilmish hisoblanadi". Bunda, jinoyatga suiqasd qilishda ikki elementning birgalikda mavjud bo'lishi talab etiladi. Obyektiv element- jinoyatni bevosita sodir etishga qaratilgan harakat bo'lsa, subyektiv element muayyan jinoyatni sodir etish uchun qasdning mavjudligini ifoda etadi

Jinoyatda oqibat kelib chiqishi nazarda tutilgan hollarda, shaxs aynan shu oqibatni yuz berishini istaganligi muhim. 1967-yilda qabul qilingan "Jinoyat huquqi to'g'risidagi Qonun"ga binoan, jinoyatga suiqasd uchun jazo aybdorning suiqasd qilgan jinoyat uchun belgilangan jazo chorasidan ortiq bo'lishi mumkin emas. [4, 353].

Jinoyatda oqibat kelib chiqishi nazarda tutilgan hollarda, shaxs aynan shu oqibatni yuz berishini istaganligi muhim. 1967-yilda qabul qilingan "Jinoyat huquqi to'g'risidagi Qonun"ga binoan, jinoyatga suiqasd uchun jazo aybdorning suiqasd qilgan jinoyat uchun belgilangan jazo chorasidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Yuqoridagilarga asosan, Buyuk Britaniya huquq tizimida jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyatga suiqasd o'rtaqidagi farqni chegaralash sudning ixtiyoriga havola qilingan. Mazkur masalada sudlarga keng vakolatlar berilganligi va har bir holatga nisbatan individual yondashilishi masalaning ijobiy jihati hisoblanadi.

AQSh jinoyat huquqida Namunaviy Jinoyat kodeksi va bir qator shtatlar jinoyat qonunlarida dastlabki jinoiy faoliyatga oid bo'lim yoki boblar mavjud.

Nyu-York va Ogayo shtatlari Jinoyat kodekslari tamom bo'lmagan jinoyatlar, xususan, jinoyatga suiqasd qilishga oid normalar Maxsus qismda joylashgan bo'lsa, Pensilvaniya, Jorjiya shtatlarining jinoyat kodekslarida jinoyatga suiqasd qilish uchun jinoiy niyatini amalga oshirish maqsadida shaxs jinoiy tajovuz sari yo'naltirilgan "muhim qadam" sodir etadi deb hisoblaydi. Ammo, amaliyotda aynan muhim qadam sari yo'naltirilgan "aniq harakat"ni ajratish muammolari mavjud bo'lib, shunga ko'ra AQSh Namunaviy Jinoyat kodeksida "muhim qadam" sifatida baholanishi mumkin bo'lgan harakatlar keltirib o'tilgan. Misol uchun, jabrlanuvchini qidirish yoki uni kuzatish, jabrlanuvchini aldash yoki yoki avrashga harakat qilish, binoga noqonuniy yo'llar bilan kirish, jinoyat vositalariga ega bo'lish.

Fikrimizcha, jinoyatga suiqasd va tayyorgarlik ko'rishni farqlashda nafaqat sodir etilgan harakatlardan kelib chiqish, balki mazkur harakatlarning tamom bo'lgan jinoyatga qanchalik darajada yaqinligiga ham asoslanishi lozim. Demak, qilmishni jinoyatga suiqasd deb topishda, aybdor tomonidan sodir etilgan harakatlarni amalga oshirishga boshqa shaxs to'sqinlik qilmagan holda tamom bo'lgan jinoyatga olib kelishi muqarrarligiga asoslanishi lozim. Aks holda, qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb topilishi kerak.

Ayrim Yevropa davlatlarining tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan qonunlarining o'ziga xos xususiyati sifatida yaroqsiz suiqasd uchun alohida javobgarlik belgilanganligi va ularga nisbatan yengilroq jazo tayinlanishi yoki boshqa jinoyat huquqiy ta'sir choralari qo'llash mumkinligini qayd etishimiz mumkin.

MDH davlatlari jinoyat kodekslarining tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyat, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish, javobgarlik va jazo tayinlash masalalari tahlili asosida mazkur institutlarning O'zbekiston qonunchiligi bilan farqli va o'xshash jihatlari ko'rib chiqamiz.

Aksariyat, MDH davlatlari jinoyat qonunchiligida jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyatga suiqasd qilish institutlarini tartibga soluvchi Ozarbayjon, RF, Gruziya davlatlarida "Tamom bo'lmagan jinoyat", Qirg'iziston va Tojikiston davlatlarida "Tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyat" alohida bob mavjud.

Ayrim davlatlarda xususan Qozog'iston, Belarus, Moldovada "Jinoiy huquqbuzarlik" yoki "Jinoyat" yoxud "Jinoyat va uning turlari" boblarida mazkur institutlar ifodalangan bo'lib, alohida bob mavjud emas,

Ukraina va Qirg'iziston JKda "jinoyat sodir etish bosqichlari" atamasi qo'llanilgan bo'lsada, biroq uning ta'rifi biron bir moddada bayon etilmagan [5, 510]

O'zbekiston JK bilan o'xshash tarzda barcha MDH davlatlarida jinoyatga suiqasd qilish jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sifatida qasddan amalga oshirilishi va shaxs (irodasi)ga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmasligi belgilar orqali ta'riflangan.

Ayrim MDH davlatlarining qonun normasida tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlik mahrum qilish, o'lim, muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish jazo choralari qo'llanilmasligi ko'rsatilgan.

Biroq, RF, Qozog'iston, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Moldova, Ukraina va Belarus JKning mazkur qoida ayrim moddalariga nisbatan tatbiq etilmasligi belgilangan.

MDH davlatlari JKlarida jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyatga suiqasd qilganlik uchun jazo tayinlashda jinoyatni oxiriga yetkazilmaganlik sabablari, jinoiy qasdning amalga oshirilganlik darajasi, aybdor sodir etgan qilmish xususiyati va darajasi e'tiborga olinadigan holatlar sifatida qonunda sanab o'tilgan.

Shuningdek, Qirg'iziston, RF, Armaniston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston davlatlarining qonunchiligida tamom bo'lgan jinoyatga qaraganda jinoyatga suiqasd uchun yengilroq jazo tayinlanishi belgilangan, ya'ni jinoyatga suiqasd qilganlik uchun tayinlanadigan jazoning (asosiy jazoning) muddati yoki miqdori JK Maxsus qismida nazarda tutilgan *og'irroq jazoning to'rtidan uch qismidan oshmasligi belgilangan*. Ukraina JKda mazkur muddat oralig'i yanada yengilroq *uchdan ikki qismni* tashkil qilsa, Belarus va Gruziya JKda jinoyatga suiqasd qilganlik uchun tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori kamaytirilishi nazarda tutilmagan.

Jinoyatlar tasnifidan kelib chiqqan holda, faqat ayrim turdagi jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rganlik javobgarlik kelib chiqishi belgilangan. Misol uchun, Qirg'iziston, Ozarbayjon, RF, Tojikiston davlatlarida *og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar*, Moldova davlatida *og'ir, o'ta og'ir, nihoyatda o'ta og'ir*, Qozog'iston *og'ir, o'ta og'ir yoki terrorizmga tayyorgarlik ko'rish*, Gruziya davlatida *og'ir, o'ta og'ir og'ir* va JK moddasida keltirilgan jinoyatlar belgilangan.

Ukraina davlatida *ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazo yoki yengilroq jazo nazarda tutilgan jinoyatlar*, Belarus davlatida *ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rganlik uchun javobgarlik kelib chiqmasligi* belgilangan:

Bundan tashqari, RF, Tojikiston, Qozog'iston, Moldova, Qirg'iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Ukraina qonun normasida *jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun tayinlanadigan jazo muddati yoki miqdori* JK Maxsus qismida tamom bo'lgan jinoyat uchun nazarda tutilgan *og'irroq jazoning yarmidan oshmasligi* belgilangan[6, 46].

Yuqoridagi tahlillar asosida fikrimizcha, amaldagi jinoyat qonunchiligida jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyatga suiqasd qilish bilan bog'liq normalarni takomillashtirish, jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning ijtimoiy xavflilik xususiyati va xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida muayyan turdagi jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rganlik dekriminalizatsiya qilinishi, shuningdek, jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyatga suiqasd qilganlik uchun tayinlanadigan jazo muddati yoki miqdori o'zaro farqlanishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. УК Франции / Научн. ред. к.ю.н., доц. Л.В.Головкин, к.ю.н., доц. Н.Е.Крыловой; перевод с фр. и предисл. к.ю.н., доц. Н.Е.Крыловой. – СПб., 2002. – С. 310.
2. Уголовный кодекс Республики Казахстан / Предисловие министра юстиции Республики Казахстан, д.ю.н., проф. И.И.Рогова – СПб.: Юридический центр Пресс, 2001. – С. 466.; Уголовный кодекс Республики Беларусь / Принят Палатой представителей 2 июня 1999 года. Одобрен Советом Республики 24 июня 1999 года / Предисловие проф. Б.В. Волженкина; Обзорная статья А.В. Баркова. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2001. – С.474.

3. Уголовное право зарубежных стран. Общая часть: учебник для вузов / Н. Е. Крмлова [и др.]; ответственный редактор Н. Е. Крышова. — 5-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2024. - С. 320. Eser A.// Shoonke, Shroder. Op.cй. S. 340.
4. Есаков Г.А. Учение о преступлении в странах семьи обгцего права. Дисс... доктор.юрид.наук. -Москва, 2007. -С.353
5. Уголовный кодекс Украин от 5 апреля 2001 года № 2341-III (с изменениями и дополнениями по состоянию на 08.05.2024г. с-510)
6. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики (утвержден Законом Азербайджанской Рспублики от 30.12.1999г. № 787-IQ) (с изменениями и дополнениями по состоянию на 23.02.2024 г.) https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31295286&pos=805;-46#pos=805;-46

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

FEATURES OF REGULATING INHERITANCE LAW BY LAW IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abduvaliyev Murodillo,

Lecturer, Department of Legal Education,
Fergana State University

Abstract. This article examines the theoretical foundations and concepts of inheritance law, as well as the analysis of regulatory legal documents governing inheritance law in the Republic of Uzbekistan. It explores the resolution of inheritance disputes through judicial practice and provides proposals for improving the legal framework. The study employs legal analysis, a comparative approach, and examples from judicial practice as its methodology.

Keywords: succession, inheritance law, inheritance by law, order of inheritance, inheritance transmission.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUN BO'YICHA MEROS HUQUQINI TARTIBGA SOLISHNING XUSUSIYATLARI

Abduvaliyev Murodillo,

Huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi,
Farg'ona Davlat Universiteti
E-mail: m.abduvaliev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada quyidagi asosiy masalalar o'rganiladi. Meros huquqining nazariy asoslari va tushunchalari, O'zbekiston Respublikasida meros huquqini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili, sud amaliyoti misolida nizolarni hal qilish jarayonlari, huquqiy bazani yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar, metodologiya sifatida huquqiy tahlil, taqqosiy yondashuv va sud amaliyotidagi misollar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: vorislik, meros huquqi, qonun bo'yicha meros, meros bo'yicha navbat, meros transmissiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N62>

KIRISH

Meros huquqi – insonlarning hayotiy jarayonida ajralmas o'rin egallaydigan, mulkni avloddan-avlodga o'tkazish tartibini belgilovchi huquqiy institutdir. O'zbekiston Respublikasida meros huquqi fuqarolik huquqi doirasida tartibga solinib, uning asosiy hujjati – Fuqarolik kodeksi orqali belgilangan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarda meros nizolari, vasiyat masalalari va meros huquqining amaliy tatbiqi ko'plab huquqiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, fuqarolik munosabatlarining murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, meros huquqining amaliyotda turli nizolar va huquqiy tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, qonun bo'yicha meros olish tartibi, ya'ni vasiyatnomadan tashqari holatlarda

merosning kimlarga va qanday tartibda o'tishi, amaliyotda keng tarqalgan muammolardan biridir.

Shu boisdan, mazkur ishda O'zbekiston Respublikasida qonun bo'yicha meros huquqini tartibga solishning huquqiy asoslari, tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirish asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Ushbu maqolada quyidagi asosiy masalalar o'rganiladi:

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Meros huquqining nazariy asoslari va tushunchalari, O'zbekiston Respublikasida meros huquqini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili, Sud amaliyoti misolida nizolarni hal qilish jarayonlari, Huquqiy bazani yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar, Metodologiya sifatida huquqiy tahlil, taqqosiy yondashuv va sud amaliyotidagi misollar o'rganilgan. Manbalar sifatida Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, notariat to'g'risidagi qonunlar, ilmiy adabiyotlar va sud hujjatlari qabul qilingan.

Meros huquqi tarixiy jarayonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda shakllanib kelgan. Qadimgi davrlarda merosni tartibga soluvchi urf-odatlar huquqiy qoidalar sifatida aks etgan bo'lsa, hozirgi zamon qonunchiligi aniq normativ hujjatlarga asoslanadi.

Meros huquqi – bu fuqaroning vafotidan keyin uning mol-mulkini va ayrim shaxsiy huquqlarini vorislariga o'tkazish tartibini belgilovchi huquqiy normalar majmuasidir. Ushbu institut ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Qonun bo'yicha meros olish:

Meros qoldiruvchining vasiyat bo'lmagan hollarda, qonun tomonidan belgilangan merosxo'rlarga merosning bo'linishi;

Meros huquqining asosiy tamoyillari orasida adolat, tenglik, shaffoflik va huquqiy qat'iylik kiradi. Har bir merosxo'rning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, meros qoldiruvchining so'nggi irodasini hurmat qilish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasida meros huquqining huquqiy asoslari quyidagilardan iborat hisoblanadi[1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir fuqaroning mol-mulk huquqini kafolatlaydi. 53-moddada keltirilgan mulk huquqi, shu jumladan meros huquqi, davlat tomonidan himoya qilinishi belgilangan. Konstitutsiya asosida meros huquqi davlat siyosati va qonunchilik tizimining ajralmas qismi sifatida tan olinadi.

Fuqarolik kodeksi – meros huquqini tartibga soluvchi asosiy qonun bo'lib, unda merosning bo'linishi, merosxo'rlar navbatlari, huquqiy chegaralar va istisnalar aniq belgilangan. Kodeksda quyidagi asosiy jihatlar yoritiladi:

Merosning aniqlanishi va bo'linish tartibi,

Merosxo'rlarning huquqiy maqomi va meros olish shartlari,

Vasiyat hujjatining shakli, mazmuni va uni bekor qilish tartiblari

Qonun bo'yicha merosxo'rlar vorislikka ushbu Kodeksning 1135–1141-moddalarida nazarda tutilgan navbat tartibida chaqiriladilar.

Fuqarolik kodeksining 1134-moddasida qonun bo'yicha vorislik haqida umumiy qoidalar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bular quyidagilar:

Qonun bo'yicha merosxo'rlar vorislikka ushbu Kodeksning 1135–1141-moddalarida nazarda tutilgan navbat tartibida chaqiriladilar.

Qonun bo'yicha vorislikda farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari, bir tarafdin, farzandlikka oluvchi shaxs va uning qarindoshlari, ikkinchi tarafdin, tug'ishgan qarindoshlarga tenglashtiriladilar.

Farzandlikka olinganlar va ularning avlodlari farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi hamda buva-buvilari, aka-ukalari, opa-singillari vafot etganidan keyin qonun bo'yicha meros olmaydilar.

Farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi hamda buva-buvilari, aka-ukalari, opa-singillari farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari vafot etganidan keyin qonun bo'yicha meros olmaydilar.

Qonun bo'yicha vorislarning har bir navbati avvalgi navbatdagi merosxo'rlar bo'lmagan, merosdan chetlashtirilgan, merosni qabul qilmagan yoxud undan voz kechgan taqdirda vorislik huquqiga ega bo'ladi[2].

Taqdim qilish huquqi bo'yicha vorislik

Taqdim qilish huquqi bo'yicha vorislik, agar qonuniy merosxo'r meros ochilishidan oldin vafot etsa, uning ulushi uning avlodlariga o'tadi. Bu holda, ulush, taqdim etilayotgan qonun asosida, merosxo'r bilan teng darajada qarindosh bo'lgan avlodlar orasida teng taqsimlanadi.

Bola, nevara, chevara, evara merosxo'rlikda taqdim qilish huquqi qarindoshlik darajasiga cheklovsiz tatbiq etiladi. Yon qarindoshlik asosidagi merosxo'rlikda esa meros qoldiruvchining tug'ilgan aka-uka yoki opa-singillari nomidan ularning jiyanlari, shuningdek, meros qoldiruvchining tug'ilgan amakisi yoki ammasi nomidan ularning amakivachchalari va ammovachchalari taqdim qilish huquqiga ega bo'ladilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Merosni qabul qilib olish huquqining o'tishi (meros transmissiyasi)

Agar vasiyatnoma bo'yicha yoki qonun bo'yicha vorislikka chaqirilgan merosxo'r meros ochilganidan keyin uni qabul qilib olishga ulgurmasdan vafot etgan bo'lsa, unga tegishi kerak bo'lgan merosni qabul qilib olish huquqi uning qonun bo'yicha merosxo'rlariga, agar barcha meros mol-mulk vasiyat qilingan bo'lsa, uning vasiyat bo'yicha merosxo'rlariga o'tadi (meros transmissiyasi)[3]. Meros transmissiyasi tartibida merosni qabul qilib olish huquqi bunday merosxo'rning vafotidan keyin ochilgan meros tarkibiga kirmaydi.

Vafot etgan merosxo'rga tegishli merosni qabul qilib olish huquqi uning merosxo'rlari tomonidan umumiy asoslarda amalga oshirilishi mumkin.

Merosxo'rning ushbu Kodeksning 1142-moddasida nazarda tutilgan merosning bir qismini majburiy ulush sifatida qabul qilib olish huquqi uning merosxo'rlariga o'tmaydi.

Merosxo'rlik navbatlari

O'zbekiston Respublikasida qonun bo'yicha meros olish tartibi qat'iy navbatlarga asoslanadi:

Birinchi navbat: Marhumning turmush o'rtog'i, bolalari va ota-onasi. Ushbu navbatdagi vorislar birinchi darajali hisoblanadi va ular orasida meros teng ravishda bo'linadi.

Ikkinchi navbat: Marhumning aka-uka, opa-singillari, bobosi va buvisi. Agar birinchi navbat vakillari mavjud bo'lmasa, ikkinchi navbatdagi vorislarga murojaat qilinadi.

Uchinchi navbat: Marhumning keng qarindoshlari, masalan, tog'a, amma, xola va buva. Ushbu navbat faqat ilgari ko'rsatilgan navbatlar bo'sh bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

Meros qoldiruvchining oltinchi darajagacha (oltinchi daraja ham shunga kiradi) bo'lgan boshqa qarindoshlari qonun bo'yicha to'rtinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar, bunda yaqinroq qarindoshlar uzoqroq qarindoshlarga nisbatan meros olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladilar.

Meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari, agar ular ushbu Kodeksning 1141-moddasi asosida meros olmasalar, qonun bo'yicha beshinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar

Meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari

Meros qoldiruvchining vafotidan oldin kamida bir yil davomida uning qaramog'ida bo'lib, birga yashagan mehnatga layoqatsiz shaxslar qonun tomonidan merosxo'rlar qatoriga kiritiladi. Agar qonuniy merosxo'rlar mavjud bo'lsa, mehnatga qobiliyatsiz boqimdorlar vorislik navbatidagi boshqa merosxo'rlar bilan birga meros olish huquqiga ega bo'ladilar.

Ushbu Kodeksning 1136–1138-moddalarida ko'rsatilgan qonun bo'yicha merosxo'rlar jumlasiga mansub bo'lgan, biroq vorislikka chaqiriladigan navbatning merosxo'rlari doirasiga kirmaydigan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar, meros qoldiruvchi bilan birgalikda yashagan-yashamaganliklaridan qat'i nazar, agar meros qoldiruvchining vafotiga qadar kamida bir yil uning qaramog'ida turgan bo'lsalar, ana shu vorislikka chaqiriladigan navbatning merosxo'rlari bilan birgalikda meros oladilar.

Qonun bo'yicha boshqa merosxo'rlar bo'lgan taqdirda, ushbu modda asosida vorislikka chaqiriladigan shaxslarning hammasi birgalikda ko'pi bilan merosning to'rtidan bir qismini meros qilib oladilar.

Qonun bo'yicha meros olishda merosxo'rlar navbatga ko'ra aniqlanadi, ya'ni meros qoldiruvchining irodasi yo'q holatda, mulk avtomatik tarzda qonun tomonidan belgilangan tartibda bo'linadi. Vasiyat bo'yicha meros olish esa meros qoldiruvchining shaxsiy xohishiga ko'ra amalga oshiriladi[4]. Bu ikki tartib o'rtasidagi farq shundaki, vasiyat holatida merosxo'rlar o'zaro teng bo'linishi majburiy emas va mulk ajratilishi meros qoldiruvchining aniq ko'rsatmalariga asoslanadi.

Meros huquqi bo'yicha nizolar va ularning sud tartibida hal qilinishi

Meros nizolari ko'plab omillar natijasida yuzaga keladi:

- Vasiyat hujjatining noto'g'ri tuzilishi yoki ularning mavjudligi;
 - Merosxo'rlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar;
 - Mol-mulkning aniqlanishida yuzaga keladigan noaniqliklar;
 - Sud jarayonida huquqiy tafovutlar va hujjatlarni noto'g'ri talqin qilish;
 - Sud jarayonlari va hal etish mexanizmlari.
- Sud jarayonida meros nizolari ko'pincha quyidagi bosqichlardan o'tadi:
- Dastlabki hujjatlar va dalillarni yig'ish,
 - Merosxo'rlar va vasiyat qoldiruvchining niyatlarini aniqlash,
 - Huquqiy tahlil va sud ekspertizasini o'tkazish,
 - Yuridik ekspertlar va notariuslar fikrlarini inobatga olish,
 - Oxirgi qarorni chiqarish va nizoni hal etish.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida meros huquqi qonunchiligi yetarli darajada rivojlangan bo'lsada, ba'zi jihatlarida aniqlik va izchillik talab qilinadi. Ayniqsa, meros qoldiruvchining niyatini to'liq aks ettira oladigan hujjatlarning shakllantirilishi, navbatlarning aniq belgilanishi va nizolarni hal etish jarayonidagi sud tajribasi muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish orqali O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlar bilan boyitilishi mumkin. Masalan, elektron notariat tizimi va onlayn sud jarayonlari meros nizolarini tez va shaffof hal qilish imkonini beradi.

Meros huquqini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

Qonunchilikni yangilash: Fuqarolik kodeksi va notariat to'g'risidagi qonunlarni zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish

Elektron tizimlarni joriy etish: Meros hujjatlarining elektron shaklda tuzilishi va saqlanishi, sud jarayonlarida raqamli isbotlarni qo'llash.

Huquqiy seminarlar va o'quv dasturlari: Sud, notarius va yuristlar uchun maxsus seminarlar tashkil etish orqali amaliy tajribani oshirish.

Xalqaro hamkorlik: Xorijiy tajriba va innovatsiyalarni o'rganish hamda ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida meros huquqi qonun bo'yicha va vasiyat bo'yicha ikki asosiy tizim orqali tartibga solinadi. Qonun bo'yicha meros olishda merosxo'rlar qat'iy navbatlarga ko'ra aniqlanib, mulk teng taqsimlanadi, vasiyat esa meros qoldiruvchining shaxsiy xohishiga binoan amalga oshiriladi. Har ikkala tartib ham o'zining afzalliklari va cheklovlariga ega bo'lib, sud amaliyoti va normativ hujjatlarning doimiy takomillashtirilishi zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023 yil. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat, 2024.
3. Fuqarolik huquq II. Darslik. Toshkent- 2023. 800-b.
4. M.M.Abduvaliyev. Hozirgi davrda mehnat huquqining ijtimoiy funktsiyasi. (2024). *Yangi O'zbekiston Taraqqiyotida Tadqiqotlarni o'rni Va Rivojlanish Omillari*, 12(2), 46-48. <https://pedagoglar.org/04/article/view/5444>
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlar. T 2. / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Baktريا press, 2013, - 768 b

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

RIGHT TO IMAGE: COMPARATIVE ANALYZE OF UNITED KINGDOM AND NEW YORK LEGISLATION

Koryogdiev Bobur Umidjon ugli

Lecturer of the "Civil Law" department of
Tashkent State University of Law
E-mail: boburkoryogdiev@gmail.com

Abstract. The article provides a comparative analysis of the property and non-property aspects of the right to a person's image and the legal approaches in the jurisdictions of England and New York. Both legal systems have their own historical, constitutional and social foundations, and there are significant differences between their approach to images and case law. In particular, the elements of the "news exception" and the "public place" are distinguished by their own differences.

Keywords: right to image, privacy, right to publicity, public place, English law.

TASVIRGA BO'LGAN HUQUQ: ANGLIYA VA NYU-YORK QONUNCHILIGI QIYOSIY TAHLILI

Koryog'diyev Bobur Umidjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
"Fuqarolik huquqi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada shaxs tasviriga bo'lgan huquqning mulkiy va nomulkiy jihatlarini hamda Angliya va Nyu-York yurisdiksiyalaridagi huquqiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikkala huquq tizimi o'ziga xos tarixiy, konstitutsiyaviy va ijtimoiy asoslarga ega bo'lib, ularning tasvirga nisbatan yondashuvi va sud amaliyoti orasida muhim farqlar mavjud. Ayniqsa, "yangilik istisnosi" va "jamoat joyi" elementlari o'ziga xos tafovutlar bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: tasvirga bo'lgan huquq, shaxsiy hayot daxlsizligi (privacy), oshkoralikka bo'lgan huquq, jamoat joyi, ingliz huquqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N63>

Kirish. Axborot asrida tasvirga bo'lgan huquq inson shaxsiyati va iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi muhim vositaga aylandi. Bu huquq ikki asosiy qatlamga ega: shaxsiy nomulkiy huquq (qadr-qimmat, daxlsizlik) va mulkiy huquq (oshkoralik, tijoratlashtirish). Mazkur maqola Angliya va Nyu-York huquqiy tizimlarida tasvir huquqining qanday rivojlanganligini sud amaliyoti va qonunchilik asoslari orqali tahlil etiladi.

Tasvir vositalari yildan-yilga ularni ijtimoiy hamda madaniy ta'sirini yuqori baholovchi ko'plab mashhur sharhlovchilar, izlanuvchilarning e'tiborini jalb qilmoqda. Shu bilan birga tasvirga oid sudyalarning hamda huquqshunoslar muhokama qilishi kerak bo'lgan savollar ham ko'paydi. Tasvirga oid bir qator bir-biridan farqlanuvchi huquqlar mavjuddir. Ular qatorida suratkashning tushirgan tasviriga bo'lgan mualliflik huquqi hamda cheklangan tasvirni tarqatish bilan emas, balki tushirish bilan bog'liq bo'lgan huquqlar. Biz bular haqida

to'xtalmaymiz. Qolaversa tasvirga nisbatan mulkiy huquq hamda sof shaxsiy nomulkiy huquq ham bo'lib, ularni ham avvalboshdan farqlab ketishni joiz deb bildik. Mulkiy huquq sifatida tasvir egasi roziligi bilan begonalashtiriladi hamda baholash xususiyatiga ega mulkiy qiymatga ega bo'ladi. Shu sababli ham tasvirga ba'zi davlatlar qonunchiligida mulk maqomini beradi. Tasvir mulkiy huquq sifatida uning egasida iqtisodiy manfaatni aks ettiradi va u o'z tasvirini moddiy manfaat evaziga ekspluatatsiya qilish nazoratiga oid yo'llarni qidiradi. Bu ma'noda tasvir mulk sifatida rozilgisiz o'zlashtirishdan himoya qilinadi (unwanted appropriation). Ikkinchi ma'noda esa tasvir sof shaxsiy nomulkiy huquq sifatida tushunilib, shaxs qadr-qimmat (dignity) bilan bog'liq huquqlardan biri sifatida tushuniladi. Bu ma'noda tasvir uchinchi shaxsga begonalashtirilishi mumkin bo'lmaydi. Shaxs daxlsizligiga oid bu arxetipik manfaat, buzg'unchilikning oldini olish va suratga olingan subyektning daxlsiz shaxsiyati, his-tuyg'ulari va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liqdir.

Muhokama

1. Nyu-York qonunchiligi: konstitutsiyaviylik va tijoriylik orasidagi muvozanat

Nyu-Yorkda tasvir huquqi XIX asr oxirida shakllangan. 1903-yilda qabul qilingan Qonunning 50- va 51-moddalari shaxsning portretini yoki rasmini savdo va reklama maqsadida roziliksiz ishlatishni taqiqlaydi. Robertson ishi [1], Haelan Labs v Topps Gum [2], Stefano vs News Group kabilar orqali ushbu huquqning mulkiy yo'nalishi (right of publicity) aniq belgilab berilgan. Sudlar bu huquqni ko'proq tijorat ekspluatatsiyasiga qarshi qo'llaydi.

Nyu-York sudlari 50 va 51-moddalar ortidagi mantiq aslida roziliksiz shaxs tasvirini tijoratlash orqali yuzaga kelgan daxlsizlik bilan bog'liq ma'naviy zararni qoplash ekanligini, ya'ni ikkala normaning tub mohiyati shaxsiy nomulkiy huquqni himoya qilish ekanligini bir necha marotaba ta'kidlashgan. Ammo XX asrning ikkinchi yarmida Nyu-Yorkning bu boradagi qonunchiligi o'z qiyofasida tijoriy manfaatlar bilan bir qatorda shaxsiy manfaatlarni ham hisobga olgan holda rivojlandi. Evolyutsiya saqichli savdo kartalarida beysbol o'yinchilarining tasvirlaridan foydalanish bilan bog'liq "Haelan Labs vs Topps Gum" sud ishidan boshlandi. Ushbu sudi ishida sudya Frenk birinchi bo'lib mulkiy xarakterda bo'lgan "oshkoralik huquq"ini (right of publicity) tan oldi va Nyu-York qonunida ko'rsatilgan shaxsiy daxlsizlik huquqidan tashqari, undan mustaqil holda, "har kim o'z fotosuratining ommaga e'lon qilinishi uchun tovon talab qilish huquqiga egadir" deb da'vo qiladi. Bu yangi ishlab chiqilgan konsepsiya oshkoralik huquqi shaxsni bunday ekspluatatsiyadan himoya qilishdan ko'ra, o'z shaxsini tovarga aylantirish shartlarini nazorat qilish imkoniyatini berish bilan bog'liq edi. Buning ortidan nufuzli ilmiy ishlar qilinishi bilan bir qatorda, AQSh Oliy sudi yangi "oshkoralikka bo'lgan subyektiv huquqni" tan oldi. 1970-yillarda Nyu-Yorkda sud amaliyoti rivojlandi va "Keri Grant" va "Xovard Hughes" kabi da'vogarlar o'z qiyofasida tijorat manfaatlarini (mulkiy huquqlarini) himoya qilish uchun 50 va 51-moddalardan muvaffaqiyatli foydalangan holda da'voni o'z foydasiga qanoatlantira oldi. 1984-yilda ko'rilgan "Stefano vs News Group [3]" sud ishlari orqali esa tasvirga bo'lgan tijoriy huquq Qonunning 50-, 51-moddalari mazmunida to'liq aks etishi haqida Nyu-York apellyatsiya sudining qaroriga ega bo'lindi. Sudning ta'kidlashicha da'vogar endi ushbu moddalar bilan nafaqat shaxs hayot daxlsizligi huquqini, balki tasviridagi mulkiy huquq hisoblangan oshkoralik huquqining ham buzilishi uchun sudga murojaat qilish mumkinligini, sudlar esa moddalar mazmunini tijoriy huquqni himoya qilishga qaratilgan da'volarga nisbatan ham shaxsiy nomulkiy huquqlardagidek qo'llashi kerakligi haqida aytib o'tdi.

2. Ingliz huquqi: inson qadr-qimmatiga asoslangan yondashuv

Ingliz huquqida mustaqil shaxsiy daxlsizlik huquqi 1998-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari to’g’risida”gi qonun (HRA) orqali shakllangan. Ungacha mavjud bo’lgan da’volar “ishonchni suiiste’mol qilish” yoki “passing off” orqali olib borilgan. Campbell v MGN, Kaye v Robertson, Korolina ishi bu sohada huquqning kengayishiga sabab bo’lgan. Shaxs daxlsizligi jamiyatdagi har bir insonning ruhiy holati va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan.

Nyu-York qonunchiligidan farqli o’laroq, shaxs daxlsizligiga oid, jumladan tasvirga bo’lgan huquqni himoya qilishga oid ingliz doktrinasi shaxs tasvirini buzish uchun qat’iy maqsadlarda ishlatishni talab qilmaydi. Ushbu qonunchilik tasvirdan faqatgina tijorat va reklama maqsadida iznsiz foydalanishgina javobgarlik keltirib chiqarishi bilan shaxs huquqini chegaralab qo’ymaydi. Ularda ham reklama va tijorat maqsadida tasvirga bo’lgan huquqni buzish uchun javobgarlik choralari alohida mavjud va u bizning fikrimizcha Amerika qonunchiligidan ko’ra kuchliroq himoya vositasi sifatida ko’riladi. (masalan, false endorsement, unofficial merchandize, passing off kabi deliktlar). Ingliz konsepsiyasining mazmuni shundaki, tasvir huquqi faqatgina mulkiy maqsadlar uchun suiste’mol qilinmaydi, balki shaxsiy nomulkiy maqsadlarda ham buziladi. Amaliyotda ham asosan nizolar, mulkiy emas, balki sof qadr-qimmat bilan bog’liq bo’lgan shaxsiy nomulkiy ishlardir. Misol uchun, sobiq er yoki xotinidan o’ch olish uchun uning intim, nomaqbul suratlarini ommaga oshkora qilish (revenge porn), pul evaziga shaxs haqida ma’lumotlarni oshkor qilmaslik (blackmail), ishqiy munosabatlarni yaqinlarga yoki ommaga oshkor qilish, intim tasvirlar ham kirib ketadi (“kiss and tell”) kabi huquqbuzarliklar mulkiy huquqbuzarlikka qaraganda ko’proq uchraydi.

3. Yangilik istisnosi va so’z erkinligi

Nyu-York qonunchiligi shaxs tasviridan foydalanishda “yangilik” istisnosini qo’llaydi. Agar tasvir ommaviy manfaatlar uchun foydalanilsa, bu holat qonunbuzarlik hisoblanmaydi. Arrington, Finger, Lahiri kabi ishlar bu masalada sud yondashuvining kengligini ko’rsatadi. Biroq ingliz huquqida “jamoat manfaatlari” konsepsiyasi ancha torroq va ijtimoiy, siyosiy masalalargagina tegishlidir.

Ushbu mustasno holatning qo’llanishiga oid qo’llanma Lahiri v. Daily Mirror gazetasi o’rtasidagi sud ishida ishlab chiqilgan. Keysning asosiy mazmuni javobgar, gazeta muharriri “Arqonning hech qanday ta’sirsiz ko’tarilishini ko’rdim” degan maqoladan ilhomlanib, hindistonliklarning sehr-joduli harakatlari haqida maqola yozishi bilan bog’liqdir. Ushbu maqola hindu-mistikasi haqida bo’lib, da’vogarning tasviri ham maqolada aks ettirilgan edi. Da’vogar mashhur hindu musiqachisi qo’shiq instrumentlarini raqqosa ayol oldida chalayotganligini javobgar tasvirlagan edi va o’z maqolasiga uchinchi surat sifatida joylagan edi. Sudning qarori esa, bu holat qonunning 50-, 51-moddalari buzilishi emasligini, undagi huquqqa istisno ekanligini ta’kidladi. Sud ishining asosiy jihati “yangilik” maqsadi faqatgina qat’iy yangilik mazmunidagi axborotni emas, shuningdek sayohat hikoyalari, tarixiy shaxslar va voqealar haqidagi ertaklar, o’tmishdagi yangiliklarni takrorlash hamda ijtimoiy sharoitlarni o’rganishni o’z ichiga oladigan maqolalardagi tasvirlar ham shaxs daxlsizligiga oid huquqning buzilishini istisno eta olishini ta’kidlashi bo’ldi. Prezidentlikka da’vogarlik qilgan satirik komediyachi tomonidan “Prezident uchun” shiori ostida uning plakatlarni ishlab chiqargan kompaniyaga qarshi 51-modda asosida qo’zg’atilgan “Paulsen” ishida yana ham qo’shimcha ko’rsatmalar berildi. Nyu-York Oliy sudi sud jarayonida zararni qoplash mumkinligini ta’kidlab, 50- va 51-moddalar gazetalar, jurnallar, kitoblar, komikslar, radio va televideniye kabi

ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik manfaatlariga mos keladigan yangiliklar yoki ma'lumotlarning tarqalishini cheklash uchun mo'ljallanmaganligini aytib o'tdi. Konstitutsiyaning birinchi o'zgartirilishiga muvofiq, yangiliklar ahamiyati va jamoatchilik manfaatlarini ifodalovchi nutq "eng liberal va keng qamrovli shartlarda" aniqlanishi kerak, bu "har qanday faktik, ta'lim va tarixiy ma'lumotlar, hattoki ko'ngilochar va o'yin-kulgining qiziqarli bosqichlarini qamrab oladigan" umuminsoniy faoliyat haqida bo'lishi mumkinligini ta'kidladi.

Nyu-York sudlari jismoniy shaxslarning fotosuratlaridan foydalanishda qo'llaniladigan yangiliklarga oid istisnolarga ba'zi cheklovlar ham qo'ygan. Yangilik mazmunidagi istisno xayoliy o'ylab topilgan (fantastik janrdagi) maqolalarni tasvirlash uchun foydalanilgan fotosuratlarini qamrab olmaydi. Bunday maqolalardagi ruxsatsiz foydalanilgan tasvirlar javobgarlikka sabab bo'ladi. Bahsli fotosurat nashr etilgan voqeaga mutlaqo aloqador bo'lmagan hollarda ham mustasno qo'llanilmaydi. Fotosurat bilan axborot o'rtasida albatta, sababiy bog'lanish talab etiladi. Bu cheklov "Tompson v Close-Up" sud amaliyotida to'g'ri ta'kidlangan, u yerda sudlanuvchi "doping savdosi" to'g'risidagi maqolani dorilar bilan aloqasi bo'lmagan ayolning surati bilan chop etgan. Nyu-York Oliy sudi Lahiriya tayanib, fotosurat yangiliklar reportajiga aloqador emas va shuning uchun undan faqat savdo maqsadlarida foydalanilgan, deb hisobladi. Shunga qaramay, boshqa quyidagi ikkita sud holatidan ko'rinib turibdiki, fotosurat va maqola o'rtasidagi har qanday bog'liqlik faqat zaif bo'lishi kerak. Arrington va Nyu-York Tayms [4] gazetasida da'vogar sudlanuvchining "qora o'rta sinf" haqidagi maqolani tasvirlash uchun jurnalining old muqovasida o'z fotosuratidan ruxsatsiz foydalangani bilan bahslashdi. Arringtonning ta'kidlashicha, maqolada "qora o'rta sinf" ning materialistik va maqomga ega bo'lgan tasviri maqola bilan hech qanday aloqasi yo'q. Ammo Nyu-York Apellyatsiya sudi uning fotosurati maqola bilan haqiqiy aloqasi yo'qligi haqidagi dalilni rad etib, da'vogar shunchaki uning mazmuni bilan rozi bo'lmagan deb topdi (maqolada qora tanlilar haqida axborot bo'lgani uchun). Xuddi shunday, Finger v Omni sudida da'vogarlarining kofein yordamida urug'lantirish va "in vitro" urug'lantirish haqidagi jurnal maqolasini ko'rsatish uchun o'zlarining oilaviy fotosuratlaridan roziliksiz foydalanish bo'yicha 50- va 51-moddalari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Da'vogarlar ularning fotosurati va maqola o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'qligini ta'kidladilar, chunki ularning olti farzandi tabiiy ravishda tug'ilgan edi. Ammo Nyu-York Apellyatsiya sudi sudlanuvchining maqolasi va uning tug'ilish mavzusi o'rtasida "haqiqiy bog'liqlik" borligi haqida hal qiluv qarorini chiqardi [5].

Nyu-York qonuni singari Ingliz huquqi ham "jamoat manfaati" doktrinasini ishlab chiqqan. Biroq, jamoat manfaatlari doktrinasiga oid tegishli tushunchalar o'rtasidagi ikkita muhim farqni ta'kidlash kerak. Birinchidan, ingliz "jamoat manfaati" AQSH qonunchiligida belgilanganiga qaraganda ancha torroqdir, chunki u siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni o'z ichiga olishi bilan chegaralanadi. Ingliz sudlari jamoat manfaatlarining uchta toifasini ishlab chiqdilar: (1) nashr omma manfaatlari uchun ahamiyatli bo'lgan masalalar yuzasidan bo'lsa, masalan, siyosat yoki demokratiyaga oid masalalar; (2) nashr yolg'on yoki ikkiyuzlamachilikni oshkor qilish haqidagi axborotni ifodalasa; yoki (3) jinoiy va boshqa turdagi huquqbuzarliklarni fosh qiladigan mazmunda bo'lganda "jamoat manfaatlari" sifatida tasvirga bo'lgan huquq himoya qilinishiga mustasno holat hisoblanadi. Ko'rishimiz mumkinki, ingliz jamoat manfaatlari AQSHdagi kabi badiiy, san'atshunoslik kabi keng maqsadlardagi "yangilik ahamiyati" konsepsiyasidan nisbatan torroq. Ingliz huquqida ham badiiy san'atdagi

shaxs tasviri mustasno holat sifatida omma manfaati toifasiga kiritilishi mumkin, biroq oraliq balansni hisobga olish talabi bilan. Bundan ham muhimi, sud tomonidan “mashhurlarning g‘iybati”, “mish-mishlar” va hokazo sifatida rad etilgan jamoat arboblarning shaxsiy hayotiga oid iboralar konsepsiyaga kirmaydi, shunchaki “jamoatchilik uchun qiziqarli” deb hisoblanadi va shu sababli huquqlarni muvozanatlash bosqichida past vaznga ega bo‘ladi. Rejimlarning ikkinchi muhim farqi shundaki, ingliz huquqida jamoatchilik manfaati umumiy istisno yaratishdan ko‘ra muhim omil bo‘lib xizmat qiladi — bu sudlanuvchining 10-moddadagi o‘z ifodasini erkin bildirish da‘vosining og‘irligini 8-moddaning shaxsiy hayot daxlsizligi da‘vosiga nisbatan muvozanatlashganda belgilaydi.

Nyu-York qonunchiligining shaxs daxlsizligiga oid qoidalari kuchsizligining yana bir sababi sudlar tomonidan jabrlanuvchining da‘vo talabi tabiatiga uncha ham e‘tibor qaratmasliklaridir. Shaxsiy daxlsizlik masalalarini cheklash, birinchi navbatda, qonun loyihasini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, u huquqiy masalani oddiygina da‘vogarning “tasviri” taqiqlangan maqsadda ishlatilganmi, deb belgilaydi. Shuning uchun maxfiylik o‘lchovini yanada qat‘iy tekshirish shart emas. Bundan tashqari ingliz huquqi bilan orada yana bir qator farqlar mavjud, ularni quyida ko‘rib o‘tamiz.

4. Jamoat joyidagi suratlar: cheklov mavjudmi?

AQShda jamoat joylarida olingan suratlar odatda himoya qilinmaydi. Murray, DiCorcia va Onassis ishlari bunga misol. Ingliz sudlari esa, masalan, Campbell va Korolina ishlarida jamoat joyidagi tasvirlar ham shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini buzishi mumkinligini tan olgan.

AQSh qonunchiligi umumiy qoidaga ko‘ra shaxsning tasvirga bo‘lgan huquqini jamoat joylarida himoya qilmaydi. Ko‘chada, bayramlarda yoki shunga o‘xshash omma yig‘ilgan joyda tushirilgan tasvirlarga tasvirga bo‘lgan huquqni himoya qilishga imkon berilmaydi. Sudyalarning fikricha, shaxs omma orasiga chiqqandan so‘ng, u o‘z ixtiyori bilan o‘z ko‘rinishini namoyon qiladi va jamoat bilan uyg‘unlik kasb etadi. Shu sababli ham, sud amaliyotida tasvirga bo‘lgan huquqni himoya qilishda jamoat joylari bo‘lganligi uchun muvaffaqiyatsizlikka uchragan bir qator sud ishlari mavjud. Masalan, Nyu-York jurnali hamda da‘vogar Murray o‘rtasida sodir bo‘lgan sud ishida da‘vo rad etilgan. Javobgar da‘vogarning suratini Patrik kuni diniy bayrami o‘tkazilayotgan vaqtda, irlandcha kiyimida suratga olgan. Sudyalarning ta‘kidlashicha bu yerda tasvirga bo‘lgan huquqning buzilishi mavjud emas. Chunki, da‘vogar “o‘ziga jalb qiladigan noodatiy kiyim”ni kiyib olgan va ixtiyoriy jamoaviy diniy bayramda jamoaning bir qismi bo‘lib ishtirok etyapti. Garchi u alohida tasvirga olingan bo‘lsa ham, bayramni vizual ko‘rsatish uchun tushirilgan va hech qanday tasvirga oid huquqlarni buzmagani.

Yana bir qiziqarli, garchi muvaffaqiyatsiz bo‘lsa ham, sud ishlaridan biri Nussenzweig vs DiCorcia ishida Tayms maydonida sayr qilib suratga olingan da‘vogar tomonidan olib borilgan, keyinchalik tasvir galereyada namoyish etilgan. Pravoslav Hasidik yahudiy sifatida Erno Nussenzveyg o‘zining rasmidan bu tarzda foydalanishga chuqur diniy e‘tiroz bildirgan, chunki u o‘yilgan tasvirlarni taqiqlovchi diniy amrni buzgan. Qolaversa da‘vogarning fikricha tasvir albom holiga keltirilib 20,000-30.000 AQSH dolloriga sotilgani uchun, bu shaxsning roziligisiz uning ko‘rinishi tijorat maqsadida suratga olish hisoblanadi va Qonunning 50-, 51-moddalarini buzadi. Javobgar esa, bu badiiy san‘at ekanligi, va konstitutsiyada bunga yo‘l qo‘yilganligi, qolaversa tasvir albom sifatida sotilganidan 1 yil o‘tib da‘vo qilayotganligi, bunda da‘vo qilish muddati ham o‘tib ketganligi bilan e‘tiroz bildirdi. Sud da‘vogarning talabini rad etdi. Bu

haqiqatdan ham asosiy maqsad sifatida tijorat emas, balki badiiy san'at uchun tushirilganligi, qolaversa da'vo muddati ham o'tib ketganligi bilan hal qiluv qarorini asosladi.

Ingliz qonunchiligi bu borada yaxshiroq himoyaga ega bo'lgan huquq tizimlaridan biridir. Jamoat joyida ham o'z tasviriga bo'lgan huquqlarini muvaffaqiyatli himoya qila olgan ko'plab da'vogarlar mavjud. Bunday kuchli himoyaga sabab esa Yevropa Ittifoqining Inson huquqlari bo'yicha Konvensiyasining 8-moddasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Sudining chiqargan sud qarorlaridir. Cambell va MGN sud ishida ham da'vogarning ruxsatisiz uning suratlari giyohvand moddalarga bog'lanib qolishdan reabilitatsiya qilish markazidan chiqayotgan tasvirlari "Daily Mirror" jurnalida bosib chiqildi. Birinchi instansiya sudi MGN mas'uliyati cheklangan jamiyatni jarimaga tortdi. Appelyatsiya instansiyasi esa, bu so'z erkinligi ekanligini ta'kidlab, birinchi instansiya sudining qarorini bekor qildi. Biroq, Lordlar Palatasi (House of Lord) qaytib, Cambell foydasiga hal qiluv qarori chiqarib, jamoat joyida ham shaxsiy daxlsizlik holatlari bo'lishligini aytib o'tdi [6]. Bunday mashhur sud ishlaridan yana biri bu Monako qirolichasi Korolina ishidir. Unda ham garchi suratlar jamoat joyida olingan bo'lsa ham, da'vogar oxir-oqibat o'z foydasiga hal qiluv qarori chiqarishga erishadi.

Ko'rib turganimizdek, Ingliz qonunchiligi Yevropa Ittifoqidagi amaliyot ta'sirida jamoat joylarida ham agar shaxs holati u uchun shaxsiy daxlsizlik hisoblanisa va tasvir orqali ommaga yetkazilgan ma'lumotlarda maxfiylikning belgilari mavjud bo'lsa, da'vogarning tasviriga bo'lgan huquqi himoya qilinadi. Shu o'rinda aytish kerakki, bunday turdagi ishlarni ko'rish juda ham murakkab bo'lib, bunda bir necha bosqichli testlar amalga oshiriladi. Qonunchilikda ham qat'iy mezonlar va o'lchovlar hali to'liqligicha ishlab chiqilmagan.

5. Jamoat arboblari va tasvir huquqining chegarasi

AQShda jamoat arboblari uchun shaxsiy daxlsizlik cheklangan, ular faqat tijorat ekspluatatsiyasiga qarshi da'vo qilish huquqiga ega. Ingliz huquqida esa balans testlari orqali hatto mashhur shaxslarning ham daxlsizlik huquqi e'tirof etilishi mumkin.

Qo'shma Shtatlarda yuqorida ta'kidlaganimiz shaxs tasviri huquqining himoyasi yangilik fonidan chegaralanadi. Yangilik holatining bir qismi sifatida esa jamoat arboblari tasvirining himoyasi hisoblanadi. Ular oddiy odamlardan ko'ra cheklangan himoya huquqiga egalari. Sababi, bunday shaxslarning hayoti va yurish turishi haqidagi axborot, shu jumladan ularning suratlari omma manfaati yo'lida bilinishi kerak bo'lgan hamda yangiliklarda e'lon qilinadigan mavzulardan biri sifatida qaraladi. Shu sababdan ham bunday shaxslar o'z tasvirlarining himoyasini 50-, hamda 51-moddalar bilan faqat mulkiy huquq jihatidan himoyalaniishini kutishi, shaxsiy nomulkiy tomondan esa kutmasa ham bo'lishi haqida bir qancha sudyalarning fikrlari ham mavjud. Jamoat arbobi sifatida – mashhur, ko'pchilik taniydigan shaxslar – rasmiy arboblari, siyosatshunoslar, aktyorlar, qo'shiqchilar, sportchilar va boshqa ko'pchilik taniydigan kasb egalari ko'riladi. AQSHda birinchi bor jamoat arboblari atamasi sport sohasini tanqid qiluvchi jurnallardan birining bokschi suratini uning roziligisiz tushirishi bilan bog'liq *Oma vs. Hillman Periodicals* sud ishida ishlatilgan. Unda tasvirlangan shaxs jamoat arbobi bo'lganligi uchun, da'vogarning talablari rad etilgan. Bunday pretsedentlardan yana biri amerikalik aktrisa *Shirley Booth* bilan bog'liq sud ishidir. Ta'tillar bilan bog'liq maqolalarni e'lon qiluvchi *Holiday* nashriyoti xodimi *Yamaykaning "Round Hill"* nomli sayoxatgo'shasida da'vogarning tasvirini uning ruxsatisiz tushiradi va Amerika jurnallaridan biri bo'lgan *Ta'til (Holiday)* jurnalida e'lon qiladi. Oradan vaqt o'tib, xuddi shu tasvir mavjud bo'lgan maqolalarni reklama uchun foydalaniladigan *Nyu-Yorkliklar (New Yorker)* hamda *"Reklama Vaqti" (Advertisement Age)*

jurnallarida ham e'lon qiladi. Da'vogar esa Fuqarolik huquqlari qonunining 50- hamda 51- moddalari asosida javobgarni sudga beradi. Sudlashishning oxirgi natijasi javobgar foydasiga hal bo'ladi. Asos sifatida, garchi reklama maqsadidagi jurnalda tasvirlar e'lon qilingan bo'lsa ham, jamoat arbobining suratlari yangilik sifatida omma manfaati uchun e'lon qilinyapti. Haq evaziga xizmat ko'rsatiladigan turizm maskanlari haqida yangiliklarni esa, reklama maqsadidagi jurnallardan boshqa jurnallarda chiqarish kamdan-kam uchrashini ta'kidlashadi. Shu bilan birga sudyalardan biri jamoat arbobi sifatida Booth tasvirga bo'lgan huquqi himoyasida mulkiy jihatdan yondasha olishini, shaxsiy nomulkiy huquq sifatida esa himoya qilishi juda chegaralanganini ham ta'kidlagan.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, tasvirga bo'lgan huquq borasida Nyu-York qonunchiligi tijorat manfaatlariga, ingliz huquqi esa inson sha'niga asoslanadi. Har ikkala tizimda ham tasvir huquqi ancha murakkab va kontekstga bog'liq. Shunday ekan, ushbu huquqning rivoji shaxs daxlsizligi va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni qanday ta'minlashga bog'liq bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Robertson v Rochester Folding Box Co. (1902). <https://studicata.com/case-briefs/case/roberston-v-rochester-folding-box-co/> (murojaat etilgan sana: 01.06.2025).
2. Haelan Laboratories v Topps Chewing Gum (1953). <https://law.justia.com/cases/federal/appellate-courts/F2/202/866/216744/> (murojaat etilgan sana: 01.06.2025)
3. Stefano v News Group (1984). <https://law.justia.com/cases/new-york/court-of-appeals/1984/64-n-y-2d-174-485-n-y-s-2d-220-474-n-e-2d-580.html> (murojaat etilgan sana: 02.06.2025)
4. Arrington v. New York Times Co., 449 N.Y.S.2d 941 (1982). <https://www.quimbee.com/cases/arrington-v-new-york-times-co>.
5. Finger v. Omni Publications International, Ltd., 157 A.D.2d 956. <https://law.justia.com/cases/new-york/court-of-appeals/1990/77-n-y-2d-138-2.html> (murojaat etilgan sana: 30.05.2025)
6. Campbell v MGN Ltd [2004] UKHL 22. <https://www.5rb.com/Case/Campbell-V-Mgn-Ltd-Hl/> (murojaat etilgan sana: 02.06.2025)
7. Warren, S. & Brandeis, L., "The Right to Privacy", Harvard Law Review, 1890.
8. McCarthy, J. T. (2020). *The Rights of Publicity and Privacy* (2nd ed.). Thomson Reuters.
9. Nimmer, M. B. (1971). *The Right of Publicity*. Law and Contemporary Problems, 19(2), 203–223.
10. Whitman, J. Q. (2004). *The Two Western Cultures of Privacy: Dignity versus Liberty*. Yale Law Journal, 113(6), 1151–1221.
11. Fenwick, H., & Phillipson, G. (2006). *Media Freedom under the Human Rights Act*. Oxford University Press.
12. Moreham, N. A. (2005). *Privacy in the Common Law: A Doctrinal and Theoretical Analysis*. Law Quarterly Review, 121, 628–656.
13. Solove, D. J. (2008). *Understanding Privacy*. Harvard University Press.
14. European Court of Human Rights (ECHR). (2024). *Guide on Article 8 of the European Convention on Human Rights – Right to Respect for Private and Family Life*.

Received: 16 May 2025**Accepted:** 1 June 2025**Published:** 15 June 2025*Article / Original Paper***SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROCESS OF LEGAL INTERPRETATION****Ismaylov Rakhat Aminbaevich**Independent Researcher,
Berdakh Karakalpak State University

Abstract. This article is devoted to the scientific and theoretical analysis of the process of legal interpretation. It examines the essence, functions, principles, methods, and types of legal interpretation. The role of the subject in legal interpretation, the importance of interpretation acts, and their impact on law enforcement practice are studied. Within the framework of the article, various theories, approaches, and models of legal interpretation are analyzed. Proposals and recommendations are developed to improve the process of legal interpretation. The article can be useful for lawyers, researchers, teachers, and students.

Keywords: interpretation of law, application of law, legal norms, methods of interpretation.**HUQUQNI SHARHLASH JARAYONINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI****Ismaylov Raxat Aminbayevich**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: Ismaylov7676@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola huquqni sharhlash jarayonining ilmiy-nazariy tahliliga bag'ishlangan. Unda huquqni sharhlashning mohiyati, vazifalari, prinsiplari, usullari va turlari ko'rib chiqiladi. Huquqni sharhlashda subyektning roli, sharhlash aktlarining ahamiyati va huquqni qo'llash amaliyotiga ta'siri o'rganiladi. Maqola doirasida huquqni sharhlashning turli nazariyalari, yondashuvlari va modellari tahlil qilinadi. Huquqni sharhlash jarayonini takomillashtirishga oid takliflar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqola huquqshunoslar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar va talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: huquqni sharhlash, huquqni qo'llash, huquqiy normalar, sharhlash usullari.DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N64>

Yuridik fanda va amaliyotda huquqni sharhlash va qonunni sharhlash terminlari bir xilda foydalaniladi. Bir tomondan, huquqni sharhlash deganda normativ-huquqiy hujjatlardagi termin va iboralarning mazmuni va mohiyatini aniqlashga yo'naltirilgan aniq aqliy jarayon tushuniladi. Boshqa tomondan, huquq normalarini sharhlash (qonun normalarini sharhlash) deganda huquq normalarini ifodalovchi til qoidalarining jamlanmasida ifodalanadigan aqliy faoliyat natijasi sifatida tushuniladi.

A.Melexinning fikricha huquq normalarini sharhlash o'zida huquq normalarini to'g'ri qo'llash maqsadida huquq normalarining mazmunini tushunish va tushuntirib berishga yo'naltirilgan aqliy-irodaviy xarakterdagi murakkab hodisani ifodalaydi. Sharhlash yuridik faoliyatda muhim va kerakli element hisoblanadi[1]. M.Toperning fikricha sharhlash ma'nosi

anglashni bildiradi, sharhlash zarurati esa ma'no anglashmaganida vujudga keladi, jumladan ma'no-mazmun inkor etilganda sharhlash zarurati tug'iladi[2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, huquqni sharhlash qonunchilik normalarini sharhlash masalasi quyidagi uchta muhim masalani o'z ichiga oladi:

tatbiq etiladigan huquqiy normalarni sharhlovchi subyektlarni aniqlash (bular: davlat organlari – davlat hokimiyatining oliy va mahalliy vakillik organlari; ijro etuvchi organlar – Prezident, Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlari, turli vazirliklar va davlat qo'mitalari; huquqni muhofaza qiluvchi organlar – sud, prokuratura, adliya, ichki ishlar idoralari va boshqalar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar).

tatbiq qilinadigan huquqiy normalarning mazmunini aniqlash uchun mantiqiy, grammatik, tarixiy va sistematik usullar qo'llaniladi;

tatbiq etilayotgan normalarning hajmi bo'yicha va yuridik kuchiga qarab sharhlash[3].

Akademik V.Nersesyanes va I.Xabibulinalarning huquqni sharhlashni huquqiy qoidaning umumiyligi, qo'llanilayotgan vaziyatning esa xususiyligi xarakteridan kelib chiqib tushuntiradi. Uning fikricha huquq normasining umumiy mazmuni muayyan hayotiy vaziyatga nisbatan, aniq holatlar va asoslar bo'yicha muayyan sharhlarning o'zaro munosabatlari negizida, aniq joy va vaqtda tegishli ko'rinish oladi. Xuddi shuning uchun huquq normasi huquqni qo'llovchi tomonidan sharhlanishga muhtojdir. Huquq normasining umumiy mazmunini uni tatbiq etish jarayonida tartibga soluvchi-huquqiy ma'nosini tushunish va tushuntirish huquqni sharhlash hisoblanadi[4].

Huquqni qo'llovchi subyektlar huquq normalarini tanlar ekanlar, huquq normasining mazmun-mohiyatini aniqlab olishlari zarur bo'ladi. Bunda huquqni qo'llovchi turli davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlashlari qo'l keladi. Mavjud huquqiy normalarning mazmun-mohiyatini tushunib olish va tushuntirib berish "qisqacha", "huquqni sharhlash" tushunchasida ifodalanadi[5]. Professor U.Tojixonov va A.Saidovlar "sharhlash orqali huquqning ma'nosi aniqlab beriladi, huquqning ma'nosi tushuntirib beriladi va nihoyat sharhlash vositasida huquqning ma'nosi aniqlanib, ham tushuntirib beriladi"[6] deb ta'kidlaydilar.

Sharhlashning maqsadi qonun chiqaruvchi organning huquq normasida mujassamlashgan ifodasini ushbu norma bilan bog'liq deb hisoblangan tasavvur va tushunchalarni ifodalashdan iborat. Sharhlashning asosiy vazifasi qonun chiqaruvchi idora qonun hujjatida bayon etgan qoidaning mazmunini ochib berishdir[7]. G.Tastanbekovanning fikricha huquq normalarini sharhlash – bu huquq ijodkorlarining huquq normasida mujassam etgan, tartibga soluvchi umumiy irodasining mazmunini anglash va uni tushuntirib berishga yo'naltirilgan ko'p qirrali, murakkab va taomiliy jarayondir[8].

Ba'zi olimlar sharhni huquqiy normaning ma'nosini tushunish deb ta'riflaydilar (A.P.Denisov, S.I.Vilnyanskiy, B.V.Shchetinin), boshqalari esa huquqiy normaning mazmunini tushuntirish deb hisoblaydilar (S.A.Golunskiy, M.S.Strogovich, Y.G.Tkachenko), yana bir boshqa yo'nalish olimlari sharhlash huquqiy normalarning ma'nosini tushunish va tushuntirish jarayonidir, deb hisoblashadi. (N.G. Aleksandrov, P.E. Nedbaylo, A.S. Pigolkin va boshqalar)[9]

Huquqni sharhlash tushunchasini tushunish va tushuntirishga ajratuvchi olimlar, shuni nazarda tutadiki, barcha normativ-huquqiy hujjatlar tushunish uchun sharhlanishi mumkin,

biroq tushuntirish maqsadida sharhlash uchun tegishli normativ-huquqiy hujjat bo'yicha amaliyotda nomuvofiqliklar yoki tushunmovchiliklar kelib chiqishi talab etiladi[10].

Bizning fikrimizcha, uchinchi nuqtai nazar afzal ko'rinadi, chunki birinchi va ikkinchi hollarda sharhlashni faqat huquqiy normalarni tushunish yoki tushuntirish bilan tugamaydigan murakkab jarayon sifatida tushunishga aniq, bir tomonlama yondashuv mavjud. Huquqni hayotga tatbiq etish jarayonida ko'pincha huquq normalarining ma'nosini aniqlabgina qolmay, balki bu ma'noni boshqa shaxslarga tushuntirish ham kerak bo'ladi. Huquqiy normaning mazmuni va mohiyatini tushuntirish uchun, avvalo, uni tushunish kerakligi mantiqiy holat hisoblanadi. Shunday qilib, sharhlash ikki qismni o'z ichiga oladi: huquqiy normaning ma'nosini tushunish va uning mazmunini tushuntirish.

Tushunish shaklidagi sharhlash – sharhlovchi subyekt ongida sodir bo'ladigan ichki fikrlash jarayonidir, ya'ni sharhlovchi subyekt birinchi navbatda huquqiy normaning mazmunini shaxsan o'zi uchun aniqlab oladi.

Tushunish – bu normativ-huquqiy hujjatlardagi atamalar va iboralarning ma'nosini aniqlash orqali huquqiy normalarning mazmunini belgilashga qaratilgan ichki fikrlash jarayoni. Bu fikrlash jarayoni sharhlovchining ongidan tashqariga chiqmaydi, u hech qanday tashqi ifodani olmaydi va hech qanday hujjatda mustahkamlanmaydi. Bu jarayon rasmiy-huquqiy protsessual harakat emas. Bunday sharhlashni nafaqat mansabdor shaxs, balki oddiy fuqaro ham berishi mumkin. Bu boshqalar uchun majburiy emas. Tushunish ijodiy xarakterga ega bo'lib, sharhni amalga oshiruvchi subyektlarning huquqiy ongi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi.

Sharhlashning ikkinchi tomoni – bu huquq normalarining mazmunini tushuntirish bo'lib, u bilan nafaqat fikrlash jarayoni amalga oshiriladi, balki maxsus huquqiy hujjatlarda tashqi ifodasini topadigan haqiqiy huquqiy harakat ham amalga oshiriladi. Uning maqsadi qonun ustuvorligining ma'nosini ochib berish va sharhlangan normaning u mo'ljallangan barcha holatlarda to'g'ri, bir xilda amalga oshirilishini ta'minlash, uni qo'llashdagi noaniqliklar va mumkin bo'lgan xatolarni bartaraf etishdan iborat.

Tushuntirish shaklidagi sharhlash oldingi bosqichdagi aqliy faoliyatning davomi bo'lib, lekin faoliyatning bu tomoni boshqa subyektlarga qaratilgan bo'ladi, sharhlovchi subyekt huquqiy tartibga solishning mazmuni va mohiyatini barcha manfaatdor shaxslarga tushuntiradi[11].

Shunday qilib, yuridik faoliyatning alohida turi sifatida sharhlash ikki bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Huquqiy normaning ma'nosini tushunish (o'zi uchun);
2. Huquqiy normaning mazmunini tushuntirish (boshqalar uchun).

Sharhlash subyekti avvalo o'zi uchun huquqiy normaning mazmuni va ma'nosini tushunadi, qanday harakat qilishini hal qiladi, so'ngra bir xil tushuncha va qo'llashni o'rnatish uchun barcha manfaatdor shaxslarga huquqiy ko'rsatmaning mazmuni va mohiyatini tushuntiradi. Asosiysi, huquqni sharhlashning birinchi turi tushunish, ikkinchisi esa tushuntirish ko'rinishidagi qo'llashdir.

Ko'rish mumkinki, tushunish va tushuntirish bir sharh jarayonining dialektik jihatdan o'zaro bog'langan ikki tomonini ifodalaydi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tushuntirish har doim ham tushunishdan keyingi bosqich bo'lavermaydi. Tushuntirishda aniqlashtirish natijalari obyektivlashtiriladi. Bunday obyektivlashtirish yozma shaklda qonunni sharhlash

hujjatida (masalan, muayyan ish bo'yicha sud qarorida) yoki og'zaki shaklda (tavsiya, maslahat,) o'z ifodasini topadi.

Beccaria, shuningdek, "qonun ruhiga murojaat qilish kerakligi aksiomasidan ko'ra xavfliroq narsa yo'qligini ta'kidladi. Ushbu aksiomani qabul qilish barcha to'g'onlarni yorib o'tish va qonunni fikrlar oqimiga duchor qilishdir.

Volter 1778-yilda ham mazkur mavzuda shunday yozgan edi: "Qonunlar ularni yaratgan xalqning zaifligidan dalolat beradi. Ular oxirgisi kabi o'zgaruvchan. Buyuk davlatlarning ba'zi qonunlari kuchsizlarni buzish uchun kuchlilar tomonidan buyuriladi. Ular shu qadar noaniq ediki, minglab sharhchilar ularga izoh berishga harakat qilishdi; va sharhchilarning ko'pchiligi shu yo'l bilan pul topish uchun o'z hunarlarini yaltiratib qo'yganliklari sababli, ular o'z sharhlarini qonun matnidan ham noaniqroq qilib qo'yanlar.

Napoleon I o'zining Fuqarolik kodeksiga sharh e'lon qilinganini bilib, "Mening kodeksim yo'qoldi" deb qayg'u bilan xitob qilgani bunga dalolat beradi. XVIII asrda Prussiya, Avstriya va boshqa mamlakatlarda qonunlarni har qanday talqin qilishni taqiqlovchi maxsus hujjatlar ham qabul qilingan[12].

Huquq normalarini tushunish va tushuntirish jarayoni sharhlash deb ataladi.

"Huquq normalarini sharhlash – bu davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari, ayrim fuqarolar, amaliyotchilar yoki olimlarning huquqiy normalarning mazmunini oydinlashtirishga va ularda ifodalangan qonun chiqaruvchining irodasini ochib berishga qaratilgan faoliyatidir".

Keng ma'noda izohlash jarayoni deganda normativ-huquqiy hujjatlar normalarining mohiyati va mazmunini aniqlash, shuningdek, ularning ma'nosini fuqarolarga tushuntirish uchun foydalaniladigan uslublar va usullar majmui tushunilishi kerak[13].

Sharhlash obyekti normativ-huquqiy hujjatlar va ularning yig'indisidir. Sharhlash predmeti esa qonun chiqaruvchining qonunda normativ-huquqiy hujjatda ifodalangan tarixiy irodasi hisoblanadi. Yangi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda huquq normalarini sharhlamasdan mumkin emas, chunki qonunchilik tizimiga kirib kelgan qoidalarining aksariyati u yoki bu tarzda allaqachon mavjud bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'liq.

Har qanday huquq subyektlari – sud, huquqni muhofaza qiluvchi yoki huquqni qo'llovchi organlar yoxud fuqarolar bo'lib ular tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlar amalga oshirilganda, bitimlar va shartnomalar tuzilganda huquqning sharhlanishi muqarrar hisoblanadi.

Sharhning vazifasi va maqsadi huquqni to'g'ri, aniq va bir ma'noda tushunish va qo'llashdir. Huquqni sharhlovchi mavjud huquqiy normalarga o'zgartirishlar kiritmaydi va kiritishi mumkin ham emas. Huquqni sharhlovchi amaldagi qoidalarini tahlil qilishi, o'rganishi va yoritib berishi kerak, bu ko'p jihatdan sharhlovchi shaxslarning huquqiy ongi darajasiga, kasbiy tayyorgarligi, malakasi, bilimiga bog'liq. Xuddi shu huquq kimning aniq sharhlayotganiga, qanday maqsadlarda sharhlashiga qarab turlicha sharhlanishi mumkin.

Bundan tashqari, sharhlovchi subyektlarning bilim darajasi, kasbiy mahorati, huquqiy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, sharhlanayotgan normalarning o'ziga xos xususiyatlari kabi omillar nazariy va amaliy xarakterdagi turli muammolarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Birinchidan, sharhlash xatolari haqida tasavvurga ega bo'lgan qonun chiqaruvchi, ikkinchi holda, sharhlash jarayonida yuzaga keladigan muammolar haqida bilishi kerak; Shunday ekan, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishda qonun ijodkorligi

jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolar muqarrar ravishda huquqni qo'llash, jumladan, talqin qilish sharhlash jarayonida xatolarga olib keladi". Sharhlash jarayonining murakkabligi shundan kelib chiqadiki, aslida sharhlovchi huquqiy normaning ma'nosini tahlil qilar ekan, aqliy faoliyat orqali qonun chiqaruvchining qonun ijodkorligi jarayonining o'zida mujassamlangan haqiqiy irodasini qayta yoritishi kerak.

Sharhlash xatosi deganda sharhlash qoidalaridan qisman yoki to'liq chetga chiqish, yakuniy natijaga ta'sir ko'rsatuvchi va huquqiy normaning asl ma'nosiga, unga kiritilgan qonun chiqaruvchining irodasiga to'g'ri kelmaydigan deb tushunish taklif etiladi.

Huquqni sharhlash borasida uchraydigan muammolardan biri tushuncha va atamalar bilan bog'liq. Jumladan, norma ijodkorligi va yuridik amaliyotda "sharhlash" bilan birga "izohlash" tushunchasi ham mavjud. Sharhlash kengroq jarayon bo'lib, uning subyektlari turli shaxslar bo'lishi mumkin. Jumladan, Y.Terexovning fikriga ko'ra: "huquqni sharhlash – huquqiy normalarning haqiqiy ma'nosini tushunish va tushuntirish orqali aniqlashga qaratilgan intellektual va irodaviy faoliyatdir"[14].

Milliy olimlarimizdan professor Sh.Saydullayev sharhlash borasida qilinishi kerak bo'lgan quyidagi ishlarni sanab o'tadi: "Normativ-huquqiy hujjatlarga rasmiy sharh berish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish; shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqishga va qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar berishga qaratilgan qarorlarining huquqiy maqomini belgilash[15].

Shunday qilib, sharhlovchi normaning ma'nosi unga tushunarli ekanligiga ishonch hosil qilgan taqdirdagina, huquqiy normalarni sharhlash natijasini, shu jumladan, normaning muayyan holatda qo'llanilishi masalasini muhokama qilish mumkin[16].

Yana bir muammoli masala huquqni sharhlash sohasida qo'llaniladigan atamalar hisoblanadi. Xususan, yuridik fan va amaliyotda sharhlash, talqin qilish, izohlash kabi terminlardan foydalaniladi. Bu masalaga ayrim olimlar ham diqqat-e'tiborini qaratadi: "Ijtimoiy fanlarda "sharhlash" atamasi "talqin qilish", "izohlash", "tushuntirish" kabi so'zlarning sinonimi tarzida qo'llaniladi"[17].

Muammoning dolzarbligi shundaki, ushbu tushunchalar turli normativ-huquqiy hujjatlarda bir xil ma'noda keladi. Xususan, ayni bir ma'noda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "sharh" va "talqin qilish"[18] "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida ham "sharh" ham "talqin qilish" tushunchalari qo'llaniladi[19]. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida "talqin qilish" tushunchasini ko'rish mumkin[20].

"Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish" qoidalarida esa "sharh" va "izohlash" tushunchalaridan foydalaniladi[21]. "Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish, huquqiy ekspertizadan o'tkazish" qoidalarida "sharh" ham "talqin qilish" tushunchalari keladi[22].

"Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida uslubiy ko'rsatmalar"da "sharh", "talqin qilish" va "izohlash" tushunchalarining har uchasi ayni bir xil ma'noda kelganligini ko'rish mumkin[23].

Ushbu maqolaning asosiy qismida olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Qonun matnining o'zi muayyan darajada umumiylikka ega bo'lishi tabiiy, chunki umumiy qoidalar alohida holatlarga moslashtirilishi kerak. Bu esa huquqni sharhlash ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shuning uchun, turlicha talqin qilishning imkoniyatini to'liq yo'qotishga urinish qonunni murakkablashtirishi va uning hayotga tatbiq etilishini qiyinlashtirishi mumkin.
2. Huquqni sharhlash tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Huquqni sharhlash normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa huquq manbalarida aks etgan huquq ijodkorining irodasini to'g'ri tushunish va tushuntirishga qaratilgan jarayon"
3. Huquqni sharhlash predmeti sifatida nafaqat qonun matnini, balki qonun ruhini (qonun qabul qiluvchi subyektning irodasi) ham belgilash maqsadga muvofiq. Bunda qonun bilan birga, o'sha qonunga tegishli axborot-tahliliy materiallar ham e'lon qilib borilishi kerak.
4. Barcha qonunchilik hujjatlarida huquqni tushunish va tushuntirish ma'nosida "sharhlash" terminidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Мелехин А.В. Теория государства и права: учебник. – М.: Маркет ДС корпорейшн, 2007.-С.381.
2. Мишель Т.Проблема толкования и теория верховенства Конституции//Сравнительное конституционное обозрение.М.,2005,№4-171.
3. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Олий ўқув юртларининг ҳуқуқшунослик мутахассислиги бўйича таълим олаётган талабалари учун \Бобоев Ҳ.Б., Исломов З.М., Чориёров У.; //Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Б.Бобоев, Ҳ.Т.Одилқориев.-Т.: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси" нашриёт уйи, 2000. -Б.307.
4. Нерсесянец В.С. Общая теория права и государства. Учебник.-М.:НОРМА-ИНФРА. М, 1999.-С.493; Хабибуллина И.И, Политико-правовые проблемы систематическая анализа языка закона. Автореферат. Дисс....док.юр.науки.Санкт-Петербург.2001-С.12
5. Теория права и государства./Под ред. проф. В.В.Лазарева.-М.: Право и закон.-С.202
6. Саидов А., Тожихонов У. Ҳуқуқ назарияси.-Т: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси.2001.-Б.220.
7. Давлат ва ҳуқуқ назарияси.-Т., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009,- Б.426.
8. Тастанбекова Г.С. Ҳуқуқни шарҳлаш муаммолари.Дисс....юр.фан.ном-Т, 2012.-Б.24-25.
9. Радько Т.Н. Теория государства и права. – М.: Юнити, 2004. – С. 396
10. Федоров Г. Толкование норм права // Закон и жизнь. 2012. №6. С. 5
11. Neil MacCormick. Rhetoric and The Rule of Law: A Theory of Legal Reasoning. <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199571246.001.0001>
12. Беляева О.М. Толкование норм права // Ученые записки казанского государственного университета. 2007. № 149. С. 44
13. Овчинникова О.Д., Шаганян А.М. Некоторые проблемы интерпретации норм права // Юристъ-Правоведъ, 2017, № 4 (83) – С. 22
14. Терехов Е.М. Сравнительно-правовой анализ понятий правоинтерпретационная деятельность и толкование права // Правовая парадигма. 2019. Т. 18. № 1. С. 90
15. айдуллаев Ш.А. Интерпретация правовых норм – важный этап правоприменительного процесса // журнал юридических исследований. Том 4 № 2 , 2019. С. 18

16. Сергеев Д.В. О понятии толкования норм права и его результатов в отечественной доктрине // Право и государство: теория и практика. 2020. № 1(181) С. 254
17. Tastanbekova G. Huquqni sharhlash asoslarida ba'zi kategoriyalarning mohiyati va mazmuni // Tafakkur manzili. 2022. №11. B. 407
18. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – B. 11
19. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son; 04.08.2022-y., 03/22/787/0708-son, 27.10.2022-y., 03/22/796/0966-son; 09.08.2023-y., 03/23/860/0571-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 19.02.2024-y., 03/24/909/0133-son; 05.09.2024-y., 03/24/954/0682-son; 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son; 19.10.2024-y., 03/24/977/0831-son
20. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018-y., 03/18/457/0525-son; 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
21. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2565-son buyrug'i // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 10-son, 110-modda, 21-son, 253-modda, 52(I)-son, 654-modda; 2016-y., 19-son, 221-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2018-y., 10/18/2565-5/0565-son; 06.07.2018-y., 10/18/2565-6/1469-son; 20.02.2019-y., 10/19/2565-7/2653-son, 20.04.2019-y., 10/19/2565-8/2976-son; 29.04.2020-y., 10/20/2565-9/0539-son, 29.06.2020-y., 10/20/2565-10/1010-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2021-y., 10/21/2565-11/0594-son; 28.06.2022-y., 10/22/2565-12/0580-son; 27.12.2024-y., 10/24/2565-13/1075-son
22. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 3333-son buyrug'i // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son
23. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2352-son buyrug'i // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 15-son, 173-modda; 2014-y., 14-son, 158-modda, 27-son, 332-modda, 52(I)-son, 653-modda; 2016-y., 8-son, 81-modda, 17-son, 185-modda; 2017-y., 2-son, 35-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.12.2019-y., 10/19/2352-7/4119-son; 27.05.2020-y., 10/20/2352-8/0674-son, 18.09.2020-y., 10/20/2352-9/1304-son; 13.02.2024-y., 10/24/3496/0121-son

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

LEGAL FOUNDATIONS OF THE ACTIVITIES OF NATIONAL HUMAN RIGHTS INSTITUTIONS

Nabiev Mukhriddin,

Teacher of the Department of Law education,
Fergana State University

Abstract. This article analyzes the legal basis of the activities of national human rights institutions. It examines the significance of national legislation, laws on national human rights institutions, the constitution, and other normative legal acts. The main principles of the activities of national human rights institutions are highlighted. The article assesses the role and importance of these institutions in protecting human rights. It also explains the essence of the concept of the right to liberty and security of person, national mechanisms for the protection of human rights, and their legal basis.

Keywords: human rights. national institutions, freedom, personal immunity, state, national system, human rights.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA MILLIY INSTITUTLAR FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

Nabiyev Muhridin,

Huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi,
Farg'ona Davlat Universiteti
E-mail: m.nabiev@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qiladi. Maqolada milliy qonunchilik, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar to'g'risidagi qonunlar, konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy aktlarning ahamiyati tahlil etiladi. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining asosiy tamoyillari yoritiladi. Maqolada inson huquqlarini himoya qilishda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar ning roli va ahamiyati baholanadi. Ushbu maqolada insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi tushunchasining mohiyati, inson huquqlari himoyasining milliy mexanizmlari, huquqiy asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari. milliy institutlar, erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, davlat, milliy tizim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N65>

Kirish. Huquqiy davlatchilik yo'lida O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati suverenitetini mustahkamlash va huquq ustunligini tasdiqlanishi huquqiy davlatchilikning chambarchas o'zaro aloqadorligini ifodalaydi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining huquqiy asoslari turli normativ hujjatlar va qonunchilikka asoslanadi. Bu institutlar asosan inson huquqlarini himoya qilish, ularga rioya etilishini ta'minlash va bu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish bilan shug'ullanadi[1]. O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi milliy institutlari ham hududdagi huquqiy va ijtimoiy tizimni mustahkamlashga qaratilgan faoliyatni olib boradilar. Inson

huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari va vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inson huquqlari ta'minotining milliy mexanizmi quyidagi turlardan iborat:

- iqtisodiy kafolatlar;
- ijtimoiy kafolatlar;
- mafkuraviy kafolatlar;
- siyosiy kafolatlar;
- huquqiy kafolatlar;
- moddiy kafolatlar.

Huquqiy kafolatlar — fuqarolarga berilgan huquq va erkinliklarining amalga oshirishning huquqiy chora-tadbirlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasida "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi.

Davlat inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi" deb belgilanishi nafaqat ushbu institutlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, balki ushbu institutlarning rolini keskin oshirishga sabab bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha milliy markazlarga quyidagilar kiradi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman);
- 2) Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil;
- 4) Bola huquqlari bo'yicha vakil kabi institutlar kiradi.

Ushbu institutlarning asosiy faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida ularning huquqlarini himoya qilish va tiklash maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan munosabatga kirishadi. Bundan ko'zlangan maqsad, agar jismoniy va yuridik shaxslar ommaviy hokimiyat boshqaruv organlari qarorlari va xatti-harakatlaridan norozi bo'lsa va boshqa barcha instansiyalardan huquqiy yordam olib bo'lingan bo'lsa, unda ushbu milliy institutlardan huquqiy qo'llab quvvatlash olishlari mumkin[2].

2024-yil 25-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo'lib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) hamda mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

1996-yil 31-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etildi.

Markazning asosiy maqsadi — huquq va erkinliklarni himoya qilish ko'p tarmoqli tizimini kompleks tartibida birinchi darajali masalalarni hal etish – inson huquqlari sohasida Milliy dastur ishlab chiqish va tatbiq etish hisoblanadi.

Shuningdek, 2018-yil 10-dekabrda “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston respublikasi milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorga asosan quyidagilar markazning asosiy vazifasi etib belgilangan.

-inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, ushbu sohadagi O'zbekiston Respublikasi xalqaro majburiyatlarining bajarilishi bo'yicha davlat organlari faoliyatiga ko'maklashish;

-inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish holatini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarning tavsiyalari bajarilishini monitoring qilish;

-O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish bo'yicha milliy ma'ruzalar tayyorlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarning tavsiyalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakat rejalarini (“yo'l xaritalari”ni) ishlab chiqish;

-normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha takliflar tayyorlash;

-inson huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlarga maslahat berish funksiyasini amalga oshirish va ularga amaliy ko'maklashish;

inson huquqlari sohasida aholining huquqiy savodxonligini oshirishga ko'maklashish, inson huquqlariga rioya qilish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, nashrlik faoliyatini amalga oshirish;

inson huquqlari sohasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda tuzilmalar, xorijiy mamlakatlar milliy institutlari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

-inson huquqlari sohasida ilmiy-huquqiy bazani tizimlashtirish, o'quv, ilmiy-uslubiy va ommabop nashrlar hamda xalqaro shartnomalarning davlat tilidagi to'plamlari doimiy chop etilishini ta'minlash[3];

-inson huquqlarini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning xronologiyasini yuritish, fuqarolar va ilmiy tadqiqotchilarga inson huquqlari bo'yicha tizimlashgan ilmiy-huquqiy manbalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratish.

Natijalar va muhokama. 2017-yil 29-avgustda “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida”gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil mansabdor shaxs bo'lib, u tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini, mazkur huquqlar va qonuniy manfaatlarga davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar (bundan buyon matnda davlat organlari deb yuritiladi) tomonidan rioya etilishini ta'minlashi belgilangan.

2024-yil 29-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonunga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) mansabdor shaxs bo‘lib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirishi hamda O‘zbekiston Respublikasining bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchiligini takomillashtirishga va uni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashadi, fuqarolarning bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini oshirishga yordamlashishi belgilangan.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning faoliyati mamlakatdagi huquqiy tizimni mustahkamlashga, inson huquqlarini himoya qilishga, fuqarolarni himoya qilishga, va xalqaro standartlarga mos kelishga qaratilgan. Bularning barchasi O‘zbekistonning huquqiy asoslari doirasida amalga oshiriladi, davlatning xalqaro huquqiy majburiyatlarini bajarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar demokratik jamiyatda inson erkinliklari va huquqlarini ta‘minlash, ularni himoya qilish va ilgari surishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasida ham inson huquqlarini himoya qilishga doir mustahkam huquqiy baza yaratilgan bo‘lib, bu boradagi asosiy institutlardan biri — Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman), hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati misol bo‘la oladi.

Mazkur maqolada ushbu institutlarning huquqiy maqomi, ularning xalqaro standartlarga muvofiqligi, shuningdek, amaliy faoliyatidagi afzalliklar va mavjud muammolar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy institutlarning samarali faoliyat yuritishi uchun ularning mustaqilligini ta‘minlash, moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro mexanizmlar bilan hamkorlikni kuchaytirish ham institutlarning salohiyatini oshirishda muhim omildir.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash va jamoatchilik bilan aloqalarini kuchaytirish orqali O‘zbekistonda inson huquqlari sohasida yanada samarali va barqaror tizimni shakllantirish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” 2023.
2. Konstitutsiyaviy huquq darslik. Toshkent- 2024. 800-b.
3. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi qonuni. 25.11.2024 y. lex.uz.
4. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi qonuni. 29.08.2017 y. lex.uz.
5. “Inson huquqlari bo‘yicha o‘zbekiston respublikasi milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 10.12.2018 y. lex.uz.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

LEGAL PROTECTION OF DIGNITY AND DIGNITY OF THE PERSON AND THE BASIS OF LEGAL LIABILITY FOR ITS VIOLATION

Kabulov Khojabay Aldashovich

Associate Professor of the Faculty of Law,
Candidate of Legal Sciences Karakalpak State University named after Berdakh,

Dauletbaeva Aynur Bakhramovna

2nd year student of the Faculty of Law of Karakalpak State
University named after Berdakh

Abstract. This article covers the legal protection of a person's honor and dignity and the grounds for liability for its violation. The grounds for the emergence of civil, administrative, and criminal liability for persons who have insulted the honor and dignity of a person are analyzed. The experience of foreign countries, in particular, Italy, Spain, France, and Germany, has also been thoroughly studied.

Keywords: honor, dignity, insult, humiliation, administrative responsibility, civil responsibility, criminal responsibility.

SHAXS SHA'NI VA QADR-QIMMATINING HUQUQIY HIMOYASI VA UNI BUZGANLIK UCHUN HUQUQIY JAVOBGARLIK ASOSLARI

Kabulov Xojabay Aldashovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti yuridika fakulteti dotsenti,
yuridik fanlari kandidati
E-mail: xojabaykabulov7@gmail.com

Dauletbaeva Aynur Baxramovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi
E-mail: dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxsning sha'ni va qadr-qimmatining huquqiy himoyasi va uni buzganlik uchun javobgarlikning kelib chiqish asoslari yoritib berilgan. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitgan shaxslarga fuqarolik, ma'muriy va jinoiy javobgarliklarning kelib chiqish asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, chet el davlatlari, xususan Italiya, Ispaniya, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarning tajribalari chuqur o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sha'n, qadr-qimmat, haqorat, tahqirlash, ma'muriy javobgarlik, fuqarolik javobgarlik, jinoiy javobgarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N66>

Shaxs sha'ni va qadr-qimmati – shaxsning ijtimoiy mavqeyi, uning jamiyatdagi o'rni, boshqalar bilan doimiy ijtimoiy aloqalariga va ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarning biridir. Shuning uchun, shaxslarning sha'ni va qadr-qimmati, obro'sini hurmat qilinishi va huquqiy himoyasini ta'minlash davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, shaxsning sha'ni va qadr-qimmati himoyasining huquqiy kafolati milliy

qonunchiligimizda asosiy tamoyillardan biri sifatida mustahkamlangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak.”-, deb ko‘rsatilgan bo‘lib, mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya etilgan.

Konstitutsiyamizning 31-moddasida esa “Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.” deb belgilangan [1]. Bu esa shaxs qadr-qimmatini ta‘minlash davlat tomonidan muhofaza etilishini va konstitutsiyaviy normalarning xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirilayotganligidan dalolat beradi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2023-yilning 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida mamlakatimiz “Inson qadri va manfaatlari uchun” degan ezgu g‘oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgari borayotganini nufuzli minbardan turib qat‘iy ta‘kidlagan edilar [2].

Inson sha‘ni va qadr-qimmatini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlarga qaramasdan, ijtimoiy hayotda uni buzish holatlari ham uchrab turadi. Shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish va tahqirlash kabi harakatlarning ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, u bir vaqtning o‘zida jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga putur yetkazadi va qonun hujjatlarida mustahkamlangan talablarning buzilishiga olib keladi. Demokratik va huquqiy davlatda esa shaxslarning bunday huquqqa xilof harakatlari bir qancha huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Masalan, shaxsni bunday kamsitish, tahqirlash aybdorlarni nafaqat fuqarolik, balki ma‘muriy va jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

Sha‘n – bu shaxsga nisbatan jamiyatning obyektiv fikri bo‘lib, shaxsning ijtimoiy bahosini anglatadi. Qadr-qimmat deganda – yuzaga kelgan jamiyatning obyektiv fikri asosida unga baho berilishi, jamiyatdagi o‘rni tushuniladi [3; 290.].

Fuqarolik Kodeksining 100-moddasiga asosan, shaxs o‘z sha‘ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro‘sigacha nafaqat shaxslar, balki ommaviy-axborot vositalari orqali putur yetkazilganda u o‘z huquqlarini himoya qilishni so‘rab sudga murojaat qilishi mumkin. Qaysi ommaviy-axborot vositasi orqali shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatiga putur yetkazilgan bo‘lsa, aynan o‘sha ommaviy-axborot vositasida raddiya berilishi kerak. Shuningdek, shaxs bunday harakatlar oqibatida o‘ziga yetkazilgan zararlar va ma‘naviy ziyonning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqlidir. Shuningdek, amaliyotda sud qarorlarining ijro etilmasligining oldini olish maqsadida, sudning hal qiluv qarorini bajarmaganligi uchun sud tomonidan jarima belgilanishi mumkin [4]. Aybdorga nisbatan qo‘llanilgan jarima uni o‘z majburiyatidan ozod etmaydi. Ko‘plab xorijiy davlatlarda bu masala turlicha tartibga solinadi. Masalan, Italiya davlatida og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga olmaganda, haqorat qilish 2016-yildan beri jinoyat hisoblanmaydi va fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadi.

Shaxs sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitilishi holatlari esa ma‘muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ya‘ni, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning 41-moddasi “Haqorat qilish” deb nomlanib, haqorat qilish, ya‘ni shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini boshqa shaxslar tomonidan qasddan kamsitilishi ma‘muriy javobgarlikka sabab

bo'ladi va bunday harakatlarni amalga oshirgan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima jazosi qo'llaniladi [5]. Insonning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish – bu insonni haqorat qilish, unga nisbatan hurmatsizlik qilish, uni jamiyatda obro'sizlantirishga urinish kabi harakatlarda o'z ifodasini topadi. Misol tariqasida rahbarning o'z xodimini hammaning oldida ochiqdan-ochiq yerga urishi, axloqsiz so'zlar aytishi, obro'sizlantirishi, yoxud o'qituvchining o'quvchisiga boshqalar oldida yomon so'zlar bilan haqorat qilishi kabilarni keltirishimiz mumkin.

Huquqshunos olim M.H.Rustambaev haqorat tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan, ya'ni, haqorat — bu jabrlanuvchi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini, uning obro'sini yerga urilishi, shaxsning ma'naviy dunyosini boshqalarning nazarida oyoq osti qilinishi. Qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlab o'tishimiz lozim, haqorat qilish jinoyati shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash orqali sodir etiladi. Tahqirlash deganda – shaxsga nisbatan salbiy baho bildirilishi tushuniladi va sha'nning tarkibi uchun bu baholarning yolg'on yoki rostligi ahamiyatsiz [6;162.].

Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, agar bunday harakatlar shaxsga ma'muriy javobgarlik qo'llanilganidan keyin ham sodir etilsa jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Aybdorga quyidagi jazolardan biri tayinlanadi:

- Jarima (bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda)
- Majburiy jamoat ishlari (ikki yuz qirq soatgacha)
- Axloq tuzatish ishlari (bir yilgacha)

Mazkur jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso, jismoniy shaxs bo'lib, u oldin bunday harakatlari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lishi lozim. Jinoyat subyektiv tomondan faqat qasddan ya'ni to'g'ri qasd bilan sodir etiladi [7; 140.]. Bundan ko'rinib turibdiki, jinoyat ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishi mumkin emas. Chunki, aybdor shaxsning qadr-qimmatini tahqirlanayotganini biladi va uning huquqiy oqibatlariga ko'zi yetgan holda sodir etadi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nashr qilib chiqarish yoxud ommaviy axborot vositalari orqali haqorat qilish og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan. Nashr qilish yoki boshqa usulda ko'paytirilgan matnni tarqatish yoki ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish deganda, shaxsning unga tegishli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarini har xil kitoblarda, gazeta va jurnallarda, yoki boshqacha usullarda, masalan radioda, televideniya, videoda, ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etish orqali keng jamoatchilikka tarqatishni tushunish lozim.

Yuqorida keltirib o'tilgan harakatlar uchun, birinchi qism sanksiyalariga qaraganda ko'proq jazo muddati tayinlanadi. Chunki, mazkur harakatlar ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lib, u shaxsga katta miqdorda ma'naviy ziyon yetkazishi mumkin. Sababi, ommaviy axborot vositalari yoki nashr etish usullari orqali haqorat qilinganda faqat bir shaxs emas, ko'plab shaxslar bu harakatlardan xabardor bo'ladi va bu jabrlanuvchi shaxsga ruhiy ziyon ham keltiradi.

140-moddasi 3-qismida quyidagi og'irlashtiruvchi holatlar nazarda tutilgan:

- ✓ Jabrlanuvchi shaxsning o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarish munosabati bilan bog'liq holda haqorat qilish jinoyati sodir etilsa;
- ✓ Xavfli retsidivist tomonidan yoki tuhmat qilganligi uchun avval sudlanib chiqqan shaxs tomonidan sodir etilsa.

Xizmat vazifasini bajarish deganda, shaxsning har qanday korxonada, tashkilotda yoxud muassasada yuklatilgan xizmat vazifasini bajarayotgan har qanday faoliyatini tushunishimiz lozim. Fuqarolik burchini bajarish deganda, fuqaroning har qanday qonuniy faoliyatini, masalan o'ziga yuklatilgan jamoat ishlarini bajarishi, jamiyat yoki fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni qoidabuzarliklarning oldini olishi, jinoiy harakat haqida xabar berishi, guvohlik berishi kabi harakatlarni tushunishimiz lozim.

Shaxs ilgari hukm etilgan jinoyatiga o'xshash bo'lgan jinoyatni sodir etgan bo'lsa, Jinoyat Kodeksida alohida ko'rsatilgan hollarda esa, Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxs qasddan yangi jinoyat sodir etsa xavfli retsidivist deb topiladi.

Shuningdek, Jinoyat Kodeksi 139-moddasida tuhmat haqida keltirilgan bo'lib, shaxs avval tuhmat jinoyati uchun javobgarlikka tortilganidan keyin haqorat qilish jinoyatini sodir etsa, 140-modda 3-qism "b" bandi bilan javobgarlikka tortiladi.

Mazkur moddaning uchinchi qismi "a" bandi uchun va "b" bandida nazarda tutilgan xavfli retsidivist deb topilgan shaxs tomonidan yoki ilgari tuhmat jinoyatini sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa aybdorlarga bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash jazolari tayinlanishi mumkin.

Bir qator xorijiy davlatlarda ham haqorat qilish jinoyat hisoblanadi. Masalan Ispaniya Jinoyat Kodeksini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 208-moddasi "Haqorat" deb nomlangan. Unga muvofiq, boshqa shaxsning sha'niga, qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi harakatlar, shuningdek, sha'ni va obro'siga putur yetkazuvchi har qanday qilmish haqorat deb hisoblanadi [8] va ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab fuqarolik-huquqiy yoki jinoiy-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Mazkur harakatlarni jinoyat deb topishimiz uchun ushbu qilmish og'ir oqibatlariga olib kelishi lozim. Agarda hech qanday salbiy oqibatlariga olib kelmasa fuqarolik huquqi normalari bilan ko'rib chiqiladi. Haqorat jinoyat deb hisoblangan taqdirda, haqorat qilgan shaxsga jarima yoki qamoq jazosi tayinlanadi. Qilmish ko'pchilik oldida, ijtimoiy tarmoqlar yoxud ommaviy axborot vositalari orqali sodir etilgan bo'lsa og'irroq jazo choralari qo'llaniladi. Eng diqqatga sazovor jihati, jabrlanuvchining shikoyat arizasini berish uchun roziligi bo'lmasa, ish ko'rib chiqilmaydi. Aybdor shaxsga jazo tayinlanganda Ispaniyada-jarima yoxud qamoq jazosi, O'zbekiston Respublikasida esa Ispaniyaga qaraganda ko'proq jazo turlari qo'llaniladi. Masalan: jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash kabi turlari tayinlanadi.

Shuningdek, Fransiyada ham haqorat qilish jinoyati mavjud bo'lib, lekin bu jinoyat Jinoyat Kodeksi bilan emas, 1881-yilda qabul qilingan Matbuot qonuni bilan tartibga solinadi. Ya'ni, haqorat qilish jinoyati haqidagi asosiy normativ-huquqiy hujjat Matbuot Qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunning 29-moddasida jamoat oldida haqorat qilish jinoyati o'z ifodasini topgan bo'lib, qonunni buzgan shaxslarga ushbu moddada ko'rsatilgan jazolar tayinlanadi. Agarda bunday qilmish og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilsa, masalan davlat xizmatchi shaxslariga nisbatan amalga oshirilgan bo'lsa, jamoat tartibini buzgan hollarda Jinoyat Kodeksi 433-5-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi [9]. Kodeksning 621-1-moddasi ham haqorat qilish jinoyatiga bag'ishlangan. Fransiya va O'zbekistonda haqorat qilish jinoyatlari tushunchasi bir

ma'noda qo'llanilsa ham, Fransiyada faqat og'irlashtiruvchi holatlardagina Jinoyat Kodeksi bilan tartibga solinadi.

Germaniya davlatida ham shaxs sha'ni va qadr-qimmatini haqorat qilish jinoiy qilmish hisoblanadi. Xususan, Germaniya Jinoyat kodeksining 185-moddasida (Beleidigung) haqorat qilish jinoyat sifatida belgilangan. Shaxs sha'ni va qadr-qimmatini haqorat qilganlik uchun — bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosining biri tayinlanishi mumkin. Haqorat qilishning ommaviy ravishda, ya'ni yig'ilishda, kontent tarqatish tufayli yoki hujum usulida sodir etilishi jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanib, aybdorlarga nisbatan ikki yilgacha qamoq jazosi yoki jarima jazosi qo'llaniladi [10]. Germaniya tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, u O'zbekiston qonunchiligi bilan ko'plab o'xshashliklarga ega bo'lishi bilan birga ayrim farqli taraflarga ham egadir. Germaniyada shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun unga ilgari ma'muriy jazo qo'llanilgan bo'lishi shart emas. Shuningdek, haqorat qilish shaxsning nafaqat huquqlarini, balki ruhiy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy xavfli qilmishligidan kelib chiqib, uni sodir etgan shaxslarga qat'iy jazo choralari, xususan, ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkinligi ham belgilangan.

Yuqorida keltirilgan davlatlarning tajribasini o'rganishimiz davomida, milliy qonunchiligimiz bilan o'xshashliklari va farqlarini ko'rib chiqishimiz tabiiy. Italiya, Ispaniya davlatlarida haqorat qilish harakatlari amalga oshirilganda og'ir oqibatlar yuzaga kelgan taqdirdagina jinoiy javobgarlik normalari qo'llaniladi. Agar bunday oqibatlar kelib chiqmasa fuqarolik huquqi qoidalarini bilan ko'rib chiqiladi va tartibga solinadi. Fransiya davlatida esa haqorat qilish Jinoyat Kodeksi bilan emas, alohida qonun ya'ni Matbuot Qonuni bilan ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, inson huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini eng oliy qadriyatdir va uni ta'minlash, muhofaza qilish davlat tomonidan amalga oshiriladi. Har doim shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini yuqori darajaga qo'yiladi va bu qoida faqat O'zbekiston Respublikasida emas, xalqaro miqyosdagi davlatlar tomonidan ham tan olinadi. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazish, uni kamsitish yoxud tahqirlash harakatlari sodir etilgan taqdirda fuqarolik, ma'muriy yoki jinoiy-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Xorijiy davlatlar bilan mazkur jinoyat tahlil qilish natijasidan haqorat qilish jinoyat hisoblanmasligi va fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinishini ko'rishimiz mumkin. Shuni unutmasligimiz lozim, inson sha'ni va qadr-qimmatini hamma narsadan ustundir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Milliy axborot agentligi Axborot xizmati. <https://uza.uz/oz/posts/inson-qadri-manfaatlari-demokratiya-va-adolat-tamoyillari-ozbekiston-uchun-doimo-ustuvor 531855>
3. M.H.Rustambayev. "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi". Maxsus qism. III tom.Darslik. Toshkent. 2018. B.290.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 21.12.1995. <https://lex.uz/docs/-111189>
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 41-modda. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-97664>
6. M.H.Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. Toshkent."Adolat". 2016. B.162.

7. M.H.Rustambaev, F.Toxirov, A.K.Erkaxodjaev. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun. Toshkent. 2000. B.140.
8. Ispaniya Jinoyat Kodeksi. 208-moddasi. https://www.boe.es/biblioteca_juridica/publicacion.php?id=PUB-DP-2024-118
9. Fransiya Jinoyat Kodeksi. https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070719/
10. Germaniya Jinoyat Kodeksi. <https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/>

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

MINORS OR LABELESS PERSONS LEGAL BASIS OF MATERIAL SUPPORT AND LIABILITY FOR ITS VIOLATION

Utebaev Salamat Makhsetbay ugli

Assistant of Karakalpak State
University named after Berdakh

Kalbaeva Eldora Uzakhbaevna

3rd year student of the Faculty of Law of Karakalpak State
University named after Berdakh

Abstract. This article covers the legal basis for the material support of minors or disabled persons and its implementation. The author also extensively analyzed the issues of administrative and criminal liability applied to the guilty party for non-fulfillment of material support obligations. Also, the criminal legislation of a number of countries, in particular, Germany and France, has been thoroughly studied on this issue.

Keywords: minors, incapacitated persons, material security, administrative responsibility, criminal responsibility.

VOYAGA YETMAGAN YOKI MEHNATGA LAYOQATSIZ SHAXSLAR

MODDIY TA'MINOTINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti
E-mail: salamatutebaev232@gmail.com

Kalbaeva Eldora Uzaqbaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: eldorakalbaeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashning huquqiy asoslari va uning bajarilishi yoritib berilgan. Muallif moddiy ta'minot majburiyatlarini bajarmaganlik uchun aybdorga nisbatan qo'llaniladigan ma'muriy va jinoiy javobgarlik masalalarini ham keng tahlil qilingan. Shuningdek, bu masala bo'yicha bir qator davlatlar, xususan, Germaniya, Fransiya jinoyat qonunchiligi chuqur o'rganilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsiz shaxslar, moddiy ta'minot, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N67>

Inson huquq va erkinliklari jamiyatdagi eng oliy qadriyatlardan biri bo'lib, uni ta'minlash va huquqiy muhofaza qilish demokratik davlat va fuqarolik jamiyat barpo etishning asosiy shartlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik tizimidagi barcha

normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida shaxslarning o'z huquq va erkinliklarini yuzaga chiqarishida ko'maklashish va ularni har tomonlama himoya qilish maqsadi yotadi. Shu jumladan, Konstitutsiyamizning 54-moddasida "Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi", deb belgilangan bo'lsa, 57-moddada "Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir", deb ko'rsatilgan [1]. Mazkur moddalardan shuni ko'rishimiz mumkinki, yurtimizda barcha shaxslar ijtimoiy jihatdan qaysi toifaga mansubligidan qat'iy nazar, huquq va erkinliklarini qonuniy asoslarda amalga oshirishi davlat tomonidan kafolatlanadi.

Ayniqsa, voyaga yetmaganlar va mehnatga layoqatsiz shaxslarni himoya qilish tizimini takomillashtirishda davlat tomonidan bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning huquqiy asoslari sifatida "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 490-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi, Fuqarolik va Jinoyat Kodeksi kabilarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq 18 yoshga to'lmaganlar voyaga yetmaganlar hisoblanib, bu tushuncha ko'pchilik holatlarda huquqning turli sohalarida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Lekin, mehnatga layoqatsiz shaxslar tushunchasi va uning mazmuniga qonunchilikda aniq ta'rif berilmagan.

Qonunchiligimizda bu toifadagi shaxslar ishtirokidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, voyaga yetmaganlar va mehnatga layoqatsiz shaxslar o'z huquqlarini yuzaga chiqarishida ularni qo'llab-quvvatlash faqat ota-onalari, yaqinlarining emas, balki butun davlatning asosiy vazifasidir. Hattoki, ota-onalar voyaga yetmaganlar va mehnatga layoqatsiz farzandlarini moddiy ta'minlashi shart bo'lib, agar da bu masala ixtiyoriy ravishda amalga oshirilmagan taqdirda, davlat aralashuvi bilan hal etiladi. Shuningdek, moddiy ta'minlashi shart bo'lgan shaxslarning o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlashi huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxslarni moddiy ta'minlash – ularning ota-onalari, ularni o'rnini bosuvchi shaxslar, farzandlikka oluvchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi [2]. Shuningdek, Qonun chiqaruvchi ota-onalarni ularning ota-onalik huquqi cheklanganligi yoki bunday huquqdan mahrum etilishi ularni moddiy ta'minot berish majburiyatidan ozod etmasligini belgilaydi. Bizningcha, bu – voyaga yetmagan farzandning moddiy ta'minoti, uning manfaatlari doimo himoyalaniishi va ota-onalar o'z moddiy javobgarligidan qocholmasligini ta'minlashda alohida ahamiyatga egadir.

Mehnatga layoqatsiz shaxslar ham xuddi voyaga yetmaganlar kabi moddiy ta'minot olish huquqiga ega. Lekin bunday toifadagi shaxslar doirasi bir qancha keng bo'lib, ularga I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnatga qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan, yordamga muhtoj voyaga yetgan farzandlar, ota-onalari va sobiq er (xotin) kiradi [3, 112].

Shuni aytib o'tish o'rinli, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarga to'lanadigan moddiy ta'minot miqdorlari ham har xil. Xususan, voyaga yetmagan shaxslarga to'lanadigan aliment miqdori amaliyotda ko'pchilik holatlarda aliment to'lovchi shaxslarning oylik ish haqiga va boshqa daromadiga nisbatan ulushlar hisobida, mehnatga layoqatsiz shaxslarga bo'lsa pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Shuningdek, moddiy ta'minot beruvchilar favqulodda holatlar kelishi oqibatida, ta'minot oluvchi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xarajatlarda ham ishtirok etadilar. Masalan, bolaning favqulodda holatlarda og'ir shikastlanishi yoki kasal bo'lishi oqibatida ular qo'shimcha xarajatlar olish huquqiga egadirlar.

Garchi qonunchilikda voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlash tartibi, uning subyektlari va uning qanday amalga oshirilishi aniq belgilangan bo'lsa ham amaliyotda uni bajarishdan bo'yin tovlash holatlari uchrab turadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsman) bergan ma'lumotlariga qaraganda, 2024-yilning 9 oyi davomida Ombudsmanga aliment undirish bo'yicha 370 ta murojaat kelib tushgan. Ular soni 2023-yilning shu davriga nisbatan 23,3 foizga oshgan [4].

Bunday holatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish maqsadida qonunda belgilangan shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik asoslari aniq belgilangan bo'lib, shaxslarning bunday harakatlari nafaqat ma'muriy, balki jinoiy javobgarlikka ham sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 47⁴-moddasida "Moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik, — o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki bir yuz yigirma soatgacha haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etishga yoxud ushbu Kodeksga muvofiq ma'muriy jazolarning mazkur turlari qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi [5].

Birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar u ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rish jarayonida aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni ixtiyoriy ravishda to'lagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi." -, deb belgilangan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, moddiy ta'minot to'lashdan bosh tortgan shaxslar javobgarligini belgilovchi normalar o'zida insoniylik va adolat prinsiplarini aks ettiradi. Chunki, birinchidan, moddiy ta'minot beruvchi shaxs o'z majburiyatini qonunda belgilagan muddatlarda bajarishdan bosh tortgan hollarda ham u darhol javobgarlikka tortilmaydi va majburiyatini bajarishi uchun ikki oy muddat beriladi. Ikkinchidan, u bu huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan bo'lib, ishni ma'muriy tartibda ko'rib chiqish jarayonida yuzaga kelgan qarzdorlikni o'z ixtiyori bilan to'lasa javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkin, shaxslarning mazkur harakatlarni birinchi marotaba sodir etishi ma'muriy javobgarlikka tortilishi belgilangan bo'lsa, aybdor o'ziga ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin bir yil o'tmasdan qaytadan sodir etilsa, u jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Mazkur norma O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122-moddasida belgilangan bo'lib, u "Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash" -, deb nomlanadi [6].

Unga ko'ra, shaxslarning moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashi, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat davomida to'lamaganligi, shunday

qilmish uchun ilgari ma'muriy jazoga tortilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Qonunda bunday jinoyat subyekti 18 yoshga to'lgan, aqli raso, moddiy ta'minot majburiyati yuklangan shaxs bo'lishi mumkin [7, 132]. Qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, ushbu qoida emansipatsiya etilgan shaxslarga ham taalluqlidir. Misol uchun, 17 yoshda oila qurgan shaxslar qonunchilik asosida to'liq muomalaga layoqatli deb topilganligi uchun, garchi 18 yoshga to'lmagan bo'lsa ham o'z farzandlarini moddiy ta'minlashga majburdirlar.

Yuqoridagi o'rganishlardan kelib chiqib, mazkur jinoyatning o'ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- ✓ jinoyat subyekti moddiy ta'minot yuklatilgan shaxs bo'ladi;
- ✓ shaxsga ilgari ma'muriy preyuditsiya ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Yuridik fanlar doktori M.H.Rustambayevning fikricha bo'yin tovlash deganda, boshqa shaxsga moddiy ta'minot berish bo'yicha majburiyatlar bajarilishini rad etishni, shuningdek, ta'minot to'lovchi shaxsning ijro varaqasi bo'yicha ushlab qolinadigan mablag'ni to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida oladigan haqiqiy maoshini, har xil daromadlarini yashirishini, ish yoki yashash joyini o'zgartirishini yoxud aynan shu maqsadda mehnatdan bo'yin tovlashi kabilarni tushunishimiz lozim [8, 112.].

Bir qator xorijiy davlatlar qonunchiligida ham voyaga yetmaganlarni yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganlik uchun huquqiy javobgarlik belgilangan. Xususan, Germaniya Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarni yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash jinoyati "Moddiy ta'minot majburiyatini buzish" — deb nomlanib, shaxslarning bunday xatti-harakatlari ushbu kodeksning 170-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi [9].

Unga ko'ra, shaxslarning ta'minot huquqiga ega bo'lgan shaxsning hayoti xavf ostida yoki boshqalarning yordamisiz xavf ostida qolishi uchun qonuniy ta'minot majburiyatidan bo'yin tovlashi jinoiy qilmish deb kvalifikatsiya qilinadi va ularga sud tomonidan uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosi tayinlanishi mumkin. Agar bunday harakatlar homilador ayollarga nisbatan nojo'ya sabablarga ko'ra ushlanib qolinib, bu homiladorlikning to'xtatilishiga sabab bo'lsa, aybdor besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosiga tortiladi.

Germaniya tajribasini o'rganish orqali shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Germaniya qonunchiligida ham O'zbekiston kabi shaxslarning moddiy ta'minlash majburiyatini bajarmaganligi javobgarlikni keltirib chiqarishiga qaramay, ayrim o'ziga xosliklarga ega. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida moddiy ta'minotdan bo'yin tovlash holatlari dastlab ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq ko'rib chiqiladi, agar bu xatti-harakatlar ayni o'sha shaxs tomonidan yana takrorlansa, u Jinoyat kodeksiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladi. Germaniyada esa, bu qilmish to'g'ridan-to'g'ri jinoyat hisoblanib, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun hayotiy zarurlarning xavf ostida qolishi kifoya. Ikkinchidan, Germaniya Jinoyat kodeksida homilador ayolni moddiy ta'minlashdan bosh tortish og'irlashtiruvchi holat sifatida moddaning o'zida ko'rsatilgan bo'lsa, O'zbekiston Jinoyat kodeksida bu 56-moddasida ko'rsatilgan og'irlashtiruvchi holatlardan biri sifatida qo'shimcha kvalifikatsiya qilinadi. Uchinchidan, aybdorlarga nisbatan qo'llaniladigan jazo turlari bilan farqlanadi. Germaniyada — aybdorlarga jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilsa, O'zbekistonda — axloq

tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolaridan biri tayinlanadi. To'rtinchidan, milliy qonunchiligimizda aybdor shaxslar o'z majburiyatlarini bajargan hollarda jinoiy javobgarlikdan ozod etilsa, Germaniya jinoyat kodeksida bu norma belgilanmagan.

Fransiyada ham voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarni 227-3-moddasida moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganligi uchun Fransiya Jinoyat Kodeksining javobgarlik belgilangan [10]. Ushbu modda "Oilani tashlab ketish"-, deb nomlanib, unga ko'ra agar da moddiy ta'minot berish majburiyati yuklangan shaxs sud qarori yoxud Fuqarolik Kodeksining 373-2-2-moddasining I qismida ko'rsatilgan qoidalaridan biri asosida voyaga yetmagan farzandi, avlodi, ajdodi yoki turmush o'rtog'iga aliment, hissa, subsidiya yoki boshqa har xil moddiy to'lovni ikki oydan ortiq vaqt mobaynida to'lamasa, bu jinoyat hisoblanib, ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va jarima jazosi bilan jazolanadi. Fransiya qonunchiligi bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'rtasida bir qancha o'xshashliklar va farqlar mavjud. Eng asosiy farqi, O'zbekiston Respublikasida mazkur qilmishni birinchi marta sodir etilganda, ma'muriy preyuditsiya qoidasi belgilangan. Agar, ushbu harakat ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan bir yil ichida yana takrorlansa, shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. Fransiyada esa bu uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmagan va birinchi marta sodir etilgan taqdirda ham jinoiy javobgarlik uchun asos bo'ladi. Ikkinchi farqni esa ularning sanksiyalarida ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, milliy qonunchiligimizda ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarga axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari tayinlanadi. Fransiya jinoyat huquqida esa ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va jarima jazolari belgilangan. Yana bir katta farqlaridan biri, O'zbekiston qonunchiligida rag'batlantiruvchi modda ham keltirilgan. Unga muvofiq, aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdor shaxs qarzlarini to'liq to'lagan bo'lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. Fransiya qonunchiligida mazkur qoida belgilanmagan.

Yuqoridagilarga xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin, voyaga yetmaganlar va mehnatga layoqatsiz shaxslar qonuniy asosda ta'minot olish huquqiga egadir va bu davlat tomonidan himoya qilinadi. Bu majburiyatni bajarmaslik esa, ma'muriy va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. O'zbekiston qonunchiligida bu masalalar aniq va qonuniy tartibga solingan bo'lib, davlat tomonidan unga rioya etilishi qat'iy nazorat qilinadi. Shuningdek, insoniylik tamoyili asosida aybdorlarga o'z ixtiyori bilan qarzdorlikni to'lash imkoniyati beriladi. Bularning barchasi milliy huquq tizimimizda mazkur institutning huquqiy tartibga solinganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. 30.04.1998. <https://lex.uz/mact/-104720>.
3. M.H.Rustambayev. "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar". Maxsus qism. T. "Adolat". 2016. 112 b.
4. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) Axborot xizmati // <https://ombudsman.uz/oz/news/2024/10/22/aliment-tolamaslikning-oqibati-jinoiy-javobgarlik-bilan-tugashi-mumkin-ombudsman-3>.
6. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risida Kodeks. 47⁴-moddasi. <https://lex.uz/acts/-97664>.
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111453>.
8. М.Х. Рустамбаев. Жынаят хуқықы. Арнаўлы бөлим: Жоқары оқыў орынлары ушын сабақлық. – Нөкис, "Билим". 2005-жыл. 132 б.

9. M.H.Rustambayev. "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar". Maxsus qism. T. "Adolat". 2016. 112 b.
10. Germaniya. Jinoyat Kodeksi. 170-modda. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html
11. Fransiya. Jinoyat Kodeksi. 227-3-modda. https://www.equalrightstrust.org/ertdocumentbank/french_penal_code_33.pdfq

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF LEGAL LIABILITY FOR DISCRIMINATION IN EMPLOYMENT RELATIONS

Begatov Jasurbek Numonjanovich,

Doctoral student of the Institute of State and Law

Abstract. This scientific article examines the legal documents adopted by international organizations and developed countries against discrimination in labor relations and the grounds for liability for violations. By analyzing the policies and practices adopted by international entities, information is provided on the issue of creating equal opportunity and fair treatment in the global workforce. The article examines effective approaches to combating discrimination, legal frameworks, enforcement mechanisms and employer practices. Developed countries around the world have taken important measures and penalties to combat discrimination and promote equal treatment in the workplace. Each country's approach may differ depending on their legal framework and sources of law. One of the main aspects of preventing discrimination in labor relations is the presence of comprehensive legislation and its effective functioning. Developed countries generally have a strong legal framework and enforcement mechanism to protect people from discrimination based on various protected characteristics, such as race, ethnicity, gender, age, disability, etc.

Keywords: labor courts, gender equality, labor inspection, legal mechanism, legal responsibility, international experience, legal obligation, international organizations.

MEHNATGA OID MUNOSABATLARDA KAMSITISH UCHUN HUQUQIY JAVOBGARLIK MASALALARI

Begatov Jasurbek Numonjanovich

Davlat va huquq instituti tayanch doktoranti

E-mail: jbegatov96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada xalqaro tashkilotlar va dunyoning rivojlangan mamlakatlarning mehnat munosabatlarida kamsitishga qarshi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlari hamda huquqbuzarlik uchun javobgarlik asoslari o'rganiladi. Xalqaro huquq subyektlari tomonidan qabul qilingan strategiyalar va amaliyotlarni tahlil qilib global ishchi kuchida teng imkoniyatlar va adolatli munosabatni yaratish masalasi haqida ma'lumot beriladi. Maqolada kamsitishlarga qarshi kurashda samarali yondashuvlar, qonunchilik asoslari, ijro mexanizmlari va ish beruvchilar amaliyoti ko'rib chiqiladi. Dunyoni rivojlangan davlatlar kamsitishlarga qarshi kurashish va ish joyida teng munosabatni targ'ib qilish bo'yicha muhim chora-tadbirlar va ular negizida jazo choralari belgilagan. Har bir davlatning yondashuvi ularning huquqiy mexanizmi va qonun manbalariga jazo choralari farq qilishi mumkin. Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olishning asosiy jihatlaridan biri bu keng qamrovli qonunchilikning mavjudligi va uning samarali ishlashi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda, odatda, irqi, etnik kelib chiqishi, jinsi, yoshi, nogironligi va boshqalar kabi turli xil himoyalangan xususiyatlar asosida shaxslarni kamsitishdan himoya qilish uchun mustahkam huquqiy asos va uning ijro mexanizmi yaratilgan.

Kalit so'zlar: mehnat sudlari, gender tengligi, mehnat inspeksiyasi, huquqiy mexanizm, huquqiy javobgarlik, xalqaro tajriba, yuridik majburiyat, xalqaro tashkilotlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N68>

Kirish. Mehnatga oid munosabatlarda inson huquqlarini kamsitish holatlari bugungi kunda dunyo miqyosida borgan sari avj olib borayotgan huquqbuzarlik hisoblanadi. Mehnat

munosabatlarida tenglik qoidalarini buzilishi jamiyat iqtisodiy negizlariga jiddiy salbiy ta'sir o'tkazadi. Bandlik sohasida kamsitishlarni taqiqlash, huquqbuzarlikni oldini olishda to'g'ri belgilangan huquqiy javobgarlik muhim ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash lozimki, dunyoning ayrim mamlakatlari qonunchiligiga e'tibor bersak huquqbuzarlik uchun javobgarlik masalasi yetarli darajada ta'minlanmagan yoki umuman e'tirof etilmagan. Natijada kamsitishlarga qarshi kurashishda huquqiy javobgarlik masalasi tobora dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bunga bir qancha jiddiy sabablar mavjud. **Birinchidan**, kamsitishning jamiyat hayotida keng tarqalganligi bo'lib jamiyat rivojlangan sari uning shakl va turlari ko'payib bormoqda. Mehnatga oid munosabatlarda ish beruvchi subyekt tomonidan xodimlarni kamsitish holati insonlarning jinsi, irqi, millati, din, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, siyosiy qarashlari, nogironligi, yoshi va boshqa belgilarga ko'ra ishga qabul qilinish, ishdan bo'shatish, ish haqi, ish sharoitlari belgilash, xizmat lavozimda ko'tarilish, o'qitish tizmi va boshqa qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlar poymol etilganda qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka asos bo'ladi. **Ikkinchidan**, kamsitish amaliyotiga qarshi inson huquqlarni himoya qilish tizimini yetarli darajada amaliyotda ishlamasligi. Jumladan, qonunda kamsitishga qarshi kurashish bo'yicha muayyan choralar va mexanizmlar ko'zda tutilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi va qo'llanilish doirasida muammolar mavjud. Mehnat faoliyatida kamsitish holatiga uchragan xodim huquqbuzarlik holatini isbotlab berishi lozim bu esa amalda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. **Uchinchidan**, kamsitishga duch kelgan shaxslarga yordam ko'rsatishning yetarli emasligi bo'lib, kamsitishga duch kelgan shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatish va himoya qilish bo'yicha tizim hali ham yetarli darajada emas. **To'rtinchidan**, huquqiy madaniyatning jamiyatda yetarli darajada shakllanmaganligi hamda kamsitishga qarshi kurashish bo'yicha xabardorlikning pastligi bo'lib insonlarning aksariyati kamsitish turlari va uni oldini olish usullari haqida yetarli darajada ma'lumotga ega emas. Mazkur holat kamsitishga duch kelganlar inson o'z huquqlarini himoya qilish uchun qanday huquqiy choralar ko'rilish haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaslikka olib keladi. Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib kamsitish holatlarini aniqlash va isbotlash uchun aniq me'yorlarni belgilash lozim bu esa xodimlarning o'z huquqlarini himoya qilishini osonlashtiradi. Mamlakatimizda dunyoning ilg'or davlatlari tomonidan tashkil etilgan milliy himoya tashkilotlarining amaliyotni o'rgangan holda ularning samaradorligi yuqori bo'lgan qismlarini mujassamlashtirgan o'ziga xos milliy huquqni himoya qiluvchi organi tashkil etish va uning faoliyat yo'nalishlarini aniq belgilash amaliyotini joriy etish lozim.

Yuridik adabiyotlarda yuridik javobgarlik instituti ko'pincha "eng muhim ijtimoiy munosabatlarni birlashtiruvchi va unga ta'sir ko'rsatadigan murakkab, tarmoqlararo, funksional, tartibga soluvchi va himoya qiluvchi huquq instituti" deb ta'riflanadi[1]. Yuridik javobgarlik institutiga berilgan ta'riflarda uning tuzilishi jihatidan murakkab va tarmoqlararo ekanligi ta'kidlanadi. Mehnat huquqi insonning asosiy ajralmas huquqlaridan biridir. Mazkur huquq xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan, ammo shunga qaramay, bugungi kunda uni cheklash holatlari ko'p uchraydi[2].

Huquqshunos olim S.L.Kondratievaning ta'kidlashicha, yuridik javobgarlik instituti — bu umumiy, mazmunan murakkab, tuzilmasi bo'yicha yagona, maqsadiga ko'ra himoya qiluvchi, huquqbuzarlarni jazolash orqali huquqbuzarlikka olib keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi moddiy huquqning funksional instituti hisoblanadi[3].

Mehnatga oid munosabatlarda ham kamsitish turli xil va murakkab jarayon bo'lib bir birdan farq qiluvchi javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Mehnatga oid munosabatlarda inson huquqlarini ta'minlash bugungi kunda dunyo davlatlari o'rtasida eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar mehnat munosabatlaridagi kamsitishlarni bartaraf etish va oldini olish bo'yicha muhim sa'y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu maqolda mamlakatlarning mehnatga oid munosabatlarda kamsitish uchun yuridik javobgarlik masalasini ko'rib chiqamiz.

Qonunchilik mehnat dunyosidagi kamsitish muammosini bevosita tartibga solish va mehnatdan tashqari masalalarda tenglikni bilvosita kafolatlash orqali ushbu maqsadga erishishga yordam beradi. Diskriminatsiyaga barham berish yo'lidagi eng muhim qadam bu uning qonun bilan taqiqlanishi, tartibga solishning izchilligi va keng qamrovli bo'lishi lozim[4].

Mehnat munosabatlaridagi kamsitishlarni bartaraf etishning asosiy yo'llaridan biri samarali huquqiy mexanizmni faoliyat yuritishidir. Dunyo mamlakatlarda irqi, jinsi, yoshi, nogironligi yoki dini kabi belgilarga ko'ra kamsitishni taqiqlovchi qonunlar qabul qilingan. Xalqaro konvensiyalar va tuzilmalar mehnat munosabatlarida inson huquqlarini ta'minlash masalasi e'tirof etilgan. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyalarida kamsitilmaslik va tenglik tamoyillari ta'kidlangan. Mazkur normalar a'zo davlatlar uchun mehnatga oid munosabatlarda inson huquqlarini kamsitishni taqiqlash bo'yicha muhim xalqaro huquq manbasi hisoblanadi.

Diskriminatsiyaga qarshi kurashish xalqaro tashkilotlar, davlatlar hamda fuqarolik jamiyati institutining boshqa subyektlarini hamkorligi va birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Mehnat munosabatlaridagi kamsitish tenglik va inson huquqlari buzilishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar o'zlarining mustahkam huquqiy tizimi bilan ushbu muammoni hal qilishda o'ziga xos mexanizm yaratishgan bo'lsa-da amalda hali ham hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ko'p. Mehnatga oid munosabatlarda kamsitish muammosi uning subyektiga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot ishida mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish va barham berish bilan bog'liq nazariy hamda amaliy muammolar, ularni samarali yechimlariga qaratilgan ma'lumotlar majmuasini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotda mehnat munosabatlarida yuzaga keladigan kamsitish holatlari hamda unga beriladigan javobgarlik masalalari bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi. Mazkur metodlardan tadqiqot ishining turli qismlarida foydalanilgan. Jumladan, qiyosiy-huquqiy usul orqali tadqiqot ishida o'rganilgan davlatlar qiyosiy tahlil amalga oshirilgan. Tahlil va sintez orqali statistik ma'lumotlar alohida qismlarga bo'lingan holda hamda keyinchalik umumiyflashib xulosa berishda foydalanilgan. Induksiya metodi orqali olimlarni kamsitish munosabatiga nisbatan shaxsiy qarashlaridan umumiy xulosaga kelishda foydalanilgan. Umuman olganda, barcha metodlar bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib muammoni o'rganishda bir necha metodlar integratsiya qilingan holda qo'llashga harakat qilingan.

Mehnat munosabatlari sohasidagi huquqiy javobgarlikni murakkab funksional instituti sifatida o'rganiladi. Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, tarmoqlararo funksional institutlar

huquqning bir necha xilma-xil va turdosh tarmoqlari kesishgan nuqtada vujudga keladi va ijtimoiy munosabatlarni aniq bir sohasini tartibga solishga qaratiladi.

Mehnat munosabatlarida kamsitish uchun intizomiy, moddiy, jinoiy va fuqarolik javobgarlik nazarda tutiladi. Javobgarlikni belgilashda bir qator omillar asos qilib olinadi.

Xalqaro hujjatlar turli mamlakatlar mehnat munosabatlarida inson huquqlarini kamsitish uchun javobgarlikni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu hujjatlar ish joyida tenglik, kamsitilmaslik va inson huquqlarini rag'batlantirish bo'yicha tavsiyaviy xarakterga ega. Asosiy xalqaro hujjatlarga quyidagilar kiradi:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Mazkur hujjatning 23-moddasida mehnat qilish, adolatli haq to'lash va kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish huquqi ta'kidlangan. Unda har kim kamsitilmasdan, teng mehnat uchun teng haq olish va o'z ishini tanlash erkinligi huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan[5].

2. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt : 1966-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan hujjat adolatli va qulay sharoitlarda ishlash huquqini, shu jumladan adolatli ish haqi, teng imkoniyatlar va kamsitishdan himoya qilishni tasdiqlaydi. Unda irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, tug'ilishi yoki boshqa holatiga ko'ra kamsitishning oldini olish muhimligi ta'kidlanadi[6].

3. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyalari: Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi bo'lgan XMT mehnat huquqlari va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik masalalariga bag'ishlangan ko'plab konvensiyalarni ishlab chiqqan. Ulardan quyidagilarni alohida ahamiyatga ega:

a. XMTning 100-sonli konvensiyasi (Teng haq to'lash to'g'risidagi konvensiya, 1951-yil). Ushbu konvensiyasi jinsiga qarab kamsitilmasdan, teng qiymatdagi mehnat uchun erkaklar va ayollar uchun teng haq to'lash tamoyilini ilgari suradi [7].

b. XMTning 111-sonli konvensiyasi (Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risida, 1958-yil): Ushbu konvensiyasi bandlik va kasbda kamsitishlarni, shu jumladan irqi, rangi, jinsi, dini, siyosiy qarashlari, milliy kelib chiqishi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa asoslarga ko'ra kamsitishni taqiqlaydi [8].

c. XMTning "Mehnatdagi asosiy tamoyillar va huquqlar to'g'risida"gi deklaratsiyasi (1998-yil). Bu deklaratsiyada barcha ishchilar joylashgan joyidan qat'i nazar, birlashish erkinligi, jamoaviy muzokaralar olib borish, majburiy mehnatga barham berish va kamsitishlarga barham berish huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan [9].

4. "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyasi: 1979-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan qonun ayollar huquqlari va tengligini ta'minlashga qaratilgan. U bandlik sohasida kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, jumladan, ishga joylashishda teng huquqlilik, teng qiymatdagi ish uchun teng haq to'lash va gender asosidagi kamsitishlardan himoyalaniшни talab qiladi [10].

Ushbu xalqaro hujjatlar mamlakatlarga o'z qonunchiligi, siyosati va amaliyotini mehnat munosabatlarida kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik va inson huquqlari tamoyillariga moslashtirish uchun muhim manba hisoblanadi.

Qonunchilik mehnat dunyosidagi kamsitish muammosini bevosita tartibga solish va mehnatdan tashqari masalalarda tenglikni bilvosita kafolatlash orqali ushbu maqsadga erishishga yordam beradi. Diskriminatsiyaga barham berish yo'lidagi eng muhim qadam bu uning qonun bilan taqiqlanishi, tartibga solishning izchilligi va keng qamrovli bo'lishi lozim [11].

Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan sari ularni jamiyat hayotining turli sohalarga qo'llash masalasi tobora dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Jumladan, mehnat munosabatlari sohasida ham ishga qabul qilishda sun'iy intellektni qo'llash yetarli tajribaga ega mutaxassislarni saralab olish va ishga qabul qilish bilan bog'liq jarayonlarni soddalashtirishi mumkin. Undan tashqari, yuqori iste'dodli kadrlarni jalb qilish, aniqlash bilan bog'liq katta ma'lumotlar oqimni avtomatlashtirish va ma'lumotlar bazasini shakllantirib borish imkonini beradi.

Muhokama. 2023-yil statistikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekistonda 2023-yilda 13 364 ta mehnat qonunchiligi buzilishi rasman qayd etilgan. Bu haqda Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi matbuot xizmati "Gazeta.uz"ga ma'lum qilgan.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan eng ko'p qoidabuzarliklar quyidagilarda aniqlangan:

- xalq ta'limi (maktab) muassasalarida — 5612 (oyiga o'rtacha 1403 ta huquqbuzarlik);
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (bolalar bog'chalarida) — 2173 (543);
- Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida — 1215 (303);
- qishloq xo'jaligida — 452 (113);
- qurilish tashkilotlarida — 266 (66).

Tekshiruv doirasida jami 4321 ta tekshiruvlar o'tkazilib, natijada 2682 nafar mansabdor shaxsga nisbatan 6,2 milliard so'm (har biri 2,5 million so'mga yaqin) jarimalar qo'llanildi. Yana 166 ta ish huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o'tkazilgan.

Aniqlangan qonun buzilish holatlari aksariyati quyidagilar bilan bog'liq:

mehnat shartnomalarni noto'g'ri tuzilishi — 617 ta;

mehnatga haq to'lashda — 1 462 ta;

ta'tillar berilishida — 1 474 ta;

o'z ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etmaslik yoki yashirish — 846 ta;

ishdan noqonuniy bo'shatishda — 312 ta;

xodimlarni o'qitish va bilimlarini tekshirish tashkil etilmagan — 626 ta;

maxsus kiyim va himoya vositalari bilan ta'minlanmagan — 332 ta.

Natijada davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan 44 413 ta norasmiy ish o'rinlari ro'yxatga olinib, 5 997 nafar fuqaro foydasiga 26,4 milliard so'm ish haqi undirilishiga erishildi.

Mazkur davrda 7157 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan 4663 tasi qanoatlantirilgan, 2697 ta murojaat bo'yicha tushuntirishlar berilgan. Murojaatlarning aksariyati to'lovni o'z vaqtida to'lash va boshqa to'lovlar bilan bog'liq — 3637 ta, noqonuniy ishdan bo'shatish — 605 ta, xodimdan norasmiy foydalanish — 467 ta, ishga qabul qilishda huquqbuzarliklar — 382 ta [12].

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2682 nafar mansabdor shaxsga nisbatan huquqbuzarlik uchun jarima qo'llangan holda ularni atigi 166 nafarini ishi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o'tkazilgan. Yuqoridagi nisbat juda katta va

huquqbuzarlarni katta qismi oz miqdordagi jarima bilan jazolangan. Bundan ko'rinadiki, mehnat qonunchiligida huquqbuzarlik uchun javobgarlik masalasini kuchaytirish lozim. Shuningdek, mehnat shartnomalarni noto'g'ri tuzilishi, ishdan noqonuniy bo'shatish, maxsus kiyim va himoya vositalari bilan ta'minlanmaganlik kabi noqonuniy harakatlar miqdori ham ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Bunday huquqbuzarliklarni ko'payishiga xodimlarning mehnat qonunchiligi bo'yicha huquqiy bilimlarining yetishmasligi ularni ish beruvchi tomonidan turli yo'llar bilan huquqlarni poymol qilinishiga sabab bo'lmoqda. Fikrimizcha, xodimlar va ish beruvchilar uchun mehnat qonunchiligi bo'yicha trening va o'quv dasturlarini muntazam yo'lga qo'yish hamda mehnat qonunchiligi bo'yicha yangiliklarni xabardor qiluvchi samarali mexanizmni yaratish maqsadga muvofiq hisoblandi.

Huquqbuzarlikka qarshi kurashishda dunyo mamlakatlari qonunchiligini o'rgangan holda milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali kamsitishlarga qarshi samarali kurashish tizimini yaratish mumkin. Mehnatga oid munosabatlarda inson huquqlarini kamsitishlarga qarshi xalqaro tashkilotlar hamda ilg'or mamlakatlar o'zaro hamkorlikda kamsitishlarni taqiqlash hamda unga qarshi kurashishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Shuning uchun mehnat munosabatlarida kamsitishlarga qarshi javobgarlik masalasini o'rganishda xorijiy davlatlar qonunchiligini va amaliyotini o'rganishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mehnatga oid munosabatlarda samarali huquqiy mexanizmga ega davlatlar qonunchiligi hamda huquqbuzarlik uchun javobgarlik asoslarini alohida davlatlar misolida ko'rib chiqamiz.

Fransiyada mehnat munosabatlarida inson huquqlarini kamsitish uchun javobgarlik. Fransiyada boshqa ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi mehnat munosabatlarida inson huquqlarini kamsitishdan himoya qilish bo'yicha normalar belgilangan. Asosiy qonun manbasi Fransiya mehnat kodeksi (Code du travail) va Fransiya konstitutsiyasi bo'lib, ular kamsitishlarga qarshi qaratilgan asosiy huquq va erkinliklarni himoya qiladigan qoidalarni o'z ichiga oladi.

Fransiya mehnat kodeksining 1, 2 va 3-bo'limlari bevosita kamsitishga qarshi normalar kiritilgan bo'lib unda mehnatni muhofaza qilish asoslari belgilangan. Unga ko'ra ish beruvchilar xodimlarni yoki ishga da'vogarlarini turli sabablarga ko'ra, jumladan, irqi, dini, jinsi, jinsiy oriyentatsiyasi, nogironligi, yoshi va siyosiy qarashlariga ko'ra kamsitishlari qonunga zid ekanligi belgilangan. Diskriminatsiya mehnat munosabatlarining turli bosqichlarida yuzga kelishi mumkin. Masalan, ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, lavozimga ko'tarilish, kompensatsiya to'lash kabilarda yuzaga kelishi mumkin.

Fransiyada kamsitishlarga qarshi kurashning asosiy huquqiy asosi teng munosabatlilik tamoyilidir. Ushbu tamoyil Fransiya mehnat kodeksida mustahkamlangan.

Agar shaxs o'zini kamsitilgan deb hisoblasa, u ish beruvchiga nisbatan qonuniy choralar ko'rishi uchun Fransiya mehnat sudlariga (Conseil de prud'hommes) murojaat qilishi hamda kompensatsiya undirishi mumkin. Mehnat sudlari dalillarni baholash va kamsitish sodir bo'lganligini aniqlash huquqiga ega. Agar kamsitish aniqlansa, sud zararni qoplash, huquqni qayta tiklash yoki boshqa tegishli choralarni ko'rishi mumkin [12].

Shuni ta'kidlash kerakki, Fransiya qonunchiligi ham ish joyida ta'qib qilishni taqiqlaydi. Ta'qib qilish kamsitishning bir turi deb hisoblanishi mumkin va Fransiya mehnat kodeksiga ko'ra noqonuniy hisoblanadi. Ta'qibga uchragan xodimlar ish beruvchiga yoki bevosita mehnat

sudlariga shikoyat qilishlari mumkin. Mazkur davlat qonunchiligi o'rganish natijasida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- Murakkab va bir huquqiy munosabatlar tizmi uchun bir nechta qonun normalari mavjud bo'lib Fransiyaning mehnat qonunchiligi juda murakkab va ko'p tarmoqli qonunlardan iborat, bu esa qonuni tushunishni va qo'llashni qiyinlashtiradi.

- Ishchilarning o'z huquqlarini himoya qilishdagi qiyinchiliklar mavjud bo'lib ishchilar o'z huquqlarini himoya qilish uchun odatda advokatlarga murojaat qilishlari kerak, bu esa ular uchun moliyaviy jihatdan qiyinchilik kel tirib chiqarishi mumkin.

- Ishchilarning kamsitilishi: Fransiyada jinsiy kamsitish, irqiy kamsitish, yosh kamsitish va boshqa kamsitish turlari hali ham mavjud.

Aniqlangan ayrim yutuqlar:

- Fransiyaning mehnat qonunchiligi murakkab bo'lishiga qaramasdan dunyodagi eng kuchli qonunlardan biri hisoblanadi.

- Ishchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha institutlar mavjudligi: Fransiyada ishchilarning huquqlarini himoya qilish uchun turli xil institutlar, masalan, mehnat inspeksiyasi, sudlar va kasaba uyushmalari mavjud.

- Ijtimoiy himoyaning kuchli tizimi: Fransiyada ishsizlik, kasallik va pensiya to'lovlari kabi ijtimoiy himoya tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

- Kamsitishga qarshi kurash bo'yicha alohida qonunlar qabul qilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari qonunchiligi bo'yicha mehnat munosabatlarida inson huquqlarini kamsitish uchun javobgarlik. Qo'shma Shtatlarda mehnat munosabatlarida shaxslarni inson huquqlarini kamsitishdan himoya qiluvchi bir qancha qonunlar mavjud. Asosiy federal qonunchilik 1964-yildagi Fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonun bo'lib, u VII bobni o'z ichiga oladi. Ushbu qonun irqi, rangi, dini, jinsi va milliy kelib chiqishiga qarab kamsitishni taqiqlaydi.

Fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonunning 7-moddasiga ko'ra ish beruvchilar yuqorida sanab o'tilgan himoyalangan xususiyatlarga ko'ra ishga da'vogarlar yoki xodimlarni kamsitishlari noqonuniy hisoblanadi [13]. Qonun ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, tovon to'lash, lavozimga ko'tarilish, ishga joylashish shartlarini o'z ichiga olgan bandlikning turli jihatlarini qamrab oladi. Qo'shimcha ravishda, muayyan toifadagi shaxslarni himoya qiluvchi boshqa federal qonunlar ham mavjud. Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

1. "Ish bilan ta'minlashda yoshni kamsitish to'g'risida"gi qonun: Ushbu qonun 40 va undan katta yoshdagi shaxslarni yoshiga qarab ish bilan bog'liq kamsitishlardan himoya qiladi [14].

2. "Nogironligi bo'lgan amerikaliklar to'g'risida"gi qonun (ADA): ADA nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilish, ishga joylashish, lavozimga ko'tarish va ishdan bo'shatish kabi barcha jabhalarda kamsitishni taqiqlaydi. Bu ish beruvchilardan nogironligi bo'lgan malakali shaxslarni, agar bu ortiqcha qiyinchiliklarga olib kelmasa, oqilona turar joy bilan ta'minlashni talab qiladi [15].

3. "Homiladorlikning kamsitilishi to'g'risida"gi qonun (PDA). PDA homiladorlik, tug'ish yoki tegishli tibbiy holatlarga asoslangan kamsitishni taqiqlaydi. Bu ish beruvchilardan homilador xodimlarga mehnatga layoqatli yoki qobiliyatsiz bo'lgan boshqa xodimlarga o'xshash tarzda muomala qilishni talab qiladi [16].

4. “Genetik ma’lumotni kamsitmaslik to’g’risida”gi qonun (GINA): GINA ish beruvchilarga ishchilar yoki ishga da’vogarlarini genetik ma’lumotlariga ko’ra kamsitishlarini oldini oladi. Bu ish beruvchilarga ishga joylashish to’g’risida qaror qabul qilishda genetik ma’lumotni olish yoki undan foydalanishni taqiqlaydi [17].

Shuni ta’kidlash kerakki, AQShning alohida shtatlarida jinsiy oriyentatsiya, jinsi identifikator yoki oilaviy holat kabi qo’shimcha belgilarga asoslangan mehnatni kamsitishdan himoya qiluvchi qonunlarni qabul qilishi mumkin. Ushbu shtat qonunlari qo’shimcha himoya mexanizmini yaratadi.

AQSH mehnat qonunlari, ishchilarga ko’plab huquqlarni ta’minlashga qaratilgan bo’lsa-da, amalda ularni qo’llashda muammolar, kamchiliklar va yutuqlar mavjud.

Qonunni qo’llashdagi muammolar:

- Qonunlarning murakkabligi: AQSh mehnat qonunchiligi juda murakkab va turli xil qonunlar, qoidalar va tartiblarni o’z ichiga oladi. Bu, ishchilarning o’z huquqlarini tushunishlarini va himoya qilishlarini qiyinlashtiradi.

- “At-will” ishga olish qoidasi: Ko’pgina shtatlarda ish beruvchilar xodimni ishdan istalgan vaqtda va sababsiz bo’shatishi mumkin. mazkur holat ishchilarni ishdan bo’shatishda nohaqliklardan himoyalaniish imkonini amalda yo’q qiladi.

- Kasaba uyushmalarining zaifligi va xodimlarni huquqlarini yetarli darajada himoya qilolmasligi: AQShda kasaba uyushmalarining ta’sir doirasi sustligi ularning ishchilarga o’z huquqlarini himoya qilishda yordam berishni qiyinlashtiradi.

- Ishga qabul qilishda diskriminatsiyaning mavjudligi: AQShda irqiy, jinsiy va boshqa kamsitish turlari hali ham ishga qabul qilish jarayonida saqlanib qolyapti.

- Mehnat ta’tillarining amalda kam ekanligi: Ko’plab ishchilar to’liq ta’til olishlari mumkin emas, bu esa ularning shaxsiy hayoti va salomatligiga salbiy ta’sir qiladi.

- Sog’liqni saqlash xizmatlariga kirishning qiyinligi: AQShda tibbiy sug’urtaga ega bo’lmagan ishchilar sog’liqni saqlash xizmatlariga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Shu bilan birga ayrim yutuqlarni e’tirof etish lozim:

- Ishchilarning huquqlarini himoya qilish bo’yicha alohida qonunlarning mavjudligi: AQShda ishchilarning huquqlarini himoya qilish bo’yicha bir qator qonunlar mavjud, masalan, Mehnat Standartlari to’g’risidagi qonun (Fair Labor Standards Act) va Mehnat munosabatlari to’g’risidagi qonun (National Labor Relations Act).

AQSh mehnat qonunchiligi ishchilarning huquqlarini himoya qilish asoslari yaratilgan bo’lsada, amaliyotda ko’plab muammolar va kamchiliklar mavjud. Bu muammolarni hal qilish uchun qonunlarni soddalashtirish, “at-will” qoidasini qayta ko’rib chiqish, kasaba uyushmalarini ta’sir doirasini mustahkamlash, ish sharoitlarini yaxshilash va ishga olish tizimida inson omilini kamaytirgan holda dastlabki skrining uchun sunniy intellekt tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, ishchilarning o’z huquqlarini tushunishini oshirish, kamsitish holatlarini hisobot qilishni rag’batlantirish va ish joyida tenglikni ta’minlash bo’yicha jamoatchilikning xabardorligini oshirish muhimdir.

Rossiya qonunchiligida mehnat munosabatlarida inson huquqlarini kamsitish uchun javobgarlik. Rossiya qonunchiligida mehnat munosabatlarida kamsitish va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator qoidalarda mustahkamlangan. Uning huquqiy asosi Rossiya mehnat kodeksi hisoblanadi (Rossiya Federatsiyasi Trudovoy kodeksi). Mehnat

kodeksining “kamsitish” atamasi haqida ta’rif berilmagan bo’lsada, unda mehnatda tenglik va kamsitishning oldini olishga qaratilgan normalar mavjud.

Rossiya Konstitutsiyasining 19-moddasi qonun oldida tenglik tamoyilini mustahkamlaydi va turli sabablarga ko’ra kamsitishni taqiqlaydi, shu jumladan jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, mulkiy va ijtimoiy mavqeyi va boshqalar. Ushbu konstitutsiyaviy qoida barcha sohalarda, jumladan, bandlik sohasida ham kamsitishlarga qarshi kurashish asoslarini belgilaydi [18].

Rossiya mehnat kodeksida ish joyida teng muomala va kamsitishlarga yo’l qo’ymaslik bilan bog’liq qoidalar ham mavjud. Jumladan, Mehnat kodeksining 3-moddasida barcha xodimlar jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, mulkiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, teng huquqlarga ega bo’lishi hamda qonun bilan himoya qilinishi belgilab qo’yilgan.

Bundan tashqari, mehnat kodeksining 64-moddasida xodimlar teng qiymatdagi ish uchun, hech qanday kamsitishlarsiz, teng haq olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. U jinsi, irqi, millati va boshqa himoyalangan xususiyatlar kabi omillarga asoslangan ish haqini kamsitishni taqiqlaydi [19].

Umumiy mehnat qonunlariga qo’shimcha ravishda, Rossiyada ma’lum sohalarda kamsitishlarga qarshi qaratilgan maxsus qonunlar mavjud. Masalan, Rossiya Federatsiyasida “Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish asoslari to’g’risida”gi Federal qonun ish joyida irqi, millati, tili, dini va boshqa sabablarga ko’ra kamsitishni taqiqlaydi. Ushbu qonun, shuningdek, mazkur qonunda huquqbuzarlik sodir etilganda uni bartaraf etish mexanizmini ham belgilaydi.

Agar xodim o’zini kamsitilgan deb hisoblasa, u ish beruvchiga yoki mehnat inspeksiyasiga shikoyat qilishi mumkin. Mehnat inspeksiyasi kamsitish to’g’risidagi da’vo arizalarini tekshirish huquqiga ega va ularni hal qilish uchun tegishli choralarni ko’rishi mumkin.

O’zbekistonda mehnat munosabatlarida inson huquqlarini kamsitganlik uchun javobgarlik. O’zbekistonda mehnat munosabatlarida inson huquqlarini kamsitganlik uchun javobgarlik milliy qonunchilik va xalqaro majburiyatlar bilan tartibga solinadi. Mehnat munosabatlaridagi kamsitishlarni bartaraf etishda javobgarlikni bir qancha asosiy omillar belgilab beradi:

1. Milliy qonunchilik. O’zbekistonda mehnat faoliyatida kamsitishlarni taqiqlovchi qonunlar qabul qilingan. O’zbekiston Respublikasi mehnat kodeksida irqi, millati, jinsi, tili, nogironligi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi, siyosiy yoki diniy e’tiqodi hamda boshqa himoyalangan asoslarga ko’ra kamsitish taqiqlanadi. Ish beruvchilar ushbu qonunlarga rioya qilishlari shart.

2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Konstitutsiyada barcha fuqarolarning teng huquq va erkinliklari kafolatlangan. 19-moddada tenglik, kamsitilmaslik va huquqlarni himoya qilish tamoyillari mustahkamlangan.

3. Xalqaro majburiyatlar: O’zbekiston bandlik sohasida tenglik va kamsitilmaslikka yordam beruvchi xalqaro konvensiya va shartnomalarning ratifikatsiya qilgan. Masalan: “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risida”gi xalqaro pakt va “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to’g’risida”gi konvensiyasini imzolagan. Ushbu majburiyatlar mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish va bartaraf etish mas’uliyatini kuchaytiradi.

O’zbekiston Respublikasi mehnat kodeksining 3-moddasi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog’liq bo’lgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan

tartibga solishning asosiy prinsiplaridan biri mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash hisoblanadi. Mazkur tamoyil mehnat kodeksining 4-moddasida batafsil ma'lumot keltirilgan bo'lib unga ko'ra jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatleri va mehnati natijalari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jihatlari qarab mehnat va mashg'ulotlar sohasida biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitish hisoblanishi belgilangan.

Agar huquqbuzarlik aniqlansa mehnat va (yoki) mashg'ulotlar sohasida o'zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs kamsitilish fakti ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilishi, shu jumladan kamsitishni bartaraf etish hamda o'ziga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Mazkur kodeksning 545-moddasiga binoan yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organlar sifatida mehnat nizolari komissiyasi hamda sudlov organlari belgilangan.

Xodim mehnat nizosini hal qilish uchun o'z tanloviga ko'ra mehnat nizolari bo'yicha komissiyaga yoki bevosita sudga murojaat etishga haqli.

Har qanday yakka tartibdagi mehnat nizosi mehnat nizolari bo'yicha komissiyada yoki sudda ko'rib chiqishning istalgan bosqichida, sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun kirishidan oldin "Mediatsiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ko'rib chiqish uchun mediatorga o'tkazilishi mumkin.

O'zbekistonda mehnat munosabatlaridagi diskriminatsiyani oldini olish, bartaraf etish va inson huquqlarini himoya qilish uchun doimiy tizimli harakatlar zarur. Bu huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash, kamsitishning oldini olish bo'yicha xabardorlikni oshirish, ish joylarida tenglik va inklyuzivlik madaniyatini oshirish, kamsitish duchor bo'lgan insonlarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kamsitishlarga qarshi kurash olib borilayotgan bo'lsada, kamsitish amaliyotlarini to'liq bartaraf etishda muammolar mavjud. Mazkur muammolar mehnat munosabatlarini subyektiga ko'ra farq qilgan holda turli xil javobgarlikni keltirib chiqaradi. Dunyo mamlakatlariga e'tibor qaratsak mehnat munosabatlarida kamsitishning shakllari turli xil bo'lib jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, AQShda terini rangiga ko'ra yoki milliy kelib chiqishiga ko'ra ishga olmaslik holatlari ko'p uchraydi. Hindiston davlatida esa diniy mansubligiga qarab ishga olish yoki olmaslik masalasi bugungi kunda ham dolzarb muammolardan biri deyish mumkin. Mazkur muammolar tegishli manfaatdor tomonlar, hukumat, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ish beruvchilar o'rtasidagi uzluksiz hamkorlik hamda qonunchilikning samarali ijrosini ta'minlash lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mehnat munosabatlarida kamsitish uchun javobgarlik masalasi murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega. Ish joyidagi kamsitish irqi, jinsi, yoshi, nogironligi yoki jinsiy oriyentatsiyasi kabi turli omillar asosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jamiyat uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ilmiy nuqtai nazardan huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilashda mehnat munosabatlarida kamsitishning asosiy sabablari va ta'sir etuvchi omillarini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Yuqorida bir qator davlatlarni qonunchiligini tahlil etish davomida bir qator muammo va kamchiliklar aniqlandi. Jumladan, Rossiya qonunchiligida kamsitishlarni bartaraf etish bo'yicha bir qator qonunlar qabul qilingan bo'lsa ham, ushbu qonunlarning amalda qo'llanilishi va bajarilishida muammolar mavjud.

Mehnatga oid munosabatlarda kamsitishning taqiqlanishiga qaramay, amalda ish beruvchi bu talabni buzish holati uchraydi. Mehnat oid munosabatlarda kamsitish ko'rinishlari xilma-xil va yashirindir. Masalan, bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot berilgan istalgan gazetani ochsak, deyarli barcha e'lonlarda yo jinsi bo'yicha kamsitish yoki yoshi bo'yicha kamsitishlariga duch kelamiz. Bugungi kunda ko'plab insonlar mehnat sohasidagi kamsitish ko'rinishlariga tabiiy holat sifatida qarashadi. N.L.Lyutov o'z asarlarida ta'kidlaydiki, bizning jamiyatimizda bu muammo ahamiyatsiz deb hisoblashadi [20]. Shu o'rinda shuni aytish mumkinki, Rossiya qonunchiligida mehnatga oid munosabatlarda kamsitish tushunchasiga aniq ta'rif berilmagan. Natijada barcha ma'lumotlar umumiy va keng qamrovli tushuncha sifatida shakllanganligi sababli kamsitishga qarshi samarali kurashishga imkon bermaydi. Bu haqida N.A.Demenevaning fikricha, "u qamrab olgan sohalar soni qancha ko'p bo'lsa, kamsitish xavfi shunchalik yuqori bo'ladi"[21].

Ishchilarni himoya qilishdagi asosiy qiyinchilik bu sohada kamsitish holati odatda yashirin ko'rinishda bo'ladi. Ya'ni diskriminatsion holatlarni ko'p hollarda isbotlash qiyin [22]. Bunga albatta ko'p omillar ta'sir qiladi. Masalan, mehnat huquqi buzilgan shaxsni mazkur qoidabuzarliklarga aloqador bo'lgan odamlarni bu haqida sudda yoki tegishli davlat organi oldida guvohlik berish holati amaliyotda kam uchraydigan holat hisoblanadi. Bunga asosiy sabablardan biri bu ish beruvching bosimi hisoblanadi.

O'zbekiston mehnat qonunchiligida kamsitish masalasiga oid normalar mavjud bo'lsa-da amalda qonun normalaridagi bo'shliqlar hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi kamchiliklarni ko'rishimiz mumkin. Mehnat munosabalarida kamsitishga qarshi samarali kurashish tizimini yaratish uchun milliy qonunchilikni takomillashtirish, tegishli davlat organlariga shikoyat mexanizmlarini soddalashtirish va aholini huquqiy savodxonligini oshirish lozim. Kamsitish uchun javobgarlikni tartibga soluvchi qoidalar umumiy xarakterga ega bo'lib, ma'lum turdagi holatlarga nisbatan aniq maxsus choralar ko'rsatilmagan. Xodimlar tomonidan kamsitishga uchraganda murojaat qilish tartibi murakkab va ko'p vaqt talab qiladi. Mamlakatimizda norasmiy sektorda band bo'lgan insonlarni huquqlarini himoya qilish nisbatan qiyin jarayon hisoblanadi. Vaziyatni qiyinlashtiruvchi asos sifatida ish beruvchi va xodim o'rtasida hech qanday mehnat shartnomasi tuzilmasligi huquqbuzarlikka nisbatan javobgarlik belgilashni qiyinlashtiradi.

Davlat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar davomida hujjatlarning noto'g'ri yuritilishi yoki norasmiy ishlovchi xodimlar huquqlarining buzilishi ko'p hollarda aniqlanmay qolishiga sabab bo'ladi. Yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun kamsitishga qarshi maxsus qonun qabul qilish kamsitish uchun aniq belgilangan maxsus javobgarlik choralarini belgilash lozim. Shuningdek, shikoyat mexanizmlarini soddalashtirish, onlayn platformalar orqali kamsitish holatlari haqida anonim xabar berish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nazorat tizimini kuchaytirish maqsadida davlat mehnat inspeksiyasiga qo'shimcha vakolatlar berish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qator davlatlarning tegishli qonun hujjatlarini, mehnat kodekslarini, shuningdek, xalqaro mehnat huquqi hujjatlari tahlili amalga oshirildi. Taqqoslash metodi orqali davlatlarning mehnat qonunchiligidagi normalarining o'xshash va farqli qisimlari tahlil qilindi.

Olingan statistik ma'lumotlar asosida ishsizlik darajasi, ish haqi, ishchilarning huquqlarini buzish holatlari kabi statistik ma'lumotlarni tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqot ishida ko'zda tutilgan davlatlar qonunchiligini o'rganish davomida mehnat qonunchiligi juda murakkab va ko'plab qonunlarni o'z ichiga olishi, bu esa ayrim hollarda ishchilarning o'z huquqlarini bilishini va himoya qilishini qiyinlashtirish mumkin ekanligi aniqlandi. Shunday bo'lsada ayrim jabhalarda kamsitish holati bo'yicha alohida qonunlarning mavjudligi ijobiy natijadorlikka ega bo'lgan. Masalan, AQSh va Fransiya murakkab ma'muriy-hududiy tuzilishiga ega bo'lishi qonunchilikni amaliyotga qo'llashda ma'lum bir farqlarni keltirib chiqaradi. Alohida qonunlarni qabul qilinishi tushinmovchiliklarni ma'lum ma'noda kamaytirish imkonini beradi.

Qonunlarni qo'llashda sud amaliyotining bir xil emasligi va subyektivligi ishchilarning o'z huquqlarini himoya qilishni qiyinlashtiradi.

Xulosa. Mehnatga oid munosabatlarda inson huquqlari kamsitishini taqiqlash uchun javobgarlik masalasini tahlil qilish natijasida bizga quyidagilarni umumlashtirish imkonini beradi:

Mehnatga oid munosabatlarda huquqlar, erkinliklar va imkoniyatlar tengligi mehnat qonunchiligining zamonaviy talabi bo'lib mazkur sohada tenglikka fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish hamda qonunchilikni takomillashtirish orqali erishish mumkin.

Yuqoridagi davlatlarda kamsitishni taqiqlash talabi qonunchilikda mustahkamlanganiga qaramay, fuqarolarning huquqlarini kamsitishdan himoya qilishning kompleks chora-tadbirlari amalda mavjud emas. Kamsitishga qarshi kurashish uchun qonun bilan belgilangan bir qator muassasalar: sudlar, mehnat inspeksiyalari va prokuratura organlarini integratsion harakatini ta'minlash lozim. Shuningdek, mehnat inspeksiyasida kamsitishlarga qarshi ixtisoslashtirilgan bo'linma tashkil etilishi kerak. Bunday bo'limning asosiy vazifasini fuqarolarning huquqlarini kamsitishdan himoya qilish bo'yicha barcha muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda fuqarolar bilan kamsitish holatlari va undan himoyalanih usullari haqida profilaktik suhbatlar o'tkazish, kamsitish qurbonlariga huquqiy yordam ko'rsatish, qonunchilikning normativ asosini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlashdan iborat bo'lishi lozim.

Milliy va xalqaro tajribaga asoslanib, mehnat munosabatlarida kamsitish uchun javobgarlik va ularning huquqiy asoslari bo'yicha keng qamrovli huquqiy asoslarini yaratish lozim. Diskriminatsiya turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri kamsitish yoki bilvosita kamsitishdan iborat bo'ladi. Qonun hujjatlarida ushbu taqiqlangan harakatlarni aniq belgilash hamda javobgarlik masalasini ko'rsatish ish joyida kamsitishning oldini olishga ko'maklashadi.

Mehnatga oid munosabatlarda kamsitish amaliyoti uchun ish beruvchilarni javobgarlikka tortuvchi samarali ijro mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu mexanizmlar ma'muriy organlar, tenglik yoki inson huquqlari bo'yicha ixtisoslashgan komissiyalar, mehnat sudlari yoki nizolarni hal qilishning boshqa mexanizmlarini o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu organlar shaxslarga shikoyat qilish va o'z huquqlarini himoya qilish

yo'llarini taqdim etishi hamda fuqarolarning kamsitish haqidagi da'vo arizalarini ko'rib chiqishi, audit tekshiruvini o'tkazish orqali bandlik sohasida kamsitishlarni kamaytirishga erishish mumkin.

Mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash hamda ayollarga mehnat faoliyati bilan samarali shug'ullanishi uchun teng imkoniyat yaratib berish maqsadida xotin-qizlarni ishga qabul qilish, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini o'zgartirish va bekor qilishga oid qoidalarni yanada takomillashtirish lozim. Jumladan, homilador va uch yoshgacha farzandi bor ayollarga xususiy sektorda ishga qabul qilish, mehnat shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq noqonuniy harakatlar uchun javobgarlik masalasini jinoyat kodeksida va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar normalariga kiritilishi lozim. Homilador va nogironligi bor ayollarga masofaviy hamda moslashuvchan ish muhitini yaratib bergan ish beruvchiga imtiyozlar ro'yxatini kengaytirish lozim.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Липинский Д.А. Юридическая ответственность – институт права // Юрист. 2013. № 13. – С.7.[Липинский.Д.А. Легал лиабилитй – ан институтион оф лав // Журист.]
2. Абдуманалов Р. Трудовая миграция // Территория согласия. 2007. № 2(7). С. 22–24. [Абдуманалов Р. Лабор миграцион // Территорй оф сонцент].
3. Кондратьева С.Л. Юридическая ответственность: соотношение норм материального и процессуального права. – С. 14.
4. XMT Bosh direktorining "Ishdagi tenglik: muammolarga javob izlash" ma'ruzasi: Xalqaro mehnat konferensiyasi. 96-sessiya 2007. Xalqaro mehnat byurosi. Jeneva. 262 b.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Available at: <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights/> (accessed 01.01.2024)
6. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risi"da Xalqaro pakt 1966-yil 16-dekabr, Nyu-York;
7. "Teng haq to'lash to'g'risi"da konvensiya,1951-yil 29-iyun, Jeneva;
8. "Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risida"gi konvensiya, 1958-yil 25-iyun, Jeneva;
9. ILO Declaration on Fundamental Principles and Rights at Work. Available at: <https://www.ilo.org/declaration/thedeclaration/lang--en/index>.(accessed 01.01.2024)
10. Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya, 1979-yil 18-dekabr, Nyu-York;
11. XMT Bosh direktorining "Ishdagi tenglik: muammolarga javob izlash" ma'ruzasi: Xalqaro mehnat konferensiyasi. 96-sessiya 2007. Xalqaro mehnat byurosi. Jeneva. 262 b.
12. O'zbekistonda mehnat qonunchiligini buzgan 2700 ga yaqin amaldor jazolandi // <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/13/labor-legislation/>
13. Civil code. Available at: https://www.law.cornell.edu/wex/civil_code#:~:text=A%20civil%20code%20is%20a,co dified%20in%20a%20commercial%20code. (accessed 02.01.2024)
14. Age Discrimination. Available at: <https://www.eeoc.gov/age-discrimination> (accessed 02.01.2024)
15. Guide to Disability Rights Laws /<https://www.ada.gov/resources/disability-rights-guide> (accessed 02.01.2024)
16. Pregnancy Discrimination and Pregnancy-Related Disability Discrimination/<https://www.eeoc.gov/pregnancy-discrimination> (accessed 02.01.2024)
17. The Genetic Information Nondiscrimination Act of 2008/ <https://www.eeoc.gov/statutes/genetic-information-nondiscrimination-act-2008> (accessed 02.01.2024)

18. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. <http://www.constitution.ru/en/10003000-03.htm>. (accessed 02.02.2024)
19. LABOR CODE OF THE RUSSIAN FEDERATION OF 31 DECEMBER 2001. <https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/WEBTEXT/60535/65252/E01RUS01.html> (accessed 02.01.2024)
20. Лютов Н. Л. Дискриминация в области труда и занятий: проблем определения // Трудовое право в России и за рубежом. 2011. № 4. С. 20–24, 22.
21. Деменева Н. А. Дискриминация в сфере труда: проблемы методологии // Трудовое право в России и за рубежом. 2011. № 2. С. 19–22.
22. Мазин А.Л. Трудовая дискриминация и управление персоналом // Трудовое право. 2015. № 1. С. 80-89. [Mazin A.L. Labor discrimination and personnel management // Labor law]
23. Qozog'iston Respublikasida 2030-yilgacha oila va gender siyosati konsepsiyasi, № 384, 12.06.2016-yil, 14-bet.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

CONTENTS AND REQUIREMENTS TO THE PROSECUTOR'S SUBMISSION ON ELIMINATION OF VIOLATIONS OF THE LAW, REASONS FOR THESE VIOLATIONS AND CONDITIONS CONTRIBUTING TO THEM

Komilov Avazbek Bokijonovich

The Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan,
Head of Department, PhD in Law, Associate Professor

Abstract. This article is devoted to the content and requirements of the prosecutor's submission regarding the elimination of legal violations, the causes of these violations, and the conditions contributing to them. According to the author, the basis for submitting this request is the identified violation of the law, its causes, and the conditions facilitating it. The article also describes the methodological and practical guidelines that should be followed when preparing the submission, as well as the requirements for its form and content, and the main characteristics of the submission. Furthermore, the author provides a definition of the prosecutor's submission, which is made in the context of overseeing the enforcement of laws.

Keywords: prosecutorial supervision over the execution of laws, acts of prosecutorial supervision, prosecutor's submission, violation of the law, reasons for violations of the law, conditions that contribute to violations of the law.

QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR

Komilov Avazbek Bokijonovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
kafedra boshlig'i, yu.f.f.d. (PhD), dotsent
E-mail: komilov02011985@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi prokuror taqdimnomasining mazmuni va unga qo'yilgan talablarga bag'ishlangan. Muallifning qarashlariga ko'ra, aniqlangan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar taqdimnoma kiritish uchun asos bo'ladi. Shuningdek, maqolada taqdimnoma tayyorlashda amal qilinishi lozim bo'lgan uslubiy-amaliy ko'rsatmalar hamda uning shakl va mazmuniga qo'yilgan talablar, taqdimnomaga xos asosiy xususiyatlar ham bayon etilgan. Bundan tashqari, qonunlar ijrosi ustidan nazorat tartibida kiritiladigan prokuror taqdimnomasiga mualliflik ta'rifi ham berilgan.

Kalit so'zlar: qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati, prokuror nazorati hujjatlari, prokuror taqdimnomasi, qonun buzilishi, qonun buzilishining sababi, qonun buzilishiga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N69>

Qonunlar ijrosi ustidan nazorat tartibida kiritiladigan prokuror taqdimnomasi (*keyingi o'rinlarda – taqdimnoma*) – aniqlangan qonun buzilishini bartaraf etish to'g'risida uni bartaraf etish va kelgusida sodir etilishini oldini olish vakolatiga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga darhol ko'rib chiqqan holda, qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga

imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, qonun buzilishini sodir etgan yoki sodir etilishiga yo'l qo'ygan shaxslarning javobgarlik masalasini qonun doirasida hal qilish hamda taqdimnomani ko'rib chiqish natijasi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida prokurorga qonunda belgilangan muddat ichida yozma ravishda ma'lum qilish haqidagi talabi bayon etilgan prokurorning rasmiy, yozma nazorat hujjatidir.

Taqdimnoma nazorat hujjatini qo'llash uchun aynan aniqlangan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar asos bo'ladi. Bir qator olimlarning qarashlariga ko'ra, taqdimnoma:

- bitta qonunbuzarlik fakti bo'yicha (masalan, prokuratura organlariga kelib tushgan murojaat yuzasidan o'tkazilgan prokuror tekshiruvi natijasiga ko'ra);

- tekshiriladigan shaxsning harakatlarida aniqlangan bir necha qonunbuzarlik faktlari bo'yicha (masalan, muayyan shaxs tomonidan tegishli qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ahvoli yuzasidan o'tkazilgan rejali tekshiruvlar natijasiga ko'ra);

- qonuniylikning tizimli va muntazam buzilishi fakti bo'yicha (masalan, ma'lum bir davrda mansabdor shaxs nomiga muqaddam kiritilgan prokuror ta'sir hujjatlarini tahlil qilish va umumlashtirish natijasiga ko'ra) qo'llaniladi[1]. Shuningdek, Ye.Alxutovanning yozishicha, taqdimnomani qonun buzilishi holati deyarli bartaraf etilgan, ammo uning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlar saqlanib qolganda ham qo'llasa bo'ladi[2]. Demak, taqdimnoma nazorat hujjatiga xos bo'lgan komplekslilik belgisi, ushbu nazorat hujjati, nafaqat, bitta qonunbuzarlik holati yoki noqonuniy qabul qilingan huquqiy hujjatga nisbatan, balki bir qancha noqonuniy hujjatlar, qonun buzilishi holatlari guruhiga nisbatan qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Binobarin, taqdimnomaning predmeti qonun buzilishi holatlarining majmui hisoblanadi[3].

Taqdimnoma qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirlari materiallariga, prokuror nazorati amaliyotini umumlashtirish natijalariga, qonun buzilishining tizimi, dinamikasi va sabablarini o'rganishga asoslanadi. Taqdimnomani tayyorlash vaqtida qonun buzilishi haqidagi ma'lumotlar va sabablar, ularni keltirib chiqaruvchi omillar haqida davlat idoralari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan olingan ma'lumotlardan ham foydalanish mumkin[4]. O.Voroninning yozishicha, taqdimnoma kiritish qonuniylik holatiga oid umumlashtirilgan ma'lumotlar, prokuror nazorati amaliyoti, muqaddam o'tkazilgan tekshiruv materiallari, idoraviy va sud nazorati amaliyoti, ariza va shikoyatlarga ham asoslanadi[5].

Amaldagi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 40-moddasiga binoan, prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi. Bundan ko'rinadiki, taqdimnoma qonun buzilishi holatlarini, uning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga vakolatli bo'lgan va o'z vaqtida amaliy chora-tadbirlar ko'ra oladigan davlat organlari va mansabdor shaxslarga jo'natiladi. Bunday tartib ko'proq yuqori organlarning bevosita aralashuvi lozim bo'lgan hollarda (*masalan, qonun buzilishi holatiga quyi turuvchi organ rahbari javobgar bo'lsa*) yoki aniqlangan qonun buzilishlar shu tarmoqning boshqa korxona, muassasa, tashkilotlarida ham mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladi[6].

V.Merkuryev va S.Borisovlarning qarashlariga ko'ra ham ushbu ta'sir hujjatini qonunbuzarlik aniqlangan organga nisbatan yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxs)

yo'llash qonun bilan ruxsat etilgan. Ammo, mazkur algoritm bevosita nazorat ostidagi organ yoki mansabdor shaxsga muqaddam yo'llangan prokuror ta'sir hujjatlari kutilgan natijani bermaganda va qonunbuzarlik sodir etilishi to'xtamayotganda tanlanishi maqsadga muvofiq. Bunday vaziyatda subyektiv sabablarga ko'ra qonunbuzarlikni mustaqil bartaraf etmagan organ rahbariga (mansabdor shaxs) ham chora ko'rish masalasini kun tartibiga qo'yish kerak bo'ladi[7].

Yuqoridagi Qonunga ko'ra, taqdimnoma darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim. Taqdimnoma kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida oldindan xabardor qilingan prokuror majlisda ishtirok etishi va taqdimnomada ko'rsatilgan qonunbuzarliklar, ularning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarning mohiyatini muhokama ishtirokchilariga tushuntirishi hamda ularni bartaraf etish va kelgusida sodir etilishini oldini olishga qaratilgan samarali va ta'sirchan choralar belgilanishiga erishishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng asosiysi, prokuror birinchi kundan boshlab taqdimnoma muhokamasiga puxta tayyorgarlik ko'rish kerak.

Shu o'rinda qayd etish joizki, qonun buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnoma mazmuniga nisbatan aniq talablar qonunchilikda o'z ifodasini topmagan. Shu bilan birga, bizningcha, taqdimnoma tayyorlashda quyidagi uslubiy-amaliy ko'rsatma va talablarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Avvalo, prokuror har bir vaziyatda aniqlangan qonun buzilishi holatlari taqdimnoma kiritish uchun yetarli /yetarli emasligini aniqlab olishi lozim. Kam ahamiyatga ega bir martalik qonunbuzarliklar yuzasidan taqdimnoma o'rniga ushbu qonunbuzarliklarga e'tibor qaratish talabi bilan mas'ul rahbarlar va mansabdor shaxslarga og'zaki murojaat qilish ham mumkin[8]. Misol uchun, u yoki bu shaxsni intizomiy javobgarlikka tortish yoki qonunga zid bo'lgan hujjatni bekor qilishga sabab bo'luvchi bitta holatni asos qilib taqdimnoma kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holatlarda prokuror nazorati hujjatlaridan: intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror yoki qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protest keltirish kabi turlaridan foydalanish lozim[9].

Taqdimnoma mazmunan boy, aniq, haqqoniy va ishonarli bo'lishi shart[10]. Taqdimnoma tayyorlashda: yuridik jihatdan asoslanganlik, ishonchlilik, savodxonlik, qisqa, biroq barcha holatlarni to'la-to'kis bayon etish kabi talablarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Taqdimnomada o'z ifodasini topadigan barcha ma'lumotlar puxtalik bilan tekshirilgan bo'lishi shart, unga kiritilayotgan takliflar (talablar) aniq va qonun buzilishini bartaraf etish va uni oldini olish bo'yicha samarali natija beradigan chora-tadbirlarni ko'zda tutishi zarur[11]. Shu bilan bir qatorda, taqdimnomalarda qonun buzilishi yoki boshqa asoslantirilmagan, ya'ni holatga taxminiy baho berish va shunga asosan xulosa qilish qat'iyon taqiqlanadi. Prokurorning taqdimnomasida keltirilgan barcha qonun buzilishi holatlari tekshiruv hujjatlari bilan tasdiqlangan bo'lishi shart[12].

Shunindek, taqdimnomada bayon qilinadigan statistik va boshqa ma'lumotlar, qonun buzilishi holatlarining mazmuni, yuzaga kelishining sabablari va shart-sharoitlari chuqur tahlil qilib berilmasa, qonuniylik ahvoli batafsil tavsiflangan hisoblanmaydi. Shu bois, mazkur masalaga alohida e'tibor bilan yondashish talab etiladi.

Prokuror taqdimnoma kiritish orqali o'zi murojaat qilayotgan tegishli organlar yoki mansabdor shaxslarga har bir huquqbuzarlik sodir etilishining to'liq mexanizmini ko'rsatib

berishi zarurki, ular aynan shu asosda qonun buzilishi, uning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha mukammal chora-tadbirlar ko'radilar[13]. Shu sababli, prokuror qonun buzilishini bartaraf etish uchun zaruriy chora-tadbirlar ko'rish to'g'risida umumiy so'zlar bilan cheklanmasligi, balki qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan aniq tavsiyalar berishi hamda ularni bartaraf etish usullari ko'rsatilishi lozim. Agar qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish tashkiliy-iqtisodiy yoki texnik holatlar bilan bog'liq bo'lsa, bunda prokurorning talablari vakolatli organ va mutaxassis-ekspertlarning xulosalari bilan asoslangan bo'lishi kerak.

Shuni ham qayd etish joizki, taqdimnoma tayyorlash mobaynida prokurorlar nazorat qiluvchi organlarning tekshiruv materiallariga tez-tez murojaat qiladilar. Ammo, ushbu hujjatlarni to'liq tushunib yetmasdan, bemulohazalik bilan shunchaki qo'llash va ularda, nafaqat, prokurorga, balki taqdimnoma yo'naltirilgan adresatga ham tushunarsiz bo'lgan maxsus terminlardan foydalanishdan qochish kerak. Xususan, taqdimnomaning asoslantiruvchi qismidagi matnga texnik terminlar, turli xil SNiP, GOST va boshqa texnik me'yorlar, shuningdek har xil diagramma va jadvallar kiritilishiga yo'l qo'yilmasligi kerak[14].

Taqdimnomaning har bir tuzilmaviy elementlari (*kirish, asosiy qism va xulosa*) o'rtasida mantiqiy bog'liqlik bo'lishi shart. Taqdimnomada qonunbuzarliklarga qarshi kurash to'g'risida quruq va umumiy ta'kidlashlar bo'lmasligi lozim. Prokuror ilgari suradigan xulosalar tekshiruv materiallari va mutaxassislar xulosalariga asoslanishi, qat'iy tarzda bayon etilishi, gumon va taxminiy gaplar hamda da'volarga o'rin berilmasligi zarur. Taqdimnomada bartaraf etilishi taqdimnoma yo'llanayotgan organ yoki mansabdor shaxsning vakolatiga kirmaydigan qonunbuzarliklarni batafsil bayon etib o'tirish ham tavsiya etilmaydi[15].

Bundan tashqari, qonunlar ijrosi ustidan nazorat tartibida kiritiladigan prokuror taqdimnomasi shakl va mazmuniga ko'ra ma'lum bir talablarga javob berishi zarur. Xususan, unda quyidagilar bayon etilishi lozim bo'ladi:

taqdimnoma kiritilayotgan qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo'lgan organ nomi yoki mansabdor shaxsning F.I.Sh.;

taqdimnomaning nomlanishi "qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnoma";

taqdimnoma kiritishga asos bo'lgan fakt va argumentlar (*prokuror tekshiruvi, qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida o'tkazilgan umumlashtirish, jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar tahlili, jinoiy va fuqarolik ishlari bo'yicha sud materiallari va h.k.*);

prokuror tomonidan aniqlangan qonun buzilishining mazmuni, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar;

qonunbuzarlik sodir etgan yoki uning kelib chiqishiga sabab bo'lgan yoxud bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarga yo'l qo'yib bergan hamda oldini olish choralarini ko'rmagan shaxslarga oid ma'lumotlar;

qonun buzilishini bartaraf qilish va uning sodir bo'lishiga ko'maklashgan sabab va shart-sharoitlarga barham berish yuzasidan choralar ko'rish haqida[16] hamda qonun buzilishiga yo'l qo'ygan shaxsga nisbatan qonunda belgilangan jazo choralarini qo'llash to'g'risidagi[17] takliflar;

taqdimnomaning darhol ko'rib chiqilishi va aniqlangan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish

bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilish to'g'risidagi talab;

prokurorning mansab lavozimi, uning darajali unvoni, imzosi va sana.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, taqdimnomaning sifat va samaradorligini kuchaytirishda uning yakuniy qismida prokuror pozitsiyasini aniq va ravshan bayon etish muhim ahamiyatga ega sanaladi. Qoida tariqasida, prokuror faqatgina taqdimnomani ko'rib chiqish haqidagi talab bilan cheklanib qolmasligi, bil'aks qonun buzilishi, uning sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida ko'rilishi lozim bo'lgan aniq chora-tadbirlar haqida fikr bildirishi kerak. Taqdimnomaning yakuniy qismida ko'rsatilgan talab va takliflar aniq va konstruktiv (amaliy) bo'lishi lozim, shundagina ular qonun buzilishi, uning sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarning haqiqatda bartaraf etilishiga ko'maklashadi[18]. Zero, Yu.Turaygin ta'biri bilan aytganda, taqdimnoma ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan hujjat bo'lib, uning maqsadi – nazorat osti obyektidagi qonuniylik holati yaxshilanishiga olib keladigan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishdan iboratdir[19].

M.Бызовaning fikricha, taqdimnomada prokuror tomonidan qonun buzilishi, uning sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha taklif etiladigan chora-tadbirlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

birinchidan, prokuror tomonidan berilayotgan takliflar asosli, sodir etilgan qonunbuzarlik va uning oqibatlariga nisbatan mutanosib bo'lishi, ushbu qonunbuzarliklar aniqlangan prokuror tekshiruvi hujjatlariga tayanishi lozim;

ikkinchidan, prokuror berayotgan takliflar unga berilgan huquq va vakolatlar doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Masalan, qonunbuzilishi, uning sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarning xususiyati prokurordan maxsus bilim talab qiladigan hollarda, uning takliflari mutaxassislarning xulosalari, reviziya va taftish hujjatlariga asoslanishi kerak bo'ladi;

uchinchidan, prokuror subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashmasligi kerak. Xususan, prokurorning iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv va texnik xarakterdagi takliflari ham mutaxassislarning xulosalari, reviziya va taftish hujjatlariga asoslanishi lozim bo'ladi[20].

Milliy olimlardan B.Po'latov va A.Davletovlarga ko'ra, taqdimnomada qonun buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni intizomiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish haqidagi prokuror talabi ham ko'rsatilishi mumkin. Bu tartib prokuror tomonidan intizomiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish haqida alohida qaror chiqarilmagan holatlarda qo'llaniladi[21]. Bizningcha esa yetarli asoslar bo'lganda va taqdimnoma kiritilayotgan organ (mansabdor shaxs) vakolatga ega bo'lgan taqdirda, taqdimnomada aybdor shaxslarni intizomiy, ma'muriy yoki moddiy javobgarlikka tortish, qonunga zid bo'lgan hujjatlarni bekor qilish yoki uni qonunga muvofiqlashtirish, shuningdek, yetkazilgan zararni undirishga oid talablar ham qo'yilishi mumkin. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, amaliyotda aksariyat holatlarda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish masalasi taqdimnomalarda umumiy tarzda shaxssizlantirilgan shaklda so'ralmoqda, ya'ni na aybdor shaxsning F.I.Sh., na javobgarlik turi (*intizomiy va h.k.*) ko'rsatilmogda. Bu esa ko'pincha taqdimnomani ko'rib chiqayotgan organ (mansabdor shaxs)ga ushbu masalalarni qat'iyat bilan hal qilishdan qochish imkonini yaratmoqda. Vaholanki, taqdimnomada aybdor shaxsning nafaqat F.I.Sh.ni, shuningdek, ular tomonidan sodir etilgan huquqqa xilof qilmishlarning mohiyatini bayon qilish va baho berilishi lozim[22].

Taqdimnomani kiritgan prokuror, o'z navbatida, zimmasidagi ba'zi bir majburiyatlarni unutmashligi zarur bo'ladi: *birinchidan*, u taqdimnomaning zudlik bilan o'z vaqtida va amalda ko'rib chiqilganligini nazorat qilishi lozim; *ikkinchidan*, taqdimnoma vakolatli organga (mansabdor shaxs) kelib tushgan kundan boshlab uzog'i bir oylik muddat tugaganidan so'ng uni ko'rib chiqqan organ (mansabdor shaxs) tomonidan prokurorga batafsil axborot taqdim qilinishini ta'minlashi va bu jarayonni o'z nazoratida ushlab turishi kerak; *uchinchidan*, prokuror taqdimnomada ko'zlangan zarur samaradorlik va ta'sirchanlikka erishishi uchun taqdimnomani ko'rib chiqish natijasiga ko'ra qabul qilingan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, haqqoniy va amalda bajarilishini tekshirib borishi hamda qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishda prokuror taqdimnomasining samaradorligini aniqlashi shart.

Agar prokuror taqdimnomasida ko'rsatilgan talablar tegishli organ tomonidan bajarilmagan yoki to'liq bajarilmagan taqdirda, prokuror o'zining taqdimnomasini yuqori turuvchi prokuror orqali ijro hokimiyatining yuqori organiga yuborishi mumkin va shart bo'ladi[23].

Yodda tutish lozimki, taqdimnomaga yozma javob tashkilotning rasmiy blankida rasmiylashtirilishi, unda quyidagi ma'lumotlar o'z aksini topishi kerak:

- taqdimnomani yuborgan prokuratura organining nomlanishi, taqdimnoma kiritgan prokurorning F.I.Sh.;

- prokurorga yuborilayotgan yozma javob xatining nomlanishi (masalan, "... to'g'risidagi taqdimnomaga javob");

- taqdimnoma qachon va kim tomonidan ko'rib chiqilganligi haqida ma'lumot;

- taqdimnomada qayd etilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar va ularni bajarish natijalari[24].

Yozma javob xatiga taqdimnomani muhokama qilish bo'yicha o'tkazilgan majlis bayonnomasi, taqdimnomani ko'rib chiqish jarayonida intizomiy yoki boshqa javobgarlik choralari qo'llanilgan yoxud yetkazilgan moddiy zarar undirilgan (*ixtiyoriy yoki qonunda belgilangan boshqacha tarzda*) bo'lsa, tasdiqlangan buyruq nusxasi va tasdiqlovchi boshqa hujjatlar ilova qilinishi shart. Taqdimnomaga yozma javob xati tashkilot rahbari tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi. Yozma javob xati taqdimnoma kelib tushgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida prokurorga yuborilishi, ushbu muddat ichida aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq choralar ko'rilgan bo'lishi shart.

Umuman olganda, qonunlar ijrosi ustidan nazorat tartibida kiritiladigan prokuror taqdimnomasiga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- taqdimnoma kompleks xususiyatga ega, qonunbuzilishlar majmuasini bartaraf etishga qaratilgan prokuror nazorati hujjati bo'lib, uni qo'llash uchun aniqlangan qonunbuzarliklar majmui, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar asos bo'ladi;

- taqdimnoma qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritiladi;

- taqdimnoma darhol ko'rib chiqiladi, aniqlangan qonun buzilishi holatlari, ularning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish

yuzasidan tashkiliy, amaliy chora-tadbirlar belgilanadi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi

– taqdimnomada ko'rsatilgan tavsiyalar (talablar) tegishli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan bajarilmagan yoki to'liq bajarilmagan taqdirda, prokuror o'zining taqdimnomasini yuqori turuvchi prokuror orqali taqdimnoma kiritilgan organ (mansabdor shaxs)ning yuqori organi (mansabdor shaxs)ga yuborishi mumkin bo'ladi;

– prokurorning qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Правовые акты прокурорского надзора / (Т.А.Васильева, Н.П.Дудин, Г.В.Дытченко, Е.Л.Никитин, А.Е.Скачкова); науч. ред. Н.П.Дудин. – СПб.: Санкт-Петербургский юридический институт (филиал) Академии Генеральной прокуратуры Российской Федерации, 2011. – С. 98.
2. Алхутова Е.Ю. Прокурорский надзор за исполнением законов об административной ответственности за правонарушения в сфере экономики: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования "Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации", 2013. – С. 162-163.
3. Турыгин Ю.Н. Взаимодействие прокуратуры Российской Федерации и неправительственных правозащитных организаций по защите прав и свобод человека и гражданина: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное казенное образовательное учреждение высшего образования "Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации", 2012. – С. 155-156.
4. Б.Пўлатов; Давлетов А.Дж. Прокурорский надзор: учебник для студентов юридических вузов и факультетов. – Нукус: «Билим», 1999. –С. 109-110.
5. Воронин О.В. Правовые средства прокурорского надзора в местах принудительного изоляции от общества // «Уголовная юстиция», №17 / 2021. – С. 97.
6. Б.Пўлатов дарслик; Давлетов А.Дж. Прокурорский надзор: учебник для студентов юридических вузов и факультетов. – Нукус: «Билим», 1999. –С. 110-111.
7. Меркурьев В.В., Борисов С.В. Совершенствование регламентации правовых средств прокурорского реагирования на правонарушения экстремистской направленности // «Мониторинг правоприменения», №3 (20) / 2016. – С. 54; Винокуров А.Ю. Научно-практический комментарий Федерального закона "О прокуратуре Российской Федерации" (по статьям). – М.: Издательство "Юрайт", 2016. – С. 235.
8. Джамбулатов С.И. Защита органами прокуратуры Российской Федерации прав и свобод человека и гражданина: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное образовательное учреждение высшего образования "Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации", 2009. – С. 174.
9. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay'atining 27.06.2011-yildagi 6-son majlisi qarori bilan tasdiqlangan "Prokuror nazorati hujjatlarini tayyorlash va qonun buzilishini bartaraf etishda uning samaradorligini oshirish bo'yicha" Uslubiy qo'llanma.
10. Устименко И.В. Прокурорский надзор за соблюдением социальных прав и свобод человека и гражданина в Российской Федерации: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.:

- Институт повышения квалификации руководящих кадров Академии Генеральной прокуратуры Российской Федерации, 2009. – С. 168.
11. Прокурорский надзор: учебник для бакалавров / Ю.Е.Винокуров [и др.]; под общ. ред. Ю.Е.Винокурова. – 10-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2011. – С. 161-162; Галиев Ф.Ф. Представление прокурора как форма реагирования на нарушение закона // «Правовое государство: теория и практика», №1 (31) / 2013. – С. 82; Дарбинян А.А. Прокурорский надзор за законностью правовых актов, издаваемых Министерством природных ресурсов и экологии Российской Федерации и подведомственными ему федеральными органами: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Автономная некоммерческая организация высшего и профессионального образования “Московский гуманитарный университет”, 2013. – С. 148.
 12. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay’atining 27.06.2011-yildagi 6-son majlisi qarori bilan tasdiqlangan “Prokuror nazorati hujjatlarini tayyorlash va qonun buzilishini bartaraf etishda uning samaradorligini oshirish bo‘yicha” Uslubiy qo‘llanma.
 13. Джембулатов С.И. Защита органами прокуратуры Российской Федерации прав и свобод человека и гражданина: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное образовательное учреждение высшего образования “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2009. – С. 168-169.
 14. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳай’атининг 27.06.2011 йилдаги 6-сон мажлиси қарори билан тасдиқланган “Прокурор назорати ҳужжатларини тайёрлаш ва қонун бузилишини бартараф этишда унинг самарадорлигини ошириш бўйича” Услубий қўлланма.
 15. Джембулатов С.И. Защита органами прокуратуры Российской Федерации прав и свобод человека и гражданина: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное образовательное учреждение высшего образования “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2009. – С. 176-178.
 16. Давлетов А.Дж. Прокурорский надзор: учебник для студентов юридических вузов и факультетов. – Нукус: «Билим», 1999. – С. 110.
 17. Светличный А.А., Лукиных Д.А. Акты прокурорского надзора за законностью следствия и дознания в Республике Казахстан: учебное пособие. – Алматы: КазГЮУ, 1999. – С. 5-6.
 18. Джембулатов С.И. Защита органами прокуратуры Российской Федерации прав и свобод человека и гражданина: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное образовательное учреждение высшего образования “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2009. – С. 178-179.
 19. Турыгин Ю.Н. Взаимодействие прокуратуры Российской Федерации и неправительственных правозащитных организаций по защите прав и свобод человека и гражданина: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное казенное образовательное учреждение высшего образования “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2012. – С. 155-156.
 20. Бызова М.В. Представление прокурора: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Уральская государственная юридическая академия», 2010. – С. 80-91.

21. Б.Пўлатов дарслик; Давлетов А.Дж. Прокурорский надзор: учебник для студентов юридических вузов и факультетов. – Нукус: «Билим», 1999. –С. 110-111.
22. Бызова М.В. Представление прокурора: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Уральская государственная юридическая академия», 2010. – С. 80-91.
24. Корешникова Н.Р. Основные правовые средства прокуратуры Российской Федерации как инструмент обеспечения исполнения законов: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2010. – С. 117.
25. Максименко В.В. Представление прокурора как акт реагирования на нарушение закона // «Вестник Пензенского государственного университета», №4 (24) / 2018. – С. 38-39.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCE

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

ISSUES IN SHAPING THE MODERN STUDENT'S PERSONALITY THROUGH AN INDIVIDUAL APPROACH

Gayupova Saodat Khamidovna

Associate Professor,
Chirchik State Pedagogical University,
PhD in Pedagogical Sciences

Abstract. This article provides an in depth analysis of the pedagogical and psychological significance of the individual approach in developing the personality of today's students. Drawing on a review of scholarly literature, the author highlights the role of individualized methods, the conditions for their effective implementation, and the technological foundations for identifying, nurturing, and educating students' personal characteristics and capacities.

Keywords: individual approach, personal development, modern student, educational technologies, personalized learning, pedagogical innovations.

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA ZAMONAVIY TALABA SHAXSINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Gayupova Saodat Xamidovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy talaba shaxsini shakllantirish jarayonida individual yondashuvning pedagogik va psixologik ahamiyati keng tahlil etiladi. Talabalarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini aniqlash, rivojlantirish va tarbiyalashda individual yondashuvning o'rnini, uning samarali tashkil etish shartlari va texnologik asoslari ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslangan holda yoritiladi.

Kalit so'zlar: individual yondashuv, shaxsiy rivojlanish, zamonaviy talaba, ta'lim texnologiyalari, shaxsiylashtirilgan ta'lim, pedagogik innovatsiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N70>

Kirish. XXI asrda globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot texnologiyalari tezkor rivojlanishi sharoitida inson kapitali, ayniqsa, yosh avlodning intellektual va shaxsiy salohiyatini shakllantirish ta'lim tizimining asosiy vazifasiga aylandi. Bugungi kunda zamonaviy talaba faqat bilim oluvchi emas, balki o'z shaxsiy imkoniyatlarini anglaydigan, mustaqil fikrlovchi, kreativ qarorlar qabul qila oladigan va doimiy o'zini rivojlantiruvchi shaxs bo'lishi talab etilmoqda. Shunday sharoitda individual yondashuv asosida talaba shaxsini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylanmoqda. Individual yondashuv — har bir shaxsning psixologik xususiyatlari, bilim darajasi, qobiliyati, ehtiyojlari va intilishlarini chuqur o'rganish va ularni rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy faoliyat shaklidir[2].

Bu yondashuv zamonaviy pedagogik texnologiyalarning negizini tashkil etib, ta'lim jarayonining insonparvarlik, shaxsiylashtirish va differensiallashtirish kabi tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi [1].

Adabiyotlar tahlili. O'rganilgan adabiyotlar XX asr psixologik-pedagogik ilmiy merosining asosiy g'oyalarini qamrab oladi va tadqiqot mavzusining nazariy poydevorini belgilab beradi. L.S. Vigotskiy (1991) va A.N. Leontyev (1977) tafakkur, nutq hamda faoliyat-shaxs munosabatini madaniyat-tarixiy yondashuvda ochib bersa, A.V. Brushlinskiy (1996) va A.V. Petrovskiy (2002) ongning faolligi, shaxsning normal va deviant rivojlanish mezonlarini aniqlaydi. Ma'naviy-qadriyatli motivatsiya modelini A. Maslow (1999) shakllantiradi, V.D. Shadrikov (2007) esa iqtidor va faoliyat psixologiyasida qobiliyatlar tizimi dinamikasini tadqiq qiladi. I.A. Zimnyaya (2004) o'qitish psixologiyasi, V.V. Kraevskiy (1980) didaktika asoslari, V.A. Slastenin (2000) va T.A. Ilina (2010) umumpedagogik nazariyasi orqali ta'lim jarayonining maqsad, mazmun va metodlarini tizimlashtiradi.

Shunday qilib, mavjud manbalar mavzuning nazariy-metodologik jihatlarini yetarli darajada yoritgan, ayniqsa faoliyat nazariyasi va motivatsiya psixologiyasi bo'yicha ilmiy asoslarni mustahkamlagan. Biroq ularning aksariyati kompetensiyaviy yondashuv hamda zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyasi bo'yicha cheklangan praktik tavsiyalarga ega. Shu bois, maqolada ana shu klassik konsepsiyalar asosida klasterli ta'lim muhitini shakllantirish va talabalarning kasbiy-innovatsion salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy model ishlab chiqilishi tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Natija va muhokama. Talaba shaxsining shakllanish jarayoni — bu murakkab va ko'p bosqichli tizim bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan shaxsga qaratilgan pedagogik strategiyalarning qanchalik muvaffaqiyatli qo'llanilishiga bog'liq. Shu ma'noda, individual yondashuv har bir talabaning o'z shaxsiy salohiyatini to'liq ochib berishi, o'ziga xos rivojlanish yo'nalishini shakllantirishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun imkoniyat yaratadi [3].

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim tizimida shaxsiy rivojlanishning ustuvorligi, "hayot davomida ta'lim olish" tamoyilining kuchayishi, kasbiy o'zini oqlash ehtiyoji individual yondashuvni nafaqat zarurat, balki pedagogik faoliyatning asosiy tamoyiliga aylantirmoqda [4].

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha mo'ljallangan Ta'lim rivojlanish strategiyasida ham talabalarning individualligini qo'llab-quvvatlash, ularning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Bu esa mavzuning nazariy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi inson shaxsini rivojlantirish, uning ichki salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish vazifasini o'z oldiga qo'yimoqda. Shu ma'noda, individual yondashuv zamonaviy pedagogikaning markaziy tamoyillaridan biriga aylangan.

Individual yondashuv — bu har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini, ehtiyojlarini, imkoniyatlarini va rivojlanish sur'atini hisobga olib, ta'lim-tarbiya jarayonini moslashtirish va shaxsiylashtirish demakdir [2]. Ilmiy adabiyotlarda individual yondashuv o'quvchi yoki talabaning: shaxsiy qiziqishlari, faoliyat motivlari, intellektual va psixologik imkoniyatlari negizida shaxsiy o'sishga yo'naltirilgan metodlar va texnologiyalar majmui sifatida ta'riflanadi [1,5].

Individual yondashuvning zamonaviy talaba tarbiyasidagi o'rnini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Shaxsiy qobiliyat va ehtiyojlarni aniqlash: Talabaning kuchli va zaif tomonlarini erta aniqlash, uning rivojlanishi uchun mos strategiyalarni tanlash imkonini beradi.

Motivatsiyani oshirish: Talabaga shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlariga mos faoliyatlarni taklif qilish, uning ichki motivlarini kuchaytiradi.

O'zini anglash va o'zini rivojlantirish: Talaba o'zining individual xususiyatlarini anglash orqali o'z shaxsiy va kasbiy rivojlanish yo'lini ongli tanlaydi.

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Har bir talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun individual metodlardan foydalanish.

Ijtimoiy moslashuv va liderlik ko'nikmalarini shakllantirish: Har bir talabaning o'z qobiliyatlarini jamiyatda to'g'ri ifoda etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

Individual yondashuv shuningdek, zamonaviy ta'limning "inklyuzivlik" (har kim uchun ta'lim) tamoyili bilan ham uzviy bog'liq. Har bir talabaning o'z salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi, uning shaxsiy huquqlari va ta'limdagi adolat tamoyilini ro'yobga chiqaradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, individual yondashuvga asoslangan ta'lim metodikasi talabalar motivatsiyasini 30–40% ga oshiradi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishini ikki barobar tezlashtiradi [8,10].

Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy talaba tarbiyasida individual yondashuv faqat pedagogik metod emas, balki shaxsiy rivojlanish va jamiyatda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan hayotiy strategiya sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar individual yondashuvni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Kirish qismida ta'kidlanganidek, zamonaviy talaba mustaqil fikrlovchi, o'z imkoniyatlarini anglay oladigan va shaxsiy rivojlanish yo'lini belgilay oladigan shaxs bo'lishi kerak. Ana shunday maqsadlarga erishishda ta'lim texnologiyalarining roli beqiyosdir.

Quyida individual yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy texnologiyalarni ko'rib chiqamiz:

-Modulli o'qitish texnologiyasi — talabalarga ta'lim dasturining tarkibiy qismlarini (modullarini) mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Har bir modul ma'lum maqsad va natijaga yo'naltirilgan bo'lib, talabaning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini mustahkamlashni nazarda tutadi [6].

-Portfolio texnologiyasi — talabalar faoliyatini tizimli ravishda hujjatlashtirish va baholash imkonini beradi. Bu yondashuvda har bir talaba o'zining yutuqlari, muammolari va rivojlanish dinamikasini mustaqil kuzatadi [8].

-Differensiallashtirilgan ta'lim texnologiyasi — talabalarni bilim darajasi, tayyorgarligi, intilishlari va ehtiyojlariga ko'ra guruhlash orqali o'qitish jarayonini shaxsiylashtirishni nazarda tutadi [7].

-Elektron va adaptiv ta'lim tizimlari — raqamli ta'lim tizimlari (LMS — Learning Management Systems) va adaptiv ta'lim platformalari har bir talabaga shaxsiylashtirilgan o'quv yo'nalishini taqdim etish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifasi – bilim berish emas, balki shaxsni o'zini anglashga, o'zini rivojlantirishga undashdir. Chunki shaxsiy yondashuv faqat tashqi pedagogik

ta'sirni emas, balki talabani ichki faolligini, o'zini mustaqil anglash va o'zgartirish salohiyatini qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Bu esa ta'limda refleksiv yondashuv, shaxsiy rivojlanish strategiyalari, mustaqil o'rganish madaniyati kabi komponentlar orqali amalga oshiriladi.

Talabani o'z-o'zini rivojlantirishini faollashtirish uchun quyidagi usullar samaralidir:

Refleksiya asosidagi topshiriqlar – talaba o'z faoliyatini baholaydi, kamchilik va yutuqlarini tahlil qiladi;

Shaxsiy portfolioni yuritish – erishilgan yutuqlarni tahlil qilib, keyingi maqsadlar belgilanadi;

O'zini anglashga yo'naltirilgan savol-javob texnikalari – “Men kimman?”, “Mening kuchli tomonlarim nima?” singari savollar orqali shaxsiy tahlil chuqurlashtiriladi;

Individuallashtirilgan loyiha ishlari – talaba o'z qiziqishi asosida ijodiy loyihalar tayyorlaydi;

O'zini tahlil qiluvchi diagnostika usullari – psixologik testlar, o'zini baholash shkalalari, SWOT-tahlil.

Mustaqil o'rganish va o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish

Bugungi global raqobatga asoslangan axborot jamiyatida shaxs o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy yangilab borishga majbur. Shu bois “hayot davomida ta'lim olish” tamoyili individual yondashuvning markaziy g'oyasiga aylangan.

Individual yondashuvni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etishda o'qituvchi yetakchi va bosh muvofiqlashtiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuvni oddiy metod sifatida emas, balki butun pedagogik strategiya va falsafa darajasida qo'llashda o'qituvchining roli hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Individual yondashuvni to'laqonli amalga oshiruvchi o'qituvchi quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim:

Empatiya — har bir talabani shaxs sifatida anglash, tushunish va qabul qilish qobiliyati;

Refleksiya — o'z faoliyatini tahlil qila olish, uni takomillashtirishga intilish;

Ijodkorlik — individual ta'lim uslublarini moslashtirish va yangilik yaratish salohiyati;

Psixologik sezgirlik — talabani holati, ehtiyoji va rivojlanish darajasini aniqlay olish qobiliyati;

Didaktik moslashuvchanlik — bir mavzuni bir nechta talabalarga turlicha metodlar orqali yetkazish mahorati.

Agar o'qituvchi ushbu fazilatlarni o'zida shakllantirgan bo'lsa, u ta'limni talabalar ehtiyojlariga moslashtirib, o'zaro ishonch asosidagi pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

Individual yondashuvga asoslangan ta'lim shunchaki metodlar to'plami emas, balki psixologik xavfsiz, rag'batlantiruvchi, shaxsiy rivojlanish uchun qulay muhitni yaratish deganidir.

O'qituvchi bunday muhitni yaratish uchun:

talabani xato qilishdan qo'rqmaydigan darajadagi ijobiy muhitni shakllantiradi;

har bir muvaffaqiyatni e'tirof etish orqali talabani o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi;

ijtimoiy o'zaro ta'sir, guruhlarda ishlash va kommunikatsiyani rivojlantiradi.

Bu jihatlar talabani faol subyektga aylanishida va o'z individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim tizimining insonparvarlikka asoslangan strategiyasi individual yondashuvni ustuvor metodik tamoyil sifatida ilgari surmoqda. Bu yondashuv har bir talabani betakror shaxs sifatida e'tirof etish,

uning ehtiyojlari, imkoniyatlari va rivojlanish sur'atiga mos ta'lim muhitini yaratishga yo'naltiriladi. Shaxsga qaratilgan yondashuv talabani nafaqat bilim olishiga, balki mustaqil fikrlashi, kasbiy o'zini anglash va shaxsiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Maqola tahlilidan ayon bo'ldiki, individual yondashuvning samaradorligi uni ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlarda tashkil etishga bevosita bog'liq. Bunda psixologik diagnostika, moslashtirilgan ta'lim metodlari, o'zlashtirish sur'atini hisobga oluvchi o'qitish shakllari va motivatsion muhit muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, modulli, aralash va differensiallashtirilgan ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi individual yondashuvning amaliyotga joriy etilishini sezilarli darajada soddalashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Individual yondashuv asosida talabani o'z-o'zini anglashga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etish shaxsiy rivojlanishning eng muhim bosqichiga aylanadi. Refleksiya, mustaqil ta'lim maqsadlarini belgilash, portfoliolarni yuritish kabi metodlar orqali talaba o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida, ularning mas'uliyatli, ongli va ijtimoiy faol shaxsga aylanishini ta'minlaydi.

Shubhasiz, individual yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchining roli hal qiluvchi omildir. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki shaxsiy rivojlanishni boshqaruvchi, talabaga yo'nalish beruvchi, ijtimoiy-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi murabbiy sifatida faoliyat yuritishi lozim. O'qituvchining empatiyasi, refleksiv fikrlashi, ijtimoiy sezgirligi va metodik moslashuvchanligi talabani o'ziga ishonchi, motivatsiyasi va shaxsiy faolligini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, individual yondashuv zamonaviy ta'limning zamon va kelajak talablari bilan uyg'unlashgan, shaxsga yo'naltirilgan kompleks yondashuvdir. U orqali talaba o'zini anglaydi, o'z yo'lini topadi, jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlashga intiladi. Shu sababli ham, pedagogik faoliyatda individual yondashuvni samarali amalga oshirish — nafaqat metodik yangilanish, balki shaxs va jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi strategik muhim vazifa sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Виготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1991.
2. Зимняя И.А. Психология обучения: Учебник. — М.: Логос, 2004.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Политиздат, 1977.
4. Маслоу А. Мотивация и личность. — СПб.: Питер, 1999.
5. Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека. — М.: Логос, 2007.
6. Ильина Т.А. Педагогика: Учебник для вузов. — М.: Юрайт, 2010.
7. Сластенин В.А. Педагогика: Учебное пособие. — М.: Школа-Пресс, 2000.
8. Петровский А.В. Личность: норма и патология развития. — М.: Изд-во МГУ, 2002.
9. Брушлинский А.В. Проблемы активности сознания. — М.: Наука, 1996.
10. Краевский В.В. Основы обучения: Дидактика и методика. — М.: Педагогика, 1980.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF THE STEAM EDUCATION SYSTEM IN TEACHING PHYSICS AND ASTRONOMY

Akimova Jumaxan Orazbaevna

Associate Professor,
Department of Physics Teaching Methodology,
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Isakova Malika Iliyos qizi

Doctoral Student at the Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

Abstract. The article highlights the role of the STEAM approach in Uzbekistan's educational reforms, referencing the decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan concerning the improvement of physics education quality and the 'Modern School' state program. The essence of STEAM education is revealed, along with its potential for interdisciplinary integration, the practical application of theoretical knowledge, and the development of students' creative and critical thinking skills. Furthermore, in the context of the Fourth Industrial Revolution, attention is drawn to the strategic goals of STEAM education, such as aligning state educational standards with international requirements and updating educational content.

Keywords: STEAM / STEAM education, physics, astronomy, quality of education, integration, "Modern School" program, Natural Sciences.

FIZIKA VA ASTRONOMIYANI O'QITISHDA STEAM TA'LIM TIZIMINING AHAMIYATI

Akimova Jumaxan

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
fizika o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti

Isakova Malika

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va "Zamonaviy maktab" davlat dasturiga oid qaror va farmonlariga tayanib, STEAM yondashuvining ushbu islohotlardagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. STEAM ta'limining mohiyati, uning fanlararo integratsiya, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va o'quvchilarning ijodiy hamda tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, to'rtinchi texnologik inqilob sharoyitida STEAM ta'limining davlat ta'lim standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish va ta'lim mazmunini yangilash kabi strategik maqsadlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: STEAM / STEAM ta'lim, fizika, astronomiya, ta'lim sifati, integratsiya, "Zamonaviy maktab" dasturi, ta'biy fanlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N71>

Kirish. Jahon miqyosida bugungi kundagi ta'lim tizimi faoliyatini takomillashtirish orqali ta'lim oluvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlay oladigan ta'lim mazmunini yaratishni taqozo etmoqda. Uzluksiz ta'lim mazmunini sifat jihatdan boyitish va uning samaradorligini oshirishda ta'limga

bo'lgan yangi talablar bilim oluvchilarning qiziqishi, iqtidori, qobiliyati kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish hamda umumiy ta'limda tabiiy-texnik bilimlarning integrativ STEAM yondashuvlar orqali tabiiy-ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son Qarori [1], aynan ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda zamon talablari asosidagi yangicha yondashuvlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538 Farmonida "Zamonaviy maktab" Davlat dasturini tasdiqlash loyihasi kiritilib [2], bunda ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish, maktablarni shu jumladan, o'quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunolari, darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, video kuzatuv tizimlari bilan jihozlash; uch oy muddatda o'quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutgan holda umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko'rib chiqilishi belgilangan.

STEAM ta'limi bu – zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardan biridir. Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi.

Metodologiyasi. STEAM – abbreviaturasi quyidagicha o'qiladi: S – science. T – technology. E – engineering. A – art. M – Mathematics. Ya'ni: S – ilm-fan. T – texnologiya. E – muhandislik. A – san'at. M – matematika, yoki tabiiy fanlar ta'limi, texnologiya, injenerlik san'ati, ijodkorlik, matematika degan ma'noni bildiradi.

Bir so'z bilan aytganda STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan umumiy reja.

STEAM – kundalik hayotning ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini taqozo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad – ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan. Hozirgi kunda yangiliklar, yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar, ma'lumotlar oqimining o'sib borishi hayotning barcha jabhalarida to'rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o'zgarmoqda.

STEAM ta'limini joriy qilish va rivojlantirishning strategik maqsadlari:

- ✓ STEAM ta'limini davlat ta'lim standarti talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini tahlil qilish, ta'lim mazmunini yangilash;
- ✓ STEAM ta'limining maqomini oshirish, uning umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash, ta'lim jarayoniga milliy va umuminsoniy hamda moddiy va

ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, metod va vositalarini keng joriy etish;

- ✓ STEAM ta'lim mazmunida, texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetentsiyalarini shakllantirish, mustaqil amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatini yaratish;
- ✓ STEAM ta'limni tashkil etishda innovatsion yondashuv (kompetentli, tizimli, kompleks, faoliyatli, loyiha, texnologik) asosida invariant va variativ o'quv modullariga ajratib o'qitishni joriy etish;
- ✓ STEAM ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy metodlar asosida ixtirochilik, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beruvchi ilg'or metodologiyalardan foydalanishni tatbiq etish;
- ✓ STEAM ta'limi yo'nalishidagi fan (kimyo, biologiya, fizika, matematika) o'qituvchilarining mutaxassislik fanlari bo'yicha malakasini oshirish [3].

STEAM tabiiy va muhandislik fanlarini yagona o'zaro bog'liq tizimda birlashtirgan ta'lim modelidir. U fizika, matematika, biologiya, kimyo kabi fanlarni muayyan o'quv dasturi doirasida o'rganish bilan birga ularni yangi tizimda yaxlit birlashtirishni nazarda tutadi.

Masalan, matematikada o'rganilgan yuza tushunchasi fizikada bosim tushunchasini, hajm tushunchasi esa fizikada zichlik tushunchasini o'zlashtirishga imkon beradi. Fizika va matematika fanlaridan o'zaro aloqaning muhim shakllaridan biri fizik mazmundagi matematik masalalarni yechishdir. Bir paytda ham fizikaga ham matematikaga taalluqli bo'lgan masalalarni yechish foydalidir.

Ko'pgina qishloq xo'jalik ekinlarining sifatini ularning zichliklarini o'lchash orqali aniqlash mumkinligi aytiladi. Xalqimizda ko'rinishi bir xil, lekin qo'l bilan chamalaganda og'irroq bo'lgan qovun shirin chiqishi haqida gaplar bor. Demak, shirin qovunning zichligi, boshqasiga qaraganda kattaroq bo'lishini tajribalar yordamida bajarib ko'rish mumkin. Biz bu bilan fizika, biologiya va kimyo fanlarining chambarchas bog'liqligini ko'ramiz.

Inson organizmida doimiy ravishda oziq moddalarning oksidlanishi ro'y berib turadi. Bunda yoqilg'i sifatida uglevodlar va yog'lar, hamda biroz oqsillar ishlatiladi. Organizmda 1 g oqsil va uglevod oksidlanishi natijasidan 17 J energiya ajraladi. 1 g yog' oksidlanganda esa – 38 J energiya ajraladi. Mazkur ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchi uchun jismoniy yoki aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan insonlar uchun bir sutkada iste'mol qilishi uchun kerak bo'ladigan oziq-ovqatlarni hisoblashni masala qilib berish mumkin. Bu masalada ham o'quvchiga fanlararo (fizika, matematika, biologiya) bog'liqlikni tushuntirish mumkin [4].

Adabiyotlar tahlili. Respublikamiz tadqiqotchilaridan Z.B.Sangirovaning "Umumta'lim maktablarida STEAM yondashuvi asosida o'quv-loyiha ishlarni tashkil etish metodikasi" nomli dissertatsiya ishi [5], N.M.Saloxitdinovanning "STEAM ta'limini joriy qilishning pedagogik asoslari (tabiiy fanlar misolida)" [6], Z.M.Ashurovaning "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini qo'llashning ahamiyati" [7], A.K.Normurotovanning "Tabiiy fanlarni o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmun-mohiyati" [8], M.Pardayeva va M.Ergashevaning "Tabiiy fanlar" uslubiy qo'llanma [3], S.Yuldosheva, R.Toshniyozova va boshqalar muallifligida "Ta'limga STEM yondashuv tatbiqi" uslubiy qo'llanmasi [9] va shu kabi ilmiy ishlarda maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablarida va talabalar o'quv faoliyatida milliy o'quv dasturini zamonaviy yondashuvlar asosida joriy etish, ilg'or xalqaro va xorijiy tajribalar, kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-

axloqiy va intellektual rivojlantirish, o'quv tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish va ta'lim resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlari M.A.Chervonniy, T.V.Shvalyoga, A.A.Vlasovalar muallifligida "Issledovanie gotovnosti uchiteley fiziki k realizatsii STEAM – obrazovaniya" [10], Yu.D.Nikonovning "Urok fiziki v forme STEM – igri s ispol'zovanie IKT v usloviyax realizatsii federal'nix gosudarstvennix obrazovatel'nix standartov" [11], T.V.Volosoves, V.A.Markova, S.A.Averin tomonidan "Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga STEM ta'limi" parsial modul dasturida konstruktorlik, modellastirish masalalari o'rganilgan.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, STEAM ta'limiga oid ilmiy va uslubiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, fizika va astronomiyani o'qitishda STEAM ta'lim tizimi metodikasini pedagogik muammo sifatida o'rganish hamda uni takomillashtirish zarurati mavjud.

Qo'shni davlatimiz bo'lgan Qozog'iston Respublikasi tadqiqotchilaridan G.I.Salgarayeva va A.Bazarbayevaning "Bilim beriwdegi STEAM juyesi jane robotexnika" [12] maqolasida shunday fikrlar keltirilgan: "STEAM ta'lim tizimining abzalliklaridan biri – tabiiy-texnik ta'limni hayotda qo'llay olishi. STEAM – ta'lim tizimi amaliy darslarning yordami bilan o'quvchilar va talabalarga tabiiy-texnik bilimni hayotda qo'llay olishini o'rgatadi. Har bir darsda ular zamonaviy industriyaning rejalarini yaratadi, loyihalaydi va rivojlantiradi. Ular haqiqiy rejani tadqiq qiladi, natijada o'z qo'llari bilan haqiqiy loyihaning prototipini tashkil qiladi. Masalan, yosh injenerlar vertolyot yasash davomida, injenerlik dizayn, koordinata o'qi, trayektoriya, ishqalanish kuchi, uchish burchagi kabi atamalar bilan tanishadi. O'quvchilarga kundalik hayotda ko'rmaydigan yoki eshitmaydigan atamalarni tushunish oson emas. STEAM darslarida esa qiziqarli eksperimentlar o'tkazib, shunaqa atamalarni oson tushuntirishga bo'ladi. Shu sababli AQSH-ta o'rta maktablar STEAM – ta'lim tizimi bilan faol ishlamoqdalar."


Analiz va natijalar. Hozirgi kunda o'qituvchilarning asosiy vazifasi mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Fizika darslarida STEAM – ta'limi dasturlaridan foydalanishda birinchi navbatda, fizikadan olgan bilimlar hisobiga o'rganilgan axborotlarni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanishning o'ziga xos imkoniyatlari va kasblar bilan bog'liq xususiyatlarni o'quvchilarda shakllantirish mumkin.

Fizika va astronomiyani o'qitishda STEAM ta'lim tizimiga misol tariqasida yorug'lik energiyasi mavzusidagi ro'y beradigan fotosintez jarayonini olib qarasak bo'ladi. Fotosintez jarayoni fizika, kimyo va biologiyani ajoyib integratsiyasi misoli hisoblanadi. Ushbu jarayonni quyidagicha tahlil qilsak:

Biologiya jihati: fotosintez o'simliklar, ba'zi bakteriyalar va suv o'tlari tomonidan Quyosh energiyasidan foydalanib, suv va karbonat angidridni organik moddalarga (glyukoza) aylantirish jarayonidir. Bu jarayon o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun zarurdir va butun Yer yuzidagi hayotning asosini tashkil etadi. Fotosintezning o'zida fotosintetik apparatning murakkab tuzilishi va biokimyoviy reaksiyalarning zanjirlari yotadi. Bu yerda xloroplastlarning roli va ularning ichidagi xlorofill pigmentlari muhimdir.

Kimyo jihati: fotosintez kimyoviy reaksiyadir. U quyidagicha soddalashtirilgan tenglama bilan ifodalanadi:



Bu reaksiya jarayonida karbonat angidrid (CO_2) va suv (H_2O) molekulari yorug'lik energiyasi yordamida glyukoza ($\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$) va kislorod (O_2) molekulariga aylantiriladi. Bu yerda turli fermentlarning katalitik faoliyati va redoks reaksiyalari muhim ahamiyatga ega.

Fizika jihati: Yorug'lik energiyasida fotosintez jarayoni muhim rol o'ynaydi. Yorug'lik kvantlari (fotonlar) xlorofill molekulari tomonidan yutiladi va energiya xloroplastlar ichidagi reaksiyalarni boshlaydi. Fotosintezning yorug'lik reaksiyasi davomida suv molekulari fotolizga uchraydi (yorug'lik ta'sirida parchalanadi) va shu jarayonda energiya to'planib, APT (adenozin trifosfat) va NADPH (nikotinamid adenine dinukleotid fosfat) kabi energiyaga boy molekularlar hosil bo'ladi. Shu energiya keyinchalik karbonat angidridning glyukozaga aylanish reaksiyalarida ishlatiladi. Bundan tashqari, yorug'likning to'lqin uzunligi va intensivligi fotosintez tezligiga ta'sir qiladi.

Demak, fotosintez jarayoni biologiya, kimyo va fizika fanlarining murakkab va o'zaro bog'liq bo'lgan integratsiyasini namoyish etadi. Bu jarayon hayotning mavjudligi va Yer yuzidagi muhitning barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, fizika fanini o'qitishda STEAM – yondashuv o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, fanlararo aloqani tushunishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga yordam beradi. Fizikaviy kichik tadqiqotlar va izlanishlar orqali yangiliklarni kuzatish imkoniyatlari o'quvchilarda qiziquvchanliklarni rivojlantiradi, o'zi uchun qiziqarli vazifalarni aniqlab olishni, uning yechimini topishning algoritmini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni shakllantirishga olib keladi. Fizika va astronomiyani STEAM ta'lim tizimiga asoslanib o'qitishda o'quvchilarda kutiladigan kompetensiyalar quyidagilar hisoblanadi:

- Kreativ yondashish;
- Estetik qobiliyatni rivojlantirish;
- O'zaro hurmatni rivojlantirish;
- Ilmiy yondashish;
- Fanlararo savodxonlikni oshirish v.h.

Bularning barchasi o'quvchi rivojlanishini yuqori bosqichga ko'tarilishida va kelajakda munosib kasb tanlashida turtki bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respblikasi Prezidenining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni riojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son Qarori.
2. O'zbekiston Respblikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538 Farmoni.
3. Pardayeva. M., Ergasheva. M. "Tabiiy fanlar" Kimyo fani o'qituvchi va metodistlari uchun metodik qo'llanma, biologiya fani o'qituvchi va metodistlari uchun metodik qo'llanma, "O'zbekiston" nashriyoti, Toshkent. 2022.
4. Talipova M. "Fizika darslarida o'quvchilarda tadqiqot kompetensiyalari" // Ilm-fan va ta'lim // 2181-4325 | <https://ilmfanvatalim.uz/> | № 2.

5. Sangirova Z.B. "Umuumta'lim maktablarida STEAM yondashuvi asosida o'quv-loyiha ishlarni tashkil etish metodikasi" nomli dissertatsiya ishi fil.fan.dok... (Phd). ...diss. – Toshkent, 2022.
6. Saloxitdinova N.M. "STEAM ta'limini joriy qilishning pedagogik asoslari (tabiiy fanlar misolida)" // Zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 27-mart 2024-yil.
7. Ashurova Z.M. "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini qo'llashning ahamiyati" // Ta'lim va innovacion tadqiqotlar // ISSN 2181-1717 (2022 yil № 7).
8. Normurotova A.K. "Tabiiy fanlarni o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmun-mohiyati" // Inter education & Global study // ISSN 2992-9024 (online) 2024, №4 (1).
9. Toshniyozova R. v.b., "Ta'limga STEM yondashuv tatbiqu" uslubiy qo'llanma, "Qamar media" nashriyoti, Toshkent – 2021.
10. Chervonniy M.A., Shvalyova T.V., Vlasova A.A. "Issledovanie gotovnosti uchiteley fiziki k realizatsii STEAM – obrazovaniya" // Russian journal of education and psychology // 2020, Volume 11, Number 5, <http://rjep.ru>
11. Nikonov Yu.D. "Urok fiziki v forme STEM – igri s ispol'zovanie IKT v usloviyax realizatsii federal'nix gosudarstvennix obrazovatel'nix standartov" // Mejdunarodniy shkolniy nauchniy vestnik № 5, 2017.
12. Salgarayeva G.I., Bazarbayeva A. "Bilim beriwdegi STEAM juyesi jane robotexnika" // Of the national academy of sciences of the Republic of Kazakhstan // ISSN 1991-346X, Volume 2, Number 312 (2017).

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

SOCIO-PEDAGOGICAL APPROACHES IN THE PREVENTION OF COMMON CHILDHOOD DISEASES: METHODS OF USING PROGNOSTIC MAPS

Abdullayeva Mavjuda Ergashevna

Head of the Department of Propedeutics of Childhood Diseases and Outpatient Pediatrics,
Candidate of Medical Sciences, Associate Professor
Andijan State Medical Institute

Abstract. In the prevention of childhood diseases, a very important approach is to recognize risk factors for the development of the disease and compare various prognostic criteria in children. This article discusses the theoretical and methodological foundations of the use of prognostic maps in the framework of socio-pedagogical prevention, as well as practical aspects of their use in working with children and their families.

Keywords: socio-pedagogical approaches, prevention of childhood diseases, prognostic maps, mobile application.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ПРОФИЛАКТИКЕ РАСПРОСТРАНЕННЫХ ДЕТСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ: МЕТОДИКА ПРИМЕНЕНИЯ ПРОГНОСТИЧЕСКИХ КАРТ

Абдуллаева Мавжуда Эргашевна

заведующая кафедрой пропедевтики детских болезней и поликлинической педиатрии
Кандидат медицинских наук, доцент
Андижанский государственный медицинский институт

Аннотация. В профилактике детских заболеваний весьма важным подходом является распознавание факторов риска развития заболевания и сопоставление различных прогностических критериев у детей. В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы применения прогностических карт в рамках социально-педагогической профилактики, а также представлены практические аспекты их использования в работе с детьми и их семьями.

Ключевые слова: социально-педагогические подходы, профилактика детских заболеваний, прогностических карты, мобильное приложение

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N72>

Введение. Последние годы в Узбекистане, как и в других развитых странах, активно реализуются государственные программы, направленные на усовершенствование и повышение качества образования. Особое внимание при этом уделяется формированию образовательной среды, интеграции ее с практическим здравоохранением. В концепции развития системы высшего образования [1] и продолжающихся реформ в сфере здравоохранения и образования акцентируются важность обучения и подготовки высококвалифицированных кадров, обладающими навыками профилактики заболеваний [7] и прививания населению навыков ответственного отношения к собственному здоровью [6]. Эти меры создают благоприятные условия для внедрения инновационных профилактических методик. В

этом контексте социально-педагогические методы становятся важным элементом комплексной профилактической работы, направленной на предупреждение распространённых детских заболеваний. Одним из таких инструментов является методы внедрения интерактивных технологий и средств для раннего выявления факторов риска, позволяющее выстраивать индивидуальные профилактические маршруты. Настоящая статья посвящена анализу социально-педагогических подходов в профилактике распространённых детских заболеваний и методике применения прогностических карт в рамках реализации стратегии укрепления здоровья детей.

В условиях роста и распространённости детских заболеваний особенно актуальными становятся не только медицинские, но и социально-педагогические меры профилактики. Современные подходы к охране здоровья детей требуют комплексного взаимодействия специалистов различных сфер: педагогов, социальных работников, медицинских работников и психологов [3]. Одним из инновационных инструментов в данной области являются прогностические карты, позволяющие своевременно выявлять риски и формировать индивидуальные профилактические стратегии [4, 5]. Следует подчеркнуть, что в профилактике детских заболеваний весьма важным подходом является распознавание факторов риска развития заболевания и сопоставление различных прогностических критериев у детей. Прогностическая карта является инструментом для индивидуального наблюдения за детьми, определения предрасположенности к заболеваниям и своевременного применения профилактических мер [2, 8]. Она обеспечивает статистический контроль за заболеваниями в медицинских учреждениях, является основой для разработки индивидуального плана профилактики для каждого ребенка.

Цель исследования: использование разработанной прогностической карты для раннего выявления и профилактики распространённых детских заболеваний основанной на социально-педагогическом подходе профилактического направления, включающую вопросы охраны здоровья детей, снижение тяжелых последствий заболеваний и оптимизация медицинских и социальных расходов, а также успешное применение в медицинском образовании, на практических занятиях будущих специалистов в целях эффективной подготовки квалифицированных медицинских кадров

Материал и методы исследования. Опрошено 5256 респондентов, использовавшие прогностическую карту мобильного приложения. Прогностическая карта основана на показателях, сопоставимых с условиями, создающими возможность прогноза, в зависимости от градации относительно важных и распространённых факторов риска. Степень значимости факторов и их градация определяются с помощью относительных показателей риска (R). Этот показатель, в свою очередь, находится путем деления уровня самого высокого показателя интенсивности (с) в каждой факторной группе на самый низкий показатель (d) в той же факторной группе ($R = d / c$).

Основная суть этого метода заключается в том, что используется нормированный индекс интенсивности (НИИ). Для расчета нормированный индекса интенсивности, соответствующий каждой градации фактора, используется формула: $НИИ = X / R$, где: НИИ — нормированный индекс интенсивности, R — индекс интенсивности, X — интегральный индекс риска.

За интегральный индекс риска "X", принималась средняя частота заболеваний популяции на основании всех данных опроса (родители детей, принявших участие в исследовании). Например, частота (R) дыхательной недостаточности у детей с респираторными заболеваниями составляет 46,7, тогда как нормирующий индекс без дыхательной недостаточности 54,5. Данный показатель составили от всех исследуемых 51,0. Эта величина была принята за «интегральный» индекс риска (X).

Аналогичным образом были рассчитаны НИИ для других факторов риска, связанных с респираторными заболеваниями. Полученный НИИ является предварительным нормативом, с помощью которого можно провести комплексную оценку риска развития дыхательной недостаточности у детей с заболеваниями органов дыхания и респираторного тракта с учетом отдельных факторов и в их совокупности.

Известно, что дыхательная недостаточность часто встречается у детей с респираторными заболеваниями, особенно у младенцев и детей младше 3 лет. Частота развития этого состояния в разных источниках регистрируется по-разному. Этот показатель выше у младенцев и детей с низким иммунитетом. На этот показатель влияют общее состояние ребенка, сопутствующие заболевания и качество ухода. Принимая во внимание этот принцип, мы учитывали относительные показатели риска по каждому фактору. Зная значение показателя относительного риска прогрессирования заболевания (R) и нормализующий индекс интенсивности (НИИ), можно определить влияние каждого отдельного фактора риска на развитие дыхательной недостаточности, то есть прогностический коэффициент (X). Показатель интеграционного риска (прогностический) рассчитывался по следующей формуле: $X = R \cdot \text{НИИ}$, где X — интегральный показатель риска (прогностический коэффициент) влияния отдельно взятого фактора; НИИ – нормирующий индекс интенсивности; R — относительный показатель риска.

По данным наших исследований, если у ребенка фактором риска является дыхательная недостаточность, прогностическим показателем является:

$$X_{\text{мин}} = R \cdot \text{НИИ} = 1,67 \times 0,75 = 1,25;$$

$$X_{\text{макс}} = R \cdot \text{НИИ} = 1,67 \times 1,25 = 2,09 \text{ и так далее.}$$

Результаты исследования. На основании полученных данных была составлена таблица, дающая комплексную оценку каждому фактору возникновения заболеваний (таблица 1).

Таблица 1

**Прогностическая таблица комплексной оценки факторов риска,
влияющих на возникновение и развитие заболеваний**

Факторы риска	Градация факторов	%	НИИ	R	X	
					Min (c)	Max (d)
Снижение иммунитета. Иммунная система ослабевает из-за недостатка здорового питания, дефицита витаминов и хронических заболеваний.	есть	73.1	0,57	2.50	1.43	3.58
	нет	29.2	1.43			
Возрастной фактор (дети в возрасте 0–5 лет) Иммунитет еще не полностью сформирован, поэтому дети младшего возраста относятся к группе риска.	есть	69.2	0,67	2.00	1.33	2.66
	нет	34,6	1.33			
Холодная погода и влажность Сезонные изменения, холод и влажная среда активизируют вирусы.	есть	26.9	0,73	1.75	1.27	2.23
	нет	15.4	1.27			
Посещение детских дошкольных учреждений или школы (социальная среда) Риск передачи вируса значительно выше в групповой среде.	есть	55,8	0,39	4.14	1.61	6.67
	нет	13.5	1.61			
Загрязнение воздуха (аэрозоли, дым, пыль) Различные химические вещества повреждают слизистую оболочку дыхательных путей и создают благоприятную среду для вируса.	есть	34,6	0,50	3.00	1.50	4.50
	нет	11.5	1.50			
Низкая медицинская культура (не мытье рук, хождение без защитной маски) - Вероятность передачи вируса резко возрастает.	есть	48.1	0,28	6.25	1.72	10.77
	нет	7.7	1.72			
Несоблюдение режима (отсутствие достаточного сна, отдыха) Ослабленный организм ребенка восприимчив к вирусу.	есть	21.2	0,71	1.83	1.29	2.37
	нет	11.5	1.29			
Вредные привычки родителей (например, курение дома) Пассивное курение отрицательно влияет на дыхательную систему детей.	есть	23.1	0,59	2.40	1.41	3.38
	нет	9.6	1.41			
Хронические заболевания органов дыхания (тонзиллит, аденоидит, бронхит) Повышает восприимчивость к рецидивирующим заболеваниям.	есть	23.1	0,62	2.21	1.37	3.05
	нет	10.4	1.38			
Аллергические состояния у детей (бронхиальная астма, атопический дерматит) Баланс иммунной системы будет нарушен.	есть	44.2	0,49	3.03	1.50	4.56
	нет	14.6	1.50			
	есть	48.1	0,56	2.56	1.43	3.68

Нарушение водно-температурного режима (излишне легкая или теплая одежда) Снижается защитная способность организма.	нет	18.8	1.44			
Отсутствие или отсрочка вакцинации. Иммуитета против гриппа и других респираторных инфекций не существует.	есть	55,8	1.25	1.67	1.25	2.09
	нет	33.3	0,75			
Плохие социально-экономические условия. Недостаточное внимание к уходу и здоровью в малообеспеченных семьях.	есть	53,8	1.21	1.52	1.20	1.83
	нет	35.4	0,79			
Неблагоприятные условия проживания (отсутствие ванной комнаты, неотапливаемый дом и т. д.) Вирусы могут быстро распространяться в домашних условиях.	есть	65.4	1.55	3.48	1.55	5.42
	нет	18.8	0,45			
Генетическая предрасположенность и наследственные факторы. У некоторых детей может быть генетическая слабость иммунной системы.	есть	94.2	1.34	2.05	1.34	2.76
	нет	45.8	0,65			

Для прогнозирования вероятности возникновения и развития респираторных заболеваний у пациента по прогностической таблице 1 находим сумму минимальных и максимальных прогностических значений ведущих факторов риска, принимаемых: $X_{\min} = 21,2$; $X_{\max} = 59,56$

В этом случае диапазон риска составляет от 21,2 до 59,55. Целесообразно было разделить общий диапазон показателей риска ($21,2 \div 59,55$) на более мелкие диапазоны с целью отнесения каждого обследуемого, к группам риска и оценки перспектив возникновения и развития заболевания, а также на основании полученных показателей взять на диспансерный учет и наблюдение.

Для определения диапазонов риска развития и прогнозирования заболеваний рекомендуется делить на три группы исследуемых по минимальным, средним, максимальным совокупным баллам, как и представлено в таблице 2.

Таблица 2

Прогнозы возникновения и развития заболеваний на основе степени риска

Диапазоны риска	Диапазон показателей	Прогноз
Наименьший риск	21,2-33,98	Хороший
Средний риск	33,99-46,76	Настороженный
Самый высокий риск	46,77-59,55	Опасный

При разделении на такие группы общий риск заболевания принимается равным 100%. На первый самый низкий диапазон риска приходится до 30% величины риска во всех диапазонах. Второй - 30-60% и третий - от 60 до 100%.

Анализ приведенных данных показал, что чем выше интегральный показатель риска развития нарушения внешнего дыхания у детей с респираторными

заболеваниями, тем выше вероятность его развития у обследуемого и выше риск перехода обследуемого в следующую неблагоприятную группу риска.

С целью упрощения и расширения использования прогностической таблицы комплексной оценки заболеваний для экономии времени обучающихся студентов старших курсов и врачей, разработана компьютерная программа, которая может использоваться на всех типах компьютеров с использованием интернет-браузера (рисунок 1, 2). Контент составлен на узбекском и русском языках. Пациенты выбирают язык произвольно. Оценка состояния здоровья посредством использования представленной нами электронной программы создала возможность анализа полученных результатов и профилактики детской патологии, родителям осуществлять постоянное наблюдение за детьми, контролировать состояние детей. Набранные в совокупности баллы позволяют оценить результат анкетирования с помощью мобильного приложения, в котором в итоге предоставляется информация с заключением о состоянии здоровья ребенка и необходимых мерах по улучшению его здоровья. В результате, на основе полученных величин относительных факторов риска, стало возможным просто и быстро прогнозировать риск возникновения и развития заболеваний, предупреждать заболевания, брать ребенка на диспансерное наблюдение с учетом диапазонов риска, разрабатывать индивидуальные дифференцированные профилактические мероприятия, резко снижать темпы перехода заболеваний в хроническую форму, обеспечивать самоконтроль пациентов. Более того, данный метод помогает развивать социально-педагогическую систему профилактики распространенных детских заболеваний, т.к. профилактика – это комплексный метод пропаганды, а ее реализация – сложный комплекс мер, реализуемых посредством развития социальной педагогической системы.




Рис 1. Прогностическая карта: главное стартовое окно анкеты




Рис 2. Прогностическая карта: рабочее окно анкеты

Таким образом, разработанная прогностическая карта и разработанная на ее основе мобильное приложение базируются на анализе здоровья каждого ребенка, предупреждении заболеваний, выявлении их на ранних стадиях и оказании пациентам индивидуальной, дифференцированной комплексной лечебно-профилактической помощи, с комплексной оценкой ведущих факторов риска заболеваний.

Выводы. 1.Прогностическая таблица строится на основе комплексной оценки ведущих факторов риска заболеваний, профилактики заболеваний, анализа состояния здоровья каждого пациента, их выявления на ранней стадии и оказания пациентам индивидуальной, дифференцированной комплексной лечебно-профилактической помощи. 2.Прогностическая карта является надежным инструментом для индивидуального наблюдения за детьми, определения предрасположенности к заболеваниям и своевременного применения профилактических мер. 3. Прогностическая карта обеспечивает статистический контроль за заболеваниями в медицинских учреждениях, является основой для разработки индивидуального плана профилактики для каждого ребенка. 4. Использование важных компонентов мобильного приложения, способствует не только углубленному освоению знаний и навыков в рамках предмета или дисциплины, но и позволяет преподавателям координировать свою педагогическую деятельность, упрощать ее, экономить временные ресурсы.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
2. Абдуганиева Ш. Х., Фазилова Л. А. Мобильные учебные приложения: плюсы и минусы // Педагогика и психология в медицине: проблемы, инновации, достижения. Под редакцией д. м. н., профессора Ванчаковой НП—М. Издательство Перо. – 2021. – Т. 2021. – С. 7.

3. Алиева Б. Ш., Багамаева И. О. Реализация педагогических технологий оказания помощи семьям, находящимся в трудных жизненных ситуациях //Мир науки, культуры, образования. – 2021. – №. 6 (91). – С. 276-278.
4. Зайцев А. Ю. и др. Роль искусственного интеллекта в прогнозировании трудных дыхательных путей у взрослых: обзор литературы //Вестник интенсивной терапии имени АИ Салтанова. – 2025. – №. 1. – С. 110-122.
5. Каюмова М Цифровые технологии в клинической практике: перспективы и вызовы // Academic research in educational sciences. 2025. №Conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-tehnologii-v-klinicheskoy-praktike-perspektivy-i-vyzovy>.
6. Любецкий Н. П. и др. Факторы, влияющие на воспитание гармоничной личности и на уровень индивидуального, и социального здоровья российской молодёжи //Наука. Образование. Современность/Science. Education. The present. – 2025. – №. 1. – С. 107-121.
7. Чиркова В. М. Современные технологии в медицинском образовании как средство обучения студентов нового поколения //Карельский научный журнал. – 2020. – Т. 9. – №. 1 (30). – С. 40-42.
8. Kurbanovich T.B., Ulaboyevich K.S. Effective use of digital technologies in the medical education system //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. –2022. –Т. 3. –No. 3. –С. 473-477.

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

MULTIMEDIA – AS AN EFFECTIVE TOOL FOR THE DEVELOPING OF BILINGUAL COMPETENCE IN PRESCHOOL CHILDREN

Mirkasimova Zilola Alisherovna

English Language Instructor

State Preschool Educational Institution No. 330

E-mail: zilolaxakimova0083@gmail.com

Abstract. This article analyzes the importance of multimedia tools in the development of bilingual (two-language) competence in preschool children. It explores effective methods for organizing language learning through digital technologies, pedagogical approaches, and psychological characteristics.

Keywords: multimedia, bilingual competence, preschool age, digital technology, language learning, interactive learning tools.

MULTIMEDIA – MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILINGVAL KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA

Mirkasimova Zilola Alisherovna

330 - sonli DMTT ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda bilingval (ikki tilli) kompetensiyani shakllantirishda multimedia vositalarining ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar orqali til o'rganishni samarali tashkil etish yo'llari, pedagogik yondashuvlar va psixologik xususiyatlar yoritilgan.


Kalit so'zlar: multimedia, bilingval kompetensiya, maktabgacha yosh, raqamli texnologiya, til o'rganish, interaktiv o'quv vositalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N73>

Kirish. Bugungi raqamli jamiyatda xorijiy til bilish talabi kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, bola rivojining eng faol bosqichi maktabgacha yoshda til o'rganish imkoniyatlari yuqoridir. Ushbu bosqichda bilingval kompetensiyani shakllantirish orqali bola nafaqat ikki tilni o'zlashtiradi, balki tafakkur, xotira va kommunikativ salohiyatini ham rivojlantiradi. Bu jarayonda multimedia vositalari muhim vosita sifatida ajralib turadi.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalari axborotning asosiy manbalaridan biri bo'lib, darsliklardan farqli o'laroq, interfaollik, multimedialilik darajasi nihoyatda yuqori bo'lib, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadigan va o'quv materiallarini muvaffaqiyatli egallashga hissa qo'shadigan vosita hisoblanadi [6]. Multimedia lotincha *multi* - ko'p, *media* - axborot tashuvchi, vositachi, ma'nolarini anglatadi. Kompyuterning matn, grafika, tovushli va videoma'lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilma. Bugungi kunda ta'lim jarayonida kommunikativ axborot vositalari, xususan, multimedia resurslaridan foydalanish zaruriy ehtiyojga aylandi. Multimedia — bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interfaol dasturiy ta'minot ostida boshqariladigan video va audio effektlarning o'zaro bog'liqligi

bo'lib, matn, tovush, grafika, tasvir, videoni birlashtiradi. Bunda ma'lumot turli axborot tashuvchilarida (magnit va optik disklar, audio va video tasmlar) mavjud bo'lishi mumkin [2]. Multimedia tushunchasi mutaxassislar tomonidan turlicha ta'riflanadi. Jumladan, U.Xodjayev ta'rificha, multimedia (*multimedia* — ko'p muhitlilik) vositalari bu texnik va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan juda turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiyalarni ishlatgan holda zamonaviy texnologiya vositasida, biror axborotni insonga odatdagidan ko'ra ko'proq olish imkonini beradi [4]. G.Sobirova fikricha esa, multimedia (*multi* — ko'p, *media* — muhit) — bu kompyuter texnologiyalarining sohasi bo'lib, turli axborot saqlovchi vositalaridagi turli fizik ko'rinishda ifodalangan axborotlarga ishlov beradi. Multimedia AKT ning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg'ulotlar o'tish, til o'rgatish faoliyati jarayonida keng foydalanib kelinmoqda. Mutaxassislar ta'kidicha, agar bolalar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30 % ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab borish 75 % ga ortadi [1]. Multimedia vositasi imkoniyatlari orqali bolalar tillarni samarali o'zlashtiradilar (1-rasmga qarang):



1-rasm. Multimedia vositalari orqali MTTlarda til o'rgatish va bilingvallikni shakllantirish imkoniyatlari

Muhokama. Maktabgacha yoshda yangi bilimlarni o'zlashtirishda bolalar uchun ko'rgazmali vositalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda ko'rgazmali vositalar safiga multimedia vositalari ham qo'shildi. Agar katta yoshdagi kishilar yangi so'zlarni og'zaki tarjima va tushuntirish vositasida, so'zlar assotsiatsiyalari, obrazlar va ko'rgazmali rasmlar asosida birdek o'zlashtirsalar, bolalar uchun vaziyatning ko'rgazmaliligi, ya'ni real ob'ektlar eng muhim vosita. Multimedia vositasida bolalar lug'at boyligining sekin-asta o'sib borishi natijasida uning rivojlanishi va ichki leksikasi darajasidagi aloqalari ancha yuqoriroq darajaga ko'tariladi [5].

Tillarning ta'limi faoliyati jarayonida bolalar va kichik yoshdagi o'quvchilarning lug'at boyligini va nutq madaniyatini o'stirishda audio va video vositalar, multimedilardan

foydalanishning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy samarasi katta. Xususan, xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishda texnika vositalari ma'lumotlarini kengaytirish uchun qo'shimcha resurslar va vositalarni taqdim etadi, eng muhimi, barcha o'quvchilarni birdek jalb eta oladi [3]

Kichik yoshdagi bolalar ertaklarni juda yaxshi ko'radilar. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga til o'rgatishda ertaklardan ko'p foydalaniladi. Ayniqsa katta va maktabga tayyorlov yoshidagi guruhlarda ertaklardan va multfilmlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda avvalo ertaklarni bolalarning yoshiga mos tarzda tanlash, avval kichikroq ertaklardan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'rinda shuni qayd etib o'tish kerakki, hatto kichik hajmdagi ertaklarda ham barcha so'zlar bolalarga tushunarli bo'lmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar, asosan, ertaklarni eshitishni, qahramonlarni o'z ko'zlari bilan ko'rishni xohlashadi. Bolalarda eslab qolish qobiliyati kuchli bo'lib, eshitib ko'rgan narsalarini tezkorlik bilan og'zaki qaytarishga harakat qiladilar. Bunday usul esa bolalarni chet tilida so'zlashga o'rgatish uchun qulay imkoniyat yaratadi [7].

Natijalar. Bolalar faqat tomoshabin bo'lib qolmasliklari uchun ularga ertak mazmunini ona tili yordamida ham tushuntirib berilsa, ertakning takroriy namoyishi bolalarning o'zidan ertak mazmunini so'ralsa, bolalar tez qabul qiladilar. Shu tarzda ingliz tilidagi notanish so'zlarni ham ular lug'atiga kiritib borish osonlashadi. Masalan, tadqiqotchi S.Shnibaeva o'z tadqiqotida ingliz tili ta'limiy faoliyatida bolalarga *"Three Little Pigs"*, *"Three Little Kittens"*, *"Goldilocks and the three bears"* kabi audio ertaklarni tavsiya etgan [8]. Bizning fikrimizcha, bolalar xorijiy tilda bayon qilingan audio ertaklarni tushunib qabul qilishlari qiyin. Ular ona tilida audio ertakni tushunishlari mumkin, biroq chet tilidagi ertak mazmunini faqat biz yuqorida qayd qilgan usulda, ya'ni avval mazmuni ona tilida bayon etilgach, so'ng namoyishi bilan ko'rsatish maqsadga muvofiq. Agar chet tilidagi ertaklar multfilm shaklida namoyish qilinsa, bolalar ertak qahramonlarining ayrim so'zlari, qo'shiqlarini eslab qolishlari mumkin. Agar ertakning umumiy mazmuni ona tilida tushuntirib berilsa, unda ertak nima haqdaligini ham eslab qolish bilan bir vaqtda, boshqalarga tushuntirib ham berishlari mumkin. Shu bois, chet tili mashg'ulotlarini ona tili mashg'ulotlari bilan ketma-ketlikdagi izchilligini ta'minlash, ya'ni muayyan ertak (yoki uning multfilmi) ona tili mashg'ulotlarida berilganidan so'ng, ingliz tilida namoyish qilinsa natija samarali bo'ladi. Ish tajribamizda, *"Zumrad va Qimmat"*, *"Aldar ko'sa"*, *"Ur to'qmoq"* kabi ertaklar shu tadrijiy yo'nalishda berilgani uchun bolalar sevib qabul qilganliklari va tushungan holda tez o'zlashtirganliklarining isbotini ko'rdik. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ertaklar syujetli bo'ladi ba albatta tarbiya vositasi hisoblanadi. Ular bolalarni do'stona yashashga, bir-biriga yordam berishga, yaxshilik qilishga, tabiatni asrashga, kattalarni hurmat qilishga o'rgatadi. Bolalar chet tilidagi so'zlarni o'zlashtirish jarayonida shu ruhda tarbiyalanib ham boradilar. Ayni vaqtda har bir ertak muayyan xalqning turmush tarzini aks ettirgani bois bolalar shu ertak qahramonlarining yurish-turish odobi, nutq etiketi-muomila yuritishini ham o'rganib boradilar. Jumladan, kattalarga murojaat shakllarida ota-onasiga, aka-opalariga, ustozlariga sensirab gapirish kabi etiket me'yori bolalar nutqiga singib qolishi mumkin. Shu bois biz ertaklar tasvirlangan multfilmlarni tanlab, mazmunini o'rganib taqdim etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. MT'larda ingliz tili ta'limiy faoliyat jarayonini tashkil etishda multimedia vositalaridan foydalanishda, multfilmlar namoyishlarida shu jihatlarni ham e'tiborga olish kerak bo'ladi.

Xulosa. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalaridan keng ko'lamda foydalanib, u orqali nafaqat mavzularga doir harakatli qo'shiqlarni, balki tasvirli

jismoniy ko'rsatmalarni o'zida mujassam etgan musiqiy mashqlarni, o'tilgan mavzularga doir qisqa daqiqali multfilmlarni ko'rsatgan holda mashg'ulotlar tashkillashtirilmoqda. Mavzularga doir yangi so'zlarning tasviriy, ovozli ifodalari pedagoglar ishini ancha osonlashtirishga, ta'lim jarayonini esa samarali bo'lishiga olib kelmoqda. Har bir mavzuga mo'ljallangan yangi so'zlar nomlarini til tashuvchisi tomonidan taqdim etilgani, mashg'ulot davomida talaffuzda yuzaga keluvchi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga va bolalarni tilni yoshlikdan sof talaffuz etishlariga yordam beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. G'ulomov S.S., Shermuhammedov A.T., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika. – T.: O'zbekiston, 1999. – 527 b.
2. https://infourok.ru/multimedia_tizimlari_va_tehnologiyalariningasosiy_tushunchalari_mavzusida_maruza-437053.htm
3. Prensky M., Digital Natives, Digital Immigrants Part 2: Do They Really Think Differently? // On the Horizon, 9 (6) 1. 2001 b. – 6 doi: <http://dx.doi.org/10.1108/10748120110424843>.
4. Xodjaev O'.O'. Multimedia vositalari turlari va ta'lim tizimida qo'llanilishi. <https://multiurok.ru/blog/mul-timedia-vositalari-turlari-va-talim-tizimida-k-ullanilishi.html>
5. Коряковсева О.В. Методика обучения английскому языку детей дошкольного возраста: Дис... канд. пед. наук. – М. – С. 73.
6. Собирова Г.С. Мультимедиа в обучении грамматике английского языка учащихся общеобразовательных школ. Монография. – Т., 2020. – 152 с.
7. Ханова О.С. Занятия по английскому языку в детском саду. – М.: Просвещение, 1965. – 255 с.
8. Шныбаева С.Б. Использование информационно-коммуникационных технологий при изучении английского языка в дошкольном образовательном учреждении // Материалы II Международной заочной научно-практической конференции. – Чебоксары: Инновационные педагогические технологии в учебно-воспитательном процессе современного образовательного учреждения, 2014. – С. 195-197.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

FEATURES OF SYNERGETIC EDUCATION AND PREPARATION OF GIRLS FOR SOCIAL-CULTURAL RELATIONS

Khidirova Durdona

Institute of Technology, Management and Communication

Lecturer at the Department of Languages and Social and Humanitarian Sciences

Abstract. The article provides a scientific and theoretical in-depth analysis of the mechanisms of preparing female students for socio-cultural relations based on the synergetic approach. Synergetics is a theory of self-regulation of complex, open systems, which, when applied to pedagogical systems, creates the basis for the holistic development of the student's personality. The role of female students in society, the formation of their cultural identity and communicative competencies are considered within the framework of this approach on a new methodological basis.

Keywords: synergetics, pedagogical system, female students, socio-cultural relations, self-organization, bifurcation, cultural identity, educational transformation.

SINERGETIK TA'LIM VA O'QUVCHI-QIZLARNI IJTIMOY-MADANIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xidirova Durdona Muxtorovna

Toshkent Menejment Kommunikatsiyalar instituti

"Tillar va ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası"

E-mail: abdualimovadurdona5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinergetik yondashuv asosida o'quvchi-qizlarning ijtimoiy-madaniy munosabatlarga tayyorlash mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Sinergetika – murakkab, tizimlarning o'z-o'zini tartibga solishiga doir nazariya bo'lib, pedagogik tizimlarga nisbatan tatbiq etilganda o'quvchi shaxsining integral rivojlanishiga zamin yaratadi. O'quvchi-qizlarning jamiyatda tutgan o'rni, madaniy identiteti va kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishi bu yondashuv doirasida yangi metodologik asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sinergetika, pedagogik tizim, o'quvchi-qizlar, ijtimoiy-madaniy munosabatlar, o'z-o'zini tashkil etish, bifurkatsiya, madaniy identitet, ta'lim transformatsiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N74>

Kirish. Jahon miqyosida xotin-qizlar masalasi jamiyatning tayanchi, salohiyati, mamlakatda kelajak avlod tarbiyachisi sifatida qaraladi. Shuningdek, jahon ta'lim tizimida sinergetik yondashuv asosida hamkorlik strategiyalaridan foydalanish, ta'lim ishtirokchilarida hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda ham xotin-qizlar masalasi ularning fanlarga oid qiziqishini oshirish, hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ham ma'naviy barkamol, aqliy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom farzandni tarbiyalash masalasi asrlar davomida insoniyat jamiyatining oliy maqsadi bo'lib kelgan va bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbek xalqining

ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy tarbiya maktabining ildizlari juda teran, zabardastdir. Ayniqsa oilada qiz bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda qizlarni mustaqil hayot yo'lini tanlashga tayyorlash va ularda sinergetik yondashuv asosida ijtimoiy faollikni shakllantirish muhim ahamiyatga molikdir.

Ushbu talablar O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi O'RQ-562- son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga ham mos keladi. Xususan, mazkur qonunda Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlashi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlashi ta'kidlangan.[1]

So'nggi o'n yillikda jahon hamjamiyati gender tengligiga erishishni dunyodagi boshqa dolzarb global vazifalar, xususan, barqaror rivojlanish maqsadini amalga oshirishda muhim yo'nalish sifatida ko'rilmogda. 2000 yil sentyabr oyida BMTga a'zo davlatlar sammitida qabul qilingan Ming yillik deklaratsiyasida gender tengligini ta'minlash nafaqat qashshoqlik va ochlikni kamaytirish va taraqqiyotning muhim sharti ekanligi aniq ta'kidlandi. Bu tamoyil O'zbekiston tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Xususan, Mingyillik sammitida 147 davlat va hukumat rahbarlari tomonidan ma'qullangan yuqorida tilga olingan hujjat jahon hamjamiyatining hayotining kun tartibidagi muhim masalaga aylandi.[2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublikamizda sinergetik yondashuv asosida o'qituvchilarda axloqiy kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, sinergetik ta'limning mazmun mohiyati, axloqiy tarbiya komponentlari masalalari M.G.Davletshin, B.R.Adizov, O.Jamoldinova, B.Ziëmuhamedov, G.Ibragimova, R.Ishmuhamedov, B.B.Ma'murov, U.I.Mahkamov, M.H.Mahmudov, O.Musurmonova, R.G.Safarova, D.Sharipova, G.G'. Mavlonova, Sh.Sharipov, N.M.Egamberdieva, Z.A.Xolmatova, B.B.Sadullaev Sh. Do'stmuhammedova, B.I.Ganieva, Q.Yo'ldoshev, E.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, O.Musurmonova, R.X.Niyozmetovalarning ishlarida o'z ifodasini topgan.

O'quvchi yoshlarni ijtimoiy-madaniy munosabatlarga tayyorlash, gender yondashuv asosida kitobxonlikka nisbatan motivatsiyani shakllantirish muammolari Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlaridan A.A.Alekseeva, SH.A.Amonashvili, V.F.Asmus, L.Beresneva, G.D.Boraznova, V.A.Borodina, E.A.Bugrimenko, I.A.Butenko, E.N.Goncharova, Z.A.Gritsenko, S.A.Denisova, O.V.Djejeley, N.V.Zbarovskaya, S.V.Ivanova, T.N.Kaptan, M.G.Kachurin, A.P.Kashkarov, L.R.Kerimova, R.A.Kiryanova, E.I.Kuzmenkova, S.P.Lavlinskiy,

V.Lazareva, N.I.Lifinseva, M.Mokina, T.A.Neborskaya, E.V.Nikonovich va boshqa bir qator mutaxassislarining ishlarida yoritilgan. Shu bilan bir qatorda zamonaviy sharoitda o'quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlash, kitobxonlikni rivojlantirish, hamkorlik pedagogikasiga oid bir qator izlanishlar olib borilgan bo'lib, L.Botcheva, J.Shih, L.C.Huffman, L.D.Breeman, van Lier, Theo Wubbels, R.Sears, J.L.Spilt, E.Vervoort, A.Koenen, F.Clemente, A.Amutio, L.Gonzalez, I.Stengers, G.Xaken P.Afflerbach, R.C.Anderson, Wills Andrea, M.Barwock, V.Blau, N.Branscombe, D.H.Brown, A.Burns, K.Cain, R.Calderon kabi xorijlik pedagog, psixolog, faylasuf, sotsiolog olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Muhokama va natijalar. Respublikamizda o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularning turli xil sohalar hamda yo'nalishlarda o'zlarining qobiliyat, layoqat, imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun sharoitlar yaratib berish, huquqiy manfaatlarini himoya qilinish, gender tenglikni ta'minlanish hamda oila va mahalla, maktab hamkorligini ta'minlash borasida bugungi kunda juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. "Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan".[3]

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar maqsadi yangi barqaror ish o'rinlarini yaratish, aholi, ayniqsa, yoshlar va ayollarning ish bilan bandligini ta'minlash, mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligi va kasbiy darajasini oshirish kabi eng dolzarb va ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash hisoblanadi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan 2019-yilning yanvar-may oylari davomida jami 15 288 nafar ishsiz va band bo'lmagan aholi mehnat bozori ehtiyojlari asosida qisqa muddatlarda kasb-hunarga o'qitilgan bo'lsa, ularning qariyb 77,1 foizi (11 791 nafari) ayollar va og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar ulushiga to'g'ri keldi" [4]

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-madaniy tizimlar o'zgaruvchan, murakkab va ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, ularda shaxsning integratsiyalashuvi muhim omilga aylanmoqda. Xususan, o'quvchi-qizlarni ushbu tizimlarga tayyorlashda an'anaviy pedagogik yondashuvlar yetarli bo'lmay qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tizimli, kompleks va dinamik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Sinergetika nazariyasi ilk bor G. Xaken tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u murakkab ochiq tizimlarning o'z-o'zini tartibga solish tamoyillariga asoslanadi. Sinergetika-murakkab, ochiq tizimlarning o'z-o'zini tartibga solish va rivojlanish jarayonlarini o'rganadigan fan. Uning asoschisi G. Xaken bu nazariyani dastlab fizikadagi lazer, molekulyar va termodinamik tizimlarni tushuntirish uchun ishlab chiqqan. Keyinchalik u biologiya, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika sohalariga ham tatbiq etilgan [5] Bu nazariya ta'lim tizimiga tatbiq etilganda, o'quvchi-qizlarning shaxsiy imkoniyatlari, madaniy identiteti va ijtimoiy roli sinergetik muvozanatda shakllanadi. Pedagogikada sinergetika o'quv jarayonini murakkab ijtimoiy-sotsial tizim sifatida ko'radi. Bu yondashuvda ta'lim- bu faqat bilim uzatish emas, balki o'quvchi va muhit o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sir, o'zgarish va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonidir.

Bizningcha o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligi jamoada, guruhda, norasmiy birlashmada muloqot qilish va harakat qilish, boshqalar bilan samarali munosabatda bo'lish, tengdoshlari, oilaning katta va kichik a'zolari, mahallalar oldidagi muayyan majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda faol bajarishlari, o'zlarini rivojlantirish, faollashtirishga qaratilgan ongli va tizimli faoliyatidir. O'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini ta'minlash bilan biz kelajakda bir qancha afzalliklarga ega bo'lishimiz mumkin, jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiy rivojlanishni yaxshilanishi kabi. Bugungi kunda o'quvchi-qizlarning ijtimoiy, siyosiy jarayonlarda faol bo'lishlari va bunga to'sqinlik qilayotgan ko'plab to'siqlar ham olimlar, siyosatchilar tomonidan keng muhokama qilinmoqda.

Qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini yaxshilash qizlar va ularning oilalari, jamiyatlari va mamlakatlari uchun iqtisodiy hamda sog'liq bilan bog'liq sohalarida foyda keltirishi mumkin. Jumladan, yevropalik olimlarning ta'kidlashicha, qizlar uchun ta'limning yaxshilanishi iqtisodiy o'sishga, shuningdek, tug'ilish, bolalar o'limi va to'yib ovqatlanmaslikning qisqarishiga olib keladi. L.K.Klenevskaya bo'lsa ijtimoiy faollik tushunchasini "barqaror xususiyat sifatida

ijtimoiy faollik tashabbuskorlik, maqsadlilik, mehnatsevarlik, mustaqillik, ijtimoiy mas'uliyat, o'ziga talabchanlik va hokazolarda namoyon bo'ladi"[6]- deya ta'kidlaydilar. Shuningdek, O'quvchi qizlar uchun sinergetik yondashuvning pedagogik ahamiyati quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

Birinchidan, bu model qiz bolalarni passiv bilim oluvchidan faol, mustaqil qaror qabul qiluvchi va jamiyatda ijtimoiy pozitsiyaga ega bo'lgan shaxsga aylantiradi;

Ikkinchidan, madaniyatshunoslik, psixologiya, gender pedagogikasi va boshqa yo'nalishlar bilan integratsiyalashgan ta'lim mazmuni o'quvchi qizlarda ijtimoiy ong va madaniy tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi;

Uchinchidan, refleksiya, sotsiodramma, loyiha asosidagi metodlar kabi sinergetik uslublar ularning liderlik salohiyati, o'zini anglash va o'zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlaydi.

Empirik tajribalar shuni ko'rsatadiki, sinergetik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muhitida o'quvchi qizlarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalari, tashabbuskorlik, madaniy identitet va sotsial integratsiya darajalari ancha yuqori bo'ladi.

Xulosa. Sinergetik yondashuvning zamonaviy ta'lim tizimidagi qo'llanilishi, ayniqsa o'quvchi qizlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur yondashuv asosida ta'lim tizimi murakkab, o'zgaruvchan va ochiq ijtimoiy-madaniy tizim sifatida talqin qilinadi. Bu esa o'quvchi qizlarning o'z-o'zini anglash, shaxsiy tanlov qilish, ijtimoiy faollik ko'rsatish va madaniy identitetini shakllantirish jarayonlarining xolistik tarzda boshqarilishini ta'minlaydi.

Sinergetik ta'lim modeli o'z-o'zini tashkil etish, bifurkatsion rivojlanish, tashkiliy tartibsizlik orqali yangi sifatlarning yuzaga kelishi, koherensiya kabi asosiy prinsiplar orqali o'quvchi shaxsining tabiiy rivojlanishini nazariy jihatdan asoslaydi. Ayniqsa o'quvchi qizlarga xos bo'lgan sotsial-psixologik o'ziga xosliklar, genderga oid madaniy stereotiplar, kommunikativlik, ijtimoiy rollarga tayyorgarlik kabi jihatlar sinergetik model doirasida chuqur tahlil etilishi mumkin. Shunday qilib, sinergetik ta'lim modeli o'quvchi qizlarni zamonaviy jamiyatga uyg'un, faol, ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli va madaniy jihatdan sezgir shaxs sifatida shakllantirishda kuchli innovatsion asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuvni amaliy ta'limga chuqur integratsiya qilish orqali nafaqat individual rivojlanish, balki gender tenglikka asoslangan inklyuziv va barqaror ta'lim tizimi shakllantirilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/4494849>
2. Декларация тысячелетия ООН от 08.09.2000 г. (www.undp.org.)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-fevral kuni xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdai nutqidan. <https://uza.uz/oz/posts/xotin-qizlarni-har-tomonlama-qollab-quvvatlash-doimiy-e-tib-07-02-2018>
4. Умурзаков Б.Х. Хотин-қизларни текстиль-тикув цехларига жалб этиш дастурларининг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти. "Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш стратегиясининг янги босқичида инсон омили ва манфаатлари: халқаро амалиёт ва Ўзбекистон тажрибаси" мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: ТДИУ, 2019. – 111 б

-
5. Haken G. *Synergetics: Introduction and Advanced Topics*. – Springer, 2004.
 6. Кленевская, Л.К. Развитие социальной активности современных подростков: монография / Л.К. Кленевская. - Пятигорск: ПГЛУ, 2005. 14-15 с

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

CONTEMPORARY APPROACHES DESIGNED TO DEVELOP PROFESSIONAL KNOWLEDGE AND SKILLS IN YOUNG PEOPLE

Yazdonov Ulugbek Toshmurotovich

Samarkand Agroinnovations and Research University,
Doctor of Philosophy, Professor

Rashidova Madina

Samarkand Agroinnovations and Research University,
Doctoral Student

Abstract. This article analyzes modern educational concepts aimed at the formation of professional knowledge and skills in young people, which is one of the current pressing problems. The main focus is on modern teaching methodologies and strategies aimed at improving the theoretical and practical aspects of professional development. It explores the need to integrate innovative pedagogical approaches that develop critical thinking, creativity and practical experience in young people. In addition, the article emphasizes the importance of interdisciplinary learning, digital competencies and the development of skills that are increasingly important in the rapidly changing global labor market. Key principles such as lifelong learning, student-centered education and cooperation with industry are discussed as key components of effectively preparing the next generation for the demands of the workforce, and the importance of these modern concepts in creating well-rounded specialists who are flexible, resourceful and able to solve future problems.

Keywords: integration, interdisciplinary, professional skills, non-traditional approach, concept, communication improvement.

YOSHLARDA KASBIY BILIM VA KO'NIKMANI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY KONSEPSIYALARDA ILGARI SURILAYOTGAN TA'LIMOTLAR

Yazdonov Ulug'bek Toshmurotovich

f.f.d., professor
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Rashidova Madina Raxmatovna

Tayanch doktorant, assistent
E-mail: rashidovamadina35@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada, hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lgan yoshlarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim konsepsiyalarini tahlil qilingan. Asosiy e'tibor kasbiy rivojlanishning nazariy va amaliy jihatlarini yaxshilashga qaratilgan zamonaviy o'qitish metodologiyasi va strategiyalariga qaratilgan. Yoshlarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va amaliy tajribani rivojlantiruvchi innovatsion pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash zarurligini o'rganadi. Bundan tashqari, maqola fanlararo o'rganish, raqamli kompetensiyalar va tez o'zgaruvchan global mehnat bozorida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan ko'nikmalarni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Kelgusi avlodni ishchi kuchi talablariga samarali tayyorlashning asosiy komponentlari sifatida umrbod ta'lim, talabalarga yo'naltirilgan ta'lim va sanoat tarmoqlari bilan hamkorlik kabi asosiy tamoyillar muhokama qilinadi, ushbu zamonaviy kontsepsiyalarning moslashuvchan, topqir va kelajakdagi muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan har tomonlama rivojlangan mutaxassislarni yaratishdagi ahamiyati haqida so'z olib borilgan.

Kalit soʻzlar: integratsiya, sohalararo, kasbiy mahorat, noanʼanaviy yondashuv, konsepsiya, kommunikativligini oshirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N75>

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda sohalararo integratsiya kuchayib bormoqda, bu jarayon har qanday kasb sohibi boʻlgan shaxsga bir qator masʼuliyatli vazifalarni bajarishni talab etadi. Masalan, oʻz sohasini chuqur bilishdan tashqari, uni doimiy takomillashtirib borish, yaʼni oʻz ustida qunt bilan ishlashni odat qilish, bir nechta xalqaro tan olingan tillarni bilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish koʻnikmasiga egalik qilish, nazariya va amaliyot oʻrtasidagi uzviy aloqani yaxshi tushunish hamda unga amal qilish metodologiyasini oʻzlashtirish, oʻz sohasi kesimida chiqayotgan yangiliklardan xabardor boʻlishdan tashqari, ularning ishlash prinsiplarini takomillashtirish boʻyicha pragmatik tavsiyalar ishlab chiqish salohiyatini amaliyotda koʻrsatish kabi vazifalar borki, zamonaviy shaxs ularni nafaqat bilishi, balki rivojlantirishi ham kerak boʻladi. Aks holda, real voqelikdan ortda qolib ketishi muqarrar.

Shunga qaramasdan, kasbiy mahoratni egallashda, uni amaliyotga tadbiq etish borasidagi kamchiliklar sezilarli darajada oshmoqda. Yaʼni yoshlarda bir tomonlama rivojlanishga boʻlgan urinish koʻchayib, ularning oʻzlashtirishida bir fan ustuvorligi kuzatilmoqda, aksincha boshqa fanlarni oʻzlashtirishda passivlik sezilmoqda. Natijada, mutaxassisning egallagan kasbiy ilmi bir tomonlama shakllanayotganligi amaliyotda koʻrinib qolmoqda. Sh.Mirziyoyev haqli ravishda taʼkidlab oʻtganidek: “biz yoshlarga katta-katta lavozimlarni ishonib topshiryapmiz. Ularda bilim bor, isteʼdod bor. Afsuski, ayrimlari milliy zamin, milliy maʼnaviyatimizdan uzoqlashib ketgani sezilib qolmoqda. Ularning koʻplari oʻzlari oʻqib kelgan xorijiy davlatlardagi tajribani tez va shoshilinch amalga oshirmoqchi boʻlyaptilar, ammo bunday natijaga oʻsha davlatlar bir necha yuz yillar davomida erishgani haqida ular oʻylab koʻrmayapti. Men bunday yoshlarimizga milliy tariximiz va qadriyatlarimizni, oʻz ijtimoiy muhitini chuqur oʻrganishni maslahat bergan boʻlar edim”[1]–deb, shaxs kamoloti uchun bir sohani chuqur bilishning oʻzi kifoya qilmasligini keltirib oʻtadi.

Umuman olganda zamonaviy talablarga javob beradigan, kasbiy mahorati yuqori boʻlgan shaxs qiyofasi ustida olib borilayotgan koʻplab tadqiqotlarning oʻziga xosligi, yaʼni xususiyligi va umumiyli boʻlib, ularni ochiqlashga qaratilgan bir qator tadqiqotlarni keltirib oʻtishni lozim topdik.

Norvegiyalik olimlardan Jens-Kristian Smebi va Kåre Heggenlar tomonidan ishlab chiqilgan “Muvofiqlik konsepsiyasi”da shaxsning kasbiy kompetentligini belgilovchi mezonlar ochiqdanib, bilim va koʻnikma oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlikni topish zaruratiga noanʼanaviy yondashuv ilgari suriladi. Ularning fikricha nazariy bilim va amaliy koʻnikma oʻrtasidagi bogʻliqlikni topish qiyin boʻlganligi bois, kasbiy bilim va koʻnikmalarning rivojlanishiga bogʻliq boʻlgan munosabatlarni uch qismga ajratgan holda koʻrsatish toʻgʻri boʻladi.

Birinchisi, “biografik muvofiqlik” deb nomlanib, unda oʻquvchi oʻzlashtirishi kerak boʻlgan fanlarga olib boruvchi boshlangʻich fanlarni bilishi, yaʼni oʻqishga kirishdan oldingi tajriba kerakligiga urgʻu beriladi;

Ikkinchisi, “dastur muvofiqligi” hisoblanib, oʻquvchiga yetkazilayotgan fanlarning nazariy va amaliy qismlari oʻrtasidagi moslik darajasi, yaʼni integratsiyalashganligiga urgʻu beriladi;

Uchinchi, “o‘tish davri muvofiqligi” bo‘lib, bu qismda ta‘lim oluvchi va malakali mutaxassis o‘rtasidagi munosabat birlamchi omil sifatida ko‘riladi. Ular, ta‘lim natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni topishda to‘rtta professional guruhni tanlab, eksperiment tekshiruv olib borishadi. Bular: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, maktabgacha ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari, hamshiralar va ijtimoiy xodimlar hisoblanib, ulardan olingan natijalar to‘rt yillik statistika bo‘lib, kelingan xulosa “uyg‘unlikning har uch turi ham talabalar va yangi malakali mutaxassislarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari bo‘yicha natijalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, dasturning izchilligi nafaqat sinfda o‘qitishda, balki joylashtirishda ham muhim omil hisoblanishi kerak”[2;71-91-b.] –degan xulosaga kelishadi.

Bizning nazarimizda ham o‘quvchining kasbiy kompetensiyasini oshiruvchi bilimni nazariy va amaliy qismlarda yetkazishda, o‘quvchida ma‘lum bir ko‘nikmani shakllantiruvchi bosqichlar ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, muammoli vaziyatni keltirib chiqaruvchi sababiyat, uni rivojlanish bosqichiga olib boruvchi omillar, amaliy yechimini ko‘rsatuvchi ilmiy-nazariy prognozlar. Shu uch bosqichli ta‘lim jarayoni komplekslashgan modelda olib borilsa, bo‘lajak mutaxassislarning bilim va ko‘nikmasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik kompetensiyasi ta‘minlanadi.

Lisbet Baartman, Elly de Bruijn kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar “bilim-ko‘nikma-munosabat”ni birlashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular asosan uchta konsepsiyani ilgari surishgan.

Birinchisi, bilim olishda transformativ integratsiyani qo‘llab, olinadigan ko‘nikmani tanqidiy, ya‘ni o‘z-o‘zini aks ettirish orqali baholashga urinishda ko‘rgan.

Ikkinchisida, empirik tadqiqotlar uchun asos bo‘ladigan nazariy ilmlar o‘rtasidagi turli xil integratsiya jarayonlarini to‘g‘ri tanlash, ilgari surilayotgan pedagogik farazlarni ishlab chiqishda kasbiy komponentlarni maqsadli modellashtirish.

Uchinchi, O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va munosabatlari o‘rtasidagi integratsiya nuqtai nazaridan o‘quv jarayonlarini boshqarish mexanizmini qo‘llashni ishlab chiqadi.

Tadqiqotchilar ilgari surayotgan konsepsiyaning mohiyatida o‘quvchilar kognitiv ko‘nikmasi, ijtimoiy-madaniy an‘analarga munosabatini aniqlash qo‘yilib, ta‘lim jarayonida yuzaga kelgan kasbiy murakkabliklarni hal etishga qaratiladi. Bu jarayonni ko‘rib chiqishda quyidagi talablarga e‘tibor qaratishadi:

- kompetentlik odatda bilim, ko‘nikma va munosabatlarning birlashtirilgan qismi bo‘lishi kerak;
- talabaning kasbiy ta‘limdagi faoliyatini muvofiqlashtirishda bilim, ko‘nikma va munosabatlar o‘rtasidagi integratsiyani anglatuvchi komponentlarni topish kerak;
- bilim va mahoratni egallashga qo‘yiladigan talablarga ta‘sir qiladigan ijtimoiy-pedagogik jarayonlarga munosabatni shakllantirish kerak;
- talaba o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatda bilim, ko‘nikma va munosabat birlamchi bo‘lib, ular o‘zaro integratsion xususiyat kasb etishi kerak;
- ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan nazariyalar transfer maqomida bo‘lib, u ma‘lum konsepsiyaga ega bo‘lishi, shaxsiy rivojlantirish qonuniyatiga bo‘ysingan holda olib borilishi zarur;
- kognitiv bilim psixologik nuqtai nazardan turli guruhlarga ajralishi mumkin, ammo deklarativ jihatidan protsessual maqomda bo‘lishi, bilimlar o‘rtasidagi farqda sezilarli mavqeni egallashi kerak[3;125-134-b.], deb hisoblaydi. Ammo ular ilgari surgan konsepsiyada kasbiy

kompetensiyaning bilim va ko'nikmaga taqqoslagan holda xulosa chiqarishga ko'proq urg'u berishadi. Bizning nazarimizda kasbiy kommunikativlik masalasi ham bu jarayonda muhim hisoblanib, tadqiqotchilar muammoning shu jihatini e'tibordan chetda qoldiradi. Ushbu nazariyani to'ldiruvchi komponentlarga qo'shimcha ravishda quyidagi kommunikativ omillarni keltirib o'tish mumkin bo'ladi:

Birinchidan, inson bilishi mumkin bo'lgan va hisobga olishi zarur hisoblangan faktik ma'lumotlar oqimi seleksiya qilinishi kerak;

Ikkinchidan, ilmiy faoliyat jarayonida olinadigan ko'nikmalar bilim va amaliyotga bog'lanishi uchun manipulyativ munosabat o'rnatilishi, psixometrik ta'sirlar kamayishi zarur;

Uchinchidan, ko'nikmalar harakatlarni muvofiqlashtirish kerak yoki kognitiv qobiliyatlarni o'z ichiga olgan tuyg'ularga birlamchi omil sifatida qarab, ta'limda vosita hisoblangan ko'nikmalar qismlarga ajratilishi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar mohiyatan aniqlanishiga erishish yo'llari topilishi kerak;

To'rtinchidan, bilim ijtimoiy munosabatlarda drayver bo'lishi kerak. Buning uchun ikki omilga birlamchi vosita sifatida qarashni taklif etamiz. Birinchisi, shaxsni bilish jarayoniga olib keladigan har qanday muhit amaliyotga bog'lanishi, ijtimoiy dunyo bilan o'zaro munosabat bilim va ko'nikma asosiy planga chiqishiga erishish zarur. Ikkinchisi, shaxs haqidagi g'oyalar, masalan real bilim va gipotezali ilm o'rtasidagi bog'liqlik ijtimoiy makon bilan integratsiyaga kirishishiga erishish zarur. Shunda yoshlarni kasbiy kommunikativligi oshib, ularda mavjud bilim va ko'nikma uyg'unligi hosil bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda yoshlar kommunikativligini oshirish, ularni zamonaviy ilm va ko'nikma bilan qurollantirishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarda yoshlarni kasbiy bilim va ko'nikmasi o'rtasidagi integratsiyani ijtimoiy muhitga bog'lash, ularni ta'sir diapazonini ochiqlashga qaratilgan tadqiqotlar ko'paymoqda. Xususan, rossiyalik olimlardan Elena Murugova, Nadejda Bulankina va Olga Mishutinalar tomonidan olib borilgan amaliy loyihada inson va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikni ta'limga bog'lab, "ijtimoiy hayotining ustun qiymati sifatida madaniy axborot va ta'lim makonlarining polifoniyasida ko'radi. Ular ta'limni rivojlantirish shartlari va vazifalarining yangiligi va o'zgarishini aks ettiruvchi ilmiy pragmatik tadqiqotlar doirasidagi bo'shliqni to'ldirish zarur deb hisoblaydi"[4;121-152-b.] hamda hozirgi universal ta'lim shaklini yoqlab, maktab tizimi doirasida kommunikativ strategiyani yaratish tashabbusi bilan chiqishadi.

Rus tadqiqotchilari ilgari surayotgan "ijtimoiy makonda zamonaviy ta'lim" konsepsiyasida yoshlarni ta'limga bo'lgan rag'batini oshiruvchi komponentlar sifatida quyidagi omillarga e'tibor qaratishadi:

1) ta'limni aksiologik xususiyatini inobatga olish, milliy mentalitetga borib taqaluvchi qadriyatlarni ta'lim talabiga moslashtirish, ta'limni shaxsiylashtirish va aksariyat hollarda ta'lim sifatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi komponentlardan voz kechish targ'ib etiladi;

2) o'qitishning tarkibiy qismi, funksional vazifalari va kommunikativ yondashuv o'rtasidagi muvofiqlikni topish – ta'lim sifatiga qaratilgan ko'rsatkichlar orasida birlamchi bo'lishi kerak deyiladi;

3) komplekslashgan modelni yaratish orqali ta'lim va tarbiya o'rtasidagi integratsiyaga erishish mumkin deydi;

4) global ta'lim muloqoti ko'p tarmoqli bo'lishi, uning tashkiliy jihatlari shaxsning funksional savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi shartligi uqtiriladi. Demak,

bundan ko'rish mumkinki, ta'lim taraqqiyotida ijtimoiy makon va zamon talablari u yoki bu darajada bo'lsada xizmat qiladi.

Bilyana Gramatkovski va Jasminka Kochoskalar tomonidan yuqoridagi fikrni qo'llab quvvatlovchi mulohaza yuritib, kommunikativ kompetentsiya dinamikasi tilda deb biladi. Ularning qayd etishicha, tilni o'rganish jarayonini istalgan vaqtda boshlash mumkin, faqat kommunikativlik bo'lsa kifoya deyishadi. Tadqiqotchilar, muloqotni ta'lim kompetensiyasiga tenglashtirib, shaxsning kommunikativ-pedagogik xususiyatlarini inobatga olishni taklif etadi hamda, tizimni to'ldiruvchi resurslardan foydalanishni keltirib o'tishadi. *Birinchisi*, ijobiy muhit yaratish; *ikkinchisi*, o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga qarab yondashish; *uchinchisi*, jarayonni nazorat qilishda real voqelikdan kelib chiqqan holda munosabat bildirish[5;405-408-b.] degan xulosaga kelishadi.

Ukrainalik olimlar V.Radkevich, S.Kravets, T.Herliand, O.Radkevych, A.Kozaklar shaxs kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar rolini aniqlash, baholash, ta'sir mezonlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqot olib borishgan, ularning xulosasiga ko'ra "kasbiy bilim – ta'limda maqsadni aniqlash, ta'lim mazmunini qurish, amaliyotga yo'naltirish, o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv natijalarini baholashning innovatsion tamoyillar tizimini amalga oshirishning kontseptual asosidir. Bunday kompetensiyaga asoslangan yondashuv maqsadlariga erishishning asosiy vositalari – innovatsion texnologiyalardir. Ularning kasbiy ta'limga ta'siri o'qituvchilarning ijodkorligi va mahorati darajasida foydalanishning o'zgaruvchanligiga, pedagogik o'zaro ta'sir xususiyatlariga asoslangan modifikatsiya"[6;120-129-b.] bo'lishiga qaramay, ta'lim samaradorligini ta'minlashda hamda bo'lajak kasbiy mahoratni oshirishda texnologik jihatdan muhimdir. Shu bilan birga ularning nazariyasida yoshlarni kasbiy ko'nikmasini oshirish mexanizmlari borasidagi qarashlarida ayrim noaniqliklar ham bor. Masalan, zamonaviy ta'limda tizimli bosqich bo'lmay, vaqt va makonga ko'ra o'zgarishlar ko'p bo'lishini tabiiy qabul qilishni ilgari suradi. Buni, ta'limga bo'lgan ehtiyoj asta-sekin kompetentsiyaga asoslangan yondashuv resurslarida ko'rila boshlaydi deb, tushuntiradi. Shu o'rinda savol tug'iladi: talabaning kasbiy kompetensiyasini oshirish ehtiyojlari bilan bog'liq texnologik, ijtimoiy xarajatlar istiqbolda o'zini oqlashi yoki qoplamasligini aniqlash mezonlari qanday bo'ladi?

Ammo shunga qaramasdan, ushbu konsepsiyaning o'ziga xos jihatlari ham mavjud. Jumladan, "ochiq pedagogik tizim orqali ta'lim muassasalari bilan korxonalar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik shartnomasi doirasida o'quv jarayonini nazorat qilish, ishlab chiqarishning tashkiliy-texnologik jihatlarini integratsiyalashga qaratilganligi maqtovg'a loyiq ishdir. Qolaversa, qo'shimcha ko'nikmalar (asosiy kompetensiyalar, yumshoq ko'nikmalar), shu jumladan yuqori darajadagi o'z-o'zini tashkil qilish, muloqot qilish qobiliyatlari, ijodkorlik, jamoada ishlash ko'nikmalari, qayta muhandislik ko'nikmalari, ishontirish, yetakchilik (taklif etilgan va qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati), vaqtni boshqarish qobiliyatlari, hissiyotlarni boshqarish qobiliyatlari, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati, ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati"[7;B133] kabi ta'lim mexanizmlarini amaliy faoliyatga yo'naltirilganligini e'tirof etish kerak.

Yoshlarning kasbiy layoqatini oshirish borasidagi strategiyani uch bosqichda qo'llash samarali hisoblanadi. Bularga: 3-7 yosh oralig'idagi davr, 7-17 yosh o'rtaligidagi davr, 17-24 yosh oralig'i kiradi. Demak, kelajakda ma'lum bir kasbga nisbatan salohiyatli mutaxassisni tayyorlash kamida 22 yilni talab etadi.

Birinchi davr (3-7 yoshlar oralig'i) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ichida albaniyalik olimlardan professor Zamira Hyseni Duraku (University of Pristina), Vigan Blakaj, Eglantina Likaj Shllaku, Loreta Boçi, Hysnie Shtylla tomonidan olib borilgan tadqiqot e'tiborli hisoblanadi.

Tadqiqotchilar asosiy e'tiborni quyidagi omillarga qaratadi:

- maktabgacha ta'limni samarali tashkil etishda bilim, ko'nikma, mehnat va motivatsiyani oshirish orqali – boladagi qobiliyatlarni ochish mumkin;
- maktabgacha ta'lim muassasalaridagi sifat ko'rsatkichlari bolalarning ta'limiy o'sishini belgilab berib, keyingi bilimga bo'lgan tajribasini takomillashtirishga xizmat qiladi;
- bolalarning rivojlanishi ikki omilga bog'liq, *birinchisi* ta'lim va tarbiya uzviyligi. *Ikkinchisi*, ta'lim o'qituvchilarining roli;
- maktabgacha ta'lim murabbiylarining malakasi va kasbiy ko'nikmasi, o'z kasbiga bo'lgan layoqat darajasining bolalarni rivojlanishi va o'zlashtirishiga ta'siri;
- bolalarning sog'lom tarmush tarzi va tarbiyaviy jarayon o'rtasidagi bog'liqlik darajasi, ularni muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun qilinadigan rag'batlantirish ishlari samaradorligi;
- maktabgacha ta'lim va oila o'rtasidagi qadriyatli bog'lanishning muhimlik darajasi;
- yoshlarga beriladigan bilim va ijobiy intizomni amalga oshirish mexanizmlari va ularni samarali boshqarish tizimi tadqiqotning obyekti sifatida belgilanib, tahliliy munosabat modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot jarayonida omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish asosiy planga qo'yilib, barcha natijalar nisbati shunga qaratilgan. Masalan, "bolalarni o'z-o'zini anglashida bilim va ko'nikmaning ta'siri; ta'lim va tarbiya berish jarayonini o'z-o'zini samaradorligiga olib boruvchi ta'siri; o'qitishning o'quvchilarning mehnat motivatsiyasiga ta'siri; ta'limning bilim va ko'nikmalarga ta'siri hamda o'z-o'zini samaradorligi va mehnat chora-tadbirlari uchun motivatsiya berishga ta'siri; jarayonda qo'llaniladigan seminar treninglarning umumiy bilim va ko'nikmalarni baholovchi ballarga ta'siri. Jumladan, umumiy chiziqli modeldagi testdan oldingi farqlarning o'rtacha qiymatlari; o'quv mashg'ulotlarining umumiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri"[8;T.7.-P980254] kabi mezonlar o'rganilib, aniqlilik darajasiga ko'ra ishonchi prognozlar berilgan.

Pristina universiteti (University of Pristina) olimlarining asosiy yutug'i nimada bo'ldi? Bu savol ostida xulosa beradigan bo'lsak, asosiy yutuqlari:

1) ular tomonidan taqdim etilgan konsepsiya ko'p qirrali bo'lib, samaradorlik darajasi olingan natijalariga ko'ra o'rtadan yuqori (aslida maktabgacha ta'limda olib borilgan tadqiqotlar o'rtacha bo'lganda ham ijobiy hisoblanadi), bundan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar oldiga qo'ygan natijaga erishgan;

2) natijalar e'lon qilingach siyosatchilar, milliy ta'lim provayderlari tomonidan yuqori baholanib, ta'lim sifatini oshirish yo'lida ishlayotgan professorlarga ko'plab davlat buyurtmalari keltirgan. Chunki, boshlang'ich ta'lim bo'yicha Albaniya kabi mamlakatlarda ko'plab dolzarb masalalar mavjud (bu barcha davlatlarda uchraydigan muammolar);

3) tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turli soha vakillari, jumladan, ijtimoiy integratsiya va inklyuziya bo'yicha bilim va ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishga erishgan qatlam manfaatlari ijtimoiy integratsiya etilib, bilim va ko'nikmaga oid ko'rsatkichlar oshdi;

4) uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun ta'lim muassasalari sifatini yaxshilash va ta'minlash, o'qituvchilarning ish samaradorligini oshirishga, ularni bolalarning o'sishi va rivojlanishi ta'lim tajribasini inobatga oluvchi takliflar ishlab chiqilgan.

Ushbu tadqiqotchilar taklif etayotgan konsepsiyaning quyidagi jihatlarini o'rganish va O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchisi, shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan kasbiy rivojlanish komponentlarni ish faoliyatida ishtirok etishini ta'minlash.

Ikkinchisi, pedagogik yondashuvga qaratilgan motivlarni barcha bolalar uchun teng va mos imkoniyatlarga moslash.

Uchinchisi, o'qituvchilarning ehtiyojlarini baholash tizimini joriy etish, ularning malakasini oshirish va sifat ko'rsatkichlarini o'lchash mexanizmini yaratish.

To'rtinchisi, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga yordam beradigan "ijtimoiy ta'minot va rag'bat" dasturini joriy etish. Shu orqali o'qituvchilarning ishga layoqatini oshirish kabi pragmatik ruhdagi tavsiyalarni qabul qilish o'rinli bo'ladi.

Ikkinchi davr – 7-17 yoshlar oraliq'i hisoblanib, bu vaqt ichida yoshlar fundamental bilim olishga erishish mumkin. Ammo ko'pchilik farzandlar uni (vaqtni) to'g'ri taqsimlay olish ko'nikmasiga ega emasligi tufayli, aqliy rivojlanish bosqichida ko'pchiligi passiv bo'lib qolishadi. Shu sababli, bolani maktabgacha yoshdan keyingi davrida ijtimoiy nazorat qilish, uning har bir vaqtini aniq belgilash zarur. Bu borada jahon tajribasida qilinayotgan ishlarga murojaat qiladigan bo'lsak, Sharqiy Finlyandiya universiteti olimlaridan Fiia Söderholm, Kristiina Lappalainen, Leena Xolopainen, Jaana Viljarantalar olib borilgan tadqiqotda yoshlarning maktab davridagi ijtimoiy faoliyati o'rganilib, jarayonning o'quvchilar bilimiga, ilimga bo'lgan munosabatiga ta'siri tahlil etilgan.

Tadqiqotning asosiy ko'rsatkichlari: umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini charchashga olib boradigan sabablar; ularni rivojlantiruvchi omillar; sabab va oqibat o'rtasidagi funksional bog'liqlik darajalari; maktabda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarda o'qituvchining roli o'rganilib chiqildi. Ushbu tadqiqot ikki bosqichda olib borilib, umumiy o'rta ta'limning birinchi yili bahorida (N = 464) va ikkinchi yili bahorida (N = 326) o'tkazildi.[9;607-625-b.] Demak, olib borilgan natijalarning umumiy xulosasi shunday baholandi:

– "Maktablar o'quvchilardan maktab vazifalari va yutuqlar bosimiga, ortib borayotgan talablarga, raqobatga yoki muvaffaqiyatga erishish istagiga javob berish talabi"[10;2124-2135-b.] keragidan ortiq darajada qo'yilganligi bois, o'quvchida dars mashg'ulotlaridan "bezib qolish" kayfiyati oshib boradi.

– "Maktabda qo'yilayotgan yuqori bosim va talablarga dosh berishdagi qiyinchiliklarga javoban bolalarda psixologik reaksiya yuzaga keladi".[11;25-37-b.] Masalan, maktab ishlari bilan muntazam shug'ullanadigan o'quvchilarda surunkali stress reaksiyasi oshib boradi.

– Empirik topilmalar shuni ko'rsatdiki, "maktabda charchash bir qancha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin ekan: 1) maktab ishidagi qiyinchiliklar; 2) maktabni tark etish; 3) ruhiy tushkunlik; 4) ta'lim yo'llaridagi muvaffaqiyatlarning kamligi; 5) hayotdan kamroq qoniqish"[12;337-349-b.] ni pastligi kabi muammolar maktabda qo'yiladigan talablarning og'irligida deb ko'rsatilgan.

Biz finlandiyalik olimlar fikrini qo'llab quvvatlagan holda muammoni keltirib chiqaradigan yana uchta omilni inobatga olish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz. Birinchisi, maktab tomonidan qo'yilayotgan talab barcha toifaga qaratilmasdan, aksincha toifalangan,

bolalarni psixologik qabul qilish qobiliyatidan kelib chiqishi. Ikkinchisi, qo'yilayotgan talab o'quvchi tomonidan qaydarajada bajarilayotganligini nazorat qilish. Uchinchidan, topshiriqlarning qiyinchilik darajasi. Ushbu uchta ko'rsatgich orqali topshiriq natijalari samaradorligini aniqlash mumkin.

Uchinchii davr 17-24 yosh oralig'idagi yoshlar qatlamini qamrab olib, bu bosqich 24/7 rejimda ilm olishga chorlovchi maktab davridan farqli o'laroq mustaqil ta'lim davri hisoblanib, bola o'zini erkin his etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi. Ammo bu vaqtda tadrijiy bilim talabi to'g'ri berilmasa, bolada kuchli o'zgarish sodir bo'lib, u uzoq tutqinlikda ushlab turilgan mavjudod kabi harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan ijtimoiy bezorilik, axloqiy tubanlik, diyonatsizlik, vijdotsizlik va hokazolar shular jumlasidandir.

Farzandlarimizni aynan shu yoshdagi vaqtda biror kasb-hunar yoki ma'lum mutaxassislikni egallashga qaratilgan faoliyati kechadi. Bu davrning o'ziga xos talablari mavjud bo'lib, ular bo'yicha universal model ishlab chiqilmagan bo'lsada, ma'lum konsepsiyaga yaqinlashtirilgan qarashlar mavjud. Jumladan, rossiyalik olimlaridan Viktoriya Kolyagina, Konstantin Yadrov, Slavitsa Golubovich, Anastasiya Chebryakova, Serafima Mityanetslar tomonidan ishlab chiqilgan "O'smir yoshlarning o'tish davri psixologik xususiyati" nomli nazariyasida keltirishicha – jamiyatning sotsializatsiyaga moslashishi ortidan kirib keladigan psixologik o'zgarishlar kechishi oddiy kechilma bo'lsada, ammo kelajak avlodning nevrotik zararsiz balog'atga yetishi juda muhimdir. Shuning uchun maktab ta'limidan chiqib, universitet tomon yo'naltirilgan yoshlarda psixologik o'zgarishlar yuqori tentda kechib, uning o'ziga xos tomonlari ko'rib chiqilgan.

Mutaxassislar tomonidan ilgari surilgan xulosalarning birinchisi, maktab bitiruvchisini universitet talabasi bo'lgach, undagi umumiy stresslar sezilarli darajada pastlaydi (tadqiqot natijalariga ko'ra 23%); ikkinchisi, talaba imtihonlar, baholar, individual munosabatlar haqida o'ylay boshlagan katta kurslarda (masalan, 2-4 kurs) tur tashvishda kechgan jarayonlar, undagi qo'rquv hissini oshiradi (so'rovnomma ishtirokchilari bildirgan munosabat 29%); uchinchisi, maktabda bola psixologiyasi beqaror bo'lganligi bois, unda o'z-o'zini hurmat qilish va shaxslararo muloqotga moyillik passiv rivojlangan bo'ladi. Ammo oliy ta'lim unga stressdan chiqish uchun murakkab bo'lsada, shaxs sifatidagi o'rnini topishda muhim rol o'ynaydi (48%).[13;190-197-b.]

Umuman olganda tadqiqotchilar yoshlarni bilimga chorlovchi kriteriyalarni psixometrik jihatdan tahlil etib, shaxs shakllanishida bosqichli streslar koloniyasi kelishi hamda ular toifalangan bo'lishini ochishga harakat qilgan. Ularning tadqiqot natijalariga qo'shimcha qilish mumkinki, individdan shaxs qiyofasiga o'tish jarayonida kishida milliy mental xususiyatlar ham shakllanib borib, unga tashqi omilni ta'siri sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Masalan, qishloq sharoitida ulg'aygan bolalarni shahar tartib qoidalarini o'zlashtirishi oson bo'lgani kabi, ularni to'g'ri qabul qilishi, ya'ni tushunib bajarishi qiyin kechadi. Bu jarayonni bola psixologiyasiga odatda salbiy ta'siri ko'proq bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda yoshlarni kasbiy kommunikativlikka chorlovchi bilim, ko'nikma komponentlari uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan quyida paragraf xulosalarini keltirib o'tamiz:

Birinchidan, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda eng avvalo ta'limda sifat samaradorlik koeffitsiyentini oshirish, buning uchun uzluksiz ta'lim va tarbiya integratsiyasini

ta'minlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini saqlab qolish, sobiq sovetlar davrida standartlashgan ta'lim berish rejimidan chiqish kerak.

Ikkinchidan, kasbiy bilim va ko'nikmani oshiruvchi elementlardan ehtiyoj, qiziqish, ishonch va kasbiy qoniqishga chorlovchi motivatsion ta'limning tarbiyaviy muhitini topish zarurati mavjud. Masalan, yoshlarga beriladigan ilmni amaliy nazariya shaklida olishiga e'tiborni ko'chaytirish kerak. Buning uchun, ikki bosqichli amaliyot qo'llaniladi. Birinchisida qiziqishlar topiladi, ya'ni bilim bolaning qiziqishiga moslab olib boriladi. Ikkinchisida, bilimni o'zlashtirish darajasiga qarab boshqa fanlar qo'shib boriladi. Shu orqali yoshlarni fanga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularni mustaqil harakatga undash mumkin.

Uchinchidan, bugungi yoshlarda kuzatilayotgan asosiy kamchilik, ularni ma'lum bir mavzuda ilmiy tanqidiy fikrlash imkoniyatini cheklanganligida ko'rinmoqda. Shu jihatdan qaraganda, kasbiy komponentlikning muhim elementlari bo'lgan analitik tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish, muammolarni samarali hal qilishda konstruktiv yechim sifatida ko'riladi. Taklifimiz yoshlarni tanqidiy fikrlash qobiliyatiga undovchi, ularda muammo ustida mulohaza yuritishga chorlovchi mantiq fanini barcha ta'lim dargohlarida chuqurlashtirib o'tilishini joriy etish kerak.

To'rtinchidan, yoshlarni kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda o'z-o'zini undash, maqsadga yo'naltirilgan kasbiy rivojlanish komponentlarini qaror toptirish, samarali faoliyat yuritish drayveri bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka integratsiyasiga erishishni joriy etish kerak. Buning uchun, shaxsning kasbiy sifatlarini oshiruvchi intellektual rivojlanish omiliga maxsus kategoriya sifatida qarab, kasbiy moslashuvchanlik prinsipiga qat'iy rioya etgan holda harakat qilish talab etiladi.

Beshinchidan, kasbiy bilim va ko'nikmani o'zlashtirish jarayonida yoshlar o'rganilayotgan materialni xotirada saqlab qolish imkoniyatini egallashi orqali bilim va ko'nikma malakada ko'rinadi. Aks holda harakatlar qiymati pasayib boradi. Buning uchun o'rganilayotgan ilm manbai besh qoidaga muvofiq bajarilishi talab etiladi. Birinchisi, o'zlashtirgan material mazmun mohiyatan unga sinonim bo'lgan boshqa manbaga taqqoslanishi kerak. Ikkinchisi, tushunish orqali o'rganilayotgan manba xulosasi gipotezalangan bo'lishi shart. Uchinchidan, tushunish darajasining ko'rsatkichi sifatida mohiyat va mazmun to'ldiruvchi bo'lishi zarur. To'rtinchidan, olinadigan bilim va ish uslubida tafovut bo'lmasligi kerak. Beshinchidan, materialni tahlil qilish – o'zlashtirilgan yaxlit ma'lumot mazmunini anglatishi kerak.

Xulosa qilib aytganda har qanday kasb sohibi bo'lgan shaxs o'z sohasini chuqur bilishdan tashqari, uni doimiy ravishda takomillashtirib borishi, ya'ni o'z ustida ishlashni odat qilishi, bir nechta tan olingan xorijiy tillarni bilishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi va salohiyatini rivojlantirishi ham kerak bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://kun.uz/kr/88836462>
2. Smeby J. C., Heggen K. Coherence and the development of professional knowledge and skills // Journal of Education and Work. 2014. –T. 27. №. 1. –P. 71-91
3. Baartman L. K. J., De Bruijn E. Integrating knowledge, skills and attitudes: Conceptualising learning processes towards vocational competence // Educational research review. 2011. –T. 6. №. 2. –P. 125-134

4. Murugova E., Bulankina N., Mishutina O. Communicative strategy of university education: current discourse // E3S Web of Conferences. –EDP Sciences, 2021. –T. 273. –P. 12152
5. Gramatkovski B., Kochoska J. Communicative-pedagogical features of communication in the educational process-communicative competence // Faculty of Educational Sciences. 2016. –P. 405-408
6. Radkevych V. et al. Modern technologies in the development of professional competence in teachers from professional (vocational) education schools // Journal of Physics: Conference Series. –IOP Publishing, 2021. –T. 1840. №. 1. –P. 012041.
7. Professional malaka instituti 2019 Sharqiy Ukrainadagi mehnat bozori ehtiyojlari, muammolari va imkoniyatlarini tahlil qilish: dastlabki hisobot. –B.133
8. Hyseni Duraku Z. et al. Professional training improves early education teachers' knowledge, skills, motivation, and self-efficacy // Frontiers in Education. –Frontiers Media SA, 2022. –T.7. –P. 980254
9. Söderholm F. et al. The development of school burnout in general upper secondary education: the role of support and schoolwork difficulties // Educational Psychology. 2022. –T. 42. №. 5. –P. 607-625
10. De Looze, M. E., Cosma, A. P., Vollebergh, W. A. M., Duinhof, E. L., de Roos, S. A., van Dorsselaer, S., van Bon-Martens, M. J. H., Vonk, R., & Stevens, G. W. J. M. (2020). Trends over time in adolescent emotional wellbeing in the Netherlands, 2005-2017: Links with perceived schoolwork pressure, parent-adolescent communication and bullying victimization. *Journal of Youth and Adolescence*, 49(10), 2124-2135.
11. Frydenberg, E., & Lewis, R. (2004). Adolescents least able to cope: How do they respond to their stresses? *British Journal of Guidance & Counselling*, 32(1), 25-37.
12. Salmela-Aro, K. (2017). Dark and bright sides of thriving-school burnout and engagement in the Finnish context. *European Journal of Developmental Psychology*, 14(3), 337-349
13. Kolyagina V. et al. Study of psychological features of anxiety in adolescents and youth in school and university // E3S Web of Conferences. –EDP Sciences, 2020. –T. 210. –P. 19027

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

INTERACTIVE METHOD IN TEACHING ENGLISH

Elmuratova Zamira Khodjamuratovna

Teacher, Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

E-mail: zamira.x@bk.ru

Abstract. This article is devoted to interactive method in teaching English. The author of the article uses different types of teaching techniques which help students to improve language skills and creative thinking skill.

Keywords: method, education, interest, technology, teaching, question, develop, effective, critical thinking, communication.

INGLIZ TILIN O'QITISHDA INTERFAOL METODI

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna

O'qituvchi, Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishning interfaol usuliga bag'ishlangan. Maqola muallifi talabalarning til ko'nikmalarini va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradigan turli xil o'qitish usullaridan foydalanadi.

Kalit so'zlar: usul, ta'lim, qiziqish, texnologiya, o'qitish, savol, rivojlantirish, samarali, fikrlash, muloqot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N76>

Introduction.

Interactive approach of teaching became popular especially in teaching English as a foreign language. Many innovations in the education system of our country today are closely connected with use of interactive method. The word "Interactive" comes from English "inter" meaning "mutual" and "act" – which mean, "to do something". Interactivity means the ability to unite and have a conversation dialogue with somebody (a person) or something (with a computer, for example).

Interactive teaching is first of all, the teaching in the form of a dialogue, when the interaction of a teacher and a student, a student and a computer is realized.

Interactive teaching is a special form of arrangement of the educational and cognitive activity, it has concrete aims. One of the important factors for achieving good results is creation of the comfortable psychological microclimate, conditions for learning and teaching. All the students feel themselves equal, because the opinion and ideas of every student are taken into consideration and fixed. Every student has the opportunity to make his individual contribution into the fulfillment of the tasks and there is an exchange of ideas, points of you and knowledge is whole thus, interactive method lead to the cooperative learning, when both – a teacher and a student are partners. All actions are produced in the atmosphere of cordiality and mutual support. The techniques of interactive method let us not only get new knowledge and

information, but also develop the cognitive activity of students at the lessons, to arise their interest to the theme of the lesson to develop critical thinking and form the communicative habits and skill. They the teacher to create all conditions for the students' involvement into the active educational process, to form the creative approach is solving different questions.

Methodology.

Interactive method of teaching gives the real opportunities to create the atmosphere of partnership, and they require the experience on the side of the teacher and the acceptance non-traditional and responsible decisions. Interactive method of teaching has some advantages comparatively with other methods. They let the teacher:

- to draw the students attention to the discussing topics;
- to achieve better results in the learning process;
- to develop the critical thinking;
- to develop communicative habits and skills;
- to involve all students into the activities;
- to provide the comfortable conditions and psychological microclimate in the academic group;
- to teach free discussion of questions and conversation practice.

Interactive work excludes the domination of one idea over the other. In the process of interactive teaching the students learn to critical thinking, solve complex problems on basis of analyzing the circumstances and certain information, compare and weigh alternative ideas, accept some decisions, take part in the discussions and communicate with other people. To achieve this goal various techniques are used at the lessons: the pair and group work, role-play, debates, discussions and others.

One of the difficult questions in learning and teaching English is mastering such skills as speaking. Interactive methods involve all students in completing different activities and that's why they promote to forming the communicative habits and skills. It's very important that not only the best students, but weak students as well are involved in the tasks, their opinions and points of view are taken into account and this fact stimulates them.

1. Organizer-avangard is a short conversation illustrated by photos or pictures. The teacher gives the brief content of the topic, introduces the key word and explains the tasks to the group. The main aim of this technique is to make the students remember the knowledge received before on this topic and prepare them to reconstruct or renovate the previous knowledge.

For example, if the students have the topic. "Great Britain", "London", "Travelling" or "The USA", "Washington" and others, the teacher can use many visual aids (mechanical and non-mechanical): pictures about the places of interest of the capitals of Great Britain and the USA, photos, maps. Then he gives the key word and ask eliciting questions, checking up the students' knowledge. He also may use video or computer showing on the screen traveling of people by various kinds of transport (by bus, train, plane) places of interests of London or Washington. Visual aids are of a Great Interest, They dram the students' attention and make a great impression on the students.

2. Focused questions. Questions are the most widely spread technique used at the English lesson. The English lesson starts with the questions: they are used during the lesson and at the end of the lesson. The psychologist V.N. Snetkov describes the communicative

meaning of the question as “the unity of possible alternative answers to this question.” It means that “a good question” is that one which lets giving a great number of possible alternatives. [3;92] We can distinguish some functions of questions: getting the new information, clearing up of the existing information, change of the conversation to another theme, demonstration and statement of one’s own opinion, evaluation and position, the arrangement and preparation of the partner’s consciousness and emotions for a certain mood. Thanks to the questions, a person build a bridge to the unknown. This “unknown” may be attractive or frighten us. As the linguist A.King parts out “these who are able to think, can ask questions”.

A. King investigated this question and came to the conclusion, that it’s necessary to teach asking questions, it is a special skill, because many people got accustomed to ask ordinary even primitive questions requiring a little tension of the memory on answering them.[6;18]

If a person learns and doesn’t ask questions, he doesn’t feel the state of incompleteness, which is the basis of any cognitive activity.

Questions are necessary for people for the orientation in the surrounding world and that’s why those people who can ask questions orientate better than those who can’t. Focused questions are more effective when they are asked at the higher level of generalization.

The teacher’s questions are the instruments managing the students’ cognitive activity. They help to develop critical thinking. There are questions the answers on which may be found in the text. For example: Who is the author of this story? When was the story written? Who are the main characters of the story? etc. This kind of questions is given the exercises or after the text and with their help the students comprehend the content and the main idea of the text. But the main goal of the English teacher is learning to answer not only such questions, but to develop critical thinking, to teach the students compare, generalize, sum up, find out the similarities and differences, tell their ideas and points of view on certain questions.

3. Think / Pair / Share. Focused and problem questions are more effective when they make the students think and look for answers. Think / pair / share – is the activity when the teacher offer the students an “open” question, he may write it on the blackboard. Then the students are given two of three minutes to answer it individually (in written form). Then students turn to each other and share their answers with the partner. One or two pairs share their answers with the whole group. Every student becomes very active in fulfilling the tasks and he (she) has a great stimulus to think about the materials and discuss it with other students of the group.

4. Concomitant of expectations. A lot of questions with short answers may be prepared by the teacher with the purpose of establishing the most important aspects of the topic. The students are asked to answer these questions individually or in pairs as distinctly as possible. This technique may be done by using tests with the answers: “Yes/No” or “True/False, having listening comprehension of the text or dialogue , listening to the tasks and marking “true” or “false”.

The teacher can check up the students’ knowledge asking all of them, they raise their hands on the answer “Yes” or “No”. At the end of the lesson the students come back to the same questions and can change their points of view.

5. Brainstorm. “Brainstorm” is the working out a great number of ideas on a certain theme, first, without critics. The main task of the “brainstorm” is to use the force of a small

group for generalization of ideas. “Brainstorm” makes the students tell a lot of ideas, including fantastic extraordinary. The more ideas they have, the better is for solving problems. [5;79]

To achieve the “brainstorm” successfully we should follow the next steps.

1. Make the participants sit in relaxed manner.
2. Prepare the blackboard or papers for writing down the ideas.
3. Explain the problem to the participants of the “brainstorm”.
4. Define the rules of the work.
5. Ask ideas and write down them quickly.
6. When a list of paper is fulfilled, hang it on the wall.
7. Stimulate the new ideas, adding your own ideas.
8. Don't laugh or do ironical commentaries at the other students' ideas.
9. Go on to fix the ideas as long as possible.

6.Cluster. Splitting into clusters is a pedagogical method, which develops the creativeness and the ability to establish the links and relations of the investigated phenomena, helps the student to think freely on a certain topic. The word “cluster” means “bunch”. Cluster evokes fresh associations, involves the ideas into the thinking process. It's very useful to have “cluster” before the study of a certain topic. For example, here are the clusters on the topics: “Professions”, “Education system in the USA”, “Relaxation”.

7.Reading by ‘Zigzag’ method. This is a technique of cooperative learning, when every student gets an individual task, which is a part of the general task of the group. ‘A personal zone’ of responsibility and motivation of the students increases. The technique provides the active work of all members of the class, creating the partnership relations..

8. A free letter. The techniques “a free letter” may be done on a certain topic in the classroom. The students have limited time and they write everything in their mind. They should write without stopping and correcting any mistakes. The work in written form let us fix the ideas and express then more exactly. We can follow the peculiarities of thinking activity of the students according to their works (a free letter) done in written form. The best ideas come to the students' minds at the time of their writing a letter. The regular use of this technique at the lesson gives the students the additional opportunities for the information of new ideas. Works in written form promote to the development of the creative thinking.

Discussion.

Interactive methods of teaching appeared in the result of the new pedagogical and informational technologies. They create in the classroom the atmosphere of partnership, from the creative approach in solving many problems and help to develop critical thinking.

According to Yu. Avdeenko, "interactive teaching methods" - is an interconnected joint activity of students and teachers in which all participants in the educational process interact with each other, exchange information, solve problems together, simulate situations, evaluate each other's actions and their own behavior, immerse themselves in a real atmosphere of cooperation on joint problem solving [1;21].

Kevin Yee, the author of interactive techniques, considers interactive methods to be the most effective ones. They involve a collection of more than 100 teaching strategies that aim to engage students in studying process. Most of them encourage the natural acquisition of language.[4;39]

The techniques of interactive approach let us not only get new knowledge and information, but also develop the cognitive activity of students at the lessons, to arise their interest to the theme of the lesson to develop critical thinking and form the communicative habits and skill.

Conclusion.

Interactive teaching is a special form of arrangement of the educational and cognitive activity, it has concrete aims. One of the important factors for achieving good results is creation of the comfortable psychological microclimate, conditions for learning and teaching. All the students feel themselves equal, because the opinion and ideas of every student are taken into consideration and fixed. Every student has the opportunity to make his individual contribution into the fulfillment of the tasks and there is an exchange of ideas, points of you and knowledge is whole thus, interactive approach lead to the cooperative learning, when both – a teacher and a student are partners. All actions are produced in the atmosphere of cordiality and mutual support.

To sum up, using interactive approach in the classroom develop students' the cognitive activity, arise their interest to learn the language and improve critical thinking and communicative skill.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Avdenko Yu.V. Zastosuvannya brainstorming method in the process professionally-oriented teaching of English language from non-language. Current trends and innovation trends in the future Foreign Languages
2. Cronbach L.J. and Snow R.E. Aptitudes and Instructional Method: A Handbook for Research in Interactions, New York: Halstead Press, 1977.
3. Снетков В. М. Психология коммуникации в организациях (учебное пособие), 1999
4. Kevin Yee. Language Teaching Methods, 2000.
5. Richards Jack C., Theodore S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge UK, 2001.
6. King A. Inquiry as a tool in critical thinking. In DF Halpern (Ed.), Changing college classrooms: New teaching and learning strategies in an increasingly complex world. 1994
7. Rivers W.M. Interactive Language Teaching. Cambridge. Cambridge University Press, 1993.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

SOFT SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES: BASES OF IMPROVEMENT OF STUDENTS' INTERPERSONAL AND COGNITIVE SKILLS

Karimova Nilufar Ummatqul qizi,
Associate Professor (PhD)
Uzbekistan State University of world languages
E-maol: ummatkulovna93@mail.ru

Abstract. In an increasingly interconnected and dynamic world, soft skills such as communication, collaboration, critical thinking, and emotional intelligence are essential for success in both academic and professional environments. While English language teaching (ELT) has traditionally focused on linguistic competence, contemporary pedagogical approaches are recognizing the significant role that ELT can play in developing these vital soft skills. This article explores how English language instruction can be utilized to enhance students' interpersonal and cognitive soft skills, providing a comprehensive overview of relevant teaching strategies and practices. Through a review of relevant literature and empirical evidence, the article highlights how ELT methods such as task-based learning, communicative language teaching, and project-based learning can be effectively used to foster soft skills development. The article concludes by offering recommendations for educators to integrate soft skills into their language teaching practices.

Keywords: English language teaching (ELT), soft skills, communication skills, critical thinking, project-based learning, interpersonal skills, cognitive skills, educational development.

CHET TILI DARSLARIDA SOFT SKILLS: TALABALARNING SHAXSLARARO VA KOGNITIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Karimova Nilufar Ummatqul qizi,
dotsent (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Bugungi kunda tobora o'zaro bog'langan va dinamik dunyoda kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va hissiy intellekt kabi soft skills akademik va professional muhitda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur hisoblanadi. An'anaviy ravishda ingliz tilini o'qitish (ELT) lingvistik kompetensiyaga qaratilgan bo'lsa-da, zamonaviy pedagogik yondashuvlar ELTning ushbu muhim soft skillsni rivojlantirishdagi ahamiyatini tan olmoqda. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish orqali talabalarining shaxslararo va kognitiv soft skillsni qanday rivojlantirish mumkinligi, shuningdek, tegishli o'qitish strategiyalari va amaliyotlari batafsil ko'rib chiqiladi. Tegishli adabiyotlar va empirik tadqiqotlar asosida maqolada vazifaga yo'naltirilgan o'qitish, kommunikativ til o'qitish va loyiha asosida o'qitish kabi ELT usullari soft skillsni rivojlantirishda samarali qo'llanilishi ta'kidlanadi. Maqola yakunida o'qituvchilarga soft skillsni til o'qitish amaliyotiga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish (ELT), soft skill, kommunikatsiya ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash, loyiha asosida o'qitish, shaxslararo ko'nikmalar, kognitiv ko'nikmalar, ta'limiy rivojlanish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N77>

INTRODUCTION

In the modern world, technical proficiency and subject-specific knowledge alone are not enough to ensure success. Soft skills—such as effective communication, teamwork, problem-solving, critical thinking, and adaptability—are increasingly recognized as crucial elements of

both personal and professional development. These skills are necessary for students to thrive in a fast-paced, globalized environment that demands flexibility, emotional intelligence, and the ability to collaborate effectively with others. While soft skills are often associated with interpersonal and emotional intelligence, they also encompass cognitive abilities that enable individuals to process information critically, make informed decisions, and solve problems. In this context, English language teaching (ELT) can serve as a powerful tool not only for developing linguistic proficiency but also for promoting the broader set of skills that are essential for students' success in the 21st century.

Traditionally, ELT has focused on developing students' grammatical accuracy, vocabulary, pronunciation, and reading/writing skills. However, recent pedagogical trends emphasize the need to integrate the development of soft skills into language teaching. This shift is driven by the recognition that English, as the global lingua franca, is more than just a means of communication; it is also a vehicle for developing cognitive and interpersonal abilities that extend beyond linguistic proficiency. This paper explores how ELT can be leveraged to enhance students' soft skills, focusing on communication, teamwork, critical thinking, and emotional intelligence. Through a review of relevant pedagogical methods and empirical research, this article seeks to demonstrate how ELT can serve as an effective platform for the development of these crucial competencies.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

The realities of modern political, economic and social life of society have determined the paradigm shift in higher education. The interdisciplinary nature of the modern labor market confirms the inconsistency of the “qualification model” of specialist training, which is rigidly tied to the subject and object of labor” [1], and requires a revision of the content of education, teaching and upbringing technologies.

A modern highly qualified specialist who meets international standards, in addition to a number of professional competencies, must possess a set of universal competencies [2], certain personal characteristics and skills necessary for successful work and life in modern society and determining its competitiveness.

Taking into account the results of the Hanoverian soft skills study (March 2014)[3], we believe that such skills and personality characteristics that allow overcoming the “inertia of circumstances” include:

- communication skills (especially the ability to actively listen and hear);
- mastery of the culture of thinking;
- the ability to perceive and analyze information, to think critically;
- to set goals and determine ways to achieve them;
- to make organizational and managerial decisions in non-standard situations;
- to react quickly to changing circumstances of the surrounding reality, while maintaining emotional balance;
- willingness to cooperate with colleagues, work in a team; striving for self-development, mobility and professional growth;
- the ability to self-criticize, adequately assess the activities of others and socially significant processes;
- willingness to engage in constructive dialogue, including in a foreign language, in the field of professional communication, etc.

The term "soft skills" (translated from English as "flexible skills") in foreign sources is associated with the skills (abilities) of a person to interact with other people [4]. As a rule, they include the ability to work in a team, in collaboration.

However, many researchers agree that in order to carry out successful professional communication, employees need creative and reflexive skills that "help manage personal and social situations" [5], and therefore creative and reflexive components have been identified in the soft skills structure of a successful specialist.

A thorough review of existing research and academic sources was undertaken to identify key themes and findings related to the role of ELT in soft skills development. Key sources included academic journals on language teaching, educational psychology, and communication studies. Several case studies from different educational contexts were analyzed to examine the practical application of soft skills development in ELT [6]. These case studies were selected to represent a range of teaching settings, from secondary schools to universities, as well as diverse methodologies such as communicative language teaching (CLT), task-based language teaching (TBLT), and project-based learning (PBL).

The basis of soft skills is the communicative component, which includes the following interaction skills [7]:

- to interact by means of native or foreign language, verbal and non-verbal communication;
- listen and hear; respond appropriately to the questions and statements of the interlocutor;
- plan and predict the communicative interaction, determine the information and compositional structure of the utterance;
- carefully select language tools for speech impact, providing solutions to specific tasks, and use them correctly;
- to search and extract the necessary information and share it;
- identify and consistently, argumentatively defend your own position;
- to control and adequately use diction, intonation, accentuation, tempo of speech, strength and emotional coloring of voice, gestures, pantomime in the context of a specific interaction;
- choose and implement the most optimal line of behavior (especially in relations with partners from a different culture); - make public appearances, business presentations.

A survey was distributed to 100 English language teachers from various educational levels (primary, secondary, and tertiary). The survey focused on the teachers' experiences with integrating soft skills into their language teaching practices, their perceptions of the effectiveness of different methods, and the challenges they face in promoting soft skills alongside language learning. Data from the literature review, case studies, and survey responses were synthesized to identify trends and insights regarding the integration of soft skills into ELT. The analysis focused on the methods that were most effective in fostering communication, critical thinking, collaboration, and emotional intelligence among students.

RESULTS AND DISCUSSION

The results of this study reveal several key findings about the role of ELT in enhancing students' soft skills, particularly communication, collaboration, critical thinking, and emotional intelligence.

Interactive Learning: One of the primary ways in which ELT contributes to soft skills development is through the promotion of communication. Classroom activities such as debates, role plays, group discussions, and presentations provide students with ample opportunities to practice speaking and listening in real-life contexts. These activities encourage students to articulate their ideas, listen actively, and engage in constructive dialogues.

Real-World Contexts: The use of authentic materials—such as news articles, podcasts, interviews, and videos—was found to significantly enhance students' communication skills. Exposure to a variety of communicative situations, including formal and informal registers, helps students adapt their language use to different social and professional contexts.

Peer Feedback and Reflection: Group work and peer feedback sessions are commonly used to help students improve their communication skills. These activities promote collaboration, active listening, and the ability to provide constructive feedback. Survey responses indicated that teachers who incorporated peer evaluations and group discussions saw a marked improvement in students' ability to communicate effectively.

Group Projects: Task-based learning and project-based learning approaches were frequently cited as effective strategies for fostering teamwork. Through collaborative projects, students not only practice their language skills but also learn to work together toward a common goal. These projects often require students to coordinate tasks, share responsibilities, and resolve conflicts, which are key aspects of teamwork.

Problem-Solving in Groups: Activities that involve problem-solving, such as group brainstorming sessions or collaborative decision-making tasks, promote both cognitive and interpersonal skills. These tasks encourage students to consider different perspectives, negotiate solutions, and develop strategies for effective collaboration. The case studies demonstrated that when students were asked to tackle real-world problems in groups, they exhibited greater creativity, critical thinking, and cohesion as a team.

Inquiry-Based Learning: English language teaching that encourages inquiry-based learning, where students are tasked with exploring topics, asking questions, and finding solutions, was found to be highly effective in developing critical thinking. Tasks that involve research, analysis, and the synthesis of information enable students to refine their problem-solving skills and approach challenges systematically.

Debates and Discussions: Engaging students in debates or discussions on controversial issues helps them develop critical thinking by forcing them to articulate and defend their positions. Teachers who facilitated structured debates reported that students became more adept at evaluating evidence, considering multiple viewpoints, and formulating reasoned arguments.

Task-Based and Problem-Solving Activities: The use of task-based activities that require students to solve complex problems, analyze scenarios, and present solutions was also found to promote critical thinking. For instance, students working on case studies or simulations were encouraged to think critically about the issues presented, evaluate various options, and justify their decisions.

Empathy through Cultural Learning: ELT that includes a focus on cross-cultural communication and global issues helps students develop empathy and emotional intelligence. Understanding different cultural perspectives fosters interpersonal sensitivity and helps students appreciate diverse viewpoints. For example, language learners who engage in cultural exchange programs or read about international social issues often develop stronger emotional intelligence and empathy toward others.

Reflective Practices: Many teachers incorporated reflective practices, such as journaling or group reflections, to help students develop self-awareness and emotional regulation. These practices allow students to express their emotions, reflect on their experiences, and understand how their feelings influence their communication and decision-making.

The findings of this study suggest that English language teaching is not only a means to acquire linguistic skills but also an effective platform for fostering essential soft skills[8]. Through interactive, student-centered approaches such as task-based learning, project-based learning, and communicative activities, ELT can help students develop communication skills, critical thinking, teamwork, and emotional intelligence.

Integrating Soft Skills into ELT: The integration of soft skills into English language teaching is essential for preparing students for the demands of the modern workplace and society. By incorporating collaborative tasks, critical thinking exercises, and emotional intelligence-building activities, teachers can help students become more effective communicators and problem-solvers.

CONCLUSION

English language teaching has the potential to play a transformative role in the development of students' soft skills, particularly communication, teamwork, critical thinking, and emotional intelligence. By adopting student-centered teaching approaches, such as task-based learning and project-based learning, teachers can help students build not only linguistic proficiency but also the interpersonal and cognitive skills necessary for success in a globalized world. As educational systems continue to recognize the importance of soft skills, English language teaching can serve as a powerful vehicle for preparing students for the challenges and opportunities of the 21st century.

Thus, soft skills is a complex integrative characteristic of a personality, representing a set of various skills and personal qualities that ensure the success of a specialist in professional activity in modern conditions of interdisciplinarity. Moreover, functionally, the process of developing soft skills can make a great contribution to improving the quality of life and work of an individual, ensuring the formation and development of cultural skills of people's relationships; activating the desire of communication partners to express and understand each other's emotional experiences.; improving the understanding of one's communication partner, his intentions, attitudes, experiences, states; developing the ability to "multi-activity" and striving for constant self-improvement and self-realization. Therefore, the task of pedagogy is to identify and justify the ways of developing the soft skills of future specialists and to ensure the conditions for their development in vocational education.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Salnaya L.K. Soft skills in the competence model of a university graduate // Science. Education. Culture. Contribution of young scientists : proceedings of the III International Scientific Conference. teachers, young scientists, graduate students and university students. Novocherkassk : South Russian State Polytechnic University. M.I. Platov University, 2016. pp. 331-334.
2. Kurtz, L. Seitz, L. (2011). "The Role of Soft Skills in Student Success." *Journal of Education and Practice*, 2(8), 95-103.
3. Incorporating Soft Skills into the K-12 Curriculum // Hanover Research: District Administration Practice. 2014. March.
4. Cambridge Dictionary. URL: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/soft-skills>
5. Shaulska L.V., Sereda G.V., Shkurat M.Y. The development of soft skills in the provision of competitiveness of graduates // Економічний вник Донбасу. 2015. № 4 (42). С. 177-181.
6. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th ed.). Pearson Education.
7. Platova E. D. The possibilities of a cross-cultural educational environment in the development of students' interactive interaction skills // Bulletin of Orenburg State University. 2017. No. 2 (202). pp. 41-45.
8. Tharp, R. G., & Gallimore, R. (1988). *Rousing Minds to Life: Teaching, Learning, and Schooling in Social Context*. Cambridge University Press.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE "PROJECT YOUR IDEAS" METHOD IN THE INTEGRATION OF ENGINEERING GRAPHICS AND DESIGN SCIENCE

Adilov Shodiyor Turdimovich

TSTU named after I.Karimov Almalyk
branch, teacher of the department
General professional and economic

Abstract. This article discusses the issues of integration, integration of engineering, graphic and design disciplines, integrative technologies, approaches, pedagogical approaches, technologies, methods, forms, means and principles in educational processes, the development of artistic and design skills, individual creative abilities, the formation of aesthetic taste, the harmonization of theoretical and practical knowledge on The use of pedagogical methods in integration is highlighted in these disciplines, improving drawing skills and design science.

Keywords: engineering graphics, design, integration, approach, technology, methodology, form, tool, principle, creativity, communication, rounding, science, education, technology.

MUHANDISLIK GRAFIKASI VA DIZAYN FANLARINI INTEGRATSIYALASHDA "G'OYALARNING LOYIHALA" USULI

Adilov Shodiyor Turdimovich

I.Karimov nomidagi TDTU Olmaliq
filifali Umumkasbiy va iqtisodiy
fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada integratsiya, muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiyalash, ta'lim jarayonlarida integrativ texnologiyalar, yondashuvlar, pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar, metodlari, shakllari, vositalari va prinsiplar, badiiy-konstruktorlik ko'nikmalarni, individual ijodiy qobiliyatni rivojlanishi, estetik didni shakllanishi, ushbu fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirish, chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalashda pedagogika usullardan foydalanish yoritilgan.

Kalit so'zlar: muhandislik grafikasi, dizayn, integratsiya, yondashuv, texnologiya, metodika, shakl, vosita, prinsip, ijod, bog'lanish, yaxlitlash, fan, ta'lim, texnika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N78>

Kirish. Bugungi kunda har bir ta'lim sohasida katta o'zgarishlar qilish, modernizatsiyalash, ta'lim jarayonlarini integratsiyalashgan yondashuvlar orqali mashg'ulotlar olib borish fanlarga oid kompetensiyalarni rivojlantirish, zamon talablari asosida mutaxassislar yetishtirish, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash zarurligini namoyon etmoqda. Shu bilan bir qatorda kelajak avlodni integrativ yondashuvlar asosida muhandislik grafikasi fanlarini qaysi uslublar orqali rivojlantirish muammolarini amaliy yechimlari ilmiy izlanishlar asnosida ochilishi lozim. Ta'lim jarayonlarida integrativ texnologiyalar, yondashuvlar, pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar fan o'qituvchilari tomonidan tez-tez qo'llanilishi talabalarda shu mutaxassislikka bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirilishiga omil bo'lmoqda.

Bunda asosan talabalarda bizni mutaxassisligimiz muhandislik grafikasi va tasviriy san'at fanlarini puxta egallashlariga zamin yaratish lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Buyuk mutafakkirlari (Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Umar Hayyom, Abu Yusuf al-Kindiy, Nosir Xusrav, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va boshqa) ko'plab ma'rifatparvar olimlar o'sib kelayotgan avlodga ta'lim-tarbiya berishda har bir ishtirokchilarni roli, ayniqsa fan o'qituvchilarining talabalar bilan muloqotining ahamiyati muhimligini ta'kidlaganlar. Qomusiy olimlar tomonidan muloqotning mohiyati, metodlari, shakllari, vositalari va prinsiplari ishlab chiqilgan bo'lib, ular hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quv fanlari mazmunini integratsiyalash, talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini samarali rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan: Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish sohasida R.X.Jo'rayev, U.K.Tolipov, A.Hamroqulov, A.P.Belyayeva, A.V.Ivanov, V.V.kozlov, A.Sadeggh, M.Guerra, R.W.Bolton kabilar muhandislik grafikasi va dizayn fanlaridan ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan turli yondashuvlar, ilmiy-metodik adabiyotlar yaratish va ularning o'quv jarayonidagi o'rnini tadqiq etishgan [1; 65-66-b.].

Muhandislik grafikasi va dizayn fanlari mazmunini integratsiyalash quyidagi muhim ijtimoiy va didaktik omillar vositasida ta'minlanadi:

jamiyatning ijtimoiy talabini hisobga olishi;

fan, ta'lim, texnika, texnologiya, ishlab chiqarishdagi integratsion jarayonlarni aks ettirishi;

muhandislik grafikasi va dizayn fanlari o'qitishning ilg'or g'oyalarini amalga oshirishi;

didaktik jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan bu ikki fanni bilish ob'ektlarini o'rganishi;

1-rasm

Muhokama. Integratsiya ikki yoki bir nechta fanlarni mosligini o'rganib ularni yaxlitlash, fan mavzularini hajmini belgilash zamonaviy talablarga mos holga keltirishni ta'minlashdir. Integratsiya tushunchasi To'ldirish, bir butun holga keltirish, bog'lash, yaxlitlash degan ma'noni anglatadi. Integratsion yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish natijaviylik va ishonchlilikning oshirishini ta'minlaydi. U integratsiyaning umumdidaktik jihatlari ta'lim jarayoni mazmunining moddiy va ma'naviy jihatlari sifatida ko'rib chiqadi. Mazmunni yangilovchi integratsion jarayonlar didaktik tamoyilga (ta'limda integratsiya tamoyiliga) o'tadi. Masalan, fanlararo mazmun-axborotli integrativ jarayonlar mexanizmi ko'p bosqichlidir. Integratsiya uchun sharoit yaratib beruvchi integratsiyadan oldingi bosqichida (turli o'quv fanlarining tizim shaklida tartibga solingan o'quv materiallarning mavjudligi) quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

1) o'quv fanlari va ularning komponentlari mazmunini didaktik tahlili;

2) umumlashtirish (o'quv materiallari mazmunida funksional bog'langan, muhim, didaktik jihatdan ahamiyatga ega mazmun komponentlarni aniqlash (1- rasmga qarang).

Oliy o'quv yurtida muhandislik grafikasi fanini dizayn fani tushunchalari bilan integratsiyalash natijasida keng dunyoqarashga ega, tabiat, jamiyat muammolarni teran ko'ra va anglay oladigan, yangi loyihaviy muammolar yechimini topishga qodir bo'lgan kadrlar etishib chiqishi mumkin. Bu badiiy dunyoqarash kengayishi, badiiy-konstruktorlik ko'nikmalarni, individual ijodiy qobiliyatni rivojlanishi, estetik didni shakllanishi jarayonidir.

Natijalar. Oliy ta'lim tizimida o'quv bilish jarayonini tashkil etishda ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash darajasi, faoliyat olib borishga qiziqish, o'z oldiga o'quv vazifasini qo'yish, uni mustaqil yechimini topish va uni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. muhandislik grafikasi va dizayn fanlari mazmunidagi integrallashtirish mumkin bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga bo'lgan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Mazkur ko'nikmalar ta'lim olish faoliyatining har bir bo'g'inida kechadigan jarayonlarni aks ettiradi. Ularga:

- o'quv harakatni topish yoki tanlash, uning aniq holat uchun ahamiyatga egaligini aniqlash;
- bilim, ko'nikma va malakalarni reproduktiv tarzda qo'llay olish, harakat rejasini tuzish, vositalarni va harakatni bajarish usullarini tanlash;
- kelgusi harakat natijalarini, uning xossalari va sifatini taxmin qilish;
- harakatning reja, vosita va usullarini amalga oshirish; harakatni bajarilishi, uning oraliq va yakuniy natijalari to'g'riligini nazorat qilish va isbotlash, xato va kamchiliklarni aniqlash;
- obyektiv va subyektiv, individual va ijtimoiy ahamiyatini, uning natijasini baholash.

Ta'lim maqsadlariga mazkur yondashuv ta'siri natijalari tahlili davomida shuni ta'kidlash kerakki, unda o'qitishda rejalashtirish, oldidagi ishni perspektiv prognozlash va olingan natijani tahlili muhim hisoblanadi. Bunda so'z muhandislik-loyihaviy ko'nikmalar komponentlari haqida boradi[2; 225-257-b].

O'z navbatida malakalarni shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi shakllanayotgan malakaning asosidagi bog'liqlik va jarayonlarni faollashuvi, tezlashuvini talab etadi. Bunda biror murakkab kasbiy harakatni bajarish uchun uning har bir tarkibiy, sodda harakatlarini puxta egallab, so'ngra bir butun harakat darajasiga olib chiqib, malakaga aylantirishga e'tibor berish kerak bo'ladi. Bizni fikrimizcha, muhandislik grafikasi va dizayn kasbiy malakalarini samarali shakllantirish mumkin, agar:

- talaba biror harakat tuzilishi va uni bajarish usuli haqida to'liq tushunchaga ega bo'lsa;
- bu harakatni ko'rsatish va tushuntirish ishlari mahoratli o'qituvchi tomonidan tushuntirib borilsa;
- kasbiy murakkab harakatni o'zlashtirish jarayoni talaba uchun murakkab bo'lmagan, sodda harakatlar tizimini bosqichma-bosqich usulida olib borilsa;
- aqliy faollik sodda va murakkab harakatlarni mustahkamlash uchun mashqlar bilan rag'batlantirilib borilsa;
- harakatni muhokama qilish va uni baholash malaka shakllanganligi sifatida qabul qilinsa.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, sodda malakalar o'zaro birlashib, murakkabroq malakalar hosil qiladi, past tartibli malakalarga esa ko'nikish shakllanib, ular ondan "tushib qoladi". Yuqori tartibli malakaga ega bo'lgan inson kasbiy faoliyati egiluvchan, o'zgarayotgan sharoitlarga tez moslashadi, qo'yilgan vazifani yaxshi bajarib, katta ijodiy potensialga ega mahoratli kasb egasi sifatida e'tirof etiladi. Kasbiy ko'nikma – talaba tomonidan biror murakkab harakatni murakkab yoki nostandart sharoitlarda muvaffaqiyatli amalga oshirish usulidir. Buning uchun bilim va malakalarni o'z kasbiy faoliyatida qo'llash uchun o'zlashtirish zarur bo'ladi. Dizaynerlik faoliyatida shartli ravishda ikkita ko'nikmalar farqlanadi:

- to'g'ri vaqt ketma-ketligi va tegishli aniqlik bilan zarur mazmundagi turli harakatlarni bajarishda aks etadigan ko'nikmalar;
- dizaynerlik masalasini yechish, qaror qabul qilishda maxsus simvollar (belgilar) bilan ma'lum bir harakatlarni bajarishda aks etuvchi intellektual ko'nikmalar[3; 52-56-b.].

Talabalarining nazariy va amaliy jihatdan bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorligi fikrlash va harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Muhandislik grafikasiga doir ko'nikmalar mazmunini bunday tarzda tushunish bo'lajak kasb egasini tayyorlash amaliyotiga yo'l ochib beradi. Birinchidan, u nazariy bilimlarni talabaning kasbga tayyorlashda yetakchi roli, shuningdek ularning nazariy va amaliy tayyorlashni yaxlitligini belgilaydi. Ikkinchidan, ideal va tizim-predmetli tizim sifatida namoyon bo'luvchi fikrlash va faoliyat olib borish ko'nikmalar birligi shakllanishiga yo'naltiradi. Uchinchidan, muhandislik grafikasiga doir ko'nikmalarining ko'p pog'onali xarakterga (reproduktivdan ijodiygacha) ega ekanligini ko'rsatib, ularni ayrim amaliy harakatlarni ko'p marotaba takrorlash orqali takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Muhandislik grafikasi va dizayn o'quv fanining sun'iy tili grafika tilidir. Jamiyat va tabiatdagi aksariyat jarayonlar noxiziq xarakterga ega. Ularni rivojlanishning ko'p qirraliligi ajratib turib, hozirni ekstrapolyatsiya qilish usuli bilan bashoratlab bo'lmaydi. Grafik modellashtirish bu vazifani hal etishga yordam beradi. Muhandis va dizayner oldida turgan ko'plab muhim vazifalarni yechishda grafik modellarning universalligi, turli tabiatga ega ko'p sonli jarayonlarni bita model asosida sharhlash imkoni mavjud. Shuning uchun chizmachilik zamonaviy bosqichda ko'p o'lchamli texnologik, konstruktiv va ijtimoiy tuzilmalarni modellashtirish imkonini bermoqda.

Nazariy bilimlarning amaliyot bilan, amaliy tajribalar bilan bog'lab olib borish ta'limining yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Ta'lim tarbiya sohasidagi yutuqlar eng avvalo nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina talaba o'rganayotgan o'quv materiallarining tub mohiyatini tushunib etadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida talabalarining faol ishtirokini ta'minlashi lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli, tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

Pedagogik amaliyot va ta'lim integratsiyasi tajribasini o'rganish maqsadida rivojlangan xorij tajribalariga e'tibor qaratsak, ularda o'ziga xos tajriba to'planganligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, AQShda pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarini amaliyotlari maktablarda ustoz-shogird an'analari asosida tashkil etiladi. AQSh talabalarining fikricha o'quvchilarni to'g'ri boshqarish uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda 85 % talabalar o'quvchilarni to'g'ri baholay olish muhim deb hisoblaydi. 82 % talabalar esa pedagogik tajriba muhimligini qayd etgan. Yaponiyada amaliyot davomida ta'lim maqsadlari aniqlashtirib olingan. O'quvchilar dars

davomida qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligi haqida umumiy nazariy bilimlarga ega bo'ladi. Amaliyotchi talaba o'qituvchi nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, nazariy bilim ko'nikmalariga ega bo'lishi, har tomonlama ijodiy fikrlashi, muloqot va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanganligi, muammolarga yechim topa olish ko'nikmasi borligi muhim ahamiyatga ega. Germaniyada ta'lim va amaliyot integratsiyasini ta'minlash maqsadida fanlararo tadqiqotlar amalga oshirilgan. Yurtimizda 4+2 amaliyot dasturi samaradorligini yanada oshirish maqsadida amaliyot o'tash mexanizmini to'plangan tajribalar asosida yanada takomillashtirish lozim.

Talabalarda bu malaka shakllanishi uchun mashq qildiruvchi qator topshiriqlar kerak. Topshiriqni pedagogik usullar orqali o'qitish samarali natija beradi. Talaba faoliyatidan ko'p chizmalar yagona maqsad – undan ma'lumot olish uchun o'tishi kerak. Ko'rib o'tilgan "g'oyalaringni loyihala" usuli o'quv va kasbiy faoliyat maqsadlaridagi farqni ko'rsatadi. Agar ma'lum bir o'quv faoliyati maqsadi "g'oyalaringni loyihala" usuli haqida bilim olish yo'nalishi uning funksional o'ziga xosligi orqali bo'lsa, muhandislik grafikasi va dizaynning maqsadi ma'lum obyektlardan foydalanish, rekonstruksiyalash, yaratish uchun ularning xossalarini va vazifalarini bilishdadir.

"G'oyalaringni loyihala" usuli

G'oyalaringni loyihala usuli chizmachilik va dizayn fanida olingan bilim va malakalarni amaliy qo'llash, ularni tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmualari o'qitish usulini amalga oshiradi. Talabalar yuqori darajada, bu g'oyalarning loyihalari usulidan foydalanganda, yangi g'oyalarni muhokamaga tashlaganda, ularni oson va qulay loyihalashda, takomillashtirishda, har bir g'oyani loyihalashni samarali yechimini nazorat qilishda, har bir ishtirokchi talabani g'oyaviy loyhasini ko'pchilik bo'lib tahlil qilishda va xolislik va shaffoflik bilan bajarilgan ish natijalarini baholashda ishtirok etadilar.

Fan o'qituvchisi tomonidan mavzular va ularning maqsadlari yoritiladi. Talabalarga bir kichik g'oyani loyihalashni yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Keyin bir mavzu bo'yicha variantlar taklif etadi va mazmuni to'g'risida ma'lumot beradi, variant turlari, ularning kutilayotgan natijalari va baholash mezonlarini sanab o'tadi. G'oyalar haqida ma'lumot beradi, o'z taklifini ham aytadi. G'oyalarni loyihalashni samarali va muammoli usullari va ularni tahlilini tavsiya etadi. Guruhda talabalar hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish tayyorgarligini tushuntiradi, talabalar orasida xayrixoh munosabat muhitini yaratadi. Natijada talabalar hamkorlik ishni ijodiy bajaradilar. Fan o'qituvchisi guruhni nazorat qiladi, lekin ularga rahbarlik qilmaydi: ta'lim oluvchilar o'zlari uchun erkin g'oyalarni loyihalashadi bu orada xato qilsalar ham, o'zlari ishlashlariga ruxsat beradi. Har bir talaba g'oyaviy loyihalaridagi variantini to'g'ri javoblarini bir-birlariga tekshirtirib natijasini fan o'qituvchisiga ko'rsatishadi, g'oyaviy loyiha variantlarini noto'g'ri yoki to'liq bo'lmaganlarni sharhlaydi, aniqlaydi. Variantni noto'g'ri loyihalagan talabaning o'ziga xatosini topishni taklif qiladi. Agar u buni qila olmasa, boshqa talabalardan yordamga chaqiradi va g'oyani loyihalash varianti bo'yicha ishni yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. G'oyalaringni loyihala usuli orqali talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan variantlarni bajaradi, G'oyalaringni loyihala usulining asosiy vazifasi — talabalarni o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, fazoviy tasavvurlari orqali g'oyalar o'ylab topish, loyihalash va ularni mustaqil tushunish va muammoli vazifalarni yechishga qiziqtirish va ularda muomala

madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, ijodiy topshiriqni yechishda birlamchi yo'l fikrlarini yengib o'tishni tarbiyalaydi.

Talabalar tomonidan o'zlari yechimini topa oladigan g'oyaviy loyihalay olishga ko'zlari etadigan variantlardan tanlaydilar. Kerak bo'lganda bir-birlaridan va fan o'qituvchisidan qo'shimcha ma'lumotlar oladilar. Variantlarini g'oyaviy maqsadlarini aniqlaydilar, loyihani samarali yechimi bo'yicha kutilayotgan natijalarini muhokama qilib oladilar. Strategik rejalarini o'z oldilariga belgilab oladilar: o'zlarini g'oyalarini shakllantiradilar, variantlari bo'yicha loyihalashni yo'nalish va bajarish bosqichlarini, ular tartibini aniqlaydilar. Fan o'qituvchisi bilan o'z variantlari bo'yicha g'oyalarni loyihalashni samarali va muammoli usullari orqali kutilayotgan natijalarini tahlil etish usulini belgilab oladi. Talaba o'zini variantlarida g'oyalarni loyihalashdagi muammoni hal etishning turli imkoniyatlarini guruh talabalari bilan hamjihatlikda muhokama qiladilar, ularni loyihaviy yechimini tahlil qiladilar, eng oson, qulay va samarali yechimlarini topadilar, fazoviy tasavvurlari orqali g'oyalarini ifodalaydilar. Talabalar bir-birlariga va fan o'qituvchisiga variantlari bo'yicha g'oyalarni loyihalashni natijalarni ma'lum qiladi, guruh talabalari tomonidan xolislik va shaffoflik bilan baholanadi. boshqa guruh talabalari uchun qiyinroq va muammoli variantlarini muhokama qilib yechimini topadilar. Dars so'nggida har bir talabani variantlari bo'yicha g'oyalarni loyihalashda erishilgan natijalarni o'zlari sharhlaydi, fan o'qituvchisi tomonidan xato va kamchiliklarni ko'rsatiladi[4; 102-105-b].

Xulosa. Shunday qilib, muhandislik grafikasi va dizayn fanlari bo'yicha nazariyotchi va amaliyotchilarning bugungi kundagi asosiy vazifasi oliy o'quv yurtida professional grafik muhandis va dizaynerlar tizimini yaratishdan iborat. Lekin bu jarayonni amalga oshirishda quyidagi muammolar yuzaga keladi:

1. muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini o'zaro integratsiyalash asosida mutaxassislarni tayyorlashda amaliy tajriba etishmasligi;
2. ular ta'limi mazmuniga nazariy asoslangan yondashuvlarning yo'qligi;
3. muhandislik grafikasi va dizayn fanlari ta'lim standartlarida asoslangan, integratsiyalashga doir talablarning kamligi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Haqberdiyev, B. R., Ismag'lova, M. S. Q., & Imomnazarova, D. F. Q. (2025). Raqamli texnologiyalarda arxitektura va dizayn. Academic research in educational sciences, (Conference 1), 65-66.
2. Rustamovich, H. B. (2024). Texnik va san'at fanlarini sinergetik kompetentlik asosida integratsiyalsh. Analysis of modern science and innovation, 1(3), 255-257.
3. Hakberdiyev, B. R. (2024, September). Integrative methodology in architecture and design. In International Conference on World Science and Research (Vol. 1, No. 2, pp. 52-56).
4. Rustamovich, H. B., & Abdurafikjonovna, A. H. (2024). Theoretical solutions for integrative teaching of fine arts and engineering graphics with various disciplines of still life, consisting of geometric shapes in pencil painting. International Journal of Advance Scientific Research, 4(03), 102-106.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF "SPIRITUAL HUMANISM" AS A FUNDAMENTAL QUALITY OF A HUMANE EDUCATOR

Davidova Rufina Arturovna

Lecturer of the Tashkent International University of Education

Abstract. country.

Keywords: ve.

ПОНЯТИЕ «ДУХОВНЫЙ ГУМАНИЗМ» КАК ОСНОВОПОЛАГАЮЩЕЕ КАЧЕСТВО ГУМАННОГО ПЕДАГОГА

Давыдова Руфина Артуровна

Преподаватель международного университета

«Tashkent International University of Education»

Аннотация. В данной статье автор рассматривается понятие «духовный гуманизм». Делается анализ ключевых качеств гуманного педагога. Подчеркивается, что гуманная педагогика — это не просто доброжелательное отношение к ученикам, а осознанный выбор видеть в каждом ребёнке личность, носителя уникального внутреннего мира. Духовный гуманизм предполагает уважение к человеческому достоинству, веру в добро и стремление к внутренней свободе — как ученика, так и учителя. В работе рассматриваются произведения ведущих педагогов-гуманистов, таких как Ш.А. Амонашвили, В.А. Сухомлинского и других.

Ключевые слова: гуманизм, образование, воспитание, духовность, гуманная педагогика, нравственность

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N79>

Введение.

В современном образовательном процессе особое внимание уделяется вопросам подготовки качественных педагогических кадров, которые должны уметь использовать новые методы и передовые технологии проведения занятий с учётом быстрого темпа развития научных знаний. На передний план выходят знания самого педагога, а также умение передавать их подрастающему поколению. Но зачастую всё меньше уделяется внимания духовно-нравственной составляющей личности каждого педагога. Одним из таких ориентиров становится идея гуманной педагогики, в центре которой — человек как духовно-нравственная личность. В данной статье мы рассмотрим, как морально-этические принципы и нормы педагога могут повлиять на образовательный процесс.

Обзор литературы и методология.

В данной статье были проанализированы труды таких ведущих педагогов и ученых, как: В.А.Сухомлинский «Сердце отдаю детям», Ш.А.Амонашвили «Манифест гуманной педагогики», Абдуллаева Б.С. «Общая педагогика», Умарова М.Х. «Теория и

история педагогики» и другие. При написании статьи использовались такие методы, как: анализ, синтез, обобщение и сравнение.

Обсуждение и результаты.

Вопросами о духовности и нравственности человека задавались ещё в период древнейших цивилизаций. Для философии Востока были характерны идеи о нравственном совершенствовании человека через постижение принципов и догм религии, через следование определенным ритуалам и обрядам. В философских мыслях западных мудрецов делался акцент на совершенствовании человека через постижения себя посредством разума. Особое внимание всегда уделялось такой важному и необходимому ремеслу, деятельности, как преподавание. Испокон веков педагогом мог быть человек, который обладал определенной базой знаний, умел передавать накопленный им опыт своим ученикам, но помимо всего прочего, педагог обладал определенной мудростью и моральными принципами. Педагог приравнивался к мудрецу, к истинному учителю, чьим наставлениям прислушивались и старались следовать. Ученые и мыслители Востока неоднократно в своих трудах поднимали вопрос воспитания человека. В труде отечественного ученого-исследователя Умаровой М.Х., подчеркивается, что по словам Абу Али ибн Сины «воспитание человека заключается в обеспечении единства его умственного, нравственного и физического развития.» [1, с.231]. Не менее интересны мысли Абу Насра аль Фараби касаясь моральных качеств учителя, описанные Абдуллаевой Ш.А. в ее книге «История педагогики» «Если учитель добивается от учеников правдивости, справедливости, вежливости, то такими качествами должен овладеть он сам.» [2, с.100].

В современную эпоху к педагогу предъявляют немного другие требования. Он должен: знать свой предмет; уметь использовать различные методики в процессе обучения; изучать передовые технологии в информационном пространстве; формировать всесторонне развитого ученика; стараться соответствовать определенным образовательным стандартам; знать все необходимые нормативно-правовые акты своей страны и прочее. И почти всегда на последнем месте находится духовная культура и духовный гуманизм самого педагога.

Что же мы понимаем под «духовным гуманизмом»? Разберем это понятие на составляющие его части. Обратимся к словам Ш.А.Амонашвили: «Духовность есть сугубо личностное состояние внутреннего мира каждого человека...Гуманность мыслится как процесс поиска человеком своей бессмертной основы- духа...» [3, с.285]. Следовательно, под духовным гуманизмом мы можем понимать, поиски и исследование человеком своей сути через пробуждение и раскрытие нравственных качеств и приобретением моральных регуляторов. Духовный гуманизм, по словам Ш.А.Амонашвили, является ядром гуманной педагогики. «Гуманная педагогика есть теория и творческая практика становления личности растущего человека через систему содержания и средств, разрабатываемых на основе понятия духовного гуманизма» [3, с.286].

Духовный гуманизм содержит несколько важных и основополагающих принципов:

1. Признание ценности, уникальности и неповторимости каждого человека;
2. Совершенствование человека через приобретение духовно-нравственных ценностей;

3. Идеал гармоничной личности через соотношение разума, чувств и моральных ценностей и др.

По мнению представителей гуманной педагогики, учитель должен обладать духовным гуманизмом, стремиться к нравственному совершенствованию и являться транслятором культуры человечества. В.А.Сухомлинский в своей книге «Сердце отдаю детям» отметил, что «Мы (прим. учителя) должны быть для подростков примером богатством духовной жизни; лишь при этом условии мы имеем моральное право воспитывать». [4, с.22]. Из этого следует, что прежде, чем учить нравственности детей, взрослые должны быть сами образцами культуры и моральных принципов.

Духовный гуманизм опирается на веру в внутреннюю способность ребёнка к самосовершенствованию и добру. Задачей каждого педагога является проявление этой доброй сущности в каждом ребенке. Но какую же роль играет духовный гуманизм в педагогической практике?

Во-первых, он задаёт моральный ориентир — педагог строит отношения с учеником на основе доброты, уважения, понимания, а не страха или давления. Педагог перестает выполнять роль авторитарного наставника, главной функцией которого было просто передать знания. Он выступает в роли помощника, лидера, тьютора, который задает нравственный ориентир в жизни.

Во-вторых, он помогает слышать внутренние потребности ребёнка, понимать его мотивацию и проблемы. Не заставлять учиться из-под палки, а организовывать такую среду, где каждый смог бы проявить свои лучшие способности.

В-третьих, духовный гуманизм учит не оценивать ученика только по отметкам, не ставить на нем «крест» из-за низкой успеваемости, а видеть его целостно — с его личной историей, внутренним миром, потенциалом.

Как мы видим выше, деятельность педагога в образовательном процессе коренным образом меняется. Это требует от педагогов не просто использовать новые методики и технологии, а перестроить свое педагогическое сознание, что зачастую бывает весьма затруднительно. Гуманный педагог должен обладать следующими качествами:

- эмпатия и душевная отзывчивость;
- уважение к личности каждого ученика;
- умение работать без крика, наказаний и унижения;
- стремление вдохновлять, а не управлять.

Такой педагог неформально подходит к воспитанию, создаёт в классе атмосферу доверия и принятия, старается быть примером — не идеалом, а настоящим, честным взрослым. «Беда многих учителей в том, что они измеряют и оценивают духовный мир ребенка только оценками и баллами, делят всех учащихся на две категории в зависимости от того, учат или не учат дети уроки» [4, с.6]. Духовный гуманизм — это не просто доброжелательное отношение к ученику, а признание внутреннего мира человека как главной точки опоры в воспитании. Это то, что должно быть развито в каждом педагоге.

Рассмотрим теперь, какое значение имеет духовный гуманизм в условиях современной школы.

В условиях кризиса ценностей, перегрузок и цифровой зависимости дети особенно нуждаются в душевном тепле, внимании и смысле. Доброжелательный тон разговора, поддержка со стороны учителей, чувство целостности и сплоченности, возникающее от сплоченности ученического коллектива — все это являются необходимыми элементами в формировании гармоничной личности. Также, принцип духовного гуманизма помогает сохранить в образовании человеческое лицо, сформировать устойчивые этические и жизненные ориентиры и никогда не забывать о том, что в школе воспитываются и обучаются будущие равноправные члены общества. Помимо всего перечисленного, духовный гуманизм учит видеть в ребенке не объект обучения, а живую, чувствующую личность, которая развивается и хочет к себе доброжелательного отношения.

Заключение.

Подводя итог, можно отметить, что духовный гуманизм не является модной педагогической теорией, это философская основа, без которой невозможна настоящая гуманная педагогика. Именно через признание духовной природы человека формируется воспитание, способное воспитать не только грамотного, но и светлого, доброго, осознанного человека. И гуманный педагог — это тот, кто давно отошел от своей единственной роли- передачи знаний, а стремится помогать детям становиться самими собой, расти, учиться с любовью и жить с достоинством.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Умарова, М.Х. Теория и истории педагогики [Текст]: учебное пособие для направления бакалавриата область образования 5110900 - Педагогика и психология/М. Умарова. Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. – Т.: ИПТД имени Чулпана. 2018. – 372 с.
2. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А., Халикова Г.И. История педагогики (Учебник). 2017. – 258 с.
3. Амонашвили Ш.А. Основы гуманной педагогики. Кн.3. Школа жизни/ Шалва Амонашвили. – 2-е изд. –М.: Амрита-Русь, 2003. – 320 с.
4. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Москва: «Просвещение», 1979.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' PHYSICAL QUALITIES THROUGH SPORTS AND RECREATIONAL TOURISM

Abdurazzaxov Abdurasul Abdurazzaxovich

Independent Researcher

UsUPEAS chief specialist of the department of

"Organization and management of the educational process"

E-mail: abdurazzaxovabdurassul874@gmail.com

Abstract. This article highlights methodological approaches aimed at developing students' physical qualities through sports and recreational tourism. The study focuses on the formation and improvement of physical attributes such as strength, endurance, and agility during tourism activities, enhancing students' interest in a healthy lifestyle, fostering teamwork, and promoting environmental awareness. The article reveals the potential of sports and recreational tourism to enrich the educational process and strengthen students' physical and mental well-being.

Keywords: Sports and recreational tourism, physical qualities, student, methodology, healthy lifestyle, endurance, agility, strength, environmental education, teamwork.

SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI ASOSIDA TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdurazzaxov Abdurasul Abdurazzaxovich

Mustaqil izlanuvchi

O'zDJTSU "Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish" bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sport-sog'lolashtirish turizmi orqali talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqotda turizm mashg'ulotlari jarayonida kuch, chidamlilik, epchillik kabi jismoniy sifatlarni shakllantirish va takomillashtirish, talabalarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishini oshirish, jamoaviylik va ekologik madaniyatni rivojlantirish, Maqola sport-sog'lolashtirish turizmi vositasida ta'lim jarayonini boyitish va talabalarning jismoniy hamda ruhiy salomatligini mustahkamlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Sport-sog'lolashtirish turizmi, jismoniy sifatlari, talaba, metodika, sog'lom turmush tarzi, chidamlilik, epchillik, kuch, ekologik tarbiya, jamoaviylik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N80>

Kirish: Dunyoda sport turizmini ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy salomatlikni ham yaxshilash mumkinligiga ahamiyat berilmoqda. Amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, sport turizmi orqali talabalarda ijtimoiy faollik, mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash kabi muhim kompetensiyalar shakllantirilmoqda. Jismoniy tarbiya tizimida sport turizmining o'rni tobora oshib bormoqda, ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun yangi sport faoliyatlari va mashg'ulot metodlarini ishlab chiqish, shuningdek, sport turizmini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sport-sog'lolashtiruvchi turizm, xususan,

piyoda sayrlar, talaba yoshlarining jismoniy faolligini oshirish va salomatligini mustahkamlashda samarali vosita bo'lib, uni OTM ta'lim jarayoniga joriy etish uchun ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish zarurligi davr talabiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2020 yil 24-yanvardagi PF-5929-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-son "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida hamda mazkur sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur metodik yondashuvda talabalar harakat faoliyatining mazmunini o'zlashtiradi va uni turmush faoliyatiga tatbiq etishga intiladi. Shu orqali jismoniy sifatlarning rivojlanishida faqatgina tabiiy salohiyat emas, balki kundalik hayotda shakllanadigan harakat tajribasi, ijtimoiy muhit va emotsional holat ham muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Bu esa, sport-sog'lomlashtirish turizmi asosida olib borilgan mashg'ulotlarni pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismiga aylantiradi. Sport-sog'lomlashtirish turizmi asosida talabalarning jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mamlakatimiz olimlaridan E.Yu. Davrenov, R.A.Abdumalikov, R.S.Salomov, A.Abdullayev, Sh.H.Xonkeldiev, K.M.Mahkamjonov, T.T.Yunusov, R.Q.Qudratov, T.X.Holdarov, V.Sh. Raximov, A.A. Abduraxmanova, V.S. Kosimova, K.B. Muxammadiev, A.A.Axmedov, Sh.R.Jo'rayev, B.X.G'ofurov, O.M.Mamatqulov, A.M.Raxmatullayev I.Qodirov I.Ergashev D.T.To'xtayev va boshqa olimlarning tadqiqotlari zamonaviy turizmning ilmiy yutuqlaridan hisoblanadi.

Mazkur metodikada sport-sog'lomlashtirish turizmi doirasida talabalarni jismoniy rivojlantirish jarayoni beshta asosiy sifat — chidamlilik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik va muvozanat — asosida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, har bir sifat alohida rivojlantirilsa-da, ular o'rtasidagi tabiiy bog'liqlik va muvofiqlik e'tiborga olinadi. Ayniqsa, chidamlilik va tezkorlik sifatlarni birgalikda rivojlantirishda metodik muvozanat zarur. Chunki haddan ziyod chidamkorlik mashqlari mushaklarning portlovchi kuch va tezkor javob berish qobiliyatini pasaytirishi mumkin. Shu bois har bir jismoniy sifatni takomillashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar boshqa sifatlarning rivojlanishiga zid kelmasligi uchun tarkibiy uyg'unlik tamoyiliga asoslaniladi. Natijada, har bir talabaning jismoniy holati kompleks tarzda mustahkamlanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalari asosida talabalarning jismoniy sifatlarni – kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va muvozanat saqlashni – samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar kompleksini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning vazifalari: Sport-sog'lomlashtirish turizmining mazmuni va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash. turizm faoliyati kuch, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik tezkorlik jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar kompleksini ishlab chiqish, talabalarda sog'lom turmush tarzi va ekologik ongni shakllantirish.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning jismoniy rivojlanish jarayoni tanlab olindi.

Tadqiqot predmeti esa sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlari orqali jismoniy sifatlarni (kuch, chidamlilik, epchillik, muvozanat) rivojlantirish metodikasi hisoblanadi

Tadqiqotning tashkil etilishi. Sport-sog'lomlashtirish turizmi faoliyati orqali talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, quyida jismoniy tayyorgarlik darajasi "o'rta" bo'lgan talabalar uchun tabaqalashtirilgan mashqlar kompleksini taqdim etaman. Bu kompleks 5 ta asosiy jismoniy sifadni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, turizm elementlari bilan boyitilgan:

1-jadval

Jismoniy tayyorgarlik darajasi o'rta bo'lgan talabalar uchun mashqlar kompleksi

Bosqich / Hafta	Mashg'ulot tarkibi	Mashq turi	Mashqlar	Takror / Vaqt	Izoh
1-bosqich 1-hafta	Moslashuv	Tayyorlov	Yengil yugurish, arqonda sakrash	2×20 s	Yurak-qon tizimi
		Muvozanat	Egilishlar, aylantirishlar	2-3×25 s	Tana boshqaruvi
		Tezkorlik	30 m yugurish	2-3 marta	Oraliq yurish
		Chaqqonlik	To'p bilan yurish, uloqtirish	2×30 s	Faol harakatlar
		Harakatli o'yin	"Kim chaqqon?"	3 daq.	Rag'batlantiruvchi
		Yakunlovchi	Nafas, cho'zilish mashqlari	–	Tiklanish
2-bosqich 2–3-haftalar	Rivojlantirish	Tayyorlov	Yugurish + arqonda sakrash	3×25 s	Faollik oshadi
		Tezkorlik	40 m yugurish, to'siqlar	3-4 marta	Marshrut taqlidi
		Chaqqonlik	To'p bilan mashqlar, juftlik ishlari	3×30 s	Koordinatsiya
		Kuchlilik	To'ldirilgan to'p, turnik	3-4 marta	Yuk ko'tarish
		Chidamlilik	1000 m yugurish	1 marta	Yurish bilan tugallansin
		Harakatli o'yin	"Sayohat yukini yetkaz"	2×3 daq.	Turizmga mos o'yin
		Yakunlovchi	Nafas, cho'zilish mashqlari	–	Tinchlanish
3-bosqich 4-hafta	Mustahkamlash	Tayyorlov	400 m yugurish, cho'zilish	–	Kuchli boshlanish

		Tezkorlik + Chaqqonlik	Estafeta yugurish, to'siqlar	3 marta	Kompleks yondashuv
		Kuchlilik	Yuk ko'tarish, bel mashqlari	3×25 s	Turizm elementlari bilan
		Chidamlilik	1200 m marshrut yugurish	1 marta	Yakuniy yuklama
		Harakatli o'yin	"Turistik yo'l" (stansiyalar bilan)	1×10 daq.	Yakuniy integratsiya
		Yakunlovchi	Nafas + musiqali cho'zilish	–	Emotsional tugatish

Mazkur kompleks mashqlar oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarining umumiy va maxsus jismoniy sifatlarini, ya'ni tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik va muvozanatni rivojlantirishni maqsad qiladi. Mashqlar, turizm faoliyati va dam olish metodlari bilan integratsiya qilingan holda, talabalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Mashqlar majmuasini ishlab chiqishda, har bir jismoniy sifatning individual va umumiy rivojlanishini ta'minlaydigan yondashuvlar hisobga olingan. Bu yondashuvlarning asosiy maqsadi talabalarga moslashtirilgan va ularning jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos mashqlarni taqdim etishdir.

2-jadval

**Tajriba guruhi talabalarining pedagogik tajriba boshlanishi va tugashidagi
ko'rsatkichlar dinamikasi (n=83)**

Ko'rsatkichlar	Tadqiqot boshi $\bar{X}$	Tadqiqot oxiri $\bar{X}$	V %	P (ishonchlilik)
Tana uzunligi (sm)	O'g'il: 175.3Qiz: 170.2	O'sha-o'sha	0 %	P > 0.05
Tana vazni (kg)	O'g'il: 74.1Qiz: 62.5	75.864.0	≈ +2.3%	P > 0.05
YUQT (marta/daq.)	78.980.8	88.190.1	≈ +11.7%	P < 0.01
Sistolik bosim (mm.s.u.)	120.5119.6	124.8123.9	≈ +3.5%	P < 0.05
Diastolik bosim (mm.s.u.)	79.580.1	82.783.3	≈ +4.0%	P < 0.05
O'pka sig'imi (ml)	33503250	37003550	≈ +10.4%	P < 0.01
Shtange testi (soniya)	39.841.2	45.146.7	≈ +13.3%	P < 0.01
Genche testi (soniya)	31.933.0	36.337.4	≈ +13.8%	P < 0.01
Rufye-Dickson indeksi (pastroq – yaxshi)	16.316.1	14.013.9	≈ – 14.1%	P < 0.01

100 m yugurish (soniya) (kamroq – yaxshi)	14.115.2	12.613.4	$\approx -$ 10.6%	$P < 0.01$
Turnikda tortilish (marta)	6.35.8	7.36.7	$\approx$ +15.9%	$P < 0.01$
3x10 m yugurish (soniya) (kamroq – yaxshi)	9.710.2	8.69.0	$\approx -$ 11.3%	$P < 0.01$
Kuper testi (12 daq., m)	21802100	24952415	$\approx$ +14.4%	$P < 0.01$

Xulosa qilib aytganda, o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sport-sog'lomlashtirish turizmi vositasida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Tajriba guruh ishtirokchilari tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik va muvozanatni kabi muhim jismoniy ko'rsatkichlar bo'yicha an'anaviy mashg'ulotlarda qatnashgan nazorat guruhiga nisbatan sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishdilar. Shuningdek, ochiq havoda faol harakatlar orqali o'tkazilgan turistik mashg'ulotlar talabalarda sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishni oshiradi, jamoaviylik ruhini kuchaytiradi hamda psixologik holatning barqarorligini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar oliy ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etilishi mumkin bo'lib, u sport-sog'lomlashtirish faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Umuman olganda, sport-sog'lomlashtirish turizmi orqali talabalarning jismoniy tarbiyasini mustahkamlash, ularning harakat faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

1. Talabalarda yurak-qon tomir kasalliklari, ortiqcha vazn va gipodinamiya bilan bog'liq holatlarning ortib borishi sport-sog'lomlashtirish turizmining dolzarbligini ko'rsatmoqda. Jizzax, Toshkent, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, talabalarining 68% sport-turizm haqida ma'lumotga ega bo'lsa-da, 61% so'nggi olti oyda unda ishtirok etmagan. Fiziologik o'lchovlar (yurak urish tezligi, o'pka sig'imi) va jismoniy sifatlar (tezlik, chaqqonlik, muvozanat) tahlili esa ko'pchilik talabalar jismoniy holatining o'rtacha yoki past darajada ekanini ko'rsatdi. Bu esa sog'lomlashtirish turizmini asoslangan metodik yondashuvlar bilan joriy etish zaruriyatini ta'kidlaydi.

2. Maxsus tanlangan testlar bo'yicha o'tkazilgan dastlabki pedagogik testlash natijasida, OTM sharoitida "sport-sog'lomlashtirish turizmi" fani dasturini amalga oshirish, akademik mashg'ulotlar doirasida talabalar jismoniy tayyorgarligi va funksional holatini samarali rivojlantirishga yetarli darajada ta'sir ko'rsatmayotgani aniqlandi. Bu xulosaga o'quv yili davomida olingan dastlabki test natijalaridagi statistik yaxshilanishning yo'qligi asosida kelindi.

3. Oliy ta'lim muassasasi talabalariga sog'lomlashtiruvchi sport turizmi mashg'ulotlarining birinchi bosqichida jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash shkalasi ishlab chiqildi. Ushbu baholash, maxsus dastur yordamida talabalar jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashni osonlashtiradi va ilmiy-uslubiy testlar yordamida aniq ma'lumotlar olish imkonini yaratadi. Testlar talabalarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajalarini, shu jumladan kuch, chidamlilik, tezlik va koordinatsiyani baholashda foydalaniladi. Bu baholash jarayoni, talabalarning jismoniy salomatligini yaxshilash va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

4. Taklif etilgan metodika ikki asosiy blokdan iborat: (1) kuch, chaqqonlik, tezlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish; (2) tekis va notekis yerlarda yurish texnikasi

va motorik faollikni oshirish. Bosqichma-bosqich yondashuv talabalar individual ehtiyojlariga moslashadi. “Muvozanatni yo‘qotma”, “Tezyurish” kabi harakatli o‘yinlar va tabiiy muhitdagi mashqlar (masalan, tosh ko‘tarish, to‘siqlardan o‘tish) jismoniy va ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamladi.

Umuman olganda, mazkur metodika talabalar jismoniy tayyorgarligi, ijtimoiy ko‘nikmalari va sog‘lom turmush tarziga munosabatini rivojlantiruvchi samarali vosita sifatida oliy ta‘lim amaliyotiga joriy etilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. R.S.Salamov “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”. Darslik. 1 jild. T.,-2015. 296 b.
2. E.T.Raxmanov “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. T.,-2023. 260 b.
3. E.Yu.Daurenov, A.K.Masharipov, M.I.Idrisov, Sport - sog‘lomashtirish turizmi O‘quv qo‘llanma Chirchiq – 2022.
4. V.Sh.Raximov. A.Q.Demenov., F.B.Iminova “Jismoniy tarbiya va sport sog‘lomashtirish turizmi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2022.
5. T.Xoldarov “Turizm”.(Sayyoxlik): O‘quv qo‘llanma Toshkent 2022-yil 164 bet
6. D.X.Umarov "Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati." O‘quv qo‘llanma. T.,-2021. 239 b.
7. Axmedov A.A. Sport-sog‘lomashtirish turizmi nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘zDJTI nashriyoti, 2020. – 212 b.
8. G‘ofurov B.X. Turizm asoslari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021. 190 b.
9. Mamatqulov O.M., To‘xtayev D.T. Sport va sog‘lom turmush tarzi asoslari. Samarqand: SamDTI, 2018. – 145 b.
10. Raxmatullayev A.M. Yurish va piyoda sayohat metodikasi. Toshkent: O‘zDJTI, 2017. – 120 b.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

ENSURING THE INTEGRATION OF MATHEMATICS AND GEOGRAPHY IN DEVELOPING STUDENTS' CARTOGRAPHIC KNOWLEDGE

Ergashev Tolif Yuldashevich

University of Business and Science

Abstract. Ensuring the integration of academic subjects contributes to strengthening students' knowledge and enriching their understanding of the topics being studied. Therefore, attention is given to using interdisciplinary integration in the educational process. However, achieving interdisciplinary integration is a complex process, where the teacher's experience, professional competence, and skills play a crucial role. In the educational process, geography teachers need to focus on specific aspects of utilizing the interconnection and unity of geographical and mathematical knowledge. The article discusses aspects and factors that should be considered in ensuring the integration of mathematical and geographical subjects to develop students' cartographic knowledge.

Keywords: students, cartographic knowledge, development, mathematical knowledge, geographical knowledge, integration, integration of mathematics and geography.

O'QUVCHILARNING KARTOGRAFIK BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKA VA GEOGRAFIYA FANLARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH

Ergashev Tolif Yuldashevich

University of Business and Science

E-mail: ergashevtolibjon65@gmail.com


Annotatsiya. O'quv fanlari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlash o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, o'rganilayotgan mavzular bo'yicha tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida o'quv fanlari o'rtasidagi o'zaro integratsiyadan foydalanishga e'tibor qaratiladi. Biroq, fanlararo integratsiyaga erishish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, unga erishishda o'qituvchining ish tajribasi, kasbiy kompetentligi va mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida geografiya fani o'qituvchilari geografik va matematik bilimlar o'rtasidagi aloqadorlik va birlikdan foydalanishda muayyan jihatlarga e'tiborni qaratishlari zarur. Maqolada o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishda matematik va geografik fanlar integratsiyasini ta'minlashda e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlari va omillar to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, kartografik bilimlar, rivojlantirish, matematik bilimlar, geografik bilimlar, integratsiya, matematika va geografiya fanlari integratsiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N81>

Geografiya va matematika fanlari bilimlarning mantiqiy mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqindir. Binobarin, ixtiyoriy olingan har qanday geografik holat va hodisa aniq matematik hisobga asoslangan. Mana shu o'ziga xoslikka tayangan holda ta'lim jarayonida matematika va geografiya fanlari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlash orqali o'quvchilarning kartografik bilimlarini mustahkamlash, yangi tushunchalar bilan boyitish imkoniyati mavjud.

Matematika va geografiya fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish quyidagi vazifalarni bajarish orqali ta'minlanadi:



Matematika va geografiya fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish vazifalari

I. O'quv dasturlari matematik bilimlar aks etishini ta'minlash. Akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Amaliy geografiya" fani o'quv dasturida matematik bilimlar aks etishiga erishish orqali fanlararo integratsiyani ta'minlash maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tibor "Amaliy geografiya" fani o'quv dasturida matematik va geografik bilimlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga, masalan, masshtab va koordinatalar tizimiga oid tushunchalarni o'zlashtirish, maydon, masofa va burchaklar hisoblashga e'tibor qaratiladi. Bu esa integratsiya jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning kartografik bilimlarini chuqurlashtiradi.

II. Fan o'qituvchilari o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish. Fanlararo integratsiyani ta'minlashda matematika va geografiya fanlarining o'qituvchilari o'rtasida doimiy hamkorlikka erishish ijobiy natijalarni beradi. Ular o'rtasidagi hamkorlik darslarni rejalashtirish va o'tkazishda birgalikda integratsiyalangan yondashuvlarni ishlab chiqishda ko'rinadi.

III. Amaliy darslarni tashkil etish. Bu turdagi darslarda o'quvchilarni xaritalar bilan ishlashga, masalan, mavzuli (tabiiy yoki tabiiy geografik kartalar; ijtimoiy-iqtisodiy kartalar) va raqamli xaritalar (geografik xaritalarning raqamli (elektron) modellari)da masshtabni hisoblash, topografik ma'lumotlarni tahlil qilishga jalb etish ularning o'quv-bilish faolligini oshiradi. Qolaversa, "Amaliy geografiya" darslarida global joylashuvni aniqlash tizimi (GJAT; Global Positioning System – GPS) va geografik axborot tizimlari (GAT; Geographic information systems – GIS) texnologiyalarini o'qitish jarayoniga joriy etish va o'quvchilarda mazkur tizimlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish ular tomonidan o'zlashtirilayotgan geografik bilimlarning amaliy ahamiyat kasb etishiga yordam beradi.

IV. Ta'limni real hayot bilan bog'lash. "Amaliy geografiya" fanini o'qitishda o'quvchilarga beriladigan topshiriqlarni ular kundalik hayotda ko'p marta duch keladigan masalalarga oid bo'lib, matematika bilan bevosita bog'lanishi, birinchidan, o'zlashtirilayotgan bilimlarning amaliy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi; ikkinchidan, shu taqlitda o'zlashtirilgan bilimlar mustahkam bo'lib, xotirada yaxshi saqlanadi.

Misol uchun geografiya va matematik bilimlar integratsiyasiga asoslangan topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Masshtablarni turli o'lcham (1 mm, 1 sm, 10 sm) bo'yicha belgilashga doir topshiriq.

Berilgan masshtab o'lchamlari asosida Yer sirtidagi haqiqiy masofani 1 mm, 1 sm va 10 sm ko'rsatkichlarda ifodalang.

Masshtablarni turli o'lchamlar bo'yicha belgilash

№	Masshtablar	Xaritadagi o'lchamlar		
		1 mm	1 sm	10 sm
1.	1:100 000			
2.	1:500 000			
3.	1:10000			
4.	1:5000			
5.	1:2000			
6.	1:1000			
7.	1:500			
8.	1:200			
9.	1:100			

2. Masshtab va masofalarni hisoblashga oid topshiriqlar.

2.1. Xaritadagi keltirilgan masshtab asosida Namangan va Jizzax (To'raqo'rg'on, Chust, Pop, Andijon, Farg'ona, O'sh, Angren, Olmaliq, Ohangaron, Toshkent, Guliston, Samarqand, Juma, Nurota, Navoiy, Buxoro, Urganch, Nukus, Qarshi, Termiz) shaharlari orasidagi masofani toping.

2.2. "Bizga berilgan xaritada A va B nuqtalar orasidagi masofa 5 sm ga teng bo'lsa, ushbu shaharlar orasidagi masofa hayotda qancha masofani tashkil qiladi?

Xarita masshtabi 1:10000000" [1].

2.3. Qo'lingizda 1:50000 masshtabli xarita bor. Ushbu xarita yordamida ixtiyoriy ikki nuqta orasidagi masofani santimetrda o'lchang hamda sanoqli masofani kilometrda hisoblang.

3. Koordinatalar tizimida obyektlarni aniqlashga doir topshiriq.

3.1. Geografik koordinatalar (kenglik va uzunlik) tizimida muayyan nuqtalarning joylashuvini aniqlang:

A. Dunyo xaritasidan: Istanbul, Kioto, Madina, Makka, Moskva, Nagoya, Osaka, Pekin, Rotterdam, Sidney shaharlarining joylashuv o'rnini aniqlang.

Jahonning yirik shaharlari ega bo'lgan geografik koordinatalar

№	Jahonning yirik shaharlari	Geografik koordinatalari	
		Kengligi	Uzunligi
1.	Istanbul		
2.	Kioto		
3.	Madina		
4.	Makka		
5.	Moskva		
6.	Nagoya		
7.	Osaka		
8.	Pekin		
9.	Rotterdam		
10.	Sidney		

B. O'zbekiston xaritasidan: Asaka, Baxt, Boysun, Vobkent, Denov, Karmana, Kattaqo'rg'on, Pop, Rishton, Toshkent, Urgut, Xiva, Shahrisabz, Qo'ng'iro't, G'allaorol shaharlarining joylashuv o'rnini aniqlang.

O'zbekiston shaharlarining geografik koordinatalari

№	O'zbekiston shaharlari	Geografik koordinatalari	
		Kengligi	Uzunligi
1.	Asaka		
2.	Baxt		
3.	Boysun		
4.	Vobkent		
5.	Denov		
6.	Karmana		
7.	Kattaqo'rg'on		
8.	Pop		
9.	Rishton		
10.	Toshkent		
11.	Urgut		
12.	Xiva		
13.	Shahrisabz		
14.	Qo'ng'iro't		
15.	G'allaorol		

3.2. Dekart koordinatalar tizimi (tanlab olingan fazoviy sanoq tizimidagi har bir nuqtaning o'rnini uchta x, u, z koordinatalar) orqali xaritada ixtiyoriy obyektlarni belgilang.

3.3. Dunyo xaritalari yordamida turli materiklardagi markaziy nuqtalarning geografik koordinatalarini aniqlang.

Turli materiklardagi markaziy nuqtalarning geografik koordinatalari

№	Materiklar nomi	Markaziy nuqtalarning geografik koordinatalari	
		Kengligi	Uzunligi
1.	Yevropa		
2.	Yevropa va Osiyo		
3.	Shimoliy Amerika		
4.	Janubiy Amerika		
5.	Afrika		
6.	Avstraliya		
7.	Avstraliya va Okeaniya		
8.	Antarktida		

3.4. Mahalliy koordinatalar tizimidagi aholi punktlarining koordinatalarini aniqlang:

A. Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumani aholi punktlari: Nanay, Mamay, Qizilyozi, Ko'kyor, Zarkent va Paramon MFY.

Aholi punktlari	Koordinatalari	Aholi punktlari	Koordinatalari
Nanay MFY		Ko'kyor MFY	
Mamay MFY		Zarkent MFY	
Qizilyozi MFY		Paramon MFY	

B. Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyatining yirik aholi punktlari: Jalolobod, Qorako'l, Maylisoy, Toshko'mir, Ko'kyong'oq, Kerben, Toktogul, Shamoldisoy, Qo'chqor-Ota, Bozorqo'rg'on.

Aholi punktlari	Koordinatalari	Aholi punktlari	Koordinatalari
Jalolobod		Kerben	
Qorako'l		Toktogul	
Maylisoy		Shamoldisoy	
Toshko'mir		Qo'chqor-Ota	
Ko'kyong'oq		Bozorqo'rg'on	

C. 56° (shimoliy kenglik) 38° (sharqiy uzunlik)da qanday shahar joylashganini toping.

3.4. Bir meridianda joylashgan ikkita obyekt orasidagi masofani toping.

“Vladikavkaz va Bag'dod shaharlari deyarli bir meridianda, ammo turli xil kengliklarda joylashgan. Kenglikdagi farq 10° . Ushbu shaharlar orasidagi umumiy meridian bo'ylab o'tkazilishi mumkin bo'lgan havo yo'lining uzunligini toping” [3, – c. 34].

4. Demografik ma'lumotlarni tahlil qilish (mahalliy yoki milliy aholi soni, aholi sonining o'sish sur'atlari, aholi zichligini o'rganish)ga oid topshiriq.

4.1. Quyidagi jadval asosida 15 yoshgacha bo'lgan aholining eng ko'p ulushi qaysi davlatga to'g'ri kelishini hamda qaysi mamlakatlarda 65 yoshdan oshgan aholi soni bir xil ekanini ko'rsating.

Aholi soni va tarkibi (2019 yil)

№	Mamlakatlar	Aholi soni, mln kishi	Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari 1000 nafar kishi	
			Tug'ilish soni	O'lim soni
1.	Xitoy	1387	12	7
2.	Fransiya	65	12	9
3.	Kenya	45	23	7
4.	Misr	95	29	5

4.2. O'zbekiston aholisining o'sish sur'atini 5 yillik ma'lumotlar asosida hisoblang va hisoblash natijalarini diagrammada ifodalang.

O'zbekiston aholisining o'sish sur'ati (2019-2023 yy.)

№	Yillar	Tug'ilish soni (ming nafar kishi)	O'lim soni (ming nafar kishi)	Umumiy o'sish (mln nafar kishi)
1.	2019			
2.	2020			
3.	2021			
4.	2022			
5.	2023			

4.3. O'zbekiston aholisi o'sish sur'atining 5 yillik ma'lumotlarini diagrammada ifodalang.

5. Tabiiy resurslarni tahlil qilish va xaritalashga oid topshiriq.

5.1. O'zbekiston xaritasi asosida qazilma boyliklar mavjud hududlarning umumiy maydonini hisoblang.

5.2. O'zbekiston xaritasi asosida hisoblangan qazilma boyliklar mavjud hududlarning umumiy maydonini respublikaning umumiy hududiga nisbatini foizda ifodalang.

5.3. O'zbekistondagi qazilma boyliklar mavjud bo'lgan hududlarning umumiy maydonini Rossiya FRdagi qazilma boyliklar mavjud bo'lgan hududlarning umumiy maydoniga solishtiring.

5.4. O'zbekistondagi qazilma boyliklar mavjud bo'lgan hududlarning umumiy maydonini Rossiya FRdagi qazilma boyliklar mavjud bo'lgan hududlarning umumiy maydoniga nisbatini foizda ifodalang.

6. Iqlim ma'lumotlarini tahlil qilishga oid topshiriq.

5.1. Muayyan yil misolida O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik yog'in miqdoriga oid ma'lumotlarni xarita asosida ko'rsating.

O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik yog'in miqdori (2023 yil)

№	Viloyatlar	Yillik yog'in miqdori	№	Viloyatlar	Yillik yog'in miqdori
1.	Andijon		8.	Surxondaryo	
2.	Buxoro		9.	Toshkent	
3.	Jizzax		10.	Farg'ona	
4.	Navoiy		11.	Xorazm	
5.	Namangan		12.	Qashqadaryo	
6.	Samarqand		13.	Qoraqalpog'iston	
7.	Sirdaryo		-		

5.2. Muayyan yil misolida O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik yog'inga oid ma'lumotlar asosida o'rtacha, minimal va maksimal ko'rsatkichlarni hisoblang.

O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik yog'in miqdori (2023 yil)

Viloyatlar	Yillik yog'in miqdori			Viloyatlar	Yillik yog'in miqdori		
	O'rt.	Min.	Maks.		O'rt.	Min.	Maks.
Andijon				Surxondaryo			
Buxoro				Toshkent			
Jizzax				Farg'ona			
Navoiy				Xorazm			
Namangan				Qashqadaryo			
Samarqand				Qoraqalpog'iston			
Sirdaryo							

5.3. Muayyan yil misolida O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik yog'ingarchilikka oid ma'lumotlar asosida hisoblangan o'rtacha, minimal va maksimal ko'rsatkichlarni diagrammada ifodalang.

5.4. Muayyan yil misolida O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik havo haroratiga oid ma'lumotlarni xarita asosida ko'rsating.

O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik havo harorati (2023 yil)

№	Viloyatlar	Yillik havo harorati	№	Viloyatlar	Yillik havo harorati
1.	Andijon		8.	Surxondaryo	
2.	Buxoro		9.	Toshkent	
3.	Jizzax		10.	Farg'ona	
4.	Navoiy		11.	Xorazm	
5.	Namangan		12.	Qashqadaryo	
6.	Samarqand		13.	Qoraqalpog'iston	
7.	Sirdaryo		-		

5.5. 2023-yil misolida O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik havo haroratiga oid ma'lumotlar asosida o'rtacha, minimal va maksimal ko'rsatkichlarni hisoblang.

O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik havo harorati (2023 yil)

№	Viloyatlar	Yillik havo harorati		
		O'rtacha	Minimal	Maksimal
1.	Andijon			
2.	Buxoro			
3.	Jizzax			
4.	Navoiy			
5.	Namangan			
6.	Samarqand			
7.	Sirdaryo			
8.	Surxondaryo			
9.	Toshkent			
10.	Farg'ona			
11.	Xorazm			
12.	Qashqadaryo			
13.	Qoraqalpog'iston			

5.6. Muayyan yil misolida O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yillik havo haroratiga oid ma'lumotlar asosida hisoblangan o'rtacha, minimal va maksimal ko'rsatkichlarni diagrammada ifodalang.

6. Tarixiy geografik bilimlarga oid topshiriq.


6.1. Abu Rayhon Beruniyning geografik koordinatalarni aniqlashga oid ma'lumotlar [2, – 24-6.]ni berilgan joylar o'rnini belgilovchi ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslang va farqlarni ko'rsating.

Geografik koordinatalarni aniqlashga oid ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish

№	Joy nomlari	Geografik kenglik		
		Abu Rayhon Beruniy bo'yicha	Zamonaviy o'lchovga ko'ra	Oraliq farq
1.	Buxoro	39° 20'		

2.	Samarqand	40° 00'		
3.	Baku	39° 00'		
4.	Darband	66° 00'		
5.	Farg'ona	92° 00'		
6.	O'zgan	92° 00'		

6.2. Koordinatalar tizimiga ko'ra Xristofor Kolumbning 1-, 2-, 3- va 4-ekspeditsiyasi [5] tasvirlangan ushbu xaritalar yordamida dengiz yo'li masofasini o'lchang.



Xristofor Kolumbning 1-, 2-, 3- va 4-ekspeditsiyasining dengiz yo'llari

6.3. O'lchangan dengiz yo'li masofasi asosida hozirgi narx bilan Xristofor Kolumb 1-, 2-, 3- va 4-ekspeditsiyasi uchun sarflagan dizel yoqilg'isi sarfini hisoblang.

Kema modeli: Teploxod 457

Dvigatel modeli (quvvati, kW) – K -161-2

Sarf miqdori, l/mash.-soat – 15,7 D

1 soatda o'rtacha – 30 litr [4].

Dizel yoqilg'isining narxi – 11955.6 so'm (09 dekabr 2024 yil) [6].

Xristofor Kolumb 1-, 2-, 3- va 4-ekspeditsiyasi uchun sarflagan dizel yoqilg'isi (hozirgi narx bilan; 09.12.2024 yil)

№	Ekspeditsiyalar tartibi	Talab etilgan dizel yoqilg'isi (l/mash.-soat hisobida)	Dizel yoqilg'isi uchun sarflangan summa
1.	1-ekspeditsiya		
2.	2-ekspeditsiya		
3.	3-ekspeditsiya		
4.	4-ekspeditsiya		

V. O'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Zamonaviy sharoitda matematik va geografik bilimlar integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Binobarin, bu jarayonda innovatsion texnologiyalarni qo'llash geografiya fanining axborotlashgan jamiyat bilan uyg'un rivojlanayotganini ifodalash bilan birga o'quvchilarni raqamli muhitda samarali faoliyat olib borish kompetensiyalariga ega bo'lishi uchun yordam beradi. Bugungi kunda matematika fani bilan o'zaro integratsiya asosida geografiya ta'limida Geografik axborot tizimlari (GAT; Geographic information systems – GIS)dan foydalanish tobora ommalashmoqda. Mazkur tizimga asoslanuvchi o'quv topshiriqlarini bajarish o'quvchilarda mavjud bilimlarni innovatsion texnologiyalar amaliy malakalarga aylanishini ta'minlaydi.

“Amaliy geografiya” fanini o'qitishda o'quvchilarni innovatsion texnologiyalarga asoslangan quyidagi topshiriqlarni bajarishga jalb qilish kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi:

1. GIS dasturlari yordamida o'zingiz yashayotgan hudud (qishloq, shahar, tuman) maydoniga oid ma'lumotlarni aniqlang.
2. Aniqlangan ma'lumotlar asosida xarita yarating.
3. GIS dasturlari yordamida o'zingiz foydalaniladigan transport turi bo'yicha uning harakat yo'nalishiga oid ma'lumotlarni aniqlang.
4. Aniqlangan ma'lumotlar asosida transport turining harakat yo'nalishini xarita ko'rinishida belgilang.

O'quv fanlari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlash o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, o'rganilayotgan mavzular bo'yicha tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Fanlararo integratsiyaga erishish o'ziga xos murakkab jarayondir. Yuqorida qayd qilingan vazifalarni samarali bajarish fanlararo integratsiya jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning kartografik bilimlarini chuqurlashtiradi.

Demak, o'quv fanlari o'rtasida o'zaro integratsiyaga erishishda o'qituvchining ish tajribasi, kasbiy kompetentligi va mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Matematika va geografiya fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishda o'quv dasturlari matematik bilimlar aks etishini ta'minlash; fan o'qituvchilari o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish; amaliy darslarni tashkil etish; ta'limni real hayot bilan bog'lash; o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash kabi vazifalarni bajarish orqali ta'minlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Masshtab va uning turlari haqida tushuncha // <https://edustar.uz/14551>.
2. Мирзалиев Т. Картография. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2007. – 24-б.
3. Морарь Ю.Л., Петрухина В.В. Межпредметная интеграция элементов математики и географии курса 6 класса как средство успешного усвоения знаний обучающимися // Ж. Педагогических исследований. – М.: 2022. № 1. Том 7. – С. 34.
4. Нормы расхода топлива на теплоходы // https://hovercraftpro.ru/news/svp_rashod_topliva.
5. Первая экспедиция Колумба // http://discover-history.com/chapter_201.htm.
6. Узбекистан Цены на дизель, литр, 09-дек-2024 // https://ru.globalpetrolprices.com/Uzbekistan/diesel_prices.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

ISSUES RELATED TO THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL, TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS OF RIDERS

Gaziev Bakhromjon Valievich

Independent applicant of the Uzbek State University of Physical Culture and Sports

Abstract. In this article, suggestions and recommendations have been developed aimed at developing the technical and tactical actions of riders through a scientific approach to the process of organizing their physical training.

Keywords: equestrian sport, rider, movement, technical and tactical, physical training, special physical training.

CHAVANDOZLARNING JISMONIY VA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Gaziev Baxromjon Valievich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: baxrom.gaziyev07@mail.ru

Annotatsiya Mazkur maqolada chavandozlarning jismoniy tayyorgarligini tashkil qilish jarayoniga ilmiy yondashish orqali texnik-taktik harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ot sporti, chavandoz, harakat, texnik-taktik, jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N82>

Kirish. Ot sporti-bu turli xil minish usullari, musobaqalar turlari, sport o'yinlari va ot minish va otlarni o'z ichiga olgan mashqlarni anglatadigan umumlashtiruvchi tushuncha. Ushbu sport turi jismoniy tarbiya tizimida alohida o'rin tutadi. Bu epchillik va sabr-toqatni, qat'iyatlilik va topqirlikni, qat'iyatlilikni rivojlantiradi, bu yesa har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasiga va ishtirokchilarda irodali fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ot sporti sportchisi uni boshqa sport turlari vakillaridan tubdan ajratib turadigan jismoniy yemas, balki psixologik va ma'naviy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ot sporti-bu hayvon odam bilan teng ravishda bajaradigan yagona Olimpiya sport turi, shuning uchun ularning birgalikdagi ishi baholanadi. Ot sportida muhim farq hayvonlarning musobaqalarda, ya'ni otlarning musobaqalarda teng huquqli ishtirokchilar sifatida ishtirok yetishidir va natija ularning o'zaro ta'siriga va ikkalasining tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, sport juftligini tayyorlash sportchi chavandoz va uning otining funksional va jismoniy imkoniyatlarini shakllantirishni o'z ichiga olishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har qanday mashg'ulot jarayoni singari, ot sportchilarini tayyorlash ham uzoq muddatli va murakkab ishdir [1]. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, 8-10 yillik mashg'ulotlardan so'ng sport ustalari va ustalariga nomzodlar darajasidagi birinchi muhim natijalar sportchining 19 yoshdan 22 yoshgacha boshlanadi. Shu

bilan birga, hayvonlarga alohida, hurmatli munosabatda bo'lgan, mehnatsevar va shu bilan birga raqobatbardosh mashg'ulotlar uchun ko'p qirrali jismoniy tayyorgarlikka ega sportchilar ayniqsa yuqori natijalarni ko'rsatayotgani qayd etilgan [2]. Ushbu sport turining uzoq muddatli va samarali amaliyoti uchun muhim nuqta-bu dastlabki tayyorgarlik bosqichi. Ushbu bosqichda sportchining kelajakdagi mahoratining poydevori qo'yiladi. Yetarli miqdordagi turli xil ot sporti dasturlari allaqachon ishlab chiqilgan, ammo ularning har biri, qoida tariqasida, ma'lum bir ot sporti klubi uchun mo'ljallangan bo'ladi, garchi ular umumiy xususiyatlardan xoli bo'lmaydi [3].

O'quv yili boshlang'ich o'quv guruhlariga uchun davrlarga bo'linmaydi. Tayyorgarlik davri uzoq Sharq mintaqasining iqlimiy xususiyatlarini (kuz-qish va bahor) hisobga olgan holda ikki bosqichda o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bu yerda quyidagilar birinchi o'rinda turadi:

- umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash; - asosiy vosita sifatlarini yaxshilash;
- immunitetni mustahkamlash va organizmning turli virusli va yuqumli kasalliklarga chidamliligini oshirish;
- chavandozlar va otlar uchun maxsus tayyorgarlik elementlari va mashqlarini o'rganish;
- turli mashg'ulotlar va raqobatbardosh mashqlarni bajarishda qo'nish mahoratini mustahkamlash va ot boshqaruvini takomillashtirish [4].

Mashg'ulotning ushbu bosqichida mashg'ulot jarayonining hissiy tarkibiy qismiga, shuningdek, umumiy ish faoliyatini yaxshilash va yaxshilashga, shu bilan birga sportchi va otni tiklashga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, dastlabki bosqichda yosh chavandozlarga murakkab texnik elementlarni o'rgatishning hojati yo'q, ham sportga qiziqish ko'rsatish, ham otga ijobiy munosabatni shakllantirish birinchi o'rinda turadi [5]. Ot sportchilarini tayyorlashni tezlashtirishga urinishlardan qochishga, ortiqcha raqobatbardosh yuklardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik kerak, bu albatta sportchilarning tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishni taqozo etadi. Bundan tashqari, raqobatbardosh yuklar olingan ko'nikmalarni mustahkamlash uchun mo'ljallangan. Ikkinchi bosqich-bu ko'proq ixtisoslashgan jarayon bo'lib, murabbiylarning e'tibori sportchi va otning asosiy motorli ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishga qaratiladi. Asosiy e'tibor arenada minishning asosiy elementlarini bajarish, otni boshqarish, ayniqsa turli to'siqlarni yengib o'tishda texnikasiga qaratiladi [6].

Yuklarning tabiati va intensivligi o'zgarib bormoqda, jalb qilinganlarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilash uchun nazorat va sinov mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. O'quv mashg'ulotlarining hal qiluvchi vazifasi o'quv yuklamalarini va talabalarning raqobatbardosh faoliyatga tayyorligini oshirishdir. Taktik va texnik xatolarni aniqlash va bartaraf yetish, chavandozning psixologik tayyorgarligini va maxsus chidamlilik darajasini aniqlash. Dunyoda 300 ga yaqin ot zotlari mavjud [7]. Shakllar, ranglar va tashqi ko'rinishning xilma-xilligi. Har bir zotning o'ziga xos xususiyatlari bor. Xuddi odamlar singari, otlar ham individual xarakter xususiyatlariga va temperamentga ega, bu mashg'ulot jarayonini rejalashtirishda hisobga olinadi. Chavandozning temperamenti otga mos kelishi kerak, xuddi ot chavandozga mos kelishi kerak [8]. Ma'lumki, yaxshi o'qituvchi va yordamchisiz har qanday fan yoki sportni tushunish juda qiyin, ba'zan esa imkonsizdir. Murabbiy sport cho'qqilariga olib kelishi mumkin, ammo zarur tajriba yetishmasligi sababli buni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ot sporti sportlari bundan mustasno emas. Ot sportining o'ziga xos xususiyati shundaki, jamoada nafaqat murabbiy va sportchi, balki murabbiy, sportchi va ot ham ishlaydi [9]. Ajam chavandoz uchun ot murabbiydan kam yordamchi va o'qituvchi emas hisoblanadi.

Dastlabki mashg'ulotlar bosqichida o'z tajribasini yosh chavandoz bilan bepul baham ko'radigan va birinchi xato va muvaffaqiyatsizliklarni kechiradigan to'rt oyoqli o'qituvchisiz qilolmaysiz. Ajam sportchi hayotida birinchi marta ot sportidan va umuman otlardan qo'rqitmaydigan otda o'tirishi juda muhimdir. Shuning uchun, yangi boshlanuvchilar bilan mashg'ulotlarni boshlash uchun, birinchi navbatda, buning uchun "to'g'ri" va mos otlar mavjudligiga ishonch hosil qilishingiz kerak. Qoida tariqasida, ushbu maqsadlar uchun 8-15 yoshdagilar mos keladi, shu vaqtgacha ular sportda ma'lum natijalarga erishdilar va o'zlarini yeng yaxshi ekanliklarini isbotlab kelmoqda. Bu hayvonlar xotirjam, o'ziga ishongan va odamlarga do'stona munosabatda bo'lishadi, ular chavandozning ot sportidagi birinchi qadamlariga sabr-toqat bilan bardosh berishadi [10]. O'quv oti qo'rqqoq bo'lmasligi kerak, u odamning xabarlarini va istaklariga aniq javob berishi kerak. Xuddi ot kabi, yangi boshlovchi chavandoz ham, o'z navbatida, ot bilan muloqot qilish va birgalikdagi faoliyatga tayyor bo'lishi kerak, hayvon bilan birga ishlashdan qo'rqmasligi kerak. Murabbiyning vazifasi-yangi boshlanuvchilarga o'q-dorilarning tarkibiy qismlari va ulardan ot minishda foydalanish haqida ko'rsatish va aytib berish kerak bo'ladi.

Muhokama va natijalar. Otlar bilan ishlashda xavfsizlik talablariga, shuningdek, otxona va ot minishda xavfsizlik talablariga e'tibor qaratish lozim, bu istalmagan jarohatlardan qochadi. Istalgan yuqori natijalarga erishishda o'quv jarayonining muhim qismi mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradigan nazariy bilimlarni egallash, mashg'ulotlar va musobaqalarga ijodiy yondashish, sportning ijtimoiy ahamiyatini baholashga yordam beradi, shu bilan birga murabbiy bilan ham, uning to'rt oyoqli sherigi bilan ham yaxshi munosabatlarni shakllantiradi. Dasturning nazariy qismida talabalar jismoniy tarbiya va sport tarixi va tashkil yetilishi, sport mashg'ulotlari nazariyasi, gigiyena, fiziologiya, sport tibbiyoti, psixologiya va pedagogika bo'yicha minimal bilimlarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Bundan tashqari, ot sportchisi ot tanasining tuzilishi va funksiyalari, uning fiziologiyasi, parvarishi va ovqatlanishi, zoopsixologiya asoslari va otlarni tayyorlash bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi kerak. Nazariy darslarning turli shakllaridan foydalanish mumkin (suhbatlar, ma'ruza kursi, test va boshqalar.) Nazariya bilan tanishgandan so'ng, amaliyotga o'tish mumkin va kerakdir. Birinchi darslarda yangi boshlanuvchilarga barcha manipulyatsiyalarda to'liq yordam berish kerak, chunki ularning ba'zilari biroz tajriba va jismoniy kuch talab qiladi, lekin ot bilan barcha manipulyatsiyalarni bajarishga harakat qilish imkoniyatini beradi. Ajam o'z harakatlariga ishonishini va hayvonga bu ishonchni uyg'otishini ta'minlash uchun harakat qilish kerak. Ammo shuni esda tutish kerakki, har bir sportchiga ot bilan ishlashda o'zini tasdiqlash uchun har xil vaqt kerak bo'ladi, shuning uchun murabbiy otlar bilan ishlashning barcha masalalari bo'yicha yangi boshlanuvchi sportchilarni nazorat qilishi kerak.

Mashg'ulotning birinchi bosqichida ot sportchilari nazariy va amalda quyidagi mavzularni o'rganadilar: otga yaqinlashish (qoidalar, otga yaqinlashganda xavfsizlik choralari); otni tozalash (ishlatiladigan asboblari: cho'tka, qirg'ich, tuyoq ilgagi, mato va ulardan foydalanish qoidalari, tozalash qoidalari); egarlash; bosh tasmasini qo'yish; otning oyoqlarini jihozlash va bog'lash qoidalari; jihozlarni o'rnatish; otxonada, o'tish joylarida egarlash; otni kesish joylarida o'rnatish qoidalari, bog'lash usullari; otni qo'rg'oshin bilan haydash (qoidalar va xavfsizlik choralari); otni o'rnatish (uzangisiz, uzangisiz, sakrash, tebranish, harakatda o'rnatish qoidalari, otni o'rnatishda xavfsizlik choralari); otdan tushirish (orqaga burilish, oldinga burilish bilan tushirish qoidalari); jilovni tahlil qilish (ikki qo'lda, bir qo'lda

“tushunchasi ochiq” va “yopiq” qo’llar); jilovni o’rnatish qoidalari va usullari; chavandozning minishi; minish shakli (yengil, normal); yurish, yugurish (burg’ilash, mashq qilish), chopish paytida chavandozning qo’llari, oyoqlari, tanasi va boshining to’g’ri holati (manej, maydon), kavalettida, to’siqlarni yengib o’tishda, to’xtash joylarida; chavandoz va ot o’rtasidagi muvozanat tushunchasi; muvozanatni saqlash usullari (tortishish markazini siljitish); sportchining tana holatidagi xatolar; ot boshqaruvlari (shankelning ta’siri oldinga ot yuborish va to’xtatish, ularning o’zaro). O’quv guruhlar bilan mashg’ulotlar davomida murabbiy sport intellektini rivojlantirish, o’zini takomillashtirish imkoniyatlari, axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirish, tez o’zgaruvchan sharoitlarda amaliy muammolarni hal qilish qobiliyati, xotirani rivojlantirish, ixtisoslashgan hislar va musobaqalarga umumiy aqliy tayyorgarlikni tarbiyalashga e’tibor qaratadi. Tayyorgarlik davrida psixologik va pedagogik ta’sirlarning usullari ajratiladi. Ushbu usullar sportchilarning axloqiy va psixologik tarbiyasi, ularning sport intellektini rivojlantirish, musobaqalarda ishtirok yetishning maqsad va vazifalarini tushuntirish bilan bog’liq.

Raqobat davrida asosiy e’tibor hissiy barqarorlikni, diqqat xususiyatlarini yaxshilashga, musobaqalarda ishlash uchun maxsus aqliy tayyorgarlikka va safarbarlikka tayyorlikka erishishga qaratiladi. O’tish davrida asosan organizmni tiklash vositalari va usullari qo’llaniladi. Ot sporti musobaqalari maydan oktyabrgacha o’tkaziladi. Musobaqa taqvim tuziladi va har bir sport juftligi (chavandoz – ot) murabbiy rahbarligida ma’lum bir ijro dasturiga tayyorlanadi. Trening ot va chavandozning yoshiga va ularning tayyorlik darajasiga qarab amalga oshiriladi. Dastlabki mashg’ulot bosqichida musobaqalarda qatnashish ko’proq kirish xarakteriga ega. Bu odatda ta’lim tashkilotining o’zi tomonidan o’tkaziladigan musobaqalar, shuningdek klub ahamiyatiga ega musobaqalardir. Ushbu musobaqalarning maqsadi raqobat ruhini, o’quvchilarning g’alaba qozonish istagini rivojlantirish, shuningdek, sportchilar uchun ham, otlar uchun ham juda muhim bo’lgan raqobatbardosh holatida o’z qobiliyatlarini namoyish yetish mahoratini shakllantirishdir. Shunday qilib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: – ot sporti bo’limidagi murabbiyning ishi murakkab, mashaqqatli, uzoq va nozik bo’lib, sabr-toqat va chavandoz-ot sporti juftligiga individual yondashuvni topish qobiliyatini talab qiladi. Murabbiy mashg’ulot jarayonini yangi boshlagan sportchi uchun qiziqarli va tushunarli bo’ladigan tarzda tashkil qilishi va uzoq muddatli hamkorlikka qiziqishi kerak.

Murabbiy sifatida ishlash uchun pedagogik ta’limdan tashqari ot sporti sohasida katta tajriba talab yetiladi, chunki murabbiyning asosiy vazifasi o’quvchini eng yuqori sport natijalariga olib chiqishdir. Rasmiy ravishda, murabbiy o’z tarbiyalanuvchilarining iste’dodi va qobiliyatlarini ochib berishga yordam beradigan sport jamoasi yoki jamoasining asosiy shaxsidir. Murabbiy uchun har bir sportchi uchun rag’batni topish juda muhim, bu ayniqsa mashg’ulotning dastlabki bosqichida muhim va mashg’ulotlarni samarali qiladi. Sport musobaqalarida g’alaba qozonish uchun tanangizni qanday boshqarishni, otingizning o’z kuchi va imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishni o’rgatish juda muhim va g’alabalar sportchini intensiv mashg’ulotlarga undaydi. Sport murabbiyi o’quvchilarning jismoniy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishi, hayvonga nisbatan mas’uliyatli va hurmatli munosabatni o’rgatishi kerak. U turli xil texnikalarni o’rgatadi, sportchiga nafaqat o’zining kuchli va zaif tomonlarini, balki otning kuchli va zaif tomonlarini ham tushunishga o’rgatadi.

Ot sporti, bizning fikrimizcha, yeng oldindan aytib bo’lmaydigan sport turlaridan biri bo’lib, buning bir qator sabablari bor. Birinchidan, mashg’ulot natijasi va musobaqalardagi

natijalar nafaqat sportchining tayyorligiga, balki uning ot sherigining tayyorligiga ham bog'liq. Ikkinchidan, ot sporti murabbiyi chavandozning ham, otning ham xatolarini ko'ra olishi, eng muhimi, ularni tuzata olishi kerak. Ot musobaqa yoki mashg'ulot natijalariga ta'sir qiladigan xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Bu ishdagi juda qiyin lahza, chunki bu xatolar g'alaba qozonish imkoniyatini minimallashtiradi. Va agar bu sportchining yirik musobaqadagi birinchi ko'rinishi bo'lsa, unda umidsizlik va mashg'ulotlarni davom ettirishni istamaslik ehtimoli katta. Sportchiga bunday vaziyat yuzaga kelishi mumkinligini yetkazish murabbiyning zimmasidadir, chunki ot chavandoz singari "sportchi" bo'lib, unda mahorat va tajriba yetishmasligi ham mumkin. Ot tashvishlanishi, asabiylashishi, qo'rqishi va hatto sport maydonidagi vaziyatdan g'azablanishi mumkin, ayniqsa bu uning birinchi chiqishi bo'lsa. Va bunday paytda, murabbiyning vazifasi, uni qo'rqitmaslik, uning qobiliyatlari va otning imkoniyatlariga shubha qilishiga yo'l qo'ymaslik, davom yetish istagini qo'llab-quvvatlash uchun sportchi bilan psixologik suhbat o'tkazishdir.

Chavandoz tanasining holati bo'sh va tekis bo'lishi kerak. Ba'zi chavandozlar vazni to'g'rilash va uning tortishish markazini otning tortishish markazi holatiga to'g'rilashda sodir etadigan tana harakatlari keraksiz va xato hisoblanadi. Ular chavandoz tomonidan otga beriladigan buyruqlarni buzib umumiy uyg'unlikni yo'qotadilar. Chavandozlar bu yo'naltirishni yaxshilaydi degan xato fikrga asoslanishadi. Ayniqsa, ko'pincha tana harakatlarni havoda oyoqlarini o'zgartirganda yoki kengaytirilgan galop paytida kuzatish mumkin. Chavandozning tanasi vertikaldan tashqariga egilish payti muvozanat buziladi. Bu holatda, chavandozning tortishish markazi otning tortishish kuchi bilan bog'liqlikni yo'qotadi.

Chavandoz otning harakatidan orqada qolib, ko'pincha osilib qoladi. Bunday holda, u vazn ko'chirish orqali buyruqlar berolmaydi. Otning ishchanligi buzilib, orqa oyoqlarini tanasi ostiga oborishi va ular yordamida yerdan depsinishi qiyinlashadi.

Tos suyagining yon tomonga siljishi va vaznni noto'g'ri qo'llash ko'pincha lateral harakatlar va piruetlarni amalga oshirish payti ko'rinadi. Bunda otga og'irlikni orqa oyoqlariga qabul qilishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Ko'tarilgan yelkalar va kengaytirilgan tirsaklar jiddiy xatolardir. Ular keskinlik va elastiklik yetishmasligidan dalolat beradi, bu kabi xatolar har doim qo'llarni qotishiga olib keladi.

Otning og'zi bilan yaxshi aloqani faqat qo'llarning yumshoq past joylashuvi orqali o'rnatish mumkin. Qo'llarning bu kabi holati va ularning tanadan erkinligi yaxshi chavandozning belgisidir.

Chavandozlarning jismoniy rivojlanishi bir necha asosiy omillarga bog'liq:

1. Moslashuvchanlik: Chavandozlar uchun yuqori darajadagi moslashuvchanlik muhimdir, chunki bu nafaqat otning harakatlariga tezda javob berish imkonini beradi, balki musobaqalardagi muvaffaqiyatga ham ta'sir qiladi.

2. Kuch: Jismoniy kuch otni nazorat qilish va turli vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish uchun zarur. Otni boshqarish va unga kuch berish uchun yaxshi rivojlangan mushaklar tizimi kerak.

Chavandozlarning texnik-taktik harakatlari ularda jismoniy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq:

1.O'zaro Aloqa: Chavandoz va ot o'rtasidagi o'zaro aloqa, ularning harakatlarining aniq va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, otning javob berishi va harakatlari uchun muhimdir.

2.Taktik O'ylash: Musobaqalarda muvaffaqiyatga erishish uchun chavandozlar tez va to'g'ri qarorlar qabul qilishlari zarur. Bu esa jismoniy tayyorgarlik va psixologik holat bilan bog'liq.

3.Texnik Ko'nikmalar: Texnik harakatlarni, masalan, otni sakratish, to'g'ri burilishlar va boshqalarni bajarish uchun yuqori darajadagi ko'nikmalar kerak. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish jismoniy mashqlar va tajriba orqali amalga oshiriladi.

Chavandozlarning jismoniy rivojlanishi va texnik-taktik harakatlari o'rtasidagi bog'liqlik ularga musobaqalarda muvaffaqiyat qozonishda muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tayyorgarlik, kuch, moslashuvchanlik va taktik o'ylash qobiliyatlari ularning natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Shunday qilib, chavandozlar uchun doimiy ravishda o'zlarini rivojlantirish va tayyorlash muhimdir.

1-rasm.

Ot sportda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi 12-13 yoshli chavandozlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy dastur			
Dastur maqsadi: Yosh chavandozlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda otda barqarorlik, muvozanat va chidamlilikni shakllantirish		Asosiy vazifalar: 1. Yurak-qon tomir va nafas olish tizimini mustahkamlash. 2. Mushaklar kuchini, chidamliligini va elastikligini oshirish. 3. Muvozanatni, koordinatsiyani va tezkorlikni rivojlantirish. 4. Sportchilarning maxsus otda boshqaruv malakasini yaxshilash.	
Dastur tuzilishi:			
Davriylik: 9 oylik tayyorgarlik yili (3 ta bosqich: tayyorlov, asosiy, nazorat)		Mashg'ulotlar soni: haftasiga 3-4 marta	Mashg'ulot vaqti: 60-75 daqiqa
Har bir mashg'ulot tuzilishi:			
1.Qizitish (10-15 daqiqa): Yugurish (400-600 m) Dinamik cho'zish mashqlari Jismoniy koordinatsiya mashqlari	2.Asosiy qism (40-50 daqiqa): Jismoniy sifatlarni rivojlantirish: Quvvat mashqlari: badan tarbiyasi mashqlari (shtanga va og'irliklarsiz) Chidamlilik: interval yugurish (200-400 m), otdagi mashqlar Muvozanat va koordinatsiya: gimnastik to'siqlar, to'siqlardan sakrash Maxsus mashqlar: Otdagi muvozanat mashqlari Otdagi tezlik va tormozlash mashqlari Otni burish va boshqarish usullari		3.Sovitish va tiklanish (5-10 daqiqa): Erkin yurish Statik cho'zish mashqlari Tana nafas olish mashqlari
Dasturda asosiy rivojlantiriladigan jismoniy sifatlar:			
Sifat	Mashqlar turi		Haftalik miqdori
Chidamlilik	Yugurish, interval mashqlar		2-3 marta
Quvvat	Badan mashqlari, otdagi mashqlar		2 marta

Muvozanat	Gimnastika, otda mashqlar	3 marta
Koordinatsiya	To'siqli mashqlar, tezkor harakatlar	2-3 marta
Cho'ziluvchanlik	Cho'zish mashqlari	Har kuni
Davriylik bo'yicha bosqichlar:		
1. Tayyorlovchi bosqich (1-3 oy): Umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish Qiziqishni uyg'otish va motorikasi rivojlantirish	2. Asosiy bosqich (4-7 oy): Maxsus tayyorgarlikka yo'naltirilgan mashqlarni oshirish Otdagi murakkab texnikaviy mashqlar	3. Nazorat va musobaqa davri (8-9 oy): Maxsus tayyorgarlikning samaradorligini baholash, musobaqalarda ishtirok etish.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida chavandozlarning jismoniy tayyorgarligini samarali rivojlantirish uchun maqsadli va tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy sifatlarni — kuch, chidamlilik, muvozanat va harakatlilikni birgalikda va bosqichma-bosqich rivojlantirish chavandozlik mahoratini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida belgilangan mashqlar kompleksini amaliyotga joriy etish orqali yosh chavandozlarda jismoniy tayyorgarlik darajasining oshishi kuzatildi. Shuningdek, mashg'ulotlarning muntazamligi va individual yondashuv sportchilarning funksional holatini yaxshilashga va jarohatlar xavfini kamaytirishga xizmat qildi.

Xulosa. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida chavandozlarning jismoniy tayyorgarligini tashkil etishda zamonaviy pedagogik va sport metodlarini qo'llash, shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda mashg'ulot dasturlarini tuzish, yuqori natijalarga erishishning kafolatidir. Bunda murabbiy va mutaxassislar zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonuni. -B.29.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 avgustdagi PQ-5211-son "O'zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni 2025 yilgacha rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida" qarori.
3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры (введение в теорию физической культуры; общая теория и методика физического воспитания): учебник для высших заведений физкультурного профиля. – 4-е изд. – М.: Спорт, 2021, - 520 с.
4. Matkarimov R.M., Yoldashov Sh.S. Tanlangan sport turi bo'yicha mutaxassislikka kirish (ot sporti) Darslik – Chirchiq: O'zDJTSU, 2023. 199 b.
5. Мизнер С. Практическое руководство по конному спорту. Том 2. Специализированная подготовка лошадей и всадников (выездка, конкур, троеборье) // Пер. с нем.: И.Л. Коган, - М.: 2015. - 243 с.
6. Micklem William. Complete Horse Riding Manual. DK Publishing, 2012.- 402 p.
7. Нероденко В.В. Конкурная подготовка всадника и лошади в конном спорте. – Киев: Здоровье, 2009. – 208 с.
8. Pavia A., Sand S. Horseback Riding For Dummies. John Wiley & Sons, 2007.-385 p.

9. Платонов В.Н. Двигательные качества и физическая подготовка спортсменов. – М.: Спорт, 2022. - 656 с.
10. Поздняков В.Г. Лошади. Книга 1. М.: ЗАО Центрполиграф, 2002.-730 с.

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' TECHNICAL CREATIVITY

Madaminova Mavjuda Erkinovna

Independent researcher, Fergana State University

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations for developing students' technical creativity. Technical creativity is understood as the ability of young people to form engineering-technical thinking, propose innovative ideas, and implement them in practice. The author theoretically examines the concept of technical creativity, its essential characteristics, stages of development, and its significance in the educational process. The article also explores the potential for fostering students' technical creativity through pedagogical technologies, integrated learning activities, project-based work, and interactive methods. It highlights the importance of factors such as motivation, personal initiative, the creation of problem-based situations, and the encouragement of creative thinking in the development of technical creativity. Based on the research findings, effective methodological recommendations are proposed to enhance the development of technical creativity. This article serves as a valuable theoretical and practical resource for training creative, problem-solving, and innovation-oriented professionals in the higher education system.

Keywords: creativity, inventiveness, innovation, technical creativity, creative activity, technical innovation, technological education.

TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Madaminova Mavjuda Erkinovna

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar texnik ijodkorligini rivojlantirishning nazariy asoslari keng yoritilgan. Texnik ijodkorlik — bu yoshlarning muhandislik-texnik fikrlashini shakllantirish, amaliyotda innovatsion g'oyalarni ilgari surish va ularni hayotga tatbiq eta olish qobiliyatidir. Muallif tomonidan texnik ijodkorlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shakllanish bosqichlari, ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar, integratsiyalashgan o'quv faoliyati, loyihaviy ishlar va interfaol usullar orqali talabalarni texnik ijodkorlikka yo'naltirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada texnik ijodkorlikni rivojlantirishda motivatsiya, shaxsiy faollik, muammoli vaziyatlar yaratish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, texnik ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali uslubiy tavsiyalar ilgari surilgan. Mazkur maqola oliy ta'lim tizimida ijodiy fikrlaydigan, muammolarni mustaqil hal eta oladigan, innovatsion yondashuvga ega kadrlarni tayyorlashda nazariy va amaliy jihatdan muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ijod, ixtirochilik, kreativlik, texnik ijodkorlik, ijodiy faoliyat, texnik kreativlik, texnologik ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N83>

Kirish. Talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantirish uchun boshqalardan farqli o'laroq, qo'shimcha mustaqil izlanishga intilishi, tasavvur va ijodiy qobiliyatlarini kengaytirishga bo'lgan ehtiyoji, tarixiy va zamonaviy adabiyotlarni erkin va ilmiy tahlil qilishga layoqatli bo'lishi, dunyodagi yangiliklardan xabardor bo'lishi, bu borada ommaviy axborot vositalari hamda internet tarmoqlaridan oqilona foydalanishga odatlanishi zarur. Shuningdek, ta'lim

jarayonida erkin fikr yuritishi, yangi bilimlarni qiziqish va ichki ehtiros bilan o'zlashtirishi, o'z faoliyatini muntazam nazorat qilib borishi talab etiladi.

Bizning mualliflik ta'rifimizga ko'ra, texnik ijodkorlik — bu shaxsning muammolarni hal etish va texnologik yechimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ijodiy salohiyatining ifodasidir. Texnik ijodkorlik nafaqat yangi texnologiyalarni yaratishni, balki mavjud texnologik vositalarni yanada samarali va maqbul shaklda qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Har qanday innovatsiyaning asosi aynan texnik ijodkorlikdir.

Innovatsiyalar paydo bo'lishi uchun insonlar ilgari yaratilgan tajribalarni tahlil qilib, undan foydali xulosalar chiqaradi. Masalan, har yili dunyoda minglab yangi qurilmalar, dasturiy mahsulotlar va texnik vositalar paydo bo'ladi. Ular inson hayotini soddalashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va ijodiy ehtiyojlarga mos javob beradi.

Materiallar va metodlar. Ijodkorlik tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra, yangilik yaratish, mavjud tasavvurlardan farqli, original va ahamiyatli obrazlar, g'oyalarni ishlab chiqish bilan bog'liqdir. A.V. Petrovskiy ijodiy tasavvur haqida shunday ta'rif beradi: "Yaratuvchi tasavvur – bu shunchaki yangicha fikrlash emas, balki asl va qimmatli mahsulotlarda ifodalanuvchi yangi tasvirlarni mustaqil ravishda yaratish qobiliyatidir" [3].

Nufuzli tadqiqotchi N. Muslimov esa quyidagi fikrni ilgari suradi: "Rivojlantirish va tarbiya – bu individga nisbatan yagona maqsadga yo'naltirilgan holda ta'sir etadi. Bunda rivojlantirish mavjud sifatlarni takomillashtirishga xizmat qilsa, tarbiya esa jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar asosida hali shakllanmagan sifatlarni vujudga keltirishga qaratiladi" [4]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkin: ijodiy tasavvurni rivojlantirish – bu shaxsning jamiyatda o'z imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishiga xizmat qiluvchi, mavjud bilimlar bazasida yangilik yaratish faoliyatini ifodalaydi.

Texnik ijodkorlik jarayoni bir necha bosqichdan iborat: avval g'oya shakllanadi, keyin esa bu g'oyani aniqlashtirish, loyiha shaklida ifodalash va amaliyotga joriy qilish uchun rejalashtirish bosqichi keladi. So'ngra, eksperimentlar o'tkazish, prototiplar yaratish va ularni sinovdan o'tkazish bosqichlari amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonni muvaffaqiyatli olib borish uchun ta'lim va uzluksiz o'rganish muhim o'rin tutadi. Shaxs o'z qobiliyatlarini kengaytirish maqsadida doimiy ravishda yangi bilimlarni egallashi, zamonaviy metodlarni o'zlashtirishi, amaliy tajriba to'plashi kerak. Shu bilan birga, erkin fikrlash imkonini beruvchi innovatsion muhitni shakllantirish ham muhimdir: masalan, jamoaviy hamkorlikni rag'batlantirish, ochiq muloqot va fikr almashuviga sharoit yaratish kabi.

Texnik ijodkorlik — zamonaviy jamiyatda muhim konsepsiya bo'lib, u insonlarga muammolarni hal qilish imkonini beradi va ilmiy-texnik taraqqiyotning yetakchisidir.[1] Ijodkorlik evaziga biz har kuni yangi g'oyalar bilan yuzma-yuz bo'lamiz; kundalik hayotda turli innovatsiyalarni sinovdan o'tkazamiz va ulardan samarali foydalanamiz. Demak, texnik ijodkorlik nafaqat texnika yoki ilm-fan sohasida, balki hayotning barcha jabhalarida katta ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar. Talabalik davrida kreativlikni rivojlantirishning asosiy jihatlaridan biri — bu davrda yo'naltirilgan kasbiy kreativlik shakllanishidir. Ya'ni, kasbiy faoliyatga intilish motivatsiyasi talaba shaxsining bilim olishdagi faolligini oshiradi, o'z hayot tarzini belgilashga yordam beradi. Har qanday shaxs kasbiy bilimlari ortidan muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shu bois, har bir shaxs o'z kreativlik salohiyatini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatini shakllantirishi va takomillashtirishi zarur.

Talabalar bu kabi tajribalarni oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olish jarayonida o'zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradilar. Shu bois, ta'lim jarayonida faqat nazariy bilimlar emas, balki kasbiy kompetensiyalarni ham egallash, shaxsiy kreativ salohiyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ijodiy faoliyatni shakllantirish va ijodkor shaxsni tarbiyalash bosqichlarini Sh.S. Sharipov psixofiziologik asosda bir necha bosqichga ajratadi. Unga ko'ra, birinchi bosqich — havas bo'lib, ehtiyojning eng oddiy shakli sanaladi va ongli ravishda boshqariladi. Ikkinchi bosqich — xohish, u ham ongli tarzda shakllanadi va shaxsning narsa yoki hodisaga bo'lgan ijobiy munosabatini bildiradi. Uchinchi bosqich — qiziqish bo'lib, xohish va unga doir tushunchalarning birikmasi asosida yuzaga keladi. Qiziqish hayotdagi tashqi ta'sirlar, shaxsiy faoliyat hamda ta'lim-tarbiya jarayonining natijasida shakllanadi.[2]

Bunday jarayonlarda diqqat, idrok, xotira, fikrlash, tasavvur, sezgi va iroda kabi psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Zehnli, topqir, sinchkov, izlanuvchan, faol shaxslar mustaqil va ijodiy faoliyatga tayyor bo'ladi. Ta'lim jarayonining aynan shunday asosda tashkil etilishi pedagog va talaba o'rtasidagi muloqotni individual va differensial yondashuv asosida amalga oshiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni talab etadi.

Pedagogik innovatsiyalarning samarali joriy etilishi uchun ijodiy faoliyatning turli yo'nalishlaridan foydalanish muhim:

- Ma'naviy ijodkorlik — bu pedagog va talaba o'rtasida axloqiy-ruhiy sohada yangi sifat ko'rsatkichlariga erishishni ko'zlovchi noyob yondashuv;
- Didaktik ijodkorlik — bu o'quv materiallarini tanlash, loyihalashtirish va yangi o'zlashtirish usullarini ishlab chiqishga asoslangan ijodiy faoliyat turi;
- Texnologik ijodkorlik — bu pedagogik jarayonni to'liq qamrab oluvchi, yangi tizimlar, metod va texnikalarni ishlab chiqish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi murakkab faoliyat turi;
- Tashkiliy ijodkorlik — bu rejalashtirish, nazorat qilish, resurslarni safarbar etish, tashqi muhit bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va boshqaruv jarayonlarida yangi yondashuvlarni joriy etishni o'z ichiga oladi.[5]

Shu nuqtai nazardan, bizning tadqiqotimizda pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvni joriy etishda aynan didaktik va tashkiliy ijodkorlik elementlariga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ijodiy faoliyatda insonning nafaqat aqliy va psixologik, balki madaniy, estetik va axloqiy xususiyatlari ham muhim omil hisoblanadi.

Angliyalik olim Hayes shunday fikr bildiradi: "Ijodkor va oddiy inson o'rtasida keskin kognitiv tafovut yo'q. O'rtachadan yuqori intellekt va zarur ko'nikmalarga ega inson buyuk asar yaratishga qodir. "Shundan xulosa qilish mumkinki, aslida har birimizda ijodiy faoliyatga zarur bo'lgan salohiyat mavjud. Faqatgina boy tasavvur, mustahkam intilish va maqsadga yo'naltirilgan mehnat orqali bu salohiyatni yuzaga chiqarishimiz mumkin.[6]

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ijodiy faoliyatning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijodiy tasavvur qilish – bu jarayonning asosiy omillaridan biridir. Chunki aynan ijodiy tasavvur orqaligina voqelikning yangi va muhim jihatlarini anglash, kashf etish imkoniyati yuzaga keladi.

Tahliliy yondashuvlar va ilmiy-tadqiqot natijalarining konseptual hamda empirik asoslari shuni ko'rsatadiki, talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantirishda quyidagi tarkibiy omillar muhim o'rin tutadi:

- Talabaning kasbiy faoliyatiga nisbatan pedagogik-psixologik yo'naltirilganligi, o'z bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llashga tayyorligi, bo'lajak kasbiy muvaffaqiyatlarga intilish ehtiyoji bilan bog'liq motivatsion-axloqiy komponent;
- Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajasi, shaxsning bilish faoliyati, mustaqilligi, nostandart tafakkur tarzi va ijodiy fantaziyasini shakllantiruvchi kognitiv komponent;
- Kasbiy faoliyatda o'zini rivojlantirish, bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish, muammoli vazifalarni ijodiy hal etish, faoliyat natijalarini tahlil qilish va baholashga asoslangan amaliy faoliyat komponenti, bu esa o'z navbatida zamonaviy va ijodiy ta'lim muhiti mavjud bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:[4]

- Ta'lim jarayonida talabani faoliyat subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish;
- Mavjud bilimlar asosida ichki mantiqiy aloqalarni ko'ra olishni ta'minlovchi didaktik vositalarni loyihalash va amaliyotga tatbiq qilish;
- Auditoriyada talabalarining bilish faoliyati, fikr almashinuvi va erkin ijodiy fikrlash imkoniyatini yuzaga keltiruvchi ta'lim muhitini yaratish;
- Professor-o'qituvchilarning interfaol o'qitish uslublari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyasini oshirish.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnik ijodkorlikni rivojlantirish mazmuni, asosan, ularning ijodiy qobiliyatlarini harakatga keltirish, faollashtirish va takomillashtirish jarayonlariga yo'naltiriladi. Talabalarining kreativ salohiyati darajasini belgilovchi mezonlar asosida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:[7]

1. *Moslashuv bosqichi* – odatda birinchi va ikkinchi bosqich talabalarini qamrab oladi. Bu davrda talaba yangi ijtimoiy rolni anglaydi va bu jarayon pedagogik faoliyatga barqaror munosabat shakllanishi, kasbiy vazifalarni tushunib yetish bilan tavsiflanadi. Shu sababli aynan ushbu bosqich – kommunikativ, perspektiv hamda ilmiy-bilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng maqbul davr hisoblanadi.

2-bosqich (reproduktiv-ijodiy bosqich)

Mazkur bosqich oliy ta'lim muassasalarining ikkinchi kurslarini qamrab oladi va talabani ta'lim-tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanish intilishi asosida shakllanadi. Bu davrda talabada pedagogik voqelikka nisbatan barqaror qadriyatli munosabat vujudga keladi. Psixologik-pedagogik bilimlarning ahamiyati ortadi va pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirishga intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Talabalar o'qituvchini o'zlarining kasbiy hamkorlari sifatida qabul qila boshlaydilar.

Mazkur bosqichda pedagogik faoliyatning umumiy maqsad va vazifalari belgilangan bo'lsada, bu faoliyatning aniq yo'nalishi va mezonlari hali shakllanmagan bo'ladi. Reproduktiv faoliyat doirasida ijodiy faollikning namoyon bo'lishi, asosan, tashkiliy, surgestiv, ekspressiv va tadqiqotchilik qobiliyatlari asosida shakllanadi hamda rivojlanadi. Bu esa ijodiy potensialning muayyan asosda rivoj topishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

3-bosqich (ijodiy-reproduktiv bosqich)

Bu bosqich oliy ta'lim muassasasining uchinchi kursini qamrab oladi. Talabalarining bu davrdagi asosiy xususiyatlari ularning shakllangan pedagogik idealga muvofiq bo'lishga

intilishida namoyon bo'ladi. Ular nazariy va amaliy faoliyat davomida yuzaga keladigan axborot-tahliliy, baholash, konstruktiv va prognostik muammolarni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Ijodiy faoliyat bu bosqichda standart pedagogik vaziyatlarda yangi yondashuvlar, yangicha yechimlar topishga qaratilgan bo'lib, reproduktiv xarakterga ega. Mazkur davrda talabada didaktik, tashkiliy va ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi uchun optimal sharoitlar yaratiladi.

4-bosqich (ijodiy bosqich)

Bu bosqich oliy ta'lim muassasasining to'rtinchi kursini o'z ichiga oladi va ijodiy qobiliyatlarni cheksiz rivojlantirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu davr kasbiy faoliyatning maqsadi, yo'nalishi va usullarini anglab yetish, psixologik-pedagogik bilimlarning moslashuvchanligi (mobilligi) bilan tavsiflanadi. Talaba yangi ta'lim va tarbiya texnologiyalarini izlab topish, ularni amaliyotga joriy etishga doimiy intiladi.

Ijodiy faollik turli shakllarda namoyon bo'ladi, jumladan, pedagogik improvizatsiya, pedagogik intuitsiya va boshqalar ko'rinishida. Bu esa kasbiy o'sish va ijodiy yondashuvlarni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish metodlari va shakllari

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishning umumiy metodlarini aniqlash, tadqiq qilinayotgan muammoni ilmiy asosda anglash zaruratini bildiradi. Bu jarayonda biz "umumiy metodlar" ostida talaba faoliyatini pedagogik boshqarish usullarini tushunamiz. Bular bilimga oid, mehnatga oid, ijtimoiy, axloqiy, o'yinli, sportga oid, badiiy-estetik, ekologik va boshqa yo'nalishlardagi metodlardir.

Ushbu metodlar talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan moddiy va ma'naviy madaniyat vositalari sifatida namoyon bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida ushbu jarayon tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanganligi sababli, tarbiya metodlarining yangicha asosda tasnifi amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonda ta'sirchanlikka ega bo'lgan asosiy uch guruh metodlarni ajratish mumkin.

Faoliyat shakllari

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida foydalaniladigan shakllar ikki turga bo'linadi:

1. *Auditoriya mashg'ulotlari shakllari* – muammoli ma'ruzalar, muammoli seminarlar va boshqalar.
2. *Auditoriyadan tashqari shakllar* – evristik suhbatlar, ko'rgazmalar, tanlovlar, badiiy ijod, ekskursiyalar, turli mehnat turlari va h.k.

Bunda bir shakl turli vositalar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanishi mumkin. Masalan, konferensiya – bu shakl bo'lib, u filologik, pedagogik, matematik va boshqa vositalar bilan birlashtiriladi. Aksincha, bir vosita asosida turli tadbir shakllari tashkil etilishi mumkin – masalan, ko'rgazma, tanlov, to'garak va boshqalar.

Shakl va vositalarning to'g'ri tanlanishi kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini samarali va optimallik bilan boshqarish imkonini beradi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida muammo bo'yicha mavjud ilmiy manbalarning tahlili quyidagi holatlarni aniqlash imkonini berdi:

1. Talabalarning kasbiy-shaxsiy shakllanishi bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, aynan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan mustaqil

- ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan. Bu esa muammoning dolzarbligini va ilmiy o'rganish zaruriyatini ko'rsatadi.
2. Xorijdagi va mamlakatimizdagi pedagog hamda psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda "kreativlik" atamasi ko'pincha "ijodkorlik" yoki "pedagogik ijodkorlik" tushunchalari bilan sinonim tarzida talqin etilgan. Biroq, kreativlikning o'ziga xos mohiyati, ya'ni u ijodkorlikning tarkibiy elementi yoki boshlang'ich bosqichi ekani to'g'risida yetarlicha asoslangan ilmiy mulohazalar mavjud emas.
 3. Ayniqsa, talabalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi mustaqil tadqiqot obyekti sifatida chuqur o'rganilmagan. Bu holat, o'z navbatida, talabalarda kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ijodiy qobiliyatlar tuzilmasini ishlab chiqish, interfaol ta'lim metodlari va innovatsion pedagogik texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali ushbu jarayon samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks pedagogik tizimni amaliyotga joriy etish zarurligini asoslaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan.dok.diss. – Toshkent: TDPU, 2012. – B. 38.
2. Hayes J. Cognitive processes in creativity. In J.Glover, R.Ronning, C.Reynolds, Handbook of creativity, - New York: Plenum, 1989.
3. Петровский А.В. сост. [Мироненко](#) В.В. Хрестоматия по психологии: учебное пособие / – Москва: Просвещение, 2007. – -Б.345.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2007. – B. 61.
5. Runco, Mark A. *Creativity: Theories and Themes—Research, Development, and Practice*. Academic Press, 2007.
6. Torrance, E. Paul. *Guiding Creative Talent*. Prentice-Hall, 1962.
7. Guilford, J.P. "Creativity." *American Psychologist*, vol. 5, no. 9, 1950, pp. 444–454.

Received: 16 May 2025

Accepted: 1 June 2025

Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS IN DETERMINING THE ACCELERATION OF GRAVITY BY A PHYSICAL PENDULUM

Kamalova Dilnavoz Ikhtiyorovna

Doctor of Technical Sciences, DSc

NavSU Professor of the Department of Physics and Astronomy

Sattorova Aziza

PhD student at Navoi State University

Abstract. This article describes an experiment to determine the acceleration of free fall – the acceleration of gravity “g” using a physical pendulum. The work analyzes various methods for increasing accuracy, taking into account the oscillation period, the distance from the axis of rotation and the moment of inertia. In particular, factors such as reducing measurement errors, experimental repeatability, statistical approach and selection of optimal pendulum shapes are considered. The value of “g” determined based on the experimental results is compared with the theoretical value and the reliability of the experimental results is analyzed. This approach is important in developing scientific experiment skills and improving measurement culture in students.

Keywords: physical pendulum, acceleration of gravity, accuracy, measurement errors, experiment, moment of inertia.

FIZIKAVIY MAYATNIK ORQALI OG'IRLIK KUCHI TEZLANISHINI ANIQLASHDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna

Texnika fanlari doktori, DSc

NavDU “Fizika va astronomiya” kafedrası professorı

Sattorova Aziza Maxmudjonovna

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: azizasattorova1991@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada fizikaviy mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishi — og'irlik kuchi tezlanishi “g” ni aniqlash tajribasi bayon etilgan. Ishda tebranish davri, aylanish o'qi masofasi va inersiya momenti hisobga olingan holda aniqlikni oshirishga doir turli metodlar tahlil qilinadi. Jumladan, o'lchov xatolarini kamaytirish, tajriba takroriyiligi, statistik yondashuv va optimal mayatnik shakllarini tanlash kabi omillar ko'rib chiqiladi. Tajriba natijalari asosida aniqlangan “g” qiymati nazariy qiymat bilan taqqoslanadi hamda eksperimental natijalarni ishonchliligi tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv talabalarda ilmiy tajriba o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirish va o'lchov madaniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: fizikaviy mayatnik, og'irlik kuchi tezlanishi, aniqlik, o'lchov xatolari, tajriba, inersiya momenti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N84>

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash, ilmiy tajriba asosida fizikaning fundamental qonuniyatlarini anglashlariga erishish dolzarb

vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, fizikaviy mayatnik bilan og'irlik kuchi tezlanishini aniqlash tajribasi talabalar uchun nafaqat fizika qonunlarini amalda tasdiqlash, balki eksperimental faoliyat orqali muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash va ilmiy mulohaza yuritish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi [1; 15775-15777].

Fizikaviy mayatnik — qattiq jismning muayyan aylanish o'qiga nisbatan tebranishi bilan bog'liq fizik model bo'lib, uning tebranish davri jismning massasi, uzunligi, og'irlik markazi va inersiya momenti kabi parametrlariga bog'liq. Shu orqali Yerning tortishish kuchi — og'irlik kuchi tezlanishi “g” ni aniqlash mumkin. Ushbu tajriba orqali talabalar nafaqat fizik formulalarni qo'llashni, balki real fizikaviy o'lchovlarda aniqlikka erishish, xatoliklarni tahlil qilish va zarur sharoitlarni tanlashni ham o'rganadilar. [2]

Ta'limda kompetentlik yondashuvi asosida tashkil etilgan laboratoriya ishlari, xususan, fizikaviy mayatnik bilan ishlash, talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- **Maxsus kompetensiya** – mexanik harakat, aylanish dinamikasi va tebranishlar nazariyasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish;
- **Kasbiy kompetensiya** – eksperimental o'lchov usullarini to'g'ri tanlash, tajribani to'g'ri tashkil qilish va natijalarni tahlil qilish;

Mazkur maqolada fizikaviy mayatnik yordamida og'irlik kuchi tezlanmasini aniqlash usuli, tajribaning nazariy asoslari, tajriba shart-sharoitlari, aniqlikni oshirish yo'llari va natijalarni tahlil qilish bosqichlari yoritiladi. Shuningdek, ushbu tajribaning talabalarda fizik tafakkur va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni ham alohida ko'rib chiqiladi.

Fizikada harakatning tebranish turi muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, mexanik tebranishlarning turli modellari — oddiy mayatnik, fizik mayatnik kabi sistemalar orqali kinematik va dinamik xususiyatlar chuqur o'rganiladi. Shulardan fizikaviy mayatnik (yoki aylanuvchi mayatnik) aynan real jismning aylanish o'qiga nisbatan tebranma harakatini o'rganish uchun xizmat qiladi. Bunday sistemalar oddiy matematik mayatniklarga qaraganda ancha murakkab bo'lib, ularning harakatida jismning inersiya momenti, massa taqsimoti va og'irlik markazining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi [3; 176-182].

Fizikaviy mayatnik modeli qadimdan foydalanilgan. Galileo Galiley va keyinchalik Gyugenslar tebranishlar nazariyasining asoschilaridan hisoblanadi. XIX asrga kelib, bu model Yerning tortishish kuchini aniqlashda ancha aniq natijalar beruvchi vosita sifatida tan olingan. Hozirgi kunda esa, laboratoriya sharoitida talabalar tomonidan fizik qonuniyatlarni mustahkamlash, fizik konstantalarni eksperimental aniqlash hamda tajriba metodikasini o'zlashtirish maqsadida keng qo'llaniladi.

Yer sirtiga yaqin joylarda erkin tushish tezlanishi $g \approx 9,80 \frac{m}{s^2}$ deb qabul qilinadi. Bu qiymat joyga bog'liq bo'lib, balandlik, kenglik va geologik sharoitlarga qarab farqlanishi mumkin. Shuning uchun, ushbu qiymatni mustaqil tajribalar orqali aniqlash — nafaqat fizik qonuniyatlarni tasdiqlash, balki o'lchov usullari va natijalarning ishonchliligini tahlil qilish uchun ham muhimdir [3].

Biroq, eksperimental fizikada eng katta e'tibor aniqlik va ishonchlilikka qaratiladi. Har qanday o'lchov o'zida xatoliklarni mujassam etadi. Ayniqsa, fizikaviy mayatnik bilan tajriba o'tkazishda vaqtni aniq o'lchash, aylanish o'qining jism markaziga nisbatan to'g'ri joylashuvi, havoning ta'siri, tebranish amplitudasi kabi omillar aniqlikka sezilarli ta'sir qiladi.

Mazkur maqola aynan shu jihatlarni — ya'ni fizikaviy mayatnik yordamida og'irlik kuchi tezlanishini aniqlashda aniqlikni oshirish metodlarini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida o'lchov usullari, hisoblash formulalari, tajriba xatoliklarini tahlil qilish va optimallashtirish yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari o'quv tajribalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi [4; 176-182].

Metodika

Ushbu tajribaning maqsadi — fizikaviy mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishi “g” ni aniqlash va o'lchov aniqligini oshirish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat. Buning uchun soddalashtirilgan fizikaviy mayatnik sifatida bir jinsli halqa tanlandi. Halqa aylanish o'qiga nisbatan muayyan masofada shtativ yordamida osib qo'yiladi va tebranishga keltiriladi [5; 7-15].

Ishlatilgan jihozlar: Shtangensirkul, bir jinsli halqa, tebranishlar sonini o'lchash uchun sekundomer, shtativ va mustahkam tayanch.

Nazariy qism

Agar har qanday jism og'irlik markazidan o'tmagan gorizontal o'qqa osib qo'yilsa, og'irlik markaziga qo'yilgan M moment ta'sirida tebranma harakat qiladi.

$$M = mgl \sin \varphi$$

$$P = mg$$

Yuqorida ko'rsatilgandek, mahkamlangan “M” moment ta'sirida tebrana oladigan qattiq jism Fizik mayatnik deyiladi.

Fizikaviy mayatnik uchun asosiy tebranish davri formulasi quyidagicha:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{I}{mgl}} \quad (1)$$

Bu yerda I – inersiya momenti, l – og'irlik markazi bilan jism osilgan o'q orasidagi masofa, m – mayatnik massasi, g – og'irlik kuchi tezlanishi.

(1) dan “g” ni topaylik,

$$g = \frac{4\pi^2 I}{mgl} \quad (2)$$

Tebranayotgan jism halqalardan iborat bo'lsa, R_1 – ichki radius, R_2 – tashqi radius. Yassi halqaning og'irlik markaziga nisbatan inersiya momenti

$$I_c = \frac{1}{2} m(R_1^2 + R_2^2) + mR_1^2 = \frac{1}{2} m(3R_1^2 + R_2^2) \quad (3)$$

bo'ladi.

Shteyner teoremasi muvofiq ixtiyoriy tebranish o'qiga nisbatan olingan inersiya momenti “I” bilan jism massasi og'irlik markazidan tebranish o'qiga bo'lgan masofa kvadratining yig'indisiga teng:

$$I = I_c + mR_i^2$$

“I” ning qiymatini (2) ga qo'yib,

$$g = \frac{2\pi^2(3R_1^2 + R_2^2)}{R_1 T^2} \quad (4)$$

Agar mayatnik ingichka halqa shaklida bo'lsa, uning inersiya momenti quyidagi formula orqali topiladi:

$$I = \frac{1}{2} m(R^2 + r^2)$$

bu yerda: R – halqaning tashqi radiusi (m), r – halqaning ichki radiusi (m).

Ishni bajarish tartibi [6;75-78]

1. Qurilmalarni tayyorlash
- ✓ Fizik mayatnik sifatida temir halqa olinadi.
- ✓ Mayatnik erkin osilish holatiga o'rnatiladi, ya'ni u bir tekis tebranadigan qilib mahkamlanadi.
2. Tajriba o'tkazish [7]
1. Halqaning tashqi radiusi R va ichki radiusi r o'lchanadi.
2. Halqaning massasi m aniqlanadi.
3. Massalar markazining aylanish o'qidan uzoqligi h hisoblanadi.
4. Mayatnikning 3 ta to'liq tebranish vaqtini (t_3) o'lchash uchun sekundomer ishlatiladi.
5. Bitta tebranish davri quyidagicha aniqlanadi:

$$T = \frac{t_3}{3}$$

6. Mayatnikning inersiya momenti hisoblanadi:

$$I = \frac{1}{2}m(R^2 + r^2)$$

7. Og'irlik kuchi tezlanishi hisoblanadi:

$$g = \frac{4\pi^2 I}{m h T^2}$$

Quyidagi jadval to'ldiriladi:

1-jadval

Nº	$N(ta)$	$t (s)$	$T(s)$	$g (m/s^2)$	$\bar{g}(m/s^2)$	$\overline{\Delta g}(m/s^2)$	$\varepsilon (\%)$
1							
2							
3							

Laboratoriya ishidan olingan natijalar:

$$R_1 = 6,6 \cdot 10^{-2} m, \quad R_2 = 67,5 \cdot 10^{-2} m$$

$$\alpha = \frac{2\pi^2(3R_1^2 + R_2^2)}{R_1} = \frac{2 \cdot 9,86(3 \cdot (6,6 \cdot 10^{-2})^2 + (7,5 \cdot 10^{-2})^2)}{6,6 \cdot 10^{-2}} = 5,58$$

1-tajriba

$$N_1 = 5 \text{ ta}$$

$$t_1 = 3,75 \text{ s}$$

$$T_1 = \frac{t_1}{N_1} = \frac{3,75}{5} = 0,75s$$

$$g_1 = \frac{\alpha}{T_1^2} = \frac{5,58}{0,75^2} = 9,92 \frac{m}{s^2}$$

2-tajriba

$$N_2 = 10 \text{ ta}$$

$$t_2 = 7,36 \text{ s}$$

$$T_2 = \frac{t_2}{N_2} = \frac{7,36}{10} = 0,736s$$

$$g_2 = \frac{\alpha}{T_2^2} = \frac{5,58}{0,736^2} = 10,3 \frac{m}{s^2}$$

3-tajriba

$$N_3 = 15 \text{ ta}$$

$$t_3 = 11,5 \text{ s}$$

$$T_3 = \frac{t_3}{N_3} = \frac{7,36}{10} = 0,736s$$

$$g_3 = \frac{\alpha}{T_3^2} = \frac{5,58}{0,776^2} = 9,66 \frac{m}{s^2}$$

$$\bar{g} = \frac{g_1 + g_2 + g_3}{3} = \frac{9,92 + 10,3 + 9,66}{3} = 9,96 \frac{m}{s^2}$$

$$\Delta g_1 = |\bar{g} - g_1| = |9,96 - 9,92| = 0,04 \frac{m}{s^2}$$

$$\Delta g_2 = |\bar{g} - g_2| = |9,96 - 10,3| = 0,34 \frac{m}{s^2}$$

$$\Delta g_3 = |\bar{g} - g_3| = |9,96 - 9,66| = 0,3 \frac{m}{s^2}$$

$$\bar{g} = \frac{\Delta g_1 + \Delta g_2 + \Delta g_3}{3} = \frac{0,04 + 0,34 + 0,3}{3} = 0,226 \frac{m}{s^2}$$

$$\varepsilon = \frac{\Delta \bar{g}}{\bar{g}} \cdot 100\% = \frac{0,226}{9,96} \cdot 100\% = 2,27\%$$

Endi esa olingan natijalarni jadvalga kiritamiz

№	$N(ta)$	$t(s)$	$T(s)$	$g(m/s^2)$	$\bar{g}(m/s^2)$	$\Delta \bar{g}(m/s^2)$	$\varepsilon(\%)$
1	5	3,75	0,75	9,92	9,96	0,226	2,27
2	10	7,36	0,736	10,3			
3	15	11,5	0,76	9,66			

Xulosa. Mazkur tadqiqotda fizikaviy mayatnik yordamida og'irlik kuchi tezlanishi "g" ni aniqlash tajribasi o'tkazildi va hisoblashlar natijasida olingan qiymat nazariy qiymatdan sezilarli farq qilishi mumkinligi aniqlashtirildi. Bu farq, birinchi navbatda, tebranish davrini o'lchashdagi noaniqliklar, amplitudaning katta bo'lishi, aylanish o'qining aniqligi va boshqa omillar bilan bog'liq.[8;15-18]

Tajriba davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Fizikaviy mayatnik orqali "g" ni aniqlash — ilmiy va metodik jihatdan ahamiyatli laboratoriya ishi bo'lib, fizik qonuniyatlarni tajriba asosida isbotlash imkonini beradi;
- Aniqlikni oshirish uchun kichik amplitudali tebranishlar, ko'proq takroriy o'lchovlar, video yoki raqamli vositalar yordamida vaqtni o'lchash tavsiya etiladi;
- Mayatnikning geometrik shakli va aylanish o'qining to'g'ri joylashuvi tajriba natijalarining ishonchliligiga bevosita ta'sir qiladi;
- Ushbu laboratoriya ishi talabalarda eksperimental fizikaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, o'lchov madaniyatini shakllantirish, va ilmiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu tajriba loyihaviy-tadqiqot ishlari ko'rinishida kengaytirilishi, turli materiallardan tayyorlangan mayatniklar asosida qiyosiy tahlillar olib borilishi mumkin.

Mazkur metodika talabalarda:

- ✓ Fizik qonuniyatlarni mustaqil kashf etish,
- ✓ Amaliy o'lchovlar orqali nazariyani tasdiqlash,
- ✓ Matematik modellash va analitik fikrlash,
- ✓ Tajribadan xulosa chiqarish, xatoliklarni aniqlash va minimallashtirish,
- ✓ Hamkorlikda ishlash va ilmiy taqdimot qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi[9].

Bundan tashqari, bu metodikaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Didaktik moslashuvchanlik – tajriba umumiy o'rta ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda o'tkazilishi mumkin. Qurilma oddiy, arzon va har qanday sharoitda qo'llanilishi mumkin.
2. Aniqlikni oshirish imkoniyati – tebranishlar sonini ko'paytirish, video yoki raqamli vositalar yordamida vaqtni o'lchash, kichik amplituda sharoitida tajriba o'tkazish orqali o'lchov aniqligi sezilarli darajada oshiriladi.
3. Ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish – talabalar fizikaviy mayatnik parametrlarini o'zgartirib, mustaqil izlanish olib borish, gipotetik savollar qo'yish va ularni eksperiment orqali sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar.
4. Talabaning shaxsiy o'sishiga ta'siri – bu metodika orqali talaba tajriba qilish, xatoga yo'l qo'yish, uni aniqlash va tuzatish jarayonida o'zining tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.[10;163-164]

Shu boisdan, fizikaviy mayatnik asosida og'irlik kuchi tezlanmasini aniqlash laboratoriya mashg'uloti nafaqat fundamental fizik bilimlarni egallashda, balki XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda ham samarali uslub hisoblanadi. Kelgusida ushbu tajribani raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, datchiklar (sensorlar), mobil ilovalar va raqamli platformalar orqali avtomatlashtirilgan tahlilga o'tkazish imkoniyatlari mavjud. Bu esa o'quv jarayonini yanada zamonaviy, interaktiv va natijaviy qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. A.M.Sattorova. "Methods of Improvement and Implementation of the Educational Purpose in the Lessons of Physics". "International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology". Vol. 7. Issue 11. November 30. 2020. pp. 15775-15777.
2. D.I.Kamalova va b. "Matematik amallar yordamida fizika fanini o'qitish metodikasi" elektron o'quv qo'llanmasi. №DGU 11713. 30.06.2021.
3. D.I.Kamalova va b. "Umumiy fizika fanidan laboratoriya ishlari" (Mexanika). O'quv qo'llanma. Ro'yxatga olish raqami №233-0115. 2022.
4. A.M.Sattorova. "The role of logical quality issues in the development of thinking skills in practical training in physics". "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. №12. 2024. 176-182 betlar.
5. A.M.Sattorova " "Matematik mayatnik yordamida og'irlik kuchi tezlanishini aniqlash" mavzusini o'qitishda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ". "Ta'lim, fan va innovatsiya" №1.2025. 7-15 betlar
6. D.I.Kamalova va b. "Mexanika va molekulyar fizika". Darslik. Ro'yxatga olish raqami №302-0754. 2022.
7. A.M.Sattorova "Fizik praktikum" elektron darsligi (1-qism) DGU 50210. 30.04.2025
8. D.I.Kamalova va b. "Fizika fanidan maktab laboratoriya mashg'ulotlari" (7-9 sinf, 10-11 sinf). Uslubiy qo'llanma. Dekabr. 2022.
9. D.I.Kamalova va b. "Fizika fanini o'qitishda zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanishni takomillashtirish" elektron darsligi. №DGU 29606. 21.11.2023.
10. A.M.Sattorova "Fizik praktikum" fanini o'qitishda muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish hamda uning talabalar kasbiy kompetentligiga ta'siri" (4-5 aprel 2025 yil, 163-164 betlar)

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

MODERN MODELS OF CAREER GUIDANCE

Sobirova Saida Otabekovna

Master's student at Urgench Ranch Technology University

E-mail: saidasobirova0405@gmail.com

Abstract. The article focuses on analyzing modern models of career guidance, exploring advanced global practices, and scientifically evaluating their applicability in the context of Uzbekistan. The study employs methods of statistical analysis, comparative approaches, and examination of international experiences. The aim of the article is to provide scientifically grounded and practical recommendations for developing effective strategies to align labor market demands with the professional opportunities of youth.

Keywords: career guidance, modern models, digital technologies, psychological approach, integrative education, labor market, youth employment, education system, social factors, collectivist culture.

KASBGA YO'NALTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI

Sobirova Saida Otabekovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola kasbga yo'naltirishning zamonaviy modellarini tahlil qilish, jahondagi ilg'or tajribalarni o'rganish va O'zbekiston sharoitida ularni qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asosda baholashga qaratilgan. Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy yondashuv va xorijiy tajribalarni o'rganish usullari qo'llaniladi. Maqolaning maqsadi – mehnat bozori talablari va yoshlarning kasbiy imkoniyatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy va amaliy tavsiyalar taqdim etishdan iborat.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, zamonaviy modellar, raqamli texnologiyalar, psixologik yondashuv, integratsion ta'lim, mehnat bozori, yoshlar bandligi, ta'lim tizimi, ijtimoiy omillar, kollektivistik madaniyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N85>

Kirish. Zamonaviy dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar ta'sirida mehnat bozori dinamik ravishda rivojlanmoqda. Kasbga yo'naltirish tizimi yosh avlodni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, global raqobatbardoshlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiy forumining (WEF) 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, 2030-yilga kelib mehnat bozorida kasblarning 65 foizi avtomatlashtirish va sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida tubdan o'zgaradi yoki yangidan shakllanadi [*World Economic Forum (2023)*]. Bu esa kasbga yo'naltirishning zamonaviy modellarini ishlab chiqish va joriy etishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Mavzuning dolzarbligi nafaqat global tendensiyalar bilan, balki O'zbekistonning iqtisodiy modernizatsiya va raqamlashtirish jarayonlari bilan ham chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda yoshlar bandligini ta'minlashda kasbiy ta'lim va yo'naltirish tizimining samaradorligini oshirish strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [*O'zbekiston*

Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (2024)]. Shu bilan birga, BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) doirasida ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka qaratilgan sinergetik yondashuvlar dunyo bo'ylab inson resurslarini rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Xususan, SDG 4 (Sifatli ta'lim) va SDG 8 (Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish) maqsadlari kasbga yo'naltirishning innovatsion modellarini joriy etishni taqozo etadi [*United Nations (2015)*].

Kasbga yo'naltirishning zamonaviy modellarini o'rganish ilmiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar yoshlarning kasbiy qiziqishlari va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining 2023-yilgi "Cedefop" hisobotida ta'kidlanishicha, kasbga yo'naltirishda individual yondashuv va raqamli texnologiyalardan foydalanish yoshlarning mehnat bozoridagi muvaffaqiyatini 30 foizga oshirishi mumkin [*Cedefop (2023)*]. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda kasbga yo'naltirish tizimining samaradorligini oshirish uchun xorijiy tajribalarni sinchkovlik bilan o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish zarur.

Adabiyotlar tahlili. Kasbga yo'naltirishning zamonaviy modellari so'nggi yillarda global ta'lim va mehnat bozori tadqiqotlari doirasida muhim o'rin tutmoqda. Tez sur'atlarda rivojlanayotgan texnologiyalar, iqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy dinamika kasbiy tanlov va tayyorgarlik jarayonlariga yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu adabiyotlar sharhi so'nggi besh yil (2020–2025) ichida nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari, amaliy modellar, raqamli texnologiyalarning ta'siri, shuningdek, global va mahalliy kontekstdagi muammolar va yechimlarni o'rganadi.

Nazariy asoslar va zamonaviy yondashuvlar

Kasbga yo'naltirishning zamonaviy modellari ko'pincha psixologik, sotsiologik va iqtisodiy nazariyalarga asoslanadi. "Journal of Vocational Behavior" jurnalida chop etilgan maqolada kasbiy rivojlanishning hayot davomidagi modelini zamonaviy sharoitlarga moslashtirib, yoshlarning kasbiy tanlovida shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy ta'sirlar muhimligini ta'kidlanadi [*Super (2020)*]. Shu bilan birga, "Career Development Quarterly" jurnalida ijtimoiy-kognitiv karyera nazariyasini (SCCT) rivojlantirib, o'z-o'ziga ishonch va mehnat bozori imkoniyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qildi [*Lent & Brown (2021)*]. Ushbu tadqiqotlar kasbga yo'naltirishda individual va kontekstual omillarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

"British Journal of Guidance & Counselling" jurnalida karyera konstruktivizmi yondashuvini taklif qilib, shaxsning o'z hayotiy hikoyasini yaratish orqali kasbiy yo'lni belgilashini ilgari surdi [*Savickas (2022)*]. Bu model ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida moslashuvchanlik va ijodkorlikni talab qiluvchi kasblar uchun dolzarb hisoblanadi. Shu kabi, "Journal of Career Assessment" jurnalida kasbiy identifikatsiya jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasi va ijtimoiy muhitning ta'sirini o'rgandi, bu esa kasbga yo'naltirishda kompleks yondashuv zarurligini tasdiqladi [*Hirschi (2023)*].

Raqamli texnologiyalar va innovatsion modellar

Raqamli texnologiyalar kasbga yo'naltirishda muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi. "Journal of Education and Work" jurnalida onlayn platformalar va sun'iy intellekt asosidagi kasbiy maslahat tizimlarining samaradorligini tahlil qilib, ularning yoshlarga moslashuvchan

va shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatishini ta'kidladi [Hooley & Staunton (2020)]. Shu bilan birga, "European Journal of Education" jurnalida virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining kasbiy ta'limda qo'llanilishi bo'yicha tajribalarni umumlashtirdi [Cedefop (2023)]. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, VR asosidagi simulyatsiyalar o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini 25% ga oshirishi mumkin.

"International Journal for Educational and Vocational Guidance" jurnalida raqamli karyera xizmatlarining global tendensiyalarini o'rganib, ularning ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi rolini ta'kidladi [Bimrose et al. (2021)]. Albatta, Erkinov (2025) "Ilm fan taraqqiyoti" jurnalida O'zbekistonda 3D modellashtirish va kompyuter simulyatsiyalarining muhandislik ta'limida qo'llanilishi haqida yozdi, bu esa mahalliy kontekstda raqamli yondashuvlarning potentsialini ko'rsatadi.

Global va mahalliy kontekstda muammolar

Kasbga yo'naltirish tizimlari turli mamlakatlarda o'ziga xos muammolarga duch kelmoqda. "Journal of Vocational Behavior" jurnalida rivojlanayotgan mamlakatlarda kasbga yo'naltirishning moliyaviy va infratuzilmaviy cheklovlarini tahlil qilib, davlat-xususiy hamkorliklarning ahamiyatini ta'kidlanadi [Gati & Kulcsar (2021)]. O'zbekiston kontekstida "Maktab va hayot" jurnalida ta'limdagi integrativ yondashuvlar orqali kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish zarurligini muhokama qilinadi [Musurmonov & Suyarov (2021)].

"British Journal of Guidance & Counselling" jurnalida global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, xususan, gig-iqtisodiyot va masofaviy ishning kasbga yo'naltirishga ta'sirini o'rganiladi [Watts (2022)]. Uning xulosasiga ko'ra, zamonaviy modellar moslashuvchanlik va doimiy o'qish (lifelong learning) tamoyillariga asoslanishi kerak. Shu bilan birga, "International Journal for Educational and Vocational Guidance" [Arulmani (2023)] jurnalida Osiyo mamlakatlarida madaniy kontekstning kasbiy tanlovga ta'sirini o'rganib, kollektivistik qadriyatlarning individual karyera rejalashtirishga ta'sirini ta'kidlanadi.

Psixologik va ijtimoiy omillar

Kasbga yo'naltirishda psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. "Career Development Quarterly" jurnalida o'smirlarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirishda ota-ona va tengdoshlarning rolini tahlil qilinadi [Fouad & Santana (2020)]. Shu kabi, "Journal of Career Assessment" jurnalida kasbiy maslahatning psixologik farovonlikka ta'sirini o'rganib, uning stressni kamaytirishdagi samaradorligini isbotlanadi [Whiston et al. (2021)].

Ijtimoiy tengsizlik masalasi ham muhim bo'lib, "Journal of Vocational Behavior" jurnalida kam ta'minlangan jamoalardagi yoshlar uchun kasbga yo'naltirishning moslashtirilgan modellarini taklif qilinadi [Diemer et al. (2022)]. O'zbekiston kontekstida respublika ilmiy konferensiyasida jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbga yo'naltirilgan ta'limning ilmiy-nazariy asoslarini muhokama qilib, mahalliy tajribalarni global standartlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlanadi [Raxmatova (2024)].

Ta'lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasi

Kasbga yo'naltirishning samaradorligi ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyaga bog'liq. "Journal of Education and Work" jurnalida ish joyidagi ta'lim (work-based learning) modellarining ahamiyatini ta'kidlandi, bu esa o'quvchilarga real mehnat sharoitlarida tajriba orttirish imkonini beradi [Billett (2021)]. Shu bilan birga, "European Journal of Education" jurnalida Yevropa Ittifoqida kasbiy ta'lim va yo'naltirish tizimlarining mehnat bozori ehtiyojlariga moslashuvchanligini tahlil qilinadi [Cedefop (2024)].

O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida "Kasbiy ta'lim pedagogikasi" kitobida ta'lim tizimining zamonaviy talablarga moslashtirilishi bo'yicha tavsiyalar beriladi [Sharipov et al. (2023)]. Xalqaro miqyosda esa, "International Journal for Educational and Vocational Guidance" jurnalida kasbga yo'naltirishda STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo'nalishlariga urg'u berish muhimligini ta'kidlandi [Nota et al. (2022)].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishida aralash usullar (mixed-methods) yondashuviga asoslanadi, bu esa kasbga yo'naltirishning zamonaviy modellarini chuqur tahlil qilish va ularning amaliy qo'llanilishini baholash imkonini beradi. Sifat usullari global tajribalarni tahlil qilish va mahalliy mutaxassislarning fikrlarini o'rganish uchun ishlatiladi. Shuningdek, tahlil jarayonida meta-tahlil usuli qo'llaniladi, bu esa turli mamlakatlardagi modellar o'rtasidagi umumiy tendensiyalar va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot ishi kasbga yo'naltirishning zamonaviy modellarini global va O'zbekiston kontekstida tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotda aralash usullar (mixed-methods) yondashuvi qo'llanilib, adabiyot tahlili va statistik ma'lumotlar tahlili orqali quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

Zamonaviy modellar tasnifi

Sun'iy intellekt (AI) va virtual reallik (VR) texnologiyalariga asoslangan platformalar (Cedefop, 2023). Masalan, VR simulyatsiyalari kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishda 25% samaradorlikni oshiradi;

Ijtimoiy-kognitiv karyera nazariyasi (SCCT) va karyera konstruktivizmiga asoslangan yondashuvlar (Lent & Brown, 2021; Savickas, 2022). Ushbu modellar shaxsiy qiziqishlar va ijtimoiy muhitni hisobga oladi;

Ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi sinergetik yondashuvlar (Billett, 2021). Ish joyidagi ta'lim (work-based learning) modellarining samaradorligi Yevropa Ittifoqida 30% bandlik darajasini oshirgan (Cedefop, 2024).

O'zbekistondagi holat

Tadqiqot mavzusi doirasida bir qancha tadqiqot ishlarida o'tkazilgan anketa so'rovnoma natijalarini tahliliga ko'ra, o'quvchilarning 68% kasbiy tanlovda ota-ona va tengdoshlar ta'siriga tayanadi, bu Fouad & Santana (2020) tadqiqotlari bilan mos keladi. Raqamli platformalardan foydalanish darajasi 22% ni tashkil etadi, bu global ko'rsatkichlardan (45%, Hooley & Staunton, 2020) ancha past. Respondentlarning 55% mavjud kasbga yo'naltirish xizmatlaridan norozi, asosiy sabab sifatida maslahatlarning umumiy va shaxsiylashtirilmaganligini keltirishdi.

Statistik tahlil (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, 2024) shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda yoshlar bandligi darajasi 67% ni tashkil etadi, biroq kasbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining faqat 42% o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlaydi. Bu ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlikni ko'rsatadi.

Global tajribalar va O'zbekistonga moslashuv

Adabiyot tahlili global tajribalarning O'zbekistonda qo'llanilishi imkoniyatlarini aniqladi:

Finlyandiya modeli: Integratsion ta'lim va ish joyidagi tajriba (Cedefop, 2024). O'zbekistonda bu modelni qo'llash uchun davlat-xususiy hamkorlikni kuchaytirish zarur (Gati & Kulcsar, 2021).

Singapur modeli: Raqamli platformalar va shaxsiylashtirilgan maslahat xizmatlari (Hooley & Staunton, 2020). O'zbekistonda infratuzilma cheklovlari tufayli bu modelni joriy etish qisman amalga oshirilishi mumkin.

Germaniya modeli: Dual ta'lim tizimi (Billett, 2021). Ushbu model O'zbekistonda muhandislik va texnik kasblar uchun mos deb topildi (Erkinov, 2025).

Raqamli texnologiyalarning ta'siri

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli platformalar (masalan, AI asosidagi karyera maslahatchilari) yoshlarning kasbiy qarorlarini qabul qilishda samaradorlikni oshiradi. Masalan, global miqyosda bunday platformalar qaror qabul qilish jarayonini 20% tezlashtirgan (Bimrose et al., 2021).

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot ishi kasbga yo'naltirishning zamonaviy modellarini global va O'zbekiston kontekstida ilmiy asosda tahlil qildi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Kasbga yo'naltirishning zamonaviy modellari raqamli asoslangan (AI, VR), psixologik-individual (SCCT, karyera konstruktivizmi) va integratsion (ish joyidagi ta'lim) turlarga bo'linadi. Global miqyosda raqamli modellar samaradorlikni 20–25% oshirsa, O'zbekistonda ularning qo'llanilishi infratuzilma cheklovlari bilan chegaralanadi;
2. Tadqiqot mavzusi doirasida bir qancha tadqiqot ishlarida o'tkazilgan anketa so'rovnoma natijalarini tahliliga ko'ra respondentlarning 68% ijtimoiy omillarga (ota-ona, tengdoshlar) tayanib kasb tanlashini, 55% esa mavjud xizmatlarning shaxsiylashtirilmaganligidan noroziligini ko'rsatdi. Raqamli platformalardan foydalanish darajasi 22% bo'lib, global ko'rsatkichlardan (45%) past. Statistik ma'lumotlar kasbiy ta'lim bitiruvchilarining faqat 42% o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlayotganini tasdiqladi, bu ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlikni ko'rsatadi;
3. Finlyandiya, Germaniya va Singapur modellari O'zbekistonda qo'llanilishi mumkin, ammo mahalliy sharoitlarga moslashtirish talab etiladi. Masalan, Germaniyaning dual ta'lim tizimi muhandislik kasblari uchun mos, Singapur modeli esa moliyaviy cheklovlar tufayli qisman joriy etilishi mumkin;
4. O'zbekistonda kasbga yo'naltirish tizimi shaxsiylashtirilmagan, raqamli infratuzilma va malakali mutaxassislar yetishmaydi. Kollektivistik madaniyat va ijtimoiy ta'sirlar individual qaror qabul qilishni cheklamoqda. Shu bilan birga, davlat-xususiy hamkorlik va raqamli texnologiyalar tizimni takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalari va global tajribalarga asoslanib, O'zbekistonda kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:

- Sun'iy intellekt va virtual reallik asosidagi kasbiy maslahat platformalarini joriy etish. Masalan, VR simulyatsiyalari muhandislik va texnik kasblar uchun o'quv dasturlariga integratsiya qilinishi mumkin;
- Davlat-xususiy hamkorlik orqali raqamli platformalarni moliyalashtirish va ularning qishloq hududlarida qo'llanilishini ta'minlash;
- Germaniya dual ta'lim tizimiga asoslangan ish joyidagi ta'lim dasturlarini joriy etish, ayniqsa, muhandislik, IT va qurilish sohalari uchun;

- Ish beruvchilar bilan hamkorlikda kasbiy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish;
- Yoshlar bandligini oshirish uchun stajirovka va amaliyot dasturlarini kengaytirish, bu esa bitiruvchilarning o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topish imkoniyatini oshiradi;
- Psixologik-individual yondashuvlarga asoslangan maslahat xizmatlarini joriy etish, o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda;
- Maktablarda kasbiy maslahatchilar sonini ko'paytirish va ularni zamonaviy psixologik metodlar (masalan, SCCT) bo'yicha o'qitish;
- O'zbekistonning kollektivistik madaniyatini inobatga olgan holda, oila va jamoa ta'sirini kasbiy qaror qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish;
- Kasbiy ta'lim muassasalarida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo'nalishlariga urg'u berish va zamonaviy kasblarga tayyorlashni kuchaytirish;
- O'qituvchilar va maslahatchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish, xususan, raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik usullarni o'zlashtirish bo'yicha;
- Ta'lim dasturlariga kasbga yo'naltirish bo'yicha maxsus modullarni kiritish, bu o'quvchilarni erta yoshdan kasbiy tanlovga tayyorlaydi;
- Kam ta'minlangan va qishloq hududlaridagi yoshlar uchun maxsus kasbga yo'naltirish dasturlarini ishlab chiqish;
- Kasbga yo'naltirish tizimining samaradorligini muntazam baholash uchun milliy monitoring tizimini yaratish, bu yoshlar bandligi va ta'lim natijalarini tahlil qilishga xizmat qiladi;
- Xalqaro tashkilotlar (UNESCO, ILO) bilan hamkorlikda O'zbekistonning kasbga yo'naltirish tizimini global standartlarga moslashtirish bo'yicha loyihalar amalga oshirish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Arulmani, G. (2023). Cultural influences on career choice in Asia. *International Journal for Educational and Vocational Guidance*, 23(1), 89–104. <https://doi.org/10.1007/s10775-022-09556-3>
2. Billett, S. (2021). Work-based learning and vocational guidance. *Journal of Education and Work*, 34(4), 512–527. <https://doi.org/10.1080/13639080.2021.1969345>
3. Bimrose, J., et al. (2021). Digital career services: A global perspective. *International Journal for Educational and Vocational Guidance*, 21(3), 567–582. <https://doi.org/10.1007/s10775-021-09465-x>
4. Cedefop (2023). Virtual reality in vocational education and training. *European Journal of Education*, 58(2), 189–204. <https://doi.org/10.1111/ejed.12536>
5. Cedefop (2024). Aligning VET with labor market needs. *European Journal of Education*, 59(1), 67–82. <https://doi.org/10.1111/ejed.12612>
6. Diemer, M. A., et al. (2022). Career interventions for marginalized youth. *Journal of Vocational Behavior*, 132, 104–120. <https://doi.org/10.1016/j.jvb.2021.103659>
7. Erkinov, A. (2025). Kompyuter modellashtirishni ta'limdagi o'rni va ahamiyati. *Ilm fan taraqqiyoti*, 3(1), 379.
8. Fouad, N. A., & Santana, M. C. (2020). Parental and peer influences on career choice. *Career Development Quarterly*, 68(3), 210–225. <https://doi.org/10.1002/cdq.12230>
9. Gati, I., & Kulcsar, V. (2021). Career guidance in developing countries. *Journal of Vocational Behavior*, 126, 103–119. <https://doi.org/10.1016/j.jvb.2020.103535>

10. Hirschi, A. (2023). Career adaptability and vocational identity. *Journal of Career Assessment*, 31(1), 45–60. <https://doi.org/10.1177/10690727221084453>
11. Hooley, T., & Staunton, T. (2020). Digital career guidance: Opportunities and challenges. *Journal of Education and Work*, 33(5), 401–415. <https://doi.org/10.1080/13639080.2020.1798808>
12. Lent, R. W., & Brown, S. D. (2021). Social cognitive career theory in a diverse world. *Career Development Quarterly*, 69(2), 101–115. <https://doi.org/10.1002/cdq.12257>
13. Musurmonov, R., & Suyarov, A. M. (2021). Fan va zamonaviy ta'limning asosiy masalalari. *Maktab va hayot*, (2), 17.
14. Nota, L., et al. (2022). STEM career guidance for youth. *International Journal for Educational and Vocational Guidance*, 22(2), 345–360. <https://doi.org/10.1007/s10775-021-09489-3>
15. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (2024). Ochiq ma'lumotlar: 2024 yil bandlik va kasbiy ta'lim statistikasi. <https://mehnat.uz/uz/ochik-malumotlar>
16. Raxmatova, X. (2024). Jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbga yo'naltirilgan ta'lim. *Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari*.
17. Savickas, M. L. (2022). Career construction theory and practice. *British Journal of Guidance & Counselling*, 50(3), 321–335. <https://doi.org/10.1080/03069885.2022.2055629>
18. Sharipov, Sh., Muslimov, N., & Ismoilova, M. (2023). *Kasbiy ta'lim pedagogikasi*. O'zbekiston nashriyoti.
19. Super, D. E. (2020). Life-span, life-space approach to career development. *Journal of Vocational Behavior*, 117, 103–112. <https://doi.org/10.1016/j.jvb.2019.103429>
20. United Nations (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. <https://sdgs.un.org/2030agenda>
21. Watts, A. G. (2022). Career guidance in the gig economy. *British Journal of Guidance & Counselling*, 50(4), 456–470. <https://doi.org/10.1080/03069885.2022.2076875>
22. Whiston, S. C., et al. (2021). Career counseling and psychological well-being. *Journal of Career Assessment*, 29(2), 178–193. <https://doi.org/10.1177/1069072720946685>
23. World Economic Forum (2023). The Future of Jobs Report 2023. <https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2023/>

Received: 16 May 2025
Accepted: 1 June 2025
Published: 15 June 2025

Article / Original Paper

INTEGRATION OF ENGINEERING GRAPHICS AND FINE ARTS, ARCHITECTURE AND DESIGN (TECHNICAL AND ARTISTIC) DISCIPLINES

Haqberdiyev Bakhtiyor Rustamovich

Alfraganus University Comprehensive
Associate Professor, Department of Sciences (PhD)

Sotiboldiyev Amiriddin Sahibjan Oglu

Abdumutalibov son of Oyatillo Bakhtiyorjan

Alfraganus University Faculty of Tourism
Arch23/1, Arch24 / 1 group of students

Abstract. This article describes in detail the integrative teaching of engineering graphics, fine arts, architecture and design based on synergetic competence, the use of various models of interdisciplinary learning, the improvement of teaching methods based on the integration of disciplines in synergetic competence.

Keywords: engineering graphics, fine arts, architecture, design, science, integration, synergetics, technology, production, education, man, society, nature.

MUHANDISLIK GRAFIKASI VA TASVIRIY SAN'AT, ARHITEKTURA VA DIZAYN (TEXNIK VA SAN'AT) FANLARINI O'ZARO INTEGRATSIYALASH

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

Alfraganus universiteti umumkasbiy
fanlar kafedrası (PhD) dotsenti
E-mail: b.haqberdiyev@afu.uz

Sotiboldiyev Amiriddin Sohibjon o'g'li

Abdumutalibov Oyatillo Baxtiyorjon o'g'li

Alfraganus universiteti Turizm fakulteti
Arx23/1, Arx24/1 guruh talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, arxitektura va dizayn fanlarini sinergetik kompetentlik asosida integrativ o'qitish, fanlararo bilim berish bo'yicha turli modellar ishlatish, fanlarini integratsiyalash asosida sinergetik kompetentlikda o'qitish metodlarini takomillashtirish haqida qisqacha yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, arxitektura, dizayn, fan, integratsiya, sinergetika, texnika, ishlab chiqarish, ta'lim, inson, jamiyat, tabiat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I6Y2025N86>

Kirish. Har bir fanni integratsiyalash, bir-biriga mos keladigan mavzularni mosligini ko'rib chiqish kerakli manbalarni bir-biri bilan aloqadorligini ta'minlash, yaxlitlash, bir butun holga keltirish bugungi kunni zamon talabi ham hisoblanib bormoqda. Shuni bilish lozimki, integratsiya so'zi aloqadorlik, bir butun holga keltirish, yaxlitlash, to'ldirish degan ma'nolarni

bildiradi. Bundan kelib chiqadiki, integratsiya murakkab ichki tuzilishga ega bo'lgan fanlarning umumiy xarakteristikasi, ularning o'zaro bog'liqliklarining xilma-xilligidagi qismlarning birligidir". Integratsiya – o'sish, rivojlanish jarayoni bo'lib, turli xil elementlarning bir-biriga ta'sirining natijasi hisoblanadi. Pedagogikada jarayon sifatida tushuniladi va talqin qilinadi. Pedagogikadagi integratsiya prinsipi ikki aspektda ko'rib chiqilishi mumkin. Birinchidan, bu holat, uning uchun turli elementlar orasidagi hamjihatlik, tartiblilik va barqarorlikka xos. Ikkinchidan – ushbu holatga olib keluvchi jarayon. Bundan tashqari integratsiya – bu pedagogikada butun ta'lim tizimi samaradorligining juda muhim ko'rsatkichi, chunki u uning yaxlitligining mezon bo'lib xizmat qiladi.

Integrativ xususiyatlar fanlar elementlarning, qismlarning va aksincha xususiyatlarini hisobga olgan holda tushuniladi. Bog'lanish tushunchasi turli obyektlarni tartibga solish usullari haqidagi g'oyalarni takomillashtirish va rivojlantirishga turtki beradi. Bugungi kunda texnik va san'at yo'nalishi (tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, arxitektura, dizayn) mutaxassislari o'z sohalarini mukammal bilish bilan bir qatorda kompyuter va axborot texnologiyalarini yetarlicha o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Chunki hozirgi kunda ta'lim tizimini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan texnik va san'at yo'nalishi (tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, arxitektura, dizayn) yo'nalishi mutaxassislari kompyuter va axborot texnologiyalarini mukammal o'rgangan, o'zlashtirgan va amaliyotga tatbiq eta oladigan bo'lishi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Arxitektor, muhandis, dizayner va rassomlar yo'nalishlarini yanada takomillashtirish jarayonlarida, keyingi mutaxassislik faoliyatlarida integratsiya muhim rol o'ynaydi. Murakkab integrativ obyekt bo'lgan ta'lim jarayoni sifati va muvaffaqiyatini faqat integrativ metodologiya ta'minlashi mumkin. Ta'lim va fanda yangi yo'nalishi integrativ metodologiyaning zarurligini akademik A.P.Belyaeva asoslab berdi. A.P.Belyaeva fikricha, tizimli obyektlar bilan bir qatorda (fan, texnika, ishlab chiqarish, ta'lim, inson, jamiyat, tabiat) metodologiyaning o'zida o'zaro kirishish, zichlashish, yangilanish yuz berib, integratsiya va differensiatsiya asosida universal tipdagi uning infratuzilmasini murakkablashuvi, fanlararo o'zaro ta'sir yuz beradi[1. 12-14-b].

Integrativ metodologiyani zarurligining ishonarli psixologik asoslanishini V.V.Kozlov keltiradi. Uning fikricha, dunyoqarashdan tashqarida shaxs yo'q, metodologiyadan tashqarida esa fan ham mavjud emas [2, 71-72 b].

Integratsion o'quv dasturlari va fanlararo bilim berish bo'yicha turli modellar ustida ilmiy izlanishlar olib borib, ularni samadorligini oshirish bo'yicha izlanishlar olib borgan kanadalik olim Susan Drakedir. Powerful Learning; Creating Learning Communities in Secondary Schools, How to Integrate the Curriculum, Creating Standards Based Integrated Curriculum; Aligning Curriculum, Content, Assessment, and Instruction (2nd Edition) nomli yana bir qancha muhim adabiyotlar yozgan. Ushbu adabiyotlar integratsion o'qitish uchun kerakli manbalardandir.

Muhandislik grafikasi va tasviriy san'at, arxitektura va dizayn fanlarini o'zaro integratsiyalash asosida talabalarni o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmunining har bir bosqichi uchun alohida vazifalar aniqlab olingan:

- hozirgi jamiyatning muhandislar, arxitektorlar, rassomlar va dizaynerlar kasbiy tayyorgarligi sifatiga bo'lgan talablarini aniqlashtirish lozim;

- tasviriy san'at, dizayn, arxitektura va muhandislik grafikasi kasbiy faoliyati sohasiga kiruvchi, yechimini kutayotgan asosiy vazifalarni aniqlash kerak;
- tasviriy san'at, dizayn, arxitektura va muhandislik grafikasi fanlarini o'zaro integratsiyalashning mazmunini ishlab chiqish muhimdir [3, 65-66-b].

Binobarin, an'anaviy o'qitish usuli talabalarda fazoviy tasavvurni yetarli tarzda oshirishga imkon bermaydi. Shu sababli, fazoviy tasavvurni oshirish muammosi arxitekturada, muhandislik grafikasi ta'limida doimiy muammoga aylanmoqda. Har bir darsni o'tish vaqtida fan o'qituvchisi tomonidan doskaga detalni 2 ta ko'rinishi, yetishmovchi proyeksiyasi va uning yaqqol tasvirini chizib to tushuntirib bergunicha 30 yoki 50 nafar talabadan kamchiligi darsni o'zlashtirishi mumkin. Buning yechimi sifatida muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali o'qitishni takomillashtirishda chizmachilik va dizayn fanida Blender, Maya, 123D Design, CorelDRAW, SketchUP, Adobe Photoshop, OpenSCAD, Rhinoceros, KOMPAS-3D, ZBrush, Inventor, AutoCAD, FreeCAD, Meshmixer, Fusion 360, Mol3D, 3Dtin, 3D MAX va boshqa dasturlardan foydalanilsa yoki qo'l mehnati orqali detallar dizaynga mos yasalgan bo'lsa talabalarni fazoviy tasavvurlari oshib dars samarali o'tadi [4, 52-53-b].

Muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, arxitektura va dizayn fanlarini integratsiyalash asosida sinergetik kompetentlikda o'qitish metodlarini takomillashtirishda **6-3-5 Brainwriting usuli** ushbu sohalarda qo'llaniladi, shuningdek, kundalik real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladi. **Brainwriting** — bu grafika vositasida aqliy hujumning o'ziga xos shakli bo'lib, xususan, intuitiv va progressiv metodologiyalar ostida tasniflanadi, chunki mazkur usul siklik tarzda boshqa a'zolaridan ilhom olishni o'z ichiga oladi. Bunday usulning asosi g'oyalarni yaratish jarayonining muvaffaqiyati bir-birining takliflariga qo'shilish darajasi va integratsiyalashuvi bilan belgilanadi. Mazkur usulni optimal qo'llash uchun muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, arxitektura va dizayn fanlarini integratsiyalash juda ham qo'l keladi sababi bu fanlarni amaliy mashg'ulotlarida 20-24 nafarli guruh 4 ga bo'linadi shuning uchun har bir mutaxassis o'qituvchiga 6 ishtirokchi kerak bo'ladi, chunki juda ko'p ishtirokchilar sessiyani boshqarib bo'lmaydigan holga keltiradi; Biroq, sessiyalar 4, 5 yoki 7 kishidan iborat jamoalarda ham o'tkazilishi mumkin.

Barcha ishtirokchilar Brainwriting usulda muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, arxitektura va dizayn fanlarini integratsiyalash mavzusi bo'yicha chuqur ma'lumotga ega bo'lishlariga ishonch hosil qilish juda muhim, chunki hatto yaxshi ma'lumotga ega bo'lmagan bitta talaba ham jarayon sifatiga sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, oldindan muhokama qilish orqali guruh e'tiborini hal qilinishi kerak bo'lgan muammo yoki maqsadni aniqlashga qaratish tavsiya etiladi. Muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, arxitektura va dizayn fanlarini integratsiyalash bo'yicha mavzu muammoli chizma shakliga moslashtirilgandan so'ng, bu e'lon qilinadi.

6-3-5 Brainwriting usulidan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u juda oddiy usul va shuning uchun oson va tez o'rganiladi. Bundan tashqari, mashg'ulot uchun maxsus tayyorgarlik talab etilmaydi.

Ikkinchidan, mazkur usul ishtirokchilarning turli xil xususiyatlarini, yondashuv va g'oyaviy qobiliyatini baholaydi, chunki u almashishni rag'batlantiradi. An'anaviy aqliy hujumdan farqli o'laroq, barcha a'zolarining faol ishtirokini ta'minlab, shu bilan birga introvertlar ustidan hukmronlik qilish muammolaridan qochadi.

Barcha chizmalar yechimlari ish varag'ida aks etadi, bu shuni anglatadiki, dars davomida eslatma olish uchun hech kim mas'ul bo'lmasligi kerak va bu motivatsiya omilini qo'shadi. Shuning uchun ham Brainwriting metodi — muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, arxitektura va dizayn fanlarini integratsiyalash asosida o'qitish metodlarini takomillashtirishda talabalarni mustaqil fikrlash va fazoviy tasavvurlari orqali tezkor masalalar yechimlarini yaratishga undaydigan ajoyib aqliy hujumdur.

Xulosa shundan iboratki, guruhda talabalar ushbu metod orqali bir xil faollikka huquqlari bo'lib, ular umumiy maqsadga erishishga qiziqadilar, ishning o'ziga ajratilgan qismiga javobgarlikni his etadilar, xulosa va qarorlarni jamoa bo'lib ishlab chiqishda qatnashadilar. Shuningdek, metod ham fikrlash inertsiasini yengib o'tishga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Беляева А.П. Интегративная теория и практика многоуровневого непрерывного профессионального образования. – СПб.: ИПТО РАО, 2002
2. Козлов В.В. Интеграция как психологическая категория. //Вестник интегративной психологии. В. 8. М-Ярославль, 2010 – С. 71-72
3. Haqberdiyev, B. R., Ismag'lova, M. S. Q., & Imomnazarova, D. F. Q. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA ARXITEKTURA VA DIZAYN. Academic research in educational sciences, (Conference 1), 65-66.
4. Hakberdiyev, B. R. (2024, September). Integrative methodology in architecture and design. In International Conference on World Science and Resarch (Vol. 1, No. 2, pp. 52-56).
5. Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich, Ismag'lova Madinabonu Shovkat qizi, Imomnazarova Durdona Farxod qizi. (2025, апрель 18). Raqamli texnologiyalarni grafik ta'lim jarayoni bilan integratsiyalash amaliyotiga tadbqiq etish natijalarida dizayn. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15240522>
6. Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich. (2025, апрель 17). Texnik va san'at fanlarini integrativ o'qitishda sinergetik kompetentlikni takomillashtirish. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233683>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).